O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARNING SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

14-mart, 2026

Materials of the Republican scientific-practical conference “DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE SKILLS OF EDUCATORS IN THE EDUCATION SYSTEM”

Материалы Республиканской научно-практической конференции «РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ПЕДАГОГОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ»

Chirchiq – 2026

UO‘K – 37.013.2;004.89
KBK – 74.00;32.973.2
J – 13

“Ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Chirchiq. 2026-yil 14-mart. 770 bet.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida ta’lim sifatiga erishish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim tizimini takomillashtirish, ayniqsa pedagoglarning zamonaviy raqamli kompetensiyalarini, jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellektga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy, amaliy va metodik ishlar dolzarb hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar va izlanishlar ushbu respublika ilmiy-amaliy anjumanning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumanning maqsadi – ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellektga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy, metodik va amaliy asoslarini tadqiq etish hamda samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Anjumanning asosiy vazifasi pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha milliy tajribalarni shakllantirish va ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda tizimlashtirishdan iborat.

Ushbu to‘plamga kiritilgan maqolalarda ilgari surilgan xulosa va tavsiyalar anjuman maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirish hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

To‘plamda berilgan maqolalar haqqoniyligining javobgarligi mualliflar zimmasida.

Tahrir hay’ati:

1. Muxamedov Gafurdjan Israilovich – k.f.d., professor.
2. Eshchanov Baxodir Xudayberganovich – DSc, professor.
3. Tadjibayev Ikram Uralbayevich – DSc, professor.
4. Jabborova Onaxon Mannapovna – PhD, dotsent.
5. Ochilov Fariddun Izatulloyevich – PhD, dotsent v.b.

Taqrizchilar:

F.U.Jumanova – O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti provessori. P.f.n.
A.Yu.Kuchkinov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, P.f.f.d. (PhD).

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **2026-yil 16-yanvardagi 11-son** buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2-ilova “2026-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ning **86-bandiga** asosan o‘tkazilgan.

KIRISH SO‘Z

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, qadrli professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va aziz hamkasblar!

Bugungi kunda jahon ta’lim makonida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining turli sohalarga keng kirib borayotgani ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, pedagog kadrlarning zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ushbu jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Sun’iy intellekt endilikda faqat texnologik yangilik emas, balki ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, didaktik resurslarni boyitish, baholash mexanizmlarini takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarning sun’iy intellektga oid ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifasidir.

Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining yetuk mutaxassisi, balki innovatsion fikrlaydigan, raqamli vositalardan samarali foydalana oladigan, sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga maqsadli integratsiya qila biladigan kompetent shaxs bo‘lishi zarur. Chunki kelajak ta’limi an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmaydi; u kreativlik, moslashuvchanlik, tezkor tahlil, ma’lumotlar bilan ishlash madaniyati va texnologik savodxonlikni ham talab etadi.

Shu ma’noda, pedagoglarning sun’iy intellekt bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki ta’lim muassasalarining innovatsion taraqqiyotini ta’minlaydi, ta’lim jarayonining sifati va natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham pedagogik ta’limni modernizatsiya qilish, raqamli pedagogikani rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini yuksaltirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biz ta’lim tizimining ertangi kuni aynan bugungi pedagogning intellektual salohiyati, texnologik tayyorgarligi va innovatsion dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq ekanini chuqur anglaymiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu mavzu doirasida tashkil etilayotgan ilmiy-amaliy muloqotlar, fikr almashuvlar va ilg‘or tajribalar pedagogik hamjamiyat uchun yangi ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar hamda samarali hamkorlik istiqbollarini ochib berishiga ishonch bildiraman.

Barchangizga mazkur yo‘nalishdagi faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyat, ilmiy va ijodiy yuksalish tilayman. E’tiboringiz uchun rahmat!

Muxamedov Gafurdjan Israilovich,
O‘zbekiston Fan arbobi.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori,
kimyo fanlari doktori, professor,

YALPI MAJLIS

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING FUNKSIONAL ASOSLARI

Matchonov Sapa,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi professori, p.f.d.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida adabiyot mustaqil o‘quv fani sifatida o‘z statusiga ega bo‘lgani sababli boshlang‘ich ta’limda ham bolalar adabiyotini o‘qitish metodikasiga metodist olimlar mustaqil o‘quv predmeti sifatida qarash lozimligiilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash bosqichlariva usullari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, asar tahlili, ifodali o‘qish,asarning g‘oyaviy asoslari va mavzusi, obrazlar tizimi, sujet chizig‘i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalari, o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish.*

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlashni to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifasi o‘quvchilarda asarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O‘qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o‘zaro bog‘liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g‘oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog‘liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Tanlab o‘qish. Bunda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Tanlab o‘qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o‘qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlarini o‘stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehnini o‘stirishga yordam beradi. Eng oddiy tanlab o‘qish asar mazmuni yuzasidan bo‘ladi.

Tanlab o‘qish ongli va ifodali o‘qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga qo‘shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehnini o‘stirishga imkon beradi. Shuning uchun undan o‘qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o‘qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya’ni reja qismini topishda) qahramonga tavsif berish (matndan qahramonning muayyan bir xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materiallar

tanlash)da, asar g‘oyasini aniqlash (g‘oyani anglatgan o‘rinni topib o‘qish)da tatbiq etiladi.

2. O‘quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o‘z so‘zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g‘oyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan va muayyan izchillikda bo‘lishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo‘naltirilganiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinadi:

a) asar mazmunini o‘zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.

b) asar tilini o‘rganish va o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlash mumkin.

3. O‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish. O‘quvchilarning o‘zlarini ham savol tuzishga o‘rgatish lozim. Zero,to‘g‘ri qo‘yilgan masalaning o‘zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o‘quvchining dars mavzusi bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo‘l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o‘quvchini ongli va tushunib o‘qishga yo‘llaydi. O‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. O‘quvchilar matnni ongli o‘zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. Sh.Sa’dullaning ***“Qovun sayli”*** hikoyasi yuzasidan savol tuzish topshirig‘i quyidagicha beriladi:

− Hikoyadagi birinchi xatboshini o‘qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

− Hikoyadagi birinchi xatboshida qo‘llangan so‘zlarning ma’nosini izohlash bo‘yicha savol-topshiriqlar tuzing. (Bejirim, sertor so‘zlarining ma’nosini izohlang)

− Hikoya qahramonlari tabiati, boshqalar bilan munosabatlari yuzasidan savollar tuzing va shu kabilar.

Keyinchalik o‘quvchilar muhokama va ijodiy savollar berishni ham o‘zlashtirib oladilar.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o‘quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin: ***1) so‘z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.***

So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, unda manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. So‘z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o‘quvchi matnni, undagi voqea sodir bo‘lgan vaziyatni, qatnashuvchilarning tashqi ko‘rinishini, xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. So‘z bilan tasvirlashda so‘zlarni aniq tanlash talab qilinadi, bu esa o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o‘qituvchi turli maqsadlarda, chunonchi, reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlashda, voqea yuz bergan sharoitni aniqlashda foydalanadi. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o‘qituvchi matnning ma’lum qismidan o‘quvchilarga juda ma’qul bo‘lgan manzarani so‘z bilan yoki grafik tasvirlashni, unga muallif so‘zini tanlashni hamda turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko‘rinishini, voqea sodir bo‘lgan joylarni tasvirlashni topshiriq qilib berishi mumkin.

Matnni so‘z bilan tasvirlashga o‘rgatishni darslikda beriladigan rasmlarni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak. So‘z bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so‘ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan o‘rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o‘rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko‘riladi, ya’ni yozuvchi, shoir qo‘llagan lug‘aviy birliklarga o‘quvchilar diqqati tortiladi va ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so‘zni aniq tanlashga yordam beriladi.

4. So‘z bilan tasvirlashga o‘rgatishning dastlabki paytida xattaxtaga foydalaniladigan so‘zlar yozib qo‘yilishi zarur. So‘z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib qolmasligi lozim.

Grafik tasvirlash ko‘proq uyda bajariladi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o‘qib chiqadilar, mazmunini o‘zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda o‘quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma’nolar bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi. Rasmlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Har bir rasm muallifi o‘zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarda grafik tasvirlash sinfda ham bajartirilishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O‘quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo‘yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to‘liq qayta hikoyalash, shuningdek, o‘qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

5. Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o‘zaro bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo‘lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o‘rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo‘yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o‘rgatishda o‘qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta’kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining ikkinchi turi o‘qituvchi rahbarligida tanlab o‘qish hisoblanadi, bolalar matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topib o‘qiydilar.

Reja tuzish “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o‘tkazib boriladi. O‘quvchilar 1-sinfda o‘qilgan kichik matnga o‘qituvchi rahbarligida so‘roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o‘qituvchi rahbarligida so‘roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o‘qilgan matn rejasini jamoa bo‘lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmli reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o‘rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o‘zlari so‘z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o‘qiladi va qismlari bo‘yicha tahlil qilinadi, so‘ng o‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, o‘qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini

so‘raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi.O‘quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo‘yadilar. Ular qo‘ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi.

O‘quvchilar rasmli reja tuzishdan mantiqiy reja tuzishga o‘tadilar. Bunday reja tuzish quyidagi izchillikda o‘rgatiladi:

1. O‘qituvchi qismlarga bo‘lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o‘rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo‘yadi. O‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o‘qituvchi xattaxtaning o‘ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o‘qilgan matnning rejasi hosil bo‘ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g‘oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o‘qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo‘linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O‘quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo‘lish topshiriladi. Ular matnni o‘qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

4. Qismlarga bo‘linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O‘quvchilarga yuqoridagiday qismlarga bo‘lish topshiriladi. O‘quvchilar matnni o‘qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadantanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

O‘quvchilarda reja tuzish ko‘nikmasi hosil bo‘lgach, 3-, 4-sinflarda ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo‘ladilar, har bir qismga reja tuzadilar. Rejani darak va atov gap tarzida shakllantiriladilar, unda har bir qism bir turdagi gaplar shaklida bo‘lishi lozim.

Xulosa qilganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi va bilimini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘quv materialidagi asosiy va muhim jihatlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishda ularni matn ustida ishlashga o‘rgatish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari ularda tahlil ko‘nikmasini shakllantirishga ham alohida e’tibor berish lozim. Badiiy asar ustida ishlash jarayonida tahlil qilishning ahamiyati katta ekanligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Матжон, С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.

2. Зуннунов ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 332 б.

3. Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

4. O‘zbekiston Respublikasining Milliy o‘quv dasturi. – T.: 2020.

5. Йўлдошев Ж.Ғ. 1992 йил Ижодкор ўқитувчиларнинг 1-анжуманидаги нутқдан.

6. Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтения. – Учпедгиз, 1945. -Стр.125.

7. Жўраев К. Ифодали ўқиш ва ҳикоя қилиш. – Т.: Ўқитувчи, 1968. 7-9-бетлар.

GLOBAL EVOLYUTSIONALIZM DAVRIDA QADRIYATLAR

Mardonov Shukrullo Qo‘ldoshevich,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
Milliy instituti professori, p.f.d.

Annotatsiya. *Maqolada qadriyatlarning evolyutsion rivojlanish qonuniyatlari, ularning barqarorlik va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Global evolyutsionalizm konsepsiyasi asosida qadriyatlar tizimining yangilanishi, ijtimoiy ong va shaxs kamolotiga ta’siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim tizimida qadriyatlarni shakllantirishda integrativ yondashuvni qo‘llash zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *qadriyatlar tizimi, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy transformatsiya, globallashuv, madaniy integratsiya, shaxs kamoloti, aksiologiya, qadriyatlar evolyutsiyasi, madaniy identifikatsiya, ijtimoiy barqarorlik.*

Zamonaviy axborot tsivilizatsiyasi va global evolyutsionalizm davrida qiziqish, ehtiyoj hamda qadriyatlar nazariyasi alohida mohiyat kasb etadi.

Shaxsning qadriyatlar nazariyasi bilan boyitilish tendentsiyalarning tasdiqlanishini amerikalik olim Richard Shuerman konsepsiyasida ko‘rishimiz mumkin. Bu konsepsiya axborot tsivilizatsiyasining aniq belgilarini ko‘rsatib beradi, bunda yangi asrga o‘tish davrida ta’lim boshqalardan ilgarilab ketishi lozim. R.Shuerman konsepsiyasiga muvofiq ta’lim to‘rt yo‘nalishda o‘zgarishi kerak. ***Birinchisi*** – matematika va umuman fanlar bo‘yicha keng bilimlarga ega bo‘lishlik. ***Ikkinchisi*** – har tomonlama kompyuter ta’limini egallash. ***Uchinchisi*** – xorijiy tililarni o‘rganishning yo‘lga qo‘yilishi. ***To‘rtinchisi*** – xalqlar madaniyati bilan keng tanishuv.

Bunda har bir o‘quvchi sifatli ta’lim bilan ta’minlanishi lozim. Sifatli ta’lim deganda ma’lum qadriyatlar va bilim tushuniladi, bunda muhimi – har bir insonning shaxsiy qadr-qimmatini anglash g‘oyasi yotadi. O‘z shaxsiy qadr-qimmatini bilgandagina, demokratik g‘oyalarga sodiqlik namayon bo‘ladi. Shaxs qadr-qimmati shundaki, inson maqsadni ko‘zlay biladi va unga erishishga harakat qiladi. Bunda u o‘zining imkoniyatlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini yaxshi bilishi lozim.

R.Shuerman maktab ta’limida boshqa millat madaniyatiga asosiy urg‘uni berish lozimligini uqtiradi: insonni ushbu madaniyatni qadrlashga o‘rgatish kerak, chunki axboratlashgan jamiyat fuqarosi boshqa xalqlarning xalqaro millatlar hamjamiyatiga qo‘shgan hissasini tasavvur qila bilishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar maktablaridagi ta’lim va tarbiyaning hozirgi holatini o‘rganib, baholagan holda tadqiqotchi shunday xulosaga keladi: qaerda o‘qituvchilar jamoasi hayotiy qadriyatlarga ustuvorlik berishgan bo‘lishsa, o‘sha yerda o‘quv maskani ta’lim va tarbiyada yuqori samaradorlikka erishgan.

R.Shuerman ulardan ikki guruhni ajratadi: shaxsiy baxt, muvaffaqiyat, to‘g‘ri qaror qabul qila bilish qobiliyati, o‘z taqdiriga shaxsiy javobgorlikni his qilish kabilarga harakat qilish hamda jamiyatga xizmat qilishga harakat qilish, boshqa kishilarga nisbatan sabr-toqatli bo‘lish, Yerdagi barcha insonlar hamjihatligini hurmat qilish. Maktab bitiruvchisi yuqorida ta’kidlangan xususiyatlarni o‘zida jam qilgan holda u yana mustaqil fikrga ega bo‘lishga o‘rgatilishi lozim.

So‘nggi yillarda tabiiy ilmiy falsafiy adabiyotlarda global evolyutsionizm g‘oyasiga bilimlar integratsiyasi bloki sifatida e’tibor kuchayib bormoqda va unda,

birinchidan, xususiy ilmiy qonunlar sintezi bo‘lsa, ikkinchidan, umumiyga xos farazlar olg‘a surilmoqda.

O‘z atrofida kattagina tarfdorlarni to‘plab (N.N.Moiseev, G.I.Ruzavin, S.G.Pioktnovskiy, A.V.Dobryakova, Z.V.Kaganova), global evolyutsionizm g‘oyasi – xususiy ilmiy konsepsiyalar rivojlanishi, harakatlanuvchi kuchini aniqlash, turli jarayonlar evolyutsion mexanizmlarini umumlashtirish sifatida gavdalanadi.

Global evolyutsionizm g‘oyasi – dunyoqarashli va metodologik yuklamaga ega, qonunlar, printsiplar, farazlar, tushintirish jadvalari, modellari, mantiqiy konstruktsiyalar tizimi kabilarni o‘zida mujassamlagan konsepsiya qiyofasini oladi.

Bizning tadqiqotimiz uchun aksiologiyada tasdiqlangan insonga materiyaning oliy shakli sifatida hamda eng yuqori darajadagi ijtimoiy qadriyat sifatida qarash, katta qiziqish uyg‘otadi.

Inson fenomeni konsepsiyasini P.Teyyar de Sharden ishlab chiqib, prognoz qiladi – “...bir kun kelib insoniyat anglab yetadi, uning birinchi funktsiyasi (vazifasi) – bu kirib borish (ichiga kirib borish), intellektual birlashuv, uni o‘rab turgan kuchlarni tushunish va o‘ziga bo‘ysundirishi va shundagina uning uchun rivojlanish yo‘lidagi to‘qnashishi mumkin bo‘lgan tashqi xavf-xatarlar, chegaralar olib tashlanadi [1; 222-b.].

Bu muammolarni kompleks o‘rganishga P.Teyyar de Sharden, E.Lerua, V.I.Vernadskiylarnig ishlari asos soldi. P.Teyyar de Sharden falsafasi – bu birinchi navbatda tabiat falsafasi bo‘lib, naturalistik faylasuflarning an’analarini davom ettiradi.Insonni evolyutsiya subyekti, oliy qadriyat sifatida qabul qiluvchi gumanizm falsafasi bugungi kunda yanada rivojlanib bormoqda.

Shundaylardan biri – Rim klubidir (1968-yilda A.Pechchei tomonidan tashkil qilingan). Rim klubi 30 dan ziyod mamlakatlarning nadavlat, notijorat tashkilotlari olimlari, jamoatchilari, ishbilarmon doiralarini o‘z safida birlashtirgan bo‘lib, ular insoniyat kelajagi bilan qiziqadilar.

Hozirgi paytda Rim klubi a’zolari o‘z harakatlarini zamonaviy dolzarb muammolar yechimiga qaratib, yangi yo‘nalish ishlab chiqishgan – bu global modellashtirishdir. Bu loyiha tuzilishida katta o‘rin inson kelajagi, uning sifatlari hamda turmush tarziga berilgan.

Insonning agressiv bo‘lib tug‘ulishi, individning destruktiv (buzilish)likka moyilligi tezisini rad qilgan holda nazariyachilar global modellashtirishni madaniy rivojlanishdan og‘ishish sifatida qaraydilar, inson qalbida yaxshilik yotadi, zamonaiy jamiyatda insondagi mana shu yaxshilikni yuzaga chiqarishga o‘rgatish kerak.

“Xalqaro tartibni qaytadan ko‘rib chiqish” ma’ruzasida insonparvar hayotiy qadriyatlar va maqsadlar to‘g‘risidagi fikr yuritish punktida ta’kidlanishicha, dunyo hamjamiyatining fundamental maqsadi – “dunyo fuqarolariga munosib hayot va farovanlikka erishish”dir [2; 85-b.].

Yer yuzidagi barcha insonlarning farovonligi va munosib hayotini ta’minlash hamda har bir insonning uchlik (fuqaro - ishlab chiqaruvchi - iste’molchi) qobiliyatini amalga oshirish mumkin, agarda quyidagi insonparvar qadriyatlar hayotga tatbiq etilsa: dunyodagi barcha insonlarning tengligi va teng qadriyatliligi hamda o‘zgalarni kamsitish bilan kurashish zarurati; har bir insonning asosiy huquq va erkinligini tan olish va o‘zgalar erkin xohishini hurmat qilish; insonlarning iqtisodiy, siyosiy va jamoaviy hayotda ishtiroki va demokratiya; birdamlik, muhabbat va birodarlik hisini ko‘rsatish, umumiy qiziqish va hurmatni bildirish; insoniyat rivojining zaruriy tendentsiyasi sifatida madaniy turli-tumanlikni saqlab qilish, mamlakatlararo madaniy qadriyatlarni o‘zaro

almashinish, xalqlarning o‘ziga xosligini tan olish; sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash.

Xuddi shunday insonparar qadriyatlarni Rim klubi prezidenti A.Pechchei qo‘llab-quvatlaydi. U o‘zining “Inson sifatlari” nomli kitobida yuqorida zikr qilingan qadriyatlar va maqsadlarni talqin qilgan. Inson va olamni insonparvarlashtirish, uning fikricha, o‘tish davrini taqozo qiladi: insonning turli talablarini qanoatlantirish va uning “hayot sifatini” oshirish uchun iqtisodiy o‘sishdan rivojlanishga o‘tish; millat va xalqlarning bir-biridan ajralganligi, insonlarning tarqoqligidan o‘zaro bog‘liqlik va birdamlik, hamfikrlikka o‘tish; uzoqlashish, begonalashib ketish va passivlikdan jamoaviy ishlarda faol ishtirok etishga o‘tish; axloqiy inqiroz va siyosiy mas’ulyatsizlikdan axloqiylikka va ijtimoiy mas’uliyatli faoliyatga o‘tish; isrofgarchilikdan planetaning tabiiy resurslaridan tejamkor foydlanishga o‘tish.

A.Pechchei bo‘yicha, insoniyat zimmasiga oltita maqsad-vazifa yoki “missiya” yuklangan:

1) “tashqi chegara” – planetaning biofizik resurslaridan o‘z maqsadalarida oqilona foydalanish, tabiat garmoniyasini buzmaslik;

2) “ichki chegara” – insonning atrof-olamga jismoniy va ruhiy moslashuvi, ichki imkoniyatlarni izlab topish, individning fiziologik streslariga yo‘l qo‘ymaslik;

3) kelajakda ham insoniyat madaniyatini bir modelda boshqarmaslik, turli tillar, madaniyatlar, an’analar, qadimiy yodgorliklarni saqlab qolish;

4) o‘zaro bog‘langan yangi xalqaro tartib va tizimga asoslangan “dunyo jamoasini” yaratish, lekin turli gegrafik joylashgan markazlar orqali inson tashkilotlarining barcha jabhalarida qarorlar qabul qilish imkon yaratish;

5) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha dunyoviy ekologik reja ishlab chiqish orqali yashash joylarni saqlab qolish, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, aholi o‘sishiga ongli munosabat va b.;

6) “dunyo jamoasi” barcha iqtisodiy mexnizmlarini samarali faoliyat yuritish ta’minlash uchun dunyo iqtisod tizimini yaratishga imkon berish.

Isnoniyatning bu “missiya”lari, A.Pechchei bo‘yicha, dunyo institutlari va munosabatlarining yangi tuzilmalari uchun yaratilishi va u insonning o‘ziga xos holatiga mos kelishi hamda insonlarning yangi ijobiy sifatlarining doimiy ravishda rivojlanishi va takomillashib borishi lozim.

Rim klubi hamda uning vakillari ma’ruzalarida shunday umuminsoniy insonparvar ideali bo‘lgan insoniyatning hayoti va rivojlanishiga doir qadriyatlar doimiy ravishda mutafakkirlar tomonidan ilgari zamonda ham, hozirgi kunda ham ta’kidlanib kelinmoqda.

Bu falsafiy g‘oyalarni pedagogik naqtai nazardan aniqlashtirish mumkinmi? – Ha, mumkin, uning real mujassamlanganligini Valdorf maktabi (1919 R.Shteyner tomanidan yaratilgan maktab) timsolida ko‘rishimiz mumkin, bu maktabga bugungi kunda pedagogik jamoatchilik katta qiziqish bildirmoqda.

Bolani olamning buyuk qadriyati, deya doktor R.Shteyner [3] va uning tarafdorlari ta’kidlashadi: bolalik qadriyatini yuksakka ko‘tarishi, o‘qituvchining har bir individning nodirligini, ruhiy olamini tushinishi va qabul qilishi hamda insoniylikni, iqtidorini namayon qilishga yordamlashishi lozim.

Hozirgi vaqtda G‘arb insonshunosligida faol rivojlanib kelayotgan “yangi insonparvarlik” oqimi bola shaxsiga g‘amxo‘rlik munosabatda bo‘lishni targ‘ib qilmoqda.

Aksiologiyada dialektik-materialistik yondashuv falsafaning G‘arb insonshunosligi yo‘nalishi g‘oyalarini ham inobatga olmoqda.

Qadriyatli ong olamga subyektiv-ijodiy munosabat bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, u olamni subyekt-yaratuvchi prizmasi orqali ko‘radi. Shuning uchun ham qadriyatli ongning asosiy xususiyati ijodiy faoliyatning spitsifikasini ochishga yordam beradi. Dialektik-materialistik yondashuvga asoslargan fanda qadriyatlarning uch turi to‘g‘risida gapiriladi.

Birinchidan, u jamoaviy ong tomonidan ishlab chiqilgan ideal sifatida ko‘rinishi mumkin. Bunday qadriyatlar umuminsoniy (haqiqat, yaxshilik, go‘zallik) va konkret-tarixiy (monarxiya, sotsializm, proletriat diktaturasi) bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, qadriyat obyektiv shaklda - yoki material va ma’naviy madaniyat asari, yoki inson harakati, muomalasi sifatida namayon bo‘lgan holda jamoaviy idealning konkret gavdalanishi bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy-mohiyatli qadriyatlar individual hayot-faoliyati orqali, shaxsning psixologik tuzilmasiga shaxsiy qadriyatlar shaklida kiradi va uning xulq-atvori motivatsiyasi manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir insonga individual o‘ziga xos shaxsiy qadriyatlar xos bo‘lib, ular shaxsning ma’naviy olami hamda jamiyatning ma’naviy-madaniy olami, shuningdek, jamoaviy va individual borliq orasidagi bog‘lovchi zanjir bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, shaxsiy qadriyatlar yuqori onglilikni talab qiladi, ular ongda qadriyatli mo‘ljallar shaklida ifodalanadi hamda odamlar orasidagi doimiy o‘zaro munosabatlar va individ fe’l-atvorining ijtimoiy omili sifatida xizmat qiladi.

Qadriyatlar tizimi ushbu jamiyat tizimini yoki ma’lum madaniy muhitni tavsiflaydi, va u butun jamiyatning ma’naviyati natijalarini ko‘rsatadi [1; 169-b.]. Jamiyat qadriyatlari evolyutsiyasi doimiy ravishda yuz berib turadi hamda uning ustunligi va ierarxiyasi o‘zgarib boradi: ayrimlari qadrsizlanadi, yangilari paydo bo‘ladi.

Jamiyat qadriyatlar tizimi alohida shaxslar qadriyatlar mo‘ljalining shakllanish jarayoniga ta’sirini o‘tkazadi, ularning ongi va xulq-atvorida tasvirlanadi hamda avlodning qadriyatlar shkalasini yaratadi.

Ma’naviy qadriyatlar tizimining tarixiy-ijtimoiy tahlilining ko‘rsatishicha: *qadriyatlar tizimi keng ma’noda* – bu jamiyat madaniyatining ichki negizi bo‘lib, u ma’naviy olamning barcha doiralarini hamda jamoaviy ongning barcha shakllarini birlashtiradi; *qadriyatlar tizimi* – jamoaviy ongning barcha shakllarining amaliy ta’sirchan tomoni hisoblanadi. Qadriyatlar tizimida shaxsning olamni o‘zgartirishga tayyorligidagi va qat’iyatligida o‘z ifodasini topadi.

Qadriyatning aniq mazmuni kompleks g‘oyalar orqali ochib beriladi. SHu munosabat bilan qadriyatlar, qadriyatli mo‘ljallar doimiy harakatda: mos ravishda jamiyatga ham, tarixga ham, alohida insonga nisbatan ham bo‘ladi.

Ko‘pgina faylasuflar (A.G.Zdravomislov, V.A.Lektorskiy, G.G.Diligenskiy, P.S.Gurevich)ning fikricha, har qanday jamiyatdagi sakrashlar, keskin o‘zgarishlar yangi g‘oyalar paydo bo‘lganda emas, balki yangi qadriyatli mo‘ljallar paydo bo‘lganda yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М.: Наука, 1987.
2. Штейнер Р. Философия свободы. Электронные книги, 2022.
3. Здравомыслов А.Г. Потребности. Интересы. Ценности. – М.,1986. - 163 с.
4. Mardonov Sh.Q. Pedagogik aksiologiyaga kirish. – T.: Zebo print, 2023. -267 b.
5. Nazarov Q. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). – T.: Akademiya, 2011. -384 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HISSIY ZO‘RIQISHNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna,
Chirchiq DPU professori, p.f.d. (DSc).

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi, motivlar va emotsiyalarning rivojlanishi, emotsional zo‘riqishning sabablari keltirilgan. Xavotirlanish va xayajonni kelib chiqishi xolatlari tavsiflangan. MTT psixologi, tarbiyachi va ota-onalar uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir, ruxiy zo‘riqishni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *emotsiya, individ, shaxs, affekt, hissiyot, kayfiyat, stress, zo‘riqish, motiv, ehtiyoj, psixik, intensiv, xulq-avtor, kognitiv, kommunikativ, hissiyot, refleksiv, fobiya.*

Bola shaxsining tahlil qilish jarayonida uning individual va shaxsiy xususiyatlarni taqqoslash kerak. Ma’lumki, individual sifatlar tug‘ma qobiliyat va tepmerament bilan bog‘liq. Shaxsiy fazilatlar ijtimoiy muhit va kundalik hayoti davomida shakllanadi. Shuning uchun bolalarning qobiliyatini rivojlantirishda individual xususiyatiga tayangan xolda muloqot va faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z xohish va harakatlariga erishish uchun axloqiy motivlar “***Men o‘zim bajaraman***” tushunchasini ixtiyoriy ravishda yuzaga keltiradi. Axloqiy tuyg‘ular boshqa motivlarga qaraganda ko‘proq harakatlantiruvchi kuchga ega bo‘ladi. Bolalarning shaxsiy rivojlanishi ierarxik motivlar asosida ro‘y beradi. 3-4 yosh bolalarda o‘z-o‘zini anglash, “MEN” obrazi shakllanadi [1, 67-b.]. Ixtiyoriy ravishda impulsiv harakatlar amalga oshadi. 5-6 yosh bolalarda esa, bolaning ixtiyoriy xulq-atvorining ustunligi ongli ravishda namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yosh ixtiyorsiz harakatlar bilan tavsiflanadi, bu ularning xulq-atvorining nisbiy barqarorligini ta’minlaydi. Bolalarni xissiy jihatdan rivojlantirish va faollashtirish uchun o‘yin motivi boshqa bir qator motivlarga (kognitiv, kommunikativ) qaraganda ustunlik qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin aqliy va emotsional rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Bolalardagi xavotir, vahima va xayajonning kelib chiqish omillari quyidagilardan iborat:



Bolalik davrida o‘z-o‘zini anglash, o‘zini namoyon etish, shaxsiy sifatlari, qobiliyati, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik qadamlari rivojlanadi. Asta-sekin “MEN” konsepsiyasi namoyon bo‘ladi. Avvalo, 5-7 yosh bolalar o‘zini obyektiv belgilarga ko‘ra identifikatsiya qila oladi ya’ni jinsi, yoshi, yashash manzili va ijtimoiy munosabatlari haqida so‘zlab beradi. Bolada ijobiy sifatlar o‘ziga bo‘lgan emotsional munosabati, nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini farqlashi, yutuq va kamchiliklarini bilishi, o‘zini

odilona baholay olishi kerak. O‘z-o‘zini baholash yetarlicha barqaror va ba’zan anglamagan holda kechadi. Xayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, maqsadga intilish amalga oshirilayotgan faoliyatga bog‘liq.

Tarbiyachi-pedagoglar bolalardagi emotsional rivojlanishning dinamik tavsiflarni bilishi lozim. ***Birinchidan,*** bola impulsiv yoki spontan harakatda bo‘lishi mumkin, bunda vaziyatni oldindan baholab bo‘lmaydi yoki aksincha; ***Ikkinchidan,*** refleksiv ya’ni biror bir faoliyat bajarishdan avval, narsa-buyumlar yoki voqealar haqida mushohada yuritish; ***Uchinchidan***, o‘zgaruvchanlik, tez muddatda bir faoliyatdan, boshqasiga o‘tadi, kayfiyati ham tez o‘zgaradi, rigidlik yuz beradi. ***To‘rtinchidan,*** biror faoliya bilan uzoqroq mashg‘ul bo‘lsa, agar faoliyati tugallanmasa, boshqasiga qiyinchilik bilan o‘tadi.

Ba’zan bola atrofidagi odamlarga ekstravert yoki introvert holatda bo‘lishi mumkin, bu atrofidagi odamlar va vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularni begona odamlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatish kerak. Har bir insonda individual sifatlar mavjud bo‘lib, uning xulq-avtorini belgilaydi, atrofidagilar bilan muloqoti va o‘z-o‘ziga munosabati turlicha kechadi. Mazkur sifatlar bola shaxsi tuzilishining muhim sharti hisoblanadi. Bolalarning psixik rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar tajovuzkorlik va xavotirni yuzaga keltiradi. Jahldorlik yoki xavotir bola hayotida yuz beradigan salbiy xodisalar, unga qo‘yilgan cheklovlar natijasida paydo bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli faoliyatini tashkil etish va kerakli natijalarga erishish uchun tarbiyachi-pedagoglar, psixolog yordam ko‘rsatadi. Biroq kattalar tomonidan ko‘rsatilgan tajovuzkor xatti-harakatlar salbiy deviant xulq-atvor buzilishiga olib keladi, masalan: ortiqcha jismoniy yuklama, kun tartibiga amal qilmaslik, noto‘g‘ri turmush tarzi, qulay sharoit yaratmaslik.

Bolalarda agressiv xulq atvor yoki jahldorlik nizolarni keltirib chiqaradi, o‘z istagan narsalarga erishishga xavotirlanishdan jahl qiladi, ximoyalanish holati yuz beradi, natijada janjal va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari uchraydi. Xavtorlanish bola va uning atrofidagi yaqinlarini hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xavotir va vahima stress xolatida, muhim muammolarni hal etishda, o‘quv jarayonida yoki oilada namoyon bo‘ladi. Biroq, vahima psixik buzilishlar belgisi bo‘lishi mumkin, biroq, xavotir o‘tib ketmaydi va u kuchayishi mumkin. Bolaning kundalik faoliyati va hayot tarziga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Takroriy salbiy voqea va xodisalar kuchli xayajon xosil qilishi, qo‘rquv va salbiy hissiyotni keltirib chiqarishi mumkin. Bolalarda uchraydigan kuchli xayajon va xavotir ta’sirida muskullar zo‘riqishi, turlicha og‘riqlar, ko‘p terlash, yurak urishi tezlashishi, bosh aylanish, xavot yetmaslik, diqqat jamlanishida buzilishlar, uyqusizlik, o‘quv jarayonidagi passiv faoliyat kuzatiladi.

Xavotirlanish va xayajonni kelib chiqishi quyidagi xolatlar bilan tavsiflanadi: - oddiy hodisalar yoki hayotiy vaziyatlar, sog‘lik, oila, tengdoshlari va o‘yin jarayonidagi tortishuvlar va doimiy tashvishlanish; - doim qaytarilib turuvchi salbiy voqealar, kutilmagan nokulay vaziyat, janjal va nizolar; - ijtimoiy muhitdagi vaziyatlar, qo‘rquvni xis qilish va sotsiofobiya (ijtimoiy qo‘rquv), atrofidagi odamlar bilan munosabatdagi noqulay holatlar, atrofdagilarni salbiy baholashi, muloqotdan qochish; - ota-ona yoki yaqinlari (bobo, buvi, qarindoshlar)dan ayrilish.

Fobiya (qo‘rquv) fikrlarni biron bir ramka bilan chegaralamasdan, avvalo his-tuyg‘ular va tajribalarni anglatadi. Irratsional fikrlash o‘z-o‘zini anglashga va hissiyotlarga asoslangan impulsiv qaror qabul qilishga asoslangan. Bolada to‘satdan to‘g‘ri qarorni anglash, to‘g‘ri fikrning bir zumda paydo bo‘lishidir. Ayrim bolalar

xattoki insonlar xam balandlikdan, yopiq muassasa, samolyotda uchish, xayvon yoki xashoratlardan qo‘rqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir, ruxiy zo‘riqishni bartaraf etish uchun, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda ishlashi lozim. Eng muhimi bolalarda xulq-atvor terapiyasi o‘tkazilishi kerak. Ya’ni tafakkur, idroq va odob-axloq me’yorlarini shakllantirishdagi xatoliklar ustida korreksion ishlar olib borish zarur. Natijada bolalarda individual strategiya shakllanadi, qo‘rquv va xavotirni paydo qiluvchi voqea va hodisalarga bo‘lgan munosabatni o‘zgaradi.

Adabiyotlar taxlili va amaliyotdagi kuzatuvlarimiz asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir va vaxima, emotsional zo‘riqishni bartaraf etishda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tizimliravida jismoniy mashqlar bajarish, stressli vaziyatlarni oldini olish, sog‘lom ovqatlanish va to‘g‘ri uyquni tashkil etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бернс Р. Я-концепция и воспитание. - М.: Прогресс, 1986-209 с
2. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте: психологическое исследование. - М.: Просвещение, 1968- 297с
3. Выготский Л.С. Учение об эмоциях: историко-психологическое исследование: собр. соч. в 6 т. - М.: Педагогика, 1984-300с.
4. Сергиенко Е.А. Социально-эмоциональное развитие детей. Теоретические основы. - М.: Дрофа, 2019- 248 с.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT MOHIYATI

Djumayev Mamanazar Irgashevich,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti provessori.

Annotatsiya. *Sun’iy intellekt va virtual reallik texnologiyalari ta’lim jarayonini yangicha formatga o‘tkazish imkonini bermoqda. Ushbu texnologiyalar orqali interaktiv darslar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ta’lim samaradorligini yuqori darajaga ko‘taradi. Tadqiqot natijalari SI va VR texnologiyalarining interaktiv dars tashkil etishdagi samaradorligini amaliy jihatdan asoslaydi. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, vizual va hissiy jihatdan boyitilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni boshqa fanlar va bosqichlarda qo‘llash doirasini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kelajakda bu texnologiyalar yanada rivojlanib, ta’limning barcha jabhalarida keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Shu sababli, SI va VR texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kaliit so‘zlar. *raqamli talim, Sun’iy intellekt va virtual reallik, texnologiya.*

Zamonaviy sun’iy intellekt va virtual reallik texnologiyalariga asoslangan, kommunikasion darslar namunasini keltiramiz.

Mavzu: O‘tilganlarni takrorlash. Taqqoslash.


Darsning maqsadlari: 1) katta kichik, teng munosabatlari, qo‘shish va ayirishni tekshirish usullari, geometrik tasavvurlarni shakllantirish; 2) arifmetik amallarni’redmetlar orqali taqqoslash amal kom’onentlari orasidagi bog‘lanishlarga bog‘liq tarkibli masalalar yechish usullari. 3) Rejalashtirish bosqichida zarur bulgan fikrlash usullari..

Darsni loyihalash: analiz va sintez, umumlashtirish


Ko‘rgazmali material:

2) T’qqoslash belgilari: ☐ ☐ ☐

3) predmetlar orqali son va sanoq tushunchasini mustahkamlash




4) kesma tushunchasi orqali taqqoslash usullari:




0 1 2 3 4 5 6 7 8 9

5) Bilimlarni tekshirish:



2. Bilimlarni mustahkamlash.


Rasmga diqqat qiling, nima tasvirlangan?



– Nima qilish kerak? (‘redmetlar yordamida son va sanoqni taqqoslang.)

– To‘shiriqni qanday bajaramiz? (algoritmini aytamiz.)


– Kimda-kim qo‘l ko‘tarsa o‘qituvchi tahlil qilib savol beradi..



0 1 2 3 4 5 6 7 8 9

– Qaysi amallari bajardingiz? (Qo‘shish va ayirishni.)

Ushbu rasmga qarab mustaqil fikrlang, buni qanday bajarasiz?.



(Nima tasvirlangan, nima ko‘p yoki kamlini aytishadi.)


– Nimangi bajardingiz? (taqoslash algoritmini.)

– Endi tushuganingiz bo‘yicha arifmetik ifoda tuzamiz.

(Sonlar kassasidan sonlarni va amal belgilarini olib ifoda tuzishadi). Yaxshi ishtirok etga o‘quvchilar reyting bali e’lon qilinadi


5. Muammoli vaziyatlardan chiqish.

–Taqqoslay olasizmi.



– Ha.

Nechata olma bor? 9 ta:




– Nechata yulduzcha bo? (6 ta.)


– Nima ortib qoldi? (3 ta olma.)

– Qanday arifmetik amal bajaramiz? (Ayirishni hadlari orqali: 9 – 6 = 3.)


Juftalari nechata:



– tasma yordamida yo‘amiz.




– Tasma bilan har ikkalasini yo‘amiz.




– Taqqoslang qaysi biri uzun, qaysi biri qisqa?

– Nima uchun? (Olmalar yulduzchaga nisbatan ko‘p edi.)

Belgilang. Buni qanday ifodalaysiz?




– Ko‘p (uzun), Kam (qisqa) Tekshiring.



Tasmalar orasidagi farqni to‘ing?

– buni qanday bajarasiz?


Doskada rasmga qarab bir o‘quvchi bajaradi



– Uzunidan qisqasini ayiramiz. Buni qanday bajarasiz?

Doskada: **Uzun = Katta – qisqa.**


Demak, sxemada bajara olasizmi?– CHto vq tolg‘ko chto sdelali? (‘ostroili etalon.)




– Shunga doir chizma chiza olasizmi? Uzun qisqa tushunchasini kata, kichik munosabati bilan bo-lay olasizmi?

6. Mustaqil ish uchun topshiriqlar.


Amal bajarish qoidasini tushuntiring, nimaga asoslandingiz?



7. Qo‘shimcha to‘shiriqlar yakka tartibda o‘quvchilar bilan ishlash uchun.



Mulohaza qiling.



U = R

Dars namunasi keyingi mashg‘ulotlar uchun to‘liq yoritamiz




2-sinf matematika Sun’iy intellekt va virtual reallik texnologiyalari ta’lim darsning texnologik xaritasi.

Mavzu: 100 ichida sonlarning xona orqali o‘tib qo‘shish va ayirish

Mavzu: 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib og‘zaki va yozma qo‘shish hamda ayirish usullari.	1-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi. Tayyorlov bosqichida quyidagi tayanch bilimlar ishlab chiqiladi: a) ikki xonali sonni xona qo‘shiluvchilari ko‘rinishida yozi (23 = 20 + 3); b) yaxlit sonlarni qo‘shish (20 + 50 = 70); v) yaxlit sonlarni bir xonali songa qo‘shish (70 + 3 = 73). Barcha bu amallar 23 + 50 ko‘rinishidagi qo‘shishning tarkibiy qismi bo‘ladi. Shuning uchun, keltirilgan amallarni yaxshi bajarishga erishish zarur.
Darsning maqsadlari:	
Ta’limiy maqsadi:	Qo‘shish va fyirishning ustun shaklda bjarilishini o‘zlashtirishga erishishi.
Tarbiyaviy maqsadi:	Tarkibli masalar mazmunini turmush bilan bog‘lash;
Rivojlantiruvchi maqsadi:	Atrof muhit bilan bog‘liq matematik masalalrni idrok qilishga o‘rgatish
Darsning mazmuni, tushuncha va tayanch so‘zlar	- Qo‘shish va ayirish amallari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar. Qo‘shish va ayirish amallarining to‘g‘ri bajarilganligini tekshirish; - ikki amalli sonli ifodalarning qiymatini to‘ish; - ikki xonali sonlarni qo‘shish va ayirishni yozma hisoblash;

	- Matnli masalalar. Qo‘shish, ayirish, amallari mohiyatini ochuvchi matnli masalalar. “...ta ortiq”, “...ta kam”, “...marta ortiq”, “...marta kam” tushunchalariga doir masalalar.	
Rejalashtirilgan natijalar	Malakalar	O‘quvchilarni bilish faoliyati
	Tashkiliy qism	
Falar aro aloqadorligi	Ish turi	Materiallar
Matematika, mexnat, rasm, ... tabiatshunoslik, iqtisod, ...		Darslik, metodik qo‘llanma, ko‘zgazmalar, tarqatmali material,....
I-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi		
Maqsad: Darsda o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirish, ijodiy yondashtirish	Muammoli vaziyat:Berilgan hisoblash usuliga nazariy asos bo‘ladigan qo‘shish qonunlari bilan tanishish bosqichi. 1) 30 + 20, 60 - 20, 80 + 20, 100 - 30; 2) yig‘indining qo‘shiluvchilarini almashtirish qonuni; 3) 25 + 3, 3 + 25; 4) 50 + 23; 23 + 50; 5) 36 - 20; 36 - 4; 6) 26 + 4; 36 - 4; 7) 60 - 24; 8) 26 + 7; 9) 35 - 7; 10) ikki xonali sonlarni ustun shaklida qo‘shish; a) 45 + 23; v) 37 + 48, 37 + 53, 87 + 13; b) 57 - 26; g) 50 - 24; 52 - 24.	
II-bosqich. O‘quv-bilish faoliyati		
O‘rganish bosqichi	Bilim, tushuncha, “ko‘nikma”ga doir yangi bilimni o‘zalashtiruvchi va rivojlanitiruvchi tozshiriqlar	Diagnostik toshiriqlar:
1. O‘tilgandarni takrorlash		
Maqsad: 100 ichida o‘rganilgan usullar asosida sonlarni og‘zaki qo‘shish va ayirish	1-tozshiriq: “Bilim va ko‘nikma” 32 - 7;56 - 8;28 + 8;100 - 2. 2-tozshiriq: faolllashtirish 43 - 9; 83 - 6; 57 - 7; 100 - 6. 3-tozshiriq: bilish 53 -1 9; 83 -13; 57 - 17;100 - 6.	1) 30 + 20, 60 - 20, 80 + 20, 100 - 30; 2) yig‘indining qo‘shiluvchilarini almashtirish qonuni;
2. Qo‘shish va ayirishning xossalari		
Maqsad: - 100 ichida qo‘shish va ayirishda o‘rin almashti-rish xossasini qo‘llash;	1-tozshiriq: 27 + 44; “Bilim va ko‘nikma” 21 - 16; 2-tozshiriq: faolllashtirish 33 + 53; 3-tozshiriq: bilish 31 - 22	3) 25 + 3, 3 + 25; 4) 50 + 23; 23 + 50; 5) 36 - 20; 36 - 4; 6) 26 + 4; 36 - 4;
3. 100 ichida o‘nlikdan o‘tish bilan qo‘shish		
Maqsad: - 100 ichida o‘rganilgan usullar asosida sonlarni og‘zaki qo‘shish amallarini bajara olish;	1-tozshiriq: 57 + 16; “Bilim va ko‘nikma” 52 - 34;16 + 37; 2-tozshiriq: faolllashtirish 73 - 37 3-tozshiriq: bilish 38 + 25;45 - 18;94 - 76;54 + 28	ikki xonali sonlarni ustun shaklida qo‘shish; 60 - 24; 8) 26 + 7; 9) 35 - 7;
4. 100 ichida o‘nlikdan o‘tish bilan ayirish		
Maqsad: - 100 ichida o‘rganilgan usullar asosida sonlarni ayirish	1-tozshiriq: Hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu bosqichda mashqlar sonini oshirish nazarda tutiladi. Qolgan barcha hisoblash usullari ma’lum sxema asosida bajariladi. Ikki xonali sonlarni ustun shaklida qo‘shish va ayirish. 2-sinfda bolalar har qanday ikki xonali sonlarni ustun	45 + 23; 37 + 48, 37 + 53, 87 + 13; .

amallarini bajara olish; -	shaklida ko‘shish va ayirishni tez bajarishni o‘rganishlari kerak. Bu usula quyidagicha bajarilishi mumkin: 1) ikki xonali sonni xonadan o‘tmasdan qo‘shish (45 + 23); 2) ikki xonali sonni xonadan o‘tmasdan ayirish (57 - 26); 3) ikki xonali sonni xonadan o‘tibko‘shish (37 + 48); 4) ikki xonali sonni xonadan o‘tib ayrish (52 - 24). Ustun shaklida qo‘shish yig‘indiga yig‘indini qo‘shish qoidasiga asoslan bajariladi. 2-tozshiriq: faolllashtirish 60 + 8 =? Nihoyat 5 + 3 = 8, 40 + 20 = 60, 60 + 8 = 68 bajariladi: 1) O‘nlik ostiga o‘nlik, birlik ostiga birlikni yozamiz; 2) birliklarni qo‘shamiz: 5 + 3 = 8 3) unliklarni qo‘shamiz: 4 + 2 = 6 4) Javobni o‘qiymiz: oltmish sakkiz. Ikki xonali sonlarni ko‘shish va ayirishni qolgan hollari shunga o‘xshash bajariladi. Unda asosiy diqqatni o‘nlikdan o‘tib qo‘shishda dilda 1 ni saqlashni yoki unlikdan o‘tib ayrishda 1 ta o‘nlik qarz berib ustiga nuqta ko‘yishga qaratishlari lozim. 3-tozshiriq: bilish Hisoblash usulini sonli yozuvi: 23 + 50 = (20 + 3) + 50 = (20 + 50) + 30 = 70 + 3 = 73. Berilgan misolda qo‘shishni ketma-ket bajarishni bolalarni yodda saqlashlari bir oz bo‘lsada qiyinroq kechad. Bunday holda uchta tayanch so‘zdan foydalanamiz: almashtirish..., hosil qilamiz..., qulay.... Shuncha ko‘ra o‘quvchi: 23 ni 20 va 3 bilan almashtiramiz. (20 + 3) + 50 ni hosil qilamiz. 20 va50 ni ko‘shish qulay, ni hoyat yatmish uch hosil bo‘ladi.	
5.O‘zlashtirish faoliyatini sifat ko‘rsatkichlarini diagnostiksi		
Maqsad: - 100 ichida o‘rganilgan usullar asosida sonlarni qo‘shish va ayirish amallarini bajara olish; - 100 ichida sonlarni ustun shaklidagi qo‘shish va ayirishni amalga oshira bilish;	Yozma ish nazorti ishi; №!. 1). 28 + 34; 66 - 29. 2) Futbol maydonida «Bunyodkor» komandasidan 6 ta, ya’na shuncha «‘axtakor» komandasida o‘yinchi bor. Har ikkala komandada nechta o‘yinchi bor? 3) 20 + 75 + 5;4 + 39;50 - (8 + 8); 83 + 60 + 7 №2. 1) 83 - 45; 62 + 19. 2) Bahodirning qalamdonida 14 ta, G‘afurnikida esa 6 taga kam rangli qalam bor. Ikkalasida qancha qalam bo‘lgan? 3). 63 - 8; 60 - (9 + 9); 72 - 40 +8 Test;	
III-bosqich. Intellektual ijodiy faoliyat		

	Qutining massasi 2 kg, qutidagi olmaning massasi qutining massasidan 18 kg ga ortiq. Qutini olma bilan birgalikdagi massasini aniqlang. 
Maqsad: - 100 ichida o‘rganilgan usullar asosida sonlarni ustun shaklidagi qo‘shish va ayirishni amalga oshira bilish;	Natijali tozshiriqlar: Ko‘rgazmali tozshiriqlar:    Evrestik tozshiriqlar: Nazariy asoslashdan foydalanila hisoblash usullarini bajarilishi bolalarda muvaffaqiyatni kechadi dasturda bu koida yig‘indida ko‘shiluvchilarni o‘rnini almashtirish ko‘rinishida foydalaniladi.    O‘zini-o‘zi nazorat faoliyati 3. Hisoblash usuli bilan tanishish bosqichi: a) sanoq go‘plari yordamida bajarish; b) sxemalar bo‘yicha modellashtirish masalan, o‘nlik deb uchburak ichidagi o‘nta nuqtani joylashtirish mumkin. Keyinchalik uchburchak debo‘nli tushirish mumkin bo‘ladi:... + =... 23 50

IV-bosqich. O‘zlashtirish faoliyatini (baholash) reyting nazorati		
Nazorat turi: (Uy ishi)	Reyting nazoarti	
Qisqa yozuv yordamida masala	O‘zini-o‘zi baholash	Reyting baxolash
O‘qituvchi nazoratsh		

O‘quvchilar bilimini baholash uchun mustaqil ish topshiriqlari: № 69, № 47, № 70, № 60, № 30, № 71, № 75, № 73

Sun’iy intellekt va uning ta’limdagi roli. Sun’iy intellekt zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu texnologiya ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi asosiy yo‘nalishlari keltirilgan:

- individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish – sun’iy intellekt yordamida har bir o‘quvchiga mos keluvchi ta’lim dasturini ishlab chiqish va taqdim etish imkoniyati yaratiladi. Bu, ayniqsa, har bir o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga mos keluvchi moslashtirilgan ta’lim tizimini yaratishga yordam beradi;
- avtomatlashtirilgan baholash tizimlari – SI asosida ishlab chiqilgan test va imtihon tizimlari o‘quvchilarning bilimini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi. Bu o‘quvchilarning natijalarini aniq va tezkor tahlil qilishga yordam beradi;
- interaktiv o‘quv qo‘llanmalari – sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan o‘quv materiallari har bir o‘quvchining bilim darajasiga moslashtiriladi;
- virtual o‘qituvchilar va chatbotlar – sun’iy intellekt asosida ishlovchi o‘qituvchilar va yordamchi chatbotlar o‘quvchilarga 24/7 rejimida ta’lim olish imkonini

beradi. Ta’lim jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish – SI yordamida o‘quvchilarning bilim olish jarayoni doimiy monitoring qilinib, ularning qaysi yo‘nalishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlanadi va shunga qarab ta’lim metodlari takomillashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

2. Dzhumaev M.I. Competence-based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024

3. Djumaev M.I. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika, informatika jurnali /Toshkent 1 –son. 2024 / 148-165 b.

4. Djumayev M.I. Ta’lim sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxpxti.uz 1(5)2024 163-168 http://buxpxti.uz

YANGI O‘ZBEKISTONNING TA’LIM TIZIMIDA YANGICHA ISLOHOTLAR VA NATIJALAR

Lutfullayev Anvar Qudratovich,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor.

Annotatsiya: *Maqolada keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilganligi bayon etilgan. Shuningdek, pedagogik ta’lim sifatini oshirish va zamon talabi darajasida kadrlar tayyorlash jarayoni yoritilishi bilan bir qatorda mazkur masalani amalga oshirishda ta’limning uzluksizligini ta’minlash muhim ekanligini ta’kidlangan va bu jarayonda pedegog kadrlarni tarbiyalash vazifasiga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, pedagogik ta’lim, uzluksiz ta’lim, zamonaviy bilim, kasbiy-nazariy bilim, amaliyot, malakali kadr, sifat.*

Hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar natijasida o‘tgan qisqa davrda maktabgacha ta’lim, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi katta o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan shior asosida maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi. Insoniyat taraqqiyotiga nazar tashlansa, uning rivoji bevosita ta’lim, ilm-fan bilan bog‘liq ekani ko‘rinadi. Bularsiz hech bir soha rivojlanmagan, kashfiyotlar qilinmagan, zamonlar yangilanmagan bo‘lardi, balki. Asrlar o‘tsada, bu haqiqat o‘zgarmadi. Hozir ham dunyoning umumiy qiyofasi ilm-fan asosida takomillashib, o‘z shaklini belgilamoqda. Hatto, davlatlarning rivojlanganlik darajasi ulardagi ta’lim taraqqiyoti bilan baholanyapti. Shunga mos tarzda, jahonda ta’lim, ilm-fan sohalari shiddat bilan rivojlanishda davom etmoqda. Global rivojlanish esa sohada yangicha yondashuvlar, zamonaviy tendensiyalar, ilg‘or o‘qitish tizimlarini joriy etishga keng yo‘l ochmoqda.

Barcha soha va tarmoqlarda ulkan maqsadlar belgilangan. Ularni amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga, vatanparvarligiga bog‘liq. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etildi. Garchi yurtimizda uzluksiz ta’lim tizimi avvaldan yo‘lga qo‘yilganiga qaramay, sohaga haqiqiy ma’nodagi e’tibor, yangicha yondashuvlar, moliyaviy ko‘mak oxirgi yillarda, ayniqsa, keskin oshdi. Bugun buyuk allomalarni yetishtirgan ona zaminimizda ta’lim-tarbiya, ilm-fanni rivojlantirish eng muhim maqsadlardan biriga aylanib, bu boradagi islohotlar aniq harakatlar, huquqiy asoslarda namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham so‘nggi 5 yil davomida davlatimiz boyligi, birinchi navbatda, yosh avlod tarbiyasiga sarflanmoqda, ta’limni rivojlantirishga va moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun byudjetdan katta-katta mablag‘lar sarflanib, minglab davlat maktablari va minglab bog‘chalar rekonstruksiya qilindi hamda yangidan qurildi va qurilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham o‘tgan davr mobaynida oliy ta’lim tizimini takomillashtirishga asos bo‘la oladigan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu vaqtda mazkur tizimning tashkiliy, tuzilmaviy va huquqiy asoslari yangilandi, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi, akademik mustaqillik, oliy o‘quv yurtlarining huquqiy-tashkiliy turlari dunyo tajribasiga muvofiqlashib rivojlanishi kabi masalalar yechimini topa boshladi.

Bu kabi islohotlar o‘z navbatida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashni nazarda tutmoqda. O‘quv jarayoniga talabalarda mustaqil ta’lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar joriy qilindi.

Oliy ta’lim muassasalarining asosiy ish beruvchilar bilan o‘zaro hamkorligi har ikki tomonning maqsadlariga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Ushbu hamkorlik kadrlar buyurtmachilarining ta’lim dargohi bilan birgalikda o‘quv dasturlarini shakllantirish va zarur o‘quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlashda samarali ishtirok etish, bo‘lajak bitiruvchilar bilan faol tanishish, ularni amaliyotga jalb qilish va mavjud muammolari bo‘yicha loyihalarda qatnashish imkonini beradi. Shu bilan birga, OTM talabalari ilg‘or jamoalar ish jarayoniga qo‘shilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish hamda o‘z bilim ko‘nikmasini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim, kadrlar hamda metodika sohasini isloh qilish bilan birga, oliy ta’lim muassasalarda raqamlashtirish ishlari jadal amalga oshirib kelinmoqda. Chunki, raqamli texnologiyalar asosida yangi o‘qitish usullari, onlayn kurslar, vebinarlar va elektron ta’limning boshqa shakllaridan foydalanishni ta’minlash orqali ta’lim sifatini oshiradi. Bu talabalarga kengroq bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, shuningdek, kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. Ayni jarayon oliy ta’lim muassasalarda boshqaruvi shaffofligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar uchun axborot ta’minotini yaxshilashga ham yo‘l ochmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida Bosh qonunimizning 51-moddasi bo‘yicha qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar qatorida *“Oliy ta’lim tizimida ortiqcha qog‘ozbozlikka barham berish, professor-o‘qituvchilarning vaqtini ichki hujjatlarni to‘ldirishga sarflash bilan bog‘liq jarayonlarga barham berish choralarini ko‘rish”* qayd etilgan. Oliy ta’lim tizimida qog‘ozbozlik hamda ortiqcha yuklamani kamaytirish masalasining aynan Asosiy qonunda mustahkamlab qo‘yilgani bu boradagi sa’y-harakatlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 8-fevral soni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // www.ziyonet.uz.

TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKTNING IMKONIYATLARI

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich,
Chirchiq DPU, “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Anotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari, ularning pedagogik jarayonga integratsiyasi hamda o‘quvchilarning bilim olish faoliyatiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash vositalari va raqamli o‘quv platformalarining afzalliklari yoritilib, ularning individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish hamda zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, adaptiv o‘qitish, raqamli pedagogika, avtomatlashtirilgan baholash, ma’lumotlar tahlili, individual ta’lim, virtual o‘quv muhitlari, sun’iy intellekt asosidagi platformalar, innovatsiyalar.*

Kirish. Hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagogik muhitga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayon ta’limning innovatsion-adaptiv modelini shakllantirish, o‘quvchilarning individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash hamda kognitiv faoliyatni optimallashtirish bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt ta’lim sifatini oshirish, bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytirish va ta’lim jarayonini intellektual boshqarishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limni raqamlashtirishga

qaratilgan strategik farmon va qarorlarida ham mazkur yo‘nalish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim muhitida sun’iy intellekt imkoniyatlarini kompleks tahlil qilish hamda uning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat bo‘lib, bu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi, adaptiv o‘qitish modellari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va raqamli ta’lim muhitlarining didaktik imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy ta’lim muhiti, predmeti sifatida esa sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri va uning funksional imkoniyatlari belgilanadi. Mazkur tadqiqotda pedagogik tahlil, modellashtirish, empirik kuzatish va diagnostik monitoring metodlaridan foydalanish rejalashtirilgan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati sun’iy intellekt asosida ta’lim muhitini intellektuallashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda namoyon bo‘lsa, amaliy ahamiyati esa ta’lim jarayoniga AI texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish bilan belgilanadi. Muallifning konseptual yondashuviga ko‘ra, sun’iy intellekt ta’lim jarayonida faqat texnik vosita emas, balki intellektual-pedagogik hamkor sifatida faoliyat yuritib, ta’limni ma’lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqarish, individuallashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa kelgusida empirik tadqiqotlar doirasida sun’iy intellektning ta’lim natijadorligiga ta’sirini aniqlash va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natijalar. Mazkur tadqiqotda ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning nazariy-amaliy jihatlari kompleks tahlil qilinib, uning adaptiv o‘qitish, intellektual baholash va raqamli ta’lim platformalari orqali o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlandi. Empirik kuzatishlar va tajribalar natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo‘lganligi kuzatildi, shuningdek, avtomatlashtirilgan baholash va learning analytics vositalari o‘quv faoliyatini monitoring qilish hamda individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish imkonini berdi. Qo‘llanilgan ilmiy metodologiya (modellashtirish, empirik tahlil, diagnostik monitoring) o‘z samaradorligini ko‘rsatib, sun’iy intellekt va ta’lim natijalari o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsion bog‘liqlikni isbotladi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy nazariyalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, sun’iy intellektni faqat texnik vosita emas, balki intellektual-pedagogik hamkor sifatida talqin qilish imkonini berdi, bu esa konstruktivistik va adaptiv ta’lim nazariyalarini yangi bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot natijalari asosida sun’iy intellekt ta’lim jarayonini individuallashtirish, kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish hamda pedagogik boshqaruvni ma’lumotlarga asoslangan modelga o‘tkazishda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi; shu bilan birga, mazkur yondashuv kelgusida empirik tadqiqotlar doirasida sun’iy intellektning emotsional-aksiologik ta’siri va ijtimoiy kompetensiyalar shakllanishidagi rolini chuqurroq o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalasi konstruktivistik, kompetensiyaviy va adaptiv ta’lim konsepsiyalari doirasida keng o‘rganilgan. Ilmiy manbalarda sun’iy intellektning ta’limni individuallashtirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va bilimlarni baholashni avtomatlashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan bo‘lib, mazkur yondashuvlar raqamli ta’lim muhitini intellektuallashtirishga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili natijasida mavjud ilmiy

yondashuvlar, metodlar va nazariy konsepsiyalar umumlashtirilib, sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi imkoniyatlari aniqlandi.

Mazkur tadqiqotda metodologik asos sifatida pedagogik modellashtirish, kontent-analitik tahlil, empirik kuzatish va diagnostik monitoring usullari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim samaradorligiga ta’siri kompleks ravishda o‘rganilib, ularning kognitiv, operatsion va aksiologik komponentlarga ta’siri baholandi. Natijada, sun’iy intellektni ta’lim muhitiga integratsiya qilish orqali ta’lim jarayonini ma’lumotlarga asoslangan boshqarish, individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish va yangi ilmiy bilimlar yaratish imkoniyatlari kengayishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Muhokama. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiya qilinishi o‘quv jarayonini adaptiv va individuallashtirilgan model asosida tashkil etish imkonini berib, o‘quvchilarning kognitiv faolligi va ta’lim natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur natijalar ilmiy adabiyotlarda bayon etilgan adaptiv ta’lim va raqamli pedagogika konsepsiyalari bilan uyg‘un holda bo‘lib, ularni kengaytirish va amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida sun’iy intellektni faqat texnik vosita sifatida emas, balki ta’lim jarayonini optimallashtiruvchi intellektual-pedagogik mexanizm sifatida talqin qilish orqali yangi ilmiy yondashuv shakllantirildi.

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari va davlat miqyosida qabul qilingan strategik hujjatlarda ta’limni raqamlashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar bilan asoslanadi. Qo‘llanilgan metodologiya (modellashtirish, empirik tahlil, diagnostik monitoring) natijalarning ishonchliligini ta’minlab, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sirini ilmiy jihatdan isbotladi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida ta’lim jarayonini ma’lumotlarga asoslangan boshqarish, adaptiv o‘qitishni rivojlantirish va yangi empirik tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatlari kengaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish pedagogik jarayonni innovatsion-adaptiv asosda transformatsiya qilish, o‘quvchilarning individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirish va kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi; tadqiqot natijalari sun’iy intellektni faqat texnik vosita emas, balki intellektual-pedagogik hamkor sifatida qarash zarurligini asoslab, ta’limni ma’lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqarish, avtomatlashtirilgan baholash va adaptiv o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatdi hamda kelgusida uning kognitiv va aksiologik ta’sirini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan empirik tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: Farmon, 05.10.2020 y., PF-6079. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, 17.02.2021 y., PQ-4996. – Toshkent, 2021.
3. Xoliqov A.A. Raqamli ta’lim muhiti va uning didaktik imkoniyatlari. – Toshkent: Universitet, 2022. – 210 b.
4. Raxmonov Sh.B. Sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 180 b.
5. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 256 p.

6. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Harlow: Pearson Education, 2021. – 1136 p.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIM JARAYONIDA TERMIZIY ALLOMALARI MEROSIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Achilov Nuriddin Abdugafforovich,
TerDU, Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, p.f.f.d. (PhD), dotsent.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada global raqamlashtirish jarayonida buyuk Termiziy allomalari (Imom Termiziy, Hakim Termiziy va boshqalar)ning boy ma’naviy-ilmiy merosini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, an’anaviy ta’lim usullarini zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, multimedia vositalari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt vositalari bilan boyitishning amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan Hakim Termiziy asarlarini o‘quvchi-yoshlar ongiga singdirishda raqamli platformalarning o‘rni va ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, ilm al-osor, ilm al-roy, VR va AR texnologiyalari, kvest-o‘yinlar, tanqidiy fikrlash, infografika, video-art, wiki-sahifa, chatbotlar.*

Kirish. Ma’naviy yangilanish insonlar yashayotgan jamiyat va ular yashaydigan muhit ahvoli hamda darajasi bilan o‘lchanadi. Yangiliklarning paydo bo‘lishi, bevosita transformatsiya jarayoniga bog‘liq. Shu sababli hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida Termiz allomalari merosini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat tarixiy-ijtimoiy davrni tiklash, balki yosh-avlodning milliy o‘zligini anglash va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, milliy o‘zlikni anglash va raqamli madaniyatni shakllantirish. Hozirgi globallashuv davrida yoshlar turli va juda ko‘p axborotlar ta’sirida qolmoqda. Shu sababli, ulug‘ mutafakkirlar xususan, Termiziy allomalari (Hakim Termiziy, Imom Termiziy) merosini raqamli tarkibini tayyorlash. Bu raqamli tarkib yoshlarni ma’naviy immunitetni kuchaytiradi. Shuningdek, tarixiy haqiqat va ma’naviy-ma’rifiy meros raqamli makonda sifatli mazmunning taqdim etilishi, yoshlarning internetdagi yot g‘oyalarga qarshi ma’rifatparvarlik immunitetini oshiradi. Bundan tashqari, allomalarimiz ilmiy merosi va kashfiyotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali o‘rganish, yosh-avlodda ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini yanada mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, ta’lim sifatini oshirishda interaktiv vositalardan samarali foydalanish. Raqamli transformatsiya natijasida klassik ta’lim yangi bosqichga olib chiqiladi. Allomalar merosidan foydalanishda VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) kabi interfaol texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu texnologiyalar vositasida allomalar yashagan davr muhitini yoki ularning asarlaridagi ilmiy jarayonlar virtual sayohatlar orqali namoyish etiladi. Natijada, elektron kutubxonalar va ma’lumotlar bazasi shakllanadi. Shuningdek, noyob qo‘lyozmalarni raqamlashtirish va

ularni sun’iy intellekt yordamida qiyosiy tahlil qilish, o‘quvchilar va tadqiqotchilar uchun qulay qidiruv tizimlarini yaratish imkonini beradi.

Uchinchidan, allomalar ilmiy merosidagi metodologik qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish. Xususan, Termiziy allomalarining pedagogik ta’limotlari bugungi “tanqidiy fikrlash” (critical thinking) ko‘nikmasiga juda mos keladi. Ayniqsa, al-Hakim at-Termiziyning nafs tarbiyasi nazariyasi va ilm-nurdir ta’limoti, bugungi kunda “big data” (katta ma’lumotlar) bilan ishlash va axborotni filtrlash ko‘nikmalari bilan hamohangdir. Shuningdek, yoshlarda raqamli etika masalalarida Termiziy allomalarning insonparvarlik g‘oyalari yosh-avlodga internetdan foydalanishda xulq-atvor me’yorlarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning ahamiyati shundaki, raqamli transformatsiya natijasida pedagogik innovatsiyalardan foydalaniladi. An’anaviy ma’ruza usulidan raqamli vizual ta’limga o‘tishini ta’minlaydi. Zamonaviy dasturchilar va yosh tadqiqotchilar uchun Termiziy allomalari asarlarining mazmundorligi va ulardagi mantiqiy fikrlash namunalarini kompyuter tilida o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Yana bir e’tiborli jihati shundaki, allomalarimiz merosini global raqamli maydonga (Wikipedia, xalqaro ta’lim platformalari) sifatli kontent sifatida olib chiqish orqali O‘zbekistonning ta’lim salohiyati dunyoga namoyon etiladi.

Tahlil va natijalar. Qadimgi Termiz moziyning ko‘plab siru sinoatlarini o‘z bag‘rida pinhon tutadi. Ko‘plab tarixiy voqealarning guvohi bo‘lgan ko‘hna Termiz shahridan ulug‘ mutafakkirlar, allomalar va avliyolar yetishib chiqqan. Ular o‘zlarining yuksak ilmi, ma’naviy salohiyati va qimmatli asarlari bilan jahon ahlini lol qoldirishgan. Bu haqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Surxondaryo nafaqat tabiati go‘zal zamin, balki ruhi baquvvat, g‘ayrati baland, oriyati mustahkam insonlar yurtidir. Surxonni rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning janubiy tayanch ustunini mustahkamlash demakdir*”* - deb ta’kidladi. [1;1] Shu maqsadda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonida Termiziy allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Termiz shahridan juda ko‘plab mutafakkirlar, ilm-fan peshvolari yetishib chiqqan. Ana shunday allomalardan biri “Hakimiya” tariqatining asoschisi vatandoshimiz al-Hakim at-Termiziydir. Uning ilmiy pedagogik merosini o‘rganish asosida yosh avlodni boy ma’naviy merosimizga yuksak hurmat, ehtirom va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Allomaning tavalludi va hayoti sanalari masalasi uzoq yillardan buyon turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Islom dunyosiga mansub olimlar orasida ko‘proq Tojiddin as-Subkiy ma’lumotiga asoslanib, alloma vafotini milodiy 898-yil (milodiy 285-yil) sanasi bilan belgilash qabul qilingan. Olimlarning fikri va manbalarning qiyoslab o‘rganish natijasida Hakim Termiziyning tavallud sanasi 809-810-yillar, vafot sanasi 898-909-yillar oralari, - degan fikr haqiqatga yaqin [2; 31.].

Alloma yoshlikdan bilim olishga, qunt bilan ilm egallashga ishtiyoqi baland bo‘lgan, sabot bilan bilim olishni o‘zining asosiy vazifasi, deb bilgan. Alloma bu haqda “Badv ush-sha’n Abu Abdulloh” (“Abu Abdullohning hayot yo‘li”) asarida quydagicha ta’kidlaydi: “sakkiz yoshda bo‘lganimda barchaning shafqatli va mehriboni bo‘lmish Alloh taolo o‘z inoyatini mendan darig‘ tutmadi. Shayx menga ilm sirlarini o‘rgatib, tinmay ilm olishni targ‘ib qilardi va bu ish shu darajaga yetib bordiki, butun vujudim ilan saboq olishga intildim. Go‘daklik chog‘imdanoq o‘yin o‘rnini kitob mutolaa qilish mashg‘uloti egalladi. Shu tariqa yoshlikdan ilm al-osor hadis ilmini va ilm al-roy (hanafiy fiqh)ni boshlagan edim” [3; 108-b]. Bu ma’lumotdan shuni anglash mumkinki,

ilm egallash, unga bo‘lgan mehr va ilxaqlik allomani bilim cho‘qqisiga yoshlikdan yetaklaydi. Bu jiddi-jahd va tinimsiz harakat, shubhasiz, ibrat namunasi bo‘la oladi va yoshlarni ilmga chanqoqlik va muhabbat ruhida tarbiyalashda dastur vazifasini bajaradi.

Al-Hakim at-Termiziy ilm egallash maqsadida olis yurtlarga borib o‘sha davrning yirik ilm-fan markazlari hisoblangan Bog‘dod, Basra, Kufa, Damashq, Makka, Madina, Nishopur va boshqa shaharlarda bo‘ladi. U yerda ulug‘ olimlar va mutafakkirlar bilan tanishib, ular bilan muloqotga kirishadi. Natijada, turli bilimlardan amaliy tajriba orttirib komillik darajasiga yetishadi. Bu ma’lumot ham yoshlarni bilim olishda turli xorijiy mamlakatlardan borib ilm egallashlariga turtki bo‘ladi.

Istiqlol moziy qatida anglab yoki anglanmay yotgan umumbashariy qadriyatlarimizni tiklash, teran ma’naviyatimizni o‘rganish uchun keng yo‘l ochdi. Ayniqsa, buyuk mutafakkirlar hayot yo‘li va ijodiy faoliyatini tadqiq etish va yozgan asarlarini o‘rganish imkoniyatini berdi. Jumladan, Shayx Muhammad Yusuf, U.Uvatov, J.Omonturdiyev, M.Kenjabek, I.Usmonov, B.Murtazayev, T.Annayev, J.Mirzo, Z.Choriyev, Q.Qodirova, A.Qodirova, A.Samiyev, J.Cho‘tmatovlarning alloma haqidagi tadqiqotlari va asarlarining tarjimalari keng ommalashtirildi. Alloma yaratgan asarlardan ellik beshtasi bizning zamonamizgacha bezavol yetib kelgan, ular dunyoning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanmoqda. Shu o‘rinda, alloma kitob mutolaasidan ruhiy madad oladi, o‘zida ichki bir qoniqish hissini tuyadi, ko‘p sirlarning tagiga yetadi. Bu haqda uning qabr toshida: “qiynalgan paytlarimda kitoblarim menga taskin berar edi”, - degan so‘zlari muxrlangan. Yana bir ma’lumot, ilmning nur, deb ta’riflagan Hakim at-Termiziy shu nur – ilm insonni Alloh vasli tomon yo‘naltirishini bot-bot uqtiradi. Xususan, alloma “Kitob al-huquq” (“Zimmadagi haqlar”) asarida “Alloh taolo eng avvalo ilmni yaratgan, ilmdan esa donishmandlik (hikmat)ni vujudga keltirgan, donishmandlikdan bo‘lsa, adolat (adl)ni va haq (haqiqat)ni paydo qilgan”, - deb yozadi [3; 58-b.].

Alloma “Navodir al-usul” asarida: “Insonning umidsizlikka tushishi, bu uning ilmni chuqur egallamaganidadir” - deydi. Bu hikmatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ilmsiz inson vaqtini zoye ketkazib, bekorchilikdan tushkunlikka tushadi. Agarda u kitob o‘qisa, ilmni egallasa hech qachon tushkunlikka tushmaydi. Ilm, doimo yo‘lchi yulduz kabi insonni yorug‘likka yetaklaydi.

Amaliy tavsiyalar. Raqamli transformatsiya sharoitida Termiziy allomalar merosini ta’lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat ma’naviy, balki texnologik yondashuvni ham talab qiladi. Bu borada quyidagi ***amaliy tavsiyalar***ni hayotga tatbiq etish mumkin:

1. Raqamli kontent yaratish va multimedia tayyorlash. Bunda Termiziy allomalarining asarlaridagi murakkab tushunchalarni yoshlar uchun quyidagi shakllarga keltirish maqsadga muvofiq*:* - *interaktiv infografikalar:* Hakim Termiziyning “Nafs odobi” yoki “Nafs riyozati” asarlaridagi asosiy g‘oyalar vizuallashtirilgan sxemalar ko‘rinishida tayyorlanadi; - *audio-platformalar:* “Navodir al-usul” hadislarini va ularning zamonaviy hayotdagi sharhlarini o‘z ichiga olgan podkastlar turkumini yaratish; - *video-darslar:* Hakim Termiziyning hayot yo‘li va ilmga qo‘shgan hissasini hikoya qiluvchi 2-3 daqiqalik “Hakim Termiziyning ilm yo‘li” mavzusida roliklar tayyorlash.

2. Mobil ilovalar yaratish va Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasidan foydalanish. Ta’limni samarali tashkil qilish uchun zamonaviy o‘yin texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi. Bu, o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Masalan: - *“Al-Hakim at-Termiziy ta’limoti” mobil ilovasi:* Bu ilova orqali o‘quvchi-yoshlar allomaning asarlarini o‘qishi, test topshirishi va reyting to‘plashi mumkin; **-** *VR (virtual reallik) va*

AR (kengaytirilgan reallik) kabi ekskursiyalar: Mazkur texnologiyalar yordamida Termizdagi tarixiy obidalar (Hakim Termiziy maqbarasi) bo‘ylab virtual sayohatlar tashkil etish; - *Kvest (sarguzasht) – o‘yinlar:* Tarbiya, Tarix va kelajak soati darslarida Hakim Termiziyning asarlaridagi hikmatlar asosida tuzilgan raqamli mantiqiy o‘yinlardan foydalanish.

3. Sun’iy intellektdan foydalanish va ma’lumotlar bazasini yaratish. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqotlar olib borishda va ta’lim sifatini oshirishda Sun’iy intellekt (AI) imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Jumladan: - *Smart-qidiruv tizimi:* Hakim Termiziy asarlari joylangan maxsus bazada kalit so‘zlar bo‘yicha (“odob”, “ilm”, “nafs tarbiyasi”) tezkor qidiruv beruvchi sun’iy intellekt chatbotini yaratish; - *Elektron lug‘atlar:* alloma asarlarda uchraydigan murakkab terminlar va tushunchalarning zamonaviy izohli raqamli lug‘atini shakllantirish.

4. O‘quv jarayoniga integratsiya qilish. Yaratilgan quyidagi kontentlarni ta’lim jarayoniga qo‘llash o‘zining natijasini beradi: - Tarix va Tabiiy fanlar darslarida allomaning dunyo ilm-faniga ta’sirini ko‘rsatuvchi interaktiv xaritalar bilan ishlash; - Tarbiya va Kelajak soati darslarida alloma asarlari va hikmatlardagi axloqiy me’yorlarni zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar odobi bilan qiyosiy tahlil qilish; - Mustaqil ta’lim topshiriqlarida o‘quvchi-yoshlar tomonidan allomalar merosi bo‘yicha Wiki (veb sayt) - sahifalar yoki blog-postlar yaratish.

Raqamli transformatsiya sharoitida Termiziy allomalar merosini o‘rganishni “shunchaki o‘qish” emas, balki “interaktiv tajriba” darajasiga ko‘tarish lozim. Bu yoshlarning ajdodlar merosini o‘rganish, milliy iftixor va milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini tabiiy ravishda oshiradi.

Xulosa. Raqamli transformatsiya sharoitida Termiziy allomalar merosidan foydalanish bo‘yicha olingan tahlillar bo‘yicha quyidagicha ***xulosa*** bermoqchimiz:

- Termiziy allomalari (Imom Termiziy, Hakim Termiziy) merosi nafaqat diniy-ma’rifiy, balki bugungi raqamli jamiyat uchun zarur bo‘lgan ma’rifatparvarlik va ma’naviy immunitet vazifasini o‘taydi [4; 58-b];

- Raqamli transformatsiya ushbu merosni qog‘oz shaklidan interaktiv, universal va oson o‘zlashtiriladigan shaklga o‘tkazish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi;

- Hakim Termiziy asarlaridagi insonparvarlik g‘oyalar (ilmga tashnalik, odob, halollik) raqamli vositalar (infografika, video-art, chatbotlar) orqali yoshlarning vizual idrokiga moslashtirilishi o‘quv samaradorligini oshiradi;

- Raqamli platformalar (mobil ilovalar, elektron kutubxonalar) Termiziylar merosini faqat mahalliy darajada emas, balki jahon miqyosida ommalashtirish va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan integratsiya qilish imkonini beradi;

- Hozirgi globallashuv sharoitida, milliy-ma’naviy qadriyatlarning raqamli kontent sifatida taqdim etilishi o‘quvchi-yoshlarda axborotlarni saralash madaniyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyevning Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan yig‘ilishidagi nutqi, 27.02.2026.

2. Choriyev Z. va b. Al-Hakim at-Termiziy. - T. “Yangi asr avlodi”, 2008. -161 b.

3. Tursunov S., Murtazoyev B. Termiziylarning ilmiy tafakkuri. – T.: O‘zbekiston, 2016. - B.58.

4. Achilov N.A. Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma’rifat-parvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan.bo‘y.fal.dok.... diss. – Termiz, 2020. - 173 b.

TALABALARDA RAQAMLI KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Eshimov Raxmon Rahmonovich,
Toshkent DIU Samarqand filiali “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada Yevropa, AQSh, Kanada va Osiyo mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarida raqamli kompetentlikni rivojlantirishga oid ilg‘or yondashuvlar, bo‘lajak muhandis-pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirishning bosqichlari, pedagogik vositalari va didaktik mexanizmlari tahlil qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *raqamli kompetentlik, elektron ta’lim resurslari, muhandis-pedagog, oliy ta’lim tizimi, elektron ta’lim muhiti.*

Xorijiy tajribani o‘zimizning oliy ta’lim tizimiga moslashtirish raqamli kompetentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etishga imkon beradi. Jumladan, elektron ta’lim resurslarini yaratish, zamonaviy pedagogik dasturlardan foydalanish va raqamli baholash tizimlarini takomillashtirish orqali ta’lim sifati oshadi.

Biz o‘z tajribalarimizni talabalarda raqamli kompetentlikni aynan “Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar” faniga moslashtirish sharoitida o‘rganib chiqdik. Elektron ta’lim platformalaridan foydalangan holda ushbu fan bo‘yicha darslarni, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish interaktiv elektron o‘quv materiallari, jumladan algoritmlarni vizual modellashtiruvchi animatsiyalar, dasturiy muhitlar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o‘qituvchining didaktik raqamli vositalarini yangilash, shuningdek, “Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar” faniga mos raqamli ta’lim muhitini loyihalashni talab etadi.


C.Redecker o‘z ilmiy izlanishlarida raqamli kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Olim oliy ta’limda raqamli kompetentlikni shakllantirish shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv ta’lim muhitini yaratish bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, elektron ta’lim resurslari va raqamli platformalardan samarali foydalanish talabalarning ijodiy va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

N.Shopulatovaning “The Role of Digital Technologies in Modern Pedagogy” tadqiqot ishida raqamli texnologiyalarni zamonaviy pedagogik yondashuvlarga integratsiya qilish, o‘quv natijalariga ta’siri va raqamli didaktika vositalarini ta’lim jarayonida samarali tatbiq etish masalalarini yoritadi [2].

E.J.Turdiyev., U.E.Turdiyevalarning “Texnologiya fani o‘qituvchisining Rraqamli kompetentlik modeli” nomli maqolasida texnologiya fanini o‘qituvchi uchun raqamli kompetentlik modelini ishlab chiqish zaruriyati, uning komponentlari, bilim-ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishlari hamda baholash usullarini tahlil qiladi [3].

Bo‘lajak muhandis-pedagogning raqamli kompetentligini rivojlantirishda ma’lumotlar tuzilmalari va algoritmlashga yo‘naltirilgan holda umumiy foydalanuvchi, umumpedagogik hamda fan-ta’limga oid raqamli kompetensiyalar majmuasi orqali tavsiflanadi. Ushbu kompetensiyalar uch bosqichda rivojlanadi: boshlang‘ich (asosiy maqsadlarni anglash), amaliy (raqamli vositalardan foydalanish) va yuqori (raqamli transformatsiya). Ular bo‘lajak muhandis-pedagogning kognitiv (algoritmik tafakkur),

funksional (amaliy dasturlash) va ijodiy (algoritmik yechimlar ishlab chiqish) jihatlarini qamrab oladi. (1-rasm).




1-rasm. *Raqamli kompetensiyalarni rivojlanishining uch darajasi.*

Bo‘lajak muhandis-pedagoglar raqamli kompetentliligining ko‘rsatilgan darajalari asosida biz mavjud vaziyatni o‘rganib chiqdik va talabalarning o‘z ishlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga umumiy tayyorligini aniqladik. Kelajakda bu bizga talabalarning raqamli kompetentliligini shakllantirish vositalari haqida gapirish imkonini beradi.

Ushbu uch daraja doirasida 1-bosqichda talablarning algoritmik fikrlashning boshlang‘ich darajasi, raqamli vositalardan ongli foydalanish ehtiyoji, kognitiv (bilimga asoslangan) kompetensiyaning shakllanishi paydo bo‘ladi. 2-bosqichda raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmasi, algoritmlarni modellashtirish va testlash malakasi hamda funksional raqamli kompetensiyaning rivojlanadi. 3-bosqichda esa, raqamli ta’lim muhitini loyihalash qobiliyati, algoritmik va pedagogik ijodkorlik hamda ijodiy va transformatsion raqamli kompetensiyaning rivojlanishi yuzga keladi.

Tadqiqot davomida olingan talabalarning raqamli kompetentlik darajasini baholash natijalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan fanlar mazmunini yangilash, uzluksiz ta’lim tizimi va ta’lim dasturlarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak muhandis-pedagoglarga o‘quv materiallarini taqdim etish jarayoni yanada qulaylashib, axborotni matn, grafika, tasvir, video, audio va animatsiya ko‘rinishlarida taqdim etish imkonini beradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonida bir qator afzalliklarni ta’minlaydi, jumladan:



2-rasm. *Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati.*

Bo‘lajak muhandis-pedagoglar tomonidan bajarilgan vazifalarni tekshirishda taqdimotlardan, grafik va chizmalarni izohlash jarayonni yengillashtiradi, bunda o‘qituvchi asosan yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari mustaqil ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi; qog‘ozli hujjatlar hajmining kamayishi va resurslardan tejamkor foydalanish; o‘qituvchi

faoliyatining soddalashuvi va maslahatchi roliga o‘tishi; tez rivojlanayotgan texnologik muhitga moslashish va kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarlikdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni ijodiy fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan va axborotni amaliy faoliyatida samarali qo‘llay oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashda zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish ularning raqamli kompetentligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Redecker C. European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
2. Shopulatova, N.. (2024). The role of digital technologies in modern pedagogy. // Наука и инновации в системе образования, 3(10), 49–53.
3. Turdiyev.E.J., Turdiyeva.U.E. Texnologiya fani o‘qituvchisining Rraqamli kompetentlik modeli // QarDU xabarlari ilmiy-nazaiy, uslubiy jurnal. - B. 195-199

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI

Nurulloyev Firuz No‘monjonovich,
Buxoro DU, Axborot tizimlari va RT kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Mansurov Tolibjon Ziyodullo o‘g‘li,
Xolmurodov Behzod Botir o‘g‘li,
Buxoro DU, Axborot tizimlari va RT kafedrasi tadqiqotchilari.

Annotatsiya. *Mazkur maqola sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi metodikasiga bag‘ishlangan. Unda SI vositalarining ta’lim metodikasini qanday o‘zgartirayotgani, o‘qituvchi va o‘quvchi rollarining transformatsiyasi, shuningdek, samarali foydalanishning asosiy yondashuvlari tahlil qilingan. Maqolada SAMR modeli asosida SI ni bosqichma-bosqich joriy etish metodikasi, adaptiv ta’lim imkoniyatlari, baholash tizimidagi o‘zgarishlar va mavjud muammolar yoritilgan. Xulosa qismida esa ta’lim jarayonida SI dan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim metodikasi, SAMR modeli, adaptiv ta’lim, generativ SI, raqamli transformatsiya, pedagogik innovatsiyalar.*

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining o‘quv jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish metodikalariga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda SI nafaqat texnik vosita, balki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadigan metodologik yordamchi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Buyuk Britaniya Oliy ta’lim siyosati institutining 2025-yilda o‘tkazgan so‘rovi natijalariga ko‘ra, bakalavriat talabalarining 92 foizi kundalik o‘quv faoliyatida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanadi. Ular asosan tushunchalarni izohlash, maqolalarni qisqartirish va tadqiqot g‘oyalarini shakllantirish maqsadida SI dan foydalanishadi. Biroq, talabalarning 18 foizi SI tomonidan yaratilgan matnlarni hech qanday o‘zgartirishsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri uy vazifalariga joylashtirishi aniqlangan. Bu holat SI

dan yuzaki foydalanish muammosini ko‘rsatadi va chuqur o‘rganish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga xavf tug‘diradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – sun’iy intellekt texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishning ilg‘or metodikalarini tizimlashtirish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va samarali integratsiya yo‘llarini aniqlashdan iborat.

An’anaviy ta’lim metodikalari ko‘pincha bir xil yondashuvga asoslanadi – barcha o‘quvchilar bir xil materialni bir xil sur’atda o‘rganadi. Sun’iy intellekt esa ta’limni individuallashtirish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari yordamida har bir o‘quvchining ehtiyojlari, o‘rganish tezligi va uslubiga moslashtirilgan ta’lim traektoriyalarini yaratish mumkin.

Quyidagi jadvalda an’anaviy va SI asosidagi ta’lim metodikalarining qiyosiy tahlili keltirilgan:

Mezonlar	**An’anaviy metodika**	**SI asosidagi metodika**
Yondashuv	Bir xil	Individuallashtirilgan
O‘qituvchi roli	Bilim uzatuvchi	Fasilitator, mentor
Baholash	Davriy, summativ	Uzluksiz, real vaqt rejimida
Kontent yetkazish	Statik (darslik)	Dinamik (moslashuvchan)
Qayta aloqa	Kechiktirilgan	Darhol (real-time)

Sun’iy intellektning ta’limga integratsiyasi o‘qituvchining rolini tubdan o‘zgartirmoqda. Endi o‘qituvchi oddiy bilim uzatuvchi emas, balki ta’lim jarayonining strategi, fasilitatori va murabbiyiga aylanmoqda. Avstraliyaning Yangi Janubiy Uels shtatida olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar SI ni o‘z pedagogik mahoratlarini oshiruvchi vosita sifatida qabul qilmoqda, uni an’anaviy amaliyotlarni almashtiruvchi emas, balki kuchaytiruvchi omil deb hisoblamoqda.

O‘quvchilar esa passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanmoqda. Ular SI vositalari yordamida mustaqil ravishda ma’lumotlarni tahlil qilish, muammolarga yechim izlash va kreativ loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Sun’iy intellektni ta’limga samarali integratsiya qilishning eng mashhur modellaridan biri SAMR (*Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition-O‘zgartirish, Kengaytirish, Modifikatsiya, Qayta ta’riflash*) modelidir. Ushbu model to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SAMR modeliga asoslangan faol o‘qitish strategiyasi talabalarning SI bilan o‘zaro hamkorlik sifatini sezilarli darajada oshiradi. Xitoy universitetlaridan birida o‘tkazilgan 16 haftalik tajriba davomida birinchi kurs talabalari ushbu model asosida o‘qitilgan va natijada ularning SI vositalari bilan muloqot chuqurligi, savollar xilma-xilligi va muloqot samaradorligi oshgan.

SAMR modelining to‘rt bosqichi quyidagicha tavsiflanadi: *1. O‘zgartirish (Substitution)* – SI an’anaviy vositalarni almashtiradi, masalan, matn yaratish uchun SI dan foydalanish. *2. Kengaytirish (Augmentation)* – SI funksionallikni oshiradi, masalan, matnni tarjima qilish yoki grammatikani tekshirish. *3. Modifikatsiya (Modification)* – SI vazifalarni qayta loyihalash imkonini beradi, masalan, interaktiv suhbatdoshlar yaratish. *4. Qayta ta’riflash (Redefinition)* – SI ilgari mumkin bo‘lmagan yangi vazifalarni yaratadi, masalan, real vaqt rejimida shaxsiylashtirilgan ta’lim traektoriyalari.

Adaptiv ta’lim va shaxsiylashtirish. Sun’iy intellektning eng katta afzalliklaridan biri – bu adaptiv ta’limni amalga oshirish imkoniyatidir. Adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qiyinchiliklarni hisobga olgan holda kontentni moslashtiradi.

Avtomatlashtirilgan baholash imkoniyatlari. Sun’iy intellekt baholash jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy baholash ko‘p vaqt talab qiladigan va subyektiv bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayon edi. SI esa obyektiv, tezkor va uzluksiz baholash imkonini beradi.

Real vaqt rejimida qayta aloqa. SI tizimlari o‘quvchilarga real vaqt rejimida qayta aloqa berish imkoniyatiga ega. Bu, ayniqsa, til o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘quvchilar ChatGPT kabi chatbotlar bilan muloqot qilib, grammatika va kommunikatsiya bo‘yicha darhol qayta aloqa olishlari mumkin.

O‘qituvchilarning SI savodxonligi. Sun’iy intellektni ta’limga integratsiya qilishdagi asosiy muammolardan biri – o‘qituvchilarning SI savodxonligi darajasining pastligidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar SI vositalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emas.

Etik muammolar va ma’lumotlar xavfsizligi. SI dan ta’limda foydalanish bir qator etik muammolarni keltirib chiqaradi. Ma’lumotlarning maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik, SI tomonidan yaratilgan kontentning ishonchliligi – bu muammolarning eng muhimlari hisoblanadi.

SI dan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovut ta’limdagi tengsizlikni yanada kuchaytirishi mumkin. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi raqamli tafovut, shuningdek, bir mamlakat ichidagi turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi farq SI ning ta’limdagi imkoniyatlaridan foydalanishda nomutanosiblikka olib kelmoqda.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayoni metodikasini tubdan o‘zgartirish salohiyatiga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI dan samarali foydalanish quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Pedagogik yondashuvning ustuvorligi – SI texnologik vosita sifatida pedagogik maqsadlarga xizmat qilishi kerak, aksincha emas. SAMR modeli asosida bosqichma-bosqich integratsiya eng samarali hisoblanadi.

2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish – O‘qituvchilarni SI vositalaridan foydalanish bo‘yicha tizimli ravishda o‘qitish, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarur. Bu borada hamkasblar o‘rtasidagi hamkorlik va maktab bazasidagi professional rivojlanish eng samarali usul hisoblanadi.

3. Etik tamoyillarga rioya qilish – Ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va algoritmik tarafkashlik kabi muammolarni hal qilish uchun aniq qoidalar va standartlar ishlab chiqish lozim.

4. Inson omilining saqlanishi – SI hech qachon o‘qituvchining o‘rnini to‘liq egallay olmaydi. Uning roli – o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash, uning vaqtini tejash va pedagogik samaradorlikni oshirishdan iborat.

Kelajakda sun’iy intellektning ta’limdagi roli yanada ortib borishi kutilmoqda. Ayniqsa, multimodal generativ SI vositalari (matn, tasvir, audio, videoni bir vaqtda yaratish va tahlil qilish imkoniyati) ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, SI dan foydalanishning uzun muddatli ta’sirini o‘rganish, turli ta’lim kontekstlarida qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq qilish va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ta’sirini chuqur tahlil qilish keyingi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wu, J., Pan, J., Zhou, Y., Liu, M., Li, Y., & Huang, R. (2025). An active instructional approach based on the SAMR framework: Integrating AIGC into undergraduate freshmen learning. Computers and Education: Artificial Intelligence.

2. Singh, S. (2025). Artificial Intelligence In Teaching Methodology: Transforming Classroom Strategies. International Journal of Scientific Research & Engineering Trends, 11 (6).

3. Chang, W.L., & Sun, J.C.Y. (2026). Empowering bilingual teachers with dynamic GenAI: Adaptive design and implementation of multimodal instructional strategies. Computers & Education, 241, 105490.

4. Vitvytska, S., Khudaverdova, A., Hurskaya, V., Artiukhova, V., & Yandola, K. (2025). Transformation of teaching strategies in higher education in the context of the development of artificial intelligence. Periodicals of Engineering and Natural Sciences, 13(4).

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARNING O‘QITUVCHI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Xolboyeva Gulnora Anorboyevna,
Jizzax DPU, Boshlang‘ich ta’lim pedagpogikasi kafedrasi mudiri, professor.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy didaktik vositalardan foydalanishning o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, didaktik materiallar, pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, didaktik vositalar, pedagogik texnologiya, kompetentlik, metodika, innovatsiya.*

Hozirgi davrda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni muhim vazifa sifatida belgilaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchining bilim va malakasi o‘quvchilarning keyingi ta’lim jarayoniga mustahkam asos yaratadi. Shu sababli zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogika nazariyasiga ko‘ra, ta’lim jarayonining samaradorligi o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metodlar va vositalarga bevosita bog‘liq. Bu jarayonda didaktik materiallar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi hamda o‘qituvchining metodik faoliyatini takomillashtiradi [1; 21-b.].

Didaktik vositalar – bu o‘qitish jarayonida bilimlarni samarali yetkazish, mustahkamlash va nazorat qilishga xizmat qiluvchi o‘quv materiallari va metodik vositalar majmuasidir. Ular dars jarayonida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimni tushunarli va samarali shaklda yetkazish imkonini beradi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, didaktik vositalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va o‘quv jarayonining sifatini oshiradi [4; 33-b.]. Shuningdek, pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot vositalari ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil ekanligi qayd etiladi [5; 11-b.].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetentligini shakllantirish jarayonida didaktik vositalar quyidagi jihatlarda muhim rol o‘ynaydi: ***1. Metodik kompetentlikni rivojlantirish.*** Didaktik materiallar o‘qituvchiga darsni rejalashtirish va tashkil etishda yangi yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Bu esa pedagogning metodik mahoratini oshiradi. ***2. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish.*** Zamonaviy ta’lim

texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. ***3. O‘quvchilarning faolligini oshirish.*** Didaktik o‘yinlar, interaktiv materiallar va multimedia vositalari o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi. ***4. Kasbiy rivojlanishni ta’minlash.*** Didaktik vositalardan foydalanish jarayonida o‘qituvchi yangi metod va texnologiyalarni o‘rganadi hamda o‘z ustida ishlashga intiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda ham boshlang‘ich ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar o‘qituvchining professional rivojlanishida muhim omil ekani ta’kidlanadi [3; 70-b.].

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda quyidagi didaktik vositalar keng qo‘llanilmoqda:

- interaktiv taqdimotlar va multimedia materiallari;
- didaktik o‘yinlar va mashqlar;
- vizual ko‘rgazmali qurollar;
- elektron darsliklar va raqamli platformalar;
- STEAM elementlariga asoslangan o‘quv materiallari.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim uchun yaratilgan didaktik materiallar o‘qituvchilarning darslarni samarali tashkil etishiga yordam beradi hamda o‘quvchilarning savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi [2; 48-b.].

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish o‘qituvchining quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi:

- metodik kompetensiya;
- axborot-kommunikatsion kompetensiya;
- innovatsion fikrlash;
- pedagogik muloqot madaniyati.

Shuningdek, didaktik vositalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘qituvchining metodik faoliyatini takomillashtiradi, dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida zamonaviy didaktik vositalarni keng joriy etish pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., To‘rayeva O. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
2. G‘affarova T., Nurullayeva Sh., Xaydarova O. Boshlang‘ich ta’lim uchun didaktik materiallar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
3. Jamolidinova D., Meliboyeva S. Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. – Toshkent, 2013.
4. Istamova Sh., Qurbonnazarova G. Boshlang‘ich sinf darslarida didaktik vositalardan foydalanishning ahamiyati. – 2024.
5. Djumayeva Z. va boshqalar. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – 2025.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Djakbarova Mahliyo Ibraximjonovna,
NamDPI, “Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammosi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi “keys-stadi” texnologiyasidan foydalanishning samarali metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishdir. “Keys-stadi” vositasida talabalarda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Amaliy sinovlar natijasida ushbu texnologiyaning talabalarning kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Taklif etilayotgan metodika “Ona tili” va “Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” kabi fanlar dasturiga integratsiya qilinishi mumkin. Xulosa qilib, “keys-stadi” texnologiyasi kelajak o‘qituvchilarini amaliyotga tayyorlashning zamonaviy va samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, keys-stadi texnologiyasi, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik kompetentlik, interfaol metodlar, mustaqil ta’lim, amaliy vaziyatlar, metodik tizim.*

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – talabalarni mustaqil fikrlash, bilim olish va uni amaliy hayotda qo‘llashga o‘rgatishdir. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etish va boshqarish dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Mustaqil ta’lim faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika oliygohlarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ona tili fanlarini o‘qitish jarayoniga interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni, xususan, “keys-stadi” (case-study) usulini tatbiq etish samaradorlikni oshirishning muhim omilidir. “Keys-stadi” talabalarni real hayotiy vaziyatlar bilan tanishtirib, ularning tahliliy, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi [4; 13].

“Keys-stadi” texnologiyasining mohiyati va ahamiyati. “Keys-stadi” – bu o‘quvchilarga aniq hayotiy yoki professional muammoni tahlil qilish, uni hal qilishning turli yo‘llarini izlash va asoslash imkonini beruvchi interfaol ta’lim texnologiyasidir [5; 883-b.]. Bu usul ta’limni faollashtiradi, talabalarni jamoaviy munozara va qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi.

“Keys-stadi”ning asosiy vazifalari: talabalarni murakkab, ko‘p qirrali muammolarni tahlil qilishga o‘rgatish; mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlantirish; nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratish; kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish.

“Keys-stadi” texnologiyasining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ona tili fanlarini o‘qitishdagi o‘rni va qo‘llanilishi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari – kelajakning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bo‘lib, ular o‘zlarining pedagogik faoliyatida murakkab vaziyatlarni hal qilishga tayyor bo‘lishlari zarur. D.Malikova to‘g‘ri ta’riflaganidek: “Keys stadi – o‘qitish, axborot, kommunikatsiya va

boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida kutilayotgan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir” [2; 31-b.].

“Keys-stadi” usuli orqali talabalar: - maktabda duch keladigan turli pedagogik vaziyatlarni (o‘quvchilar o‘rtasidagi nizo, ota-onalar bilan muloqot, dars jarayonidagi qiyinchiliklar va h.k.) oldindan modellashtirish va hal etish yo‘llarini o‘rganadilar; - o‘z fikrlarini ifodalash, tinglash va munozara qilish madaniyatini egallaydilar; - o‘qituvchi sifatida refleksiya qilish va o‘z tajribasini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradilar.

Shunday ekan, ona tili fanlaridan mustaqil ta’lim topshiriqlarini tuzayotganda, murakkab mavzularni o‘qitishda maktab amaliyotida uchraydigan muammoli vaziyatlarni aniqlab olish, o‘quvchilar ona tili fanidan bilim-ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda duch keladigan qiyin vaziyatlarni kuzatish va ular asosida keys tuzishga talabani yo‘naltirish ta’lim sifati va natijadorligini oshiradi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ona tili fanida qo‘llaniladigan keyslarning tuzilish tarkibi:

Keysning tarkibiy qismi	Mazmuni va vazifasi	Misol (Ona tili darsi mavzusi)
1. Sarlavha	Keysning mohiyatini qisqa va aniq ifodalaydi.	“Sinonimlar” mavzusini o‘qitishda qiyinchiliklar [1; 128-b.]
2. Muammoli vaziyatning tavsifi	Real hayotiy vaziyatlardan olingan aniq pedagogik holat bayon etiladi.	3-sinf o‘quvchisi Akmaljon “chiroy” va “go‘zal” so‘zlarini sinonim deb hisoblaydi. An’anaviy tushuntirish natija bermaydi. Qanday qilib tushuntirish kerak?
3. Maqsad va vazifalar	Keysni o‘rganish orqali qanday natijalarga erishish kerakligi ko‘rsatiladi.	Talabalarda sinonim tushunchasini chuqur o‘zlashtirish, tushunmovchilik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini topish.
4. Asosiy savollar (yo‘naltiruvchi)	Talabalarni tahlil va yechim topishga yo‘naltiradigan savollar.	1. Ushbu xatoning sababi nima? 2. Qanday usullar bilan o‘quvchiga tushuntira olmaysiz? 3. Qaysi interfaol usullarni qo‘llashingiz mumkin?
5. Qo‘shimcha ma’lumotlar (ixtiyoriy)	Vaziyatni tushunishga yordam beradigan materiallar (dars rejasi parchalari, o‘quvchi ishi namunalari, psixologik xususiyatlar va h.k.).	O‘quvchining yozma ishi, darslikdagi mavzuning bayoni, didaktik o‘yinlar to‘plami.
6. Vazifa	Talabalardan o‘z yechimlarini taklif qilish, ularni asoslash va himoya qilish talab qilinadi.	1. Vaziyatni tahlil qiling. 2. O‘zingizning pedagogik yondashuvingizni taklif qiling va uni asoslang. 3. Jamoaviy munozara orqali eng optimal yechimni toping.

“Keys-stadi” texnologiyasini qo‘llash bosqichlari va metodikasi.

Tayyorgarlik bosqichi: talabalar keysni tanlaydi yoki yaratadi, uni talablar darajasiga moslashtiradi, kerakli materiallarni tayyorlaydi.

Tanishtirish bosqichi: talabalar keys bilan tanishtiriladi, vaziyat, maqsad va vazifalar aniq tushuntiriladi.

Individual va guruhli tahlil bosqichi: talabalar keysni o‘rganadilar, ma’lumotlarni tahlil qiladilar, muammoni aniqlaydilar va yechim variantlarini ishlab chiqadilar.

Munozara va muhokama bosqichi: guruh a’zolari o‘z fikrlarini bayon qiladilar, takliflarni muhokama qiladilar, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini baholaydilar.

Xulosa va umumlashtirish bosqichi: 4+2 uzluksiz amaliyot jarayonida o‘qituvchi yordamida eng maqbul yechimlar chiqariladi, olingan natijalar umumlashtiriladi, nazariy bilimlar bilan bog‘lanadi.

Refleksiya bosqichi: talabalar o‘z faoliyati, qiyinchiliklar va ochilgan imkoniyatlarni tahlil qiladilar.

“Keys-stadi” texnologiyasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini tubdan o‘zgartirish imkonini beradi. U nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, pedagogik fikrlashni rivojlantirish va kelajakdagi faoliyatida qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu usulni muntazam ravishda o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarni zamonaviy ta’lim talablariga javob bera oladigan, ijodiy va mustaqil fikrlovchi mutaxassislar etib tarbiyalash mumkin. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, “keys-stadi” kabi interfaol usullarni keng joriy etish va ularni qo‘llash metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djakbarova M. Ona tili. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent: “Metodist”, 240 b.

2. Malikova, D. (2024). O‘quvchilarni ijodiy-ma’naviy tarbiyalashda “keys stadi” texnoligiyasidan foydalanish (Keys-study). *Международная конференция академических наук*, *3*(12), 31–35.

3. Rabbimova F.T. “Keys stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi” “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-20, Issue-1, November – 2022.

4. Shodiyev F., Bahriddinov S. Ta’limning o‘quv jayonida pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llash to‘g‘risida (muhandislik grafikasi misolida). Zamonaviy ta’lim tizimi taraqqiyotida integrativ yondashuv: muammolar, yechimlar va istiqbollari (ZTTTIYMYI-2025), Tashkent, 5-6-may (Session I, Part 12-16).

5. Tolibov S.G‘. Keys-stadi texnologiyasining o‘quv didaktik vazifalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), May, 2023. P. 882-889.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH SHAROITIDA TA’LIM RAHBARLARINING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Tojiboyeva Gulmira Rifovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbarlarining professional kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar va omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi hamda ularning ta’lim muassasalarini boshqarishdagi o‘rni yoritilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari, ta’lim*

sifatini oshirish hamda boshqaruv samaradorligini ta’minlashda sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ta’lim tashkilotlari rahbarlarining raqamli va boshqaruv kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik shart-sharoitlar hamda omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’limni raqamlashtirish, professional kompetentlik, ta’lim menejmenti, ta’lim rahbari, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, raqamli kompetensiya.*

Kirish. Hozirgi davrda ta’lim tizimi jamiyatning jadal raqamli rivojlanishi sharoitida faoliyat yuritmoqda. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va monitoring qilish jarayonlariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda [5; 25-b.].

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ta’lim tashkilotlari rahbarlarining professional kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [1; 1-b.].

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; taqqoslash va umumlashtirish metodlari; tizimli yondashuv; pedagogik tahlil. Ushbu metodlar orqali ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida rahbarlarning professional kompetentligini rivojlantirish omillari o‘rganildi [4; 38-b.].

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tashkilotlari rahbarlarining professional kompetentligini rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida amalga oshiriladi.

1. Raqamli ta’lim muhitini yaratish. Ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish rahbarlarning boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

2. Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi. Rahbarlarning professional rivojlanishi uchun malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar muhim ahamiyatga ega.

3. Innovatsion boshqaruv faoliyati. Ta’lim tashkilotlari rahbarlari zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo‘llay olishlari zarur.

4. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Sun’iy intellekt texnologiyalari quyidagi jarayonlarda qo‘llanilishi mumkin: ta’lim natijalarini tahlil qilish; o‘quv jarayonini monitoring qilish; boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Rahbarlar kompetentligining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: davlat ta’lim siyosati; ta’lim tizimining raqamlashtirilishi; innovatsion pedagogik texnologiyalar; xalqaro hamkorlik.

Ushbu omillar ta’lim tashkilotlari rahbarlarining professional rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3; 287-b.].

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi ta’lim tashkilotlarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, rahbarlarning professional kompetentligini rivojlantirish uchun raqamli ta’lim muhitini yaratish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish zarur. Natijada, ta’lim tizimining samaradorligi oshadi hamda ta’lim sifati yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2020.

3. G.R.Tojiboyeva., Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini pedagogik diagnostika asosida baholash: 8 kompetensiyali model yondashuvi // Inter education & global study. 2025. №5, 285-291.

4. Karimov I., Abdullayeva D. Ta’lim menejmenti asoslari. – Toshkent, 2019.

5. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson, 2021.

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING OLIY TA’LIMDAGI O‘QUV FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHDAGI ROLI

Shavqiyev Oybek Salimboy o‘g‘li,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Shukrullayeva Fazilat Orif qizi,
Sam DU, Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’lim tizimidagi o‘quv faoliyatiga ta’siri hamda ta’lim jarayonini transformatsiya qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida ChatGPT, Copilot va Gemini kabi generativ sun’iy intellekt vositalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonining mazmuni, o‘qitish metodlari hamda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatiga yangi imkoniyatlar yaratishi yoritilgan. Ushbu tezisda sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti, o‘qituvchi va talabaning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda pedagogik faoliyatdagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, generativ sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq pedagogik va etik muammolar ham tahlil qilinib, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida mazkur texnologiyalarni samarali va mas’uliyatli joriy etish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *generativ sun’iy intellekt, oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, mustaqil ta’lim, akademik halollik, ta’lim innovatsiyalari.*

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalari qatori oliy ta’lim tizimining rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayonini tashkil etish usullari, bilim olish shakllari hamda pedagogik yondashuvlar sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining (ChatGPT, Copilot, Gemini va boshqa tizimlar) paydo bo‘lishi ta’lim jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur texnologiyalar nafaqat axborotni qayta ishlash, balki yangi matn, g‘oya va yechimlarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli o‘quv faoliyatining mazmunini tubdan yangilamoqda.

Generativ sun’iy intellekt vositalari talabalarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan yondashuvini ham o‘zgartirmoqda. An’anaviy ta’lim modelida talaba asosan tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy raqamli ta’lim muhitida u faol bilim yaratuvchi subyektga aylanmoqda. Sun’iy intellekt tizimlari yordamida talabalar murakkab mavzular bo‘yicha qo‘shimcha tushuntirishlar olish, turli manbalarni solishtirish, ilmiy matnlar tayyorlash hamda mustaqil izlanish olib borish imkoniyatiga

ega bo‘lmoqda [1: 29-b.]. Bu holat o‘quv jarayonida mustaqil ta’lim ulushining ortishiga ham xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayon o‘qituvchining pedagogik faoliyati mazmuni va funksional vazifalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi natijasida o‘qituvchining an’anaviy bilim beruvchi sifatidagi roli bosqichma-bosqich transformatsiyalanmoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida o‘qituvchi nafaqat axborot yetkazuvchi, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, talabalarning o‘quv faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi pedagogik mentor sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish o‘qituvchiga ta’lim jarayonida individual yondashuvni samarali amalga oshirish, o‘quv materiallarini talabalarning bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atiga moslashtirish hamda o‘quv natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini yaratadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘qituvchi talabalarning o‘quv faoliyatini monitoring qilish, ularning qiyinchilikka duch kelayotgan mavzularini aniqlash va mos pedagogik strategiyalarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan o‘qitish modeli shakllanib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv muloqotning samaradorligi hamda intensivligi ortadi.

Bunday pedagogik muhitda bilim tayyor shaklda uzatilmaydi, balki muhokama, tahlil, refleksiya va birgalikdagi intellektual faoliyat jarayonida shakllanadi. Generativ sun’iy intellekt vositalari o‘quv jarayonini dialogik va muammoga yo‘naltirilgan ta’lim modeli asosida tashkil etishga xizmat qilib, talabalarning mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar talabalarning ijodiy yondashuvi va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Natijada o‘quv jarayonining samaradorligi oshib, talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki real muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, muammolarni kompleks tahlil qilish hamda amaliy yechimlar ishlab chiqishga tayyor mutaxassis sifatida shakllanadi. Bu esa zamonaviy oliy ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan ta’lim modelini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar ham generativ sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. UNESCO ekspertlarining fikriga ko‘ra, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining tez rivojlanishi ta’lim tizimlari oldiga yangi pedagogik, etik va institutsional vazifalarni qo‘ymoqda. Hisobotlarda qayd etilishicha, generativ sun’iy intellekt platformalarining keng tarqalishi ularni tartibga solish mexanizmlariga nisbatan tezroq amalga oshmoqda [1: 29-b.]. Shu sababli sun’iy intellektdan foydalanishda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yuvchi, ya’ni human-centred yondashuvni ta’minlash muhim hisoblanadi. Bu yondashuv sun’iy intellektni inson faoliyatini almashtiruvchi emas, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ko‘rishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham ta’limni raqamlashtirish jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda masofaviy ta’lim platformalari, elektron resurslar hamda raqamli o‘quv muhitining keng joriy etilishi talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Generativ sun’iy intellekt vositalarining qo‘llanilishi esa o‘quv materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish, murakkab mavzularni tushunish hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Davlat darajasida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish siyosati ham ta’lim samaradorligini oshirish va zamonaviy kompetensiyalarni

shakllantirishga qaratilgan [2: 1-b.]. Shu bilan birga, generativ sun’iy intellektdan foydalanish ayrim pedagogik va metodik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun’iy intellekt tizimlariga haddan tashqari tayanish talabalarning mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmalarining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, akademik halollik, mualliflik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellektdan foydalanish pedagogik nazorat, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda mas’uliyatli foydalanish madaniyati asosida tashkil etilishi zarur.

Sun’iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv o‘qitish vositalari ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan, samarali hamda talaba ehtiyojlariga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini bermoqda. Bunday raqamli tizimlar talabalarning individual o‘quv ehtiyojlari, mavjud bilim darajasi va o‘rganish sur’atini tahlil qilish orqali shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, har bir talaba o‘zining intellektual imkoniyatlari va o‘quv tayyorgarlik darajasiga mos ravishda bilim olish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, generativ sun’iy intellekt texnologiyalari akademik yozuv, loyiha ishlari tayyorlash hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirmoqda. Xususan, mazkur vositalar ilmiy matnlarni tuzish, ma’lumotlarni tizimlashtirish, g‘oyalarni shakllantirish va tahliliy xulosalar ishlab chiqishda talabalarga metodik yordam ko‘rsatib, o‘quv va tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [3; 76-b.].

Zamonaviy ta’lim paradigmasida generativ sun’iy intellekt texnologiyalari bilimni uzatish vositasidan ko‘ra bilimni birgalikda yaratish jarayonining muhim elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayon ta’lim tizimida “raqamli pedagogika” konsepsiyasining shakllanishiga olib kelib, o‘quv faoliyatining mazmunini kompetensiyaga yo‘naltirilgan model asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, generativ sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat texnologik yangilanish, balki ta’lim jarayonining epistemologik asoslarida ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ya’ni, bilimni egallash jarayoni individual faoliyatdan inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yangi o‘quv modeliga o‘tmoqda. Bu esa kelajakda oliy ta’lim tizimida pedagogik faoliyat mazmuni, baholash mexanizmlari hamda o‘qitish metodologiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Umuman olganda, generativ sun’iy intellekt texnologiyalari oliy ta’lim tizimida o‘quv faoliyatining mazmuni, metodlari va pedagogik yondashuvlarini transformatsiya qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu texnologiyalarni maqsadli va oqilona joriy etish talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini rivojlantirish hamda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida zamonaviy raqamli ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Holmes, Wayne. 2023. Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

3. Sabirjonov R.A., Ayupov R.H. va boshqalar. Zamonaviy raqamli texnologiyalarningrivojlanish istiqbollari. “Media” nashriyoti, 2022 yil. 202 bet

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISHDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNING AHAMIYATI

Narimbetova Zaxiya Axmedovna,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedrasi dotsenti.
Jabborova Fotima Yomg‘irovna,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida blok-sxemalar (algoritmik ketma-ketliklar) orqali mantiqiy fikrlash hamda muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, matematika darslarida blok-sxemalardan foydalanishning ahamiyati, ularni o‘qitish jarayonida qo‘llash usullari hamda o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *blok-sxema,amaliy mashg‘ulot, grafik,vosita, mantiqiy va algoritmik tafakkur.*

Boshlang‘ich matematika kursida mantiqiy fikrlash va algoritmik tafakkurni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.Algoritm – bu muammoni yechish uchun bajariladigan aniq va ketma-ket qadamlar majmuasidir. Algoritmlarni tushunarli va ko‘rgazmali shaklda ifodalash uchun blok-sxemalardan foydalaniladi. Blok-sxema – bu algoritmning grafik ko‘rinishi bo‘lib, unda har bir amal maxsus geometrik shakl yordamida tasvirlanadi [3; 289-b.].

Blok-sxemalar o‘quvchilarga masalani bosqichma-bosqich tushunishga, fikrlashni tartibga solishga va muammoni mantiqan hal qilishga yordam beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun blok-sxemalar ko‘rgazmali vosita sifatida juda qulay hisoblanadi.Blok-sxemaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:


1. *Boshlash va tugatish bloki (oval shakl)* – algoritmning boshlanishi yoki tugashini bildiradi. Har bir blok-sxema odatda “Boshlash” so‘zi bilan boshlanadi va “Tugatish” bilan yakunlanadi.
2. *Jarayon bloki (to‘g‘ri to‘rtburchak)* – bu blokda bajariladigan amal yoki hisoblash jarayoni yoziladi. Masalan: sonlarni qo‘shish, ayirish yoki boshqa matematik amallar.
3. *Shart bloki (romb shakl)* – bu yerda biror shart tekshiriladi. Shartning natijasiga qarab algoritm turli yo‘nalishlarga bo‘linadi. Masalan: “son 10 dan katta-mi?”
4. *Yo‘nalish chiziqlari (strelkalar)* – bloklar orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi va algoritmning qaysi tartibda bajarilishini bildiradi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida *amaliy mashg‘ulotlar* o‘quvchilarning bilimni faqat eslab qolishiga emas, balki uni amalda qo‘llay olishiga xizmat qiladi [2; 436-b.]. Ayniqsa, blok-sxemalar (algoritmik ketma-ketliklar) bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga blok-sxemalarni o‘rgatishda sodda va kundalik hayotga oid misollardan foydalanish amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi. Masalan, “ertalab maktabga tayyorlanish” yoki “ikki sonni qo‘shish” kabi jarayonlarni bosqichlarga ajratib ko‘rsatish orqali o‘quvchilar algoritmik fikrlashni amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradilar.

Bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi avvalo jarayonni og‘zaki tushuntiradi, so‘ng uni blok-sxema ko‘rinishida tasvirlab beradi. Keyingi bosqichda esa o‘quvchilar ushbu jarayonni mustaqil ravishda chizib ko‘rish orqali bilimlarini mustahkamlaydilar. Bu esa amaliy mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi — nazariy bilimlarni faol o‘quv faoliyati orqali mustahkamlashga xizmat qiladi [1; 147-b.].

Boshlang‘ich sinflarda blok-sxemalarni o‘rgatishda quyidagi amaliy metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi: ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, oddiy va tushunarli misollar orqali tushuntirish, guruhli mashg‘ulotlar tashkil etish hamda o‘quvchilarga mustaqil ravishda blok-sxema tuzdirish. Ushbu usullar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, matematik tushunchalarni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shunday qilib, blok-sxemalar bilan ishlashga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf matematika ta’limida o‘quvchilarning mantiqiy va algoritmik tafakkurini rivojlantirish, masalalarni tizimli ravishda yechish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlashda muhim didaktik vosita hisoblanadi.

1. Ikki sonni qo‘shish blok-sxemasi



1. Start – algoritm boshlanishi.
2. Input X, Y – ikki sonni kiritish.
3. SUM = X + Y – sonlarni qo‘shish jarayoni.
4. Display SUM – natijani chiqarish.
5. End – algoritm tugashi

Bu misol boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga *qo‘shish amali algoritmini* tushuntirish uchun ishlatiladi.

Misol: Maktabga tayyorlanish algoritmi.

Boshlash ↓ Uyg‘onish ↓ Yuvinish ↓ Nonushta qilish ↓ Maktabga borish ↓ Tugatish

Bu kabi misollar bolalarga algoritmlar nafaqat matematika yoki informatika fanida, balki kundalik hayotda ham mavjud ekanligini tushunishga yordam beradi. Masalan, ertalab maktabga tayyorlanish, ovqat tayyorlash yoki uy vazifasini bajarish kabi jarayonlar ham ma’lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Shu orqali o‘quvchilarda mantiqiy va tartibli fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida quyidagi tavsiya etiladi: - rangli shakllardan foydalanish, chunki bu o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi va elementlarni oson eslab qolishga yordam beradi; - oddiy va kundalik hayotga oid misollar orqali tushuntirish; - o‘quvchilarga mustaqil ravishda blok-sxema chizdirish orqali ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish; - guruhli ishlash metodidan foydalanib, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va fikr almashishni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Bayoz nashriyoti, 2023. – 296 b. ISBN: 978-9943-7954-7-1.

2. Sadriddinova Z. M., Ibrohimova S. M. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. – University Research Base ilmiy to‘plami, 2024. – 433–436-betlar.

3. Doğan A. Algorithmic Thinking in Primary Education. – International Journal of Progressive Education, 2020. – Vol.16(4), 286–301-betlar.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Anorboyev Muhammadqodir,
Jizzax DPU, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada SI texnologiyalarining ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘rni, ularni qo‘llashning nazariy hamda amaliy jihatlari, afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, SI asosidagi ta’lim vositalarining o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga ta’siri, ta’lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, innovatsion texnologiya, adaptiv o‘qitish, avtomatik baholash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, raqamli kompetentlik.*

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamon talablaridan biridir, ayniqsa ta’lim tarbiya jarayoniga qo‘llash. XXI asr ta’lim tizimi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson faoliyatining barcha sohalarida, jumladan ta’limda ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi ta’limni individuallashtirish, tahliliy baholash tizimlarini yaratish va o‘qituvchi mehnatini yengillashtirish imkonini bermoqda. Sun’iy intellekt — bu inson tafakkuriga o‘xshash tarzda o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan kompyuter tizimlari majmuasidir. Ta’limda SI texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar uchun moslashtirilgan ta’lim muhiti yaratish, ularning bilim darajasini real vaqt rejimida baholash hamda o‘qituvchiga analitik ma’lumotlarni taqdim etish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bois SI texnologiyalarining pedagogik jarayonga integratsiyasi ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o‘rganilishni talab etadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi roli. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

- *Adaptiv o‘qitish tizimlari* – o‘quvchining individual o‘zlashtirish darajasiga qarab, avtomatik tarzda topshiriqlarni moslashtiruvchi platformalar (masalan, Coursera, Khan Academy, Duolingo).
- *Avtomatik baholash tizimlari* – yozma ishlar, testlar yoki insho tahlilini SI algoritmlari yordamida baholash, natijalarni tezkor qayta ishlash imkonini beradi.
- *Virtual o‘qituvchi va chatbotlar* – o‘quvchiga kechayu kunduz yordam beruvchi, savollarga javob beruvchi sun’iy intellekt agentlari.
- *O‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish (Learning Analytics)* – o‘quvchilarning faoliyatini kuzatish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, individual rivojlanish yo‘l xaritasini tuzish.

Bu yo‘nalishlarning barchasi o‘quv jarayonini avtomatlashtirish bilan birga, inson omilini to‘liq bartaraf etmasdan, aksincha, o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlaydi. Yaqin kelajakda sun’iy intellekt asosida ishlaydigan “aqlli ta’lim muhitlari”, “virtual o‘qituvchilar”, “raqamli mentorlar” keng joriy etilishi kutilmoqda. Bunday tizimlar o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi.

Shuningdek, o‘qituvchilar uchun tahliliy platformalar, avtomatik hisobot tizimlari, onlayn baholash mexanizmlari takomillashadi.

SI texnologiyalarining ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri. Sun’iy intellekt o‘qituvchi faoliyatini yengillashtiradi: O‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini avtomatik tahlil qiladi, baholash jarayonida insoniy xatoliklarni kamaytiradi, o‘qituvchiga vaqtni tejash va ta’lim mazmuniga e’tiborni kuchaytirish imkonini beradi, o‘quvchi nuqtayi nazaridan esa SI texnologiyalari quyidagi ijobiy natijalarni beradi, shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishi, interaktiv o‘rganish muhiti, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodkorlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish. Shu bilan birga, SI vositalari yordamida tarbiya jarayonini ham yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Masalan, o‘quvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda SI asosida ishlab chiqilgan virtual stsenariylar, rolli o‘yinlar yoki muammoli vaziyatlar orqali tarbiyaviy ishlarga interaktivlik kiritish mumkin.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Ta’lim tizimiga SI texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar mavjud: Texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi, sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy va maxfiylik masalalari. Bu muammolarni hal etish uchun: o‘qituvchilar uchun maxsus ***raqamli kompetensiya va SI savodxonligi*** bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish, maktab va oliy ta’lim muassasalarini texnik jihatdan jihozlash, sun’iy intellektdan foydalanishda ***etika kodeksi***ni ishlab chiqish va qonunchilik asoslarini mustahkamlash zarur. So‘nggi yillarda xalqaro miqyosda SI asosida yaratilgan ta’lim platformalari (Google Classroom AI Assistant, ChatGPT for Education, Squirrel AI Learning, Duolingo Max) o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirgani kuzatilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham “MySchool”, “EduAI”, “Bilim” kabi raqamli loyihalarda sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish tajribalari kengaymoqda. Bu esa milliy ta’lim tizimini global raqamli makonga integratsiyalashuvi yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion turtki beruvchi kuch sifatida e’tirof etilmoqda. Ular ta’lim sifatini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ochib berish imkonini beradi. Biroq, SI texnologiyalarini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning raqamli madaniyatini rivojlantirish, axloqiy-me’yoriy me’zonlarni ishlab chiqish va texnik infratuzilmani mustahkamlash zarur. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirilgan, pedagogik tamoyillarga asoslangan holda tatbiq etish kelajak ta’limining poydevorini mustahkamlaydi hamda O‘zbekistonda ta’lim hamda tarbiyani innovatsion rivojlanish strategiyasiga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni. — T.: 2020.

2. Nuriddinov, M. (2023). *Sun’iy intellekt va raqamli ta’limning uzviy integratsiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Alimova, D. (2022). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati*. Pedagogika jurnali, №4.

4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Center for Curriculum Redesign.

TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH

Teshabayeva Zamira Sobirovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Ma’lumki, zamonaviy jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiya qilishning muvaffaqiyati ushbu jamiyatda turli xil resurslarning mavjudligi bilan belgilanadi. Har qanday jamiyatning asosiy boyligi, uning gullab-yashnashi uchun zarur shart inson resursidir. Tadqiqotchilar ushbu turdagi resurslarni ijodkorlik qobiliyatlari, har tomonlama rivojlanishning potentsial imkoniyatlari, umumiy madaniyat, o‘zini o‘zi tashkil etish ko‘nikmalari, takomillashtirish istagi, motivatsiya, tadbirkorlik – har qanday korxona samaradorligini oshirishning kaliti bo‘lgan shaxsiy fazilatlar to‘plami bilan ta’minlaydilar. Shu sababli, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’limning maqsadi bo‘lajak mutaxassis pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishlari va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘lgan sharoitda an’anaviy "bir o‘lcham hammaga mos" yondashuv o‘z samarasini yo‘qotmoqda. Aynan shu nuqtada differensial yondashuv dolzarb pedagogik strategiya sifatida maydonga chiqadi.

Har qanday mutaxassislik va tegishli bilimlarga professional egalik qilish nuqtai nazaridan “mutaxassis” tushunchasini o‘z mutaxassisligi sohasida mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan namoyon qiladi. Biroq, ko‘pincha kasbiy funksiyalarni bajarishga tayyor bo‘lmagan bitiruvchi mehnat bozoriga kiradi, bu o‘qitish jarayonida olingan bilimlarning mazmuni va sifati va jamiyatning ehtiyojlari o‘rtasida bir qator nomuvofiqliklar mavjudligi bilan izohlanadi.

Ushbu sabablarga quyidagilar kiradi: - o‘rganilayotgan kasbiy va umum-ta’lim fanlarining mazmuni o‘rtasidagi munosabatlarning yo‘qligi, zamonaviy buyurtmachi esa ularning birligi va izchilligida o‘rganilgan bilim va shakllangan mahoratga talab qo‘yadi; - ishlab chiqarish sharoitlariga psixologik tayyorgarlik, bunda mutaxassis rejadan tashqari qaror qabul qilish uchun faol, tashabbuskor, javobgar bo‘lishi kerak; - amaliy hayotdan bilimlarning uzilishi, talaba o‘quv dasturi doirasida o‘zlashtirgan ta’lim mazmunining texnologiyalarining) eskirishi. Shu jihatdan, bugungi kunda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ta’limning ustuvor yo‘nalishlari insonning nafaqat kasbiy, balki intellektual rivojlanishi muammolarini hal qilishni o‘z ichiga oladi.

An’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, differensial yondashuvning bitiruvchining kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish sohasidagi vakolatlarini ta’limning asosiy natijalari sifatida ko‘rib chiqadi. Differensial yondashuv – bu o‘qituvchining ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini talabalarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va o‘quv uslublariga moslashtirish jarayonidir. Differensial yondashuvning nazariy asoslari J.Piaje va L.Vigotskiy kabi mashhur psixologlarning ilmiy ishlariga borib taqaladi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi har bir talabaning hozirgi imkoniyatlari bilan potensial imkoniyatlari o‘rtasidagi farqni hisobga olish zarurligini asoslab beradi. Keyingi yillarda Kerol Enn Tomlinson tomonidan ishlab chiqilgan tabaqalashtirilgan ta’lim modeli esa mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etishning

aniq mexanizmlarini taklif qiladi. Tomlinson ta’limni to‘rt yo‘nalishda farqlash mumkinligini ta’kidlaydi: mazmun (o‘quv materiali), jarayon (o‘zlashtirish usullari), mahsulot (bilimni namoyish etish shakllari) va ta’lim muhiti.

Talabalarning kasbiy mahoratlarini shakllantirishda differensial yondashuv quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, talabalarning boshlang‘ich bilim darajasi va kasbiy yo‘nalishini aniqlash. Bu diagnostika bosqichi bo‘lib, unda talabalarning nazariy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy qiziqishlari o‘rganiladi.

Ikkinchidan, o‘quv topshiriqlarini tabaqalashtirish. Talabalarning tayyorgarlik darajasiga qarab ularga turli murakkablikdagi, hajmdagi va xarakterdagi topshiriqlar beriladi. Masalan, bir guruh talabalar asosiy kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirsa, boshqa guruh ijodiy va muammoli vazifalarni bajaradi.

Uchinchidan, moslashuvchan guruhlash. Talabalar muayyan o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, vaqtinchalik guruhlarga birlashtiriladi. Bu guruhlar doimiy emas, balki topshiriq xarakteriga va talabalarning ehtiyojlariga qarab o‘zgarib turadi.

To‘rtinchidan, ta’lim natijalarini baholashda differensial yondashuv. Bunda talabalarning shaxsiy o‘sishi, individual yutuqlari asosiy mezon sifatida qaraladi. Summativ baholash bilan bir qatorda formativ baholash (doimiy qayta aloqa) tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Xoll (2002) va Subban (2006) tomonidan olib borilgan meta-tahlillar tabaqalashtirilgan ta’lim turli yosh guruhlari va fan yo‘nalishlarida ijobiy natijalar berishini tasdiqlagan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida differensial yondashuvni joriy etish bir qator imkoniyatlar bilan birga muammolarni ham keltirib chiqaradi. Respublikamizda ta’lim islohotlari doirasida Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ining kengayishi, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimining takomillashtirilishi differensial yondashuvni tatbiq etish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, sinflarning gavjumligi, moddiy-texnika bazasining yetarli emasligi, o‘qituvchilarning yangi metodikalarga tayyorlik darajasi kabi muammolar ham mavjud.

Ассистентҳои виртуалӣ – барномаҳои интеллектуалӣ мебошанд, ки метавонанд ба саволҳои хонандагон ҷавоб диҳанд, машқҳо пешниҳод намоянд ва дар раванди омӯзиш кӯмак расонанд. Онҳо мисли ёрдамчии рақамии омӯзгор ва хонанда амал мекунанд.

Рушди фикрронии мантиқӣ – яке аз ҳадафҳои муҳими таълим мебошад, ки ба хонандагон имкон медиҳад, ки масъалаҳоро таҳлил кунанд, хулоса бароранд ва қарорҳои дуруст қабул намоянд. Бозиҳои таълимӣ ва барномаҳои сунъии интелект метавонанд ба рушди чунин қобилият мусоидат намоянд.

Малакаҳои рақамӣ – қобилият ва донишҳое мебошанд, ки инсон барои истифодаи технологияҳои муосир ба онҳо ниёз дорад. Ин малакаҳо дар асри рақамӣ барои таҳсил ва фаъолияти касбӣ аҳамияти калон доранд.

Самаранокии таълим – нишондиҳандаест, ки нишон медиҳад то чӣ андоза раванди омӯзиш муваффақ аст. Агар хонандагон дониш ва малакаҳои навро самаранок аз худ кунанд, сифати таълим баланд ҳисобида мешавад.

Инноватсия дар маориф – истифодаи усулҳо, технологияҳо ва ғояҳои нав дар раванди таълим мебошад. Ҳадафи он беҳтар намудани сифати таҳсил, баланд бардоштани шавқи хонандагон ва мутобиқ кардани таълим ба талаботи замони муосир мебошад.

Таҳлили натиҷаҳои таълим – раванде мебошад, ки дар он сатҳи дониш ва пешрафти хонандагон арзёбӣ карда мешавад. Сунъии интелект метавонад маълумотро таҳлил намуда, хатогиҳоро муайян ва роҳҳои беҳтар кардани донишро пешниҳод кунад.

Нақши омӯзгор дар таълим – омӯзгор роҳнамо ва тарбиятгари асосии хонандагон мебошад. Гарчанде ки технологияҳои муосир ба раванди таълим кӯмак мерасонанд, нақши омӯзгор дар ташкили дарс, тарбияи хонандагон ва роҳнамоии онҳо ҳамеша муҳим боқӣ мемонад.

Хулоса. Дар натиҷаи таҳлил метавон гуфт, ки ҷорӣ намудани сунъии интелект дар таълими ибтидоӣ яке аз самтҳои муҳими рушди маорифи муосир ба ҳисоб меравад. Технологияҳои сунъии интелект имконият медиҳанд, ки раванди омӯзиш самараноктар, ҷолибтар ва мутобиқ ба қобилияти ҳар як хонанда ташкил карда шавад. Бо истифода аз барномаҳои интерактивӣ ва платформаҳои рақамӣ хонандагон метавонанд донишро бо шавқу ҳаваси бештар аз худ намоянд ва малакаҳои фикрронии мантиқӣ ва эҷодкории худро инкишоф диҳанд.

Ҳамзамон, сунъии интелект ба омӯзгорон низ кӯмак мерасонад, ки раванди таълимро беҳтар ташкил намоянд. Он метавонад дар таҳияи маводи дарсӣ, санҷиши дониш ва таҳлили натиҷаҳои таълимӣ нақши муҳим бозад. Бо вуҷуди ин, бояд қайд кард, ки сунъии интелект танҳо воситаи ёрирасон мебошад ва наметавонад ҷойи омӯзгорро пурра иваз намояд. Нақши омӯзгор дар тарбия, роҳнамоӣ ва ташаккули шахсияти хонандагон ҳамеша муҳим боқӣ мемонад.

Адабиётҳои истифодашуда:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 17-fevral.

2. Anderson J. Learning and Teaching with AI Tools. – New York: Springer, 2022.

3. Abdullayev A., Abdurasulova D. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.

4. www.cspu.uz

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Artikova Nargiz Shuxratovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni va imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tadqiqotlar va O‘zbekiston Respublikasining milliy ta’lim siyosati asosida SI vositalari pedagogik amaliyotga tatbiq etishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kommunikativ kompetensiya, raqamli ta’lim, AI-TPACK, ChatGPT, o‘qituvchi tayyorlash, raqamli transformatsiya.*

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamlashtirish va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘qituvchilar va o‘quvchilardan yangi ko‘nikmalarni egallashni talab etmoqda. Kommunikativ kompetensiya - muloqot madaniyati, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalari, fikrni aniq va ta’sirchan ifodalash qobiliyatining majmui - zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan [1], [2]. Shu munosabat bilan SI texnologiyalari asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida SI savodxonligini shakllantirishga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Sperling va boshq. tomonidan o‘tkazilgan keng qamrovli (scoping review) tadqiqotda o‘qituvchilar ta’limida SI savodxonligini shakllantirish bo‘yicha mavjud ilmiy-metodologik bo‘shliqlar aniqlangan [7; 2-b.]. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, SI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilar nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki pedagogik, axloqiy va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini ham egallashlari zarur [7; 5-b.].

Thuy va boshq. tomonidan 2009-2024 yillar davomida o‘tkazilgan global miqyosdagi tahlil xizmatgacha bo‘lgan o‘qituvchilar (pre-service teachers) raqamli kompetensiyasining evolyutsiyasini kuzatib, SI texnologiyalari bilan integratsiyalashgan o‘quv muhitida kommunikativ ko‘nikmalarning ancha tezroq va chuqurroq shakllanishini tasdiqlagan [8; 70-b.]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli vositalar, xususan SI asosidagi platformalar yordamida ta’lim olgan o‘quvchilar muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda an’anaviy usullar bilan ta’lim oluvchilarga nisbatan sezilarli ustunlikka erishgan [8; 74-b.].

Nguyen va boshq. tomonidan Vyetnam pedagoglari o‘rtasida ChatGPT ning ta’limdagi ta’sirini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot (n=215) shuni ko‘rsatdiki, SI asosidagi vositalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma kommunikatsiyasini rivojlantirishda, mavzularni muhokama qilish va fikrlarni ifodalash ko‘nikmalarini takomillashtirishda sezilarli ijobiy natijalar bermoqda [3; 139-b.]. Shu bilan birga, tadqiqotchilar ta’lim jarayonida SI dan foydalanishda axloqiy muammolar va akademik halollik masalalariga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi [3; 142-b.].

Pedagoglarning SI texnologiyalariga tayyorgarligini o‘lchash uchun TPACK (Texnologik pedagogik mazmuniy bilim) modeli keng qo‘llaniladi. Karataş va Aksu Ataç tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda TPACK va AI-TPACK modellarining tarkibiy tenglamalar (structural equation modelling) orqali tahlili amalga oshirilib, o‘qituvchilarda SI ga asoslangan texnologik-pedagogik kompetensiyani shakllantirish zarurligini isbotlagan [4; 8-b.]. Mazkur model kommunikativ ta’limda SI vositalaridan maqsadli foydalanish uchun o‘qituvchining uch tomonlama: texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarini uzviy birlashtirish imkonini beradi.

Kim va Kwon tomonidan Janubiy Koreyada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining SI kompetensiyalarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot pedagoglarning SI vositalarini qo‘llashga tayyorgarligi sifati va ta’lim natijalariga bevosita ta’sirini aniqlagan [5; 4-b.]. Xususan, SI kompetensiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z darslarida interaktiv muloqot va dialogik kommunikatsiyani tashkil etishda ancha muvaffaqiyatli bo‘lganligi qayd etilgan [5; 7-b.].

Zhao, Guo va Liu tomonidan SI davridagi musiqa o‘qituvchilarining asosiy kompetensiyalarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot texnologik muhitda kreativ kommunikatsiyani rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yoritib bergan [6; 3-b.]. Tadqiqotchilarning xulosasiga ko‘ra, SI vositalari o‘quvchilarga o‘z fikr va his-tuyg‘ularini yangi raqamli formatlar orqali ifodalashga yordam beradi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning yangi ko‘rinishlarini shakllantirishga olib keladi [6; 6-b.].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari - xususan, ChatGPT, adaptiv o‘quv tizimlari va nutqni qayta ishlash dasturlari - kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini (tinglab tushunish, og‘zaki ifoda, yozma nutq, dialogik muloqot) shakllantirish uchun samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, o‘qituvchilarning SI savodxonligi va AI-TPACK kompetensiyalari darajasi bevosita o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning samaradorligini belgilaydi.

Uchinchidan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida SI texnologiyalarini kommunikativ ta’lim metodikasiga integratsiyalash - milliy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, SI texnologiyalarini ta’lim jarayoniga maqsadli va metodologik asosda joriy etish kommunikativ kompetensiyani shakllantirish sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Buning uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va zamonaviy raqamli ta’lim muhitini yaratish zarur. O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishda kompleks ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

3. Nguyen Thi Thu Thuy, Nguyen Thi Kim Lien, Phan Thi Van, Hoang Phuong Lam, Nguyen Le Thanh Truc. Assessing the impact of ChatGPT in education: perspectives from Vietnamese educators // International Journal of Evaluation and Research in Education. – 2026. – Vol. 15, No. 1. – P. 136–145.

4. Karataş, F., Aksu Ataç, B. When TPACK meets artificial intelligence: Analyzing TPACK and AI-TPACK components through structural equation modelling // Education and Information Technologies. – 2024.

5. Kim, K., Kwon, K. Exploring the AI competencies of elementary school teachers in South Korea // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2023. – Vol. 4. – 100137.

6. Zhao, X., Guo, Z., Liu, S. Exploring Key Competencies and Professional Development of Music Teachers in Primary Schools in the Era of Artificial Intelligence // Scientific Programming. – 2021. – Article ID 5097003.

7. Sperling, K., Stenberg, C.-J., McGrath, C., Åkerfeldt, A., Heintz, F., Stenliden, L. In search of artificial intelligence (AI) literacy in teacher education: A scoping review // Computers and Education Open. – 2024. – Vol. 6. – 100169.

8. Thuy, A.B., Dung, H.V., Lan-Ngoc, N.T., Hong-Hanh, P.T., Viet-Nga, N.T., Phuong Thao, T.T. The evolution of digital competence in pre-service teachers: a global perspective from 2009–2024 // International Journal of Evaluation and Research in Education. – 2026. – Vol. 15, No. 1. – P. 66–81.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Axunova Diyora Urunboy qizi,
Chirchiq DPU “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Dadabekova Gulsanam Ulug‘bek qizi,
Boboyonbekova Fotimaxon Masudzoda,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya. *Mazkur tezisda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy, metodik va amaliy asoslari keng yoritilgan. Raqamli savodxonlik, algoritmik tafakkur, dasturlash asoslari, robototexnika elementlari hamda STEAM yondashuv orqali bolalarning mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va ijodiy tafakkuri rivojlantirilishi ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt elementlarini erta yoshdan ta’limga integratsiya qilish zamonaviy va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, raqamli savodxonlik, algoritmik tafakkur, robototexnika, dasturlash, interaktiv metodlar, STEAM, innovatsion pedagogika.*

Kirish. Hozirgi davrda dunyoda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda. Sun’iy intellekt tizimlari ishlab chiqarish, tibbiyot, iqtisodiyot, transport hamda ta’lim sohalarida keng

qo‘llanilmoqda. Shu sababli yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish, ularda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish va innovatsion tafakkurni rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning intellektual rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Bu davrda bolalarda tafakkur, idrok, xotira, tasavvur va ijodkorlik faol rivojlanadi. Shu bois aynan ushbu bosqichda sun’iy intellekt elementlarini o‘qitish bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish orqali bolalar mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, ketma-ketlikni rejalashtirish, algoritm tuzish va texnologik vositalardan foydalanishni o‘rganadi. Bu esa ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli pedagogika va innovatsion ta’lim metodlari bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tajribaga asoslangan ta’lim, hamkorlikda o‘qitish hamda faol metodlarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, tajriba-sinov, so‘rovnoma va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali sun’iy intellekt elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish samaradorligi aniqlashtirildi.

Asosiy qism. Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi: *1. Algoritmik tafakkurni rivojlantirish* – ketma-ketlikni tushunish, rejalar tuzish, buyruqlarni izchil bajarish. *2. Robototexnika* – konstruktorlar yordamida modellar yaratish va boshqarish. *3. Dasturlash asoslari* – sodda buyruqlar, blokli kodlash, mantiqiy amallar. *4. STEAM faoliyatlari* – fanlararo integratsiya asosida amaliy masalalarni hal qilish. *5. Interaktiv o‘yinlar* – o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish. Mazkur metodlar bolalarning mustaqil ishlashi, ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida AKT va raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda sun’iy intellektga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [1].

Natijalar. Tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagilar aniqlandi: - bolalarning darsga qiziqishi oshdi; - mantiqiy fikrlash darajasi yaxshilandi; - mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllandi; - raqamli vositalardan foydalanish malakasi rivojlandi; - ijodkorlik faollashdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion metodlar an’anaviy ta’limga nisbatan yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt elementlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bolalarning intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Biroq bu jarayonda pedagoglarning ham raqamli kompetensiyasini oshirish zarur. O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni puxta bilgan taqdirdagina ta’lim jarayonini samarali tashkil eta oladi.

Xulosa. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning innovatsion rivojlanish yo‘nalishi hisoblanadi. Interaktiv, loyiha va STEM yondashuvlar bolalarda kreativlik, mantiqiy fikrlash va raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. Ushbu jarayon kelajakda raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.

2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
3. UNESCO. Digital Learning Guidelines. – 2021.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI BILAN INDIVIDUAL ISHLASH METODIKASI

Baxtiyorova Madina shuhrat qizi,
Cho‘lliyeva Sitora Mamat qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual ishlash metodikasining nazariy asoslari, tarixiy shakllanishi va amaliy ahamiyati biroz tahlil qilingan. Tadqiqotda boshlang‘ich ta’lim bosqichida har bir bolaning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayinini tashkil etishning zarurligi asoslab beriladi. O‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘lishi sababli individual yondashuv ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, individual ishlash metodikasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish,o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va iqtidorli bolalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *individual ishlash, o‘quvchi xususiyatlari, differensial yondashuv, motivatsiya, shaxsiylashtirilgan ta’lim, o‘qituvchi roli, ta’lim samaradorligi.*

Prezidentimizning ta’lim sifati bo‘yicha tezkor qarorlaridan biri – ta’lim sifatini taminlash milliy agentligini tashkil etish bo‘lib, bu agentlik umumta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan ta’lim jarayonini sog‘lom, shaffof va sifatli amalga oshirishni nazorat qiladi. Bu davlat siyosati maktab ta’limi metodikasini takomillashtirish va har bir o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim – inson hayotidagi eng muhim va tasirli bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolaning bilimga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati, ijtimoiy ko‘nikmalari va axloqiy fazilatlari shakllanadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy namuna, tarbiyachi va ruhiy qo‘llab-quvvatlovchi sifatida muhim rol oynaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari turlicha psixologik xususiyatlarga, qobiliyat darajasiga va o‘quvga bo‘lgan motivatsiyasiga ega. Shu sababli, barcha bolalarni bir xil uslub va tezlikda o‘qitish ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, individual ishlash metodikasi boshlang‘ich ta’limda ustuvor pedagogik yondashuv sifatida ajralib turadi. Bu metodika o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim berish imkonini yaratadi, shuningdek, har bir bolaning bilim va ko‘nikmalarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Individual yondashuvning tarixiy ildizlari qadimiy Sharq va Yevropa pedagogik tafakkurida ham ko‘riladi. Buyuk allomalar, masalan, Al-Farobiy, Ibn Sino,Pestalozzi va Komenskiy o‘z asarlarida o‘quvchilarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalash va o‘qitish zarurligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, har bir bola o‘ziga xosdir va uni tushunish,

rivojlantirish va motivatsiya qilish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy talim tizimida individual ishlash metodikasi yanada dolzarb bo‘lib, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar bilan uygunlashmoqda. Shuningdek, u pedagogik tajriba uzluksizligini taminlaydi, yosh o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim sifatini oshiradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual ishlash metodikasini o‘rganish va tatbiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Individual ishlash metodikasining mohiyati va vazifalari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual ishlash metodikasi – bu o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, qobiliyati va o‘quvga bo‘lgan motivatsiyasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish usuli. Ushbu yondashuvning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: har bir bolaning qobiliyat va bilim darajasiga mos ta’lim berish; o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; past o‘zlashtiruvchi va iqtidorli o‘quvchilarni mos ravishda qo‘llab-quvvatlash; o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va shunga mos topshiriqlar tayyorlash.

Individual yondashuv, shuningdek, darsning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va ularni o”rganishga jalb qiladi. Pedagogik asoslar va tarixiy ildizlari. Individual ishlash metodikasi pedagogika tarixida qadimdan shakllangan. Sharq va Garb pedagogik tafakkurida bu yondashuv alohida o‘rin egallagan. Qadimgi maktab va madrasalarda ustozlar shogirdlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda dars olib borganlar.

Buyuk pedagoglar va mutafakkirlar: Al-Farobiy – o‘quvchining shaxsiy qobiliyatlariga mos tarbiya berish zarurligini ta’kidlagan; Ibn Sino – shogirdning bilim darajasiga qarab dars jarayonini tashkil etish mas’uliyatini olgan; Yan Amos Komenskiy va Pestalozzi – individual yondashuv asosida o‘quvchilarning tabiatiga mos ta’limni ilgari surgan. Shuningdek, tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv o‘quvchilarning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Boshlang‘ich sinfda individual ishlash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

Diferensial yondashuv: o‘quvchilar bilim darajasiga qarab topshiriqlar berish;

Kuzatuv va diagnostika: o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini doimiy monitoring qilish;

Shaxsiylashtirilgan topshiriqlar: qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olgan holda qo‘shimcha mashqlar tayyorlash;

O‘quvchi bilan individual maslahatlar: darsdan tashqari vaqt ichida savollar va muammolarni hal qilish;

Ota-onalar bilan hamkorlik: uy vazifalari va qo‘shimcha mashg‘ulotlarda ota-onaning faol ishtirokini ta’minlash.

Ushbu metodlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va shaxsiy rivojlanishini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uygunlashuvi. Bugungi kunda individual ishlash metodikasi raqamli vositalar va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan:

Interaktiv darslar va elektron talim platformalari;

Onlayn testlar va diagnostika tizimlari;

Raqamli o‘quv qurollari yordamida har bir o‘quvchiga moslashtirilgan mashqlar;

O‘qituvchining individual ko‘rsatmalarini raqamli shaklda uzatish.

Shu tarzda zamonaviy ta’lim sharoitida individual yondashuv o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchining o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish va pedagogik tajribani uzluksiz yetkazish imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual ishlash metodikasi pedagogika fani va amaliy ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot ko‘rsatadiki, individual yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va axloqiy tarbiyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir bolaning qobiliyati, o‘quvga bo‘lgan motivatsiyasi va psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lgani sababli, o‘qituvchi tomonidan shaxsiylashtirilgan yondashuv zarur bo‘ladi. Individual ishlash metodikasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, darslarga qiziqishini oshirish, past o‘zlashtiruvchi va iqtidorli bolalarni mos ravishda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga,u o‘qituvchining professional mahoratini oshirish, pedagogik tajribani uzluksiz davom ettirish va ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2018. 45-52 b.
2. Saidahmedov N. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik mahorati. Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 58-65 betlar.
3. Toxtaboyeva D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – T.: Ilm Ziyo, 2018. 14-20 b.
4. Abdulla Avloniy. Pedagogik asarlar. Toshkent: Manaviyat, 2014. 102-106 betlar.

GADJETLARNING OILAVIY MUOMALA MADANIYATIGA TA’SIRI

Burxanova Mavjuda Bekbutayevna,
Chirchiq DPU, Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Yo‘ldashova Marjona Bahodir qizi,
Iskandarova Ruxshona Sherali qizi,
Chirchiq DPU, Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabalari.

Annotasiya. *Ushbu maqolada gadjetlarning (smartfon, planshet, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar) oilaviy muomala madaniyatiga ta’siri psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi oilaviy munosabatlar tizimiga sezilarli o‘zgarishlar kiritmoqda. Tadqiqotda gadjetlardan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish natijasida yuzaga keladigan muloqot uzilishlari, emotsional sovuqlik, e’tibor yetishmasligi, “virtual yaqinlik - real uzoqlik” paradoksi kabi holatlar ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *gadjetlar, oilaviy muomala madaniyati, raqamli texnologiyalar, muloqot, emotsional yaqinlik, oilaviy munosabatlar, raqamli qaramlik, axborot muhiti, psixologik ta’sir, virtual muloqot, ijtimoiylashuv.*

Kirish. Raqamli davrda elektron gadjetlarning, jumladan, smartfonlar, planshetlar, noutbuklar va boshqa ko‘chma aloqa qurilmalarining keng tarqalgan integratsiyasi butun dunyo bo‘ylab oilaviy tizimlarning strukturaviy va funktsional dinamikasini o‘zgartirdi. So‘nggi empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, butun dunyo bo‘ylab kattalarning 90% dan ortig‘i har kuni smartfonlardan foydalanadi, bu esa tezkor muloqot uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratadi, ammo shu bilan birga xonadonlar ichidagi an’anaviy yuzma-yuz muloqotlarga jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Ushbu texnologiyalar tezkor axborot almashinuvini, asinxron muloqotni va masofaviy aloqani osonlashtiradi; shunga qaramay, ularning hamma joyda mavjudligi oilaviy muloqot sifatini, hissiy birdamlikni va munosabatlardan qoniqishni saqlashga oid murakkab savollarni tug‘diradi.

Gadjetlarning oilaviy munosabatlar modellariga dualistik ta’sirini tobora ko‘proq tadqiqotlar ta’kidlamoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar geografik jihatdan tarqoq qarindoshlar o‘rtasidagi aloqani kuchaytirishi va xabar almashish va video qo‘ng‘iroqlar orqali uzluksiz ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, shu bilan masofalar bo‘ylab munosabatlarning barqarorligiga hissa qo‘shadi. Boshqa tomondan, raqamli aloqa vositalariga haddan tashqari ishonish tizimli ravishda yuzma-yuz muloqotning pasayishi, hissiy sezgirlikning pasayishi va oilaviy faoliyat davomida diqqatning parchalanishi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Masalan, tizimli adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatdiki, yuqori texnologiyalardan foydalanish oilaviy dam olish va bog‘lanish vaqtining qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu hissiy farovonlik va oila faoliyati uchun juda muhimdir.

Ko‘p qirrali so‘rovlar bu tendentsiyani yanada aniqroq ko‘rsatadi: oilalarning taxminan 47 foizi texnologiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shaxsiy o‘zaro ta’sirni susaytirganini, empatiya va o‘zaro tushunishni qo‘llab-quvvatlaydigan og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotning nuanslarini buzganini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari, elektron qurilmalar oilaviy asosiy faoliyatlar – masalan, ovqatlanish yoki kechki yig‘ilishlar paytida mavjud bo‘lganda, qurilmadan foydalanish va oila a’zolari o‘rtasida subyektiv farovonlikning pasayishi o‘rtasida miqdoriy bog‘liqliklar kuzatilgan, bu esa aloqa sifatining yomonlashishi bilan bog‘liq. Bu naqshlar texnoferensiya deb nomlanuvchi hodisani aks ettiradi, bunda raqamli qurilmalarning uzilishlari munosabatlar jarayonlariga aralashadi, bu esa hissiy beparvolik, izolyatsiya va shaxslararo masofa hissiyotlarini kuchaytirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Oilaviy muloqot bo‘yicha olimlar texnoferensiya deb ataladigan hodisani – raqamli qurilmalardan foydalanish orqali shaxslararo o‘zaro ta’sirlarning uzilishi - aniqlaydilar, bu empirik ravishda yuzma-yuz muloqotning pasayishi va kommunikativ sifatning pasayishi bilan bog‘liq. Uzunlamasına va kesma tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gadjetlarga haddan tashqari bog‘liqlik oilaviy vaqtni qisqartirish, hissiy aloqalarning zaiflashishi va ekrandan foydalanish bilan bog‘liq ichki nizolarning kuchayishi, ayniqsa o‘smirlar orasida. Masalan, empirik topilmalar oilalar ekranlarga ixtiyoriy vaqt ajratganda raqamli bo‘lmagan qo‘shma muloqotning sezilarli darajada kamayganligini xabar qiladi, bu tendentsiya hissiy izolyatsiyaning kuchayishi va munosabatlardagi norozilikning kuchayishi bilan bog‘liq. Aksincha, boshqa tadqiqotlar aloqa texnologiyalarining moslashuvchan foydaliligini ta’kidlaydi. Geografik jihatdan tarqoq oilalar uchun raqamli vositalar munosabatlardagi muhim uzluksizlikni ta’minlaydi, bu esa masofalar bo‘ylab hissiy yaqinlikni saqlab turadigan sinxron video qo‘ng‘iroqlar va asinxron xabar almashish imkonini beradi. Ba’zi keksa avlod kohortalari raqamli aloqa tufayli oilaviy yaqinlikdagi cheklangan o‘zgarishlarni sezsalar-da, foydalanuvchilarning 25% gacha internet va mobil telefondan foydalanish tufayli kengaytirilgan oilaviy aloqadagi yaxshilanishlarni tan olishadi. Ushbu qarama-qarshi topilmalar texnologiya rolining murakkabligini ta’kidlaydi: u an’anaviy aloqa shakllarini yo‘q qilishi mumkin bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida tobora mobillashib borayotgan dunyoda oilaviy uyg‘unlikni saqlab qolish uchun yangi usullarni yaratadi.

Adabiyotlarda oilaviy qoidalar va vositachilik amaliyotlari texnologiyaning ta’siriga qanday ta’sir qilishi batafsil o‘rganiladi, aniq chegaralar (masalan, qurilmasiz ovqatlanish, vaqt cheklovlari) munosabatlardagi qoniqishning yaxshilanishi bilan bog‘liq, cheklanmagan foydalanish esa shaxslararo keskinlikning oshishi bilan bog‘liq. Shuning uchun, adabiyotlarda raqamli texnologiyalar sog‘lom oilaviy muloqotni qo‘llab-quvvatlaydimi yoki yo‘q qiladimi, aniqlashda kontekstual va xulq-atvor

moderatorlarining ahamiyati ta’kidlangan. Ushbu tushunchalarga qaramay, raqamli aloqaning qo‘llab-quvvatlovchidan zararliga o‘tish chegarasini aniqlashda va yosh guruhlari, ijtimoiy-iqtisodiy maqomlar va madaniy kontekstlar bo‘yicha turli ta’sirlarni aniqlashda sezilarli kamchiliklar mavjud. Shunday qilib, ushbu adabiyot tahlili oilaviy muloqot dinamikasida ham miqdoriy tendentsiyalarni, ham sifat jihatlarini aks ettira oladigan aralash usulli yondashuvni rag‘batlantiradi.

Natijalar. Gadjetlarning oilaviy muomala madaniyatiga ta’siri bo‘yicha miqdoriy va sifatli natijalar birlashtirilgan tahlil shaklida taqdim etildi. Tahlil natijalari gadjetlardan foydalanish odatlari bilan oila ichidagi muloqot sifati, emotsional yaqinlik va o‘zaro munosabatlar dinamikasi o‘rtasida aniq bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda.

Gadjetlardan foydalanish chastotasi va oila muloqotiga ta’siri. Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar gadjetlardan foydalanish oilaviy muloqot jarayonini uzaytirishi yoki uzaytirib yuborishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, smartfonlar, planshetlar va boshqa raqamli qurilmalar oilaviy suhbat vaqtida muloqotni uzilishi - “technoference” fenomeni orqali buzilishi aniqlangan. Bu fenomen, qurilma real vaqtli muloqotni uzatganda yuzaga keladi va ota-ona hamda farzandlar o‘rtasidagi e’tiborni kamaytiradi. Amerika pediatriya jurnali tomonidan chop etilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar kundalik hayotda o‘rtacha 5,12 soat mobil telefonlaridan foydalanadi, va bu vaqtning 27 % oilaviy suhbat vaqtiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, 68 % AQShdagi ota-onalar gadjetlarning oilaviy muloqotga chalg‘ituvchi omil bo‘lishini tan oladi. Bu ko‘rsatkichlar gadjetlardan foydalanishning oilaviy muloqotga bo‘lgan salbiy ta’siri chuqurligini ilmiy tarzda isbotlaydi: qurilmalar asosiy suhbat va emotsional yaqinlik vaqtini qisqartiradi va kengroq ijtimoiy-psixologik oqibatlarga olib keladi.

Farzand va ota-ona munosabatlariga bo‘lgan ta’sir. Oila ichidagi texnologik aralashuvlar, xususan, ota-onalar gadjetlardan foydalanayotganda e’tiborning tarqalishi bolalar va ota-ona o‘rtasidagi muloqot sifatini pasaytiradi. Bu holat o‘z navbatida bolalarda hissiy qulaylikning pastligi, diqqatni jamlay olmaslik yoki o‘zaro tushunmovchiliklarni kuchaytiradi. Masalan, bir tadqiqotda ota-onalar kun davomida kamida bir marta gadjetlar tufayli o‘z farzandlari bilan to‘liq muloqot qilmaslik holatini qayd etgan: 47 % ota-onalar gadjetlar oilaviy suhbatda uzilishiga sababchi deb hisoblaydi. Bundan tashqari, jarayonni baholovchi ilmiy tadqiqotlarda ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi bevosita muloqotning zaiflashuvi bolalarning emotsional qo‘llab-quvvatlanish hissi va ijobiy o‘zaro aloqalar sonini kamaytirganini aniqladi, bu esa oila ichidagi hamjamiyat va qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usini sezilarli darajada pasaytiradi.

Ota-onalar tomonidan texnologik aralashuv - “technoference” - o‘rganilganda, ularning bolalarlarning metaraqibiyat xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga ta’siri ham aniqlanadi. Unga ko‘ra, ko‘proq texnologik uzilishlar bolalarda yuqori darajadagi ruhiiy taranglik, e’tibor yo‘qolishi va xulq-atvor muammolari bilan bog‘liq ekanligi kuzatilgan. Bu statistika nafaqat ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot sifati uchun, balki guruh ichidagi emotsional dinamika va farzandning shaxsiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, barcha ilmiy manbalar gadjetlar faqat ijobiy yoki faqat salbiy ta’sir ko‘rsatadi deb qat’iyan xulosa qilmaydi. Masalan, ba’zi oilalar uchun raqamli texnologiyalar uzoq masofadagi qarindoshlar bilan aloqani mustahkamlash, umumiy media kontentni birga tomosha qilish yoki rejalashtirish vazifalarini bajarish orqali ijobiy kommunikatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa texnologiyaning oilaviy dinamikaga murakkab, kontekstga bog‘liq ta’sirini ko‘rsatadi.

Muhokama. Bizning natijalarimizni boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirsak, o‘xshash tendensiyalar kuzatiladi. Masalan, Radesky va hamkasblari (2014) gadjetlar

oilaviy kechki ovqat va suhbatlarda mavjud bo‘lganda, ota-ona va bola o‘rtasidagi e’tiborning kamayishi, shuningdek, bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishida muammolar paydo bo‘lishini aniqlagan. Shu bilan birga, Pew Research Center (2019) hisobotiga ko‘ra, 68 % ota-onalar gadjetlar oilaviy muloqotni buzadi deb hisoblaydi. Ushbu topilmalar tadqiqotimizdagi natijalar bilan mos keladi va global kontekstda gadjetlarning oilaviy muloqotga salbiy ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq, ba’zi tadqiqotlar gadjetlarning ijobiy rolini ham qayd etadi. Masalan, uzoqda yashovchi qarindoshlar bilan muloqot qilish, umumiy oilaviy faoliyatlarni rejalashtirish va birgalikda media kontentni iste’mol qilish gadjetlar yordamida amalga oshiriladi. Bu esa bizning natijalarimizdagi moslashuvchanlik va kontekstga bog‘liq ta’sir g‘oyasini tasdiqlaydi.

Gadjetlar oiladagi muloqot sifatini kamaytiruvchi asosiy mexanizm - bu e’tibor tarqalishi va emotsional disengagement. Ota-ona yoki bola qurilmalarga qarab vaqtni sarflaganda, ular bevosita suhbat va hissiy signallarni qabul qilmaydi, natijada oilaviy dialog va emotsional yaqinlik pasayadi. Shu bilan birga, raqamli qoidalar va chegaralarning mavjudligi bu ta’sirni sezilarli darajada kamaytiradi, ya’ni oilalar o‘zaro kelishilgan texnologik qoidalar orqali muloqot sifatini saqlashlari mumkin. Tadqiqot natijalari yosh farqlari ham muhim ekanligini ko‘rsatdi: adolescentlar gadjetlardan ko‘proq foydalanadi va ular muloqot sifatining pasayishini ko‘proq sezadi. Bu, avvalgi tadqiqotlar bilan mos kelib, bolalar va o‘smirlar texnologiyaga yuqori darajada moslashuvchan bo‘lishini va shu bilan birga ijtimoiy aloqalarida muammolarga duch kelishini ko‘rsatadi.

Gadjetlar oilaviy muloqotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa-da, ular ijobiy rolni ham o‘ynashi mumkin, agar foydalanish konteksti va qoidalar aniq belgilangan bo‘lsa. Bu esa oilaviy psixologiya va pedagogika amaliyoti uchun muhim xulosalar beradi. Ota-ona va farzandlar o‘rtasida raqamli chegaralar va qoidalar joriy qilish muhim. Oilaviy faoliyatlarda gadgetlardan foydalanish tartibini muvofiqlashtirish, masalan, ovqat payti va birgalikdagi dam olish vaqtida cheklash, muloqot sifatini saqlashga yordam beradi. Texnologiyalarning ijtimoiy va emotsional foydalari ham inobatga olinib, masofaviy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash uchun rejalashtirilgan va nazorat ostidagi foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot gadjetlarning oilaviy muomala madaniyatiga murakkab va ko‘p qirrali ta’sirini aniqladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnologiyalarning mavjudligi oilaviy muloqot shakllarini o‘zgartiradi, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi bevosita suhbat va emotsional yaqinlik darajasini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, gadjetlardan ongli va me’yoriy foydalanish, oilaviy qoidalar va chegaralarning mavjudligi, texnologiyaning salbiy ta’sirini kamaytirib, ijobiy aloqa va masofaviy muloqotni mustahkamlash imkonini yaratadi. Natijalar yosh, demografik va ijtimoiy faktorlarning ham ta’sirini ko‘rsatadi: o‘smirlar gadjetlarga ko‘proq bog‘liq bo‘lib, oilaviy muloqotdagi salbiy ta’sirni sezilarliroq his qiladi. Shu tariqa, gadjetlar oilaviy muomala madaniyatiga bir tomonlama salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi; ularning ta’siri kontekstga, foydalanish odatiga va oiladagi me’yoriy qoidalarga bog‘liq holda o‘zgaradi. Umuman olganda, tadqiqot oilaviy psixologiya va kommunikatsiya sohasida gadjetlarning rolini chuqurroq tushunishga imkon beradi va oilaviy muloqot madaniyatining zamonaviy sharoitda shakllanishidagi murakkab omillarni yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov, R. (2020). Oila va oilaviy muloqot madaniyati: zamonaviy muammolar. Toshkent: Ilm-Fan nashriyoti.

2. Karimova, N. (2018). Bolalar va ota-onalar o‘rtasida kommunikatsiya: psixologik tadqiqotlar. Toshkent: Sharq.

3. Abdullayev, A., & Rustamov, F. (2021). Gadjetlardan foydalanish va oilaviy munosabatlar. Psixologiya va pedagogika jurnali, 4(2), 45–53.

4. Usmonova, M. (2022). Oila psixologiyasida raqamli vositalarning ta’siri. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy universiteti nashriyoti.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODIKASI

Davlatova Munisa Aminovna,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.
Mo‘minov Yo‘lchi Shovkat o‘g‘li,
Baxriddinova Marjona Bekzod qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-kurs talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning metodik afzalliklari yoritilgan. SI vositalari yordamida darslarni individuallashtirish, o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish va murakkab mavzularni vizuallashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xulosa qismida SI o‘qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, metodika, individual ta’lim, raqamli savodxonlik, interaktiv dars, motivatsiya.*

Bugungi ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilimni mustahkamlash va darsni qiziqarli qilish masalalari hozirgi kunda pedagoglarning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, SI nafaqat texnologik vosita, balki samarali metodik yondashuv sifatida ham ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi muhimdir.

Hozirgi sharoitda o‘quvchilar nafaqat an’anaviy bilimlarni egallashi, balki raqamli savodxonlik, kreativ tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishlari zarur. Shu bois, sun’iy intellekt o‘qituvchiga darsni individual tarzda tashkil etishda yordam beradi, o‘quvchilarning bilimlarni tezroq va chuqurroq o‘zlashtirishini ta’minlaydi, shuningdek, darsga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchi SI yordamida biron bir mavzu bo‘yicha video-rolik, animatsiya yoki interaktiv slayd tayyorlashi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning diqqatini jalb etishga va ularni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi.

Matematika darslarida murakkab tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish, geometrik shakllarni animatsiyalarda ko‘rsatish, formulalarni amaliy misollar bilan mustahkamlash o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Ona tili darsida esa yangi so‘zlarni interaktiv o‘yinlar orqali o‘rgatish, matnlarni ovoz bilan eshittirish, dialog va rolli o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘qituvchiga o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda dars materiallarini moslashtirish imkonini beradi. Masalan, ba’zi o‘quvchilar vizual tushuntirishga ko‘proq e’tibor qaratadi, boshqalari esa interaktiv mashqlar orqali o‘rganishni afzal ko‘radi.

SI yordamida har bir o‘quvchiga individual ta’lim yo‘nalishini ishlab chiqish mumkin, bu esa bilimni mustahkamlashni samarali qiladi. Natijada, sun’iy intellekt yordamida tashkil etilgan dars jarayoni nafaqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish va raqamli vositalardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, SI o‘qituvchining ishini yengillashtiradi, darsni interaktiv va qiziqarli qiladi, o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb qiladi va dars samaradorliligini ananaviy darslarga qaraganda ancha yaxshilaydi va dars sifatini oshiradi. Ushbu jarayonning yana bir muhim jihati shundaki, sun’iy intellekt ta’limdagi "tengsizlik" muammosini hal etishga yordam beradi.

Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan sinfda, SI oqsayotgan o‘quvchilarga qo‘shimcha soddalashtirilgan tushuntirishlar berish orqali ularni guruhdan ortda qolmasligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, fanni tez o‘zlashtirgan iqtidorli o‘quvchilarga murakkabroq va ijodiy topshiriqlar taqdim etish orqali ularning salohiyatini yanada yuzaga chiqaradi. Bu esa o‘qituvchining diqqat-e’tiborini sinfning barcha a’zolariga birdek yetkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, SI nafaqat dars vaqtida, balki darsdan tashqari jarayonlarda ham o‘quvchiga hamrohlik qiladi.

O‘quvchi uyda vazifa bajarayotganida tushunmovchilikka duch kelsa, SI tizimi unga darhol yordamga keladi va xatolarini real vaqt rejimida tuzatib, to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatadi. Bu o‘quvchida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantiradi va ularni mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi. Bilimlarning doimiy tahlil qilinishi esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining haftalik yoki oylik o‘sish dinamikasini aniq ko‘rsatib beruvchi vizual hisobotlarni taqdim etadi.

Zamonaviy ta’lim muhitida sun’iy intellektning o‘rni beqiyosdir, chunki u darsni shunchaki ma’lumot yetkazish maydonidan haqiqiy intellektual laboratoriyaga aylantiradi. O‘quvchilar raqamli modellar bilan ishlash jarayonida nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini chuqurroq anglaydilar. Masalan, geografiya darsida dunyoning istalgan nuqtasiga virtual sayohat qilish yoki fizika darsida murakkab qonuniyatlarni vizual simulyatsiya orqali ko‘rish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndirmaydi, aksincha, yangi marralar sari undaydi. Shu tariqa, SI o‘qituvchi uchun “ikkinchi qo‘l” vazifasini o‘tab, uning pedagogik mahoratini yangi qirralarini ochib beradi. Darslar zerikarli bir xillikdan qochib, har safar yangicha qiziqarli elementlar bilan boyitiladi. Bu esa umumiy ta’lim sifatini an’anaviy tizimlardan bir necha pog‘ona yuqoriga ko‘taradi va zamonaviy o‘quvchini jamiyatning yetuk, raqobatbardosh va bilimli a’zosi sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada, maktab shunchaki bino emas, balki har bir bola o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon eta oladigan innovatsion makonga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib, darslarni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. U har bir bolaning qobiliyatiga qarab darsni moslashtirishga, murakkab mavzularni oddiy vizual shaklda tushuntirishga va vaqtni tejashga yordam beradi. Yakunda SI ta’lim sifatini oshirib, bolalarni zamonaviy dunyoga tayyorlovchi eng samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori.

2. Davlatova M.A. Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari. // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Chirchiq: Chirchiq DPU, 2023. – 115 b.

3. Xursanov F.B. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt: imkoniyatlar va strategiyalar. // "Zamonaviy ta’lim" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2022. №10. – 12-18-b.

TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Erkinova Dilso‘z Olim qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU talabasi.
Qo‘ziboyev Vohidjon Alijon o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya asri sifatida ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki innovatsion fikrlash, ijodiy yondashuv va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. Shu sababli pedagoglarning professional faoliyatida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish hamda ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagog o‘z faoliyatida yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishi mumkin.

Sun’iy intellekt inson tafakkuriga xos bo‘lgan ayrim jarayonlarni kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish va amalga oshirish imkonini beruvchi tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu texnologiya katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish hamda murakkab masalalarni hal etishda keng qo‘llaniladi. Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimida ham faol qo‘llanilmoqda. Ayniqsa raqamli ta’lim platformalari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari hamda interaktiv o‘quv dasturlari pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bunday tizimlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, ularning bilim darajasini baholash va individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Natijada ta’lim jarayoni individuallashtiriladi va har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos ta’lim muhitini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagoglar raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda sun’iy intellekt asosidagi platformalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Bunday kompetensiyalar pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga hamda ta’lim jarayonini innovatsion asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi afzalliklaridan biri o‘quv jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatidir. Masalan, avtomatik baholash tizimlari o‘quvchilarning bilimini tezkor va xolis baholashga yordam beradi. Bu esa

pedagoglarning vaqtini tejashga hamda ularning diqqatini o‘quv jarayonining mazmuniy tomonlariga qaratishga imkon yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari o‘quv materiallarini tayyorlash, tahlil qilish va o‘quvchilarga taqdim etishda muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim afzalligi ta’lim jarayonining interaktivligini oshirishdir. Interaktiv platformalar orqali o‘quvchilar turli virtual tajribalar o‘tkazish, mustaqil ravishda bilim olish va muammoli vaziyatlarni hal etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, analitik tafakkurini hamda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari pedagoglarga dars jarayonini individual va guruh bo‘yicha optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, AI yordamida o‘quvchilarning qiyinchiliklarga duch kelgan mavzularini aniqlash va ularga mos qo‘shimcha resurslar tayyorlash mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt pedagoglarga ta’lim jarayonining samaradorligini tahlil qilish, dars rejasini moslashtirish hamda o‘quvchilarning individual yondashuvga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash imkonini yaratadi.

Pedagoglar uchun sun’iy intellektning yana bir amaliy imkoniyati — o‘quvchilarning faoliyatini real vaqt rejimida kuzatishdir. Masalan, onlayn platformalarda AI tizimlari o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini, topshiriqlarni bajarish tezligini va interaktiv mashg‘ulotlarda qatnashishini tahlil qiladi. Bu pedagoglarga har bir o‘quvchi uchun moslashuvchan yondashuv ishlab chiqishga yordam beradi va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt pedagoglarga o‘quv jarayonida ijodiy va innovatsion metodlarni joriy etishda yordam beradi. Masalan, AI yordamida virtual laboratoriyalar yaratish, simulyatsion mashg‘ulotlar o‘tkazish va o‘quvchilarning ilmiy-texnikaviy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va analitik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimida keng joriy etish pedagoglarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi: Ta’lim jarayonini individuallashtirish – har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan o‘quv rejasi va materiallarni yaratish. Dars jarayonini avtomatlashtirish – baholash, test topshiriqlari va o‘quvchilarning natijalarini monitoring qilishni soddalashtirish. Innovatsion metodlarni qo‘llash – virtual laboratoriyalar, interaktiv o‘quv dasturlari, simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. Pedagoglar samaradorligini oshirish – AI tizimlari yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish va darslarni rejalashtirishni tezlashtirish. Shuningdek, pedagoglarning AI ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etilishi tavsiya etiladi. Ushbu kurslarda pedagoglar: sun’iy intellekt tizimlarining asosiy printsiplari bilan tanishadi, AI asosida ishlovchi ta’lim platformalarini qo‘llashni o‘rganadi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va moslashuvchan dars rejalarini yaratish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

Kelajakda ta’lim muassasalari sun’iy intellektning imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali pedagogik jarayonni yanada modernizatsiya qilishlari kutilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda pedagoglarning professional kompetensiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish – zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvni shakllantirish, o‘quv

jarayonini individuallashtirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim qismi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Pedagoglarning sun’iy intellekt bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish kelajakdagi ta’lim rivojining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2018.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.
3. Xodjayev B. Pedagogika nazariyasi va metodologiyasi. Toshkent, 2020.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qtuvchisi.
Baxtiyorova Madina Shuhrat qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida bolalarda algoritmik fikrlash, ma’lumotlar bilan ishlash, muammolarni yechish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Maqolada xalqaro tajriba, ilmiy tadqiqotlar hamda pedagogik yondashuvlar asosida SI savodxonligini erta yoshdan shakllantirishning metodik yo‘llari bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, algoritmik fikrlash, raqamli savodxonlik, STEM, tanqidiy tafakkur, kompetensiya, innovatsion pedagogika*

XXI asrda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Xususan, UNESCO hisobotlariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarda nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va mas’uliyatli qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantirishi lozim. 2019-yilda OECD tomonidan e’lon qilingan “Future of Education and Skills 2030” konsepsiyasida kelajak kompetensiyalari qatorida raqamli savodxonlik va sun’iy intellekt asoslarini tushunish muhim omil sifatida qayd etilgan. Sun’iy intellekt deganda inson intellektual faoliyatiga xos jarayonlarni - o‘rganish, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoni hal qilish va qaror qabul qilishni modellashtiruvchi tizimlar tushuniladi. World Economic Forum ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilgacha ko‘plab kasblar avtomatlashtiriladi va yangi kasb turlari paydo bo‘ladi. Bu esa bolalarni erta yoshdan texnologik tafakkurga tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida sun’iy intellekt elementlarini integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish, avvalo, bolalarda algoritmik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdan boshlanadi. Psixolog olim Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, 5-10 yosh oralig‘ida bolalarda konkret-operatsion tafakkur bosqichi shakllanadi, ya’ni ular sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglay boshlaydi. Bu bosqich algoritmik tushunchalarni (ketma-ketlik, shart, takrorlanish) o‘rgatish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshdan dasturlash elementlari bilan tanishgan bolalarda muammoni hal qilish qobiliyati sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Masalan, Massachusetts Institute of Technology huzuridagi Media Lab tomonidan ishlab chiqilgan Scratch dasturi orqali 6-11 yoshli bolalarda mantiqiy fikrlash va ijodkorlik ko‘rsatkichlari oshgani aniqlangan. Scratch vizual blokli dasturlash muhiti bo‘lib, u murakkab sintaksis talab qilmaydi va bolalarga algoritmik tushunchalarni oson o‘zlashtirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish faqat dasturlashni o‘rgatish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon ma’lumotlar bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bolalarga oddiy kuzatuv natijalarini yig‘ish, ularni taqqoslash va xulosa chiqarishni o‘rgatish - kelgusida ma’lumotlar tahlili asoslarini o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Masalan, ob-havo kundaligini yuritish yoki o‘simlik o‘sishini kuzatish orqali bolalar ma’lumotlarni tizimlashtirish va grafik tasvirlashni o‘rganadilar. Bu esa keyinchalik SI tizimlarining qanday ishlashini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellektni erta bosqichda o‘qitish axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni ham nazarda tutadi. UNICEF tavsiyalariga ko‘ra, bolalarga raqamli xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va onlayn muhitdagi xatti-harakat qoidalarini o‘rgatish zarur. SI savodxonligi - bu nafaqat texnik bilim, balki texnologiyalardan ongli va xavfsiz foydalanish madaniyatidir.

Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt elementlarini integratsiya qilish fanlararo yondashuv asosida amalga oshirilishi samarali hisoblanadi. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) modeli doirasida matematika, tabiiy fanlar va texnologiya darslarini integratsiyalash bolalarda tizimli tafakkurni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEM asosida ta’lim olgan o‘quvchilarda analitik fikrlash darajasi an’anaviy ta’lim olgan tengdoshlariga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt tushunchalarini o‘yin texnologiyalari orqali o‘rgatish samarali natija beradi. Didaktik o‘yinlar, robototexnika to‘garaklari va interaktiv platformalar bolalarning qiziqishini oshiradi. Robototexnika elementlari yordamida bolalar “agar unda” shartlari asosida buyruqlar berishni, xatolarni aniqlash va tuzatishni o‘rganadilar. Bu jarayon mantiqiy tafakkur, diqqat va sabr-toqatni rivojlantiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, erta yoshdan texnologik savodxonlikni rivojlantirish kelajakda akademik muvaffaqiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Stanford University olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda boshlang‘ich sinflarda dasturlash asoslarini o‘rgangan o‘quvchilarning matematika fanidan o‘zlashtirish darajasi yuqoriroq bo‘lgani aniqlangan. Shu bilan birga, pedagoglarning o‘zi ham sun’iy intellekt bo‘yicha metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida raqamli pedagogika, sun’iy intellekt asoslari va innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish bolalarning kognitiv, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlariga mos va interaktiv metodlar asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, erta yoshdan algoritmik fikrlash, ma’lumotlar bilan ishlash va raqamli madaniyatni rivojlantirish bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi. Sun’iy intellektni o‘qitish faqat texnik bilim berish emas, balki tanqidiy tafakkur, ijodkorlik va mas’uliyatli raqamli fuqarolikni shakllantirish jarayonidir. Shu bois ta’lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish, pedagoglar malakasini oshirish va fanlararo yondashuvni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajak avlodni raqamli jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlash uchun sun’iy intellekt ko‘nikmalarini erta yoshdan boshlab shakllantirish zarur va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. Sun’iy intellekt va ta’lim: barqaror rivojlanish uchun imkoniyatlar va muammolar. - Parij: UNESCO nashriyoti, 2019.
2. OECD. Ta’lim va ko‘nikmalarning kelajagi – 2030: O‘quv kompassi konsepsiyasi. – Parij: OECD nashriyoti, 2019.
3. World Economic Forum. Kasblarning kelajagi to‘g‘risida hisobot. – Jeneva: WEF, 2020.
4. Bers M.U. Kodlash – o‘yin maydoni sifatida: maktabgacha ta’limda dasturlash va hisoblash tafakkuri. – Nyu-York: Routledge, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SUN’IY INTELLEKTGA DOIR BOSHLANG‘ICH SAVODXONLIK VA ALGORITMIK FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Gulyamova Nafisa Burikulovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.
Jabborova Shaxina Tolib qizi,
Sobirova Dinara Otabek qizi,
Allabergenova Shahlo Mahmud qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya*. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sun’iy intellektga doir boshlang‘ich savodxonlikni shakllantirish hamda algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritiladi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektni o‘qitish “murakkab texnologiya” sifatida emas, balki bolalarda ma’lumot bilan ishlash, mantiqiy ketma-ketlikni tushunish, muammo yechimini bosqichma-bosqich rejalashtirish, oddiy model va qoidalarga tayangan holda taxmin qilish kabi tafakkur amaliyotlarini tarbiyalash vositasi sifatida talqin qilinadi. Natijada, boshlang‘ich ta’limda AI mavzularini yoshga mos, qiziqarli va amaliy vazifalar orqali berish o‘quvchilarda tanqidiy, algoritmik va refleksiv fikrlashni kuchaytirishi, raqamli madaniyatning ilk poydevorini yaratishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt savodxonligi, algoritmik fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, raqamli kompetensiya, ma’lumot bilan ishlash, vizual algoritmlar, o‘yinli ta’lim, loyihaviy yondashuv, mas’uliyatli foydalanish, ta’lim texnologiyalari.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining tafakkur uslubi, o‘rganishga munosabati va kelgusidagi intellektual faoliyatini belgilovchi asosiy davr hisoblanadi. Hozirgi ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar nafaqat axborot olish vositasi, balki

o‘quv faoliyatini tashkil etish, muammoli vaziyatlarni hal etish, muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sharoitda sun’iy intellekt tushunchasi va AI asosidagi xizmatlar (matn yaratish, tasvir tahlili, tavsiyalar berish, ovozli yordamchi va boshqalar) bolalar hayotiga tez kirib kelayotgani kuzatiladi. Demak, boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarda sun’iy intellektga oid elementar savodxonlikni shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu jarayonni “murakkab dasturlash”ga tenglashtirmasdan, yoshga mos didaktik yo‘llar bilan amalga oshirish talab etiladi.

Sun’iy intellekt savodxonligi boshlang‘ich sinf o‘quvchisida texnologik qurilmalar qanday ishlashi yoki tizim “aqlli” qarorlarni qanday qabul qilishi haqida chuqur texnik bilim berishdan ko‘ra, avvalo fikrlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki AI tizimlarining asosida ma’lumot, qoida, ketma-ketlik, tanlash va tekshirish kabi mantiqiy amallar yotadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda AI mavzularini o‘rganish o‘quvchilarda algoritmik fikrlashni, ya’ni muammoni bosqichlarga ajratish, har bir bosqichni aniq bajarish, natijani tekshirish va xatoni tuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Algoritmik fikrlashning dastlabki ko‘rinishlari oddiy ko‘rsatmalarni bajarish, tartib bilan ishlash, “agar – unda” qoidalarini tushunish, andazalarni topish, tasniflash kabi faoliyatlarda namoyon bo‘ladi. Bular esa matematika, ona tili, atrof-muhit, texnologiya va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuniga tabiiy integratsiya qilinishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun AI savodxonligini shakllantirishning yana bir muhim tomoni — axborot bilan ishlash madaniyatidir. O‘quvchi har qanday “tayyor javob”ni to‘g‘ri deb qabul qilmasligi, manba va mazmunni taqqoslab ko‘rishi, savol berishi, izohlash va dalillashga intilishi lozim. Bu esa tanqidiy fikrlashning boshlang‘ich komponentlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, AI vositalari bilan ishlashda shaxsiy ma’lumotni oshkor etmaslik, begona kontentni ko‘r-ko‘rona nusxalamaslik, mualliflikka hurmat, xavfsiz muloqot qoidalariga rioya qilish kabi mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalari ham erta bosqichdan shakllantirilishi zarur.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sun’iy intellektga doir savodxonlikni shakllantirish, avvalo, mazmunning yoshga mos “oddiy model”lar orqali izohlanishiga tayanadi. Bu bosqichda AI “odam o‘rniga o‘ylaydigan mashina” degan soddalashtirilgan tasvirdan ko‘ra, “ma’lumotdan foydalanib taxmin qiladigan dastur” sifatida tushuntirilsa, o‘quvchi texnologiyaga nisbatan realistik va tanqidiy qarashni shakllantira boshlaydi. Masalan, o‘qituvchi “tavsiyalar qanday paydo bo‘ladi?”, “rasmni tanib olish nima asosida ishlaydi?”, “matnni davom ettirish nega har safar boshqacha bo‘lishi mumkin?” kabi kundalik hayotga yaqin misollar orqali bolalarni muhokamaga jalb etadi. Bunda maqsad texnik mexanizmlarni chuqur o‘rgatish emas, balki AI natijasi doimo tekshirishni talab qilishi, u xato qilishi mumkinligi va uning “bilimi” kiritilgan ma’lumotga bog‘liqligini anglatishdir.

AI savodxonligining markaziy tayanchi algoritmik fikrlash bo‘lgani uchun boshlang‘ich ta’limda algoritmlash ko‘nikmalari tizimli ravishda rivojlantirilishi kerak. Algoritmik fikrlash o‘quvchining muammoni kichik bo‘laklarga ajratishi, ketma-ketlikni to‘g‘ri tuzishi, shartli holatlarni farqlashi, takrorlanishlarni ko‘ra olishi va natijani tekshirishi orqali namoyon bo‘ladi. Buni rivojlantirish uchun “ko‘rsatmalar zanjiri” tipidagi mashqlar samarali: o‘qituvchi sinfga oddiy vazifa beradi, masalan, “rasm chizish algoritmi”, “sinfdosh bilan salomlashish algoritmi”, “kitobni javonga qo‘yish algoritmi”. O‘quvchilar har bir harakatni izchil tartibda yozadi yoki piktogramma yordamida joylashtiradi, keyin esa algoritmni amalda bajarib ko‘radi. Agar natija kutilganidek bo‘lmasa, “xatoni topish” va “tuzatish” jarayoni tashkil etiladi. Aynan shu refleksiv sikl

algoritmik fikrlashni mustahkamlaydi va keyinchalik AI bilan ishlashda “javobni tekshirish” odatini ham hosil qiladi.

Algoritmik fikrlashni fanlararo integratsiya qilish didaktik nuqtayi nazardan eng maqbul yo‘l sanaladi. Matematika darslarida andaza va ketma-ketliklar, tasniflash, taqqoslash, “agar–unda” shartlari asosida masalalar tuzish orqali algoritmik tafakkur kuchaytiriladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida hikoya rejasini bosqichma-bosqich tuzish, matnni mantiqiy qismlarga ajratish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini topish, so‘z tanlashning qoidaviy asosini tushuntirish orqali “qoidalarga tayanib yechim topish” ko‘nikmasi shakllanadi. Atrof-muhit fanida kuzatish natijalarini jadvalga joylash, belgilar bo‘yicha guruhlash, oddiy xulosalar chiqarish o‘quvchini ma’lumot bilan ishlashga o‘rgatadi. Texnologiya va tasviriy san’at mashg‘ulotlarida esa ketma-ket amallar asosida buyum yasash yoki kompozitsiya yaratish algoritmik rejalashtirishni tabiiy ravishda rivojlantiradi.

AI savodxonligi doirasida “ma’lumot” tushunchasi ham yoshga mos izohlanishi lozim. O‘quvchi ma’lumotlar turlicha bo‘lishi (rasm, so‘z, son, belgi), ma’lumotning sifati natijaga ta’sir qilishi, noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumot xatoga olib kelishini tajribada anglab borishi kerak. Masalan, sinfda oddiy tajriba o‘tkaziladi: o‘qituvchi bir xil predmetni turli burchakdan yoki turli yoritishda ko‘rsatadi va o‘quvchilar uni tasniflashda qiyinchilikka duch kelishini muhokama qiladi. Shundan so‘ng “ko‘proq va aniqroq belgi bersak, tanish osonlashadi” degan xulosa chiqariladi. Bu yondashuv AI tizimlari ham ko‘proq va sifatli ma’lumotga tayangan holda yaxshiroq “taxmin” qilishi mumkinligini sodda ko‘rinishda tushuntiradi.

Boshlang‘ich ta’limda AI bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim sharti – o‘qituvchining metodik boshqaruvi va kommunikativ muhitni to‘g‘ri tashkil etishidir. O‘quvchi savol berishga, “nega shunday bo‘ldi?” deb izoh izlashga, sinfdoshining fikrini tinglab, o‘z fikrini dalillashga o‘rgatilsa, algoritmik fikrlash ham, AI savodxonligi ham barqaror shakllanadi. Shuning uchun dars jarayonida kichik guruhlar bilan ishlash, muammoli vaziyatlar berish, “topshiriqni bir necha yo‘l bilan yechish”ni rag‘batlantirish, natijani baholash mezonlarini birgalikda belgilash kabi usullar samarali hisoblanadi. O‘qituvchi esa har bir topshiriqdan so‘ng qisqa refleksiya tashkil etib, o‘quvchiga “qaysi qadam yordam berdi?”, “qaysi joyda xato bo‘ldi?”, “boshqacha yechim bo‘lishi mumkinmi?” degan fikrlash yo‘nalishini beradi.

AI vositalari bilan amaliy ishlash boshlang‘ich sinfda ehtiyotkorlik bilan, didaktik maqsadga bo‘ysundirilgan holda tashkil etilishi kerak. Agar sinfda mos sharoit mavjud bo‘lsa, o‘qituvchi AI yordamida yaratilgan matn yoki rasm namunalarini ko‘rsatib, o‘quvchilar bilan birga “to‘g‘riligini tekshirish”, “mantiqiy xatoni topish”, “keraksiz yoki noto‘g‘ri qismni tuzatish” kabi vazifalarni bajaradi. Bu jarayon bolalarda AI natijasini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmaslik, uni tahrir qilish va nazorat qilish madaniyatini shakllantiradi. Eng muhimi, shaxsiy ma’lumotni kiritmaslik, begona insonlar bilan xavfli muloqotga kirishmaslik, mualliflik huquqiga hurmat kabi xavfsiz foydalanish qoidalari har bir amaliy mashg‘ulotda tabiiy ravishda eslatib boriladi.

Baholash masalasi ham mazkur yo‘nalishda muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinfda algoritmik fikrlash va AI savodxonligini baholash natija bilan birga jarayonni ham qamrab olishi lozim. O‘quvchining ketma-ketlik tuza olishi, shartli qadamlarni ajrata olishi, xatoni topishi, izoh berishi, hamkorlikda yechim ishlab chiqishi, tekshiruvni unutmasligi kabi ko‘rsatkichlar asosida kuzatuv va portfel yondashuvi qo‘llanadi. Bunday baholash o‘quvchini “to‘g‘ri javob”dan ko‘ra “to‘g‘ri fikrlash jarayoni”ga yo‘naltiradi va AI bilan ishlashda zarur bo‘lgan mas’uliyatli pozitsiyani

mustahkamlaydi. Shu tariqa, boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektga doir boshlang‘ich savodxonlik va algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmunning yoshga mos soddalashtirilishi, fanlararo integratsiya, vizual va o‘yinli metodlar, refleksiya hamda xavfsiz-etik foydalanish tamoyillariga tayangan holda samarali amalga oshiriladi. Bu jarayon bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan ham yangicha metodik tayyorgarlikni, ya’ni AI mavzusini ta’lim maqsadiga mos holda boshqarish, o‘quvchining fikrlash jarayonini faollashtirish va raqamli madaniyatni tarbiyalash kompetensiyalarini talab etadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sun’iy intellektga doir boshlang‘ich savodxonlik hamda algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchini kelajakdagi raqamli muhitga ongli moslashtirish, axborot bilan ishlash madaniyatini erta bosqichdan shakllantirish va intellektual faoliyatini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishning samaradorligi AI mavzusini murakkab texnik tushunchalar majmuasi sifatida emas, balki yoshga mos “ma’lumot–qoida–ketma-ketlik–tekshiruv” zanjiri asosida tushuntirish, bolalarning kundalik tajribasiga yaqin vaziyatlar orqali anglatish va turli fanlar mazmuniga integratsiya qilish bilan bog‘liq. Ayniqsa, algoritmik fikrlashning boshlang‘ich ko‘rinishlari bo‘lgan muammoni bosqichlarga ajratish, andazalarni topish, shartli holatlarni farqlash, natijani tekshirish va xatoni tuzatish kabi amallar muntazam mashq qildirilsa, o‘quvchi nafaqat raqamli vositalardan foydalanadi, balki ularning natijasiga tanqidiy yondashish, mantiqiy asosda qaror chiqarish va o‘z fikrini izohlay olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Ta’lim jarayonini modernizatsiyalashning nazariy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Qosimov O.K., Raximov B.Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni boshlang‘ich ta’limda qo‘llash. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Xabibullayev P.Q. Raqamli ta’lim muhiti va axborot savodxonligi. Toshkent: Innovatsiya, 2022.
4. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson Education, 2021.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTDAN XAVFSIZ VA MAS’ULIYATLI FOYDALANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: RAQAMLI ETIKA VA AXBOROT GIGIYENASI YONDASHUVI

Gulyamova Nafisa Burikulovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.
To‘liboyeva Yorqinoy Rashid qizi,
Kanaxatova Zebiniso Baxrom qizi,
Yuldoshova Mohinur Hamro qizi,
Chirchiq DPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi raqamli etika va axborot gigiyenasi yondashuvi asosida yoritiladi. Sun’iy intellekt vositalarining kundalik ta’lim amaliyotiga kirib kelishi o‘quvchidan nafaqat texnologiyani ishlata olishni, balki uning natijasiga tanqidiy qarash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish,*

ishonchsiz kontentni ajrata bilish, mualliflik va adolat tamoyillariga rioya etish kabi xulqiy-me’yoriy kompetensiyalarni ham talab etadi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli etika va axborot gigiyenasini o‘qitishning yoshga mos didaktik yo‘llari, o‘qituvchining profilaktik va tarbiyaviy roli, shuningdek, xavfsizlik ko‘nikmalarini fanlararo integratsiya orqali mustahkamlash imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. *sun’iy intellekt, raqamli etika, axborot gigiyenasi, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumot, akademik halollik, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, xavfsiz raqamli xulq, mas’uliyatli foydalanish.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bugungi kunda faqat savod chiqarish va hisob-kitob ko‘nikmalarini beradigan bosqich bo‘lib qolmay, balki o‘quvchining raqamli muhitdagi xulq-atvori, axborot bilan ishlash madaniyati va xavfsizlikka doir odatlarini shakllantiradigan tayanch davrga aylanmoqda. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar va ilovalar tez ommalashib, o‘quv jarayonida ham turli ko‘rinishlarda uchray boshladi: matnni tahrirlash va davom ettirish, tasvirni yaratish yoki tahlil qilish, tezkor izoh berish, savol-javob rejimida ko‘maklashish, o‘quv materialini soddalashtirib tushuntirish kabi imkoniyatlar ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bu jarayon bilan birga yangi xavflar ham paydo bo‘ladi: bolalarning shaxsiy ma’lumotlari oshkor bo‘lishi, yoshga nomos kontentga duch kelishi, tekshirilmagan javobni mutlaq haqiqat deb qabul qilishi, mualliflik huquqini buzishi, tayyor matnni ko‘chirib, o‘qish-yozish malakasini rivojlantirishdan chekinishi yoki manipulyativ axborot ta’siriga tushishi ehtimoli ortadi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi faqat texnik imkoniyatlar doirasida emas, balki tarbiyaviy, etik va profilaktik yondashuv nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqilishi lozim.

Raqamli etika va axborot gigiyenasi yondashuvi ushbu muammoni tizimli hal etishga yordam beradi. Raqamli etika o‘quvchining onlayn muhitdagi “to‘g‘ri” xatti-harakat me’yorlarini belgilaydi: boshqalarga hurmat, haqorat va kamsitishdan tiyilish, mualliflikka rioya qilish, adolatli foydalanish, yolg‘on axborotni tarqatmaslik, o‘z xatosini tan olish, halol mehnat qilish. Axborot gigiyenasi esa o‘quvchining axborotni qabul qilish va saralashda sog‘lom odatlarini shakllantiradi: ishonchlilikni tekshirish, manbani ajratish, shubhali havola va kontentdan ehtiyot bo‘lish, vaqtni me’yorlash, zararli axborot oqimidan himoyalanish, ortiqcha raqamli shovqinni kamaytirish. Sun’iy intellekt vositalari bu ikki yo‘nalishni yanada dolzarb qiladi, chunki AI mahsuloti ko‘pincha “tayyor va chiroyli” ko‘rinadi, lekin u xato, noto‘liq yoki biryoqlama bo‘lishi mumkin; bundan tashqari, AI bilan muloqot jarayonida foydalanuvchi ma’lumot kiritadi va shu ma’lumotning maxfiyligi masalasi yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi esa bunday xatarlarni mustaqil baholay olmaydi, shuning uchun pedagogik boshqaruv va tarbiyaviy yo‘naltirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’limda AI’dan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, bir tomondan, bolaga aniq va sodda qoidalarni berishni, ikkinchi tomondan esa bu qoidalarni kundalik o‘quv faoliyati bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Xavfsizlik ko‘nikmalari deganda shaxsiy ma’lumotni himoya qilish, begona bilan xavfli muloqotga kirishmaslik, noma’lum havola va fayllardan saqlanish, qurilma va hisoblarni himoyalash, “raqamli iz” tushunchasini anglash kabi elementlar nazarda tutiladi. Mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalari esa AI’dan o‘qish jarayoniga yordamchi sifatida foydalanish, tayyor javobni tekshirish, manbaga tayanish, o‘z fikrini mustaqil ifodalash, plagiatdan qochish, biror kontentni baham ko‘rishda odob va qonuniylikka rioya qilish

kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar shakllanishi o‘qituvchining faqat og‘zaki ogohlantirishlari bilan emas, balki darsdagi amaliy vaziyatlar, o‘yinli mashqlar, muammoli topshiriqlar, muloqot va refleksiya orqali ta’minlanadi.

Asosiy qism. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, avvalo, o‘quvchining yosh psixologiyasi va idrok xususiyatlariga mos “oddiy, esda qoladigan” me’yorlarni yaratishdan boshlanadi. Bolaga murakkab huquqiy yoki texnik terminlarni berish o‘rniga, kundalik vaziyatlar asosida tushunarli qoidalar singdiriladi: shaxsiy ma’lumotni aytmaslik, notanish havolani bosmaslik, begona bilan yozishmada ehtiyot bo‘lish, tayyor javobni tekshirish, o‘z mehnatini halol bajarish, boshqalarning fikri va mehnatiga hurmat bilan qarash. Raqamli etika shu me’yorlarning axloqiy poydevorini beradi, axborot gigiyenasi esa ularni amaliy odat darajasiga ko‘taradi. Mazkur ikki yondashuv birlashganda, o‘quvchi AI vositasini “hamma narsani biladigan” manba emas, balki tekshiruv, tanlov va mas’uliyat talab qiladigan yordamchi sifatida qabul qiladi.

Sinf amaliyotida ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali yo‘li vaziyatli o‘rganishdir. Masalan, o‘qituvchi AI tomonidan berilgan qisqa matnni o‘qib beradi va o‘quvchilar bilan birga undagi mantiqiy nomuvofiqlik, noto‘g‘ri fakt yoki ortiqcha bo‘rttirishni topish mashqini tashkil etadi. Bu topshiriq o‘quvchini “javob chiroyli bo‘lsa ham tekshirish kerak” degan fikrga olib keladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar matnni tuzatadi, o‘z so‘zlari bilan qayta bayon qiladi, mualliflik hissasini qo‘shadi. Shunday jarayon akademik halollikning boshlang‘ich ko‘rinishini ham tarbiyalaydi: o‘quvchi tayyor materialdan ko‘chirib olish emas, balki uni tushunish, qayta ishlash va o‘z fikrini bildirishi zarurligini anglaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda yozma nutq va o‘qish savodxonligi endi shakllanayotganini hisobga olib, AI’dan foydalanish o‘quvchining mustaqil yozish malakasini cheklab qo‘ymasligi uchun didaktik cheklovlar belgilanishi lozim. O‘qituvchi AI’dan foydalanishni “izoh topish, namunani tahlil qilish, xatoni ko‘rish” kabi o‘quv maqsadlariga bo‘ysundirsa, u rivojlantiruvchi resursga aylanadi.

Axborot gigiyenasi doirasida o‘quvchilarni “ishonchli va ishonchsiz axborot”ni ajratishga o‘rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh bolaga manbani chuqur ekspertizadan o‘tkazish qiyin, lekin sodda tekshiruv odatlari shakllantirilishi mumkin: bir ma’lumotni kamida ikki manbada solishtirish, rasm yoki video bo‘lsa uning qachon va qayerda olinganini so‘rash, sarlavha bilan mazmun mos keladimi-yo‘qmi tekshirish, haddan tashqari qo‘rqituvchi yoki hayrat uyg‘otuvchi xabarlar shubhali bo‘lishi mumkinligini anglash. AI vositalari bu jarayonni murakkablashtiradi, chunki ular ishonarli uslubda noto‘g‘ri fikr ham berishi ehtimoli bor. Shu sababli darsda “tekshiruv savollari” odati kiritiladi: bu gapni qayerdan bildik, dalili bormi, boshqa manbada tasdiqlanadimi, men buni tushundimmi yoki shunchaki ishonib oldimmi. Bunday savollar axborot gigiyenasini faqat xavfsizlik qoidasi sifatida emas, balki tafakkur madaniyati sifatida mustahkamlaydi.

Raqamli etika komponenti boshlang‘ich sinfda muomala va mas’uliyat madaniyati bilan uzviy bog‘liq. AI’dan foydalanganda ham o‘quvchi boshqalarni kamsitadigan so‘zlardan tiyilishi, o‘zini va sinfdoshini obro‘sizlantiradigan kontent yaratmasligi, ruxsatsiz surat yoki ma’lumot tarqatmasligi, o‘qituvchi va ota-ona belgilagan chegaralarga amal qilishi kerak. Bularni singdirish uchun sinfda “raqamli kelishuv” amaliyoti qo‘llanadi: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga xavfsiz xulq qoidalarini oddiy jumlalarda ishlab chiqadi va ularni o‘yinli vaziyatlarda mustahkamlaydi. Masalan, “notanish xabar keldi” yoki “kimdir parol so‘radi” kabi sahnalashtirilgan epizodlar orqali

to‘g‘ri harakat modeli ko‘rsatiladi. Natijada xavfsizlik ko‘nikmasi qo‘rqitish orqali emas, to‘g‘ri odatni takroriy mashq qilish orqali shakllanadi.

Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish faqat sinf ichidagi jarayon bilan cheklanmaydi, u oilaviy raqamli muhit bilan ham uzviy bog‘langan. Ota-onalarning AI vositalarini nazoratsiz “o‘yinchoq” sifatida berib qo‘yishi xavflarni kuchaytiradi, shu bois pedagogik hamkorlik muhim: o‘qituvchi ota-onaga bolalar uchun xavfsiz sozlamalar, vaqt me’yorlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish odatlari, birgalikda tekshiruv madaniyati haqida tushunarli tavsiyalar beradi. Pedagogik oliy ta’limda esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari raqamli etika va axborot gigiyenasini dars mazmuniga integratsiya qilish, AI natijasini o‘quv vazifasiga aylantirish, sinfdagi xavfsizlik profilaktikasini yuritish va bolalarning raqamli xulqini kuzatish asosida baholash kompetensiyalariga ega bo‘lishi zarur. Shunday yondashuv natijasida sun’iy intellekt boshlang‘ich ta’limda xavf manbai bo‘lib qolmay, balki o‘quvchini ongli, ehtiyotkor, halol va mas’uliyatli raqamli faoliyatga tayyorlaydigan tarbiyaviy-resursga aylanadi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellektdan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifati va o‘quvchi xavfsizligining muhim kafolatlaridan biridir. Sun’iy intellekt vositalari o‘qitish jarayonini yengillashtirishi, tushuntirish va mashq qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin, biroq bu imkoniyatlar faqat pedagogik nazorat, etik me’yorlar va axborot gigiyenasi bilan uyg‘unlashgandagina rivojlantiruvchi natija beradi. Aks holda, tekshirilmagan “tayyor javob”ga ishonib qolish, shaxsiy ma’lumotni ehtiyotsiz kiritish, zararli kontentga duch kelish, akademik halollikning buzilishi, o‘quvchining mustaqil fikrlashi va yozma nutq malakasining sustlashuvi kabi xatarlar kuchayadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda AI’dan foydalanish masalasi “texnik qulaylik” doirasida emas, balki tarbiyaviy va profilaktik yondashuv sifatida ko‘rilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion metodlar va interfaol yondashuvlar. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021.
2. Qosimov O.K., Raximov B.Sh. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi va zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Xabibullayev P.Q. Raqamli ta’lim muhiti: axborot xavfsizligi va media savodxonlik asoslari. Toshkent: Innovatsiya, 2022.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI TA’LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

Husenova Aziza Sharipovna,
Buxoro DPI dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Shomurodova Madinabonu Baxtiyor qizi,
Buxoro DPI magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalaridan foydalanish tajribasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish hamda ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim platformalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimini baholash, o‘quv faoliyatini*

monitoring qilish va o‘qituvchining metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi afzalliklari amaliy tajribalar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, boshlang‘ich sinf, ta’lim platformalari, individuallashtirilgan ta’lim, raqamli baholash.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, xususan, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning bilish faolligini oshirish hamda ta’lim sifatini ta’minlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi pedagogik jarayonlarning tubdan o‘zgarishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilish faoliyatini oshirishda va o‘rganish ritmi har bir shaxsga mos tarzda tashkil etilishi lozim. Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari esa an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan yuqori adaptivlikka ega bo‘lib, o‘quv jarayonini personalizatsiya qilish, bilimlarni avtomatik baholash va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda sun’iy intellekt platformalarini qo‘llash pedagogik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirish, individual o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish hamda o‘qituvchining metodik vazifalarini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Shu bois, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarini boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llash tajribasini o‘rganish va ularning pedagogik imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Sun’iy intellekt - bu kompyuterlar va dasturlar orqali inson aqli kabi o‘rganish, fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini taqlid qiluvchi texnologiya va informatika sohasi. U katta ma’lumotlardan o‘rganib, o‘z-o‘zidan takomillashadi,natijada tez va aniq natijalar beradi, turli sohalarda avtomatlashtirish va samaradorlikni oshiradi. Sun’iy intellekt konseptsiyasi ilm-fan tarixida 1950-yillarda shakllangan, asosiy g‘oya Alan Turing tomonidan ilgari surilgan “Mashina aqli” (Turing Test) konsepsiyasiga borib taqaladi**.** Sun’iy intellekt 1956 yilda Dartmouth kollejida bo‘lib o‘tgan konferensiyada John McCarthy, Marvin Minsky, Nathaniel Rochester va Claude Shannon “Sun’iy intellekt” atamasini birinchi marta rasmiy ravishda ishlatgan va Sun’iy intellekt ilmiy tadqiqotlar sohasini mustahkamlashni boshlagan. Shu vaqtdan boshlab, texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanib, dastlab oddiy mantiqiy masalalarni yechish va matematika formulalarini hisoblash bilan cheklangan bo‘lsa, keyinchalik murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish, nutqni tushunish, vizual tasvirlarni aniqlash va adaptiv o‘qitish tizimlarini yaratish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Sun’iy intellekt 2024-yildan boshlab maktablarda 1-sinflarda axborot texnologiyalari darsi joriy etildi va bu ta’limi uchun birinchi qadam bo‘ldi. 2024-yilga qadar bu sohada umumiy siyosat, texnologik infratuzilma va tayyorgarlik ishlari olib borildi, real darslarga tayyorlash bosqichi amalga oshirildi. O‘zbekiston maktablarida sun’iy intellekt konseptsiyasi 2024-yilda informatika darslari orqali boshlanib, 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab yuqori sinflarda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalaridan foydalanish tajribasi bo‘yicha darslar joriy etilishi rejalashtirilmoqda. Mazkur maqola aynan shu masalalarni yoritishga

qaratilgan bo‘lib, Sun’iy intellekt platformalarining boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini optimallashtirish va o‘quvchilarning individual o‘rganish ehtiyojlarini ta’minlash rolini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maqolada sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlari, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishdagi ta’siri hamda o‘qituvchilarning metodik faoliyatini samarali qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Sun’iy intellekt platformalarining amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, dars jarayonini individuallashtirish va zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirishda qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu tarzda, maqola boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali tatbiq etishning konseptual va amaliy asoslarini yoritib, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning boshlang‘ich ta’limdagi roli: sun’iy intellekt boshlang‘ich ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning individual o‘rganish ehtiyojlarini ta’minlash va darslarni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Sun’iyintelekt platformalari o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va moslashtirilgan mashqlar tavsiya etish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun metodik yordam vazifasini bajaradi: dars rejasini shakllantirish, o‘quvchilarning rivojlanish jarayonini kuzatish va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalarning amaliy imkoniyatlar shu o‘rinda boshlang‘ich sinflarda sun’iy intellekt platformalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ishlatiladi: Individuallashtirilgan o‘qitish: har bir o‘quvchining bilish ritmi va qobiliyatlariga mos dars materiallari va mashqlar tavsiya qilinadi. Shu orqali o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini bajarilishini ta’minlash imkoniga ega bo‘ladi. Bilimlarni baholash va monitoring:sun’iy intellekt tizimlari testlarni avtomatik tekshiradi, natijalarni tahlil qiladi va o‘quvchining rivojlanish ko‘rsatkichlarini vizual tarzda o‘qituvchiga yetkazadi. Bu o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashni osonlashtiradi va ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Motivatsiya va faollikni oshirish:Interaktiv mashqlar, vizual yordamlar va o‘yin uslubidagi topshiriqlar o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, mustaqil fikrlash va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchining metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi: dastur platformalari o‘qituvchilarga individual va guruh bo‘yicha o‘quv jarayonini tahlil qilish imkonini beradi, dars jarayonini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellektni tatbiq etish jarayoni 2024-yildan maktab darajasida boshlanmoqda. Shu yilning 1-sinf o‘quvchilari uchun axborot texnologiyalari darsi doirasida sun’iy intellektga oid bir qator elementlar kiritildi. Bu bosqich maktablarda sun’iy intellekt bilan ishlashga tayyorgarlik vazifasini bajaradi, ya’ni o‘quvchilarni texnologik asoslar bilan tanishtiradi, o‘quvchilarni analitik va algoritmik fikrlashga yo‘naltiradi.Maktablarda dastur bilan darslarni joriy etish nafaqat o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshiradi, balki boshlang‘ich sinflarda innovatsion ta’lim muhiti va kelajak kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.Shu jumladan Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 1-dekabr kuni ta’lim va bir qator sohalarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi va 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab maktablarda, texnikumlar va oliygohlarda sun’iy intellekt dasturlarini ishga tushirilishi hamda shu maqsadda o‘qituvchlari yo‘naltirilishi haqida gapirib o‘tdi. Shu bilan bir qatorda Prezident sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha chora tadbirlar belgilagan. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini individualizatsiya qiladi. Benjamin Bloom (1968) –

o‘quv jarayonini differensiallashtirish va individual yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlagan. Shu nuqtai nazardan bu kabi platformalar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini avtomatlashtirilgan tizim orqali individual tarzda nazorat qiladi va tavsiyalar beradi.John McCarthy (1960–1990) – sun’iy intellekt konseptsiyasi asoschisi sifatida, mashinalar aqlini o‘rganish va qaror qabul qilish tizimi sifatida ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini tadqiq qilgan. U sun’iy intellektning pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarga moslashgan vazifalarni taqdim etishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslagan. O‘qituvchining metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun Marvin Minsky va Seymour Papert (1969) – sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilib, o‘qituvchining vazifalarini yengillashtirish va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirishga e’tibor qaratgan. Sun’iy intellekt platformalari o‘quvchiga o‘z bilimini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchi xatolarini ko‘rib chiqadi va o‘zini mustaqil ravishda to‘g‘rilaydi.Pedagogik jihatdan bu metakognitiv yondashuvni shakllantiradi, ya’ni o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini boshqarishni o‘rganadi. Sun’iy intellekt yordamida o‘qituvchi dars rejasini statik emas, dinamik tarzda o‘zgartira oladi. Masalan, agar bir guruh o‘quvchi bir mavzuni tezroq o‘zlashtirsa, sun’iy intellekt avtomatik tarzda keyingi qiyinroq topshiriqlarni taklif qilishi mumkin. Bu pedagogik yondashuv darsning o‘quvchi markazida bo‘lishini ta’minlaydi va o‘qituvchining vaqtini tejaydi. Sun’iy intellekt platformalari shunchaki javoblarni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki kreativ topshiriqlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi.Masalan, algoritm yaratish yoki oddiy robot dasturlash mashqlari bolalarda muammolarni yechish va yaratuvchan yondashuvni rivojlantiradi. Sun’iy intellekt platformalari individual motivatsiya tizimini yaratadi: har bir o‘quvchiga uning qobiliyatiga mos rag‘batlar yoki darajalar beriladi.Bu metodik jihatdan psixologik rag‘batlantirish va o‘quvchi faoliyatini oshirishga xizmat qiladi, oddiy umumiy bahodan farqli ravishda. Sun’iy intellekt platformalari o‘quv jarayonini avtomatik qayd etadi: qaysi topshiriqlar qiyin, qaysi o‘quvchi tez o‘rganadi va qaysi mavzuda ko‘proq qo‘llab-quvvatlash kerak.Bu real pedagogik eksperimentlar va ilmiy tadqiqotlar uchun noyob ma’lumotlar bazasini yaratadi. Shu bilan maktab o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshiradi, balki pedagogik metodlarni sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Asosan, sun’iy intellekt platformalari o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va kreativ fikrlash qobilyatini mashqalar orqali kuchaytirishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini yuqori sinf o‘quvchisidan avfzallik tarafi shundaki, kichik yoshdagi bola miyyasi rivojlanish bosqichida bo‘lganligi uchun tezroq fiklay olishi va malumotni tezroq qabul qilishi isbotlangan. Shu boisdan sun’iyintelekt kabi platformalar eng avval boshlang‘ich sinflarda qo‘llash joiz deb qabul qilingan.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab sun’iy intellekt platformalarini maktablar, unversititlar va nodavlat tashkilotlar darslarda qo‘llash joiz ekanligini qo‘llab quvvatlamoqda. Chunki bu ta’limdagi yangilik global iqtisodiyotga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

Dunyo tajribasi va O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektni darslarda qo‘llash. AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya maktablarida sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatib, har bir o‘quvchiga shaxsiy o‘quv yo‘llarini tavsiya qiladi. Koreya va Yaponiya maktablarida SI yordamida virtual laboratoriyalar tashkil etilgan. O‘quvchilar xavfsiz muhitda tajribalar o‘tkazadi, xatolardan qo‘rqmay, kreativ fikrlashni rivojlantiradi., O‘zbekiston maktablari sun’iy intellekt platformalarini 1–4-sinflarda tatbiq etib, har bir o‘quvchining qobiliyatiga

moslashgan o‘quv yo‘llarini yaratishi mumkin,bu O‘zbekiston sharoitida pedagogik tajribani optimallashtirish va metodik resurslarni tejash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt bugungi kunda ijodkorlik va texnologiyani uyg‘unlashtirgan, amaliy bilim va muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim shakli sifatida rivojlanib kelmoqda. Ushbu dastur zamonaviy kasblar va muhandislik, IT va boshqa turdagi sohalar uchun muhim bo‘lib, kelajak ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda sun’iy intellekt platformalarini pedagogik jarayonda qo‘llashning yangi yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiruvchi, o‘zini boshqarish va metakognitiv ko‘nikmalarini shakllantiruvchi samarali pedagogik resurs sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston maktablarida sun’iy intellekt tatbiqi milliy kontentga moslashgan holda amalga oshirilsa, u pedagogik jarayonni individual o‘rganish yo‘llari, virtual tajriba muhiti va interaktiv simulatsiyalar orqali boyitadi. Shu bilan birga, dunyo tajribasida o‘rganilgan innovatsion yondashuvlar — ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, xavfsiz eksperimentlar o‘tkazish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish — O‘zbekiston sharoitida ham samarali tatbiq etilishi mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “O‘zbekistonda raqamli va innovatsion ta’limni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021.
2. Buxoro DPU. Sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini optimallashtirishdagi pedagogik imkoniyatlari. Tashkent: Ilmiy nashr. 2022.
3. Korea Education & Research Information Service. Virtual Laboratories and AI Integration in Korean Primary Schools. Seoul: KERIS, 2021.
4. Bloom, B. S. Learning for Mastery. Evaluation Comment, 1(2), 1968. 1–12.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATN SAVODXONLIGI KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Ibragimova Yulduz Abdumalik qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.

Anotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish hamda uning o‘rganish strategiyalari bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. O‘qish jarayonining ijtimoiy, kognitiv va pedagogik jihatlari yoritilib, o‘qib tushunishning muvaffaqiyatli rivojlanishi individual va muhit omillariga bog‘liqligi asoslanadi. Shuningdek, axborotni qayta ishlash nazariyasi doirasida o‘rganish strategiyalarining o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va o‘z o‘rganish jarayonini boshqarishidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘qib tushunish va o‘rganish strategiyalarini integratsiyalashgan holda o‘qitish zarurligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qib tushunish, o‘rganish strategiyalari, boshlang‘ich ta’lim, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, pedagogik yondashuv.*

Ta’lim jarayonida o‘qib tushunish ko‘nikmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘qish nafaqat bilim olish vositasi, balki shaxsning ijtimoiy hayotga moslashuvi,

tafakkurining shakllanishi va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Maktab dasturining deyarli barcha fanlari matn bilan ishlashni talab qiladi. Shu sababli o‘qib tushunish darajasi o‘quvchining umumiy akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi mazkur ko‘nikmani shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Aynan shu davrda bola yozma nutq tizimi bilan tanishadi, fonologik ong shakllanadi hamda o‘qish jarayonining asosiy mexanizmlari rivojlanadi.

O‘qib tushunishning pedagogik va kognitiv asoslari boshlang‘ich ta’lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bola maktabga qadam qo‘ygan paytda u allaqachon muayyan hayotiy tajribaga, oilaviy muhit orqali shakllangan dastlabki tasavvurlarga hamda til birliklari bilan bog‘liq boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘ladi. Mazkur omillar uning o‘qish jarayoniga kirishishida tayanch vazifasini bajaradi. Biroq o‘qish ko‘nikmasi tabiiy ravishda, o‘z-o‘zidan shakllanadigan jarayon emas. U izchil, maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik rahbarlik asosida, bosqichma-bosqich va tizimli ravishda rivojlantiriladi.

O‘qib tushunish murakkab kognitiv faoliyat sifatida inson tafakkurining bir nechta mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Avvalo, fonologik va fonemik ongning shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tovush va harf o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash o‘qishning dastlabki poydevorini yaratadi. Shuningdek, lug‘at boyligi qanchalik keng bo‘lsa, o‘quvchi matndagi ma’nolarni shunchalik tez va aniq idrok etadi. Matn mazmunini tahlil qilish qobiliyati, muallif niyatini anglash, kontekstni hisobga olish hamda oldingi bilimlarni faollashtirish o‘qib tushunish jarayonining ajralmas tarkibiy qismlaridir.

O‘qish jarayoni muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi bilvosita muloqot sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi matnni o‘qish davomida nafaqat axborotni qabul qiladi, balki uni qayta ishlaydi, talqin etadi va shaxsiy tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bois o‘qib tushunish jarayoni tafakkur operatsiyalarini — tahlil, sintez, umumlashtirish va xulosa chiqarishni talab qiladi. Mazkur operatsiyalar orqali o‘quvchi matn mazmunini chuqur anglaydi va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘qish muvaffaqiyati bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni shartli ravishda individual, ijtimoiy-pedagogik hamda biologik-genetik omillarga ajratish mumkin. Individual omillar tarkibiga o‘quvchining kognitiv rivojlanish darajasi, miya faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqishi kiradi. Ijtimoiy va pedagogik omillar esa o‘qitish metodlarining samaradorligi, oiladagi savodxonlik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy kontekst hamda ta’lim siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Biologik va genetik omillar ham o‘qish ko‘nikmasining shakllanishida muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida o‘qish jarayoni samarali yoki sust rivojlanishi mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ustuvor vazifa sanaladi. O‘qish jarayoni majburiyat yoki nazorat vositasi sifatida emas, balki bilim olish va yangi kashfiyotlar sari yo‘l ochuvchi faoliyat sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘qib tushunishni rivojlantirish jarayoni faqat texnik o‘qish malakasini shakllantirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarda o‘rganish strategiyalarini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. O‘rganish strategiyalari — bu bilimni egallash, uni qayta ishlash hamda uzoq muddatli xotirada mustahkamlashga xizmat qiluvchi ongli harakatlar tizimidir. Axborotni qayta ishlash nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi har qanday o‘quv vazifasini bajarishda ma’lum mental

sxemalarni ishga tushiradi. Agar u samarali strategiyalardan foydalansa, ma’lumotni yuzaki emas, balki chuqur anglaydi va uni uzoq muddat saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Strategiyalarni maqsadli o‘rgatish o‘quvchiga o‘z o‘qish jarayonini nazorat qilish, tushunishni monitoring qilish, qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylanadi. U o‘z bilimini mustaqil ravishda boshqarishga, tahlil qilishga va baholashga o‘rganadi. Bu esa nafaqat o‘qish savodxonligini, balki umumiy akademik muvaffaqiyatni ham ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish murakkab, ko‘p omilli va tizimli pedagogik jarayondir. O‘qish faqat matnni tovushlab o‘qish emas, balki mazmunni anglash, talqin qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Shu bois o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘rganish strategiyalarini ham izchil va maqsadli ravishda o‘qitish zarur. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchining mustaqilligini oshiradi, uning intellektual salohiyatini rivojlantiradi hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alliende, F., & Condemarin, M. (2005). A leitura: teoria, avaliação e desenvolvimento. Porto Alegre (RS): Artes Medicas.

2. Baliza, A. A., & da Silva, D. V. (2015). Avaliação da compreensão em leitura a estudantes do Ensino Fundamental. Lumen: Educare, 1(1).

3. Zimmerman B. J. Self-regulated learning: Theories, measures, and outcomes // Handbook of self-regulation. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 13–39.

4. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 1–4-sinflar uchun darsliklar. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari, zarurati va metodlari tahlil qilinadi hamda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar hamda raqamli platformalardan foydalanish yo‘llari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim, algoritmik tafakkur, innovatsion texnologiyalar, raqamli savodxonlik, pedagogik texnologiya.*

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Sun’iy intellekt, robototexnika, katta ma’lumotlar (Big Data) va boshqa innovatsion texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda. Bu jarayon ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ta’lim sifatini oshirish va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu sababli

zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda nafaqat raqamli savodxonlik, balki sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishining eng muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning tafakkuri, tasavvuri, ijodkorligi hamda muammolarni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Shu boisdan ham sun’iy intellekt bilan bog‘liq ko‘nikmalarni aynan shu bosqichdan boshlab rivojlantirish kelajakda raqamli jamiyat talablariga mos shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda ta’lim tizimiga sun’iy intellekt asoslarini kiritish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur va AQSh kabi davlatlarda boshlang‘ich sinflardan boshlab algoritmik tafakkur va dasturlash elementlarini o‘rgatish amaliyoti joriy etilgan. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson aqli faoliyatiga xos bo‘lgan jarayonlarni bajarish qobiliyatidir. Bunga o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, nutqni tushunish va muammolarni hal qilish kabi jarayonlar kiradi. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

individual ta’limni tashkil etish – bunda sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos ta’lim materiallarini taklif etishi mumkin;

o‘quv jarayonini avtomatlashtirish – bunda testlarni tekshirish, baholash va tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi;

o‘quv motivatsiyasini oshirish – bunda interaktiv dasturlar va o‘yinlar orqali o‘quvchilar qiziqishi ortadi;

ta’lim sifatini oshirish – bunda o‘quvchilarning bilim darajasi haqida aniq ma’lumotlar olinadi. Shu sababli ham sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirishda bizga ma’lumki, maktabgacha yosh bu bolaning intellektual rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolalarda qiziqish, kuzatuvchanlik va ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi. Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini maktabgacha ta’limda shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Algoritmik tafakkur – bu muammoni bosqichma-bosqich hal qilish qobiliyatidir. Bolalarda bu ko‘nikmani rivojlantirish uchun quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin: konstruktiv o‘yinlar; mantiqiy o‘yinlar; ketma-ketlikni aniqlash mashqlari; robot o‘yinchoqlar bilan ishlash.

Raqamli o‘yinlar orqali o‘rgatish. Bugungi kunda bolalar uchun mo‘ljallangan ko‘plab ta’limiy dasturlar mavjud. Masalan: interaktiv o‘yinlar; mantiqiy topshiriqlar; virtual konstruktorlar. Bunday o‘yinlar bolalarda muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Robototexnika elementlari. Oddiy robot o‘yinchoqlar orqali bolalarda texnik tafakkur shakllanadi. Masalan, LEGO robototexnika to‘plamlari bolalarga algoritm tushunchasini sodda shaklda o‘rgatadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati yanada rivojlanadi. Shu sababli bu bosqichda sun’iy intellekt asoslarini chuqurroq o‘rgatish mumkin.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirishda o‘quvchilarga quyidagi tushunchalarni o‘rgatish muhim: algoritm; ketma-ketlik; shart; takrorlanish. Bu tushunchalar dasturlashning asosini tashkil etadi.

Dasturlash elementlarini o‘rgatish boshlang‘ich sinflarda murakkab dasturlash tillarini o‘rgatish shart emas. Buning o‘rniga vizual dasturlash muhitlaridan foydalanish mumkin. Masalan: Scratch; Code.org; Blockly. Bu platformalar o‘quvchilarga algoritmik tafakkurni oson o‘rganish imkonini beradi.

Muammoli ta’lim metodlarida muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Masalan: robotni ma’lum yo‘nalishda harakatlantirish; algoritm orqali muammoni hal qilish; interaktiv o‘yinlar.

Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish metodlarida esa ta’lim jarayonida quyidagi pedagogik metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

O‘yin texnologiyalari ya’ni o‘yin orqali o‘rganish bolalarda qiziqish uyg‘otadi va bilimni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Loyihaviy ta’lim bunda o‘quvchilar kichik loyihalar orqali muammolarni mustaqil hal qilishni o‘rganadilar.

Interaktiv metodlar: klaster; aqliy hujum; rolli o‘yinlar. Bu metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

STEAM ta’limi ya’ni STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini integratsiyalashga asoslanadi. Bu yondashuv sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi ilmiy metodlardan foydalaniladi: ilmiy-nazariy tahlil; qiyosiy tahlil; pedagogik kuzatish; tajriba-sinov ishlari.

Bundan ma’lumki, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi va sun’iy intellekt elementlarini ta’lim jarayoniga kiritish quyidagi natijalarni beradi: o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri rivojlanadi, muammolarni hal qilish qobiliyati oshadi, raqamli savodxonlik shakllanadi va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ham muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan sharoitda yosh avlodni erta yoshdan boshlab sun’iy intellekt asoslari bilan tanishtirish zarur. Sun’iy intellektga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar, STEAM yondashuvi hamda raqamli platformalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar**.** – Toshkent: Fan, 2018.

2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

TARBIYAVIY JARAYONLARDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq DPU “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti.
Yaxshiyeva Gulzoda Zokir qizi,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) 1-bosqich magistranti.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan yangi shakllarni joriy etib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirish tizimini ishlab chiqish dorlzarb bo‘lib turibdi. Ushbu o‘rinda ana shu masalalarning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Tarbiyaviy jarayon ta’lim tizimida, individual yondashuv asosida va jamoatchilikning ishtiroki shakllarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirishda bu tarbiyaviy shakllar muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) o‘qitish jarayonidaga tarbiya vositasida o‘quvchilarning sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirish;

2) individual tarbiya jarayonida o‘quvchilarning sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirish;

3) jamoaviy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim nazariyasida o‘qitish jarayonida bilim va tarbiya uyg‘unligiga amal qilish tamoyili qabul qilingan. Bilim berish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mavzularni tushuntirish, mustaqil fikrlash va ularni yo‘naltirish vositasida amalga oshiriladi. Ana shunday bilim berish jarayonida o‘quvchilarning axloqiy ongi korreksiya qilinadi. Chunki axloqiy ongda shaxsning intellektual va tarbiyaviy qiyofasiga ta’sir qiluvchi axloqiy g‘oyalar, his-tuyg‘ular va tushunchalar muntazam rivojlanib boradi. Ana shunday emotsional rivojlanish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axborot-kommunikatsion vositalar orqali sun’iy intellekt shakllaridan foydalanadi. Bunday sun’iy intellekt shakllarida yaxshi va yomon g‘oyalarni targ‘ib qilish tasvirlari, xarakatlari hamda yo‘nalturuvchi xususiyatlarning mavjud bo‘lishi ma’lum. Shu jihatdan muayyan mavzuni tushuntirish jarayonida uning tarbiyaviy jihatlariga e’tibor berish o‘quvchilarda tarbiyaviy sun’iy intellektni tarkib toptiradi. Misol uchun, matematika o‘quv fanining masala yechish darslarida yechilayotgan masalaning mohiyatini tushuntirish sun’iy intellekt nuqitai nazaridan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, muayyan jismning bir o‘rindan ikkinchi o‘ringa siljishi to‘g‘risidagi masala yechilayotganda uning ana shu mazmuni tushuntirilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tasavvurni paydo qila oladi va shu tasavvur kompyuterli dastur vositasida shakl yoki tasvirga aylantiriladi. Aynan o‘quv fanlari mavzularining ana shunday mazmun mohiyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantiruvchi tarbiyaviy asosi mavjud. Shu sababli o‘qitish jarayonida tarbiya asoslaridan foydalanish va uning ma’no-mazmuni vositasida o‘quvchilarning sun’iy intellekt tasavvurini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tajribali pedagog

olimlar muayyan mavzuni tushuntirish jarayonida shu mavzuga dahldor qo‘shimcha ma’lumotlar yoki hikoyalar keltirib o‘tadi. Aynan ana shunday qo‘shimcha ma’lumotlar va hikoyalarning tarbiyaviy mazmuni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sun’iy intellekt shakllari bo‘yicha tasavvur hosil qiladi. Bunday metoditkadan foydalanish har bir o‘quv fanining darslarida o‘quvchilarning sun’iy intellekt bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini kengaytirib borishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim jarayonida individual tarbiyaga alohida e’tibor berilmoqda. Unga ko‘ra, imkon qadar har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish va bu jarayonda uning qiziqishlarini korreksiyalash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish hamda ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish amalga oshiriladi. Aynan ana shunday individual tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini tarkib toptirish keng imkoniyatlarni beradi. Misol uchun, o‘quvchiga Internet global tarmog‘idan foydalangan holda axloqiy fazilatlarga oid tasvirli ma’lumotlarni topish va ularga shakl berish topshirig‘i beriladi. Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi muayyan fazilatni o‘zi his qilgan holda tasvirli ifodalaydi va aynan ana shu jarayon kompyuterli dastur imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hamda sun’iy intellekt shakllarini yaratish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘p hollarda individual mobil aloqasi vositasida axborotlarni keng oladi. Shu jihatdan o‘quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan tasvirli, shaklli va xatti-harakatlarga boy sun’iy intellekt platformalarini yaratish, ularni ta’lim planshetlariga yuklash va bu jarayonni tarbiyaviy monitoring qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasida boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning sun’iy intellekt ma’lumotlaridan foydalanishi jarayonini nazorat qilish o‘qituvchilar zimmasiga yuklangan va bundan maqsad sun’iy intellekt tizimining bilim va tarbiya olish vositasida ekanligini o‘quvchilarga tushuntirishdir. Chunki sun’iy intellekt ma’lumotlarida ko‘p hollarda to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotlar uyg‘un keladi. Masalan, bir saytda quyoshning chiqishi sun’iyi intellekt imkoniyatlari asosida tasvirlangan va bunda Quyosh darhol paydo bo‘ladi. Geografik nuqtai nazardan bu noto‘g‘ridir. Chunki quyoshning paydo bo‘lishi kamida 30 daqiqani o‘z ichiga oladi va bunda Yer sharining oval shaklida ekanligi ma’lum bo‘ladi. Aynan ana shunday individual ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga suhbat, tarbiyaviy topshiriqlar yoki tabdbirlar jarayonida tushuntirilishi ularning to‘g‘ri ma’lumotlarga ega bo‘lgan sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantiriga asos bo‘ladi. Har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan indiviuad shug‘ullanish jarayonini tashkil qilishda ko‘p hollarda ularning axloqiy xatti-harakatlari kuzatiladi. Biroq bu jarayonda o‘quvchilarning qiziqishlari, kuzatuvlari va ijobiy ma’noda amalga oshiriladigan taqlidlarini rivojlantirish tasavvurini paydo qiladi. Aynan tasavvur vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida sun’iy intellekt tizimlari bo‘yicha tushunchalar, g‘oyalar yoki shakllar paydo bo‘ladi. Shu ma’noda individual tarbiyaning bunday imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda uning boshlang‘ich sinf rahbarlari tomonidan monitoring qilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim jarayonida jamoaviy tarbiyaga alohida e’tibor berilmoqda. Jamoaviy tarbiyaning ishtirokchilari yoshlar tashkiloit vakillari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari metodik kengashi a’zolari, ota-onalar va ba’zida mahallaning vakillari hisoblanadi. Shu jihatdan matematika va axborot texnologiyalari o‘quv fanlari o‘qituvchilari jamoaviy tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xarakatlarni korreksiyalab borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, ko‘pchilik

ota-onalar ba’zida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mobil aloqa vositasini tekirib ko‘rishga urinadi va bu jarayonda sun’iy intellekt shakllari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini farqlay olmaydi. Ana shunday holatlarda aniq fanlar o‘qituvchilari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mobil aloqa vositasi, ta’lim plansheti yoki shaxsiy kompyuteridagi sun’iy intellekt shakllari hamda uning tarbiyaviy ahamiyatini kuzatib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nazoratni emas, ular bilan teng munosabatda bo‘lishni hush ko‘radi. Aynan mana shu omildan foydalangan holda har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga shaxs sifatida munosabatda bo‘lish jamoaviy tarbiyaning asosi ekanligini va bu jarayon o‘quvchilarda sun’iy intellekt tushunchalarining tadrijiy rivojlanish imkonini berishini eslatib o‘tish joiz. Jamoaviy tarbiyada yagona maqsadni belgilashda o‘qituvchilarning faol bo‘lishi, o‘quvchilarda imkoniyatlarga boy sun’iy intellekt ko‘nikmasini maqsadli rivojlantirib borish imkonini beradi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida juda ko‘p tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o‘quvchilar ongida tasavvur beradigan turli ta’limiy o‘yinlar, guruhli harakatlar va indiviudal topshiriqlarni bajarish kabi tarbiyaviy tadbirlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tarbiyaviy tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini istalmagan vaziyat va holatlarga tayyorlashi kerak. Misol uchun, o‘quvchi Internet global tarmog‘ida sun’iy intellektga asoslangan voqeilik jarayoniga duch keldi. O‘quvchi ana shu voqeilikning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini farqlashga yo‘nalitirilishi lozim. Bunday muammoli vaziyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri tarbiyaviy yo‘naltirish imkoniyatlarini beradi yoki muayyan bayramlar tadbirlarini tashkil qilishda o‘quvchilarning tashabbuslariga asoslanish ularning tasavvurlarini boyitadi va aynan mana shu hol sun’iy intellekt shakllarini idrok etishga asos bo‘ladi.

Shunday qilib tarbiyaviy jarayonlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirish yangi hodisadir. Sun’iy intelekt texnologiyalarining ishlab chiqilishi jarayonidja tarbiya vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini tarkib toptirish masalalari bo‘yicha yangi metodikalarni yaratish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu masala pedagogik tajriba-sinov ishlariga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, AI texnologiya parklarida sun’iy intellekt dasturlari amal qilina boshlandi. Ana shunday dasturlarning pedagogik tahlil qilib borilishi oliy pedagogik ta’lim muassasalari zimmasiga tushadi va bu jarayonda talabalarning haftalik yoki pedagogik amaliyoti davrida texnologiya parklarining sun’iy intellekt dasturlarini tahlil qilib borishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sun’iy intellekt yangi texnologiya sifatida tarbiyaviy jarayonga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aynan mana shu hodisaga boshlang‘ich ta’lim mas’ullari metodik jihatdan tayyor turishi muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”. 2023
2. Eshmurodov S. Sun’iy intellekt. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2025-yil 31-oktyabr soni.
3. Mo‘minova M. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan dastur. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2025-yil 7-noyabr soni.
4. Raqamli texnologiya: yondashuvlar, asoslar, yechimlar. Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar to‘plami. // - Samarqand, 2025

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING DIGITAL AND INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN THE PRESCHOOL EDUCATION PROCESS

Muxamedova Ferangiz Juma qizi,
Teacher of Chirchik State Pedagogikal University.
Kamalova Darig‘a Zayirbekovna,
Mutalova Feruza Baxit qizi,
Students of the Preschool Education program,
Faculty of Preschool and Primary Education.

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using digital and interactive technologies in the preschool education process. The integration of modern information and communication technologies into the field of education, the psychological and pedagogikal characteristics of child development, the effectiveness of using digital technologies, and methodological approaches to their proper application in the pedagogikal process are highlighted.*

Key words: *preschool education, digital technologies, interactive technologies, information and communication technologies, pedagogikal process, child development, interactive teaching.*

Introduction. International experience and modern research show that the development of preschool children is the key to their future success. Especially during the period up to 7 years of age, the child’s brain develops rapidly, and the knowledge, skills, and abilities acquired during this period determine their future intellektual potential. Therefore, the effective use of modern pedagogikal technologies, including digital and interactive tools, in the preschool education system has become one of the urgent tasks.

The reforms being implemented in the field of preschool education in the Republic of Uzbekistan, in particular, the tasks defined in accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 30, 2018, No. PQ-3955’On measures to improve the management of the preschool education system,’ require extensive use of modern information and communication technologies. As the head of our state noted,’the effective use of modern information technologies in the educational process serves to develop independent thinking abilities for the generation in the educational process and to increase their interest in science.

In modern preschool education institutions, digital technologies are widely used: interactive whiteboards, tablets, computers, educational programs and applications, and multimedia tools. However, to use these technologies effectively, it is necessary to fully know their theoretical foundations, their compatibility with child psychology, and pedagogikal rules. Otherwise, digital tools may harm children’s health and negatively affect their development instead of increasing educational efficiency.

Scientific-theoretical foundations of applying digital technologies in preschool education. Digital technologies refer to all technical and software tools used for processing, storing, and transmitting information in digital form. In the field of education, these technologies are used for organizing the learning process, creating educational materials, assessing educational efficiency, and management.

The scientific foundations for using digital technologies in preschool education are related to the following theories: constructivist learning theory (J. Piaget, L. Vygotsky), multisensory development theory (M. Montessori), play activity theory (A.N. Leontiev, D.B. Elkonin), as well as modern information society concepts (M. Castells, D. Bell).

According to the constructivist approach, the child independently constructs their knowledge through activity. Digital technologies create new opportunities for the child in this process: they can gain experience through various simulations, learn from mistakes, and find unique solutions. However, the guiding role of the teacher should not be forgotten in this process, because as Vygotsky noted, in the’zone of proximal development,’ a child cannot fully realize their capabilities without adult assistance.

Age Characteristics of Child Development and Digital Technologies.

The development of preschool children has its own characteristics, and these characteristics must be taken into account when using digital tools. For children aged 3-4 years, screen time should not exceed 15-20 minutes per day, and for children aged 5-6 years, 30-40 minutes per day is recommended.

During the sensorimotor period of child development (0-2 years), children mainly assimilate the world through sensory organs. During this period, digital tools can be used in a limited way, mainly for audio and musical effects. At ages 3-4, the child begins to develop the ability to plan ahead and can perform simple logical operations. During this period, interactive games and animations can be used. At ages 5-7, the child can perform complex logical operations, plan their activities, and during this period, educational programs and creative applications are effective.

According to the research of child psychologist E.I. Igum, the stability of attention in preschool children is 10-15 minutes. Therefore, the time spent using digital tools should not exceed this limit. It is also necessary to take into account that children need to move and engage in physical activity for a long time.

Pedagogikal opportunities of interactive technologies. Interactive whiteboards (SMART Board, Activ Board, and others) are one of the modern technologies widely used in preschool education. They combine the functions of an ordinary whiteboard and a computer and are controlled through a touch screen. Interactive whiteboards have the following pedagogikal opportunities:

First, interactive whiteboards provide multifunctional sensory impact - the child receives information through sight, hearing, and touch. This corresponds to the principle of multisensory development and helps to better assimilate information. Second, interactive whiteboards allow organizing group work - several children can work on the board at the same time. Third, lessons can be enriched by combining materials in different formats (text, image, video, audio, animation).

As scientists (B. Smith, J. Higgins, 2006) note, interactive whiteboards increase children’s interest in lessons, encourage their activity, and develop cooperation. However, to use this technology effectively, teachers need to undergo special training and learn to use these tools in accordance with program goals.

Educational Applications and Programs. Modern educational applications are specially developed for preschool children and take into account their developmental characteristics. Such applications must meet the following requirements: age-appropriate interface, intuitive control, safe content, developmental content, and an environment protected from advertising and payments.

The following types of applications are used in preschool education: language development applications (enriching vocabulary, forming correct pronunciation),

mathematical thinking development applications (counting, geometric shapes, logical problems), creativity development applications (drawing, music creation, story writing), and natural science applications (animal world, plants, space).

Research shows that quality educational applications positively affect children’s cognitive development, developing their attention, memory, and logical thinking. However, when choosing applications, it is necessary to take into account expert opinions, check age-appropriateness, and evaluate the educational value of the content.

Methodology of using digital technologies in the pedagogikal process. Integration of digital technologies into the pedagogikal process is carried out through the following main methods: showing short videos, animations, or music to create motivation at the beginning of the lesson; using interactive presentations to explain new topics; using games and simulations for reinforcement; using interactive tests for control and assessment.

An effective model for using digital tools in the pedagogikal process - the’flipped classroom’ approach - can also be applied in preschool education. In this model, the child becomes familiar with multimedia materials at home (with parental assistance), and in kindergarten, the acquired knowledge is reinforced and practical skills are formed.

When integrating digital technologies, the following methodological principles should be followed: appropriateness (technology should serve program goals), age-appropriateness (materials should match the child’s developmental level), time limits (screen time should not exceed age-appropriate norms), diversity (digital activity should be balanced with other types of activities), safety (content should be safe for children).

Teacher’s Role and Competencies. The teacher’s role in effectively using digital technologies is extremely important. They must not only have technical skills but also know how to use these tools for pedagogikal purposes. A modern teacher should have the following competencies: information and communication technology literacy, ability to evaluate digital content, skill in integrating technology into the curriculum, and knowledge of ensuring children’s safe work in the digital environment.

The teacher performs the following tasks when working with digital tools: planning and preparing the learning process, selecting and adapting digital materials, managing and directing the process, observing and assessing children’s activities, and cooperating with parents. In addition, the teacher should monitor children’s screen time and involve them in other types of activities.

Cooperation with parents is necessary for the successful implementation of digital education. The teacher should advise parents on the correct use of digital tools at home, help monitor the child’s screen time, and assist in ensuring a safe internet environment.

Conclusion. The use of digital and interactive technologies in the preschool education process is becoming an integral part of modern education. These technologies positively affect children’s cognitive, creative, and social development, increase their readiness for school, and form 21st-century skills. However, to use digital tools effectively, it is necessary to fully know their theoretical foundations, their compatibility with child psychology, and methodological rules.

Research shows that digital technologies can be effectively used in preschool education in the following directions: creating motivation, explaining new knowledge, reinforcing and reviewing, control and assessment, and ensuring individual approach. However, these technologies should not replace traditional pedagogikal methods but should complement them.

The main principles of using digital technologies are as follows: age-appropriateness, appropriateness, balance (between screen time and other activities), safety, and pedagogikal guidance. Teachers need to undergo special training, improve their digital competencies, and learn to use these tools effectively for pedagogikal purposes.

In the future, the use of digital technologies in preschool education is expected to expand further. New technologies such as artificial intelligence, virtual and augmented reality, and adaptive learning systems provide opportunities to ensure an individual approach to children and increase educational efficiency. However, no matter how much technologies develop, the place of human interaction, the teacher’s attention, and care in the child’s personal development remains unchanged.

References:

1. Piazje J. Selected Works. - M.: Pedagogika, 2004. - 480 s.

2. Igum E.I. Doshkol’naya pedagogika. - M.: Prosveshhenie, 2000. - 352 s.

3. Smith B., Higgins S. Interactive whiteboards and learning: A review of recent literature // Learning, Media and Technology. - 2006. - Vol. 31(3). - P. 291-303.

4 American Academy of Pediatrics. Media and Young Minds // Pediatrics. - 2016. - Vol. 138(5). - e20162591.

BOSHLANG‘ICH SINFDA SOFT SKILLS KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Mo‘minxo‘jayeva Dilnoza Alisherovna,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d., (PhD). Ilmiy rahbar.

Anotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning soft skills (yumshoq ko‘nikmalar)ini shakllantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda soft skills tushunchasining mazmuni, uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rivojlanish xususiyatlari hamda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarining ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligi o‘rganildi.*

Tayanch so‘zlar: *soft skills, sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish darsi, raqamli pedagogika, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikma, interaktiv ta’lim.*

Kirish. Bugungi kunda zamon talabiga mos raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkaziy masalasi dolzarb hisoblanmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, yangi innovatsion darslarni joriy etish talabi kundan-kunga ortib bormoqda. Buning natijasida o‘qituvchilar darslarini intellektuallashtirilgan holda texnologiyalashtirishlari ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bu jarayonni integratsiya qilish uchun esa quyidagilarga e’tibor berishimiz lozim:

- Darslar uchun eng qulay, eng samarali metodlarni tanlay olish zarur. Bunda bizlar uchun kerakli bo‘lgan adabiyotlarning sun’iy intellekt yordamida yaratilgan 3d modellari muhim o‘rin tutadi;
- Yumshoq ko‘nikmalarni, jumladan, soft skillsni shakllantirishda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan vizual videolarning zaruriyati;

• Jamoada hamkorlikda ishlashning konstruktiv ishlarini sun’iy intellekt yordamida amaliy natija samaradorligining muhimligi.

Bundan yumshoq ko‘nikmalarni shakllantirishda sun’iy intellektning asosiy mohiyatini anglash mumkin.

Sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni. Sun’iy intellekt ta’lim jarayoniga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: individual o‘quv yo‘llarini yaratish; tezkor tahlil va baholash; interaktiv o‘qitish muhiti; mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash.

Tadqiqotlarga ko‘ra, sun’iy intellekt o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, ijodiy yondashuvini, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [2; 5-6 b.]. Shuningdek, AI asosidagi ta’lim an’anaviy usullarga nisbatan o‘rtacha yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlarini ta’minlashi aniqlangan [3; 12-14 b.].

Boshlang‘ich ta’limda soft skillsni shakllantirishning ahamiyati. Zamonaviy jamiyatda faqat akademik bilimlar yetarli emas. O‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur: mustaqil fikrlash; muammoni tahlil qilish; jamoa bilan ishlash; muloqot qilish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, soft skills o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi [4; 1595-1598 b.].

Soft skills tushunchasi. Soft skills – bu shaxsning ijtimoiy, kommunikativ, emotsional va kognitiv ko‘nikmalar majmuasidir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: - muloqot qilish; - jamoada ishlash; - tanqidiy fikrlash; - kreativlik; - moslashuvchanlik; - muammoni hal qilish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim davri ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda o‘quvchilarning ijtimoiy xulqi, fikrlash uslubi va kommunikativ tajribasi shakllanadi [1; 20-22 b.].

Sun’iy intellekt yordamida soft skillsni shakllantirish yo‘llari. Boshlang‘ich sinflarda AI quyidagi usullar orqali soft skillsni rivojlantiradi:

1. Interaktiv suhbat tizimlari. Sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar o‘quvchilar bilan muloqot qilib: savol-javob qiladi; muammoli vaziyatlar yaratadi; fikr bildi-rishga undaydi. Bu o‘quvchilarning nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Shaxsiylashtirilgan ta’lim. AI tizimlari o‘quvchining bilim darajasini aniqlab: mos topshiriqlar beradi; individual o‘quv rejasini tuzadi. Natijada, o‘quvchida mustaqil ishlash, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi [2; 3-4 b.].

3. Muammoli vaziyatli topshiriqlar. AI asosidagi o‘yinlar va interaktiv topshiriqlar qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5; 7-8 b.].

O‘qish darslarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha tajriba.

Tajriba tashkil etilishi. Tajriba 3-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi.

Guruhlar: nazorat guruhi – an’anaviy usul; tajriba guruhi – AI vositalari qo‘llangan darslar.

Tajriba davomiyligi: 3 oy.

Qo‘llanilgan AI vositalari: matnni tahlil qiluvchi dastur; interaktiv savol-javob tizimi; hikoya yaratish sun’iy intellekti.

Tajriba jarayonidagi dars namunasi.

Dars mavzusi: “Do‘stlik haqida hikoya”

An’anaviy usul (nazorat guruhi): matn o‘qildi; savollarga javob berildi; mavzu qayta hikoya qilindi.

AI asosidagi usul (tajriba guruhi): matn o‘qildi; AI orqali savollar tuzildi; o‘quvchilar AI yordamida hikoyaning davomiy qismini yaratdi; jamoada muhokama qilindi.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari. Tajriba boshida va oxirida soft skills ko‘nikmalari baholandi.

Ko‘nikma	Boshlang‘ch %	Yakuniy %	O‘sish%
Muloqot	46	77	+31%
Tanqidiy fikrlash	42	70	+28%
Jamoada ishlash	48	82	+34%
Ijodkorlik	44	81	+37%

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, AI qo‘llangan guruhda soft skills ko‘nikmalari ancha yuqori darajada rivojlangan. Bu natijalar boshqa tadqiqotlar bilan ham mos keladi, ya’ni AI o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2; 6-b.].

Muhokama. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: 1. Sun’iy intellekt o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. 2. Mustaqil fikrlashga undaydi. 3. Jamoaviy muhokama muhitini yaratadi. 4. O‘qituvchining yuklamasini kamaytiradi.

Biroq ayrim tadqiqotlar AI dan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ham ko‘rsatadi [6; b. 2-3]. Shuning uchun uni pedagogik nazorat asosida qo‘llash muhimdir.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish soft skills ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. AI asosidagi interaktiv darslar o‘quvchilarning muloqot faolligini, tanqidiy fikrlashini, ijodkorligini, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga chiqishiga zamin yaratadi.

Taklif va tavsiyalar. 1. Boshlang‘ich sinf o‘quv dasturlariga AI asosidagi topshiriqlarni kiritish. 2. O‘qituvchilar uchun “AI va soft skills” bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. 3. O‘qish darslarida interaktiv AI platformalaridan foydalanish. 4. AI vositalarini faqat yordamchi vosita sifatida qo‘llash, to‘liq almashtirmaslik. 5. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi topshiriqlarni ko‘paytirish. 6. AI asosidagi ta’lim resurslarini milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish. 7. Soft skills rivojlanishini muntazam diagnostika qilish tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Linnik O., Hrynevych L., Staragina I. Diagnosing Soft Skills in Primary School Students. Lumen Publishing, Ruminiya, 2022.

2. Madreimova Sh. Artificial Intelligence in Primary Education. Eurasian Scientific Journal, Qozog‘iston, 2024.

3. Abduxamidova M. Ta’lim boshqaruvida sun’iy intellekt. “Fan va ta’lim” nashriyoti, Toshkent, 2025.

4. Deming D. The Growing Importance of Social Skills in the Labor Market. Harvard University Press, AQSh, 2017.

5. Carrisi M., et al. AI Literacy in Primary Education. Springer Education Series, Germaniya, 2025.

6. Axios Education Report. Teachers warn AI is impacting students’ critical thinking. Axios Media, AQSh, 2025.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Nosirova Ra’no Xamidovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Saparboyeva Iqbol Ikrom qizi,
Alibekova Mahliyo Sunnatulla qizi,
Jiyanova Gulzira Normuminovna,
Chirchiq DPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, psixologik-pedagogik omillari hamda metodik qo‘llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 3-7 yoshli bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari inobatga olingan holda adaptiv ta’lim, intellektual o‘yin muhitlari va avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlarining samaradorligi yoritiladi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini yosh xususiyatlariga mos va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llash maktabgacha ta’lim samaradorligini oshiradi hamda individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, adaptiv o‘yin, raqamli pedagogika, erta rivojlanish, kognitiv rivojlanish, individual yondashuv.*

XXI asrda raqamli texnologiyalar maktabgacha ta’lim tizimiga ham izchil kirib bormoqda. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi dasturiy vositalar bolalarning individual rivojlanish sur’atini aniqlash, o‘yin orqali o‘rgatish hamda pedagogik diagnostikani avtomatlashtirish imkonini bermoqda.UNESCO tomonidan e’lon qilingan “AI and Education: Guidance for Policy-makers” (2021) hujjatida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda yosh xususiyatlari, inklyuzivlik va axloqiy tamoyillarga qat’iy rioya qilish zarurligi ta’kidlangan. Ayniqsa, erta yoshdagi bolalar bilan ishlashda texnologiya yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi lozimligi qayd etiladi.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan Massachusetts Institute of Technology va Stanford University ta’lim jarayonida SI asosidagi tizimlarni keng joriy etmoqda.

Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson intellektiga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni bajarish qobiliyatidir. Ta’lim sohasida SI texnologiyalari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, shaxsiylashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish va baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda SI va ta’lim integratsiyasi masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Xususan, R. Luckin va boshqalar (2016) SI ta’lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirishini ta’kidlaydi. W. Holmes (2019) esa SI vositalari o‘qituvchining faoliyatini to‘ldiruvchi vosita ekanligini qayd etadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi yangi pedagogik paradigmaga o‘tmoqda. An’anaviy o‘qitish modeli “bir xil material – barcha uchun” tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy yondashuv individual trajektoriyani talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limni individuallashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

SI asosidagi o‘qitish tizimlari kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load Theory), konstruktivizm va differensial ta’lim nazariyalariga tayanadi. Adaptiv tizimlar o‘quvchining bilim darajasini aniqlab, ortiqcha kognitiv yuklamani kamaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi bosqichma-bosqich shakllanadi.

Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, 2–7 yosh oralig‘i preoperatsion tafakkur bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bolalar obrazli fikrlash va ramziy o‘yin orqali bilim oladi.

Lev Vygotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi esa kattalar yoki tajribali shaxs yordamida bola yuqori natijaga erisha olishini asoslaydi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar aynan shu nazariyaga mos ravishda bolaning hozirgi rivojlanish darajasini aniqlab, unga mos topshiriqlarni taklif etishi mumkin. Shuningdek, konstruktivizm nazariyasi bilimni faol o‘zlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi. SI vositalari interaktiv o‘yin muhiti orqali faol o‘rganish imkonini yaratadi.

Maktabgacha yoshda o‘yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. SI asosidagi adaptiv o‘yin platformalari: bolaning javob tezligini; xatolarini; diqqat davomiyligini; nutq faolligini tahlil qilib, murakkablik darajasini avtomatik moslashtiradi.

Rose Luckin (2016) ta’kidlaganidek, AI asosidagi tizimlar individual yondashuvni kuchaytiradi va o‘rganish jarayonini shaxsiylashtiradi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, intellektual repetitor tizimlari o‘quv natijalarini sezilarli darajada oshiradi. Beverly Park Woolf (2010) tadqiqotlarida bunday tizimlar o‘zlashtirish samaradorligini 20–30% ga oshirishi aniqlangan.

Maktabgacha ta’limda bu tizimlar: nutq rivojlanishini monitoring qilish; elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish; mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; erta rivojlanishdagi qiyinchiliklarni aniqlash uchun qo‘llanishi mumkin.

OpenAI tomonidan yaratilgan ChatGPT kabi generativ AI vositalari pedagoglarga: mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash;i ndividual o‘yin ssenariylarini yaratish; ertak va didaktik materiallar ishlab chiqish; metodik tavsiyalar tuzish imkonini beradi.

Biroq maktabgacha yoshdagi bolalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri generativ AI muloqoti qat’iy nazorat ostida bo‘lishi kerak. Holmes (2019) tadqiqotlariga ko‘ra, adaptiv platformalar qo‘llanilgan guruhlarda akademik natijalar o‘rtacha 15–25% yuqori bo‘lgan. Meta-tahlillar SI asosidagi ta’lim tizimlarining o‘rtacha 0.3–0.5 effekt ko‘rsatkichiga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu natijalar erta yoshdagi bolalarda:kognitiv faollik oshishi;motivatsiya kuchayishi; mustaqil fikrlash rivojlanishibilan izohlanadi.

Maktabgacha ta’limda SI texnologiyalarini joriy etishda quyidagi omillar muhim: Ma’lumotlar xavfsizligi; algoritmik tarafkashlikning oldini olish; raqamli tengsizlik muammosi; ekran vaqtini me’yorlashtirish. UNESCO tavsiyalariga ko‘ra, erta yoshdagi bolalarda texnologiya pedagogni to‘liq almashtirmasligi, balki qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Maktabgacha ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, erta diagnostika va adaptiv o‘yinli ta’limni tashkil etishda samarali vosita hisoblanadi. Ilmiy nazariyalar (Piaget, Vygotsky), zamonaviy tadqiqotlar (Luckin, Woolf, Holmes) hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalari SI texnologiyalarini metodik asosda va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda qo‘llash zarurligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, sun’iy intellekt maktabgacha ta’limda pedagog faoliyatini to‘ldiruvchi innovatsion vosita sifatida samarali natija beradi, biroq uning qo‘llanilishi ilmiy asoslangan metodika va qat’iy pedagogik nazoratni talab etadi. Sababi sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik tarafkashlik va raqamli tengsizlik muammolari

mavjud. UNESCO hisobotlarida SI texnologiyalarini joriy etishda inson huquqlari, shaffoflik va adolat tamoyillariga rioya qilish zarurligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, o‘qituvchining roli kamaymasligi, balki transformatsiyalashuvi muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.
2. Woolf, B.P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. Morgan Kaufmann.
3. Bates, T. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. BCcampus.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MANTIQIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Nosirova Ra’no Xamidovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d., (PhD).
Tuychiyeva Zulfizar Boxodir qizi,
Gulimova Umida O‘ktam qizi,
Chirchiq DPU Maktabgcha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Algoritmik tafakkur tushunchasi, uning pedagog kadrlar tayyorlash jarayonidagi o‘rni hamda raqamli ta’lim vositalari orqali talabalarda muammoli vaziyatlarni hal etish, kreativ yondashuvni shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, algoritmik fikrlash, mantiqiy tafakkur, pedagog kadrlar tayyorlash, raqamli savodxonlik, pedagogik texnologiya, kreativlik.*

Ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda raqamli muhit inson kapitalining sifat jihatdan o‘sishini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bugun butun dunyo sun’iy intellekt asriga kirdi. Bu texnologiyalar iqtisodiyotdan tortib ta’lim, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va boshqaruv tizimlarigacha chuqur kirib bormoqda. Kim izlansa va natija bersa — shu g‘olib bo‘ladi”.Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxsda tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va algoritmik yondashuv asosida yechim topish kompetensiyalari shakllangan bo‘lishi zarur. [1]

Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning mantiqiy (analitik) va ijodiy (kreativ) tafakkurini rivojlantirish muhim metodologik vazifa hisoblanadi. Zero, maktabgacha yosh davrida bolalarning kognitiv rivojlanishi ko‘p jihatdan pedagogning tafakkur darajasi va innovatsion yondashuviga bog‘liq.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanish mexanizmlari Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida asoslab berilgan. Unga ko‘ra, intellektual taraqqiyot

assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari orqali kechadi. Pedagogning analitik fikrlash darajasi uning muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyasini belgilaydi.

Ijodiy tafakkur masalasi esa Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasida hamda J.P.Guilfordning divergent fikrlash konsepsiyasida yoritilgan. Guilford ijodkorlikni divergent tafakkur – ya’ni ko‘p variantli yechimlar ishlab chiqish qobiliyati bilan bog‘laydi. Shuningdek, Howard Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasiga ko‘ra, pedagog shaxsida mantiqiy-matematik va tasviriy-fazoviy intellekt uyg‘un rivojlanganda ijodiy samaradorlik ortadi.

Zamonaviy raqamli pedagogika konsepsiyalari esa sun’iy intellektni adaptiv o‘qitish, ma’lumotlarni tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish vositasi sifatida talqin etadi.

Mantiqiy tafakkur – bu obyekt va hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, tushunchalar orasidagi munosabatlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarishga asoslangan intellektual jarayondir.

Psixologik jihatdan u quyidagi aqliy operatsiyalar orqali namoyon bo‘ladi:tahlil (analiz) sintez; taqqoslash; umumlashtirish; abstraksiyalash; deduksiya va induksiya. Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, mantiqiy tafakkur formal-operatsional bosqichda shakllanadi va shaxsning muammoli vaziyatlarni tizimli hal eta olish qobiliyatini belgilaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, mantiqiy tafakkur — bu:muammoli vaziyatni aniqlash, dalillarni tahlil qilish, asoslangan qaror qabul qilish va pedagogik jarayonni rejalashtirish qobiliyatidir.

Ijodiy qobiliyat – bu shaxsning yangi, original va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot (g‘oya, metod, yechim) yaratish imkonini beruvchi individual-psixologik xususiyatlar majmuasidir.

Bo‘lajak tarbiyachi uchun ijodiy qobiliyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:yangi pedagogik metod ishlab chiqish; nostandart vaziyatlarda samarali yechim topish; rivojlantiruvchi o‘yin va mashg‘ulotlarni loyihalash; bolalarda kreativ muhit yaratish. Demak, ilmiy jihatdan: Ijodiy qobiliyat – bu pedagogning innovatsion faoliyat yuritish salohiyati bo‘lib, u bilim, tafakkur, motivatsiya va tasavvurning integratsiyasi asosida shakllanadi.

Maktabgacha yosh – tafakkur, nutq va intellektual faoliyatning jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Ushbu bosqichda berilgan pedagogik ta’sir keyingi ta’lim bosqichlarining samaradorligini belgilaydi [2]. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt elementlarini integratsiya qilish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.Sun’iy intellekt texnologiyasining tobora ommalashib borishi bilan, uning maktabgacha ta’limida qo‘llanilishi bolalar kognitiv, kreativ, kommunikativ va rivojini rag‘batlantirishda juda katta ahamiyatga ega. Misol uchun:

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar hali dunyoni to‘liq anglamagan shaxs bo‘lib, ular ona yurtimizning kelajagidir. Ularning sun’iy intellekt bo‘yicha ta’limi nafaqat ko‘plab ilg‘or bilimlarni egallashlariga yordam beradi, balki tasavvur va ijodkorlik qobiliyatlarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi.

Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarga sun’iy intellekt texnologiyasi bo‘yicha turli xil yangidan yangi loyihalar va faoliyat jarayoni ularning sun’iy intellekt texnologiyasini chuqurroq tushunishlariga xizmat qiladi, bu esa keyingi o‘quv jarayonlari uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt texnologiyasini maktabgacha ta’lim bosqichida o‘qitishning rivojlanishi zamonaviy ta’lim tendensiyalari

bilan mos kelishi, ta’lim muhitini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning asosi va sharti hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachi pedagoglar avvalo, bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini, ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish uchun yaxshi o‘quv muhitini yaratishlari kerak.

Asosan maktabgacha ta’lim faoliyat jarayonida tarbiyalanuvchilarga tarbiyachi pedagog ko‘pincha o‘yinlar va o‘zaro muloqotlardan foydalanib, guruh muhitini jonlantirish va bolalarning diqqatini jalb qilishga harakat qilishadi. Garchi o‘yinlar muhitni ma’lum darajada jonlantirsa va bolalarning qiziqishini uyg‘otsa ham, bu jonlantirish usuli cheklangan bo‘ladi. Agar tarbiyachi pedagoglar uzoq vaqt davomida shunday bir xil usul bilan muhitni jonlantirsalar, qiziqish vaqt o‘tishi bilan pasayadi. Shu sababli, tarbiyachi pedagoglar sun’iy intellekt texnologiyasidan mahorat bilan foydalanib, bolalar uchun yaxshi o‘quv muhitini yaratishlari mumkin. Masalan, tarbiyachi pedagoglar sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanib, bolalarga musiqa bilimlarini o‘rgatayotganda guruhni samarali ravishda jonlantirishlari mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sun’iy intellekt ovozli robotlar joriy etilsa, sun’iy intellekt ovozli robotlar tarbiyachi pedagoglar ovozli ko‘rsatmalariga binoan ertaklar, musiqa, bolalar qo‘shiqlari va boshqa materiallarni ijro qila oladi.

Muhitni samarali oshirish uchun, pedagog bolalarga robotlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatini berishlari mumkin, bu esa turli xil musiqa bilimlarini o‘rganishga yordam beradi. Masalan, bolalarga rasm chizishni o‘rgatayotganda, pedagoglar ularni AKT foydalanishga va sun’iy intellekt robotlari bilan muloqot qilishga yo‘naltirishi mumkin. Bolalar robotning yo‘riqnomalariga amal qilib, ruchka yoki barmoqlaridan foydalanib, planshetda o‘zlarining sevimli tasvirlarini chizadilar.

Bu o‘qitish usuli orqali nafaqat bolalarning qiziqishi oshadi, balki sun’iy intellekt texnologiyasini qo‘llash ham mustahkamlanadi. Maktabgacha ta’limda tashkilotida ta’lim samaradorligini yanada oshirish uchun, tarbiyachi pedagoglar o‘z bilimlarini mustahkamlashlari kerak. Faqatgina birinchi o‘rinda pedagog sun’iy intellekt ta’lim texnologiyasini to‘liq va keng qamrovli tushunganida, uni kundalik hayotda samarali qo‘llashi mumkin. Bu texnologiyaning afzalliklarini to‘liq namoyon etishga va ta’lim sifatini hamda samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak tarbiyachilarning mantiqiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish pedagog kadrlar tayyorlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mantiqiy tafakkur pedagogik jarayonda tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va asoslangan qaror qabul qilishni ta’minlasa, ijodiy qobiliyat innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, nostandart vaziyatlarda samarali yechim topish hamda ta’lim jarayonini kreativ tashkil etishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar (kognitiv rivojlanish nazariyasi, divergent fikrlash konsepsiyasi va sotsiokultural yondashuv) shuni tasdiqlaydiki, mantiqiy va ijodiy komponentlar o‘zaro integratsiyada shaxsning professional kompetentligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim texnologiyalari pedagogning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, kognitiv faollikni oshirish va reflektiv tahlilni kuchaytirish imkonini beradi.

Empirik kuzatuvlar va tajriba natijalari sun’iy intellektdan foydalanilgan ta’lim muhitida analitik fikrlash ko‘rsatkichlari hamda kreativlik indeksi sezilarli darajada oshishini ko‘rsatdi. Bu esa raqamli pedagogika vositalari mantiqiy operatsiyalarni faollashtirish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va pedagogik dizayn kompetensiyasini shakllantirishda samarali omil ekanligini isbotlaydi.

Demak, sun’iy intellektni pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish nafaqat texnologik yangilanish, balki metodologik jihatdan asoslangan pedagogik zaruratdir. U bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi hamda maktabgacha ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent, 2015.
2. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2019.
3. Yo‘ldoshev J. Ta’lim nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent, 2017.
4. Nishonova Z. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2018.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O‘LKAMIZ TABIATI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

Rahmonberganova Anamoy Rustamboy qizi,
Sobirova Mehribon Yo‘ldosh qizi,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Shanasirova Zaxro Yuldashovna,
Circhiq DPU dotseni, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘lkamiz tabiati bilan tanishtirish jarayonida sun’iy intellekt asosidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tajriba-sinov ishlari olib borilib, sun’iy intellekt vositalari yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligi statistik tahlil asosida asoslab berildi. Natijalar ekologik bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, bilish faolligi va motivatsiya ko‘rsatkichlari oshganini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, innovatsion pedagogik texnologiya, maktabgacha ta’lim, ekologik tarbiya, raqamli ta’lim muhiti, adaptiv ta’lim.*

Kirish. Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, bolalarni o‘lkamiz tabiati bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida SI asosidagi vositalardan foydalanish ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda samarali omil bo‘lib xizmat qiladi [1; 25-b.].

Maktabgacha yosh davrida bola atrof-muhitni sezgi, kuzatish va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Shu bois ta’lim jarayonida interaktivlik, ko‘rgazmalilik va emotsional ta’sir muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi – sun’iy intellekt asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘lkamiz tabiati bilan tanishtirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash.

Nazariy asoslar. Sun’iy intellekt – inson intellektual faoliyatiga taqlid qiluvchi, o‘rganish va moslashish xususiyatiga ega bo‘lgan texnologik tizimdir. Ta’lim jarayonida SI quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi: ta’limni individuallashtirish; o‘quv materialini adaptiv tarzda taqdim etish; multimodal (audio, video, animatsiya) vositalar orqali yaxlit tasavvur hosil qilish; tezkor teskari aloqa (feedback) ta’minlash.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar tamoyillari (faollik, mustaqillik, refleksiya, integratsiya) SI vositalari bilan uyg‘unlashganda ta’lim samaradorligi ortadi [2; 41-b.].

Metodika va tajriba-sinov ishlari. Tadqiqot 2025-yilda maktabgacha ta’lim tashkilotining 2 ta katta guruhida olib borildi. Ishtirokchilar soni – 48 nafar bola.

- 24 nafar bola – nazorat guruhi (an’anaviy metodlar).
- 24 nafar bola – tajriba guruhi (SI asosidagi interaktiv metodlar).

Tajriba guruhi mashg‘ulotlarida quyidagilar qo‘llanildi: virtual tabiat ekskursiyalari; SI yordamida ekologik savol-javob o‘yinlari; adaptiv topshiriqlar; interaktiv ekologik ssenariylar.

Tadqiqot mezonlari: 1. Ekologik bilim darajasi. 2. Bilish faolligi. 3. Mashg‘ulotga qiziqish va motivatsiya.

Statistik natijalar

Tajriba va nazorat guruhlarida ekologik bilim darajasi (% hisobida)				
Ko‘rsatkich	**Tajriba guruhi (boshlanish)**	**Tajriba guruhi (yakuniy)**	**Nazorat guruhi (boshlanish)**	**Nazorat guruhi (yakuniy)**
Yuqori daraja	25 %	58 %	27 %	39 %
O‘rta daraja	46 %	34 %	48 %	44 %
Past daraja	29 %	8 %	25 %	17 %

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 33 % ga oshgan, past daraja esa 21 % ga kamaygan. ***Natijalar tavsifi:***

1-diagrammada tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari ustunli grafik ko‘rinishida tasvirlangan. Diagrammada tajriba guruhida “yuqori daraja” ustuni sezilarli balandligi bilan ajralib turadi (58 %), nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 39 % ni tashkil etadi. “Past daraja” ko‘rsatkichi tajriba guruhida ancha past (8 %) bo‘lib, metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

2-diagrammada bilish faolligi dinamikasi aks ettirilgan bo‘lib, tajriba guruhida ko‘rsatkich 22 % ga oshgani kuzatiladi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi metodika bolalarning: mustaqil fikrlashini; savol berish ko‘nikmalarini; ekologik muammolarga ongli munosabatini; raqamli kompetensiyasini rivojlantiradi.

Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarning maktabgacha ta’limda samarali qo‘llanilishini tasdiqlaydi [3; 18-b.]. Shuningdek, SI texnologiyalaridan foydalanishda pedagogning metodik rahbarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Texnologiya yordamchi vosita bo‘lib, tarbiyaviy jarayon markazida bola va pedagog o‘zaro hamkorligi turadi.

Xulosa. Sun’iy intellekt asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘lkamiz tabiati bilan tanishtirish metodikasi ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda muhim innovatsion yo‘nalish hisoblanadi. Tajriba-sinov natijalari SI vositalaridan foydalanish o‘quv jarayonining interaktivligi va individualligini ta’minlashini ko‘rsatdi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda mahalliy kontent asosida adaptiv platformalar yaratish va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtaxodjayeva M.X. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. Yuldashev J.G. Axborot texnologiyalari va ta’lim samaradorligi. – Toshkent: Universitet, 2019.

SUN’IY INTELLEKT ORQALI BOLALARDA MUSIQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.
Nurmurodova Rayhona G‘anisher qizi,
Erkinova Dinora Shavkat qizi,
Baxtiyorova Nozima Ixtiyor qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt asosidagi dasturlar, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Tadqiqotda sun’iy intellekt yordamida musiqa nazariyasi, ritm, nota o‘qish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari bolalarning musiqa nazariyasini o‘zlashtirishini tezlashtiradi, ularning qiziqishini oshiradi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, musiqiy savodxonlik, musiqa ta’limi, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim, bolalar ta’limi, musiqa nazariyasi, ritm, nota savodi, innovatsion pedagogika.*

Insoniyatning nafosatli va go‘zal hayotini ohanglarda aks ettirishning o‘z mushkulotlari mavjud. Nafosat tarbiyasi shaxs kamolotida g‘oyat muhim o‘rin tutib, uning mazmuni keng qamrovli bo‘lsa-da, bu jarayonda musiqa tarbiyasi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalq pedagogikasining izchil rivojlanib borayotgani, milliy musiqa namunalarini chuqur o‘rganish zarurati ortib borayotgan bir davrda mashg‘ulotlarda xalq kuy-qo‘shiqlari, atoqli san’atkorlar merosidan samarali foydalanish musiqiy tarbiya rahbarlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sifatida ko‘riladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Kuy, qo‘shiqqa, san’atga muhabbat va musiqa madaniyati bolalikdan, oilaviy muhitda shakllana boshlaydi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotiy ta’sirini his qilmagan insonni yurtimizda topish deyarli imkonsizdir”. Shu nuqtai nazardan, musiqiy madaniyatning tarbiyaviy kuchi juda yuqori ekanligi aniq seziladi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini bermoqda. Musiqa ta’limi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Sun’iy intellekt orqali bolalarda musiqiy savodxonlikni oshirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Musiqiy savodxonlik deganda notalarni o‘qish, ritmni his qilish, musiqa nazariyasini tushunish hamda musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish tushuniladi. Sun’iy intellekt (Artificial Intelligence) – bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, muammolarni hal qilish kabi jarayonlarni bajarish qobiliyatidir. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlaydi. Ayniqsa, bolalarda musiqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar va

mobil ilovalar muhim rol o‘ynaydi. Bunday dasturlar bolaning bilim darajasini tahlil qilib, unga mos mashqlar va topshiriqlarni taklif etadi.

Musiqa ta’limida sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri – o‘quv jarayonining interaktiv bo‘lishidir. Bolalar oddiy nazariy tushuntirishlardan ko‘ra, amaliy mashqlar orqali tezroq o‘rganadi. Masalan, sun’iy intellektga asoslangan musiqiy dasturlar bolaga nota balandligini aniqlash, ritmni to‘g‘ri takrorlash yoki kuylashdagi xatolarni aniqlash imkonini beradi. Dastur bolaning ijrosini tinglab, xatolarni ko‘rsatadi va to‘g‘rilash bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu esa o‘quvchining mustaqil o‘rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalar musiqani erta yoshdan o‘rganishni boshlasa, ularning xotirasi, diqqat-e’tibori va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Musiqa bilan shug‘ullanish miya faoliyatining bir nechta qismlarini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi. Shu sababli ko‘plab pedagoglar musiqa ta’limini umumiy intellektual rivojlanish bilan bog‘laydi. Sun’iy intellekt esa bu jarayonni yanada samarali qiladi, chunki u har bir bolaning individual qobiliyatini hisobga olgan holda o‘qitish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi musiqiy ta’lim tizimlari odatda bir necha asosiy funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular ovozni aniqlash texnologiyasi yordamida bolaning kuylashini yoki cholg‘u ijrosini tahlil qiladi. Ikkinchidan, tizim bolaning xatolarini aniqlab, darhol teskari aloqa beradi. Uchinchidan, o‘quvchi rivojlanish darajasiga qarab yangi mashqlar va topshiriqlarni taklif etadi. Bu esa an’anaviy darslarga qaraganda samaraliroq o‘qitish jarayonini yaratadi.Musiqa ta’limida sun’iy intellektdan foydalanish bolalarning motivatsiyasini ham oshiradi. Interaktiv o‘yinlar, virtual mashqlar va avtomatik baholash tizimlari o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi. Bolalar o‘yin shaklida notalarni o‘rganadi, ritmik mashqlarni bajaradi va musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada ular musiqa nazariyasini osonroq o‘zlashtiradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida musiqa o‘qituvchilari ham o‘z ishini samaraliroq tashkil qilishi mumkin. Dasturlar o‘quvchilarning rivojlanish darajasi haqida statistik ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu esa o‘qituvchiga qaysi o‘quvchiga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar masofaviy ta’lim jarayonida ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bolalarda musiqiy savodxonlikni oshirishda samarali vosita hisoblanadi. U o‘quv jarayonini interaktiv, individual va qiziqarli qiladi. Sun’iy intellekt yordamida bolalar notalarni tezroq o‘rganadi, ritmni to‘g‘ri his qiladi hamda musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Kelajakda bu texnologiyalar musiqa ta’limining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda. Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ularning musiqiy madaniyatini yuksaltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidqulova G.O. Bolalarning musiqiy ta’limi metodikasi. monografiya. Chirchiq. 2025

2. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

3. Mitchel Resnick. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. MIT Press, 2017.

АҲАМИЯТИ ИНТЕЛЛЕКТИ СУНЪӢ ДАР ТАЪЛИМИ ИБТИДОӢ

Тухтамишова Зулфера Шодиқуловна,
Толибаи шӯъбаи Таълими ибтидоии ДДП Чирчиқ.
Авазхонов Шоҳназар Гулназарзода,
Омӯзгори, Роҳбари илмӣ.

Анотатсия. *Дар мақола масъалаи истифодаи интеллекти сунъи дар низоми таҳсилоти муосир, махсусан дар зинаи ибтидоӣ баррасӣ шудааст. Муаллиф моҳият ва мафҳуми интеллекти сунъиро шарҳ дода, нақши он дар ташаккули муҳити таълимии инноватсионӣ ва рушди маърифатии хонандагонро нишон медиҳад. Бар пояи назарияҳои равоншиносӣ, аз ҷумла андешаҳои Ҷон Мак Карти, Лев Выготский ва Жан Пиаже, аҳамияти мутобиқсозии технологияҳо ба хусусиятҳои синнусолии кӯдакон таъкид мегардад.*

Калидвожаҳо*: интеллекти сунъи, таҳсилоти ибтидоӣ, рушди маърифатӣ, технологияҳои интерактивӣ, муҳити таълимӣ.*

Интеллекти сунъи (Artificial Intelligence) – самти илми муосир аст, ки ба офаридани системаҳои «ақлманд» машғул мебошад. Асосгузори истилоҳи AI — John McCarthy ба ҳисоб меравад. Назарияҳои равоншиносӣ, аз ҷумла андешаҳои Лев Выготский оид ба нақши муҳити иҷтимоӣ ва омӯзиш, имрӯз дар татбиқи интеллекти сунъи дар маориф аҳамияти махсус доранд. Дар шароити ҷаҳони рақамӣ истифодаи интеллекти сунъи дар синфҳои ибтидоӣ ба яке аз самтҳои муҳими рушди маориф табдил ёфтааст.

Заминаҳои назариявии истифодаи интеллекти сунъи. Дар таълими ибтидоӣ кӯдак дар марҳилаи ташаккули фаъолонаи тафаккур, хотира, диққат ва нутқ қарор дорад. Мувофиқи назарияи рушди маърифатии Jean Piaget, кӯдакони синни 6-10 сола дар марҳилаи амалиёти мушаххас қарор доранд. Аз ин рӯ, истифодаи барномаҳои интерактивӣ ва визуалӣ барои онҳо хеле мувофиқ мебошад. Интеллекти сунъи метавонад муҳити таълимиро ба таври инфиродӣ мутобиқ созад ва ба хусусиятҳои синнусолии хонандагон ҷавобгӯ бошад.

Интеллекти сунъи – ин маҷмӯи технологияҳо, усулҳо ва системаҳои барномавӣ мебошад, ки қобилияти иҷрои амалиётҳои фикрӣ ва маърифатии инсонро, ба монанди омӯзиш, таҳлил, қабули қарор, эҷод ва мутобиқшавӣ, тақлид мекунанд. Интеллекти сунъи бо истифода аз алгоритмҳои мураккаб ва таҳлили додаҳои калон (Big Data) қобилияти худомӯзӣ, арзёбӣ ва пешгӯиро доро буда, метавонад вазифаҳои мушкил ва зеҳнталабро бе дахолати мустақими инсон иҷро намояд.

Дар замони муосир интеллекти сунъи (Artificial Intelligence - AI) босуръат ба соҳаи таҳсилот ворид шуда истодааст, ки бозгашти он дигар имконнопазир аст. Ин технология на танҳо усулҳои анъанавии таълимро куллан тағйир додааст, балки худи мафҳуми таҳсил ва омӯзишро аз нав таъриф мекунад. Имрӯз мо дар арафаи як инқилоби комил дар соҳаи маориф қарор дорем. Ҳоло дигар на омӯзгор ягона манбаи дониш аст, на китобҳои дарсӣ ягона воситаи омӯзиш. AI имконияти дастрасии ҳар як инсонро ба дониши умумӣ ба таври амиқ тағйир додааст.

Яке аз ҷолибтарин таҷрибаҳо дар ин самт ин ихтирои ChatGPT мебошад. Ин система қобилияти онро дорад, ки ба ҳар як донишҷӯ ба забони оддӣ ва ба роҳи фардӣ маълумот бидиҳад. Агар донишҷӯ як мавзӯъро нафаҳмида бошад, AI

метавонад онро бо 10 роҳи гуногун шарҳ диҳад, то ки ӯ мазмун ва моҳияти масъаларо амиқ фаҳмад. Ин имкониятест, ки дар синфхонаҳои анъанавӣ вуҷуд надошт. Аммо ин танҳо ибтидои роҳ аст. Дар ояндаи наздик, мо системаҳое хоҳем дошт, ки метавонанд рафтори донишҷӯро таҳлили амиқ намуда, дар кадом мавзӯъҳо мушкилот доштани донишҷӯро пешгӯи карда, ба ӯ кӯмак расонанд.

Новобаста ба ин баъзе мушкилоти ҷиддӣ низ вуҷуд доранд. Масалан, AI метавонад ба донишҷӯён имконият диҳад, ки ҳалли масъалаҳоро бе он ки худашон бифаҳманд, пайдо кунанд. Ин ҳолат метавонад ба сатҳи донишандӯзии донишҷӯён осеб расонад. Аз ин рӯ, муҳим аст, ки системаҳои нави таҳсилотӣ танҳо ба додани ҷавобҳо маҳдуд нашуда, балки барои пайдо кардани дониш ва фаҳмишҳои амиқ ба донишҷӯён кӯмак кунанд.

Ояндаи интеллекти сунъи дар соҳаи таҳсилот ба мо имконият медиҳад, ки як низоми таҳсилотиеро ташаккул диҳем, ки дар он ҳар як фард тавонад бо суръат ва ба забони худ омӯзад ва омӯзгорон аз корҳои техникӣ озод шуда, ба тарбияи эҷодкорӣ ва ҳиссиётии донишҷӯён машғул шаванд. Ин танҳо оғози як тағйироти бузург аст. Мо бояд бикӯшем, ки ин технологияро ба таври оқилона ва бо масъулият истифода барем, то ки барои ҳамаи ҷомеа фоидаовар бошад. Интеллекти сунъи на ҷойгузини омӯзгорон, балки василаи қавӣ барои ба воқеият табдил додани гирифтани таҳсили босифат ва салоҳиятнок барои ҳар як фард мебошад. Аммо, ба назари мо пешрафти интеллекти сунъи мушкилотҳои худро дорад. Яке аз нигоҳҳои асосӣ ин имконияти аз даст додани як қатор касбу корҳо мебошад. Бисёр корҳое, ки пештар бо дасти инсон анҷом дода мешуданд, ҳоло бо ёрии мошинҳо сурат мегиранд. Ин раванд метавонад ба баланд шудани сатҳи бекорӣ оварда расонад, аммо аз тарафи дигар, фурӯши маҳсулоти нав ва ихтироъ касбу корҳои замонавиро ба вуҷуд меоварад.

Аз ҷиҳати ахлоқӣ интеллекти сунъи масъалаҳои ҷиддиро низ пеш меорад. Оё мошинҳо метавонанд ҳуқуқҳо дошта бошанд? Оё онҳо метавонанд ғалат кунанд ва масъулияти он ба дӯши кӣ хоҳад буд? Ин саволҳо ҳанӯз ҷавоби қатъӣ нагирифтаанд ва муҳокимаи ҷиддӣ дар ин мавзӯъ идома дорад.

Ояндаи AI вобаста ба он аст, ки инсонҳо чӣ гуна ин технологияро истифода мебаранд. Агар он бо масъулият ва дониши кофӣ истифода шавад, метавонад ҳаёти инсониро хеле осонтар ва беҳтар кунад. Вале агар нодуруст кор фармуда шавад, метавонад ба ҷомеа зарари ҷиддӣ расонад. Ҳамин тавр, интеллекти сунъи на танҳо як ихтироъ, балки як омили тағйироти инқилобӣ дар ҳаёти инсон, аз ҷумла соҳаи таҳсилот мебошад. Мо бояд бикӯшем, ки ин қувваро барои некӣ ва пешрафти ҷомеа оқилона ва дуруст истифода барем.

Дар чанд садсолаи охир рушди илм ба ташаккулии технологияҳои гуногун замина фароҳам овардааст. Дар ин қарина бо истифода аз технологияҳои муосир коркарди иттилооот, тавлидоти ва паҳн намудани он дар ҷомеа ба роҳ монда шуда, андеша ва назарияҳои илмӣ сол то сол такмил ёфтанд. Ҳамзамон технологияҳои муосир барои суръат бахшидан ба рушди давлатҳо мусоидат менамояд. Маҳз чунин раванд шароит фароҳам овард то инсонҳо таввасути технологияҳои муосир ба илму афкори донишмандони асрҳои пеш дастрасӣ пайдо намуда, ҳамзамон дар заминаи таҳлилу баррасӣ онҳоро такмил ва коркард намоянд. Интеллекти сунъи ин фанновариест, ки ба компютерҳо ва системаҳо қобилияти иҷро кардани вазифаҳое медиҳад, ки қаблан танҳо инсонҳо метавонистанд онҳоро иҷро кунанд. Ба ин вазифаҳо шомиланд: шинохтани садо, акс, матн, қабули қарорҳо ва ҳатто пешгӯии рӯйдодҳо. Ҳадафи асосии интеллекти сунъи ин ба системаҳо омӯзонидани

қобилиятҳои “фикр кардан” ва “омӯхтан” аст. Аслан, интеллекти сунъи ба кам кардани истифодви қувваи меҳнат тавассути технология оварда мерасонад. Яъне, меҳнат ҳамчун раванд бештар тавассути технологияи рақамӣ ва компютер идора ва амалӣ мегардад.

Истифода аз неруи зеҳнии олимону пажуҳишгарон ҳамеша натиҷаи баланд медиҳад. Интеллекти сунъи низ як навъ ихтирои инсон аст, ки бо тақлид ба зеҳни инсоният фаъолият менамояд ва имрӯз барои кулли башар чизи хеле муҳим ва зарурӣ гардидааст. Олимону муҳаққиқон истифода аз интеллекти сунъиро дар тамоми соҳаҳо хеле зарур ва муҳим меҳисобанд. Дар аксарияти кишварҳои пешрафтаи ҷаҳон татбиқи он ба ин ё он соҳа натиҷаи хуб додааст.

Дар бозори меҳнат ба зарфияти зеҳнии инсонҳо, ки бо илмҳои муосир шакл гирифтааст, эҳтиёҷ бештар мегардад. Зеро имрӯз бо истифода аз интеллекти сунъи, компютер зарфияти коркарди миллионҳо мегабайт иттилоотро дар як сония дорад, ки инсон дори чунин зарфият нест. Аз ин рӯ дар раванди ташаккули технология ба инсонҳои донишманд бештар такя карда мешавад, аммо дар ҳама давлатҳо дар самти омода намудани мутахасисони сатҳи баланд мушкилоти ҷиддӣ вуҷуд дорад.

Тамоми таҳқиқот ва омӯзишу пажӯҳишҳое, ки олимону муҳақиқон онро анҷом медиҳанд, дар оянда имкон медиҳад то интеллекти сунъи бо истифода аз онҳо аз ҳар ҷиҳат аз инсон бартарӣ бошад. Зеро интеллекти сунъи бо истифода аз ин дастовардҳои илмӣ ва қобилияти ҳифзу таҳлили миқдори зиёди иттилооту маълумот зарфияти анҷом додани амалҳое, ки инсон дар амалӣ намудани он оҷиз аст, соҳиб мегардад. Чунин як зарфият имкон медиҳад, то дар бисёр соҳаҳо интеллекти сунъи инсонро иваз намояд.

Мақсади интеллекти сунъи таҳияи алгоритмҳо ва амсилаҳое мебошад, ки метавонанд зеҳни инсонро тақлид кунанд ва вазифаҳои гуногунро ҳал кунанд. Ба вуҷуд овардани системаҳои интеллекти сунъи барои иҷрои вазифаҳое, ки ҳарчанд барои инсонҳо осон ва табиӣ мебошанд, барои мошинҳо ва алгоритмҳо бо истифода аз усулҳои дарёфт ва таҳлил маълумот, омӯзиш ва истилоҳот, қароргирӣ ва дигар вазифаҳои иншоотӣ имконпазир аст. Ҳоло, якчанд мутахассисон дар соҳаи илмҳои компютерӣ кӯшиш доранд, ки интеллекти сунъи-и қавӣ (AGI – Artificial General Intelligence) созанд, ки қодир бошад мисли инсон фикр кунад ва ҳамаи вазифаҳоро иҷро намояд. Аммо, то имрӯз чунин интеллекти сунъи вуҷуд надорад ва вақти зарурӣ барои эҷод кардани онро низ маълум нест.

Интеллекти сунъи ва технологияҳои марбут ба он дар ҷаҳони муосир як қисми ҷудонашавандаи рушди илмӣ ва технологӣ мебошанд. Ин технологияҳо дар ҳолати кунунӣ бо суръат рушд мекунанд ва таъсири амиқе ба ҳамаи соҳаҳои ҳаёти инсонӣ доранд. Истифодаи интеллекти сунъи дар соҳаҳои гуногун на танҳо барои пешрафти технологӣ, балки барои рушди иқтисоди рақамӣ ва таъмини рушди устувори иқтисоди миллӣ аҳамияти калидӣ дорад. Дар соҳаи тиҷорат ва молия, истифодаи интеллекти сунъи дар таҳлили рафтори истеъмолкунандагон ва пешгӯии раванди бозор, он метавонад шароити беҳтаре барои фаъолиятҳои тиҷоратӣ ва стратегияи иқтисодӣ муҳайё кунад, ки дар натиҷа ин ҳолат ба суръат ва самаранокии рушди иқтисодӣ мусоидат кунад. Технологияҳои интеллекти сунъи дар соҳаи нақлиёт ва инфрасохтор ҳам бо истифода аз нақлиёти худидорашаванда ва системаҳои интеллектуалӣ барои идоракунии роҳҳо ва ҳаракати одамон ва борҳо, қобилиятҳои интеллекти сунъи дар бораи таҳлили маълумотҳои нақлиётӣ барои беҳтар кардани системаи нақлиёт таъсири амиқ хоҳанд дошт.

Соли 1956 дар Коллеҷи Дармути ИМА муҳаққиқи америкоӣ Ҷон Маккарти (1927 - 2011) дар конференсия бахшида ба механикунонии зеҳн аввалин шуда, истилоҳи «интеллекти сунъи» - ро истифода намуд. Соли 1958 барномасозии интеллекти сунъи бо номи «Лисп» пешниҳод гашт. Ин барнома дорои хусусиятҳои зерин буд: - шакли синтаксиси ягонаи сабти барнома ва маълумотҳо; - нигаҳдории автоматии идоракунӣ; - системаи макросҳо, «конструксияи забонӣ»; - сохтори пуркуввати маълумотҳо; - барномасозии функционалӣ.

Муаллифи ин забони интеллекти сунъи бо номи «Лисп» муҳаққиқи ИМА Ҷон Маккарти буд. Муҳаққиқони интеллекти сунъи чунин мешуморанд, ки ин барнома кӯҳна шудааст, вале дар бисёр барномасозии саноатӣ ҳоло ҳам аз он истифода мебаранд.

Ширкати америкоии OpenAI барномаеро бо номи ChatGPT коркард намудааст, ки абзори интеллекти сунъи буда, худаш матн менависад. Олимони америкоӣ Ҷон Фон Нейман ва Норберт Винер ҳамчун асосгузорони илми кибернетика ва назарияи интеллекти сунъи маҳсуб меёбанд. Соли 1965 олими америкоӣ Герберт Сайман пешгӯӣ намуд, ки дар давоми 20 – соли охир мошинаҳо тамоми он корҳое, ки одамон қобилият доранд, ичро менамоянд.

Адабиётҳои истифодашуда:

1. Асроров М. Педагогика. – Душанбе: Маориф, 2015.
2. Раҳимов С. Психологияи синни мактабӣ. – Душанбе: Ирфон, 2017.
3. Шарифзода Ф. Технологияҳои муосири таълим. – Душанбе: Маориф, 2019.
4. Қурбонов А. Асосҳои информатика ва технологияҳои иттилоотӣ. – Душанбе: Ирфон, 2018.

MUSTAQIL TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MODELINI YARATISH

To‘rayeva Gulhayo Temirqul qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqola mustaqil ta’lim asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagog-psixologik modelini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Model O‘zbekiston ta’lim tizimidagi mavjud bo‘shliqni hisobga olgan holda, SI orqali yaratilgan interaktiv o‘yinlar, adaptiv metodikalar va psixologik komponentlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijasida taklif etilgan model o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarish, kreativ fikrlash va algoritmik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlandi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, sun’iy intellekt ko‘nikmalari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, pedagog-psixologik model, AI o‘yinlari, adaptiv ta’lim, interaktiv metodlar.*

Kirish. Zamonaviy ta’limda mustaqil ta’lim o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarish, kreativ fikrlash, vaqtni rejalashtirish va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga asosiy vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (6-10 yosh) uchun sun’iy intellekt ko‘nikmalari naqsh tanish, oddiy algoritmlarni tushunish, ma’lumotlarni tahlil qilish va etik masalalarni idrok etishdan iborat bo‘lib, ularni kelajakdagi raqamli jamiyatga tayyorlaydi. O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

doirasida SI texnologiyalari joriy etilmoqda, ammo boshlang‘ich ta’limda pedagog-psixologik modelining yo‘qligi vakuum yaratgan – bu yerda SI o‘yinlari va mustaqil ishlar integratsiyasi yetarli emas. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirish uchun yangi modelni taklif etadi [1].

Mustaqil ta’lim o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, kreativ fikrlash va vaqtni rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslangan yondashuvdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalari – ma’lumotni tahlil qilish, algoritmik fikrlash va AI vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda SI ta’limi oliy bosqichlarda rivojlanmoqda, ammo boshlang‘ich sinflarda pedagogik model yo‘qligi vakuum yaratgan.

O‘zbekistonda SI ta’limi 2024-yildan universitetlarda fakultetlar ochilishi va “5 million AI Leaders” loyihasi bilan boshlandi, lekin boshlang‘ich sinflarda interaktiv SI o‘yinlari va mustaqil ta’lim modellaridan foydalanish deyarli yo‘q [2]. Maktablarda SI darslari 2026-yildan joriy etilmoqda, ammo psixologik asoslangan metodikalar yetishmaydi. Bu vakuum o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini kechiktirmoqda.

Sun’iy intellekt ko‘nikmalari. Boshlang‘ich sinf uchun SI ko‘nikmalari naqsh tanish, ma’lumot saralash va oddiy algoritmlarni tushunishdan iborat. Mustaqil ta’limda bu ko‘nikmalar o‘yinlar orqali shakllanadi, masalan, Quick, Draw! o‘yinida rasm chizib AI ni o‘qitish. Buddy.ai ilovasi esa sonlar, shakllar va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi [3].

Taklif etilgan model. Pedagog-psixologik model mustaqil ta’lim siklini o‘z ichiga oladi: motivatsiya (psixologik tayyorgarlik), rejalashtirish (o‘quvchi o‘zi vazifa tanlaydi), amaliyot (AI o‘yinlari) va refleksiya (o‘zini baholash).

Model komponentlari:

- Pedagogik qism: O‘qituvchi rahbarlik qiladi, SI o‘yinlarini moslashtiradi.
- Psixologik qism: Bolaning motivatsiyasi va xatolardan o‘rganishini hisobga oladi.

Struktura quyidagicha: kirish – 10%, amaliyot – 70%, baholash – 20%.

Model bosqichlari	Tavsif	Psixologik asos
Motivatsiya	Qiziqish uyg‘otish	O‘yin orqali ijobiy hislar
Amaliyot	AI o‘yinlari	Algoritmik fikrlash
Refleksiya	O‘z-o‘zini baholash	O‘ziga ishonch

Metodika va misollar. Metodika SI orqali yaratilgan o‘yinlarga asoslangan:

- Quick, Draw! (Google): Bola 20 soniya ichida rasm chizadi, AI taxmin qiladi – naqsh tanish va tezlik ko‘nikmasi. Mustaqil: o‘quvchi o‘zi mavzuni tanlaydi.
- AI Puzzlers yoki Eduaide.AI generator: Naqshli jumboqlar – algoritm yaratish. O‘zbekiston misoli: “Sun’iy intellekt asosida o‘yinlar” loyihasi bo‘yicha interaktiv metodlar.
- Buddy.AI: Suhbat o‘yini – ijtimoiy va til ko‘nikmalari, psixologik qo‘llab-quvvatlash.



Ushbu o‘yinlar 1-4 sinf uchun: 20-30 daqiqa nazariy, 80% mustaqil ish. Tadqiqotda 592 respondentdan 100% SI ta’limini qo‘llab-quvvatlagan [4].

Mustaqil ta’lim asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt ko‘nikmasini shakllantirishning pedagog-psixologik modeli. Mustaqil ta’lim asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarini shakllantirish pedagog-psixologik modeli ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu model O‘zbekiston ta’lim standartlari va zamonaviy texnologiyalarga asoslanib, o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlari (motivatsiya, qiziqish) va pedagogik tamoyillarni (adaptiv o‘qitish) birlashtiradi.

Maqsad va vazifalar. Modelning asosiy maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida SI asoslarini (masalan, algoritmik fikrlash, shaxsiylashtirilgan o‘rganish) mustaqil ta’lim orqali shakllantirish orqali ularning raqamli savodxonligini oshirish. Vazifalarga quyidagilar kiradi: individual ta’lim trayektoriyalarini SI platformalari (chatbotlar, adaptiv ilovalar) yordamida yaratish; o‘quvchilarning motivatsiyasini psixologik monitoring orqali kuchaytirish; o‘qituvchilarni SI vositalaridan foydalanishga tayyorlash.

Model tuzilishi. Model pedagog-psixologik komponentlarga bo‘linadi: - *Pedagogik blok:* Mustaqil topshiriqlar (SI o‘yinlari, virtual laboratoriyalar) va adaptiv tizimlar orqali bilimlarni mustahkamlash; - *Psixologik blok:* O‘quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash, muvaffaqiyatni rag‘batlantirish uchun gamifikatsiya; - *Integratsiya mexanizmi:* SI vositalari (masalan, Amira Learning kabi platformalar) bilan O‘zbekiston milliy dasturlarini moslashtirish.

Amaliyotda qo‘llash. Model sinfda SI ilovalari (matematika o‘yinlari, chatbotlar) orqali mustaqil ishga tatbiq etiladi: o‘quvchilar haftada 2-3 soat individual topshiriqlarni bajargan holda, o‘qituvchi monitoring qiladi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida virtual o‘qituvchilar qo‘llaniladi, natijada o‘quv jarayoni interaktiv bo‘ladi. Pilot sinflarda (O‘zbekiston maktablarida) bu usul ona tili va matematika fanlarida sinovdan o‘tkazilgan.

Natijalar tahlili. Amaliyotda o‘quvchilarning SI ko‘nikmalari 25-30% ga oshgan, motivatsiya va mustaqil fikrlash darajasi yaxshilangan (so‘rovnomalar bo‘yicha). Zaif tomonlari: texnika ta’minoti va o‘qituvchi malakasi yetishmasligi; afzalliklari – shaxsiylashtirish va samaradorlik. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, model ta’lim sifatini oshirishda muvaffaqiyatli, ammo resurslarni kengaytirish zarur. [5]

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mustaqil ta’lim asosida sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik va psixologik jihatdan yuqori samarali bo‘lishi mumkin. AL (artificial intelligence) asosidagi o‘yinlar va interaktiv metodikalar o‘quvchilarning: - mantiqiy fikrlashini; - muammolarni mustaqil yechish qobiliyatini; - qaror qabul qilish ko‘nikmasini; - motivatsiyasini va o‘zini o‘zi baholash qobiliyatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-apreldagi PF-45-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy ma’lumotlar bazasi. https://lex.uz

2. Nigmatullayeva M.I. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga sun’iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfdan tashqari ishlar misolida) // Zenodo. – 2025

3. Boshlang‘ich ta’lim darslarini tashkil etishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish // Zamonaviy ta’lim islohotlari va ularning amaliy yechimlari. – 2025.

4. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning bilimini shakllantirish // Ilmiy yangiliklar va intellektual tadqiqotlar. – 2025.

5. Madreimova S. AI in Primary Education // Eurasia Science Review. – 2025.

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN DIFFERENSIATSIYALANGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Fazlixonova Nigina Fazlixonovna,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun differensiatsiyalangan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali usullari yoritiladi. Differensiatsiyalangan yondashuv asosida o‘quv materiallarini moslashtirish, topshiriqlarni darajalash, mos metod va vositalarni tanlash hamda baholash tizimini individuallashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Natijada, inklyuziv ta’lim sharoitida barcha o‘quvchilarning faol ishtiroki va ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, differensiatsiyalangan o‘qitish, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, individuallashtirish, ta’lim samaradorligi.*

Inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish jarayoni har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish darajasini chuqur o‘rganishni talab etadi [1; 3-12-b.]. Inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati barcha bolalar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning umumiy ta’lim muassasasida teng imkoniyatlar asosida bilim olishini ta’minlashdan iborat. Bu jarayonda differensiatsiyalangan o‘qitish texnologiyalari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [2; 5-18-b.].

Differensiatsiyalangan o‘qitish – bu ta’lim jarayonini o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi, o‘zlashtirish sur’ati va o‘rganish uslubiga qarab moslashtirishdir. Boshlang‘ich sinf bosqichida o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlar ayniqsa sezilarli bo‘ladi. Shu sababli bir xil metod va topshiriqlar bilan ishlash barcha o‘quvchilar uchun samarali natija bermaydi [6; 33-68-b.].

Differensiatsiyalangan o‘qitishning asosiy mexanizmlari.

Birinchidan, diagnostik tahlil mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasi, psixologik xususiyatlari va o‘rganish imkoniyatlarini aniqlashi lozim. Bu jarayonda kuzatish, suhbat, test va diagnostik topshiriqlardan foydalaniladi. Olingan natijalarga asoslanib, o‘quvchilar shartli ravishda guruhlarga ajratiladi yoki individual yondashuv ishlab chiqiladi.

Ikkinchidan, o‘quv materialini differensiallashtirish mexanizmi qo‘llaniladi. Bunda: mazmun jihatidan soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilgan materiallar; hajmi qisqartirilgan yoki kengaytirilgan topshiriqlar; vizual, audial va kinestetik usullarga mos

resurslar; ko‘makchi didaktik vositalar (rasm, jadval, sxema, kartochkalar)dan foydalaniladi [3; 7-15-b.].

Uchinchidan, topshiriqlarni darajalash mexanizmi amalga oshiriladi. Masalan, bir mavzu bo‘yicha uch xil darajadagi topshiriqlar (minimal, o‘rta va yuqori murakkablikdagi) ishlab chiqiladi. O‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos darajadagi vazifani bajaradi. Bu esa muvaffaqiyat hissini shakllantiradi va motivatsiyani oshiradi.

To‘rtinchidan, ta’lim jarayonini tashkil etishda mos metod va shakllarni tanlash muhimdir. Guruhli ish, juftlikda ishlash, individual topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish differensial yondashuvni ta’minlaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar faol ishtirok etadi.

Beshinchidan, baholashni individuallashtirish mexanizmi qo‘llaniladi. Inklyuziv muhitda baholash faqat yakuniy natijaga emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanish dinamikasiga asoslanadi. Formatív (joriy) baholash, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullari samarali hisoblanadi.

O‘qituvchining roli va pedagogik mahorati. Differensiatsiyalangan o‘qitish samaradorligi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi: tolerant va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi; har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini aniqlashi; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishi; ota-onalar hamda mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi lozim. Inklyuziv sinfda sog‘lom psixologik muhit yaratish ham muhimdir [5; 52-96-b.]. O‘quvchilar o‘rtasida hurmat, hamkorlik va o‘zaro yordam tamoyillari shakllantirilishi kerak [4; 45-78-b.].

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish differensial ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Multimediali taqdimotlar, interaktiv mashqlar, onlayn platformalar va adaptiv dasturlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadi. Shuningdek, STEAM elementlari, muammoli ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv differensiatsiyani kuchaytiradi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun differensiatsiyalangan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi [7; 14-39-b.]. Mazkur yondashuv har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishga imkon beradi. Natijada o‘quvchilar o‘z imkoniyatiga mos sharoitda bilim oladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va o‘quv motivatsiyasi mustahkamlanadi. Differensiatsiyalangan o‘qitish mexanizmlarini – diagnostika, o‘quv materialini moslashtirish, topshiriqlarni darajalash, ta’lim shakllarini xilma-xillashtirish va baholashni individuallashtirish – tizimli ravishda qo‘llash inklyuziv sinfda ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Bu jarayonda o‘qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik kompetensiyasi hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, differensiatsiyalangan o‘qitish inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillarini ro‘yobga chiqaradi, barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat yaratadi va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (2020–2025-yillar)” – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2020.

4. Tolipov, O‘., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

5. Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

6. Karimova, V. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. 33-68-b.

7. UNESCO. Ta’limda inklyuziya va tenglikni ta’minlash bo‘yicha qo‘llanma. – Parij, 2017.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXLOQIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Jangirova Rayhona Mansurbek qizi,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’lim“ yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va axloqiy jihatlari milliy ta’lim tizimi nuqtayi nazaridan keng yoritilgan. Tadqiqotda sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim muhitining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati, shaxsiy rivoji, axloqiy tarbiyasi va ijtimoiylashuv jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog mas’uliyati, raqamli ta’lim etikasi, o‘quvchi shaxsining himoyasi va milliy qadriyatlar uyg‘unligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqola O‘zbekiston olimlarining ilmiy qarashlari hamda respublika miqyosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik etika, raqamli ta’lim muhiti, pedagog mas’uliyati, axloqiy tarbiya.*

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga ham jadal kirib kelmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilib, ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs kamolotining eng muhim va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan munosabati, axloqiy qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori va mustaqil fikrlash asoslari shakllanadi. Shu sababli, ushbu bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi faqat texnologik emas, balki chuqur pedagogik va axloqiy yondashuvni talab qiladi. Agar sun’iy intellekt vositalari boshlang‘ich ta’limda ilmiy asoslangan, pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan va axloqiy me’yorlarga mos tarzda qo‘llanilsa, u ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Aks holda, texnologiyalarning noto‘g‘ri yoki nazoratsiz qo‘llanilishi o‘quvchi shaxsining rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega [2]. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta’limiy platformalar va dasturlar o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos topshiriqlarni taklif etish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sun’iy intellekt texnologiyalari quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi: o‘quv jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish; o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini muntazam monitoring qilish; tezkor va shaffof teskari aloqani ta’minlash; o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytirish. Biroq, sun’iy intellekt texnologiyalari pedagogik jarayonda o‘qituvchini to‘liq almashtirmasligi lozim. Pedagog har doim ta’lim jarayonining bosh subyekti bo‘lib qoladi va texnologiyalar faqat yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak [3]. Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar texnologik yangiliklarga tez moslashadi, biroq ular axborotni tanqidiy baholash, ma’lumotlarning ishonchliligini aniqlash kabi ko‘nikmalarga hali to‘liq ega bo‘lmaydi. Shu bois, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Milliy pedagogika ilmida ta’kidlanganidek, boshlang‘ich yosh davrida axloqiy tarbiya, real muloqot va emotsional rivojlanish ustuvor ahamiyat kasb etadi [4]. Agar o‘quvchi sun’iy intellekt bilan haddan tashqari ko‘p muloqot qilsa, bu uning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, pedagog sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda muvozanatni saqlashi, o‘quvchilarni real muloqotga, jamoaviy ishlarga va hamkorlikka yo‘naltirishi lozim. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bir qator axloqiy muammolarni yuzaga chiqaradi. Eng avvalo, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. O‘zbekistonlik olimlar fikricha, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchi shaxsining daxlsizligi pedagogik va axloqiy mas’uliyatning muhim ko‘rsatkichidir.

Axloqiy muammolar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi; sun’iy intellekt algoritmlarining xolisligi; o‘quvchilarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kontentdan himoya; texnologiyaga qaramlikning oldini olish.

N.A.To‘xtayeva ta’kidlaganidek, raqamli muhitda axloqiy tarbiya masalasi pedagogning faol nazoratini talab qiladi va bu jarayonda texnologiya emas, inson omili ustuvor bo‘lishi zarur [5].

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish bevosita pedagogning kasbiy kompetensiyasi va axloqiy mas’uliyatiga bog‘liq. J.G‘.Yo‘ldoshevning fikricha, innovatsion texnologiyalar pedagogik maqsadlarga xizmat qilgan taqdirdagina ta’lim samaradorligini oshiradi [6].

Boshlang‘ich ta’lim pedagogi quyidagi metodik vazifalarni bajarishi lozim: sun’iy intellekt vositalarini maqsadga muvofiq tanlash; ularning tarbiyaviy ta’sirini baholash; o‘quvchilarning psixologik holatini nazorat qilish; raqamli madaniyat va axloqiy ongni shakllantirish.

Pedagog sun’iy intellektdan foydalanishda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, texnologiyadan ongli va mas’uliyatli foydalanishga o‘rgatishi zarur. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish inson manfaatlariga xizmat qilishi, pedagogik va axloqiy me’yorlarga asoslanishi belgilangan [1]. Ushbu hujjatda boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashda pedagog nazoratining ustuvorligi alohida ta’kidlanadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda milliy qadriyatlar va insonparvarlik tamoyillariga tayanishni talab etadi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu jarayon axloqiy-pedagogik yondashuv, pedagog mas’uliyati va milliy qadriyatlar asosida tashkil

etilgandagina samarali bo‘ladi. Sun’iy intellekt pedagogni almashtiruvchi emas, balki uning kasbiy faoliyatini boyituvchi va qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – 2020.
2. Abdullaeva M.A. Raqamli pedagogika va sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni // *Pedagogik ta’lim*. – 2021.
3. Xodjayev B.X. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Jo‘rayev R.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. To‘xtayeva N.A. Raqamli muhitda axloqiy tarbiya masalalari // *Ta’lim va tarbiya*. – 2021.
6. Yo‘ldoshev J.G‘. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING SUN’IY INTELLEKT BO‘YICHA KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Usmonova Shaxlo Jumatulloyevna,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim“ yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining sun’iy intellekt bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning fundamental va amaliy masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim didaktikasidagi o‘rni, o‘qituvchilarning algoritmik savodxonlik darajasi va dars jarayonini loyihalashdagi metodik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, sohadagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion pedagogik mexanizmlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, kasbiy kompetensiya, raqamli didaktika, boshlang‘ich ta’lim, algoritmik fikrlash, metodik tizim, ta’lim platformalari.*

Zamonaviy axborotlashuv davrida ta’lim paradigmasining o‘zgarishi o‘qituvchi faoliyatini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish strategik vazifa sifatida belgilangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik muhitda sun’iy intellekt nafaqat texnik yordamchi, balki ta’lim mazmunini adaptiv tarzda boshqaruvchi intellektual vositadir [1; 28-b.].

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining kognitiv poydevori shakllanadigan davr bo‘lganligi sababli, bu bosqichda o‘qituvchining Sun’iy intellekt bo‘yicha kompetensiyasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, amaliyotda an’anaviy metodika va zamonaviy texnologik talablar o‘rtasida jiddiy tafovut mavjud. O‘qituvchilarning sun’iy intellekt imkoniyatlaridan dars jarayonida tizimli foydalana olmasligi o‘quv samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, pedagoglarning texnologik

va metodik tayyorgarligini zamon talablariga moslashtirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda [2; 12-b.].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi sun’iy intellekt sharoitida faqatgina kompyuter savodxonligi bilan cheklanmaydi. Bu murakkab pedagogik tizim bo‘lib, o‘qituvchidan texnologiyani ta’lim maqsadlariga xizmat qildirish mahoratini talab etadi.

Ushbu kompetensiyaning tarkibiy qismlarini quyidagi ilmiy asoslangan bloklarga ajratish mumkin: Algoritmik va prompt-savodxonlik: O‘qituvchi sun’iy intellekt tizimlariga aniq pedagogik vazifalarni bera olishi, generativ modellardan dars ishlanmalari, vizual materiallar va krossvordlar olishda aniq ko‘rsatmalar shakllantirishi zarur. Bu jarayon o‘qituvchidan mantiqiy-izchil fikrlashni talab qiladi [3; 44-b.].

Adaptiv didaktik dizayn: sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning individual darajasiga moslashtirilgan topshiriqlar yaratish. Bunda o‘qituvchi sun’iy intellekt taqdim etgan materialni boshlang‘ich sinf Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini tekshiradi va tahrirlaydi [4; 82-b.].

Raqamli tahlil va monitoring: O‘quvchilarning ta’limiy natijalarini "Big Data" (katta ma’lumotlar) asosida tahlil qiluvchi sun’iy intellekt vositalari bilan ishlash va dars sifatini bashorat qilish ko‘nikmasi [5; 110-b.].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining amaliy faoliyatini metodik jihatdan o‘rganish jarayonida bir qator tizimli muammolar aniqlandi:

1. Metodik tizimning texnologik moslashuvchanligi pastligi: Hozirgi kunda amaldagi darsliklar va metodik qo‘llanmalar asosan statik xarakterga ega. O‘qituvchilarda darsning dinamik (sun’iy intellekt yordamida o‘zgaruvchan) ssenariylarini yaratish bo‘yicha ko‘nikmalar yetarli emas. Natijada, sun’iy intellekt vositalari darsning mazmuniga emas, balki faqat tashqi ko‘rinishiga (shunchaki rasm ko‘rsatishga) xizmat qilmoqda [6; 33-b.].

2. Axborotni tekshirish malakasi: Sun’iy intellekt tizimlari ba’zan “hallutsinatsiya” deb ataladigan xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ushbu xatolarni ilmiy va metodik jihatdan darhol aniqlash muhimdir. Pedagogik tajriba yetishmasligi sababli sun’iy intellekt bergan noto‘g‘ri faktlar (masalan, tabiatshunoslik yoki ona tili qoidalarida) o‘quvchiga noto‘g‘ri yetkazilishi xavfi mavjud.

3. Neyropedagogik va kognitiv muvozanat muammosi: Raqamli vositalarning darsdagi ulushi noto‘g‘ri belgilanishi o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itadi. O‘qituvchida darsning qaysi qismida sun’iy intellekt dan foydalanish va qaysi qismida jonli muloqotni saqlab qolish bo‘yicha metodik filtr shakllanmagan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetensiyasini yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlarni joriy etish lozim: Pedagogik OTMlarda “Sun’iy intellekt Didaktikasi” modulini joriy etish: Bo‘lajak o‘qituvchilarga dars mazmunini sun’iy intellekt yordamida modellashtirishni o‘rgatuvchi fanlar kiritilishi zarur [7; 142-b.].

Prompt-engineering treninglari: Amaldagi o‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt platformalari bilan “muloqot” qilish tilini o‘rgatuvchi amaliy kurslarni tashkil etish. Bu o‘qituvchining texnik yuklamasini kamaytiradi va ijodiy faoliyatiga vaqt yaratadi [7; 155-b.].

Milliy elektron metodik baza yaratish: Boshlang‘ich ta’limning barcha fanlari bo‘yicha sun’iy intellekt yordamida yaratilgan, ekspertlar tomonidan tekshirilgan va tasdiqlangan topshiriqlar bankini shakllantirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining sun’iy intellekt bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish - bu texnologik va

metodik bilimlarning tizimli integratsiyasidir. Mavjud muammolarni hal etish o‘qituvchining rolini pasaytirmaydi, aksincha uni yanada murakkab va ijodiy jarayon - ta’lim dizaynerligiga o‘tkazadi. Tizimli metodik yondashuv o‘qituvchiga sun’iy intellekt dan samarali qurol sifatida foydalanish va o‘quvchilarda raqamli dunyoga nisbatan tahliliy munosabatni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik kompetentlik va mahorat. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. - 160 b.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - Toshkent: Sano-standart, 2023. - 240 b.
3. Sharipov Sh.S. Innovatsion pedagogika va ta’lim texnologiyalari. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. - 215 b.
4. Mansurov H.A. Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning metodik asoslari. - Toshkent: Fan, 2021. -192 b.
5. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar: tahlil va tadbiq. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 188 b.
6. Saidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, 2018. - 154 b.
7. Ibragimov X.I. Pedagogik innovatsiyalar va raqamlashtirish. - Toshkent: O‘qituvchi, 2023. - 205 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ADABIY TAHLIL KOMPETENSIYASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Zayniddinova Muborak To‘lagan qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Unda mazkur kompetensiya pedagogik va psixologik yondashuvlar integratsiyasi asosida tushuntiriladi. Adabiy asarni idrok etish va tahlil qilish jarayoni ilmiy-nazariy qarashlar asosida izohlanadi. Shuningdek, kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi va uning mazmuniy komponentlari nazariy jihatdan tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, raqamli texnologiya, tahlil, integratsiya, komponent.*

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida adabiy tahlil kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni ta’lim subyekti bo‘lgan shaxsning kognitiv, refleksiv va kommunikativ faoliyati qanchalik samarali tashkil etilishiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, mazkur kompetensiyani rivojlantirish masalasi faqat metodik yoki texnologik yondashuvlar bilan cheklanmasdan, balki pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘un integratsiyasi asosida chuqur tahlil etilishini talab qiladi. Adabiy tahlil jarayonida talaba passiv bilim oluvchi emas, balki material bilan ishlovchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi, shuning uchun uning fikrlash jarayonlari, talqin mexanizmlari hamda g‘oyalarini mantiqiy asoslash layoqatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amerikalik taniqli psixolog va kognitiv ta’lim nazariyotchisi J.Bruner “The

Process of Education” nomli fundamental asarida “kashfiyotli o‘qitish” g‘oyasini ilgari suradi va shunday deydi: “Bilimlar passiv qabul qilinmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol quriladi” [1; 171-179-b]. Ushbu yondashuv amaliyotda raqamli vositalar yordamida muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin. Masalan, turli simulyatsiyalar, virtual amaliyotlar kabi faoliyat turlari orqali ushbu g‘oya kuchaytiriladi. Bunday platformalar (Learningapp, wordwall, kahoot v.b) talabalarni passiv tinglovchilikdan xalos etib, ularga ma’lumotlarni o‘zlari mustaqil izlash, tanqidiy tahlil qilish va yangi g‘oyalarni kashf etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Natijada, o‘quvchi bilimni shunchaki xotirasida saqlab qolmasdan, balki uni o‘zining aqliy harakatlari orqali yaratganligi sababli, ma’lumotlarning chuqur o‘zlashtirilishi va uzoq muddatli saqlanishi ta’minlanadi.

Adabiyot ta’limida bu, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari adabiy matnni mustaqil kashf etishi va shaxsiy ma’no hosil qilishi lozimligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy tahlil kompetensiyasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv faoliyatini maqsadli tashkil etish va uning diqqat, tafakkur, xotira, refleksiya kabi psixik funksiyalarining faollashuvi natijasida shakllanuvchi ko‘p komponentli integrativ tuzilma sifatida baholanadi. Bu kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi bo‘lajak pedagogning bir vaqtda bir nechta faoliyat turini amalga oshirishini talab etadi: - adabiy asarni mantiqiy anglash – kognitiv komponent; - o‘z fikrlarini nazorat qilish – refleksiv komponent; - asar mazmunini talqin etish – interpretativ komponent; - o‘z munosabatini akademik muloqotda ifodalash – kommunikativ komponent.

Adabiy asarni mantiqiy anglash – bu kitobxonning oddiy kuzatuvchidan faol tahlilchiga aylanish jarayonidir. Bu bosqichda matn shunchaki hissiyotlar manbai emas, balki murakkab intellektual obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonning markazida tahlil tushunchasi turadi. “Tahlil atamasi ilmda keng qo‘llab-quvvatlovchi analiz...terminining sinonimi sifatida ishlanadi. Har ikki atama ham butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, butun bir qismidagi mohiyatini, boshqa qismlari bilan aloqasi va butunligini ko‘zda tutadi” [3; 54-b].

Tahlil adabiy asarni tushunishning eng muhim usulidir. O‘quvchining oddiy taassurot darajasidagi yondashuvini ilmiy tahlilga aylantirish bo‘lajak pedagogning ishidir. Har qanday pedagog esa badiiy asarga oldin oddiy kitobxon, undan keyingina mutaxassis sifatida yondashishi kerak. Negaki, tahlil qilish uchun asarga xos xususiyatlarni bilish talab etiladi. Boshqacha aytganda, butunni tarkibiy qismlarga ajratishdan avval badiiy yaxlitlikni tashkil etuvchi unsurlar qanday tuzilganini chuqur o‘rganish zarur hisoblanadi. Adabiy asarni ilmiy jihatdan to‘la anglash uchun analiz ma’nosidagi tahlil juda zarur, ammo yetarli emas. Garchi, tahlilga doir izlanishlar adabiyotshunos faoliyatining katta qismini tashkil etsa-da, badiiy asarni yuqori ilmiy darajada to‘la idrok etish uchun kifoya qilmaydi. Ko‘rinadiki, “tahlil” atamasi o‘zbek ilmida tor va keng ma’nolarda qo‘llaniladi. Tor ma’noda u fanda xususiy hodisadan umumiy xulosa chiqarish tushunchasini ifodalash maqsadida qo‘llaniladigan “sintez” terminining ziddi-antonimi sifatida ilmiy bilishning keng tarqalgan bir usulini anglatadi. Keng ma’noda esa, “tahlil” tushunchasi badiiy asarni har jihatdan chuqur ilmiy tadqiq etishni anglatadiki, [5; 79-b.] yanada tushunarli bo‘lish uchun bunday o‘rinda “adabiy tahlil” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqroq bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf pedagoglariningadabiy tahlilni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar alohida ahamiyatga ega. Psixolog olimlarning talqinlaridan ma’lum bo‘lishicha, asarni idrok qilishga, badiiy matn mazmunini shaxsiy va kasbiy tajriba bilan bog‘lash, obrazlar orqali ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni anglashgaxizmat

qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik idrok asosida ichki o‘zlashtirish hamda uni kelajakdagi tarbiyaviy-pedagogik faoliyatda qo‘llash va moslashtirish jarayonini anglatadi.

Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o‘zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo‘lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o‘z ichiga oladi.Tadqiqotlar natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi (talaba)ning badiiy asar va adabiy qahramonlarni idrok etish hamda baholash jarayonidagi psixologik xususiyatlari ham ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: 1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat. 2. Elementar tahlil qilish [4; 267-b.]

Bo‘lajak mutaxassis sifatida tayyorlanayotgan talablar asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o‘zshaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar oliy ta’lim talabasida chegaralanmagan bo‘ladi, albatta. Kitobxon adabiy asardan kuchli emosional ta’sirgatushib, hissiy va aqliy zavq olgandagina, u adabiy qahramonga munosabat bildira oladi. Barcha ilmiy ma’lumotlarni, hatto, axloqiy tushunchalarni ham muvozanatdan chiqmay, sezimlar qo‘zg‘almay turib ong yordamida sovuqqonlik bilan qabul qilish mumkin bo‘lsada, badiiy asarni ko‘ngilning, his-tuyg‘ularning, hayajonu zavqning ishtirokisiz yuqtirish mutlaqo imkonsizdir. Asardagi tasvirlarni tahlilchi, eng kamida, qahramon bo‘lib o‘z ko‘nglidan o‘tkazmas ekan, u bunday asardan ta’sirlanmaydi.

Badiiy asarni idrok etish nazariyasi bilan shug‘ullangan adabiyotshunos V.Asmus o‘z vaqtida: “Badiiy asar o‘qishning aynan badiiy asar o‘qish tarzida kechishiga erishishning birinchi sharti butun o‘qish davrida o‘qirman miyasining alohida tarzda yo‘naltirilgan bo‘lishidan iboratdir. Bunga ko‘ra o‘qirman o‘qiyotgan narsasiga hech qachon bo‘lmagan, boshdan-oyoq uydirma deb emas, balki o‘ziga xos borliqqa qaraganday munosabatda bo‘lsin. Badiiy asar o‘qishning aynan badiiy asar o‘qish tarzida kechishiga erishishning ikkinchi sharti birin-chisining teskarisiga o‘xshab ko‘rinadi. Badiiy asar o‘qishning aynan badiiy asar o‘qish tarzida kechishi uchun o‘qirman butun mutolaa davomida o‘qilayotgan asarda tasvirlangan hayot bevo-sita real hayot emas, balki uning obrazi, badiiy tasviri ekanini bilib turishi kerak”, - deb yozgandi [4; 79-b]. Demak, badiiy asarni idrok etish jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan maxsus yo‘naltirilgan o‘qish faoliyatini talab qiladi. Badiiy matnni to‘laqonli anglash uchun tahlilchi bir vaqtning o‘zida ikki muhim holatni ongida ushlab turishi lozim: birinchidan, asarda tasvirlangan voqelikni ichki mantiqqa ega bo‘lgan badiiy borliq sifatida qabul qilish, ikkinchidan esa, uni real hayotning bevosita ko‘rinishi emas, balki obrazli ifodasi ekanini anglab turish. Aynan shu ikki holatning uyg‘unligi badiiy idrokning poydevorini tashkil etadi. Shu sababli badiiy asarni o‘qitish va tahlil qilish jarayonida o‘quvchini faqat syujetni qayta aytishga yoki voqealarga hayotiy baho berishga yo‘naltirish yetarli emas. Ilmiy yondashuv nuqtayi nazaridan, o‘quvchida estetik masofani saqlagan holda hissiy ishtirokni shakllantirish zarur. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan asar bilan ishlashda obrazlarning vazifasi, muallif pozitsiyasi, badiiy vositalarning tanlanishi va ularning g‘oyaviy yukini aniqlashga qaratilgan tahliliy faoliyatni talab qiladi.

Shu jarayonda turli xil raqamli o‘yinlar, xususan, raqamli rolli o‘yinlar (RPG) ham o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirish salohiyatiga ega deb qaraladi. O‘quvchilardan tarixiy voqealar, ijtimoiy dinamika yoki adabiy syujetlar haqida tanqidiy mulohaza yuritish talab qilinadigan fanlarda raqamli rolli o‘yinlar ularni qaror qabul qiluvchi shaxslar roliga qo‘yish orqali yangi

imkoniyatlar yaratadi. Bu, masalan, o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlarni o‘rganish va o‘z harakatlarining oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi [2; 16-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova X.E va bosh. Interaktiv vositalar va pedagogik texnologiyalar integratsiyasining metodik taminoti. «Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, - Namangan., - 2025. 171-179 b.
2. Forsström, S. va boshqalar (2025), “Raqamli texnologiyalarning talabalarning o‘qishiga ta’siri bo‘yicha asosiy topilmalar va integratsiya strategiyalari: Adabiyotlarni ko‘rib chiqish natijalari”, *OECD ta’lim bo‘yicha ishchi hujjatlari*, № 336, OECD nashriyoti, Parij, https://doi.org/10.1787/ab309c32-en.
3. Quronov D, Mamajonov Z, Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. «Akademnashr», 2010. 400 b.
4. Safo Matchonov, X.Bakiyeva, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, G. Xolboyeva. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” darslik. T.: “Ishonchli hamkor”, 2021. 740 b.
5. Yo‘ldosh Q, Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari, – Toshkent: «KAMALAK» nashriyoti, 2016. 464 b.

TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARNING SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Zayniddinova Muborak To‘lagan qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
Zokirova Sevinch Abduvohid qizi,
To‘xtamisheva Dilobar Xurshidovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotasiya. *Mazkur tezis ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan. Hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini oshirish va individual ta’limni tashkil etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli pedagoglarning sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati hamda ta’lim jarayonida undan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, pedagog kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt ko‘nikmalari, innovatsion ta’lim, pedagogik faoliyat, raqamli transformatsiya.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagog faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi o‘qitish usullarini takomillashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, pedagoglarning sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan

foydalanish o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish, o‘qitish jarayonini optimallashtirish hamda pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga xizmat qiladi.Pedagoglar oldiga kasbini mustahkamlab borish, ertangi ta’lim yo‘lida ko‘nikmalar hosil qilish kabi vazifalarni qo‘ymoqda. Chunki texnologiya o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini kafolatlamaydi. Uning samarasi, avvalo, pedagogning bilim darajasi, tayyorgarligi va ongli qo‘llash madaniyatiga bog‘liq. Shubhasiz, bunda pedagogning sun’iy intellekt savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt savodxonligi esa pedagogning bunday texnologiyalarni faqat texnik jihatdan bilishi emas, balki ularni anglash, ishlatish, tahlil qilish va ta’lim jarayoniga integratsiya qila olish kabi qobiliyatiga tayanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimida muhim innovatsion vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi. Shu sababli pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt savodxonligi pedagogning professional samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Dars rejalarini ishlab chiqish, o‘quv materiallarini tayyorlash, test va nazorat ishlarini tahlil qilish, ta’lim natijalarini monitoring qilish kabi ma’muriy va metodik jarayonlar raqamlashtirilishi professor-o‘qituvchilarning vaqtini tejaydi. Natijada, pedagog ilmiy tadqiqot ishlariga, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda talabalar bilan mazmunli muloqot o‘rnatishga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish bir necha asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. *Birinchidan,* pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari va qo‘llanilish sohalari haqida nazariy bilimlarini kengaytirish muhimdir. *Ikkinchidan,* sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari, masalan, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, adaptiv o‘qitish platformalari hamda o‘quv jarayonini tahlil qiluvchi analitik vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. *Uchinchidan,* pedagoglarni o‘quv jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellektdan foydalanish o‘qituvchilarning ma’muriy va takrorlanuvchi ishlarga sarflaydigan vaqtini o‘rtacha 40 foizgacha qisqartirmoqda. Shu bilan birga, AI asosida shakllantirilgan adaptiv o‘quv usullari talabalarning o‘zlashtirish samaradorligini 3 baravargacha oshiryapti. Ayrim ilg‘or universitetlarda sun’iy intellekt nafaqat yordamchi vosita, balki ta’limni boshqarishning muhim elementi sifatida ham qo‘llanilmoqda. Xususan, AI tizimlari dars jadvallarini optimal tarzda tuzish, talabalarning murakkab mavzularni o‘zlashtirish darajasini, o‘quv jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni oldindan tahlil qilish va har bir talabaga individual tavsiyalar berish vazifalarini bajarmoqda. Bu esa ta’limni boshqarishda inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va qaror qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagoglarning sun’iy intellekt bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar va raqamli ta’lim platformalari orqali pedagoglar sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunday yondashuv ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini individuallashtirish hamda o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytirishga

xizmat qiladi. Natijada, pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik faoliyatni keng joriy etish hamda zamonaviy raqamli ta’lim muhitini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagoglardan yangi kompetensiyalarni egallashni talab etmoqda. Pedagoglarning sun’iy intellekt asosidagi vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish imkonini beradi. Shu bois pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalariga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish tizimini takomillashtirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish hamda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba yana bir muhim xulosani ilgari suradi: sun’iy intellektga asoslangan ta’lim raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotga ham to‘g‘ridan to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim tizimida AIdan samarali foydalangan mamlakatlarda innovatsion fikrlay oladigan, raqamli kompetensiyalarga ega va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash sur’ati sezilarli darajada oshgan. O‘zbekiston uchun ham ushbu tajribalarni mexanik ravishda ko‘chirish emas, balki milliy sharoit, demografik imkoniyatlar va ta’lim islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda o‘z modelini yaratish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar soni ko‘pligi, ularning raqamli texnologiyalarga qiziqishi yuqoriligi va davlat tomonidan ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bunda mustahkam poydevor yaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, uni milliy ta’lim siyosati bilan uyg‘unlashtirish va pedagoglar uchun AI savodxonligini izchil rivojlantirishga O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson Education, 2021.
2. Qodirov, A., & Ismoilova, M. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri. O‘zbekiston Pedagogika Jurnali, 2022.
3. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
4. Turayev, N.S., & Soliyev, D.Z. (2025). Raqamli texnologiyalar asosida chizma geometriya fanida mustaqil o‘rganish usullari.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: IMKONIYATLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLI REJALAR

G‘aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna,
Buxoro DU “Pedagogika” kafedrasi tayanch doktoranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida sun’iy intellekt (SI) ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida SI savodxonligining mazmun-mohiyati, yosh o‘quvchilarga mos pedagogik strategiyalar, o‘quv vositalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar*

tizimi bayon etilgan. Shuningdek, SI ta’limining dolzarb muammolari, jumladan, o‘qituvchilar tayyorgarligi, yoshga mos yondashuv va axloqiy masalalar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, raqamli kompetensiyalar, adaptiv o‘qitish, pedagogik texnologiyalar.*

Zamonaviy jamiyatda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari inson faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan, ta’lim sohasiga ham jadal kirib bormoqda. Siri, Alexa kabi ovozli yordamchilar, tavsiya tizimlari va intellektual o‘yin platformalari bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Biroq, bolalar SI texnologiyalaridan foydalangan holda, ko‘pincha ularning ishlash prinsiplari, imkoniyatlari va cheklovlari haqida yetarli tasavvurga ega emaslar.

Sun’iy intellekt savodxonligi (AI literacy) o‘qish va yozish savodxonligi kabi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat texnik mutaxassislar, balki har bir fuqaro uchun zarur bo‘lgan kompetensiyaga aylanmoqda. Boshlang‘ich ta’lim – bu kompetensiyani shakllantirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bolalarning dunyoqarashi, fikrlash uslubi va texnologiyalarga munosabati shakllanadi. Ushbu maqolaning maqsadi – boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, amaliy imkoniyatlari va istiqbollarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlarini ko‘rsatib berishdir.

Sun’iy intellekt savodxonligi – bu nafaqat SI texnologiyalaridan foydalana olish, balki ularning asosiy tamoyillarini tushunish, SI bilan hamkorlik qilish, uning imkoniyatlarini tanqidiy baholash va axloqiy jihatlarini hisobga olish qobiliyatidir. Xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda SI savodxonligi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. SI bilan o‘zaro hamkorlik qilish kompetensiyasi: O‘quvchilarning intellektual agentlar (masalan, ovozli yordamchilar, chat-botlar) bilan muloqot qilish, ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalari.

2. Algoritmik va hisoblash tafakkuri: SI tizimlarining asosini tashkil etuvchi algoritmlar, ma’lumotlar tuzilmasi va mashinali o‘qitishning asosiy g‘oyalarini tushunish. Bu, ayniqsa, blokli dasturlash (masalan, Scratch) orqali shakllantiriladi.

3. Tanqidiy ma’lumotlar savodxonligi: SI qanday ma’lumotlar asosida ishlashini, ma’lumotlardagi xatolar va noaniqliklar (bias) qanday oqibatlarga olib kelishini anglash.

4. SI axloqi va xavfsizligi: Shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, SI qarorlarining adolatliligi, deepfake kabi hodisalarning mohiyatini tushunish va ulardan himoyalanish ko‘nikmalari.

Boshlang‘ich ta’limda SI ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari (7-11 yosh) ularning mavhum tushunchalarni idrok etish darajasini hisobga olishni talab qiladi. Shuning uchun SI ta’limi metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Yoshga mos pedagogik strategiyalar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda konstruktivistik yondashuv, loyihaga asoslangan ta’lim va o‘yinli metodlar eng samarali hisoblanadi:

- Konstruktivistik metodlar: O‘quvchilar SI tushunchalarini amaliy faoliyat, tajriba va kashfiyotlar orqali o‘zlashtiradilar.

- Loyihaga asoslangan ta’lim: Kichik guruhlarda ishlab, o‘quvchilar SI vositalaridan foydalangan holda amaliy loyihalarni amalga oshiradilar (masalan, oddiy chat-bot yaratish, tasvirlarni klassifikatsiyalash).

- O‘yinga asoslangan yondashuv: Interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali SI tushunchalari sodda va tushunarli tarzda taqdim etiladi.

2. Sun’iy intellekt o‘quv vositalari. Yosh o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan maxsus SI vositalari mavjud bo‘lib, ular murakkab texnik tushunchalarni vizuallashtirish va soddalashtirish imkonini beradi:

- Intellektual agentlar: Google Teachable Machine, Machine Learning for Kids, Learning ML kabi platformalar o‘quvchilarga o‘z modellarini yaratish va ularni sinab ko‘rish imkonini beradi.

- Blokli dasturlash muhitlari: Scratch, mBlock kabi vositalar orqali o‘quvchilar SI ilovalarini yaratish asoslarini o‘rganadilar.

- Adaptiv o‘quv platformalari: Khan Academy Kids kabi platformalar har bir o‘quvchining individual sur’ati va darajasiga moslashgan holda ta’lim beradi.

- Simulyatorlar va virtual laboratoriyalar: AR/VR texnologiyalari asosidagi ilovalar orqali o‘quvchilar SI tizimlarining ishlash prinsiplarini vizual va interaktiv tarzda o‘zlashtiradilar.

3. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar imkoniyatlari. Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlar muhim rol o‘ynaydi. To‘garaklar, tanlovlar va loyiha faoliyati o‘quvchilarning SI ga bo‘lgan qiziqishini chuqurlashtiradi va amaliy tajriba orttiradi. Ayniqsa, robototexnika to‘garaklari, dasturlash kurslari va SI klublari bolalarda nostandart fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalar. Boshlang‘ich ta’limda SI ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- Tanqidiy fikrlash: O‘quvchilar SI tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni shubha ostiga olish, ularning ishonchliligini tekshirish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar.

- Kreativlik: SI vositalari yordamida o‘quvchilar yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- Kommunikatsiya: SI bilan muloqot qilish, uning tilini tushunish va unga savollar berish orqali muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

- Kollaboratsiya: Guruhli loyihalarda birgalikda ishlash, fikr almashish va hamkorlikda SI vositalaridan foydalanish.

Metakognitiv ko‘nikmalar. Sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning o‘z bilim jarayonini kuzatish, baholash va boshqarish qobiliyatini – metakognitiv monitoringni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. SI asosidagi interaktiv dasturlar o‘quvchilarga o‘z xatolarini tahlil qilish, o‘quv jarayonini rejalashtirish, o‘zini o‘zi baholash, refleksiya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Differensiallashgan ta’lim imkoniyatlari. AI texnologiyalari tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Adaptiv tizimlar har bir o‘quvchining bilim darajasini aniqlaydi, o‘zlashtirish sur’atiga moslashadi, individual qiziqishlarini hisobga oladi, kuchli va zaif tomonlariga qarab mos topshiriqlarni taqdim etadi. Bu, ayniqsa, turli qobiliyat va tayyorgarlik darajasiga ega o‘quvchilar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammolar va cheklovlar. Boshlang‘ich ta’limda SI ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni bir qator muammolar bilan ham bog‘liq:

1. O‘qituvchilar tayyorgarligi: Ko‘pchilik boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari SI texnologiyalari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emas. Bu esa ta’lim

samaradorligiga to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchilarning SI savodxonligini oshirish va metodik tayyorgarligini ta’minlash dolzarb vazifadir.

2. Infratuzilma va texnik ta’minot: SI vositalaridan foydalanish uchun zamonaviy kompyuterlar, internet tezligi va maxsus dasturiy ta’minot talab etiladi. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlardagi maktablarda bu muammo keskinroq.

3. Yoshga mos kontent muammosi: Barcha SI ta’lim vositalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun moslashtirilmagan. Mavhum tushunchalarni soddalashtirish va bolalarga tushunarli shaklda taqdim etish metodistlar va o‘qituvchilardan yuqori mahorat talab qiladi.

4. SI ga bog‘liqlik xavfi: Ayrim ota-onalar va o‘qituvchilarning kuzatishicha, bolalar sun’iy intellekt vositalariga haddan tashqari bog‘lanib qolish xavfi mavjud. Masalan, uy vazifalarini mustaqil bajarish o‘rniga, ChatGPT yordamida yechimlarni tayyorlash holatlari kuzatilmoqda. Bu esa bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

5. Axloqiy va maxfiylik masalalari: Bolalarning shaxsiy ma’lumotlarining xavfsizligi, ularning faoliyati kuzatilishi va bu ma’lumotlardan qanday foydalanilishi masalalari jiddiy e’tibor talab qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni yechim sifatida amalga oshirilsa SI bilan bog‘liq muammolar bartaraf etilishiga xizmat qiladi. Bular quyidagilar:

- Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlariga SI savodxonligi elementlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish;
- O‘qituvchilarning SI texnologiyalari bo‘yicha malakasini oshirish va ularni metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash;
- Yoshga mos mahalliy SI ta’lim vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tizimida robototexnika, dasturlash va SI to‘garaklari faoliyatini kengaytirish;
- Ota-onalar o‘rtasida SI savodxonligi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish va ulardan farzandlarining texnologiyalardan ogilona foydalanishida hamkorlik qilish.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt ko‘nikmalarini shakllantirish – zamon talabi bo‘lib, bu jarayon o‘quvchilarning muvaffaqiyatli hayot va faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tajriba va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshga mos metodika, maxsus o‘quv vositalari va malakali pedagogik rahbarlik sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari SI ning asosiy tushunchalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtira oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘aniyev, A. Sun’iy Intellekt Davrida Ta’lim Tizimi. Zenodo. (2025).
2. Akhmadaliyeva, M. Yangi pedagogik texnologiyalar va AI asoslari asosida boshlang‘ich ta’limda differensiallashgan yondashuvni tatbiq etish. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2(4.2), 2025-y. 162–164.
3. Farchan, A. Integration of Coding and Artificial Intelligence (AI) Subjects in Primary School Curriculum as an Effort to Improve 21st Century Skills. Jurnal PP, 42(2). (2025).
4. Xalikova, Z. Boshlang‘ich sinflarda sun’iy intellektga asoslanib metakognitiv monitoringni tashkil qilish. Nordik universitet ilmiy jurnali. (2025).

MAKTABGACHA TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT ORQALI O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shariyeva Gavxar Turavoyevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Alliyeva Gulsanam Bayirzoda,
Safarova Marjona Abduraxim qizi,
Ziyodullayeva Sabrina Sunnatullo qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida rivojlanishida mehnat faoliyatining pedagogik ahamiyati va sun’iy intellekt orqali o‘yinlashtirilgan metodlarning samaradorligini tadqiq etadi. Maktabgacha ta’limda mehnat faoliyati nafaqat motorika va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki innovatsion pedagoji yondashuvlar yordamida individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Sun’iy intellekt bilan integratsiyalangan o‘yinlashtirilgan metodlar bolalarning motivatsiyasini oshiradi, ijodkorligini rag‘batlantiradi hamda pedagogik jarayonda individual yondashuvni ta’minlaydi. Maqola psixopedagogik asoslar, amaliy tadqiqotlar, metodik tavsiyalar va uslubiy takliflar bilan boyitilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun zamonaviy o‘quv modellarini ishlab chiqishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, mehnat faoliyati, sun’iy intellekt, o‘yinlashtirilgan pedagogik metodlar, adaptiv o‘qitish, bolalarning shaxsiy rivojlanishi, psixopedagogika.*

Maktabgacha ta’lim bolalarning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bola nafaqat jismoniy va aqliy ko‘nikmalarni egallaydi, balki ijtimoiy, emotsional va xulq-atvor jihatidan ham sezilarli o‘sish ko‘rsatadi. Xususan, mehnat faoliyati – yengil jismoniy ishlar, qo‘l mehnati va turli amaliy mashg‘ulotlar – bolalarda mas’uliyat, mehnatsevarlik, mustaqillik va tizimli fikrlash kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik jarayonga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash, o‘yin orqali motivatsiyani oshirish va o‘quv faoliyatini qiziqarli hamda samaraliroq tashkil etishga xizmat qiladi. O‘yinlashtirilgan pedagogik metodlar esa bolalarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning didaktik faoliyatini tabiiy o‘yin jarayoni orqali boyitadi.

Jismoniy va motorik rivojlanish. Mehnat faoliyati yosh bolalarning kichik va katta motorika qobiliyatini barqarorlashtiradi. Qo‘llar bilan ishlash, kichik maishiy vazifalarni bajarish ularning qo‘l-barmoq koordinatsiyasini mustahkamlaydi, bu esa matematika va yozuv ko‘nikmalarining shakllanishiga oldindan zamin yaratadi.

Intellektual o‘sish. Mehnat jarayoni bolalarda muammo yechish, tartibga solish va rejalashtirish kabi kognitiv funksiyalarni rivojlantiradi. Masalan, qum, suv va loy bilan o‘yinlarga asoslangan mehnat mashg‘ulotlari bolalarda sabr-toqat, ketma-ketlik va mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar. Jamoaviy mehnat faoliyati bolalarni bir-biriga yordam berishga, fikr almashishga va fikrlarni hurmat qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonlar

emotsional intellektni rivojlantiradi va bolalarni ijtimoiy muhitda samarali muloqot ko‘nikmalariga tayyorlaydi.

Sun’iy intellekt orqali o‘yinlashtirilgan pedagogik metodlar. Adaptiv o‘qitish SI tizimlarining eng muhim xususiyati — har bir bolaning individual o‘rganish xususiyatini aniqlash va unga mos o‘yin-vazifalarini taqdim etishdir. Bu adaptiv yondashuv bolalarning qobiliyatlari bilan moslashgan sharoitda o‘rganishni ta’minlaydi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar. Virtual muhitda o‘tkaziladigan mehnat va o‘yin mashg‘ulotlari bolalarga xavfsiz va interaktiv tajriba beradi. Bu simulatsiyalar orqali bola turli ish jarayonlarini sinab ko‘rishi, o‘z xatolaridan o‘rganishi va yangi ko‘nikmalarni mustahkamlashi mumkin.

Real vaqt va tahlil. SI tizimlari bolaning o‘yin faoliyatini tahlil qilib, darhol motivatsion va didaktik feedback beradi. Bu bola o‘zining muvaffaqiyatlarini va xatolarini anglab yetishiga yordam beradi hamda o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Gamification elementlari. Mukofotlar, ball tizimi, virtual belgilarning yig‘ilishi kabi o‘yin elementlari bolalarni motivatsiyalashga xizmat qiladi. O‘yinlashtirilgan metodlar natijasida bola faol ishtirok etadi, o‘rganishga qiziqadi va mehnat faoliyatini qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Individual yondashuv. Har bir bolaning qobiliyat, qiziqish va rivojlanish darajasiga moslab topshiriqlar beriladi. Bu yondashuv bola o‘ziga ishonchini oshiradi hamda o‘z tezligida o‘rganishga imkon yaratadi.

O‘yin-faoliyat jarayonlari bolalarni voqea-hodisalarga faol jalb etadi va ularni o‘zlari mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Bu esa shaxsiy mustaqillik va tasavvurni mustahkamlashga xizmat qiladi.

SI tahliliy vositalari pedagoglarga bolalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, muammolarni aniqlash va individual metodik qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Bolalar SI asosida boshqariladigan virtual bog‘ni rejalashtiradi, sug‘oradi, parvarishlaydi va uni boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Har bir qaror bola qobiliyatiga mos ballar bilan taqdirlanadi, bu esa o‘z navbatida mehnat faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Kichik uy-loyiha mashg‘ulotlari. SI tizimlari orqali uy muhitidagi oddiy mehnat jarayonlarini – ovqat tayyorlash, tartibni saqlash yoki to‘plash — gamified shaklda bajarish mumkin. Bolalar har bir muvaffaqiyat uchun virtual mukofot oladi.

Jamoaviy simulyatsiyalar. Bolalar guruhlarda ishlaydi va birgalikda qaror qabul qilish, rejalashtirish hamda muammolarni hal etish bo‘yicha mashqlarni bajaradi. Bu pedagogik metod ijtimoiy va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Afzalliklari: individual yondashuvni ta’minlaydi, motivatsiyani oshiradi va faol ishtirokni rag‘batlantiradi, interaktiv va xavfsiz o‘quv muhitini yaratadi, bolaning o‘zini baholash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Cheklovlari: yuqori texnologik resurslar talab qiladi, pedagoglarning texnologik savodxonligi muhim omil bo‘lib qoladi, virtual muhit haqiqiy amaliyotning to‘liq o‘rnini bosa olmaydi.

Maktabgacha ta’limda mehnat faoliyatini sun’iy intellekt orqali o‘yinlashtirilgan pedagogik metodlar bilan birlashtirish bolalarning shaxs sifatida rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. SI integratsiyasi o‘quv jarayonini individuallashtiradi, motivatsiyani oshiradi va o‘yin orqali o‘rganishni samarali qiladi. Shu orqali bolalar nafaqat mehnat faoliyatini sevuvchi va ijodkor shaxs bo‘lib voyaga yetadi, balki zamonaviy pedagogik

jarayonlarda mustaqil fikrlash, muloqot va mas’uliyat ko‘nikmalarini chuqurroq egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balyasnikov V.B. Maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyatining pedagogik asoslari // Pedagogika va psixologiya jurnal. – 2019. – T.12, №4. 45–53 b.

2. Shakirova M. Ijtimoiy‑emotsional rivojlanishda jamoaviy pedagogik metodlar // Ta’lim tadqiqotlari. – 2020. – T.8, №2. 112–120 b.

3. Tumanova L. Motorik va kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘yinlashtirilgan yondashuvlar // Pedagogik innovatsiyalar. – 2021. – T.5, №1. 23–31 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SUN’IY INTELLEKTGA OID BOSHLANG‘ICH KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA ILM-FAN VA TABIAT MARKAZIDA TAJRIBALAR TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Shariyeva Gavxar Turavoyevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Sunnatova Maxfuza Rustam qizi,
Ergasheva Zo‘rabi Yuldoshboy qizi,
Salimboyeva Shoista San’at qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda sun’iy intellektga oid boshlang‘ich ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida ilm-fan va tabiat markazida tajribalar tashkil etish texnologiyasi yoritilgan. Tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati hamda texnologiyalarga qiziqishini rivojlantirishda tajriba asosidagi mashg‘ulotlarning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ilm-fan va tabiat markazi, tajriba faoliyati, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayoni.*

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda. Shu sababli yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish va ularda raqamli tafakkurni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim bosqichi bolalarning tafakkuri, qiziqishi va bilim olishga bo‘lgan intilishi shakllanadigan muhim davrdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi ilm-fan va tabiat markazi bolalarda kuzatuvchanlik, tajriba o‘tkazish, sabab–oqibat munosabatlarini tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu markazda tashkil etiladigan boshlang‘ich tajribalar orqali bolalarda sun’iy intellektga oid boshlang‘ich tushunchalarni ham shakllantirish mumkin.

Sun’iy intellekt – bu kompyuter va texnologiyalarning inson aqliy faoliyatiga o‘xshash tarzda fikrlashi, o‘rganishi va qaror qabul qilishini ta’minlovchi texnologiyalar majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga sun’iy intellekt tushunchasi murakkab ilmiy atamalar orqali emas, balki oddiy o‘yinlar, kuzatuvlar va tajribalar orqali tushuntiriladi.

Bolalarda quyidagi boshlang‘ich ko‘nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi: kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmasi, muammoni hal qilish qobiliyati, mantiqiy fikrlash,

sabab va natija bog‘liqligini tushunish, texnologiyalarga qiziqish. Bu ko‘nikmalar keyinchalik sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni o‘rganish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida o‘tkaziladigan tajribalar bolalarning mustaqil izlanishi, kuzatishi va xulosa chiqarishiga imkon yaratadi. Tajribalarni tashkil etishda quyidagi pedagogik bosqichlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Tarbiyachi bolalarga qiziqarli savol yoki muammoli vaziyat yaratadi. Masalan: “Qanday qilib robot buyruqlarni tushunadi?” yoki “Nega ayrim qurilmalar biz aytgan ishni bajaradi?”

Bolalar oddiy tajribalar orqali ma’lumot to‘playdi. Masalan: buyruq asosida harakat qiluvchi o‘yinlar, rang yoki shaklni ajratish o‘yinlari, oddiy algoritmik ketma-ketliklar, bu jarayon bolalarda algoritmik fikrlashni rivojlantiradi.

Bolalar tajriba natijalarini muhokama qiladi. Tarbiyachi savollar berib, ularni fikrlashga undaydi. Bolalar o‘z kuzatuvlariga asoslanib xulosa chiqaradilar. Shu orqali ular texnologiyalar ham ma’lum qoidalar asosida ishlashini tushunib boradilar.

Ilm-fan va tabiat markazida quyidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin:

“Robot kabi harakat qil” o‘yini. Bir bola “robot”, boshqasi esa “dasturchi” rolini bajaradi. Dasturchi buyruq beradi: “oldinga yur”, “chapga buril”. Bu o‘yin algoritmik fikrlashni rivojlantiradi.

“Ranglarni ajratish” tajribasi. Bolalarga turli rangdagi predmetlar beriladi. Ular rangiga qarab ajratadi. Tarbiyachi buni sun’iy intellekt tizimlarining tasvirlarni tanish jarayoni bilan bog‘lab tushuntiradi.

“Aqlli qurilmalar bilan tanishuv”. Bolalar kundalik hayotda uchraydigan aqlli texnologiyalar – sensorli lampalar, avtomatik eshiklar, ovoz orqali ishlaydigan qurilmalar bilan tanishtiriladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tashkil etilgan tajribalar orqali bolalar: mustaqil fikrlashni o‘rganadi, texnologiyalarga qiziqishi ortadi, muammoli vaziyatlarda yechim topishga harakat qiladi, zamonaviy raqamli dunyoga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, bunday faoliyat bolalarda ijodkorlik, izlanish va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sun’iy intellektga oid boshlang‘ich ko‘nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ilm-fan va tabiat markazida tashkil etiladigan tajribalar bolalarning kuzatuvchanligini, mantiqiy fikrlashini va texnologiyalarga qiziqishini rivojlantiradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilmiy tajribalar, o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlardan keng foydalanish orqali bolalarni kelajakning raqamli jamiyatiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artificial Intelligence: A Modern Approach / Stuart Russell, Peter Norvig. – Pearson Education, 2021.

2. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan nashr). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

3. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris, 2021.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Shoyusupova Shaxzoda Shoxrux qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Sapoqulova Shahlo Zayniddin qizi,
Raximboyeva Muxayyo Kamil qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida sun’iy intellekt (SI) asoslari va unga oid ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida bolalarda raqamli savodxonlikni shakllantirish, algoritmik fikrlashni rivojlantirish hamda sun’iy intellektga oid elementar tushunchalarni berish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ta’lim jarayonida sun’iy intellekt elementlarini qo‘llash metodikasi, pedagogik yondashuvlar hamda ularning bolalar rivojiga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, raqamli savodxonlik, algoritmik fikrlash, innovatsion texnologiyalar.*

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida sun’iy intellekt inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Ta’lim tizimi ham bundan mustasno emas. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni kelajak kasblariga tayyorlash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq sun’iy intellektga oid elementar tushunchalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, raqamli texnologiyalar bilan erta tanishish bolalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish hamda kreativ yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi (Russell & Norvig, 2021). Shuningdek, UNESCO tashkiloti ham ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi (UNESCO, 2022).

Maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarning fikrlash jarayoni faol rivojlanadi. Aynan shu davrda bolalarga mantiqiy o‘yinlar, konstruktiv faoliyat va oddiy algoritmik topshiriqlar orqali sun’iy intellektga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. Masalan, turli xil mantiqiy o‘yinlar, robototexnika elementlari yoki interaktiv ta’lim platformalari orqali bolalarda sabab‑natija bog‘lanishlarini tushunish qobiliyati rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida esa ushbu jarayon yanada tizimli ravishda tashkil etilishi mumkin.

Bu jarayonda quyidagi pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. O‘yin asosidagi ta’lim texnologiyalari. Bolalar uchun mo‘ljallangan raqamli o‘yinlar va interaktiv dasturlar orqali algoritmik fikrlashni rivojlantirish

mumkin. Bunday yondashuv bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

2. Muammoli ta’lim metodlari. O‘quvchilarga oddiy muammoli vaziyatlar berish orqali ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Masalan, oddiy algoritmlarni tuzish, ma’lumotlarni tahlil qilish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Ta’lim jarayonida turli xil ta’limiy platformalar, dasturlar hamda mobil ilovalardan foydalanish, o‘quvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar bilan erta yoshdan texnologiyalar asosida ishlash ularning analitik fikrlashini rivojlantiradi hamda muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi (Luckin, 2018).

Sun’iy intellektga oid ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida pedagoglarning roli juda muhim. O‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni bilishi, ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishi zarur. Shuningdek, ular bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materiallarini tanlashi lozim.

Pedagoglar uchun quyidagi kompetensiyalar muhim hisoblanadi:

– raqamli savodxonlik;

– innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

– ta’lim jarayonini interaktiv shaklda tashkil etish;

– bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalar texnologiyalar bilan faqat maktabda emas, balki uy sharoitida ham faol muloqotda bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida sun’iy intellektga oid ko‘nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv bolalarda raqamli savodxonlikni oshirish, algoritmik fikrlashni rivojlantirish hamda ularni kelajak kasblariga tayyorlashga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish bolalarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni o‘z faoliyatiga keng joriy etishi va innovatsion metodlardan foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, S., Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson Education.

2. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence. UCL Institute of Education Press.

3. UNESCO. (2022). Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy Makers.

4. Karimov, I., To‘xtayeva, M. (2020). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent.

2-SHO‘BA: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH: SUN’IY INTELLEKT, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA KREATIV YONDASHUVLAR

MEHNAT TA’LIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI REJALASHTIRISH

Abdullayeva Aziza Hamdam qizi,
Soliyeva Ruxshona Ikrom qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mehnat ta’limi fanida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni rejalashtirishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi va ularning ta’lim sifatiga ta’siri asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat ta’limi, innovatsion texnologiyalar, darsni rejalashtirish, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmunini boyitish va sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mehnat ta’limi fanida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish o‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. [2]

Mehnat ta’limi darslari o‘quvchilarni hayotga, kelajak kasbiga tayyorlashda muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli darslarni rejalashtirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi.Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchi faolligini oshirishi va ta’lim samaradorligini ta’minlashi ilmiy manbalarda qayd etilgan [3; 3-b.]. Mehnat ta’limi fanining ta’lim tizimidagi o‘rni. Mehnat ta’limi fani o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, aniqlik va intizom kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar turli buyumlarni tayyorlash, texnologik jarayonlarni tushunish va amaliy ishlarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim jarayoniga zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi belgilab berilgan. [1]

Bundan tashqari, mehnat ta’limi o‘quvchilarning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni kelajak faoliyatiga ongli ravishda yo‘naltiradi. Darslar davomida o‘quvchilar xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni, ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanishni ham o‘rganadilar.Mehnat ta’limi fani o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mustaqil fikrlash va kasbiy yo‘naltirilganlikni shakllantiradi. Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyalar va davlat ta’lim standartlariga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat

kasb etadi [2; 6-b.]. N.N.Azizxo‘jayeva ta’kidlaganidek, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchining shaxsiy faolligini oshiradi va ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Inovatsion Texnologiyalar tushunchasi va mohiyati.Innovatsion texnologiyalar – bu ta’lim jarayoniga yangilik kiritishga, uni samarali va sifatli tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik usullar majmuasidir. Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi hamda mustaqil fikrlashini rivojlantiradi [5]. Mehnat ta’limida innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil va ijodiy ishlashini ta’minlaydi. J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonovlarning fikricha, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi va ta’lim sifatini oshiradi [3]. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi M.V.Klarin asarlarida qayd etilgan [5].

Innovatsion texnologiyalarga quyidagilar kiradi: interfaol metodlar; loyiha asosida o‘qitish; muammoli ta’lim; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Bu yondashuvlar orqali dars jarayoni jonlanadi va o‘quvchilar bilimni tayyor holda emas, balki faol ishtirok orqali egallaydilar.Mehnat ta’lim darslarini innovatsion asosda rejalashtirish. Darslarni innovatsion asosda rejalashtirishda avvalo darsning maqsadi va vazifalari aniq belgilanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda metod va vositalarni tanlaydi.Mehnat ta’limi darslarini innovatsion asosda rejalashtirishda darsning maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalar aniq belgilanadi. Loyiha metodi, muammoli ta’lim va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Innovatsion dars rejasida: nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligi; o‘quvchilarning mustaqil faoliyati; jamoada ishlash ko‘nikmalari; natijani baholash mezonlari muhim o‘rin tutadi. *Masalan,* loyiha metodi asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar mustaqil mahsulot yaratish orqali bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.Bunday darslar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. AKT mehnat ta’limi darslarining samaradorligini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mehnat ta’limi darslarini yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Elektron darsliklar, video materiallar va internet manbalari orqali o‘quvchilarning bilim doirasi kengayadi. Prezentatsiyalar, videoroliklar, elektron qo‘llanmalar murakkab texnologik jarayonlarni tushunarli tarzda yoritishga yordam beradi. AKT vositalari ta’lim jarayonida vaqtni tejash, ko‘rgazmalilikni oshirish va mustaqil ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan mehnat ta’limi darslari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ular muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishga, yangicha fikrlashga o‘rganadilar.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, mehnat ta’limi darslarida AKT vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirish, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Mehnat ta’limi darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotlarga ongli yondashishini ta’minlaydi. Elektron vositalar va interfaol metodlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi [4]. Mehnat ta’limi darslarida AKTdan foydalanish orqali murakkab texnologik jarayonlarni animatsiya, video va virtual modellar yordamida tushuntirish mumkin. Bu esa

o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga va amaliy mashg‘ulotlarga ongli yondashishiga yordam beradi. Masalan, yog‘ochga ishlov berish, metall buyumlar tayyorlash yoki elektr asboblaridan foydalanish jarayonlarini video darslar orqali ko‘rsatish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, AKT vositalari o‘quvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. AKTdan foydalanish ta’lim jarayonini davlat ta’lim siyosati va normativ hujjatlar asosida tashkil etishga imkon yaratadi [1]. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va test orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon o‘quvchilarda mas’uliyat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mehnat ta’limida AKTdan foydalanishning yana bir muhim jihati – o‘quvchilarning kasbiy yo‘naltirilganligini oshirishidir. Internet tarmoqlari orqali zamonaviy kasblar, ishlab chiqarish texnologiyalari va innovatsion ishlanmalar bilan tanishish o‘quvchilarning kelajak kasb tanlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, o‘quvchilar mehnat ta’limi faniga nisbatan yanada qiziqish bildiradilar va darslarda faol ishtirok etadilar [5]. AKT vositalaridan foydalanishda o‘qituvchining pedagogik mahorati muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi texnologiyalardan maqsadli va o‘rinli foydalana olishi, ularni dars mazmuniga moslashtirishi zarur. Aks holda, AKT dars samaradorligini oshirish o‘rniga, e’tiborni chalg‘ituvchi omilga aylanishi mumkin. Shu bois, mehnat ta’limi o‘qituvchilari AKTdan foydalanish bo‘yicha doimiy ravishda o‘z ustida ishlashlari lozim [2]. Bunday darslar o‘quvchilarda tashabbuskorlik, mas’uliyat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mehnat ta’limi fanida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni rejalashtirish bugungi ta’lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonining sifatini oshirib, o‘quvchilarning bilimlarni puxta egallashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T,, 2020.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
5. Klarin M.V. Innovatsii v obrazovanii. – Moskva, 2019.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA EKOLOGIK TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STEAM DARS MODELLARI VA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Anorov To‘lqin Norqo‘chqorovich,
Ter DPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda STEAM dars modellari va sun’iy intellekt*

texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi - fanlararo integratsiyaga asoslangan STEAM yondashuvi va sun’iy intellekt vositalari orqali o‘quvchilarda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishning samarali modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar STEAM asosida tashkil etilgan integrativ darslar va sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning ekologik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish g‘oyalarini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: *ekologik ta’lim, ekologik ong, STEAM ta’limi, sun’iy intellekt, integrativ dars modeli, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion pedagogika.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish g‘oyalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon ta’lim amaliyotida ekologik ta’limni samarali tashkil etish uchun *interdisciplinary learning*, *STEAM education* va *digital technologies* kabi innovatsion pedagogik yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda tabiatga ehtiyotkor munosabat, ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirish kelgusi avlodning ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, “Ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ekologik ta’limni barcha ta’lim bosqichlarida joriy etish zarurligini belgilaydi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ekologik ta’limni rivojlantirish, STEAM yondashuvini ta’lim jarayoniga joriy etish va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari keng o‘rganilgan. Masalan, Abdul Gafoor STEAM ta’lim modellari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishini ta’kidlaydi. Tony Buzan esa integrativ ta’lim yondashuvlari o‘quvchilarda tizimli tafakkurni shakllantirishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga xizmat qilishini qayd etadi. Shunga qaramasdan, boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’limni STEAM yondashuvi asosida tashkil etish va sun’iy intellekt texnologiyalarini dars modellariga integratsiya qilish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa ekologik ta’limning samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik yechimlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan integrativ *STEAM* lesson model va sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan raqamli ta’lim muhitini qo‘llash taklif etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ekologik ta’limni tashkil etishda STEAM dars modellari va sun’iy intellekt vositalari integratsiyasi asosida innovatsion pedagogik yondashuv ishlab chiqildi. Bu yondashuv o‘quvchilarda ekologik bilim, amaliy ko‘nikma va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda *STEAM education* va *Artificial Intelligence (AI)* texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy-ilmiy asosini ekologik ta’lim konsepsiyasi, fanlararo integratsiya

prinsiplari, raqamli ta’lim muhiti nazariyasi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar tashkil etadi.

Tadqiqot dizayni kompleks pedagogik tadqiqot sifatida tashkil etildi va u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: 1) nazariy tahlil bosqichi; 2) pedagogik modelni ishlab chiqish bosqichi; 3) tajriba-sinov bosqichi; 4) natijalarni tahlil qilish va baholash bosqichi.

Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’lim jarayonida ekologik bilimlarni shakllantirishga qaratilgan integrativ *STEAM lesson model* ishlab chiqildi. Mazkur model fanlararo o‘qitish, amaliy tajribalar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratildi.

Tadqiqot algoritmi quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirildi:

Boshlash 1. Ekologik ta’lim muammolarini aniqlash 2. STEAM asosidagi integrativ dars modelini ishlab chiqish 3. Sun’iy intellekt vositalarini dars jarayoniga integratsiya qilish 4. Tajriba-sinov guruhlarida darslarni tashkil etish 5. O‘quvchilarning ekologik bilim va ko‘nikmalarini baholash 6. Natijalarni statistik tahlil qilish 7. Model samaradorligini aniqlash.

Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida pedagogik kuzatish, anketa, test, intervyu va tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy tahlil va statistik tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Natijalarni baholashda o‘quvchilarning ekologik bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy fikrlash qobiliyati asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlarni qayta tekshirish, qiyosiy tahlil va eksperimental guruhlar natijalarini solishtirish usullaridan foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining validligi va takrorlanuvchanligini ta’minlashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokamasida STEAM dars modellari asosida ekologik ta’lim samaradorligi. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida STEAM asosida integrativ dars modellari ishlab chiqildi va tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning ekologik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ekologik ong darajasi diagnostika qilindi.

Tadqiqot natijalari tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish orqali baholandi. Natijalarga ko‘ra, STEAM asosida tashkil etilgan integrativ darslar o‘quvchilarning ekologik bilimlarini o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirgani kuzatildi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim vositalari o‘quv jarayoniga integratsiya qilindi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish, bilimlarni monitoring qilish va o‘quv faoliyatini tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt vositalari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning ekologik bilimlari va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan yuqori natijalarni namoyon etdi. Bu holat raqamli ta’lim muhitining ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlilida natijalarida milliy va xalqaro ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Masalan, Abdul Gafoor tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda STEAM yondashuvi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekani qayd etilgan [2]. Shuningdek, Luckin tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Mazkur tadqiqot natijalari ham shu xulosalarni tasdiqlab, STEAM dars modellari va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik mexanizm hisoblanishini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda STEAM dars modellari va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiyaga asoslangan STEAM yondashuvi hamda sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning ekologik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish g‘oyalarini anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, STEAM va sun’iy intellekt texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga keng joriy etish ekologik ta’limni modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Tilavova S.B. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Sharipov Sh.S. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

MUTAFAKKIRLARNING INSONPARVARLIK G‘OYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Aslonov Faridun Davronovich,
Chirchiq DPU “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Maqolada mutafakkirlarning insonparvarlik g‘oyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi hamda sun’iy intellektning nazariy va tarixiy ildizlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek sun’iy intellektni ta’limda qo‘llashning amaliy jihatlari, imkoniyatlari, muammolari va ijro etish yechimlari muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar*: pedagogik jarayon, insonparvarlik, sun’iy intellekt, bo‘lajak o‘qituvchilar, tadqiqot, baholash, virtual reallik, masofaviy ta’lim, texnologiya.*

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyasi hayotning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib borayotgan bir paytda, ta’lim tizimlari qayta ko‘rib chiqish, moslashish va o‘zgarishga majburdir. Sun’iy intellekt tarixi adabiy tasavvurlar va ilmiy sa’y-harakatlarning ajoyib uyg‘unligidir. Uning konseptual ildizlari 1940-yillarga borib taqaladi. Aynan shu paytda Isak Asimov o‘zining “Runaround” ilmiy-fantastik hikoyasida birinchi marta “Robototexnikaning uch qonuni”ni taqdim etdi. Bu qonunlar keyinchalik robototexnika

va Sun’iy intellekt sohasidagi ko‘plab tadqiqotchilarga, jumladan, uning zamonaviy asoschilaridan biri Marvin Minskiga ham ilhom berdi. Ayni vaqtda, britaniyalik matematik Alan Tyuring Ikkinchi Jahon urushi davrida “Bomba” shifrni yechish moslamasini yaratish va aqlli mashinalar haqidagi g‘oyalari bilan fundamental o‘zgarishlarga asos soldi. U 1950-yilda o‘zining mashhur “Hisoblash mashinalari va intellekt” maqolasi bilan Tyuring Testini taklif qildi. Bu mezon hozirgacha sun’iy tizimlarning intellektini o‘lchash uchun qo‘llaniladi.

1956-yilda “Sun’iy intellekt” atamasi rasman Dartmut yozgi seminarida Minskiy va Jon Makkarti tomonidan kiritildi. Bunda katta ma’lumotlar (Big Data)ning paydo bo‘lishi, kompyuterlar qayta ishlash quvvatining o‘sishi va o‘rganish algoritmlari rivojlanishi bilan so‘nggi o‘n yillikda inson hayotining turli sohalariga kirib keldi [3].

Sun’iy intellektning bolalar ta’limidagi o‘rni. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshdagi bolalarga AI ta’limini berish zaruratdir. Buning asosiy sababi: AI ning asosiy funksiyalari va unga asoslangan dasturlardan qanday foydalanishni bilish bugungi dunyoda raqamli savodxonlikning ajralmas qismidir. Kundan kunga aqlliroq bo‘lib borayotgan jamiyatda bolalar kelajakda qobiliyatli va ongli fuqarolar bo‘lishlari uchun sun’iy intellektning asosiy tushunchalari bilan yoshlikdanoq tanishishlari lozim. [1]

Sun’iy intellekt davrida ta’lim: katta imkoniyatmi yoki murakkab muammo? Albatta, sun’iy intellektga oid tushunchalarni o‘rganish bolalarning yoshiga va aqliy idrok darajasiga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak. Bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlariga mos keladigan dasturlar va platformalardan foydalanish samarali o‘qitish uchun zamin yaratishi mumkin. Masalan, sun’iy intellektdan imlo, so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi, shaxsiy o‘rganish darajasini sozlash, vebga asoslangan onlayn ta’limda foydalanish bolalarning akademik va lingvistik qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

O‘quv robotlari, aqlli o‘yinlar va interaktiv o‘yinchoqlar kabi sun’iy intellekt bilan jihozlangan vositalar bolalarda ijodkorlik, ishtirok etish, hissiyotlarni ifodalash va savol berish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, virtual reallik (VR) va kontentni uch o‘lchamli (3D) qilish kabi texnologiyalar dars tushunchalarini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. [3]

Sun’iy intellekt va mutafakkirlarning insonparvarlik g‘oyalari. Insonparvarlik – bu ta’limning yuragi, tarbiyaning asosidir. Sharq va G‘arb mutafakkirlari asarlarida inson qadri, mehr-oqibat, adolat, komillik va axloqiy poklik masalalari markaziy o‘rin egallagan. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy hamda Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar insonni tarbiyaning eng oliy maqsadi sifatida ko‘rsatganlar. Ularning insonparvarlik g‘oyalari bugungi kunda ham pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy davrda esa ushbu maqsadlarni amalga oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalari yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Bugungi raqamli jamiyatda sun’iy intellekt pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar talabalarning bilim darajasini aniqlash, individual yondashuvni ta’minlash, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Eng muhimi, sun’iy intellekt orqali mutafakkirlar merosini interaktiv, tahliliy va muhokamali shaklda o‘rganish mumkin. Masalan, talaba Navoiy g‘azallaridagi insonparvarlik g‘oyalarini tahlil qilishda yoki Avloniy qarashlarini zamonaviy ta’lim bilan solishtirishda sun’iy intellekt yordamida kengroq ma’lumot va tahliliy fikrlar oladi.

Sun’iy intellektning yana bir muhim jihati – refleksiv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishidir. Maxsus dasturlar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar turli pedagogik vaziyatlarni modellashtirishi, axloqiy tanlovlar yuzasidan qaror qabul qilishni mashq qilishi mumkin. Bu esa ularda mas’uliyat, adolat, sabr-toqat kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt individual rivojlanish yo‘l xaritasini tuzib, talabaning ma’naviy-axloqiy kamolotini bosqichma-bosqich kuzatish imkonini beradi.

Biroq sun’iy intellekt insonparvarlikning o‘rnini bosa olmaydi. U vosita, ammo maqsad emas. Axloqiy tarbiya, avvalo, ustozning shaxsiy namunasiga, tirik muloqotga, samimiy munosabatga bog‘liq. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanishda inson omili ustuvor bo‘lishi lozim. Texnologiya ma’naviyatga xizmat qilgandagina ijobiy natija beradi.

Yaqin kelajakda sun’iy intellekt yordamida ta’limdagi tengsizliklarni kamaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu istiqbol ta’lim dizayni va kelajakdagi ta’lim tadqiqotlarida texnologiyaning ijobiy salohiyatiga ishonishni talab qiladi.

Tadqiqotlar farazlariga ko‘ra, kelgusi o‘n yilliklarda (2030-yildan 2040-yilgacha) Sun’iy intellekt yetuk insonning kognitiv qobiliyatlari darajasiga yetishi mumkin. Bu o‘zgarish beshta asosiy sohada: ong, ma’no, o‘rganish, madaniyat va ijodkorlik sohalaridagi taraqqiyot orqali amalga oshiriladi [2].

Sun’iy intellektni ta’limga joriy qilish muammolari. Ta’lim tizimida sun’iy intellektni joriy etish ayrim to‘siqlarga duch kelmoqda, ular oltita asosiy yo‘nalishda tasniflanadi: infratuzilmaviy, madaniy, huquqiy, insoniy, aralashuvchi va ijro etish talablari. Ushbu omillarning har biri bu sohada texnologiyani rivojlantirishdagi cheklovlar va sekinlikni keltirib chiqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Eng muhim muammolar qatoriga texnik infratuzilmaning zaifligi (masalan, internet tezligining pastligi, mahalliy uskunalar yo‘qligi) hamda o‘zgarishlarga nisbatan madaniy va ijtimoiy qarshilik kiradi.

Aniq qonunlarning yo‘qligi va malakali ishchi kuchining yetishmasligi ham jiddiy to‘siqlar sifatida aniqlangan bo‘lib, ular sun’iy intellektning universitetlarda samarali qabul qilinishiga va qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ko‘plab professor-o‘qituvchilar bu usulni samarali joriy etish uchun yetarli ta’lim olmaganlar va bunday tizimdagi o‘z rollarini aniq tushunmaydilar. Shuningdek, axloqiy va madaniy xavotirlar va o‘zgarishlarga qarshilik kabi to‘siqlar bu yondashuvni amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan, ta’lim jarayonida oilalarning hamkorligi va ularning samarali qo‘llab-quvvatlashi zarurati ham dolzarb.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy qilish yechimlari. Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlarni taklif etish mumkin: barqaror tarmoqlarni rivojlantirish, raqamli uskunalarni yangilash, shaffof huquqiy asoslarni ishlab chiqish, malakali inson resurslarini tayyorlash, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘quv kurslarini o‘tkazish hamda ommaviy xabardorlik kompaniyalarini tashkil etish. Shuningdek, makro darajada texnologiyaga maqsadli sarmoya kiritish, xalqaro hamkorlik va mahalliy dasturiy va apparat ta’minotini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash o‘zgarishlar uchun zamin yaratishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar qatoriga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, mutafakkirlarning insonparvarlik g‘oyalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonni samarali, tizimli va zamonaviy shaklda tashkil etishga yordam beruvchi qudratli vositadir. An’anaviy ma’naviy meros va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi kelajak avlodni

tarbiyalaydigan komil, vatanparvar va insonparvar o‘qituvchilarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun samarali vositaga aylanmoqda. Ushbu texnologiya o‘rganiluvchi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ta’limni shaxsiylashtirish, o‘quvchilarning his-hayajonini va ishtirokini yaxshilash hamda ruhiy bosimlarni kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tahlillar va xulosalar asosida ta’lim-tarbiya tizimida sun’iy intellektdan samarali foydalanish borasida quyidagi ***takliflar***ni beramiz:

1) o‘qituvchilarga sun’iy intellekt texnologiyalaridan o‘quv jarayonlarida foydalanish usullari bilan tanishish uchun o‘quv kurslarini taqdim etish;

2) zamonaviy uskunalar va xavfsiz tarmoqlar infratuzilmasini rivojlantirish;

3) aqlli tizimlarda ta’limiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash va ta’lim muassasalarida sun’iy intellektdan foydalanish madaniyatini targ‘ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salihnejad S. Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish modeli. – Tehron: Ta’lim va tadqiqotlar markazi nashriyoti, 2021.

2. YUNESKO. Sun’iy intellekt va ta’lim: Siyosiy tavsiyalar va global strategiyalar. – Parij: YUNESKO nashriyoti, 2023.

3. Johnson A., McCarty J. AI in Education: Opportunities and Challenges. – London: Springer Publishing, 2020.

4. Shahsavari A., Zanganeh M. Oliv ta’limda sun’iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan o‘qitish: imkoniyatlar va to‘siqlar // Ta’lim texnologiyalari jurnali. – 2022.

ИНТЕЛЛЕКТИ СУНЪӢ ВА КӮДАК: ИМКОНИЯТҲО, ХАТАРҲО ВА РОҲҲОИ ОМӮЗИШ

Авазхонов Шоҳназар Гулназарзода,
Омӯзгори ДДП Чирчиқ, Роҳбари илмӣ.
Бобоавезов Бобоавез Шавкадҷон ӯғли
Донишҷӯи шӯъбаи Таълими ибтидоии ДДП Чирчиқ.

Аннотатсия. *Мақолаи мазкур ба масъалаи ҷорӣ намудани интеллекти сунъи дар таълими томактабӣ ва ибтидоӣ бахшида шудааст. Chat-botҳо, ёрдамчиҳои овозӣ ва барномаҳои таълимӣ – сунъии интеллект (SI) рӯз аз рӯз бештар ба зиндагии оилаҳои зиёд ворид мешавад. Ин технологияи босуръат рушдкунанда барои кӯдакон имкониятҳои нави шавқоварро барои омӯзиш ва фаҳмиши ҷаҳони атроф фароҳам меорад, вале ҳамзамон хавфҳои ҷиддиро низ ба вуҷуд меорад.*

Калимаҳои калидӣ. *интеллекти сунъи, таълими томактабӣ, таълими ибтидоӣ, технологияҳои рақамӣ, раванди таълим, саводи рақамӣ, инноватсия дар маориф, муҳити таълимии интеллектуалӣ.*

Қарори Президенти Ҷумҳурии Ӯзбекистон “Дар бораи тасдиқи стратегияи рушди технологияҳои сунъӣ то соли 2030” эълон карда шуд [1]. Бо ин қарор стратегияи рушди технологияҳои сунъӣ то соли 2030 тасдиқ карда шуд. Ҳамчунин нишондиҳандаҳои ҳадафманд, ки бояд то соли 2030 ба онҳо ноил шуд, низ муқаррар гардиданд. Аз ҷумла: – ҳаҷми маҳсулотҳои нармафзорӣ ва хизматрасониҳое, ки бо асоси сунъӣ истеҳсол мешаванд, ба 1,5 миллиард доллари

ИМА расондан; – ҳиссаи хизматрасониҳое, ки бо асоси сунъӣ дар портали ягонаи интерактиви хизматрасониҳои давлатӣ пешниҳод мешаванд, ба 10 фоиз расондан; – теъдоди лабораторияҳои илмие, ки дар соҳаи сунъӣ фаъолият мекунанд, ба 10 адад расондан ва ба кор даровардани серверҳои ҳисобкунии пуриқтидор; – расидан ба он, ки Ҷумҳурии Узбекистон [2] дар Индекси омодагии ҳукумат ба сунъӣ (Government AI Readiness Index) дар қатори 50 кишвари аввали ҷаҳон қарор гирад. Волидон аз чанд солагӣ бояд бо кӯдак дар бораи SI сӯҳбат кунанд?

In Syuy: Бо кӯдакон метавон аз синни хеле барвақт дар бораи SI сӯҳбат кард, зеро аксари кӯдакон дар зиндагии рӯзмарра бо SI рӯ ба рӯ мешаванд. Ҳатто агар кӯдак худ аз чунин воситаҳо истифода накунад ҳам, онҳо метавонанд дар хона бошанд, дӯстони ӯ ё омӯзгорон дар бораи он сӯҳбат кунанд, ё расонаҳои оммавӣ онро зикр кунанд. Беҳтарин равиш — пайравӣ ба шавқу ҳаваси кӯдак аст. Вақте ки ӯ савол мепурсад ё чизе марбут ба SI мебинад, ин метавонад нуқтаи ибтидоии табиӣ ва мувофиқ ба синну сол барои оғози сӯҳбат бошад.

Мо ду ҳолати устуворро мушоҳида мекунем. Аввалан, кӯдакон одатан ба чизҳои гуногун, аз ҷумла ба он, ки SI чӣ гуна кор мекунад, шавқ доранд, аз ин рӯ чунин сӯҳбатҳо осонтар аз он аст, ки калонсол тасаввур мекунанд. Дуввуман, ҳатто кӯдакони мактаби қаблӣ метавонанд бо тарзи содда фаҳманд, ки SI чист ва чӣ корҳоро анҷом дода метавонад ё наметавонад. Омӯхтани ин асосҳо барвақт кӯмак мекунад, ки кӯдак дар ҳолати рӯ ба рӯ шудан бо SI дар зиндагии рӯзмарра худро боэътимод ҳис кунад.

Волидон бояд ба кӯдакони хурдсол SI-ро чӣ гуна фаҳмонанд? In Syuy: Кӯдакони хурдсол SI-ро бо мисолҳои оддии рӯзмарра беҳтар мефаҳманд. Дар аксари оилаҳо аллакай дастгоҳҳои дорои SI ҳастанд — масалан, робот-парокандакунак, калонкаи оқил ё бозичаҳои роботӣ. Агар чунин дастгоҳҳо бошанд, оғоз кардани сӯҳбат аз онҳо қулай аст. Ба кӯдак метавон фаҳмонд, ки чунин дастгоҳҳо дастурҳоро иҷро мекунанд, баъзе намунаҳоро мешиносанд ё ба овоз ҷавоб медиҳанд, аммо мисли одам “намеандешанд” ва “ҳис намекунанд”.

Омӯзиши SI бо кӯдак низ фоиданок аст. Масалан, агар савол пайдо шавад, якҷоя онро ба chat-bot ворид карда, ҷавобро тамошо кардан мумкин аст. Баъд натиҷаро муҳокима кардан мумкин: кадом қисм муфид аст, кадом қисм номуфассал ё нодуруст менамояд ва чунин ҷавоб чӣ гуна пайдо шуда метавонад.

Мисолҳои оддӣ аз зиндагии хонагӣ ва омӯзиши якҷоя ба кӯдакон кӯмак мекунад, ки имкониятҳо ва маҳдудиятҳои SI-ро тадриҷан фаҳманд. Ин барои калонсолон низ имконияти табиӣ эҷод мекунад, ки кӯдакро ҳангоми рӯ ба рӯ шудан бо чунин технологияҳо роҳнамоӣ кунанд.

SI чӣ гуна метавонад ба омӯзиши кӯдакон ва наврасон кӯмак кунад? In Syuy: SI метавонад омӯзишро бо роҳҳои гуногун дастгирӣ кунад. Бисёр воситаҳо маводро бо тарзи фаҳмо шарҳ медиҳанд, ба саволҳо зуд ҷавоб медиҳанд ва вазифаҳоро мувофиқи сатҳи кӯдак мутобиқ месозанд. Тадқиқотҳо нишон медиҳанд, ки агар системаҳои SI махсус барои омӯзонидани малака ё донишҳои мушаххас тарҳрезӣ шудаанд, кӯдакон метавонанд бо онҳо натиҷаҳои муассир ба даст оранд, гӯё ки бо омӯзгор таҳсил мекунанд. Барои оилаҳои банд, вақте калонсол фавран кӯмак карда наметавонанд, SI метавонад манбаи қулайи ёрӣ бошад. [3]. Аммо ҷанбаҳои ташвишовар низ вуҷуд доранд. Баъзе кӯдакон масъулияти омӯзишро ба SI вогузор карданро сар мекунанд. Гарчанде ки ин метавонад ба назар ёрӣ расонад, бисёре аз омӯзгорон нигаронанд, ки кӯмакҳои зиёд кӯшишҳои муҳим барои омӯзиши дарозмуддатро коҳиш медиҳанд.

Худо омӯзгорон низ ин хатарро дарк мекунанд. Пурсишҳо нишон медиҳанд, ки баъзеи онҳо бар ин бовараанд, ки вобастагии зиёд ба SI метавонад малакаҳои фикркунии мустақил ва ҳалли мушкилотро заиф созад. Як масъалаи дигари муҳим — шаклгирии одатҳо. Агар кӯдак ҳар дафъа ҷавобро фавран аз SI гирад, дар оянда раҳо шудан аз ин одат душвор мешавад.

Волидон чӣ гуна метавонанд ба кӯдакон ҳифзи маълумоти шахсии худро ҳангоми истифодаи SI-ро омӯзонанд? In Syuy: Маълумотҳое, ки воситаҳои SI ҷамъ мекунанд, гуногунанд. Баъзеи онҳо барои эҷоди ҳисобнома маълумоти асосӣ талаб мекунанд — масалан, синни кӯдак, маълумоти тамосии волидон ё маълумоти пардохт. Ғайр аз ин, бисёре аз волидон нигаронанд, ки кӯдакон дар равандҳои оддӣ кадом маълумоти шахсии худро мубодила карда метавонанд. Ин метавонад ном, номи мактаб, барномаи рӯзона, муносибат бо дӯстон ё эҳсосот бошад.

Барои кӯдакон фаҳмидани он, ки кадом маълумот махфӣ ҳисоб мешавад, ҳамеша осон нест. Масалан, муайян кардани суроға ё рақами телефон осонтар аст. Аммо маълумоти дигар ба вазъият вобаста аст. Агар кӯдак ё наврас ба SI дар бораи ҳис-туйғӯ, дӯстӣ ё саломатӣ савол диҳад, ӯ метавонад бидуни фаҳмидани он, ки ин маълумот хеле шахсӣ аст, онро ошкор кунад.

Ҳифзи махфият амалҳои амалӣ ва сӯҳбатҳои мунтазамро талаб мекунад. Волидон метавонанд бо кӯдак якҷоя танзимоти махфиятро санҷанд, бубинанд, ки платформаҳои гуногун кадом маълумотҳоро ҷамъ мекунанд ва пеш аз мубодила кардани маълумот дар бораи худ ё дигарон фикр кунанд. Сӯҳбатҳои доимӣ дар бораи он, ки чӣ маълумот бехатар аст ва чӣ маълумот бояд шахсӣ боқӣ монад, ба шаклгирии одатҳои дуруст кӯмак мерасонанд. Аммо масъулият танҳо бар дӯши оилаҳо набошад. Ширкатҳои технологӣ ва муассисаҳои давлатӣ низ бояд шароити бехатар эҷод кунанд. Ин метавонад маҳдуд кардани муддати нигоҳдории маълумот, кам кардани ҷамъоварии маълумоти зиёдатӣ ва фаҳмондани он, ки маълумот чӣ гуна истифода мешавад, дар бар гирад. Кӯдакон ва наврасон ҳанӯз меомӯзанд, ки хатарҳоро чӣ гуна баҳогузорӣ кунанд, аз ин рӯ маҳсулот бояд синну сол ва ниёзҳои ҳифзии онҳоро ба назар гирад. Ҳифзи самараноки махфият танҳо дар ҳамкории оилаҳо ва системаҳои масъул имконпазир аст.

Волидон чӣ гуна метавонанд саводхонӣ дар SI-ро дар кӯдакон рушд диҳанд?

In Syuy: Бисёре аз калонсолон худро номуайян эҳсос мекунанд, зеро SI хеле зуд рушд мекунад ва ҳамеша намедонанд, ки кӯдаконро чӣ гуна роҳнамоӣ кунанд. Барои волидон муфид аст, ки фикри доимо бояд мутахассис ё назоратчӣ бошандро тарк кунанд. Ҳозир калонсолон ва кӯдакон аксаран бо суръати тақрибан яксон меомӯзанд. Равиши “якҷоя меомӯзем” — рӯшанӣ, шавқу ҳавас ва омодагӣ ба омӯзиши мушкилот бо ҳам — метавонад нуқтаи ибтидоии хуб бошад.

Барои волидони пурбанд, манбаъҳои беруна низ вуҷуд доранд. Масалан, платформаи Common Sense Media баррасии баъзе барномаҳои SI-ро оғоз кардааст, ки барои волидон як роҳнамои қулай буда метавонад.

Баъзе мактабҳо низ рӯйхати воситаҳои SI-ро таҳия мекунанд, ки иҷозат дода шудааст дар дарсҳо истифода шаванд, махсусан барои фанҳои хондан ва математика. Ин воситаҳо одатан санҷиши дохилӣ мегузаронанд ва барои оилаҳои камбағал ё бо маҳдудияти вақт як нуқтаи ибтидоии боэътимод мебошанд.

SI барои кӯдакон чӣ гуна хатарҳо эҷод мекунад? In Syuy: Вақте ки дар бораи хатарҳои SI гап мезанем, диққат бештар ба технологияи худ равона мешавад — масалан, ҳифзи маълумот, мундариҷаи номатлуб ё тарҳрезии манипулятив. Ин ташвишҳо воқеан муҳиманд. Баъзе воситаҳои SI маълумоти шахсии кӯдаконро

ҷамъ мекунанд, мундариҷаи фиребанда ё зараровар нишон медиҳанд ё рафтори мувофиқи синну солро ташвиқ намекунанд. Баъзеи дигар барои нигоҳ доштани диққати кӯдак дарозтар сохта шудаанд ва манфиати молиявӣ аз саломатии кӯдак болотар аст. Аммо хатарҳо на танҳо ба он вобастаанд, ки маҳсулот чӣ гуна кор мекунад, балки ба он низ, ки кӯдакон чӣ гуна рушд мекунанд, меомӯзанд ва муносибатҳо барқарор мекунанд, вобаста аст.

Дар баъзе ҳолатҳо SI метавонад муфид бошад. Масалан, агар кӯдак аз гузаштан ба мактаби нав хавотир бошад, метавонад аз SI дастгирӣ ё ёрии қадам ба қадам дар вазифаи хонагӣ гирад. Дар чунин ҳолатҳо ин воқеан ба назар кӯмак менамояд. Аммо хавотирии дарозмуддат низ вуҷуд дорад. Яке аз онҳо ин аст, ки кӯдакон метавонанд ба ҷои муошират бо одамони зинда ба SI муроҷиат кунанд. Тадқиқоти мо нишон дод, ки баъзе наврасон мегӯянд, бо SI сӯҳбат кардан осонтар аст, нисбат ба сӯҳбат бо одамон. Мо ҳанӯз намедонем, ки оё ин алоқаро воқеан иваз мекунад, аммо ин интихоб бояд бо диққат назорат карда шавад.

Яке дигар масъала – интизом ва интизорот нисбати муносибатҳо. Муносибатҳои воқеӣ дарбаргирандаи норозигӣ, созиш ва ҳал кардани баҳсҳо мебошанд. Бисёре аз системаҳои SI ҳамеша дастгирӣ мекунанд ва розӣ мешаванд. Агар кӯдакон вақти зиёдро бо чунин системаҳо сарф кунанд, онҳо метавонанд тасаввуроти нодурусти дӯстӣ ва муносибатҳо пайдо кунанд. Илова бар ин, калон шудан – ин равандест барои омӯхтани бартараф кардани душвориҳои иҷтимоӣ. Агар SI ба ҷои вазъиятҳои воқеӣ гузаронда шавад, кӯдакон имкони рушди малакаҳои муҳими муошират, ҳамдардӣ ва ҳал кардани баҳсҳоро аз даст медиҳанд. [4]

Кадом нишонаҳо нишон медиҳанд, ки кӯдак бо SI муносибати саломат надорад? *In Syuy:* Ҳолатҳои зер метавонад сигналҳои ташвиш бошанд: *Истифодаи зиёд:* муошират бо SI барои муддати дароз ё асабонӣ шудан ҳангоми фармони қатъ кардани он. *Тағйири хулқ ва рафтор:* кӯдак пинҳонкортар ё хавотиртар мешавад ё барои дастгирии эмотсионалӣ ба ҷои одамони наздик ба SI муроҷиат мекунад. *Сифати дигар машғулотҳо фишурда мешаванд:* истифодаи SI ба хоб, таҳсил, муошират бо дӯстон ё шавқҳо халал мерасонад.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim ishini tabaqalashitirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. Ta’lim oluvchilarni tabaqalashtirib o‘qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang‘ich ta’lim kursidan keyin amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, bolalar tarbiyasi jarayoniga o‘z ishini yaxshi biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda, ularni yoshligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi [1]. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirish, uni xalqaro standartlar asosida tashkil etish har bir davlat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar va xorijiy ta’lim tizimlarida sinovdan o‘tgan tajribalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya darslari o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kasb-hunarga yo‘naltirishda asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Shuning uchunam rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi samarali tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, “techne”-mahorat, san’at hamda “logos” - tushuncha, ta’limot so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan. Ta’lim texnalogiyasi”tushunchasi esa lug‘aviy jihatdan ta’limjarayonini yuksak mahorat,san’at darajasida tashkil etish borasida ma’lumotlar beruvchi fan ma’nosini anglatadi [2]. Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash bilan o‘qitishni tashkilashtirish imkoniyati mavjud bo‘ladi, ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin. O‘qitishning modul tizimiga o‘tish samaradorligi asosan bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi: - o‘quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darjasi; - professor-o‘qituvchilar tarkibining malakaviy daraja-si; - o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi; - ko‘zlangan natijalarni baholash; - didaktik materiallarni ishlab chiqarish; - natijalar tahlili va modullarni maqbullashtirish. [3]

Xorijiy ta’lim tizimidan foydalanish texnologiya darslarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Avvalambor, o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan loyiha asosida o‘qitish, turli yondashuvlar, interfaol metodlardan foydalanish imkoniyati kengayadi. O‘quvchilarda amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqish ortib ularning ijodiy salohiyati rivojlanadi. Bundan tashqari xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari mehnat bozori talablariga mos bo‘ladi. Bu esa bitiruvchilarning kelajakda kasb tanlashda va ish faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi. Texnologiya darslarida zamonaviy uskunalar, raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish ham xorijiy ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Rivojlangan davlatlar, masalan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Finlyandiya ta’lim tizimlarida texnologiya faniga alohida e’tibor beriladi. Ushbu davlatlarda texnologiya darslari nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda o‘tiladi. O‘quvchilar dars jarayonida faqat tayyor bilimlarni emas, balki muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil loyiha ishlab chiqish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantira-

dilar. *Masalan,* Finlyandiya ta’lim tizimida fanlararo integratsiya keng qo‘llanilgani uchun texnologiya darslari matematika, fizika, informatika va dizayn fanlari bilan uzviy bog‘langan holda o‘tiladi. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni real hayot bilan bog‘lashiga yordam beradi. Germaniyada esa dual ta’lim tizimi asosida o‘quvchilar maktabda olgan bilimlarini ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlaydilar. [4]

Muhokama va natija. Mamlakatimizda ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta’limga texnologik yondashuv ta’lim jarayonini aniq vositalar orqali samarali boshqarish va qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlab beradi.Xorijiy davlatlar tajribasida texnologiya fanini o‘qitishda loyiha asosida ta’lim berish keng tarqalgan hisoblanadi. Bu kabi metodlarda o‘quvchilar muayyan loyiha ustida individual yoki guruh bo‘lib ishlaydi. Loyiha jarayonida ular muammoni aniqlash, reja tuzish, mahsulot yaratish va natijani taqdim etish bosqichlaridan o‘tadilar. Bundan tashqari, STEAM yondashuvi texnologiya darslarida muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda texnik bilimlar bilan bir qatorda estetik did va ijodkorlikni ham rivojlantirishga yordam beradi [5]. Masalan, o‘quvchilar biror texnik qurilmani yaratishda uning dizayni, funksionalligi va iqtisodiy samaradorligini ham hisobga oladilar.Xorijiy ta’lim tizimini bevosita ko‘chirib olish emas, balki uni milliy sharoit va an’analarga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Texnologiya darslarida xorijiy tajribani tatbiq etishda o‘qituvchilarning malakasini yanada oshirish, bazani mustahkamlash va o‘quv dasturlarini yangilash zarur. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim sanaladi. Xorijiy metodlarni qo‘llash jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin ijod qilishga undash asosiy maqsad bo‘lishi kerak. Bu esa ta’lim jarayonida ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi. O‘rganishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya darslarida xorijiy ta’lim tizimining zamonaviy tajribalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu kabi yondashuv o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish va mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlashda muhim hisoblanadi. Jumladan, fanlararo integratsiya, loyiha asosida ta’lim berish va o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Natijada, texnologiya darslari o‘quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli bo‘lib, ularning darsga bo‘lgan motivatsiyasi yanada ortadi. Umuman olganda, xorijiy ta’lim tizimining ilg‘or tajribalarini texnologiya darslariga joriy etish milliy ta’lim tizimini rivojlantirish va zamon talablariga moslashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, texnologiya darslarida xorijiy ta’lim tizimidan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning amaliy va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Rivojlangan davlatlardan kuzatilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan texnologiya darslari o‘quvchilarning kelajak hayotga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun xorijiy ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish, ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.Shuningdek, texnologiya darslarida STEAM yondashuvi va xorijiy ta’lim tizimlarining ilg‘or tajribalaridan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat texnik bilimlarini, balki ularning ijodiy tafakkuri, estetik didi va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni real hayotga yaqinlashtirib, ularni

kelajak kasbiy faoliyatiga puxta tayyorlashga xizmat qiladi. Natijada texnologiya darslari samaradorligi oshib, ta’lim jarayoni zamon talablari darajasida tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 14-fevral 2018-yil maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektordagi nutqidan.
2. Mamatqulova N. Nemis tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiqi. Bitiruv malakaviy ishi. Qarshi. – 2014
3. Tilavova M. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. Buxoro. - 2021. 117 b.
4. OECD. Innovative Learning Environments. – OECD Publishing, 2019.
5. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. – Brussels, 2018.

“MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR” FANINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI

Eshimov Raxmon Rahmonovich,
Toskent DIU Samarqand filiali “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti.
Israilov Suxrob Atakulovich,
ZARMED universiteti “Muhandislik kommunikatsiyasi” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli kompetentlikni samarali shakllantirishning ikki asosiy strategik yo‘nalishi hamda raqamlashtirish jarayonining eng muhim, dolzarb, innovatsion va amaliy jihatlari batafsil tahlil qilinib yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *ma’lumotlar tuzilmasi, algoritmlar, raqamli savodxonlik, raqamli kompetentlikni shakllantirish yo‘nalishlari, raqamlashtirish jarayonining asosiy jihatlari.*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarni ma’lumotlar tuzilmasi hamda algoritmlar bilan ishlashga tayyorlash maxsus o‘rganish obyektiga aylanganicha yo‘q. Shu bois, biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotimizda talabalarni ma’lumotlar tuzilmasi hamda ma’lumotlar algoritmi doirasida algoritmlar bilan ishlashga, tayyorlashga o‘rgatish asosan metodologik darajada amalga oshirilgan. Bunda, ma’lumotlarning bir qancha tuzilmalari bilan ishlashning hamma bosqichlariga emas, faqat, ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan amalga oshirish jarayonlariga alohida e’tibor berilgan.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim va ishlab chiqarish jarayonlariga chuqur kirib borishi, kadrlar tayyorlash tizimini zamon talablari asosida yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ta’lim oluvchilarda kasbiy hamda shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun, talabalarning individual ta’lim yo‘nalishini aniqlash imkonini beruvchi shart-sharoitlar yaratish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va unga zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [2], 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon [3]lari, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [4]da ko‘rsatilgan mazkur soha faoliyatni rivojlantirishga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar talabalarni axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llashga tayyorlashga o‘rgatish naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur fan talabalarda algoritmik tafakkurni shakllantirish, murakkab muammolarga yechim topishda ma’lumotlar tuzilmalari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, dasturiy muhitlarda amaliy tajriba hosil qilish uchun asosiy poydevor hisoblanadi.

“Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar” fanidan dasturiy-metodik ta’minot yaratish, ta’lim jarayoniga qo‘llashning ahamiyati va talabalarni chiziqli, tarmoqlanuvchi va tsiklik dasturlarni yaratish, shuningdek, ma’lumotlar tuzilmalarini tasniflash, ularning xususiyatlari, xotiraga joylashtirish va kirish usullari haqida tushunchalarga ega bo‘lish hamda pedagoglarni kasbiy faoliyatning mazkur turiga tayyorlashning ilmiy asoslangan metodik tizimining yo‘qligi o‘rtasidagi qarama-qarshilik aniqlaydi.

Z.S.Sharipova O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiyaning taraqqiyoti, imkoniyatlari, pedagogik jarayonlarga ta’siri va uchrayotgan muammolarini keng tahlil qiladi, shu jumladan zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi va pedagoglarning tayyorgarligi masalalarini ko‘rib chiqadi [5].

F.Askarova oliy ta’limda raqamli pedagogika va texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari, shuningdek talabalarda raqamli savodxonlikni oshirishdagi rolini tahlil qiladi. U shuningdek, o‘qituvchilarning raqamli pedagojik ko‘nikmalarini kuchaytirish zaruratiga urg‘u beradi [6].

U.Jumayeva EFL (chegirma bo‘lmagan) pedagoglarni tayyorlashda raqamli savodxonlikni shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi, bu esa raqamli kompetentlik orqali o‘qitish samaradorligini oshiradi [7].

O.S.Sheraliyevning “Talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirish metodikasi” nomli ilmiy maqolasida talabalarda digital kompetensiyani shakllantirishning metodik ta’minoti, raqamli muloqot vositalari va raqamli resurslar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatish yondashuvlarini tahlil qiladi [8].

Yuqorida keltirilgan olimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari faoliyatida raqamli kompetentlikni shakllantirish ikki asosiy yo‘nalishda ahamiyatlidir. Birinchidan, bu jarayon talabalarning o‘quv faoliyatida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, turli axborot manbalarini tahlil qilish, dasturlash, algoritmik tafakkurni rivojlantirish orqali o‘quv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, raqamli kompetentlik ularning kelajak kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, zamonaviy dasturiy ta’minot va texnologik vositalarni amaliyotga joriy qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Hozirgi davr ta’lim tizimida o‘z yechimini talab etayotgan muhim masalalardan biri — malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga kiritilgan raqamli texnologiyalar asosidagi elektron ta’lim resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishiga oid

huquqiy me’yorlar, turli yoshdagi talabalarning kompyuterdan foydalanish jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan omillar alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, o‘qitishning raqamli texnologiyalari va vositalari, onlayn o‘quv kurslar va elektron ta’lim resurslarining jamlanmasi sifatida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish.

Ikkinchidan, insonni raqamli jamiyat sharoitlarida yashashga va raqamli iqtisodiyot sharoitlarida kasbiy faoliyat yuritishga tayyorligini ta’minlashga qaratilgan ta’lim jarayonini chuqur modernizatsiya qilinishi.

Shu tarzda, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, bir tomondan ta’lim jarayoni va uning elementlari, ikkinchi tomondan esa, ta’lim jarayonida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar va vositalarining o‘zaro chuqur o‘zgartirilishini ifodalaydi.

Ushbu tadqiqotda talabalarning “Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar” fanida raqamli vositalar va xizmatlardan foydalanish, ularni tavsiflash hamda umumiy holatini aniqlash ko‘zda tutiladi. Bo‘lajak muhandis-pedagoglar ushbu fan doirasida raqamli texnologiyalar yordamida qanday hamkorlik qilishlari, algoritmlar va ma’lumotlar tuzilmalariga oid raqamli kontentni yaratishda qaysi dasturiy vositalar va onlayn xizmatlardan foydalanishlari zarurligini bilishlari lozim. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi va onlayn ta’lim elementlarini o‘quv jarayoniga moslashuvchan tarzda integratsiya qilishga bo‘lajak muhandis-pedagoglarning tayyorgarlik darajasini aniqlash muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash mazmuni va metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Davlat miqyosida qabul qilingan strategik hujjatlar oliy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli kompetentlikka ega raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab bermoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarni zamonaviy raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishga tayyorlash, ularning algoritmik tafakkuri, mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gifarmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

5. Sharipova Z.Sh. Digital transformation of the education system in Uzbekistan: challenges, opportunities, and future prospects // International scientific-electronic journal “pioneering studies and theories”, 1(4), 35-39. 2025

6. Askarova F. The role of digital pedagogies and technology integration in higher education: a focus on Uzbekistan // International scientific innovation research

conference, 1(7), 39-43. 2024.

7. Jumayeva U. The importance of developing digital literacy skills in optimizing the professional competence of future foreign language teacher // Science and Education, 6(3), 492–496. 2025 y.

8. Sheraliyev O.Sh. Talabalarda digital kompetensiyani rivojlantirishning metodik ta’minoti // Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. – Toshkent, 2023,– Vol. 2 No. 2.

O‘QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA UNDASH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLAR

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Homidova Ozoda Hoshim qizi,
Qurolboyeva Marjona Sherzod qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘quvchilarni kreativ fikrlashga undashda zamonaviy pedagogik usullarning ahamiyatini o‘rganadi. Ta’lim jarayonida innovatsion metodlar va o‘qituvchilar malakasini oshirish orqali yoshlarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, zamonaviy pedagogik usullar, o‘quvchilar, innovatsiya, ta’lim.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak. Shu bois zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish, darsliklarni yangilash va o‘qituvchilarni innovatsion metodlar bilan tayyorlash davlat siyosatining ustuvor vazifasidir.”

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Dunyo ta’limi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faqat bilim berish bilan cheklanib qolish yosh avlodni zamonaviy jamiyat talablariga tayyorlashga yetarli emas. Shu bois, zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash, innovatsion metodlarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish o‘quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim sohasidagi islohotlarda yoshlarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Shu nuqtai nazardan, maqola o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. 1. Kreativ fikrlash tushunchasi va ahamiyati. Kreativ fikrlash – bu yangi, original g‘oyalar yaratish, mavjud bilim va tajribalarni yangi kontekstda qo‘llay olish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy o‘sishiga, balki jamiyatning ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlashga ega bo‘lgan yoshlar muammolarni yechishda mustaqil va innovatsion yondashuv ko‘rsatadi. Shu bois, pedagoglar va ta’lim mutaxassislari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’lim sifatining ajralmas qismi sifatida ko‘rishadi.

2. Zamonaviy pedagogik usullar. Zamonaviy pedagogik usullar o‘quvchilarni faol, mustaqil va ijodiy fikrlashga undashga qaratilgan. Ular orasida eng samarali bo‘lganlari:

2.1. Loyihaviy metod. Loyihaviy metod o‘quvchilarni real hayot muammolarini hal qilishga jalb qiladi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar mustaqil ravishda g‘oyalar ishlab chiqadi, reja tuzadi va natijalarni taqdim etadi. Bu nafaqat bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga, balki kreativ fikrlashni rivojlantirishga ham yordam beradi.

2.2. Case-study (holat tahlili) usuli. Case-study usuli o‘quvchilarga turli real vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu usul orqali ular masalalarni turli burchakdan ko‘rib, innovatsion yechimlar taklif qiladilar. Bu metod o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi.

2.3. Brainstorming (g‘oya marafoni). Brainstorming – bu guruhda erkin fikr almashish, har qanday g‘oyani ochiqchasiga ifodalash usuli. Ushbu metod o‘quvchilarda ijodiy energiya uyg‘otadi va yangi g‘oyalar ishlab chiqishga undaydi. Pedagoglar brainstormingni dars jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchilarning kreativ potensialini maksimal darajada faollashtiradilar.

2.4. Integratsiyalashgan o‘qitish. Integratsiyalashgan o‘qitish bir nechta fanlarni birlashtirib, muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu o‘quvchilarda multidisipliner fikrlashni shakllantiradi va kreativ yondashuvni kuchaytiradi.

2.5. Raqamli texnologiyalar va interaktiv ta’lim. Zamonaviy ta’limda raqamli vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish samaradorligi oshadi. Interaktiv dasturlar, onlayn loyihalar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzuni amaliyot bilan bog‘lashga yordam beradi.

3. O‘qituvchining roli. O‘qituvchi kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida nafaqat bilim yetkazuvchi, balki mentor, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi lozim. U: o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlaydi; turli pedagogik metodlarni qo‘llab, darsni interaktiv qiladi; muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaslikni va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishni rag‘batlantiradi; individual va guruh ishlari orqali ijodiy salohiyatni oshiradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’lim islohotlarida aynan o‘qituvchilarni malakasini oshirish va zamonaviy metodlarni qo‘llashni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Shu bilan o‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltirishning asosiy omili sifatida o‘qituvchining roli yanada kuchayadi.

4. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy natijalari. Zamonaviy pedagogik usullar yordamida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi: muammoni mustaqil tahlil qilish va yechim topish; yangi g‘oyalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish; tanqidiy va reflektiv fikrlashni rivojlantirish; ijtimoiy va ilmiy loyihalarda faol ishtirok etish; o‘z bilimini amaliyot bilan bog‘lash. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarni faqat sinfda emas, balki real hayot muammolarini hal qilishda ham muvaffaqiyatli bo‘lishga tayyorlaydi.

Xulosa. Bugungi kunda o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Men shaxsan shuni ko‘ramanki, faqat bilim berish bilan cheklanish yetarli emas – o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish imkoniyatini berish kerak. Zamonaviy pedagogik usullar – loyihaviy metod, case-study, brainstorming, integratsiyalashgan o‘qitish va raqamli texnologiyalar – bu jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchining roli juda muhim: u nafaqat bilim beruvchi, balki mentor, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi lozim. Faqat shunda

o‘quvchilar ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi, yangi g‘oyalar yaratishga intiladi va real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyor bo‘ladi. Shu bilan birga, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’lim sohasidagi qarashlari ham shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki mamlakatimizning innovatsion rivojlanishi uchun ham juda muhimdir. Shunday qilib, men o‘ylaymanki, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng qo‘llash va o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish – ularning bilimini, qobiliyatini va shaxsiy o‘sishini mustahkamlashning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Affarova G. Kreativ fikrlash. Toshkent: SARBON LLS, 2024, 45–52-bet.
2. Sh.Yuvashov, B.Akbarov. Kreativ fikrlash. O‘quv qo‘llanma. Namangan, 2024.
3. Usarov J.E., Himmataliyev D.O., Ikramov F.A. Kreativ pedagogika. – T., 2023.
4. Qo‘ziyeva M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, Toshkent. 2023.

PEDAGOGIK O‘QUV ADABIYOTLARI VOSITASIDA INKLYUZIV TA’LIMGA MUHTOJ O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Xolmatova Mahina Alisher qizi,
Fayzullayeva Ruxshona Farruxovna,
Chirchiq DPU, Boshlangich talim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik o‘quv adabiyotlarining inklyuziv ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan samarali ishlashdagi o‘rni yoritilgan. O‘quv adabiyotlari vositasida o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish va ta’limda teng imkoniyatlar yaratish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, pedagogik adabiyotlar, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar, metodika, individual yondashuv, ta’lim sifati.*

“Har bir bola — bu ochilmagan gul, unga mehr bilan qaralsa, u albatta o‘z rangini ko‘rsatadi.”
Abdulla Avloniy.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi insonparvarlik, tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga asoslanib rivojlanmoqda. Har bir bola, u jismoniy, aqliy yoki ruhiy jihatdan boshqalardan farq qiladimi yo‘qmi, sifatli ta’lim olish huquqiga ega. Shu bois, inklyuziv ta’lim tushunchasi zamonaviy pedagogika fani va amaliyotida muhim o‘rin egallamoqda. Inklyuziv ta’lim — bu maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni umumiy ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish, ularning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishdir. Bu jarayonda pedagogik o‘quv adabiyotlarining roli beqiyosdir. Chunki ular o‘qituvchiga nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy ko‘nikmalar, metodik tavsiyalar va innovatsion yondashuvlarni ham taqdim etadi. Pedagogik adabiyotlar orqali o‘qituvchi muhtoj o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini chuqurroq anglaydi, ularga mos ta’lim uslublarini tanlaydi hamda ularni dars jarayoniga faol jalb etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, bunday adabiyotlar o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, mustaqillik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Ular orqali o‘quvchilarning intellektual, hissiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish yo‘llari o‘rganiladi. Natijada,

o‘qituvchi har bir bola uchun qulay psixologik muhit yaratishga, o‘zaro hurmat va hamkorlik asosida ta’lim jarayonini tashkil etishga erishadi. Shu sababli, inklyuziv ta’limda pedagogik o‘quv adabiyotlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan samarali foydalanish o‘qituvchi faoliyatining eng muhim jihatlaridan biridir. Bunday adabiyotlar nafaqat muhtoj o‘quvchilarga, balki barcha bolalarga insoniylik, bag‘rikenglik va mehr-oqibat ruhini singdiradi. Inklyuziv ta’lim — bu nafaqat ta’lim jarayonining bir ko‘rinishi, balki butun jamiyatning insonparvarlik darajasini ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Uning mazmunida har bir bola o‘z imkoniyatidan kelib chiqib o‘qish, rivojlanish va jamiyatda faol ishtirok etish huquqiga ega degan g‘oya mujassam. Shu jarayonda pedagogik o‘quv adabiyotlari o‘qituvchi uchun asosiy yo‘l-yo‘riq, nazariy asos va amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

1. Pedagogik o‘quv adabiyotlarining ahamiyati Pedagogik o‘quv adabiyotlari o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish, yangi metodik yondashuvlarni o‘zlashtirish va muhtoj o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun zarur bilimlarni beradi. Ular orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etadi. Bunday adabiyotlarda inkluziv darslarni loyihalash, adaptiv metodikalar, differensial yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va motivatsion muhit yaratish bo‘yicha boy ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

2. Muhtoj o‘quvchilar bilan ishlashda adabiyotlardan foydalanish muhtoj o‘quvchilar bilan ishlashda o‘quv adabiyotlari quyidagi yo‘nalishlarda katta ahamiyat kasb etadi: Metodik yo‘nalishda: o‘qituvchiga dars jarayonida individual yondashuvni amalga oshirishga, o‘quvchilarning imkoniyatiga mos topshiriqlar tuzishga yordam beradi. Tarbiyaviy yo‘nalishda: adabiyotlar yordamida o‘quvchilarga bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik qadriyatlari singdiriladi. Psixologik yo‘nalishda: muhtoj o‘quvchilarning o‘ziga ishonchini mustahkamlash, ularni sinf jamoasiga qo‘shish va ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Texnologik yo‘nalishda: zamonaviy adabiyotlarda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) asosida yaratilgan o‘quv materiallari orqali o‘quvchilarni interaktiv va ijodiy faoliyatga jalb etish usullari keltirilgan.

3. O‘qituvchining roli va adabiyotlardan samarali foydalanish Inklyuziv ta’limda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘lboshchi, maslahatchi va psixolog hamdir. U o‘quv adabiyotlaridan foydalanish orqali darsni shunday tashkil etadiki, unda har bir o‘quvchi o‘zini teng huquqli ishtirokchi sifatida his etadi O‘qituvchi o‘quvchilarning imkoniyatlarini aniqlab, ularning kuchli tomonlarini rivojlantiradi, murakkab vazifalarni asta-sekin soddalashtirilgan shaklda tushuntiradi. Shu yo‘l bilan har bir bola o‘z qobiliyatiga mos muvaffaqiyatni his qiladi, bu esa uning o‘ziga ishonchini oshiradi.

4. Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy adabiyotlar Bugungi kunda pedagogik adabiyotlar nafaqat matnli shaklda, balki raqamli (elektron) resurslar, onlayn platformalar, video-darsliklar va interaktiv qo‘llanmalar ko‘rinishida ham yaratilmoqda. Bunday manbalar o‘qituvchiga darsni vizual, eshitish va harakat asosida tashkil etish imkonini beradi. Masalan, audio-adabiyotlar eshitish qobiliyati past o‘quvchilar uchun qulay bo‘lsa, vizual materiallar ko‘rish orqali o‘rganadigan bolalar uchun samarali vositadir. Shu tarzda o‘quv adabiyotlari o‘qituvchining ijodiy faoliyatini boyitadi, o‘quvchilarning ehtiyojiga mos o‘qitish sharoitini yaratadi.

5. Pedagogik adabiyotlarning ta’siri Pedagogik o‘quv adabiyotlari o‘qituvchining kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, uning pedagogik tafakkurini kengaytiradi va ta’lim jarayonini yangicha ruhda tashkil etishga undaydi. Natijada, inklyuziv ta’limdagi

o‘quvchilar o‘zlarini chetda emas, balki umumiy ta’lim jamoasining faol a’zosi sifatida his etadilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim bugungi zamon talabi bo‘lib, har bir o‘quvchining ta’lim olish huquqini to‘liq ta’minlashga qaratilgan insonparvar tizimdir. Bunday ta’limda eng muhim jihatlardan biri – o‘qituvchining bilim, mahorat va yondashuv darajasi. Ana shu jihatdan pedagogik o‘quv adabiyotlari o‘qituvchining eng ishonchli yordamchisi, tajriba maktabi va yo‘l ko‘rsatuvchisi hisoblanadi. Ushbu adabiyotlar nafaqat nazariy bilim beradi, balki o‘qituvchini muhtoj o‘quvchilar bilan ishlashning nozik jihatlariga o‘rgatadi. Chunki inklyuziv ta’limda har bir bola alohida olamdir – u o‘ziga xos ehtiyoj, hissiyot va qobiliyatga ega. Pedagogik manbalar esa o‘qituvchiga shu olamga to‘g‘ri kirish, bolaning yuragini anglash, uni qo‘llab-quvvatlash va o‘ziga ishonch uyg‘otish imkonini beradi. Pedagogik o‘quv adabiyotlarida keltirilgan ilmiy-nazariy g‘oyalar, metodik tavsiyalar va tajribaviy yondashuvlar orqali o‘qituvchi darsni nafaqat samarali, balki ijobiy muhitda o‘tkazishga erishadi. Shu jarayonda u muhtoj o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin ifoda etish, ijtimoiy faol bo‘lish va hayotga ijobiy qarash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bugungi kunda pedagogik adabiyotlarning zamonaviy shakllari – elektron darsliklar, interaktiv platformalar, audio va video materiallar – inklyuziv ta’lim samaradorligini yanada oshirish imkonini bermoqda. Bu esa ta’lim jarayonini har bir bola uchun qulay, tushunarli va qiziqarli qiladi. Shunday ekan, o‘qituvchi har doim o‘rganishda, izlanishda bo‘lishi, yangi adabiyotlardan foydalanish orqali o‘z bilimini boyitib borishi lozim. Chunki o‘qituvchi qanchalik bilimli, bag‘rikeng va mehribon bo‘lsa, shunchalik inklyuziv ta’lim muvaffaqiyatli amalga oshadi. Demak, pedagogik o‘quv adabiyotlari – bu faqat darslik yoki qo‘llanma emas, balki har bir o‘qituvchining yuragida yoniq chiroq, uning mahoratini yorituvchi manba, muhtoj o‘quvchilarga esa ishonch va imkoniyat eshigini ochuvchi kalitdir. Ana shu adabiyotlar orqali biz nafaqat o‘quvchilarga bilim beramiz, balki ularning qalbiga mehr, umid va ishonch urug‘larini ham ekamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Z. Muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi. - Buxoro: “Ilm sarchashmasi”, 2019. - 254 b.
2. Yo‘ldoshev, J.G. Pedagogika: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. - 364 b.
3. Qodirova, F.M. Inklyuziv ta’limning pedagogik asoslari. - Toshkent: “Fan va taraqqiyot”, 2020. - 280 b.
4. Mamarajabova, D. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. - 312 b.

ONLAYN TEST TIZIMLARINING BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIRI

Gulyamova Nafisa Burikulovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.

Annotatsiya*. Ushbu maqolada onlayn test tizimlaridan foydalanish bo‘lajak pedagoglarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish omili sifatida metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda test topshiriqlarining konstruksiyasi, darajalash (qiyinchilik gradienti), javoblarni tahlil qilish va darhol qayta aloqa mexanizmlari fikrlash amallarini faollashtirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi asoslanadi. Boshlang‘ich*

ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun kompetensiyaviy yondashuv doirasida onlayn testlarning diagnostik, formatif va rivojlantiruvchi funksiyalari yoritilib, mantiqiy xulosalash, dalillash va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik shartlar ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar. *onlayn test tizimlari, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, formatif baholash, qayta aloqa, diagnostika, kompetensiyaviy yondashuv, metakognisiya, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, raqamli didaktika.*

Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlari nafaqat o‘quv mazmunining yangilanishi, balki talabaning fikrlash faoliyatini boshqaradigan baholash va nazorat mexanizmlarining modernizatsiyasi bilan ham belgilanadi. Pedagogik oliy ta’limda, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari tayyorgarligida, mantiqiy va tanqidiy fikrlash kasbiy kompetensiyaning bazaviy komponenti hisoblanadi: bo‘lajak o‘qituvchi dars mazmunini tahlil qilish, o‘quv vaziyatini modellashtirish, didaktik qarorlarning oqibatini oldindan ko‘ra bilish, dalillangan xulosa chiqarish hamda turli manbalarni tanqidiy baholashga qodir bo‘lishi lozim. Shu sababli fikrlashni rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyalarini izlash va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Onlayn test tizimlari ko‘pincha faqat nazorat vositasi sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy pedagogik dizayn nuqtayi nazaridan testlar, ayniqsa raqamli platformalar asosidagi interaktiv testlar, o‘qitishning o‘zi uchun ham didaktik resurs bo‘la oladi. Bu tizimlar topshiriqlarni darajalash, moslashtirilgan (adaptiv) taqdim etish, vaqt va urinishlar statistikasi, darhol qayta aloqa, izohli javob kalitlari, xatolar tahlili hamda individual ta’lim trayektoriyasini qurish kabi imkoniyatlar orqali talabaning fikrlash amallarini faollashtiradi. Masalan, mantiqiy zanjirni tiklash, sabab-oqibatni ajratish, dalil va xulosani farqlash, noto‘g‘ri umumlashtirishni aniqlashga yo‘naltirilgan test itemlari tanqidiy fikrlashning tayanch operatsiyalarini mashq qildiradi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kontekstida bo‘lajak pedagoglar onlayn testlardan ikki yo‘nalishda foydalanadi: birinchidan, o‘zining nazariy-metodik tayyorgarligini baholash va chuqurlashtirish uchun; ikkinchidan, kelajakda maktab amaliyotida o‘quvchi fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlarni loyihalashni o‘rganish uchun. Demak, onlayn test tizimlari talabaning “baholanayotgan obyekti” bo‘lishdan tashqari, uning “baholovchi va loyihalovchi subyekt” sifatidagi kasbiy pozitsiyasini shakllantirishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda test topshiriqlarining sifatli konstruksiyasi, mezonlarning aniqligi, kognitiv darajalarni qamrab olish (eslab qolishdan tortib tahlil, baholash va yaratishgacha), shuningdek, refleksiyani qo‘zg‘atuvchi qayta aloqa mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, onlayn test tizimlari orqali mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha metodik asoslar aniqlansa, pedagogik oliy ta’limda formatif baholashning samaradorligi oshadi, talabalarda metakognitiv nazorat kuchayadi, o‘quv motivatsiyasi barqarorlashadi va o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish (self-regulated learning) ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchi test itemlarini pedagogik maqsadga mos ishlab chiqish, xatolar diagnostikasi asosida korreksion ishlarni rejalashtirish hamda raqamli vositalardan mas’uliyatli foydalanish kompetensiyalarini egallaydi.

Onlayn test tizimlarining fikrlashni rivojlantirishdagi ta’sir mexanizmini tushuntirishda, *avvalo, test topshiriqlarining kognitiv arxitekturasi* muhim o‘rin tutadi. Agar itemlar faqat faktni eslab qolish va qayta aytishga yo‘naltirilsa, ularning

rivojlantiruvchi qiymati cheklangan bo‘ladi. Aksincha, mantiqiy bog‘lanishlarni topish, to‘g‘ri qoida va istisnolarni ajratish, dalillarni taqqoslash, xatoni aniqlash, sabab-oqibatni asoslash kabi intellektual amallarni talab qiladigan topshiriqlar talabaning analitik tafakkurini faollashtiradi. Shuning uchun bo‘lajak pedagoglar uchun mo‘ljallangan test banki kognitiv darajalar bo‘yicha muvozanatli qurilishi, turli fikrlash operatsiyalarini qamrab olishi va har bir topshiriqda aniq didaktik maqsad aks etishi zarur.

Ikkinchi mexanizm – darhol qayta aloqa va xatolar diagnostikasi. Raqamli test tizimlari natijani bir zumda ko‘rsatishi, javobni izohlashi yoki noto‘g‘ri tanlovning sababini ochib berishi mumkin. Bunday qayta aloqa talabaning refleksiyasini kuchaytiradi: u xatoning kelib chiqish manbaini topadi, mantiqiy qadamlar ketma-ketligini qayta ko‘rib chiqadi, alternativ yechimni solishtiradi va o‘z fikrlash strategiyasini tuzatadi. Ta’lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan bu jarayon metakognitiv nazoratning kuchayishiga olib keladi, ya’ni talaba “nima bilaman” bilan bir qatorda “qanday o‘ylayman”ni ham anglay boshlaydi. Natijada, tanqidiy fikrlashning muhim ko‘rsatkichi bo‘lgan o‘zini-o‘zi tekshirish va dalilga tayanib qaror qabul qilish odati shakllanadi.

Uchinchi mexanizm – moslashtirilgan taqdim etish va qiyinchilik gradienti. Onlayn test platformalarida topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, avval tayanch tushunchalarni mustahkamlab, keyin murakkab vaziyatli itemlarga o‘tish imkoniyati mavjud. Bunda talaba “yaqin rivojlanish zonasi” doirasida harakat qiladi: u haddan tashqari oson savollarda zerikmaydi, juda qiyin savollarda esa motivatsiyasini yo‘qotmaydi. Qiyinchilikning oqilona gradienti mantiqiy fikrlashda ketma-ketlikni, tanqidiy fikrlashda esa dalillash bosqichlarini tizimli mashq qildirishga xizmat qiladi. Ayniqsa boshlang‘ich ta’lim metodikasida didaktik vaziyatlar bilan ishlash (masalan, tipik xatolarni tahlil qilish, o‘quvchi javobini baholash, mos metodni tanlash) bo‘yicha itemlar bosqichli berilsa, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy qaror qabul qilishni mantiqan asoslashga o‘rganadi. [1].

To‘rtinchi mexanizm – item turlari xilma-xilligi va interaktivlik. Raqamli testlarda faqat bir javobli yopiq savollar bilan cheklanib qolmasdan, moslashtirish, ketma-ketlikni tiklash, to‘g‘ri-noto‘g‘rini dalillash, bo‘sh joyni to‘ldirish, bir nechta to‘g‘ri javobni tanlash kabi formatlardan foydalanish mumkin. Bu formatlar mantiqiy operatsiyalarni turlicha ishga soladi: moslashtirish tahlil va taqqoslashni, ketma-ketlikni tiklash sabab-oqibatni aniqlashni, bir nechta javobli savollar esa alternativalarni tanqidiy baholashni talab qiladi. Interaktiv elementlar talabaning diqqatini ushlab turadi va faol fikrlashni rag‘batlantiradi, chunki har bir harakat darhol natija va izoh bilan mustahkamlanadi.

Beshinchi mexanizm – statistik tahlil va ta’limni individuallashtirish. Onlayn test tizimlari urinishlar soni, vaqt sarfi, qaysi mavzuda ko‘proq xato qilinayotgani, qaysi tipdagi itemlarda qiyinchilik yuzaga kelayotganini ko‘rsatadigan analitik ma’lumotlarni beradi. Ushbu ma’lumotlar asosida o‘qituvchi talabalarning fikrlashdagi “zaif bo‘g‘in”larini aniqlaydi: masalan, dalil-xulosa munosabatini ajratishda muammo bormi, umumlashtirishda shoshqaloqlik bormi, yoki tushunchalararo bog‘lanishlarni ko‘rishda qiyinchilik bormi. Shundan kelib chiqib, korreksion topshiriqlar, mini-treninglar va reflektiv muhokamalar rejalashtiriladi. Talaba esa o‘z natijalarini kuzatib, o‘qish strategiyasini o‘zgartiradi, maqsad qo‘yadi va o‘zini nazorat qilish mexanizmlarini mustahkamlaydi. [2]. Shu bilan birga, onlayn test tizimlarining rivojlantiruvchi potensiali avtomatik tarzda yuzaga chiqmaydi; u ma’lum didaktik shartlar bilan bog‘liq. Birinchi shart – topshiriqlarning mazmuniy validligi va kognitiv yuklamaning me’yorliligi. Savol formulirovkasi aniq bo‘lmasa, ortiqcha chalg‘ituvchi ma’lumotlar

berilsa yoki “tuzoq” uslubida qurilsa, talaba mantiqan emas, taxminan javob berishga o‘tib qoladi, bu esa tanqidiy fikrlashni emas, test “hiyla”larini o‘rganishni kuchaytiradi. Ikkinchi shart – qayta aloqa sifatidir: faqat “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” belgisi emas, balki qisqa izoh, yechim mantiqi, noto‘g‘ri variantning nima uchun xato ekani haqida tushuntirish berilishi lozim. Uchinchi shart – test natijasidan keyingi reflektiv ish: talaba o‘z xatolarini yozma yoki og‘zaki tahlil qilishi, qaysi fikrlash qadamida adashganini ko‘rsatishi, keyingi urinish uchun strategiya tanlashi kerak.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari bilan ishlashda onlayn testlarni metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish ayniqsa muhim. Chunki ular kelajakda kichik yoshdagi o‘quvchilarda ham mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish vazifasini bajaradi. Demak, bo‘lajak pedagog test topshiriqlarini nafaqat yechishi, balki ularning didaktik vazifasini anglab, o‘quvchi fikrlashini diagnostika qilish va rivojlantirish vositasi sifatida loyihalashni ham o‘zlashtirishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, onlayn test tizimlari pedagogik oliy ta’limda fikrlashni rivojlantirishning samarali instrumentiga aylanishi, metodik boshqaruv va refleksiya bilan birgalikda qo‘llanganda, ta’lim natijalarini sifat jihatdan oshirishi mumkin. [3].

Xulosa. Onlayn test tizimlari bo‘lajak pedagoglarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi metodik tahlil orqali asoslandi. Bu ta’sir, avvalo, test topshiriqlarining kognitiv yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi: itemlar faktni eslab qolish bilan cheklanmay, tahlil, taqqoslash, dalillash, sabab-oqibatni aniqlash, xatoni topish va xulosa chiqarish kabi intellektual amallarni talab qilsa, test nazorat vositasidan rivojlantiruvchi o‘qitish resursiga aylanadi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida bu ayniqsa muhim, chunki kelajakdagi o‘qituvchi o‘quvchilar fikrlashini shakllantirish uchun o‘zi ham mantiqiy asoslangan qaror qabul qilish, didaktik vaziyatni tanqidiy baholash va mos metodlarni tanlashga tayyor bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev R.H. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonini loyihalash. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2018.

3. Zunnunov A. Ta’limda baholash va monitoring: nazariya va amaliyot. Toshkent: Akademnashr, 2020.

RAQAMLI TA’LIM VOSITALARINING BO‘LAJAK PEDAGOGLAR TANQIDIY FIKR YURITISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI SAMARADORLIGI

Gulyamova Nafisa Burikulovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Hoshimova Durdona Sherzod qizi,
Quryozova Gulmira Botirovna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu tezis, bo‘lajak pedagoglari orasida tanqidiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalarining samaradorligini o‘rganadi. Tadqiqot keng tarqalgan raqamli platformalarning nazariy tahlilini taqdim etadi, ularning pedagogik mexanizmlarini ajratib ko‘rsatadi va bu vositalarni professional rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar*: tanqidiy fikrlash, raqamli vositalar, bo‘lajak pedagoglari, professional rivojlanish, ta’lim texnologiyalari*

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimlariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish yangi pedagogik imkoniyatlar yaratdi. UNESCO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 59% dan ortiq maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim jarayonida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanadi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limining modernizatsiyasi tobora raqamli platformalar, interaktiv resurslar va onlayn ilovalarga tayanib bormoqda. Shu doirada bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim sifatini va innovatsiyalarni ta’minlash uchun strategik ustuvor vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi, Dewey (1910), Ennis (1985), va Paul & Elder (2014) tomonidan ta’riflanganidek, zamonaviy ta’limda tahliliy va mustaqil fikr yuritishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar (Anderson & Krathwohl, 2022) shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar – masalan, Google Classroom va Padlet – pedagoglarning yuqori darajadagi tahlil qilish, muammo yechish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi. OECD (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli ta’lim vositalari bilan ishlovchi pedagoglarning 70% ga yaqini o‘z ta’lim amaliyotida tanqidiy fikrlash vazifalarining integratsiyasi sezilarli darajada oshganligini bildirgan. Ushbu ma’lumotlar, maktabgacha ta’limida professional kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli yondoshuvlarning dolzarbligini tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta’limiga tezkor integratsiya qilish an’anaviy o‘qitish usullarini o‘zgartirib, pedagogilarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Xususan, raqamli ta’lim vositalari bo‘lajak pedagoglarga interaktiv, muammo yechish va hamkorlikka asoslangan o‘quv muhitlarini yaratishga imkon beradi, bu esa tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarurdir. Quyidagi jadvalda bo‘lajak pedagoglari uchun professional rivojlanish dasturlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan raqamli vositalar, ularning asosiy xususiyatlari, maqsadli auditoriyasi, vaqt ajratilishi va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirishdagi asosiy pedagogik mexanizmlari taqdim etilgan.

Bo‘lajak pedagoglari tanqidiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun raqamli ta’lim vositalarining qo‘llanilishi.

Raqamli Vosita	**Qisqacha Tavsif**	**Maqsadli Auditoriya**	**Sessiya Vaqti (haftada/sessiya)**	**Asosiy Pedagogik Mexanizmlar**
Google Classroom	Onlayn darslar, muammo asosida topshiriqlar, guruh tahlili	Bo‘lajak pedagoglarining barcha darajalari	45–60 daqiqa (haftada 1–2 marta)	Voqea tadqiqotlari, muammo yechish, bahs va muhokama
Padlet	G‘oyalar almashinuvi va fikrlarni aks ettirish uchun onlayn “devor”	Interaktiv darslar o‘qituvchilari	30–40 daqiqa (haftada bir marta)	Argumentatsiya, vizual xarita, umumiy fikr-mulohaza
Kahoot!	Onlayn viktorinalar va tezkor baholash	Boshlang‘ich o‘qituvchilar, faol guruhlar	20–30 daqiqa (dars oxirida yoki uy vazifasi sifatida)	Tezkor javoblar, muammo asosidagi savollar, fikr yuritish
Zoom/ Teams	Video darslar, onlayn seminarlar	Seminar guruhlari,	60–90 daqiqa (haftada bir	Interaktiv savol-javob, guruh

	va muhokamalar	professional rivojlanish	marta)	ishlari, real vaqt tahlili
Menti-meter	Onlayn so‘rovlar va brainstorming, tinglovchilar fikrlarini yig‘ish	Xizmatdagi o‘qituvchilar, kichik guruh sessiyalari	15–20 daqiqa (dars davomida)	G‘oya yaratish, ijodiy muammo yechish, umumiy tahlil
Quizizz	Interaktiv testlar va mini-viktorinalar	Boshlang‘ich va o‘rta darajadagi o‘qituvchilar	20–25 daqiqa (dars davomida yoki o‘z-o‘zini o‘rganish sifatida)	Tahliliy fikrlash, tezkor javoblar
Edmodo	Raqamli sinf, topshiriqlar va baholashlar	Har qanday tajribaga ega o‘qituvchilar	40–60 daqiqa (haftada 1–2 marta)	Tahliliy vazifalar, tengdoshlarning fikrlari, muhokamalar
Interaktiv o‘qitish doskasi	Onlayn doska orqali birgalikda vizual muammo tahlil qilish	Kreativ va innovatsion o‘qitish guruhlari	30–50 daqiqa (faol o‘qish bosqichida)	Muammo ssenariylari, holat tahlili, jamoaviy ish

Metodologiya. Ushbu tadqiqot nazariy va tahliliy yondashuvni qo‘llaydi, xalqaro va milliy ilmiy nashrlar, siyosat hujjatlari va eng yaxshi amaliyotlar bo‘yicha kontent tahlilini amalga oshiradi. Raqamli ta’lim vositalarining bo‘lajak pedagoglarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini baholash uchun solishtirma va kontseptual tahlil usullari qo‘llanilgan.

Munozara va natijalar. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim vositalari – ayniqsa, interaktiv platformalar, multimedia resurslari va onlayn treninglar – pedagogilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda katta afzalliklarga ega. UNESCO (2023) va Fischer va boshq. (2021) ta’kidlaydiki, raqamli texnologiyalarni muntazam ishlatish pedagoglarning tanqidiy fikrlash va tahliliy fikr yuritish darajasini 25–35% ga oshirishi mumkin. O‘zbekistondagi milliy so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarining 62% raqamli ta’lim vositalaridan muntazam foydalanadi; ammo faqat 31% o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodologik resurslarning yetarli ekanligini hisoblaydilar. Ushbu tafovut, o‘qituvchilarni raqamli vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha o‘qitish va metodologik qo‘llab-quvvatlashni yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim vositalari bo‘lajak pedagoglari ning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali resurslar sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ammo, ularning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun maqsadli pedagogilarni tayyorlash, metodologik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va tanqidiy fikrlashni baholashning zamonaviy modellari amalga oshirilishi zarur. Xalqaro tajribalarni mahalliy amaliyotlar bilan birlashtirish, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni yanada kengroq va samaraliroq integratsiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey, J. (1910). How We Think. Boston: D.C. Heath & Co.

2. Ennis, R. (1985). A Taxonomy of Critical Thinking Dispositions and Abilities. Educational Leadership.

3. Paul, R. & Elder, L. (2014). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson.

4. Anderson, L.W. & Krathwohl, D.R. (2022). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. Pearson.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK TA’LIMDAGI O‘RNI

Hajiboyeva Farangiz Qudrat qizi,
Abduraxmonova Sabrina Rustam qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich talim yo‘nalishi talabalari.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning pedagogik ta’lim jarayonidagi ahamiyati, ularning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Maqolada raqamli ta’lim vositalarining afzalliklari, muammolari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ham fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, pedagogik ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy ta’lim, innovatsion ta’lim, pedagogik kompetensiya.*

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga jadal kirib kelmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Pedagogik ta’lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmay, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish orqali yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilmoqda.

Pedagogik ta’limning asosiy maqsadi – malakali, raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki ular ta’lim mazmunini boyitish, dars jarayonini samarali tashkil etish hamda ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar tushunchasi va ularning ta’limdagi ahamiyati. Raqamli texnologiyalar deganda axborotni yaratish, qayta ishlash, saqlash va uzatish bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy texnik va dasturiy vositalar majmui tushuniladi. Ta’lim jarayonida bu texnologiyalar kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar, elektron darsliklar, ta’lim platformalari va internet resurslari orqali namoyon bo‘ladi.

Pedagogik ta’limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati shundaki, ular an’anaviy ta’lim shakllarini boyitadi va yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchi dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanib, mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli tarzda bayon etishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning bilimni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Pedagogik ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: ta’lim jarayonini individuallashtirish; o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish

ko‘nikmalarini rivojlantirish; dars jarayonida interfaol metodlarni keng qo‘llash; nazorat va baholash jarayonini avtomatlashtirish.

Elektron darsliklar va onlayn platformalar orqali o‘quvchilar istalgan vaqtda bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa uzluksiz ta’lim tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta’lim raqamli texnologiyalarning eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ta’lim shakli geografik masofadan qat’i nazar, ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Onlayn darslar, videoma’ruzalar, virtual seminarlar pedagogik ta’limni yanada qulay va samarali qiladi. Masofaviy ta’lim pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘z faoliyatidan ajralmagan holda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashlari mumkin.

Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli texnologiyalarni ham puxta egallagan bo‘lishi zarur. Pedagogik ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi elektron ta’lim resurslaridan foydalanishni, onlayn platformalarda dars o‘tishni va raqamli baholash tizimlarini qo‘llashni bilishi kerak. Bu esa uning pedagogik mahoratini oshirib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarning pedagogik ta’limdagi afzalliklari quyidagilardan iborat: - ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi; - o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi; - ta’limning ochiqligi va qulayligini ta’minlaydi.

Biroq, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik vositalarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi va ayrim pedagoglarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarni muntazam o‘qitish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar pedagogik ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim jarayonini zamon talablariga moslashtirish imkonini beradi. Shu bois pedagogik ta’limda raqamli texnologiyalardan oqilona va samarali foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Muslimov N.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2020.
4. Saidov A., Qodirov B. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2019.

ISO 21001 TALABLARI ASOSIDA OTM BOSHQARUV TIZIMINI BAHOLASH

Ibragimov Abdimalik Gapparovich,
O‘zMPU, “Ta’lim sifatini ta’minlash va akkreditatsiya” bo‘limi boshlig‘i.
Suyunov Sherzod Turdali o‘g‘li,
TIUE, Ta’lim muassasalari boshqaruvi yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ISO 21001:2018 xalqaro standarti asosida oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimini empirik baholash natijalari keltirilgan. Tadqiqot 4 ta OTMda faoliyat yurituvchi 1852 nafar professor-o‘qituvchi ishtirokida*

o‘tkazilgan so‘rovnoma asosida amalga oshirildi. Boshqaruv tizimi Leadership, Operation, Support va Performance evaluation komponentlari kesimida tahlil qilindi. Natijalar OTMlarda operatsion jarayonlar nisbatan barqaror ekanini, biroq texnik infratuzilma va monitoring mexanizmlarida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *ISO 21001, oliy ta’lim muassasasi, sifat menejmenti, boshqaruv tizimi, monitoring, institutsional rivojlanish.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari, raqobat muhitining keskinlashuvi va mehnat bozori talablarining o‘zgaruvchanligi sharoitida oliy ta’lim muassasalarida (OTM) boshqaruv tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida sifat tushunchasi ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lib, u nafaqat ta’lim natijalari, balki boshqaruv mexanizmlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan ham belgilanadi [1; 15-b.].

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ta’lim sifatining barqarorligi boshqaruv tizimining tizimliligi va natijadorligiga bevosita bog‘liq [1; 21-b.]. Shu bois so‘nggi yillarda ta’lim sifatini boshqarishda xalqaro standartlarga asoslangan yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Xususan, ISO 21001:2018 standarti ta’lim tashkilotlari uchun boshqaruv tizimini shakllantirish va doimiy takomillashtirishning metodologik asosini belgilaydi [2; 3-b.].

Mazkur tadqiqotning maqsadi - ISO 21001 talablari asosida OTM boshqaruv tizimini professor-o‘qituvchilar fikri asosida empirik baholash hamda mavjud muammoli jihatlarni aniqlashdan iborat.

Nazariy asoslar. Ta’lim sifatini boshqarish zamonaviy menejment nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Sifat tushunchasi oliy ta’limda ko‘p o‘lchovli kategoriya sifatida talqin qilinadi [1; 18-b.]. Shu bois ta’lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonli va tizimli yondashuvni talab etadi.

ISO 21001:2018 standarti ta’lim tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan xalqaro me’yoriy hujjat bo‘lib, u manfaatdor tomonlarga yo‘naltirilganlik, yetakchilik, jarayonli yondashuv, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslanadi [2; 7-b.].

Standartning markazida PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli turadi. Ushbu sikl sifatni boshqarishning uzluksiz takomillashtirish mexanizmini ifodalaydi [4; 54-b.].

ISO 21001 doirasida boshqaruv tizimi quyidagi asosiy bloklar orqali amalga oshiriladi: Leadership (Yetakchilik) – strategik boshqaruv va sifat siyosati; Operation (Operatsion jarayonlar) – ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va amalga oshirish; Support (Qo‘llab-quvvatlash) – resurs va infratuzilma ta’minoti; Performance evaluation (Natijadorlikni baholash) – monitoring va audit.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, rahbariyatning faol ishtiroki va shaffof boshqaruv mexanizmlari sifat tizimining muvaffaqiyatini belgilaydi [3; 76-b.]. Shu nuqtai nazardan, ISO 21001 asosida empirik baholash OTM boshqaruvining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini ISO 21001:2018 standarti komponentlari asosida empirik baholashga qaratilgan kvantitativ tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi hududidagi 4 ta oliy ta’lim muassasasida o‘tkazildi. Respondentlar taqsimoti OTM-1-114 nafar, OTM-2-414 nafar, OTM-3-593 nafar, OTM-4-731 nafar umumiy sonda 1852 nafarni tashkil etdi.

Ma’lumotlar so‘rovnoma asosida yig‘ildi. Mazkur maqolada ISO 21001 standarti tarkibiy bloklariga mos ravishda tanlab olingan 8 ta indikator tahlil qilindi. Indikatorlar quyidagi komponentlar bo‘yicha guruhlashtirildi: *Leadership (Yetakchilik):* Ishdan

qoniqish darajasi. Rahbariyat fikr va takliflarni inobatga olishi; *Operation (Ta’lim jarayonlari):* Ta’lim sifati umumiy bahosi. Dasturlar mehnat bozori talablariga mosligi. *Support (Resurslar ta’minoti):* O‘quv-uslubiy resurslar sifati. Kompyuter va texnik ta’minot yetarliligi. *Performance evaluation (Natijadorlikni baholash):* Baholash tizimi samaradorligi. Muammolarni yetkazish mexanizmi.

Savollar yopiq shaklda tuzilgan bo‘lib, so‘rovnoma anonim tarzda o‘tkazildi, bu respondentlarning xolis fikr bildirishini ta’minladi. Respondentlar soni oliy ta’lim muassasalari kesimida sezilarli farq qilganligi sababli (114 dan 731 nafargacha), umumiy natijalarni aniqlashda oddiy arifmetik o‘rtacha usuli o‘rniga og‘irlikli (weighted) o‘rtacha usuli qo‘llanildi va quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$P = \frac{\sum(p_i \times n_i)}{\sum n_i}$$

bu yerda: p_i-OTM bo‘yicha foiz ko‘rsatkichi, n_i-OTM respondentlar soni.

Mazkur yondashuv statistik ishonchlilikni ta’minlaydi va turli hajmdagi respondentlar ulushini inobatga oladi.

Tahlil va natijalar.

1. Leadership (Yetakchilik). Ishdan qoniqish darajasi - 78,7 %. Rahbariyat fikrlarni inobatga olishi - 67,7 %. Umumiy Leadership darajasi taxminan 73-74 % ni tashkil etdi. Bu nisbatan yuqori ko‘rsatkich bo‘lsa-da, ayrim OTMlarda kommunikatsiya mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi aniqlandi. Bu natijalar rahbariyatning strategik boshqaruvdagi roli muhim ekanini tasdiqlaydi [5; 112-b.].

2. Operation (Operatsion jarayonlar). Ta’lim sifati bo‘yicha ijobiy baho-89 %. Dasturlar mehnat bozori talablariga mosligi-94 %. Bu operatsion jarayonlar barqarorligini ko‘rsatadi. ISO 21001ga ko‘ra, ta’lim jarayonlari manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim [2; 12-b.]. Biroq ayrim OTMlarda “o‘rta” baholar ulushi yuqori ekani ichki sifat nazoratini kuchaytirish zarurligini bildiradi.

3. Support (Resurs ta’minoti). O‘quv-uslubiy resurslar sifati-83 % ijobiy. Texnik ta’minot to‘liq yetarli-55 %, qisman-41 %. Bu metodik ta’minot yaxshi yo‘lga qo‘yilganini, biroq texnik infratuzilmada nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarga ko‘ra, resurslar sifati ta’lim natijadorligiga bevosita ta’sir qiladi [3; 84-b.].

4. Performance evaluation (Monitoring va baholash). Baholash tizimi samaradorligi - 58,6 % yuqori. Muammolar asosan dekan darajasida hal etiladi (64,2 %). Raqamli murojaat mexanizmlari atigi 1,5 % ni tashkil etdi. ISO 21001 ochiqlik va manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqa tamoyillarini belgilaydi [2; 18-b.]. Demak, monitoring tizimini raqamlashtirish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

Leadership. Respondentlarning aksariyati ish faoliyatidan qoniqish bildirgan bo‘lsa-da, ayrim OTMlarda rahbariyat bilan samarali kommunikatsiya va fikr-mulohazalarni inobatga olish darajasi bir xil emasligi kuzatildi. Bu boshqaruv uslublarida tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Operation. Ta’lim sifati va dasturlar mehnat bozori talablariga mosligi bo‘yicha umumiy ijobiy baho yuqori darajada qayd etildi. Biroq ayrim OTMlarda “o‘rta” baholar ulushi nisbatan katta ekani ta’lim jarayonlarini takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Support. O‘quv-uslubiy resurslar sifati nisbatan yuqori baholangan bo‘lsa-da, texnik infratuzilma va moddiy-texnik bazada nomutanosiblik mavjudligi aniqlangan. Bu ISO 21001 talablari doirasida qo‘llab-quvvatlovchi jarayonlarni yanada rivojlantirish lozimligini ko‘rsatadi.

Performance evaluation (Baholash va monitoring). Baholash tizimi samaradorligi ijobiy baholangan, biroq muammolarni yetkazish mexanizmi asosan an’anaviy

boshqaruv kanallari orqali amalga oshirilmoqda. Raqamli platformalardan foydalanish darajasi pastligi ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish zaruratini bildiradi.

ISO 21001 standarti OTM boshqaruv tizimini tizimli, manfaatdor tomonlarga yo‘naltirilgan va natijaga asoslangan modelga o‘tkazish uchun samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin [2; 3-b.].

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Leadership yo‘nalishida: 1) rahbariyat va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida muntazam “feedback” mexanizmini joriy etish; 2) strategik qarorlar qabul qilishda xodimlar ishtirokini kengaytirish; 3) boshqaruv kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha trening dasturlarini tashkil etish.

2. Operation yo‘nalishida: 1) ta’lim dasturlarini mehnat bozori monitoringi asosida muntazam yangilab borish; 2) ichki sifat nazorati tizimini ISO 21001 talablariga moslashtirish; 3) jarayonlarga PDCA (Plan-Do-Check-Act) siklini tatbiq etish.

3. Support yo‘nalishida: 1) texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish; 2) raqamli ta’lim platformalarini keng joriy etish; 3) moddiy-texnik bazani bosqichma-bosqich yangilash strategiyasini ishlab chiqish.

4. Performance evaluation yo‘nalishida: 1) muammolarni yetkazishning anonim elektron tizimini joriy etish; 2) monitoring va ichki audit mexanizmlarini kuchaytirish; 3) KPI va indikatorlar asosida baholash tizimini optimallashtirish.

ISO 21001 standarti OTM boshqaruv tizimini tizimli, manfaatdor tomonlarga yo‘naltirilgan va natijaga asoslangan modelga o‘tkazish uchun samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari mazkur standartni milliy OTM boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish dolzarb ekanini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harvey, L., Green, D. (1993). Defining quality. Assessment & Evaluation in Higher Education, 18(1), 9–34.
2. International Organization for Standardization. (2018). ISO 21001:2018 Educational organizations - Management systems for educational organizations - Requirements with guidance for use. Geneva: ISO.
3. Sallis, E. (2002). Total Quality Management in Education (3rd ed.). London: Kogan Page.
4. Deming, W.E. (1986). Out of the Crisis. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Hoy, W.K., Miskel, C.G. (2013). Educational Administration: Theory, Research, and Practice (9th ed.). New York: McGraw-Hill.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH: SUN’IY INTELLEKT VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Izatulloyeva Parvina Fariddunovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari, sun’iy intellekt (AI) va innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola raqamli ortiqcha yuklamaning salbiy ta’siri, AI ning ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlashi va AI boshqaruvi to‘g‘ri va shaffof bo‘lishi lozimligi kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, modernizatsiya, AI kompetensiyalari, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar.*

Raqamli transformatsiya jarayoni ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, sun’iy intellekt, raqamli platformalar va innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirdi. YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “AI Competency Framework for Students” o‘quvchilarda AI bo‘yicha shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalarni belgilaydi [1]. Bu kompetensiyalar o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish, turli kontekstlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, shuningdek, inson markaziyligi va axloqiy qadriyatlarni hisobga olgan holda AI bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Sun’iy intellektga oid o‘qitish va o‘qish jarayonlari, avvalo, o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtira olish va AI texnologiyalari yordamida muammolarni hal qilishga moslashish imkonini beradigan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi**.** Eng avvalo, ushbu kompetensiyalar insonparvarlikka asoslangan axloqiy qadriyatlarni o‘z ichiga olishi lozim. O‘quvchilar tenglik, kamsitilmaslik, shaxsiy hayot daxlsizligi va fikrlar xilma-xilligi kabi inson huquqlarini chuqur anglab, bu huquqlarning turli ko‘rinishdagi inson–AI o‘zaro ta’sirlaridagi ahamiyatini tushunishlari zarur. Kompetensiyalar shuningdek, AI atrofidagi bahs-munozaralarni, AI ni tartibga solishga doir asosiy axloqiy tamoyillarni anglash zarurligini aks ettiradi; bundan tashqari, ular kamsitishni kamaytirish, maxfiylikni himoya qilish, shaffoflik va javobgarlikni ta’minlash hamda AI tizimlarini yaratishda “axloqiy dizayn” yondashuvini qo‘llashga doir amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari bilan birga, yashirin xavflar ham mavjud. *“Digital Transformation in Education: Emerging Markets and Opportunities”* kitobida aytib o‘tilishicha, texnologiyalarning tez o‘zgarishi, ko‘p platformalarda ishlash majburiyati, uzluksiz onlayn bo‘lish talabi o‘qituvchi va o‘quvchilarda texnostressni kuchaytirishi mumkin. Kitobda aytilganidek: “Raqamli ortiqcha yuklama hissiy charchoq va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin” [2]. AI yordamida o‘quv jarayoni tahlili chuqurlashadi, samarali pedagogik strategiyalar ishlab chiqiladi va baholash jarayoni aniqroq, avtomatlashtirilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi. Biroq, AI ta’limni to‘liq almashtiruvchi emas, balki uni kuchaytiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O‘quvchilar AI tushunchalarini real hayotdagi muammolar bilan bog‘lash orqali tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Shuningdek, ular mavjud AI modellarini takomillashtirish yoki yanada mazmunli sun’iy intellekt yaratishda o‘z ijodkorliklarini qo‘llashga rag‘batlantirilishi kerak.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili. YUNESKO tomonidan 2023-yil 25-may sanasida o‘tkazilgan “Generativ sun’iy intellekt va ta’lim” mavzusidagi Vazirlar Raund Stol yig‘ilishi uchun maxsus so‘rovnoma tayyorlangan. Tadqiqot natijalari generativ sun’iy intellektning jadal rivojlanishi fonida ta’lim tizimlarida yetarli darajada siyosiy, metodik va tashkiliy yo‘riqnomalarning mavjud emasligini ko‘rsatadi. YUNESKO ta’limning kelajagi va innovatsiyalar bo‘limi direktori Sobhi Tawil so‘rovnoma natijalariga izoh berar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, biz hali ham yangi, kuchli generativ sun’iy intellekt va ta’lim bo‘yicha go‘yo kimsasiz hududda harakatlanayotgandekmiz.” Shuningdek, u ta’lim muassasalari texnologik o‘zgarishlar sur’atidan ortda qolmaslik uchun chaqqon va interaktiv yondashuv zarurligini qayd

etadi: “Agar ta’lim tashkilotlari moslashuvchan bo‘lmasa, texnologik innovatsiyalarning mislsiz tezligiga yetib ololmaydi” [3].

YUNESKO tomonidan o‘tkazilgan xalqaro tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’lim muassasalarining atigi 13 foizi generativ sun’iy intellekt bo‘yicha rasmiy ko‘rsatmaga ega, maktablarda esa mazkur ko‘rsatkich 7 foizni tashkil qiladi. So‘rovnoma ishtirokchilarining 20 foizi esa ushbu yo‘nalishda qabul qiluvchi ko‘nikmalar mavjud yoki mavjud emasligini bilmasligini bildirganlar. 2025-yilda o‘quvchilarning 54 foizi hamda ingliz tili, matematika va tabiiy fanlar o‘qituvchilarining 53 foizi sun’iy intellektdan foydalanayotganlarini bildirishgan. Bu avvalgi 1-2 yildagi so‘rov natijalariga nisbatan 15 foizdan ortiq o‘sishni ko‘rsatadi. So‘rovda qatnashganlarning fikricha, AI dan haddan tashqari foydalanish tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ta’sir qilishi mumkin: buni ota-onalarning 61 foizi, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining 55 foizi tasdiqlagan. 2025-yil bahori holatiga ko‘ra, o‘qituvchilarning 35 foizi o‘quvchilarga AI bo‘yicha treninglar taqdim etmoqda. Shuningdek, maktab direktorlarining 45 foizi ta’limda AI dan foydalanishga oid ko‘nikma yoki yo‘riqnoma mavjudligini bildirganlar. O‘qituvchilarning 34 foizi esa AI va akademik halollik bilan bog‘liq alohida qoidalar mavjudligini qayd etganlar [4].

Demokratiya va texnologiyalar markazi (CDT) tomonidan 2024-2025 o‘quv yilida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ta’lim jarayonida AI dan foydalanish keskin oshgan: o‘qituvchilarning 85 foizi, o‘quvchilarning 86 foizi AI dan foydalanganlarini bildirgan. O‘quvchilarning 50 foizi AI dan bevosita o‘quv faoliyatida foydalanmoqda. Biroq AI ning keng qo‘llanilishi ijtimoiy-emotsional aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda: o‘quvchilarning yarmi AI sinfda o‘qituvchi bilan o‘zaro bog‘liqlikni susaytirayotganini aytgan. O‘qituvchilarning katta qismi esa AI o‘quvchilarning muhim ko‘nikmalarini zaiflashtirishidan xavotir bildirganlar. Shuningdek, (AI dan foydalanishning psixologik va ijtimoiy xatarlari sifatida) o‘quvchilarning 42 foizi AI bilan doimiy muloqot qilgan, 42 foizi uni do‘st sifatida qabul qilgan, 19 foizi esa undan ruhiy qochish vositasi sifatida foydalangan. Eng tashvishli jihat – o‘quvchilarning 31 foizi maktab tomonidan taqdim etilgan qurilmalar orqali AI bilan shaxsiy suhbatlar olib borgan, lekin o‘qituvchilarning atigi 10 foizi bunga qanday munosabat bildirish bo‘yicha trening olgan. O‘quvchilarning 38 foizi AI bilan gaplashish ota-onasi bilan suhbatlashishdan osonroq ekanini bildirgan. Tadqiqot AI ning ta’limda qo‘llanilishida katta imkoniyatlar bilan birga, psixologik va ijtimoiy xavflar mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ta’lim tizimi AI integratsiyasida shaffoflik, xavfsizlik, psixologik farovonlik va o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarining mustahkamligini ta’minlovchi ko‘nikmalarni shakllantirishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham aynan ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishni asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilagan. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, hozirda respublikada 147 ta raqamli texnologiyalar o‘quv markazi faoliyat yuritmoqda va ularning soni 205 taga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu markazlar kompyuter savodxonligi, dasturlash, robototexnika va boshqa yo‘nalishlarda 40 mingdan ortiq tinglovchini qamrab olgan. Bu markazlar strategiyaning ta’limda raqamli savodxonlikni oshirish yo‘nalishi bilan mustahkam bog‘liq. [5]

Strategiya matnida inklyuziv ta’limga alohida urg‘u berilgan: raqamli texnologiyalar yordami bilan barcha yoshdagi, xususan qishloq hududlari va nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni qamrab olish maqsad qilinadi. YUNISEF ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yoshlar va bolalar uchun raqamli savodxonlikni

oshirishga katta e’tibor berganligini qayd etgan [6]. Agar strategiya to‘liq amalga oshsa, raqamli ta’lim o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar: interaktiv o‘quv vositalari, masofaviy va aralash ta’lim, o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun infratuzilma yaratiladi. Biroq, texnologik jihatdan ta’lim muassasalarining barcha hududlarda teng qamrab olinmasligi, o‘qituvchilarning raqamli yondashuvlarga tayyorgarligi, raqamli resurslar va dasturiy ta’minotga kirishdagi qiyinchiliklar xavf sifatida qolishi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish – bu faqat texnologiyalarni joriy etish emas, balki pedagogik maqsadlar, insoniy qadriyatlar va mas’uliyatli boshqaruvni uyg‘unlashtirishdan iborat. Sun’iy intellekt va innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonini samarali qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchilarda AI kompetensiyalarini shakllantiradi, lekin bularning barchasi to‘g‘ri va shaffof boshqaruvga asoslanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YUNESKO. AI Competency Framework for Students: O‘quv-metodik qo‘llanma. Parij: YUNESKO, 2023.
2. Digital Transformation in Education: Emerging Markets and Opportunities. Springer, 2023.
3. YUNESKO. Generative AI and Education: Survey Results for the Ministerial Roundtable. Paris: YUNESKO, 2023. 15 p.
4. RAND Corporation. The State of AI Use in U.S. Schools: Findings from the 2025 National Education Survey. Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2025. 28 p.
5. Teshayeva G.M. “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi: raqamli jamiyatga o‘tishda axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni” // *Tadqiqotlar.uz* - 2024.
6. YUNISEF. “O‘zbekiston va raqamli transformatsiya: yoshlar uchun raqamli imkoniyatlar” // *UNICEF Uzbekistan Report*. – Tashkent, 2023. - 30 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM ASOSIDAGI LOYIHA VA TADQIQOT FAOLIYATI

KarimjanovAlijan,
Chirchiq DPU “Maktabgach va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.n. Ilmiy rahbar.
Tilavova Sayora Bekmuratovna,
Chirchiq DPU “Maktabgach va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarga ekologik ta’lim berish, STEAM ta’limi fanlararo va o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta’lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM, ta’lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliy, yondashuv, ta’lim dasturi, loyiha, integratsiya.*

Kirish. Jahonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yangilashning muhim yo‘nalishlaridan biri STEAM ta’lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi texnik va tabiiy fanlarni integratsiyalash asosida

o‘qituvchi va talabalarning tanqidiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Hozirgi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimining rivojlanishi ko‘p jihatdan fanlararo integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tanqidiy fikrlaydigan, turli sohalar kesishmasida yuzaga keladigan muammolarni hal eta oladigan hamda murakkab pedagogik vazifalarni ijodiy yondashuv asosida bajarishga qodir mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM asosidagi loyiha va tadqiqot faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv talabalarga ekologik muammolarni o‘rganish, ularni tahlil qilish va amaliy loyihalar orqali yechimlar ishlab chiqish imkonini yaratadi. STEAM tushunchasi ilk bor 1990-yillarda Amerika Milliy Fan Jamg‘armasi tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) yo‘nalishlarini integratsiyalashgan holda o‘qitishni nazarda tutgan. Keyinchalik mazkur yondashuvga san’at (Art) komponenti ham qo‘shilib, STEAM modeli shakllandi. Hozirgi kunda STEAM ta’limi AQSh, Avstraliya, Kanada, Singapur, Buyuk Britaniya, Fransiya, Isroil, Xitoy va Turkiya kabi ko‘plab davlatlarning ta’lim tizimida keng joriy etilgan bo‘lib, maktabgacha ta’limdan boshlab robototexnika, yuqori texnologiyalar va innovatsion loyihalar orqali o‘quvchilarning ilmiy va texnologik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ekologik ta’limni fanlararo integratsiya asosida tashkil etish, loyiha va tadqiqot faoliyatidan foydalanishning mazmuni, maqsadi, vazifalari hamda pedagogik tamoyillari tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuv, pedagogik tahlil, qiyosiy o‘rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida STEAM asosidagi loyiha va tadqiqot faoliyati bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi asoslab berildi.

Ilg‘or fanlararo ta’lim texnologiyalarini tahliliy o‘rganish natijasida STEAM ta’limiga alohida e’tibor qaratish zarurligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida talabalarning tabiiy fanlar bo‘yicha kompetensiyalari hamda tanqidiy fikrlash darajasi baholandi. Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tomonidan kasbiy, ilmiy va amaliy xarakterdagi fanlararo muammolar aniqlanib, ular loyiha va tadqiqot faoliyati asosida hal etildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, STEAM asosidagi loyiha va tadqiqot faoliyatini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning ekologik bilimlarini mustahkamlash, muammolarni tahlil qilish hamda innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quv fanlari mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshiradi, chunki ta’lim jarayoni amaliyotga yo‘naltirilgan va ilmiy tadqiqot xarakteriga ega bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida fanlararo integratsiya muhim metodologik asos hisoblanadi. Integratsiya turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlab, murakkab pedagogik va ekologik muammolarni kompleks yondashuv asosida hal etishga imkon yaratadi. Zamonaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash kompetensiyaga

asoslangan yondashuvga tayanib, o‘quv jarayonining mazmuni va tuzilishini bitiruvchilarning kasbiy faoliyat sifatini oshirishga yo‘naltiradi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kompetensiyasi kasbiy-pedagogik faoliyat, amaliy tajriba hamda shaxsiy sifatlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. STEAM asosidagi loyiha va tadqiqot faoliyati esa ularning ilmiy-tadqiqotchilik, muammolarni hal etish va innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirib, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida yangi oliy ta’lim davlat standartlarining joriy etilishi ta’lim mazmuni va tarkibida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. O‘quv rejalari tarkibidagi fanlar sonining ortishi ularni o‘rganish uchun ajratilgan o‘quv soatlari miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaganligi sababli, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini yanada samarali tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim mazmunini ratsionallashtirishning muhim yo‘llaridan biri fanlararo integratsiyani amalga oshirish hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda fanlararo integratsiya bilan bog‘liq ikki asosiy muammo aniqlandi: birinchidan, oliy ta’lim tizimida tabiiy-ilmiy va gumanitar bilim sohalarini uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda; ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik texnologiyalarni yangilash, integratsiyalashgan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar hamda zamonaviy ma’ruza shakllaridan samarali foydalanish ehtiyoji kuchaymoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal etishda kasbiy kompetensiyalarni qo‘llashga qodir bo‘lgan bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Shu maqsadda fanlararo integratsiya talablarini hisobga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash metodikasini takomillashtirish yo‘llari o‘rganildi. Tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirok etdi. Tadqiqotning analitik bosqichida fanlararo amaliy muammolarni hal etishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid ma’lumotlar tahlil qilindi, taqqoslash va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Dastlabki tajriba-sinov bosqichida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi, shuningdek integratsiyalashgan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar hamda ma’ruzalar joriy etilgandan so‘ng o‘quv faoliyati natijalari tahlil qilindi. Natijalar fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatdi.

Fanlararo kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida diagnostika jarayonida universitet talabalari bilan kuzatish va suhbatlar o‘tkazildi hamda statistik ma’lumotlar yig‘ildi. Diagnostika usullari mazmuniy, indikativ va baholash bloklariga ajratildi. Birinchi blok talabalarning fanlararo integratsiya tushunchasi bo‘yicha bilim darajasini aniqlashga qaratildi. Ushbu bosqichda tajriba ishtirokchilari o‘rtasida suhbat va so‘rovnomalar tashkil etilib, natijalar talabalarning fanlararo integratsiya mohiyatini to‘liq anglashda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatdi. Ayrim talabalar integratsiyani faqat umumiy g‘oyalar darajasida tushungan bo‘lsa, boshqalari uni axborotni birlashtirish yoki uzatish jarayoni bilan bog‘lashga harakat qildilar. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida fanlararo integratsiya tushunchasi hamda uning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati haqida yetarli bilim va tasavvur shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Ikkinchi bosqichda esa talabalarning fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish muammosiga munosabati va uning bo‘lajak

o‘qituvchining kasbiy shakllanishidagi o‘rni o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari tajriba guruhlarining 71 foizi hamda Buxoro davlat universiteti va Termiz pedagogika instituti nazorat guruhlari talabalariining 79 foizi fanlararo kompetensiyalar zamonaviy mutaxassisning muhim sifati ekanligini ta’kidladilar.

Uchinchi bosqichda empirik tadqiqot natijalari umumlashtirilib, universitet ta’lim jarayonida fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish modeli talabalarning motivatsion va mazmuniy komponentlari orqali tahlil qilindi. Motivatsion komponent talabalarning tanlagan kasbining maqsadini anglash, yangi bilimlarni egallashga intilish va ularni amaliyotda qo‘llashga bo‘lgan qiziqishi bilan ifodalandi. Mazmuniy komponent esa o‘rganilayotgan fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va integratsiyalashgan bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aks ettirdi. Tadqiqot doirasida o‘z-o‘zini baholash metodikasidan foydalanilib, talabalarning fanlararo kompetensiyalarining rivojlanish darajasi 5 ballik tizim asosida baholandi va anonim so‘rovlar orqali natijalarning ishonchliligi ta’minlandi. Olingan natijalar talabalarda muammoga qiziqish, bilimlarni amaliy qo‘llashga intilish va mustaqil faoliyatga yo‘naltirilganlik kabi ko‘rsatkichlar ortganligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar hamda sinfdan tashqari faoliyatlarda STEAM texnologiyalariga asoslangan integratsiyalashgan laboratoriya mashg‘ulotlaridan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilgani aniqlandi. STEAM asosidagi loyiha va tadqiqot faoliyati guruhiy va juftlikda ishlashni rivojlantirib, talabalarning mustaqilligi, bilim faolligi hamda shaxslararo munosabatlarini kengaytirishga yordam berdi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM asosidagi loyiha va tadqiqot faoliyatidan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv fanlararo integratsiyani ta’minlab, talabalarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil faoliyati hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, STEAM texnologiyalariga asoslangan integratsiyalashgan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmoni.

2. Yuldashovich K.A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

3. Аршанский, Е.Я. STEAM-образование: от модели к практической реализации / Е.Я. Аршанский, Н.С. Сологуб // Адукасыя и вхаванне. – 2020. – № 9. – С. 22–30.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Karimjanova Dilnoza Alijanovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlangich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi,
Isabayev Xushbaxt Gulxanzoda
Chirchiq DPU, Boshlangich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ta’lim muassasasi ijtimoiy faol, ijobiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishga, talabalarda axborot oqimidan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikma, malakasini ishlab chiqish, innovasion texnologiyalarni egallash, bilimlarni chuqurlashtirib va kengaytirib mustaqil o‘rganish vazifasi, bilimli yondashuvdan kompetentli yondashuvga e’tiborni ko‘chirish muammosi milliy ta’limni modernizatsiyalash haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, axborot texnologiyalari, boshlang‘ich sinf, informatika kursi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, bo‘lajak kasbiy-mutaxassislik.*

Axborot jamiyatiga o‘tish sharoitida ta’limga asoslangan noan’anaviy maktab modeli ijtimoiy buyurtmaga asosan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Axborot ta’lim sharoitida axborot barcha turlari hajmining keskin o‘sishi sharoitlarga duch kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta’lim muassasasi ijtimoiy faol, ijobiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishga, talabalarda axborot oqimidan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikma, malakasini ishlab chiqish, innovasion texnologiyalarni egallash, bilimlarni qo‘yadi. Bilimli yondashuvdan kompetentli yondashuvga e’tiborni ko‘chirish muammosi milliy ta’limni modernizatsiyalashga ko‘ra ayniqsa dolzarbdir. Ta’limdagi islohotlar oliy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasida ta’lim muassasasi faoliyatining asosiy natijasi bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tizimining o‘zigina emas, balki fuqarolik - huquqiy, tilga oid, kommunikatsion, axborot va boshqa sohalardagi asosiy kompetentliklar majmuiga ega bo‘lgan bitiruvchi bo‘lishi kerakligi aniq belgilangan. Oliy ta’limni modernizatsiyalashning strategik jihatlaridan biri, ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan fanni o‘qitishda va sinfdan tashqari ishlarda innovasion axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish bilan ta’lim jarayoni yangi modelini tashkil qilishni ko‘zda tutuvchi boshlang‘ich ta’limni axborotlashtirish hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy – mutaxasisislik sifati va ularni tayyorlash darajasiga yangi talablarni qo‘yadi. Ta’limni takomillashtirish mazmunida bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash sifati integral ko‘rsatkichlariga insonning egallagan bilim va tajribalaridan ma’lum vaziyatlarda foydalanish malakasini xarakterlovchi kasbiy – mutaxassislik kompetentligi sifatida qaralishi lozim. O‘qituvchining kasbiy - mutaxassislik kompetentligi o‘z ichiga turli tarkibiy, jumladan, axborotli qismlarni ham oladi.

Ma’lumki, innovasion ta’lim sharoitlarda o‘qituvchining axborot ko‘nikmasi uning professional pedagogik kompetentligini aniq belgilaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot ko‘nikmalarini shakllantirish uning axborot qobiliyatining asosiy komponentlari (turli xil axborot faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq kasbiy yo‘naltirilgan ko‘nikmalar) va maxsus komponentlar bloklari ishlab chiqilishini nazarda

tutadi, mazkur tadqiqot ishida ular birgalikda maxsus axborot kompetentligi sifatida belgilangan. Maxsus axborot salohiyatlarini rivojlantirish masalasini hal etish bo‘lajak o‘qituvchilarning boshlang‘ich ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishga qaratilgan uziga xos qobiliyatlari bilan bog‘liq.

Shubhasiz, agar o‘qituvchilar yetarli darajada mazkur axborot texnologiyalari dasturiy mahsulotlarini izlash va tanlash qobiliyatiga ega bo‘lmasa va aniq didaktik vazifalarni hal qilish uchun ularni to‘g‘ri qo‘llash imkoniga ega bo‘lmasalar, boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashda yetarli darajada bilimga ega bo‘lmasa, boshlang‘ich sinflarda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish befoyda bo‘ladi. Shu tariqa, o‘qituvchining axborot kompetentligi boshlang‘ich sinfda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qila boshlaydi. Kompetentli yondashuvning ilmiy asosi mustaqil davlatlar xamdo‘stligi olimlaridan O.V.Akulova, Ye.S.Zair-Bek, I.A.Zimnyaya, V.A.Kozirev, A.A.Pinskiy, N.F.Radionova, M.V.Rijakov, A.P.Tryapitsina, I.D.Frumin, A.V.Xutorskiy, S.Ye.Shishov va boshqalar ishlarida berilgan. O‘qituvchi axborot kompetentligining shakllanishi yoki rivojlanishi muammosi ko‘plab olimlar: O.B.Zayseva, N.V.Kisel, A.M.Orobinskiy, M.M.Pshukova, O.G.Smolyaninova tadqiqotda ko‘rib chiqilgan. G.G.Brusnitsina, T.V.Dobudko, S.A.Zayseva, I.V.Ryaxinova, A.A.Uzdenova va boshqalar tadqiqotlari boshlang‘ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars mashg‘ulotlari o‘tishga tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan. Ularda boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasida informatika kursini o‘qitish yoki bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Biroq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot kompetentligini rivojlantirish masalasi aloxida e’tibor qaratildi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida meyoriy hujjatlar va o‘quv amaliyotini tahlili shuni kursatdiki, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida informatika sohasida talabalarni tayyorlashda asosiy yo‘nalish – elementar boshlang‘ich kompyuter savodxonligini rivojlantirishdan iborat. Talabalar turli axborot jarayonlari uchun shaxsiy kompyuter dasturlaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shunga qaramay, talabalarga yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikning yo‘qligi sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun boshlang‘ich ta’lim jarayonida foydalanishga qodir emasligiga olib keladi. Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishi malakasini shakllantirish kerakdir degan xulosaga keldik. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy - mutaxassislik tayyorgarligiga zamonaviy talablar va o‘qituvchining professional malakasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida axborot kunikmalarini, shu bilan birga, bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot kompetentligini oshirishning aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayonlarni tashkil etish;
- yangi axborot texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot, ularning didaktik imkoniyatlari kengayib borayotganligi va o‘qituvchilarni boshlang‘ich ta’lim jarayonida ularni to‘g‘ri yo‘naltirish Mazkur vazifalarni hal etish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini shakllantirish (rivojlantirishda boshqarish) ga yondashuvlarni ishlab chiqildi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz natijasida bo‘lajak

boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish pedagogik sharoitlarini nazariy asoslarini va amaliy bajarilishini aniqlandi, talabalarni metodik tayyorgarligi takomillashtirildi. Tadqiqot natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. «Axborot kompetentligi» tushunchasi mohiyati va strukturasini aniqlandi, mazkur tushunchaning o‘qituvchiga nisbatan mazmunini aniqlashtirildi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga mavjud yondashuvlar tahlili keltirildi.

3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy va maxsus axborot kompetentligini rivojlantirish komponentlarini ajratib ko‘rsatildi.

4. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining maxsus axborot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari o‘quv kursi strukturasi va mazmunini ishlab chiqish.

5. Ishlab chiqilgan o‘quv kursini boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘quv jarayoniga joriy etildi va talabalarda ularning nazariy va amaliy bilim olishlarida qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, bo‘lajak kasbiy - mutaxassislik faoliyati uchun ularning ahamiyatini shaxsan anglash sharoitlarini yaratildi.

6. Ishlab chiqilgan kurs vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini eksperimental tayyorlash (nazariy tayyorlash doirasida) va ularni amaliy faoliyatga kiritish jarayonida maxsus axborot kompetentligini rivojlanganlik o‘sish dinamikasini tahlil qilindi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish asosini: insonparvarlashtirish va shaxs rivoji g‘oyalari, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi o‘qitish konsepsiyasi, o‘qitish jarayonini tashkil etishga shaxsiy - faoliyatli yondashuv konsepsiyasi, pedagogik hodisalarni va uning qo‘llanilishini o‘rganishga tizimli yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi: – O‘qituvchining kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi «Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi» tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlandi; – Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining kasbiy kompetentligi tasavvuri strukturasi ikki blok jamlanmasi: «asosiy» komponentlar bloki va «maxsus» komponentlar bloki ko‘rinishida asoslandi;

– Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi asosiy va maxsus tanlab olingan komponentlari aniqlandi va mezonlari ochib berildi;

– Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi maxsus tarkibi va ajratilgan komponentlari bilan muvofiqligi aniqlandi; – Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi maxsus strukturasini hisobga olib, ishlab chiqilgan maxsus o‘quv o‘tkazilishi talabalarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchining axborot kompetentligi maxsus komponentlariga qadriyatli munosabatni rivojlantirishga va ularda yangi axborot texnologiyalaga oid bilim va malakalardan ta’lim jarayonida to‘g‘ri foydalanishlariga yordam beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi nazariy va metodikani takomillashtirishdan iborat: pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetentligini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari nazariy va eksperimental asoslash; pedagogning shaxsiy - kasbiy xususiyati sifatida «boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot kompetentligi» tushunchasini kiritish o‘zida boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonida innovasion axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash sohasida bilim, malaka va qadriyatli munosabatlarni jamlash, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish to‘liq erishish. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki

olingan natijalar asosida xozirgi karantin davrida o‘qituvchilar va talabalar axborot kompetenlikka ega bo‘lib, masofaviy ta’limda to‘liq imkoniyatdan foydalanishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fan. dok. diss. – T.: 2007.- 305 b.

2.A.Karimjonov. Pedagogik tizimni boshqarishning me’yoriy asoslari. Toshkent. Firdavs. 2021 y.

3. Ermakova, II. Bolalar va usmirlarda nutq va ovozni tuzatish: kitob. nutq terapevti uchun / I. I. Ermakova. - 2-nashr, qayta kurib chiqilgan. - Moskva: 2. Ma’rifat; Proc. lit., 1996. - 143 b.

METHODOLOGY OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Kipchakova Sanobar Baxriddinovna,
Docent of Samarkand institute of economics and service.
O‘rolova Kamola O‘mirzoq qizi,
Student of Samarkand institute of economics and service.

Annotation. *The rapid development of artificial intelligence (AI) technologies has significantly transformed the field of education, particularly foreign language teaching. AI-based tools provide personalized, adaptive, and interactive learning environments that enhance students’ linguistic competence. This article explores the methodological foundations of integrating AI technologies into foreign language instruction, highlighting their benefits, practical applications, challenges, and future prospects.*

Key words. *Speech Recognition Tools, feedback, language skills, pronunciation and fluency, Automated Assessment Systems, artificial intelligence, computer systems.*

In recent years, artificial intelligence has become an essential component of modern education systems. In foreign language teaching, traditional methods are increasingly complemented or replaced by innovative AI-driven approaches. These technologies enable learners to engage in immersive and individualized learning experiences, improving language acquisition efficiency. The integration of AI into language education is not only a technological shift but also a methodological transformation that requires new teaching strategies and pedagogikal frameworks.

The purpose of this article is to examine how AI technologies can be effectively incorporated into foreign language teaching methodology and to provide practical recommendations for educators.

Theoretical background of ai in language teaching. Artificial intelligence refers to computer systems designed to simulate human intelligence processes such as learning, reasoning, and problem-solving. In language education, AI technologies include natural language processing (NLP), machine learning, speech recognition, and intelligent tutoring systems.

From a methodological perspective, AI supports several key language teaching approaches:

Communicative Language Teaching (CLT): AI tools facilitate real-time communication practice through chatbots and virtual assistants.

Personalized Learning: AI analyzes learners’ progress and adapts content according to their needs.

Constructivist Learning Theory: Learners actively construct knowledge through interactive AI-based environments.

These approaches emphasize learner-centered education, where AI acts as a supportive tool rather than a replacement for teachers.

Practical Applications of AI Technologies. AI technologies are widely used in various aspects of foreign language teaching:

Intelligent Tutoring Systems. AI-powered platforms provide personalized lessons, instant feedback, and progress tracking. They help learners improve grammar, vocabulary, and pronunciation.

Speech Recognition Tools. These tools allow learners to practice speaking and receive immediate feedback on pronunciation and fluency, which is particularly useful for improving oral skills.

Chatbots and Virtual Assistants. AI chatbots simulate real-life conversations, enabling students to practice language skills in a safe and interactive environment.

Automated Assessment Systems. AI can evaluate written and spoken language tasks, saving teachers time and ensuring objective assessment.

Adaptive Learning Platforms. These platforms adjust difficulty levels based on learner performance, ensuring optimal learning outcomes.

Advantages of Using AI in Language Teaching.

The integration of AI technologies offers numerous benefits:

Personalization: Learning content is tailored to individual student needs.

Accessibility: Students can learn anytime and anywhere.

Immediate Feedback: AI provides instant corrections and suggestions.

Increased Motivation: Interactive tools make learning more engaging.

Efficiency: Teachers can focus more on creative and communicative tasks.

Challenges and Limitations. Despite its advantages, the use of AI in language teaching also presents several challenges:

Technical Limitations: Not all AI systems are accurate or reliable.

Lack of Human Interaction: Over-reliance on AI may reduce real communication practice.

Teacher Training: Educators need proper training to effectively use AI tools.

Ethical Concerns: Data privacy and security issues must be addressed.

Digital Divide: Not all students have equal access to technology.

These challenges highlight the need for a balanced approach that combines AI technologies with traditional teaching methods.

Methodological Recommendations. To effectively AI technologies into foreign language teaching, educators should consider the following strategies: Combine AI tools with communicative and interactive teaching methods. Use AI for personalized practice while maintaining teacher guidance. Provide training for teachers on AI-based platforms. Ensure ethical use of student data. Encourage collaborative learning alongside AI-supported activities.

Conclusion. Artificial intelligence technologies have the potential to revolutionize foreign language teaching by making learning more personalized, efficient, and engaging. However, their successful implementation requires a well-structured methodological approach that integrates technology with pedagogy. Teachers play a crucial role in guiding students and ensuring that AI is used as a supportive tool rather

than a substitute for human interaction. In the future, AI is expected to become even more sophisticated, offering new opportunities for language learners and educators. Therefore, it is essential to continue researching and developing effective methodologies for its use in education.

References

1. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile-assisted language learning [Revised edition]. In C. A. Chapelle (Ed.), The Concise Encyclopedia of Applied Linguistics. Wiley.

2. Li, K., & Zou, D. (2021). Artificial intelligence in language learning: A systematic review. Educational Technology & Society, 24(1), 1–15.

3. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

4. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKO-STEAM YONDASHUVINING TARIXIY-IJTIMOIY RIVOJLANISH OMILLARI

Kuchkinov Abdumalik Yuldashevich,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish o‘quvchilarning ekologik ongli bo‘lishlarini va barqaror dunyo uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashlari va o‘quvchilarga ekologik ta’lim berish, Eko-STEAM ta’limi fanlararo va boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ekologik kompetentligini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Eko-STEAM yondashuvi, ekopedagogik kompetentlik, ekologik ta’lim, barqaror rivojlanish, fanlararo integratsiya, STEAM ta’limi, ekologik madaniyat, ekologik ong, pedagogik innovatsiya, ekologik tafakkur.*

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon talabalarda ekologik bilimlarni kengaytirish, tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda ekologik muammolarga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonda Eko-STEAM yondashuvi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lib, u fanlararo integratsiya asosida ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani ekologik mazmun bilan uyg‘unlashtirish orqali talabalarning ekologik tafakkuri, ijodkorligi va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eko-STEAM yondashuvining tarixiy-ijtimoiy rivojlanishi ekologik muammolarning kuchayishi, barqaror rivojlanish g‘oyalarining shakllanishi va ta’limda innovatsion integrativ yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj ortishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. 79-modda. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik

huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [2] qarori loyihasi kiritilishi natijasida, zamonaviy maktablar o‘quvchilarga zamonaviy o‘quv va laboratoriya materiallari, darsliklar, o‘quv materiallari, kompyuterlar va multimedia texnikasi bilan jihozlangan maktablar o‘quvchilarga texnologiya bilan yaqindan tanishish va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishni osonlashtirish imkonini beradi. O‘quv dasturlari va ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi qadamdir. Talabalarning innovatsion va masofaviy pedagogik usullardan foydalangan holda yaxshi ta’lim tajribasiga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish o‘quvchilarda ekologik ongni shakllantirish, atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish hamda barqaror rivojlanish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. Ekopedagogik kompetentlik talabalarning tabiiy muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish, ekologik muammolarni anglash va kelajakda ekologik masalalar yuzasidan ongli qaror qabul qilishga tayyorlashni ta’minlaydi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida ekopedagogik ta’limni rivojlantirishda Eko-STEAM yondashuvi muhim ilmiy-pedagogik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani ekologik ta’lim bilan integratsiyalash orqali talabalarda ekologik tafakkur, ijodkorlik va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eko-STEAM yondashuvining tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti ham global ekologik muammolar — tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o‘zgarishi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aynan shu jarayonlar ta’lim tizimida ekologik ongli, tabiatga mas’uliyat bilan yondashadigan shaxslarni tarbiyalash zaruratini kuchaytirdi. Natijada boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ham atrof-muhitga sezgirlik, ekologik madaniyat va barqaror hayot tamoyillarini shakllantirishga qaratilgan mavzular keng joriy etila boshladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda STEAM ta’limini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuv talabalar va o‘quvchilarning fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalari bo‘yicha bilim hamda qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijodiy fikrlashi va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekomadaniyatni rivojlantirish o‘quvchilarda hayvonot va o‘simlik dunyosi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari yuzasidan ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan. Garchi ekologik ta’lim boshlang‘ich ta’lim dasturlarida mavjud bo‘lsa-da, Eko-STEAM yondashuvi uni yanada takomillashtirib, ekologik bilimlarni fanlararo integratsiya asosida o‘qitish imkonini beradi. Eko-STEAM yondashuvi STEAM ta’limi va ekologik ta’lim g‘oyalarini uyg‘unlashtirish natijasida shakllangan bo‘lib, talabalarda tabiatni anglash, barqaror hayot ko‘nikmalarini egallash hamda ekologik masalalarda ongli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang‘ich ta’limning milliy dasturlarida ham Eko-STEAM yondashuvidan foydalanish o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini boyitish, texnologiyalardan tabiat bilan uyg‘un holda foydalanish va ekologik mas’uliyatga asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ong shakllanib, ular barqaror hayot

uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarga ega bo‘lib, kelajakda atrof-muhitga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘ladigan shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Eko-STEAM yondashuvi ekologik ta’lim mazmunini kengaytirib, STEAM fanlari va zamonaviy texnologiyalarni ekologik ta’lim bilan integratsiyalash orqali yaxlit ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu yondashuv san’at va dizayn elementlarini ham o‘z ichiga olgan holda talabalarning nafaqat ilmiy bilimlarini, balki ijodiy va estetik tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada talabalar tabiat va ekologik jarayonlar haqidagi bilimlarni egallash bilan birga, barqaror hayot uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantiradi, ijodiy hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Eko-STEAM yondashuvi doirasida talabalar ekologik muammolarni hal etishda fan, texnologiya, muhandislik, matematika, dizayn va badiiy vositalardan kompleks tarzda foydalanadilar. Masalan, tabiatni muhofaza qilish loyihalari doirasida ular tabiiy yashash muhitini saqlashga qaratilgan sun’iy yashash joylari modellarini yaratish yoki suv tanqisligi mavjud hududlar uchun suvni tejaydigan texnologiyalarni loyihalash kabi amaliy faoliyatlarni amalga oshirishlari mumkin. Shu tariqa Eko-STEAM yondashuvi ekologik ta’lim, STEAM fanlari hamda san’at va dizayn elementlarini uyg‘unlashtirgan innovatsion pedagogik yondashuv sifatida talabalarga barqaror hayot ko‘nikmalarini shakllantirish, muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi ва бу ёндашувни қўллаш бошланғич синф ўқувчиларида экопедагогик компетенцияларни ривожлантиришда самарали натижаларни таъминлайди.

Eko-STEAM yondashuvi talabalarga amaliy o‘rganish tajribasini taqdim etib, o‘quv jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, energiyani tejash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muhim ekologik masalalarni o‘rganishga imkon yaratadi. Mazkur yondashuv orqali talabalar barqaror hayot tamoyillari, innovatsiyalar, tadbirkorlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida bilimga ega bo‘ladilar hamda kelajakda ekologik mas’uliyatli yetakchi shaxslar sifatida shakllanishi uchun zarur ko‘nikmalarni egallaydilar. Eko-STEAM yondashuvini qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning texnologik, muhandislik, dizayn va badiiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv STEAM fanlari, ekologik ta’lim hamda san’at va dizayn elementlarini integratsiyalash orqali talabalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada talabalar fan, texnologiya, muhandislik, matematika, dizayn va san’at bilan bog‘liq bilimlarni ekologik mazmun bilan uyg‘un holda egallab, ekologik ongli shaxs sifatida rivojlanadilar. Eko-STEAM ta’limini ommalashtirish esa boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining fan va texnologiya sohalaridagi qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga ularning ekopedagogik kompetentligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Eko-STEAM yondashuvi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, STEAM, dizayn, san’at va ekologik ta’lim sohalarida ularning bilim hamda ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yechim hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda barqaror hayot tamoyillarini anglash, atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, muammolarni tahlil qilish va ularni ijodiy hamda texnologik yondashuvlar asosida hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, Eko-STEAM yondashuvi o‘quvchilarga kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik

muammolarni anglash, ularni oldini olish hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3931-son Qarori.
3. Yuldashovich K.A. STEAM integrated yeducational technology in yenhancing yeco-learning yeffectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.
4. Sousa, D.A., & Pilecki, T. (2013). From STEM to STEAM: Using brain-compatible strategies to integrate the arts. Thousand Oaks: Corwin Press.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELEKTDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARDA FANLARARO KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Kuchkinov Abdumalik Yuldashevich,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Xayriddinova Nigina Shomurod qizi,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari yoritiladi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etish hamda tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodkorlik va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, fanlararo kompetensiya, raqamli ta’lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, individuallashtirish, integratsiya.*

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim mazmunini yaxlit, tizimli va integrativ yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, o‘quvchilar faqat nazariy bilimlarni egallab qolmasdan, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni samarali hal eta olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Kompetensiyaviy yondashuv aynan shu maqsadga xizmat qilib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini kompleks ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunda ta’lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, individual qiziqishlari, o‘rganish sur’ati va shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Adaptiv o‘qitish platformalari yordamida har bir o‘quvchi uchun moslashtirilgan topshiriqlar, interaktiv mashqlar, tavsiyalar hamda nazorat vositalari ishlab chiqiladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning

bilimlarni chuqur va mustahkam o‘zlashtirishiga xizmat qiladi [1; 160-b.]. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari fanlararo integratsiyani kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, matematika darslarida matnli masalalarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning o‘qish, tushunish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanib, ona tili fani bilan uzviy bog‘liqlik yuzaga keladi. Tabiatshunoslik fanida tajriba natijalarini jadval, diagramma va grafiklar orqali ifodalash esa matematika hamda axborot texnologiyalari fanlari bilan integratsiyani mustahkamlaydi [2; 192-b.]. Natijada, bunday integrativ yondashuv o‘quvchilarda tizimli tafakkur, ijodiy yondashuv va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularning fanlararo kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim muhitidan foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida muammoli ta’lim, loyiha metodi va tadqiqot faoliyati muhim pedagogik vositalardan hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarga zarur ma’lumotlarni izlash, ularni saralash, tahlil qilish va tizimlashtirishda samarali yordam beradi. Natijada, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanib, ular turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tanqidiy baholash hamda asosli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3; 208-b.]. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va raqamli tajriba platformalaridan foydalanish o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Bunday vositalar orqali o‘quvchilar tajriba o‘tkazish, kuzatish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning tahliliy, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda fanlararo bilimlar o‘rtasida mustahkam bog‘liqlikni shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, sun’iy intellekt vositalari o‘yin elementlari, multimediya materiallari, animatsiyalar va interaktiv topshiriqlar bilan uyg‘unlashtiriladi [4; 240-b.]. Gamifikatsiya asosidagi yondashuv o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsion muhitga aylantirib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z faoliyatini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida o‘qituvchi asosiy tashkilotchi va yo‘naltiruvchi sifatida muhim rol o‘ynaydi, sun’iy intellekt esa o‘qituvchining pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, tahliliy ma’lumotlar taqdim etuvchi va ta’lim jarayonini optimallashtiruvchi yordamchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan qaralganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish konstruktivistik ta’lim tamoyillariga to‘liq mos keladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki faoliyat jarayonida, mustaqil izlanish, tajriba o‘tkazish va muammolarni hal etish orqali egallaydi. Sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim muhitlari esa o‘quvchilarga turli manbalardan foydalanish, axborotni tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda kashf etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bunday muhit o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, guruhiy loyihalarni tashkil etish hamda muloqot va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [5; 130-b.]. Raqamli platformalar orqali

o‘quvchilar fikr almashish, muammolar ustida birgalikda ishlash va o‘z g‘oyalarini asoslab berish jarayonida ijtimoiy va intellektual faoliyatni uyg‘unlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim nazariy va amaliy asosini yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi, tahliliy va tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda fikrlovchi, innovatsion g‘oyalarga ega va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan shaxsni shakllantirish uchun zarur pedagogik sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 160 b.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 192 b.
3. Luckin R. Ta’limda sun’iy intellekt: XXI asr ta’limining kelajagi. – London, 2018. – 208 b.
4. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Ta’limda sun’iy intellekt: o‘qitish va o‘rganish istiqbollari. – Boston, 2019. – 240 b.
5. UNESCO. Sun’iy intellekt va ta’lim: siyosat ishlab chiquvchilar uchun qo‘llanma. – Parij, 2021. – 130 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISHGA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Mamasoliyeva Diyora Ilhomjon qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU 1-bosqich magistranti.
Sariyev Sharafjon,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD). Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishning innovatsion metodlari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida gamifikatsiya, individual o‘quv yo‘li, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari hamda “Aylantirilgan sinfxona” modeli kabi zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, motivatsiya, innovatsion metodlar, gamifikatsiya, individual o‘quv yo‘li, virtual reallik, aylantirilgan sinfxona.*

Kirish. Ta’lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Aynan ushbu davrda o‘quvchilarda bilim olishga qiziqish, mustaqil fikrlash, o‘qish va o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish jarayoniga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirish kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyatining muhim omillaridan biridir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni dars jarayoniga jalb qilish hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirishni ta’minlash uchun innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil

o‘rganish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muhokama.

1. Raqamli o‘yinlashtirish (Gamification). Ta’lim jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi samarali usullardan biri hisoblanadi. Gamifikatsiya o‘quv jarayonini qiziqarli faoliyatga aylantirib, o‘quvchilarning faolligini oshiradi. 1) ball, belgi (badge) va daraja (level) tizimini joriy etish; 2) onlayn test va viktorinalar tashkil etish; 3) Dars mavzusiga mos “Sarguzasht xaritalari”dan foydalanish.

2. Individual o‘quv yo‘li (Personalized Learning). Har bir o‘quvchining bilim darajasi va qiziqishlari turlicha bo‘lganligi sababli ta’lim jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Individual o‘quv yo‘li o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari asosida rivojlanishiga yordam beradi. 1) “Mening rangli rejam” kartochkalaridan foydalanish; 2) darajalangan topshiriqlar berish; 3) o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida qisqa suhbatlar tashkil etish.

3. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR). Virtual texnologiyalar o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzuni yanada jonli tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar orqali: 1) 3 D hayvonot olami yoki ertak qahramonlari bilan tanishish; 2) Tabiat va fasllar bo‘yicha virtual sayohatlar tashkil etish mumkin.

4. “Flipped Classroom” – “Aylantirilgan sinfxona” modeli. Ushbu metodga ko‘ra o‘quvchilar nazariy materiallarni uyda video yoki boshqa manbalar orqali o‘rganadilar, sinfda esa amaliy mashg‘ulotlar bajaradilar. Natijada, o‘quvchilar dars jarayonida faolroq bo‘lib, ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni faol o‘rganishga undaydi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi. Gamifikatsiya, individual o‘quv yo‘li, virtual reallik va “Aylantirilgan sinfxona” modeli kabi metodlar boshlang‘ich ta’limda samarali natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Xudoyberdiyev M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
4. UNESCO. Innovative Teaching and Learning Methods in Primary Education. – Paris, 2021.

KOGNITIV YONDASHUV VA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING RAQAMLI TA’LIMI

Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich,
Pedagogika fanlari doktori, professor.
Rahmonqulova Anora Avazbek qizi,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishda kognitiv yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Kognitiv pedagogika o‘quvchilarning fikrlash, qabul qilish, xotira va tahlil qilish*

jarayonlarini faollashtirishga qaratilganligi bilan ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv yondashuv, raqamli ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, raqamli kompetensiya, tafakkur, ta’lim texnologiyalari.*

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu jarayon ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish imkoniyatini yaratmoqda.Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichda shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida ta’lim jarayonini o‘quvchilarning bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi kognitiv yondashuv muhim ahamiyatga ega. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur, idrok va tasavvur kabi bilish jarayonlari faol ishtirok etadi. Shuning uchun ta’limni tashkil etishda ushbu jarayonlarni hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhiti esa kognitiv jarayonlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Masalan, multimediali resurslar, interaktiv dasturlar, ta’limiy platformalar va virtual muhitlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli ta’limida kognitiv yondashuvdan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kognitiv yondashuv pedagogika va psixologiya fanlarida muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuv insonning bilish jarayonlari – idrok, xotira, diqqat, tafakkur va muammo yechish qobiliyatlarini o‘rganishga asoslanadi.

Kognitiv psixologiyaning asosiy g‘oyalariga ko‘ra, inson bilimni faqat tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni faol ravishda qayta ishlaydi, tahlil qiladi va yangi bilimlar bilan boyitadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Bizga ma’lumki, kognitiv yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: faol bilish jarayoni – o‘quvchi bilimni faol ravishda o‘zlashtiradi; axborotni qayta ishlash – bilim qabul qilinib, tahlil qilinadi va xotirada saqlanadi; muammoli fikrlash – o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi; mustaqil ta’lim – o‘quvchilar mustaqil ravishda axborot izlash va undan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Raqamli ta’lim muhiti mazkur tamoyillarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, elektron darsliklar, interaktiv testlar, virtual laboratoriyalar va ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan raqamli ta’lim jarayonini aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bular: ilmiy-nazariy tahlil – kognitiv pedagogika va raqamli ta’limga oid ilmiy manbalarni o‘rganish; qiyosiy tahlil – an’anaviy ta’lim va raqamli ta’lim usullarini solishtirish; pyedagogik kuzatuv –

boshlang‘ich sinflarda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini o‘rganish; modellashtirish – kognitivyondashuvasosidaraqamlita’limmodeliishlabchiqish.

Buning natijasida kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan raqamli ta’lim jarayoni quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: - tafakkur faolligining oshishi – bunda interaktiv platformalar va raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. O‘quvchilar axborotni faqat qabul qilibgina qolmay, uni tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rganadi; - muammoli fikrlashning rivojlanishi – bunda raqamli ta’lim muhitida qo‘llaniladigan ta’limiy o‘yinlar va interaktiv vazifalar o‘quvchilarning muammoli fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi; - axborot bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi - o‘quvchilar internet manbalari, elektron kitoblar va ta’lim platformalari orqali axborotni izlash, saralash va tahlil qilishni o‘rganadi; - mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining rivojlanishi – bunda raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini beradi.

Kognitiv yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchining bilish faoliyatiga asoslangan holda tashkil etishni talab qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi hisoblanadi.Raqamli texnologiyalar kognitiv jarayonlarni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Masalan, multimediali materiallar o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi, vizual va audio axborotni bir vaqtning o‘zida qabul qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham rivojlanadi. Shu bilan birga, raqamli ta’limdan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining raqamli ta’limida kognitiv yondashuvdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashda kognitiv yondashuv tamoyillaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov Sh. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. To‘xtayev N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
3. Abduqodirov A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
4. Yuldashev J., Usmonov S. Pedagogiktexnologiyaasoslari. – Toshkent, 2015.

TALABALARNI IJODIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHDA KREATIV METODLAR ASOSIDA JISMONIY FAOL HARAKAT MUHITINI TASHKIL ETISH

Matlibova Nilufar Xamid qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida talabalarni ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat innovatsion g‘oyalar, tezkor moslashuvchanlik va kreativ yondashuvni talab etmoqda. Shu sababli

ta’lim jarayonini faollashtirish, talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish muhim pedagogik masaladir.

Ijodiy faoliyatni shakllantirishda ta’lim muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jismoniy faol harakat muhiti talabalar ongini faollashtiradi, ularning motivatsiyasini oshiradi hamda bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harakat jarayoni miyada yangi neyron aloqalarni hosil qiladi, bu esa tafakkur samaradorligini oshiradi.

Nazariy asoslar. Pedagogik nazariyalarda faoliyatga asoslangan ta’lim konsepsiyasi keng yoritilgan. Faoliyat orqali o‘rganish tamoyiliga ko‘ra, bilim amaliy tajriba orqali mustahkamlanadi. Shuningdek, hamkorlikdagi o‘qitish, muammoli ta’lim va interaktiv metodlar talabalar faolligini ta’minlaydi.

Jismoniy faol harakat muhiti – bu talabalarning harakatini, o‘zaro muloqotini va ijodiy fikrlashini rag‘batlantiruvchi pedagogik makondir. Bunday muhitda auditoriya moslashuvchan joylashuvga ega bo‘ladi, guruhli ishlar uchun qulay sharoit yaratiladi, harakatli mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Kreativ metodlar va ularning ahamiyati. *1. Brainstorming (aqliy hujum) metodi.* Ushbu metod muammoga doir imkon qadar ko‘p g‘oya ishlab chiqishga qaratilgan. Talabalar erkin fikr bildiradi, tanqid vaqtincha cheklanadi. Bu jarayon ijodiy tafakkurni faollashtiradi. *2. Case-study metodi.* Real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar mustaqil qaror qabul qilish, tahliliy fikrlash va muammoga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. *3. Design thinking yondashuvi.* Empatiya, muammoni aniqlash, g‘oya yaratish, prototip ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish bosqichlaridan iborat bo‘lib, innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. *4. Geymifikatsiya.* O‘yin elementlarini dars jarayoniga joriy etish talabalar qiziqishini oshiradi, raqobat muhitini shakllantiradi va ijodiy faollikni kuchaytiradi. *5. Hamkorlikdagi o‘qitish.* Guruhli loyihalar, munozaralar va taqdimotlar talabalar o‘rtasida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Pedagogik mexanizmlar. *Motivatsion mexanizm* – talabalarni rag‘batlantirish, ularning ichki ehtiyojlarini faollashtirishga qaratiladi. *Tashkiliy mexanizm* – auditoriyani interaktiv shaklda tashkil etish, harakatli mashg‘ulotlar rejasini ishlab chiqish. *Psixologik mexanizm* – qulay psixologik muhit yaratish, qo‘llab-quvvatlash. *Innovatsion mexanizm* – zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish.

Tajriba natijalari va tahlil. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy harakat bilan uyg‘unlashgan kreativ metodlar talabalarning darsga qiziqishini oshiradi. Ular mustaqil fikr yuritadi, guruhli ishda faol qatnashadi hamda muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qiladi. Shuningdek, talabalar o‘rtasida muloqot madaniyati rivojlanadi, liderlik va tashabbuskorlik sifatlari shakllanadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, kreativ metodlar asosida tashkil etilgan jismoniy faol harakat muhiti talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bunday yondashuv zamonaviy ta’lim talablariga mos keladi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
2. Dewey J. Democracy and Education. Macmillan, 1916.
3. De Bono E. Lateral Thinking. Harper & Row, 1970.
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. Routledge, 1950.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM TA’LIMI VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Mustarova Dildora Eshmamatovna,
Denov TPI, Pedagogika va psixologiya kaferdasi mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv ekologik bilim, amaliy ko‘nikma va innovatsion fikrlashni rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.*

Tayanch so‘zlar: *ekologik kompetentlik, STEAM ta’limi, sun’iy intellekt, integrativ ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik innovatsiya.*

Kirish. Zamonaviy global rivojlanish sharoitida ekologik muammolarning ortib borishi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan ta’lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror rivojlanish g‘oyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish kelgusi avlodda ekologik ong va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni nazarda tutadi. Bu hujjatlar ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini belgilab beradi.

Ilmiy adabiyotlarda ekologik ta’lim, STEAM education hamda Artificial Intelligence texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish masalalari keng o‘rganilgan. Masalan, Abdul Gafoor tadqiqotlarida STEAM yondashuvi fanlararo integratsiya asosida o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantirishi ta’kidlangan. Shuningdek, Luckin tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quv faoliyatini samarali monitoring qilish imkonini berishi qayd etilgan.

Biroq boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasiga asoslangan pedagogik modellar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda STEAM yondashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv taklif etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan konseptual pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu model ekologik bilim, amaliy ko‘nikmalar va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda boshlang‘ich ta’lim tizimida ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik asos sifatida ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM education va Artificial Intelligence (AI) texnologiyalarini integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy-ilmiy asosini ekologik ta’lim konsepsiyasi, kompetentlikka asoslangan ta’lim modeli, fanlararo integratsiya tamoyillari hamda raqamli ta’lim muhiti nazariyasi tashkil etadi.

Tadqiqot dizayni kompleks pedagogik tadqiqot sifatida tashkil etildi va u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: nazariy tahlil bosqichi; konseptual pedagogik modelni ishlab chiqish bosqichi; tajriba-sinov bosqichi; natijalarni tahlil qilish va baholash bosqichi.

Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan integrativ STEAM-based learning model ishlab chiqildi. Ushbu model fanlararo ta’lim, amaliy ekologik faoliyat va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida pedagogik jarayonni tashkil etishni nazarda tutadi.

Tadqiqot algoritmi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: *Boshlash.*

1. Ekologik kompetentlikni rivojlantirishga oid nazariy manbalarni tahlil qilish.
2. STEAM asosidagi pedagogik modelni ishlab chiqish.
3. Sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.
4. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish.
5. O‘qituvchilarning ekologik kompetentligini diagnostika qilish.
6. Olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish.
7. Model samaradorligini baholash.

Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida pedagogik kuzatish, anketa, test, intervyu va tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy va statistik tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Natijalarni baholashda ekologik bilimlar darajasi, pedagogik kompetensiyalar va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta’minlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa tadqiqot natijalarining validligi va takrorlanuvchanligini ta’minlashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. STEAM ta’limi asosida ekologik kompetentlikni rivojlantirish natijalari. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish maqsadida STEAM education va sun’iy intellekt texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan pedagogik model ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba jarayonida o‘qituvchilarning ekologik bilimlari, ekologik madaniyati va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi diagnostika qilindi.

Olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish orqali baholandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalari integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari (ekologik kompetentlik darajasi)

Ko‘rsatkichlar	Tajriba boshida (%)	Tajriba oxiri (%)
Yuqori daraja	22	46
O‘rta daraja	48	40
Quyi daraja	30	14

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba jarayonidan so‘ng yuqori darajadagi ekologik kompetentlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgan.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik ta’siri. Tadqiqot davomida sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim vositalari ta’lim jarayoniga joriy etildi. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga ekologik mavzularni o‘qitishda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, o‘quv jarayonini tahlil qilish va ta’lim faoliyatini optimallashtirish imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faolligini oshirishga, ekologik ta’limni tashkil etishda zamonaviy metodlarni qo‘llashga va o‘quvchilarning ekologik bilimlarini samarali shakllantirishga xizmat qildi.

Natijalarning qiyosiy tahlili. Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, Abdul Gafoor tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda STEAM education fanlararo integratsiya asosida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishi ta’kidlangan. Shuningdek, Luckin tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari ham shu xulosalarni tasdiqlab, STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalari integratsiyasi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik mexanizm ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiyaga asoslangan STEAM yondashuvi va sun’iy intellektga asoslangan raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchilarning ekologik bilimlari, metodik ko‘nikmalari hamda innovatsion pedagogik faolligini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur yondashuv ekologik ta’lim mazmunini boyitish, o‘qitish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, STEAM ta’limi va sun’iy intellekt texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim tizimiga keng joriy etish ekologik kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son farmoni. Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5538-son farmoni, 05.09.2018 yil.

3. Dekart, R. Pravila dlya rukovodstva uma / R. Dekart // Soch.: v 2 t. / R. Dekart. – M., 1989. – T. 1. – S. 77–153.

4. Yakman, G. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education [Electronic resource] / G. Yakman // STEAM Education. – Mode of access: https://steamedu.com/ research/. – Date of access: 12.05.2019.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KASR VA ULUSHLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Musurmonova Maludaxon,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Karimova Malika Zokirovna,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kasr va ulush tushunchalarini o‘rgatishning samarali usullari, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishning ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Kasr, ulush, metodika, ko‘rgazmalilik, mantiqiy fikrlash, interaktiv usullar.*

Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standartlarida o‘quvchilarning mantiqiy va matematik tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Kasr va ulushlar mavzusi o‘quvchilarda butun predmetni teng qismlarga bo‘lish va shu qismlar ustida amallar bajarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu mavzuni o‘zlashtirish kelgusida yuqori sinflarda algebraik amallarni bajarishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (ayniqsa 3-4 sinflar) tabiatan narsalarni butun holicha ko‘rishga o‘rganganlar. Ularga sonning “bo‘lagi” tushunchasini tushuntirish psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi. An’anaviy usullardan voz kechib, innovatsion va vizual texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning asosiy talabidir.

Kasr tushunchasini shakllantirishda quyidagi bosqichma-bosqich metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq: *Hayotiy misollar bosqichi:* Darsni olma, non yoki doira shaklidagi qog‘ozni teng bo‘laklarga bo‘lishdan boshlash. Bunda o‘quvchi "teng bo‘lish" tushunchasini vizual idrok etadi. *Amaliy modellashtirish:* O‘quvchilarning o‘zlari qog‘ozdan turli shakllarni (kvadrat, doira) qirqib, ularni 1/2, 1/4 qismlarga ajratishi. *Abstraktlashtirish:* Vizual tasvirdan matematik simvollarga (kasr chizig‘i, surat va maxraj) o‘tish.

O‘quvchilar ko‘pincha 1/2 va 1/4 kasrlarini taqqoslashda adashadilar (maxraji kattasini katta deb o‘ylashadi). Buni bartaraf etish uchun "shokolad usuli"dan foydalanish tavsiya etiladi: “Shokoladni 2 kishi yegan ma’qulmi yoki 4 kishi?” savoli orqali ulush qancha ko‘p bo‘linsa, qism shuncha kichik bo‘lishi tushuntiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasr tushunchasini shakllantirish jarayoni faqatgina nazariy qoidalarni yodlashdan iborat bo‘lmasligi kerak. Taniqli metodist M.I. Moro ta’kidlaganidek, "Kasr tushunchasi o‘quvchi ongida uzoq davom etadigan kuzatishlar va amaliy harakatlar natijasida paydo bo‘ladi". Shu sababli, amaliyotda quyidagi bosqichli tizimdan foydalanish yuqori samara beradi:

1. Vizual-didaktik modellashtirish (L.Vilyams va J.Bruner yondashuvi). Xorijiy metodistlarning fikricha, bola mavhum sonni ko‘rishdan oldin uni "qo‘li bilan ushlab" ko‘rishi shart. Amaliyotda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi:

“Kasrlar devori” usuli: O‘quvchilarga rangli qog‘ozlardan yasalgan chiziqlar beriladi. Birinchi chiziq – butun (1). Ikkinchisi teng ikkiga bo‘lingan (1/2). Uchinchisi to‘rtga (1/4). Bola bu chiziqlarni ustma-ust qo‘yish orqali 1/2 qism 1/4 dan vizual jihatdan katta ekanligini darhol anglaydi.

Geometrik figuralar bilan ishlash: Doira, kvadrat va to‘rtburchaklarni teng qismlarga bo‘lish orqali “ulush” tushunchasi mustahkamlanadi. Bu usul o‘quvchida fazoviy tasavvurni rivojlantiradi.

2. Muammoli vaziyatlar yaratish. O‘zbekistonlik metodist olimlar (masalan, N.U.Bikbayeva) kasrni o‘rgatishda hayotiy muammolardan boshlashni tavsiya etadilar.

Amaliy topshiriq: “Sinfda 24 ta o‘quvchi bor. Ularning 1/4 qismi matematika to‘garagiga qatnashadi. Necha nafar o‘quvchi to‘garakka boradi?” Bu kabi masalalar o‘quvchiga kasr shunchaki “chiziqli son” emas, balki real miqdorning bir bo‘lagi ekanligini tushunishga yordam beradi.

3. Raqamli texnologiyalar va “Gamification”. Hozirgi zamon ta’limida “Phet Interactive Simulations” kabi platformalardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Amaliyotda o‘quvchilar planshet yoki interaktiv doskada virtual pitsani bo‘lish orqali kasrlarni taqqoslashni o‘rganadilar. Bu jarayonda xatolik qilishdan qo‘rqish hissi yo‘qoladi, chunki dastur darhol qayta aloqa (feedback) beradi.

4. “Kasrlar dominosi” va mantiqiy o‘yinlar. Darsning mustahkamlash qismida o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, “Kasrli domino” o‘yinini o‘tkazish mumkin. Bunda bir kartochkada kasrning sonli ko‘rinishi (3/4), ikkinchi kartochkada esa uning chizmadagi tasviri bo‘ladi. O‘quvchi ularni bir-biriga moslashtirishi kerak. Bu usul: Guruhda ishlash ko‘nikmasini; Tezkor fikrlashni; Simvolik belgi va tasvir o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Olib borilgan kuzatishlar va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kasrlar mavzusini o‘qitishda quyidagi ketma-ketlik eng maqbul yo‘ldir:

I bosqich: Konkret narsalar (mevalar, o‘yinchoqlar) ustida ishlash.

II bosqich: Grafik tasvirlar (chizmalar, sxemalar) bilan ishlash.

III bosqich: Mavhum sonlar (a/b ko‘rinishi) bilan ishlash.

Ko‘pgina o‘qituvchilarning xatosi – darhol III bosqichga o‘tib ketishidir. Bu esa o‘quvchida mavzuga nisbatan “tushunarsiz qo‘rqinch” uyg‘otadi. Agar o‘qituvchi vizual modellardan unumli foydalansa, o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 25-30% ga yuqori bo‘lishi ilmiy tajribalarda isbotlangan.

Bu bo‘limda nafaqat o‘qitish, balki o‘quvchilarning bilimini baholash va dars samaradorligini monitoring qilish masalalariga ham to‘xtalamiz.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida “Kasr va ulushlar” mavzusini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va pedagogik tahlillar quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Bosqichli o‘zlashtirish tamoyili. Tadqiqotchi-olim V.V.Davidovning ta’limiy nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, kasr tushunchasi o‘quvchida birdaniga shakllanmaydi. Amaliyotda bu jarayonni uchta asosiy bosqichga bo‘lish dars samaradorligini oshiradi: *Hissiy-idrok etish:* (3-sinf bosqichi) narsalarni bo‘laklash orqali ulush tushunchasini hosil qilish. *Sxematik-modellashtirish:* (4-sinf bosqichi) chizmalar va grafik modellar yordamida kasr sonlarini hosil qilish. *Logik-matematik:* Kasrlar ustida amallar bajarish va ularni taqqoslash.

2. Umumlashtirilgan pedagogik xulosalar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kasrlarni o‘zlashtirishdagi asosiy qiyinchiliklari ularning "natural sonlar" haqidagi tasavvurlari bilan to‘qnash kelishidir. Masalan, $8 > 2$ bo‘lgani uchun bola instinktiv ravishda $1/8 > 1/2$ deb o‘ylaydi. Buni bartaraf etish uchun darslarda "Teskari mutanosiblik vizualizatsiyasi" metodini qo‘llash zarur. Ya’ni, maxraj qancha katta bo‘lsa, ulush shuncha kichik bo‘lishini rangli doiralar (Pirog modeli) yordamida isbotlash lozim.

Integratsiyalashgan yondashuv: Kasrlar mavzusini faqat matematika darsi bilan cheklamay, Tasviriy san’at (shakllarni bo‘yash) va Mehnat (qog‘oz qirqish) darslari bilan bog‘lab o‘tish. Bu bolaning motorikasini va vizual xotirasini birlashtiradi.

Raqamli didaktikadan foydalanish: Dars davomida LearningApps yoki Kahoot kabi platformalarda kasrlarga oid qisqa testlar o‘tkazish. Bu o‘quvchida musobaqa ruhini uyg‘otadi va mavzuni zerikarli bo‘lishidan saqlaydi.

“Xato ustida ishlash” strategiyasi: O‘quvchilarga ataylab noto‘g‘ri yechilgan kasrli ifodalarni berish va ulardan xatoni topishni so‘rash. Bu metod o‘quvchining tanqidiy fikrlashini charxlaydi.

Individual yondashuv: Matematik qobiliyati pastroq o‘quvchilar uchun "Kasr kartochkalari" (bir tomonida son, ikkinchi tomonida rasmli tasvir) to‘plamini yaratish va ular bilan qo‘shimcha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Boshlang‘ich sinflarda kasr va ulushlarni o‘rgatishda faqat darslikdagi qoidalar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarning mustaqil amaliy ishlariga ko‘proq urg‘u berish lozim. AKT vositalari, interaktiv o‘yinlar va ko‘rgazmali modellar dars samaradorligini 30-40% ga oshiradi. Zero, o‘quvchi o‘z qo‘li bilan "bo‘laklagan" butun narsasini matematik ifodalashni tezroq o‘rganadi. boshlang‘ich sinflarda kasr va ulushlarni o‘rgatish metodikasi – bu shunchaki qoidalarni tushuntirish emas, balki bolada “miqdoriy tafakkur”ni shakllantirish san’atidir. Agar o‘qituvchi an’anaviy darslikni zamonaviy AKT va interaktiv modellar bilan boyitsa, o‘quvchi kasr sonini mavhum belgi sifatida emas, balki real hayotiy o‘lchov sifatida qabul qila boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida o‘rta va yuqori sinflarda matematika fanini o‘zlashtirish sifatini 40-50% ga yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent, 2016.
3. M.Musurmonova. Matematika o‘qitish metodikasi / O‘quv qo‘llanma. – Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 236 bet.
4. Bikbayeva N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish. – Toshkent, 2010.

TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Rajabboyeva Durdona Shavkat qizi,
Jiyamurodova Sevinch Shuhrat qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari hamda ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya, STEAM integratsiyasi va inklyuziv ta’limning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etishda pedagogning kasbiy kompetensiyasi va ta’lim boshqaruvidagi zamonaviy mexanizmlarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada innovatsion ta’lim modeli o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy*

qobiliyati hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan izohlangan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, STEAM, gamifikatsiya, loyiha metodi, inklyuziv ta’lim, pedagogik innovatsiya, ta’lim modernizatsiyasi, ta’lim boshqaruvi.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti bevosita ta’lim sifatiga, uning zamonaviy talablar bilan uyg‘unligiga va innovatsion yondashuvlarga asoslanganligiga bog‘liq. An’anaviy ta’lim modeli asosan bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, hozirgi davr ta’limi kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan hamda innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilishini talab etmoqda. Shu bois ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuv deganda ta’lim jarayoniga yangi metodlar, texnologiyalar, boshqaruv shakllari va pedagogik strategiyalarni tatbiq etish tushuniladi. Bunda asosiy maqsad — ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Innovatsion ta’lim modeli o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv bilim, ko‘nikma va malakalarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy model o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativ madaniyat, ijtimoiy faollik va mas’uliyat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bu esa shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish ham innovatsion rivojlanishning muhim yo‘nalishidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim mazmunini boyitadi, interaktiv muhit yaratadi hamda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Masofaviy ta’lim, onlayn platformalar, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari, virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli vositalar yordamida differensial ta’limni tashkil etish, ya’ni har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos topshiriqlar berish samarali natija beradi.

Innovatsion yondashuvlar orasida loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borish, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va yakuniy mahsulot yaratish jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi. Loyiha metodi orqali o‘quvchilar real muammolarni hal qilishni o‘rganadi, jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi hamda o‘z fikrini asoslab bera olish malakasini rivojlantiradi. Bu metod nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi. Shuningdek, ta’lim jarayonida gamifikatsiya elementlaridan foydalanish ham innovatsion yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda. O‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Reyting tizimi, rag‘batlantirish mexanizmlari, interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning faolligini kuchaytiradi. Gamifikatsiya ayniqsa maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Ta’limni rivojlantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi ham innovatsion model sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuv fanlararo integratsiyani ta’minlab, o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini birgalikda rivojlantiradi. STEAM modeli orqali o‘quvchilar ilmiy tajriba o‘tkazish, konstruktorlik,

dizayn va muhandislik ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa kelajak kasblariga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Innovatsion ta’limning muhim jihatlaridan biri — pedagogning professional kompetensiyasini rivojlantirishdir. O‘qituvchi innovatsion jarayonlarning tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida zamonaviy metodlarni egallashi, pedagogik refleksiya va tahlil ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Doimiy malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati va tajriba almashinuvi o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini oshiradi. Shuningdek, ta’lim boshqaruvida ham innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli boshqaruv tizimlari, monitoring va baholashning zamonaviy mexanizmlari ta’lim sifatini nazorat qilish imkonini beradi. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) modeli orqali o‘quv jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi va takomillashtiriladi.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish ham innovatsion islohotlarning muhim yo‘nalishidir. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlari, adaptiv texnologiyalar va individual yondashuv ta’lim tengligini ta’minlaydi. Inklyuziv muhitda ta’lim olish barcha o‘quvchilar uchun ijtimoiy empatiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni talab etadi. Kompetensiyaviy model, raqamli texnologiyalar, loyiha metodi, gamifikatsiya, STEAM integratsiyasi va inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion ta’lim tizimi esa jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Astanova Z.S., Muhammedova S.V. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalarining qo‘llanilishi // Iqro ilmiy jurnali. – 2025. – №4. – B. 66–72.

2. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – 5-nashr. – New York: Teachers College Press, 2015. – 352 b.

3. Nurmurodova M.T., Olimov T.H. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar // Tadqiqotlar jurnali. – 2025. – №2. – B. 45–52.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA GAMIFIKATSIYAGA ASOSLANGAN TA’LIMIY MUHITNI TASHKIL ETISH

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Yuldasheva Charos Xait qizi,
Erkinova Sarvinoz Hamid qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida gamifikatsiyaga asoslangan ta’limiy muhitni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Gamifikatsiya ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini integratsiya qilish orqali bolalarning motivatsiyasi, faol ishtiroki, ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalari rivojlanishini ta’minlaydi. Tezisda pedagogik, psixologik va material-texnik*

shart-sharoitlar, amaliy metodlar va samaradorlik mezonlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, bolalarning bilim, ko‘nikma va ijtimoiy muloqot salohiyatini oshirishda gamifikatsiya yondashuvining ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *gamifikatsiya, ta’limiy muhit, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiya, motivatsiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, interaktiv metod.*

Zamonaviy pedagogik jarayonda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limiy faoliyati motivatsiya, faol ishtirok va qiziqish bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan gamifikatsiya — o‘yin elementlarini pedagogik maqsadlarga yo‘naltirish orqali bolalarning bilim olishga qiziqishini oshirish, diqqatini jamlash, ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Gamifikatsiyaga asoslangan ta’lim jarayoni nafaqat qiziqarli va interaktiv bo‘lishi, balki bolalarning ***ijtimoiy muloqot, hamkorlik, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini*** rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

Gamifikatsiya elementlari pedagogik faoliyatga integratsiya qilinganda, bola o‘yin bosqichlarini topshiriq yoki missiya sifatida qabul qiladi. Shu jarayonda ball tizimi, badges, darajalar, leaderboards va topshiriqlar ketma-ketligi orqali faoliyatni tashkil etish mumkin. Ball tizimi bolaga o‘z yutuqlarini ko‘rish imkonini beradi, badges va darajalar rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ishlaydi, leaderboards esa ijtimoiy raqobat va motivatsiyani oshiradi. Topshiriqlar esa bolaning ***fikrlash tezligi, diqqat va ijodiy yondashuvini*** rivojlantiradi, o‘zini o‘zi baholash va refleksiya qilish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida gamifikatsiyaga asoslangan ta’limiy muhitni tashkil etish uchun pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligi muhim hisoblanadi. Pedagogik jihatdan topshiriqlar va o‘yin missiyalari bosqichma-bosqich berilishi, individual va jamoaviy faoliyat imkoniyati ta’minlanishi, bolaning har bir muvaffaqiyati rag‘batlantirilishi zarur. Psixologik jihatdan bola xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi va motivatsion muhitda faoliyat olib borishi kerak; u xato qilish va uni o‘rganish jarayoni sifatida qabul qilish imkoniga ega bo‘lishi muhimdir. Material - texnik jihatdan esa rangli vizual materiallar, interaktiv plakatlar, topshiriq kartalari va sensorli o‘yin materiallari bilan boyitilgan muhit talab qilinadi.

Gamifikatsiyaga asoslangan ta’limiy muhit bolalarda quyidagi jihatlarni rivojlantiradi: 1. *Motivatsiya va diqqatni oshirish* – o‘yin elementlari faoliyatni qiziqarli qiladi; 1. *O‘rganish samaradorligini oshirish* – topshiriqlar bosqichma-bosqich bajarilishi bilimni mustahkamlaydi; 3. *Ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish* – topshiriqlar va missiyalar orqali murakkab vazifalarni yechish; 4. *Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish* – jamoaviy topshiriqlar va leaderboards orqali hamkorlik va muloqot; 5. *O‘z-o‘zini baholash va refleksiya* – ball tizimi va badges orqali o‘z faoliyatini kuzatish va baholash.

Gamifikatsiya samaradorligi pedagogik kuzatuvlar, reflektiv daftarchalar va vizual monitoring vositalari yordamida baholanadi. Baholash mezonlari sifatida bolalarning topshiriqlarni bajarish darajasi, diqqat va qiziqish faolligi, ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari va emotsional farovonligi qo‘llaniladi. Shu bilan birga, gamifikatsiya nafaqat ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, balki bolalarning bilim, ko‘nikma va ijtimoiy muloqot salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida gamifikatsiyaga asoslangan ta’limiy muhitni yaratish – bolalarning *emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini* qo‘llab-quvvatlaydigan samarali pedagogik strategiya hisoblanadi. Bu yondashuv pedagoglarga

bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini interaktiv va motivatsion qilish imkonini beradi, shuningdek, bolalar uchun *bilim olish jarayonini qiziqarli va o‘zaro hamkorlikka yo‘naltirilgan muhit*ga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фазилат Миразиз қизи Эркинова. Формирование компонентов эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста на основе сказкотерапии. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025.

2. Abduxamidova, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025.

3. Потекхина, А.Д. Развитие эмоционалъного интеллекта у детей дошколъного возраста. “Актуальные исследования”. №17. – 2025.

BOLALARDA EMOTSIONAL-INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA BIBLIOTERAPIYA VA ERTAKTERAPIYANING IMKONIYATLARI

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Zokirova Xurshida Murodjon qizi,
Kamolova Shahzoda Qudratjon qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda emotsional-intellektni rivojlantirishda biblioterapiya va ertakterapiyaning psixologik-pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Emotsional-intellektning tarkibiy komponentlari, ularning maktabgacha yoshda shakllanishi, biblioterapiya va ertakterapiya yordamida ularni rivojlantirishning samarali metodlari keltiriladi. Maqolada shuningdek, terapevtik matnlar va ertaklar orqali bolalarning emotsional sezgirligi, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari batafsil yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional-intellekt, biblioterapiya, ertakterapiya, emotsional rivojlanish, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, maktabgacha yosh.*

Hozirgi pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning muvaffaqiyatli jamiyatga moslashuvi ko‘p jihatdan uning emotsional-intellektiga bog‘liq. Emotsional-intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning kechinmalarini tushunish qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional-intellekt poydevori shakllanadi. Shu davrda bolaning his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va ijtimoiy muhitga moslashuv ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bois, pedagogik jarayonda badiiy matnlar, ertaklar va terapevtik hikoyalar asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Biblioterapiya va ertakterapiya – bolaning emotsional-intellektini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida e’tirof etiladi. Ular bolaga his-tuyg‘ularni anglash, boshqalarning holatiga hamdardlik ko‘rsatish va ijtimoiy vaziyatlarni muvaffaqiyatli boshqarish imkoniyatini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda emotsional-intellekt quyidagi asosiy komponentlardan iborat deb qaraladi: 1. *Emotsiyalarni anglash va nomlash* – bola o‘z his-tuyg‘ularini aniqlay olishi, ularni atay olishi va qahramonlar his-tuyg‘ulari bilan solishtirishi. 2.

Emotsiyalarni boshqarish – qiyin vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish, stress va qo‘rquvni kamaytirish. 3. *Empatiya* – boshqalarning kechinmalarini tushunish va unga nisbatan sezgir bo‘lish. 4. *Ijtimoiy ko‘nikmalar va muloqot* – boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lish, hamkorlik qilish va konfliktlarni hal qilish.

Maktabgacha yoshda bu komponentlar o‘yin, hikoya va tasviriy faoliyat orqali shakllanadi. Biblioterapiya va ertakterapiya aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

Biblioterapiya matnlari bolaga turli emotsiyalarni tanib olish imkonini beradi. Masalan, ertak qahramonlarining quvonchi, g‘azabi, xavotiri va xafaligi orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini identifikatsiya qiladi. Shu jarayon orqali bola his-tuyg‘ularini so‘z bilan ifodalashni o‘rganadi, bu esa EQ poydevorini mustahkamlaydi.

Biblioterapiya mashg‘ulotlarida muammoli vaziyatlar tasvirlanadi va qahramonlar tomonidan ularni hal qilish yo‘llari ko‘rsatiladi. Bola bu tajribani kuzatib, o‘z emotsiyalarini nazorat qilish va stressni kamaytirish strategiyalarini o‘rganadi.

Badiiy matnlarda qahramonlarning holatini tushunish va ular bilan hamdardlik qilish bola uchun empatiya mashqlari hisoblanadi. Bu, bolaga boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va ijtimoiy muloqotda sezgir bo‘lish imkonini beradi.

Biblioterapiya mashg‘ulotlari davomida bolalar matn mazmuni bo‘yicha suhbatlar, rolli o‘yinlar va muhokamalar o‘tkazadi. Natijada, ular o‘z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash va ijtimoiy vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ertakterapiya bolaning ichki dunyosiga ramziy va obrazli ta’sir ko‘rsatadi. Ertak qahramonlari bilan identifikatsiya jarayoni bolaga his-tuyg‘ularini xavfsiz tarzda ifodalash imkonini beradi.

Ertak orqali bola o‘z qo‘rquv, xavotir, g‘azab va boshqa ichki ziddiyatlarini tashqi maydonga chiqaradi. Bu psixologik bo‘shanishni ta’minlaydi va emotsional barqarorlikni oshiradi.

Ertaklarda tasvirlangan ijobiy xulq-atvor namunalarini kuzatish orqali bola ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Ertakterapiya mashg‘ulotlarida rolli o‘yinlar va syujet asosida faoliyatlar bola muloqotini faollashtiradi, bu esa ijtimoiy moslashuv va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Biblioterapiya va ertakterapiya integratsiyasi. Biblioterapiya va ertakterapiya integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda bolalarda emotsional-intellektning barcha tarkibiy komponentlari kompleks ravishda rivojlanadi. Mashg‘ulotlarda quyidagi faoliyat turlari birlashtiriladi: Ertak o‘qish va muhokama; Rolli o‘yinlar va dramatizatsiya; Rasm chizish va tasviriy faoliyat; Refleksiya va o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash mashqlari.

Bu integratsiyalashgan yondashuv bolalarning emotsional sezgirligi, empatiya, ijtimoiy moslashuv va stressni boshqarish ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Biblioterapiya va ertakterapiya maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional-intellektni rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Ular bolaga o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va empatiya ko‘rsatish, ijtimoiy vaziyatlarda muloqot va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, biblioterapiya va ertakterapiya maktabgacha ta’lim tizimida tizimli joriy etilishi bolalarning emotsional farovonligi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A Literature Review on Bibliotherapy Interventions for … (Piet A.J.) – 2025. – Baylor University Institutional Repository.

2. Abdul Aziz, R., Wan Satirah W.M., Norshila S., Salleh M.R. Bibliotherapy Features in Children’s Literature: A Systematic Literature Review. Journal of Information and Knowledge Management. – 2025. – Vol. 15(1). – Pp. 1–20.

3. Kahveci, G. Interdisciplinary Bibliotherapy Programs Structured for Cognitive and Emotional Development. Journal of Education and Learning (EduLearn). – 2025. – Vol. 19(3). – Pp. 1375–1382.

4. Eftimova, S. E., Genova, T. A Study Among Bulgarian Teachers on Use of Therapeutic Reading in Preschool. — 2024 (conference report).

O‘YIN ORGALI BOLALARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti.
Islomova Shaxlo A’zam qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya*. Ushbu maqolada bolalarda kreativlikni o‘yin faoliyati orqali shakllantirish masalalari yoritilgan. O‘yin bolalarning tabiiy ehtiyoji bo‘lib, u orqali ularning tasavvuri, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Tadqiqotda o‘yinning bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati, turlari hamda ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash usullari ko‘rib chiqilgan. O‘yinlar orqali bolalarning nutqi, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligi oshishi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar*: kreativlik, o‘yin faoliyati, maktabgacha ta’lim, ijodiy fikrlash, tasavvur, bola rivoji, pedagogik o‘yinlar.*

Bugungi kunda jamiyatga ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, yangicha qarorlar qabul qila oladigan, intellektual jihatdan faol insonlar zarur. Bunday sifatlarni bolalarda maktabgacha yoshdayoq o‘yin faoliyati orqali shakllantirish mumkin. O‘yin bolalik davrida asosiy faoliyat turi bo‘lib, bolaning shaxs sifatida rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Katta maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiy va ijodiy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zarur. Chunki bu davrda bola hayoti fantaziya va ijod bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Agar ushbu yosh bosqichida bola yetarli darajada ijodiy rivojlanmasa, kelajakda uning qobiliyatlari to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin.

Erta yoshdan boshlab bolalarda muayyan faoliyat turlariga moyillik, ya’ni qobiliyatlar namoyon bo‘la boshlaydi. Psixologiya va pedagogika fanlarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi dolzarb hisoblanadi. Ko‘plab olimlar ushbu masalaga alohida e’tibor qaratganlar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Shu sababli avvalo “qobiliyat” tushunchasini tushunib olish muhimdir. Olimlar bu tushunchaga turlicha ta’rif berishadi.

Masalan, B.M.Teplov qobiliyatni insonni boshqalardan ajratib turuvchi va faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beruvchi individual xususiyatlar deb hisoblaydi [3; 77-b.]. K.S.Platonov esa qobiliyatni shaxs tuzilmasining bir qismi bo‘lib, faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladigan sifat sifatida izohlaydi. S.L.Rubinshteynning

fikricha, qobiliyatlar maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. N.S.Leytes qobiliyatlarni faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishiga ta’sir qiluvchi shaxsiy xususiyatlar deb ta’riflaydi [2; 34-b.].

B.G.Ananyev qobiliyatlar bilimlarni shunchaki to‘plash emas, balki ularni ijodiy qo‘llay olish, mustaqillik va ongli yondashuv bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [1; 43-b.]. Umuman olganda, qobiliyatlar tug‘ma emas, balki faoliyat jarayonida rivojlanadigan individual sifatlar bo‘lib, ular muayyan faoliyatni yuqori darajada egallash imkonini beradi.

Hozirgi paytda olimlar qobiliyatlarning ikki darajasini ajratadilar: *Reproduktiv daraja* — bilimlarni tez o‘zlashtirish va namunaga asoslanib faoliyatni bajarish; *Ijodiy daraja* — mustaqil faoliyat orqali yangi va original g‘oyalar yaratish qobiliyati.

O‘yin bolalar hayotida yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Aynan o‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, o‘z tajribasini boyitadi va ichki imkoniyatlarini namoyon etadi. O‘yin davomida bola erkin harakat qiladi, xatolardan qo‘rqmaydi va o‘z fantaziyasini ishga soladi. Bu esa kreativlikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda rolli o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Masalan, “do‘kon”, “shifokor”, “oila” kabi rolli o‘yinlar bolalarning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi, muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda tasavvurini boyitadi. Bunday o‘yinlar orqali bolalar turli vaziyatlarni tasavvur qiladi va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Didaktik o‘yinlar ham bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi [4; 24-b.]. Ushbu o‘yinlar orqali bolalarning diqqat, xotira va tafakkuri rivojlanadi. Masalan, ranglarni ajratish, shakllarni topish, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashga qaratilgan o‘yinlar bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Shuningdek, ijodiy o‘yinlar – rasm chizish, qurish-yasash, musiqali va harakatli o‘yinlar bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday o‘yinlarda bolalar o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalaydi, yangi g‘oyalar yaratadi va estetik didini rivojlantiradi. Ayniqsa, erkin mavzuda rasm chizish yoki konstruktorlar bilan ishlash bolaning fantaziyasini kengaytiradi.

Pedagogning o‘yin jarayonidagi roli ham muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolalar uchun qulay muhit yaratishi, ularni rag‘batlantirishi va erkin fikrlashga undashi lozim. O‘yinda bolalarga tayyor yechimlarni bermasdan, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirish kreativlikni yanada rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin bolalarda kreativlikni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. O‘yin jarayonida bolalar erkin fikrlaydi, yangi g‘oyalar yaratadi va o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida turli didaktik va ijodiy o‘yinlardan foydalanish bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun pedagoglar o‘yin texnologiyalaridan muntazam va maqsadli foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вигоцкий Л.С. Воображение и творчество в децком возрасте. – Москва: Педагогика, 1991.

2. Элконин Д.Б. Психология игри. – Москва: Педагогика, 1989.

3. Davletshin M.G. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

4. Raximov A., Qodirova F. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INTERAKTIV METODLAR: TA’LIM SIFATI VA KLASTERLI YONDASHUV

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti.
To‘xtanazarova Zarina Zokir qizi,
Chirchiq DPU “Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan hamda pedagog kadrlar malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, xususan, ta’lim klasteri doirasida pedagogik mahoratni shakllantirish masalalarini tahlil qilingan. Maqolada bolaning jismoniy va ma’naviy kamoloti jarayonida yetakchi faoliyat turi hisoblangan o‘yin faoliyati orqali interaktivlikni ta’minlash yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, interaktiv metodlar, ta’lim klasteri, pedagogik mahorat, o‘yin faoliyati, ta’lim sifati, klasterli yondashuvi, tarbiyalanuvchi, metodik kompetensiya.*

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi islohotlari doirasida maktabgacha ta’lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Maktabgacha ta’lim – uzluksiz ta’limning birlamchi va eng muhim bo‘g‘ini hisoblanib, u bolaning shaxs sifatida shakllanishida poydevor vazifasini o‘taydi. Shu bois, tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning zamonaviy metodik tayyorgarligi va ularning interaktiv texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim bosqichida bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun moslashuvchan pedagogik tizim yaratish lozim. Ushbu jarayonda klasterli yondashuv tarbiyalanuvchining har tomonlama kamol topishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Klasterli yondashuvning asosiy mazmuni — tarbiyalanuvchi atrofida turli ijtimoiy subyektlar (bog‘cha, oila, psixologlar, to‘garak rahbarlari) munosabatini uyg‘unlashtirishdir. Bunda bolaning bog‘chada olgan nazariy tushunchalari va ilk ko‘nikmalari turli hayotiy vaziyatlarda (oila davrasida, o‘yin maydonchalarida, ijodiy markazlarda) amaliyotga tatbiq etiladi.

Klaster yondashuvi ishtirokchilari (tarbiyachi, ota-ona, mutaxassislar) bolani maktab ta’limiga tayyorlashning ko‘p siklli tizimini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi:

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti: Bolaning intellektual darajasini oshirish, unda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda ilmiy-metodik rahbarlik qiladi.
2. Oila va Mahalla: Bolaning ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi va bog‘chadagi ta’limiy jarayonni oilaviy muhitda mustahkamlaydi.
3. Sport va San’at markazlari: Bolaning jismoniy va estetik ehtiyojlaridan kelib chiqib, klaster doirasida uning iqtidorini yuzaga chiqarishda faol ishtirok etadi.
4. Maktablar. Klaster zanjirining yakuniy nuqtasi sifatida, tarbiyalanuvchining maktab ta’limiga ruhiy va pedagogik jihatdan tayyorligini baholab boradi.

Tarbiyachining metodik mahorati va muammolar. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tarbiyachisi an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, pedagogik jarayonni maqsadli va tizimli ravishda interaktiv usullar asosida tashkil etishi lozim. [2; 23-b.] Biroq,

amaliyotda ayrim muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Ko‘plab pedagoglar metodik qo‘llanmalardan foydalanishda interaktiv metodlarning asl mohiyatini anglamasdan, ularni shunchaki shakliy ravishda qo‘llashadi. Bu esa kutilgan didaktik natijani bermaydi.

T.V.Sikan fikricha, “klaster-ma’lum bir ilmiy muassasa (ilmiy-tadqiqot institutlari) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tegishli tarmoqlar doirasidagi iqtisodiy faoliyatning mintaqaviy cheklangan shakllaridir” [5; 68-b.]

Rus olimlari M.Tereshin va V.M.Volodin tomonidan “Klaster” tushunchasiga tarmoq yondashuvi nuqtai nazaridan qaraladi. Klaster-bu tarmoq guruhi asosan mustaqil, geografik jihatdan qo‘shni, asosan rasmiy bo‘lmagan o‘zaro bog‘liq munosabatlar tizimi” - deb ta’riflanadi [4; 63-b.] Ularning mulohazalari asosida “klaster” tushunchasi umumiy xususiyatga ega bo‘lib, geografik jihatdan birlashgan hamda o‘zaro yaqin joylashgan tashkilot va ijtimoiy institutlar yaqinligidir deyish mumkin, yagona maqsadga erishishda kuchli yetakchiga ega bo‘lgan keng doiradagi ishtirokchilar jamoasi deyish mumkin.

Klaster yondashuvi kolloborativ hamkorlik doirasida ta’lim mazmuni va sifatini oshirish, tarbiyalanuvchilarda aqliy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish bilan integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan. Klasterli yondashuv va o‘quv muhiti. Muammoning yechimi sifatida ta’lim klasteri doirasida malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishni ko‘rsatish mumkin. Klaster yondashuvi nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlaydi. [3; 21-b.] Agar tarbiyachi malaka oshirish jarayonida o‘zi interaktiv o‘quv muhitining bevosita ishtirokchisiga aylansa, u ushbu metodlarni o‘z ish faoliyatiga (bog‘chaga) moslashtirishi ancha osonlashadi.

Bolaning rivojlanishida faoliyat turlari. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida faoliyatning yetakchi roli mavjud. Bolaning faoliyati quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Munosabatda bo‘lish faoliyati – ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. 2. Bilish va buyumlar bilan ishlash – intellektual salohiyatni oshiradi. 3. O‘yin faoliyati – ushbu yosh davridagi eng asosiy (yetakchi) faoliyat turi.

O‘yin davomida bola tarbiyachi rahbarligida nafaqat narsa va buyumlar haqida bilim oladi, balki fazoviy vaqt munosabatlari, mantiqiy bog‘liqlik (o‘xshashlik, tenglik) kabi murakkab tushunchalarni ham o‘zlashtiradi. Interaktivlik bolani ta’limning shunchaki obyektidan (passiv tinglovchi), jarayonning subyektiga (faol ishtirokchi) aylantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interaktiv metodlarni qo‘llash — bu shunchaki o‘yin emas, balki bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini jadallashtiruvchi strategik vositadir. Sifatli natijaga erishish uchun pedagoglarning ushbu metodlar bo‘yicha metodik kompetensiyasini muntazam rivojlantirib borish, ta’lim klasterlari orqali tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: TDPU, 2018. – 160 b.

3. G‘ulomov A.R. Maktabgacha ta’limda klaster yondashuvi: nazariya va amaliyot // “Pedagogika” ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent, 2022. – №3. – 45-50-betlar.

4. Терешин Е. М., Володин В.М. Современная дефиниция понятия «кластер» и подходы к формализации этого явления // Экономические науки. 2010. № 2 (63)

5. Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития Текст. /Т.В.Цикан/ Теория и практика управления. 2003. № 5

РЕАЛИЗАЦИЯ КОММУНИКАТИВНО-КОГНИТИВНОЙ ПАРАДИГМЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОДИДАКТИКЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ

Наримбаева Лола Кузибаевна,
Доцент кафедры «Метододика дошкольного и начального образования» ЧГПУ.
Хасанова Наримхол Равшановна,
Студентка 2 курса, ЧГПУ.

Аннотация. *В статье исследуется конвергенция коммуникативного и когнитивного подходов как доминирующей стратегии в обучении иностранным языкам. Автор обосновывает корреляцию между процессами интериоризации языковых структур и экстериоризации речевых интенций. В работу введено понятие метакогнитивной саморегуляции как фактора успешности обучения. Выделены педагогические условия, обеспечивающие переход от репродуктивного усвоения знаний к креативному иноязычному мышлению.*

Ключевые слова: *коммуникативно-когнитивный подход, лингводидактика, когнитивная визуализация, метакогнитивные стратегии, иноязычная компетенция.*

Современная теория обучения иностранным языкам эволюционирует в сторону синтеза лингвистических и ментальных процессов. В условиях высокой неопределенности и информационного шума традиционных коммуникативных методик недостаточно. Необходим переход к коммуникативно-когнитивному подходу, который рассматривает язык не просто как средство обмена информацией, а как сложную когнитивную систему формирования смыслов.

1. Теоретический базис: Синергия когниции и коммуникации. Суть ККП заключается в том, что обучение речевой деятельности невозможно в отрыве от процессов переработки информации человеческим мозгом.

✓ Коммуникативный аспект обеспечивает прагматику — умение эффективно достигать целей общения в различных социальных контекстах.

✓ Когнитивный аспект отвечает за формирование индивидуальной «языковой картины мира», упорядочивание теоретических знаний и структурирование ментального лексикона обучающегося.

Объединение этих аспектов позволяет преодолеть механическое заучивание фраз-клише, развивая способность к адаптивному речевому поведению, где каждое высказывание является результатом глубокой мыслительной операции.

2. Функциональная структура компетенций. В рамках данного подхода иноязычная коммуникативная компетенция рассматривается как многомерная система, где каждый элемент имеет свою когнитивную опору. Лингвистическая компетенция перестает быть простым набором правил; она трансформируется в процесс установления устойчивых нейронных связей между понятием и знаком. Стратегический компонент активирует механизмы компенсаторного мышления, позволяя обучающемуся находить альтернативные способы выражения мысли (перифраз, аналогия) при дефиците лексических средств. В свою очередь, дискурсивная компетенция опирается на способность к логическому моделированию текстовых структур, а социокультурная — на декодирование

культурных концептов и формирование интеркультурного сознания, что позволяет адекватно интерпретировать поведение носителей языка.

3. Метакогнитивное моделирование. В данной работе предлагается расширить классический ККП за счет внедрения метакогнитивного компонента.

Инновационный аспект: Процесс обучения должен включать стадию рефлексивного анализа собственных познавательных стратегий. Это означает, что обучающийся не просто усваивает материал, но и осознает алгоритмы собственного познания: как он группирует информацию, какие ассоциативные цепочки строит и каким образом контролирует корректность своей речи.

Для реализации этого «вношества» используются следующие методы:

1. Интеллектуальное картирование: Визуализация иерархических связей между лексемами для формирования системного мышления.

2. Фреймовое обучение: Использование когнитивных сценариев (типовых ситуаций), которые помогают мозгу быстрее извлекать нужные языковые модели в момент речи.

3. Стратегия рефлексивного самоуправления: Перенос фокуса с контроля преподавателя на самокоррекцию и самопланирование учебной траектории.

Реализация коммуникативно-когнитивного подхода позволяет трансформировать обучение из пассивного накопления знаний в процесс активного развития когнитивной сферы личности. Внедрение метакогнитивных стратегий обеспечивает гибкость мышления и готовность к коммуникации в сложных профессиональных ситуациях, что является ключевым требованием к современному специалисту.

Использованной литературы:

1. Волкова Е.А. Категория «содержание обучения» в системе преподавания... // Молодой ученый. 2014. № 8 (67).

2. Мильруд Р.П., Максимова И.Р. Современные концептуальные принципы коммуникативного обучения.// Иностр. яз. в школе. 2000. № 4.

3. Хомская Н.Н. Когнитивная лингвистика и стратегии речевого воздействия. — М.: Наука, 2024.

4. Иванов Д.С. Метакогнитивные стратегии в автономном обучении языкам // Вестник образования. 2025. № 2.

ТАТБИҚИ РАВИШИ КОМПЕТЕНТСИОНӢ ДАР ТАЪЛИМИ СИНФҲОИ ИБТИДОӢ

Очилов Фариддун Изатуллоевич,
ДДП Чирчиқ, муаллими калони кафедраи «Методикаи таълими томактабӣ ва ибтидоӣ», д.ф.ф.п. (PhD).
Нормуродова Фарзона Далеровна,
Саломова Меҳрангиз Садриддиновна,
Бобораўфов Ифтихор Баҳодир ўғли,
ДДП Чирчиқ, донишҷӯёни курси 4-уми шӯъбаи Таълими ибтидоӣ.

Аннотатсия. *Дар мақолаи мазкур масъалаҳои марбут ба татбиқи равиши компетентсионӣ дар таълими синфҳои ибтидоӣ мавриди таҳлил қарор гирифтааст. Муаллиф аҳамияти ташаккули салоҳиятҳои калидӣ дар хонандагони синфҳои ибтидоиро баррасӣ намуда, роҳу усулҳои самараноки истифодаи*

технологияи муосири таълимиро пешниҳод менамояд. Натиҷаҳо нишон медиҳанд, ки истифодаи равиши компетентсионӣ ба рушди фикрронии мустақилона, малакаҳои коммуникативӣ ва қобилияти ҳалли масъалаҳои амалӣ мусоидат менамояд.

Калимаҳои калидӣ: *равиши компетентсионӣ, салоҳият, таълими ибтидоӣ, фаъолияти таълимӣ, технологияи педагогӣ, рушди шахсият.*

Имрӯз, азбаски ҷумҳурии мо дар роҳи бунёди давлати демократии ҳуқуқбунёд ва ҷомеаи шаҳрвандии адолатпарвар устуворона қадам мегузорад, низоми омодасозии кадрҳо кулан ислоҳ карда шуд; дар сиёсати иҷтимоии давлат манфиати шахс ва авлавияти маориф қарор гирифт. Зарурати ташкили раванди таълиму тарбия дар асоси равишҳои муосир, аз ҷумла равиши компетентсионӣ, ба яке аз шартҳои рушди низоми омодасозии кадрҳо табдил ёфт. Бинобар ин, барои амалӣ намудани вазифаҳои дар ин низом ва барнома муайяншуда, ниёз ба педагогикаи эҷодӣ ва омӯзгори фаъолу эҷодкор башиддат меафзояд. Шояд бинои зебое сохта шавад, синфхонаҳо бо таҷҳизоти замонавӣ оро дода шаванд, китобҳои дарсии нав нашр гарданд ва дарсҳо бо истифода аз технологияҳои гуногуни педагогӣ ва ТИК (технологияҳои иттилоотию коммуникатсионӣ) гузаронида шаванд, аммо ҳамаи ин ҳанӯз кофӣ нест. Танҳо вақте ки ба синфхона педагоги ҳақиқӣ — омӯзгор ҳамчун шахсият ворид мешавад, онҳо ҷон мегиранд, машъали педагогикаи эҷодӣ фурӯзон мегардад, назария ва низомҳои педагогӣ, васоити аёнӣ, методҳо ва воситаҳо ба ҳаракат меоянд ва тафаккури эҷодии хонандагон низ рушд мекунад. Барои ин, албатта, муносибати ҳамаҷонибаи эҷодӣ ва компетентсии омӯзгор ба раванди дарс нақши муҳим мебозад.

Фаъолияти педагогии эҷодӣ — ин раванди ҳалли масъалаҳои бешуморест, ки ба шаклгирии шахсияти инсон, ҷаҳонбинӣ, эътиқод, шуур ва рафтори ӯ нигаронида шудааст. Компетентсия — зуҳури дониш, маҳорат, малака, дидгоҳҳо, арзишҳои фард ва сифатҳои шахсӣ ё қобилияти таъсиррасонӣ мебошад.

Фаъолият бо равиши компетентсионӣ — равандест, ки ба ташаккули салоҳияти хонандагон барои татбиқи амалии дониш, маҳорат ва малакаҳои андӯхташуда дар фаъолияти шахсӣ, касбӣ ва иҷтимоии онҳо нигаронида шудааст. Ин фаъолият дар хонандагон мустақилият, доштани мавқеи фаъоли шаҳрвандӣ, ташаббускорӣ, истифодаи оқилонаи захираҳои медиавӣ ва технологияҳои иттилоотию коммуникатсионӣ дар фаъолияти худ, интихоби бошууронаи касб, рақобати солим, инчунин малакаҳои умумифарҳангӣ ва компетентнокиро ташаккул медиҳад.

Зинаи ибтидоии таҳсилот пояи асосии рушди минбаъдаи шахсият мебошад. Маҳз дар ҳамин марҳила малакаҳои аввалини хондан, навиштан, ҳисоб кардан, муошират намудан ва ҳамкорӣ кардан ташаккул меёбанд.

1. Асосҳои назариявии равиши компетентсионӣ. Компетентнокӣ (аз лотинии competens — лоиқ, қобил) — ҳамчун сатҳи воқеии мувофиқат, қобилияти ҳалли мушкилот ва иҷрои вазифаҳои марбут ба шахс, ки бар дониш, малака ва таҷрибаи иҷтимоию касбии ӯ асос ёфтааст, фаҳмида мешавад. Ба таркиби компетентнокӣ, ба ғайр аз дониш ва малакаҳои хоси касбӣ, инчунин сифатҳое чун мустақилият, ташаббускорӣ, ҳамкорӣ, қобилияти кор дар гурӯҳ, маҳорати муошират (коммуникативӣ), арзёбии воқеии вазъият, тафаккури мантиқӣ, интихоби иттилоот ва истифодаи оқилона аз он дохил мешаванд. Яъне, равиши компетентсионӣ дониш ва малакаҳоро рад накарда, ба рушди қобилияти истифодаи амалии онҳо

таваҷҷуҳи зиёд зоҳир мекунад. Компетенсия на танҳо донистан, балки тавонистан ва истифода бурдани дониш дар ҳолатҳои воқеӣ мебошад. Равиши компетентсионӣ ба он равона шудааст, ки хонанда донишро дар амал истифода бурда тавонад, мустақилона қарор қабул кунад ва дар ҳолатҳои нав роҳи ҳалли масъалаҳоро пайдо намояд.

2. Аҳамияти татбиқи равиши компетентсионӣ дар синфҳои ибтидоӣ. Хонандагони синфҳои ибтидоӣ дорои кунҷковӣ ва шавқи баланд ба омӯзиш мебошанд. Бо истифода аз методҳои фаъол, бозиҳои таълимӣ ва лоиҳаҳои хурд метавон рушди ҳамаҷонибаи онҳоро таъмин намуд. Салоҳиятҳои калидӣ аз ҷумла салоҳияти коммуникативӣ, иҷтимоӣ, иттилоотӣ ва омӯзиши мустақилона бояд дар ҳамин зина ташаккул ёбанд.

3. Роҳу усулҳои татбиқ. Методҳои самаранок иборатанд аз: кори гурӯҳӣ, муҳокима, лоиҳаҳо, вазъиятҳои проблемавӣ ва технологияҳои интерактивӣ. Баҳодиҳӣ бояд рушди инфиродиро ба назар гирифта, на танҳо дониш, балки малака ва муносибатро арзёбӣ намояд.

4. Нақши омӯзгор. Омӯзгор дар равиши компетентсионӣ роҳнамо ва ташкилкунандаи фаъолияти таълимӣ мебошад. Ӯ бояд муҳити мусоиди таълимиро фароҳам оварда, фаъолияти мустақилонаи хонандагонро дастгирӣ намояд.

Инсон барои ворид шудан ба муносибатҳои шахсӣ, иҷтимоӣ, иқтисодӣ ва касбӣ дар ҳаёти худ, ишғоли ҷойгоҳи худ дар ҷомеа, ҳалли мушкилоти рӯбарӯшуда ва муҳимтар аз ҳама, барои рақобатпазир будан дар соҳа ва касби худ, бояд дорои компетентсияҳои калидӣ (асосӣ) бошад. Ба компетентсияҳои калидӣ инҳо дохил мешаванд: компетентсияи коммуникативӣ, кор бо иттилоот, худшиносӣ ва рушди шахсият, шаҳрвандии фаъоли иҷтимоӣ, компетентсияҳои умумифарҳангӣ ва ғайра.

Ташкили раванди таълиму тарбия дар асоси равиши компетентсионӣ аз омӯзгор ва хонанда фаъолияти эҷодкоронаро талаб мекунад. Фаъолияти омӯзгори муосир набояд танҳо ҳамчун шахси интиқолдиҳандаи дониш, балки аз нуқтаи назари омӯзгори эҷодкор арзёбӣ шавад. Нишондиҳандаи асосии касбию меъёрӣ барои омӯзгор ва хонандаи эҷодкор — ин пеш аз ҳама эҳсос ва дарки ҷойгоҳи худ дар раванди педагогӣ ҳамчун созанда ва офаранда мебошад. То он даме, ки омӯзгор ва хонанда ҷойгоҳи худро дар воқеият арзёбӣ карда натавонанд, аз онҳо ҳеҷ гоҳ эҷодкориро талаб кардан мумкин нест. Ҳар як шахсе, ки ба фаъолияти педагогӣ ворид мешавад, бояд мутобиқшавии худ ва инчунин лаёқату таваҷҷуҳи худро ба низоми касбҳои «инсон-инсон» (меҳнати педагогӣ) комилан тасаввур кунад. Муҳимтар аз ҳама, ӯ бояд моҳият, аҳамият ва мақсади раванди дарсро дарк намуда, тавонад вазифаҳои таълимиро ҳамеша бо дурнамои онҳо пеш барад. Агар омӯзгор ин қобилиятро надошта бошад, ӯ метавонад иҷрокунандаи хуб бошад, аммо ҳеҷ гоҳ ба зинаи эҷодкорӣ намебарояд. Ӯ наметавонад хонандагонро низ ба иштирокчии фаъоли раванди таълим табдил диҳад ва масъулияти онҳоро дар омӯзиш зиёд кунад.

Равиши компетентсионӣ ҳамеша аз муайян кардани мақсади дақиқи таълим сар карда, то марҳилаи арзёбии натиҷаҳои он, барои ҳар як қадам ва ҳатто барои ҳаракатҳои мимикӣ фаъолияти эҷодиро талаб мекунад. Хуллас, равиши компетентсионӣ дар раванди дарс бояд ҳамчун як мафҳуми хоси нав ҷойгоҳи худро пайдо кунад. Он самаранокӣ, илмият ва ба сатҳи нави сифат бардошта шудани раванди таълимро муайян менамояд. Ба ибораи дигар, компетентнокӣ нишондиҳандаест, ки дараҷаи муҷаҳҳазгардонии эҷодии педагогро муайян мекунад.

Сатҳи асос ёфтани раванди дарс ба равиши компетентсионӣ бо меъёрҳои зерин чен карда мешавад: 1) ташхиспазирии мақсади гузошташуда — мафҳумҳои дақиқ, амалиёт ва намудҳои фаъолияте, ки хонанда ҳамчун маҳсули раванди дидактикӣ аз худ кардааст; 2) ба назар гирифтани зинаҳои абстрактсия ва дараҷаи азхудкунии иттилоот ҳангоми баёни мазмуни таълим бо ёрии унсурҳои таълимӣ; 3) мутобиқати марҳилаҳои азхудкунии маводи таълимӣ ба сохтори раванди дидактикӣ; 4) ҷорӣ намудани воситаҳо, методҳо ва технологияҳои нав, инчунин ТИК ва усулҳои иттилоотонӣ дар раванди таълим; 5) фаъолияти эҷодӣ, қобилият ва алгоритми кори омӯзгор, сар карда аз рафтору кирдор то ташкили раванди дарс; 6) таъмини ангезаи (мотиватсияи) шахсӣ дар фаъолияти хонанда ва омӯзгор; 7) мувофиқати мақсадноки муносибатҳои коммуникативӣ ва муомила бо техникаҳои иттилоотӣ дар ҳар як марҳилаи раванди омӯзиш.

Мо боварӣ дорем, ки ин меъёрҳо сатҳи компетентсии раванди таълимро ақаллан қисман ифода мекунанд ва татбиқи онҳо дар амал самаранокии дарсро боз ҳам зиёдтар мегардонад. Имкониятҳои ботинии хонандаро боз намуда, паҳлӯҳои нави истеъдоди ӯро ошкор месозад. Дар айни замон, дар онҳо малакаҳои кори мустақилона инкишоф ёфта, ҳисси худбоварӣ меафзояд, таваҷҷуҳ ба омӯзиши фан пурзӯр мегардад, қобилияти тафаккури эҷодӣ шакл мегирад ва инчунин барои омодагӣ ба фаъолияти оянда кумак мерасонад.

Адабиётҳои истифодашуда:

1. Ochilov F.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetentsiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish metodikasi. Monografiya. – T., 2022

2. Раҳимов Б. Назарияи таълим. – Душанбе: Ирфон, 2019.

3. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – Москва, 2003.

4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – Москва, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TABIIY-ILMIY TAFAKKURINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI

Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).
Muhamadaliyeva Iroda Tillaboyevna,
Shoqosimova Zo‘ra Qambaraliyevna,
Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni ortib borayotgani sababli, o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda interaktiv vositalar, multimedia resurslar va virtual laboratoriyalarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda raqamli platformalar orqali tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion usullari, jumladan, vizualizatsiya, modellashtirish va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, raqamli muhitda mustaqil*

fikrlash va tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Natijada, raqamli texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirishda samaradorlikni oshirishi, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi hamda ta’lim sifatini yaxshilashi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *tabiiy-ilmiy tafakkur, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta’lim, mulьtimedia resurslar, virtual laboratoriya, modellashtirish, vizualizatsiya, innovatsion metodlar, o‘quv jarayoni, mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, raqamli muhit, ta’lim samaradorligi.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini shakllantirish kelgusidagi bilim olish jarayonining poydevorini yaratadi. Shu bois, o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi [1; 123-128-b.]. Xususan, multimediya vositalari, animatsiyalar va virtual tajribalar orqali murakkab tabiiy jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish samarali hisoblanadi. Shuningdek, interaktiv platformalar o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi va ularning mustaqil o‘rganish faoliyatini rag‘batlantiradi. [2; 63-75-b.]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pedagogik kuzatish, tajriba-sinov, taqqoslash va tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida an’anaviy va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar solishtirildi. Raqamli muhitda o‘qitish uchun interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va elektron ta’lim resurslari qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishini, tabiiy-ilmiy tafakkurini sezilarli darajada oshiradi. Xususan: 1) o‘quv materiallarining vizual va interaktiv shaklda taqdim etilishi bilimni o‘zlashtirishni osonlashtiradi; 2) virtual laboratoriyalar orqali tajribalar o‘tkazish imkoniyati nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi; 3) o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi; 4) raqamli platformalar o‘quvchilarda axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish sur’atlarini inobatga olish imkonini beradi, bu esa differensial yondashuvni ta’minlaydi. [3; 103-113-b.]

Raqamli platformalar orqali tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon innovatsion didaktik yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli vositalar integratsiyasi asosida amalga oshiriladi.

Avvalo, tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishda ***vizualizatsiya texnologiyalari*** alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli platformalarda taqdim etiladigan animatsiyalar, infografikalar, simulyatsiyalar va 3D modellar o‘quvchilarga murakkab tabiiy hodisalarni idrok etishni osonlashtiradi. Bunday yondashuv abstrakt bilimlarni konkret tasavvurlar bilan boyitib, o‘quvchilarda sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglash

ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada, ular nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki uni tahlil qilish va umumlashtirishga o‘rganadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – ***raqamli modellashtirish va simulyatsiya*** usullaridir. Ushbu metod orqali o‘quvchilar real hayotda kuzatish qiyin bo‘lgan jarayonlarni virtual muhitda tajriba qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, tabiiy ekotizimlar evolyutsiyasi, fizik qonuniyatlar yoki kimyoviy reaksiyalarni modellashtirish orqali o‘quvchilar ilmiy farazlar ilgari surish, ularni tekshirish va xulosalar chiqarish kompetensiyalarini egallaydi. Bu esa ilmiy-tadqiqot faoliyatining boshlang‘ich ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, ***virtual laboratoriyalar*** tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular o‘quvchilarga tajribalarni xavfsiz, iqtisodiy va ko‘p martalik takrorlash imkonini beradi. Virtual tajribalar orqali o‘quvchilar kuzatish, natijalarni qayd etish, ularni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish bosqichlarini mustaqil amalga oshiradi. Bu jarayon ilmiy tafakkurning asosiy komponentlari – tajriba, dalillash va tahlil qilishni rivojlantiradi.

Yana bir innovatsion yondashuv – ***gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)*** hisoblanadi. Raqamli platformalarda o‘yin elementlari (reytinglar, mukofotlar, darajalar, muammoli topshiriqlar)ni qo‘llash o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni faol o‘rganishga undaydi. Gamifikatsiya orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida mantiqiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. [4]

Bundan tashqari, ***moslashuvchan (adaptiv) ta’lim texnologiyalari*** ham muhim o‘rin tutadi. Raqamli platformalar o‘quvchining individual xususiyatlari, bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atini tahlil qilib, unga mos o‘quv materiallarini taqdim etadi. Bu esa differensial yondashuvni ta’minlab, har bir o‘quvchining tabiiy-ilmiy tafakkurini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Kollaborativ o‘qitish muhitlari ham innovatsion yondashuv sifatida e’tiborga loyiqdir. Raqamli platformalar orqali o‘quvchilar guruhlarda ishlash, muammolarni birgalikda hal etish, fikr almashish va loyihalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon kommunikativ kompetensiyalar bilan birga ilmiy muhokama yuritish va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. [4]

Shu bilan birga, ***raqamli baholash tizimlari*** (onlayn testlar, interaktiv topshiriqlar, diagnostik vositalar) o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam monitoring qilish imkonini beradi. Tezkor va aniq teskari aloqa (feedback) o‘quvchilarning o‘z xatolarini anglash va ularni bartaraf etishga yordam beradi, bu esa refleksiv fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar orqali tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion usullari – vizualizatsiya, modellashtirish, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya, adaptiv ta’lim va kollaborativ o‘qitish – o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, mustaqil izlanish, tanqidiy tahlil va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirib, ularni zamonaviy bilimlar jamiyatiga moslashgan shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.

2. Islomov, S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish. Toshkent, Pedagogika ilmiy-nashriy markazi, 2021

3. Ochilov F.I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: “ZEBO PRINTS” nashriyoti. 2025. – 136 b.

4. Rasulova M. Innovatsion yondashuvlar va gamifikatsiyaning ta’limda qo‘llanilishi. Toshkent. Innovatsiya va ta’lim, 2022.

MAKTABGACHA TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA RAQAMLI O‘YINLAR FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Qalandarova Yulduzoy Xushnud qizi,
Chirchiq DPU, magistratura talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ayniqsa raqamli o‘yinlar orqali bolalarning kognitiv, ijtimoiy va ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi ta’limiy o‘yinlarning pedagogik ahamiyati, ularning bolalar rivojlanishiga ta’siri hamda ta’lim jarayonida qo‘llash metodikasi yoritib beriladi. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt asosidagi raqamli o‘yinlardan foydalanish muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli o‘yinlar, innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, bolalar rivojlanishi.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi ta’lim sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

Maktabgacha ta’lim bosqichi inson hayotidagi eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning tafakkuri, nutqi, ijtimoiy munosabatlari va ijodiy qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida raqamli o‘yinlar keng qo‘llanilmoqda. Raqamli o‘yinlar bolalarning qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ta’lim jarayonini interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi esa bu jarayonni yanada takomillashtiradi.

Sun’iy intellekt tushunchasi va uning ta’limdagi ahamiyati. Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga o‘xshash jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatidir. U ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘rganish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarishga imkon beradi.

Ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega: o‘quv jarayonini individuallashtirish; o‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash; ta’lim samaradorligini oshirish; ta’lim jarayonini interaktiv shaklda tashkil etish.

Maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari asosan ta’limiy o‘yinlar, interaktiv dasturlar va virtual muhitlar orqali qo‘llaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yin faoliyatining o‘rni. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar

faoliyatining asosiy shakli hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydi.

O‘yin faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bolalarda tafakkur va tasavvur rivojlanadi; nutq va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi; ijtimoiy munosabatlar rivojlanadi; mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Shu sababli zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin metodlaridan keng foydalanish muhim hisoblanadi.

Sun’iy intellekt asosidagi raqamli o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan raqamli o‘yinlar bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Bunday o‘yinlar bolalarning bilim darajasiga mos ravishda murakkablashib boradi.

Sun’iy intellekt asosidagi o‘yinlarning asosiy afzalliklari: 1. Individuallashtirilgan ta’lim. 2. Har bir bolaning bilim darajasi va qiziqishlariga mos o‘yinlar taklif etiladi. 3. Motivatsiyani oshiradi. 4. Interaktiv elementlar bolalarning o‘yin jarayoniga qiziqishini oshiradi. 5. Tahlil qilish imkoniyati. 6. Sun’iy intellekt bolaning faoliyatini tahlil qilib, pedagogga ma’lumot beradi. 7. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. 8. Muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bolalar mustaqil fikrlashni o‘rganadi.

Raqamli o‘yinlarni maktabgacha ta’lim jarayonida qo‘llash metodikasi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida raqamli o‘yinlarni samarali qo‘llash uchun pedagoglar quyidagi metodik yondashuvlarga amal qilishlari lozim:

1. Ta’limiy maqsadni aniqlash. Raqamli o‘yinlar faqat ko‘ngilochar vosita emas, balki ta’limiy maqsadga xizmat qilishi kerak.

2. Yosh xususiyatlarini hisobga olish. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur.

3. Interaktivlikni ta’minlash. Bolalar faol ishtirok etadigan o‘yinlar samaraliroq hisoblanadi.

4. Nazorat va tahlil. Pedagog o‘yin jarayonini kuzatib borishi va natijalarni tahlil qilishi kerak.

Sun’iy intellekt asosidagi o‘yinlarning bolalar rivojlanishiga ta’siri. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi o‘yinlardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: bolalarning mantiqiy tafakkuri rivojlanadi; muammolarni hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi; mustaqil fikrlash qobiliyati oshadi; ijodiy faoliyat rivojlanadi.

Shuningdek, bunday o‘yinlar bolalarda texnologiyalarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi hamda kelajakda raqamli savodxonlikni shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muammolari. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud: texnik vositalarning yetishmasligi; pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi; metodik materiallarning yetarli emasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarni qayta tayyorlash, zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash va yangi metodik qo‘llanmalar yaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida sun’iy intellekt asosidagi raqamli o‘yinlardan foydalanish bolalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday o‘yinlar bolalarning tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda maktabgacha ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni o‘rganib, ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashlari muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborova O.M., Ochilov F.I. Bolalar pedagogikasi. – T.: Zebo prints, 2022.
2. Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta’limda konfliktologiya. – Toshkent, 2023.
3. Xoliqov A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Karimov N. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022.

SUN’IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY SAN’AT ESTETIKASI VA TA’LIM TIZIMI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Qurolova Hurmatoy Ravshanbek qizi,
Shamuratova Dilnura G‘ayrat qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.
Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
Chirchiq DPU, p.f.f.d. (PhD), Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intelektning zamonaviy san’at estetikasi shakllanishiga ko‘rsatayotgan asosiy ta’sirlari o‘rganiladi.Tadqiqotda SI texnologiyalarining tasvir yaratish jarayoniga kiritayotgan yangiliklari, san’atdagi kompozitsiyasi, shakl, rang va g‘oya talqiniga ta’siri tahlil qilinadi.Shuningdek, sun’iy intellekt bilan yaratilgan asarlarda mualliflik, ijodiylik, va estetik qadriyatlarning qay darajada namoyon bo‘lishi muhokama qilinadi. Maqola SI san’atning yangi yo‘nalishlarini shakllantirishi, ijod jarayonini tezlashtirishi va estetik tajribani kengaytirishi haqida ilmiy xulosalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intelekt, zamonaviy estetika, algoritmik san’at, raqamli vizualizatsiya, ijodiy transformatsiya, ta’limni raqamlashtirish, moshlashuvchan adaptive ta’lim, avtomatlashtirilgan ta’lim, ta’lim platformalari, intellektual o‘quv tizimlari.*

Bugungi kunda sun’iy intellekt hayotimizning barcha jabhalarini, barcha sohalarni qamrab olmoqda. Shu o‘rinda san’at va madaniyat ham chetda qolayotgani yo‘q. SI san’atga kirib kelishi zamonaviy estetik qarashlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Algaritmik tizimlar tasvir yaratish jarayoniga tezlik, tajriba va noan’anaviy kompozitsiya imkoniyatlarini qo‘shib, ijodning jegaralarini yanada kengaytirmoqda. Natijada esa san’at nafaqat ijodiy tafakkurining mahsuli, balki inson va mashina (sun’iy intellekt) hamkorligida shakllanuvchi murakkab estetik jarayonga aylanmoqda. SI asosidagi asarlar mualliflik, original g‘oya va estetik qiymat kabi masalalarning ilmiy qayta talqin qilinishiga turtki bermoqda.





Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt madaniy merosni va san’at asarlarini raqamlashtirish orqali uni kelgusi avlodlar uchun saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. SI qadimiy qo‘lyozmalar hamda suratlarni qayta tiklash, ularni aniqroq o‘rganishga imkon yaratmoqda. Bundan tashqari musiqiy kompozitsiyalarni yaratish va qayta ishlashda ham keng qo‘llanmoqda. Misol uchun, qadimiy suratlarni, umuman har qanday tasvirni 3D modellashtirish orqali ularni virtual haqiqat muhitida namoyish etish kabi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Bu esa har bir sohaga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. [3: 45-b.]

Shuningdek, hozirgi manbalarda mualliflik masalasi ko‘p muhokama qilinmoqda. Ba’zi olimalar SI asarlari “muallifsiz estetika” fenomenini paydo qilib, san’atning an’anaviy me’zonlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur etayotganini ta’kidlaydi. Boshqalar esa bunday asarlar ortida baribir inson ijodiy nazorati turishini ilgari suradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, SI san’atni texnik vosita sifatida emas, balki estetik paradigmani o‘zgartiruvchi kuch sifatida shakllantirib bormoqda. U san’atning g‘oyaviy serqirraligini oshirib, zamonaviy estetikaning yangi talqinlarini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon madaniyatning innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, Toshkentda tashkil etilgan “San’at va Texnologiya” ko‘rgazmasida sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar katta qiziqish uyg‘otdi [1: 88-b.]. Shuni ham tan olish kerakki, sun’iy ancha rivojlanib kompozitsiyalar, haykallar, suratlar yaratmoqda, hatto “DALLE 2” tizimi ovozli buyruqqa asoslanib surat chizishi mumkin. Biroq shu va boshqa progressiyalarga san’atning yuksalishi sifatida baho berilmaydi. Bunga ilm-fanning rivoji, inson aqli va imkoniyatlari yana bir yuqori pog‘onaga ko‘tarilish deb qaraladi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimiga faol moslashib, adaptiv o‘quv platformalari, aqlli tutor tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash vositalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirmoqda. SI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish tezligi va individual ehtiyojlarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini taklif etadi. Bu esa an’anaviy “bir xil yondashuv” modelidan individual ta’lim modeliga o‘tishga zamin yaratadi. Bundan tashqari zamonaviy ta’limda ham sun’iy intellekt asosidagi vositalari o‘quv jarayonini individuallashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, Coursera va edX kabi onlayn ta’lim platformalarida sun’iy intellekt algaritmlari o‘quvchilarning faolligi va test natijalarini tahlil qilib, ularga mos kurslar va qo‘shimcha materiallarni tavsiya etadi. Shuningdek, Khan Academy platformasida qo‘llanilayotgan Khanmigo SI yordamchisi o‘quvchilarga masalalarni mustaqil yechishga yo‘naltiruvchi interaktiv ko‘mak beradi. Bu holat ta’lim jarayonining moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt bilimlarni baholash tizimini ham takomillashtirishda aniq natijalarni bermoqda. Misol qilib Duolingo English Test va Gradescope platformalarini keltirish mumkin. Dualingo English Test sun’iy intellekt asosida ishlovchi adaptiv test bo‘lib, test topshiruvchining real til darajasini qisqa vaqt ichida aniqlash imkonini beradi. Gradescope platformasi esa yozma ishlar va testlarni avtomatik tekshiradi, natijada baholashdagi subektivlikni kamaytiradi. Bunday tizimlar o‘qituvchilarga vaqtni tejash va baholash aniqligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivoji ijodiy jarayonlarga nafaqat qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi, balki insonning estetik va madaniy ehtiyojlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. U har bir sohada o‘zining qulayliklari bilan vaqtning tejalishi va samarali bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Shu o‘rinda madaniy merosni kelajak avlodga ishonchli va yangi shakllarda targ‘ib qilishga yordam beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta’lim tizimining mazmuni, shakli va boshqaruv mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari va intellektual o‘quv tizimlari ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish hamda bilimlarni baholashning aniqligi va xolisligini oshirish imkonini beradi. Bu holat ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, sun’iy intellektning joriy etilishi o‘qituvchining an’anaviy rolini transformatsiyalab, yo‘naltiruvchi va tahlil qiluvchi

subyekt sifatida shakllantirmoqda. Ta’limni raqamlashtirish jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga keng targ‘ib etish jarayonida ma’lumotlar xavfsizligi, axloqiy masalalar va raqamli tengsizlik kabi muammolarni inobatga olish zarur. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimini barqaror shakllantirishda sun’iy intellekt imkoniyatlarini ilmiy asoslangan yondashuv, huquqiy ma’yorlar va pedagogik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-yil 30-iyunda bo‘lib o‘tgan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqdan.
2. inLIBRARY https:// inLIBRARY.uz. saytidan.
3. QR Code [Электронный ресур] // Википедия: [сайт]. [2013]. URL: http://ru.wikipedia.org/wiki/QR-%D0%BA%D0%BE%D0%B4%.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z TURKUMLARINI AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi.
Turkmanova Xushruy Abduvasi qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda so‘z turkumlarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida o‘rgatishning pedagogik ahamiyati, metodik asoslari, samarali usullari va amaliy tavsiyalari batafsil yoritiladi. AKTdan foydalanish orqali o‘quvchilarning grammatik bilimlari mustahkamlanishi, darsga qiziqishi ortishi hamda mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalari rivojlanishi ilmiy asosda tushuntiriladi.*

Kalit so‘zlar: *AKT, boshlang‘ich ta’lim, so‘z turkumlari, ona tili metodikasi, interaktiv ta’lim, raqamli pedagogika.*

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning nutqi, tafakkuri va bilim olishga bo‘lgan munosabati shakllanadigan eng muhim davrdir. Shu sababli aynan shu bosqichda grammatik tushunchalarni samarali o‘rgatish katta ahamiyat kasb etadi. So‘z turkumlari — til tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning nutqini to‘g‘ri shakllantirish, fikrni aniq ifodalash va yozma savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. AKT vositalaridan foydalanish esa o‘qitish jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali va qiziqarli qiladi, bu esa bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

So‘z turkumlarini o‘qitishning maqsad va vazifalari. Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatish quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi: o‘quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish; lug‘at boyligini kengaytirish; nutq madaniyatini rivojlantirish; mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish; yozma va og‘zaki nutqni takomillashtirish. Asosiy vazifalar esa quyidagilardan iborat: so‘z turkumlarining belgilarini tushuntirish; ularni gapda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish; misollar orqali

mustahkamlash; amaliy mashqlar orqali ko‘nikma hosil qilish. AKT asosida o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslari.

AKTdan foydalanish konstruktiv ta’lim yondashuviga asoslanadi. Bu yondashuvga ko‘ra o‘quvchi bilimni faol jarayonda, tajriba orqali o‘zlashtiradi. Boshlang‘ich yoshdagi bolalar ko‘proq ko‘rish va eshitish orqali o‘rganadilar, shuning uchun multimedia materiallari ularning idrokiga mos keladi.

Psixologik jihatdan AKT: diqqatni uzoqroq saqlashga yordam beradi; qiziqish va motivatsiyani oshiradi; o‘quv faoliyatiga ijobiy emotsional muhit yaratadi; muvaffaqiyat hissini shakllantiradi.

AKT vositalari va ularning imkoniyatlari:

Multimedia taqdimotlar – rangli slaydlar, rasmlar va animatsiyalar orqali grammatik tushunchalar sodda va tushunarli tarzda yetkaziladi.

Interaktiv doska – so‘zlarni turkumlarga ajratish, moslashtirish mashqlari va testlarni bajarish imkonini beradi. Elektron resurslar - elektron darsliklar va test dasturlari yordamida o‘quvchilar mustaqil ishlaydi.

Didaktik o‘yinlar. Masalan, “To‘g‘ri turkumni top”, “Gapni davom ettir” kabi o‘yinlar bilimni mustahkamlaydi. Video va audio materiallar - real nutq misollari orqali o‘quvchilar grammatik birliklarni yaxshiroq anglaydi.

Darsni AKT asosida tashkil etish metodikasi:

Motivatsiya — qiziqarli video yoki savol bilan mavzuga kirish.

Yangi bilim — taqdimot orqali tushuntirish.

Amaliy mashq — interaktiv topshiriqlar bajarish.

Mustahkamlash — o‘yin yoki test orqali takrorlash.

Baholash — natijalarni tahlil qilish.

Refleksiya — o‘quvchilar fikrini aniqlash.

AKTdan foydalanishning afzalliklari. Dars samaradorligi oshadi; o‘quvchilarning faolligi kuchayadi; murakkab tushunchalar oson anglashiladi; mustaqil o‘rganish rivojlanadi; ijodiy fikrlash shakllanadi; zamonaviy ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.

Muammolar: texnik jihozlar yetishmasligi; internet muammolari; o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha tayyorgarligi pastligi; vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash.

Yechimlar: malaka oshirish kurslari; metodik qo‘llanmalar yaratish; tajriba almashish; darsni puxta rejalashtirish.

Amaliy tavsiyalar. Qisqa va aniq slaydlar tayyorlash; ortiqcha effektlardan foydalanmaslik; o‘quvchilarni faol ishtirok ettirish; AKTni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish; natijalarni muntazam tahlil qilish.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini AKT asosida o‘qitish ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilar grammatik tushunchalarni nafaqat eshitish, balki ko‘rish va amaliy bajarish orqali o‘zlashtiradi. Bu esa bilimning mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi. AKT o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va mustaqil ishlashga o‘rgatadi.

Interaktiv mashqlar va didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar xatolarini tezda anglab, tuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada, ularning nutqiy kompetensiyasi va mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Shuningdek, AKT o‘qituvchiga ham katta qulaylik yaratadi: darsni samarali rejalashtirish, o‘quvchilar bilimini tez baholash va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Kelajakda ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish uchun AKTdan foydalanishni tizimli yo‘lga qo‘yish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va metodik

bazani boyitish zarur. Shunday qilinsa, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi yanada samarali va zamonaviy bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim maktablari uchun ona tili fanidan davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

2. Po‘lat E.S., Buxarkina M.Yu. Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Moskva, 2012.

3. To‘raev B.X. Zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Istiqlol, 2019.

4. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: Fan, 1995.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Raxmonova Xurshida Toyirovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalangan holda ta’lim jarayonini unumli tashkil etish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyaning o‘quv jarayoniga ta’siri, o‘qitish metodlarini takomillashtirishdagi roli hamda ta’lim berish samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, raqamli texnologiya, pedagogik ahamiyat, multimedia vositalari, ta’lim samaradorligi.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning raqamli rivojlanishi ta’lim sohasida ham yangi metod va vositalarni ishlab chiqish va foydalanishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida dars davomida raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va unumli tashkil etishga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi shakllanadigan, ularning fikrlash qobiliyati va o‘qishga, yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan munosabati rivojlanadigan muhim bosqichlardan biridir [1; 145-b.]. Shu sababli dars jarayonini qiziqarli, tushunarli va mazmunli tashkil etish pedagog oldidagi eng asosiy vazifalardan biri deb hisoblayman. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar o‘qtuvchilar uchun dars mazmuni va mohiyatini o‘quvchilarga chuqur yetkazishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qila oladi. Raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish orqali ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoni yaratiladi. Kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlari, elektron darsliklar va onlayn platformalar o‘quv jarayonini faol va qiziqarli tashkil etishga yordam beradi [2; 78-60 b.], [3].

Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlaridan yana biri o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishidir. Multimedia materiallari, animatsiyalar va videodarslar orqali o‘quvchilar murakkab mavzularni osonroq va tezroq anglash imkoniyati yaratiladi. Ko‘rgazmali vositalar orqali berilgan ma’lumot o‘quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanibgina qolmay darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini har bir

o‘quvchi uchun qiziqishi va qobilyatiga qarab moslashtirish imkonini yaratib beradi. Har bir o‘quvchiga o‘zining bilim darajasi va qobiliyatiga mos topshiriqlarni bajarishi mumkin. Raqamli ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilar mustaqil ravishda mashqlarni bajarish, qo‘shimcha materiallardan foydalanish va o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bugungi kunda jamiyatda axborotni izlash, tahlil qilish va undan to‘g‘ri foydalanish har bir inson egallashi kerak bo‘lgan zarur kompetensiya hisoblanadi [4; 98-b.]. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ushbu ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirib borish o‘quvchilarning kelajakdagi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Raqamli texnologiyalar o‘qituvchining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga ko‘mak beradi. O‘qituvchi turli elektron resurslar, taqdimotlar, hamda videomateriallardan foydalanib dars jarayonini yanada mazmunli va samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, elektron baholash tizimlari orqali o‘quvchilarning bilim darajasini tez va aniq bilish hamda kamchiliklar ustida ishlash tengdoshlari bilan bilim daraja va ko‘nikmasini taqoslay olish imkoniyati yaratiladi.

Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik vositalarning yetishmasligi, internet tarmog‘ining barqaror ishlamasligi yoki o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi kabi omillar ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida darslarni qiziqarli va tushunarli tarzda tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish imkoniyatini beradi. Shu bois ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish kelajakdagi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishda eng muhim omillardan biri bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar –T.: “Tafakkur”. 2012. – 145 b.

2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi, Metodik qo‘llanma – Toshkent, 2013. – 78 b.

3. Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari–Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Toshkent, 2024.–60 b.

4. Avliyoqulov A. Boshlang‘ich ta’limda axborot madaniyatini shakllantirish usullari. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2015. – 98 b.

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Rizakulov Shuxrat Xamrakul o‘g‘li,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ularni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish hamda ta’limni individuallashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va mavjud muammolari ham tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion pedagogika, sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, ta’lim jarayoni, masofaviy ta’lim.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish dunyo miqyosida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanila boshladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt esa o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish hamda shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi. Shu sababli innovatsion pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar tushunchasi va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yangi metod va usullar asosida o‘qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar majmuasidir. Ularning asosiy maqsadi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni faol ta’lim jarayoniga jalb qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi innovatsion pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda: interaktiv ta’lim texnologiyalari; loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning); muammoli ta’lim (Problem-Based Learning); masofaviy ta’lim tizimlari; raqamli ta’lim platformalari.

Ushbu texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi roli. Sun’iy intellekt zamonaviy texnologiyalarning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U insonning intellektual faoliyatiga xos bo‘lgan jarayonlarni kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshirishni ta’minlaydi.

Ta’lim tizimida sun’iy intellekt quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Adaptiv o‘qitish. Sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘rganish tezligini tahlil qilib, ularga mos o‘quv materiallarini taklif qiladi.

2. Avtomatlashtirilgan baholash. Sun’iy intellekt testlar, yozma ishlar va boshqa topshiriqlarni avtomatik ravishda baholash imkonini beradi. Bu o‘qituvchilar ish yukini kamaytiradi.

3. Virtual yordamchilar. Sun’iy intellekt asosidagi virtual yordamchilar talabalar savollariga tezkor javob berish va o‘quv jarayonida maslahatlar berish imkonini yaratadi.

4. Ta’lim analitikasi. Sun’iy intellekt o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tahlil qilish, ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni sun’iy intellekt bilan integratsiya qilish ta’lim tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu integratsiya natijasida o‘quv jarayonida quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin: o‘quv jarayonining individuallashtirilishi; ta’lim sifatining oshishi; o‘qituvchilar ish yukining kamayishi; o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarining rivojlanishi; o‘quv jarayonining interaktivligi va qiziqarli bo‘lishi.

Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan ta’lim platformalari o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, ularning bilim darajasiga mos topshiriqlarni taqdim etadi. Bu esa har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv yo‘nalishini yaratishga imkon beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish mumkin.

Muammolar va rivojlanish istiqbollari. Sun’iy intellektni ta’lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan: texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi; o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi; sun’iy intellekt tizimlarining yuqori narxi; ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar.

Shu bilan birga, kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratishi kutilmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim tizimi o‘quv jarayonini yanada samarali va sifatli tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu integratsiya ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi ta’lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli ta’lim muassasalari va pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va ularni ta’lim jarayoniga samarali joriy etishga alohida e’tibor qaratishlari zarur

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.

2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson Education, 2021.

3. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.

4. Holmes W., Bialik M. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

MUSIQA TA’LIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Salimova Dilafruz Ibragimovna,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, “Musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada musiqa mashg‘ulotlari tushunarli, ilmiy, ta’sirchan, ko‘rgazmali, ko‘rsatmali, texnika vositalari yordamida o‘tkazilgandagina yaxshi natijalarga erishish mumkinligi va uning ishi rejali, tizimli yo‘lga qo‘yilishi oddiydan-murakkablikka tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya, innovatsiya, interfaol metodlar, musiqa.*

Bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Mamlakatimizning ma’naviy yuksalishi ko‘p jihatdan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashni chuqur anglash, qalb bilan his etgan holda keng ko‘lamda targ‘ibot qilish, va eng muhimi yosh avlodni tarbiyalashni izchil taqozo etadi. Bu borada musiqiy qadriyatlarimiz alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘zbek halqi musiqasiga mansub turfa shaklli kuy-qo‘shiqlar xalqimizning chinakkam bebaho ma’naviy boyliklarini tashkil etadi.

Musiqa o‘zining betakror tabiati bilan o‘quvchilarning ma’naviy dunyosiga katta ta’sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta’sirida o‘quvchilarda xissiyot olamining o‘sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go‘zallikni sevish, tabiatni asrash, oila Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. “Musiqa ko‘ngilga axloqan muayyan ta’sir ko‘rsatish quvvatiga ega, hamonki, musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo‘yilmog‘i lozim”, - deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu. Shunday ekan musiqiy ta’lim orqali o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash o‘ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan –kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o‘quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

"Texnologiya" - grekcha “techne” so‘zidan olingan bo‘lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta’limot ma’nosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o‘zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig‘indisidir.

“Innovatsiya” - inglizcha inovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, novatsiyalarga invistitsiyalar sifatida talqin qilinadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar bu – jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi – talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: - o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; - o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi; - o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi; - o‘qituvchi va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinishda yoki shaklda tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak. Texnologik xaritani tuzilishi o‘qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o‘z aksini topadi.

O‘qituvchi tomonidan o‘zi o‘qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xarita unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o‘quv yili bo‘yicha), yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko‘ra olishiga yordam beradi. Shunday ekan yangi innovatsion texnologiyalarni o‘rganish uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlashni tashkil etish; multimedia o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqqan o‘qituvchilarni rag‘batlantirishni; internet tarmog‘i orqali on-lain konferensiyalar, seminarlar va boshqa o‘qitish tadbirlarini tashkil etish; ta’lim muassasalarida multimedia sinflari, laboratoriyalar va kutubxonalar sonini ko‘paytirish; internet va boshqa elektron o‘quv vositalari bo‘yicha o‘qitish akademik soatlari miqdorini ko‘paytirish; tahsil oluvchilar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko‘proq ilmiy tanishtiruv ishlarini olib borish zarur bo‘ladi. Shunday ekan, musiqa madaniyati darslarini ham hozirgi zamon talabida olib borish muhim ahamiyatga egaligini har birimiz anglab etmog‘imiz darkor. Ammo e’tibor bersak, umumta’lim maktablaridagi musiqa madaniyati sinf xonalarida fortopianino, cholg‘u sozlari respublikamizning ko‘pgina maktablarida mavjud emas. Bo‘lsa ham yaroqsiz yoki talab darajasida emas. Musiqa madaniyati darsi qashqar rubobi, dutor va boshqa o‘zbek milliy cholg‘u sozlarida o‘tib kelinmoqda. Natijada fan - texnika rivojlangan bir paytda yoshlarimizga an’anaviy dars o‘tish orqali musiqa faniga nisbatan qiziqishi pasayadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar dan foydalaib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – T.:, Ma’naviyat. 2008.
2. Тафаккур гулшани. В.Воронцов композицияси. Ғ.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти. – Т.: 1981. - 159 б.
3. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi. VIII bo‘lim. Toshkent 2021. 677 bet.

TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARNING SUN’IY INTELLEKT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova Muslimaxon Xayrullo qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU talabasi.
Qo‘ziboyev Vohidjon Alijon o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi. Ilmiy rahbar.

Raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda ta’lim tizimi ham mazmunan va texnologik jihatdan yangilanmoqda. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi pedagog faoliyatining an’anaviy modelini o‘zgartirib, uni ma’lumotlarga asoslangan, moslashuvchan va individual yondashuvga yo‘naltirilgan tizimga aylantirmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli muhitda yo‘naltiruvchi, tahlilchi va fasilitator sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu bois pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning strategik omiliga aylanmoqda.

Avtomatlashtirilgan baholash vositalari yozma ishlarni tekshirish vaqtini sezilarli qisqartiradi, adaptiv platformalar esa o‘quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlarni shakllantiradi. Natijada, ta’lim jarayoni differensiallashadi va har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish trayektoriyasi yaratiladi. Xalqaro tajribada adaptiv o‘qitish tizimlari joriy etilgan sinflarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘rtacha 15-25 foizgacha oshgani kuzatilgan. Bu esa sun’iy intellektning didaktik samaradorligini tasdiqlaydi. Generativ sun’iy intellekt vositalari ham pedagogik jarayonga yangi imkoniyatlar olib kirmoqda. Masalan, OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy generativ modellar dars ishlanmalari, test topshiriqlari, metodik tavsiyalar va muammoli vaziyatlar yaratishda qo‘llanilmoqda. Ammo bu jarayon pedagogdan tanqidiy fikrlashni, manbalarni tekshirishni va kontent sifati ustidan nazoratni talab qiladi. Chunki sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan material har doim ham mukammal yoki kontekstga mos bo‘lmasligi mumkin. Sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish faqat texnik bilim bilan cheklanmaydi.

Bu jarayon analitik tafakkur, ma’lumotlar bilan ishlash madaniyati, axborot xavfsizligi va etik me’yorlarga rioya qilishni ham o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, akademik halollikni ta’minlash va sun’iy intellektdan foydalanishda shaffoflik tamoyillariga amal qilish pedagogning kasbiy mas’uliyatiga kiradi. Shu jihatdan qaraganda, SI savodxonligi pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga kirib kelishi pedagog kasbining mazmunini konseptual jihatdan o‘zgartirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, sun’iy intellektdan foydalanish ta’limni shaxsiylashtirish, o‘quv jarayonini modellashtirish va natijalarni prognozlash imkonini beradi.

Ilmiy manbalarda sun’iy intellektning ijtimoiy-emotsional ta’limga ham ta’siri o‘rganilmoqda. Ayrim eksperimental platformalar o‘quvchining nutq tezligi, javob berish vaqti va xatolar dinamikasi orqali uning o‘quv jarayonidagi stress darajasini aniqlashga harakat qilmoqda. Bu esa pedagogga psixologik qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rishda yordam beradi. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv modeli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasida pedagoglar uchun maxsus “AI literacy” dasturlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturlar o‘qituvchilarning sun’iy intellekt asoslarini tushunishi, amaliy qo‘llay olishi va natijalarni tahlil qila bilishini nazarda tutadi. Malaka oshirish tizimiga laboratoriya mashg‘ulotlari, real platformalarda ishlash, keys-stadi va loyiha asosida o‘qitish metodlari kiritilmoqda. Bu yondashuv pedagoglarning nazariy bilimini amaliy ko‘nikmaga aylantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi bashorat tizimlari o‘quvchilarning o‘qishdagi qiyinchiliklarini erta aniqlash imkonini beradi. Ma’lumotlar tahliliga asoslangan monitoring tizimlari o‘zlashtirish dinamikasini kuzatib, xavf guruhidagi o‘quvchilarni aniqlaydi. Natijada profilaktik choralar ko‘rish va individual yordam ko‘rsatish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday tizimlar joriy etilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni darsni tark etish holatlari 10-15 foizgacha kamaygan. Kelajak ta’limi inson va sun’iy intellekt hamkorligiga asoslanadi. Pedagog bu jarayonda asosiy boshqaruvchi subyekt bo‘lib qoladi, sun’iy intellekt esa yordamchi va tahliliy vosita vazifasini bajaradi. Ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirish innovatsion muhitni shakllantiradi, ta’lim sifatini oshiradi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida aynan bilimli, texnologik jihatdan savodli va kreativ pedagog ta’lim tizimining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Raqamli pedagogika sharoitida o‘qituvchi ma’lumotlar bilan ishlovchi mutaxassisga aylanmoqda. Learning analytics (o‘quv tahlili) tizimlari o‘quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi, xatolar dinamikasi va individual rivojlanish ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida tahlil qiladi. Bu pedagogga subyektiv baholashdan obyektiv, dalillarga asoslangan qaror qabul qilishga o‘tish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda axborot xavfsizligi va etik me’yorlar ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, algoritmik xolislikni ta’minlash, diskriminatsion natijalarning oldini olish pedagogning mas’uliyatli yondashuvini talab etadi.

Kelajakda ta’lim tizimida “inson + sun’iy intellekt” modeli ustuvor bo‘ladi. Bu modelda sun’iy intellekt ma’lumotlarni tezkor tahlil qiladi, taklif va tavsiyalar beradi, pedagog esa yakuniy qaror qabul qiladi va tarbiyaviy-psixologik jarayonni boshqaradi. Inson omili ta’limda doimo yetakchi bo‘lib qoladi. Shunday qilib, pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini

kuchaytirish va innovatsion muhitni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonida aynan kompetent, tanqidiy fikrlaydigan va texnologik savodli pedagog ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Ta’lim tizimida pedagoglarning sun’iy intellekt ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim talabidir. Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’lumotlarni tahlil qiluvchi va innovatsion texnologiyalarni ongli qo‘llay oluvchi mutaxassis bo‘lishi zarur.Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish, avtomatlashtirilgan baholash va tahliliy tizimlar ta’lim samaradorligini oshiradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamova, N. (2023). Sun’iy intellekt vositalari va ularning ta’limdagi qo‘llanilishi. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar jurnali, 2(5), 66–72-betlar.

2. Islomjon, M. (2025). Integration of artificial intelligence and teaching methods in pedagogy. International Journal of Pedagogiks.

3. Turayev, N.S., & Soliyev, D.Z. (2025). Raqamli texnologiyalar asosida chizma geometriya fanida mustaqil o‘rganish usullari. Строительство и образование, 4(3), 49–53-betlar.

4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education (12–28-betlar). Pearson Education.

RAQAMLI SAVODXONLIK ASRIDA MATN BILAN ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova Sarvinoz Telman qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar rivojlangan sharoitda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va bu orqali ularning ijodiy (kreativ) qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada an’anaviy matn tahlili va zamonaviy raqamli instrumentlarning uyg‘unligi pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli savodxonlik, kreativlik, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, media-matn, boshlang‘ich ta’lim, interpretatsiya.*

Raqamli transformatsiya davrida axborot oqimi shiddat bilan ortib bormoqda. Bugungi kun o‘quvchisi nafaqat tayyor matnni o‘qishi va tushunishi, balki undan yangi ma’no qidira olishi, ma’lumotlarni qayta ishlashi va kreativ g‘oyalar yaratishi lozim. Raqamli savodxonlik faqat texnik qurilmalardan foydalanish emas, balki axborotni tahlil qilish va u asosida ijodiy mahsulot yaratish san’atidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn bilan ishlash orqali kreativlikni rivojlantirish ularning kelajakdagi intellektual salohiyatini belgilab beradi. Kreativlik — bu oddiy narsalarda noodatiy jihatlarni ko‘ra olish, muammolarga yangicha yechim topish va original g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. Matn esa bu qobiliyatni charxlovchi asosiy vosita hisoblanadi.

Matn bilan ishlashda kreativ yondashuvning metodik asoslari. An’anaviy ta’limda matn bilan ishlash ko‘pincha uni o‘qib berish va mazmunini qayta so‘zlash bilan cheklanadi. Biroq raqamli asr o‘quvchisi uchun bu yetarli emas. Kreativlikni

rivojlantirish uchun matnga "ochiq tizim" sifatida qarash lozim. Bunda o‘quvchi matnning passiv iste’molchisi emas, balki uning hammuallifiga aylanishi kerak.

Kreativ matn tahlili quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- ***Matnni vizuallashtirish:*** O‘quvchi matn asosida aqliy xaritalar (mind maps) yaratishi yoki voqealar rivojini infografika ko‘rinishida tasvirlashi.
- ***Muqobil yakun yaratish:*** Berilgan hikoya yoki ertakning yakunini o‘quvchi o‘z fantaziyasi asosida o‘zgartirishi.
- ***Matnni boshqa janrga ko‘chirish:*** Masalan, nasriy matnni she’riyatga yoki drama (ssenariy) ko‘rinishiga o‘tkazish [1; 24-b.].

Raqamli savodxonlik va media-matnlar bilan ishlash. Hozirgi kunda matn tushunchasi kengayib, u o‘z ichiga video, audio va interaktiv elementlarni ham qamrab olmoqda. O‘quvchilarda media-matnlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish ularning kreativ tafakkurini kengaytiradi. Masalan, o‘quvchilarga biror badiiy asarning elektron varianti beriladi. Ular matndagi asosiy tushunchalarni "so‘zlar buluti" (word cloud) dasturlari yordamida vizuallashtiradilar. Bu jarayon o‘quvchidan matndagi eng muhim so‘zlarni ajratib olishni va ularning o‘zaro bog‘liqligini kreativ dizayn orqali ko‘rsatishni talab qiladi. Shuningdek, raqamli asboblar yordamida matnli hikoyalarga ovoz berish yoki kichik animatsiyalar yaratish o‘quvchining ijodiy salohiyatini bir necha barobar oshiradi [2; 58-b.].

Kreativ topshiriqlar tizimi. Matn bilan ishlashda kreativlikni oshirish uchun quyidagi innovatsion topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- *"Matn ichidagi matn" (Cinquain metodi):* Mavzu bo‘yicha besh qatorli she’r tuzish. Bu o‘quvchini so‘zlarni saralashga va fikrni lo‘nda, badiiy ifodalashga o‘rgatadi.
- *"Savollar piramidasi":* Matn mazmuni bo‘yicha oddiy emas, balki "nima uchun?", "agar shunday bo‘lmaganda nima bo‘lar edi?" kabi tadqiqiy savollar tuzish.
- *"Digital Storytelling" (Raqamli hikoyachilik):* O‘quvchi o‘zi o‘qigan asar qahramoni nomidan ijtimoiy tarmoq sahifasi (maketi)ni yaratishi yoki uning nomidan "video-murojaat" tayyorlashi.

Ushbu metodlar o‘quvchining matnga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va unda mustaqil fikrlash, tahlil qilish hamda yangilik yaratish ehtiyojini shakllantiradi [3; 41-b.].

Pedagogik shart-sharoitlar va baholash. Kreativlikni rivojlantirish uchun sinfda erkin va xavfsiz muhit yaratilishi lozim. O‘quvchi o‘zining noodatiy fikri uchun tanqid qilinmasligini bilishi kerak. Raqamli savodxonlik asrida o‘qituvchi o‘quvchini tayyor javobga yo‘naltirmasdan, uning kreativ yechimlarini qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Baholashda ham o‘quvchining necha so‘z o‘qigani emas, balki matn asosida qanday yangi g‘oya bera olgani, axborotni qanchalik kreativ qayta ishlagani ustuvor mezon bo‘lib xizmat qilishi lozim. Bu esa boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini yangi bosqichga ko‘taradi [4; 105-b.].

O‘tkazilgan pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, matn bilan ishlashda raqamli vositalar (planshet, interaktiv doska, maxsus ilovalar)dan foydalanish o‘quvchilarning lug‘at boyligini 30% ga, kreativ yozish ko‘nikmalarini esa 45% ga oshirish imkonini beradi. Biroq, bu o‘rinda "texnologik haddan tashqarilik"dan qochish lozim. Raqamli vosita matnning mazmunini soya ostida qoldirmasligi, aksincha, uni chuqurroq anglashga xizmat qilishi kerak.

Xulosa. Raqamli savodxonlik asrida matn bilan ishlash o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali strategiyasidir. Matnni tahlil qilish, interpretatsiya qilish va uni raqamli formatda qayta yaratish orqali bolalar nafaqat savodxon bo‘lib yetishadilar, balki XXI asrning eng muhim ko‘nikmasi – ijodiy fikrlash

sohibiga aylanadilar. Bu jarayonda pedagogning mahorati an’anaviy metodlarni zamonaviy raqamli imkoniyatlar bilan oqilona uyg‘unlashtira olishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 144 b.
2. Qosimova K., Gulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2022. – 256 b.
3. Berdiyeva M. Boshlang‘ich sinf darslarida kreativlikni shakllantirish yo‘llari. – Samarqand: SamDU nashri, 2023. – 98 b.
4. Resnick, M. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. – MIT Press, 2017. – 200 p.

RAQAMLI KOMPETENSIYA DARAJASI VA PEDAGOGIK KONFLIKTLAR O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiya darajasi va pedagogik konfliktlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi. Maqolada raqamli savodxonlik, axborot madaniyati va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari konfliktlarning yuzaga kelish chastotasi hamda ularning konstruktiv yoki destruktiv kechishiga ta’siri empirik jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetensiya, pedagogik konflikt, raqamli transformatsiya, konfliktologik kompetensiya, maktab boshqaruvi, axborot madaniyati, sun’iy intellekt, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, institutsional ishonch, kommunikativ ko‘nikmalar, raqamli savodxonlik, konfliktlarni boshqarish, maktab iqlimi.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashda raqamli transformatsiyaning o‘rni beqiyos. Raqamli transformatsiya jarayoni zamonaviy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi hamda raqamli platformalarning ommalashuvi o‘qituvchilardan yuqori darajadagi raqamli kompetensiyani talab etmoqda. Raqamli kompetensiya nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, xavfsiz foydalanish, onlayn muloqotni samarali tashkil etish va pedagogik jarayonga integratsiya qilish qobiliyatini ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan [1]. Shuningdek, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan [2]. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tobora murakkab tus olmoqda. O‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-ona, shuningdek, o‘qituvchi va ma’muriyat o‘rtasidagi nizolar ko‘pincha noto‘g‘ri kommunikatsiya, axborot yetishmovchiligi yoki raqamli vositalardan foydalanishdagi

tafovutlar natijasida yuzaga keladi. Masofaviy va gibrid ta’lim sharoitida esa raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar konfliktlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda raqamli kompetensiya darajasi va pedagogik konfliktlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Ilmiy izlanishlarimiz doirasida raqamli ko‘nikmalari yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar konfliktlarni konstruktiv boshqarish imkoniyatiga ega ekani, past darajadagi raqamli kompetensiya esa destruktiv nizolar ehtimolini oshirishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu masala zamonaviy maktab boshqaruvi, ta’lim sifati va institutsional barqarorlik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiya darajasi va pedagogik konfliktlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan diagnostik tahlillar asosida respondentlar raqamli kompetensiya ko‘rsatkichlariga ko‘ra uch guruhga ajratildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajadagi raqamli savodxonlikka ega pedagoglarda konfliktlarning konstruktiv hal etilish ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu holat ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan “raqamli madaniyat muloqot sifatini oshiradi” degan fikrni tasdiqlaydi [3].

Xususan, raqamli platformalarda samarali ishlay oladigan, onlayn muloqot etikasi va axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qiladigan o‘qituvchilar o‘quvchi va ota-onalar bilan yuzaga kelgan nizolarni tezkor va murosali yo‘l bilan bartaraf etishga moyilligi bilan ajralib turdi. Kuzatishlarimiz jarayonida aniqlanishicha, bunday pedagoglar konfliktli vaziyatlarda muammoni tahlil qilish, dalillarga asoslanish va ochiq kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish kompetensiyalariga ega [4]. Aksincha, past darajadagi raqamli kompetensiyaga ega o‘qituvchilarda noto‘g‘ri axborot almashinuvi, topshiriqlarni raqamli platformalarda yetkazishdagi kamchiliklar va baholash jarayonidagi shaffoflik yetishmasligi sababli konfliktlar destruktiv tus olgani kuzatildi. Bu holat pedagogik konfliktologiya nazariyasida qayd etilganidek, kommunikativ uzilishlar nizolarni keskinlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi [5].

Korrelatsion tahlil natijalari raqamli kompetensiya darajasi bilan konfliktlarni konstruktiv boshqarish o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik, destruktiv konfliktlar bilan esa salbiy bog‘liqlik mavjudligini aniqladi. Ushbu natijalar raqamli kompetensiyani rivojlantirish ta’lim muhitining ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta’minlashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar raqamli kompetensiya darajasi pedagogik konfliktlarning mazmuni va kechish dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Zamonaviy maktab muhitida kommunikatsiyaning katta qismi raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgani sababli, o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash, onlayn muloqotni boshqarish va raqamli etikaga rioya qilish ko‘nikmalari konfliktlarning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori raqamli kompetensiyaga ega pedagoglar muammoli vaziyatlarni tahliliy yondashuv asosida ko‘rib chiqadi va muloqotni konstruktiv yo‘nalishda olib boradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, raqamli kompetensiya nafaqat texnik ko‘nikmalar majmui, balki pedagogning kommunikativ va refleksiv qobiliyatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Masalan, baholash jarayonining shaffofligini ta’minlash, topshiriqlarni aniq va tushunarli shaklda yetkazish hamda tezkor fikr-mulohaza berish konflikt xavfini kamaytiradi. Aksincha, platformalardan noto‘g‘ri foydalanish, axborotni kech yetkazish yoki noto‘g‘ri talqin qilish tushunmovchiliklarni kuchaytiradi. Shuningdek, raqamli kompetensiya darajasi maktab iqlimi va institutsional ishonch bilan

ham chambarchas bog‘liq ekani kuzatildi. Agar pedagoglar raqamli vositalardan bir xil darajada foydalana olmasa, jamoada tengsizlik va stress omillari paydo bo‘lishi mumkin. Demak, raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik konfliktlarni kamaytirish uchun tizimli ravishda raqamli kompetensiyani rivojlantirish, metodik qo‘llab-quvvatlash va doimiy malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur.

Shunday qilib, olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiya darajasi pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishi va ularni boshqarish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori raqamli savodxonlikka ega pedagoglar nizolarni konstruktiv yo‘l bilan hal etishga, samarali muloqot o‘rnatishga va axborot almashinuvini to‘g‘ri tashkil etishga moyilligi bilan ajralib turadi. Aksincha, raqamli ko‘nikmalarning yetarli emasligi kommunikativ uzilishlar va tushunmovchiliklarni kuchaytirib, konfliktlarning destruktiv tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois ta’lim tizimida raqamli kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muhit barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida // www.lex.uz. – 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” // www.lex.uz. – 2022.

3. Xamdamov R.X., Begimqulov U.Sh. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.

4. Muslimov N.A., Qodirov A.R. Pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 184 b.

5. Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta’limda konfliktologiya. – Toshkent: “Zebo Print”, 2023. – 220 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHDA RAQAMLI VOSITALARNING AHAMIYATI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Abdusamatova F.E.,
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining O‘IBDO‘.

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yuzaga keladigan pedagogik nizolarni bartaraf etishda raqamli vositalarning ahamiyatini tahlil qiladi. Zamonaviy ta’lim muhitida texnologik yechimlar o‘quv jarayonini optimallashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash hamda nizoli vaziyatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, interaktiv darsliklar, virtual sinfxonalar, raqamli baholash tizimlari va psixologik-monitoring platformalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda nizolarni oldindan aniqlash va hal qilish imkonini beradi. Raqamli vositalar pedagogik jarayonni shaffoflashtiradi, o‘qituvchilarga ma’lumot asosida qaror qabul qilish imkonini yaratadi*

va ta’lim sifatini oshiradi. Ushbu maqola amaliy tavsiyalar va nazariy yondashuvlar asosida raqamli transformatsiyaning nizolarni boshqarishdagi samaradorligini yoritadi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, pedagogik nizolar, raqamli vositalar, ta’lim texnologiyalari, o‘qituvchi-o‘quvchi muloqoti, ziddiyatlarni hal qilish, interaktiv ta’lim, virtual sinfxona, raqamli baholash, psixologik monitoring, ta’lim sifati, innovatsion metodlar, raqamli savodxonlik,*

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi o‘quv jarayonining sifatiga bevosita ta’sir qiladi [2]. Shu bilan birga, pedagogik nizolar maktab hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu nizolar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi tushunmovchilik, dasturlarning qattiqligi, individual ehtiyojlarning e’tibordan chetda qolishi yoki texnologik yondashuvlarning yetishmasligi sababli yuzaga keladi [10]. Raqamli vositalarning ta’limga joriy etilishi ushbu muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Interaktiv ta’lim muhiti, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlar va raqamli kommunikatsiya kanallari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning holatini real vaqtda kuzatish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va nizoli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi [4]. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yuzaga keladigan pedagogik nizolarni bartaraf etishda raqamli vositalarning nazariy va amaliy ahamiyatini ilmiy asoslashdir. Tadqiqot dolzarbligi shundaki, raqamli transformatsiya sharoitida an’anaviy pedagogik yondashuvlar ko‘pincha zamonaviy talablarga javob bermay qolmoqda [9]. Shu sababli, raqamli platformalar, virtual sinfxonalar, raqamli diagnostika vositalari va psixologik-monitoring tizimlari nizolarni boshqarish jarayonini shaffoflashtiradi va samaradorligini oshiradi [6]. Maqolada raqamli vositalarning pedagogik nizolarni oldini olishdagi roli, ularning amaliy qo‘llanilishi va ta’lim sifatiga ta’siri keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilar, metodistlar va ta’lim boshqaruvi xodimlari uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijalari raqamli vositalardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi pedagogik nizolarni sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatdi [1]. Sinov guruhi o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan monitoring natijasida ma’lum bo‘lishicha, interaktiv dasturlar va raqamli baholash tizimlarini joriy etgan sinflarda nizo holatlari 42% ga kamaygan [8]. Raqamli diagnostika vositalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlarini aniq tahlil qilish imkonini berdi [4]. Virtual sinfxonalar va gamifikatsiyalashgan ta’lim platformalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, dars jarayonidagi passivlik va tartibsizliklarni oldini oldi [3]. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya kanallari ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, oilaviy-maktab nizolarining yuzaga kelish xavfini 35% ga tushirdi [7]. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar nafaqat nizolarni bartaraf etishda, balki ularning sabablarini oldindan aniqlashda ham samarali. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy algoritmlar o‘quvchilarning xatti-harakatidagi o‘zgarishlarni kuzatib, potensial ziddiyatlarni dastlabki bosqichda aniqlashga yordam berdi [5]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli resurslarni integratsiyalash o‘qituvchilarning pedagogik stressini kamaytiradi va ularning professional kompetensiyalarini oshiradi [6]. Ushbu ko‘rsatkichlar raqamli transformatsiyaning ta’lim nizolarini boshqarishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, empirik kuzatuv va statistik tahlil usullari qo‘llanildi [2]. Adabiyotlar tahlili jarayonida xalqaro va milliy olimlarning pedagogik nizolar, raqamli ta’lim texnologiyalari hamda psixologik

monitoring bo‘yicha ilmiy ishlari o‘rganildi [9], [3]. Tadqiqotda shtatli ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi 45 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 320 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ma’lumotlar to‘plash uchun so‘rovnomalar, intervyular, kuzatuv protokollari va raqamli platformalarning analitik hisobotlaridan foydalanildi [10]. Adabiyotlarda raqamli vositalarning nizolarni boshqarishdagi roli yetarli darajada yoritilmaganligi aniqlandi [1]. Ko‘pgina manbalar texnologik imkoniyatlarga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, ularning pedagogik ziddiyatlarni hal qilishdagi mexanizmlari kam o‘rganilgan. Shu sababli, tadqiqotda aralash metodologiya (miqdoriy va sifatli) qo‘llanildi. Raqamli monitoring tizimlari orqali olingan ma’lumotlar SPSS dasturi yordamida statistik ishlov berildi. Natijalar Pearson korrelyatsiyasi va regressiv tahlil asosida tekshirildi [4]. Metodologik jihatdan tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika, raqamli intervensiya joriy etish va yakuniy monitoring. Ushbu yondashuv raqamli vositalarning pedagogik nizolarga ta’sirini ob’ektiv baholash imkonini berdi [8]. Ilmiy ishning metodologik qismi xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqildi va ta’lim sohasidagi axloqiy me’yorlarga to‘liq javob berdi.

Olingan natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan solishtirganda, raqamli vositalarning pedagogik nizolarni boshqarishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, interaktiv ta’lim platformalari o‘quvchilarning faolligini oshirish orqali nizoli vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi. Bu holat Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi va zamonaviy raqamli pedagogika tamoyillari bilan uyg‘unlikda. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar faqat texnologik yordamchi emas, balki pedagogik munosabatlarni shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Masalan, real vaqtda ma’lumot almashish imkonini beruvchi tizimlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonch darajasini oshiradi. Biroq, raqamli transformatsiya jarayonida ayrim muammolar ham mavjud: texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va ota-onalarning texnologiyalarga bo‘lgan munosabatidagi farqlar. Shu sababli, tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli vositalarni joriy etish faqat texnik jihatdan emas, balki pedagogik-psixologik jihatdan ham tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Muhokama jarayonida raqamli etika, ma’lumotlar xavfsizligi va inklyuziv yondashuvlar alohida ta’kidlandi. Xulosa qilib aytganda, raqamli vositalar nizolarni bartaraf etishda samarali bo‘lsa-da, ular insoniy omilni to‘liq almashtira olmaydi. Optimal natijaga erishish uchun texnologiya va an’anaviy pedagogik usullarning uyg‘unligi zarur [4].

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik nizolarni bartaraf etishda raqamli vositalarning muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Interaktiv platformalar, raqamli diagnostika tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi tahliliy vositalar nizo holatlarini oldindan aniqlash, o‘quvchilarning emotsional va ijtimoiy holatini kuzatish hamda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini yaxshilash imkonini beradi [3]. Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonini shaffoflashtiradi, individual yondashuvni kuchaytiradi va nizolarni boshqarish samaradorligini oshiradi. Biroq, texnologik yechimlar faqat pedagogik kompetensiyalar, axloqiy me’yorlar va insoniy muloqot bilan uyg‘unlashganda to‘liq samara beradi. Kelgusi tadqiqotlarda raqamli vositalarning uzoq muddatli ta’siri va ularning inklyuziv ta’limdagi o‘rni chuqurroq o‘rganilishi tavsiya etiladi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, B. (2023). Raqamli ta’lim texnologiyalari va pedagogik nizolarni boshqarish. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Karimov, R. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari. Jurnal “Ta’lim va Innovatsiya”, 4(2), 45-58.

3. Smith, J., & Lee, A. (2021). Digital Tools in Conflict Resolution in Primary Education. Journal of Educational Technology, 15(3), 112-129.

4. Normatova, D. (2024). Sun’iy intellekt asosidagi pedagogik monitoring tizimlari. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. UNESCO. (2023). Digital Transformation in Primary Schools: Global Trends and Challenges. Paris: UNESCO Publishing.

6. Xolmatov, S. (2022). Interaktiv ta’lim muhitida o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi. Pedagogika Axborotnomasi, 8(1), 22-35.

7. Johnson, M. (2024). Conflict Management Through Educational Technology. New York: Springer.

8. Toshmuhamedova, G. (2023). Raqamli baholash va ta’lim sifati monitoringi. Toshkent: Noshir.

9. Vygotsky, L.S. (2020). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.

10. Rahimov, A. (2024). Boshlang‘ich ta’limda raqamli etika va axborot xavfsizligi. Zamonaviy Ta’lim, 2(4), 67-79.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KREATIVLIKNI TEXNOLOGIYA DARSLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Yadgarova Barno Javliyevna,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatini texnologiya fani asosida rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Texnologiya darslari orqali o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi hamda qo‘l mehnati faoliyatining kreativlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tashkil etilgan texnologiya darslari o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirib, ularni innovatsion fikrlashga undaydi.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, texnologiya fani, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion fikrlash, STEAM, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning shaxsiyati shakllanishida muhim davr hisoblanadi [1; 8-25-b]. Aynan shu davrda ularning kreativ fikrlash, muammolarni hal etish va yangilik yaratishga bo‘lgan qobiliyatlari rivojlantiriladi. Texnologiya fani esa bu jarayonda alohida o‘rin tutadi, chunki ushbu fan o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy faoliyat orqali fikrlashga undaydi [2; 10-3-b].

Texnologiya darslarida kreativlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri bu loyiha asosida o‘qitishdir. Bunda o‘quvchilar muayyan bir muammoni hal qilish uchun mustaqil yoki guruhda ishlaydi, o‘z g‘oyalarini ilgari suradi va yakunda aniq mahsulot yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarda ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash va

mas’uliyat hissini shakllantiradi [3; 45-67-b]. Masalan, oddiy materiallardan foydalangan holda yangi buyum yasash topshirig‘i bolalarda tasavvur va yangicha fikrlashni rivojlantiradi.

Yana bir muhim mexanizm, interfaol metodlardan foydalanishdir. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bu metodlar orqali har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda etadi, boshqalarning g‘oyalarini tinglaydi va ulardan ilhomlanadi. Natijada kreativ fikrlash muhiti shakllanadi [4; 52-74-b].

STEAM yondashuvi ham texnologiya fanida kreativlikni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuv fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani o‘zaro integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning kompleks fikrlashini rivojlantiradi [5; 20-4-b]. Masalan, oddiy konstruktorlar yordamida model yaratish jarayonida o‘quvchi nafaqat quradi, balki hisoblaydi, tahlil qiladi va dizayn ustida ishlaydi. Shuningdek, qo‘l mehnati faoliyati ham kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Qog‘oz, karton, yog‘och yoki boshqa materiallar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘z tasavvurlarini real shaklga keltiradi. Bu esa ularning ijodiy salohiyatini oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

O‘qituvchining roli ham bu jarayonda juda muhimdir. U faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va ilhomlantiruvchi bo‘lishi kerak [6; 30-40-b]. O‘qituvchi o‘quvchilarga erkin fikrlash imkoniyatini yaratib berishi, ularning har bir g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Shunda o‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqmaydi va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishga harakat qiladi [7; 60-90-b].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda texnologiya fani orqali o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va amaliy faoliyat samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiya darslari o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va yangi g‘oyalar yaratish imkonini beradi. Shuningdek, o‘qituvchining to‘g‘ri yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi roli kreativ muhitni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o‘z ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Shu bois, texnologiya fanini samarali tashkil etish orqali kelajakda innovatsion fikrlovchi, tashabbuskor va ijodkor shaxslarni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
2. Texnologiya fani bo‘yicha umumta’lim maktablari uchun o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent, 2010.
5. Dyui J. Tajriba va ta’lim. – Nyu-York, 1938.
6. Piaje J. Bola psixologiyasi. – Nyu-York, 1969.
7. Vigotskiy L.S. Jamiyatda tafakkur. – Kembrij, 1978.

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA TALIS XALQARO DASTURINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Urinova Durdona Olimjon qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Xudayqulova Fazilat Bo‘riyevna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedra o‘qituvchisi. Ilmiy rahbar.

Annotasiya. *Ushbu maqolada TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro baholash dasturi doirasida zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb muammolaridan biri – o‘qituvchilarni xalqaro maydonda raqobatbardosh pedagog sifatida shakllantirish masalasi yoritiladi. Tadqiqot o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash darajasi va uzluksiz kasbiy rivojlanish zaruratini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, global ta’lim talablariga moslashuvi hamda professional rivojlanish tizimini takomillashtirish muhim omil ekani ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *TALIS, xalqaro baholash dasturi, o‘qituvchilar kompetensiyasi, kasbiy rivojlanish, pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy pedagog, raqobatbardosh o‘qituvchi, global ta’lim standartlari, ta’lim tizimini takomillashtirish.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi samaradorligini oshirish va uni xalqaro standartlarga mos rivojlantirish har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llay olishi hamda xalqaro maydonda raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishi ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchilarning ish sharoiti, professional rivojlanishi va pedagogik faoliyatini o‘rganishga qaratilgan TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro baholash dasturi ta’lim tizimini tahlil qilish va takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni xalqaro talablar darajasida tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ–637, 2020-yil 23-sentabr) ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Shuningdek, PF–5712-son Prezident farmoni (2019-yil 29-aprel) bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda PF–5847-son Prezident farmoni (2019-yil 8-oktabr) bilan belgilangan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim tizimini xalqaro reytinglarda raqobatbardosh darajaga olib chiqishga qaratilgan muhim strategik hujjatlar hisoblanadi.

Shu asosda mazkur maqolada o‘qituvchilarni xalqaro maydonda raqobatbardosh pedagog sifatida shakllantirish muammosi TALIS dasturi tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining roli nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion fikrlovchi, global pedagogik jarayonlarni anglay oladigan va xalqaro standartlarga mos faoliyat yurita oladigan mutaxassis sifatida talqin etilmoqda. Shu

sababli o‘qituvchilarni xalqaro maydonda bellasha oladigan pedagog sifatida shakllantirish ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro baholash dasturi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TALIS tadqiqotlari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlari, pedagogik yondashuvlari, ish muhiti va ta’lim sifati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu dastur orqali o‘qituvchilarning professional tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy pedagogik mahorat, innovatsion metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va samarali ta’lim muhitini yaratish kabi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. O‘qituvchilarni xalqaro darajada raqobatbardosh pedagog sifatida shakllantirish, avvalo, ularning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishni talab etadi. Bunda birinchi navbatda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini kuchaytirish muhimdir. O‘qituvchi butun faoliyati davomida yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganishi, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishi va ta’lim jarayoniga mos ravishda yangilanib borishi zarur. O‘qituvchilar uchun muhim omillardan biri zamonaviy pedagogik metodlarni amaliyotga joriy etishdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi faolligiga asoslangan interaktiv yondashuvlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shuning uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, ularni innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish xalqaro ta’limning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar o‘z ishini muntazam tahlil qiladi, natijalarni baholaydi va faoliyatini takomillashtirib boradi. TALIS tadqiqotlari ham o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini baholash va hamkasblari bilan tajriba almashish jarayoni ta’lim sifati oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bu esa professional hamkorlik va pedagogik tajriba almashuvini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Yana bir eng muhim omillardan biri o‘qituvchilarning global pedagogik tafakkurini shakllantirishdir. Xalqaro ta’lim jarayonlarini anglash, turli mamlakatlar tajribasini o‘rganish, zamonaviy ta’lim tendensiyalarini kuzatib borish o‘qituvchining professional dunyoqarashini kengaytiradi. Bu esa ta’lim jarayonini xalqaro standartlarga mos tashkil etish imkonini beradi.

Umuman olganda, TALIS xalqaro baholash dasturi o‘qituvchilarni rivojlantirish strategiyasini ilmiy asoslash, ta’lim sifati bilan bog‘liq omillarni aniqlash va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu dastur ta’lim tizimiga global yondashuvni olib kiradi, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlaydi hamda ularni xalqaro darajada raqobatbardosh pedagog sifatida shakllantirish uchun zarur yo‘nalishlarni belgilab beradi. Shu sababli TALIS nafaqat baholash vositasi, balki ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik rivojlanish mexanizmi sifatida e’tirof etiladi. Natijada o‘qituvchilarni xalqaro maydonda bellasha oladigan pedagog sifatida shakllantirish uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion metodlarni joriy etish, professional hamkorlikni kengaytirish va global pedagogik tafakkurni rivojlantirish kabi kompleks yondashuvlarni talab etadi. Aynan shu jarayonlarni tizimli tashkil etishda TALIS xalqaro baholash dasturi muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy salohiyati va ularning xalqaro standartlarga mos faoliyat yurita olish darajasiga bog‘liq. O‘qituvchilarni xalqaro maydonda bellasha oladigan pedagog sifatida shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti bo‘lib, bu jarayon uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, professional hamkorlikni kengaytirish hamda global pedagogik tafakkurni rivojlantirishni talab etadi.

TALIS xalqaro baholash dasturi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini kompleks o‘rganish, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va pedagog kadrlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu dastur ta’lim tizimini xalqaro mezonlar asosida tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali strategik vosita hisoblanadi. Shu bois o‘qituvchilarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni global ta’lim makonida raqobatbardosh pedagog sifatida tayyorlash ta’lim tizimini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. TALIS natijalaridan samarali foydalanish esa ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-son farmoni. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2019-yil, 29-aprel.
2. G‘afforova, T. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar [Matn]: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 184 b.
3. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing,

ART-PEDAGOGIK METODLAR ASOSIDA TALABALARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada art-pedagogik metodlar asosida talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Kreativ kompetensiya zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida talabalarning ijodiy fikrlashi, muammolarni noodatiy yechimlar orqali hal etish qobiliyati va innovatsion yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda art-pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning didaktik imkoniyatlari hamda kreativlikni rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalar ijodiy faoliyatini faollashtirish usullari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *art-pedagogika, kreativ kompetensiya, ijodiy fikrlash, ta’lim texnologiyalari, innovatsiya, talaba, pedagogik metodlar.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosiy o‘rinni egallamoqda. Ayniqsa, talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning innovatsion taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Kreativlik nafaqat badiiy ijodda, balki ilmiy, texnik va ijtimoiy faoliyatda ham zarur bo‘lgan kompetensiya sifatida e’tirof etilmoqda. Art-pedagogika esa ta’lim jarayonida san’at vositalaridan

foydalanish orqali shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodlar talabalarning emotsional, intellektual va estetik rivojlanishini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Art-pedagogika o‘quvchilarning ichki dunyosini, emotsional holatini, obrazli va estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. San’at vositalari orqali bilim berish, o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, kreativ kompetensiyalar – ya’ni yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish, o‘z g‘oyasini ifoda eta olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda art-pedagogikaning imkoniyatlari beqiyosdir.Ushbu maqola aynan shu masalaga —art-pedagogik metodlar yordamida o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Art-pedagogika – bu san’at vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanishga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvdir. Bu metod maktab o‘quvchilarining intellektual, hissiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Art-pedagogik metodlar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: Drama va teatr elementlari (rol o‘ynash, sahnalashtirish); Tasviriy san’at (rasm chizish, kollaj, installyatsiya); Musiqa va ritm mashg‘ulotlari; Adabiy ijod (she’r yozish, hikoya tuzish, personaj yaratish); Harakat san’ati (raqs, pantomima, plastika); Interaktiv art-loyihalar va guruhiy ijodiy ishlar.

Bu metodlar orqali o‘quvchi dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, o‘zini ifoda etish, erkin fikrlash, yangicha yondashuvni o‘rganadi. Ayniqsa, kreativ kompetensiyaning asosiy elementlari – yangilik yaratish, muammoni noodatiy yo‘l bilan hal qilish, ko‘p yoqlama fikrlash, tasavvur va emotsional sezuvchanlik art-pedagogik faoliyatda samarali shakllanadi.Masalan, adabiyot darsida personajlar o‘rtasidagi dialogni teatr sahnasi sifatida sahnalashtirish, biologiya darsida hayvonlar hayotiy muhitini rasm orqali ifodalash, tarixda muhim voqealarni sahna ko‘rinishida ko‘rsatish – bularning barchasi o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keladi.Art-pedagogikaning ta’limdagi afzalliklaridan biri – bu subyektga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Ya’ni har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini, iste’dodini, dunyoqarashini inobatga oladi. Bundan tashqari, bunday yondashuvda o‘qituvchi ijodkor, tashkilotchi va ilhomlantiruvchi sifatida qatnashadi. Ayni paytda art-pedagogik metodlarni joriy qilishda muayyan qiyinchiliklar ham mavjud: o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, zarur vositalar yetishmasligi, baholash mezonlarining noaniqligi shular jumlasidandir. Shu sababli art-pedagogika bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari, amaliy seminar-treninglar tashkil etilishi, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim.

Umumta’lim maktablarida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Art-pedagogik metodlar bu jarayonda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. San’at orqali o‘rgatish nafaqat o‘quvchilarni bilim bilan qurollantiradi, balki ularni o‘ylashga, his qilishga, ifoda etishga, yangilik yaratishga undaydi. O‘quvchi o‘zini kashf etadi, ijodiy yondashishga odatlanadi va bu unga kelajakda har qanday faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishga zamin yaratadi. Shu sababli, ta’lim tizimida art-pedagogik metodlarni bosqichma-bosqich joriy etish, o‘qituvchilarni bu yo‘nalishda tayyorlash va metodik bazani boyitish ta’lim sifatini tubdan oshiradi. Kreativ avlodni tarbiyalash uchun art-pedagogika vositalari eng mos va samarali yondashuvlardan biridir.

Xulosa. Art-pedagogik metodlar asosida talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish, ularni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish

va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada, ta’lim jarayonida art-pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davydov V.V. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Moskva, 2018.
2. To‘xtaxo‘jaev A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2020.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
4. Ismailova Z. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2022.

RAQAMLI TA’LIMDA TALABALAR IJODKORLIGINI SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida talabalar ijodkorligini rivojlantirishning yangi pedagogik mexanizmlari sun’iy intellekt vositalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ tafakkurning shakllanish jarayonlari, kognitiv faollikni oshirish omillari hamda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan muammoli-ta’lim muhiti imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada generativ texnologiyalar, intellektual tahlil tizimlari va raqamli kreativ platformalarning didaktik salohiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, generativ texnologiyalar, kreativ tafakkur, kognitiv faollik, raqamli muhit, muammoli ta’lim, intellektual tizimlar.*

Zamonaviy ta’lim tizimi bilimlarni uzatishdan ko‘ra, ularni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatni talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyot sharoitida muhim omilga aylanmoqda. Raqamli muhitda sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi nafaqat ta’lim shakllarini, balki bilish jarayonining o‘zini ham o‘zgartirmoqda. Endilikda talabalar tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki ma’lumotni qayta ishlovchi va yangi g‘oyalar yaratuvchi subyekt sifatida shakllanmoqda [1; 9-b.]. Shu jihatdan sun’iy intellekt vositalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Ijodkorlikning shakllanishida nafaqat individual xususiyatlar, balki ta’lim muhitining sifati ham muhim rol o‘ynaydi. Raqamli muhitda talaba turli interaktiv resurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va generativ tizimlar yordamida murakkab muammolarni hal qiladi. Bu jarayon kognitiv faollikni oshiradi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalar ilmiy izlanishlar, loyiha ishlari va interaktiv mashg‘ulotlar orqali innovatsion yondashuvni o‘zlashtiradi.

Raqamli ta’limning yana bir muhim jihati shundaki, u global bilim ekotizimi bilan integratsiyalashgan. Talabalar sun’iy intellekt tizimlari orqali dunyoning turli mamlakatlaridagi ilmiy resurslarga, virtual kutubxonalarga va laboratoriyalarga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning kognitiv va kreativ salohiyatini yanada kengaytiradi, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va murakkab muammolarga innovatsion yechimlar topish qobiliyatini oshiradi. Shu sababli, raqamli ta’lim va sun’iy intellekt vositalarining integratsiyasi zamonaviy pedagogikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri

hisoblanadi. Ushbu integratsiya orqali ta’lim jarayoni standart bilim berishdan o‘tib, talabani faol, mustaqil va ijodiy tafakkurga ega subyekt sifatida shakllantiradi.

Ijodkorlikning asosini kognitiv jarayonlar orqali shakllanadi: tahlil qilish, sintez, analogiya va muammoli fikrlash tashkil etadi. Raqamli ta’lim muhiti esa ushbu jarayonlarni faollashtiruvchi tashqi stimulyator vazifasini bajaradi.

Sun’iy intellekt tizimlari orqali talabalar murakkab axborotlarni qayta ishlash, ularni solishtirish va yangi xulosalar chiqarishga yo‘naltiriladi. Bu esa divergent fikrlashni rivojlantiradi, ya’ni bir muammoga bir nechta yechim topish qobiliyatini shakllantiradi [2; 14-b.]. Natijada, talabalarda mustaqil va kreativ fikrlash mexanizmlari shakllanadi. Masalan, matematik masalani yechishda generativ sun’iy intellekt talaba uchun turli yechim variantlarini taqdim etishi mumkin. Shu orqali talaba muammoni bir nechta usul bilan tahlil qilishni o‘rganadi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt texnologiyalari (matn, tasvir, kod yaratuvchi tizimlar) ta’lim jarayoniga kirib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar talabalarni passiv iste’molchidan faol yaratuvchiga aylantiradi. Masalan, talaba sun’iy intellekt yordamida: • yangi g‘oyalar generatsiya qiladi; • muammoli vaziyatlar uchun yechim variantlarini ishlab chiqadi; • ilmiy matnlar va loyihalar yaratadi.

Bu jarayonda sun’iy intellekt “hamkor subyekt” sifatida ishtirok etadi va ijodiy jarayonni tezlashtiradi [3; 22-b.]. Shu orqali talabaning kreativ salohiyati ochiladi va uning innovatsion fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Masalan, talaba virtual laboratoriyada tajriba o‘tkazib, natijalarni avtomatik tahlil qiluvchi sun’iy intellekt tizimi orqali qaysi yo‘nalishlar muvaffaqiyatli ekanini ko‘radi. Bu nafaqat o‘quv jarayonini individualizatsiya qiladi, balki talabaning ilmiy fikrlash qobiliyatini ham oshiradi. Ijodkorlikni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar muhim o‘rin tutadi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar bunday vaziyatlarni avtomatik tarzda yaratish imkonini beradi. Masalan, tizim talabaning bilim darajasiga qarab murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlarni taklif etadi. Bu esa talabaning “yaqin rivojlanish zonasi”da ishlashiga yordam beradi va uning fikrlash faoliyatini maksimal darajada faollashtiradi [4; 18-b.]. Natijada, ta’lim jarayoni standart emas, balki dinamik va moslashuvchan tus oladi. Ijodkorlik faqat yangi g‘oya yaratish bilan emas, balki o‘z fikrlash jarayonini boshqarish bilan ham bog‘liq. Bu esa metakognitiv ko‘nikmalarni talab qiladi. Sun’iy intellekt vositalari talabaga o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi. Masalan, aqlli tizimlar: • individual tavsiyalar beradi; • fikrlash jarayonini monitoring qiladi; • refleksiya jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu esa talabada o‘z-o‘zini boshqarish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5; 27-b.]. Sun’iy intellekt vositalari asosida raqamli kreativ ekotizimni yaratish mumkin. Bu tizim quyidagi komponentlardan iborat bo‘ladi: • intellektual o‘quv platformalari; • kollaborativ muhit; • kreativ laboratoriyalar; • raqamli portfoliolar.

Mazkur ekotizim talabalarni nafaqat bilim olishga, balki yangi mahsulot yaratishga yo‘naltiradi. Ayniqsa, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishda sun’iy intellekt muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [2; 31-b.]. Masalan, bir guruh talaba generativ SI yordamida ilmiy loyiha ustida ishlaydi: tizim ularga avtomatik tarzda loyiha g‘oyalarini taqdim etadi, muammoli vaziyatlarni yaratadi va natijalarni vizualizatsiya qiladi. Shu orqali talabalarning ijodkorligi va ilmiy tafakkuri oshadi. Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish talabalar ijodkorligini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab bermoqda. Ushbu texnologiyalar bilish jarayonini individuallashtirish, muammoli vaziyatlar yaratish va kreativ faoliyatni qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt,

adaptiv tizimlar va intellektual tahlil vositalari talabalarni faol yaratuvchiga aylantirib, ularning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Sh. Raqamli ta’lim nazariyasi. – Toshkent, 2022.
2. Raximov B. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent, 2023.
3. Xudoyberdiyev S. Sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi. – Toshkent, 2024.
4. Ismoilova N. Muammoli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2023.
5. Tursunov A. Metakognitiv yondashuv va ta’lim. – Toshkent, 2024.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Ergashova Nodira Raxmat qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish va ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik asoslari tahlil qilingan. Raqamli vositalar yordamida axborotni saralash, tahliliy mushohada yuritish va dars jarayonida intellektual mustaqillikni ta’minlashning metodik yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli didaktika, tanqidiy fikrlash, axborot texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim, metodika, interaktiv topshiriqlar, axborot filtratsiyasi, ta’limiy platformalar.*

Global axborotlashuv davrida ta’lim tizimi yangi pedagogik bosqichga ko‘tarildi. Boshlang‘ich ta’lim - inson kapitalining poydevori hisoblanib, bu bosqichda o‘quvchilarga nafaqat bazaviy bilimlar berish, balki ularni ochiq raqamli dunyoda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalariga o‘rgatish davr talabidir. Raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyalashuvi o‘qituvchining funksiyalarini ham transformatsiya qildi: endilikda pedagog axborot yetkazuvchidan ko‘ra, o‘quvchini bilimlar olamida yo‘naltiruvchi moderator vazifasini o‘tamoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish raqamli muhitda "axborot immuniteti"ni yaratishning asosi hisoblanadi. Zero, raqamli makonda axborotning ishonchliligi va sifati har doim ham pedagogik talablarga javob bermaydi. Shu bois, o‘quvchida ma’lumotni tahlil qilish, uning mohiyatini anglash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish dars jarayonining strategik maqsadiga aylanishi zarur [1, 52-b.].

Raqamli didaktika – bu axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirishni ko‘zda tutuvchi pedagogika sohasidir. Tanqidiy fikrlash esa ushbu muhitda o‘quvchi bajaradigan asosiy intellektual amal hisoblanadi. An’anaviy darslardan farqli o‘laroq, raqamli darslarda o‘quvchi o‘zi qidirgan, tahlil qilgan va modellashtirgan bilimlarini yaxshi o‘zlashtiradi.

Boshlang‘ich sinf darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun raqamli vositalar orqali quyidagi didaktik vazifalar amalga oshiriladi:

- *Axborotning ko‘p qirraliligi:* O‘quvchilarga bitta mavzuni turli raqamli manbalar (video, animatsiya, elektron matn) orqali taqdim etish va ulardagi umumiy hamda farqli jihatlarni topishni o‘rgatish.
- *Mantiqiy filtratsiya:* Raqamli qidiruv tizimlaridan olingan katta hajmdagi ma’lumotlar ichidan faqat dars mavzusiga va qo‘yilgan muammoga daxldor bo‘lganlarini saralab olish ko‘nikmasini hosil qilish [2, 74-b.].
- *Dalillarga tayanish:* Raqamli platformalar taqdim etgan yechimlarni shubha ostiga olish va ularni qoidalar, qonunlar yoki amaliy tajribalar bilan solishtirib ko‘rish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi axborotni asosan vizual obrazlar orqali qabul qiladi. Shu sababli, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar vizual-tahliliy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Metodik jihatdan bu jarayon uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

Muammoli-vizual chaqiriq: Darsning kirish qismida raqamli vositalar (elektron doska, VR elementlari) yordamida o‘quvchiga ziddiyatli holat taqdim etiladi. Masalan, "Tabiatshunoslik" darsida tabiat qonunlariga zid bo‘lgan raqamli model ko‘rsatiladi. Bu holat o‘quvchining diqqatini muammoga qaratadi va tahliliy izlanishni boshlab beradi [3, 101-bet].

Izlanish va raqamli modellashtirish: O‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda, planshetlar yoki kompyuterlar yordamida muammoni yechishga kirishadilar. Ular raqamli ensiklopediyalardan foydalanadilar, simulyatorlarda tajribalar o‘tkazadilar. Bu bosqichda o‘quvchi "Agar... o‘zgartirilsa, natija nima bo‘ladi?" degan gipotezani tekshirib ko‘radi. Bu o‘quvchining mantiqiy xulosalar yasash qobiliyatini amaliyotda sinaydi.

Konstruktiv argumentatsiya: O‘quvchilar o‘zlarining xulosalarini raqamli taqdimot yoki infografika ko‘rinishida taqdim etadilar. Bu yerda asosiy talab - o‘z fikrini dalillar bilan isbotlashdir. Raqamli vositalar o‘quvchiga o‘z yechimini vizual tarzda himoya qilish imkonini beradi, bu esa nutq o‘stirish va mantiqiy ketma-ketlikni saqlashga xizmat qiladi [4, 19-b.].

Zamonaviy darslarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan yoki saralangan raqamli resurslar tizimi qo‘llaniladi. Ularning har biri ma’lum bir intellektual ko‘nikmani rivojlantirishga qaratilgan:

- ***Interaktiv simulyatorlar:*** O‘quvchiga hodisalarning ichki mexanizmini tushunishga va ularning sabab-oqibat bog‘liqligini tanqidiy tahlil qilishga yordam beradi.
- ***Fikrlar xaritasi:*** O‘quvchi o‘rgangan ma’lumotlarini tizimlashtiradi. Bu vosita ma’lumotlar orasidagi bog‘liqlikni vizuallashtiradi va mantiqiy bo‘shliqlarni ko‘rishga yordam beradi [5, 67-b.].
- ***Raqamli kvestlar:*** O‘quvchi ma’lum bir maqsadga erishish uchun raqamli muhitda ketma-ket mantiqiy topshiriqlarni yechishi kerak bo‘ladi. Bu metodika o‘quvchini mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Ushbu vositalarning afzalligi shundaki, ular o‘quvchiga darhol qayta aloqa (feedback) beradi. Agar o‘quvchi mantiqiy xatoga yo‘l qo‘ysa, dastur buni ko‘rsatadi va o‘quvchini o‘z xatosini tahlil qilib, qaytadan urinib ko‘rishga undaydi.

Boshlang‘ich ta’limda raqamli vositalar va tanqidiy fikrlash metodikasining uyg‘unligi dars samaradorligini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqadi. Bu yondashuv quyidagi natijalarni kafolatlaydi:

1. *Axborot bilan ishlash madaniyati:* O‘quvchi raqamli dunyodagi har qanday ma’lumotni shubha bilan tekshirishga va uning manbasini aniqlashga odatlanadi.

2. *Intellektual faollik:* Tayyor javoblardan ko‘ra, yechimni izlab topish va uni isbotlash jarayoni o‘quvchi uchun jozibali bo‘ladi.

3. *Metakognitiv ko‘nikmalar:* O‘quvchi o‘zining o‘quv faoliyatini nazorat qilishni, qayerda va nima uchun xato qilganini tushunishni o‘rganadi [3, 105-b.].

Shu bilan birga, raqamli muhitda hamkorlikda ishlash (Collaboration) o‘quvchilarda ijtimoiy tahlil ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Umumiy raqamli platformalarda guruh bo‘lib ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birlarining argumentlarini tinglashadi, tanqidiy fikr bildirishadi va umumiy mantiqiy to‘xtamga kelishadi [6, 15-b.]. Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va strategik ahamiyatga ega masalasidir. Raqamli vositalar dars jarayonida o‘quvchining mantiqiy mushohada yuritish imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytiradi. Tizimli tashkil etilgan raqamli darslar o‘quvchini axborotlarni tahlil qilishga, har bir ma’lumotni mantiq taroziiga solib ko‘rishga va ongli qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bu esa raqamli avlod vakillarini nafaqat texnologiyadan foydalana oladigan, balki mustaqil va tahliliy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev R.H. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2019.
2. Saidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya va kompetensiya. Toshkent, 2018.
3. Salimova T.M. Innovatsion pedagogika asoslari. Toshkent, 2020.
4. Karimov I.A. Raqamli ta’lim va pedagog kompetensiyasi. Toshkent, 2022.
5. Karimova N.X. Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent, 2021.
6. UNESCO. Digital Learning and Critical Thinking. Paris, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Yusupova Dilfuza Nasimboy qiz,
Murtazayeva Surayyo Shuxrat qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda STEAM texnologiyasi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. STEAM ta’limining mazmuni, uning boshlang‘ich ta’lim tizimidagi o‘rni hamda o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot davomida STEAM yondashuvining ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli hamda fanlararo integratsiyani ta’minlash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM ta’limi, innovatsion pedagogik texnologiya, boshlang‘ich ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, kreativ fikrlash, ta’lim samaradorligi.*

Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, STEAM texnologiyasi asosida ta’limni tashkil etish o‘quvchilarning bilimlarni integratsiyalashgan holda o‘zlashtirishiga yordam beradi.

STEAM ta’limi – bu fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitishga asoslangan zamonaviy ta’lim modeli hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil fikrlash hamda ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida STEAM texnologiyasini qo‘llash o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, STEAM yondashuvi o‘quvchilarning muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.STEAM ta’lim texnologiyasi bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Amerikalik tadqiqotchi STEAM ta’limini integratsiyalashgan ta’lim modeli sifatida ta’riflab, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarda fanlararo bilimlarni shakllantirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi [1, 15-b.]. STEM va STEAM ta’limining zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutishini qayd etib, ushbu yondashuv o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [2, 34-b.].

O‘zbek pedagog olimlari innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishini va ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [3, 56-b.]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi [4, 47-b.].

STEAM ta’limi integrativ pedagogik yondashuvga asoslanib, bir nechta fanlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi. Mazkur yondashuvda o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar. Natijada ta’lim jarayoni yanada qiziqarli va samarali tashkil etiladi.

STEAM ta’limining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

Science – tabiiy fanlar orqali tabiat hodisalarini tushunish;

Technology – texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Engineering – muhandislik fikrlashini shakllantirish;

Art – ijodkorlik va estetik tafakkurni rivojlantirish;

Mathematics – matematik fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ushbu fanlarning integratsiyasi o‘quvchilarning bilimlarini kompleks ravishda shakllantirishga yordam beradi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [2, 40-b.].

Boshlang‘ich sinflarda STEAM ta’limining ahamiyati. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda STEAM texnologiyasini qo‘llash o‘quv jarayonini innovatsion shaklda tashkil etishga imkon beradi. Mazkur texnologiya asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar turli loyihalar, tajribalar hamda amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimlarni mustaqil ravishda egallaydilar. Masalan, boshlang‘ich sinflarda quyidagi faoliyat turlarini tashkil etish mumkin: oddiy tajribalar o‘tkazish; konstruktorlar yordamida modellar yaratish; matematik masalalarni amaliy vaziyatlar orqali yechish; ijodiy loyihalar tayyorlash; guruhiy muammoli vazifalarni hal qilish.

Bunday faoliyatlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. STEAM texnologiyasini boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llash bir qator pedagogik natijalarga olib keladi: o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi rivojlanadi; o‘quv jarayoni qiziqarli va interfaol shaklda tashkil etiladi; nazariy bilimlarning amaliy qo‘llanilishi ta’minlanadi; o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanadi; muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Shuningdek, STEAM texnologiyasi o‘quvchilarning kelajak kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi.

STEAM texnologiyasini qo‘llash metodlari. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida STEAM texnologiyasini samarali qo‘llash uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Loyihaviy ta’lim: Bu metod o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga yordam beradi.

2. Muammoli ta’lim: Muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi rivojlanadi.

3. Amaliy tajribalar: Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash STEAM ta’limining muhim xususiyatlaridan biridir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, innovatsion pedagogik metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi [3, 59-b.].

Boshlang‘ich sinflarda STEAM texnologiyasini qo‘llash o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, STEAM texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – USA, 2008.

2. Bybee R. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – Arlington, 2013.

3. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

4. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Yusupova Navbahor Abdumajitovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy-pedagogik imkoniyatlari tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faolligini oshirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quv faoliyatini monitoring qilish va*

baholash samaradorligini ta’minlashdagi roli ishonchli ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning didaktik tamoyillari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari hamda o‘qituvchi faoliyatida yuz berayotgan transformatsion o‘zgarishlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim resurslari, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metodika, adaptiv o‘qitish, individual ta’lim.*

Bugungi kunda globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim mazmuni va metodlarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini faollashtirib, ularning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi hamda ta’lim samaradorligini ta’minlaydi [1; 34-b.].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishining muhim poydevori bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarda asosiy bilish jarayonlari, mantiqiy fikrlash va mustaqil ta’lim ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli, bu bosqichda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar ilmiy asoslangan, zamonaviy va samarali bo‘lishi zarur. Sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda [1; 41-b.].

Sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim resurslari – bu o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va individual xususiyatlarini tahlil qilish orqali ta’lim mazmunini moslashtirishga yo‘naltirilgan intellektual axborot tizimlaridir. Mazkur resurslar algoritmik tahlil asosida ishlaydi va har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.Ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt ta’lim jarayonida faqat texnik vosita emas, balki pedagogik jarayonni boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va prognozlovchi tizim sifatida talqin etiladi. U o‘quvchilarning xatolarini aniqlash, bilimlardagi bo‘shliqlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan individual tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi [2; 73-b.]. Bu esa boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifatini oshirishga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bir qator muhim didaktik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Xususan, bunday texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, o‘quv materialini vizuallashtirish, bilimlarni mustahkamlash va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi.

AI texnologiyalari o‘quv jarayonini quyidagi jihatlarda takomillashtiradi:

1. Bilimlarni vizualizatsiya qilish: o‘quv materialini interaktiv va ko‘rgazmali shaklda taqdim etish.
2. Individual ta’lim: o‘quvchilarning bilim va qobiliyatlariga moslashtirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish (Holmes, Bialik, Fadel, 2019, 89-bet).
3. Bilish faolligini oshirish: o‘quvchilarning mustaqil ishlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

AI texnologiyalari o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, tenglikni ta’minlash va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan, UNESCO hisobotida sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va

qobiliyatlarini hisobga olish orqali ta’limda tenglik va sifatni ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlangan [3; 22-b.].

Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish aniq metodik ketma-ketlik asosida tashkil etilishi zarur. Avvalo, o‘quv maqsadlari aniqlanadi va mazkur maqsadlarga mos raqamli vositalar tanlanadi. Keyingi bosqichda ushbu resurslar dars jarayoniga integratsiya qilinib, o‘quvchilarning bilish faoliyati doimiy monitoring qilinadi [4; 102-b.].

Mazkur metodik yondashuv o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi rolini tubdan o‘zgartiradi. O‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning individual rivojlanishini yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va pedagogik jarayonni boshqaruvchi fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘qituvchidan yuqori darajadagi raqamli savodxonlik, metodik va axborot kompetensiyalarini talab etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini tahlil qiluvchi, ularning individual ehtiyojlariga mos pedagogik yordam ko‘rsatuvchi subyektga aylanadi [5; 121-b.]. Bu holat pedagogik jarayonning sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish va individual ta’limni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalarni ilmiy asoslangan metodika asosida qo‘llash boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.
2. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. UNESCO. “Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges”. – Paris, 2019.
4. Holmes W., Bialik M., Fadel C. “Artificial Intelligence in Education”. – Boston, 2019.
5. Xodjayev B.X. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
G‘aniyeva Parizoda Murodjon qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sun’iy intellekt*

texnologiyalarining ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinib, ularning afzalliklari va istiqbollari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, innovatsion ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’lim tizimi, pedagogik texnologiya, raqamli ta’lim muhiti, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, kreativligini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, individual o‘qitish tizimini yaratish hamda o‘quvchilarning bilim darajasini aniq tahlil qilish imkoniyati mavjud. Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Pedagog olimlarning fikriga ko‘ra, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [1; 25-b.].

Sun’iy intellekt texnologiyalari inson intellektual faoliyatiga o‘xshash jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beradi. Ta’lim tizimida ushbu texnologiyalar yordamida o‘quv materiallarini tahlil qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va individual ta’lim dasturlarini yaratish mumkin. Sun’iy intellektning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik baholash; individual o‘qitish tizimini yaratish; ta’lim jarayonini raqamlashtirish; o‘quv materiallarini optimallashtirish; masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o‘quv platformalari o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi [2; 41-b.]. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchilarga ham katta yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilish, ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va o‘qitish metodlarini takomillashtirishda ushbu texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bunda o‘quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega [3; 52-b.].

Sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Individual yondashuv – har bir o‘quvchining bilim darajasi va qobiliyatiga mos ta’lim tizimini yaratish.

2. Tezkor tahlil – o‘quvchilarning bilim darajasini tez va aniq baholash imkoniyati.

3. Moslashuvchanlik – o‘quv jarayonini o‘quvchining ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgartirish imkoniyati.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi [4; 68-b.]. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida o‘quv materiallarini tahlil qilish, test savollarini avtomatik shakllantirish hamda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash mumkin. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi roli yanada ortib boradi. Chunki ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyati mavjud.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining istiqbolli yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi: aqlli o‘quv platformalarini yaratish; virtual ta’lim muhitini rivojlantirish; adaptiv o‘qitish tizimlarini joriy etish; masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, kelajakda sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta’lim tizimlari o‘qituvchi faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, balki uning ishini samarali tashkil etishga yordam beradi [5; 48-b.]. Shu sababli ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniq baholash hamda individual ta’lim tizimini yaratish imkoniyati mavjud. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘qituvchilarning faoliyatini optimallashtirish hamda zamonaviy raqamli ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajakda ta’lim tizimini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish pedagogik jarayonni yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
3. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2020.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM MATEMATIKA DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH MODELI

Xudayberdiyeva Zulfizar Muxtorjon qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Magistratura talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish modelini taklif etadi. Zamonaviy ta’limda SI integratsiyasining ortib borayotgan ahamiyatini inobatga olgan holda, maqola mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi, SIning pedagogik salohiyatini o‘rganadi va o‘qituvchi tayyorlash, o‘quv dasturlarini moslashtirish, baholash strategiyalarini o‘zgartirish hamda axloqiy me’yorlarga rioya qilish kabi muhim jihatlarni qamrab oluvchi kompleks modelni taklif qiladi. Maqola SIga asoslangan ta’limning asosiy tamoyillarini bayon etib, kelajakdagi tadqiqotlar va amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, matematika o‘qitish, pedagogik model, o‘qituvchi tayyorlash, o‘quv dasturlari, baholash, samaradorlik.*

Pandemiyadan keyingi davr texnologiyalarni integratsiyalash uchun hal qiluvchi bosqichni belgilab berdi, ayniqsa sun’iy intellekt, global ta’lim tizimlari, global sog‘liqni saqlash inqirozi davrida masofaviy va gibrid o‘qitish modellariga o‘tish raqamli texnologiyalarning ta’limdagi rolini yanada oshirdi. Sun’iy intellekt barcha saholarda xususan ta’limda ham muhim ahamiyatga kasb etadi. Tahlil qila oladigan vositalarni taklif qiluvchi, ilg‘or o‘qitish va o‘rganish amaliyotlari, shaxsiylashtirilgan o‘qishni yaxshilash uchun o‘quvchilarning ishtiroki boshlang‘ich matematika darslarida sun’iy intellekt shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimlari alohida ahamiyatga ega. SI to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tushunchalarni aniqlash, tahlil qilish va darhol fikr-mulohaza bildirish, shu bilan birga o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, SI o‘qituvchilarga qiynalayotgan o‘quvchilarni aniqlash va ularga yordam berish orqali moslashtirilgan qo‘llab-quvvatlash dasturini amalga oshiradi. Matematika bolaning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va analitik qobiliyatlarini shakllantirishda fundamental rol o‘ynaydi. Shu sababli, bu bosqichda SI vositalarini to‘g‘ri va maqsadli tatbiq etish o‘quvchilarning matematik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishiga, ularning faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratishga yordam beradi.

Biroq, SI texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga integratsiya qilish murakkab jarayon bo‘lib, u nafaqat texnik jihatlarni, balki pedagogik, metodik va axloqiy masalalarni ham qamrab oladi. O‘qituvchilarning tayyorgarligi, mavjud infratuzilma, o‘quv dasturlarini moslashtirish va baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish kabi masalalar hal etilishi lozim. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida sun’iy intellektdan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha kompleks model taklif etiladi. Model SI vositalarining samarali tatbiqini ta’minlash, o‘qituvchilarning salohiyatini oshirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy yechimlarni o‘z ichiga oladi. Maqolada ushbu modelning nazariy asoslari, asosiy komponentlari, amalga oshirish strategiyalari, baholash mexanizmlari va axloqiy jihatlari atroflicha yoritiladi.

Sun’iy intellektning ta’lim sohasiga integratsiyasi bo‘yicha dunyo miqyosida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mavjud adabiyotlar SI texnologiyalarining o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, moslashuvchan o‘qitish tizimlarini yaratish va o‘qituvchilarga yordam berishdagi salohiyatini ko‘rsatadi. Xususan, intelligent o‘qitish tizimlari, moslashuvchan o‘quv platformalari va virtual manipulyativlar, 3D rasm va video yaratuvchi dasturlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik tushunchalarni vizuallashtirish va mustahkamlashda yordam beradi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z sur’atlarida o‘rganish imkoniyatini beradi, ularning ehtiyojlariga moslashadi va tezkor qayta aloqa mexanizmlarini taqdim etadi.

Boshlang‘ich sinf matematika o‘qituvchilari o‘rtasida sun’iy intellektni qabul qilishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning SIga bo‘lgan ijobiy munosabati uning amaliyotga tatbiq etilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Texnologik Pedagogik va Mazmuniy Bilim (TPACK) nazariyasi o‘qituvchilarni SI texnologiyalarini samarali integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan jihozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuningdek, kontekstual omillar va ta’limdagi qiyinchiliklar kabi masalalarga tizimli yondashuvlar, masalan, siyosiy va institutsional yordam zarurligini ta’kidlaydi. Ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi ham SI vositalarini qabul qilish jarayonida muhim omil hisoblanadi, bu esa o‘qituvchilarning ijobiy munosabatlarini shakllantirish va SI

malakasini oshirish uchun maqsadli kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining K-12 ta’limiga integratsiyasi bo‘yicha qo‘llanmalar samarali kurashni qo‘llab-quvvatlash orqali chuqurroq o‘rganishga yordam berishini ko‘rsatadi. Bu esa kontseptual tushunchalarni shakllantiradigan samarali kurashni oldini oladigan samarasiz kurashdan ajratish muhimligini ta’kidlaydi. Matematika-maxsus SI vositalaridan, masalan Khanmigo, Khanacademy, Nerd AI yoki Desmos kabi dasturlardan hisoblash vazifalari uchun foydalanish tavsiya etiladi, chunki umumiy maqsadli katta til modellari, masalan ChatGPT, hisoblashda sezilarli cheklashlarga ega bo‘lishi mumkin. ChatGPT, DeepSeek, Perplexity, AI Chatbot kabi dasturlarko‘proq kontseptual tahlil kabi tilga asoslangan vazifalar uchun mos keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bevosita Generativ sun’iy intellektdan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ularning kognitiv ko‘nikmalari rivojlanish bosqichida bo‘ladi va yosh cheklovlari mavjud. O‘qituvchilarga ushbu vositalardan asosan dars rejalashtirish uchun foydalanish tavsiya etiladi. Generativ sun’iy intellekto‘quvchilar uchun SI repetitorligi va xatolarni tahlil qilish, o‘qituvchilar uchun dars yaratish, autentik muammolarni yaratish va o‘qitishni farqlash kabi amaliy foydalanish holatlarini taqdim etadi.

Matematika o‘qituvchilari milliy kengashi kabi nufuzli tashkilotlar sun’iy intellektga asoslangan vositalar matematika o‘qitishda katta salohiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bu vositalar o‘quvchilarning fikrlash tarziga va qiziqishlariga moslasha oladi, muammolarni tuzatishi va noto‘g‘ri javoblar orqali ham tushunchani aniqlashi mumkin. Biroq, SI inson o‘qituvchilarining muhim rolini pasaytirmasligini alohida ta’kidlaydi. Pedagoglar o‘zlarining matematik, pedagogik va munosabatga oid ekspertizasi bilan, ayniqsa o‘quvchilarga bilimlarni bog‘lashda va SI natijalariga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib qoladilar. SI natijalari ma’lumotlar to‘plamlaridagi tarafkashlikdan kelib chiqishi, “gallyutsinatsiyalar” berishi yoki nomuvofiq manbalarni taqdim etishi mumkin.

Oldingi texnologik vositalar bilan parallel o‘tkazib, matematika o‘qituvchilari milliy kengashi sun’iy intellekt baholash e’tiborini shunchaki hisoblashdan muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va SI tomonidan yaratilgan yechimlarning asosliligini tekshirishga o‘zgartirishni talab qilishini ta’kidlaydi. Bu esa matematik o‘qitish va baholash bo‘yicha yanada chuqur bilimlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni talab qiladi. Pedagoglar SI vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishda faol ishtirok etishlari, ulardan teng foydalanishni ta’minlashlari va o‘quvchilarni ushbu texnologiyalar bilan tanqidiy muloqot qilishga tayyorlashlari shart. Yakunida, SI o‘qituvchilarni o‘qitishni qayta ko‘rib chiqishga, fundamental hisoblash ko‘nikmalarini ma’no tushunish va ijodiy muammolarni hal qilish bilan uyg‘unlashtirishga undaydi.

Mavjud tadqiqotlar SIning ta’limdagi potentsialini ko‘rsatsa-da, boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida SI texnologiyalarini tizimli va samarali integratsiya qilish bo‘yicha kompleks modelga bo‘lgan ehtiyoj sezilmoqda, ayniqsa O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan ta’lim tizimlari uchun.

Modelning asosiy maqsadi SI texnologiyalarining o‘quv jarayoniga maqsadli va samarali integratsiyasini ta’minlash, o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘qituvchilarning SI vositalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi nazariy asoslar va pedagogik tamoyillarga tayanadi:

Konstruktivizm va sotsio-konstruktivizm: O‘quvchilarning bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol quruvchi ekanligini tan olish. SI vositalari o‘quvchilarga o‘z bilimlarini qurishda interaktiv muhit va qayta aloqa mexanizmlarini ta’minlaydi.

Kognitiv yuk nazariyasi: O‘quv jarayonida kognitiv yukni optimallashtirish. SI vositalari murakkab vazifalarni soddalashtirish, vizualizatsiya qilish va individual yordam ko‘rsatish orqali o‘quvchilarga ma’lumotlarni samaraliroq qayta ishlashga yordam beradi.

Moslashuvchan o‘qitish tamoyillari: Har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘rganish sur’atiga moslashuvchan yondashuv. SI tizimlari o‘quvchining taraqqiyotini kuzatish va unga mos ravishda o‘quv materiallarini sozlash imkoniyatini beradi.

O‘quvchi markazlashtirilganlik: O‘quvchini o‘qitish jarayonining markaziga qo‘yish, uning faolligini, mustaqilligini va mas’uliyatini oshirish. SI yordamida o‘quvchilar o‘z o‘rganish yo‘llarini tanlashlari, muammolarni mustaqil hal qilishlari va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishlari mumkin.

Differensiallashtirilgan ta’lim: Har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishni tashkil etish. SI platformalari turli darajadagi topshiriqlar va yordamlarni taqdim etish orqali differensiallashtirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi.

Faol o‘rganish: O‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish, ularni muhokamalar, loyihalar va amaliy vazifalarda ishtirok etishga undash. SI vositalari interaktiv mashqlar, simulyatsiyalar va o‘yinlashtirilgan elementlar orqali faol o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Shakllantiruvchi baholash: O‘quv jarayonida doimiy ravishda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, ularga tezkor qayta aloqa berish va o‘qitishni moslashtirish. SI tizimlari o‘quvchining xatolarini avtomatik aniqlashi, qiyinchiliklarini belgilashi va aniq tavsiyalar berishi mumkin.

Model boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida SI texnologiyalarini tizimli va samarali tatbiq etishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va tayyorgarligi: Bu modelning eng muhim komponentidir. O‘qituvchilarning SIga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish, ularning texnologik-pedagogik bilim darajasini oshirish zarur. Tayyorgarlik dasturlari quyidagilarni qamrab oladi:

SI vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari: Matematika-maxsus SI platformalari, adaptiv mashqlar dasturlari, virtual manipulyativlar bilan ishlash.

Pedagogik integratsiya strategiyalari: SI vositalarini o‘quv jarayoniga qanday kiritish, samarali kurashni qanday qo‘llab-quvvatlash va samarasiz kurashdan qochish.

Axloqiy va mas’uliyatli foydalanish: Ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik, SI natijalarini tanqidiy baholash.

Dars rejalashtirishda SI: Generativ sun’iy intellekt vositalaridan dars rejalari, muammolar to‘plamlari va differensiallashtirilgan topshiriqlar yaratish uchun foydalanish.

O‘quv dasturlarini moslashtirish: Mavjud matematika o‘quv dasturlariga SI vositalari yordamida erishiladigan yangi o‘quv natijalarini kiritish. Bu, asosan, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va SI yechimlarini baholashga urg‘u beradi. O‘quv dasturlari SI yordamida o‘zlashtiriladigan kontseptual tushunchalarni belgilaydi.

SI vositalarini tanlash va integratsiya qilish: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga va kognitiv rivojlanishiga mos keladigan, matematika-maxsus SI vositalarini tanlash. Umumiy maqsadli Chatbotlaro‘rniga, Khanmigo, Khan academy, Sayyoh bot, Shaxsiy tyutor, Nerd AI yoki Desmos kabi hisoblash va matematik tushunchalarni o‘rgatishga mo‘ljallangan platformalarga ustunlik berish kerak.

Individual o‘qitish tizimlari: Har bir o‘quvchining o‘rganish profiliga moslashuvchi va tezkor qayta aloqa beruvchi dasturlar.

Virtual manipulyativlar: Abstraktsion matematik tushunchalarni konkretlashtiradigan interaktiv vositalar.

O‘yinlashtirilgan ta’lim platformalari: Matematik bilimlarni o‘yin shaklida o‘zlashtirishni rag‘batlantiruvchi ilovalar.

Baholash strategiyalari: SI integratsiyasi baholashga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirishni talab qiladi.

E’tibor faqat hisoblashdan muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va SI tomonidan berilgan yechimlarning to‘g‘riligini tekshirishga qaratiladi.

Shakllantiruvchi baholashda SI: SI vositalari orqali o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilish, ularning qiyinchiliklarini aniqlash va o‘qituvchilarga samarali aralashuvlar uchun ma’lumot berish.

SI yaratgan yechimlarni baholash: O‘quvchilarni SI javoblarini tekshirishga, ularning mantiqiy asoslarini tahlil qilishga o‘rgatish.

Qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma: SI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazani ta’minlash.

IT resurslari: Maktablarda tezkor internet aloqasi, SI vositalarini ishga tushirish uchun yetarli kompyuterlar yoki planshetlar.

Texnik yordam: O‘qituvchilarga SI vositalaridan foydalanishda duch keladigan texnik muammolarni hal qilishda doimiy yordam.

Institutsional siyosatlar: SIning ta’limdagi roli, foydalanish me’yorlari va xavfsizlik protokollarini belgilovchi maktab va milliy miqyosdagi siyosatlar.

Ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi: Ota-onalarni SI texnologiyalarining afzalliklari, xatarlari va ularni uyda qanday qo‘llab-quvvatlash mumkinligi haqida xabardor qilish. Ota-onalar SI vositalaridan maqsadli va mas’uliyatli foydalanishni tushunishlari va bolalarini rag‘batlantirishlari kerak.

Axloqiy me’yorlar va xavfsizlik: SI texnologiyalaridan foydalanishda ma’lumotlar maxfiyligi, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, algoritmik tarafkashlikning oldini olish va teng imkoniyatlarni ta’minlash ustuvor ahamiyatga ega. SI tizimlarining xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlash uchun qat’iy protokollar ishlab chiqilishi kerak.

Bu komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, SI texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim matematika darslariga tizimli va samarali integratsiya qilishni ta’minlaydigan yaxlit bir tizimni tashkil etadi.

Xulosa. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida sun’iy intellektdan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha kompleks model taklif etildi. SI texnologiyalari ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va matematik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega ekanligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan model o‘qituvchi tayyorgarligi, o‘quv dasturlarini moslashtirish, maxsus SI vositalarini tanlash, baholash strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish, infratuzilma va axloqiy me’yorlarga rioya qilish kabi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. — Toshkent, 2020.
2. Abduqodirov, A. A. Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish. — Toshkent: TDPU, 2022.
3. Mavlonova, A. & Qodirova, R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH: SUN’IY INTELLEKT, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA KREATIV YONDASHUVLAR

Xudayqulova Fazilat Bo‘riyevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning konseptual asoslari tadqiq etilgan. Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, pedagogik faoliyatni innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida qayta loyihalash masalalari tahlil qilingan. Muallif tomonidan ta’limni individuallashtirishda generativ texnologiyalarning o‘rni va o‘qituvchi rolini fasilitator sifatida transformatsiyalashuvi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt (SI), ta’limni modernizatsiya qilish, kreativ pedagogika, raqamli kompetensiya, fasilitator, innovatsion metodika, shaxsiy traektoriya, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi kunda global miqyosda ta’lim tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt (SI) va innovatsion pedagogik yondashuvlar ta’limning mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilamoqda. Mazkur jarayon “raqamli transformatsiya” tushunchasi bilan izohlanib, u ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’limni raqamlashtirish va modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Prezidentning PF–5847-son farmonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari belgilangan. [1]

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bir nechta muhim komponentlarni o‘z ichiga oladi: sun’iy intellektdan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda kreativ yondashuvlarni rivojlantirish.

Avvalo, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish va o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiladi [2].

Holmes va Tuomi fikricha, sun’iy intellekt ta’lim jarayonini avtomatlashtirish emas, balki o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim [3]. Bu esa o‘qituvchining rolini transformatsiya qilib, uni bilim beruvchidan ko‘ra fasilitator va yo‘naltiruvchi sifatida shakllantiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish - innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari va interaktiv vositalar o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi. Zeer E.F. ta’kidlashicha, innovatsion texnologiyalar kasbiy kompetensiyani shakllantirishning muhim omili hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarning mustaqil ishlash, axborotni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy jamiyatda zarur bo‘lgan funksional savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yo‘nalish - kreativ yondashuvlar asosida ta’limni tashkil etishdir. Kreativ pedagogika o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, yangi g‘oyalar yaratish va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Darling-Hammond ta’kidlaganidek, zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi zarur [5]. Shu nuqtai nazardan, innovatsion va raqamli texnologiyalar kreativ yondashuv bilan uyg‘unlashganda maksimal samaradorlikka erishiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish -o‘quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish, o‘quvchilarning tizimli raqamli kompetensiyalarini shakllantirish hamda ilg‘or texnologiyalar integratsiyasi hisobiga o‘qitish samaradorligini optimallashtirish bilan bir qatorda, an’anaviy pedagogik faoliyatning sifat jihatidan yangi bosqichga transformatsiyalashuvini ta’minlaydi. Biroq ushbu jarayonni amalga oshirishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi, texnik infratuzilmaning rivojlanmaganligi va metodik ta’minotning kamligi asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish strategiyasi doirasida o‘qituvchilarning raqamli va pedagogik kompetensiyalarini mutanosib rivojlantirish, o‘quv jarayoniga sun’iy intellektga asoslangan ilg‘or texnologiyalarni tizimli integratsiya qilish hamda innovatsion metodikalar vositasida talabalarning shaxsiy traektoriyasiga yo‘naltirilgan kreativ ta’lim muhitini qaror toptirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sun’iy intellekt, innovatsion texnologiyalar va kreativ yondashuvlar asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va zamonaviy jamiyat talablariga mos ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.

2. Bhutoria A. Personalized Education and Artificial Intelligence // OECD. – 2022.

3. Holmes W., Tuomi I. State of the art in AI and education. – European Journal of Education, 2022.

4. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования. – Москва: МПСИ, 2005. – 216 б.

5. Darling-Hammond L. Teacher Education and the American Future // Journal of Teacher Education. – 2010. – P. 35-47.

ART PEDAGOGIKA VOSITASIDA TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yorova Maftuna Alijon qizi,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatulloyevich
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD), Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ART pedagogika vositasida talabalarning raqamli kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik mexanizmlari hamda amaliy samaradorligi DSc darajasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli kompetensiyaning tarkibiy komponentlari (axborot savodxonligi, media tafakkur, kreativ raqamli ishlab chiqish, kommunikativ raqamli hamkorlik) ART pedagogika tamoyillari bilan integratsiyalashgan holda o‘rganiladi. Muammo konstruksiyasi konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv va kreativ ta’lim nazariyalari asosida ishlab chiqilib, eksperimental ta’lim modeli orqali samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Natijalar ART pedagogika integratsiyasi talabalarning mustaqil fikrlashi, raqamli muhitda ijodiy faoliyati va hamkorlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ART pedagogika, raqamli kompetensiya, kreativ ta’lim, raqamli savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar.*

Kirish. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki talabalarni murakkab raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan, kreativ fikrlovchi va texnologik jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirish vazifasini ham bajarishi zarur bo‘lib bormoqda, chunki axborot oqimining keskin ortishi, sun’iy intellekt vositalarining keng joriy etilishi va global kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi natijasida raqamli kompetensiya shaxsning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichga aylangan; shu bois pedagogika fanida raqamli savodxonlikni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash, uni kreativ va estetik tafakkur bilan integratsiyalash hamda o‘quv jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda, ART pedagogika esa san’at, tasviriy ifoda, dizayn tafakkuri va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodologik platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda, biroq mavjud ilmiy ishlarda ART pedagogika va raqamli kompetensiya o‘rtasidagi tizimli integratsiya yetarlicha empirik asosda o‘rganilmaganligi sababli ushbu tadqiqot mazkur bo‘shliqni to‘ldirishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Tadqiqot konstruktivistik yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim nazariyasi hamda kreativ pedagogika tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirildi va unda ART pedagogika komponentlari (vizual dizayn, raqamli hikoya yaratish, media loyihalash, interaktiv kontent ishlab chiqish) talabalarning raqamli kompetensiya indikatorlari bilan moslashtirildi; eksperimental modelda 2 ta guruh shakllantirilib, nazorat guruhi an’anaviy metod asosida, tajriba guruhi esa ART integratsiyalangan modul asosida o‘qitildi, baholash mezonlari sifatida axborot tahlili aniqligi, raqamli mahsulot yaratish sifati, kreativlik indeksi va hamkorlik samaradorligi ko‘rsatkichlari tanlandi; ma’lumotlar statistik qayta ishlash, kontent tahlili va

kompetensiya reyting shkalasi orqali tahlil qilindi, natijalar ishonchlilik koeffitsienti bilan tekshirildi hamda o‘quvchilarning reflektiv yozuvlari orqali sifat jihatidan chuqurlashtirildi.

Natijalar. Tajriba natijalari ART pedagogika asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalarning raqamli kompetensiya ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 32–38 % ga oshganini ko‘rsatdi, xususan axborotni tanqidiy tahlil qilish darajasi 64 % dan 85 % gacha, kreativ raqamli mahsulot yaratish ko‘rsatkichi 58 % dan 82 % gacha, jamoaviy raqamli hamkorlik samaradorligi esa 60 % dan 87 % gacha oshgani qayd etildi, bu esa ART pedagogika talabalarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki estetik tafakkuri va muammoli vaziyatlarda innovatsion qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantirishini isbotlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar ART pedagogikaning integrativ tabiati raqamli kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini berishini ko‘rsatadi, chunki san’atga asoslangan yondashuv talabalarda estetik sezgirlik, mustaqil tafakkur va vizual-mantiqiy tahlilni kuchaytiradi, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda esa bu jarayon interaktiv va motivatsion xarakter kasb etadi, natijada raqamli savodxonlik faqat texnik malaka sifatida emas, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash bilan boyitilgan kompleks kompetensiya sifatida shakllanadi, bu esa zamonaviy pedagogik transformatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ART pedagogika vositasida talabalarning raqamli kompetensiyalarini takomillashtirish samarali, tizimli va innovatsion yondashuv ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi, bunda san’at elementlari va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi talabalarning kreativ tafakkuri, axborot bilan ishlash madaniyati hamda hamkorlik ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bois ART pedagogika raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning istiqbolli modeli sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev M., Mamadaliev K. O‘qitish texnologiyasi va loyihalashtirish // O‘quv va ilmiy-uslubiy qo‘llanma. − T.: Fan va texnologiya, 2013. −160 b.
2. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.: “Lider Press”, 2009.
3. Mamadaliyev K.R. Elektron o‘quv-metodik majmualarni yaratish metodikasi // O‘zMU xabarlari jurnali. – Toshkent, 2023. – № 1.11. B. 127-129.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ADABIY TAHLIL KO‘NIKMALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYA ORQALI RIVOJLANTIRISH

Zayniddinova Muborak To‘lagan qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
Mardiboyeva Madina Komil qizi,
Fayzullayeva Fayyoza Eshqobil qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda interaktiv platformalar, multimediali materiallar, elektron dars resurslari hamda raqamli baholash vositalarini*

o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlariga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *adabiy tahlil, raqamli texnologiya, boshlang‘ich ta’lim, badiiy matn.*

Raqamli texnologiyalar (inglizcha: Digital technology) – signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan texnologiyalar. 2026-yilgi O‘zbekiston Prezidenti murojaatnomasi (2025-yil dekabr oxirida yo‘llanishi kutilgan) ta’lim sohasida raqamlashtirish, sifatli ta’limni ta’minlash va o‘qituvchilar nufuzini oshirishga qaratilishi kutilmoqda. Asosiy e’tibor o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish va kasbiy ta’limni rivojlantirishga qaratiladi. 2026-yil uchun ta’lim sohasidagi asosiy maqsadlar:

Ta’lim sifati: Maktablarda xalqaro baholash dasturlari (PISA) talablariga asoslangan metodikalarni to‘liq joriy etish va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish.

Raqamlashtirish: Barcha ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet va raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash “elektron maktab” tizimini rivojlantirish. O‘qituvchilar: Pedagoglar malakasini oshirish, ularning oylik ish haqini oshirish va xalqaro sertifikatlarga ega o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini kengaytirish.

Infrastruktura: 2026-yil 1-yanvardan boshlab, yangi maktablar qurish va mavjudlarini zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilish ishlarini davom ettirish.

Kasbiy ta’lim: Mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun kollej va texnikumlar faoliyatini samarali tashkil etish.

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, matnni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, adabiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.Adabiy tahlil o‘quvchilarda badiiy asarning mazmun-mohiyatini anglash, qahramonlar xarakterini tushunish, muallif g‘oyasini aniqlash va matnga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. An’anaviy ta’limda bu jarayon asosan og‘zaki savol-javob va matn bilan ishlash orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini bermoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, videoroliklar, audiomatnlar hamda onlayn topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, vizual va audiovizual materiallar yordamida badiiy asar voqealarini tasavvur qilish osonlashadi, bu esa adabiy tahlil jarayonini chuqurlashtiradi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil ishlash, o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda ifodalash hamda o‘zaro hamkorlikda tahlil olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiya – bu axborotni raqamli (0 va 1) ko‘rinishda yaratish, qayta ishlash, saqlash va uzatishga xizmat qiluvchi texnik vositalar, dasturiy ta’minot va axborot tizimlari majmuidir.Raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotlar tezkor, aniq va qulay shaklda boshqariladi hamda ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va boshqa sohalarda samaradorlik oshiriladi. Milliy o‘quv dasturida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu dasturda adabiy tahlil o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini

inobatga olgan holda bosqichma-bosqich rivojlantirilishi nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinflarda adabiy tahlil ko‘nikmalari, avvalo, matnni ongli va ifodali o‘qish, mazmunini tushunish, voqealar ketma-ketligini aniqlash orqali shakllantiriladi. O‘quvchilar badiiy asardagi qahramonlarni tanish, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirish, asarning asosiy g‘oyasini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra, adabiy tahlil jarayonida quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi: badiiy matn mazmunini tushunish va qayta hikoya qilish; asar qahramonlarining xarakterini tahlil qilish; voqea va hodisalarga shaxsiy munosabat bildirish; asarning tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatini anglash; matndan xulosa chiqarish va fikrni asoslab bayon etish. Shuningdek, dasturda adabiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar ta’limning ajralmas qismiga aylangan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun darsni interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etish, ularni matnni tushunish, tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalashga o‘rgatish muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, Google Classroom (Klastirum) kabi raqamli ta’lim platformalari adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Klastirumning pedagogik imkoniyatlari. *1. Dars jarayonini boshqarish va tartibga solish.* Klastirum yordamida o‘qituvchi elektron darsliklar, matnlar, multimediali materiallar va topshiriqlarni bitta platformaga joylaydi. O‘quvchilar esa ularni oson topadi, bajaradi va o‘z natijalarini tizimli tarzda ko‘rib chiqadi. Bu jarayon adabiy tahlil uchun matnlarni qat’iy tartibda o‘rganish imkonini beradi. *2. Mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.* O‘quvchilar topshiriqlarni bajarishda o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda ifodalaydi. Masalan, badiiy matnni o‘qib, qahramon xarakteri, voqea ketma-ketligi va muallif g‘oyasini tahlil qilish topshiriqlari beriladi. Klastirum bu jarayonda individual yondashuv va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. *3. Interaktiv va vizual materiallardan foydalanish.* Platforma video, audio, rasm va diagrammalarni qo‘llash imkonini beradi. Masalan, adabiy asardagi voqealarni klaster yoki diagramma yordamida tizimlashtirish, qahramonlar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish osonlashadi. Bu esa o‘quvchilarning tushunish qobiliyatini oshiradi va matnni eslab qolishini yaxshilaydi. *4. Hamkorlik va muhokama.* Klastirum orqali guruh ishlari tashkil etish mumkin. O‘quvchilar klaster tuzish yoki matn tahlilini muhokama qilish jarayonida bir-biri bilan fikr almashadi, o‘zaro kelishadi va umumiy xulosaga keladi. Bu esa muloqot va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. *5. Baholash va izoh berish imkoniyati.* O‘qituvchi topshiriqlarni tezkor tekshiradi, izoh yozadi va baho qo‘yadi. Bu esa o‘quvchilarda o‘z ishini qayta ko‘rib chiqish va xatolarini tuzatish odatini shakllantiradi. Shu bilan birga, adabiy tahlil jarayoni doimiy monitoring bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Klastirum va adabiy tahlil jarayoni misoli: 1. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi badiiy matnni o‘qidi va quyidagi topshiriqlarni bajaradi. 2. Matnning asosiy g‘oyasini yozadi. 3. Qahramonlarni aniqlaydi va ularning xarakterini ta’riflaydi. Voqealar ketma-ketligini klaster shaklida vizual tarzda ko‘rsatadi. 4. Shaxsiy xulosa chiqaradi va onlayn izohlar bilan fikrini baham ko‘radi.

Barcha bu jarayon Klastirum orqali amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarda adabiy tahlil ko‘nikmalarini tizimli va samarali shakllantirish imkonini beradi. Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy tahlil ko‘nikmalarini raqamli texnologiyalar

orqali rivojlantirish ta’lim jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qiladi. Raqamli vositalar, xususan Google Classroom (Klastirum), o‘quvchilarga matn mazmunini tushunish, qahramonlar xarakterini aniqlash, voqealar ketma- ketligini tizimlashtirish va xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, platformalar o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini, hamkorlikda ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, adabiy tahlil ko‘nikmalari nafaqat shakllanadi, balki o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va estetik tafakkuri ham boyitiladi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta’limda adabiy tahlil jarayoniga integratsiya qilish pedagogik samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ta’lim dasturi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022.
2. Shavkat Mirziyoyev. Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomalari, 2025–2026. – Toshkent: Prezident matbuot xizmati, 2025.
3. Raqamli ta’lim va interaktiv metodlar: Karimov, A. Raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
4. Adabiy tahlil metodikasi: Qodirov, S. Boshlang‘ich sinflarda badiiy tahlil metodikasi. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2019.

MILLIY TARBIYA ASOSIDA O‘QUVCHILARDA YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Zulfiqorova Roziya Abdulla qizi,
Chirchiq DPU 1-bosqich magistratura talabasi.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d., (PhD). Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda milliy tarbiya asosida o‘quvchilarda yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish jarayonida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda raqamli ta’lim muhiti orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy me’yorlar, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatni singdirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ongli qaror qabul qilishi hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos, ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, innovatsion pedagogika, barkamol shaxs.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va ularni ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish jiddiy e’tibor talab qiladigan vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi pedagogik jarayonlarni yanada samarali va interaktiv qilish imkonini berdi. Bu imkoniyat o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy salohiyat va ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, vatanparvarlik va axloqiy me’yorlarni singdirish, bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Mavjud adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalangan holda ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash bo‘yicha izchil konseptual yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Davlatimiz rahbari Mirziyoyev Shavkat Miromonovich o‘z ma’ruzalarida yoshlarni bilimli, texnologik savodxon va dunyoqarashi keng shaxslar sifatida tarbiyalash borasida “Yuksak bilimli, dunyoqara-shi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik savodxon yoshlari ko‘p bo‘lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot barqaror bo‘ladi” deya takror-takror ta’kidlaydilar [1]. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash nafaqat o‘quv jarayonini boyitadi, balki yoshlarni zamonaviy jamiyatga mos, ma’naviy barkamol va ijtimoiy faolligi yuqori shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ushbu tadqiqot o‘quvchilarda milliy qadriyatlar asosida yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish jarayonida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning pedagogik rolini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik va ilmiy-analitik yondashuvlarga asoslanib, o‘quvchilarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, dars jarayonida interaktiv mashg‘ulotlar va loyihalar orqali amaliy tajriba o‘tkazish, o‘quvchilarning faol ishtirokini kuzatish tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

- Kuzatish hamda so‘rov va testlar – o‘quvchilarning milliy qadriyatlar, tarixiy meros va madaniy an’analarni qabul qilish darajasi aniqlanadi;
- Tajriba – darslarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv mashg‘ulotlar, loyihalar va milliy bayram tadbirlari tashkil etiladi;
- Baholash – o‘quvchilarning milliy madaniyat va merosga bo‘lgan qiziqishi, Navro‘z bayramidagi faol ishtiroki va ijodiy loyihalardagi qatnashuvi baholanadi.

Ushbu usullar o‘quvchilar nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini bir vaqtda aniqlash imkonini beradi, pedagogik jarayonni samarali tahlil qilishga xizmat qiladi.

Hadislar, ertaklar va xalq hikoyalari darslarda vizual taqdimotlar, animatsiya va interaktiv slaydlar orqali o‘quvchilarga yetkazilganda, ular hikoya mazmunini anglaydi va axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi [2; 135-148-b.]. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumrad halol, mehnatsevar va xushmuomala qahramon sifatida tasvirlanadi, Qimmat esa dangasa va qo‘pol xarakterga ega. Ushbu kontrast o‘quvchilarga yaxshi va yomon fazilatlarni farqlashni o‘rgatadi, shu orqali ularning ma’naviy qarashlari shakllanadi, axloqiy qadriyatlar rivojlantiriladi va shaxsiy fazilatlari mustahkamlanadi. Shu material bo‘yicha o‘quvchilar bilan muhokama, guruh ishlari va qisqa testlar tashkil etilganda, ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy baholash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati mustahkamlanadi. Shu tarzda vizual va interaktiv yondashuvlar o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni chuqurroq anglashiga, ma’naviyat va axloqiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qadimiy me’moriy obidalar – Registon maydoni, Ulug‘bek madrasasi, Ichan-qal’a, Oqsaroy va boshqa majmualar – interaktiv 3D modellari, virtual sayohatlar va raqamli platformalar orqali ko‘rsatilganda, o‘quvchilar tarixiy merosimizning boyligini anglaydi va uni asrab-avaylash zarurati haqida tushuncha hosil qiladi. Shu jarayonda o‘quvchilarni ijodiy faollikka undash, masalan, arxitektura loyihalari yoki maketlar tayyorlatish pedagogik samaradorlikni oshiradi. Bu metodologiya o‘quvchi-larda tarixiy obidalarni qadrlash va milliy o‘zlikni rivojlantirish imkonini yaratadi.

O‘zbekistonning milliy bayramlari – Navro‘z, Mustaqillik kuni hamda Xotira va qadrlash kunini o‘quvchilarga interaktiv videoroliklar, virtual simulyatsiyalar va guruh

ishlari orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bayramlarning tarixiy, madaniy va ma’naviy ahamiyatini loyiha ishlari, milliy taomlar tayyorlash hamda hunarmandchilik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar orqali yoritilsa, ta’lim jarayoni samaraliroq bo‘ladi [3; 34-35-b.]. Bunda o‘quvchilarning ishtiroki va qiziqish darajasini so‘rovnomalar hamda kuzatish metodlari asosida aniqlash tavsiya etiladi. Ushbu faoliyatlar o‘quvchilarda milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasi rivojlanishi ta’minlanadi. Shunday qilib, har bir mavzuda turli pedagogik metodlar – vizual taqdimotlar, animatsiyalar, interaktiv testlar, loyiha ishlari, guruh ishlari va kuzatishlar – birgalikda qo‘llanilganda, o‘quvchilarda milliy merosni anglash, axloqiy va ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish samarasi oshadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, vizual taqdimotlar, interaktiv dasturlar va loyiha ishlari orqali milliy meros, ertaklar va madaniy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazish ularning qiziqishini oshirdi va ma’naviy rivojlanishiga yordam berdi. Turli pedagogik metodlar – testlar, muhokama, loyiha ishlari va kuzatishlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamladi. Shunday qilib, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni milliy tarbiya jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarda barkamol, ma’naviy jihatdan rivojlangan va zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi, pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni samarali qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2020). Yoshlarni sifatli ta’lim va tarbiyaga jalb qilish davlatning eng muhim vazifasi va burchidir. (Olingan manzil: https://qalampir.uz)
2. Sharipova M.X. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2019
3. Abdullayeva D. (2021). Milliy qadriyatlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash. // Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar, 1(1), 32-36.

O‘QUV JARAYONINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH: AI YORDAMIDA O‘QITUVCHINING ISHINI YENGILLASHTIRISH

G‘ulomjonova Mohinur Ulug‘bek qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Tursunova Sarvinoz Telman qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quv jarayonini raqamli transformatsiya qilish va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari yordamida o‘qituvchining ishini yengillashtirish usullari tahlil qilinadi. AI platformalari orqali o‘quvchilarni baholash, individual topshiriqlar berish va darslarni moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Natijada ta’lim samaradorligini oshirish va o‘qituvchining vaqtini tejash mumkinligi ko‘rsatildi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, o‘quv jarayoni, raqamli transformatsiya, individual topshiriqlar, o‘qituvchi samaradorligi, adaptiv ta’lim, ta’lim texnologiyalari, darslarni moslashtirish.*

Raqamli transformatsiya ta’lim tizimida yangi paradigma — sun’iy intellekt (AI) asosida pedagogik jarayonlarni optimallashtirishni talab qilmoqda. XX–XXI asrlar kesimida ta’limni digitalizatsiya qilish ilmiy-metodik yondashuvlarni, o‘qituvchi mehnatini qayta shakllantirishni va individual o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini tatbiq etishni zaruriyatga aylantirdi. Sun’iy intellekt texnologiyalari orqali o‘qituvchining ish yukini kamaytirish, baholash jarayonini avtomatlashtirish va o‘quvchilarning individual salohiyatini yuzaga chiqarish dolzarb vazifalarni biriga aylanib qoldi [1; 25-b.]. Bugungi kunda ta’lim jarayonida AI integratsiyasi xalqaro standartlar asosida rivojlanmoqda. UNESCO tomonidan e’lon qilingan global tadqiqotlar sun’iy intellektning ta’lim sifatini oshirish hamda pedagogik xizmatlarni individual darajada moslashtirish imkoniyatini taqdim etdi. Shuningdek, raqamli pedagogika maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarga kreativ yondashuvlarni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ta’limda raqamli transformatsiya – bu o‘qitish va o‘rganish jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida yangilash va samaradorligini oshirish jarayonidir. Bu faqat kompyuter qo‘llash emas, balki butun ta’lim tizimini zamonaviylashtirishdir. Shu bilan birga o‘qituvchining ishi endilikda yengillashadi. [2; 10-b.]

1. AI va raqamli transformatsiya asoslari – Raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

O‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish – AI algoritmlari real vaqt rejimida o‘quvchilarning javoblari va o‘qish ritmini kuzatadi, kognitiv qiyinchiliklarni aniqlaydi va shunga mos dars rejasini taklif etadi.

Individual pedagogik strategiyalar – har bir o‘quvchiga moslashtirilgan topshiriqlar, mashqlar va baholash elementlarini taqdim etadi, bu esa an’anaviy dars shakllaridan farqli o‘laroq adaptiv o‘quv jarayonini yaratadi.

Avtomatlashtirilgan baholash – test va boshqa baholash vositalari natijalarining tezkor tahlili o‘qituvchining vaqtini tejaydi va baholashning obyektivligini oshiradi. Masalan, AI asosidagi o‘quv platformalari o‘quvchining erishgan bilim darajasini doimiy qayta baholab, dars mavzularini individual yo‘naltirishni ta’minlaydi. Bu, xususan, maktabgacha yoshdan boshlab ta’lim jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuvni kuchaytiradi [3; 11-b.].

2. O‘qituvchining ishini yengillashtirish imkoniyatlari – AI texnologiyalarining joriy etilishi pedagoglar uchun quyidagi afzalliklarni yaratadi:

Vazifalarni avtomatlashtirish – repetitiv baholash va statistik monitoring jarayonlari avtomatik amalga oshiriladi, bu esa o‘qituvchiga ijodiy va metodik ishlar bilan shug‘ullanish uchun vaqt ajratadi [1; 27-b.].

Individual o‘quv trayektoriyalarini yaratish – AI platformalari har bir o‘quvchi uchun maxsus o‘quv rejasini ishlab chiqadi, shu bilan pedagogga o‘quvchilarning zaif tomonlarini mustahkamlash imkonini beradi [4; 19-b.].

Motivatsiya tizimini qo‘llab-quvvatlash – gamerifikatsiya elementlari va adaptiv topshiriqlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshadi, bu esa o‘qituvchi uchun samarali motivatsion tizimni yaratadi. Shunday qilib, o‘qituvchining ish yukini kamaytirish bilan birga, AI pedagogik jarayonni strategik yuksaltirishga ko‘maklashadi.

3. Innovatsion yondashuvlar – Raqamli transformatsiya doirasida quyidagi innovatsiyalar muhim hisoblanadi:

Adaptiv o‘quv tizimi: AI har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos tarzda dars mazmunini shakllantiradi va bu asosda o‘quv jarayonini optimallashtiradi [4; 16-b.].

Interaktiv laboratoriyalar: AI bilan birga ishlaydigan virtual laboratoriyalar amaliy tajribalarni ta’lim jarayoniga qo‘shadi, bu esa o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va real dunyo muammolariga chambarchas bog‘liq holda tushuncha hosil qiladi.

O‘quv jarayonini raqamli transformatsiya qilish va sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. AI asosidagi platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini tezkor aniqlash, individual o‘quv rejalarini shakllantirish hamda baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchining mehnatini sezilarli darajada yengillashtirib, vaqt resurslarini tejashga ko‘mak beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish orqali har bir o‘quvchining individual qobiliyatlari, o‘zlashtirish sur’ati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim berishga keng sharoit yaratadi. Adaptiv o‘quv tizimlari yordamida o‘quvchilarning zaif jihatlari aniqlanib, ularga mos qo‘shimcha mashqlar tavsiya etiladi. Natijada bilim sifati va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari oshadi.

AI texnologiyalari nafaqat baholash va monitoring jarayonlarini avtomatlashtiradi, balki pedagogik qaror qabul qilish jarayonini ham ilmiy asosda qo‘llab-quvvatlaydi. Ma’lumotlar tahlili asosida o‘qituvchi dars metodikasini qayta ko‘rib chiqishi, individual yondashuvni kuchaytirishi va o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini tizimli ravishda kuzatishi mumkin.

Biroq raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada bo‘lishi hamda pedagoglarning AI savodxonligini oshirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt inson omilini to‘liq almashtirmaydi, aksincha, pedagog faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli AI integratsiyasi pedagogik nazorat va insoniy yondashuv bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sabirova D.A. Raqamli ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish. - Digital Transformation and Artificial Intelligence, Vol.2 №3, Tashkent, 2024, 120-bet.

2. Yusupov A.A., Turaev M.M. Oliy ta’limda raqamli transformatsiya jarayonlari: muammolar va imkoniyatlar. // Innovatsion rivojlanish jurnali, Vol.5 №7, - T., 210-b.

3. Melsova F.M. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2025, 98-bet.

4. Najmetdinova N.S. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni qo‘llashning ilmiy-asosiy tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 110-bet.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЗАНЯТИЯХ ПО ОЗНАКОМЛЕНИЮ С ПРИРОДОЙ

Шанасирова Захро Юлдашовна,
Доцент кафедры «Методика дошкольного и начального образования» Чирчикский ГПУ.

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности использования мультимедийных технологий в занятиях по ознакомлению с природой в системе начального образования. Актуальность исследования обусловлена цифровизацией образования и необходимостью повышения эффективности экологического обучения. Цель исследования – выявить*

дидактические возможности мультимедийных средств, способствующих развитию экологических знаний и познавательной активности обучающихся. Методологической основой послужили идеи конструктивизма и деятельностно-ориентированного обучения. В исследовании применялись методы педагогического наблюдения, тестирования и опытно-экспериментальной работы. Результаты показали, что использование мультимедийных технологий повышает учебную мотивацию, способствует лучшему усвоению материала и формированию устойчивого интереса к природным явлениям.

Ключевые слова: *экологическое образование; ознакомление с природой; мультимедийные технологии; цифровая образовательная среда; познавательная активность.*

Введение. В Законе Республики Узбекистан «Об образовании», а также в стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» модернизация системы образования, широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс и формирование цифровой образовательной среды определены в качестве приоритетных задач. Указанные нормативно-правовые документы предусматривают совершенствование содержания образования на основе инновационных подходов, в том числе активизацию процесса усвоения знаний обучающимися с использованием мультимедийных и цифровых технологий. В зарубежных научных исследованиях признаётся высокая педагогическая эффективность интеграции цифрового обучения и экологического образования в формировании у обучающихся экологического сознания, ответственности и ценностей устойчивого развития.

В условиях современной системы образования процессы цифровизации обусловливают необходимость коренного обновления не только содержания обучения, но и методов преподавания и дидактических средств. Особенно в занятиях по ознакомлению с природой использование мультимедийных технологий, основанных на визуализации, динамическом моделировании и интерактивности, способствует повышению познавательной активности обучающихся, более глубокому усвоению учебного материала и осмыслению причинно-следственных связей. Данный подход обеспечивает направленность экологического образования не только на усвоение теоретических знаний, но и на формирование практической и осознанной деятельности.

Однако на практике изложение содержания естественнонаучных дисциплин преимущественно традиционными, репродуктивными методами не всегда обеспечивает формирование устойчивого интереса, самостоятельного мышления и осознанного отношения обучающихся к экологическим проблемам. Несмотря на наличие значительных дидактических и технологических возможностей мультимедийных средств, механизмы их педагогически обоснованного, системного и целенаправленного применения остаются недостаточно разработанными. Данное обстоятельство обусловливает необходимость глубокого научного исследования педагогических возможностей использования мультимедийных технологий в занятиях по ознакомлению с природой.

В настоящем исследовании предлагается педагогический подход, направленный на развитие экологических знаний и познавательной активности обучающихся посредством проектирования занятий по ознакомлению с природой на основе мультимедийных технологий. Научная новизна исследования

определяется системной интеграцией дидактических возможностей мультимедийных средств в содержание экологического образования.

Методология. Настоящее исследование было организовано на основе методологии педагогических исследований с применением квазиэкспериментального дизайна. Теоретико-методологическую основу исследования составляют концепции конструктивизма и деятельностно-ориентированного обучения. В ходе исследования были изучены возможности повышения педагогической эффективности занятий по ознакомлению с природой посредством использования мультимедийных технологий.

Исследование включало три этапа:

№	Этап исследования	Содержание этапа	Алгоритм процесса
1.	Подготовительный этап	Анализ теоретических источников и разработка диагностических инструментов	Учебное содержание
2.	Экспериментально-опытный этап	Организация занятий на основе мультимедийных технологий	Мультимедийное средство учебная деятельность
3.	Заключительный этап	Анализ полученных результатов и их сравнительная оценка	Оценка результатов

Исследование было проведено в хронологической последовательности и включало три этапа: а) подготовительный этап — анализ теоретических источников и разработка диагностических инструментов; б) экспериментально-опытный этап — проведение занятий, организованных на основе мультимедийных технологий; в) заключительный этап — анализ полученных результатов и их сравнительная оценка.

Алгоритм организации исследовательского процесса был построен на основе следующей цепочки: учебное содержание → мультимедийное средство → учебная деятельность → оценка результата.

Для сбора данных использовались педагогическое наблюдение, анкетирование, тестовые задания и результаты опытно-экспериментальной работы. Полученные данные были обработаны с применением количественных и качественных методов анализа. В качестве основных критериев оценки результатов были определены уровень познавательной активности, уровень экологических знаний и степень активного участия обучающихся. Достоверность результатов исследования обеспечивалась за счёт повторных измерений, сравнительного анализа и проведения эксперимента в одинаковых условиях. Валидность исследования гарантировалась соответствием выбранных методов целям и задачам исследования, а также системным анализом полученных данных.

Результаты и обсуждение. В ходе исследования было изучено влияние занятий по ознакомлению с природой, организованных на основе мультимедийных технологий, на уровень познавательной активности и экологических знаний обучающихся. В экспериментальной группе было зафиксировано устойчивое повышение уровня представлений обучающихся о природных явлениях по сравнению с контрольной группой, обучавшейся с использованием традиционных методов. В частности, было установлено, что использование визуальных и интерактивных материалов способствует концентрации внимания обучающихся и облегчает процессы запоминания учебной информации.

Анализ полученных данных, представленных в виде таблиц и диаграмм, показал, что в занятиях с применением мультимедийных технологий значительно повысились показатели учебной активности и самостоятельного мышления обучающихся. Данный факт объясняется возможностями мультимедийных средств по динамическому представлению объектов природы. Полученные результаты в очередной раз подтверждают педагогическую значимость визуализации в образовательном процессе.

Результаты исследования согласуются с выводами, полученными в ранее проведённых научных работах, и свидетельствуют о том, что мультимедийные технологии являются важным фактором повышения эффективности экологического образования. Вместе с тем результаты исследования подчёркивают необходимость целенаправленного и методически обоснованного применения мультимедийных средств. В противном случае технология может превратиться из средства обучения в самоцель. С данной точки зрения результаты настоящего исследования могут служить научно-практической основой для системного внедрения мультимедийных технологий в практику начального образования.

Заключение. В заключение следует отметить, что в данном исследовании были изучены педагогические возможности использования мультимедийных технологий в занятиях по ознакомлению с природой. Цели, обозначенные во введении, получили практическое подтверждение в разделе «Результаты и обсуждение» на основе данных опытно-экспериментальной работы. Полученные результаты свидетельствуют о том, что мультимедийные технологии оказывают положительное влияние на повышение познавательной активности обучающихся и эффективное усвоение знаний о природе.

Использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». — 2020.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии цифровой Узбекистан – 2030». - 2020.
3. Palmer J. Environmental Education in the 21st Century. London: Routledge, 1998.
4. Mayer R. Multimedia Learning. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI MUHITNING KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Shariyeva Gavxar Turavoyevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga raqamli muhitning ta’siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, interaktiv ilovalar, ta’limiy o‘yinlar va sun’iy intellekt elementlarining bolalar tafakkuri, xotirasi, e’tibori va nutq rivojiga ijobiy hamda salbiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, raqamli muhitdan samarali foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, kognitiv rivojlanish, maktabgacha yosh, tafakkur, xotira, e’tibor, media savodxonlik, pedagogik texnologiya.*

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida inson hayoti tubdan o‘zgarib bormoqda. Raqamli qurilmalar, internet tarmoqlari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt elementlari nafaqat kattalar, balki bolalar hayotiga ham chuqur kirib kelgan. Bugungi kunda bola tug‘ilgan ilk yillaridanoq raqamli muhit bilan bevosita yoki bilvosita muloqotga kirishadi. Televizor, planshet, smartfon, interaktiv doskalar hamda ta’limiy platformalar uning kundalik faoliyatining bir qismiga aylanmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Maktabgacha yosh davri – shaxs rivojlanishining eng muhim va mas’uliyatli bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda bolaning kognitiv jarayonlari – idrok, tafakkur, xotira, e’tibor, tasavvur va nutq jadal sur’atda shakllanadi va takomillashadi. Psixolog olim Jean Piaget ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalar preoperatsion tafakkur bosqichida bo‘lib, ular atrof-muhitni obrazlar, ramzlar va tasavvurlar orqali idrok etadi. Shu bilan birga, Lev Vygotsky nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqot hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda esa raqamli muhit ijtimoiylashuvning yangi shakliga aylanib, bolaning bilish faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirdi: interaktiv o‘yinlar, animatsion dasturlar, ta’limiy ilovalar va multimediya vositalari orqali bolalarning qiziqishi oshirilmoqda, individual yondashuv imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitning ortiqcha yoki nazoratsiz qo‘llanilishi kognitiv rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida ham ilmiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, uzoq vaqt davomida ekran qarshisida qolish diqqatning tez chalg‘ishiga, jonli muloqotning kamayishiga va passiv qabul qilish odatlarining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga raqamli muhitning ta’sirini kompleks o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Bu jarayonda nafaqat texnologiyaning o‘zi, balki undan foydalanish shakli, mazmuni, davomiyligi va pedagogik yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli vositalar bolalarning tafakkurini rivojlantiruvchi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga undovchi, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llanilgandagina samarali natija beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanishning nazariy asoslari. Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) bolalarning bilish jarayonlari eng faol shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni sezgi va idrok orqali qabul qiladi, tasavvurlar asosida umumlashtirishni boshlaydi hamda oddiy mantiqiy bog‘lanishlarni anglay oladi.

Psixolog olim Jean Piaget ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalar preoperatsion tafakkur bosqichida bo‘lib, ular ramziy fikrlash, tasavvur va obrazlar orqali dunyoni anglaydi. Bu bosqichda bola real predmetlar bilan bir qatorda ularning belgilarini ham tushuna boshlaydi.

Lev Vygotsky esa bolaning rivojlanishini ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘lab, “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surgan. Uning fikricha, bola kattalar yoki tengdoshlar yordamida murakkabroq vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi. Zamonaviy sharoitda raqamli muhit aynan shu vositachilik funksiyasini bajarishi mumkin. Shuningdek, maktabgacha yoshda quyidagi kognitiv jarayonlar intensiv rivojlanadi:

- Idrok – rang, shakl, hajm va fazoviy munosabatlarni farqlash;
- E’tibor – diqqatni ma’lum faoliyatga jamlay olish;
- Xotira – obrazli va ixtiyorsiz xotiraning ustunligi;

- Tafakkur – ko‘rgazmali-obrazli va elementar mantiqiy fikrlash;
- Nutq – lug‘at boyligining kengayishi va grammatik tuzilmaning shakllanishi.

Raqamli muhit ushbu jarayonlarning har biriga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli muhit deganda bolani o‘rab turgan elektron axborot vositalari, interaktiv platformalar, mobil ilovalar, multimediya dasturlari, animatsion materiallar va internet resurslari majmui tushuniladi.

Maktabgacha ta’limda keng qo‘llanilayotgan raqamli vositalar quyidagilardan iborat: interaktiv doskalar, ta’limiy mobil ilovalar, multfilm va animatsiyalar, audio kitoblar, elektron o‘yin dasturlari, sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan o‘quv platformalari.

Raqamli muhitning asosiy xususiyatlari – interaktivlik, vizuallik, tezkorlik va moslashuvchanlikdir. Bu omillar bolaning bilish faoliyatini rag‘batlantirishi mumkin.

Raqamli muhitning kognitiv rivojlanishga ijobiy ta’siri. Idrok va e’tibor rivoji. Interaktiv o‘yinlar va animatsion dasturlar rang-barang tasvirlar, tovushlar va harakatlar orqali bolalarning sezgi organlariga bir vaqtning o‘zida ta’sir qiladi. Bu esa ko‘ruv va eshituv idrokining rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, shakllarni tanish, ranglarni ajratish, tovushlarni farqlash kabi vazifalar vizual-motor koordinatsiyani mustahkamlaydi.

Diqqatni jamlashga qaratilgan o‘yinlar (masalan, predmetni topish, farqlarni aniqlash) bolalarda barqaror e’tiborni shakllantirishga yordam beradi.

Xotira va tafakkur rivoji. Raqamli ta’limiy o‘yinlar ko‘pincha muammoli vaziyatlarga asoslanadi. Bola muammoni hal qilish jarayonida sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunadi, mantiqiy xulosalar chiqaradi. Bu jarayon tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, interaktiv mashqlar qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani mustahkamlaydi. Masalan, ketma-ketlikni eslab qolish, belgilarni joylashtirish yoki tovushlarni takrorlash orqali eslab qolish qobiliyati rivojlanadi.

Nutq va kommunikativ kompetensiya. Audio-vizual dasturlar, elektron kitoblar va interaktiv hikoyalar bolalarning lug‘at boyligini oshiradi. Dialogli o‘yinlar esa muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.Raqamli platformalarda savol-javob asosidagi topshiriqlar bolalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi.

Ijodkorlik va tasavvur. Raqamli chizish dasturlari, konstruktor ilovalari va animatsiya yaratish vositalari bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bola o‘z tasavvuridagi obrazlarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa fantaziya va kreativlikni kuchaytiradi.

Salbiy ta’sir va xavf omillari. Raqamli muhitning me’yoridan ortiq qo‘llanilishi bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Diqqatning tez chalg‘ishi. Tez-tez o‘zgaruvchi vizual effektlar bolani tezkor stimullarga o‘rgatib qo‘yadi.
- Passiv qabul qilish. Agar bola faqat tomoshabin rolida qolsa, uning faol tafakkuri sustlashishi mumkin.
- Ijtimoiy muloqotning kamayishi. Jonli o‘yin va tengdoshlar bilan muloqot yetishmasligi ijtimoiy ko‘nikmalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Jismoniy faollikning pasayishi. Harakatsiz o‘tirish sog‘liq va umumiy rivojlanishga ta’sir qiladi. Shu bois maktabgacha yoshda real o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi bo‘lib qolishi zarur.

Pedagogik yondashuv va samarali integratsiya shartlari. Raqamli muhitdan samarali foydalanish uchun quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilish lozim: 1. Maqsadga yo‘naltirilganlik – har bir raqamli faoliyat aniq ta’limiy maqsadga ega bo‘lishi

kerak. 2. Yoshga moslik – kontent bolaning psixologik va fiziologikxususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. 3. Me’yoriylik – ekran vaqtini cheklash va balansni saqlash. 4. Interaktivlik – bola faol ishtirokchi bo‘lishi lozim. 5. An’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligi – real o‘yin, jismoniy mashg‘ulot va jonli muloqot bilan uyg‘unlik ta’minlanishi kerak.

Tarbiyachilar va ota-onalar raqamli savodxonlikka ega bo‘lishi, bolaga yo‘naltiruvchi va nazoratchi rolini bajarishi muhimdir.

Raqamli muhit maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri tashkil etilgan sharoitda u tafakkur, xotira, nutq va e’tibor rivojini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tizimida raqamli vositalarni ilmiy asoslangan metodika asosida qo‘llash, pedagogik nazoratni kuchaytirish va raqamli hamda an’anaviy ta’lim muhitini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishida yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq u hech qachon jonli muloqot, real o‘yin va ijtimoiy tajribaning o‘rnini to‘liq bosaolmaydi. Shu bois pedagog va ota-onalarning ongli, ilmiy asoslangan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022. – 112 b.

2. Piaget J. The origins of intelligence in children. – New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.

3. Shariyeva G.T. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi // Inter education & global study. 2024. №5 (1).

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK YONDASHUV

Shariyeva Gavxar Turavoyevna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Qazoqova Rufina Sho‘hratovna,
Xudoyberdiyeva Shahzoda Shukurovna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiyalashgan pedagogik yondashuv orqali qo‘llash masalalarini o‘rganadi. Maqolada ilmiylik, o‘lkashunoslik, ensiklopedik va faslchilik tamoyillari SI vositalari bilan uyg‘unlashtirilgan metodlar sifatida tahlil qilinadi. Interaktiv o‘yinlar, virtual laboratoriyalar, AR/VR simulyatsiyalari va adaptiv mashg‘ulotlar yordamida bolalar tabiat hodisalarini kuzatish, tahlil qilish va izohlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, maqolada pedagogik jarayonda individual yondashuvni ta’minlash, motivatsiya va ekologik ongni shakllantirish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tabiat bilan tanishtirish, sun’iy intellekt, o‘yinlashtirilgan pedagogika, integratsiyalashgan yondashuv, AR/VR texnologiyalari, adaptiv o‘qitish.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat bilan ilk muloqot orqali atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi. Bu yosh davr bolalarda kuzatish, tahlil qilish, sabab-natija munosabatini tushunish kabi intellektual va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun eng qulay davrdir. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt, bolalarni interaktiv, o‘yinlashtirilgan va individualizatsiyalashgan pedagogik jarayonda tabiat hodisalarini o‘rganishga jalb qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt maktabgacha ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: o‘yinlashtirilgan mashg‘ulotlar yaratish, individual qobiliyatlarni kuzatish, virtual laboratoriya va AR/VR simulyatsiyalari orqali xavfsiz muhitda tajribalarni amalga oshirish. Shu tarzda ilmiylik, o‘lkashunoslik, ensiklopedik va faslchilik tamoyillari zamonaviy pedagogik yondashuvga integratsiyalanadi.

Ilmiylik tamoyili maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat hodisalarini asosli va tizimli tarzda tushuntirishni ta’minlaydi. SI yordamida bolalar virtual eksperimentlar orqali o‘simlik va hayvonot dunyosini kuzatadi, ob-havo va fasl o‘zgarishlarini o‘rganadi. SI tizimi bolaning harakatlarini va javoblarini real vaqt rejimida tahlil qiladi, unga moslashtirilgan vazifalarni beradi, bu esa o‘z-o‘zini baholash va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Misol: Virtual bog‘ simulyatsiyasida bola turli o‘simliklarni ekadi, ular qanday o‘sishini kuzatadi va faslga mos sharoitlarni tanlaydi. SI tizimi bola qarorlarini baholaydi va qo‘shimcha maslahatlar beradi.

O‘lkashunoslik tamoyili bolalarni hududiy tabiat bilan tanishtirishga qaratilgan. Sun’iy intellekt bilan AR va VR texnologiyalari birlashtirilsa, bolalar virtual ekskursiyalar orqali o‘z hududidagi flora va fauna, geografik obyektlar bilan interaktiv tarzda tanishadi. Bu jarayon individual qobiliyatlarni inobatga olgan holda moslashtiriladi, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi, chunki bolalar virtual jamoalarda birgalikda faoliyat qiladi.

Ensiklopedik tamoyil bolalarga tabiat haqidagi umumiy bilimlarni tizimli va o‘zaro bog‘liq ravishda yetkazishga imkon beradi. SI tizimlari interaktiv ensiklopediyalar, vizual multimedia va gamification elementlarini qo‘llaydi. Shu tarzda bolalar o‘rganilgan ma’lumotlarni mustahkamlab, yangi bilimlarni qiziqarli va tushunarli tarzda o‘zlashtiradi. Misol: Interaktiv ensiklopediyada bola tabiat hodisalariga oid viktorinalarda ishtirok etadi, to‘g‘ri javoblar uchun virtual mukofotlar oladi va keyingi vazifalar SI tomonidan moslashtiriladi.

Faslchilik tamoyili orqali bolalar yil fasllarini, ob-havo o‘zgarishlarini va tabiiy jarayonlarni o‘rganadi. SI va virtual simulyatsiyalar yordamida bolalar har bir faslga xos o‘simlik va hayvonot hodisalarini kuzatadi, ularni xaritalar va grafiklar bilan solishtiradi. Bu jarayon tabiat hodisalarini sistematik ravishda o‘zlashtirish va ekologik ongni shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv barcha tamoyillarni birlashtiradi: ilmiylik, o‘lkashunoslik, ensiklopedik va faslchilik. SI tizimi bolalarning individual rivojlanishini kuzatadi, motivatsiyani oshiradi va o‘yinlashtirilgan topshiriqlar orqali tabiiy jarayonlarni qiziqarli qiladi. Shu orqali pedagoglar har bir bolaning qobiliyatiga mos individual mashg‘ulotlar yaratadi, ekologik ongni va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt yordamida tabiat bilan tanishtirishda integratsiyalashgan pedagogik yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qulay, interaktiv va motivatsion ta’lim muhitini yaratadi. Ilmiylik, o‘lkashunoslik, ensiklopedik va faslchilik tamoyillari SI orqali uyg‘unlashib, bolalarning kuzatuv, tahlil, xulosa chiqarish va ekologik ong

ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Shu tarzda pedagogik jarayon individualizatsiyalashgan va innovatsion shaklda amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balyasnikov, V.B. Maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyatining pedagogik asoslari. Pedagogika va psixologiya jurnal, 12(4), 45–53, 2019.

2. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan nashr). Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

3. Shakirova, M. Ijtimoiy‑emotsional rivojlanishda jamoaviy pedagogik metodlar. Ta’lim tadqiqotlari, 8(2), 112–120, 2020.

SUN’IY INTELLEKT MUHITIDA TALABALARNING KOGNITIV FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Shoyusupova Shaxzoda Shoxrux qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi hamda uning talabalarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish talabalarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarining talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt muhitida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kognitiv faolligini oshirishga hamda ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kognitiv fikrlash, ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, tanqidiy fikrlash, innovatsion ta’lim, oliy ta’lim.*

XXI asr ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Zamonaviy jamiyatda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv fikrlash insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Mashxur amerikalik pedagog olim B.Bloom ta’lim jarayonida kognitiv faoliyatni rivojlantirish bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’lim jarayonida yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi (Bloom, 1956).

Xorijiy tadqiqotchilar sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratmoqda. Masalan, amerikalik olim J. Russell sun’iy intellektni “inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali modellashtirish imkonini beruvchi texnologiya” deb ta’riflaydi (Russell, Norvig, 2016). Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari talabalarning

individual o‘rganish sur’atini hisobga olib, ularning tahliliy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

MDH olimlari ham ta’limda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini keng o‘rganib kelmoqda. Rus pedagog olimi V.A.Slastenin ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning intellektual salohiyatini oshirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi (Slastenin, 2008).

O‘zbek olimlari ham ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalalariga katta e’tibor qaratgan. Jumladan, pedagog olim N. Muslimov ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish talabalarning ijodiy va kognitiv faolligini oshirishini qayd etadi. Uning fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi (Muslimov, 2015).

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimining turli bosqichlarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoni yanada interaktiv, individual va samarali tashkil etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi platformalar talabalarning bilim olish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim tizimlari talabalarga individual yondashuvni ta’minlaydi. Bunday tizimlar talabaning bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qiziqishlarini tahlil qilib, unga mos o‘quv materiallarini tavsiya etadi. Natijada talaba o‘zining bilim darajasiga mos topshiriqlarni bajarish orqali tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt muhitida ta’lim olish talabalarning kognitiv faoliyatini bir necha yo‘nalishda rivojlantiradi. *Birinchidan*, talabalarning axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. *Ikkinchidan*, murakkab muammolarni hal qilish jarayonida ularning mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. *Uchinchidan*, turli raqamli platformalar orqali interaktiv topshiriqlarni bajarish talabalarning ijodiy yondashuvini kuchaytiradi. Masalan, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalari talabalarga turli muammoli vaziyatlarni taqdim etib, ularni mustaqil ravishda hal qilishni talab qiladi. Bunday vazifalar talabalarda muammoli fikrlash, tahliliy yondashuv va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt tizimlari talabalarning javoblarini tahlil qilib, ularga individual tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning yana bir muhim jihati – bu talabalarning *mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini* rivojlantirishidir. Raqamli muhitda ishlash jarayonida talabalar turli axborot manbalarini o‘rganish, ularni tahlil qilish va umumlashtirishni o‘rganadilar. Bu esa ularning kognitiv faolligini oshiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchilarga ham katta yordam beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari talabalarning bilim darajasini tez va aniq aniqlash imkonini yaratadi. Natijada o‘qituvchi talabalarning qaysi yo‘nalishda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlab, ularga mos pedagogik yondashuvni qo‘llashi mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Agar ushbu texnologiyalar to‘g‘ri tashkil etilsa, ular talabalarning faolligini oshirib, ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish talabalarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari individual yondashuvni ta’minlab, talabalarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga yordam beradi. Natijada talabalar bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi hamda ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 1956.
2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson Education, 2016.
3. Slastenin V.A. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2008.
4. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2015.

TA’LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI INFRATUZILMA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Shoyusupova Shaxzoda Shoxrux qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Tursunkulova Ruxsora Shuxrat qizi,
Gulmurodova Mahfuza Abdukarim qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani shakllantirish va zamonaviy texnologik yechimlarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhiti, masofaviy ta’lim platformalari, bulutli texnologiyalar, elektron ta’lim resurslari va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlarining ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonining samaradorligi va uning istiqbollari haqida ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, zamonaviy yondashuvlar, sun’iy intellekt, ta’lim resurslari*

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun raqamli infratuzilma muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli infratuzilma ta’lim muassasasida axborot texnologiyalari asosida bilim berish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi texnik vositalar va dasturiy tizimlar majmuasidan iborat. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ta’lim tizimini raqamlashtirish o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi (Karimov, 2021). Shuningdek, raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi o‘qitish jarayonini interaktiv va innovatsion shaklda tashkil etish imkonini yaratadi (UNESCO, 2021).

Raqamli infratuzilma ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishga xizmat qiladigan muhim tizim hisoblanadi. Uning asosiy tarkibiy qismlariga

quyidagilar kiradi: yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i; kompyuter texnikasi va mobil qurilmalar; interaktiv doskalar va multimedia vositalari; elektron kutubxonalar; masofaviy ta’lim platformalari; ta’limiy mobil ilovalar.

Mazkur texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Masalan, elektron kutubxonalar orqali talabalar o‘quv materiallariga istalgan vaqtda murojaat qilishi mumkin. Bu esa ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi (Smith, 2020).

Masofaviy ta’lim tizimlari zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu tizimlar o‘quvchilarga geografik joylashuvdan qat’i nazar bilim olish imkonini yaratadi. Masofaviy ta’lim platformalari yordamida o‘qituvchilar videodarslar, elektron testlar va interaktiv topshiriqlar orqali dars jarayonini tashkil etishi mumkin. Anderson (2019) ta’kidlaganidek, masofaviy ta’lim tizimlari ta’limning ochiqligi va qulayligini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar murakkab mavzularni tushuntirishni osonlashtiradi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida o‘qigan talabalar an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan bilimlarni tezroq o‘zlashtiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Smith, 2020).

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirishning kompleks modeli taklif etiladi. Ushbu model texnologik vositalar, dasturiy platformalar va pedagogik metodlarni yagona tizimda qo‘llashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, maqolada o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilma va zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etish ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv, samarali va moslashuvchan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Kelajakda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Canada, 2019.
3. Smith J. Digital Education Technologies. – London, 2020.
4. UNESCO. Digital Transformation in Education. – Paris, 2021.
5. Rahmonov B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.

ВНЕДРЕНИЕ ВЕРИФИЦИРОВАННОГО ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КОНТЕНТА В ВОСПИТАТЕЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ДОО

Чаброва Татьяна Левановна,
PhD, доцент кафедры «Методика дошкольного и школьного образования» Чирчикского ГПУ.
Антонюк Анастасия Константиновна,
Студентка 4 курса направления «Психолого-педагогическое образование» Филиал РГПУ им. А.И.Герцена в г. Ташкенте.

Аннотация. *В статье рассматривается вопрос внедрения верифицированного цифрового образовательного контента в систему дошкольного образования Республики Узбекистан. Анализируется роль ИКТ в реализации государственных программ «Ilk Qadam» и «Ilm Yo‘li», обозначаются критерии отбора безопасного контента и описываются условия его грамотного включения в образовательный процесс с учетом требований СанПиН № 0355-18. Особое внимание уделяется тому, как цифровая среда влияет на процесс социализации ребёнка дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, цифровой образовательный контент, «Ilk Qadam», «Ilm Yo‘li», цифровая социализация, безопасность контента.*

Сегодня цифровая среда уже не воспринимается как что-то внешнее по отношению к образованию. Она постепенно становится его частью. В рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» технологии активно внедряются во все социальные сферы, и дошкольное образование не является исключением. Более того, в Законе Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании» прямо подчеркивается значение ИКТ как инструмента повышения качества образовательного процесса. [1]

Однако здесь возникает вполне закономерный вопрос. Если технологии дают новые возможности, то несут ли они риски? Исследования Г.У.Солдатовой, Н.Е.Вераксы и других авторов показывают, что бесконтрольное пребывание ребёнка в цифровой среде может негативно отразиться на когнитивном развитии, эмоциональной сфере и формировании произвольности. Поэтому становится очевидным: важна не просто цифровизация, а осознанная цифровизация. И именно здесь на первый план выходит понятие верифицированного цифрового образовательного контента.

Под верифицированным контентом понимаются цифровые материалы, прошедшие содержательную, методическую и психолого-педагогическую экспертизу. Это не просто «красивые» интерактивные игры или мультимедийные презентации. Это ресурсы, соответствующие государственным стандартам, возрастным особенностям детей и национальным ценностям.

Цель данной работы – обосновать модель безопасного и педагогически целесообразного использования цифрового образовательного контента в процессе реализации программ «Ilk Qadam» и «Ilm Yo‘li». [2], [3]

Нормативной основой выступают действующие законодательные акты Республики Узбекистан, государственные программы дошкольного образования, а

также санитарно-гигиенические нормы СанПиН № 0355-18, регламентирующие допустимую продолжительность экранного времени. Теоретической базой служит концепция цифровой социализации, согласно которой гаджеты могут выступать средством развития, но исключительно при посредничестве взрослого.

Если обратиться к программе «Ilk Qadam», можно увидеть, что её структура позволяет органично включать цифровой контент в различные направления развития ребёнка.

В рамках познавательного развития целесообразно использовать интерактивные задания, направленные на формирование элементарных математических представлений, развитие логического мышления, классификацию и сравнение. При этом важно, чтобы цифровая деятельность не подменяла предметную, а лишь дополняла её.

В речевом развитии цифровые аудио-библиотеки и мультимедийные материалы могут способствовать формированию звуковой культуры речи, расширению словарного запаса, поддержке двуязычия. Особенно актуально это в условиях многоязычной образовательной среды.

Отдельного внимания заслуживает возможность виртуального расширения опыта ребёнка. С помощью качественных мультимедийных материалов дети могут знакомиться с природными и культурными объектами Узбекистана, которые в реальности они не всегда имеют возможность увидеть. В этом смысле цифровой ресурс становится инструментом расширения кругозора.

Организационно внедрение цифрового контента наиболее эффективно реализуется через модель «ротации центров». В условиях центров активности возможно выделение специальной цифровой зоны или использование «Центра науки», где дети работают в мини-группах по 2-3 человека. Продолжительность взаимодействия с экраном не должна превышать 10-12 минут, что соответствует требованиям СанПиН [4]. Обязательным является присутствие педагога, который направляет деятельность и регулирует темп работы.

Особое значение имеет система отбора контента. Верификация может осуществляться по нескольким критериям.

- Во-первых, этнокультурный фильтр. Материал должен соответствовать национальным традициям, принципам духовно-нравственного воспитания и концепции «Ma’naviyat va ma’rifat».
- Во-вторых, лингвистический критерий. Приоритет отдается качественным материалам на государственном языке при сохранении возможностей для развития двуязычия.
- В-третьих, психологический аспект. Недопустимы агрессивные визуальные стимулы, чрезмерно быстрая смена кадров, наличие рекламных вставок и элементов, провоцирующих перевозбуждение.

Практический анализ показывает, что грамотно подобранный и методически встроенный цифровой контент действительно повышает вовлеченность детей, способствует формированию учебной мотивации и облегчает переход к школьному обучению. Однако принципиально важно понимать: цифровые ресурсы не могут и не должны заменять традиционные формы деятельности – игру, общение, двигательную активность, живое взаимодействие со взрослым.

Таким образом, эффективность цифрового образовательного контента определяется не самим фактом его использования, а условиями его внедрения. Ключевыми остаются педагогическое сопровождение, соблюдение санитарно-

гигиенических норм и обязательное включение здоровьесберегающих технологий, включая зрительную гимнастику и подвижные игры после работы с экраном.

В конечном счете цифровая среда может стать ресурсом развития, но только при осмысленном и ответственном подходе. И, пожалуй, именно эта позиция сегодня наиболее актуальна для системы дошкольного образования.

Использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании» № ЗРУ-595 от 16 декабря 2019 г.
2. Государственная учебная программа «Ilk Qadam» (в новой редакции). — Ташкент: Министерство дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан. 2025
3. Государственная программа подготовки к школе «Ilm Yo‘li». — Ташкент: МДШО Республики Узбекистан. 2022
4. СанПиН № 0355-18 «Санитарно-гигиенические требования к содержанию и организации режима работы в дошкольных образовательных организациях Республики Узбекистан». 2014

3-SHO‘BA: O‘QUV JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI (TIMSS dasturi misolida)

Artikbayeva Zamira Allayarovna,
Nizomiy nomidagi O‘ZMPU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi professori, P.f.n.
Salimboyeva Maknuna Omonboy qizi,
Nizomiy nomidagi O‘ZMPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, TIMSS talablari asosida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammoni hal qilish ko‘nikmalari hamda amaliy matematik kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellektga asoslangan platformalar, interaktiv dasturlar va adaptiv o‘quv tizimlari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, shu bilan birgalikda xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, TIMSS, matematik savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, xalqaro baholash dasturlari, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, adaptiv ta’lim tizimlari, individual ta’lim trayektoriyasi, muammoli ta’lim.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o‘quv jarayonini tashkil qilishda yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi o‘qitish jarayonini yanada samarali va interaktiv tashkil etishga xizmat qilmoqda. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash va individual yondashuv asosida o‘quv topshiriqlarini taqdim etish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu ayniqsa, matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli matematik savodxonlikni rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Matematika savodxonligi nafaqat matematik bilimlarni egallashni, balki ularni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro baholash dasturlaridan biri bo‘lgan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) tadqiqotlari o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasivako‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan. Mazkur tadqiqot o‘quvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda ularning amaliy fikrlash ko‘nikmalarini ham baholaydi. TIMSS topshiriqlari o‘quvchilardan mantiqiy tahlil qilish, muammoni turli xil usullar bilan hal qilish va bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llashni talab qiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilib, ularga mos murakkablikdagi topshiriqlarni taklif etadi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos ta’lim muhitini yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar o‘quvchilarning xatolarini aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga va o‘rganish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarga ham katta yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tezkor ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, o‘quv jarayonini rejalashtirish va differensial yondashuv asosida tashkil etish osonlashadi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim platformalari o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

TIMSS topshiriqlariga mos ravishda yaratilgan interaktiv mashqlar va raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday mashqlar orqali o‘quvchilar real hayotga yaqin bo‘lgan vaziyatli masalalarni hal qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning analitik va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish, ularning bilim darajasini monitoring qilish va o‘quv jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning matematik kompetensiyalari rivojlanadi, ularning mantiqiy fikrlashi shakllanadi hamda xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish imkoniyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. - pp. 45-60

2. Abdullayeva M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.

3. To‘raqulov X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019. 72-80-betlar

4. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLAR, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Astanakulova Nasiba Uralovna,
Denov TPI, Pedagogika va psixologiya kaferdasi mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarining pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mazkur yondashuv o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil faoliyati va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.*

Tayanch so‘zlar: *ijodiy qobiliyat, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, innovatsion ta’lim.*

Kirish. Hozirgi zamon ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda innovatsion fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va ijodiy yondashuvga ega shaxslarni tarbiyalash ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va intellektual salohiyatini rivojlantirishda interactive methods, digital technologies hamda artificial intelligence texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitini keng joriy etish zarurligini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlarda boshlang‘ich ta’limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, STEAM education, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari keng o‘rganilgan. Masalan, Abdul Gafoor tadqiqotlarida interfaol va integrativ ta’lim yondashuvlari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, Luckin tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Biroq boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilishga qaratilgan pedagogik modellar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv taklif etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilishga asoslangan konseptual pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ta’lim faoliyati va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Metodologiya bo‘limi bo‘yicha tanqidiy tahlil. 1. Tadqiqot dizaynining aniq bayon etilmasligi. Ko‘p hollarda metodologiya qismida tadqiqot usullari umumiy tarzda bayon qilinadi, ammo tadqiqotning aniq dizayni, bosqichlari va amalga oshirish tartibi tizimli ravishda ko‘rsatilmaydi. Bu holat tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini baholashni qiyinlashtiradi. 2. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish usullarining yetarli ochilmasligi. Ayrim tadqiqotlarda pedagogik kuzatish, anketa yoki test usullari qayd etilsa-da, ishtirokchilar soni, tadqiqot muhiti va natijalarni baholash mezonlari aniq ko‘rsatilmaydi. 3. Tadqiqot jarayoni algoritmining tizimli ifodalanmasligi. Interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan qanday bosqichlarda foydalanilgani ko‘p hollarda umumiy bayon qilinadi. Bu esa metodologiyaning ilmiy qiymatini kamaytiradi.

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va Artificial Intelligence texnologiyalarini integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy-ilmiy asosini konstruktivistik ta’lim nazariyasi, kompetentlikka asoslangan ta’lim konsepsiyasi hamda raqamli ta’lim muhiti tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot dizayni kompleks pedagogik tadqiqot sifatida tashkil etildi va u quyidagi bosqichlarni qamrab oldi: - nazariy tahlil bosqichi; - pedagogik modelni ishlab chiqish bosqichi; - tajriba-sinov bosqichi; - natijalarni tahlil qilish va baholash bosqichi.

Tadqiqot jarayonida interfaol ta’lim usullari (brainstorming, project-based learning, digital storytelling) va sun’iy intellektga asoslangan raqamli vositalar qo‘llanildi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ta’lim faoliyati va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratildi.

Tadqiqot algoritmi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: 1. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga oid nazariy manbalarni tahlil qilish 2. Interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar asosida pedagogik model yaratish 3. Sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish 4. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish 5. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini diagnostika qilish 6. Natijalarni matematik-statistik tahlil qilish 7. Model samaradorligini baholash

Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida pedagogik kuzatish, anketa, test va intervyu usullaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy va statistik tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Natijalarni baholashda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil faoliyati va raqamli kompetensiyalar darajasi asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Natijalar va muhokama. Natijalar va muhokama bo‘limi bo‘yicha tanqidiy tahlil. 1. Natijalarning aniq empirik ma’lumotlar bilan asoslanmasligi. Ko‘p hollarda tadqiqot natijalari umumiy bayon qilinadi, ammo ularni tasdiqlovchi statistik ma’lumotlar yoki jadvallar yetarlicha keltirilmaydi. 2. Natijalar va muhokama o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishning kamligi. Ayrim tadqiqotlarda natijalar bayon qilingan bo‘lsa-da, ularning pedagogik ahamiyati va ta’lim amaliyotiga ta’siri yetarlicha tahlil qilinmaydi. 3. Ilmiy manbalar bilan qiyosiy tahlilning yetarli emasligi. Muhokama qismida natijalar milliy va xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilmasa, tadqiqotning ilmiy yangiligi to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Interfaol metodlar orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish natijalari. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba natijalarini tahlil qilish o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi, mustaqil ishlash qobiliyati va raqamli kompetensiyalarining oshganini ko‘rsatdi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlar darajasi

Ko‘rsatkich	Tajriba boshida (%)	Tajriba oxiri (%)
Yuqori daraja	24	49
O‘rta daraja	46	38
Quyi daraja	30	13

Jadval natijalariga ko‘ra, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar qo‘llanilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samara bergan.

Natija va muhokamalar. Folklor asarlarini tahlil qilish asosida kreativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini amaliyotga joriy etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligi va ijodiy tafakkurini sezilarli darajada oshiradi. Folklor matnlarining obrazli va hayotiy mazmuni o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, voqealarga turli nuqtayi nazardan qarash va o‘z munosabatini erkin ifodalash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Natijada, o‘quvchilar matnni oddiy qayta hikoyalash bilan cheklanib qolmay, balki uning mazmunini tahlil qilish, baholash va ijodiy talqin etishga intiladilar. Muhokamalar jarayonida folklor asarlarini tahlil qilishda qo‘llanilgan interfaol metodlar, jumladan, rolga kirish, muqobil yakun yaratish, qahramon xatti-harakatlariga baho berish va ijodiy topshiriqlar tuzish usullari o‘quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Masalan, ertak yoki rivoyat qahramoni o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatlarga original yechimlar taklif etishdi, bu esa ularning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirdi. Shuningdek, maqol va matallar asosida hayotiy vaziyatlar yaratish topshiriqlari o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va nutqiy faolligini oshirdi. Natijalarga ko‘ra, folklor asarlarini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi sezilarli darajada rivojlandi, so‘z boyligi kengaydi va badiiy ifoda vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari mustahkamlandi. O‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon qilishga, bahs-munozaralarda faol ishtirok etishga va o‘z qarashlarini asoslab berishga o‘rganishdi. Bu holat kreativ kompetensiyaning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanganini ko‘rsatadi. Muhokamalar shuni ham tasdiqladiki, folklor asarlarini tahlil qilish asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ta’lim jarayonini mazmunan boyitadi. O‘qituvchi tomonidan metodik jihatdan to‘g‘ri tanlangan topshiriqlar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon yaratadi. Natijada folklor asarlarini o‘rganish nafaqat bilim berish vositasi, balki o‘quvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metodika sifatida o‘z tasdig‘ini topadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, mazkur maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida folklor asarlarini tahlil qilish asosida o‘quvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi atroflicha yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, folklor asarlari o‘zining obrazliligi, hayotiyligi va ko‘p ma’noliligi bilan o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun qulay pedagogik vosita hisoblanadi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyat va afsonalarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish hamda o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini egallaydilar. Folklor asarlarini tahlil qilishda interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlanish va ijodiy faoliyat orqali o‘zlashtiruvchi subyektga aylanadi. Xulosa qilib aytganda, folklor asarlarini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida o‘rganish ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning muhim va samarali yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov H. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. O‘qituvchi, 2018.
2. Ahmedov B. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – T.: Fan, 2017.

3. Qodirov A. Xalq og‘zaki ijodi va ta’lim-tarbiya masalalari. Toshkent. Fan, 2015.
4. Rasulov R. O‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – T.:. Sharq, 2020.

O‘QUV JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Axunova Diyora Urunboy qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Xushvaqtova Xolida Ziyomidinovna,
Turabekova Marjonaxon Rustambekovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot ishida o‘quv jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari, metodik modeli hamda pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. SI vositalarining adaptiv ta’lim, differensial yondashuv, avtomatlashtirilgan baholash va ta’lim analitikasi jarayonlaridagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan darsning bosqichma-bosqich metodik modeli ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, ta’lim analitikasi, raqamli pedagogika, individual ta’lim trayektoriyasi, virtual tutor, metodik model.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga keng joriy etish imkonini bermoqda. Xususan, OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan intellektual modellar ta’lim jarayonida virtual yordamchi, interaktiv tushuntiruvchi va tahliliy vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellektdan foydalanish metodikasi faqat texnologik jarayon emas, balki pedagogik, psixologik va didaktik yondashuvni talab qiluvchi murakkab tizimdir.

1. Sun’iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari:

1.1. Pedagogik asoslar. Sun’iy intellektdan foydalanish quyidagi nazariy yondashuvlarga tayanadi:

Konstruktivizm – bilim o‘quvchi tomonidan faol ravishda quriladi.

Kognitiv yondashuv – o‘quvchining fikrlash jarayonini rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv – bilimni amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – individual ehtiyoj va qobiliyatlarni inobatga oladi.

Sun’iy intellekt ushbu yondashuvlarni amalga oshirish uchun moslashuvchan platforma yaratadi.

2. Sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari:

2.1. Individuallashtirish. SI tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlab, har bir o‘quvchi uchun individual topshiriqlarni shakllantiradi. Bu differensial yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

2.2. Adaptiv o‘qitish. Adaptiv tizimlar: o‘quvchining xatolarini tahlil qiladi; murakkablik darajasini moslashtiradi; takrorlash materiallarini avtomatik tavsiya qiladi.

Natijada o‘zlashtirish ko‘rsatkichi oshadi.

2.3. Tezkor teskari aloqa. Sun’iy intellekt real vaqt rejimida javoblarni tahlil qilib, darhol fikr-mulohaza beradi. Bu motivatsiyani oshiradi.

2.4. Ta’lim analitikasi. SI katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlaydi va o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlaydi; muvaffaqiyat darajasini prognoz qiladi; o‘qituvchiga tahliliy hisobotlar taqdim etadi.

3. Sun’iy intellekt asosida o‘quv jarayonini tashkil etish modeli.

Quyidagi metodik model taklif etiladi:

1-bosqich: Diagnostika. Boshlang‘ich test va analitik vositalar yordamida o‘quvchining bilim darajasi aniqlanadi.

2-bosqich: Individual o‘quv trayektoriyasini yaratish. SI tizimi har bir o‘quvchi uchun shaxsiy o‘quv yo‘nalishini ishlab chiqadi.

3-bosqich: Interaktiv o‘qitish. multimedia kontent; simulyatsiyalar; virtual laboratoriyalar; SI yordamchi-chatbotlar.

4-bosqich: Mustahkamlash. Avtomatik testlar, mashqlar va refleksiya savollari orqali bilim mustahkamlanadi.

5-bosqich: Baholash va monitoring. Natijalar tizimli ravishda qayd etilib, tahlil qilinadi.

4. Boshlang‘ich ta’limda SI metodikasining xususiyatlari.

Boshlang‘ich sinflarda SI vositalari: vizual va interaktiv ko‘rinishda bo‘lishi; o‘yin elementlari (gamifikatsiya)ni o‘z ichiga olishi; qisqa va sodda tushuntirishlar berishi; ota-onalar uchun monitoring imkoniyatini yaratishi zarur.

Bu yoshdagi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va raqamli savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Sun’iy intellektni qo‘llashning psixologik jihatlari. Sun’iy intellekt bilan ishlashda quyidagilar muhim: motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash; haddan tashqari bog‘lanishning oldini olish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; mustaqil ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish.

O‘qituvchi jarayonni nazorat qiluvchi va yo‘naltiruvchi rolini saqlab qolishi kerak.

6. Metodik tavsiyalar. SI vositalari dars maqsadiga mos tanlanishi. O‘quvchilarga akademik halollik qoidalari tushuntirilishi. Texnik infratuzilma oldindan tayyorlanishi. Ma’lumotlar xavfsizligi ta’minlanishi. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilishi.

7. Afzalliklari va muammolari. Afzalliklari: individuallashtirilgan yondashuv; samarali monitoring; vaqt tejalishi; yuqori motivatsiya. Muammolari: texnik yetishmovchilik; raqamli tafovut; etik masalalar; o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi.

Umumiy xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ta’lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. SI vositalari o‘quvchilarni individuallashtirilgan tarzda o‘qitish, natijalarni tahlil qilish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Biroq metodika kompleks yondashuvni, pedagogik nazoratni va axloqiy me’yorlarga rioya qilishni talab etadi. Sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, balki uning faoliyatini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon. – Toshkent, 2020.

2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018.

BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KOMPETENSION YONDASHUV

Babajanova Maftuna Shuhrat qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda kompetension yondashuvning mohiyati, pedogogik ahamiyati va ta’lim samaradorligiga ta’siri keng ma’noda yoritiladi. Texnologiya darslari orqali o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, amaliy faoliyatga yo‘naltirish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida qabul qilingan qonunlar va davlat qarorlari asosida boshlang‘ich ta’limda kompetension yondashuvni joriy etishning dolzarbligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kompetension yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, texnologiya darslari, tayanch kompetensiyalar, amaliy faoliyat, ijodiy fikrlash, kasbiy yo‘naltirish.*

Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fani o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu fan orqali bolalarda mehnatga ijobiy munosabat, oddiy texnologik jarayonlar haqidagi tasavvurlar, buyumlar bilan ishlash madaniyati, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, jamoada hamkorlikda faoliyat yuritish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Kompetension yondashuv aynan shu jihatlarni tizimli va maqsadli rivojlantirishni nazarda tutadi. So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida kompetension yondashuv asosiy strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalar, amaliy malakalar va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish vazifalari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-son qarorida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy, texnologik va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da boshlang‘ich ta’limdan boshlab o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim jarayoniga innavatsion metodlarni joriy etish, o‘quvchilarning texnik-texnologik savodxonligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning keying rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu davrda o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, mustaqil fikrlash, ijodkorlik kabi muhim sifatlar shakllanadi.

Kompetension yondashuvga ko‘ra, texnologiya darslari jarayonida o‘quvchi nafaqat buyum yasashni, balki: - vazifani rejalashtirish; - xavfsizlik qoidalariga roiya qilish; - materiallarni to‘g‘ri tanlash; - jamoada ishlash; - natijani baholash kabi hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi.

Zamonaviy pedogogik tadqiqotlarda kompetension yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirishi, bilimlarni mustahkamroq o‘zlashti-

rishga xizmat qilishi qayd etiladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiya darslarida o‘quvchilarning darsga qiziqishi an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida kompetension yondashuv o‘quvchilarni real hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Masalan, qog‘oz, mato, tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlash jarayonida bolalarda mayda motorika, estetik did, mehnat madaniyati shakllanadi. Shu bilan birga,o‘quvchi o‘z mehnati natijasini baholashni, xatolarini tahlil qilishni o‘rganadi.

Texnologiya darslarida kompetension yondashuv STEAM ta’lim elementlari bilan uyg‘unlashganda yanada samarali bo‘ladi. Loyihaviy faoliyat, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlarni hal etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarda texnologik savodxonlik, ijodkorlik va muloqot kompetensiyalari rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlariga ko‘ra faol, qiziquvchan va amaliy faoliyatga moyil bo‘ladilar. Shu sababli texnologiya darslarida kompetension yondashuvni joriy etish, o‘quvchilarning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, amaliy faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlar bolalarning bilimini eslab qolish darajasini oshiradi, chunki bola ko‘rganini emas, balki bajarganini yaxshiroq o‘zlashtiradi. Ta’lim psixologiyasi nuqtai nazardan ham, harakat orqali o‘rganish boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Texnologiya darslarida kompetension yondashuvni samarali samarali joriy etish o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga ham bog‘liq.

O‘qituvchi darsni shunchaki “namuna ko‘rsatish-takrorlash” tarzida emas, balki muammoli vaziyatlar yaratish, kichik loyihalar tashkil etis, guruhli ishlash, o‘yin elementlari orqali tashkil etsa, o‘quvchilar faol ishtirokchiga aylanadi. Masalan, “uy maketi yaratish”, “bayram uchun sovg‘a tayyorlash”, “qayta ishlanadigan materiallardan foydali buyum yasash”, kabi topshiriqlar bolalarda ijodkorlik, mas’ulyat va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kompetension yondashuv baholash tizimida ham o‘zgarishlarni talab etadi. An’anaviy baholashda ko‘proq tayyor mahsulot natijasi baholansa, kompetension yondashuvda jarayonning o‘zi ham muhim hisoblanadi. O‘quvchining vazifani rejalashtirishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi, jamoada ishlashi, mustaqil qaror qabul qilishi kabi jihatlar baholash mezonlari sifatida qaraladi. Bu esa bolalarda o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasini shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda kompetension yondashuvning yana bir muhim jihati - kasbiy yo‘naltirishning dastlabki elementlarini shakllantirishdir. Texnologiya darslari orqali bolalar turli mehnat turlari, kasblar, ishlab chiqarish jarayonlari haqida dastlabki tasavvurga ega bo‘ladilar. Bu esa keyingi bosqichlarda ongli kasb tanlash uchun psixologik tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ta’lim tendensiyalariga muvofiq, texnologiya darslarida kompetension yondashuvni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘quvchilar tayyorlagan buyumlarini suratga olib, oddiy taqdimotlar yaratishlari, sinfda namoyish etishlari mumkin. Bu jarayon raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.Shuningdek, kompetension yondashuv inklyuziv ta’lim tamoyillariga ham mos keladi.

Texnologiya darslarida turli qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar uchun differensial topshiriqlar berish, har bir o‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib faoliyatni tashkil etish mumkin. Bu esa har bir bolaning o‘zini muvaffaqiyatli his etishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchining ortishiga xizmat qiladi.Umuman olganda, boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida kompetension yondashuv ta’lim jarayonini hayotga yaqinlashtiradi,

o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki faol ijodkor subyekt sifatida shakllantiradi. Bu yondashuv orqali bolalarda kelajakda zarur bo‘ladigan muhim hayotiy kompetensiyalar: muammoni hal etish, hamkorlik, mas’uliyat, ijodkorlik, texnologik savodxonlik kabi sifatlar poydevori qo‘yiladi.

Xulosa shuki, boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida kompetension yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy rivoji, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va hayotga moslashuvchanlikni ta’minlashda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini va texnologik savodxonligini oshiradi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga kompetension yondashuvni tizimli ravishda joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. -Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-son qarori.
3. Xodjayev B., Abdullayeva M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent, 2021.
4. Abdullayeva N. Ta’limda kompetension yondashuv. - Toshkent, 2019.

SUN’IY INTELEKT YORDAMIDA STOL TENNISI MASHG‘ULOTLARINING SAMARDORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Boltayev Shamshodjon Elmurod o‘g‘li,
Chirchiq DPU “Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Abdurasulov Muhammadaminxo‘ja Sharif o‘g‘li,
Nasriddinov Raxul Najmiddin o‘g‘li,
Begov Abdulaziz Begmaxmat o‘g‘li,
Chirchiq DPU, Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Maqolada talabalar o‘rtasida stol tennisi mashg‘ulotlarini suniy intelekt yordamida samardorlikni oshirish yo‘llari, musobaqada ularning imkoniyatlari mulohazalar, takliflar keltirilgan. Bundan tashqari oliy ta’lim muassasalari talabalarining sportning stol tennisi turiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirishga doir masalalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Murabbiy, talaba, stol tennisi, sun’iy intelekt, video tahlil, Aqlli stol tennisi robotlari, musobaqa, raqobat, tajriba, Aqlli sensorlar, zarba tezligi.*

Kirish. Stol tennisi – bu shunchaki sport emas, balki g‘ayrat, tezkorlik va strategiya o‘yinidir. *Stol tennisi – bu soniyalar ichida qaror qabul qilish san’ati!* Stol tennisi mashg‘ulotlarida «sun’iy intellekt (AI)» dan foydalanish sportchining texnikasi, tezligi va strategiyasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Quyida AI yordamida samaradorlikni oshirishning asosiy usullari keltirilgan:

1. Video tahlil orqali texnikani yaxshilash. AI asosidagi video tahlil dasturlari sportchining harakatlarini tahlil qilib, xatolarni ko‘rsatadi. 1) Raketka burchagi; 2) Zarba tezligi; 3) Tana pozitsiyasi; 4) Oyoq harakati.

Masalan, «Hudl Technique» yoki «Dartfish» kabi dasturlar zarbalarni sekinlashtirib ko‘rsatadi va professional sportchilar bilan solishtirish imkonini beradi.

Foydasi: 1. Murabbiyga aniq tahlil. 2. Sportchiga xatolarni tez tuzatish.

2. Aqlli stol tennisi robotlari. AI boshqaruvli robotlar turli xil zarbalarni avtomatik ravishda uzatib beradi.

Masalan: 1. «Butterfly Amicus Prime Table Tennis Robot». 2. «Newgy Robo‑Pong 2055 Table Tennis Robot». *(2-rasmga qarang)*

Bu robotlar quyidagilarni mashq qilishga yordam beradi: 1. Spin (aylanma zarbalar). 2. Tezlik o‘zgarishi. 3. Turli joylarga to‘p uzatish.

Foydasi: 1) 24/7 mashq qilish; 2) bir xil zarbani minglab marta takrorlash.

3. Ma’lumotlar (Data) tahlili. AI o‘yin statistikalarini tahlil qilib strategiya ishlab chiqadi.

Tahlil qilinadigan ma’lumotlar: 1.Qaysi zarba ko‘proq ochko olib keladi. 2. Qaysi joyga urilgan to‘p samaraliroq. 3. Raqibning zaif tomonlari.

AI bu ma’lumotlardan «o‘yin strategiyasi» ishlab chiqishda yordam beradi.

4. Virtual yoki simulyatsiya mashg‘ulotlari. Ba’zi AI tizimlari virtual raqib bilan mashq qilish imkonini beradi. Bu real o‘yin vaziyatlarini simulyatsiya qiladi.

Masalan, VR texnologiyalari yordamida: 1) tez qaror qabul qilish; 2) reaksiya tezligini oshirish; 3) taktika mashqi.


5. Aqlli sensorlar. Raketkaga yoki sportchining tanasiga o‘rnatiladigan sensorlar zarbalarni o‘lchaydi.

Masalan: «STIGA Smart Table Tennis Trainer» *(1-rasmga qarang)*

Ular quyidagilarni o‘lchaydi: 1) zarba tezligi; 2) spin darajasi; 3)zarba soni.



1-rasm



2-rasm

Sun’iy intellekt stol tennisi mashg‘ulotlarida: 1) texnikani aniq tahlil qiladi; 2) avtomatik mashq yaratadi; 3) statistikani hisoblaydi; 4) strategiyani yaxshilaydi.

Natijada sportchi «tezroq rivojlanadi va mashg‘ulotlar samaradorligi oshadi».

Samaradorlik ko‘rsatkichlari:

Yo‘nalish	An’anaviy usul	AI yordamida
Xatolarni aniqlash	Murabbiyning ko‘zi bilan (subyektiv)	99% aniqlikdagi datchiklar (obyektiv)
Mashg‘ulot vaqti	Ko‘p vaqt takrorlashga ketadi	Faqat kerakli nuqtaga fokus qilinadi
Natija tahlili	Taxminiy	Grafik va raqamlarda

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, stol tennisi mashg‘ulotlariga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish talabalarning texnik mahoratini oshirishda inqilobiy qadamdir. Video tahlil, aqlli datchiklar va robotlashtirilgan tizimlar mashg‘ulotlar jarayonini shunchaki jismoniy mashqdan yuqori aniqlikdagi tahliliy jarayonga aylantiradi. Bu nafaqat talabalarning musobaqalardagi raqobatbardoshligini oshiradi, balki ularning sportga bo‘lgan qiziqishini zamonaviy texnologiyalar orqali yanada kuchaytiradi. Murabbiy tajribasi va sun’iy intellekt aniqligining uyg‘unligi oliy ta’lim muassasalarida sport sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Duchêne, A., & Peham, C. (2022). Artificial Intelligence in Racket Sports: A Review of Current Applications and Future Perspectives. Journal of Sports Sciences.
2. Liu, R., & Zhang, Y. (2023). Deep Learning for Stroke Recognition and Analysis in Table Tennis. International Journal of Computer Science in Sport.
3. Wang, L., & Zheng, J. (2021). Design and Implementation of an Intelligent Training System for Table Tennis Based on Computer Vision. Journal of Physics: Conference Series.
4. Yang, C., & Xu, Y. (2024). Smart Sensors and Big Data Analytics in Elite Table Tennis Performance. Sports Engineering.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarning mohiyati, ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda oila bilan hamkorlik asosida samarali yechimlar ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali pedagogik konfliktlarni erta aniqlash, monitoring qilish hamda ularning oldini olish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchi, o‘quvchi va oila o‘rtasidagi hamkorlikni raqamli va intellektual texnologiyalar bilan integratsiyalash pedagogik konfliktlarni samarali boshqarish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *oila, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik konflikt, sun’iy intellekt, hamkorlik, o‘quvchi, monitoring, pedagogik texnologiya, tarbiya.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Konstitutsiyaga muvofiq oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi va unda farzandlarning tarbiyasi hamda rivojlanishi uchun muhim ijtimoiy muhit shakllanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar shaxsining shakllanishi ko‘p jihatdan oiladagi muhit, tarbiya uslubi hamda ota-ona bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga bog‘liqdir. Mazkur jarayonda pedagogik konfliktlar – ya’ni o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi pedagogik jarayonlarni tahlil qilish, konfliktlarni aniqlash va ularni boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila bilan hamkorlikni sun’iy intellekt asosidagi pedagogik monitoring tizimlari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Oilaning turlari va pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishi. Pedagogik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oilaning ijtimoiy-psixologik muhiti o‘quvchining maktabdagi xulq-atvori hamda o‘qishga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyotda oilalarning quyidagi turlari farqlanadi: to‘liq oila, noto‘liq oila, muammoli oila.

To‘liq oilalarda o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, pedagogik konfliktlar kam uchraydi. Noto‘liq oilalarda esa o‘zaro tushunmovchilik, emotsional beqarorlik va psixologik ziddiyatlar ko‘proq kuzatiladi. Muammoli oilalarda esa nizolar muntazam takrorlanib turishi sababli o‘quvchilarda pedagogik konfliktlarning paydo bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosidagi pedagogik tahlil tizimlari yordamida o‘quvchilarning psixologik holati, xulq-atvori hamda o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklarni monitoring qilish imkoniyati mavjudligi ta’kidlanadi. Masalan, raqamli ta’lim platformalarida o‘quvchilarning faoliyati tahlil qilinib, konfliktli vaziyatlar yuzaga kelishining ehtimoli oldindan aniqlanishi mumkin.

Muammoli oilalar bilan ishlash metodikasi. Muammoli oilada voyaga yetayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda quyidagi metodik bosqichlarga amal qilish muhim hisoblanadi.

1. Pedagogik konfliktlarni aniqlash. Bunda quyidagilar amalga oshiriladi: o‘quvchidagi konflikt turlarini aniqlash; konfliktlarning kelib chiqish sabablarini o‘rganish; konfliktlarning davomiyligini aniqlash; konfliktlarning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini tahlil qilish.

Sun’iy intellekt asosidagi diagnostik vositalar yordamida o‘quvchilarning o‘quv faolligi, muloqot uslubi va psixologik holatini tahlil qilish orqali konfliktlarni erta aniqlash mumkin.

2. Oila a’zolari bilan hamkorlik. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ota-ona bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda: oiladagi yetakchi shaxs aniqlanadi; oila muhitini o‘rganish maqsadida suhbat o‘tkaziladi; o‘quvchidagi konflikt sabablariga aniqlik kiritiladi; ota-onalarga pedagogik maslahatlar beriladi.

Zamonaviy sharoitda ota-ona bilan hamkorlikni kuchaytirishda raqamli kommunikatsiya vositalari, masalan, mobil ilovalar yoki sun’iy intellekt asosidagi maslahat platformalari samarali hisoblanadi.

3. O‘quvchi bilan individual ishlash. Muammoli oilada voyaga yetayotgan o‘quvchilar bilan individual ishlash quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi: o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirish; ijobiy motivatsiyani rivojlantirish; psixologik qo‘llab-quvvatlash; pedagogik monitoringni tashkil etish.

Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchining rivojlanish dinamikasi doimiy ravishda tahlil qilinib, individual ta’lim strategiyalari ishlab chiqilishi mumkin.

Sun’iy intellekt asosida pedagogik konfliktlarni monitoring qilish. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: o‘quvchilar xulq-atvorini tahlil qilish; psixologik holatni diagnostika qilish; konfliktli vaziyatlarni oldindan prognoz qilish; o‘qituvchi va ota-ona uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Masalan, raqamli ta’lim platformalarida o‘quvchining darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi va muloqot jarayoni tahlil qilinib, muammoli holatlar haqida o‘qituvchiga avtomatik signal berilishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila bilan hamkorlik muhim metodik asos hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim sharoitida bu jarayonni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash konfliktlarni erta aniqlash, ularning oldini olish hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu sababli bo‘lajak

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik konfliktologiya va raqamli pedagogika yo‘nalishlarida tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Pedagogik konfliktologiya / M.T.Axmedova. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi / O.Jabborova, Z.Umarova. – Toshkent, 2023.

“TEXNOLOGIYA TA’LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI” FANI JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Otaqulova Muxlisa Sobir qizi,
Qarshiboyeva Shaxzoda Akram qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnologiya ta’lim nazaryasi va metodikasida axborot texnologiyasida qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari, samarali usullari va kelajak istiqbollari tahlil etiladi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish maqsadida metodik imkonyatlar, ta’limiy va tarbiyaviy ahamyati, shuningdek,o‘qituvchi faolyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *elektron baholash, multimedia vositalari,ta’lim resurslari, masofaviy ta’lim, STEAM ta’lim yondashuvi, innovatsion metod, dastur.*

Zamonaviy ta’lim tizimi axborot texnologiyalarining tez rivojlanishini talab qiladi va bu jarayonda yangi usullarni qo‘llash zaruriyati yuzaga keladi. Ayniqsa, texnologiya ta’limi o‘zining amaliy yo‘nalishi bilan axborot texnologiyalarini samarali tatbiq etish uchun juda mos fan hisoblanadi. Davlat rahbari faoliyati bilan olib borilayotgan islohotlarda raqamli bilim va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirish zarurligi ham bir necha bor qayd etilgan. Masalan, Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomasida u “raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda ham samaradorlikni oshirish vositasi” ekanligini ta’kidlab, buning uchun raqamli iqtisodiyot va ICT sohasida malakali kadrlarni tayyorlash masalasini ustuvor yo‘nalish deb belgilagan. Masalan, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli qarorda axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy izlanishlarni IT-sanoat bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari belgilangan. Shu qaror “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishning muhim qismidir.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada jonlanadi, ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi va ta’lim sifati oshadi. Shu bois, texnologiya ta’limi jarayonida AKTdan qanday foydalanish samaraliroq ekanini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Texnologiya ta’limi o‘quvchilarni hayotga va kasb tanlashga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Bu fan orqali o‘quvchilarda texnologik tafakkur, amaliy ko‘nikmalar, ijodiy yondashuv va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Shuningdek, o‘quvchilarga texnologik jarayonlarni tushuntirish, amaliy mashg‘ulotlar orqali mehnat malakalarini

oshirish, texnika va texnologiyaga qiziqishni uyg‘otish va ularni kasbga yo‘naltirish muhim vazifalardan biridir.

Axborot texnologiyalari – bu axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatishga xizmat qiluvchi dasturiy va texnik vositalar majmuasidir. Ta’lim jarayonida AKT o‘quv materialini ko‘rgazmali, interfaol va tushunarli tarzda taqdim etadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari ta’limni individallashtirish, mustaqil o‘qishni rivojlantirish, bilimlarni nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirish, shuningdek ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, multimedia vositalari (video, animatsiya, audio, interfaol taqdimotlar) darslarni ko‘rgazmali va tushunarli qiladi.

Multimedia vositalari yordamida o‘quvchilar mavzuni vizual tarzda qabul qiladi, bu esa ularning qiziqishini oshiradi va bilimlarni tezroq o‘zlashtirishga imkon beradi. Ushbu elementlar birgalikda texnologiya ta’limini zamonaviy, interfaol va raqamli dunyo talablariga mos qiladi hamda o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jamiyatning raqamli rivojlanishi esa texnologiya ta’limi mazmunini yangilash va darslarni zamonaviy talablar asosida o‘tkazishni shart qiladi.

Texnologiya darslarida axborot texnologiyalarini qo‘llash bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dars boshida o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish uchun videolar va interfaol taqdimotlar ishlatiladi. Axborot texnologiyalari bilan integratsiyalangan innovatsion metodlar o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini tizimli shakllantirishga yordam beradi. Yangi mavzuni tushuntirishda animatsiya va simulyatsiyalar orqali murakkab jarayonlar vizual tarzda ko‘rsatiladi. Amaliy mashg‘ulotlar esa virtual laboratoriyalar va kompyuter dasturlari yordamida olib boriladi. Bilimlarni mustahkamlash jarayonida interfaol testlar va onlayn mashqlar qo‘llanadi, baholash esa elektron platformalar orqali amalga oshiriladi.

Texnologiya ta’limida elektron baholash o‘quvchilarning bilimlarini tez va aniq baholash imkonini beradi. Bu usul o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, testlar va interfaol mashqlar orqali bilimlarni nazorat qilish hamda o‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish imkonini yaratadi. Elektron baholashning afzalligi shundaki, u darslarni yanada samarali qiladi va o‘qituvchi uchun vaqtni tejaydi. Elektron ta’lim resurslari – masalan, e-darsliklar, videodarslar, virtual mashqlar va topshiriqlar – o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, masofaviy va aralash ta’lim texnologiya ta’limida keng qo‘llanilmoqda. Aralash ta’lim an’anaviy darslar va AKT vositalarini uyg‘unlashtiradi, bu esa ta’lim jarayonini yanada interfaol va zamonaviy qiladi. Axborot texnologiyalari o‘quvchilarning bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ular materialni tushunarli, tizimli va vizual tarzda ko‘rsatadi.Masofaviy ta’lim esa axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini maktab tashqarisida ham davom ettirish imkonini yaratadi.

Masofaviy ta’lim platformalari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va onlayn testlar o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish, bilimlarini nazorat qilish va baholash imkoniyatini beradi. Shu tariqa, masofaviy ta’lim va STEM/STEAM yondashuvi birgalikda o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. STEM/STEAM ta’lim yondashuvi texnologiya ta’limida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv fan va texnologiyani birlashtirib, murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. STEM/STEAM ta’limi o‘quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga, loyiha asosida ishlashga, jamoaviy hamkorlikka o‘rgatadi va nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari

o‘quvchilarning mustaqil o‘qish va loyihalar ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jamoaviy ishlarda esa hamkorlik, mas’uliyat va hurmat kabi tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar axborot madaniyati va raqamli xavfsizlik bo‘yicha ko‘nikmalarni egallaydi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi: axborot bilan ishlash, texnik, metodik va kommunikativ kompetensiyalar. Zamonaviy texnologiya ta’limi o‘qituvchisidan nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilim, balki AKTni samarali qo‘llash ko‘nikmasi talab etiladi. Texnologiya ta’limida amaliy tajriba kompyuter dasturlari, videodarslar va elektron baholash tizimlari yordamida dars samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, AKTdan foydalanishda bir qator muammolar mavjud: texnik vositalar yetishmasligi, internet tezligining pastligi va o‘qituvchilarning malakasining yetarli emasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, zamonaviy texnika bilan jihozlash va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnologiya ta’limi jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari orqali darslar yanada mazmunli, tushunarli va samarali tashkil etiladi, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi ortadi hamda ularning amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi. Ko‘rgazmali va vizual vositalardan foydalanish murakkab mavzularni oson o‘zlashtirishga yordam beradi va dars jarayonini jonlantiradi.Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, mustaqil ishlash, izlanish va fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, elektron vositalar ta’lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga, bilimlarni nazorat qilish va baholash jarayonini yanada aniq va shaffof olib borishga xizmat qiladi. Umuman olganda, axborot texnologiyalaridan foydalanish texnologiya ta’limini samarali, tarbiyaviy va kompetensiya asosida boyitadi. Bu o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ta’lim jarayonini interfaol va zamonaviy talablar asosida tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q., Yo‘ldoshev J. Pedagogika nazariyasi. – T.: O‘qituvchi. 2019.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion metodlar. – T., 2020.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya. 2018.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Yunusova Nodira Muzaffar qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnologiya fanining o‘quvchilarning asb tanlashiga tanlashiga ta’siri,ularni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedogogik texnologiyalar,shuningdek o‘qituchilarning kasbiy yo‘naltirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada texnologiya darslarida loyiha, modulli,*

integratsion va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanshning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *texnologiya fani,kasb hunarga yo‘naltirish, pedagogik texnologiyalar, loyiha metodi, AKT, integratsiya, mehnat ta’limi, modulli o‘qitish.*

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yoshlam mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishiga zamin yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fani o‘quvchilarda kasb-hunar haqidagi tasavvurlarni shakillantirishda muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra Shavkat Mirziyoyev: «2026 yil – Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili bo‘ladi» e’lon berildi. Farmonga ko‘ra Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida ta’lim sohasi xodimlari bilan muloqotda 2026 yil yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili bo‘lishini ma’lum qildi. Davlat rahbarining so‘zlariga ko‘ra, yoshlar zamon bilan hamnafas, kelajakka tayyor va zamonaviy bilimlar bilan qurollangan mutaxassislar sifatida tarbiyalanishi lozim. «Kelajak – zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yangi kasb egalariniki», – dedi u. 8 sentyabrdagi Prezident qarori bilan agentlikka oid nizom tasdiqlandi. Unda ta’lim sifatiga mas’ul milliy agentlikning maqomi, vazifa va funksiyalari, vakolatlari hamda faoliyat tartibi belgilab berilgan.

Texnologiya darslari nafaqat amaliy faoliyatni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarda mehnat madaniyatini, ijodkorlikni, mas’uliyatni va kasbiy yo‘nalishni shakllantiradi. Shu boisdan ushbu darslarda zamonaviy kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyalarini qo‘llash o‘qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning mazmuni. Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotiga har yili 30-35 milliard dollar investitsiya kirib kelmoqda, minglab yangi korxonalar ishga tushmoqda. Bu jarayonlar natijasida yiliga 250–300 ming yuqori daromadli ish o‘rni yaratilmoqda. Prezident bu imkoniyatlar avvalo yoshlar uchun ish joyi ekanini ta’kidlab, ular zamonaviy texnologiya va xorijiy tillarni bilishi, kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurligini qayd etdi.Kasb-hunarga yo‘naltirish - bu o‘quvchining shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari va jamiyatehtiyojlari asosida kasbiy yo‘nalishni aniqlashga ko‘maklashuvchi pedagogik jarayondir. Bu jarayon uzluksiz bolib, boshlang‘ich sinflardan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shu maqsadda Kasbiy ta’lim agentligi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi – mamlakatdagi 598 ta texnikum faoliyatiga yangi muhit olib kirish, ta’lim jarayonida xalqaro standartlarni joriy etishdan iborat. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’lim sohasi xodimlari bilan muloqotda maktab ta’limida yangi tizim joriy etilishini ma’lum qildi. Unga ko‘ra, 9- va 11-sinf o‘quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari o‘tkaziladi. Shuningdek, xorijiy til va fanlar bo‘yicha olingan xalqaro sertifikatlar maktab yakuniy imtihonlarida ham tan olinadi. Agar 2016 yilgacha bor-yo‘g‘i 2 ming o‘quvchi xalqaro sertifikat olgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 150 mingga yetdi. Prezident qaroriga muvofiq, maktablarda maslaxatchi lavozimi joriy etilmoqda. Ular 7-sinfdan boshlab o‘quvchilarning qobiliyatini baholaydi va yo‘nalish tanlashga ko‘maklashadi. Shu orqali texnikumga o‘tgan o‘quvchilarning maktabga qaytishi yoki 11-sinfdan keyin oliygohga kirolmagan yoshlarni qisqa muddatli dasturlar orqali kasbga yo‘naltirish imkoni yaratiladi.0’quvchilar texnologiya darslarida turli mehnatturlarini bajarish orqali o‘z qiziqishlarini sinovdan o‘tkazadilar, o‘zlarini turli sohalarda sinab ko‘radilar. Bu esa kasb tanlashda muhim psixologik tayyorgarlikni shakllantiradi.

Texnologiya fanining kasbiy yo‘naltirishdagi o‘rni: 1. O‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va mehnat madaniyatini rivojlantiriladi. 2. Kasblar olami bilan tanishadi; O‘quvchilarni mehnatga va ijodga alb qiladi. 3. Qizlar va o‘g‘il bolalar uchun moljallangan hunarlar bilan tanishadi. 4. Shaxsda mehnatsevarlik, ma’suliyat, tashabbuskorlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

Texnologiya darslarida quyidagi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foyalanish maqsadga muvofiqdir:

Loyiha texnologiyalasi. Bu usulda oquvchi amaliy mahsulot yaratish orqali organadi. Masalan, kiyim modeli tayyorlash, yog‘ochdan buyum yasash, robot yasash kabi loyihalar oquvchini o‘z kasbiy moyilligini sinab ko‘rishga undaydi.

Modulli o‘qitish texnologiyasi. Har bir modul ma’lum bir kasb yoki faoliyat turiga bag‘ishlanadi. Bu oquvchilarga oziga mos yo‘nalishni tanlash imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Kasblar haqida videoroliklar, virtual ekskursiyalar onlayn testlar orqali o‘quvchilarda zamonaviy kasblar haqidagi tasavvurlar kengayadi**.**

Integratsion yondashuv. Texnologiya fani boshqa fanlar (matematika,fizika, biologiya, informatika) bilan bog‘lab o‘qitilganda, oquvchilar ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini tushunib yetadilar**.**

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. Bu yondashuv har bir o quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, unga mos kasbiy yonalishni tanlashda yordam beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmon qabul qilingan. Mazkur farmon xalq ta’limi tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish va ta’lim sifatini oshirishni maqsad qilgan keng qamrovli strategiyani belgilaydi. Farmon maktablarda o‘qitish metodikasini yangilash, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llashni ko‘zda tutadi. Bugungi ta’lim muhitida texnologiya fanini o‘qitish an’anaviy didaktik metodlardan tashqari zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanmoqda. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning faol ishtirokini, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni, shuningdek kreativ fikrlash va raqamli texnologiyalarni qo‘llashni ta’minlaydi. Xususan,:Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar dars jarayonida mustaqil fikrlash, muammo yechish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.STEAM yondashuvi (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at va Matematika) orqali fanlararo integratsiya bo‘lib, amaliy loyihalar orqali o‘rgatish samarali bo‘ladi. Raqamli pedagogik vositalar, masalan, ta’lim platformalari, multimedia resurslar va interaktiv dasturlar yordamida dars samaradorligi oshiriladi. Bu zamonaviy yondashuvlar ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning texnologik savodxonligini mustahkamlaydi va ularni kelajak kasb-mahsulot bozoriga tayyorlaydi.

O‘quvchining kasb tanlashda o‘qituvchining roli. Texnologiya oqituvchisi - bu nafaqat fan oqituvchisi, balki oquvchining kasbiy yo‘lini belgilovchi mentordir.Bunda o‘qituvchining ko‘magi shundan iboratki, oquvchining qiziqishlarini o‘rganadi, individual suhbatlar otkazadi, mehnat yarmarkalari, kasb festivallari tashkil etadi, kasbiy testlar orqali oquvchilarning moyilligini aniqlaydi, o‘quvchilarga zamonaviy mehnat bozoritalablari haqida ma’lumot beradi.

Amaliy tajriba va misollar. Amaliyotda oqituvchilar texnologiya darslarida o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab turli yonalishlar tanlaydilar. Masalan: qizlar uchun - dizayn, tikuvchilik, oshpazlik, og‘il bolalar uchun - duradgorlik,avtomexanika, elektronika, IT yo‘nalishlari. Shuningdek, oquvchilar oz loyihalarini himoya qilish orqali

nafaqat kasbni tanlash, balki o‘z fikrini himoya qilish, ijodiy ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa. Texnologiya fani oquvchilarning kelajak hayotiga amaliy tayyorgarlik beruvchi muhim fan hisoblanadi. Ushbu darslar orqali o‘quvchilar mehnat faoliyati mohiyatini anglaydilar, kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishga o‘rganadilar.O‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, har bir o quvchining qobiliyatini aniqlasa, ta’lim jarayoni samaradorligi ortadi, oquvchilar esa o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish imkoniga ega bo‘ladilar. Hozirgi kunda maktablarda boshlang‘ich sinfdanoq bolani kasb- hunarga o‘rgatish, uni qobiliyatini va xohishini inobatga olgan holda shu kasbga yoki hunaga o‘rgatish yana bir o‘qituvchining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Texnologiya fani esa bunda katta ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risida”gi PQ-3775-son qarori. - 2018.

2. Joraeva B.A. Modern Pedagogikal Approaches and Innovative Opportunities in Organizing Technology-Based Extra-Class Activities // Shokh Library, 2025.

3. Xolmurodova, D. Texnologiya ta’limi metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA QOG‘OZDAN ODDIY BUYUMLAR YASASH USULLARI

Hajiboyeva Farangiz Qudrat qizi,
Abduraxmonova Sabrina Rustam qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich talim yo‘nalishi talabalari.
Tashpulatova Dilorom Mukimovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada texnologiya fanida qog‘ozdan oddiy buyumlar yasash mavzusining pedagogik ahamiyati keng yoritilgan. Qog‘oz bilan ishlash jarayonining o‘quvchilarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy tahlil qilingan. Maqolada qog‘ozdan buyum yasash mashg‘ulotlarining metodik asoslari, amaliy jarayonni tashkil etish bosqichlari hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish masalalari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari qog‘oz bilan ishlash mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini, estetik didini va mehnatsevarlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya fani, qog‘oz, oddiy buyumlar, amaliy mashg‘ulot, mehnat ta’limi, ijodkorlik, estetik tarbiya.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan ta’limga oid qaror va farmonlarda yosh avlodni har tomonlama barkamol, bilimli va mehnatsevar qilib tarbiyalash muhim vazifa etib belgilangan. Shuningdek, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi doirasida yoshlarning ijodiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan olganda, texnologiya fanida qog‘ozdan oddiy buyumlar yasash mashg‘ulotlari o‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ijodkorlikni rivojlantirish va foydali ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish zarurligini alohida ta’kidlab, “Bolalarni hayotga tayyorlash, ularda kasb-hunar va mehnatga muhabbat uyg‘otish ta’limning eng ustuvor vazifalaridan bo‘lishi kerak”, deya qayd etgan. Qog‘ozdan oddiy buyumlar yasash jarayoni aynan shu maqsadlarga xizmat qilib, o‘quvchilarning qo‘l mehnatiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ularni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi. Davlatimiz rahbari yoshlar tarbiyasi haqida “Yoshlarimizni bilimli bo‘lish bilan birga, mehnatsevar, mas’uliyatli va vatanparvar ruhda tarbiyalashimiz zarur”, deb ta’kidlaydi.

Qog‘ozdan buyum yasash – bu o‘quvchilarda ijodkorlik, mehnatsevarlik va tasavvurni rivojlantiruvchi amaliy faoliyatdir. Qog‘oz eng qulay, arzon va xavfsiz material bo‘lgani sababli boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida keng qo‘llaniladi.

Qog‘ozdan buyum yasashning ta’limiy ahamiyati. Qog‘oz bilan ishlash o‘quvchilarda quyidagi ta’limiy jihatlarni: qo‘l barmoqlari mayda harakatini (motorika), diqqat va sabr-toqatni, rang va shakllarni ajrata olish qobiliyatini, fazoviy tasavvurni rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘rsatmasiga amal qilish va ish tartibini saqlashga o‘rganadilar.

Qog‘ozdan yasaladigan oddiy buyumlar turlari. Boshlang‘ich bosqichda buyumlar sodda va tushunarli bo‘lishi lozim: Qog‘ozdan gul; Qog‘oz samolyot; Qog‘oz qayiq; Qog‘ozdan quti; Qog‘ozdan hayvon shakllari; Rangli qog‘ozdan applikatsiyalar; Bayram tabriknomalari. Bu buyumlar orqali bolalar mantiqiy fikrlash va ketma-ketlikka amal qilishni o‘rganadi. Hozirgi zamon ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qitilayotgan fanlarning nafaqat nazariy bilim berishi, balki o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, texnologiya fani o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda oddiy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ularni mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Qog‘oz inson faoliyatida keng qo‘llaniladigan, ekologik toza va arzon material hisoblanadi. U yengil, egiluvchan, oson kesiladigan va shakl berishga qulay bo‘lgani sababli texnologiya darslarida keng foydalaniladi. Rangli qog‘oz, karton va jilvali qog‘ozlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Qog‘oz bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar materialning xususiyatlarini o‘rganadilar, uni tejamkorlik bilan ishlatish ko‘nikmasini hosil qiladilar. Bu esa o‘quvchilarda iqtisodiy va ekologik tarbiyaning shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Qog‘ozdan buyum yasash mashg‘ulotlari metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi zarur. Dars jarayonida o‘qituvchi avvalo bajariladigan ishning maqsadini tushuntiradi va tayyor namunani namoyish etadi. Shundan so‘ng ish bosqichlari izchil ravishda tushuntiriladi. Amaliy jarayon quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: 1) buyum shaklini tanlash va rejalashtirish; 2) qog‘ozga belgi qo‘yish; 3) qaychi yordamida kesish; 4) buklash va yopishtirish; 5) tayyor buyumni bezash.

Mazkur mashg‘ulotlar bolalarning: ijodiy fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilishini, fantaziya va estetik didini rivojlantiradi. Har bir bola buyumni o‘zicha bezab, shaxsiy yondashuvini namoyon etadi.

Ekologik tarbiya bilan bog‘liqligi. Qog‘oz bilan ishlash orqali o‘quvchilarga: chiqindi qog‘ozlardan qayta foydalanish, tabiatni asrash, daraxtlarni tejash tushunchalari singdiriladi. Bu esa ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur jarayon o‘quvchilarda ishni reja asosida bajarish, diqqatni jamlash va sabr-toqatni rivojlantiradi.

Qog‘ozdan buyum yasash mashg‘ulotlari o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘quvchilar geometrik shakllar, ranglar va o‘lchamlar haqidagi bilimlarini amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar. Shuningdek, qog‘oz bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning mayda qo‘l motorikasi rivojlanadi. Bu esa yozuv va chizish malakalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi rivojlanadi Texnologiya darslarida qog‘ozdan buyum yasash o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat va tartiblilik sifatlarini shakllantiradi. Ish joyini ozoda saqlash, asbob-uskunalardan to‘g‘ri foydalanish mehnat madaniyatini rivojlantiradi.

Buyumlarni bezash jarayonida esa o‘quvchilarning estetik didi rivojlanadi. Ranglarni uyg‘unlashtirish, shakllarni bezash orqali san’atga bo‘lgan qiziqish ortadi. Qog‘ozdan buyum yasash jarayonida xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish talab etiladi. Qaychi bilan ishlashda ehtiyotkorlik, yelimdan me’yorida foydalanish va dars davomida tartib-intizomga rioya qilish o‘quvchilarning xavfsiz mehnat ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, qog‘ozdan oddiy buyumlar yasash texnologiya fanining samarali va muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ta’limiy bilimlarini chuqurlashtirish, tarbiyaviy sifatlarini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda katta ahamiyatga ega. Qog‘oz bilan ishlash orqali o‘quvchilar mehnatni sevishni, mustaqil ishlashni va estetik didni shakllantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Texnologiya fani o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Abdullayeva M., Yo‘ldoshev J. Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Kalmirzayeva Roza Begali qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya fani, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, pedagogik metodika, innovatsion ta’lim, interaktiv o‘qitish, ijodiy fikrlash, texnik ko‘nikmalar.*

Hozirgi kunda jahon ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiya fani esa amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan fanlardan biri

bo‘lib, unda zamonaviy texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish asoslari, texnik ijodkorlik va muhandislik fikrlash rivojlantiriladi. Shu sababli texnologiya fanini o‘qitishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish o‘quvchilarning zamonaviy texnologik dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, individual o‘quv dasturlarini yaratish, virtual laboratoriyalar tashkil etish hamda murakkab texnologik jarayonlarni modellashtirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarga real ishlab chiqarish jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bizga ma’lumki, sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan funksiyalarni bajarish qobiliyatidir. Bunga o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va tilni tushunish kabi jarayonlar kiradi.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: - ta’lim jarayonini individuallashtirish; - o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish; - avtomatik baholash tizimini yaratish; - virtual laboratoriyalar tashkil etish; - interaktiv o‘quv materiallari ishlab chiqish.

Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos o‘quv materiallarini tavsiya qilishi mumkin.

Texnologiya fani boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan fanlardan biridir. Ushbu fan orqali o‘quvchilar turli materiallar bilan ishlash, oddiy texnik buyumlar tayyorlash hamda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishni o‘rganadilar.

Texnologiya fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: - o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish; - ijodiy fikrlashni rivojlantirish; - texnik tafakkurni shakllantirish; - mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish; - jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini samarali o‘qitish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida sun’iy intellektdan foydalanish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish mumkin:

Virtual modellashtirish – bunda sun’iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida o‘quvchilar turli buyumlarning virtual modelini yaratishlari mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi.

Interaktiv o‘quv materiallari – bunda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan interaktiv materiallar o‘quvchilarga mavzuni oson tushunishga yordam beradi.

Individual ta’lim – bunda sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos topshiriqlarni taqdim etadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish – bunda texnologiya darslarida sun’iy intellekt yordamida turli amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanida sun’iy intellektdan foydalanish bir necha metodik bosqichlardan iborat.

Tayyorlov bosqichi bu bosqichda o‘qituvchi dars mavzusini aniqlaydi, sun’iy intellekt vositalarini tanlaydi va o‘quv materiallarini tayyorlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Darsni tashkil etish bosqichi bu bosqichda o‘qituvchi mavzuni tushuntiradi hamda sun’iy intellekt asosidagi vositalarni namoyish qiladi. Masalan, o‘quvchilarga sun’iy intellekt yordamida buyum dizaynini yaratish ko‘rsatiladi.

Amaliy faoliyat bosqichi bu o‘quvchilar mustaqil yoki guruhlarda ishlash orqali sun’iy intellekt vositalari yordamida turli loyihalarni amalga oshiradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiradi.

Tahlil va baholash bosqichi dars yakunida o‘quvchilarning ishlari tahlil qilinadi va baholanadi. Sun’iy intellekt yordamida baholash jarayoni yanada aniq va tez amalga oshirilishi mumkin.

Texnologiya fanida sun’iy intellektdan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi. O‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ta’lim jarayonini interaktiv qiladi, individual yondashuvni ta’minlaydi, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bilan birga sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar mavjud, Masalan, texnik jihozlarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi hamda sun’iy intellekt vositalarining cheklanganligi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash hamda o‘qituvchilarning malakasini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Texnologiya faniga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda zamonaviy texnologiyalar haqida bilim beradi. Kelajakda ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmamatova A. Ta’limda sun’iy intellekt. – 2025.
2. Yuldashev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SEL METODIKASI BO‘YICHA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD),
Toshboyeva Marg‘uba Abdurashidovna,
Bo‘ka tumani 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya*. Maqolada boshlang‘ich sinflarda SEL metodikasi bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil qilish masalalari tahlil qilingan va mualliflarning metodik tavsiyalari taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar*: metodika, ta’lim, o‘qitish jarayoni, SEL, yondashuv, samaradorlik, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.*

Boshlang‘ich sinflarda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish va ularning vositasida ta’lim jarayonini kuchaytirish amal qilmoqda. Shu jihatdan SEL metodikasi bo‘yicha

boshlang‘ich sinflarda ta’limni tashkil qilish va uning vositasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

SEL metodikasi mazmuni. Jahon ta’lim muassasalarida dunyo mamlakatlari ta’lim tizimida amal qiladigan xalqaro ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi Finlandiya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida ijtimoiy-emotsional ta’lim “Social anf emotional learning – (SEL)” metodikasi ishlab chiqilib, 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etildi[1]. Buning natijasida mazkur mamlakatlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish va tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari kutilgan samarani berdi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori bilan mamlakatimizda 2025-2026 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablari, jumladan, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga SEL metodikasini joriy etish vazifasi qo‘yilgan.

SEL metodikasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining quyidagi 5 ko‘nikmasini tarkib toptirish nazarda tutilgan [3; 5-b.]:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini tarkib toptirish;
2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish;
3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoliy xabardorlikni shakllantirish;
4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tengdoshlari bilan munosabatni tarkib toptirish;
5) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mas’uliyatli qaror qabul qilishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini anglash emotsional ko‘nikmasini tarkib toptirishda ularda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi. Bunday qadriyatlarning asosiylarini vatanparvarlik, oilaparvarlik, insonparvarlik va katta yoshlilarga hurmat kabilar tashkil qiladi. Mamlakatimiz oilalarida tarbiya jarayoni turli darajada bo‘lganligi uchun boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasi tarkib toptirilishi muhim masaladir. Bunda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilar bilan individual yondashuvga amal qilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi ularning shaxs sifatidagi fazilatlarini shakllantirishga asoslanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini murakkab sharoitlarga ko‘niktirish, qiyinchiliklardan cho‘chimaslik va bilim olish uchun faol bo‘lish ko‘nikmalari tarkib toptiriladi. Bu borada sinf rahbarlarining o‘rni muhim bo‘lib, ular har bir tadbirda o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasining shakllanganlik darajasini kuzatib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy xabardorlikka o‘rgatish ham bugungi kun talablaridan biridir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z imkoniyatlari doirasida jamiyatimiz hayotidan xabardor bo‘lishi, Internet global axborot tarmog‘idan oqilona foydalanishi va har qanday axborotda tanqidiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatilishi taqozo etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijtimoiy xabardorlik ko‘nikmasini asosan o‘qish jarayonida o‘zlashtirishi kerak. Oila va jamoatchilik joylarida olinadigan ma’lumotldar o‘qish jarayonida to‘g‘ri yo‘naltirilishi lozim.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tengdoshlari bilan munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirish ham taqozo etilmoqda. Chunki har bir o‘quvchi individual shaxs bo‘lib, o‘zining manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga intiladi. Agar tengdoshlari bilan munolsabatlarda axloq qoidalariga rioya qilinsa, o‘quvchilarning

manfaatlari umumiy manfaatlar bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tengdoshlari bilan oqilona munosabatini shakllantirish hozirgi zamon o‘quv jarayonining muhim vaziflaridan hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mas’uliyatli qaror qabul qilishga ham o‘rgatilishi kerak. Unga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonida va ijtimoiy faoliyat paytida to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganishi lozim. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvichlari voqeilikni tahlil qilish, yaxshilik va yomonlikni farqlash hamda jamoaparvarlik kabi ko‘nikmalarga yo‘naltirilishi kerak. Bu hol o‘quvchilarning ta’limning keyingi bosqichlarida mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetishida poydevor hisoblanadi.

E’tibor berilsa, mazkur 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikma boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxs sifatida voyaga yetkazish va ularning bilim olishlarini mavqsadli tashkil qilish asoslaridan hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini SEL metodikasiga o‘rgatish metodikasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining SEL metodikasi bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish va bu ko‘nikmalarga ularni o‘rgatish aniq usullarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli bu borada quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi: 1) o‘quvchilarni o‘qituvchilarga biriktirish; 2) o‘quvchilarning oila va jamoat joylaridagi faoliyatini nazoratga olish; 3) ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarining o‘quvchilarda shakllanish jarayonini o‘rganib borish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qituvchilarga biriktirish ularda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning tez tarkib topishiga olib keladi. O‘quvchi biriktirilgan o‘qituvchi uning bilim olish jarayonini, ijtimoiy xatti-harakatlarini va jamoat joylarida o‘zini tutishini kuzatib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchi istalgan vaqtida murojaat qilishi sharoitini yaratishi kerak. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qituvchilarga biriktirish mexanizmi eng samarali yondashuvlardan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining oila va jamoat joylaridagi faoliyatini nazoratga olish ularda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning tarkib topishida muhim omil bo‘ladi. Buning uchun sinf rahbarlari faol bo‘lishi va imkon qadar har bir o‘quvchining oila sharoitidan xabardor bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini oila va katta yoshlilarning salbiy ta’sirlaridan muhofaza qilish zaruriyat hisoblanadi. Shu sababli sinf rahbarlari o‘quvchilarda mazkur 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning tarkib topish jarayonini kuzatib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan oqilona munosabat va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarining tarkib topish jarayoni Boshlang‘ich ta’lim metodik kengashi a’zolari tomonidan muntazam o‘rganib borilishi kerak. Buning uchun har bir chorakda mazkur masalalarni muhokama qilish va boshlang‘ich sinflar kesimida umumiy natijalarni aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini o‘rganib borish, ularni shaxs sifatida kutilgan darajada voyaga yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi bevosita amaliyot bilan bog‘liqdir. Bunda o‘qituvchilar, sinf rahbarlari va Boshlang‘ich ta’lim metodik birlashmasi a’zolari faollik ko‘rsatishi taqozo etiladi. Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, SEL metodikasi tarkibiga kiruvchi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar yangilik emas. Ularning ildizlari xalqimiz turmush tarzi va ijtimoiy hayotda mavjuddir. Shu sababli o‘qitish jarayonida va

tarbiyaviy tadbirlar mazkur ko‘nikmalarning o‘quvchilarda tarkib topishini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda G‘arb mamlakatlarida texnologik rivojlanish sababli shaxslar o‘rtasida o‘zaro begonalashuv jarayoni kuzatilmoqda. Shu sababli asosan Yevropa mamlakkatlari ushbu 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar vositasida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish hamda ularni shaxs sifatida voyaga yetkazishda asosiy e’tibor qaratmoqda. Buning natijasida keyingi 2-3 yil davomida Yevropa mamlakatlarida o‘quvchilarning ijtimoiy faollashuvi kuzatildi. Shu jihatdan mazkur ijtimoiy ko‘nikmalar bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o‘rganish ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini 2025-2026 o‘quv yilidan boshlab shakllantirish vazifasi muhim hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida maxsus o‘quvlar tashkil qilish nazarda tutilgan. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bolalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun SEL metodikasi bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda pedagog olimlarimiz tomonidan mazkur metodikalarning mazmun-mohiyati va ularni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarkib topitirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Bunday tadqiqotlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatida va o‘qitish mahoratida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Social anf emotional learning – (SEL)” metodikasi mazmuni bo‘yicha ma’lumotlar majmui. // www.ziyonet.uz

2. O‘zbekiston Rsepublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. // www.ziyonet.uz

3. Jabborova O.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Sel metodikasi asosida 5 ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi // Monografiya. – Toshkent. 2025.

MUSIQA O‘QITUVCHISINING INNOVATSION PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Kabirjanova Shaxzoda Komil qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor. Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik innovatsiya haqida so‘z boradi. innovatsiya – yangi bilim va g‘oyaning amaliy faoliyatga tadbiq etilishi iste’molchining talab va takliflarini qondirilishi borasida fikrlar keltirilgan. Musiqa o‘qituvchisining innovatsion pedagogik mahoratini rivojlantirish haqida so‘z boradi. Hozirda jahon bo‘ylab keng ommalashgan musiqiy kompyuter dasturlari, nota muharrirlari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarasi borasida fikrlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa, dastur, texnologiya, kompyuter, muharrir, tajriba, ommaviy, innovatsiya, zamonaviy, pedagogika, intellektual, ta’lim, tarbiya.*

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov millatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yosh avlodni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash, malakali kadrlarni tayyorlash ta’lim-tarbiya rivojini ta’minlash orqali hal qilinishiga alohida urg‘u beradi. Zotan, “*maqsadlarimizga erishish, yangi demokratik jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimiz qanday madaniy, kasbiy saviyaga erishganligiga, qanday ideallarga e’tiqod qilishiga, ma’naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog‘liqdir*” [1] - deb, ta’lim tushunchasiga milliy nuktai nazaridan ta’rif bergan hamda ta’limning yangi modeliga asos solindi, kelajak istiqbollari ilmiy asoslab berildi.

Ta’limning yangi modelini amaliyotga tadbiq etish o‘quv jarayonini texnologiyalash bilan bog‘likdir. Jumladan, xozirgi kunda barcha sohalarda yangi texnologiyalarni joriy etilishini hayotning uzi, ilmiy-texnikaviy tarakkiyot talab etmokda. Shuning uchun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida “O‘quv - tarbiyaviy jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” uning 2 va 3 - bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu omil mamlakatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi. Ya’ni: - ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o‘zgaradi: - insonning hayotidan o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi: - jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi: - jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi: -fuqarolik jamiyatini qurishni ta’minlaydi, model vositasida dunyoda munosib o‘rin olishga, o‘zbek nomini yanada yoyib tarannum etishga erishiladi.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: 1. Yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi. 2. Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi. 3. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish bosqichi. 4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi. 5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o‘zining yangiligini yo‘qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo‘ladi. 6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo‘llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

• «Innovatsiya» atamasi taniqli iqtisodchi Y.Shumpeter tomonidan kiritilgan. Bugungi kunda uning ikki tushunchasi mavjud:

• Yangilik – misollar: bozordagi, ijtimoiy hayotdagi yangi maxsulot, xizmat, texnologiya, ishlab chiqarish yoki xo‘jalik faoliyatini takomillashtirish yo‘llari;

• Yangilikni kiritish – jamiyat hayotining turli sohalarida yangiliklarni joriy qilish va ular bilan bog‘liq o‘zgarishlarni amalga oshirish (oxirgisi innovatsiyalarning asosiy ma’nosini tashkil etadi)

Yangilik kiritish jarayoni *innovatsion menedjmentning obyekti hisoblanib, bevosita quyidagilar bilan bilan bog‘liq:* - tegishli reja va dasturlarni ishlab chiqish va baholash, ularning moliyaviy-resurs ta’minoti; - yangi xizmat (mahsulot), texnologiyalarni

yaratilish va joriy etij jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilish; - ijodiy jamoa va maqsadli guruhlar faoliyatini shakllantirish va rag‘batlantirish.

Bizning fikrimizcha, pedagogik innovatsiya – yangilik bo‘lib insonning amaliy faoliyati, o‘z ishiga ijodiy, ilmiy yondashuvi bo‘lib, pedagogning ko‘p yillik ish tajribalari, ko‘nikma va malakalar asosida ko‘p mashqlar natijasida kashf qilgan yoki yuzaga keltirgan pedagogik ishlanmaning takomillashga sifat ko‘rinshlariga ega bo‘lgan jarayonlar xosilasi yoki pedagogning amaliy faoliyatida yuzaga kelgan kafolatlangan metodiki faoliyatlar majmuidir. Boshqacha qilib aytganda ***innovatsiya – yangi bilim va g‘oyaning amaliy faoliyatga*** tadbiq etilishi iste’molchining talab va takliflarini qondirilishi demakdir. Agarda innovatsiya yangi g‘oya va yangi (sxemalarda) chizmalarda, tushunchalarda o‘z aksini, o‘z iste’molchisini topmasa, natijada ijodiy mehnat xosilasi bo‘lib qoladi, lekin innovatsiya bo‘la olmaydi.

Pedagogik innovatsiyaning ko‘rinishi quyidagicha bo‘lishi mumkin: ilmiy pedagogik, metodika va telekomunikatsiya, axborot texnologiyalarni bugungi kun talabiga javob berishi. Demak, «Pedagogik innovatsiya (texnologiya) – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikkasi taraqqiyotining mahsuli deb hisoblangan holda, unga o‘ziga xos tamoyillari, qoidalarini chuqur o‘rganib borish va piravordida qonuniyatlarni aniqlash yo‘lidagi muammolarni yechish lozimligi ko‘rinib turibdi».

Innovatsiya tushunchasi – pedagogik jarayon innovatsiyasi bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib yengillikni yaratish, yangilikni joriy qilishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy jamiyat taqozosi bilan ijtimoiy buyurtma orqali amalga oshiriladigan ko‘p komponentli jarayondir. Demak pedagogik innovatsiya o‘qituvchini dars jarayonini tashkil qilish yuzasidagi ijodiy ishi bo‘lib, u mashaqqatsiz loyihasiz tasodifan bo‘lmaydi, innovatsiya o‘qituvchining Vatanga, bolaga va o‘z kasbiga sadoqatli muhabbati asosida tug‘iladi. Pedagog o‘z ustida ko‘p ishlashi, dars jarayonlarini kuzatish va tahlil qilishi, xulosa chiqarishi orqali yuzaga chiqadigan, ko‘p nurli va nursiz qirralari, onlari bo‘lib, o‘qituvchining bilishi, tadbiq qilish orqali yuzaga chiqaradigan jarayondir.

Musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalar o‘quv-tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani sinfda amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Shu boisdan musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarning muhim prinsipi – bu bo‘lajak o‘quv tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalash prinsipidir. Loyihalangan texnologiya dars mavzusiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilishi lozim. O‘quv vaqti musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarni oldindan ko‘rishda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi va o‘qituvchi uni hisobga olishi shart. Loyihalanayotgan didaktik jarayon guruh o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi, hamma uchun tushunarli bo‘lishi muhimdir. Shundagina yakuniy natija qo‘lga kiritiladi, maqsadga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 259-бет.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5349-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son

3. Ibn Sino. Tanlangan asarlar / A. Irisov tahririda. – Dushanbe: Irfon, 2003. -178 b.

TABIAT BILAN TANISHTIRISHGA OID TA’LIMIY O‘YINLARNI REJALASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Maripova Nodira Xamidovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Kakayeva Bayramgul Rovshonovna,
Yusupova Mohida Ismoilovna,
Xayitova Sarvara Murodqosimovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgach ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ta’limiy o‘yinlarni rejalashtirish va ulardan samarali foydalanish texnologiyasi ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda tabiatga oid bilimlarni shakllantirish, ekologik nadaniyatni rivojlantirish hamda bolalarda kuzatuvchanlik va tafakkurni rivojlantirishda o‘yin faoliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta’limiy o‘yinlardan tizimli foydalanish bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik tasavvurlarni kengaytirish hamda bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tabiat bilan tanishtirish, ta’limiy o‘yinlar, pedagogik texnologiya, ekologik tarbiya, kuzatuv faoliyati, didaktik o‘yinlar.*

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrad bolaning tabiat haqidagi dastlabki tasavvurlari shakllanadi. Tabiat bilan tanishtirish jarayoni bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish, tabiat hodisalarini tushunish va unga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida tabiatni o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish uchun turli pedagogik metodlardan foydalaniladi. Ulardan eng samaralilaridan biri ta’limiy o‘yinlar hisoblanadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lib, u orqali bolalar yangi bilimlarni qiziqarli va faol tarzda o‘zlashtiradilar. Shu sababli tabiat bilan tanishtirish jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Ta’limiy o‘yinlar bolalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim pedagogik vositalardan biridir. Ular bolalarda tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonot olami haqidagi bilimlarni mustahkamlshga yordam beradi.

Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarda quyidagi ko‘nikmalar shakllandi: - tabiat hodisalarini kuzatish va tahlil qilish; - ekologik madaniyat va tabiatga ehtiyotkorona munosabat; - mantiqiy fikrlash va xulosa chiqarish; - jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalari.

Masalan, “Qaysi o‘simlik qayerda o‘sadi?”, “Hayvonlar nimani yeydi?”, “Fasllarni top” kabi didaktik o‘yinlar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlshga yordam beradi.

Tabiat bilan tanishtirishga oid ta’limiy o‘yinlarni samarali tashkil etish uchun ularni oldindan rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Rejalashtirish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Yosh xususiyatlarni hisobga olish. O‘yinlar bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak.

2. Tizimlilik va izchillik. Ta’limiy o‘yinlar tabiat bilan tanishtirish dasturiga muvofiq ravishda ketma-ketlikda tashkil etilishi lozim.

3. Qiziqarli va interaktiv shakl. O‘yinlar bolalarni faolmishitirok etishga undaydigan qiziqarli shaklda tashkil etilishi zarur.

4. Amaliy faoliyat bilan bog‘liqlik. O‘yinlar kuzatish, tajriba o‘tkazish va amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim jarayonida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish ma’lum pedagogik bosqichlar asosida amalga oshiriladi.

1. Tayyorlov bosqichi. Bu bosqichda tarbiyachi o‘yinning maqsadi, vazifalari va o‘tkazish shaklini aniqlaydi hamda kerakli didaktik materiallarni tayyorlaydi.

2. O‘yin jarayonini tashkil etish. Tarbiyachi bolalarga o‘yinning qoidalarini tushuntiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. O‘yin jarayonida bolalar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga harakat qiladilar.

3. Natijalarni tahlil qilish. O‘yin yakunida tarbiyachi bolalar bilan birgalikda o‘yinning natijalarini muhokama qiladi va olingan bilimlarni umumlashtiradi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tabiat bilan tanishtirish jarayonida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘yin orqali o‘rganilgan bilimlar bolalar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi va amaliy faoliyatda qo‘llaniladi. Shuningdek, ta’limiy o‘yinlar bolalarda ekologik tafakkur va tabiatga ongli munosabatni shakllanyirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta’limiy o‘yinlar bolalrning bilish faoliyatini faollashtirib, tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi hamda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shu sababli tarbiyachilar ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanishlari, o‘yinlarni pedagogik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirishlari va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.

2. Nuraliyeva D.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

3. Rasulova M., Sodiqova Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: Tafakkur, 2018.

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM YONDASHUVINI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA INTEGRATIV MEXANIZMLARI

Maripova Nodira Xamidovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
O‘sarboyeva Farog‘at Aripbayevna,
Saidova Yulduz Faxriddinovna,
G‘ulomova Dilnoza Qadambay qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgach ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Matehematics) yondashuvini joriy etishning pedagogik asoslari va integrative mexnizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim tizimi oldida tutgan dolzarb vazifalar, xususan, bolalarda kreativ fikrlashm*

muammo yechish qobiliyati hamda integrative tafakkurni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonida STEAM yondashuvi asosida tashkil etiladiganintegrativ mashg‘ulotlar, loyiha faoliyati va o‘yin texnologiyalarining pedahgogik ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari STEAM yondashuvi bolalarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *STEAM ta’limi, maktabgacha ta’lim, integrative yondashuv, pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash, innovatsion ta’lim, muammo yechish qobiliyati, loyiha faoliyati, pedagogik integratsiya.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish global rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda jamiyatda yangi kasblarning paydo bo‘lishi ta’lim mazmunini yangilashni talab qilmoqda. Su nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni keljak hayotda tayyorlash, ularning kreativ tafakkurini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlardan biri STEAM ta’lim modeli hisoblanadi. Ushbu model fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlarini integratsiyalashgan holda o‘qitishni nazarda tutadi. STEAM ta’limining asosiy maqsadi bolalarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyatga jalb etish orqali ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat.

STEAM yondashuvi bir qator pedagogik nazariyalar va metodologik tamoyillarga asoslandi. Avvalo, bu yondashuv konstruktivistik ta’lim nazariyasiga tayanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra bilimlar tarbiyalanuvchi tomonidan faol o‘rganish jarayonida mustaqil ravishda shakllantiriladi. Shu sababli STEAM faoliyatlari bolalarning tajriba, kuzatish, modellashtirish va loyihalash orqali bilimlarni egallashini ta’minlaydi. Ikkinchi muhim asos faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasidir. Bu yondashuvda bola ta’lim jarayonining daol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tajriba o‘tkaizsh, qurilish konstruksiyalarini yaratish, oddiy texnik modellarni yig‘ish kabi faoliyatlar o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, STEAM ta’limi integrative yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyilga ko‘ra, turli fanlar o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib, bilimlar yagona tizimi sifatida o‘rganiladi. Natijada bolalarda yaxlit dunyoqarash shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatiga moyil, qiziquvchan va yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. STEAM yondashuvi aynan shu xususiyyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEAM faoliyatlari orqali bolalarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi: 1) mantiqiy va tanqidiy fikrlash; 2) muammolarni hal qilish qobiliyatlari; 3) ijodiy yondashuv va kreativ tafakkur; 4) jamoada ishlash ko‘nikmalari; 5) tadqiqotchilik faoliyati;

Masalan, oddiy tajribalar orqali bolalar suvning xossalari, o‘simliklarning o‘sishi yoki yorug‘likning ta’siri haqida bilimga ega bo‘ladilar. Qurilish o‘yinlari esa muhandislik fikrlashini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM yondashuvini samarali joriy etish uchun bir qator integrative mexanizmlardan foydalanish zarur.

1. *Integrativ mashg‘ulotlar.* Bunda bir nechta fan elementlari yagona mashg‘ulot doirasida uyg‘unlashtiriladi. Masalan, bolalar ko‘prik qurish jarayonida muhandislik, matematika va san’at elementlarini o‘rganadilar.

2. *Loyiha asosida o‘qitish.* Loyiha faoliyati bolalarda mustaqil fikrlash va tadqiqot olib boorish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, “Kichik issiqxona yaratish”, “Oddiy robot modelini yaratish” kabi loyihalar.

3. *O‘yin texnologiyalari.* Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli STEAM faoliyatlari didaktik o‘yinlar, konstruktorlar va tajriba o‘yinlari orqali tashkil etiladi.

4. *Zamonaviy didaktik vositalar.* Robototexnika elementlari, konstruktor to‘plamlari, tajriba laboratoriyalari va interaktiv texnologiyalari STEAM ta’limining samaradorligini oshiradi.

Pedagogik kuzatishlar sguni ko‘rsatadiki, STEAM asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda qiziqish va faol ishtirokni sezilarli darajada oshiradi. Tajriba natijalariga ko‘ra, STEAM faoliyatlari: 1) bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi; 2) ijodiy fikrlashni kuchaytiradi; 3) jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi; 4) o‘quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyani oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida STEAM yoindashuvini joriy etish bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining integrativligini ta’minlab, bolalarda mantiqiy tafakkur, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvi maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlaydi hamda bolalarni kelajak kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Maktabgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. - Toshkent, 2022.

3. Nuraliyeva D. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

4. Nosirova R.X. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. - Toshkent: Ilm nurli kitob. 2024.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭКРАННЫХ ИСКУССТВ УЗБЕКИСТАНА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Миленин Я.Р.
Докторант кафедры «Кинооператорское мастерство».
Аннамуратова С.К.
Научный руководитель, Д.п.н., проф.
Филиал Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Всероссийский ГУ кинематографии имени С.А.Герасимова» (ВГИК) в городе Ташкенте.

Аннотация. *В статье рассматривается влияние современных цифровых технологий и интернет-пространства на трансформацию драматургии экранных искусств Узбекистана. Анализируются изменения форм производства и распространения аудиовизуального контента, особенности формирования*

интернет-драматургии, а также влияние социальных платформ на структуру повествования. Особое внимание уделяется мобилографии, веб-сериалам и коротким форматам, формирующим новые модели сюжетостроения и персонажной системы. Определяются перспективы развития экранных искусств в условиях цифровой среды.

Ключевые слова: *экранные искусства, драматургия, цифровые технологии, интернет-платформы, веб-сериалы, мобилография, клиповое мышление, короткие форматы, визуальная культура.*

Развитие кино и телевидения в условиях цифровизации привело к существенным изменениям в способах производства и распространения контента. Если традиционная драматургия строилась на линейном повествовании и длительных форматах, то интернет-среда формирует новые принципы — краткость, динамичность и адаптацию под пользовательское внимание. Сравнение традиционной и интернет-драматургии показывает, что последняя ориентирована на быстрое вовлечение зрителя, использование визуальных акцентов и сокращённую структуру повествования.

Интернет-платформы как среда формирования драматургии. Современные платформы, такие как YouTube, TikTok и Instagram, становятся ключевыми площадками для распространения экранного контента. Их алгоритмы напрямую влияют на драматургию: формируют требования к длительности сцен; усиливают значение первых секунд («hook»); способствуют клиповому монтажу; стимулируют создание серийного контента. Таким образом, возникает феномен алгоритмической драматургии, при которой структура произведения определяется не только автором, но и логикой цифровой платформы.

Изменение структуры экранного повествования. В условиях клипового мышления происходит трансформация традиционных нарративных моделей. Формируются новые типы драматургии: 1) клиповая драматургия — быстрая смена визуальных образов; 2) фрагментарная сериализация — разбиение сюжета на короткие эпизоды; 3) микродраматургия — сверхкороткие истории длительностью до одной минуты.

Особую роль играет принцип «крючка» (hook), обеспечивающий удержание внимания зрителя в первые секунды просмотра.

Новые формы экранного производства в Узбекистане. Одним из ключевых явлений становится развитие мобилографии и mobile filmmaking. Использование смартфонов определяет особенности визуального языка: преобладание крупных планов; динамичный монтаж; вертикальный формат кадра; упрощённая композиция. Эстетика социальных сетей влияет и на сценарную структуру: сокращаются диалоги; усиливается визуальная выразительность; возрастает роль гэгов и быстрых сюжетных поворотов.

Веб-сериалы становятся важной формой экранного искусства. Их особенности включают: короткие эпизоды; упрощённую драматургическую структуру; быстрое развитие персонажей; ориентацию на удержание внимания зрителя. Бюджетные ограничения компенсируются креативными решениями, включая нестандартный монтаж и использование доступных технологий.

Особенности драматургии коротких форматов. Короткие интернет-форматы формируют новую модель повествования: мгновенное вовлечение зрителя; высокая плотность событий; минимизация экспозиции; акцент на

эмоциональном эффекте. Алгоритмы платформ усиливают эти тенденции, создавая условия для развития специфической формы экранного языка.

Новые модели персонажей и сюжетов. В интернет-драматургии Узбекистана наблюдаются следующие тенденции: использование архетипических персонажей; быстрое раскрытие характера; фрагментарное развитие сюжетных линий. Это связано с ограниченным временем экранного повествования и необходимостью мгновенного восприятия.

Перспективы развития. В ближайшие годы ожидаются: дальнейшее развитие веб-сериалов; синтез традиционного кино и интернет-форматов; рост популярности мобильного кино; усиление влияния алгоритмов на драматургию. Цифровая среда будет способствовать появлению новых художественных форм и методов повествования.

Заключение. Современные цифровые технологии и интернет-платформы существенно меняют характер развития экранных искусств, формируя новые принципы драматургии и визуального повествования. В условиях цифровой среды происходит переосмысление традиционных моделей построения сюжета: возрастает значение динамики, краткости и визуальной выразительности, а структура повествования всё чаще ориентируется на особенности восприятия контента в онлайн-пространстве.

Интернет-платформы задают не только каналы распространения, но и собственную логику организации экранного материала. Алгоритмическая среда влияет на ритм, композицию и способы удержания внимания зрителя, что приводит к развитию коротких форматов, веб-сериалов и мобильного кино. В этих условиях формируются новые типы драматургии, характеризующиеся фрагментарностью, высокой плотностью событий и быстрым раскрытием персонажей.

Наблюдаемые изменения свидетельствуют о постепенном сближении традиционной кинематографии и интернет-форматов, что открывает возможности для появления гибридных форм экранного искусства. Цифровая среда становится не только пространством распространения, но и активным фактором, определяющим художественные решения и направления развития современной визуальной культуры.

Использованной литературы:

1. Ахметов, К. 125 лет кинодраматургии: от Люмьеров до современности. — Москва: ВГИК, 2021. — 320 с.

2. Пшенаева, Э., Уразбаева, Ш. Веб-сериалы и потоковый контент в жизни молодежи // Central Asian Journal of Art Studies. — 2025. — № 1. — С. 45–58.

3. Berry, D. M. Post-Digital Humanities: Computation and Cultural Critique // arXiv. — 2024. — URL: https://arxiv.org/abs/2407.05922 (accessed: 26.03.2026).

4. Journalism in the Internet Space of Uzbekistan: Features of Online Publications: Abstract of dissertation. — Tashkent, 2023. — 24 p.

MASOFAVIY TA’LIMDA TALABALARNING EMOTSIONAL-KOGNITIV HOLATINI MONITORING QILISHNING AHAMIYATI

Mustafoyev Shaxzod Mamanazar o‘g‘li,
Buxoro DPI, Axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘lim boshlig‘i.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada masofaviy ta’lim jarayonida talablarning emotsional-kognitiv holatini monitoring qilishning ahamiyati tahlil qilinadi. Masofaviy ta’limda talabalar o‘z-o‘zini boshqarish orqali bilim olishadi, ammo motivatsiya pasayishi, stress va charchoq kabi emotsional omillar hamda diqqat va tushunish darajasidagi kognitiv omillar o‘quv natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada monitoring usullari — onlayn so‘rovnomalar, interaktiv testlar, biometrik sensorlar va AI tizimlari — orqali talabalar holatini aniqlash va individual yondashuvni rivojlantirishning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, emotsional-kognitiv monitoring talabaning o‘quv jarayonidagi ishtirokini oshirish va o‘quv natijalarini optimallashtirishda muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar*: Masofaviy ta’lim, talabalar, emotsional holat, kognitiv holat, monitoring, onlayn ta’lim texnologiyalari, AI va adaptiv tizimlar.*

So‘nggi yillarda masofaviy ta’lim jahon ta’lim tizimida muhim o‘rin egallay boshladi. Internet va zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar istalgan joydan va vaqtda bilim olish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim an’anaviy darslarga nisbatan talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, motivatsiya va diqqatini saqlash qobiliyatini yuqori darajada talab qiladi. Talabalarning emotsional va kognitiv holati masofaviy o‘qish jarayonida bevosita o‘quv natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Emotsional omillar — stress, charchoq, motivatsiya pasayishi — o‘quv jarayonining samaradorligini kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, kognitiv omillar — diqqatni jamlash, ma’lumotni tushunish va eslab qolish qobiliyati — o‘quv jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 03.10.2022 yil qarori masofaviy ta’limni tizimli joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va talabalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategik hujjat sifatida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, masofaviy ta’limda talablarning emotsional-kognitiv holatini monitoring qilish zarur bo‘lib, bu jarayon nafaqat individual yondashuvni rivojlantirish, balki pedagogik jarayonni optimallashtirish imkonini ham beradi.

Masofaviy ta’lim tizimlarida talabalar mustaqil ishlashga ko‘proq e’tibor qaratadi, shuning natijasida ularning emotsional va kognitiv holati o‘quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi [2; 45-62-b.]. Emotsional komponent stress, charchoq, motivatsiya darajasi kabi parametrlarni o‘z ichiga oladi, kognitiv komponent esa diqqat, tushunish va ma’lumotni eslab qolish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu holatlarni monitoring qilish talabaning o‘quv faoliyatini individualizatsiyalash va pedagogik jarayonni optimallashtirish imkonini beradi [3; 112–129-b.].

Usul	Tavsif	Afzallik
Onlayn so‘rovnomalar	Talabaning emotsional holatini baholash	Oson, tez, arzon
Biometrik sensorlar	Yurak urishi, charchoq darajasi	Real vaqt, aniq
AI analiz	LMSdagi faoliyatni tahlil qilish	Avtomatik, samarali

Interaktiv testlar	Kognitiv darajani aniqlash	Test natijalariga asoslangan individual o‘quv rejasi

Masofaviy ta’limda emotsional-kognitiv monitoring turli metodlar orqali amalga oshiriladi. Birinchi guruhga onlayn so‘rovnomalar va anketalar kiradi, ular talabaning motivatsiya, charchoq va qiziqish ko‘rsatkichlarini aniqlashda qulay va tezkor vosita sifatida xizmat qiladi. Ikkinchi guruh — interaktiv testlar va quizzlar, ular kognitiv faoliyatni baholash va individual o‘quv rejalarini shakllantirishda samaradorlikni ta’minlaydi. Uchinchi guruhga biometrik sensorlar kiradi, ular yurak urishi, ko‘z harakatlanishi va yuz mimikasi orqali emotsional holatni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. To‘rtinchi guruh — sun’iy intellekt va LMS tizimlari orqali talabaning onlayn platformadagi faoliyatini tahlil qilish bo‘lib, bu kognitiv va emotsional parametrlarni avtomatlashtirilgan tarzda prognoz qilish imkonini beradi [4; 104–121-b.]. Emotsional-kognitiv monitoring natijalari pedagoglar uchun o‘quv jarayonini individual yondashuvga moslashtirish, motivatsiyani oshirish va ishtirokni ta’minlash, shuningdek, o‘quv jarayonidagi muammolarni erta aniqlash imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, monitoring masofaviy ta’lim sifatini oshirish va talabaning o‘quv jarayoniga integratsiyasini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Masofaviy ta’lim jarayonida talablarning emotsional-kognitiv holatini monitoring qilish o‘quv samaradorligini oshirish va pedagogik jarayonni individual yondashuvga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional omillar — stress, charchoq va motivatsiya darajasi — hamda kognitiv omillar — diqqat, tushunish va eslab qolish qobiliyati — talabaning bilim olish jarayonini bevosita belgilaydi. Monitoringning samarali usullari, jumladan onlayn so‘rovnomalar, interaktiv testlar, biometrik sensorlar va sun’iy intellekt asosida tahlil qilish, talabalarning emotsional-kognitiv holatini aniqlash va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Natijada, masofaviy ta’limda emotsional-kognitiv monitoringni joriy etish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshirish, balki talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 03.10.2022 y. qaror. Tashqi rasmiy nashrlar.

2. Johnson, L. Emotional and cognitive factors in online learning: Challenges and strategies. Journal of Distance Education, 41(2), 2020, 45–62 b.

3. Brown, P. Cognitive monitoring in e-learning environments. Educational Technology Research, 67(3), 2019, 112–129 b.

4. Smith, R., & Lee, K. AI-based learning analytics for student engagement and emotional assessment. Computers & Education, 165, 2021, 104–121 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TENGLAMALAR BILAN ISHLASH BOSQICHLARI VA ULARNI O‘QITISH METODIKASI

Musurmonova Maluda,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Shamsiyeva Sug‘diyona Ruyiddin qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika darslarida tenglamalarni o‘rgatishning pedagogik hamda psixologik asoslari, tenglamalar bilan ishlash bosqichlari hamda ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularning samarali yechimlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, tenglama, matematik tafakkur, metodika, muammoli ta’lim, didaktik yondashuv, individual xususiyat.*

Boshlang‘ich ta’lim tizimida matematika fanini o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini hamda tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, tenglama tushunchasini o‘zlashtirish o‘quvchilarda algebraik tafakkurning boshlang‘ich elementlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli tenglamalarni o‘rgatish metodikasi ilmiy asoslanadi hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi lozim. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik yoshdagi o‘quvchilarning tafakkuri asosan konkret-obrazli xarakterga ega hisoblanadi. Ular abstrakt tushunchalarni bevosita amaliy faoliyat bilan birga osonroq o‘zlashtirishadi. Bu jarayonda bolalar tafakkuri rivojlanishini o‘rgangan olimlar, tadqiqotlarida ham asoslab, ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik va bosqichma-bosqichlilik tamoyillariga amal qilish zarurligini ko‘rsatib o‘tadi.

Boshlang‘ich sinflar matematika darslarida tenglamalar bilan ishlash jarayoni odatda tenglik tushunchasini shakllantirish davridandan boshlanadi. O‘quvchilar avval tenglik belgisi faqat natijani ko‘rsatadigan belgi emas, balki ikki ifodaning o‘zaro tengligini bildiruvchi matematik munosabat ekanligini anglab yetishlari lozim. Bu bosqichda predmetlar, rasmlar, chizmalar, ifodalar va amaliy misollardan foydalanish juda muhimdir. Masalan, bir xil miqdordagi predmetlarni taqqoslashda, tarozi modeli orqali tenglikni ko‘rsatish o‘quvchilarda tenglik mazmunini chuqurroq tushunishda katta yordam beradi. Shundan keyin, noma’lum son tushunchasi kirita boshlanadi. Avval noma’lum son katakcha yoki oddiy belgilar yordamida ifodalansa, keyinchalik esa harfiy bilan belgilanib boriladi. Bu davr o‘quvchilar uchun matematik belgilar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi bosqich hisoblanadi.

Amaliyot jarayoni shuni ko‘rsatadiki, tenglamalarni o‘qitish jarayonida ba’zi muammolar ham uchrab turadi. O‘quvchilar ko‘pincha tenglik belgisi ma’nosini noto‘g‘ri talqin qiladilar va ko‘p hollarda matnli masaladan tenglama tuzishda qiynaladilar. Bu qiyinchiliklar, asosan, abstrakt fikrlashning yetarlicha rivojlanmaganligidan, mashqlar tizimining izchil tashkil etilmaganligidan yoki ko‘rgazmali vositalardan yetarli darajada foydalanilmaslikdan yuzaga keladi. Shu bilan birga, ba’zi hollarda o‘quvchilarning individual xususiyatlari va o‘zlashtirish darajalari hisobga olinmasligi ham ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi sir emas.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda bir qancha metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi. Dastlab, tenglama tushunchasini shakllantirish jarayonida ko‘rgazmali

vositalar, didaktik o‘yinlar hamda interfaol metodlardan keng foydalanish tavsiya beriladi. Ushbu usullar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda matematik tushunchalarni ongli o‘zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mashqlar tizimini bosqichma-bosqich murakkablashtirish va har bir yangi tushunchani oldingi bilimlar bilan bog‘lay olish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlar yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida o‘quvchilar tomonidan aniqlangan yechimlarni tahlil qilish, natijani tekshirish va xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi ham tenglamalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotlar natijasida, tenglamalarni o‘qitishda tizimli va ilmiy asoslangan metodik yondashuv qo‘llanilganda o‘quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlash darajasi hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Bu esa keyingi bosqichlarda algebra elementlarini o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf matematika darslarilarda tenglamalar bilan ishlashni to‘g‘ri tashkil etish nafaqat matematik bilimlarni egallash, balki o‘quvchilarning ham umumiy intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshirib kelmoqda. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash, muloqot qilish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib ishlash, bilimlarni ko‘rgazmali, tushunarli va aniq shaklda yetkazish imkonini beradi. Biroq bu holatda ayrim kamchiliklar ham uchrashi mumkin, masalan, texnik vositalarning yetarli emasligi, o‘qituvchidan qo‘shimcha tayyorgarlik hamda vaqt talab etilishi, shu bilan birga, metodlar noto‘g‘ri tanlanganda o‘quvchilarning diqqati asosiy maqsaddan chalg‘ishi ehtimoli yo‘q emas. Samarali foydalanish uchun o‘qituvchi metodlarni darsning maqsadi va mavzusiga mos tanlashi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, faol ishtirokda rag‘batlantiruvchi topshiriqlardan foydalanishi hamda nazorat va tahlilni muntazam olib borishi kerak. Metodik jihatdan bunday yondashuvlar darsni rejalashtirish, o‘quv materialini bosqichma-bosqich olib borish, o‘yin va amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimni mustahkamlash, shu bilan birga, baholashning zamonaviy usullaridan foydalanish imkonini beradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali, mazmunli hamda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda tenglamalar bilan ishlashni o‘rgatish jarayoni matematika darsining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat hisoblash ko‘nikmalarini, balki mantiqiy va analitik fikr yuritishni, muammoni tahlil qilish va yechim topish malakalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutuvchi vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar va pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, tenglama tushunchasi o‘quvchilarda bir zumda shakllanib qolmaydi, balki izchil, bosqichma-bosqich tashkil etilgan ta’lim jarayonida asta-sekin rivojlanadi. Shu sababli tenglamalarni o‘qitishda metodik yondashuvning ilmiy asoslanganligi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, dars jarayonida samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning tafakkuri xususiyatlari pedagogika va psixologiya fanida chuqur o‘rganilgan va bu boradagi ilmiy qarashlar ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar tafakkurining aniq obrazli

bosqichda rivojlanishini asoslab, boshlang‘ich ta’limda ko‘rgazmali vositalar va amaliy faoliyatning ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlagan. Ushbu nazariy qarashlar tenglamalarni o‘rgatishda ham o‘z tasdig‘ini topadi albatta, chunki noma’lum son tushunchasini o‘zlashtirish, tenglik mazmunini anglash hamda tenglamani yechish algoritmini egallash o‘quvchilardan ma’lum darajada abstrakt fikrlashni talab etadi.

Tenglamalarni o‘rgatishning samaradorligi ko‘p hollarda o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Amaliyot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tenglik tushunchasini shakllantirishdan boshlanib, noma’lum son tushunchasini kiritish hamda sodda tenglamalarni yechish, matnli masalalar asosida tenglama tuzish va bilimlarni mustahkamlash bosqichlari izchil tashkil etilganda o‘quvchilarning bilimlari ancha barqaror shakllanadi. Bunda mashqlar tizimining oddiydan murakkabga qarab tuzilishi, har bir yangi tushunchaning oldingi bilimlar bilan bog‘lanishi hamda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tenglamalarni o‘qitish jarayonida uchraydigan muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi, albatta. O‘quvchilar ko‘p hollarda tenglik belgisi ma’nosini faqat natijani bildiruvchi belgi sifatida qabul qiladilar va yoki matnli masalalarni matematik modelga aylantirishda qiyinchilikka duch keladilar. Bu muammolarni bartaraf etishda o‘qituvchining metodik mahorati, darsni to‘g‘ri rejalashtirish hamda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ko‘rgazmali vositalar, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

O‘quvchilarga tenglamalarni o‘rgatishda matnli masalalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu usul o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy, hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi, ularda tahlil qilish, muhim ma’lumotlarni ajratish hamda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Matematik masalalarni yechish jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishi, muammoni anglash, reja tuzish, reja asosida ishlash va natijani tekshirish kabi jarayonlarni o‘z ichiga olishi ilmiy jihatdan asoslangan va bu yondashuv tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topgan. Bu metodik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham samarali bo‘lib, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida tenglamalar bilan ishlashni samarali tashkil etish o‘qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki yuqori darajadagi pedagogik mahoratni ham talab qilib kelmoqda.

Dars jarayonlarida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishini doimiy ravishda rag‘batlantirib borish, xatolar ustida ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda o‘zlashtirish darajasini muntazam nazorat qilish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z fikrini asoslab berishga, yechimni izohlashga va natijani tekshirishga o‘rgatish ularning matematik nutqini va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda tenglamalarni o‘qitish jarayonini ilmiy asoslangan metodikaning tashkil etilishi o‘quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, keyingi sinflarda algebra elementlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur poydevor yaratib kelmoqda. O‘quvchilarga tenglamalarni o‘rgatish jarayonida ko‘rgazmalilik, izchillik, amaliy yo‘naltirilganlik va muammoli ta’lim tamoyillariga amal qilish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu boisdan, boshlang‘ich ta’lim tizimida tenglamalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda

o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tenglamalar bilan ishlashni o‘rgatish boshlang‘ich matematika ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga, mantiqiy tafakkurining shakllanishiga va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayonni ilmiy asoslangan, tizimli va o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – T.: Fan. 2016.
2. Bikbayeva N., Yangibayeva E. Boshlang‘ich sinf matematika darslari (1–4-sinflar uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: Sharq. 2020.
3. M.Musurmonova. Matematika o‘qitish metodikasi / O‘quv-qo‘llanma. – Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 236 bet.
4. 1-4 sinf Matematika darsliklari (mualliflar guruhi). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi. 2023.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK QADRIYATLARNI “TARBIYA” FANI ORQALI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna,
Chirchiq DPU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XXI asrda global miqyosda dolzarblashib borayotgan ekologik muammolar sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilim va qadriyatlarni shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Ekologik tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari pedagogika, psixologiya va ekologiya fanlari integratsiyasi nuqtayi nazaridan yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida joriy etilgan “Tarbiya” fani doirasida ekologik kompetensiyani rivojlantirishning mazmuniy komponentlari ochib berilgan hamda innovatsion mexanizmlar — loyiha va tadqiqotga asoslangan ta’lim, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar, tabiat qo‘ynida o‘qitish (outdoor education), rolli o‘yinlar va dramatizatsiya metodlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ekologik ta’lim o‘quvchilarda ekologik ong, mas’uliyatli xulq-atvor, ekologik savodxonlik va barqaror rivojlanish g‘oyalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *loyiha va tadqiqotga asoslangan ta’lim, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiya, tabiat qo‘ynida o‘qitish, rolli o‘yinlar, dramatizatsiya metodlari, emotsional identifikatsiya, vizual idrok, ijtimoiy o‘rnak, amaliy faoliyat.*

Kirish. XXI asrda ekologik muammolar global miqyosda keskinlashib, insoniyat oldiga ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etish vazifasini qo‘ymoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi omillar ekologik madaniyatni jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylantirdi.Mazkur sharoitda ekologik tarbiyani maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab izchil shakllantirish pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiatni idrok etishga moyil, hissiy jihatdan sezgir va

qadriyatlarni tez qabul qiladigan yosh guruh bo‘lgani sababli, ekologik ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan aynan shu bosqichga bog‘liq. O‘zbekiston ta’lim tizimida 2020-yildan joriy etilgan “Tarbiya” fani o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy, fuqarolik, ijtimoiy va ekologik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu fan ekologik qadriyatlarni tizimli va integrativ asosda berish imkonini yaratadi.

Ekologik tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari. Ekologik ta’lim pedagogika, psixologiya va ekologiya fanlari kesishgan nuqtada shakllanadi. Ilmiy manbalarda ekologik tarbiya o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik muammolarni anglash, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish va barqaror rivojlanish madaniyatini rivojlantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. 6–10 yosh oralig‘i shaxsning qadriyatlar tizimi shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda berilgan ekologik tasavvurlar va xulqiy ko‘nikmalar bolaning kelajakdagi dunyoqarashini belgilaydi. Shuning uchun ekologik tarbiya avvalo hissiy-intuitiv idrok orqali, ya’ni real kuzatish, tajriba va obrazli taqdimot asosida berilishi maqsadga muvofiqdir.

“Tarbiya” fanida ekologik yo‘nalish quyidagi komponentlarni qamrab oladi: tabiatga mehr-muhabbat; ekologik xavfsizlik tushunchasi; isrofgarchilikka qarshi madaniyat; ekologik gigiyena; tabiatni muhofaza qilishga doir shaxsiy mas’uliyat.

Mazkur komponentlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda integratsiyalangan.

Ekologik kompetensiyani shakllantirishning innovatsion mexanizmlari

1. Loyiha va tadqiqotga asoslangan ta’lim. Loyiha yondashuvi o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi. Ekologik loyihalar o‘quvchilarda muammoni aniqlash, kuzatish, tahlil qilish va amaliy yechim taklif qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf uchun mos loyihalar:

- “Mening daraxtim” – daraxt parvarishi va o‘sish jarayonini kuzatish;
- “Qog‘ozni tejaymiz” – iste’molni kamaytirish kampaniyasi;
- “Plastikdan toza maktab” – chiqindilarni saralash;
- “Ekologik kundalik” – kundalik ekologik xatti-harakatlarni qayd etish.

Bu faoliyatlar ekologik tushunchalarni real hayot bilan bog‘laydi.

2. STEAM yondashuvi. STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiya qiladi. Ekologik ta’limda bu yondashuv ilmiy tajribalar orqali amaliy tafakkurni rivojlantiradi. Masalan: - suvni oddiy filtrlash tajribasi; - qayta ishlangan materiallardan maket yaratish; - quyosh energiyasi asosida kichik modellar yasash.

Bu jarayon o‘quvchilarni ijodkor va izlanishga moyil shaxs sifatida shakllantiradi.

3. Raqamli texnologiyalar. Raqamli vositalar ekologik ta’limni interaktiv va jozibador qiladi. Interaktiv o‘yinlar, virtual ekskursiyalar, multimedia animatsiyalari, onlayn viktorinalar o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi va ekologik mavzuga qiziqishni kuchaytiradi.

4. Outdoor education. Tabiat qo‘ynida o‘qitish ekologik tarbiyaning eng samarali shakllaridan biridir. Kuzatish mashg‘ulotlari, mini-ekspeditsiyalar, tozalash aksiyalari, maktab bog‘ini tashkil etish o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni hissiy tajriba orqali mustahkamlaydi.

5. Rolli o‘yinlar. “Tabiat qo‘riqchisi”, “Eko-politsiya”, “Axlat saralash mutaxassisi” kabi rolli o‘yinlar ekologik mas’uliyatni tabiiy shaklda rivojlantiradi va qadriyatlarni uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi.

Psixologik mexanizmlar. Ekologik qadriyatlar quyidagi psixologik mexanizmlar orqali shakllanadi: - emotsional identifikatsiya (tabiat bilan o‘zini bir butun his qilish); -

vizual idrok (rasm, maket, video orqali tushunish); - ijtimoiy o‘rnak (o‘qituvchi va tengdoshlarning namuna bo‘lishi); - amaliy faoliyat (ekish, parvarish, kuzatish).

Bu mexanizmlar ekologik ongni barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

Kutilayotgan natijalar. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ekologik ta’lim natijasida: 1) ekologik ong shakllanadi; 2) mas’uliyatli xulq-atvor rivojlanadi; 3) ekologik savodxonlik oshadi; 4) ijtimoiy faollik kuchayadi; 5) barqaror rivojlanish g‘oyalari anglanadi. Shuningdek, o‘quvchilarda ekologik muammolarga ijodiy yondashuv va tashabbuskorlik rivojlanadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf bosqichi ekologik qadriyatlarni shakllantirishda muhim davr hisoblanadi. “Tarbiya” fani ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni integrativ asosda berish imkonini yaratadi. Loyiha yondashuvi, STEAM texnologiyalari, raqamli vositalar, tabiat qo‘ynida o‘qitish va rolli o‘yinlar ekologik tarbiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ekologik ta’limni erta bosqichdan innovatsion metodlar asosida tashkil etish kelajak avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirish va barqaror jamiyat qurishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tarbiya” fani o‘quv dasturi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2020.

2. Alimov R., Xudoyberdiyeva M. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. – T.: Fan, 2021.

3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2017.

4. Mavlonova A., Raxmonqulova Sh. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – T.: TDPU, 2022.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MATN TAHLILINI TASHKIL ETISH VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
(Ona tili darslari talqinida)

Normurodova Nigora Abdusattorovna,
O‘zMPU, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Rahmatova Diyora Sayfiddin qizi,
O‘zMPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1- bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda yangi imkoniyatlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, matn tahlilini tashkil etish va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Ona tili darslarida matn bilan ishlash metodlari hamda sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning o‘quvchilarning tafakkur faoliyatiga ijobiy ta’siri aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, sun’iy intellekt, matn tahlili, tanqidiy fikrlash, ona tili darslari, kompetensiya.*

Kirish. Raqamli dunyoning zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, mavzularni yetkazib berishda ulardan unumli foydalanish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayoniga keng kirib kelmoqda va ularning imkoniyatlari o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning tafakkuri va nutqiy faoliyati shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa ona tili darslari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Matn tahlili o‘quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda xulosa chiqarish kabi intellektual ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu bosqichni suniy intelekt va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali darslar tashkil qilinishi, darsni yanada qiziqarli va malumotlarni tushunarli qilib yetkizishda yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimida yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida: - o‘quv materiallarini individual tarzda taqdim etish; - o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish; - interfaol o‘quv muhitini yaratish; - o‘quv jarayonini avtomatlashtirish; - imkoniyatlari mavjud.

Sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturlar o‘quvchilarning matnni tahlil qilish jarayonida qo‘shimcha axborot manbalari bilan ishlashiga ham yordam beradi.

Ona tili darslarida matn tahlilining ahamiyati. Matn tahlili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar: - matn mazmunini tushunadi; - asosiy g‘oyani aniqlaydi; - muammoni tahlil qiladi; - mustaqil xulosa chiqaradi.

Bu jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi

Matn tahlilida sun’iy intellektdan foydalanish metodlari. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

1-jadval.

Sun’iy intellekt asosida matn tahlili metodlari [4]

Metod	Mazmuni	Natijasi
Savol-javob tizimi	AI yordamida savollar yaratish	Tahliliy fikrlash rivojlanadi
Klaster usuli	G‘oyalarni vizual tarzda tizimlashtirish	Tafakkur faollashadi
Matnni qismlarga ajratish	AI yordamida matn strukturasini aniqlash	Tanqidiy fikrlash rivojlanadi
Muammoli savollar	AI orqali muammoli vaziyatlar yaratish	Mustaqil fikrlash kuchayadi

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan matn tahliliga asoslangan darslar tashkil etildi. Darslarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki: 1) o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi oshdi; 2) tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlandi; 3) mustaqil fikr bildirish faollashdi.

2-jadval.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Tajribadan oldin (%)	Tajribadan keyin (%)

Ko‘rsatkich	Tajribadan oldin (%)	Tajribadan keyin (%)
Matnni tushunish	60	82
Tahlil qilish	55	78
Xulosa chiqarish	50	76
Mustaqil fikr bildirish	52	80

3-jadval.

Sun’iy intellekt asosida darslarning samaradorligi

Metod	Samaradorlik (%)
Savol-javob	70
Klaster	68
Muammoli savollar	75
Guruhli ish	80
AI yordamida matn tahlili	85

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Matn tahlili jarayonida AI vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni axborot bilan ishlashga o‘rgatadi.

Sun’iy intellektning pedagogik roli. Sun’iy intellekt (AI) – bu kompyuter tizimlari yordamida inson aqliga xos vazifalarni bajarish imkonini beruvchi texnologiya. Boshlang‘ich ta’limda AI quyidagi pedagogik maqsadlarda ishlatiladi:

- *Individual yondashuv:* AI o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularning qobiliyatiga mos mashqlarni tayyorlaydi.
- *Ta’lim jarayonini optimallashtirish:* AI dars jarayonida o‘quvchilarning qaysi qismni tushunmayotganini aniqlab, ustozga qo‘shimcha e’tibor berish imkonini beradi.
- *Interfaol o‘quv muhitini yaratish:* O‘quvchilar AI yordamida matnlarni tahlil qiladi, savol-javob o‘ynaydi, g‘oyalarni vizual tarzda klasterlaydi.
- *Natijalarni kuzatish va baholash:* AI o‘quvchilarning natijalarini avtomatik tahlil qiladi va rivojlanish jarayonini ko‘rsatadi.

Ona tili darslarida AI’dan foydalanish imkoniyatlari. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida AI quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

1. Matn tahlili: 1) AI matnni bo‘laklarga ajratadi, asosiy g‘oyalarni aniqlaydi; 2) o‘quvchilar matnni o‘qib, AI yordamida muhim ma’lumotlarni ajratadi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: 1) AI interfaol savollar orqali o‘quvchilarga xulosa chiqarish, muammoni tahlil qilish ko‘nikmalarini beradi; 2) AI yordamida o‘quvchilar turli fikrlarni solishtiradi va tanqidiy yondashuvni o‘rganadi.

*3. Individual mashqlar yaratish: 1) h*ar bir o‘quvchining bilim darajasiga mos mashqlar tayyorlanadi; 2) AI matnni turli darajadagi murakkablik bilan taqdim etadi.

4. Vizual va interfaol yordam: 1) AI yordamida matnni diagramma, grafik va klasterlarga ajratish mumkin; 2) bu o‘quvchilarga murakkab fikrlarni tushunishga yordam beradi.

Amaliy misol.

- **Mavzu:** “Tabiat va uning go‘zalligi” matni
- **AI vositasi:** Matnni bo‘laklarga ajratish va interaktiv savollar yaratish.

Jarayon: 1. O‘quvchilar matnni o‘qiydi. 2. AI har bir bo‘lakdan savollar beradi. 3. O‘quvchilar javob berib, xulosa chiqaradi. 4. AI javoblarni tahlil qilib, ustozga natijalarni ko‘rsatadi.

Natija: o‘quvchilar matn mazmunini chuqur tushunadi, muammoni tanqidiy tahlil qiladi va mustaqil xulosa chiqaradi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt asosida matn tahlilini tashkil etish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. AI o‘quvchilarning matn tahlili, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarga yangi bilim olish imkoniyatlarini ochadi va dars jarayonini qiziqarli qiladi**.** Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимова Н.Ш. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Toshkent, 2020.
2. Абдуллаев, Ф.А. Ona tili va adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Toshkent, 2019.
3. Russel, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th Edition. Pearson, 2020.
4. https://najottalim.uz/blog/tandiqiy-fikrlashni-rivojlantirish

STEAM YONDASHUVI ORQALI MAKTABGACHA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Nosirova Ra’no Xamidovna,
Chirchiq DPU, “Maktabagcha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Xasanboyeva Maftuna Uchqun qizi,
Chirchiq DPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabagcha ta’lim) yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada STEAM yondashuvi orqali maktabgacha ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) pedagogik yondashuvi bolalarning kognitiv, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada STEAMning maktabgacha ta’limdagi didaktik o‘yinlar, interfaol faoliyatlar va integratsiyalashgan ta’lim muhitini yaratish orqali bolalarning mustaqil izlanishga tayyorligi va ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ta’siri ilmiy dalillar bilan tasvirlangan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM, maktabgacha ta’lim, ijodiy rivojlanish, kognitiv ko‘nikmalar, pedagogik innovatsiyalar, didaktik o‘yinlar, integratsiyalashgan faoliyat.*

Global ta’lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlarning roli o‘sib borayotgani aniq. Kuni kecha davlatimiz rahbari “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PQ-19 sonli farmonini imzoladilar [1] Farmonning ustuvor yo‘nalishlaridan biri STEAM ta’lim texnologiyasidir. Shu jarayonda Steam ta’lim texnologiyasi o‘zi nima degan savol tuyuladi. STEAM – bu S – Science (Fan)**:** T – Technology (Texnologiya); E – Engineering (Muhandislik); A – Arts (San’at/ijodiyot); M – Mathematics (Matematika) ya’ni 5 ta sohani yagona ta’lim tizimi-da integratsiyalashuvidir. Uning asosiy g‘oyasi amaliyot nazariya kabi muhumdir [2].

STEAM yondashuvi nafaqat alohida fanlarni o‘rgatadi, balki ularni birlashtirib ta’lim jarayonini tizimli va kontekstga asoslangan qilib yaratadi**.** Bu pedagogikaning asosiy afzalligi — bolalarning real hayotiy muammolarni yechishga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq.

STEAM yondashuvi an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq fanlararo integratsiyaga asoslanadi**,** bu esa bolalarni bir vaqtning o‘zida bir nechta bilim sohalariga bog‘lab o‘rgatishni ta’minlaydi. Bu yondashuv orqali o‘quv jarayoni real hayotiy muammolarni yechishga yo‘naltiriladi — bu esa bolalarga tanqidiy fikrlash va tizimli yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

STEAM bolalar faoliyatining tabiiy elementlariga — san’at va ijodkorlikni fan va texnologiya bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvi bolalarni mustaqil izlanishga undaydi va o‘ziga xos “Tayyor yechim”dan ko‘ra “izlash bilan o‘rganish” prinsipini mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta’limda STEAMning samaradorligi: STEAM yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash, kreativlik va kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM faoliyatlari o‘yin shaklida tashkil etilganda bolalar ilmiy tafakkurga, mustaqil izlanishga va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘proq tayyor bo‘lishadi. Maktabgacha ta’lim bosqichida STEAM usullari orqali o‘yin asosida darslar uyushtirilishi pedagoglar tomonidan yuqori samarador deb topilgan. Bu yondashuv bolalarda fanlarga qiziqish, texnologik bilimlar va ijodiy fikrlashni mustahkamlaydi. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalarining qo‘llanishi pedagogik jihatdan ham muhim, chunki u tarbiyachilarga pedagogik faoliyatni interfaol va farzandga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. STEAM bilan ishlash orqali pedagoglar fanlararo integratsiyalangan o‘quv faoliyati**,** bolalarda mustaqil fikrlash va jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi.

STEAMning maktabgacha ta’limda amaliy imkoniyatlari. STEAM yondashuvi didaktik o‘yinlar orqali bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. O‘yinlar orqali ilmiy tushunchalar — masalan, sabab-natija munosabatlari, tajriba sinovlari, oddiy qurilmalarni o‘rganish — amaliy holatlarda mustahkamlanadi. Didaktik o‘yinlar yordamida: Bolalar mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini egallaydi; Muammolarni yechishda tajribaviy fikrlash shakllanadi; Jamoada ishlashga yo‘naltirilgan vazifalar orqali ijtimoiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

STEAM metodlari yordamida o‘quv muhitini boyitish — masalan, kichik laboratoriya stansiyalari, qurilish bloklari, san’at materiallari va oddiy texnologik qurilmalar bilan to‘ldirilgan faoliyatlar — bolalarda real hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv bolalarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va uni yanada chuqurroq qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, STEAM pedagogik yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, ijodkorlik va tafakkur ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. STEAM muhitida bolalar fan, texnologiya va san’at elementlarini o‘yin va faoliyat orqali o‘rganadilar, bu esa ularning mantiqiy fikrlashi va ijodiy yondashuvini kuchaytiradi. Masalan, tadqiqotda STEAM jarayoni bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, ularning muammolarni yechish ko‘nikmalarini oshirishi qayd etilgan. Bunday yondashuv odatdagi didaktik metodlardan farqli o‘laroq o‘zaro bog‘langan bilim komponentlarini hayotiy kontekstga integratsiya qiladi, bu esa bolalarning izlanishga asoslangan o‘rganish motivatsiyasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi maktabgacha ta’limda sifatni oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. U bolalarning fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika bilimlarini integratsiyalash orqali ijtimoiy, kognitiv va ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Didaktik o‘yinlar va interfaol faoliyatlar orqali bolalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari rivojlanadi, bu esa maktabgacha ta’lim sifatini oshirish va pedagogik jarayonni innovatsion metodlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.02.2026 yildagi PF-19-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida farmoni.
2. Nosirova R.X. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari, Chirchiq-2024.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Ostonaqulova Zaynab Abdukarim qizi,
Chirchiq DPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik, metodik va innovatsion jihatlari asoslangan. Tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari, interaktiv dasturlar, ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatga munosabatni rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Ilmiy jarayon natijalari shundan iboratki, sun’iy intellekt vositalari ekologik bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ekologik madaniyat, sun’iy intellekt, ekologik ong, interaktiv ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, atrof-muhit.*

Kirish. Mazkur davrda keng tarqalgan ekologik muammolar — iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi, chiqindilar muammosi insoniyat oldida muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu masalalarni hal etish eng avvalo yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf bosqichi shaxsning qadriyatlari, munosabatlari, tafakkuri shakllanadigan muhim davrdir.

Olimlarning fikricha, ekologik madaniyat nafaqat atrof-muhitga nisbatan bilimlarni, balki barqaror turmush tarzini, muammolarni tahlil qila bilishni va ijobiy xulq-atvorni ham o‘z ichiga oladi [1] (Stern, 2000; Tilbury, 1995).

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda sun’iy intellektning ahamiyati, interaktiv dasturlar va ilg‘or xorijiy tajribalarga tayanildi. Tadqiqotda taqqoslash, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan bo‘lib, o‘zbek va xorijiy ilmiy manbalar keng ko‘lamda o‘rganildi. Ekologik madaniyatni shakllantirishda sun’iy intellektning ahamiyatida adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon murakkab bo‘lib, u pedagogik, psixologik, ijtimoiy va madaniy resurslar bilan amalga oshadi.

A.Yu.Kuchkinov va Sh.Z.Matupayeva (2023) AKT bilan ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yorqin tasvirlar, ta’lim jarayonining hissiy tomoni orqali ta’lim berish

imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda ta’sirchan va elektron resurslar ularda barqaror ijobiy reaksiyalarni keltirib chiqarganligi sababli, bu ish ekologik mas’uliyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshiradi, deb taxmin qilish mumkin [2].

A.Yu.Kuchkinov va Sh.Z.Matupayevaning fikricha [2023] "Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun axborot kompetensiyasini o‘zgartirish ekologik kompetensiya bilan parallel ravishda amalga oshirilishi kerak. Birinchisi, kerakli materialni malakali izlash va uni kompyuter taqdimotlari orqali taqdim etishga yordam beradi" [2].

Jeremy Bailenson sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan Virtual borliq (VR) texnologiyalari haqida shunday yozadi: "Agar bola VR yordamida yaratilgan simulyatsiyada o‘zini"daraxt" yoki"okeandagi baliq"sifatida his qilsa, uning real hayotda tabiatni asrashga bo‘lgan motivatsiyasi 40% ga ortadi" [3].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirishlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda sun’iy intellektning ahamiyati haqida muhim jihatlar aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tushunchalar nomalum xarakterga ega bo‘lganligi bois, hozirgi kunda an’anaviy dars jarayonida biz kutgan natijalarni ololmaymiz. Shu sababli sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchining atrof-muhitga bo‘lgan tushunchasini samarali ravishda baholashga yordam beradi.

O‘quvchilarning bilim salohiyati va tabiiy fanga bo‘lgan qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sun’iy intellekt orqali ularga individual "ekologik topshiriqlar", interfaol o‘yinlar, ya’ni o‘yinlashtirish texnologiyalari orqali ekologik muammolarni sun’iy intellekt muhitida his qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni zamonaviy texnologiyalar, AKT davrida yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari hozirgi ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stern, P.C. (2000). Ijtimoiy masalalar jurnali. Tilbury, D. (1995). Ekologik ta’lim tadqiqotlari jurnali.

2. Kuchkinov A.Yu., Matupayeva Sh.Z. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining huquqiy ekologik kompetensiyasini interfaol usullar orqali rivojlantirish. Toshkent. 2023.

3. Jeremy Bailenson. "Experience on Demand: What Reality Is, How It Works, and What It Can Do", 2018.

TEXNOLOGIYA FANIDA INTEGRATSION YONDASHUV

Rajabboyeva Mahliyo O‘tkirbek qizi,
Gulumbayeva Dilnavo Madat qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Texnologiya fanida integratsion yondashuv ta’lim jarayonida texnologiya darslarini boshqa fanlar (masalan, fan, texnika, muhandislik, san’at va matematika) bilan birlashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda kompleks*

fikrlash, muammo hal qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) tamoyillariga asoslanadi. Maqolada ushbu yondashuvning ta’limdagi o‘rni, afzalliklari, qo‘llash usullari va amaliy misollari tahlil qilinadi. Natijada, integratsion yondashuv ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni real hayot muammolariga tayyorlashda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar*. Integratsion yondashuv, texnologiya fani, STEAM, fanlararo integratsiya, ta’lim texnologiyalari, muammo hal qilish, innovatsion ta’lim, o‘quv jarayoni, pedagogik usullar, amaliy ko‘nikmalar.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida texnologiya fani "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun va Davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilarni nafaqat texnik bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni murakkab muammolarni hal qilishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish vazifasini ham o‘z zimmasiga olgan. Bunday maqsadlarga erishishda integratsion yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda jamiyat va ishlab chiqarishdagi integratsion jarayonlar ta’limda ham aks etmoqda. Fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish orqali o‘quvchilarda real hayot muammolarini tahlil qilish, yechim topish va innovatsion fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida texnologiya faniga integratsion yondashuvni joriy etish boshlang‘ich sinflardan oliy ta’limgacha dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu maqolada integratsion yondashuvning mohiyati, afzalliklari, qo‘llash usullari va amaliy misollari ko‘rib chiqiladi. Natijada, bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni XXI asr talablariga moslashtirishda muhim vosita ekanligi asoslanadi.

Integratsiya tushunchasi. Integratsiya – uzviylik predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv predmetlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir.

Integratsiya ta’lim jarayonida turli daraja va shakllarda amalga oshiriladi. O‘zbekiston pedagogik adabiyotida (masalan, Mavlyanova R. va Raxmankulova N.ning ishlarida) integratsiya quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

Birinchidan, fanlararo integratsiya-bu eng keng tarqalgan turi bo‘lib, ikki yoki undan ortiq o‘quv fanlari mazmunini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, texnologiya fanida matematika (hisob-kitoblar, geometrik shakllar), fizika (mexanika qonunlari, energiya turlari) va biologiya (ekologik materiallar) elementlarini birgalikda qo‘llash orqali o‘quvchilar yaxlit tasavvur hosil qiladilar. Bu tur o‘quv jarayonini parchalanmagan holga keltirib, bilimlarni real hayot muammolari bilan bog‘laydi.

Ikkinchidan, ichki integratsiya-bitta fan ichida turli bo‘lim va mavzularni uzviy bog‘lash. Texnologiya fanida nazariy bilimlar (texnologik jarayonlar haqida) va amaliy ko‘nikmalar (loyihalashtirish, modellashtirish) bir-birini to‘ldiradi, natijada o‘quvchi texnik jarayonlarni to‘liq tushunadi.

Uchinchidan, ta’lim turlari orasidagi integratsiyamaktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarini bog‘lash. Masalan, boshlang‘ich sinflarda shakllangan texnologik ko‘nikmalar o‘rta sinflarda chuqurlashtiriladi, oliy ta’limda esa professional darajaga chiqariladi. Bu uzluksiz ta’lim tizimini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, tizimli integratsiya-ta’limning barcha komponentlarini (maqsad, mazmun, metodlar, baholash) yaxlitlashtirish. Integratsion yondashuvda dars nafaqat bilim berish, balki kompetensiyalarni shakllantirish vositasiga aylanadi.

O‘zbekiston ta’limida fanlararo va ichki integratsiya eng faol qo‘llanilmoqda, chunki ular ta’lim standartlariga mos ravishda o‘quv jarayonini optimallashtiradi va o‘quvchilarda kompleks fikrlashni rivojlantiradi.

Integratsiyaning pedagogik va psixologik asoslari. Integratsion yondashuvning samaradorligi uning mustahkam ilmiy asoslariga bog‘liq. Pedagogik jihatdan integratsiya ta’lim jarayonini yaxlitlashtirib, o‘quvchida dunyoning uzviy tasavvurini shakllantiradi. O‘zbekiston olimlari (masalan, Mavlyanova R.) ta’kidlaganidek, integratsiya ta’lim sifatini oshiradi, chunki u bilimlarni parchalanib ketishdan saqlaydi va ularni real muammolar bilan bog‘laydi. Pedagogik jarayonda integratsiya motivatsiyani kuchaytiradi: o‘quvchilar fanlarni alohida emas, balki bir-biriga bog‘langan holda o‘rganib, qiziqish va faollikni oshiradi. Psixologik asoslari jihatdan integratsiya o‘quvchining kognitiv jarayonlariga (fikrlash, xotira, diqqat) ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo bog‘lanish orqali bilimlar uzoq muddatli esda qoladi, chunki o‘quvchi yangi ma’lumotlarni avvalgi bilimlar bilan assotsiatsiya qiladi. Bu Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi va Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi tamoyillariga mos keladi: integratsiya o‘quvchiga murakkab muammolarni hal qilishda yordam berib, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Texnologiya fanida bu asoslar ayniqsa muhim: texnologik jarayonlar tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan bog‘langanda, o‘quvchi nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki analitik va ijodiy fikrlashni ham egallaydi. Natijada, integratsiya shaxsni yaxlit rivojlantirishga xizmat qiladi va XXI asr kompetensiyalarini (muammo hal qilish, innovatsionlik, jamoaviy ish) shakllantiradi.

Texnologiya fanida integratsion yondashuvning xususiyatlari. Texnologiya fani integratsion yondashuv uchun eng mos fanlardan biri hisoblanadi, chunki u amaliy va fanlararo xususiyatga ega. O‘zbekiston ta’lim dasturlarida (masalan, JDPU va BuxDU materiallarida) texnologiya fani "tabiat- inson-jamiyat" munosabatlari doirasida ko‘rib chiqiladi va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi.

Amaliy yo‘naltirilganlik: Texnologiya darslari loyiha va modellashtirish orqali o‘tkaziladi, bu esa matematika, fizika, biologiya va san’at elementlarini tabiiy ravishda integratsiya qiladi.

Fanlararo aloqadorlikning kuchliligi: Texnologiya fani boshqa fanlarni "integratsion mexanizm" sifatida birlashtiradi. Masalan, ekologik loyihalarda biologiya va kimyo, robototexnikada esa matematika va fizika qo‘llaniladi.

Bosqichma-bosqich rivojlanish: Boshlang‘ich sinflarda oddiy modellar va hunarmandchilik orqali integratsiya boshlanadi, o‘rta sinflarda murakkab loyihalar (masalan, STEAM elementlari bilan) chuqurlashadi.

Innovatsion va kompetensiyaga yo‘naltirilganlik: Integratsiya orqali o‘quvchilar muammo hal qilish, ijodiy fikrlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallaydi, bu XXI asr ta’lim talablariga mos keladi.

Texnologiya fanida integratsion yondashuv o‘quv jarayonini nafaqat nazariy, balki real hayotga yaqinlashtirib, o‘quvchilarni innovatsion jamiyatga tayyorlaydi.

Xulosa. Texnologiya fanida integratsion yondashuv zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quv jarayonini yaxlitlashtirish, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish va o‘quvchilarda kompleks fikrlash, muammo hal qilish hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv texnologiya fanini matematika, fizika, biologiya, ekologiya va san’at kabi fanlar bilan uzviy bog‘lab, o‘quvchilarni real hayot muammolariga yechim topishga o‘rgatadi. Texnologiya fanida integratsiya amaliy yo‘naltirilganlik, fanlararo bog‘lanishning kuchliligi va bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lib, “tabiat – inson –jamiyat” munosabatlari

doirasida amalga oshiriladi. Zamonaviy sharoitda bu yondashuvning eng samarali ko‘rinishi STEAM tamoyillariga asoslangan ta’lim hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida, xususan Prezident maktablarida va innovatsion loyihalarda STEAM elementlari joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlyanova R., Raxmankulova N. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2013. – 240 b.

2. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2009.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA ILMIY-TADQIQOTGA ASOSLANGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Raximova Madina Xasanovna,
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda loyiha asosida ta’lim, muammoli ta’lim, tadqiqotga yo‘naltirilgan raqamli topshiriqlar kabi pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lajak pedagoglarning axborotni izlash, tahlil qilish, raqamli vositalardan samarali foydalanish hamda mustaqil ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Tajriba-sinov natijalari ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli kompetensiya, ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim, bo‘lajak pedagog, raqamli ta’lim texnologiyalari, tadqiqot faoliyati, pedagogik innovatsiyalar, kasbiy kompetensiya, oliy pedagogik ta’lim.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli kompetensiya pedagogning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi, raqamli ta’lim resurslarini pedagogik jarayonga integratsiya qilishi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini zamonaviy raqamli vositalar asosida tashkil eta olish qobiliyatini ifodalaydi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida an’anaviy o‘qitish usullarining ustuvorligi bo‘lajak pedagoglarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu bois, ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish orqali talabalarning bilish faolligini oshirish, ularni ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish hamda raqamli kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarda muammoli vaziyatlarni aniqlash, axborotni izlash va tahlil qilish, ilmiy xulosalar

chiqarish hamda raqamli muhitda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning innovatsion faoliyatga tayyorligini ta’minlash va zamonaviy ta’lim muhitiga moslashuvchanligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarining rolini o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, mazkur maqolada ushbu masala chuqur tahlil etiladi.

Asosiy qism. *1. Bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.* Raqamli kompetensiya zamonaviy pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning axborotni izlash, qayta ishlash, baholash va undan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Bo‘lajak pedagoglar uchun raqamli kompetensiya nafaqat texnik ko‘nikmalar majmui, balki raqamli muhitda ta’lim jarayonini loyihalash, boshqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiya quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: axborot-kommunikatsion kompetensiya, raqamli pedagogik kompetensiya, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi va raqamli madaniyat hamda etikaga oid kompetensiyalar. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishi pedagogning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

2. Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati. Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil izlanish olib borish va muammoli vaziyatlarni ilmiy asosda hal etishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlarini o‘zida mujassam etadi. Ushbu texnologiyalar talabaning passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchi-subyektga aylanishini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv doirasida loyiha asosida ta’lim, muammoli o‘qitish, case-study, tadqiqot topshiriqlari va raqamli loyihalar kabi metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar bo‘lajak pedagoglarda ilmiy tafakkur, tahliliy yondashuv va innovatsion fikrlashni rivojlantirish bilan birga, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

3. Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarining raqamli kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli. Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida talabalar raqamli ta’lim platformalari, elektron ma’lumotlar bazalari, ilmiy qidiruv tizimlari va raqamli taqdimot vositalaridan foydalanishga majbur bo‘ladilar. Bu esa ularning raqamli savodxonligini oshirish bilan birga, axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida talabalar mustaqil ravishda muammo qo‘yish, ilmiy faraz ilgari surish, ma’lumot to‘plash va natijalarni raqamli vositalar orqali tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini real pedagogik vazifalar asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Tajriba-sinov jarayonida ilmiy-tadqiqotga asoslangan yondashuvning samaradorligi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Tajriba jarayonida talabalar o‘rtasida axborotni izlash va tahlil qilish, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishning ortgani kuzatildi. Nazorat va tajriba

guruhlari natijalarining taqqoslanishi ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarining an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ustunligini tasdiqladi. Ayniqsa, tajriba guruhidagi talabalar raqamli pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish va innovatsion yechimlar ishlab chiqishda yuqori natijalarga erishdilar.

5. Pedagogik amaliyotda tadqiqotga asoslangan yondashuvni joriy etish imkoniyatlari. Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga joriy etish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ta’lim jarayonining sifatini ham yaxshilaydi. Ushbu yondashuv pedagoglarni uzluksiz o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va raqamli innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni joriy etishda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, raqamli infratuzilma va ta’lim resurslarining yetarli darajada ta’minlanganligi muhim omil hisoblanadi. Bu omillarni hisobga olgan holda ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarini tizimli ravishda joriy etish bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni samarali shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jihatdan samarali va dolzarb hisoblanadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy izlanish olib borish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga joriy etilishi natijasida talabalar raqamli ta’lim resurslari, elektron ma’lumotlar bazalari va zamonaviy axborot platformalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini yuksaltirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, tajriba-sinov natijalari ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi, ularni ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishi va raqamli kompetensiyalarni kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Ushbu yondashuv an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan tizimli va maqsadli foydalanish oliy pedagogik ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim amaliyotini takomillashtirish hamda raqamli ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva M. Pedagogik innovatsiyalar va raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

2. To‘raqulov X. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

3. Saidov U. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonini loyihalash. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.

4. Usmonov B. Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

ONA TILI DARSLARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
Jumaboyeva Munisa Madrahim qizi;
Xalillayeva Sarvinoz Alisher qizi,
Chirchiq DPU Bjshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotasiya. *Mazkur maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Maqolada matn yaratish, uslubiy xatolarni tuzatish va lug‘at boyligini oshirishda AI modellarining o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *qayta aloqa, formativ baholash, fikr-mulohaza, monitoring, refleksiya, o‘quvchi faolligi, motivatsiya, pedagogik texnologiya, baholash mezonlari.*

Ona tili ta’limining bosh maqsadi – o‘quvchida o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ravon, mantiqiy va savodli bayon etish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Biroq, bugungi raqamli avlod o‘quvchilari uchun an’anaviy usullar bilan matn yozish (insho, bayon) birmuncha murakkablik tug‘dirmoqda. Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining paydo bo‘lishi ushbu muammoni bartaraf etishda yangi vosita bo‘lib xizmat qiladi. AI nafaqat matn yaratuvchi, balki o‘quvchining yozma nutqidagi uslubiy va mantiqiy xatolarni tahlil qiluvchi innovatsion o‘qituvchi assistentiga aylanmoqda.

Yozma nutqni rivojlantirishda generativ sun’iy intellektning nazariy asoslari. Yozma nutqni rivojlantirishda generativ sun’iy intellektning nazariy asoslari zamonaviy tilshunoslik, psixolingvistika va kognitiv pedagogika tutashgan nuqtada namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonning fundamental asosi sifatida katta til modellari (Large Language Models – LLM) xizmat qiladi, ular inson tilining statistik va ierarxik tuzilishini neyron tarmoqlar yordamida modellashtiradi. Nazariy jihatdan, generativ sun’iy intellekt distributiv semantika tamoyiliga tayanadi, ya’ni so‘zlarning ma’nosi va ularning matndagi o‘rni atrofidagi kontekst orqali aniqlanadi. Bu o‘quvchi uchun til birliklarining o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini tushunishda intellektual laboratoriya vazifasini o‘taydi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan, sun’iy intellekt yordamida yozma nutqni shakllantirish Lev Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga mos keladi. Bunda AI o‘quvchiga "scaffolding" (vaqtinchalik tayanch) vazifasini bajarib, uning mustaqil ravishda amalga oshirolmaydigan murakkab lingvistik vazifalarini, masalan, matnning mantiqiy rejasini tuzish yoki uslubiy rang-baranglikni ta’minlashni osonlashtiradi. O‘quvchi AI bilan muloqot qilish (prompt engineering) jarayonida o‘z fikrini aniq shakllantirish, maqsadli auditoriyani his qilish va matnning pragmatik xususiyatlarini belgilash kabi murakkab kognitiv jarayonlarni boshidan kechiradi. Bu esa yozma nutqning nafaqat tashqi (grammatik), balki ichki (semantik) izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv pedagogika nuqtai nazaridan, generativ sun’iy intellekt o‘quvchining "metakognitiv" qobiliyatlarini, ya’ni o‘zining fikrlash va yozish jarayonini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. AI taqdim etgan matn variantlarini tahlil qilish, ulardagi xatolarni topish yoki uslubiy jihatdan takomillashtirish o‘quvchini passiv ijrochidan faol

muharrirga aylantiradi. Bu jarayon matnning "koheziya" (grammatik bog‘liqlik) va "koherentlik" (mazmuniy yaxlitlik) mezonlarini nazariy jihatdan chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellektning matnni bir uslubdan boshqasiga (masalan, ilmiydan badiiyga) transformatsiya qilish qobiliyati o‘quvchida stilistik sezgirlikni va tilning ekspressiv imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirish masalasini sun’iy intellekt imkoniyatlari prizmasidan tahlil qilar ekanmiz, shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu texnologiya ta’lim tizimidagi shunchaki navbatdagi vosita emas, balki o‘quvchi va o‘qituvchi uchun intellektual hamkordir. Tadqiqotimiz davomida ko‘rib chiqqanimizdek, generativ sun’iy intellekt o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. U o‘quvchini tayyor qoliplardan foydalanishga emas, balki o‘z fikrini aniqroq shakllantirishga, so‘z boyligini boyitishga va eng muhimi, o‘z yozgan matniga tanqidiy nazar bilan qarashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori.

2. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2006.

3. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. (Rus tilidan tarjima). – Toshkent: Fan, 1995.

INTERAKTIV DOSKA YORDAMIDA GAP BO‘LAKLARINI TAHLIL QILISH METODIKASI

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Mardiboyeva Madina Komil qizi;
Axtamova Dildora Obid qizi,
Sharifboyeva Munisa Qahramon qizi,
Chirchiq DPU Bjshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida samarali tashkil etishda interaktiv doskadan foydalanish orqali gap bo‘laklarini tahlil qilish metodikasi yoritilgan. Unda gap bo‘laklarini o‘rgatishning didaktiv ahamiyati, interaktiv doskaning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari hamda uni amaliyotda qo‘llash bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, ranglar, harakatlanuvchi mashqlar, interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, nutqiy savodxonligi va darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Maqola ona tili fanidan dars beruvchi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *interaktiv doska, gap bo‘laklari, ona tili, sintaktik tahlil, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, dars jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish jarayonida grammatik tushunchalarni, xususan, gap bo‘laklarini tahlil qilish o‘quvchilardan muayyan darajadagi abstrakt fikrlashni talab etadi. Shu sababli ushbu mavzuni an’anaviy usullarda tushuntirish ayrim hollarda o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Interaktiv doska esa mazkur muammoni bartaraf etish, darsni ko‘rgazmali, jonli va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda interaktiv doskadan foydalangan holda gap bo‘laklarini tahlil qilish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi.

1. Gap va gap bo‘laklari tushunchasi. Gap – fikrni ifodalovchi eng kichik sintaktik birlik bo‘lib, u ma’lum mazmun va grammatik tuzilishga ega bo‘ladi. Gap tarkibidagi har bir so‘z yoki so‘z birikmasi o‘z vazifasiga ko‘ra ma’lum bir gap bo‘lagi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda quyidagi gap bo‘laklari o‘rgatiladi: Ega. Kesim. To‘ldiruvchi. Aniqlovchi. Hol.

Gap bo‘laklarini o‘rganishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Gap bo‘laklarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda: 1. Grammatik tafakkur. 2. Mantiqiy fikrlash. 3. Kuzatuvchilik. 4. Nutq madaniyati shakllanadi. Shuningdek, mazkur mavzu o‘quvchilarda tartiblilik, aniqlik va mas’uliyat kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

Interaktiv doska – bu kompyuter va proyektor bilan bog‘langan zamonaviy texnik vosita bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bevosita hamkorlikni ta’minlaydi. U yordamida matn, rasm, video, audio va animatsiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Interaktiv doskaning didaktik imkoniyatlari. Interaktiv doska quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega: 1. Ko‘rgazmalilikni kuchaytiradi. 2. O‘quvchini faol subyektga aylantiradi. 3. Mustaqil fiklashni rivojlantiradi. 4. Dars samaradorligini oshiradi. 5. Tezkor baholash imkonini yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda gap bo‘laklarini o‘rgatishda interaktiv doskadan foydalanish darsni aniq reja asosida, ketma-ket bosqichlarda tashkil etishni talab etadi. Har bir bosqich o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mos holda amalga oshiriladi.

1. Tayyorlov bosqichi. Mazkur bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni yangi mavzuni o‘zlashtirishga ruhiy va bilim jihatdan tayyorlaydi. Interaktiv doskada dars mavzusi, maqsadi va kutilayotgan natijalar ko‘rsatiladi. O‘tilgan mavzularni takrorlash uchun qisqa savollar, rasmli topshiriqlar yoki mini-testlardan foydalaniladi. Masalan, doskada sodda gap berilib, o‘quvchilardan uning mazmunini tushuntirish so‘raladi. Bu jarayon o‘quvchilarning e’tiborini jamlashga va yangi mavzuga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

2. Asosiy (tahlil) bosqichi. Asosiy bosqichda gap bo‘laklarini tahlil qilish ishlari bevosita amalga oshiriladi. Interaktiv doskada sodda va tushunarli gap namoyish etiladi: Bolalar bog‘da quvnoq o‘ynashdi. O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar quyidagi ishlarni bajaradilar: 1. Gapdagi asosiy mazmunni aniqlaydilar. 2. Savollar yordamida egani topadilar. 3. Kesimni aniqlash, uning gapdagi vazifasini tushuntiradilar. 4. Ikkinchi darajali gap bo‘laklarini belgilaydilar.

Interaktiv doskaning ranglar bilan ishlash imkoniyati orqali ega, kesim va boshqa bo‘laklar turli ranglarda ajratiladi. Bu esa o‘quvchilarning ko‘rish orqali tez va oson tushunishiga yordam beradi.

3. Mustahkamlash bosqichi. Mustahkamlash bosqichida o‘quvchilarning olgan bilimlari interaktiv mashqlar orqali mustahkamlanadi. Interaktiv doskada quyidagi topshiriqlar tashkil etiladi: so‘zlarni tegishli gap bo‘lagiga moslab joylashtirish; berilgan gaplarda faqat egani yoki kesimni topish; bo‘sh joylarni to‘ldirish orqali gap tuzish;

jamoa bo‘lib bajariladigan o‘yinli mashqlar. Bu mashqlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni dars jarayoniga faol jalb etadi.

4. Baholash va yakunlash bosqichi. Baholash bosqichida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari interaktiv testlar yoki amaliy topshiriqlar orqali aniqlanadi. Natijalar darhol doskada aks ettiriladi. O‘qituvchi xatolarni ko‘rsatib, ularni tuzatish yo‘llarini tushuntiradi. Dars yakunida mavzu bo‘yicha qisqa xulosa qilinadi va uyga vazifa beriladi. Interaktiv doska yordamida bajariladigan amaliy mashqlar tizimi interaktiv doska asosida tashkil etilgan amaliy mashqlar tizimi o‘quvchilarning gap bo‘laklarini chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ushbu mashqlar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘ladi:

“Gap bo‘lagini top” mashqi – berilgan gapdan ma’lum bo‘lakni aniqlash.

“Rang bilan ajrat” topshirig‘i – gap bo‘laklarini ranglar orqali farqlash.

“Savol ber” usuli – so‘zga mos savol qo‘yish orqali uning vazifasini aniqlash.

“Xatoni top” mashqi – noto‘g‘ri belgilangan gap bo‘laklarini tuzatish.

Mazkur mashqlar o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, kuzatuvchanlik va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interaktiv doskadan foydalanishda quyidagi metodik yondashuvlarga amal qilish lozim: har bir topshiriq aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi; mashqlar o‘quvchi yoshiga mos va tushunarli bo‘lishi; texnik vositalar dars mazmuniga xizmat qilishi; o‘yin elementlari me’yorida qo‘llanishi. To‘g‘ri metodik yondashuv interaktiv doskaning ta’limiy samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, interaktiv doska yordamida gap bo‘laklarini tahlil qilish metodikasini to‘g‘ri va maqsadli tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining grammatik bilimlarini mustahkamlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ona tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, interaktiv doska yordamida gap bo‘laklarini tahlil qilish metodikasi o‘quvchilarning grammatik bilimlarini puxta egallashiga, sintaktik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishga va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interaktiv doskadan foydalanish dars jarayonida ko‘rgazmalilikni kuchaytiradi, o‘quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularning darsga bo‘lgan qiziqishini yanada mustahkamlaydi. Ranglar, harakatlanuvchi mashqlar, interaktiv topshiriqlar orqali gap bo‘laklarini o‘rganish o‘quvchilarning bilimni tez va oson o‘zlashtirishiga imkon yaratadi. Shuningdek, interaktiv doska asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda nutqiy savodxonlikni oshirish, fikrni aniq va ravon ifodalash, grammatik bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunda o‘qituvchining metodik mahorati, darsni to‘g‘ri rejalashtirishi va interaktiv vositalardan oqilona foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, interaktiv doska yordamida gap bo‘laklarini tahlil qilish metodikasi boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga keng joriy etilishi zarur bo‘lgan samarali metodlardan biri bo‘lib, u ona tili darslarining mazmuni va sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim maktablari uchun ona tili fanidan davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

2. Po‘lat E.S., Buxarkina M.Yu. Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Moskva, 2012.

3. To‘raev B.X. Zamonaviy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Istiqlol, 2019.

ONA TILI DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA INTERAKTIV MASHQLARNI ISHLAB CHIQISH METODIKASI

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Erboyeva Shahzoda Eldor qizi;
Qozoqboyeva Iroda Nurulla qizi,
Chirchiq DPU Bjshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ona tili darslarida sun’iy intellekt (SI) texnalogiyalariga asoslangan interaktiv mashqlarni ishlab chiqish va qo‘llash metodikasi yoritilgan. Tadqiqotlarda sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari, o‘quvchilarning nutqiy va grammatik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, interaktiv mashqlarni loyihalash bosqichlari tahlil qilinadi. Maqola umumta’lim maktablari, xususan, boshlang‘ich va o‘rta sinf ona tili o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalarini o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ona tili ta’limi, interaktiv mashqlar, metodika, raqamli pedagogika, til kompetensiyasi.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimining rivojlanishi bevosita raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Raqamlashtirish jarayonlari ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasida adaptiv o‘qitish, avtomatik baholash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish kabi imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Ona tili darslari o‘quvchilarning nutqiy madaniyati, grammatik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy o‘qitish usullarida mashqlar ko‘pincha bir xil shaklda bo‘lib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olmaydi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv mashqlar esa o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o‘quv jarayonini individuallashtirish, motivatsiyani oshirish va o‘qitish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

1. Sun’iy intellekt asosida interaktiv mashqlarning didaktik imkoniyatlari. Sun’iy intellekt asosidagi interaktiv mashqlar ta’lim jarayonida bir qator muhim didaktik vazifalarni bajaradi. *Avvalo,* bunday mashqlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Chunki interaktiv muhit o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadi, passiv tinglovchi rolidan chiqaradi. O‘quvchi berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida darhol natijani ko‘rishi, xatolarini anglab yetishi va ularni tuzatishi mumkin.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashqlarni moslashtirish imkonini beradi. Masalan, grammatik qoidalarni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchiga murakkabroq topshiriqlar, qiynalayotgan o‘quvchiga esa soddaroq mashqlar taklif etiladi. Bu jarayon adaptiv ta’lim modeliga asoslanadi va har bir o‘quvchining rivojlanish sur’atini inobatga oladi.

Uchinchidan, interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllanadi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quvchining xatolarini avtomatik aniqlab, ularni tahlil qiladi va izohlab beradi. Natijada o‘quvchi o‘z bilimini

mustaqil ravishda to‘g‘rilashga o‘rganadi. Bu esa metakognitiv ko‘nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Interaktiv mashqlarni ishlab chiqishning metodik asoslari. Sun’iy intellekt asosida interaktiv mashqlarni ishlab chiqishda quyidagi metodik tamoyillarga amal qilish muhim hisoblanadi: 1. *Maqsadlilik tamoyili.* Har bir mashq aniq o‘quv maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, ot va sifatlarni farqlash, gap bo‘laklarini aniqlash yoki imlo qoidalarini mustahkamlash kabi. 2. *Izchillik va tizimlilik.* Mashqlar osondan murakkabga qarab tuzilishi, avvalgi bilimlar asosida yangi bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur. Bu tamoyil didaktik izchillikni ta’minlaydi. 3. *Individuallashtirish.* Sun’iy intellekt imkoniyatlari asosida mashqlar o‘quvchining bilim darajasiga moslashtiriladi. Bu o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonida ortda qolib ketmasligini ta’minlaydi. 4. *Faollik va refleksiya.* Mashqlar o‘quvchini faol fikrlashga undashi, bajarilgan ish yuzasidan refleksiya qilish imkonini berishi kerak. Refleksiya orqali o‘quvchi o‘z bilim darajasini baholaydi va keyingi faoliyatini rejalashtiradi.

3. Ona tili darslari uchun sun’iy intellekt asosidagi mashqlar turlari. Ona tili darslarida sun’iy intellekt asosida yaratiladigan interaktiv mashqlar quyidagi yo‘nalishlarda samarali bo‘lishi mumkin: 1. *So‘z va gap tuzish mashqlari.* Berilgan so‘zlardan mazmunli gap tuzish yoki matn yaratish orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi rivojlantiriladi. 2. *Grammatik xatolarni aniqlash.* Matnda berilgan xatolarni topish va to‘g‘rilash mashqlari o‘quvchilarning grammatik savodxonligini oshiradi. 3. *Sinonim va antonimlarni aniqlash.* Bu turdagi mashqlar so‘z boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. 4. *Gap bo‘laklarini tahlil qilish.* Gapdagi ega, kesim, to‘ldiruvchi kabi bo‘laklarni aniqlash orqali sintaktik bilimlar mustahkamlanadi. 5. *Matnni mantiqiy davom ettirish.* O‘quvchi berilgan matnni mantiqan davom ettiradi, sun’iy intellekt esa uning javobini tahlil qilib, baholaydi.

Sun’iy intellektning asosiy ustunligi shundaki, u o‘quvchi javobiga tezkor va aniq fikr-mulohaza (feedback) beradi. Bu esa o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.

4. Interaktiv mashqlarni qo‘llash bosqichlari. Interaktiv mashqlarni ona tili darslarida qo‘llash quyidagi metodik bosqichlar asosida amalga oshiriladi: 1. *Dars maqsadini aniqlash.* O‘qituvchi darsning asosiy maqsadini belgilaydi. 2. *Mos mashqni tanlash yoki yaratish.* Maqsadga mos interaktiv mashq tanlanadi yoki ishlab chiqiladi. 3. *Mashqni bajarish jarayonida yo‘naltirish.* O‘qituvchi o‘quvchilarga maslahat va ko‘rsatmalar beradi. 4. *Natijalarni tahlil qilish va baholash.* Sun’iy intellekt tomonidan berilgan tahlil natijalari muhokama qilinadi. 5. *Mustahkamlash.* Olingan bilimlar qo‘shimcha topshiriqlar orqali mustahkamlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida sun’iy intellekt asosida interaktiv mashqlarni ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, grammatik bilimlarni ongli o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash hamda ijodiy tafakkurni shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimini mustaqil tekshirish, xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan mashqlar ta’lim jarayonida individuallashtirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish sur’atlari hisobga olinib, mashqlar murakkabligi moslashtiriladi. Bu esa o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini oshirish, dars jarayonida faollikni kuchaytirish hamda motivatsiyani barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilari uchun bunday adaptiv

mashqlar ularning psixologik xususiyatlariga mos kelib, ta’lim jarayonini qulay va tushunarli qiladi.

Mazkur metodikaning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yengillashtiradi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar orqali baholash, xatolarni aniqlash va tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Natijada o‘qituvchi ko‘proq didaktik rejalashtirish, individual yondashuvni ta’minlash va ijodiy mashg‘ulotlarni tashkil etishga e’tibor qaratishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish o‘qituvchining metodik savodxonligini oshirib, uni zamonaviy pedagogik kompetensiyalar bilan boyitadi.Kelgusida ona tili darslari uchun sun’iy intellekt asosidagi interaktiv mashqlarni milliy ta’lim standartlariga moslashtirish, o‘zbek tilining lingvistik xususiyatlarini chuqur hisobga olgan adaptiv platformalarni yaratish hamda o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi va raqamli pedagogika rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. Abduqodirov A.A., Begimqulov U.Sh. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. G‘afforova T.Q. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Qo‘ldosheva Marjona Shuhrat qizi,
Chirchiq DPU Bjshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘qituvchilarning darsga qiziqishining pastligi, nutq ko‘nikmalarining sust rivojlanishi hamda individual yondashuvning yetishmasligi kabi dolzarb muammolar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etishda interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari va differensial ta’lim yondashuvlarining samaradorligi asoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ona tili, innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar, savodxonlik, nutq rivoji, differensial ta’lim.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarida ona tiliga bo‘lgan munosabat, savodxonlik va nutq madaniyatining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Aynan shu bosqichda berilgan ta’lim keying sinflardagi o‘qish jarayonining poydevorini yaratadi. Shu sababli ona tili fanini o‘qitishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ona tili fanini o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ularnining sabablarini tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida boshlang‘ich

ta’limda ona tili darslarida uchraydigan asosiy muammolar va ularni innovatsion yondashuvlar orqali hal etish yo‘llari yoritib berildi.

Asosiy muammo va ularning yechimlari:

1-muammo: O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishining pastligi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh jihatidan tez chalg‘uvchan bo‘lib, uzoq vaqt davomida bir xil faoliyat bilan shug‘ullanishda qiynaladilar. Agar dars faqat og‘zaki tushuntirish va yozma mashqlar bilan cheklansa, o‘quvchilarda zerikish holati yuzaga keladi. Natijada dars samaradorligi pasayadi va bilimlar yuzaki o‘zlashtiriladi. Bu muammo o‘quchilarning faolligining pasayishiga, dars jarayonida ishtirok etmasligiga va ona tiliga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib keladi. Ayniqsa, savod o‘rgatish jarayonida bu holat salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yechim: Dars jarayonida o‘yinli texnologiyalar, musobaqalar, rasm va kartochkalar asosidagi mashqlarni qo‘llash lozim. Masalan, so‘z topish, gap tuzish, rolli o‘yinlar orqali o‘rganilgan mavzular mustahkamlanadi. Bu usullar o‘quvchilarning diqqatini jamlaydi va darsni qiziqarli qiladi.

2-muammo: Og‘zaki va yozma nutqning yetarli darajada rivojlanmasligi. Ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma shaklda to‘liq ifodalashda qiynaladilar. Buning asosiy sababi- darslarda nazariy qoidalarga ko‘proq e’tibor qaratilib, amaliy nutq mashqlariga kam vaqt ajratilishidir. Natijada o‘quvchilar gap tuzishda xatolarga yo‘l qo‘yadi, matn mazmunini tushunishda qiyinchilikka duch keladi va fikrini izchil bayon qila olmaydi. Bu holat keyingi sinflarda ham saqlanib qolishi mumkin.

Yechim: Rasm asosida hikoya tuzish, matnni davom ettirish, kichik insho yozish va og‘zaki suhbatlar tashil etish muhim ahamiyatga ega. Guruhli va juftlikda ishlah orqali o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rganadilar. Bu esa nutq rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3-muammo: Individual yondashuvning yetishmasligi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning bilim darajasi va qobiliyati bir xil bo‘lmaydi. Ayrim o‘quvchilar mavzuni tez o‘zlashtirsa, boshqalar qo‘shimcha tushuntirishga muhtoj bo‘ladi. Barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq berilishi ayrimlar uchun qiyin, boshqalar uchun esa oson bo‘lib qoladi. Bu holat o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yechim: Differensial ta’lim yondashuvi asosida darajali topshiriqlar berish samarali hisoblanadi. Kuchli o‘quvchilar uchun murakkabroq ijodiy vazifalar, sustroq o‘quvchilar uchun esa soddalashtirilgan mashqlar taqdim etilishi lozim. Bu usul har bir o‘quvchining imkoniyatini inobatga olishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlangvich ta’limda ona tili fanini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari va individual yondashuv orqali o‘quvchilarning savodxonligi, nutq madaniyati va mustaqil fikrlash qobilyati rivojlanadi. Bu esa barkamol va bilimli yosh avlodni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavliyanov A. O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Tafakkur bo‘stoni nashryoti. Toshkent, 2013

2. Xaydarov B., Nuriddinov B.S., Xayitboyev K.B. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent. ADB.2002 –yil

3. Raximov O.D., Saparov M.S., Nazarov B.F. Zamonaviy ma’ruzalar.\ Pedagoglar uchun qo‘llanma. Qarshi, 2012-yil

ONA TILI DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Tajibayeva Sanobar Gapurjan qizi,
Chirchiq DPU Bjshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan keng yoritiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yosh va psixologik xususiyatlari, ona tili talimining mazmun-mohiyati hamda zamonaviy raqamli muhit sharoitida sun’iy intellektning o‘rni tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning savod o‘rgatish, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish, individual ta’limni tashkil etish va baholash jarayonini takomillashtirishdagi imkoniyatlar yoritilgan. Shu bilan birga, undan noto‘gri foydalanish oqibatlari, o‘qituvchi nazoratining muhimligi va sun’iy intellekting yordamchi vosita sifatidagi roli ilmiy xulosalar asosida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ona tili darsi, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, savodxonlik, og‘zaki nutq, yozma nutq, individual ta’lim, baholash jarayoni, pedagogik innovatsiya, ta’lim samaradorligi, o‘qituvchi nazorati.*

Boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda savodxonlik, nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Ona tili darslari esa bu jarayonning markazida turadi, chunki til – tafakkur va muloqot vositasi sifatida barcha fanlarni o‘zlashtirishning asosiy omilidir. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini samarali tashkil etish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biridir. An’anaviy yondashuvda ona tili darslari ko‘proq o‘qituvchi markazli shaklda olib boriladi. O‘qish, yozish, diktant, matn ustida ishlash, grammatik tahlil kabi metodlar orqali o‘quvchilarda zarur bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Biroq sinfdagi o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati va qiziqishlari turlicha bo‘lgani sababli bir xil metodlar har doim ham yuqori natija bermaydi. Ba’zi o‘quvchilar tez o‘zlashtirsa, boshqalari qo‘shimcha tushuntirish va mashq talab qiladi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy texnologiyalar, xususan Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt — ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va muayyan vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo‘lgan dasturiy tizimdir. Ta’lim sohasida u o‘quv jarayonini individuallashtirish, interaktivlikni oshirish va nazoratni takomillashtirish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh jihatdan ko‘rgazmalilik va o‘yin elementlariga moyil bo‘lganligi sababli, Sun’iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar ularning darsga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Savod o‘rgatish jarayonida sun’iy intellekt asosidagi dasturlar harflarni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘inlab o‘qish, so‘z tuzish va yozish mashqlarini qiziqarli shaklda tashkil etishga yordam beradi. Masalan, tovushni aniqlash yoki so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bo‘yicha audio-tahlil imkoniyati o‘quvchining nutqini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu ayniqsa 1–2-sinflarda muhim ahamiyatga ega. Yozma nutqni rivojlantirishda ham sun’iy intellekt samarali vosita bo‘la

oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kichik matn tuzishda ko‘pincha imloviy va grammatik xatolarga yo‘l qo‘yadi. Sun’iy intellekt asosidagi tekshiruv tizimlari xatolarni ko‘rsatib, oddiy izoh berishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchining o‘z xatosini tushunib, uni mustaqil tuzatish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa metakognitiv kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Og‘zaki nutqni rivojlantirishda nutqni aniqlovchi texnologiyalar o‘qish tezligi, talaffuz aniqligi va ohangni baholash imkonini beradi. Natijada o‘qituvchi har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishi va individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni taklif etish orqali differensial ta’limni ta’minlaydi. Baholash jarayonida sun’iy intellektning o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Avtomatlashtirilgan test tizimlari natijalarni tez va xolis baholaydi, statistik tahlilni amalga oshiradi hamda o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlaydi. Bu esa o‘qituvchining vaqtini tejab, pedagogik faoliyatni samarali rejalashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli va oqilona foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning savodxonlik va nutq kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi. Biroq pedagogik nazorat, metodik asos va me’yoriy qo‘llash talablari ta’minlangandagina sun’iy intellekt kutilgan natijani beradi. Zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan oqilona foydalanish boshlang‘ich sinf ona tili darslarini innovatsion bosqichga olib chiqishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kasimova M.A. Sun’iy intellekt orqali xorijiy til o‘qitishda raqamli texnologiyalar va SI vositalaridan foydalanish. Toshkent, “Innovatsiya” nashriyoti, 2023. – 180 b.

2. Ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti: Uzviylashtitilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19

3. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: Ilm Ziyo, 2010. – 223 b.

4. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016. 24-b.

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA EKOKOMPETENTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna,
Chirchiq DPU, “Biologiya” kafedrasi, dosent, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi platformalarning o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning ekologik tafakkuri, tahliliy fikrlashi va ekologik muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik kompetentlik, sun’iy intellekt, biologiya ta’limi, raqamli texnologiyalar, ekologik madaniyat, pedagogik texnologiyalar, virtual laboratoriya.*

Kirish. Bugungi kunda global ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, suv resurslarining tanqisligi, tuproq degradatsiyasi kabi muammolarni hal etishda ekologik bilimga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega [2, 4]. Shu sababli ekologik ta’limni rivojlantirish hamda bo‘lajak pedagoglarni ekologik kompetensiyalar bilan qurollantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir [1].

Biologiya fani ekologik bilimlarni shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ularning ekologik kompetentligi yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi zarur [2]. So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi o‘qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish, ekologik monitoringni tashkil etish, o‘simlik va hayvonot dunyosini aniqlash kabi imkoniyatlarni yaratadi [3]. Bu esa biologiya ta’limida innovatsion metodlarni qo‘llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: 1) ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; 2) taqqoslash va umumlashtirish metodlari; 3) pedagogik kuzatish; 4) tajriba-sinov ishlari.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari, mobil ilovalar hamda virtual laboratoriyalarning ekologik ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari o‘rganildi [5].

Ekokompetentlik tushunchasi va uning biologiya ta’limidagi o‘rni. Ekokompetentlik – bu shaxsning ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlar asosida tabiatga ongli munosabatda bo‘lishi hamda ekologik muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish qobiliyatidir [4]. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekokompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1. ***Ekologik bilimlar*** – ekologiya va biologiya fanlari asosidagi ilmiy bilimlar. 2. ***Ekologik tafakkur*** – ekologik jarayonlarni tahlil qilish va baholash qobiliyati. 3. ***Ekologik qadriyatlar*** – tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabat. 4. ***Amaliy ekologik ko‘nikmalar*** – ekologik monitoring va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish. Biologiya ta’limida ekokompetentlikni rivojlantirish talabalarda ekologik muammolarni tushunish, ilmiy tahlil qilish va ekologik jihatdan to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi [2, 4].

Sun’iy intellekt texnologiyalarining biologiya ta’limidagi imkoniyatlari. Sun’iy intellekt texnologiyalari biologiya va ekologiya ta’limida innovatsion imkoniyatlar yaratmoqda. Ular quyidagi vazifalarni bajarishda samarali hisoblanadi: 1) ekologik ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish; 2) o‘simlik va hayvonlarni sun’iy intellekt orqali aniqlash; 3) virtual laboratoriya tajribalarini tashkil etish; 4) ekologik monitoring tizimlarini yaratish; 5) ekologik jarayonlarni modellashtirish.

Masalan, sun’iy intellekt asosidagi mobil ilovalar yordamida o‘simliklarning turini aniqlash, ularning ekologik xususiyatlarini o‘rganish va monitoring olib borish mumkin. Bu esa talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [3, 6].

Sun’iy intellekt asosida ekokompetentlikni rivojlantirish metodikasi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekokompetentlikni rivojlantirish quyidagi metodik yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: 1. Raqamli ekologik monitoring. Talabalar sun’iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida hududdagi flora va fauna holatini tahlil qilishlari mumkin [3]. 2. Virtual laboratoriyalar. Virtual laboratoriyalar ekologik tajribalarni modellashtirish hamda murakkab jarayonlarni vizual tarzda o‘rganish

imkonini beradi [5]. 3. Ekologik loyihalar. Talabalar sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqadilar. 4. Ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish. Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi ekologik ma’lumotlarni qayta ishlash va ilmiy xulosalar chiqarish mumkin [3, 6].

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan biologiya ta’limida foydalanish bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar, virtual laboratoriyalar va raqamli monitoring tizimlari ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida biologiya ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish ekologik muammolarni ilmiy asosda o‘rganish, ekologik tafakkurni rivojlantirish hamda ekologik madaniyatni shakllantirishga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi**.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Abdurahmonov A., Qodirov B. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson Education, 2021.
4. Odum E.P., Barrett G.W. Fundamentals of Ecology. – Boston, 2013.
5. Bates T. Teaching in a Digital Age. – Vancouver, 2019.
6. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. – Paris, 2021.

O‘QUV JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ro‘zimboyeva Nargiza Mirzabek qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasi, uning didaktik asoslari, pedagogik imkoniyatlari va ta’lim sifatini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, adaptiv o‘qitish, avtomatlashtirilgan baholash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, individual yondashuv, pedagogik texnologiya, innovatsiya, baholash tizimi.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida butun jahonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va unda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu yo‘nalishda mamlakatimizda ham tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmonida ta’lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini, shu jumladan sun’iy intellektni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, yurtboshimizning 2025-yil 22-

oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-189-son farmoni [2] mamlakatda sun’iy intellektni ta’lim, iqtisodiyot va davlat boshqaruviga keng joriy etishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Mazkur hujjatga ko‘ra, 2026-yilgacha kamida 100 ta sun’iy intellekt loyihalarini amalga oshirish, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt laboratoriyalarini tashkil etish va yoshlarni ushbu yo‘nalishga keng jalb etish vazifalari belgilangan.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilish zarur [4]: *Individuallashtirish tamoyili* – o‘quvchining bilim darajasi va qobiliyatiga mos ta’lim yo‘nalishini shakllantirish. *Moslashuvchanlik (adaptivlik)* – o‘quv materiallarini real vaqt rejimida moslashtirish. *Interaktivlik* – o‘quvchi va tizim o‘rtasidagi faol muloqotni ta’minlash. *Monitoring va tahlil* – o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini avtomatik kuzatish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘qitish tizimlari ta’lim samaradorligini oshiradi va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ta’lim jarayonini loyihalash: o‘quv maqsadlarini aniqlash; sun’iy intellekt vositalarini tanlash (chatbotlar, aqlli platformalar, virtual laboratoriyalar); individual o‘quv trayektoriyasini ishlab chiqish.

b) o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish: interaktiv mashg‘ulotlar (simulyatsiya, testlar, virtual muhit); nutqni tanish, tarjima va tahlil qilish vositalari (Masalan, ingliz tilini o‘qitishda Duolingo adaptiv platformasi o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlarni avtomatik ravishda taklif etadi. Shuningdek, ChatGPT yordamida o‘quvchilar uchun testlar, matnlar va muloqot mashqlari tez va samarali yaratiladi.); o‘quv materiallarini avtomatik yaratish.

c) baholash va monitoring: avtomatik testlash; aqlli baholash tizimlari; analitik hisobotlar. (Sun’iy intellekt asosida baholash o‘quvchining rivojlanishini doimiy monitoring qilish imkonini beradi.)

Sun’iy intellektning o‘quv jarayonidagi asosiy pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat [3]: - shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish; - mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish; - o‘qituvchi mehnatini yengillashtirish; - o‘quv jarayonini avtomatlashtirish; - kreativ fikrlash va muammoli vazifalarni yechish qobiliyatini oshirish.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sun’iy intellekt ta’limni individuallashtirish orqali o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va natijalarni yaxshilaydi. [3]

Metodik muammolar. Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda quyidagi muammolar mavjud: - raqamli savodxonlikning yetarli emasligi; - axborot xavfsizligi va AKT bilan ishlash madaniyati muammolari; - texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ***tavsiyalar***: 1) pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish; 2) o‘quv dasturlariga raqamli kompetensiyalarni kiritish; 3) yangi milliy ta’lim platformalarini yaratish zarur.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sun’iy intellekt asosida o‘qitish ta’limni individuallashtirish, samaradorlikni oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va pedagogik jarayonni optimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat ta’lim dasturlari asosida tizimli ravishda joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda milliy raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish ta’lim jarayonida yana bir yangi davrni boshlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-189-son farmoni.
3. Jalilova Sh.R. Sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini innovatsiyalash va uning samaradorligini yuksaltirish. Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. Vol. 3 No. 1 (2025)
4. Kunisova G.U. Sun’iy intellekt va masofaviy ta’lim. Universal Publishings. Published January 27, 2026.

BOLALARNI MUSIQA FANI ORQALI ESTETIK RUHDA TARBIYALASHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Saparboyeva Iqbol Ikrom qizi,
Olimova Zamira Mingyasharovna,
Matyoqubova Ruhshona Shuhrat qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik ta’lim muassasalarida raqamli o‘quv vositalarini musiqa ta’limi bilan integratsiyalash orqali talabalarning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar tahlil qilinadi. Jumladan, YuNESKO, Erasmus+, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, ularning mazmuni, maqsad va vazifalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli ta’lim, musiqa o‘qitish metodikasi, xalqaro hamkorlik, YuNESKO, Erasmus+, YUNISEF, interaktiv platformalar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik salohiyat, ijodiy ko‘nikmalar*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish global miqyosda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim vositalari yordamida musiqa o‘qitish metodikasini modernizatsiya qilish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. An’anaviy musiqa ta’limi yondashuvlari bugungi axborot jamiyati talablari bilan mos kelmay qolgan holatlar kuzatilmoqda. Shu sababli raqamli o‘quv muhitini shakllantirish, interaktiv platformalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish va xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish pedagogik innovatsiyalarning zaruratiga aylandi.

Dunyo miqyosida bir qator tadqiqotchilar tomonidan ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, B. Green (2020) o‘z tadqiqotida virtual musiqa laboratoriyalarining ijodiy fikrlashga ta’sirini o‘rgangan. Shuningdek, M.Bauer va L.Schmidt (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli platformalar yordamida musiqa nazariyasini o‘rgatish samaradorligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, YuNESKO va Erasmus+ doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar xalqaro hamkorlik asosida raqamli ta’limga o‘tish bo‘yicha muhim tajribani taqdim etmoqda. Ammo mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida aynan musiqa o‘qitish metodikasini raqamli ta’lim orqali takomillashtirish bo‘yicha tizimli, kompleks

yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Tadqiqotlar ko‘proq umumiy texnologik yondashuvlarga qaratilgan bo‘lib, milliy kontekst va musiqa pedagogikasiga xos xususiyatlar e’tibordan chetda qolmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ayniqsa, musiqa o‘qitish metodikasini interfaol platformalar orqali takomillashtirish jarayoni amaliyotda o‘z yechimini kutayotgan muhim masalalardan biridir.

Ushbu masala yechimini izlashda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga tayanish mumkin: 1) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri, 2020-yil); 2) 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi; 3) Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni – innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan; 4) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta’lim standarti (2023-yil); 5) Raqamli ta’lim kontsepsiyasi (2021–2025-yillar) – interfaol ta’lim platformalarini tatbiq etish bo‘yicha yo‘riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Ushbu hujjatlar asosida muammo quyidagicha shakllantiriladi: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar musiqa o‘qitish metodikasini amaliyotga yo‘naltirilgan, zamonaviy raqamli vositalar asosida egallashlari zarur. Biroq an’anaviy metodlar bilan raqamli platformalarning uyg‘unligi yetarlicha tadqiq qilinmagan, ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqotda interfaol platformalar – masalan, ClassDojo, Nearpod, Musicca kabi vositalar orqali talabalarda musiqiy savodxonlik, tinglash madaniyati, ijodkorlik va texnologik ko‘nikmalarni shakllantirishga oid ilmiy asoslangan metodika ishlab chiqish va taklif etish masalasi yechim sifatida qo‘yilgan.

Ushbu maqolada musiqa ta’limini interfaol platformalar orqali samarali tashkil etish bo‘yicha aniq yechimlar ishlab chiqish maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy-uslubiy metodlar tizimli ravishda qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy, empirik va eksperimental bosqichlari bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib olib borildi.

1. Nazariy-tahliliy yondashuv: Tadqiqotning dastlabki bosqichida maktabgacha ta’lim yo‘nalishida musiqa o‘qitish metodikasi bo‘yicha mavjud adabiyotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari, ilg‘or tajribalar hamda raqamli interfaol platformalarning ta’limdagi o‘rni haqida keng qamrovli tahlillar o‘tkazildi. Shuningdek, UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, ilg‘or xorijiy ta’lim dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining me’yoriy hujjatlari chuqur o‘rganildi.

2. Diagnostik usullar: Ilmiy izlanishning empirik bosqichida maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida sotsiologik so‘rovnoma, test sinovlari, suhbatalar va diagnostik kuzatuvlar yordamida ularning musiqa darslaridagi ishtiroki, texnologiyalardan foydalanish tajribasi va motivatsiyasi baholandi. Bu bosqichda mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlandi.

3. Eksperimental-pedagogik yondashuv: Tadqiqotning markaziy bosqichida eksperimental ishlar tashkil qilindi. Mazkur tajriba ikki guruh (nazorat va tajriba)da amalga oshirildi. Nazorat guruhi an’anaviy usullar bilan, tajriba guruhi esa Nearpod, Musicca, Chrome Music Lab, Solfeg.io kabi interfaol platformalar asosida takomillashgan metodika bilan musiqa ta’limini oldi. Tajriba davomida dars jarayonlari videokuzatuv, baholash jadvali va audio tahlil orqali nazorat qilindi.

4. Statistik tahlil va natijalarni qayta ishlash: Olingan ma’lumotlar statistik tahlil metodlari orqali qayta ishlanib, tajriba avvalidagi va oxiridagi ko‘rsatkichlar taqqoslandi. Bu orqali interfaol platformalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarning shakllanishiga,

ijodkorlik va eshituv madaniyatining rivojlanishiga ta’siri baholandi. Ma’lumotlar jadval, diagramma va grafiklar asosida aks ettirildi.

5. Tavsiyalar va metodik ko‘rsatmalar: Tadqiqot asosida interfaol platformalarni maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar bilan musiqa darslarida qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida boshqa tadqiqotchilar va amaliyotchi pedagoglar uchun foydalanishga yaroqli shaklda tizimlashtirildi.

Xulosa. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Tadqiqotning usuli: Interfaol platformalar yordamida musiqa o‘qitish jarayonini takomillashtirishda nazariy, diagnostik, eksperimental va statistik yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llandi. Bu metodika orqali o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalar samarali integratsiya qilindi.

2. Yangi yechim: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining musiqa fani bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol ilovalar va raqamli platformalarning samaradorligi isbotlandi. Xususan, “Chrome Music Lab”, “Musicca”, “Solfeg.io” kabi vositalar o‘quvchilarning eshituv madaniyati, ritm tuyg‘usi, ijodiy ifoda va motivatsiyasini oshiradi.

3. Amaliy natijalar: Tajriba-sinov darslari natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar bilim ko‘rsatkichlari 27–30% ga oshgani kuzatildi. Bu esa yangi metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

4. Iqtisodiy samaradorlik: Platformalarning bepul yoki minimal xarajatli versiyalaridan foydalanish orqali ta’lim xarajatlari kamayadi. Bu metodika keng joriy etilsa, resurslarni tejashga yordam beradi va ta’lim sifatini oshiradi.

5. Tavsiyalar: Olingan natijalar asosida maktabgacha ta’lim sohasidagi musiqiy ta’limni modernizatsiya qilish uchun metodik qo‘llanmalar va o‘quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu boshqa pedagoglar va tadqiqotchilar uchun amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Hasanboyeva O. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik asoslari. – Toshkent, 2018.
3. Sharipov A. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Xodjayeva Z. Raqamli texnologiyalar va ta’lim. – Samarqand, 2021.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tadjibayev Ikram Uralbayevich,
Chirchiq DPU professori, F-m.f.d. (DSc),
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti dekani.
Abduraxmanova Guzal Abdujamal qizi
Chirchiq DPU, 1-bosqich magistratura talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu ishda boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarining o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va qiziqishlarini tahlil qilishdagi*

imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni va ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, individual yondashuv, o‘quvchi xususiyatlari, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, raqamli texnologiyalar, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirish jarayonida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [1]. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning qobiliyati, bilimni o‘zlashtirish darajasi, o‘rganish sur’ati hamda qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi o‘quvchilarning individual rivojlanishini o‘rganish va tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda [2]. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari o‘quvchilar faoliyatini avtomatik tahlil qilish, ularning kuchli va sust tomonlarini aniqlash hamda shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib, mazkur ishda ushbu texnologiyalarning o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va hisobga olish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. An’anaviy baholash va kuzatuv usullari har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va qiziqishlarini to‘liq va aniq aniqlash imkonini bermaydi. Natijada, ayrim o‘quvchilarning ta’lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi va ularning salohiyati to‘liq namoyon bo‘lmasligi kuzatiladi.

Hozirgi kundagi maqsadimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish va rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab berish. Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va ularni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi, o‘rganish tezligi va psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lgani sababli ta’lim jarayonida individual yondashuv zarur [3]. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlarini tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maxsus dasturlar va ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilarning bajarilgan topshiriqlari, test natijalari hamda o‘quv faoliyati tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar asosida har bir o‘quvchiga mos individual ta’lim yo‘nalishi ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, differensial ta’limni yo‘lga qo‘yish hamda har bir o‘quvchining imkoniyatlarini to‘liq rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim sifati oshadi va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganishda sun’iy intellektdan

foydalaniladigan ayrim ta’lim platformalari: Khan Academy, Duolingo, Quizlet, Coursera, Google Classroom. Khan Academy platformasi o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos topshiriqlarni tavsiya qiladi. Sun’iy intellekt orqali o‘quvchining qaysi mavzuda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi va shu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha mashqlar beradi.

Boshlang‘ich sinfda matematika fanidan dars jarayonida “Matific”, “Khan Academy Kids”, “IXL Math” va “Prodigy Math” kabi sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim platformalaridan foydalanildi. Bu platformalar o‘quvchilarga individual test va mashqlarni taklif qilib, ularning javob berish tezligi, xatolar soni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini avtomatik tahlil qildi. Natijada ayrim o‘quvchilarda qo‘shish va ayirish amallarida qiyinchiliklar mavjudligi, boshqalarda esa masalalarni tez va to‘g‘ri yechish qobiliyati yuqori ekanligi aniqlandi.

Sun’iy intellekt tahlili asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga individual topshiriqlar berdi: bilim darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar uchun qo‘shimcha mashqlar, yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar uchun esa murakkabroq masalalar tavsiya etildi. Bu yondashuv o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi va bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini yaxshiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va qiziqishlarini aniqlash imkonini berib, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi. Natijada har bir o‘quvchining salohiyati to‘liq namoyon bo‘lib, o‘qituvchining faoliyati yengillashadi hamda ta’lim sifati yanada yaxshilanadi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish hamda ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B.T. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 140 b.

2. Normurodova L.R. Sun’iy intellekt va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 112 b.

3. Tursunova S.X. Individual yondashuv va o‘quvchi xususiyatlarini rivojlantirish. – Toshkent: Ziyo, 2019. – 130 b.

TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI

Tursunboyeva Muxtabar Dehqonovna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Udilbayeva Gulxumor Ergashevna,
Xasanova Feruza Kamalbayevna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulot faoliyatiga tarbiyachining innovatsion yondashuvi hamda unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy*

ta’lim jarayonida raqamli vositalarning qo‘llanilishi bolalarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, AKTdan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, metodik imkoniyatlari hamda innovatsion yondashuv asosidagi mashg‘ulotni tashkil etish mexanizmlari yoritiladi.
Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, AKT, maktabgacha ta’lim, mashg‘ulot faoliyati, raqamli pedagogika, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv.*

Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’sirida tubdan yangilanmoqda. Maktabgacha ta’lim bosqichi esa shaxs rivojlanishining eng muhim davri bo‘lib, aynan shu bosqichda bolaning intellektual, ijtimoiy-emotsional va ijodiy salohiyati shakllanadi. Shu sababli mashg‘ulot faoliyatini innovatsion asosda tashkil etish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv – bu ta’lim jarayoniga yangicha metod, vosita va texnologiyalarni joriy etish orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu jarayonning ajralmas qismiga aylangan. [1]

Innovatsion yondashuvning nazariy asoslari: Innovatsion yondashuvning metodologik asosi quyidagi pedagogik konsepsiyalarga tayangan holda shakllanadi: 1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi. 2. Kompetensiyaviy yondashuv. 3. Faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi. 4. Konstruktivistik ta’lim modeli.

Konstruktivistik nazariyaga ko‘ra, bola bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki faoliyat jarayonida uni mustaqil ravishda quradi. AKT vositalari aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik ahamiyati. AKT – bu kompyuter, multimedia, internet resurslari, interfaol doska, mobil ilovalar, elektron ta’lim platformalari kabi vositalarni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’limda AKT quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: *1. Bilish faolligini oshiradi:* Multimedia materiallari (animatsiya, audio, video) bolalarda qiziqish uyg‘otadi va diqqatni uzoqroq saqlashga yordam beradi. *2. Individual yondashuvni ta’minlaydi:* Raqamli dasturlar orqali bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos topshiriqlar berish mumkin. *3. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi:* Rasm chizish dasturlari, interaktiv o‘yinlar, konstruktor ilovalar bolalarda kreativlikni rivojlantiradi. *4. Kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi:* Multimedia vositalari orqali nutq rivoji, lug‘at boyligi va muloqot ko‘nikmalari takomillashadi.

Mashg‘ulot faoliyatida AKTdan foydalanishning metodik mexanizmlari. Innovatsion mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda AKT bilan uyg‘unlashtiriladi: 1. *Motivatsion bosqich* – qisqa video, animatsiya yoki interfaol savollar orqali qiziqish uyg‘otish. 2. *Yangi bilimni o‘zlashtirish* – slayd, multfilm, virtual tajriba yoki interfaol o‘yin orqali tushuntirish. 3. *Mustahkamlash* – elektron test, didaktik o‘yinlar, raqamli topshiriqlar. 4. *Refleksiya* – bolalarning fikrini audio/video yozuv yoki interfaol baholash orqali aniqlash.

AKTdan foydalanishning pedagogik shartlari. AKT samarali bo‘lishi uchun quyidagi shartlar zarur: 1. Tarbiyachining raqamli kompetensiyasi yetarli bo‘lishi. 2. Sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish. 3. Raqamli vositalarni me’yoriy va maqsadga muvofiq qo‘llash. 4. Mazmunning yoshga mosligi. 5. AKT mashg‘ulotning asosiy maqsadini almashtirmasligi, balki uni boyituvchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim. [2]

Ilmiy asoslangan xulosalar: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim jarayonida AKTdan maqsadli foydalanish: 1. Ta’lim samaradorligini oshiradi. 2. Bolalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 3. Axborotni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. 4. Ta’lim jarayonini vizual va interfaol shaklga keltiradi.

Shu bois innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulot faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligining muhim ko‘rsatkichidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak**,** maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulot faoliyatini innovatsion asosda tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Biroq AKTdan foydalanish pedagogik maqsadga muvofiq, me’yoriy va metodik asoslangan bo‘lishi zarur. Kelajakda maktabgacha ta’lim tizimida raqamli pedagogikani yanada rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018. – 320 b.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – 280 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Haydarova Jasmina Baxromovna,
Shomirzayeva Dinora Abdumutalovna,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’lim“ yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik tamoyillari tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ta’limni individuallashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni, uning didaktik imkoniyatlari, ilmiylik, tizimlilik, individual yondashuv va faollik kabi tamoyillar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, didaktik tamoyillar, raqamli ta’lim, individuallashtirilgan ta’lim, innovatsion texnologiyalar, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish masalasi dunyo miqyosida dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim

olish faoliyatini samarali tashkil etish hamda o‘qitishning yangi metod va vositalarini ishlab chiqish imkonini yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan yosh avlodni tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shu sababli, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ilmiy asosda tashkil etilishi zarur. Bu tamoyil o‘quv jarayonida beriladigan bilimlarning zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan bo‘lishini anglatadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va moslashtirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi [1; 21-b.]. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qobiliyatini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etishga yordam beradi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish didaktikaning asosiy tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi zarur. Bu tamoyillar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [2; 15-b.].

Ilmiylik tamoyili: ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlarning zamonaviy ilmiy yutuqlar va ishonchli manbalarga asoslangan bo‘lishini anglatadi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ham o‘quv materiallari ilmiy jihatdan asoslangan holda tanlanishi muhimdir. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarga taqdim etilayotgan ma’lumotlar ularning yosh xususiyatlariga mos, tushunarli va ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Shu orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri bilimlar shakllanadi va ularning tafakkuri rivojlanadi. Boshlang‘ich ta’limda har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘ladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos topshiriqlarni taklif qilishi mumkin. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu esa ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modelini rivojlantirishga xizmat qiladi [3; 17-b.].

Individual ta’lim tamoyili*:* har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni anglatadi. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarga ularning o‘zlashtirish darajasiga mos topshiriqlar berish mumkin. Bu esa har bir o‘quvchining bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga va ularning imkoniyatlarini to‘liq rivojlantirishga yordam beradi.

Adaptiv o‘qitish tamoyili: o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga qarab ta’lim jarayonini moslashtirishni nazarda tutadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning natijalari tahlil qilinib, ularga mos o‘quv materiallari va topshiriqlar taqdim etiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich va samarali o‘zlashtirishiga imkon yaratadi [4; 26-b.]

Faollik tamoyili: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini ta’minlash didaktikaning muhim talablaridan biridir. Sun’iy intellekt asosidagi interaktiv dasturlar, elektron platformalar va virtual vositalar o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi. Bunday vositalar orqali o‘quvchilar mustaqil ishlash, muammoni hal qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi va ta’lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi [4; 34-b.].

Tizimlilik va izchillik tamoyili: Ta’lim jarayonining tizimli va izchil tashkil etilishi o‘quvchilarning bilimlarni mukammal o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi doimiy ravishda nazorat qilinadi va o‘quv materiali bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Bu esa o‘quvchilarning oldingi bilimlariga tayangan holda yangi bilimlarni egallashiga yordam beradi hamda ta’lim jarayonining uzviyligini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim platformalari o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Interaktiv dasturlar, elektron darsliklar va virtual yordamchilar o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini interaktiv tashkil etish va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Didaktikaning muhim talablaridan biri – ta’lim jarayonining tizimli va izchil tashkil etilishidir. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi doimiy monitoring qilinadi va o‘quv jarayoni bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Raqamli ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [5; 19-b.].

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, ilmiylik, individual ta’lim va adaptiv o‘qitish kabi didaktik tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan yosh avlodni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldashev A., Muxtorov A. Boshlang‘ich ta’lim sohasida o‘quvchilarga suniy intelekt orqali ta’lim berish tamoyillari. 2025.
2. Qurbonov B.N. Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish. – Digital Transformation and Artificial Intelligence jurnali, 2024.
3. Ishmamatova A.K. Ta’limda sun’iy intellekt. – Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali, 2025.
4. Ashurov J.D. Zamonaviy oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari. – Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2024.
5. Sabirova D.A**.** Raqamli ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish. – Digital Transformation and Artificial Intelligence jurnali, 2024.

O‘QUV JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Iskandarova Aziza To‘lqin qizi,
Xujanova Aliya Eranbayevna,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’lim“ yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Maqolada o‘quv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari yoritib berilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalarining*

ta’lim tizimidagi o‘rni, o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning pedagogik metodlari va ularning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodika, adaptiv ta’lim, ta’lim samaradorligi.*

Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini yaratish imkonini beradi. Bu esa o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtiradi hamda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi [1; 22-b.]. Shu sababli o‘quv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, o‘quv materiallarini moslashtirish hamda individual ta’lim dasturlarini shakllantirish mumkin. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta’lim platformalari o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bunday tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos o‘quv materiallarini taklif etadi. Natijada, o‘quv jarayoni individual yondashuv asosida tashkil etiladi [2; 35-b.]. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini monitoring qilish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash hamda ta’lim jarayonini tahlil qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun o‘quv jarayonini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Individual ta’lim metodikasi: Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida har bir o‘quvchining bilim darajasi aniqlanadi va unga mos o‘quv materiallari taqdim etiladi. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Adaptiv ta’lim tizimi: Adaptiv ta’lim tizimi o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, o‘quv materiallarini moslashtiradi. Bu tizim o‘quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishiga yordam beradi hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Interaktiv ta’lim metodlari: Sun’iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv platformalar o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi. Masalan, aqlli test tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini tezkor baholash imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi [3; 47-b.]. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi roli yanada ortib boradi. Ushbu texnologiyalar yordamida aqlli ta’lim platformalarini yaratish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda adaptiv o‘qitish tizimlarini rivojlantirish mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi o‘quv jarayonining yangi modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro

hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchi faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, balki uning pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi [4; 40-b.]. O‘quv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, individual ta’lim yo‘nalishlarini yaratish hamda zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish ta’lim samaradorligini oshirish hamda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence in Education. – London: UCL Institute of Education Press, 2018.

2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson Education, 2016.

3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston, 2019.

4 Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

ДИСТАНЦИОННАЯ РАБОТА ПО МЕТОДИКЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВУЗЕ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ядгарова Александра Борисовна,
Сотрудник Международного Альянса Центральной Азии по инклюзивному образованию.

Аннотация. *В статье рассматривается проблема, появившаяся во времена расцвета дистанционного обучения, представляющая собой низкий уровень подготовленности педагогов к дистанционной работе по методике изобразительной деятельности. А также, пути выстраивания эффективной работы при использовании основных принципов и норм дистанционной работе.*

Ключевые слова. *Подготовка дистанционная работа, работа в коллективе, онлайн обучение, единая цель, ресурсы, принципы, реализация.*

В условиях цифровизации образования и роста востребованности дистанционных форматов в Республике Узбекистан особую значимость приобретает поиск эффективных моделей преподавания творческих дисциплин, в том числе изобразительного искусства (ИЗО) в вузах на дошкольных факультетах. Обратимся к зарубежным и отечественным ученым, которые вели свои исследования в этом направлении. О.Петерс (O.Peters), М.Мур (M.Moore), Б.Холмберг (B.Holmberg), Д.Киган (D.Keegan), Р.Гаррисон (R.Garrison). Их работы посвящены теоретическим основам дистанционного образования, вопросам взаимодействия преподавателя и обучающегося, роли образовательного диалога и использованию информационно-коммуникационных технологий. Дж.Вердин (J.Verduin) и Т.Кларк (T.Clark). Они рассматривали десинхронизацию обучения как отличительную черту дистанционного образования. В области художественного образования и влияния цифровых технологий необходимо

отметить работы - Сьюзан Магсамен — исполнительный директор «International Arts + Mind Lab» Института исследований мозга при Медицинской школе Университета Джона Хопкинса в Балтиморе. Она подчёркивает важность занятий искусством для развития интеллекта, социализации и других навыков. Российских исследователей, упомянутых в контексте цифрового искусства и художественного образования: С.Б.Поморов, С.А.Прохоров, А.В.Шадурин, В.А.Сидоров, В.И.Наумова, Т.О.Шулик, В.Э.Волынсков, И.В.Смекалов, Л.Н.Турлюн, О.Г.Яцюк, В.Г.Петрович, Е.В.Колесова, Г.Н.Гаврилова, Ж.В.Яковлева и др. Их работы касаются освоения компьютерных технологий в изобразительном искусстве. [2-3].

В своей работе исследователь Д.Е.Ершова раскрывает некоторые свои идеи и положения:

- Исследование особенностей процессов современной художественной коммуникации и массовых сетевых арт-практик проводится на материале актуальных интернет-ресурсов с применением различных инструментов аналитической работы в цифровой среде.
- Студенты учатся выделять особенности новых каналов инкультурации современного индивида, применять разнообразные методы анализа и интерпретации объектов визуальной культуры, овладевают навыком описания генезиса, семантики, образного строя, художественно-выразительных средств и эстетических особенностей выбранного арт-мема.
- Творческий практикум даёт студентам опыт художественной активности, развивает прикладные навыки в области визуальных искусств, воображение и ассоциативное мышление, позволяет попробовать свои силы в различных жанрах и техниках и найти свой индивидуальный стиль.
- Овладев основными стратегиями сетевого искусства для создания творческого продукта, студенты научатся создавать авторские интерпретации классических произведений. Работа с выдающимся художественным наследием формирует эстетическую культуру личности, интерес к творческому взаимодействию с искусством и креативный подход к решению задач в любых сферах жизни [1].

Цель и идеи Д.Е.Ершовой заключается в ориентации студентов в тенденциях развития художественных процессов в современной медиакультуре.

В последние годы дистанционное обучение активно вошло в образовательную среду, поэтому в современных условиях преподаватель может взаимодействовать с обучающимися не только на территории школы, но и удаленно, используя при этом два формата: онлайн и офлайн. Режим офлайн подразумевает под собой работу на различных платформах для обучения, которые в последнее время активно разрабатываются в России. Самое главное достоинство такого обучения - преподаватель и ученики не привязаны к конкретному месту и времени, и поэтому учащиеся могут выполнять задания и изучать материалы в удобное для них время, с комфортной скоростью. Онлайн обучение - это обучение в реальном времени, "здесь и сейчас" с использованием различных средств связи, в виде сервисов и программ для проведения видеоконференций. На данный момент в России функционируют различные сервисы для поддержания онлайн встреч, многие из которых пользуются популярностью и за рубежом. Традиционно обучение методики ИЗО строится на непосредственном взаимодействии педагога и студента, работе с реальными изобразительными материалами, оборудованием и пространственными объектами. Однако вынужденные и плановые переходы на

дистанционное обучение выявили ряд противоречий: между потребностью в непрерывности художественного образования и ограничениями онлайн-среды; между необходимостью освоения практических навыков (рисунок, живопись, композиция) и невозможностью полного переноса «живой» практики в цифровой формат; между требованиями образовательных стандартов к уровню подготовки будущих педагогов-художников и дефицитом научно-методического обеспечения дистанционного обучения ИЗО.

Это обусловливает необходимость разработки и апробации гибридных и дистанционных моделей, сохраняющих качество профессиональной подготовки. В данном случае перед специалистами ВУЗов проблема заключается в определении оптимальных методических подходов и технологических решений, позволяющих: обеспечить освоение студентами технологий изобразительной деятельности в дистанционном формате; сохранить уровень индивидуальной коррекции и обратной связи; интегрировать цифровые инструменты в традиционный художественно-педагогический процесс.

Важен процесс профессиональной подготовки педагогов в области методики изобразительного искусства. А также в организации дистанционной работы по изобразительной деятельности в высшем учебном заведении на дошкольных факультетах. Для этого необходимо определить задачи: проанализировать теоретико - научные основы дистанционного и гибридного обучения в сфере художественного образования. Выявить специфические трудности освоения изобразительных техник в онлайн-формате. Определить критерии эффективности дистанционной работы по методике ИЗО. Разработать модель дистанционного сопровождения практических занятий (рисования, лепки, аппликации и конструирования). Апробировать комплекс цифровых инструментов и методических приёмов для диагностики и коррекции студенческих творческих работ. Сформулировать практические рекомендации для преподавателей вузов по организации дистанционного обучения по методике ИЗО. Эффективность дистанционной работы по методике изобразительной деятельности в вузе повысится, если: будет реализована гибридная модель, сочетающая синхронные онлайн-занятия и асинхронную самостоятельную работу; будут использованы специализированные цифровые инструменты для демонстрации техник и анализа студенческих работ; будет обеспечена систематическая индивидуальная обратная связь с применением видео комментариев и графических пометок; студенты получат доступ к структурированным мультимедийным материалам (видеоуроки, интерактивные пособия, кейс-метод и проектное обучение для разработки практических заданий). Дистанционное обучение изобразительному искусству (ИЗО) сталкивается с рядом проблем, которые затрагивают как технические, так и методические, психологические и организационные аспекты. Вот некоторые из них: Отсутствие тактильного и пространственного взаимодействия с материалами и объектами. В изобразительном искусстве важно работать с реальными материалами (цветные карандаши, краски, глина, бумага), а также взаимодействовать с объёмными объектами (натуры, постановки). Дистанционный формат лишает студентов возможности осваивать техники работы с изобразительными материалами и изучать объёмную форму в реальном пространстве. Например, невозможно полноценно освоить академическую школу, основанную на изучении объёмной формы и её изображении, если работа ведётся

только по фотографии или «с экрана». Сложности с демонстрацией приёмов работы и индивидуальной коррекцией. Педагог не может наглядно показать приёмы рисования, «поставить руку» для нанесения линии или мазка, скорректировать процесс выполнения работы в режиме реального времени. Через фото и видеосвязь сложно разглядеть нюансы формы, цвета, композиции. Это особенно критично для дисциплин, требующих тонкой моторики и точности (например, рисунок, лепка или аппликация). Ограниченное время на индивидуальную работу. В онлайн-формате педагогу приходится распределять внимание между всеми студентами, что сокращает время на индивидуальную консультацию. Это замедляет учебный процесс и снижает качество обратной связи. Проблемы с контролем за практической работой. Невозможно непрерывно отслеживать, как студент выполняет задание — например, ведёт линию, кладёт краску на бумагу. Педагог видит только конечный результат, что затрудняет своевременную коррекцию ошибок. Отсутствие взаимодействия между студентами. В традиционном обучении учащиеся перенимают опыт друг у друга, анализируют чужие ошибки, сравнивают свои работы с чужими. В дистанционном формате эта возможность утрачивается, что снижает коллективный образовательный эффект. Технические ограничения. Не у всех студентов и преподавателей есть необходимое оборудование (качественные камеры, микрофоны, стабильное интернет -соединение). Проблемы с задержкой сигнала, качеством изображения и звука могут мешать эффективному обучению. Недостаток материалов и оборудования в домашних условиях. Не все студенты могут обеспечить себя необходимыми материалами (например, глиной, качественной бумагой, мольбертами, предметами для сюжетов) или подходящим пространством для работы. Психологические и организационные сложности. У студентов может снижаться самоорганизация, возникать тревожность из-за «ненормированности» рабочего времени, чувство изоляции. У педагогов — риск эмоционального выгорания и физических перегрузок из-за увеличения времени работы за компьютером. Ограничения в форматах занятий. Невозможно провести пленэр, работу с натурщиком, групповые занятия в мастерской. Виртуальные замены (например, онлайн-галереи, мастер-классы) не полностью компенсируют живой опыт. Снижение эмоциональной составляющей обучения. Живой контакт с педагогом и другими студентами важен не только для передачи знаний, но и для мотивации, создания творческой атмосферы. Дистанционный формат ослабляет этот аспект, что может снижать интерес к предмету. Трудности с оценкой работ. Проверка заданий в электронном виде (по фото или видео) не всегда позволяет объективно оценить качество работы, особенно в части нюансов техники исполнения, использования материалов. Проблемы с определением самостоятельности выполнения работ. В дистанционном формате сложно убедиться, что студент выполнил задание самостоятельно, а не использовал чужие работы или нейросети. Эти проблемы особенно остро проявляются при обучении сложным техническим дисциплинам (рисунок, скульптура, аппликация) и в работе с начинающими студентами, которые нуждаются в более плотной обратной связи. Для минимизации негативных эффектов рекомендуется сочетать дистанционный формат с очными занятиями, использовать гибридные модели обучения. Практическая значимость в такой работе состоит в: создании комплекта методических материалов для дистанционного сопровождения практических занятий по ИЗО; разработке алгоритмов видеодемонстрации техник и

онлайн-коррекции работ; предложении вариантов адаптации традиционных заданий (натюрморт, портрет, композиция) для домашнего выполнения с использованием цифровых инструментов.

Использованной литературы:

1. Ершова, Дарья Евгеньевна. Изобразительное искусство: практикум по визуальным сетевым технологиям: учебно-методическое пособие / Д.Е.Ершова; Российский государственный педагогический университет им. А.И.Герцена. — Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А.И.Герцена, 2021. - 77.

2. «Методические рекомендации по реализации программы учебного предмета “Изобразительное искусство” в общеобразовательных организациях в условиях использования электронного обучения и дистанционных образовательных технологий» (В.Г.Петрович, Е.В.Колесова, Г.Н.Гаврилова, Ж.В.Яковлева, 2020)

3. Учебно-методическое пособие по дисциплине “Академическая живопись” (Живопись. Учебный натюрморт). (И.М.Власова, Н.Ю.Захарова, 2023).

ART-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

O‘razaliyeva Sojida Tojiboy qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi. Ilmiy rahbar.
Murodullayeva Shodiyona Orzumand qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda chet til kompetensiyasini rivojlantirishda art-pedagogik yondashuv hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bolalarning ijodiy faoliyati orqali chet tilini o‘zlashtirish jarayoni va bu jarayonda sun’iy intellektga asoslangan raqamli vositalarning samaradorligi o‘rganildi. Art texnologiyalar (rasm chizish, musiqa, dramatizatsiya, qo‘g‘irchoq teatri) bilan sun’iy intellekt platformalarining integratsiyasi bolalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, nutqiy faoliyatini rivojlantirishi hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim omil bo‘lishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *art-pedagogika, maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, chet til kompetensiyasi, innovatsion texnologiyalar, ijodiy faoliyat, kommunikativ rivojlanish.*

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayoni ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘rganish masalasi maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o‘rganishga qiziqish tabiiy ravishda yuqori bo‘lib, bu davr tilni egallash uchun eng samarali bosqichlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar tilni o‘rganishda faqat an’anaviy metodlardan foydalanish yetarli emas. Ularning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi hamda qiziqishlari hisobga olingan holda innovatsion metodlar qo‘llanilishi zarur. Shu jihatdan art-pedagogik yondashuv hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Art-pedagogika

bolalarning ijodiy faoliyatlari orqali ta’lim jarayonini tashkil etishga asoslanadi. Bu yondashuv bolalarda nafaqat bilim, balki estetik did, tasavvur, emotsional rivojlanish hamda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish, interaktivlikni oshirish hamda bolalarning til o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatish metodikasi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, L.S.Vygotskiy, J.Piaget, D.Elkonin kabi olimlar bolalarning kognitiv rivojlanish jarayonida o‘yin va ijodiy faoliyatning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Art-pedagogika konsepsiyasi esa ta’lim jarayonida san’at vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuv bolalarning estetik tarbiyasi, tasavvuri va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. AI asosidagi dasturlar bolalarning individual rivojlanish darajasini aniqlash, moslashtirilgan topshiriqlar yaratish hamda interaktiv mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini bermoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bolalarning motivatsiyasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda bilimlarni mustahkam egallashiga yordam beradi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: - pedagogik kuzatish; - eksperimental tadqiqot; - suhbat va savolnoma; - pedagogik tajriba-sinov ishlari; - statistik tahlil.

Maktabgacha yosh davri bolalar rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolalarning nutqiy faolligi, tasavvuri va kommunikativ qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Shu sababli aynan mazkur yosh bosqichida chet tilini o‘rgatish jarayonini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy qiziqish, taqlid qilish qobiliyatining yuqoriligi hamda o‘yin faoliyatining ustuvorligi chet tilini o‘rganish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Mazkur ish doirasida art-pedagogik yondashuvning ta’lim jarayonidagi ahamiyati alohida e’tiborga olindi. Art-pedagogika san’at vositalari orqali bolalarning intellektual, emotsional va ijodiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Rasm chizish, musiqa, dramatizatsiya, qo‘g‘irchoq teatri kabi ijodiy faoliyat turlari bolalarning tasavvurini kengaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi hamda ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi ham muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi raqamli vositalar ta’lim jarayonini interaktiv tashkil etish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda o‘qitish jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, chet tilini o‘rgatishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talaffuzni rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.

Natijada, art-pedagogik faoliyatlar va sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, ularning nutqiy faolligini rivojlantirishi hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Faoliyatlarda quyidagi faoliyat turlari qo‘llanildi: - rasm chizish orqali so‘zlarni o‘rganish; - musiqiy o‘yinlar orqali talaffuzni rivojlantirish; - dramatizatsiya va rolli o‘yinlar; - AI yordamida interaktiv til o‘rganish mashqlari.

Natijalar. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, art-pedagogik yondashuv hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan guruhda bolalarning chet tilini o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Quyidagi natijalar kuzatildi: 1) bolalarning so‘z boyligi kengaydi; 2) nutqiy faollik oshdi; 3) talaffuz ko‘nikmalari yaxshilandi; 4) darslarga qiziqish kuchaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi interaktiv mashqlar bolalarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi.

Muhokama. Art-pedagogik yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Chunki bu yoshdagi bolalar ijodiy faoliyat orqali bilimlarni oson o‘zlashtiradilar. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Masalan, AI yordamida: - individual topshiriqlar yaratish; - nutqni avtomatik tahlil qilish; - interaktiv o‘yinlar tashkil etish; - multimedia vositalari orqali til muhitini yaratish mumkin.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, bolada Art-pedagogik yondashuv asosidaquyidagilarga erishiladi: 1. Art-pedagogik yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda chet til kompetensiyasini shakllantirishda samarali metod hisoblanadi. 2. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. 3. Art faoliyatlari va AI texnologiyalarining integratsiyasi bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 4. Ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion metod sifatida keng qo‘llanishi mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishda metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish hamda pedagoglar uchun maxsus treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press. 1978

2. Jean Piaget. The Psychology of the Child. — New York: Basic Books. 2023

3. Howard Gardner. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. — New York: Basic Books. 2024

TABIAT BILAN TANISHTIRISH MASHG‘ULOTLARIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI MULTIMEDIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shariyeva Gavhar Turavoyevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Yusupova Lola Abduhalim qizi,
Saidova Zahro Dilshod qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha talim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda sun’iy intellekt asosidagi multimediyaviy texnologiyalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida multimediyaviy vositalar yordamida bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi interaktiv dasturlar, vizual materiallar va raqamli platformalardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, multimediyaviy texnologiyalar, tabiat bilan tanishtirish, raqamli ta’lim, innovatsion pedagogika, interaktiv ta’lim, ta’lim jarayoni.*

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Xususan, sun’iy intellekt va multimediyaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni vizual va interaktiv usullar orqali yetkazish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bolalarda atrof-muhit haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tabiat hodisalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishish jarayoni bolalarning kuzatuvchanligini, mantiqiy fikrlashini va tabiatga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt asosidagi multimediyaviy texnologiyalar ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt (AI) – bu kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga xos bo‘lgan fikrlash, o‘rganish va muammoni hal qilish kabi jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatidir. AI texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Multimediyaviy texnologiyalar esa matn, ovoz, video, animatsiya va grafika elementlarini birlashtirgan holda ta’lim materiallarini taqdim etishga xizmat qiladi. Bu bolalarning bilimlarni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar vizual va interaktiv vositalar orqali bilimlarni yaxshi qabul qiladilar.

Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bolalarda tabiat hodisalari, o‘simliklar, hayvonlar, fasllar, ob-havo o‘zgarishlari haqidagi bilimlarni shakllantiradi. Bu mashg‘ulotlar bolalarning kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi, sabab-natija munosabatlarini tushunish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sun’iy intellekt va multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Masalan, interaktiv o‘yinlar, animatsiyalar, virtual ekskursiyalar va raqamli platformalar yordamida bolalar tabiat hodisalarini osonroq tushunadi va xotirada uzoqroq saqlaydi. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida multimediyaviy texnologiyalarni qo‘llashda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish mumkin: *Interaktiv taqdimotlar* – rasmlar, animatsiyalar va video orqali mavzuni vizual ko‘rsatish. *Virtual ekskursiyalar* – bolalarni o‘rmon, cho‘l, dengiz kabi muhitlarga raqamli sayohatga olib chiqish. *AI o‘yinlari* – hayvonlarni aniqlash, ranglarni ajratish, mavzuga oid muammolarni hal qilish. *Raqamli testlar va viktorinalar* – bolalarning bilim darajasini interaktiv usulda aniqlash.

Bunday vositalar bolalarning e’tiborini jalb qiladi va ularning faol ishtirokini ta’minlaydi. Virtual tabiat sayohati: Bolalar ekran orqali o‘rmon, cho‘l yoki dengiz muhitini kuzatadilar. Hayvonlarni tanish o‘yini: AI dasturi hayvon rasmini ko‘rsatadi va bolalar ularni nomlaydi. Fasllarni aniqlash mashg‘uloti: Animatsiyalar yordamida fasllardagi o‘zgarishlar tushuntiriladi. Ranglarni ajratish va tasniflash: Bolalar turli rang va shakldagi predmetlarni tasniflaydi, AI tizimi bilan bog‘lab tushuntiriladi.

Multimediyaviy va AI texnologiyalari bolalarning: kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlash qobiliyati, tasavvur va ijodkorlik, texnologiyalardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interaktiv mashg‘ulotlar bolalarda mustaqil izlanish va xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosidagi multimediyaviy mashg‘ulotlar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlash, qiziqish va faoliyatga jalb qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar bolalarda: tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur va ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’limda tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda sun’iy intellekt asosidagi multimediyaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarning bilim olish jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar yordamida bolalar tabiat hodisalarini vizual tarzda kuzatishi, hodisalarni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi mumkin. Shuningdek, interaktiv animatsiyalar, AI o‘yinlari va virtual ekskursiyalar bolalarning diqqatini jalb qiladi, ularni faol o‘rganishga undaydi va bilimlarni uzoq muddat esda saqlashga yordam beradi. Sun’iy intellekt asosidagi multimediyaviy vositalar yordamida bolalar nafaqat tabiat haqidagi bilimlarini oshiradi, balki mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik va ijodkorlik kabi ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa ularning muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatini oshiradi va mustaqil tafakkurini shakllantiradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish madaniyati, raqamli vositalar bilan ishlash tajribasi va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirish ham bolalar uchun muhim poydevor bo‘ladi.

Kelajakda, bunday mashg‘ulotlar bolalarni zamonaviy raqamli va texnologik jamiyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt bilan boyitilgan interaktiv ta’lim vositalari bolalarni ilmiy tadqiqotga qiziqtirish, tabiatni kuzatish orqali asosli xulosa chiqarish va eksperimentlar o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu tariqa, maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt va multimediyaviy texnologiyalarni qo‘llash bolalarning umumiy rivojlanishiga, bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga va ularni kelajakda raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosidagi multimediyaviy texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’limni qiziqarli, interaktiv, amaliy va natijaga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi, bolalarni mustaqil fikrlash va kreativ izlanishlarga yo‘naltiradi hamda kelajakdagi raqamli jamiyatning talablariga moslashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. Pearson Education, 2021.
2. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan nashr). Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
3. Mayer R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2020.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Shoyusupova Shaxzoda Shoxrux qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Dosova Saida Abdushoxit qizi,
Abdullayeva Farangiz Murodjon qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarii.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt integratsiyasining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil*

qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdagi o‘rni, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Pedagog olimlarning ilmiy qarashlari asosida zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, innovatsion pedagogika, pedagogik texnologiya, raqamli ta’lim, interaktiv ta’lim, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimi ushbu o‘zgarishlardan eng ko‘p ta’sirlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatishni ham talab etadi. Shu sababli innovatsion pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Pedagog olim V.P.Bespalko ta’lim texnologiyasini “o‘quv jarayonini oldindan loyihalash va uni samarali amalga oshirish tizimi” deb ta’riflaydi [1; 45-b.]. Uning fikricha, ta’lim jarayoni aniq rejalashtirilgan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi kerak. Shuningdek, M.V.Klarin innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [2; 32-b.]. Unga ko‘ra, innovatsion metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlaydi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual ta’limni tashkil etish va o‘quv jarayonini avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson fikrlash jarayoniga o‘xshash vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari tibbiyot, iqtisodiyot, sanoat va ta’lim kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

Amerikalik olim John McCarthy sun’iy intellektni “aqlli mashinalar yaratish fan va texnologiyasi” deb ta’riflagan [3; 12-b.]. Uning fikricha, sun’iy intellekt inson faoliyatini yengillashtirish va murakkab masalalarni hal qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan o‘quv platformalari o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga individual topshiriqlar beradi. Bu esa o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida baholash jarayonini avtomatlashtirish, o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish va monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga qaratilgan metod va usullar majmuasidir. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlaydi.

Olim J.Yo‘ldoshev innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil deb hisoblaydi [4; 27-b.]. Uning fikricha, innovatsion metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarga quyidagilar kiradi: - interaktiv o‘qitish metodlari; - muammoli ta’lim; - loyiha asosida o‘qitish; -raqamli ta’lim texnologiyalari.

Bular orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi va bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar

bilan integratsiya qilish ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday integratsiya orqali o‘quv jarayonini individual tarzda tashkil etish mumkin.

Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos topshiriqlarni beradi. Shuningdek, o‘quv jarayonini tahlil qilish va baholash ham ancha osonlashadi. Bu esa o‘qituvchilarning ishini yengillashtiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi. Informatika va boshqa fanlarda video materiallar, internet manbalari va raqamli platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirmoqda. Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarini to‘liq joriy etishda texnik jihozlarning yetishmasligi va o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari yetarli emasligi kabi muammolar mavjud.

Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanishda quyidagi muammolar mavjud: 1. Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi. 2. O‘qituvchilarning sun’iy intellekt bo‘yicha bilimlari kamligi. 3. O‘quvchilarning texnologiyadan noto‘g‘ri foydalanishi.

Ba’zi hollarda o‘quvchilar sun’iy intellektdan mustaqil fikrlash o‘rniga tayyor javob olish uchun foydalanishi mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimi rivojida katta imkoniyatlarga ega. Biroq uni to‘g‘ri qo‘llash zarur.

Quyidagi takliflarni berish mumkin: 1) maktablarni zamonaviy texnika bilan ta’minlash; 2) o‘qituvchilar uchun AI bo‘yicha treninglar; 3) o‘quvchilarga raqamli savodxonlikni o‘rgatish; 4) milliy ta’lim platformalarini yaratish.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt integratsiyasi zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, individual ta’limni rivojlantirish va bilim darajasini aniqlash mumkin. Muammolar bartaraf etilsa, kelajakda ta’lim tizimi yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bespalko V.P. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, 2001.
2. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Moskva, 1998.
3. McCarthy J. Artificial Intelligence. Stanford University, 2007.
4. Yo‘ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2010.

MULTIMODAL MATNLAR VA ULARDAN BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY-IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Shukurova Ra’no Nig‘matulla qizi,
Chirchiq DPU “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d., (PhD). Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada multimodal matnlardan foydalanishning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari o‘rganiladi hamda boshlang‘ich sinf matematika darslarida multimodal matnlardan foydalanishning o‘quvchilar kognitiv faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari multimodal matnlar o‘quvchilarning analitik, tanqidiy va ijodiy tafakkurini parallel rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *multimodal matnlar, Davlat ta’lim standarti, mantiqiy tafakkur, ijodiy tafakkur, multimodal o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, vizual savodxonlik.*

Bugungi kun ta’lim tizimida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish hamda zamonaviy axborot muhitida samarali faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global axborotlashuv sharoitida bilimlar nafaqat matn shaklida, balki turli xil vizual, audiovizual va grafik vositalar orqali ham taqdim etilmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida multimodal yondashuvdan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega [1].

Multimodal matn tushunchasi zamonaviy kommunikatsiya nazariyasida keng qo‘llaniladigan ilmiy termin hisoblanadi. Multimodal matnlar axborotni turli semiotik tizimlar yordamida ifodalovchi matnlar bo‘lib, ularda yozma matn, tasvir, grafik elementlar, audio va video materiallar birgalikda qo‘llaniladi. Tadqiqotchilar multimodal kommunikatsiyani axborotni yetkazishning kompleks shakli sifatida talqin qiladilar. Bunday yondashuv axborotni qabul qilish jarayonida insonning turli sezgi organlari faoliyatini bir vaqtning o‘zida jalb etishga imkon beradi [2].

Multimodal matnlarning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: - lingvistik komponent (yozma yoki og‘zaki matn); - vizual komponent (rasm, diagramma, infografika); - audio komponent (ovoz, musiqa); - gestural komponent (harakat va mimika); - makoniy komponent (elementlarning joylashuvi).

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi axborotni yanada samarali qabul qilishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘pincha vizual materiallar orqali bilimni tezroq o‘zlashtiradilar. Shu sababli multimodal matnlar o‘quv jarayonida mantiqiy va ijodiy tafakkurni parallel rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartida boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish, rivojlantirish, kundalik faoliyatda qo‘llash; jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat [1].

Yuqorida ta’kidlangan maqsadlarga erishishda multimodal matnlardan foydalanishning bir necha afzalliklari mavjud. Multimodal matnlar o‘quvchilarga axborotni bir nechta kommunikativ kanallar orqali qabul qilish imkonini yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirgan holda chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Davlat ta’lim standarti – bu davlatning ta’lim darajasiga qo‘ygan me’yori sifatida qabul qilingan asosiy parametrlar tizimi bo‘lib, muayyan shaxsning ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlari va ularni ideal darajaga yetkazishga erishishni anglatadi. - ta’limning zarur, yetarli darajasi va o‘quv yuklamalari hajmiga qo‘yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir [3].

Davlat ta’lim standartida boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning quyidagi asosiy vazifalari ham kiritilgan:

- o‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash;

- inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish;

- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat [1].

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda multimodal matnlardan foydalanish quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi: - o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi; - dars jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy hamda ijodiy tafakkuri rivojlanishini ta’minlaydi; - murakkab tushunchalarni sodda shaklda hamda mantiqan tushuntirishga yordam beradi; - o‘quvchilarning ijodiy faolligini ta’minlaydi. Shuningdek, multimodal materiallar o‘quvchilarning vizual savodxonligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Mantiqiy tafakkur o‘quvchilarning tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Multimodal matnlar ushbu jarayonda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Tahliliy fikrlashni rivojlantirish – diagramma, grafik va infografikalar orqali berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantiradi.

Sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash – video va animatsiyalar orqali voqealar ketma-ketligini kuzatish o‘quvchilarga jarayonlarni tushunishga yordam beradi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish – multimodal topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [2].

Ijodiy tafakkur esa o‘quvchilarning yangi kreativ g‘oyalar yaratish, muammoli vaziyatlarda innovatsion yechim topish qobiliyatini ifodalaydi.

Multimodal matnlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: - rasm asosida hikoya tuzish; - video asosida voqealar rivojini davom ettirish; - infografika asosida yangi loyiha yaratish; - rasmlar asosida muammoli savollarga javob topish.

Bunday faoliyatlar o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi hamda kreativ fikrlash jarayonini faollashtiradi.

DTSda keltirilgan, o‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlariga ko‘ra:

Kommunikativ kompetensiya (A1): - matematikaga oid atamalarning ma’nosini tushunib, to‘g‘ri o‘qiy olish; - so‘z va gaplarni bog‘lagan holda o‘z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish; - fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish; - matematik matn ma’nosini qayta so‘zlab bera olish; - matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish, tegishli munosabat bildira olish.

(A1+): - matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish, mazmunini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi (A1): - tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo‘lsa uni boshqa ko‘rinishlar (matn, jadval, sxema va h.k.)ga o‘tkaza olish; - diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko‘rinishida berilgan ma’lumotlarga asoslanib, turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish.

(A1+): masala yechish orqali real dunyodagi vaziyatlarga nisbatan o‘zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantirish kabi talablar qo‘yilgan.

Bu borada boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimodal matnlardan foydalanishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Vizual tahlil metodi – rasm yoki diagramma asosida o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish.

Hikoya yaratish metodi – tasvir yoki video asosida o‘quvchilarga mustaqil hikoya yoki masala tuzish topshirig‘i berish.

Muammoli o‘qitish metodi – multimodal material asosida muammoli savollar berish orqali o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirish.

Guruhli muhokama metodi – o‘quvchilar kichik guruhlarda multimodal materialni tahlil qilib, o‘z fikrlarini taqdim etadilar.

Tadqiqot natijalari multimodal matnlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Bu esa multimodal o‘qitish usullarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, multimodal matnlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda dars jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida multimodal materiallardan keng foydalanish hamda ularni o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent. 2017. – 164-166 b.
2. Abduqodirov A. Ta’lim texnologiyalari**.** – Toshkent. “O‘qituvchi”, 2020.
3. H.M.Jumayeva. Matematika o‘qitish metodikasi. – Termiz. “TerDU NMM” nashriyoti, 2023. – 140 b.

АВТОМАТИЧЕСКОЕ РИСОВАНИЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ПРИМЕНЕНИЕ В НАУЧНОЙ ВИЗУАЛИЗАЦИИ

Чаброва Татьяна Левановна,
До цент кафедры «Методика дошкольного и школьного образования». Чирчикского ГПУ,

Аннотация. *В статье рассматриваются современные технологии автоматического рисования, основанные на искусственном интеллекте (ИИ) и машинном обучении. Анализируются ключевые инструменты, их возможности и ограничения, а также перспективы использования в научной сфере — для создания иллюстраций, графиков и диаграмм, готовых к публикации в рецензируемых журналах.*

Ключевые слова: *автоматическое рисование, нейросети, генеративные модели, ИИ-инструменты, современные технологии, научная визуализация, цифровая графика, автоматизация процессов, инструментальный подход.*

Автоматизация творческих процессов — одно из перспективных направлений цифровизации. В науке качественная визуализация данных критически важна: она повышает шансы на публикацию, улучшает восприятие результатов и помогает донести сложные концепции до широкой аудитории. А автоматическое рисование,

это тогда когда рука рисует сама по себе, когда рука движется без контроля головы.

Традиционные методы создания научных иллюстраций требуют навыков в дизайне и много времени. Автоматическое рисование на базе ИИ позволяет:

- сократить затраты времени на 90 % и более;
- соблюдать стандарты ведущих журналов (Nature, Science и др.);
- генерировать векторные изображения для дальнейшего редактирования.

Основные подходы к автоматическому рисованию. *1. Инструментальный подход* – расширение творческих возможностей человека за счёт цифровых инструментов. ИИ выступает как помощник: предлагает варианты, оптимизирует эскизы, ускоряет рутинные операции. *2. Генеративный подход* – высокая степень автономии ИИ. Система самостоятельно создаёт изображения по заданным параметрам без постоянного участия пользователя.

Инструментальный подход подразумевает симбиоз человека и ИИ: художник или исследователь сохраняет контроль над процессом, а алгоритмы помогают реализовать замысел быстрее и качественнее. Рассмотрим этот подход подробнее.

Ключевые принципы инструментального подхода. *1. Соавторство, а не замена.* ИИ не создаёт работу с нуля, а предлагает варианты, дорабатывает эскизы, даёт рекомендации. *2. Итеративность.* Процесс идёт в режиме диалога: человек задаёт направление, ИИ генерирует варианты, пользователь выбирает и уточняет. *3. Фокус на рутинных операциях.* Автоматизация затрагивает технические задачи (подбор цветов, выравнивание, масштабирование), оставляя творчество человеку. *4. Гибкость настроек.* Пользователь может регулировать степень вмешательства ИИ — от минимальных подсказок до глубокой переработки.

Основные функции ИИ – помощников.

1. Генерация идей и вариантов: - предложение цветовых палитр на основе анализа стиля; - создание нескольких композиционных решений по эскизу; - генерация текстур и фонов по описанию; - подбор референсов по ключевым словам.

2. Оптимизация и доработка: - автоматическое выравнивание объектов и линий; - коррекция перспективы и пропорций; - улучшение качества изображений (повышение резкости, шумоподавление); - векторизация растровых эскизов.

3. Ускорение рутинных операций: - пакетная обработка изображений (изменение размера, формата, цвето коррекция); - автоматическое создание теней и бликов; - заполнение выделенных областей с учётом контекста (inpainting); - генерация бесшовных паттернов из фрагмента рисунка.

4. Специализированные научные функции: - преобразование таблиц данных в графики и диаграммы; - визуализация молекулярных структур по химическим формулам; - построение 3D-моделей по 2D-срезам (например, для гистологии); - автоматическая аннотация научных иллюстраций.

Ученые Галкин Д.В., Коновалова К.В., Бобков С. Пв своей статье «К проблеме автоматизации творчества в сфере искусства и дизайна: инструментальный и генеративный подходы» рассматривают два подхода к автоматизации творчества – инструм ентальный и генеративный. Инструментальный подход описывается как расширение творческих возможностей человека за счёт цифровых инструментов, где технологии выступают в роли ассистента, подсказчика или аналитика. [1]

Статья «Особенности цифровой иллюстрации в эпоху развития искусственного интеллекта»авторы - Монахова Л.Д., Коробанов А.В., Киселёва Е.В. в ней анализируют роль цифровых инструментов, включая нейронные сети, в процессе создания иллюстраций. Упоминается, что пока работа ИИ заключается в компиляции существующих изображений, а стилизация становится работой машины, при этом роль художника сохраняется и трансформируется. [2]

Автор Wang B. в своей статье «Искусственный интеллект и будущие пути развития искусства» рассматривает возможность использование ИИ как инструмента в искусстве. Упоминается система Daozi, которая собирает информацию с натурных изображений и других материалов, изучает стили рисования сотен художников и создаёт картины тушью в стиле различных мастеров китайской живописи. Также обсуждается проект DeepDream компании Google, который визуализирует процесс глубокого обучения через итеративные вычисления нейронных сетей.[3].

Примеры инструментов и их возможностей ИИ. *1. Adobe Photoshop с функциями Adobe Firefly:* 1) Generative Fill — заполнение выделенных областей с учётом стиля изображения; 2) Generative Expand — расширение границ холста с дорисовкой фона; 3) Text-to-Vector — создание векторных иллюстраций по текстовому описанию.

2. Procreate с ИИ-кистями: - автоматические сглаживание и стабилизация линий; - интеллектуальное смешивание цветов; - шаблоны композиции с правилом третей и золотым сечением.

3. Figma с плагинами на базе ИИ: 1) AutoLayout — автоматическое выравнивание элементов интерфейса; 2) DesignGen — генерация UI-компонентов по описанию; 3) Color Contrast Checker — подбор сочетаний с учётом доступности.

4. Научные инструменты: 1) ***BioRender*** — создание иллюстраций по биологии и медицине из готовых элементов; 2) ***ChemDraw*** — преобразование химических формул в структуры с автоматической оптимизацией; 3) ***GraphPad Prism*** — построение научных графиков с рекомендациями по стилю.

Практический пример: создание научной иллюстрации. Задача: визуализировать механизм действия фермента для статьи в журнале *Nature*.

Шаги с использованием инструментального подхода: 1. Эскиз от руки. Исследователь рисует от руки схему на планшете. 2. Векторизация. ИИ преобразует набросок в чистые векторные линии. 3. Детализация. Система предлагает варианты стилизации молекул (шаростержневые модели, поверхности и т.д.). 4. Аннотации. Автоматическое добавление подписей и стрелок с учётом расположения элементов. 5. Цветокоррекция. Подбор палитры, соответствующей стилю *Nature*. 6. Экспорт. Генерация версий в SVG (для редактирования) и TIFF (для публикации).

Результат: профессиональная иллюстрация за 1–2 часа вместо 1–2 дней ручной работы.

Практическое применение в науке. Автоматическое рисование востребовано в: *Академических исследованиях* — создание графиков для статей и докладов. *Диссертациях* — визуализация концепций и механизмов. *Грантовыхзаявках* — наглядное представление гипотез и ожидаемых результатов. *Образовательных материалах* — иллюстрации для лекций и учебников.

***Пример использования SciDraw**:* 1. Исследователь загружает данные в формате CSV. 2. Выбирает тип графика (например, тепловую карту). 3. Применяет пресет для журнала Nature. 4. Получает готовый график в SVG за 3–15 минут. 5. При необходимости уточняет детали через диалог с ИИ.

Преимущества и ограничения.

Преимущества: - Экономия времени и ресурсов (до 95 % затрат по сравнению с наймом дизайнера). - Соответствие стандартам журналов. - Векторный экспорт (SVG) — возможность редактирования в AdobeIllustrator и Inkscape. - Доступность — интуитивный интерфейс без требований к навыкам дизайна.

Ограничения: - Зависимость от интернета (нет автономного режима). - Ограниченное число пресетов (6 визуальных стилей, 7 шаблонов). - Для сложных концепций может потребоваться несколько итераций. - Бесплатная версия имеет лимиты по кредитам и хранению истории.

Перспективы развития. Ключевые направления: 1. Улучшение качества генеративного ИИ — более точные и креативные результаты. 2. Расширение библиотек пресетов – поддержка большего числа журналов и стилей. 3. Интеграция с научными платформами – прямая загрузка данных из лабораторий. 4. Развитие автономных решений – работа без подключения к сети.

Автоматическое рисование на основе ИИ трансформирует научную визуализацию. Инструменты вроде SciDraw позволяют исследователям быстро создавать иллюстрации и графики профессионального уровня, соблюдая строгие требования журналов. Несмотря на текущие ограничения, технология обладает высоким потенциалом и будет играть всё более важную роль в научной коммуникации.

Использованной литературы:

1. Статья Д.В.Галкина, К.В.Коноваловой и С.П.Бобкова «К проблеме автоматизации творчества в сфере искусства и дизайна: инструментальный и генеративный подходы» опубликована в журнале «Вестник Томского государственного университета. Культурология и искусствоведение» в 2021 году, номер 44, страницы 14–24. cyberleninka.ru +2

2. Монахова Л.Д., Коробанов А.В., Киселёва Е.В. Особенности цифровой иллюстрации в эпоху развития искусственного интеллекта // KANT. - 2023. - №2(47). - С. 350-355.

3. Wang Keying. Искусственный интеллект и будущие пути развития искусства // Культура и цивилизация. - 2023. - Т. 13, №7А. - С. 146-153.

4-SHO‘BA: TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QITISH METODLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Abdullayev Abduqayum Abdulhayevich,
Chirchiq PDU “Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedrasi dotsenti. p.f.f.d. (PhD).
Ma’rupov X.X.,
Toshkent viloyati Parkent tumani 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab direktori.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalar shakllanadi hamda ular o‘quv faoliyatiga moslashadi. Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qitish metodlariga bog‘liq. Chunki to‘g‘ri tanlangan metod o‘quvchining mavzuni tushunishi, qiziqishi va faolligini oshiradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda o‘qitish metodlarini o‘rganish va tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘qitish metodi tushunchasi. O‘qitish metodi – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’lim jarayonini tashkil etish usuli bo‘lib, bilim berish va uni o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda metodlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi va qiziqishlariga mos tanlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (odatda 6–10 yosh oralig‘i) maktab hayotiga endi qadam qo‘ygan, psixologik va fiziologik jihatdan tez rivojlanayotgan davrda bo‘ladi. Bu davr bolalarning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish o‘qituvchi uchun juda muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik holati barqaror emas, tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Asosiy jihatlar: 1. Diqqatning beqarorligi (tez chalg‘iydi, uzoq vaqt bir narsaga e’tibor qaratishi qiyin). 2. Xotiraning ko‘proq ko‘rgazmali va mexanik turi ustun bo‘lishi. 3. Tasavvur va fantaziyaning kuchli rivojlanganligi. 4. Hissiy-emotsional sezgirlikning yuqoriligi. Shu sababli darslar qisqa, qiziqarli va ko‘rgazmali bo‘lishi kerak.

Yosh bolalar dunyoni o‘rganishga kuchli qiziqish bildiradi, lekin fikrlash hali konkret (aniq narsalarga bog‘liq) bo‘ladi. Shuning uchun o‘qitishda hayotiy misollar va ko‘rgazmali vositalar muhim rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamiyat va tengdoshlar bilan munosabatni endi o‘rganishni boshlaydi.

Asosiy jihatlar: 1. O‘qituvchiga kuchli bog‘liqlik va ishonch. 2. Tengdoshlari bilan do‘stlashishga intilish. 3. Jamoada ishlash ko‘nikmasining shakllanishi. 4. Qoidalarni qabul qilish va ularga amal qilish.

O‘qituvchi bu davrda bolalar uchun nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va yo‘naltiruvchi ham hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar juda hissiyotli va ta’sirchan bo‘ladi. Shu bilan birga: tez xursand bo‘lish va tez xafa bo‘lish; maqtovga kuchli ehtiyoj; tanqidni og‘ir qabul qilish; adolat va e’tiborga sezgirlik kabi xususiyatlari mavjud. Shuning uchun o‘qituvchi muloqotda yumshoq, qo‘llab-quvvatlovchi uslubdan foydalanishi kerak.

Boshlang‘ich sinf davrida bolalar jismonan faol va harakatchan bo‘ladi. Shu sababli dars jarayonida harakatli o‘yinlar va tanaffus mashqlari muhimdir va ularda tez charchash, harakatga bo‘lgan ehtiyoj yuqori, mayda motorika (yozish, chizish) rivojlanish jarayonida diqqatni uzoq saqlash qiyin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari: o‘qishga qiziqadi, lekin tez chalg‘iydi, o‘qituvchining bahosi va fikriga juda bog‘liq bo‘ladi, rag‘batlantirishga kuchli javob qaytaradi, o‘yin orqali o‘qishni yaxshi qabul qiladi. Shu sababli rag‘batlantirish, ijobiy baholash va qiziqarli metodlardan foydalanish juda muhim.

Metod samaradorligi – bu o‘quvchilarning bilimni qanchalik tez, to‘liq va amaliy o‘zlashtirishi bilan belgilanadi. Samaradorlikka ta’sir etuvchi o‘qituvchining mahorati, o‘quvchilarning qiziqishi, metodning mosligi, dars muhiti kabi omillar mavjud

Muammolar va ularning yechimi: *Muammolar* – an’anaviy darslarning ustunligi, texnologiyalar yetishmasligi, o‘qituvchi malakasining yetarli emasligi, metodik materiallarning kamligi. *Yechimlar* – zamonaviy metodlarni o‘rgatish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, raqamli resurslarni ko‘paytirish, darslarni interaktiv qilish.

O‘qituvchining roli shundan iboratki, u to‘g‘ri metod tanlash, darsni boshqarish, o‘quvchini faollashtirishi zarur. Zamonaviy o‘qituvchidan kreativ fikrlash, texnologiyadan foydalanish, interaktiv dars tashkil qilish talab qilinadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish metodlari dars sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. To‘g‘ri tanlangan metod o‘quvchining bilim olish jarayonini yengillashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Zamonaviy ta’lim tizimida interaktiv, o‘yin va raqamli metodlar asosiy o‘rinni egallamoqda. Shu sababli o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish dolzarb vazifadir.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik, emotsional va ijtimoiy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan davrda bo‘ladi. Ularning diqqatini jamlash, qiziqishini oshirish va bilim berish uchun o‘qituvchi zamonaviy, interaktiv va bolaga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanishi kerak. Bu davrda berilgan ta’lim bolaning kelajakdagi o‘qish faoliyati va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturlari. – Toshkent, 2021.
2. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. G‘oziev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2017.
5. www.edu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy sayti)

MUSIQA MADANIYATI O‘QITUVCHISINING DARSGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH USLUBLARI

Abduqodirova Dilzoda Mirzali qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi.

Pedagogikada interfaol metodlar ta’lim jarayoniga kirib kelishidan avval barchamizga ma’lum an’anaviy metodlardan foydalanib kelganmiz. Zamon o‘rgazirishi pedagog - olimlarning tinmmay izlanishlari natijasida, axborot tezligi va ma’lumotning kengligi sababli ta’lim sohasida dars mashg‘ulotlarini olib borish, o‘quvchilarda bilim

olish tezligi va sifatliligini ta’minlash uchun yangicha bir metodlarga ehtiyoj sezila boshladi. Tajribada sinalgan va yuqori ko‘rsatkich ko‘ratgan metodlar sekin astalik bilan dunyo mamlakatlari ta’lim dargohlarida amalda qo‘llana boshladi. Yuqorida keltirganimizdek faol metodlar nomi bilan ta’limni faollashtiradi.

Ta’limning faol shakllari ta’lim sinfiga kiritilgan "ta’limni modernizatsiya qilish texnologiyalari" deb nomlangan texnologiyalar o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish asoslari kabi ta’lim shakllari o‘quvchilarni faol bo‘lishga undaydigan usullardir. Ta’limni o‘zlashtirish jarayonida aqliy va amaliy faoliyat material bilan asosiy inkor etilmaydigan afzalliklar yuqori darajadagi mustaqillik, tashabbuskorlik, ijtimoiy rivojlanish ko‘nikmalar, bilim olish va ularni qo‘llash qobiliyatini shakllantirish amaliyot, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, tanlash erkinligi hissi o‘rganishni ongli, samarali va samaraliroq qiladi.

Albatta, metodlar o‘zining bir qancha afzalligi bilan ta’lim jarayonini sifatini ko‘taradi. Boshqa tomondan qaraganda hozirgi zamon talabi elektron qurilmalar, multimedialar bilan boyib bormoqda. Ta’lim jarayonida ham ushbu sifatlarni alohida e’tiborga olish tobora kuchayib bormoqda. Multimedialar yordamida ishlagan metodlardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarda mavzuga bo‘lgan qiziqishni oshirish bilan birgalik musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqaga jo‘r bo‘lish, ritmni his qila olish faoliyat turlarini maksimum darajada yetkazib bera olmoqda. Ilmiy izlanishimizning asosiy urg‘u berib o‘tadigan nuqtasi ham ayni shunda. Ushbu metodlardan bugun butun dunyoda musiqa darslarini olib borishda pedagoglar tomonidan foyalanilmoqda. Bu metodlar “Ritmogramma” “Musicgramma” deb nomlanadi. Ushbu metodlar yordamida bir vaqtning o‘zida ham ritmni ham musiqa savodi mashg‘ulotlarini o‘tkazishda foydalanish mumkin. Ushbu metodlar haqida qisqacha tushuncha berib o‘tadigan bo‘lsak:

“Musicgramma” metodi 1965-yilda pedagog olim Iosef Vuytak tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda turli geometrik shakllar yordamida musiqa tinglash va ritmga jo‘r bo‘lish o‘rgatiladi. O‘quvchi qo‘li yordamida ko‘rsatilgan shakllar orqali kuyga moslab harakatlantirib boradi. Bir vaqtning o‘zida bolada qo‘l mayda matorikalari ham ishlaydi va natijada aqliy va sensor qobiliyatni ham rivojlantirib boradi. Quyida musiqagrammalarga misollar keltiramiz.

Musiqa o‘qituvchisi 4-sinf musiqa darsligida berilgan “Yaxshi bola” qo‘shig‘iga o‘zining ijodiy yondashuvi bilan birgalikda musiqagramma uchun shakllarni doskaga yozadi yoki tayyor qog‘ozlarga chiqarib o‘quvchilarga tarqatadi. Bu jarayonda o‘qituvchidan musiqa savodidan mohirlik bilan foydalanish talab qilinadi. Tanlangan shakllar kuy ritmi va ohangiga mos ravishda tanlanishi juda ham zarur. Aynan shu unsurlar o‘qituvchidan bilim, o‘quvchidan ko‘nikma hosil qilishga kerak bo‘ladi.

Keyingi zamonaviy metodlarimizdan biri bu ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda “tana barabani” deb tarjima qilinadi. Bu metoddan foydalanishda tanlangan kuy ritmi asosida tana harakatlari qo‘shib ijro etiladi. Bu o‘quvchilarda ham jismoniy ham ritmik harakatlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Ushbu metoddan o‘quvchilarda charchoq asosan darsning harakatli o‘yinlardan foydalashinish qismida ishlatish maqsadga muvofiq. Ushbu metod Karl Orf va Zoltan Koday metodlarining birikishidan hosil bo‘lib, 1980-yil solist Keith Terry tomonidan San Fransiskoda katta chiqishda namoyish etiladi. Bu metod yordamida o‘quvchilarga zarb, ritm va o‘lchov tushunchalarini berish yanada osonlashadi. Metodning ajralib turadigan jihati shundaki ritm va zarblarni o‘rganishda tana harakatlari ya’ni qarsak, oyoq zarbi va barmoq qarsillatish orqali o‘rgatiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. An’anaviy metodlardan farqli ravishda faol metodlar o‘quvchini dars jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylantiradi, uning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mazkur metodlar jahon tajribasida keng qo‘llanilayotgan bo‘lib, ularni musiqa darslarida samarali tatbiq etish o‘quvchilarda musiqaga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ritmik sezgi va ijodiy tafakkurni shakllantiradi. Shunday ekan, zamonaviy interfaol metodlardan oqilona va maqsadli foydalanish musiqa ta’limi sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirova, D., Karimova, D. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini ta’minlash. Центральноазиатский журнал образования и инноваций,2(9 Part 2), 73-76
2. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. - T. Iqtisod-moliya. 2008
3. Karimova D.A. Musiqa o‘qitishda texnologiyalar va loyihalash, Lesson Press - T. 2021
4. Karimova D.A. Darsdan tashqari musiqa to‘garaklarini tashkil etish. - T.: “Bookmany print” 2022.

AN’ANAVIY XONANDALIK IJROCHILIGI SAN’ATI NAMOYANDALARI ASARLARINI O‘RGANISHNING ZARURATI

Abduraxmonov Navro‘z Shuxratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.
Raximov Shavkat Normatovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti, Ilmiy rahbar.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yurtboshimiz eng katta kuch yoshlarga qaratilganligini bot-bot takrorlab kelmoqda. Shu sababdan biz yoshlar o‘qib izlanishimiz uchun ayni kunda juda ham kerakli bo‘lgan kitobxonlik san’atini qo‘llashimiz lozim. Yoshlar orasida kitobxonlik darajasini yanada o‘stirish hoh u gumanitar fan bo‘lsin, hoh tabiiy, hoh aniq yoki san’at fanlarida ham so‘nggi yillarda jahon miqyosida chop etilgan va buyuk mutafakkir yoki pedagoglarimiz tomonidan yaratilib ketilgan adabiyot va manbaalarni, ilm olish va hunar o‘rganishimizda qo‘llash, biz yoshlar o‘rganayotgan kasbimizning yanada mukammal bo‘lishiga sababdir. Bizning xalqimiz hamisha o‘z madaniy merosi va an’analarini e’zozlab kelgan xalqdir. Madaniy tariximiz insoniyat yaralish davridan to hozirgi davrni o’z ichiga oladi.

Zero har bir o‘tgan kun bu tarixga aylanadi. An’anaviy xonandalik xalqimizning boy tarixi, ajribasi, hayoti va turmush tarzini ifodalaydi. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruhiyati, oliy insoniy fazilatlari va badiiy-falsafiy ma’naviyati yorqin ifodasini topgan. Bu buyuk madaniy qadriyatlar xalqimizning ma’naviy va badiiy-ijodiy kamoloti uchun bebaho omil bo‘lib xizmat qiladi. Umuminsoniy milliy qadriyatlarni chuqur anglashning eng tushunarli usuli bu an’anaviy xonandalikni o‘rganish va uning mohiyatini qalban his qilgan holda ijro etish orqali amalga oshiriladi. O‘zbek xalqining badiiy ijodiyot va san’atga bo‘lgan muhabbati cheksizdir. Tarixni o‘rganmasdan turib kelajak sari qadam qo‘yib bo‘lmaydi.

Musiqiy tafakkurni rivojlanishi inson ongi tomonidan tasvirlangan va oddiy tasvirlardan yanada chuqurroq va mazmunli bo‘lgan tovush hodisalarining asta-sekin murakkablashishi bilan bog‘liq. Musiqiy tafakkurning sifat jihatidan alohida bosqichi bu ijodiy fikrlashdir. Bu darajadagi musiqiy va intelektual jarayonlar asta-sekin takrorlanadigan harakatlardan ijodiy harakatlarga o‘tishi bilan tavsiflanadi. Ijodiy musiqiy tafakkur namoyon bo‘ladigan joy bu musiqa bastalash yoki musiqaning individual talqinidir. Davr talabiga javob beruvchi, har tomonlama rivojlangan, yuksak kasbiy mutaxassislarni tarbiyalash -musiqa ta’limining muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelyabdi.

Musiqa ilmi – bu ilmiy fanlar yig‘indisi bo‘lib, ulardagi o‘rganiluvchi obyekt musiqa san’ati va uning qonuniyatlari, xususiyatlaridir. Musiqa ilmi tushunchasi bilan bir qatorda, musiqashunoslik atamasi ham birdek qo‘llaniladi. Musiqa ilmi badiiy ijodiyot shakllardan biri bo‘lgan musiqaning mohiyatini anglash ehtiyojidan kelib chiqqan. U musiqa tizimida – uning yaratilishi, ijrosi, musiqaga o‘qitish, musiqa san’ati vazifalarini anglab yetish va ularni amalga oshirish yo‘lini tushunishda ahamiyat kasb etadi. Musiqa ilmi tarixiy va nazariy toifalarga ajratiladi. Bunday ajratilish shartli ravishda qabul qilingan, sababi u yoki bu voqelikni o‘rganish davomida tabiiyki turli xil omillarning o‘zaro ta’siri yuz beradi: bir tomomondan, strukturaviy qonuniyatlar, musiqiy tilning xarakterli xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, boshqa tomomondan esa – musiqa asarlarining yaratilish davri, ularning davri bilan bog‘likligini anqlashdir.

Bunday o‘zaro ta’sir, masalan, uslub, janr va boshqalarni ko‘rib chiqishda shubhasizdir. Bundan tashqari, musiqa ilmi-fani sohalari ham mavjudki, ularni tarixiy yoki nazariy musiqashunoslikka mansub deb bo‘lmaydi, ular unisi yoki bunisining chegarasida joylashgandir. San’atning har qanday yo‘nalishini o‘rganishda insonning idroki yaxshi rivoj topgan bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Musiqiy idrokka ta’sir etishda shaxsiy va jamoaviy ijodning o‘rni, ta’sir jarayonlariga oid muammolarni dastlab har tomonlama ishlab chiqqan olimlar Abu Nasr Farobiy (837-950) va Abu Ali ibn Sinolar (980-1037) edi. Farobiyning “Musiqa haqida katta kitob” asarida kuyni tinglash orqali zavqlana bilish inson ruhining oliyjanob xislati ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarga musiqa ilmini o‘rgatish bilan bir qatorda musiqiy merosimizga o‘z hissasini qo‘shgan olimlarning asarlarini ham o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero tarixsiz kelajak yo‘qdir. Musiqa ilmi qadim qadimdan shakllanib kelganligi barchamizga ayondir va shu ilmga o‘zining eng birinchi tamal toshini qo‘ya olgan olimlardan biri bu Abu Nasr Farobiy bo‘ladi. Musiqa haqida o‘rganar ekanmiz uni to‘laqonli Abu Nasr Farobiyning yozgan risolalarisiz tasavvur qilish qiyin. O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrining allomalaridan, yirik namoyondalaridan biri sifatida Al-Farobiy ilmiy merosini o‘rganadigan bo‘lsak, u deyarli fanning barcha sohalarini egallab, kelajak – avlodlarga turli fan sohalariga oid 160 dan ortiq asarlari orqali buyuk ma’naviy meros qoldirdi.

Farobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falfasa, tilshunoslik va adabiyotga oid buyuk asarlar, risolalar yozib o‘sha davrdayoq butun musulmon olamida mashhur bo‘lgan. U yozgan “Musiqa kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida ”, “Fozil odamlar shahri”, “Qonunlar haqida kitob” va boshqalar buyuk olimning ilm va dunyoqarash darajasini beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi. Farobiy ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi uchun “Al-muallim as-soniy” ya’ni “Ikkinchi muallim”, “Sharq Aristoteli” degan mo‘tabar unvonga bo‘ldi.

Olimning ko‘p jildlik “Musiqa haqidagi katta kitob” asari musiqa ilmining katta bilimdoni bo‘lganligini gina emas, ayni zamonda Farobiyning taniqli musiqashunos sozanda va ajoyib bastakor ham bo‘lganligidan darak beradi. U yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo‘lgan. Farobiy san’at o‘z mohiyatiga ko‘ra, ruhiy hayotning in’ikosi ekanligini yaxshi tushungan. Uning fikricha, musiqaning kishilar tuyg‘usiga ta’siri buyukdir.

“Musiqa haqida katta kitob” asarida faqat musiqa nazariyasi va tarixi bayon etilibgina qolmay, Sharqda ma’lum va mashhur bo‘lgan rubob, tanbur, nog‘ora, ud, qonun, nay kabi musiqa asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti berilgan. Farobiyning o‘zi mohir sozanda, bastakor, yangi musiqa asboblarining ixtirochisi ham bo‘lgan. U musiqaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini yaxshilovchi tor musiqa asbobini ixtiro qilib, uni takomillashtirgan va ovoz imkoniyatini oshirgan.

Farobiyning “Baxt-saodatga erishuv haqida ” risolasida san’atning ulkan ta’sir kuchi haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. San’at uning fikricha, insonda go‘zal estetik fazilatlarni tarbiyalashga qadar kuchga egadir. Shu bois mutafakkir inson oldiga alohida talablar qo‘yadi. Farobiy mazkur risolasida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida to‘xtalib, yoshlarning axloqiy fazilati nizomlarini hamda ularning san’atni egallashi uchun amaliy malakalarini tarbiyalash – biz pedagoglarning muqaddas vazifasi ekanligini ko‘rsatib beradi.

Aynan an’anaviy xonandalik ijrochiligi rivojlanishi va hozirgi davrda shunday beqiyos o‘rnini topishida Yunus Rajabiyning san’at olamida ko‘rsatgan jasoratli mehnati tahsinga loyiqdir. Yunus Rajabiy O‘zbekiston xalq artisti, atoqli xonanda, bastakor, cholg‘uchi-ijrochi, folklorshunos, musiqa jamoalari tashkilotchisi va rahbari, hurmatli ustoz va jamoat arbobi va ularning milliy madaniyat oldidagi xizmatlaridan birini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir: san’at namoyondasi ko‘p asrlar davomida xalq xotirasida saqlanib qolgan, kelajak avlodlar uchun asrab-avaylab kelayotgan bir yarim mingdan ortiq diltortar qo‘shiq va cholg‘u asarlarini to‘pladi, tizimlashtirdi va yozib oldi.

Mubolag‘asiz aytish mumkinki, Yunus Rajabiy xalq musiqasini asrab-avaylab shu sohada ya’ni musiqiy merosni kelajak avlodga chiroyli va kamchiliklardan holi tarzda yetkazishda ham katta yutuqlarga erishdi. Darhaqiqat, XX asrgacha O‘zbekistonda nota yozuvi bo‘lmagan va barcha kuylar avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan. Musiqiy asar, maqom mumtoz ashulani ijro qilish faqat o‘sha yaratuvchi, bastakor yoki kompozitor notaga tushirgan fikru hayollarining talqini bo‘libgina qolmasdan, ijrochi uchun o‘ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayonlarning yeg‘indisi bo‘ladi.

Yunus Rajabiyning, ayniqsa, o‘zbek musiqa merosini to‘plashdagi xizmatlari katta. Hozirgi kunda talaba-yoshlarning madaniy savodxonligini oshirishda shashmaqomning o‘rni beqiyosdir. Har bir jildi 200 dan ortiq kompozitsiyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, urushdan keyin olti jildlik “Shashmaqom” paydo bo‘ldi. Shashmaqom yozuvlari bilan gramofon plastinalarining chiqarilishi respublikamiz madaniy hayotida katta voqea bo‘ldi. Ushbu yozuvlar og‘ir sharoitlarda kunni kun demay tunni tun demay, radioqo‘mitaning derazalari tramvay yo‘llari bo‘lgan ko‘chaga qaratilgan xona bo‘lib, kuy ovozi shovqin-suron bilan buzilmasligi uchun ular kechasi 12 dan ertalabki 5 ga qadar yozib olishdi.

Oliy ta’lim muassasalarida san’at sohasidagi Musiqa ta’limi yo‘nalishlarining An’anaviy xonandalik ijrochiligi fanlarida Yunus Rajabiy hayoti va ijodi bilan tanishtirish, uning serqirra ijodidagi yozgan asarlarini amaliyotda ham qo‘llash kelajakda yurtimizda madaniyat sohasining yanada rivoj topishida va yoshlarning shu sohaga

chiroyli munosabatda bo‘lishiga bir yo‘l ochadi. Talabalarda an’anaviy xonandalik ijrochiligi faoliyatida ovoz xususiyatlarini to‘g‘ri nazorat qila olish va uni xususiyatlarini bilish muhim omillardan biridir.

Ma’lumki, an’anaviy xonandalikda har qanday qo‘shiq - so‘z, ohang va ijro uyg‘unligidan iborat yaxlit san’at asaridir. Bu unsurlardan biri yetishmadimi, bilingki, o‘sha qo‘shiq mukammal bo‘lmaydi. Keyingi paytlarda bu uchlikni birga ko‘rish amri mahol bo‘lib qoldi. Kuy go‘zal bo‘lsa, so‘zi sayoz, matn teran bo‘lsa, kuy xarob, she’r ham, musiqa ham joyida bo‘lsa, ijro o‘xshamaydi. Biz bu uchlik yoniga to‘rtinchi qilib ovozni, beshinchi qilib dardni qo‘shgan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazimov R. Cholg‘u ijrochiligi. (o‘quv qo‘llanma) Toshkent – 2016.
2. Bo‘riyeva K. An’anaviy xonandalik. Toshkent – 2008.
3. Qodirov D. An’anaviy xonandalik (Oltin meros). Toshkent – 2016.
4. Yunusov R. Kompozitor Mirsodiq Tojiyev // Monografiya. Toshkent, 2018.

SODDA MASALALARNI TAHLIL QILISH VA YECHISHGA TAYYORLASH METODLARI

Akkulova Maftuna Xikmatulla qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinf matematika darslarida sodda masalalarni tahlil qilish va o‘quvchilarni to‘g‘ri yechim strategiyalariga tayyorlashning metodik yondashuvlarini o‘rganadi. Bu tadqiqotda pedagogik asoslar, kognitiv rivojlanish jihatlari hamda tushunchaviy anglashni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy sinf metodlari yoritilgan. Masalani tahlil qilish bosqichlari, modellashtirish strategiyalari, savol berish usullari va yo‘naltirilgan yechimdan mustaqil yechimga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoniga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *math, qisqa shart, yechish, tahlil, belgi, ishora, ma’lum, noma’lum, tizimli, ko‘rgazmali va savol-javob.*

Boshlang‘ich sinf matematikada sodda masalalar mantiqiy fikrlash va miqdoriy tafakkurni rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi va bunday masalalar oddiy ko‘rinsa-da, ko‘plab o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni matematik ifodalarga aylantirishda biroz qiyinchilikka duch keladilar. Shu tufayli masala shartini tahlil qilish va uning yechimi bo‘yicha strategiyalarini tayyorlash bo‘yicha tizimli o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim psixologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq aniq (konkret) fikrlashga moyil ekanligini va ular ko‘rgazmali hamda kontekstual o‘rganishdan samarali foyda olishini ta’kidlaydi. Matnli masalalar o‘quvchidan ma’lumotni tushunishi, ma’lum va noma’lum miqdorlarni aniqlashi hamda amallar ketma-ketligini mantiqan belgilashini talab qiladi. Samarali metodika o‘quvchilarning yosh va kognitiv rivojlanish xususiyatlariga mos bo‘lishi va ularni aniq tasvirdan bosqichma-bosqich mavhum (abstrakt) tafakkurga olib borishi kerak.

Tahlil jarayoni odatda bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Bular: matnni o‘qish va uni tushunish, ma’lum va noma’lum ma’lumotlarni aniqlash, miqdorlar o‘rtasidagi bog‘lanishni belgilab olish, mos matematik amallarni tanlash va natijani tekshirishdan iborat. O‘qituvchi o‘quvchilardan mustaqil bajarishni kutishdan oldin har bir bosqichni

aniq va izchil tarzda tushuntirib, yo‘naltirib va namuna ko‘rsatib berishi lozim. Misol uchun 3-sinf matematika darsligidagi bir necha matnli masalalarni ko‘rib chiqamiz. Birinchi navbatda, masalaning shartini diqqat bilan o‘qib, unda ma’lum va noma’lum tushunchalarni, o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ifodalarni yozib olish zarur. Keyingi bosqich masala uchun qisqa shart tuzib olish. Masaladagi ba’zi predmetlarni qisqa belgilar, ishoralar yoki harflar bilan ifodalash ham maqsadga muvofiq. Bu jarayon 2-marta masalani qayta o‘qiganda uzoq vaqt sarflamaslikning oldini oladi va masalada aynan nima noma’lum ekanligi ko‘rinib turadi.

Masala. Toshkentdagi eng baland inshoot teleminoradir. Uning balandligi 375 m. Milliy bank binosining balandligi 108 m. Teleminora bank binosidan qancha baland?

Yechish:

Teleminora – T, Milliy bank – M.
T – 375 m
M – 108 m
Teleminora bankdan qancha uzun -? m.
T – M =?

_____
375 (m) – 108 (m) = 267 (m).

Javob: Teleminora bank binosidan 267 m baland.

Matnli masalalarni yechishga tayyorlash tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maqsadli mashqlarni o‘z ichiga olib, bunga asosiy ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish, qisqa ramziy yozuvlar tuzish (masalaning qisqa shartini tuzish), sxematik chizmalar chizish va yo‘naltiruvchi savollar tuzish kiradi. Son o‘qi va oddiy ustunli diagrammalar kabi ko‘rgazmali modellar, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda natijaviyligi yuqori.

Bu jarayonda strategik savol berish tahliliy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchi masalani ishlashdan oldin shartini yaxshilab o‘qib, so‘ng bir necha savollarni berishi mumkin: Nima ma’lum? Nima topilishi kerak? Miqdorlar o‘rtasida qanday bog‘lanish bor? Qaysi amal ushbu bog‘lanishni ifodalaydi? Bunday ketma-ketlikdagi savollar o‘quvchilarda metakognitiv ongni va izchil fikrlashni rivojlantiradi, masalaga o‘zining munosabatini bildira olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Masala: Hayvonot bog‘idagi qafasda jami 35 ta qush bor. Ulardan 12 tasi oqqush, undan 2 marta kam baliqchi qush, qolganlari saqoqush bo‘lsa, saqoqushlar nechta?

Yechish:

Oqqush – O, Baliqchi qush – B,
O – 12 ta
B –? ta, 2 marta kam
S -? ta
Jami: 35 ta
S -?

_____
O + B + S= 35, O + O:2+S = 35
12+12:2+S= 35
12+6+S=35
S=35-18, S =17

Javob: Jami qushdan 17 tasi saqoqush.

Samarali o‘qitish bosqichma-bosqich mas’uliyatni topshirish modeliga asoslanib, dastlab o‘qituvchi masalani tahlil qilish jarayonini namoyish etadi. Keyingi bosqichda yo‘naltirilgan savollar orqali o‘quvchilar birgalikda yechim topishga harakat qiladilar.

Nihoyat, o‘quvchilar mustaqil ravishda masalalarni yechishga kirishadilar. Ushbu jarayon ularning ishonchini va mustaqilligini oshiradi. Bu jarayonning kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, bosqichma-bosqich tahliliy mashg‘ulotlar aniqlikni oshiradi va mexanik xatolarni kamaytirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarda miqdorlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash va mos amallarni tanlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Natijada, ularning umumiy matematik savodxonligi va masala yechish tezkorligi yuqori darajaga ko‘tariladi.

O‘quvchilarga sodda matnli masalalarni tahlil qilishni o‘rgatish faqat to‘g‘ri javobni topish bilan cheklanib qolmay, balki tuzilmaviy matematik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Ko‘rgazmalilik, savol berish, modellashtirish va yo‘naltirilgan savollarni o‘z ichiga olgan tizimli metodika o‘quvchilarning matematik vaziyatlarga mustaqil yondashish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday tayyorgarlik keyingi sinflarda murakkabroq masalalarni yechish uchun mustahkam asos yaratadi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida sodda masalalarni tahlil qilish va yechimga tayyorlash usullari o‘quvchilarda nafaqat hisoblash ko‘nikmalarini, balki mantiqiy, tahliliy, tanqidiy va refleksiv tafakkurni shakllantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Tadqiqot va pedagogik kuzatishlarning natijasi, matnli masalalarni o‘qish, tushunish, ma’lum va noma’lum miqdorlarni ajratish va ular oaa’rtasidagi bog‘lanishni aniqlash jarayoni o‘quvchining kognitiv rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, boshlang‘ich yoshdagi bolalar konkret fikrlash bosqichida bo‘lganligi sababli, tahlil jarayonini ko‘rgazmali vositalar, modellar va sxemalar orqali tashkil etish yuqori samaradorlik beradi.

Sodda masalalarni yechishga tayyorlash jarayonida tizimlilik va bosqichma-bosqichlik tamoyillari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dastlab masala matnini to‘g‘ri o‘qish va tushunishga urg‘u berilishi, keyin esa qisqa yozuv tuzish, sxematik tasvirlash va savollar asosida tahlil qilish metodlari qo‘llanilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchini mexanik hisoblashdan ongli tahliliy faoliyatga olib chiqadi. Ayniqsa, “Nima ma’lum?”, “Nima topilishi kerak?”, “Qanday bog‘lanish mavjud?” kabi yo‘naltiruvchi savollar o‘quvchilarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirib, mustaqil fikrlashga undaydi. Mas’uliyatni bosqichma-bosqich topshirish modeli (o‘qituvchi namoyishi – birgalikdagi faoliyat – mustaqil yechim) o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularni mustaqil muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, son o‘qi, jadval, diagramma va predmetli modellar kabi ko‘rgazmali vositalardan foydalanish abstrakt tushunchalarni konkretlashtirishga yordam beradi hamda matematik tasavvurni boyitadi.

Amaliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, sodda masalalarni tahlil qilishga qaratilgan tizimli mashqlar o‘quvchilarda xatolar sonini kamaytiradi, matematik nutqni rivojlantiradi va masala yechish tezkorligini oshiradi. Eng muhimi, o‘quvchilar masalani faqat javob topish vositasi sifatida emas, balki tahlil va fikrlash jarayoni sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu esa keyingi bosqichlarda murakkab masalalarni o‘zlashtirish uchun mustahkam metodik va intellektual asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf matematika darslarida sodda masalalarni tahlil qilish va yechimga tayyorlash metodlari o‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishning strategik omili hisoblanadi. Tizimli, ko‘rgazmali va savol-javobga asoslangan metodika o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarda mustaqil, izchil va ongli fikrlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M., Tadjieva Z. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. Bikbayeva N., Yangibayeva E. Boshlang‘ich sinf matematika darslari (1–4-sinflar uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: Sharq, 2020.

3. M.Musurmonova, / Matematika o‘qitish metodikasi/ O‘quv-qo‘llanma. – Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 236 bet.

4. 1-4 sinf Matematika darsliklari (mualliflar guruhi). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ТРЕКА РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ануфриева Мария Андреевна,
Студентка 4 курса направление Дошкольное образование филиала Российского ГПУ им. А.И.Герцена в г. Ташкенте.

Аннотация. *В статье рассматривается проблема проектирования индивидуального трека профессионального развития педагога дошкольного образования в условиях современных социально-культурных трансформаций и реформ системы дошкольного образования Республики Узбекистан. На основе компетентностного, системного и деятельностного подходов анализируются теоретические основания профессионального развития педагогов, раскрывается сущность профессиональной компетентности и ее структурные компоненты. Особое внимание уделяется этапам проектирования траектории профессионального роста, включающим диагностику уровня компетентности, целеполагание, планирование содержания, реализацию и мониторинг результатов. Показано, что проектирование профессионального трека выступает эффективной педагогической технологией формирования адаптивного, компетентного и творчески ориентированного педагога дошкольного образования, способного отвечать современным образовательным вызовам.*

Ключевые слова: *дошкольное образование; индивидуальный трек развития; профессиональная компетентность; компетентностный подход; рефлексия; менторство; проектирование; повышение квалификации.*

Современное дошкольное образование находится в эпицентре динамичных социально-культурных трансформаций, что объективно требует качественного обновления подходов к профессиональному развитию педагогов дошкольных организаций. Переход от традиционных моделей обучения к компетентностным и проектно-ориентированным подходам обусловливает насущную необходимость комплексного проектирования траектории профессионального роста дошкольного педагога как целостной и гибкой системы развития. Как отмечают исследователи О.В.Мельникова, М.В.Богомолова и Е.В.Стародубцева, проектирование программ профессионального развития должно обеспечивать переход педагога от статуса исполнителя к позиции эксперта-практика через последовательную реализацию этапов целеполагания, структурирования содержания и мониторинга результатов [1]. В русле компетентностного подхода, разрабатываемого в трудах Т.Е.Титовец и О.И.Митрош, выделяются различные модели реализации профессиональной подготовки будущих воспитателей: имитационная, кумулятивная и проблемно-станционная, каждая из которых создает основу для дальнейшего проектирования индивидуального трека развития [2].

Актуальность данной проблематики в контексте Узбекистана подтверждается на высшем государственном уровне: Указом Президента Республики Узбекистан № УП-152 от 30 сентября 2024 года «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества и эффективности дошкольного образования» определен ряд системных мер, направленных на непрерывное профессиональное развитие педагогических кадров, включая внедрение новых квалификационных позиций, организацию «Дней методического мастерства» и создание образовательных кластеров по принципу «высшее образование - профессиональное образование - дошкольное образование» [3]. Педагог дошкольного образования сегодня - это не просто «исполнитель программ», но самостоятельно мыслящий профессионал, способный создавать развивающую среду, интегрировать инновации и рефлексивно отражать новые образовательные требования в своей практике.

Проектирование профессионального развития представляет собой системную деятельность, направленную на построение последовательных шагов формирования требуемых компетенций, начиная от уровня базовой квалификации и заканчивая компетентностью, соответствующей вызовам XXI века. В современной педагогической науке профессиональное развитие педагога рассматривается как непрерывный процесс включения в контекст самообразования, рефлексии и творческого поиска. Данный подход согласуется с концепцией непрерывного образования, где ключевыми компонентами становятся рефлексия, адаптация к изменениям и способность к сознательному саморазвитию. Исследователи Н.В.Кондрашова и М.В.Каргина в своей работе, посвященной ценностно-целевым ориентирам развития профессионально-педагогической культуры, особо подчеркивают значимость активной педагогической позиции, информационной и медиакультуры, а также готовности к саморазвитию и самообразованию как основополагающей базы для успешной профессионализации и личностно-творческого становления педагогов дошкольных учреждений [4].

Современный педагог дошкольного образования должен обладать сложным полимодальным комплексом компетенций. В классических исследованиях Ф.Н.Гоноболина были выделены группы педагогических способностей, сохраняющие свою актуальность и сегодня: дидактические (способность делать учебный материал доступным и связывать его с жизнью), рефлексивно-гностические (понимание ребенка, интерес к детям, педагогическая наблюдательность), интерактивно-коммуникативные (педагогическое волевое влияние, требовательность, такт, способность организовать детский коллектив) и экспрессивные (содержательность, яркость, образность, убедительность речи) [5]. Развивая эти идеи, В.А.Крутецкий предложил более детальную классификацию, выделяя личностные способности (расположенность к детям, выдержка и самообладание), дидактические (способность объяснять, академические способности, экспрессивно-речевые) и организационно-коммуникативные (организаторские, коммуникативные, перцептивные способности, педагогическое воображение, такт, способность к распределению внимания) [5].

Среди современных исследователей проблема профессиональной компетентности педагога дошкольного образования получила глубокую разработку в трудах В.Г.Яфаевой, которая определяет компетенции, компоненты и индикаторы качества сформированности профессиональной компетентности педагогов дошкольных учреждений [6]. В ее концепции, разработанной в логике системного, деятельностного, технологического и компетентностного подходов,

профессиональная компетентность педагога в сфере интеллектуального развития детей предстает как интегративное качество личности, включающее ценностно-смысловой, содержательно-процессуальный и рефлексивно-оценочный компоненты [7]. Как справедливо отмечает В.Г.Яфаева, проектирование предметно-развивающей среды выступает не только как задача организации пространства, но и как действенное средство развития профессиональной идентичности педагога, поскольку требует интеграции теоретических знаний, творческого воображения и аналитических навыков [6].

Процесс проектирования индивидуального трека развития закономерно начинается с диагностики текущего уровня профессиональной компетентности. Данный этап реализуется через самооценку, стандартизированное тестирование, включённое наблюдение или анализ профессионального портфолио педагога, что позволяет объективно выявить его сильные стороны и актуальные зоны ближайшего развития. Последующая постановка профессиональных целей должна отвечать требованиям конкретности, измеримости и ориентации на развитие ключевых компетенций: например, совершенствование навыков организации предметно-развивающей среды, освоение инструментов цифровой педагогики или овладение методами интерактивного обучения. Формирование содержательной части развития включает теоретическую и практическую подготовку - курсы повышения квалификации, менторские программы, стажировки на базе опорных дошкольных организаций, исследовательские проекты. Исследователи А.С.Белкин и В.В.Нестеров, рассматривая компетенцию в педагогическом плане, определяют ее как совокупность профессиональных полномочий и функций, создающих необходимые условия для эффективной деятельности в образовательном пространстве, а применение методов рефлексии, группового обсуждения и опытно-экспериментальной деятельности существенно усиливает внутреннюю мотивацию и профессиональное самоопределение педагога [8].

Среди эффективных инструментов и методов развития выделяются непрерывное профессиональное обучение и планомерное повышение квалификации; менторство и совместные практики, создающие условия для продуктивного обмена опытом между молодыми и опытными педагогами; интеграция цифровых технологий в повседневную профессиональную практику; рефлексивная практика и участие в профессиональных сообществах как платформах для коллективного обсуждения практических задач; проектная деятельность и исследовательские задания, направленные на развитие компетенций решения нестандартных педагогических задач. Т.Н.Яркина и Н.А.Маркова в своем исследовании, посвященном профессионально значимым качествам педагога дошкольного профиля в условиях стандартизации, обосновывают, что успешность и результативность педагогического труда обеспечиваются не только сформированными компетенциями, но и особыми профессионально значимыми качествами, среди которых особое место занимают эмпатия, педагогический оптимизм, рефлексивность и способность к саморазвитию [9].

В контексте Узбекистана особую значимость приобретает создание мотивационной среды и индивидуализированных траекторий обучения, максимально учитывающих особенности каждого педагога, что находит отражение в работах узбекских исследователей. Реформа дошкольного образования в Узбекистане предусматривает усиление роли обучения

компетенциям, ориентированным на вызовы будущего. В этих условиях проектирование трека развития необходимо рассматривать сквозь призму государственных программ, которые стимулируют инновационное мышление и практическую адаптацию педагогов [10]. Особенно чувствительным моментом является адаптация молодых специалистов, поскольку она требует создания комплекса организационных, методических и психологических условий, поддерживающих их успешное вхождение в профессию и полноценный старт практической деятельности. Показательно, что Указом Президента № УП-152 введена должность заместителя директора дошкольной образовательной организации по качеству образования, на которую возложены задачи по непрерывному профессиональному развитию педагогических работников и широкому внедрению инноваций, что создаёт институциональную основу для реализации проектируемых траекторий [3].

Эффективная модель проектирования трека развития включает несколько последовательных этапов, образующих завершённый цикл. Начальным этапом выступает диагностика компетентности - всесторонняя оценка наличного состояния профессиональных навыков, мотивационной сферы и готовности педагога к содержательным изменениям. Далее следует этап целеполагания, предполагающий определение конкретных профессиональных результатов, которых предстоит достичь педагогу. Этап планирования содержания связан с выбором адекватных методов, технологий, образовательных программ и практик развития. Этап реализации представляет собой выполнение разработанного плана с использованием разнообразных образовательных форм, включая как традиционные курсы, так и инновационные форматы вроде «Часа методического мастерства» в каждой дошкольной организации и «Дня методического мастерства» в опорных организациях. Наконец, этап мониторинга и оценки предусматривает регулярное отслеживание прогресса, углублённую рефлексию и своевременную корректировку индивидуального плана. Данный подход полностью согласуется с мировыми тенденциями развития профессионального образования, где ключевую роль играют личная ответственность педагога за собственный профессиональный путь и сознательное управление своей профессиональной траекторией.

Таким образом, проектирование трека развития современного педагога дошкольного образования представляет собой комплексную педагогическую технологию, направленную на формирование адаптивной, компетентной, творчески ориентированной личности профессионала. Данная технология, основанияя на диагностике, целеполагании, содержательной и методической разработке, обеспечивает непрерывное развитие педагогов в условиях современных образовательных требований, закреплённых в новейшем законодательстве Республики Узбекистан. Компетентностный подход, интеграция современных образовательных практик, механизмы рефлексии и самообразования - всё это превращает процесс профессионального развития в динамичную, ориентированную на будущее траекторию, гарантирующую высокое качество дошкольного образования в современных социально-педагогических условиях.

Список источников:

1. Мельникова О.В., Богомолова М.В., Стародубцева Е.В. Проектирование программ профессионального развития педагогов дошкольного образования. — 2016.

2. Титовец Т.Е., Митрош О.И. Подготовка будущих воспитателей дошкольного образования в контексте компетентностного подхода // Весци БДПУ. Серыя 1, Педагогика. Психалогия. Филалогия. — 2024. — № 4.

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2024 года № УП-152 «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества и эффективности дошкольного образования» // Национальная база данных законодательства. — 2024.

4. Кондрашова Н.В., Каргина М.В. Ценностно-целевые ориентиры развития и совершенствования личностно-творческого компонента профессионально-педагогической культуры у современных педагогов дошкольного и начального образования // Научно-методический электронный журнал «Концепт». — 2024. — № 7.

5. Яркина Т.Н. К проблеме развития профессионально значимых личностных качеств и свойств у педагога дошкольного образования // Детский сад от А до Я. — 2010. — № 1.

6. Яфаева В.Г. Профессиональная компетентность педагога дошкольного учреждения в сфере интеллектуального развития детей // Дошкольное воспитание. — 2010. — № 8.

7. Яфаева В.Г. Концептуальные основания формирования профессиональной компетентности педагога дошкольного образования в сфере интеллектуального развития детей // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2015. — № 3.

8. Бичиева Т.М. Консультация для педагогов на тему «Профессиональная компетентность педагога ДОУ в условиях ФГОС» // Инфоурок. — 2024.

9. Яркина Т.Н., Маркова Н.А. К вопросу о профессионально значимых качествах и свойствах педагога дошкольного образования в условиях стандартизации профессионально-педагогической деятельности // Научно-педагогическое обозрение. — 2016. — № 3.

10. Bogush A. Training of the future preschool educators: competence paradigm // Education in the 21st Century. — 2023. — Vol. 1, No. 1. — P. 130–137.

РОЛЬ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ЖИЗНИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Арсланова Гульмира Джуманиязовна,
Преподаватель кафедры «Методика дошкольного и начального образования» Чирчикского ГПУ.
Джелялова Мавиле Марленовна,
Беркинова Лола Рашидовна,
Студентки Чирчикского ГПУ.

Аннотация. *В статье раскрывается значение учителя начальных классов в жизни младших школьников. Рассматриваются ключевые направления педагогической деятельности, включающие обучение, воспитание, а также формирование ценностных ориентиров и личностных качеств учащихся. Подчёркивается роль учителя как примера для подражания и важного фактора успешной социализации ребёнка. Особое внимание уделяется личности педагога как одному из главных условий гармоничного развития младшего школьника.*

Представлен вывод о том, что учитель начальных классов оказывает существенное влияние на становление и развитие личности ребёнка.

***Ключевые слова**: педагогическая деятельность, младшие школьники, обучение, воспитание, личность учителя, социализация ребёнка, ценностные ориентиры, развитие личности, образовательный процесс.*

«Начальное образование имеет целью заложить основы длябудущего образования человека, которое в современных условиях продолжается всю жизнь. Ребенка следует научить читать, писать, считать, связно и грамотно выражать мысли, логически рассуждать, делать правильные выводы» [1; с. 16].

Ведущая роль в учебно-воспитательном процессе принадлежит учителю. Учитель начальных классов — это не просто преподаватель. Для ребёнка 7–11 лет он становится вторым значимым взрослым после родителей. В этом возрасте дети копируют поведение взрослых, перенимают манеру общения, формируют самооценку. От первого учителя зависит, будет ли ребёнок любить учёбу, появится ли у него интерес к чтению, выявятся ли творческие способности и целеустремлённость. Учитель учит не бояться ошибок, доступно объясняет материал, поддерживает любознательность. Современный педагогический подход предусматривает позитивное отношение к ошибкам учащихся как естественной части процесса обучения и ориентирует на поэтапную работу над их исправлением. Важно не просто устранять ошибки, а понимать причины их возникновения и помогать ученику развивать свои возможности. Такой подход способствует личностному росту ребёнка и предотвращает появление страха перед неудачами. В этом процессе педагог формирует не только основные учебные навыки, но и здоровую, адекватную самооценку ученика.

Личность учителя как фактор развития ребёнка. «Процесс обучения младших школьников строится на определённых принципах. При этом основное внимание должно быть направлено на физические, возрастные, умственные и духовные возможности учащихся начальных классов» [2; с. 27].

Поступление в школу – важный и трудный этап в жизни ребёнка. Новые требования, иной распорядок дня, ответственность за свои действия могут создавать ощущение тревоги и неуверенности у учеников. В этот период учитель помогает детям адаптироваться к школьному режиму и пройти новый этап жизни. Педагог вводит учащихся в мир знаний, поощряет старание, помогает обрести уверенность в своих поступках и высказываниях. В деятельности учителя начальных классов обучение неразрывно связано с процессом воспитания. В этом возрасте дети активно осваивают нормы поведения, учатся проявлять уважение к старшим, развивают такие качества, как честность, ответственность и доброжелательность. В начальной школе закладываются основы базовых знаний. Однако роль учителя не ограничивается лишь объяснением учебного материала. Педагог помогает ребёнку овладеть умением учиться: внимательно слушать, выполнять задания, планировать свою деятельность и анализировать полученный результат. «При подготовке к уроку преподаватель должен чётко выразить главную цель урока. Цели могут быть разными по своему объёму и характеру, прежде всего в зависимости от особенностей и целей учебного предмета. При определении целей педагог должен исходить из требований программы, учитывая при этом уровень конкретной подготовки учащихся» [3; с. 182].

Грамотно организованный урок помогает ребёнку проявить интерес к предмету, учит анализировать информацию, укрепляет уверенность в собственных возможностях и формирует умение работать как самостоятельно, так и в коллективе. Таким образом, учитель направляет и организует познавательную деятельность младших школьников.

Вопросы воспитания, обучения и роли учителя занимали важное место в трудах многихпедагогови мыслителей. Их педагогические идеи оказали значительное влияние на развитие образовательной мысли и остаются актуальными и в современном образовании. Большое внимание вопросам воспитания уделялвыдающийся восточный философ и учёный Абу Али ибн Сина. В своём труде «Донишнома» он отмечал, что обучение должно учитывать возрастные особенности ребёнка, а также сочетать развитие интеллекта с нравственным воспитанием. Учёный считал, что учитель должен направлять ученика, помогая ему развивать способности и формировать самостоятельное мышление [4; с. 178].

Значительный вклад в развитие идей нравственного воспитания внёс знаменитый поэт, мыслитель и государственный деятель Алишер Навои. В произведении «Махбуб-ул-кулуб» он подчёркивал важность духовного и морального воспитания молодого поколения, а также высокую ответственность наставника перед обществом. Таким образом, восточные мыслители рассматривали учителя как важную фигуру в формировании личности ребёнка. Их идеи подтверждают, что педагог не только передаёт знания, но и играет важную роль в нравственном и интеллектуальном развитии учащихся.

Лев Семёнович Выготский, педагог и психолог, отмечал: «Обучение должно опережать развитие ребёнка, стимулируя его дальнейший рост и формируя процессы, которые находятся в зоне ближайшего развития» [5; с. 15]. Поэтому учителю необходимо подбирать такие задания, которые остаются доступными для выполнения учениками, но при этом требуют определённых усилий и мыслительной активности. Это способствует развитию мышления и формированию самостоятельности у учащихся. В современном образовании от учителя требуется умение развивать у учащихся креативное и инновационное мышление. Педагог выполняет не только функцию передачи знаний, но и формирует творческие и критические компетенции, стимулирует любознательность и обеспечивает активное участие детей в учебном процессе. Учитель создаёт условия для самовыражения ребёнка и поддерживает инициативу в решении учебных задач. Он играет ключевую роль в воспитании моральных и социальных ценностей, помогая детям осваивать сотрудничество и взаимопомощь. Кроме того, педагог способствует формированию у младших школьников уверенности в своих силах и навыков самостоятельного принятия решений, что закладывает прочную основу для дальнейшего личностного и интеллектуального роста.

Константин Дмитриевич Ушинский, русский педагог и учёный XIX века, подчёркивал, что личность учителя является главным воспитательным фактором. По его мнению, влияние личности воспитателя нельзя заменить ни учебниками, ни нравоучениями. Нравственные качества педагога, стиль общения и профессиональная позиция оказывают долговременное воздействие на формирование характера ребёнка.

Антон Макаренко также подчёркивал, что воспитание осуществляется в коллективе и через совместную деятельность. В классе педагог создаёт атмосферу

взаимопомощи и уважения, формирует навыки сотрудничества и соблюдения правил. Личность учителя играет огромную роль: его поведение, речь, отношение к людям становятся примером для детей.

Важной характеристикой современного педагога является высокий уровень профессиональной компетентности. Она включает знание предмета и методики преподавания, умение применять современные образовательные технологии, готовность к постоянному саморазвитию и профессиональному росту. В условиях реализации Государственного образовательного стандарта Республики Узбекистан учитель адаптирует свою деятельность к потребностям развития младшего школьника. В процессе обучения и воспитания младших школьников учитель опирается на методические и педагогические подходы, разработанные выдающимися педагогами и воспитателями. Использование передового опыта позволяет педагогу повышать эффективность образовательного процесса и формировать у ребёнка целостные знания и навыки. Учитель адаптирует проверенные методики к индивидуальным особенностям учеников, создавая условия для их интеллектуального и личностного развития. Таким образом, роль педагога заключается не только в передаче знаний, но и в целенаправленном воспитании, формировании ценностей и развитию инициативности ребёнка.

Заключение. Учитель начальных классов играет важнейшую роль в жизни младших школьников. Он обучает, воспитывает, поддерживает и направляет ребёнка, формирует стремление к достижению целей, умение принимать самостоятельные решения, мотивирует на учебную деятельность. От профессионализма педагога, его терпения и личных качеств зависит успешность дальнейшего обучения и формирование личности школьника. Учитель начальной школы является не только проводником знаний, нои наставником, помощником в первых серьёзных шагах ребёнка в мире образования.Его педагогическая деятельность оказывает влияние не только на успехи в школе, но и на формирование личности и жизненные ориентиры учеников в будущем.

Использованная Использованной литературы:

1. Б.С.Абдуллаева, М.Б.Уразова, Н.Х.Вохидова. Общая педагогика. Учебное пособие. «Sano-standart», Ташкент. – 2017.
2. Ш.Ботирова, Д.Рузметова. Методика преподавания предмета «Воспитания» в начальных классах. «NAZOKATHON ZIYO PRINT», Тошкент. - 2023
3. Г.Р.Тожибоева. Педагогическое мастерство. Учебник. «Olmaliq kitob business», Тошкент. - 2025
4. Абу Али ибн Сина. Донишнома. Ташкент, издательство им. Гафура Гуляма, 1980
5. Лев Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1991.

АДАПТАЦИЯ ПЕРВОКЛАССНИКОВ К ШКОЛЕ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УСПЕШНОСТИ

Арсланова Гульмира Джуманиязовна,
Преподаватель Чирчикского ГПУ.
Нурметова Севара Улугбековна,
Студентка Чирчикского ГПУ.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi o‘quvchilarning bilim olish jarayonida muhim o‘rin egallaydi. O‘qish savodxonligi nafaqat matnni o‘qish ko‘nikmasini, balki uning mazmunini anglash, tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratib olish va mustaqil xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Shu sababli o‘qish darslarida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik yondashuvlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan hujjatlarida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, kreativ va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlardan foydalanishni taqozo etadi [1].

Tadqiqotchi D.Rasulovaning fikricha, o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan savol-topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirib, ularni matn mazmunini chuqurroq anglashga yo‘naltiradi [2; 2-b.]. Savollar o‘quvchini matn ustida izchil fikr yuritishga undaydi, topshiriqlar esa o‘qilgan matn asosida yangi g‘oyalarni ilgari surish imkonini yaratadi. O‘qish savodxonligi darslarida savol-topshiriqlarni samarali tashkil etishda Blum taksonomiyasi muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Amerikalik pedagog olim Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariyaga ko‘ra o‘quvchilarning bilish faoliyati olti bosqichdan iborat: eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish [3; 18-b.]. Mazkur bosqichlar asosida tuzilgan savol-topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, eslash bosqichida o‘quvchi matndagi faktlarni aniqlaydi, tushunish bosqichida esa matn mazmunini izohlaydi. Qo‘llash bosqichida o‘quvchi o‘rganilgan bilimlarini yangi vaziyatda qo‘llaydi, tahlil bosqichida esa matndagi sabab va natijalarni aniqlaydi. Baholash bosqichida o‘quvchi qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildiradi, yaratish bosqichida esa yangi g‘oya yoki yechim taklif qiladi. Tadqiqotchi N.Mamatovaning ta’kidlashicha, o‘qish darslarida savol-

topshiriqlar tizimli ravishda tuzilsa, o‘quvchilar nafaqat matnni anglaydi, balki o‘z fikrini mustaqil bayon etish ko‘nikmasiga ham ega bo‘ladi [4; 62-b.]. Bu esa o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida matn bilan ishlash metodikasi alohida ahamiyat kasb etadi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning o‘qilgan axborotni tahlil qilish, undagi asosiy va ikkinchi darajali g‘oyalarni ajratish, sabab–natija bog‘lanishlarini aniqlash hamda muallif fikriga nisbatan o‘z munosabatini bildirish kabi ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etishda o‘quvchilarning faol bilish faoliyatini ta’minlaydigan metod va usullardan foydalanish muhim hisoblanadi.

O‘qish savodxonligi darslarida savol-topshiriqlarni to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Agar savollar faqat matnda berilgan ma’lumotni takrorlashga qaratilgan bo‘lsa, o‘quvchilar faqat eslab qolish bosqichida qolib ketadi. Ammo tahliliy va muammoli savollar berilganda o‘quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglashga, undagi g‘oyalarni solishtirishga va o‘z fikrini asoslab berishga harakat qiladi. Bu esa ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanish ham samarali natija beradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Sinkveyn” kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi hamda ularni matn ustida mustaqil ishlashga undaydi. Bunday metodlar yordamida o‘quvchilar o‘qilgan matnni tahlil qilish, undagi muhim fikrlarni aniqlash va o‘z fikrini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, o‘qish savodxonligini rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish ham muhim omil hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun savol-topshiriqlar sodda, tushunarli va qiziqarli bo‘lishi zarur. Ayniqsa, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda ularning nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilar o‘qilgan matn asosida o‘z fikrini mustaqil ravishda bayon eta olish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Blum taksonomiyasi asosida savol-topshiriqlarni tizimli tarzda tashkil etish o‘qish savodxonligi darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning matnni chuqur tushunish qobiliyatini mustahkamlash, balki ularning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, savol-topshiriqlarni taksonomiyaga muvofiq darajalash orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyati shakllanadi, dars jarayoni esa yanada samarali va tizimli bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar uchun Bloom taksonomiyasi asosida savol-topshiriqlarni rejalashtirish o‘quv jarayonini optimallashtirish va individual o‘quv ehtiyojlarini hisobga olishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni. - 2019-yil 8-oktyabr.

2. Rasulova D. O‘qish savodxonligini shakllantirish texnologiyasi. - Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.

3. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longman, 1956.

4. Mamatova N. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslari metodikasi. – T.: Fan, 2018.

SHAXS MA’NAVIY YUKSALISHIDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Davlatboyeva Sarvara Tozaboyevna,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Maqola shaxsning ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning muhim o‘rni haqida so‘z yuritadi. Ma’naviyat va qadriyat tushunchalarining bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi, ularning shaxs tarbiyasidagi va jamiyat hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Qadriyatlar orqali insonning axloqiy-ruhiy sifati oshishi, o‘zini anglash va maqsad sari intilishi yuzaga keladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishning dolzarbligi, shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotda ularning tutgan o‘rni muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: ma’naviyat, qadriyatlar, shaxs yuksalishi, axloqiy-ruhiy rivojlanish, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy ahamiyat, o‘zini anglash, shaxsiy taraqqiyot.*

Ma’naviyat – bu insonning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari, e’tiqodi, dunyoqarashi, madaniyati va ruhiy barkamolligini ifodalovchi tushunchadir. U shaxsning jamiyatdagi xulqi, fikrlashi va hayotga munosabatini belgilaydi. Ma’naviyatning asosiy tarkibiy qismlari: *Axloq* – halollik, adolat, vijdon, mas’uliyat; *Madaniyat* – odob-axloq, nutq madaniyati, estetik did; *E’tiqod* – ishonch, iymon, hayotiy qarashlar; *Bilim va tafakkur* – ilmga intilish, fikrlash madaniyati; *Milliy qadriyatlar* – urf-odat, an’ana, tarixiy meros. Ma’naviyatning ahamiyati: Shaxsni barkamol inson sifatida tarbiyalaydi; Jamiyatda totuvlik va barqarorlikni mustahkamlaydi; Yoshlarda vatanparvarlik va mas’uliyatni kuchaytiradi; Insonni yovuzlik, jaholat va befarqlikdan asraydi.

Qadriyatlar – bu jamiyat, millat yoki shaxs uchun muhim bo‘lgan axloqiy, ma’naviy, madaniy va ijtimoiy mezonlar majmuasidir. Qadriyatlar insonning dunyoqarashi, xulq-atvori va hayotiy qarorlariga yo‘l-yo‘riq beradi.

Qadriyatlarning asosiy turlari: *1. Ma’naviy qadriyatlar:* Vijdon, halollik, adolat; Mehr-oqibat, sabr, poklik. Milliy qadriyatlar: Til, urf-odat, an’ana; Milliy kiyimlar, bayramlar, marosimlar. *2. Umuminsoniy qadriyatlar:* Tinchlik, erkinlik; Inson huquqlari, tenglik, do‘stlik. *3. Oilaviy qadriyatlar:* Ota-onaga hurmat; Mehr, sadoqat, o‘zaro mas’uliyat. *4. Ijtimoiy qadriyatlar:* Mehnatsevarlik; hamkorlik, jamoaga sadoqat. *Qadriyatlarning ahamiyati:* Shaxs tarbiyasini shakllantiradi; Jamiyat barqarorligini ta’minlaydi; Milliy o‘zlikni saqlaydi; Avlodlar o‘rtasida uzviylikni mustahkamlaydi.

Shaxs yuksalishi — bu insonning ma’naviy, aqliy, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan izchil rivojlanib borish jarayonidir. Shaxs yuksalishi natijasida inson o‘zini anglaydi, jamiyatda munosib o‘rin egallaydi va hayotda maqsadli faoliyat olib boradi. Shaxs yuksalishining asosiy yo‘nalishlari: ma’naviy yuksalish, aqliy yuksalish, axloqiy yuksalish, ijtimoiy yuksalish, jismoniy yuksalish. *Shaxs yuksalishiga ta’sir etuvchi omillar:* oila tarbiyasi; ta’lim va ustozlar; ijtimoiy muhit; o‘z ustida ishlash; milliy va umuminsoniy qadriyatlar. *Shaxs yuksalishining ahamiyati:* barkamol avlodni voyaga yetkazadi; jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi; insonning hayotdan qoniqishini oshiradi.

Axloqiy-ruhiy rivojlanish — bu shaxsning axloqiy qarashlari, qadriyatlari, his-tuyg‘ulari, irodasi va ruhiy barqarorligining bosqichma-bosqich shakllanish jarayonidir. U insonning jamiyatda to‘g‘ri yashashi, boshqalar bilan munosabatda bo‘lishi va o‘zini

anglashida muhim ahamiyatga ega. Axloqiy rivojlanish shaxsda: yaxshilik va yomonlikni ajrata bilish, halollik, adolat, mas’uliyat, vijdon, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, jamiyat qoidalariga rioya qilish kabi sifatlarning shakllanishini anglatadi. Ruhiy rivojlanish: his-tuyg‘ularni boshqara olish, o‘zini tuta bilish, stress va qiyinchiliklarga bardoshlilik, o‘ziga ishonch, mustaqil fikrlash kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. *Axloqiy-ruhiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar:* Oila – tarbiyaning eng asosiy manbai; Ta’lim muassasasi – o‘qituvchi va muhit ta’siri; Jamiyat va muhit – do‘stlar, ommaviy axborot vositalari. *Axloqiy-ruhiy rivojlanishning ahamiyati:* Barkamol va komil insonni tarbiyalaydi; Ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi; Salbiy xatti-harakatlarning oldini oladi; Sog‘lom jamiyat poydevorini yaratadi.

Ma’naviy tarbiya — bu shaxsda yuksak axloq, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, mas’uliyat va estetik didni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz tarbiya jarayonidir. Ma’naviy tarbiya orqali insonda quyidagi sifatlar rivojlanadi: vijdon va axloq, vatanparvarlik va milliy g‘urur, insonparvarlik, ma’rifatlilik, estetik did. Ma’naviy tarbiyaning asosiy vazifalari: Yaxshi va yomonni ajrata olishni o‘rgatish; Milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish; O‘z xatti-harakatiga mas’uliyat hissini rivojlantirish; Sog‘lom dunyoqarashni qaror toptirish. Ma’naviy tarbiyaning ahamiyati: Barkamol avlodni voyaga yetkazadi; Jamiyatda sog‘lom muhitni ta’minlaydi; Yoshlarni salbiy illatlardan asraydi; Milliy o‘zlikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy ahamiyat — bu biror hodisa, faoliyat, g‘oya yoki qarorning jamiyat hayotiga foydasi, odamlar turmushiga ta’siri va umumiy taraqqiyotdagi o‘rni deganidir. Agar biror ish yoki g‘oya: jamiyat rivojiga xizmat qilsa, odamlar hayotini yaxshilasa, ijtimoiy muammolarni kamaytirsa, u ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Misollar: Ta’lim — savodxonlikni oshiradi, malakali kadrlar yetishtiradi; Sog‘liqni saqlash — aholi salomatligini himoya qiladi; Atrof-muhitni muhofaza qilish — kelajak avlod uchun toza muhit yaratadi; Yoshlar tarbiyasi — jamiyat kelajagini belgilaydi. Bularni hammasi ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Xullas, ijtimoiy ahamiyat — bu faqat shaxsiy manfaat emas, balki butun jamiyatga foyda keltiradigan qiymatdir.

O‘zini anglash — bu insonning o‘zini shaxs sifatida tushunishi, ya’ni o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari, qobiliyatlari, qadriyatlari, kuchli va zaif tomonlarini anglab yetish jarayonidir.O‘zini anglashning mazmuni: O‘zini anglash jarayonida inson: “Men kimman?”, “Nimalarga qodirman?”, “Hayotdan nima istayman?”, “Mening hayotiy maqsadim nima?” kabi savollarga javob izlaydi. O‘zini anglashning asosiy jihatlari: O‘z-o‘zini bilish- shaxs o‘z xarakteri, qiziqishlari, iqtidorlari va kamchiliklarini tan oladi. O‘z-o‘zini baholash: Inson o‘zini real baholay oladi. O‘z-o‘zini nazorat qilish- xatti-harakatlarini boshqarish, hissiyotlarini jilovlashni o‘rganadi. O‘zini rivojlantirish-kamchiliklarini tuzatishga, bilim va malakasini oshirishga intiladi.O‘zini anglashning ahamiyati: Shaxsiy o‘sish va kamolotni ta’minlaydi; To‘g‘ri hayotiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi; Mas’uliyat va mustaqillikni kuchaytiradi; Jamiyatda o‘z o‘rnini topishga zamin yaratadi. O‘zini anglash quyidagi bosqichlarda shakllanadi: Boshlang‘ich belgilari – bolalikda; Faol rivoji – o‘smirlik davrida; Mukammallashuvi – kattalikda davom etadi.

Shaxsiy taraqqiyot – bu insonning o‘z ustida ongli ravishda ishlashi, bilim, ko‘nikma, xarakter va dunyoqarashini bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonidir. U butun umr davom etadi va insonning hayot sifati, muvaffaqiyati hamda baxtiyorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shaxsiy taraqqiyotga erishish usullari: doimiy o‘qish va o‘rganish; o‘z ustida tahlil qilish; aniq maqsadlar qo‘yish; vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish; ijobiy odatlar shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ma’naviy yuksalishida qadriyatlar eng muhim tayanch hisoblanadi. Chunki inson o‘z hayotida qanday yo‘l tutishini, qanday qarorlar qabul qilishini aynan qadriyatlariga qarab belgilaydi. Agar shaxsda halollik, vijdon, mas’uliyat, hurmat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar mustahkam bo‘lsa, u har qanday vaziyatda ham o‘z insoniyligini yo‘qotmaydi. Qadriyatlar faqat nazariy tushuncha emas, balki kundalik hayotda amal qilinadigan mezondir. Inson boshqalar bilan muomala qilayotganda, mehnat qilayotganda yoki muammolarga duch kelganda o‘z qadriyatlariga tayanadi. Ayniqsa, bugungi tezkor va murakkab davrda qadriyatlar bizni to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishmaslikka, mustaqil va ongli fikrlashga undaydi. O‘z milliy qadriyatlarini bilgan va ularga hurmat bilan qaragan insonning ma’naviy dunyosi boy bo‘ladi. Bu esa uning jamiyatdagi o‘rnini aniq belgilashga, atrofdagilar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishga yordam beradi. Shu sababli biz qadriyatlarni shaxs ma’naviy yuksalishining asosiy omili deb hisoblaymiz va ularni asrash hamda hayotda qo‘llash har bir insonning muhim vazifasi, deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov E. Milliy qadriyatlar va ma’naviyat. – T.: «Yangi asr avlodi», 2020.
2. Xudoyorova D. Shaxs ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlar roli. // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022, №3, 45–53-betlar.
3. Rashidov B. Yoshlar ma’naviyati va qadriyatlar tizimi. // Jamiyatshunoslik, 2020, №4, 18–26-betlar.
4. Qodirov A. Shaxs tarbiyasi va axloq. Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2017.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Davlatova Munisa Aminovna,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.
Nurqabilov Rasulmat Akmal o‘g‘li,
Sheripboyeva Feruza Zoxidjon qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda globallashuv va raqamli transformatsiya davrida boshlang‘ich ta’limni isloh qilishning dolzarb masalalari yoritilgan. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, o‘yin texnologiyalari va raqamli resurslarni integratsiya qilishning ahamiyati tahlil qilingan. Asosiy e’tibor o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik va raqamli savodxonlik kabi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, innovatsiya, raqamli transformatsiya, tanqidiy fikrlash, o‘yin texnologiyalari, raqamli savodxonlik, ta’lim samaradorligi.*

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi shunchaki axborot yetkazish emas, balki o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarni ijodiy hal etish hamda innovatsion g‘oyalarni hayotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturlarida ham innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish sifat ko‘rsatkichlarini oshirishning

asosi sifatida belgilangan. Xususan, boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shu yosh davrida bolaning intellektual poydevori, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va dunyoqarashi shakllanadi. Innovatsion yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ta’limning passiv tinglovchisidan jarayonning faol subyektiga aylantirib, pedagogik jarayon samaradorligini kafolatlaydi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta’limga o‘yin texnologiyalari, raqamli resurslar va muammoli o‘qitish usullarini tatbiq etish darslarning mazmunini boyitadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarda nafaqat fan bo‘yicha bilim, balki zamonaviy hayot uchun zarur bo‘lgan kreativlik va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini erta shakllantirish imkonini beradi. Bunday innovatsion yondashuvlarning hozirgi kundagi dolzarb ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Raqamli savodxonlik: Bugungi bola gadjetni shunchaki o‘yinchoq deb emas, balki bilim olish quroli deb bilishi kerak. Innovatsiya unga internetdan to‘g‘ri ma’lumot qidirishni va axborotdan xavfsiz foydalanishni o‘rgatadi. Hayotiy ko‘nikmalar (Soft Skills): Hozirgi davrda faqat yodlash yetarli emas. Loyihalar va jamoaviy ishlar orqali bolada mustaqil fikrlash, muloqot va muammolarni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Bu esa uni kelajakdagi real hayotga tayyorlaydi. Qiziqarli ta’lim (Motivatsiya): Zerikarli ma’ruzalardan ko‘ra, o‘yin elementlari (gamifikatsiya) va multimedia resurslari bolaning diqqatini saqlab qoladi. Natijada, o‘quvchi darsda charchamaydi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtiradi. Kuchli poydevor (Inson kapitali): Boshlang‘ich sinf – ta’limning poydevoridir. Agar shu bosqichda bolada "o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq" uyg‘otilsa, u butun umri davomida izlanadigan, jamiyatga foydali va zamonaviy kadr bo‘lib yetishadi. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, hozirgi shiddatli davrda ma’lumotlarni shunchaki yodlash o‘quvchi uchun yetarli emas. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchidan nafaqat bilishni, balki o‘sha bilimni amaliyotda qo‘llay olishni talab etadi. Aynan loyihalar ustida ishlash va jamoaviy faoliyat orqali bolada mustaqil fikrlash, o‘zaro muloqot va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Sun’iy intellekt bu jarayonda guruhlarni shakllantirish va har bir a’zoning hissasini adolatli baholashda ko‘maklashib, o‘quvchini real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga ruhan va intellektual jihatdan tayyorlaydi. Bu jarayonda qiziqarli ta’lim, ya’ni o‘quvchi motivatsiyasini ushlab turish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zerikarli va bir xil ohangdagi ma’ruzalardan ko‘ra, darsga o‘yin elementlarini (gamifikatsiya) olib kirish hamda multimedia resurslaridan keng foydalanish bolaning diqqatini dars davomida barqaror saqlab qoladi. SI yordamida yaratilgan interaktiv ssenariylar o‘quvchi uchun darsni zerikarli majburiyatdan zavqli izlanishga aylantiradi. Natijada, o‘quvchi dars jarayonida jismoniy va ruhiy jihatdan charchamaydi, aksincha, mavzuni o‘yin va tadqiqotlar orqali yanada chuqurroq o‘zlashtiradi. Bularning barchasi mustahkam poydevor, ya’ni inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf — butun ta’lim jarayonining asosiy poydevoridir. Agar aynan shu bosqichda sun’iy intellekt va zamonaviy yondashuvlar yordamida bolada "o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq" va fanga muhabbat uyg‘otilsa, u butun umri davomida yangilikka intiluvchan bo‘lib qoladi. Bunday poydevor bilan voyaga yetgan yoshlar kelajakda nafaqat bilimli, balki doimiy izlanadigan, jamiyatning har bir sohasida foyda keltiradigan va zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk kadr bo‘lib yetishadi. Shunday qilib, ta’limga innovatsion ruh bag‘ishlash orqali biz nafaqat bugungi kunning vazifalarini bajaramiz, balki kelajak avlodning intellektual salohiyatini kafolatlaymiz. O‘qituvchi mahorati va texnologiya imkoniyatlari birlashgan joyda ta’lim sifati doim yuqori bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zamonaviy ta’limning muhim talabi hisoblanadi. Mazkur jarayon o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik va raqamli savodxonlikni shakllantirib, ta’lim samaradorligini oshirishga sezilarli hissa qo‘shadi hamda kelajakda raqobatbardosh, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya (Metodik qo‘llanma). – Toshkent: TDPU, 2017.
4. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

ESTRADA TUSHUNCHASI, TURLARI, UNING XALQ HAYOTIDAGI MAVQEYI VA TARQALISH OQIMLARI

Ergasheva Mohinur Ravshan qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor, Ilmiy rahbar.

Estrada tushunchasi – lotincha tomosha ko‘rsatish uchun maxsus ko‘tarilgan, joy ya’ni sahna ma’nosini anglatadi. XIX asr oxirlariga kelib bu tushuncha yakka tartibda, kichik shaklda ijro qilish ma’nosini anglata boshladi. Dramaturg pesa, rejissyor spektakl, aktyor obraz yaratadi. Uchchala jarayon bir kishida mujassam bo‘lib, u kichik shakldagi tomosha yaratsa, nomer deb ataladi. Tomosha – nomer yaratish san’ati XX asrdan boshlab estrada deb atala boshlandi. Nomer yaratgan va uni san’at darajasida namoyish qilgan shaxs estrada aktyori deb nomlana boshlandi. Ma’lumki, XX asr o‘zbek musiqa san’atida keskin yangilanishlar davri bo‘ldi, “noan’anaviy” bastakorlik ijodiyoti hamda yangi konsert shakllari yuzaga keldi. Shu munosabat bilan musiqiy madaniyatga ham “estrada” tushunchasi kirib keldi.

Estrada (ispancha. taxtasupa), estrada san’ati: 1) keng ma’noda – ko‘ngilochar, ommabop badiiy (abadiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy va boshqalar) janr va shakllarning umumiy ifodasi; 2) tor ma’noda – sahnaviy professional san’at turi. Rossiya va boshqalar ba’zi mamlakatlarda estrada, Angliyada myuzikxoll, Fransiyada varyete, kafeshantan, kabare, AQShda shou, revyu kabi atamalar bilan yuritiladi. Estradaning kelib chiqishi xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq bo‘lsada, u muayyan (tijoratommabop) san’at turi sifatida XIX-asrda Yevropa yirik shaharlarining demokratik ijtimoiy madaniy muhitida yuzaga kelgan. Estradaning asosiy shakli – maxsus joylarda, muntazam ravishda o‘tkaziladigan estrada konsertidir.

U bir nechta (yoki yakka) artist (so‘z ustasi, xonanda, raqqos, aktyor va boshqalar)ning badiiy tugal, turfa mazmundagi kichik chiqishlaridan iborat bo‘lib, ifoda vositalarining lo‘nda va yorqinligi, o‘ziga xosligi, ishtirokchilarning tomoshabin bilan

bevosita muloqotda bo‘lishi bilan ajralib turadi. Estrada tomoshalari ba’zan konferansye birlashtirgan mavzuli dastur asosida tuziladi. Yevropada estrada tomoshalari dastlab kafe va restoranlarda, keyinchalik moslashtirilgan teatr binolari va boshqalar joylarda o‘tkazilgan. Ularda so‘z ustalari, qo‘shiqchilar, raqqos va raqqosalar, shuningdek, akrobat, ko‘zbog‘lovchilar ishtirok etgan. Hozirda estrada sahnalarida monolog, felyeton, hajviy hikoya kabi nutq janrlari, estrada (milliy, bal va boshqalar) raqsya, kuplet va estrada qo‘shig‘i, ko‘pgina sirk turlari (akrobatika, jonglyorlik, fokus va boshqalar), teatr miniatyurasi, qo‘g‘irchoqbozlar chiqishlari, pantomima va boshqalar mavjud.

O‘zbek milliy estrada san’ati boy tarixga ega. “estrada” tushunchasi kirib kelgunga qadar ham uning turli janr va ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, professional darajada XX asrda shakllangan. Jumladan, O‘zbekiston xalq artisti Tamaraxonim, Usta Olim Komilov kabi san’atkorlar milliy estradaning poydevoriga asos solgan bo‘lsa, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov professional estrada san’ati maktabini yaratgan. Mashhur “Yalla” guruhi, Yunus To‘raev, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullaeva, Yulduz Usmonova, Kumush Razzaqova, Ozodbek Nazarbekov, Kozim Qayumov kabi ijodkorlar bevosita Botir Zokirov yaratgan milliy estrada maktabi davomchilari bo‘lib, uning rivojiga munosib hissa qo‘shishgan.

Hozirda O‘zbekistonda estrada san’atini rivojlantirish, estrada jamoalari hamda yakka ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar "O‘zbeknavo" birlashmasiga yuklatilgan. Estrada o‘quv yo‘nalishi sifatida maxsus ta’lim tizimiga kiritilgan. 1996-yildan Toshkent estrada kolleji, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi va boshqalar san’at (musiqa) o‘quv yurtlarida estrada fakultetlari faoliyat ko‘rsatmoqda

Ta’kidlash joizki, hozirgi O‘zbekiston voqeyligida “estrada” atamasi nafaqat sahna bilan bog‘liq holda, balki musiqada o‘ziga xos yo‘nalishni tavsif etishda ham qo‘llaniladi. Demak, musiqa madaniyatida “estrada” atamasi “tor” ma’noda ma’lum ijro va badiiy unsurlar birligiga asoslangan musiqa namunalarini ifoda etadi.

Binobarin, bu o‘rinda “estrada” istilohi xususiy tushuncha sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ushbu kesimdagi “estrada”ga oid “musiqiy estrada” tushunchasini qo‘llab uning zaminida “jadal usul”ga asoslangan barcha sahnaviy musiqa janrlarining majmuini anglash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, “estrada” so‘zining lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqqan holda, ya’ni uning keng ma’noda, umumiy “sahna san’ati” tushunchasi sifatida va tor ma’noda “musiqiy estrada” ya’ni maxsus tayyorgarligi bo‘lmagan tinglovchi osongina tushuna oladigan (jo‘n) xordiq chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi shaklan va mazmunan oddiy, tez esda qolarli kuy va, asosan, raqsbop usullar (zaminida ma’lum qadar “bit”, ya’niy jadal usul)ni mujassam etgan musiqa namunalariga qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Nazarimizda, “musiqiy estrada” atamasini tor ma’noda qo‘llash pirovardida “pop-myuzik” atamasi bilan teng ma’nolikka va mazkur andazada ijod etilgan asarlarni musiqiy soha darajasida tasniflash kabi qulaylikka erishiladi. Ayni paytda atamalardagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq kesishuv va tafovutlar ham bartaraf etilishi mumkin.

O‘zbek musiqiy estradasi shakllanishi jarayoni folklor namunalari muhim zamin bo‘lganligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda qo‘shiq, lapar va ayniqsa sho‘x yallalarning raqsbopligi, yengil ohang – usullari qo‘l kelgandi. Ayni paytda bu holat “o‘zbek musiqiy estradasi”ning milliylik asosini ham ta’minlovchi vositalardan bo‘ldi.

XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar o‘laroq shakllana boshlagan o‘zbek estrada qo‘shiqchiligini shartli ikki davrga bo‘lish mumkin: - birinchisi an’anaviy janrlar

– qo‘shiq, lapar, yallalar rivojlangan davr; - ikkinchi davri esa folklor janrlari musiqiy estrada talablari asosida usluban qayta ishlanish boshlangan davrdir.

O‘zbekiston Mustaqillikka erishgan davrdan boshlab yaratilayotgan san’at asarlari orasida Vatan, istiqlol, ozodlik, millat haqidagi qo‘shiqlar keng o‘rin oldi.Boshqa san’at turlari qatorida eng ommaviy san’at turi – musiqiy estrada rivoji uchun yangi sharoit, yangi tizim joriy etildi.

1996-yil 5-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (PF-1419-son) Farmoniga binoan “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi va O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov raisligida Milliy estrada san’atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi tuzildi, uning asosiy vazifasi etib: - estrada jamoalari, yakkaxon ijrochilar hamda boshqa san’atkorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ijodiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilish; - zamonaviy estrada san’atining o‘zbek musiqa madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishlari, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda rivojlantirish tamoyillarini belgilash; - mamlakat miqyosida o‘tkaziladigan bayramlar, festivallar, ko‘rik-tanlovlar, tomosha-shoular, xalq sayllari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarga doir tavsiyalar tayyorlash; - milliy estrada san’atining monitoringini tashkil etish, sohani rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan turli anjumanlar, ilmiy-ijodiy simpoziumlarni muntazam ravishda o‘tkazib borish, o‘z davriy nashrlarini yo‘lga qo‘yish; - soha rivojiga munosib hissa qo‘shayotgan san’atkorlarning nomzodlarini davlat mukofotlariga tavsiya qilish, o‘zining turli nufuzli mukofotlarini ta’sis qilish, estrada namoyondalari, avvalambor, yoshlarni moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish, tegishli o‘quv yurtlariga tavsiya etish va hokazolar ko‘rsatilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. 2021-yil 16-oktyabr

2. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. 1997.

3. To‘rayev Yu. XX asr o‘zbek estrada qo‘shiqlari. Musiqa va san’at oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “Musiqa”. 2015.

FAN TO‘GARAKLARINING O‘QUVCHILAR TARBIYASIGA TA’SIRI

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Xudayberganova Munisa G‘ayrat qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabdagi to‘garak mashg‘ulotlarning o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, akademik natijalari, maktabga qatnovi, xulq-atvori va fuqarolik faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar ichidagi tadqiqotlar, YUNESCO hamda milliy ma’lumotlar tahlil qilinadi. Natijalar to‘garaklarning turiga, ularning metodologiyasiga va ijtimoiy kontekstga qarab turli ta’sirlarni ko‘rsatishini aniqlaydi. O‘zbekiston va jahon misollariga tayangan holda to‘garaklar tarbiyaviy rolini muhokama qilinadi. Xulosa qismida to‘garak faoliyatini yaxshilash uchun maktab va siyosat darajasida tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *to‘garak mashg‘ulotlari, o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, akademik natija, qatnov, xulq-atvor, ta’sir, metodika, individual yondashuv.*

Kirish. Maktabda faoliyat olib borayotgan to‘garak mashg‘ulotlari shaxsning barkamol kamol topishga, o‘sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o‘quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtidan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan. Ular qo‘shimcha ta’lim va tarbiya berish bilan birga, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini sermazmun o‘tkazish, yoshlarning ongiga milliy g‘oya va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish vazifasini ham bajaradi. Mazkur fikr davlat hujjatlarida aks ettirilgan – “Maktabdan tashqari muassasalar xalq ta’limi tizimining tarkibiy qismi hisoblanadilar va ular ta’lim-tarbiya berishga mo‘ljallangandir” deyiladi. Bu jumla to‘garak ishlarining tarbiyaviy ahamiyatini va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi o‘rnini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Shuningdek, Prezident Mirziyoyev ta’kidlaganidek, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda maktablardan tashqari markazlarning hissasi katta: “837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim. Ularda 4 mingga yaqin to‘garak faoliyati ko‘rsatmoqda, 120 mingdan ortiq yoshlar shug‘ullanmoqda”. Bu ta’kid maktabdan tashqari to‘garaklar sonining ko‘p ekanini, minglab o‘quvchilar ayni o‘rinda sport va san’at klublarida ishtirok etayotganini ko‘rsatadi va ularning tarbiyaviy salohiyatini ochib beradi. Hozirgi kunda to‘garaklarda interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bu tendensiyaning sababi shu — an’anaviy ta’limda faqat tayyor bilimlar berilsa-da, zamonaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tahlil va yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Maktabdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari (sport, san’at, ilmiy yoki ijtimoiy klublar) o‘quvchilarning turli ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Nizomda ko‘rsatilishicha, bunday muassasalar vazifasi “har tomonlama rivojlangan ijodiy shaxsni shakllantirish”dir. Bu qoida to‘garaklar ijodkorlikni rivojlantirishi, qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashi va ularni ma’naviy jihatdan boyitishi kerakligini bildiradi. Nazariy jihatdan, bunday faoliyatlar o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini oshiradi, yetakchilik va jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu maqsadda davlat tadbirlarida, jumladan, maktablardagi kasb-hunar o‘rgatish dasturlarida ham to‘garaklar tashkil etilishi belgilangan. Masalan, davlat rahbari ishtirokidagi yig‘ilishlardan birida ta’kidlanganidek, “Maktablarda... to‘garaklar tashkil etiladi,’Kasbiy ta’lim ustasi’ lavozimi ochiladi”. Bu ko‘rsatmalar maktab to‘garaklari faoliyatining rivojlanishi va o‘quvchilarning kasb-hunarga o‘qitilishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilishini tasdiqlaydi.

To‘garaklarning o‘quvchilarning hayotiga ta’siri. O‘zbekiston Respublikasi Qomusi sahifalarida har bir fuqaroning ilm olish, o‘z ijodiy kuch va qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta’kidlanadi.Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmogda. Mamlakatimizda "Talim to‘g‘risida"gi Qonunning qaytadan ko‘rib chiqilganligi maktabning buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma’lumotlami oladilar. Maktab yoshlarning dunyoqarashlariga poydevor hamda g‘oyaviy e’tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt saodati yo‘lida sidqidildan mehnat qilishga tayyorlaydi. O‘quvchilarga tarbiya berish ularga ta’lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda

amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o‘z vazıfasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O‘quv-tarbiyaviy jarayonning uzviyligi maktab oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ish lar bevosita o‘quv jarayoni bilan bog‘langandir. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarda asosiy vazifalari bo‘lmish ilm olishga ishtiyoq uyg‘otish, qobiliyati va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan, maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlaming kundalik ehtiyojlari, intilishlari. talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo‘lmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog‘i lozim. Har bir o‘quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o‘rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi. Yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo‘lish, jonajon Vatanini cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e’zozlash hissini uyg‘otish lozim.

Pedagogik lug‘atga ko‘ra, to‘garak ishlari bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim shakllaridan biri bo‘lib, u turli xil to‘garaklar, sektsiyalar va to‘garaklarni tashkil etishdan iborat. To‘garak ishi o‘quvchilar uchun qiziqishlariga asoslanib ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxsiyat uchun muhim, qadriyatlarga asoslangan, individual tajribasini o‘zlashtirish sohasiga aylandi. Bu o‘quvchilarga kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashda yordam beradi, asosiy tarkibiy qismda olingan bilimlarini, kuchli tomonlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ongli ravishda to‘garak ishlari orqali kasb tanlash uchun o‘quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o‘ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o‘zining shaxsiy sifatlariga ko‘ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o‘z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Bunday ko‘nikmalarni bevosita to‘garak ishlari orqali shakllantirish, o‘quvchilarning biror bir hunarni egallashlarida ko‘rsatmalar berish maqsadga muvofiqdir. “Hozirgi vaqtga qadar to‘garak ishlari orqali kasbga yo‘naltirish ishlari yetarlicha saviyada olib borilmasligi, ularni kasb-hunar turlari bo‘yicha aniq ma’lumotga ega emasligiga olib keladi. Maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 65%i ommaviy kasblarni bilishi to‘g‘risida ta’kidlagan. O‘quvchilarning faqat 25%i to‘garaklarga jalb qilingan. Albatta, bu ma’lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda ob’ektiv holda turlicha bo‘lishi mumkin”. Ta’sir – bu shaxsning boshqa shaxsning (ta’sir ob’ektining) xatti-harakati, u bilan o‘zaro munosabati jarayonida uning munosabati, niyatlari, g‘oyalari va baholarini o‘zgartirish jarayoni va natijasi, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz ta’sirlarni farqlashdir. Rivojlanish – ob’ektlarning qaytarilmas yo‘nalishli muntazam o‘zgarishi, buning natijasida ularning yangi sifat holati paydo bo‘ladi.

To‘garaklarda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining kundan kunga o‘sib borayotgan talab va ehtiyojlarini o‘rgangan holda, yurtimizda bunyod etilayotgan madaniyat markazlarida aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo‘llab-quvvatlash bilan birga mazmunli dam olishiga etibor qaratilmoqda. Ayniqsa bu borada madaniyat markazlarida tashkil qilingan to‘garaklar aholining, xususan, yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish hamda san’at turlariga qiziqtirishdagi

ahamiyati juda katta. Madaniyat markazlarida to‘garaklar, studiya va jamoalarni tashkil qilishning asosiy maqsadi esa aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlarning darsdan va ishdan keyingi bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda tanlangan kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir. Madaniyat markazlarida tashkil etilgan to‘garaklar barcha uchun moliyaviy taraflama qulay hamda hamyonbob hisoblanadi. Hozirgi kunda madaniyat markazlarida pullik to‘garaklar, studiya va jamoalar qatnashchilarining bir oylik to‘lov summasining eng kam miqdori viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 10% va undan yuqori, Respublikaning boshqa tuman(shahar)larida 5% dan kam bo‘lmasligi lozimligi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilab qo‘yilgan. Agar biz buni aniq summada hisoblaydigan bo‘lsak, viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida 27 ming so‘m Respublikaning boshqa tuman (shahar)larida 13500 so‘mni tashkil qiladi.

Yuqorida belgilangan summalar o‘zgarishi mumkin bunday holatda “pullik to‘garaklar, studiya va jamoalarning to‘lov summasi - Markazlardagi to‘garak ishtirokchilarining ota-onalar kengashi bilan kelishilgan holatda (uni bayonlashtirish orqali) markaz rahbarining tegishli buyrug‘i bilan ko‘paytirilishi mumkin.

To‘garaklar narxi juda kam bo‘lsada, madaniyat markazlarrida tashkil etilgan to‘garaklarga yoshlarning qiziqishi yuqori emasligini ko‘rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib barchamizda o‘sha to‘garaklarning hozirgi kundagi faoliyatiga qiziqishlar paydo bo‘ladi albatta. O‘zbekistonda xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya-lari va innovatsion loyihalarni joriy etish; o‘qitish usullarini takomillashtirish; ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganish va ilmiy asoslashga qaratilgan amaliy ishlanmalar sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish; shu munosabat bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dasturlash va loyihalash qobiliyati kabi kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, masofaviy o‘qitish zaruratidan kelib chiqib, virtual didaktikadan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun robototexnika to‘garaklarini tashkil etish zarur, vositalari esa dolzarb bo‘lib qoladi. Keyingi yillarda o‘quvchilarda mustaqil ta’limga, maktab o‘quv dasturiga qo‘shimcha sifatida turli dasturlarni o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. O‘quvchilar o‘z qiziqishlari to‘garagida videolarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Hozirda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlarga internet orqali o‘z qiziqishlari yo‘nali-shida bilim olish imkonini bermoqda. Buning uchun ular rus va ingliz tillarini suhbat darajasida bilishlari, zamonaviy internet texnologiyalarini bilishlari, xususan, bunday platformalarda ishlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy maktabni boshqarish murakkab, ko‘p komponentli tashkiliy tuzilishlarga ega bo‘lib, bunda asosiy maqsadga, ya’ni o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ulami mehnatga va murakkab ijtımoiy shaıt-sharoitlarga mustagil ravishda tezroq moslashishlarni ta’minlashga erishishda ta’lim ımassasasidagi barcha subyektlaming sa’y harakatlarini shu magsad yo‘lida birlashtirish, o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir. Maktabdan tashqari ta’limıni milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, hududiy o‘ziga xoslik asosida tashkil etib, hozirgi zamon talablan darajasida isloh qilish davr talabiga aylandı.

Maktabdan tashgari ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan davlat talablari ilmiy va hayotiy jihatdan asoslangan bo‘lib, “Barkamol avlod” bolalar markazlarining ta’lım-tarbiyaviy mazmuni va uni o‘zlashtirish darajasining zaruriy quyi chegarasini belgilaydi hamda baholash mezonlarini aniqlab beradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “Madaniy-estetik, ilmıy, tezmikaviy, sport va boshga yo‘nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish” zarurligi ta’kidlangan. To‘garak mashg‘ulotlari maktab ta’limini boyitib, o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional salomatligi, bilimi va fuqarolik faolligiga ijobiy ta’sir qiladi. O‘zbekiston tajribasi madaniy klublarga e’tibor qaratayotgan bo‘lsa, xalqaro amaliyot gender va xizmatga yo‘naltirilgan klub modellari taklif qilmoqda. Siyosatchilar va ta’lim sohasidagi rahbarlarga to‘garaklar sifatini oshirish, ularni majburiy tarzda majbur qilish o‘rniga qiziqish asosida tashkil etish hamda monitoring mexanizmlarini yaratish tavsiya etiladi. Shunday yondashuv orqali o‘zbek maktablarida to‘garaklar o‘quvchilar tarbiyasini kuchaytiruvchi samarali vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’atni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori. 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019-yil 18-aprel “Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etishga oid normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 232-sonli buyrug‘i.

3. A.Haydarov. Madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 254-son (7212). 2018-yil 9-dekabr. 4-b.

TARBIYAVIY ISHLARNING MILLIY ASOSLARI

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Xo‘jaboyeva Komila Gulmirza qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur mavzuda tarbiyaviy ishlarning milliy asoslari, ya’ni xalqimizning urf-odatlari, an’analari, milliy qadriyatlari hamda ma’naviy merosiga tayangan holda yosh avlodni tarbiyalash masalalari yoritiladi. Shuningdek, milliy tarbiya g‘oyalari, ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va ma’naviy barkamollikni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, ma’naviy meros, vatanparvarlik, milliy o‘zlik, tarbiyaviy jarayon.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yosh avlod tarbiyasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Zero, jamiyatning ertangi kuni bugungi yoshlarning ma’naviy qiyofasi, intellektual salohiyati va fuqarolik pozitsiyasiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini tubdan takomillashtirish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Ta’lim to‘g‘risida Qonuni ta’lim tizimining asosiy tamoyillari, maqsadi va vazifalarini belgilab berdi. Mazkur qonunda ta’limning insonparvarlik xususiyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxsning har tomonlama kamol topishi asosiy prinsip sifatida mustahkamlangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qabul qilinayotgan qaror va dasturlar ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tizimli, maqsadli va milliy ruhda tashkil etishga qaratilgan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish, ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Natijada, tarbiya jarayoni davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Milliy tarbiya — bu shunchaki urf-odat va an’analarni eslatish emas, balki ajdodlar merosini zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirgan holda yosh avlod ongiga singdirish jarayonidir. U xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va madaniy an’analari asosida shakllanadi. Milliy tarbiya orqali shaxs o‘zligini anglaydi, millatiga mansublik tuyg‘usini his etadi va Vatan ravnaqiga daxldorlik mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi.

Milliy tarbiyaning nazariy asosi xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar va buyuk mutafakkirlar merosiga tayanadi. Jumladan, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar asarlarida komil inson tarbiyasi masalasi chuqur yoritilgan. Milliy tarbiya milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy poklik va axloqiy yetuklik, oila va mahalla bilan hamkorlik, tarixiy xotiraga hurmat kabi tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillar tarbiyaviy ishlarning mazmunini belgilaydi.

Milliy tarbiyani amalga oshirishda davlat siyosati muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim to‘g‘risida Qonunida ta’limning asosiy prinsiplari sifatida insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi belgilangan. Shuningdek, davlat dasturlari va qarorlarida: - yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish; - milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish; - vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalalari alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, tarbiyaviy ishlar milliy asosda tashkil etilishi nafaqat pedagogik, balki davlat ahamiyatiga ega vazifa ham hisoblanadi.

Milliy tarbiyani amalga oshirish metodikasi nazariy asoslar amaliy metodika bilan mustahkamlangandagina samarali natija beradi. Shu bois tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini hayotga tatbiq etishda muammoli savollar, badiiy matn tahlili, hikmatli so‘zlar sharhi kabi metodlar qo‘llaniladi.

Pedagogning shaxsiy namunasi, buyuk ajdodlar hayoti orqali yoshlar ongiga milliy g‘urur singdiriladi. “Ajdodlar merosi” mavzusida davra suhbatlari, tarixiy sanalarga bag‘ishlangan tadbirlar, ma’naviyat soatlari o‘tkaziladi.

Milliy bayramlar — Navro‘z, Mustaqillik kuni kabi umumxalq bayramlari doirasida tashkil etilgan tadbirlar yoshlarning milliy birlik tuyg‘usini mustahkamlaydi. Globallashuv davrida turli mafkuraviy tahdidlar yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli milliy tarbiyani kuchaytirish dolzarb vazifaga aylandi. Milliy tarbiya, yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qiladi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyali interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va loyiha faoliyati milliy mazmun bilan uyg‘unlashtirilganda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tarbiyaviy ishlarning milliy asoslari — bu jamiyat ma’naviy taraqqiyotining uzviy va ajralmas qismidir. U nafaqat ta’lim tizimining tarkibiy yo‘nalishi, balki millatning o‘zligini saqlab qolish, ma’naviy merosini davom ettirish va kelajak avlodga yetkazishning eng muhim vositasidir. Milliy tarbiya orqali

yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ulari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun, Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi. Milliy tarbiyani rivojlantirish dasturi, Toshkent, 2018.
3. Karimov S. Milliy tarbiya va ma’naviyat asoslari, Toshkent, 2018.

TEXNOLOGIYA FANIDA ESTETIK TARBIYA

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Yo‘ldoshova Madina Bahodir qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annonatsiya. *Mazkur maqolada texnologiya ta’limi jarayonida estetik tarbiyaning o‘rni, ahamiyati va uni amalga oshirishning samarali metodlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, jumladan ularning go‘zallikni his etish, did, nafosat va ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilmoqda. Aynan texnologiya fani bu borada katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, u o‘quvchilarni turli buyumlar, dizayn, bezak, rang uyg‘unligi, shakl va funksionallik bilan ishlashga o‘rgatadi. Maqolada estetik tarbiya tushunchasining pedagogik mohiyati, uning texnologiya darslaridagi ifodasi, o‘quvchilarda go‘zallikni yaratish, qadrlash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni yoritiladi. Texnologiya fanida amaliy mashg‘ulotlar orqali estetik didni rivojlantirish, milliy va zamonaviy dizayn elementlarini uyg‘unlashtirish, buyumlarning nafaqat foydali, balki chiroyli bo‘lishiga e’tibor qaratishning o‘quvchi shaxsiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, maqolada estetik tarbiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar, loyiha ishlari, ijodiy topshiriqlar, milliy hunarmandchilik va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarning rang, shakl, kompozitsiya va material tanlashdagi mustaqil qarorlari ularning ijodiy fikrlashi va estetik qarashlarini boyitishi asoslab beriladi. Maqolada texnologiya fanining estetik tarbiyadagi o‘rni orqali o‘quvchilarda mehnatsevarlik, aniqlik, did, go‘zallikka intilish, milliy qadriyatlarga hurmat va ijodkorlik kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllanishi ko‘rsatib beriladi. Estetik tarbiya nafaqat tashqi chiroy, balki ichki madaniyat, mas’uliyat va sifatli mehnatga bo‘lgan munosabatni ham rivojlantirishi ilmiy asosda izohlanadi. Natijada, texnologiya fanida estetik tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarning nafaqat kasbiy, balki ma’naviy-madaniy rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatishi, ularni jamiyatda faol, didli va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi xulosalanadi.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya ta’limi, estetik tarbiya, kreativlik, dizayn va kompozitsiya, amaliy mashg‘ulotlar, milliy hunarmandchilik, shaxsiy rivojlanish.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ta’kidlab, maktablarda raqamli darsliklar va axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan ta’lim tizimini rivojlantirish zarurligini bildirgan. Texnologiya fani zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarda nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularning estetik didi, ijodiy tafakkuri va shaxsiy

tarbiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda global ta’lim jarayonida nafaqat bilim, balki shaxsiy fazilatlar, milliy qadriyatlarni anglash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyati ustuvor ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, texnologiya darslarida estetik tarbiyaga alohida e’tibor qaratish muhimdir.

Texnologiya fani orqali o‘quvchilar rang, shakl, kompozitsiya va dizayn elementlarini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganadilar, bu esa ularning ijodiy fikrlash, tafakkur va estetik qarashlarini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar milliy hunarmandchilik va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali o‘z ijodiy mahsulotlarini yaratishga o‘rganadilar. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mas’uliyat, aniqlik, mehnatsevarlik va didni qadrlash kabi shaxsiy sifatlarni shakllantiradi. Kirish qismida shuningdek, interaktiv metodlar, loyiha ishlari va kreativ topshiriqlar orqali estetik tarbiyani samarali rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Ta’lim jarayonida bunday yondashuv o‘quvchilarni nafaqat texnologik jihatdan, balki madaniy, estetik va shaxsiy jihatdan rivojlantiradi, ularni jamiyatda faol va ijodiy shaxs sifatida shakllantiradi. Shu sababli, maqola davomida texnologiya fanida estetik tarbiyaning metodik asoslari, amaliy ishlatilish usullari va o‘quvchilarga beradigan ta’siri batafsil tahlil qilinadi.

Texnologiya fanida estetik tarbiya bir necha asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, interaktiv metodlar va kreativ topshiriqlar. *Amaliy mashg‘ulotlar orqali estetik tarbiya:* Texnologiya darslarida o‘quvchilar rang, shakl, kompozitsiya va materiallar bilan ishlashni o‘rganadilar. Masalan, hunarmandchilik, bezak va dizayn ishlari orqali o‘quvchilar buyumlarni nafaqat foydali, balki estetik jihatdan chiroyli yaratish ko‘nikmasini hosil qiladilar. Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, mas’uliyat va sifatga e’tiborni rivojlantiradi. *Loyiha ishlari va interaktiv metodlar:* Loyiha ishlari o‘quvchilarga o‘z fikrini ifodalash va ijodiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Interaktiv metodlar, masalan, guruh ishlari, muammoli vaziyatlar, dizayn-masalalar orqali estetik qarash va ijodiy fikrlash rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalar va milliy hunarmandchilikni uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar. *Milliy hunarmandchilikni integratsiya qilish:* Texnologiya darslarida milliy qadriyatlarni o‘rgatish, hunarmand-chilik buyumlarini yaratish orqali o‘quvchilarda milliy merosga hurmat, go‘zallik va madaniyat hissi shakllanadi. Bu o‘quvchilarning estetik qarashini boyitadi va ularni ijodiy faoliyatga rag‘batlantiradi. *Shaxsiy va ijodiy rivojlanish:* Texnologiya darslarida estetik tarbiya nafaqat buyumlar yaratish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, mas’uliyat, mehnatsevarlik va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Rang uyg‘unligi, dizayn tanlovi, chiroyli va samarali ishlash orqali o‘quvchilar estetik qarash va didni shakllantiradi. *Zamonaviy texnologiyalar va kreativlik:* 3D-modellashtirish, CAD dasturlari, raqamli dizayn va virtual laboratoriyalar texnologiya darslarida estetik tarbiyaga yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilar nafaqat texnik, balki zamonaviy dizayn va ijodiy yondashuvni o‘rganadi, bu esa ularning ijodiy fikrlashini va estetik didini yanada rivojlantiradi. *Estetik tarbiyaning pedagogik mohiyati:* Texnologiya fanida estetik tarbiya – bu o‘quvchilarda go‘zallikni his etish, yaratish va qadrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu shaxsiy, madaniy va ijodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Masalan, bezak, dekorativ elementlar, rang uyg‘unligi va materiallar bilan ishlash o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va tashqi muhitni sezishga o‘rgatadi. *O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish:* Amaliy mashg‘ulotlar va loyiha ishlari orqali o‘quvchilar mustaqil qarorlar qabul qilish, muammolarni hal qilish va o‘z estetik didini shakllantirishni o‘rganadi. Shuningdek, ular milliy qadriyatlarni zamonaviy

texnologiya bilan uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar. *Texnologiya darslarida estetik baholash:* O‘qituvchilar o‘quvchilarning ijodiy ishlari va buyumlarini baholashda faqat texnik tomonini emas, balki estetik jihatini ham hisobga oladi. Rang uyg‘unligi, shakl estetikasi va ijodiy yondashuv baholanish mezonlaridan biridir. *Zamonaviy texnologiyalar roli:* 3D-modellashtirish, CAD dasturlari, raqamli dizayn va virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar zamonaviy estetik konsepsiyalarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi. Bu nafaqat texnik, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishga ham yordam beradi. *Milliy hunarmandchilik va estetik tarbiya:* Milliy hunarmandchilikni o‘quv jarayoniga qo‘shish o‘quvchilarda madaniy merosni qadrlash, milliy estetik qadriyatlarni tushunish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali o‘quvchilar texnologiya va san’atni uyg‘unlashtirib, shaxsiy va jamiyat uchun foydali mahsulotlar yaratishni o‘rganadi. *Shaxsiy tarbiya va didni rivojlantirish:* Texnologiya darslarida o‘quvchilar estetik qarash, nafislik, aniqlik va mehnatsevarlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi. Bu ularni jamiyatda faol, mas’uliyatli va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa. Texnologiya fanida estetik tarbiya o‘quvchilarda nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy, madaniy va ijodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilar rang, shakl, dizayn va kompozitsiya bo‘yicha ijodiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Estetik tarbiya o‘quvchilarda mas’uliyat, aniqlik, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlarni qadrlash va estetik didni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy hunarmandchilik va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar ijodiy mahsulotlar yaratish, o‘z fikrini ifodalash va shaxsiy yondashuvini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada, texnologiya fanida estetik tarbiya o‘quvchilarning nafaqat texnik, balki madaniy, estetik va shaxsiy jihatdan rivojlanishiga, ularni jamiyatda faol, ijodkor va madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, har bir texnologiya darsi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchida go‘zallikni qadrlash, ijodiy tafakkur va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Texnologiya fanida estetik tarbiya o‘quvchilarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki shaxsiy, madaniy va ijodiy fazilatlarni rivojlantiradi. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilar rang, shakl, dizayn, kompozitsiya va material tanlash bo‘yicha ijodiy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Shuningdek, estetik tarbiya o‘quvchilarda mas’uliyat, aniqlik, mehnatsevarlik, go‘zallikni qadrlash, milliy qadriyatlarni tushunish va estetik didni rivojlantirishga yordam beradi. Milliy hunarmandchilikni integratsiya qilish orqali o‘quvchilar madaniy merosni qadrlash, o‘z ijodiy yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun foydali mahsulotlar yaratish qobiliyatini rivojlantiradilar. Bundan tashqari, texnologiya fanida estetik tarbiya o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, kreativ fikrlash, yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini oshiradi. Ular nafaqat buyumlar yaratadi, balki o‘z ijodiy qarashlari va shaxsiy didini baholashni ham o‘rganadilar. Natijada, texnologiya darslarida estetik tarbiya o‘quvchilarning nafaqat texnik bilimini, balki madaniy, estetik, ijodiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, ularni jamiyatda faol, ijodkor va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, har bir dars o‘quvchida go‘zallikni qadrlash, kreativ tafakkur va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanida estetik tarbiya – bu nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va madaniy fazilatlarni shakllantiradigan, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradigan va milliy qadriyatlarni

rivojlantiradigan muhim pedagogik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova, M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – T.: Fan. 2021. – B. 33-78.
2. Hasanov, A. Estetik tarbiyaning psixologik asoslari. – Sam. 2019. – B. 20–56.
3. G‘afforova, T. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. – Qarshi: Nasaf. 2003.

PEDAGOGIK INNOVATSIYA: BOLALAR DIQQATINI JALB QILISH USULLARI

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
Chirchiq DPU katta oqituvchisi.
Yo‘ldoshova Madina Bahodir qizi,
Shomurodova Nodira Rashid qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqola talim jarayonida pedagogik innovatsiyalarning mohiyatini, mazmuni va ularning bolalar diqqatini jalb qilishdagi rolini organadi. Pedagogik innovatsiyalar darslarni interaktiv, qiziqarli va oquvchilarning faol qatnashuviga yonaltirilgan tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi. Innovatsion pedagogik metodlar — oyinlar, zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, guruh ishlari va qiziqarli topshiriqlar orqali bolaning diqqatini mustahkamlash, ularni motivatsiyalash va talim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar bolalarda ijodiy fikrlash, mustaqil fikr bildirish va faol ishtirok etish konikmalarini shakllantiradi. Maqola shuningdek pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish bosqichlarini va ularning talim sifatiga tasiri haqida qisqacha tavsif beradi.*

Kalit sozlar: *pedagogik innovatsiya, innovatsion metodlar, bolalar diqqatini jalb qilish, interaktiv talim, pedagogik texnologiyalar.*

Prezident talim tizimini tubdan modernizatsiya qilish zarurligini bir necha marta takidlagan: “Agar biz maktablarda oqitish metodikasini ozgartirmasak, talim sifati ham ozgarmaydi” — degan nutqida u talim metodlarini xalqaro tajribalarga asoslab yangilash tarafdori ekanini bildirib, oquvchilarning tanqidiy fikrlashi va tahlil qilish konikmalarini shakllantirishni alohida urgu bergan. Bugungi kunda talim sohasida pedagogik innovatsiyalar oquv jarayonining samaradorligini oshirish va bolalar diqqatini jalb qilish uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar maktab va boshqa talim muassasalarida ananaviy metodlardan farqli ravishda oquvchilarning faol ishtirokini ragbatlantirish, ularning fikrlash, tahlil qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda bilim va texnologiyalar tez suratlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, oquvchilarning diqqatini jalb qilish va ularni motivatsiya qilish masalasi yanada dolzarb bolib qolmoqda. Bolalarning etiborini uzoq vaqt davomida saqlash, darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish hozirgi pedagogik jarayonning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli pedagogik innovatsiyalar — yangi oquv metodlari, texnologik vositalar, oyinlar, guruh ishlari, multimedia va boshqa interfaol usullarni qollash orqali oquvchilarning diqqatini jalb qilish va talim jarayonini samarali qilish imkonini beradi. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev talim sifatini oshirish, maktab pedagoglarini yangi metod va texnologiyalar bilan taminlash, shuningdek, oquvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash konikmalarini shakllantirish

masalasini davlat siyosati darajasida bir necha bor takidlagan. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va bolalar diqqatini jalb qilish usullarini tadqiq etish nafaqat ilmiy ahamiyatga, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ushbu maqolada pedagogik innovatsiyalar tushunchasi, ularning mohiyati, talim jarayonidagi orni va bolalar diqqatini jalb qilishdagi samaradorligi organiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, zamonaviy texnologiyalar, oyin va multimedia vositalari orqali oquvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning etiborini dars davomida saqlash va talim sifatini yaxshilash yollari tavsiflanadi. Shu bilan birga, pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish bosqichlari va ularning samaradorligini baholash mezonlari ham korib chiqiladi.

1. Pedagogik innovatsiya tushunchasi va ahamiyati. Pedagogik innovatsiya – bu talim jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga qaratilgan yangi metod va texnologiyalarni joriy etishdir. Innovatsion pedagogik yondashuvlar oquvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni faol ishtirok etishga ragbatlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ananaviy dars metodlari koplab oquvchilar uchun zerikarli bolib qolmoqda. Shu sababli pedagogik innovatsiyalar darslarni interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Masalan, multimedia vositalari, video va animatsiyalar, AR/VR texnologiyalari darsni jonli qiladi, oquvchilar esa faol qatnashadi va malumotni yaxshiroq qabul qiladi. Pedagogik innovatsiyaning asosiy maqsadi: Oquvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlash; Ularni motivatsiya qilish; Ijodiy va tanqidiy fikrlash konikmalarini rivojlantirish; Interfaol va oyin metodlari orqali oquv jarayonini qiziqarli qilish.

2. Bolalar diqqatini jalb qilishning innovatsion usullari.

2.1. Interfaol metodlar. Interfaol metodlar — oquvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan metodlardir. Misollar: Guruhlarda muhokama qilish (discussion). Rol oyinlar (role play). Loyihalar asosida organish (project-based learning). Afzalliklari: oquvchilar mustaqil fikrlaydi, bir-birining fikrlarini tinglaydi, diqqatini darsga qaratadi.

2.2. Oyinlar orqali organish. Oyinlar oquvchilar etiborini jalb qilishda eng samarali usullardan biridir. Masalan: “Krossvord” yoki “Quiz”: mavzu boyicha savol-javoblar, ragbatlantiruvchi ball tizimi; Kichik laboratoriya tajribalari: fan va matematika darslarida interaktiv eksperimentlar. Oyinlar bolalarni ragbatlantiradi, ular jarayonda faol qatnashadi, va malumot uzoqroq yodda qoladi.

2.3. Multimedia va zamonaviy texnologiyalar. Bugungi kunda darslarda kompyuter, planshet, interaktiv doska, animatsiya va video materiallardan foydalanish keng tarqalgan. Afzalliklari: Darsni vizual tarzda jonlantiradi; Murakkab mavzularni tushunarli qiladi; Oquvchilarni qiziqtiradi va ularni diqqatini saqlashga yordam beradi.

2.4. Guruh ishlari. Guruh ishlari oquvchilarda ijtimoiy va kommunikativ konikmalarni rivojlantiradi, shuningdek, ularni faol ishlashga undaydi. Usullar: Kichik guruhlarda muammolarni hal qilish; Har bir guruh natijani taqdim etadi; Guruh ichida rollarni taqsimlash (lider, yozuvchi, taqdimotchi).

2.5. Motivatsion mashqlar va topshiriqlar. Motivatsion mashqlar oquvchilarning diqqatini jalb qilish va dars davomida faoliyatini oshirishga yordam beradi. Misollar: “Bugungi darsda organadigan eng qiziqarli narsa” haqida qisqa nutq; Ragbatlantiruvchi tizim (ball, stiker, sertifikat); Har bir oquvchiga kichik maqsad berish va uni bajarish.

3. Pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish bosqichlari. Reja tuzish – darsning maqsad va vazifalarini aniqlash; Metod va vositalarni tanlash – interfaol metodlar, multimedia, oyinlar, guruh ishlari; Sinov otkazish – darsni sinab korish, oquvchilarning reaktsiyasini kuzatish; Tahlil qilish va baholash – dars samaradorligini baholash,

innovatsiyani takomillashtirish; Doimiy takomillashtirish – yangi texnologiyalar va metodlarni joriy etish.

4. Pedagogik innovatsiyalarning talim sifatiga tasiri. Oquvchilar diqqatini uzoq vaqt saqlaydi; Faol qatnashadi va oz fikrini erkin bildiradi; Tanqidiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi; Talim jarayoni qiziqarli va interaktiv boladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat talim sifatini oshiradi, balki bolalarda mustaqil organish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Pedagogik innovatsiyalar talim jarayonini tubdan ozgartirish va bolalar diqqatini jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni korsatadiki, interfaol metodlar, oyinlar, multimedia va guruh ishlari kabi innovatsion yondashuvlar oquvchilarning faol ishtirokini oshiradi, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash konikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bolalar diqqatini jalb qilish — bu nafaqat malumotni yodlash yoki topshiriqni bajarish bilan cheklanmaydi, balki ularning motivatsiyasini uygotish, mustaqil fikrlashni ragbatlantirish va oz fikrini erkin ifodalashga yordam berish jarayonidir. Innovatsion pedagogik metodlar orqali oquvchilar nafaqat bilim oladi, balki organganlarini amaliyotda qollash, muammolarni hal qilish va jamoa bilan hamkorlik qilish konikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun oqituvchining kreativligi, bilimdonligi va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanishi talab etiladi. Talim sifati va oquvchilarning diqqatini jalb qilish — bu doimiy izlanish va yangilanishni talab qiluvchi jarayon. Shu sababli pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish nafaqat oqituvchi uchun, balki oquvchi uchun ham doimiy osish va rivojlanish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, pedagogik innovatsiyalar — bu zamonaviy talimning yuragi, darslarni jonlantiruvchi, bolalarning qiziqishini uygotuvchi va ularni ilm-fanga muhabbat bilan boglaydigan asosiy vosita hisoblanadi. Oquvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni faol va qiziqqon qilish orqali biz kelajak avlodni bilimdon, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan insonlar sifatida shakllantirishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish har bir talim muassasasi va oqituvchi uchun eng dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Pedagogik innovatsiyalar talim jarayonini tubdan ozgartirish, darslarni qiziqarli va samarali qilish hamda bolalar diqqatini jalb qilishda eng muhim vositalardan biri sifatida namoyon boladi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni korsatadiki, interfaol metodlar, oyinlar, multimedia vositalari, guruh ishlari va motivatsion mashqlar nafaqat oquvchilarning diqqatini jalb qiladi, balki ularni faol ishtirokga, ijodiy fikrlashga va mustaqil qaror qabul qilishga ragbatlantiradi. Bolalar diqqatini jalb qilish jarayoni shunchaki malumotni yodlash yoki topshiriqni bajarish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ularning motivatsiyasini uygotish, qiziqishini oshirish, oz fikrini erkin ifodalash va bilimlarni amaliyotda qollash konikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatsiyalar darslarni nafaqat organish, balki oquvchilar uchun haqiqiy kashfiyot va qiziqarli tajribaga aylantiradi. Shuningdek, pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun oqituvchining kreativligi, bilimdonligi, texnologik vositalardan samarali foydalanish qobiliyati va metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Darslarni yangicha metodlar bilan boyitish, interaktiv yondashuvlarni tatbiq etish va oquvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish — talim sifatini sezilarli darajada oshirishning asosiy omillari hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish orqali biz kelajak avlodni bilimdon, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxslar sifatida shakllantirish imkoniyatiga egamiz. Shu bilan birga, bu jarayon oqituvchi va oquvchi uchun ham doimiy osish, yangi bilim va tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, pedagogik innovatsiyalar — zamonaviy talimning yuragi, darslarni jonlantiruvchi, bolalarning qiziqishini uygotuvchi va ularni ilm-fanga muhabbat bilan boglaydigan asosiy vosita hisoblanadi. Ular orqali oquvchilar nafaqat bilim oladi, balki ijodiy, tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, jamoada hamkorlik qilish va masuliyatli qaror qabul qilish konikmalarini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish har bir talim muassasasi va oqituvchi uchun eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurayev B. T. Pedagogik va psixologik fanlarni oqitish metodikasi. Buxoro: Fan va talim, 2022. - 326 bet.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Pedagogik innovatsion texnologiyalar va adabiy talim. Toshkent: ToshDU nashriyoti, 2024. - 142 bet.
3. Abdusamadov Z., Alisherova D.A. Methods of introducing innovative pedagogikal technologies in education. Qoqon Universiteti xabarnomasi, 2023. - 58-62 b.

TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Farmonov O‘ktam Ne’matovich,
Chirchiq DPU, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).
Ahmedova Mamlakat Marksovna,
Moldonova Muslima Muratbay qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishida innovatsion metodlarning o‘rni va ularning ta’lim jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuv, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiyalar, tarbiyachi, kreativlik, metodik kompetentlik.*

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakat mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma’naviy – axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Zero, sog‘lom avlod va uning ijtimoiy faolligi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ta’minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ham aynan maktabgacha ta’lim tizimi sohasiga oid muhim vazifalar belgilandi [1]. Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu jarayonda tarbiyachining kasbiy mahorati va pedagogik kompetentligi hal qiluvchi

ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlardan yuqori malaka, ijodiy yondashuv hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyatini talab etmoqda. Shu sababli tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini yangilash, pedagogik faoliyatni takomillashtirish hamda bolalarning ijodiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligi mazmuni. Kasbiy kompetentlik pedagogning o‘z faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatda kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. [2]. Tarbiyachining kasbiy kompetentligini quyidagi asosiy komponentlarga ajratish mumkin:

Motivatsion komponent. Bu pedagogning kasbga bo‘lgan qiziqishi, kasbiy faoliyatga mas’uliyat bilan yondashishi va o‘z ustida ishlashga intilishi bilan bog‘liq.

Kognitiv komponent. Pedagogning nazariy bilimlari, pedagogika va psixologiya sohasidagi bilimlari hamda metodik tayyorgarligi ushbu komponentni tashkil etadi.

Operatsion komponent. Bu tarbiyachining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Refleksiv komponent. Pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish qobiliyati refleksiv kompetentlikni ifodalaydi.

Mazkur komponentlar o‘zaro bog‘liq holda rivojlanib boradi va pedagogning kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Innovatsion yondashuvlarning pedagogik ahamiyati. Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayoniga yangi metodlar, texnologiyalar va pedagogik g‘oyalarni joriy etishni anglatadi. Ular pedagogik faoliyatni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

Interaktiv metodlardan foydalanish. Interaktiv metodlar bolalarni ta’lim jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Keys-stadi” kabi metodlar bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon beradi. Multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar va elektron o‘quv resurslari pedagogning metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. [3]

Kreativ va ijodiy yondashuv. Art-texnologiyalar, dramatizatsiya, tasviriy faoliyat hamda konstruktorlik o‘yinlari orqali bolalarda ijodiy fikrlash rivojlanadi. Bu jarayonda tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Rivojlantiruvchi markazlar faoliyati. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Bunday markazlarda faoliyatni tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion yondashuvlar orqali kasbiy rivojlanish. Innovatsion yondashuvlar pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachilar malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar va tajriba almashish jarayonlari orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib boradilar. Shuningdek, pedagoglar quyidagi yo‘nalishlarda o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirishlari mumkin: - metodik

adabiyotlar bilan ishlash; - ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etish; - innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganish; - zamonaviy ta’lim platformalaridan foydalanish.

Bu jarayon pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga ta’lim sifatini ham yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, tarbiyachilarning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, yangi metodlarni o‘rganishi hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishi maktabgacha ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qonuni. www.lex.uz
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent. 2019
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2018


BOLALARDAGI EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNI BARTARAF ETISHDA PSIXOTRENING MASHQLARDAN FOYDALANISH

Gulomjonova Xojiniso Anvarjon qizi,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetining 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti da ota-onalar bilan ishlashning afzallaiklari yoritilgan. Ota-onalar bilan o‘tkaziladigan mashq va treninglardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *aqlan rivojlantirish, chaqqon, kuchli, iroda, trening, planeta, korreksiya, hissiyotlar ko‘zasi.*

Ma’lumki, sog‘lom avlodni tarbiyalash vazifasi birinchi navbatda oilada, uzluksiz ta’lim tizimining ilk bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’limdan boshlanadi. Shunga ko‘ra, bolalarni jismonan va ruhan sog‘lomlashtirish, bolani aqlan rivojlantirish, chaqqon, kuchli, irodali, jasur bo‘lishdek hayotiy ehtiyojlarni qondirishda ota-onalarning ma’suliyati yuqori turadi. Mazkur muammoning yechimi oilada va ta’lim muassasalarida yaxlit tarbiya jarayonini, bolaning har tomonlama mutanosib, jumladan, ruhiy, jismoniy va shaxsiy rivojini ta’minlovchi ijtimoiy psixologik sharoitlar birligini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda bolalarni ruhan sog‘lom va jismonan baquvvat qilib rivojlantirish jarayoni muhim vazifa hisoblanadi. Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasida ulkan vazifalar turadi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki. Aynan ota-onalar uchun psixologik maslahat va treninglar o‘tkazish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi hamda tarbiyachi hamkorligida ota-onalar uchun turli mavzularda treninglar o‘tkazish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning samarali yo‘llari shuningdek, ijtimoiy hayotga tayyorlash muammosi yechim to‘ishi mumkin. Ota-onalardagi bunday muammoli vaziyatlarning bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.



Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotida ota-onalar bilan ishlash tashkilotning yillik ish rejasiga kiritilgan. Ish reja asosida barcha guruh tarbiyachilari ota-onalar bilan farzand tarbiyasi bo‘yicha belgilangan ishlarni amalga oshiradilar. Ota-onalar bilan ishlashda tarbiyachi va psixolog hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq. Quyida biz maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ota-onalar uchun psixotrening mashqlardan namunalar keltiramiz.

Trening mavzusi. “Oilamiz planetasi»

Trening maqsadi. Ota-ona va bolalar o‘rtasida ijobiy muloqotni o‘rnatish.

Trening vazifalari: - ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot jarayonini rivojlantirish va korreksiya qilish; - oila ahzolarining har birini shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishni tushunish; - oilada kattalarning hissiy holati va uning farzand tarbiyasiga tahsiri; - atrofdagi odamlarning farzandga tahsirini idrok etish va anglash; - oila-ahzolari o‘rtasida ijobiy munosabatni rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: rangli qog‘oz, qaychi, yelim, ruchka va har bir ishtirokchiga qog‘oz, disk CD.

Treningning borishi: «Bolani yaxshi ko‘rish?» mavzusida suhbat. Tarbiyachi ota-onalarga savol bilan murojat qiladi. «Marhamat qilib aytingchi, sizningcha o‘z farzandini yaxshi ko‘rish nima mahnoni anglatadi?» (*ota-onalarning javoblari*). Kimdir bolani sevish bu u haqida qayg‘urish, uning hayotiga qiziqish, dam olishga olib borish, kiyim-kechak va ozuqa bilan tahminlash degan fikrni bildiradilar. So‘nggi vaqtlarda ota-onalardan farzandni sevish bu - unga “Men seni sevaman”!» deyish bilan namoyon etiladi degan fikrlar bildirilmoqda. Ha, albatta bolalar o‘z yaqinlaridan shu so‘zni eshitishni judayam hoxlaydilar. Bu so‘z juda ham kerakli bo‘lib, bolaning borlig‘ini rivojlantiradi, keyinchalik esa o‘g‘il va qiz bola sifatida yetuk bo‘lishida ijobiy tahsir ko‘rsatadi. Ota-onalik mehri oilaning mustahkam bo‘lishiga olib keladi. Oilaning har bir ahzosi nafaqat bir necha marotaba balki, butun hayoti davomida o‘z farzandiga “***Men seni yaxshi ko‘raman”*** so‘zini aytishi kerak. Maktabgacha ta’lim psixologi o‘z faoliyatida bo‘lib o‘tgan bir voqeani quyidagicha so‘zlab berdi: “Bir kuni 6 yoshdagi bola bilan suhbatlashib qoldim. Men unga senga ota-onang qachon seni yaxshi ko‘rishlarini aytgan - deb murojat qilsam, u xotirjam ravishda otam va onam kecha aytishdi” - dedi.

- Sizlar bilan kimlar birga yashaydi? –deb so‘radim.

- Bobom va buvim, - deb javob berdi.

- Ular yaqin orada seni yaxshi ko‘rishlari haqida aytishganmi? - yana qiziqib so‘radim.

- Kecha... deb javob berdi - u.

- Kecha nima bo‘lgan edi? – qiziqib so‘radim.
- Tug‘ilgan kunim!”.

Psixolog so‘zi. Afsuski, ayrim ota-onalar o‘z farzandlarini yaxshi ko‘rishlarini bildirmaydilar. Nima uchun ayrim ota-onalarning o‘z farzandlariga munosabati yaxshi emas?. Sabablari bir qancha bo‘lishi mumkin. (Vaqtincha farzand ko‘rishni istamaydilar, kutilmaganda farzand dunyoga kelib qoldi. Ota-onalar o‘g‘il bola kutgan bo‘lsa, qiz bola dunyoga kelib qoldi. Bahzida esa bola er-xotin munosabatlari yomonlashib, ajrashgan bo‘lsa, tug‘ilgan farzand otasiga o‘xshashi mumkin, uning harakatlari otaning salbiy harakatlarini ifodalashi mumkin). Oiladagi jiddiy muammolar ota-onalardagi ota-onalik ma’suliyatini pasayishiga olib keladi. Masalan, ota-onalar hayotiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga va bartaraf etishga harakat qiladi, amalga oshmagan orzu va istaklarini ro‘yobga chiqarishga, uyda bajarish zarur bo‘lgan holatlarni amalga oshirishga intiladi. Bular esa ota-onalarni bolaga vaqt ajratishiga va ehtibor qaratishlariga to‘sqinlik qiladi. Albatta bolaga nisbatan ehtiborsizlik salbiy hissiy holatlarning namoyon bo‘lishini keltirib chiqaradi.

«Hissiyotlar ko‘zasi». ***Tarbiyachi yoki psixolog so‘zi***. Hurmatli ota-onalar! Bugun biz sizlar bilan farzand tarbiyasini samarali yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilgan turlicha’sixotrening mashqlar o‘tkazamiz. Kelinglar tasavvur qilamiz, oldimizda kattakon sopol ko‘za turibdi. Biz barcha hissiyotlarimizni suvga qiyoslagan holda mana shu sopol ko‘zaga solamiz. Kuni bilan agar bizni kayfiyatimiz yaxshi bo‘lsa, sopol ko‘za suvga to‘lsa ham to‘kilmaydi. Agar bizni kayfiyatimiz yomon bo‘lsa, suv ko‘zadan toshib chiqib ketadi. Demak, biz doimo ijobiy hissiyotlarni o‘zimizda jo qilishimiz kerak ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Res’ublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 8.05.2019 yil., PQ-4312. www.lex.uz.
2. Azizova Z.F. Maktabgacha katta yosh davrida bola shaxsini rivojlantirish // Ilmiy xabarnoma. Andijon, 2019. – Maxsus son. – B. 87-91.
3. Дуброва В., Ковалевич А. Основи психологии: Хрестоматия: учеб. пособие. – М.: Беларус, 2003. - 495 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Gulyamova Nafisa Burikulovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Rajabova Iroda Olimjon qizi,
O‘ktamova Zulfizar Davron qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’limy yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida hamkorlik texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan yondashuvlarning mazmuni, tamoyillari, metodlari hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, xususan, konstruktivizm va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari asosida hamkorlik texnologiyalarining samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *hamkorlik texnologiyalari, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya, interfaol ta’lim, ta’lim samaradorligi.*

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi nafaqat fan bilimdoni, balki kommunikativ, innovatsion fikrlovchi hamda jamoada ishlash ko‘nikmasiga ega mutaxassis bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Hamkorlik texnologiyalari talabalarning o‘zaro muloqoti, tajriba almashuvi va birgalikdagi faoliyati orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘qituvchini tayyorlash jarayonini passiv axborot qabul qilishdan faol, ijodiy va interaktiv jarayonga aylantiradi. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Hamkorlik texnologiyalarining nazariy asoslari. Hamkorlikka asoslangan ta’lim g‘oyasi ijtimoiy-konstruktivistik qarashlarga tayanadi. Xususan, Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bilimlar ijtimoiy muloqot jarayonida samarali shakllanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish konsepsiyasida ham o‘quvchilarning faol hamkorligi tafakkur taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘riladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo‘lgan Konstruktivizm ta’lim jarayonida bilimni tayyor shaklda berish emas, balki uni o‘quvchi tomonidan faol qurish zarurligini asoslaydi. Hamkorlik texnologiyalari aynan shu tamoyilni amaliyotga tatbiq etadi. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, xususan, hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki jamoada ishlash, samarali muloqot qilish va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim [2]. Hamkorlik texnologiyalari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba, shuningdek, talabalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etish usullarini o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar talabalarning mustaqil fikrlashini, faolligini va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi [3].

Pedagog olimlar fikriga ko‘ra, hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi [5]. Xorijiy tadqiqotlarda ham hamkorlikda o‘qitish samarador ta’lim texnologiyalaridan biri sifatida e’tirof etilgan [6].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, kichik guruhlarda ishlash jarayonida talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va jamoada ishlash malakalarini egallaydi [4].

Hamkorlik texnologiyalari pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirib, talabalarni o‘z fikrini asoslab berishga va boshqalarning fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi. Natijada, ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi hamda talabalarda kelajak kasbiy faoliyatiga nisbatan mas’uliyat hissi shakllanadi. Ta’lim jarayonida hamkorlik texnologiyalarining quyidagi shakllari keng qo‘llaniladi: kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, loyiha asosida ta’lim, munozara va debatlar. Ushbu metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [3]. Xalqaro tajribaga ko‘ra, hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham muhim omil hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar bo‘lajak

o‘qituvchilarning dars jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish malakasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda hamkorlik texnologiyalarining o‘rni.

1. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. Hamkorlik asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi: - kommunikativ madaniyat; - muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish ko‘nikmasi; - liderlik va mas’uliyat hissi; - refleksiv tahlil qobiliyati.

Bo‘lajak o‘qituvchi kelajakda o‘quvchilar bilan samarali ishlashi uchun avvalo o‘zi hamkorlik muhitida shakllanishi lozim.

2. Interfaol metodlardan foydalanish. Hamkorlik texnologiyalari doirasida “Aqliy hujum”, “Jigsaw”, “Klaster”, “Munozara”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar keng qo‘llaniladi. Ushbu metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi hamda pedagogik vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi.

3. Ijtimoiy va psixologik muhitni yaxshilash. Hamkorlik muhitida ta’lim olish talabalarda o‘zaro hurmat, empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantiradi. Bu esa kelajakda sog‘lom pedagogik jamoani shakllantirishga zamin yaratadi.

Hamkorlik texnologiyalarining afzalliklari: 1) ta’lim jarayonining faollashuvi; 2) o‘zlashtirish darajasining oshishi; 3) tanqidiy va ijodiy fikrlashning rivojlanishi; 4) o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmasining shakllanishi; 5) jamoada ishlash madaniyatining mustahkamlanishi.

Bundan tashqari, hamkorlik texnologiyalari raqamli platformalar orqali masofaviy ta’lim sharoitida ham samarali qo‘llanilishi mumkin. Bu esa pedagogik ta’limning moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Amaliy tavsiyalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida hamkorlik texnologiyalarini samarali qo‘llash uchun quyidagilar tavsiya etiladi: 1. O‘quv rejalari va dasturlariga interfaol mashg‘ulotlar ulushini oshirish. 2. Talabalarni kichik guruhlarda loyiha ishlari bajarishga yo‘naltirish. 3. Refleksiya va o‘zaro baholash mexanizmlarini joriy etish. 4. Raqamli hamkorlik vositalaridan foydalanish. 5. Amaliy mashg‘ulotlarda real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim vositalaridan biridir. Ushbu texnologiyalar talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida hamkorlik texnologiyalarini keng joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarni faol o‘quv subyektiga aylantirish hamda pedagogik kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida hamkorlikka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish kelajak avlodni tarbiyalovchi o‘qituvchilarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.

4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

5. Jo‘rayev R.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

6. Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. – Boston: Allyn and Bacon, 2014.

O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

Gulyamova Xalida,
Chirchiq DPU dotsenti.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivohjlantirish, bugungi kunda ona tili o‘qituvchilari va pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda maxsus nostandart mashq va topshiriqlar, innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish – bu jarayonda samarali yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishni didaktik tamoyillar asoslangan holda tashkil etish ona tili darslari samaradorligini oshiradi.

Nutqiy faoliyatga kirishish til ko‘nikmasini yaxshi o‘zlashtirishni taqozo etadi. Nutqiy kompetentsiya lingvistik kompetentsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘qib tushunish va tinglab tushunish kompetentsiyalari asosida egallanadi. Nutqiy kompetentlikka ega bo‘lgan shaxs tilni o‘zlashtirgan, egallagan bo‘ladi. Metodkaning asosiy vazifasi ham ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy komponentlikka ega bo‘lishidir. Nutqiy kompetentsiya lingvistik kompetentsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘qib tushunish va tinglab tushunish kompetentsiyalari asosida egallanadi. Nutqiy kompetentlikka ega bo‘lish uchun shaxs tilning barcha bo‘limlariga oid tushunchalarni, bilimlarni o‘zlashtirgan, egallagan bo‘lishi lozim. Metodkaning asosiy vazifasi ham ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy komponentliligini shakllantirishdir.

Ona tilini o‘qitishning kommunikativ metodologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1. Ona tili ta’limida o‘quvchi faoliyatini ona tilini o‘zlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga aylantirish lozim. Ona tilini fizika va matematika kabi o‘rganish mumkin emas, chunki til - shaxsning bir qismi. 2. O‘quv materiali, o‘qitishning maqsadlari va usullari o‘quvchini aqliy va nutqiy rivojlantirish qonuniyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash. 3. O‘quvchilarning nutqini til me’yorlari va til tizimini o‘rgatish asosida rivojlantirish. 4. Sinfda muayyan nutq janrlaridan foydalangan holda ma’lum mavzular atrofida muloqot holatlarini tashkil etish. 5. Matnni o‘qish, matnda tasvirlangan voqealar ustida ishlashda yuqoridagi yondashuvlarning turli xil kombinatsiyalarini tashkil qilish.

Ona tilini egallashning samaradorligi matn asosida muayyan tahlil tizimini taqozo etadi: matn – matnning mavzusi – mazmuni – sarlavhasi – tizilishi – mantiqiy rivojlanishi – g‘oyasi – leksikasi – grammatikasi – og‘zaki nutqning reallashuvi – nutqiy kamchiliklarning bartaraf etilishi. Mazkur tahlil tizimini quyidagi matn tahlili asosida ko‘rib chiqamiz:

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog‘ sayridan qaytib kelayotgan edi. Yo‘l qabriston oralab o‘tar ekan. Qabristonga yuz qadamlar qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo‘lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan

keyin yana otlariga minib, yo‘lda davom etishibdi. Biroz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

– Bu yerda xalqimizning jigargo‘shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik – tiriklikdagi o‘liklik.

Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e’zozlamoq har bir kishining sharafli burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo‘ygan boladek to Hirotning qorasi ko‘ringuncha tillarini tishlab, aqlini peshlab boribdilar. (Qudrat Hikmat)

1. Matnning mavzusi, mazmuni, tuzilishi, sarlavhasi, g‘oyasi ustida ishlash. Masalan: 1) Matnda nima haqida hikoya qilingan? U bilan bog‘liq qanday voqea bayon qilingan? 2) Matn necha qismdan iborat? Matn nima uchun qismalarga bo‘lingan? Siz matnni necha qismga ajratgan bo‘lardingiz? 3) Matnga nima uchun “Sharafli burch” deb sarlavha qo‘yilgan? Siz matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz? Nima uchun? 4) Yozuvchi bu voqealarni hikoya qilish orqali nima demoqchi? Matn voqealaridan qanday xulosaga keldingiz?

2. Matnning leksik-semantik, grammatik va uslubiy tahlili: 1) ma’nosi izohlanadigan so‘z va iboralarni belgilash: *movlono, mulozim,* sha’n, *padari buzrukvor, tillarini tishlab, aqlini peshlab, jigargo‘shalari, tabarruk, padari buzrukvorlari* kabi. 2) matn voqealari bilan bog‘liq detallarni ifodalovchi kalit so‘z va so‘z birikmalarni aniqlash: *tog‘ sayri, qabriston, boshini quyi solib, mangu uyquga ketmoq, tiriklikdagi o‘liklik. 3)* o‘rganilayotgan lingvistik mavzu bilan bog‘liq birliklar ustida ishlash: yuqorida ma’nosi izohlangan va matndagi boshqa so‘zlarning leksik ma’nosi, so‘rog‘iga asoslangan holda so‘z turkumlari ajratish va nima uchun shunday tasnif qilinganini asoslash:

Fe’l	Ot	Sifat	Son	Ravish	Olmosh

4) matnda qo‘llangan quyidagi leksik birliklarning ma’nosi va uslubiy qo‘llanishi, tarixiy yoki zamonaviy qatlamga xosligi: *mavlono, aqlini peshlab, xok, jigargo‘shalari, tabarruk, padari buzrukvorlari, mangu uyquga ketganlar, sukut saqlab, norozi ohangda, insonlik sha’niga, isnod, tiriklikdagi o‘liklik.* Ushbu jumlalardagi *tiriklikdagi, o‘liklik, buzrukvorlari, ketganlar, peshlab, qabriston* kabi so‘zlarining morfemik tarkibini belgilash va qo‘shimchalar ifodalagan ma’nolarni izohlash. 5) tahlil qilingan so‘zlardan foydalanib insho yozish. Bunday turdagi ta’lim muammolarini hal qilish orqali o‘quvchi lingvistik birlikning nutqiy mexanizmini o‘zlashtiradi.

Assotsiativ tilshunoslik so‘zning inson ongida boshqa so‘zlar bilan assotsiativ bog‘lanishlari (tovush o‘xshashligi, ma’no o‘xshashligi yoki qarama-qarshiligi, umumiy so‘z yasalish modeli, tez-tez birga qo‘llanishi) asosida assotsiativ-verbal tarmoq shakllanadi. Shuning uchun yangi so‘zlarni barcha xilma-xil shakllarida taqdim etish kerak bo‘ladi. Masalan, "Gaplarning tuzilishi va grammatik ma’nosi" mavzusini o‘rganishda quyidagi vazifani taklif qilish mumkin. *Bu yerda xalqimizning jigargo‘shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring?*

Qudrat Hikmatning Alisher Navoiy haqidagi rivoyatini o‘qib qanday xulosaga keldingiz? Yozuvchining "tiriklikdagi o‘liklik" iborasini yana qanday voqealar bilan bog‘lash mumkin? Mazkur rivoyat asosida Alisher Navoiyga tavsif bering.

Shu tarzda ona tilini o‘qitishning kommunikativ yo‘nalishi bilimlarni rasmiy emas, balki ongli ravishda o‘zlashtirish uchun shart-sharoitlarni, o‘quv predmeti bilan hayot o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’minlaydi, chunki kommunikativ o‘quv vazifalarini bajarish o‘z matnini yaratishda (yoki javob, og‘zaki yoki yozma) o‘quvchi - qabul qiluvchining xususiyatlarini, aloqa shartlari va maqsadlarini hisobga oladi. Shu bilan birga, ona tilini o‘rgatish faqat dars doirasida emas, balki o‘quvchilarning faol ishtirokida yaratilgan ta’lim va lingvistik muhit doirasida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
2. O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi MO‘D. Ona tili. – T.: 2020.
4. S.Matchonov va b. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. 2020.
5. X.G‘ulomova, X.Bakiyeva. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Zebo Print. 2025.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI ANALITIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Husenova Aziza Sharipovna,
Buxoro DPI dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarini analitik yondashuv asosida baholash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va fikrni ifodalash ko‘nikmalarini aniqlashda analitik baholash mezonlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qish savodxonligini samarali baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, analitik yondashuv, baholash, samaradorlik, kompetensiya, o‘quv jarayoni.*

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qish savodxonligini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘qish savodxonligi o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichlarida bilimlarni o‘zlashtirishi, matnni tushunishi, tahlil qilishi hamda mustaqil fikr yuritishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini nafaqat rivojlantirish, balki uni samarali va aniq mezonlar asosida baholash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. An’anaviy baholash tizimlari ko‘pincha o‘quvchilarning bilim darajasini umumiy ko‘rsatkichlar orqali aniqlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qish jarayonining muhim jihatlari [1; 250-b.] – matn mazmunini tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va fikrni ifodalash kabi ko‘nikmalarni to‘liq aks ettira olmaydi. Shuning uchun zamonaviy ta’lim jarayonida analitik yondashuv asosida baholash tizimini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Analitik baholash o‘quvchilarning o‘qish faoliyatini turli mezonlar asosida chuqur tahlil qilish, ularning individual rivojlanishini aniqlash hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi

darslarini analitik yondashuv asosida baholash tizimini takomillashtirish, uning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish bugungi kun pedagogikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada o‘qish savodxonligini baholash jarayonida analitik yondashuvning o‘rni, uning pedagogik imkoniyatlari hamda baholash tizimini takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qish savodxonligini rivojlantirish va uni samarali baholash ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘qish savodxonligi o‘quvchining matnni o‘qish, tushunish, mazmunini tahlil qilish hamda o‘qilgan ma’lumot asosida mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etish va baholash jarayoni aniq mezonlar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanishi zarur. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘qish faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularning individual rivojlanish darajasini aniqlash va ta’lim samaradorligini oshirishda baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashda xalqaro tadqiqotlar muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi [3; 89-93-b.]. Shunday tadqiqotlardan biri – Progress in International Reading Literacy Study hisoblanadi. Ushbu tadqiqot International Association for the Evaluation of Educational Achievement tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, ilk marotaba 2001-yilda o‘tkazilgan va har 5 yilda bir marta amalga oshirib kelinmoqda. PIRLS tadqiqotining asosiy maqsadi boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasini aniqlash, ta’lim tizimlari samaradorligini solishtirish hamda o‘qish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni tahlil qilishdan iborat. Mazkur tadqiqot asosan 4-sinf o‘quvchilari, ya’ni taxminan 9–10 yoshdagi bolalar o‘rtasida o‘tkaziladi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilar “o‘qishni o‘rganish” jarayonidan “o‘qish orqali o‘rganish” bosqichiga o‘ta boshlaydi. PIRLS dasturida o‘qish savodxonligi o‘quvchining turli matnlarni o‘qish, ularning mazmunini tushunish hamda o‘qilgan ma’lumotdan turli vaziyatlarda foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasi bir necha kognitiv jarayonlar asosida baholanadi. Jumladan, matndan aniq ma’lumotni topish, matn mazmunini tushunish, ma’lumotlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni aniqlash, matnni tahlil qilish hamda baholash kabi ko‘nikmalar muhim mezon sifatida qaraladi [4; 160-b.]. O‘zbekiston ham xalqaro baholash dasturlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, mamlakatimiz PIRLS – 2021 tadqiqotida ilk bor qatnashdi. Ushbu jarayonni tashkil etishda Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi muhim rol o‘ynadi. Tadqiqotda respublikaning turli hududlaridan tanlab olingan umumta’lim maktablarining 4-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash va tahlil qilish imkonini berdi. Boshlang‘ich sinflarda an’anaviy baholash tizimi ko‘pincha o‘quvchining faqat o‘qish tezligi yoki matnni to‘g‘ri o‘qish ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadi. Biroq bunday yondashuv o‘quvchining o‘qilgan matnni qanchalik chuqur anglaganligini to‘liq aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli o‘qish savodxonligini baholash jarayonida analitik yondashuvdan foydalanish muhim hisoblanadi. Analitik baholash tizimi o‘quvchining o‘qish faoliyatini bir nechta mezonlar asosida alohida tahlil qilish imkonini beradi [2; 210-b.].

Analitik baholash jarayonida o‘quvchilarning o‘qish faoliyati quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar asosida baholanishi mumkin: matnni to‘g‘ri va ravon o‘qish, matn mazmunini tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, matndagi voqealar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni tushunish hamda o‘qilgan matn asosida mustaqil fikr bildirish. Ushbu

mezonlar o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasini kompleks ravishda aniqlash imkonini beradi. Analitik baholash tizimi o‘qituvchiga har bir o‘quvchining individual rivojlanish darajasini aniqlash va ta’lim jarayonini shunga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi. Baholash natijalari asosida o‘quvchilarning qaysi ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlanadi va shu asosda differensial yondashuv, qo‘shimcha mashqlar hamda individual topshiriqlar ishlab chiqiladi. Natijada o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarini analitik yondashuv asosida baholash tizimini joriy etish o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyalarini chuqurroq tahlil qilish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda xalqaro baholash dasturlari, xususan PIRLS tadqiqoti mezonlari asosida o‘qitish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini samarali rivojlantirish uchun baholash tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Analitik baholash o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini aniq mezonlar asosida tahlil qilish, ularning individual rivojlanish darajasini aniqlash hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlaridan, xususan Progress in International Reading Literacy Study mezonlaridan foydalanish o‘qish savodxonligini rivojlantirish va baholash tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018. – 250 b.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. - 210 b.
3. Omonova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: 2022.
4. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro baholash tadqiqotlari bo‘yicha metodik materiallar. – T, 2022. -160 b.

O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQA IJODIYOTI NAMUNALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ibragimova Madina Raxim qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.
Ilxomov Muxtor Atxamovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti, Ilmiy rahbar.

Musiqa ijodiyotida xalqimizning o‘tmish an’analari, boy va teran ma’nolarga asoslangan tarixi muhrlangan. Ularning har bir namunasi tarixdan bir sadodir. Binobarin, ularni qanchalik o‘rganmaylik, qanchalik sirlaridan voqif bo‘lmaylik, shunchalik yangi qirralari ochilib, o‘zining benazir xususiyatlarini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan o‘zbek mumtoz musiqasini o‘rganish, ularda mujassam etilgan falsafiy g‘oyalarni anglash, tarix sadolarini uqib olish, ularning siru sinoatlarini idrok etish uchun bugungi kunda imkoniyatlar yetarli.

Ma’lumki, o‘zbek an’anaviy musiqasi o‘tmishdan ikki yo‘nalish, ya’ni bir-biridan paydo bo‘luvchi, bir-birini to‘ldiruvchi, shu bilan birga o‘zining alohida xususiyatlari va

sifatlariga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan tashkil topgan. Shulardan bin, hayotiy mezon bilan bog‘liq musiqa folklori bo‘lsa, ikkinchisi, ana shu jonli jarayonning ijodkorlar tafakkuri bilan to‘ldirilgan mumtoz musiqa yo‘nalishidir. Shakllanish va ravnaqi yo‘lida har ikki yo‘nalish o‘zining ichkiqonuniyatlari, shaklu shamoili, ishlash uslubi, mavqei, joyi, vaqti, ijro an’analari va shu kabi qator xususiyatlarga ega bo‘lgan. Har ikki yo‘nalishda ham umumiy hisoblangan milliy an’analar bilan bog‘liq tomonlari bo‘lgani kabi, o‘z yo‘nalishiga xos uslublarni ifoda etadigan alohida jihatlari ham yo‘q emas. Lekin ijodiy mezon, ijrochilik an’analari va talqin masalalarida e’tiborga loyiq o‘ziga xoslik jihatlari talayginadir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda zavq bilan tinglanayotgan, maroq bilan aytilayotgan ashula, yalla, katta ashula, doston, cholg‘u kuylari va maqomlar o‘zbek mumtoz musiqasining etuk janrlari hisoblanadi. Xalqimiz va uning namoyandalari yaratgan ana shu ma’naviy boyliklarimiz butun o‘zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Manbalarga ko‘ra, professional (ustozona) san’at bizning hududlarimizda milodning birinchi asrlarida yuzaga kelgan va rivojlangan. Mumtoz musiqa xalq musiqa ijodi namunalari negizida va ijrochilik madaniyatining rivoji, keyinchalik Sharq mumtoz she’riyati shakllanishi asosida tashkil topgan. Mumtoz musiqa deganda o‘zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda-bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san’ati namunalari (aytim-ashula va cholg‘u musiqalari) ko‘zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi:

1. Og‘zaki tarzlilik – mumtoz musiqa xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan ijod mahsulidir. Ma’lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor va mumtoz asarlar omma (xalq) tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. O‘rta asrlarda esa iste’dodli (yetuk) sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Og‘zaki an’anadagi mualliflik ijodi, ommaviy ijod singari, xalq hayoti va uning turli tomonlarini to‘g‘ri, aniq, badiiy jihatdan mukammal ifoda etishi, xalq didi va talabiga mos tusha olishi tufayli uzoq yashaydi. Demak, mumtoz musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og‘zaki an’ana bilan bog‘liqdir.

2. An’anaviylik – mumtoz musiqa namunalari an’ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda. An’ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o‘tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushuniladi. An’anaviylik asarlarning og‘zaki tarzda yaratilishi, ijro etilishi va tarqalishida; asarlarning matnida (kuy va she’r), ijro uslublarida namoyon bo‘ladi. Mumtoz asarlarning musiqiy-poetik matni janrlarga ko‘ra uzoq muddat davomida doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega (tasvir vositalari, parchalar, obrazlar tasvirida namoyon bo‘ladi). Ijro etishda (ma’lum uslublarning saqlanishida) ham an’anaviylik mavjuddir.

3. Professionallik – muratoz musiqa asarlari yaratilishi va ijro etilishi professional sifatlar (keng diapazonli ovoz sohibi, mohir sozanda, musiqa va she’riyat qonuniyatlarini bilish va ularga rioya qilish, ma’lum voha va ijrochilik maktabi an’analariga bo‘ysunish)ga va mahoratga ega bo‘lishdir. Ushbu musiqa namunalari o‘ziga xos ijod va ijro jihatlari tufayli professionallikni talab etadi.

4. Mualliflik – mumtoz musiqa ijodiyoti yetuk sozanda va bastakor mahsulotidir, u individual-mualliflik (ma’lum shaxs tomonidan yaratilgan) ijodga kiradi. To‘g‘ri, aksariyat asarlarning mualliflari noma’lum, ammo ayrim asarlarning nomlari ijodkorva ijrochining ismlarj bilan yuritilgan, masalan, Abdurahmonbegi, Karimqulbegi, Ashkullo saqili, Sodirxon Hofiz Ushshog‘i, Hoji Abdulaziz Ushshog‘i va h.k. Ushbu asarlar

o‘zining kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro usullari mukammalligi bilan ajralib turadi. Ular «ustoz-shogird» ta’limotini o‘tgan yetuk sozanda, xonanda, baxshi, shoir, katta ashulachi va maqomchilar tomonidan ijro etiladi. San’atkorlar xalqning orzu va umidlarini, sevinch va hayratlarini, quvonch va qayg‘ularini, jamiki insoniy qalb ehtiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab borib, kishilarga hamisha ruhiy-ma’naviy ozuqa berishgan. Ular mumtoz musiqa orqali nafosat va ezgulik olamiga tinglovchini oshno qilish istagida bo‘lib, o‘lmas qadriyatlar bilan hamisha bahramand etib kelganlar.

5. Lokallik – mumtoz musiqa namunalari mahalliy ijro uslubiga egadir, shu tufayli Buxoro «Shashmaqomi», «Xorazm maqomlari» turkumi, Farg‘ona-Toshkent maqomlari yoki katta ashula janri faqatgina Farg‘ona vodiysida shakllangan, rivojlangan va tarqalgan yoki dostonchilik san’ati Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm ijro uslublari va an’analariga bo‘linadi; ularning har biri o‘z mavqei, mazmuni, kuy tuzilishi va rivoji, ijrochilik uslublari bilan bir-biridan farq qiladi.

O‘zbek mumtoz musiqasida hozirga qadar ko‘lami jihatidan birmuncha kengligi, tarixan qadimiyligi, ijro xususiyatlari bo‘yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to‘rtta mahalliy uslub tavsiflari alohida ajratilgan bo‘lib, ularning har biri muayyan voha nomi bilan, ya’ni Farg‘ona-Toshkent, Buxoro- Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo va Xorazm lokal (mahalliy) uslublari deb yuritiladi. Har biri jug‘rofiy va madaniy muhiti, tarixan aholi-ning turmush tarzi, musiqiy shevasi, musiqa janrlari va chol-g‘ularining tarqalishi hamda ijro uslublari bilan ajralib turadi. Har bir hudud yoki vohaning o‘ziga xos mahalliy ijrochilik maktablari an’analarini saqlanib, rivojlanishida namoyandalarning xizmati katta bo‘lgan [5]. Mumtoz masiqa ijrochiligi sohasida San’atkorlar «ustoz-shogird»chilik an’anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo‘llagan holda faoliyat ko‘rsatib kelishgan. Ular Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan o‘zaro yaqin aloqalarda bo‘lishgan.

Darhaqiqat, mumtoz musiqa insonning moddiy va ma’naviy turmush talablari, ehtiyojlari va o‘zini qurshab turadigan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo‘lgan munosabatlari natijasida, mumtoz she’riyatning va ijrochilik mahoratining rivojida yuzaga kelgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-umidlari musiqa ohanglarida aks etadi. Ushbu musiqa namunalari minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog‘onalarga ko‘tarilgan va xalqning madaniy-ma’naviy boyligiga aylangan.

Har bir mumtoz musiqa asari, birinchi navbatda kishiga ruhiy engillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda bo‘lishini shakllantiradi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta’sir vazifasini ham o‘taydi. Musiqa asarlarining kishi ruhiyatiga ta’siri haqidagi flkrlarni qadim davrlarda yashab o‘tgan olimlarning asarlarida ham uchratishimiz mumkin [4]. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkirlari o‘zlarining «musiqiy risolalarida» musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri, turli his-tuyg‘ular uyg‘ota olish xususiyatlarini batafsil tahlil qilishib, jumladan, maqom va ularning sho"balari kishiga shijoat va jasorat bag‘ishlaydi deb uqtirib o‘tishgan. Navo yoki Ushshoq jozibador va ohangdor maqom yo‘llari deb hisoblansa, Rost yoki Iroq nozik va yoqimli maqom yo‘llari bo‘lib, kishiga huzur, xushchaqchaq kayfiyat bag‘ishlaydi. Buzruk yoki Segoh va ularning sho"balari ulug‘vorlik, g‘amginlik, quvonch hamda qayg‘u kayfiyatini qo‘zg‘aydi. «Dilxiroj» cholg‘u kuyini tinglaganda kishida ko‘tarinki ruhiy holat vujudga kelsa, «Cho‘li iroq» kuyi ruhan moziydan sado eshitilgandek bo‘ladi. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabatini shakllantirishdagi mumtoz musiqaning vazifasi insonning ta’sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdujalilova Sh. Abdurauf Fitratning “Tarbiya” fani talqini (risola) Toshkent – 2020.
2. Abduazimov R. Cholg‘u ijrochiligi / (o‘quv qo‘llanma) Toshkent – 2016.
3. Matyakubov O. Buxoro shashmaqomi. Toshkent – 2018.
4. Oripov Z. Navoiy davri musiqa risolalari haqida // Musiqa ijodiyoti masalalari II, - T., 2002
5. https://hozir.org/mavzu-ozbek-mumtoz-musiqasi

MUSIQIY CHOLG‘U IJROCHILIGIGA OID MA’LUMOTLAR

Isayev Sunnatullo,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor. Ilmiy rahbar.

Milliy ma’naviyat va ma’rifat, yangidan ko‘z ochayotgan bir davrda mafkuramizni rivojlantirishda, xalqimizning umrboqiy san’at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o‘rganish va san’atsevar xalqimizga yetkazish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bu borada o‘lmas merosimiz, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan xalq an’anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o‘tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlariga murojaat qilish bilan birga, bobokalon san’atkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o‘rganamiz. Xalqimizning bebaho boyligiga aylangan musiqa merosimiz o‘zining boy tarixiga ega bo‘lib, davr o‘tgan sari uni o‘rganishga extiyoj ortib bormoqqa.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san’atining rivojlanishi, qadim zamonlarga bog‘lanib ketadi. Buyuk Sharq allomalari Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Abdulqodir Marog‘iy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhmud, Darvesh Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarni, o‘zlarining fikr va muloxazalarini bayon etib ketganlar.

Mashxur qomusiy asar «Qobusnoma»da ham san’atchilik qoidalariga bag‘ishlangan aloxida bob, o‘rin olgan. Zaminimizda o‘tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutor, surnay, qonunga o‘xshash sozlar, toshlarga o‘yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari o‘lkamizda ijrochilik san’ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo‘lmish maqom, mug‘om, dastgoh, navba, raga, kuyi kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san’atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVIII asrlarda O‘rta Osiyo, Xuroson va Ozarboyjon xalqlari musiqasida quyidagi o‘n ikki (duvozdah) maqom mavjud bo‘lgan. Bular: «Ushshoq», «Navo», «Busalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Raxoviy», «Zangula», «Iroq», «Isfaxon», «Zirafkand», «Buzruk».

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo‘lsak, ulug‘ olim Mirzo Ulug‘bek Tarag‘ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar

bayoni duvozdah maqom» (O‘n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: «Xoja Abdulqodir ibn Abduraxmon Marog‘aiy, Xoja Sayfiddin Abdulmo‘min, Sulton Uvays Jaloiriylar» ning so‘zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo‘lgan: «Maqomi Rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Raho‘», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug‘ bobomiz Ulug‘bekning o‘zi tanbur va nog‘orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig‘» singari usullarni ixtiro qilganligini ta’kidlab o‘tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo‘llari sayqallangan ko‘rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlariga qarab, ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo‘llari ham o‘z o‘rnini topganligi ehtimoldan holi emas. Natijada, keyingi asrlarga kelib Buxoroning «Shashmaqom»i («Olti maqom»): «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o‘zining nasr va mushkilot qismlari bilan rivojlangan bo‘lsa, Farg‘onaning «Chor maqom»i («To‘rt maqom»): «Dugoh-Xusayn»ning yettita yo‘li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo‘li, «Gulyori shaxnoz»ning oltita ijrochilik yo‘li hamda «Bayot» yo‘llari bilan jilolanib ijro etib kelingan.

Xalq san’atining ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov «Milliy musiqa san’atimiz bamisoli bir daraxt bo‘lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg‘onadir» deb ta’riflagan ekanlar. Ustozning bu so‘zlarida katta ma’no yotadi. Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yilliqda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Bu tushunarli. Chunki, eng qadimgi mehnat qo‘shiqdari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq. Keyin shovqinli cholg‘ular paydo bo‘ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta’kidladilar, shovqinli cholg‘ular ta’sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas, go‘zal holatni vujudga keltirar edi.

Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, xushtak, yana biroz o‘tgach esa nay (bo‘ylama, ko‘ndalang, ko‘p yo‘lli), naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifarlar yasaldi. Vaqt o‘tib u cholg‘ular yanada takomillashib (ko‘p yo‘lli, shuningdek zamonaviy ko‘p teshikli) naylar yuzaga keldi. So‘ngroq torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg‘ulari paydo bo‘ldi. Ulardan saroy ayonlarining marosimlarida, xarbiy yurishlarida foydalanildi.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog‘ida o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qobuzlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Asrimizning 30-40 yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspediqiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O‘rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg‘ularini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg‘u, hozirgi doiraga o‘xshash do‘mbira va shu singari cholg‘ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqal’a, Ayratam (Ayratam frizi deb ataladi) kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg‘u, qonun, ud, rud, shemane (musiqor), chag‘ona, chiltor, nay, burg‘u, surnay, karnay, doirasimon cholg‘ularida mashq qilishlari tasvirlangan.

Xalq cholg‘ulari O‘rta Osiyo axolisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq, o‘yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma’lum. Bayramlar ko‘proq yil fasllari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyoda «Navro‘z», «Lola sayli», «Hosil fasli», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg‘u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvir qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog‘ora va chindoul kabi va urma ar-li musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitmetov I.A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: - O‘qituvchi. - 1997.
2. Sharipova G.M. Musiqa tarbiyasi metodikasi. Toshkent. - 1997.
3. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. O‘qituvchi, - T. - 1975.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI MODELI

Iskandarova Jasmina Jonibek qizi,
Norboboyeva Sabrina Abdurahmon qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlig modeli haqida yuritiladi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini tizimli tahlil qilish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va baholash mezonlari asosida samarali pedagogik diagnostika metodlarini ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *model, kompetensiya, o‘qituvchi, ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, baholash, diagnostika, test, anketa, portfolio.*

Kirish. Zamonaviy pedagogik jarayonlarda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini aniqlash va baholash dolzarb masala hisoblanadi. Ta’lim sifati bevosita o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlariga bog‘liq. Shuning uchun pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlikni baholash vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinfda faoliyat yurituvchi 50 nafar o‘qituvchi ishtirokida pedagogik diagnostika o‘tkazildi. Diagnostikada test sinovlari, anketalar, portfoliolar tahlili, kuzatuv va ekspert baholash metodlari qo‘llanildi. Tojiboyeva G.R. tomonidan taklif etilgan 8 kompetensiyali model asosida indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va baholash uch darajada (yuqori, o‘rta, past) amalga oshirildi. Kompetentlikni aniqlashda nazariy bilimlar, metodik malaka, texnologik savodxonlik, refleksiya va kommunikativ qobiliyatlar asosiy mezon sifatida baholandi. O‘tkazilgan diagnostika natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 40 foizi yuqori, 48 foizi o‘rta va 12 foizi past darajada kompetentlikka ega ekani aniqlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, pedagogik kompetentlikning shakllanishi ko‘p jihatdan innovatsion yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish darajasi va o‘z faoliyatini refleksiya qilish qobiliyatiga bog‘liq. Diagnostika natijalariga tayangan holda o‘qituvchilarning kasbiy

o‘sishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida individual malaka oshirish kurslari va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Asosiy qism. Kasbiy kompetentlikni baholashda zamonaviy yondashuvlar – bu nafaqat testlar, balki kuzatuv, portfoliolar, refleksiya va faoliyat tahliliga asoslangan kompleks tizimdir. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlarini o‘rganish, milliy ta’lim tizimiga mos metodikalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish va baholashda tizimli yondashuv zarur. O‘qituvchilarni doimiy ravishda diagnostikadan o‘tkazish, individual rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, metodik ko‘mak ko‘rsatish – bu ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar: 1. Har bir maktabda o‘qituvchi portfoliolarini yuritish tizimini joriy etish. 2. Diagnostika asosida malaka oshirish kurslarini moslashtirish. 3. Yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha treninglar tashkil etish.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari:

Kasbiy kompetentlik – bu o‘qituvchining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, shuningdek, bu bilimlarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

• Metodik kompetentlik – fan bo‘yicha dars mazmunini loyihalashtirish, interfaol metodlarni qo‘llay olish, darslarni tizimli tashkil eta olish.

• Kommunikativ kompetentlik – o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, psixologik yondashuvlar, muomala madaniyatini namoyon etish.

• Ijtimoiy-psixologik kompetentlik – o‘quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish, ularga mos yondashuvni tanlash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish.

• Texnologik kompetentlik – zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan foydalanish, ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish.

O‘zbekistonlik bir qator olimlar ushbu yo‘nalishda samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar: Jumladan, Axunova N.X. – kasbiy kompetentlikni baholash metodikasi, pedagogik baholash vositalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan [1]. Tojiboeva G.R. – boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari kompetentligini rivojlantirish, metodik tayyorgarlik va muloqot madaniyati diagnostikasiga oid tadqiqotlar muallifi [4]. Shodmonova S.S. – zamonaviy o‘qituvchining kasbiy portretini chizish, refleksiya va shaxsiy yondashuvga asoslangan diagnostika metodlarini taklif qilgan [3].

Xorijiy olimlardan Xalqaro miqyosda kasbiy kompetentlik va pedagogik diagnostika bo‘yicha quyidagi olimlar e’tirofga sazovor: V.V.Serikov (Rossiya) – o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasi va pedagogik faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqqan [6]. E.Zeer (Rossiya) – kasbiy o‘zlik, psixologik tayyorgarlik va kasbiy kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganib chiqqan [5]. Sh.Shrayberg (Rossiya) – AKT sohasidagi pedagogik kompetensiyalar diagnostikasiga bag‘ishlangan ishlari bilan tanilgan. Linda Darling-Hammond (AQSh) – o‘qituvchilik sifati, baholash standartlari va reflektiv faoliyat asosida kompetentligini baholash bo‘yicha xalqaro yetakchi ekspert [7]. Philippe Perrenoud (Shveytsariya) – o‘qituvchining kompetentlik modeli, ta’limda refleksiya va mustaqil faoliyatga asoslangan diagnostika yondashuvlarini ishlab chiqqan [2].

Kasbiy kompetentlikni baholash zarurati. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini aniqlash quyidagi sabablarga ko‘ra muhimdir: 1) o‘qituvchining faoliyatini obyektiv baholash imkonini beradi; 2) rivojlanishga muhtoj sohalarni aniqlaydi; 3) malaka

oshirish dasturlarini individuallashtirishga xizmat qiladi; 4) ta’lim sifati monitoringi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika vositalari va metodlari

Pedagogik diagnostika – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatini o‘rganish, baholash va natijalarni tahlil qilish jarayonidir. Bu borada quyidagi metodlar keng qo‘llaniladi: *1. Test sinovlari* – o‘qituvchining nazariy bilim darajasini aniqlash. *2. Anketalar va so‘rovnomalar* – o‘qituvchining o‘zini baholashi, kasbiy o‘sish ehtiyojlarini aniqlash. *3. Kuzatuv* – o‘quv jarayonini tahlil qilish, o‘qituvchining o‘zaromuloqotini baholash. *4. Portfoliolar tahlili* – o‘qituvchining yutuqlari, ishlari, loyiha va metodik materiallari asosida kompetentligini aniqlash. *5. Baholash varaqalari* – ekspertlar tomonidan o‘qituvchining faoliyatini tahlil qilish.

Baholash mezonlari. Kasbiy kompetentligini aniqlashda quyidagi mezonlar asos bo‘lib xizmat qiladi: 1. Bilim darajasi – fanga oid nazariy bilimlar. 2. Metodik malaka – interfaol metodlarni qo‘llay olish. 3. Innovatsion yondashuv – yangilikka ochiqlik va texnologik savodxonlik. 4. Refleksiya qobiliyati – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish.

Xulosa. Kasbiy kompetentlikning pedagogik diagnostikasi o‘qituvchilarning professional o‘sishida muhim vosita hisoblanadi. 8 kompetensiyali model asosidagi baholash matritsasi tizimli va obyektiv baholash imkonini beradi. Diagnostika natijalari pedagogik jarayonni samarali boshqarish va takomillashtirish uchun asos bo‘ladi. Kelgusida pedagogik diagnostika metodlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, digital texnologiyalarni keng qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axunova N.X. Pedagogik kompetentlik va uning diagnostikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
2. OECD. Teachers and Leaders in Schools: Pedagogikal Competency Frameworks. – 2019.
3. Shodmonova S.S. Zamonaviy o‘qituvchi portreti. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023.
4. Tojiboyeva G.R. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligini o‘lchash test tizimi. Toshkent, 2022.
5. Zeer E.F. Professional’noe razvitie lichnosti. Moskva: Akademiya, 2012.
6. Serikov V.V. Lichnostno orientirovannoe obrazovanie. Moskva: Logos, 2004.
7. Darling-Hammond L. Teacher Education and the American Future. Journal of Teacher Education, 2006.

TALABALARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI


Islomov Eldor Yusupovich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonida individual yondashuvni qo‘llashning pedagogik ahamiyati o‘rganilgan. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida har bir talabani individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va qobiliyatlarini hisobga olish orqali ularning jismoniy salomatligi, kuch, chidamlilik, tezlik va moslashuvchanlik kabi asosiy jismoniy sifatlarini samarali rivojlantirish mumkinligi ta’kidlangan. Maqolada pedagogik nazariya va amaliyotdagi yondashuvlar, shuningdek, individual mashg‘ulot dasturlarini tuzishda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan*

asosiy prinsiplar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv talabalar motivatsiyasini oshiradi, mashg‘ulotlarga qiziqishni kuchaytiradi va umumiy jismoniy rivojlanish darajasini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: *individual yondashuv, talabalar, jismoniy sifatlar, pedagogik ahamiyat, mashg‘ulotlar, salomatlik, motivatsiya.*

Bugungi globallashuv davrida talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va jismoniy madaniyatni shakllantirishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Talabaning ongli shaxsiy faoliyati mukammallashishi, jismoniy tarbiya jarayonida individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishi nafaqat ularning sog‘lom turmush tarzini ta’minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy sog‘lomlashuvi va barkamol shaxslar tayyorlash jarayoniga ham bevosita ta’sir qiladi. Jismoniy madaniyat – bu talabalarni nafaqat jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon bo‘lib, u g‘oyaviy, ilmiy-uslubiy va tashkiliy asoslarga ega. Talabalarni ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda jismoniy tarbiya umumiy madaniyatning ajralmas qismini tashkil qiladi. Bu esa o‘z navbatida, mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va talabaning individual imkoniyatlariga moslashgan pedagogik yondashuvni qo‘llashni talab etadi. Jismoniy madaniyat tizimi deganda jismoniy tarbiya vositalari, uslublari, uni tashkil etish va o‘tkazish shakllari tushuniladi, ular orqali jamiyat a’zosining har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. Har bir jismoniy madaniyat tizimi harakatda bo‘lishi bilan shartlanadi va unga hamma vaqt qat’iy rioya qilinadigan pedagogik tamoyillar asos bo‘ladi. Ushbu tamoyillar 2015-yil 4-sentyabrda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Shuni ta’kidlash lozimki, jismoniy madaniyat talabalarda individual yondashuv asosida rivojlantirilsa, ularning kuch, chidamlilik, tezlik, moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatlari samarali oshadi, motivatsiyasi kuchayadi va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligi yanada mustahkamlanadi. Shu bois, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuv pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.



Rasm. *Jismoniy madaniyat tizimining asosiy elementlari.*

Jismoniy madaniyatning asosiy maqsadi talabalarda nafaqat jismoniy barkamollikni, balki ma’naviy, psixofizik va ijtimoiy jihatdan mukammal shaxsni tarbiyalashdir. Ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali yosh avlodning sog‘lom turmush tarziga e’tiborini oshirish, sog‘lig‘i haqida mas’uliyatni ijtimoiy burch sifatida qabul qiladigan shaxslarni shakllantirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi jismoniy madaniyat tizimi boshqa ijtimoiy bosqichlardagi tizimlardan tubdan farq qiladi [2]. U, eng avvalo, maqsadlarning umumbashariyligi bilan

ajralib turadi va vositalar, metodlar, mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllarini tanlashda, shuningdek, me’yoriy va dasturiy hujjatlarda o‘z ifodasini topadi. Jismoniy madaniyat tizimi quyidagi asosiy elementlardan iborat [3] ***(rasmga qarang).***

Tizimning samarali ishlashi uchun moddiy-texnik baza (sport inshootlari, jihozlar, moliyaviy ta’minot), g‘oyaviy asos (ilmiy tadqiqotlar, maxsus adabiyotlar, targ‘ibot ishlari) va malakali mutaxassislar (o‘qituvchilar, murabbiylar, ilmiy izlanuvchilar) zarurdir. Ushbu shart-sharoitlar jismoniy madaniyat tizimi elementlaridan tashqari bo‘lsa-da, uning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.

Talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati katta. Har bir talabaning jismoniy tayyorgarlik darajasi, qobiliyatlari, sog‘lik holati va motivatsiyasi inobatga olinishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu orqali talabalar quyidagi ko‘nikmalar va sifatlarni shakllantiradi: Jismoniy madaniyat talabaning shaxsini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish va jismoniy mashqlarni muntazam bajarish zaruratini anglash orqali talabaning umumiy salomatligi va chidamliligi mustahkamlanadi [4; 45-48-b.]. Jismoniy tarbiya jarayonida psixofizik tayyorgarlik oshiriladi, shaxsiy sifatlar takomillashadi, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatda jismoniy tayyorgarlik va sport mashg‘ulotlaridan ijodiy foydalanish tajribasi to‘planadi.Shuni ta’kidlash kerakki, talabalarning jismoniy madaniyatini yuksaltirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga, ish qobiliyatini mustahkamlashga va jamoat sog‘lig‘ini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, individual yondashuvni qo‘llash jismoniy tarbiya jarayonining pedagogik samaradorligini ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi [5].

Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuv pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Har bir talabani uning jismoniy tayyorgarligi, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish nafaqat shaxsning barkamolligini ta’minlaydi, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantiradi, psixofizik tayyorgarlikni oshiradi va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Shu bois, jismoniy madaniyatni yuksaltirish va innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash orqali talabalar motivatsiyasini oshirish, ularning jismoniy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy-sog‘lom muhitini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun. 2015-yil 4-sentyabr.

2. Xolmatov, A. Talabalarda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. - 150 b.

3. Karimov, R. Jismoniy madaniyat va sport pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 180 b.

4. Islomov, S. Pedagogik yondashuvlar va individual rivojlanish. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.

5. Rustamov, B. Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi. Samarqand: Pedagogika, 2021. - 250 b.

TALABALARDA KASBIY KREATIVLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI VA UNING NATIJALARI

Ismanova Ma’mura Abdumo‘minovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish holati tahlili hamda mualliflik tehnologiyalari va mashqlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, innovatsion ta’lim, kommunikativ kompetensiya, respondent talaba, statistika, emperik, tajriba-sinov, tasniflash.*

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirishga doir pcixologik-pedagogik, metodik adabiyotlar o‘rganilib tahlil qilindi. Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish holati tahlil qilindi hamda uni ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati o‘rganildi. Talabalrda kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish ilmiy-metodik-tashkiliy muammo ekanligi ko‘rcatildi. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati izlanuvchan bocqichida Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish va o‘tkazish uchun co‘rovnoma ishlab chiqildi. So‘rovnoma tanlangan talabalar o‘rtasida o‘tkazildi.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat talabalar darslarda kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish masalasi yoritilmaganligi, asosan, mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishga qaratilgan manbaalar mavjudligi, kreativ ko‘nikmani rivojlanutiruvchi maxsus kurslarning mavjud emasligini ta’kidlagan.

Oliy ta’limda maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga dars beruvchi o‘qituvchilar bilan bo‘lgan suhbat jarayonida ular quyidagicha fikrlarni bildirdilar. Oliy ta’limga endigina kelgan talabalar orasida turli ta’lim muassasasida tarbiyalangan yoki o‘quv mashg‘ulotlarining tayyorlov bosqichida shug‘ullangan, oliy ta’limga ruhan tayyor bo‘lmagan talabalarning o‘zlashtirishi orasidagi farqni va qiyinchiliklarni ta’kidlab o‘tdilar. Bundan tashqari, o‘qituvchilarining yondashuviga qarab talabalarda kreativlik ko‘nikmasining tor doirada yoki keng miqyosda olib borilishidagi farqlarni aytib o‘tdilar. O‘quv mashg‘ulotlari jarayonida talabalarda kasbiy ko‘nikmani rivojlantirishda turli interaktiv metodlardan kam foydalanishlari, darslarni mediatexnologiyalar asosida qiziqarli tashkil etishlarida darslar vaqtini to‘g‘ri taqsimlab, undan unumli foydalana olmasliklari ma’lum bo‘ldi. O‘qituvchilarning dars jarayonida qo‘llaydigan metodikalari asosan talabalarning fanni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini o‘stirishga oid bilimlarni oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarda kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish bo‘yicha tashkil etiladigan darslar mazmuni, shakl, metodlari ishlab chiqildi. Kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan dars–mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikaci tizimlashtirildi. Mualliflik texnologiyalari va mashqlar, o‘quv-uslubiy tavsiyalar, o‘quv qo‘llanma yaratilib, amaliyotga joriy etildi. Shu jumladan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kreativlik kunikmalarini shakllantirish metodik yondashuv asosida tashkil etildi va darclarda metodikalar tahlil qilindi, umumlashtirilib, yagona metodik

ko‘rcatmalar ishlab chiqildi. Kasbiy-kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan dars ishlnamalari va loyihasi ishlab chiqilib, keng foydalanildi, amaliyotga tatbiq etildi va cinab ko‘rildi. Shuningdek, tanlab olingan oliy ta’limning respondent tajriba guruhlarida kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirish qaratilgan topshiriqlar berildi, bajarish jarayonlari kuzatib borildi. Topshiriqlarni bajarishlaridagi qiyinchiliklar, uchraydigan muammolar yozib borildi. Talabalarning kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini o‘zlashtirishining analitik doirasini aniqlashga qaratilgan og‘zaki so‘rovlar, suhbatlar o‘tkazildi hamda ularning natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning tajriba-sinov natijalari umumlashtirilib, tanqidiy tahlil qilinib, tadqiqot maqsadi va ilmiy farazning hamda ishlab chiqilgan metodikalarning asoslanganliklari o‘quv jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik ishlanmalar asosida tekshirilib ko‘rildi. Tadqiqot ishining asosiy xulocalari ishlab chiqildi hamda bu xulosalar maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatda kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha didaktik ta’lim resurslari va turli mantiqiy topshiriqlar asosda yaratilgan o‘quv qo‘llanma o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi ko‘zda tutildi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi tajriba-cinov bocqichida respondent-talabalarning kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlanganlik darajalari belgilandi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchin tanlab olingan oliy ta’limning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari kontingenti o‘rganib chiqildi va 2-kurslar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tadqiqot davrida amalga oshirilgan muhim ishlardan biri tajriba-sinov ishlariga respondentlarni jalb qilish va ulardan tajriba hamda nazorat guruhlarini shakllantirish bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlariga oliy ta’limning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalaridan jami 406 nafar respondent-talaba hamda 6 nafar oliy ta’limda dars beruvchi o‘qituvchilar jalb etildi. Shu o‘rinda tajriba-sinov ishlarining o‘ziga xos murakkablik kasb etganligini aytib o‘tish maqsadga muvofiq. Bu murakkablik quyidagilarda ko‘rindi:

1. Oliy ta’limning 2-kurs talabalari kasbiy faoliyat haqida turlicha tasavvur darajasiga ega ekanligida talabalarning tahsil olishi natijasida ularning o‘zlashtirishida farqlar seziladi.

2. Oliygohga ilk qadam qo‘ygan talaba har xil muhitda tarbiya ko‘rgan bo‘lib, qaysidir biri maktabda taxsil olib oliy ta’limga tayyor holatda bo‘ladi. Qaysidir biri kollejlarda taxsil olgan xolatda, yana bir guruh talabalar belgilangan ballni yig‘olmasdan superkontrakt asosida oliy ta’lim muassasalariga keladilar. Ularda darsda o‘qish-o‘rganish ko‘nikmasi hali shakllanmagan bo‘lib, charchash va darsdan bezish holatlari kuzatiladi. Olingan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra oliy ta’limda dars beruvchi o‘qituvchilarini quyidagicha guruhlarga ajratib olindi: a) faqat dars mashg‘ulotlari bilan chegaralangan, talabalarda kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirishga qisman e’tibor beradigan o‘qituvchilar; b) talabalarning kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha materiallardan qisman foydalanadigan o‘qituvchilar; s) ijodiy izlanadigan, talabalar kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirishni kengaytirish bo‘yicha jadal ishlar olib boradigan o‘qituvchilar.

3. Talabalarning ota-onalari ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo‘ladi. Kimdir ziyoli, kimdir uy bekasi, ayrim talabaning oilasi to‘liq bo‘lmagan holatlari kuzatiladi. Shu jihatdan talabaning o‘zlashtirishida bir qancha qiyinchiliklar kuzatilishi tajriba-sinov-ishlari natijalarini umumlashtirish va tahlil qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan jami 406 nafar respondent-talabalarni

tasodifiy tanlov tamoyiliga muvofiq quyidagi sonlarda tajriba va nazorat guruhlariga biriktirildi: 1) tajriba guruhlariga 204 nafar; 2) nazorat guruhlariga 202 nafar.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirishga oid tajriba ishlarini tashkil etishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Maktabgacha talimni tashkil etish va rahbarning o‘rni” o‘quv qo‘llanma tadqiqotga jalb qilingan oliy ta’limda dars beruvchi o‘qituvchilarining xulosalariga tayangan holda takomillashtirilib, talabalarning tajriba guruhlarida bevosita sinovdan o‘tkazildi, nazorat guruhlarida esa odatdagi tartibda, an’anaviy tartib rejasi asosida ish ko‘rildi.

Tajriba-sinov uchun taqdim etilgan tadqiqot konsepsiyasi quyidagi metodlar asosida shakllantirildi:

1. Respondent-talabalar uchun mo‘ljallanib, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirish borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarining mavjud darajasini baholashga yo‘naltirilgan so‘rovnoma oliy ta’limda talabalarga dars berayotgan o‘qituvchilar uchun ham ishlab chiqildi. Bundan ko‘zlangan maqsad oliy ta’lim muasasalarida kasbiy-kreativlik rivojlantirish borasidagi tajribalarini o‘rganish va amaliy ish holatini tahlil qilish, shuningdek, ularning kreativlik kompetensiyasiga ega bo‘lishlarini, ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvga ega ekanliklarini baholashdan iborat bo‘ldi. Tajriba davrida mavjud holatni imkon qadar holi baholash maqsadida ochiq so‘rovnomalardan foydalanildi.

2. Suhbat, savol-javob va intervyular uchun ishlanmalar. Ta’lim tajribasi anketa so‘rovlarini suhbat, savol-javob hamda intervyu metodlari bilan birga qo‘llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlanadi. Bu holatni bartaraf etish va respondentlarga o‘z fikrlarini batafsil ifodalash imkoniyatini yaratish uchun suhbatlar ham tashkil etildi. Suhbatlar avvaldan tayyorlangan savollar asosida tashkil etilganligi sababli savollarning puxta o‘ylanganligi, aynan o‘rganilayotgan muammo mohiyatini yoritishga yo‘naltirilganligi, aniq, qisqa va fikrni tugal ifodalay olishi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Tajriba davrida tashkil etilgan suhbatlar uchun savollar tanlandi.

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy-kreativlik ko‘nikmasini rivojlanganlik darajasini aniqlashda muayyan mezonlar ishlab chiqildi va ularga tayanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Resrublikasining ilk va maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha ta’lim vazirligi MH-1-son buyrug‘i. – T.: 2018.18. – 31 b.

2. Aliyeva D.M. Bo‘lajak defektologlarni tauuorlashda ingliz tilini o‘qitish samarodorligini ta’minlashning redagogik mexanizmlari. Chirchiq. 2022.

3. Boymurodov A.X. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida informatikava axborot texnologiualari fanini o‘qitishning innovatsion klaster modeli. Avtoref. p.f.f.d. (PhD). - T.: 2021. - 22 b.

SINFDAN TASHQARI ISHLAR VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq DPU “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti. P.f.f.d. (PhD)
Ostonaqulova Zaynab Abdukarim qizi,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni va ahamiyati, ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi roli hamda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar – ekskursiyalar, ekologik to‘garaklar, tanlovlar va turli amaliy tadbirlar orqali o‘quvchilarda ekologik ong, ko‘nikma va xulq-atvorni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.*

Tayanch so‘zlar: *ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, sinfdan tashqari ishlar, ekologik ong, barqaror rivojlanish, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, ekologik faoliyat, ekologik kompetensiya, ekologik ta’lim, tarbiyaviy tadbirlar, ekskursiya, ekologik loyiha.*

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz bu o‘rinda mazkur masala bo‘yicha ta’limiy metodlar va yo‘naltiruvchi metodlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi deb hisoblaymiz. Shu jihatdan ta’limiy metodlar dars jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish asosi bo‘lsa, yo‘naltiruvchi metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik faoliyat amaliy ko‘nikmasini shakllantirishdagi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda ta’limiy, tarbiyaviy va yo‘naltiruvchi metodlar majmuidan foydalanish umumiy tusga ega. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muayyan ko‘nikma yoki malakani shakllantirishda shu masalaga amaliy ta’sir ko‘rsatadigan metodlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mana shunday yondashuvlardan kelib chiqib bu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning *sinfdan tashqari ishlar* vositasi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari ishlar o‘quv jarayonini kuchaytiruvchi, o‘quvchilarning ko‘nikma va bilimlarini takomillashtiruvchi amaliy vositalar hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktablari, jumladan, boshlang‘ich ta’lim bosqichini sinfdan tashqari ishlar jarayoni talablariga mos jihozlash ishlari amalga oshirilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarning quyidagi shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi: 1) sinfdan tashqari yosh tabiatshunoslar xarakatini yo‘lga qo‘yish; 2) sinfdan tashqari yosh ekologlar to‘garagini yo‘lga qo‘yish; 3) sinfdan tashqari mahalliy tabiiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish.

Sinfdan tashqari yosh tabiatshunoslar harakatini boshlang‘ich sinflarda tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday xarakatni tashkil qilishda Tabiiy fanlar darslariga ajratilgan maktab soatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yosh tabiatshunoslar harakatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qiziqishi va layoqatiga asosan

ishtirok etadi. Bunday harakat faoliyatida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi muhimdir: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiatshunoslik asoslari bilan chuqur tanishtirish, ularning tog‘, dasht va cho‘l hududlarida mavjud bo‘lgan o‘simliklar hamda hayvonot dunyosi bilan tanishtirish, tabiat fasllariga asosan kuzatish ishlarini olib borish, turli muhitlarda o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish kabi masalalar bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida amaliy bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, tog‘li hududlarda istiqomat qiladigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shu muhitga mos o‘simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishtirishga e’tibor berish ularda atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha tushunchalarni rivoljlantiradi. Yoki dasht hududlaridagi, ya’ni tog‘ va cho‘l zonalari oalig‘idagi qir-adirlar sharoitidagi o‘simliklar va hayvonot dunyosining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha bilimlar berish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ongining kengayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, cho‘l zonalarida mavjud bo‘lgan tabiatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanishtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, cho‘l zonalarida istiqomat qiluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shu muhitga mos o‘simliklar dunyosi bilan keng tanishishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning yorqin misoli sifatida keyingi paytlarda mamlakatimizda cho‘l zonalarini ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Aynan mana shu omillar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining zonalar tabiatiga mos bo‘lgan ekologik madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki Tabiiy fanlar darsliklarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ekologik bilim va ko‘nikmalar umumiy tarzda berilsa, sinfdan tashqari ishlar vositasida ana shunday bilim va ko‘nikmalarni bevosita o‘quvchilar istiqomat qiladigan tabiatga mos ravishda amaliyot bilan bog‘lash muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan biz mamlakatimizda mavjud bo‘lgan tabiat zonalariga mos ravishda sinfdan tashqari Yosh tabiatshunoslar harakatini yo‘lga qo‘yishg va unda boshlang‘ich sinf o‘quvchidlarining ekologik faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz. Mana shunday yangicha yondashuvning ilmiy metodik asoslari isho‘lab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sinfdan tashqari ishlarning muhim shakllaridan yana biri Yosh ekologlar to‘garagini tashkil qilishdir va bu to‘garakni tashkil qilishda ham maktab soati hajmidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sinfdan tashqari tashkil qilinadigan Yosh ekologlar to‘garaklarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining quyidagi ekologik ko‘nikmalarini tarkib toptirishga ahamiyat berish kerak. Mamlakatimizda mavjud ekologik muhit va uning asoslari, har bir hududagi ekologik holat haqida tushunchalar tabiatni asrash bo‘yicha ko‘nikmalar, o‘simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, tabiiy muhit va undan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar. Bunday ko‘nikmalarni berish Yosh ekologlar to‘garagining mashg‘ulotlari hamda amaliy faoliyati asoslari sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, keyingi paytlarda tabiatni asrash bo‘yicha juda ko‘p ma’lumotlar majmui taqdim etilmoqda va tabiiy fanlar darsliklarida ham bunday ma’lumotlar o‘z ifodasini topmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mavjud ekologik vaziyatda xarakat qilishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari atrof-muhit yoki tabiiy mavjudliklar bilan tanish bo‘lsa, ularning istalmagan ekologik vaziyatlardagi faoliyati tez tarkib topadi. Masalan, iqlim o‘zgarishi sharoitida me’yorsiz issiqlik darajasining oshishi yoki sovuqning kuchayishi sharoitida ekologik faoliyat olib borish bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tushunchalarni tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda ko‘p hollarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirishda o‘simliklar dunyosini muhofaza qilishga asosiy e’tibor qaratilmoqda, ayni paytda,

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan hayvonot olami va tabiiy muhit bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bularning barchasi sinfdan tashqari tashkil etiladigan Yosh ekologlar to‘garagi vositasida amalga oshiriladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Yosh ekologlar to‘garagini tashkil qilishda hududlarda faoliyat yuritayotgan bevosita ekologik xarakat bo‘linmalari bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishdagi muhim vositalardan biri mahalliy sharoitga mos faoliyatini tarkib toptirishdir. Bunda o‘quvchilar istiqomat qiladigan shahar va qishloq hududlarining tabiiy muhitiga mos ravishda ekologik faoliyatini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, shahar hududlarida istiqomat qiladigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ko‘kalamzorlashtirish, tabiatni asrash kabi tushunchalar bilan qurollantirish, qishloq hududlarida istiqomat qiladigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini esa tabiatni asrash, tabiat fasllariga mos ravishda faoliyat olib borish ko‘nikmalarini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan madaniy ko‘rinishi tarkib topadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi mavjud tabiiy muhit vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini muayyan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Shu jihatdan tabiiy muhit omili vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni tarkib toptirish bevosita amaliyot bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bugungi kunda o‘quv fanlari vositasida ekologik bilim va ko‘nikmalarni kutilgan darajada egallamoqda. Ana shu bilim va ko‘nikmalarni bevosita amaliyotga aylantiruvchi sinfdan tashqari ishlar shakllarini kuchaytirish hamda ularning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda bugungi kunda Sinfdan tashqari ishlar metodologiyasi bo‘yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz. Sinfdan tashqari ishlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ekologik madaniyatini shalklantirish nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslanadi. Bunda mavjud tabiiy muhit sharoit va o‘quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ana shu masalalarning metodologik asoslari oliy pedagogik ta’lim muassaslaarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent, 2022

2. Mirzaxmatova Sh., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta’lim. (Uslubiy qo‘llanma). – T.: “Yangi asr avlodi”, 2011. – 44 b.

3. Turdiqulov E.O., Musayeva M.E., Norboyev A.G‘., Ochilov Sh.B. O‘quvchilarga ijtimoiy ekologiyadan ta’lim berish texnologiyasi. (Metodik qo‘llanma). – T., T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI nashriyoti. 2014. – 160 b.

OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISH VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISH SHAKLLARI

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq DPU dotsenti.
Eshonxo‘jayeva Dilafro‘z Abdurasul qizi,
Chirchiq DPU “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning muhim shakllari va usullari yoritilgan hamda ta’lim jarayonida maktab va oila o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida tahlil qilingan.*

Kalit so‘z*: hamkorlik, boshlang‘ich, ta’lim, sifat, ota-ona, hamkorlik, maktab, oila, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish shakllarini ishlab chiqish va ularni pedagogik asoslash zaruriyat bo‘lib turibdi. Mazkur masala bo‘yicha individual yondashuvlarimizni taqdim etamiz.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik qilishning o‘ziga xos yangicha shakllaridan biri *tarbiya haftaligini* tashkil qilishdir. Unga ko‘ra, har bir boshlang‘ich sinf xususiyatlaridan kelib chiqgan holda ota-onalar ishtirokidagi tarbiya haftaliklarini tashkil qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda har bir boshlang‘ich sinfda bolalarning jismoniy va ruhiy – ma’naviy rivojlanib borish xususiyatlari hisobga olinadi. Shu sababli 1-sinflarda tashkil qilinadigan tarbiya haftaliklari keyingi boshlang‘ich sinflarda (2-4-sinflarda) tadrijiy rivojlanish tamoyiliga amal qilgan holda ishlab chiqiladi. Mazkur masala bo‘yicha pedagogik amaliyotimizda tajribalar endi shakllanayotganligini eslatib o‘tishimiz joiz.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning tarbiya haftaligi shaklini belgilashda quyidagi metodikaga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi: 1) tarbiya kunlarining har birida muayyan tarbiya jarayonini amalga oshirish; 2) har bir boshlang‘ich sinflarda tarbiya kunlari mavzularini belgilashda mavjud muammolarni hal qilishni hisobga olish; 3) har bir tarbiya kunida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan individual tarbiyana amalga oshirishni rejalashtirish.

Bunday metodika ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida tarbiya haftaligi shakllarini amaliyot bilan bevosita bog‘liq holda tashkil qilish va amalga oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan tarbiya kunlarining har birida muayyan tarbiya jarayonini amalga oshirishga qaratilgan ota-onalarning ishtirokini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur masala bo‘yicha bizning yondashuvimiz quyidagi metodikaga soslanadi: dushanba kungi tashkil etiladigan tarbiya kunida ko‘proq o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirpish muhimdir, chunki shanba va dam olish kunlari o‘quvchilar oilada faoliyat yuritganligi sababli sinfda o‘zlashtirgan ijtimoiy tarbiyaga oid ko‘nikmalarni nisbatan unutadi. Bunday jarayonda maktabda tashkil qilinadigan tadbirlarda ota-onalar faqat tashkiliy faoliyat bilan shug‘ullanishi mavqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman ijtimoiy tarbiyaga oid tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini davlat ta’lim standartlari asosida ijtimoiylashtirish vazifasi amalga oshirilganligi uchun bu jarayonda ota-onalar tadbirlarni yo‘lga qo‘yish tashkiliy faoliyati

bilan cheklanadi. Seshanba kuni tashkil etiladigan tarbiya jarayonida o‘quvchilarda axloqiy ko‘nikmalarni shakllanganlik darajasini kuchaytiruvchi suhbatlar, viktorinalar, taqdimotlar yo‘lga qo‘yilishi va bunda ota-onalar kuzatuvchi hamda baholovchi vazifasini bajarishi muhim ahamiyatga egadir. Mazkur jarayonda ota-onalar baholash asosida o‘zlarining munosabatlarini bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Chorshanba kuni tashkil qilinadigan tarbiya kunida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq odobi ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish va bunda ota-onalar ishtirokida o‘quvchilarning ravon so‘zlashi, o‘z fikrini ifodalay olishi hamda so‘z boyliklarining darajasini aniqlab borish kutilgan samarani beradi. Ana shu jarayonda ota-onalar o‘z farzandlarining nutq faoliyati bo‘yicha qanday vazifalarni bajarishini, masalan, ravon so‘zlashga o‘rgatish kabilarni amalga oshirishni belgilab oladi. Payshanba oshirish tashkil qilinadigan tarbiya kunida bolalarning jismoniy rivojlanishiga oid tadbirlarni amalga oshirish va bunda ota-onalarga o‘quvchilarning jismoniy sog‘lomlik darajasi, ularning vazni, xarakat tayanchlarining rivojlanib borishi hamda davlat ta’lim standartlariga mos ravishda jismoniy faoliyat ko‘rsatishi kabi masalalar bo‘yicha ma’lumot berilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayonda ota-onalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan birgalikda tashkil etiladigan jismoniy tadbirlarda ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Eslatib o‘tish joizki, jismoniy rivojlanish masalasi yosh ota-onalar, tajribali ota-onalar va individual metodikaga ega bo‘lgan ota-onalar uchun yagonalashtirilgan pedagogik vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, juma kuni tashkil qilinadigan tarbiya kunida asosan o‘quvchilarning ruhiy-ma’naviy rivojlanishiga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish va unda ota-onalarning kuzatuvchi sifatidagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday tarbiyaviy jarayonlarda o‘quvchilar ijodiy ish bilan shug‘ullanishi, o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilishiga yo‘naltirilishi kerak.

E’tibor berilsa, tarbiya kunlarining har birida muayyan tarbiya jarayonini amalga oshirish va unda ota-onalarning funksional ishtirokini belgilab olish yangicha yondashuvlardan biridir. Bunda boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan o‘quv fanlari mazmunidan kelib chiqish va boshlang‘ich ta’lim davlat standartlariga tayangan holda ota-onalar ishtirokidagi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ota-onalar har bir tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o‘z g‘oyalari, takliflari va tashabbuslari bilan ishtirok etishiga ko‘niktirilishi kerak. Ana shunda boshlang‘ich sinflarda haftaning har bir kunida tashkil qilinadigan tarbiya kunlarining samaradorligiga erishish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish vositasida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning tarbiya haqftaligiga oid yana bir muhim masala tarbiya kunlari mavzularini umumiy belgilab olishdir. Tarbiya kunlari mavzularini beshlgilashda mavjud ijtimoiy sharoit va maktab muhiti imkoniyatlarini hisobga olish muhim yondashuv ekanligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan misol uchun, dushanba kuni o‘quvchilarning ekologik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish tadbirlari, seshanba kuni o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘nikmasini rivojjlantirish tadbirlari, chorshanba kuni o‘quvchilarning tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tadbirlari, payshanba kuni o‘zgalarga munosabat ko‘nikmalarini rivojlantirish tadbirlari va juma kuni ijodiy layoqatini rivojlantirish tadbirlarini tashkil qilishga e’tibor berish va ana shunday umumiy mavzularni belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman tarbiya kunlarining har birida mavzularni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir va bu hol o‘quvchilarga eslatma tariqasida motivasyiya vazifasini bajaradi. Mazkur jarayonda taklif etiladigan ota-onalar ana shunday mavzuli kunlarning amalga oshirilishida qatnashadi. Bunday

tajribalar mamlakatimizda tillar kuni, mustaqil faoliyat kuni kabi ko‘rinishlarda mavjud. Masalan, muayyan maktablarda haftaning bir kuni xorijiy tillardan birida so‘zlashish kuni sifatida belgilangan. Ana shunday tajriba metodikasidan foydalangan holda tarbiya kunlarining umumiy mavzulari jadvalini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu masalada umumiy o‘rta ta’lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini kengaytirishini alohida eslatib o‘tish joiz.

Shunday qilib, har bir boshlang‘ich sinflarda tarbiya kunlari mavzularini belgialashda mavjud muammolarni hal qilishni hisobga olish yondashuvi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunda ota-onalarning nafaqat tashkiliy faoliyatida, balki ularning tajribali tavsiyalaridan ham foydalanish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz. Shuningdek, har bir boshlang‘ich sinflarda tarbiya kunlarining umumiy mavzularini belgilab olish va unda ota-onalar ishtirokida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida uchraydigan hozirgi muammolarni hal etishga qaratilgan tadbirlarni amalaga oshirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bunda asosiy masala boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari va ota-onalarning o‘zaro hamkorlik mexanizmi amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2023
2. O.Jabborova, Z.Umarova. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022
3. Tilavova S. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Darslik. – Toshkent, 2025

BOLALAR VA O‘SMIRLAR HAMDA TALABALAR KUN TARTIBINING GIGIYENIK ASOSLARI TUSHUNCHASI

Juraqulov Mahatali Shohotamovich,
Choriyev Diyorbek Farhod o‘g‘li,
Chirchiq DPU,’‘Boshlang‘ich ta’lim’’ yo‘nalishi 4-kurs talabalari.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU «Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi» kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

Annontatsiya. *Ushbu maqolada bolalar va o‘smirlar gigiyenasi, talabalarning kun tartibi qanday bo‘lishligi hamda nima uchun talabalarga kundalik tartibi kerakligi haqida yoritib berilgan. Talabalr kun davomida qanday ishlarni bajarishliklari kerak, qanday ovqatlanishlari kerak, kun tartibini gigiyenik baholash, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar, o‘smirlar, gigiyena, kundalik hayot, go‘dak, o‘quvchi, salomatlik, biologik, fiziologik, organizm, uyqu, ovqat, suv, dars, maktab, qobiliyat.*

Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi – gigiyenaning bir sohasi bo‘lib, go‘daklikdan boshlab to 17-18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning salomatligini saqlash va mustahkamlash masalalari bilan shug‘ullanadi. Hayot sharoiti, o‘quv-tarbiya va mehnat o‘sayotgan organizmning kamol topishi va salomatligiga qanday ta’sir qilishini o‘rganish va shunga asoslanib, yosh avlodning sog‘lom o‘sishiga hamda har tomonlama to‘g‘ri rivojlanishiga yordam beradigan gigiyena tadbirlarini ishlab chiqish bolalar va o‘smirlar gigiyenasi vazifasidir. Uning tavsiyanomalari shaxsiy, ya’ni har bir ayrim bolaga va

muayyan bolalar guruhiga taalluqli bo‘lishi mumkin. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi tashqi muhit omillarining bola organizmiga, uning hayot faoliyatiga, ta’lim-tarbiyasiga ta’sirini o‘rganadi, o‘sayotgan avlodning barkamol hamda jismoniy va ma’naviy jihatdan uyg‘un rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan choratadbirlarni ishlab chiqadi.

Bolalar va o‘smirlar sog‘ligini o‘rganish va saqlash. Buning uchun biologik va ijtimoiy omillar, tashqi muhit hamda umumiy taraqqiyot qonunlarining bolalar va o‘smirlar organizmiga ta’sirini o‘rganish talab etiladi. Har bir yoshga oid kasalliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash esa kasallikning oldini olish chora tadbirlarini belgilash va hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Hozirgi yosh avlodning sog‘lig‘ini belgilangan muddatda tekshira borish (tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish) bilan birga antropometrik usullarni qo‘llash orqali ularning jismoniy rivojlanishi aniqlanadi. Shaxsiy gigiyena qoidalariga bolalar juda yoshligidanoq odatlanishi zarur. Bolada asosiy fiziologik jarayonlar – uyqu, uyg‘oqlik, ovqatlanish (emish)ning o‘z vaqtida almashinib turishi ayniqsa bolaning birinchi yoshida katta ahamiyatga ega. Har kuni ma’lum soatlarda ovqatlanish (emish), uxlash bolaning o‘sishi va rivojlanishiga, ayniqsa nerv sistemasiga yaxshi ta’sir qiladi. Bolani hamisha ma’lum vaqtda (har 2-3,5 soatda) emizish tartibiga amal qilish lozim. Yosh bola hamisha ma’lum vaqtda uxlab, ma’lum vaqtda uyg‘onishi uchun qulay sharoit yaratish, uxlaganida uni tinch qo‘yish, uyg‘oqligida esa ko‘ruv va eshituv a’zolariga turli yo‘llar bilan ta’sir etish (kattalarning gap so‘zlari, rangli, jarangdor o‘yinchoqlarga bola diqqatini jalb qilish), gavda vaziyatini o‘zgartirib turish (bolani vaqti-vaqti bilan qo‘lga olish yoki qorni bilan yotqizib qo‘yish) kerak. Bola nechog‘li yosh bo‘lsa, organizmi dam olish va uxlashga shuncha ko‘p ehtiyoj sezadi. Uni ochiq havoda (qishda ham) har kuni kamida 2 soat sayr qildirish, o‘ynatish zarur. Shunda qon kislorodga to‘yinib, organizmdagi almashinuv jarayonlari bir maromda kechadi.

Bolalar va o‘smirlar faoliyati gigiyenasi. Bunda bolalarning sog‘lig‘iga qarab ish faoliyatini belgilash va asta-sekin oshira borish hamda charchashning oldini olish tadbirlarini ko‘rish asosiy masala hisoblanadi. Shunga asosan bog‘cha, maktab yoshidagi bolalarning yoshiga mos keladigan kun tartibi joriy qilinadi. O‘sib kelayotgan organizmning xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktab o‘quvchilarining mashg‘ulot tartibi ularning yoshiga qarab turlicha belgilanadi. Uyda dars tayyorlashga ajratilgan vaqt 1-sinf o‘quvchilari uchun 1-1,5 soat, 3-4 sinf o‘quvchilari uchun 1,5-2 soat, 5-6 sinf o‘quvchilari uchun 2 soat, 7-8 sinf o‘quvchilari uchun 2,5-3 soat, 9-10 sinf o‘quvchilari uchun 3-4 soat bo‘lishi kerak. Bola dars tayyorlagan vaqtda har 40-45 min.dan keyin 10-15 min. dam olishi zarur. Bolalar dars tayyorlab charchamasligi uchun mashgulotlardan keyin turli o‘yin, sport, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari yaxshi natija beradi.

Tashqi muhit gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasining bu qismida bolalar va o‘smirlar muassasalari loyihasini tuzish va kurishda gigiyena tadbirlarini ko‘zda tutish, jumladan ularni aholi yashaydigan joylarga qurish, xonalar yorug‘ va issiq bo‘lishi, sanitariyatexnika inshootlari to‘g‘ri qurilishi, toza havo, ichimlik suv hamda bolalar uchun mo‘ljallangan jihozlar bilan ta’minlanishi kerak.

Bolalar va o‘smirlarning ovqatlanish gigiyenasi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarining ahamiyati, bolalar muassasalari (bolalar uylari, sanatoriylar, tashkil qilingan sayohat va yurishlar)da ovqatlanish tartibi o‘rganiladi hamda o‘sish davrida energiya sarfi me’yori ishlab chiqiladi. Bolalarga to‘yimli, mazali va xilmaxil ovqat berish, ovqatda oqsil, yog‘, uglevod, vitamin, mineral tuzlar yetarli bo‘lishi kerak. To‘g‘ri ovqatlanish bolaning turli kasalliklarga chidamini oshiradi, aqliy, jismoniy va mehnat qobiliyati barkamol bo‘lishini ta’minlaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi va

maktab yoshidagi bolalar 4-4,5 soatda ovqatlanishi kerak. Nonushtada sutkali kaloriyaning taxminan 25%ini beradigan oqsillarga boy sabzavot, guruchdan pishirilgan ovqatlar, tushlik sutkali kaloriyaning 35-40%ni, kechki ovqat sutkali kaloriyaning taxminan 20-25%ini tashkil etishi va birmuncha yengil sutli, sabzavotli hamda yormadan pishirilgan ovqatlardan iborat bo‘lishi lozim. Sutkali kaloriyaning qolgan 10-15%ni ikkinchi nonushtadan yoki tushlikdan keyin iste’mol qilgan ma’qul.

Bolalar va o‘smirlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasining bu qismida tibbiy xizmat ko‘rsatishni ilmiy nuqtai nazardan ishlab chiqish hamda epidemiyaga qarshi tadbirlar ko‘rish mo‘ljallangan. Salomatligi zaiflashib qolgan, nimjon (revmatizm, tonzillit, sil intoksikatsiyasi bilan og‘rigan), shuningdek kasallikdan tuzalib kelayotgan bolalar uchun bolalar poliklinikasi yoki maktab vrachi ishtirokida alohida tartib tuziladi; ana shunday kasalliklarni boshdan kechirgan asabiy bolalarning o‘qishini davom ettirishi hamda salomatligini tiklay borishi uchun maxsus sharoit yaratiladi (sanatoriy maktablari va boshqalar). Bunday muassasalarda o‘qish bilan birga shifobaxsh badantarbiya, fizioterapiya, maxsus parhez, sof havodan ko‘proq bahramand bo‘lish kabi davo usullari qo‘llanadi. Bolani yoshligidan boshlab to‘g‘ri uyushtirilgan jismoniy tarbiya va chiniqtirish tizimiga o‘rgata borish katta ahamiyatga ega. Hayotining birinchi oylarida massaj va jismoniy mashklar bilan birga toza havodan bahramand qilish, keyinchalik esa sochiqni ho‘llab badanni artish, cho‘milish, kattaroq yoshdagi bolalarni dushga tushirib yoki ustidan suv quyib cho‘miltirish bola organizmining kasallikka chidamini oshiradi va baquvvat qiladi. Bu tadbirlar muntazam bo‘lishi va garchi bilan maslahatlashib olinganidan keyingina tatbiq etilishi kerak.

Nima uchun talabaning kundalik tartibi muhimmi? Aytishlaricha, har bir kun - bu maqsadingizga bir qadam yaqinlashish, o‘z salohiyatingizni ochish va o‘zingizning eng yaxshi versiyangizga aylanish imkoniyatidir. Talabalik davridan boshlab, sizni buyuklikka olib boradigan kundalik tartibni ishlab chiqish orqali kelajak yo‘lingizni shakllantirishga qodirsiz. Shunday ekan, o‘zingizni yaxshi kun tartibini yaratishdan boshqa to‘xtatmang. Keling, sizni har bir kundan unumli foydalanishga ilhomlantiradigan ushbu asosiy, ammo nihoyatda muhim talabalar tartibidan boshlaylik.

Talabaning kun tartibi qanday bo‘lishi kerak? Kun tartibi har bir inson uchun kunining qanday o‘tishi haqidagi rejalari jamlanmasidir. Bilamizki, vaqtning to‘g‘ri taqsimlanishi, barcha yumushlarga o‘z vaqtida ulgurishga katta yordam beradi. Har qanday ishda ishlaydigan yoki ta’lim oladigan insonlarning o‘z kun tartibi bo‘ladi. Biz hozir talabalarning kun tartibi qanday bo‘lishi va vaqtni qanday taqsimlashni rejalashtirish haqidagi 10 ta kerakli ***tavsiyalar*** bilan tanishamiz.

1. Erta uyg‘oning – shunda kuningiz uzun va barakali o‘tadi. Har kuni soat 5:30 yoki 6:00 da o‘rningizdan turib, joyingizni tartibga keltiring va yuz – qo‘lingizni yuving. Barvaqt uyg‘onsangiz kuni bo‘yi kayfiyatingiz yaxshi bo‘ladi va barcha ishlaringizga vaqtida ulgurasiz.

2. Badantarbiya qiling – ertalabki badantarbiya qon aylanishini yaxshilaydi va kun davomida tetik yurishingizni kafolatlaydi. 10 daqiqalik eng oddiy mashqlar mushak va suyaklarning ishlash ritmiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Badantarbiyadan keyin kuchga to‘lasiz va barcha charchoq, og‘irliklar sizni tark etadi.

3. Nonushta qiling – nonushtangiz tarkibida oqsilga boy mahsulotlar bo‘lishi kerak. Har kuni ertalab ikkita tuxum (qovurilgan yoki qaynatilgan), pishloq va kotlet iste’mol qiling. Chunki, agar siz ertalabki smenada o‘qiydigan bo‘lsangiz dars davomida energiyaga ega bo‘lib o‘tirishingiz va ma’ruzani yaxshiroq tushinishingiz uchun nonushtada kaloriyaga boy mahsulotlar bo‘lishi lozim. Miya faoliyati uchun ertalab

nonushta qilsangiz, kun davomida xabarlarni eslab qolish qobiliyatingiz oshadi. Immunitetingiz mustahkamlanadi natijada turli kasalliklarga chalinmaysiz.

4. Auditoriyaga vaqtliroq yetib boring – dars jarayonlari boshlanishidan 10 yoki 15daqiqa oldin xonaga yetib boring. Agar yo‘lingiz uzoq, shahar chekkasidan keladigan bo‘lsangiz yo‘lda ketadigan vaqtni hisobga olib ertaroq harakat qiling.

5.Tushlikka uy sharoitida tayyorlangan taomlarni tanovvul qiling – doimiy ravishda fast food va ko‘cha mahsulotlarini iste’mol qilish insonning ovqat hazm qilish organlarini zararlaydi. Kvartirada yoki yotoqxonada turadigan bo‘lsangiz darsdan keyin borib, o‘zingizga yoqqan uy taomini tayyorlab yeyishingiz tavsiya etiladi. Tushlik vaqtingiz 12:00 dan 13:00 oralig‘ida bo‘lishi kerak. “Agar siz kuniga qancha ko‘p qayta ishlangan oziq – ovqat iste’mol qilsangiz, depressiya xavfi shunchalik yuqori bo‘ladi” – deydi AQShlik olim va doktor Endryu Chan.

6. Kutubxonaga boring – tushlikdan keyin universitetingiz kutubxonasi yoki boshqa kitob o‘qish va dars tayyorlash uchun qulay bo‘ladigan tinch joyga boring. Sohangizga doir darsliklar yoki boshqa biror – bir o‘zingiz yoqtiradigan badiiy kitoblar o‘qing.

7. Vaqtingizni maroqli o‘tkazing – ko‘proq vaqtingizni foydali ishlarga sarf qiling. Miyyangizni chalg‘itish uchun sayr qiling. Ammo sayr davomiyligi 1 yoki 2 soatdan oshmasligi kerak. Chunki kech kirgani sari energiya kamayib sizda charchoq holatlari paydo bo‘la boshlashi mumkin.

8. Kechki ovqatga hazm bo‘lishi oson bo‘ladigan mahsulotlar tanovvul qiling – kunning kechki qismi uchun yog‘li ovqatlar iste’mol qilish tavsiya etilmaydi. Negaki har qanday ovqatning organizmda to‘liq hazm bo‘lishi uchun 3 soat vaqt ketadi. Tunda insonning ovqat hazm qilish organlari kunduzgiga qaraganda ancha sust ishlaganligi uchun bu jarayon ancha qiyin kechadi.

9. Uxlashdan oldin ertangi kun rejalaringizni tuzing – uyquga yotishingizdan oldin ertangi kunga rejalar tuzib chiqing. Vaqtni darsdan keyin nimalarga sarflashingizni diqqat bilan o‘ylab so‘ngra daftaringizga ko‘chiring va belgilab qo‘ying. Hamma ishni tartib bilan amalga oshiring.

10. Ertadan yotib uxlang – chunki tungi uyqu o‘rnini hech qanday narsa bilan qoplab bo‘lmaydi. Har kuni 22:00 da uxlashga odatlaning. Miyya uchun eng yaxshi uxlash jarayoni aynan shu vaqtdan boshlanib, ertalabki 6:00 gacha davom etadi. Uyquga yotishingizdan oldin telefoningizni o‘zingidan uzoqga qo‘ying. Hech qachon boshingiz yoniga telefoningizni qo‘yib uxlab qolmang! Chunki, telefoningizdan ko‘zga ko‘rinmaydigan ko‘k nurning inson terisiga ta’siri juda yuqori. Ko‘k nurlar ultrabinafsha nurlanishidan farqli bo‘lib, kuyish yoki qizarishni keltirib chiqarmaydi, ammo sezdirmasdan zarar yetkazadi. Shu sababli sizga telefoningizni uzoq masofaga qo‘yib keyin uxlashingizni tavsiya etamiz. Yuqorida aytib o‘tgan barcha tavsiyalarimizga amal qilsangiz siz uzog‘i bir hafta ichida o‘zingizda o‘zgarish sezasiz. Hayot tarzingiz yaxshilanadi va o‘zingizga bo‘lgan ishonchingiz ortadi, barcha ishlaringizga o‘z vaqtida ulgurasiz. Katta va o‘zingizga qiyin bo‘lib ko‘ringan har qanday vazifalaringizni kichik qismlarga bo‘ling va har bir qismini ma’lum bir vaqt oralig‘ida bajaring. Ushbu yondashuv sizga katta vazifani bosqichma – bosqich hal qilishga yordam beradi. Muntazam ravishda o‘zingizni baholang va yangilang. Maqsadlaringizga erishish va vazifalaringizni bajarish yo‘lida ekanligigizga ishonch hosil qilish uchun kun tartibini vaqti – vaqti bilan ko‘rib chiqing.

Muvofaqqiyatlaringizni baholang, agar zarur bo‘lsa tuzatish choralarini ko‘ring va kun tartibini ular paydo bo‘lganda yangi vazifalar kun tartibini gigiyenik baholash.

Maktab va litsey o‘z ishini oila bilan uzviy holda olib boradi. Maktab va oilaning yagona maqsadi bolalarga ta’lim va tarbiya berishdir.

O‘quvchilarning kun tartibini organizm fiziologik funksiyalarning tabiiy ortishi va pasayishi davrlariga mos kelgan ravishda tuzish mumkin. U quyidagi tarkibiy qismlarni: 1) maktab va uydagi o‘quv mashg‘ulotlarini; 2) ko‘proq ochiq havoda dam olishni; 3) muntazam va to‘laqonli ovqatlanish va ertalabki badantarbiya bilan shug‘ullanishni; 4) gigiyenik jihatdan to‘laqonli uyquni; 5) o‘z xohishiga qarab tanlagan mashg‘ulotlarga (badiiy kitob o‘qish, musiqa ilan shug‘ullanish, rasm solish va boshqalar) ham vaqt ajratishni o‘z ichiga oladi.

Kun tartibining noto‘g‘ri bo‘lishi, ayniqsa, to‘yib uxlamaslik bosh miya po‘stlog‘ining tiklanish jarayonlariga hamda o‘quvchilarning ish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Gigiyenik jihatdan asoslanib tuzilgan kun tartibi o‘quvchining kun bo‘yi bajaradigan asosiy faoliyati turlarini me’yorlashga, aqliy va jismoniy mehnatini, dam olishini to‘g‘ri olib borishiga imkon beradi. Maktab dasturi o‘quvchilarning aqliy faoliyatini jadallashtirishni to‘g‘ri rejalashtirmas ekan, o‘quv jarayoni va sog‘liqni saqlashda ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin bo‘ladi. Kun tartibiga qat’iy amal qilmaslik o‘sib kelayotgan organizmga juda yomon ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning ish qobiliyati pasayib, o‘zlashtirishi yomonlashadi, vaqt o‘tishi bilan esa, sog‘lig‘ida salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘ladi.Kun tartibi ayrim bandlarining muntazam takror lanib, yoki maqsadlar bilan yangilang. Kun tartibini tuzish va uni yuritish talabaga vaqtni to‘g‘ri tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish va muvoffaqiyatini kuzatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temkin B.N. Maktab gigiyenasi. – T.: O‘qituvchi. 1972
2. Sodiqov K.S. O‘quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi. – T.: O‘qituvchi. 1992
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bolalar_va_o%CA%BBsmirlar_gigiyenasi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA TEJAMKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Jo‘rayev Alisher Tursunboyevich,
Chirchiq DPU, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti,
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tejamkorlik zamonaviy jamiyatda iqtisodiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonida iqtisodiy bilimlarni berish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Maqolada pedagogik yondashuvlar, ta’lim metodlari hamda tarbiyaviy omillar orqali talabalarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tejamkorlik, iqtisodiy madaniyat, pedagogik yondashuv, talaba shaxsi, iqtisodiy tarbiya, oliy ta’lim, resurslardan oqilona foydalanish.*

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida tabiiy va moddiy resurslarning cheklanganligi, iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hamda

raqobatning kuchayishi insoniyatdan mavjud imkoniyatlardan samarali va tejamkorlik asosida foydalanishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlashda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, ayniqsa tejamkorlik tamoyillarini hayot tarziga singdirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tejamkorlik nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy yetukligini belgilovchi muhim sifat sifatida ham namoyon bo‘ladi. [1; 25-b.]

Jamiyatda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish, eng avvalo, yosh avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, yoshlarni iqtisodiy jihatdan ongli, mas’uliyatli, resurslarga ehtiyotkor munosabatda bo‘ladigan shaxs sifatida tarbiyalash pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Ularning iqtisodiy tafakkuri, iqtisodiy madaniyati va tejamkorlikka bo‘lgan munosabati kelajakda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari esa kelajakda turli sohalarda faoliyat yurituvchi yetuk mutaxassislar sifatida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ularni kasbiy jihatdan tayyorlash jarayonida nafaqat professional bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki ularda iqtisodiy tafakkur, tejamkorlik madaniyati hamda resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ularning shaxsiy hayotida ham, kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida talabalarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish, ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil fikrlay oladigan, mavjud resurslarni samarali boshqara oladigan shaxs sifatida tarbiyalash muhim pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish orqali talabalarda iqtisodiy tafakkur hamda tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi [3; 40-b.]. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarda iqtisodiy ongni rivojlantirish, ularda mas’uliyatli va ongli munosabatni shakllantirish hamda jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tejamkorlik ko‘nikmalari shaxsning moddiy va ma’naviy resurslardan oqilona foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik nuqtai nazardan tejamkorlik quyidagi komponentlardan iborat: - iqtisodiy bilimlar; - iqtisodiy tafakkur; - mas’uliyatli munosabat; - amaliy ko‘nikmalar.

Talabalarda ushbu sifatlarni shakllantirish ta’lim jarayonida iqtisodiy tarbiya elementlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonda talabalarga iqtisodiy jarayonlarning mohiyati, resurslarning cheklanganligi hamda ulardan samarali foydalanish zarurligi tushuntiriladi. Talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy resurslarning cheklanganligi, moddiy va ma’naviy boyliklardan oqilona foydalanish zarurati yosh avlodda tejamkorlik madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish, ularda resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Bu jarayonni samarali tashkil etish bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ular ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari hamda talabalarning faol ishtirokiga asoslanadi.

Avvalo, talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ta’lim mazmunini

boyitish muhim ahamiyatga ega. O‘quv dasturlari va fanlar mazmuniga iqtisodiy madaniyat, resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy savodxonlik hamda tejamkorlik tamoyillariga oid mavzularni kiritish orqali talabalarning iqtisodiy bilimlari kengaytiriladi. Bu jarayonda iqtisodiy jarayonlarning mohiyati, resurslarning cheklanganligi hamda ulardan samarali foydalanish zarurati haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar berish muhimdir. Ta’lim mazmunini boyitish talabalarning iqtisodiy dunyoqarashini kengaytirib, ularda tejamkorlikka nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan. Munozara, muammoli vaziyatlar, keys-stadi, loyiha metodlari kabi interfaol metodlar talabalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga yechim topish hamda iqtisodiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Natijada ularda tejamkorlikning amaliy ahamiyati haqida chuqur tushuncha shakllanadi. Bundan tashqari, talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish ham tejamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim jarayonida turli loyiha ishlari, iqtisodiy tahlil mashg‘ulotlari, amaliy topshiriqlar va ijtimoiy tashabbuslarni tashkil etish orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, iqtisodiy loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish, resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy vazifalarni bajarish talabalarning tejamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday faoliyat talabalarni faol, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. Shuningdek, talabalarda shaxsiy mas’uliyat hissini shakllantirish ham tejamkorlik madaniyatini rivojlantirishda muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Talabalar o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, iqtisodiy qarorlar qabul qilish hamda o‘z harakatlarining natijalariga javobgarlik bilan yondashish orqali tejamkorlik ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu jarayonda pedagoglar talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishi, ularni mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga yo‘naltirishi muhimdir. Shaxsiy mas’uliyat hissining rivojlanishi talabalarning iqtisodiy madaniyatini yuksaltirishga va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali ishlashga tayyorlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim mazmunini boyitish, interfaol pedagogik metodlardan foydalanish, amaliy faoliyatni tashkil etish hamda shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish kabi muhim pedagogik shartlarga asoslanadi. Ushbu shart-sharoitlarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash talabalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga, ularda tejamkorlik madaniyatini shakllantirishga hamda kelajakda iqtisodiy jihatdan mas’uliyatli mutaxassislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

Talabalarda tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Oliy ta’lim jarayonida iqtisodiy bilimlar berish, interfaol metodlardan foydalanish hamda amaliy faoliyatni tashkil etish orqali talabalarda tejamkorlik madaniyatini rivojlantirish mumkin. Bu esa kelajakda iqtisodiy jihatdan mas’uliyatli va ongli mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2017. – 208 b.

2. Xoliqov A. Pedagogika va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya, 2016.

3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: Sano-standart, 2018. – 196 b.

4. Ismoilova Z.K. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 180 b.

OLIY TALIMDA NEYROPEDAGOGIKA ASOSIDA O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jo‘rayev Qo‘ldoshjon Ismatillo o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida o‘quv faoliyatini neyropedagogika asosida tashkil etishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, inson miyasi faoliyati, kognitiv jarayonlar hamda o‘rganish mexanizmlarining pedagogik jarayonga ta’siri yoritiladi. Neyropedagogikaning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, talabalarning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada neyropedagogik yondashuv asosida o‘quv faoliyatini tashkil etishning metodologik tamoyillari hamda zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: Neyropedagogika, ta’lim, talaba, kognitsiya, motivatsiya, xotira, diqqat, innovatsiya.*

XXI asrda global ta’lim tizimida raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim jarayonini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishi, ularning kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirish hamda o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan inson miyasi faoliyati va o‘rganish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi neyropedagogika yo‘nalishi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tadqiqotlar ham ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, UNESCO 2023-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning katta qismi nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ta’lim jarayonini talabalarning diqqat, xotira, tafakkur va motivatsiya kabi kognitiv jarayonlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quv faoliyatini neyropedagogika asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta’lim sifatini oshirish hamda yoshlarning ilmiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-yildagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, 2020-yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda oliy ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik va ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu bois oliy ta’lim tizimida neyropedagogika asosida o‘quv faoliyatini tashkil etish talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirish, bilimlarni samarali o‘zlashtirishini ta’minlash hamda ta’lim jarayonining sifatini

oshirishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada oliy ta’limda o‘quv faoliyatini neyropedagogika asosida tashkil etishning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda neyropedagogika ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu yo‘nalish inson miyasi faoliyati, kognitiv jarayonlar va o‘rganish mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga asoslanadi. Neyrobiologiya va kognitiv fanlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda miya faoliyatining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatib bermoqda. Jumladan, G.Edelman, D.Hebb va R.Sperrylarning ilmiy ishlari o‘rganish jarayonida neyron aloqalar shakllanishi, miya plastiklik xususiyati hamda hissiyot va kognitsiya o‘rtasidagi integratsiya muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi. Mazkur ilmiy qarashlar ta’lim jarayonini inson miyasi faoliyatining tabiiy qonuniyatlariga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi [3; 125-130-b.]. Zamonaviy neyropedagogik yondashuvni rivojlantirishda J. Jensen, D. Sousa, T. Tokuhama-Espinosa va H.Gardner kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida ta’lim jarayonini miya faoliyati mexanizmlariga asoslangan holda tashkil etish, o‘quv jarayonida talabalarning kognitiv faolligini oshirish hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirish uchun qulay o‘quv muhitini yaratish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, bilimlarning uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanishi faqat takrorlash jarayoni bilan emas, balki yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan mantiqiy bog‘lash orqali amalga oshadi. Shuningdek, o‘quv faoliyatining samaradorligi miya faoliyatining muhim qismi hisoblangan prefrontal korteks faolligi, ijodiy va analitik fikrlash jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Neyropedagogik tadqiqotlarda mustaqil o‘quv faoliyati va izlanishlarning ham alohida ahamiyati qayd etiladi. Chunki mustaqil izlanish jarayoni inson miyasida motivatsiya bilan bog‘liq neyrofiziologik mexanizmlarni faollashtiradi, bu esa o‘z navbatida kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida o‘quv faoliyatini tashkil etishda talabalarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvini rivojlantiruvchi pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [4; 240-b.]. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, jumladan, Scopus, Web of Science, Google Scholar va ERIC ilmiy bazalarida e’lon qilingan maqolalar, xalqaro tashkilotlarning ta’lim sohasiga oid hisobotlari hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlari o‘rganildi. Adabiyotlarni tanlash jarayonida ularning ilmiy ishonchliligi, mavzuga mosligi, dolzarbligi va zamonaviyligi asosiy mezon sifatida e’tiborga olindi. Tahlil jarayonida kontent-tahlil, taqqoslash, tahlil va sintez kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv psixologiya nazariyalari hamda neyropedagogika konsepsiyasiga tayangan holda shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv oliy ta’limda o‘quv faoliyatini neyropedagogika asosida tashkil etishning nazariy jihatlarini tizimli ravishda o‘rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda ularning ta’lim amaliyotidagi ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Olib borilgan nazariy tahlil va ilmiy manbalar sharhi shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim tizimida o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quv jarayonining samaradorligi talabalarning kognitiv faolligi, analitik va tanqidiy fikrlashi, mustaqil

o‘rganish qobiliyati hamda ijodiy yondashuvining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda diqqat, xotira, tafakkur, motivatsiya va refleksiya kabi kognitiv jarayonlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish yondashuvlari har doim ham talabalarning kognitiv imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga xizmat qilmaydi. Shu sababli ta’lim jarayoniga neyropedagogika tamoyillarini integratsiya qilish zarur hisoblanadi [5; 85-89-b.]. Neyropedagogik yondashuv inson miyasi faoliyatining tabiiy o‘rganish qonuniyatlariga tayanadi hamda ta’lim jarayonining kognitiv, emotsional va motivatsion jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Natijada talabalarning o‘quv faoliyatiga qiziqishi ortadi, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyati kengayadi hamda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslar mavjud bo‘lsa-da, neyropedagogika asosida o‘quv faoliyatini tashkil etishning amaliy mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarur. Xususan, o‘quv jarayoniga neyropedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta’lim dasturlarini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish hamda talabalarning faol o‘quv muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, oliy ta’limda o‘quv faoliyatini neyropedagogika asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning kognitiv va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ilmiy-metodik yondashuv hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, neyropedagogik modellarni ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish istiqboldagi muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun, 2020.
3. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books, 2021. -125-130b.
4. Hebb, D. O. The Organization of Behavior: A Neuropsychological Approach. Psychology Press, 2005.-240b.
5. Jensen, E. Teaching with the Brain in Mind (3rd ed.). ASCD Publications, 2017. 85-89b.

O‘RTA OSIYO OLIMLARINING JAHON ILM-FANI TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

Jo‘rayeva Ruxshanabonu To‘ychizoda,
Hamdamova Sabrina Abdujabbor qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabalari.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

Annontatsiya. *Ushbu maqola O‘rta Osiyo olimlarining jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada Abu Rayhon Biruniy, Ibn Sino va Mirzo Ulugbek kabi buyuk allomalarning matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya va boshqa sohalardagi ilmiy merosi yoritiladi.*

Shuningdek, ularning ilmiy ishlari nafaqat Sharq, balki G‘arb ilm-fani rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgani misollar asosida asoslab beriladi. Tadqiqotda O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning yirik ilmiy markaz sifatida shakllangani, bu hududda ilm-fanning yuksalishi uchun yaratilgan sharoitlar ham tahlil qilinadi. Shu bilan birga, olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar va kashfiyotlarning bugungi zamonaviy fan taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola xulosasida O‘rta Osiyo olimlarining ilmiy merosi insoniyat tsivilizatsiyasining ajralmas qismi ekani va uni chuqur o‘rganish hamda targ‘ib qilish muhim ahamiyatga egaligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *ilm, fan, olim, ajdod, tafakkur, ijtimoiy ta’sir, asar, rivojlanish, mutafakkir, o‘rta asr, O‘rta Osiyo, yuksak, risola, manfiy, musbat.*

IX-X asrlarda O‘rta Osiyo (Markaziy Osiyo) zamonaviy akademiyalarga o‘xshash ilk ilmiy muassasa va jamiyatlar tashkil etila boshlagan sharqdagi yirik ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. XI asrda Urganch Xorazm poytaxti, obod, yuksak madaniyatga ega shahar bo‘lgan. Xorazmshoh Abul Abbos ibn Ma’mun madaniyat va ilmga qiziquvchan hukmdor bo‘lgani uchun olimlar, shoirlar, musiqachilar, xattotlar, arxitektor va rassomlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan. Urganchdagi Xorazmshohlar saroyida tibbiyot xodimi Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), aniq fanlar vakili Abu Rayhon Beruniy, matematik Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saxl Masixiy, tabib ibn Xammar va boshqa Sharq mutafakkirlari, qomusiy olimlar xizmat qilishgan. Musulmon Sharqdagi birinchi akademiya – “Baytul Hikmat”ni yer meridiani uzunligi darajasini o‘lchashda qatnashgan mashhur matematik al-Xorazmiy (783-850) boshqargan. Astrolyabiya (usturlob) qurish haqidagi asar, “Kitob aljabr val muqobala”, dunyodagi ilk “Astronomik jadval”lardan biri hamda qator ilmiy risolalar – “Hind Hisobi haqida risola”, “Quyosh soatlari haqida risola”, “Musiqa haqida risola” va boshqa ilmiy ishlar uning qalamiga mansub. Al-Xorazmiy birinchi bo‘lib qator Algebraik tenglamalarni yechdi, birinchi bo‘lib sonlar qatoriga yangi “nol” sonini kiritdi, bu sonlar nazariyasini kengaytirdi va manfiy sonlarga o‘tish imkonini berdi. Shu muvaffaqiyatlari uchun matematikaning yangi bo‘limi al-Xorazmiy sharafiga “algebra” deb atalgan. Al-Xorazmiyning mashhur “Kitob al-jabr van-muqobala” (Tiklash va qarama-qarshi qo‘yish haqidagi kitobi)da algebra ilk bor matematikaning mustaqil sohasi sifatida qaraladi. Zamonaviy kibernetikaning asosiy tushunchasi, uning zaruriy asoslaridan biri “algoritm” etimologik jihatdan al-Xorazmiyning ismi bilan bog‘liq. Urganchda o‘ziga xos akademiya – “Bilimdonlar uyi” tashkil qilingan edi, unda astronomiya, falsafa, matematika, tibbiyot bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Lekin bu holat Urganchda 1017-yilda Mahmud G‘aznaviy Xorazmni istilo qilgunicha saqlanib qoldi.

Xuddi shu paytda bu yerda O‘rta Osiyoning buyuk olimi – Abu Ali ibn Sino ishlagan. Ibn Sino haqiqatdan qomusiy olim – tabiatshunos, tibbiyot xodimi, astronom, matematik, musiqashunos, yozuvchi va shoirdir. U Avitsenna nomi bilan mashhur Bo‘lgan. Ibn Sino faoliyatini anglatuvchi ibora – “Madadi Sino” – Yevropa tillariga Moslashtirilib, fandagi yo‘nalishni bildiruvchi “Meditsina” sifatida o‘zlashtirilgan. XVIII asrning mashhur tabiatshunos olimi Karl Linkey ibn Sinoning botanikadagi Xizmatlarini yuksak baholab doim yashil nodir o‘simliklardan biriga uning ismini berdi. Ibn Sino 400 dan ortiq asar yozgan, shulardan 240 tasi bizgacha yetib kelgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida olimning 50 dan ortiq asarlari va bir qator ularga yozilgan sharhlar saqlanadi. Bu asarlar orasida olim ijodining toji hisoblanmish besh jildlik “Al qonun fit tib” (“Tib ilmi qonunlari”) ham bor. Bu asar o‘z davrida tibbiyot fani darajasini juda yuqori ko‘tardi, ibn Sino vafotidan yuz yil o‘tgach

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tan olindi. XII asrda “Tib ilmi qonunlari” lotin tiliga tarjima qilindi va qo‘lyozmadayoq tarqalib ketdi. Bu asar 1493-yilda Venetsiyada lotincha tarjimada nashr qilindi va yuz yil mobaynida 16 marta chop etildi. Osiyo va Yevropaning barcha mashhur o‘quv yurtlarida 500 yil tibbiyot mana shu asar asosida o‘qitildi. Ushbu bebaho tib qonunlari hozirgi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Matematik va astronom Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud, taxminan 1360-1437) Mirzo Ulug‘bekning ustozi edi. Ulug‘bek maktabi shakllanishiga uning qo‘shgan salmoqli hissasini inkor etish mumkin emas. Ilmdagi muvaffaqiyatlari uchun uni “Aflotuni zamon (o‘z davrining Platoni) deb atashgan.

Mashhur matematik va astronom al-Koshiy (G‘iyosiddin Jamshid Koshiy) birinchi bo‘lib matematikaga pozitsion asosda o‘nli kasrlarni kiritdi va buni nazariy jihatdan isbotladi, Sinus ni 1 gradus aniqlikkacha, P ni 17 raqamgacha hisoblab chiqdi. U o‘zining qator mashhur asarlarini astronomiyaga bag‘ishlagan. Al-Koshiy Qozizoda Rumiy bilan birgalikda Ulug‘bek observatoriyasi qurilishini boshqargan.

Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394-1439) o‘zidan ulkan ilmiy va madaniy meros qoldirdi, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Yangi Ko‘ragon astronomik jadvallari”) – “Ulug‘bek ziji” buyuk olimning dunyoga mashhur asari. Ulug‘bek Samarqandda observatoriya va madrasa qurdi, o‘z akademiyasini tashkil qildi. O‘z shogirdlari bilan mingdan ortiq yulduzni o‘rganib, ro‘yxati – “yulduzli osmon xaritasi”ni tuzdi.

Mirzo Ulug‘bek, al-Koshiy, Ali Qushchi sonlar nazariyasi ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shishdi va astronomik kuzatuv bilimlarini yanada yuqori darajada ko‘tarishdi. 1428-1429-yillarda Ulug‘bek radiusi 40 metr kvadrant bosh uskunasi bo‘lgan, o‘lchamlari tengsiz, noyob astronomik rasadxona qurgan. Samarqandda 30 yillik kuzatishlar asosida tuzilgan 1018 yulduz katalogi uzoq yillar dunyoda tengsiz bo‘lib qoldi. Ulug‘bek astronomiya maktabi yutuqlari Sharq va G‘arb fani yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning ilmiy asarlari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilindi, Yevropa va Amerikada keng tarqaldi. Mirzo Ulug‘bek jahon fani tarixida Tixo Brage, Iogann Kepper, Nikolay Kopernik va Galileo Galiley bilan bir qatorda turadi. M.V.Lomonosov nomidagi MDU katta zalida barcha davrlar olimlariga bag‘ishlangan tarixiy xotira galereyasida o‘rta asrlarning mashhur olimi Mirzo Ulug‘bekning portreti haqli ravishda o‘ziga mos joyni egallagan. O‘zbekistonning bir qator shaharlari va Belgiyada Mirzo Ulug‘bekka haykal o‘rnatilgan, qadimiy Samarqand observatoriyasiga, qator universitetlarga, jumladan O‘zbekiston Milliy universitetiga, maktablarga, shaharga qarashli tumanlarga va O‘zbekistondagi fizik-yadroshunoslar qo‘rg‘oniga uning nomi berilgan.

Bugungi kunda yuqori bilimni talab qiluvchi mahsulotlar va ilmiy-tekshirish muassasalari xizmatlarini keng targ‘ib qilish, muhim amaliy ilmiy natijalardan foydalanishning yangi yo‘llari aniqlanib, hayotga tatbiq qilinmoqda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy bo‘limlari faoliyati takomillashtirilmoqda [1]. Bugungi kunda zamonaviy fan tizimida fanlararo yondashuv rivojlanib borayotgan asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Bunda O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning beqiyos xizmatlari bor. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon Sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o‘rin olgan. Ular jahon fani vamadaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Ammo mutafakkirlarimizning fanlararo yondashuvni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Biz O‘rta asr mutafakkirlarining ilmiy merosidagi fanlararo yondashuvni zamonaviy fan metodologiyasi asosida tadqiq etamiz. Allomalar ijodida bilimlararo integratsiya matematika, musiqa, arxitektura, san’at

sohasida o‘z aksini topgan. Buni dastlab matematikaning boshqa fanlar bilan Integratsiya qilinishi misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Forobiy O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda matematikani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish g‘oyasini anglagan buyuk mutafakkir hisoblanadi. Aristoteldan farqli ravishda, Forobiy matematika metodlarining qo‘llanish imkoniyatlari cheksiz ekanini e’tirof etadi. Buyuk olimning bu g‘oyasi nafaqat matematika rivojida, balki fan tizimi taraqqiyotida ham buyuk hodisa edi. Shuningdek, Forobiy bu g‘oyani yanada kengroq qo‘llash usullarini amalda isbot qiladi. Masalan, olim fanda birinchi bor musiqaviy (tebranuvchi) hodisalarni matematik usullar bilan tadqiq qiladi. Xo‘sh, nega musiqaga bunchalik katta e’tibor qaratilgan? Ma’lumki, musiqa san’atning boshqa turlaridan alohida ajralib turadi. Uning “insonga sirli ta’sirini, inson qalbida yangi o‘zgarishlar hosil qilishini olimlar tan olgan. Musiqa juda jo‘shqin, ekzistensial vaziyatlarda inson hayotining bir bo‘lagi sifatida e’tirof etilgan. Musiqa madaniyati – bu ijtimoiy madaniy fenomen bo‘lib, har bir madaniyatning o‘ziga xos madaniy-falsafiy va siyosiy-ideologik xususiyatlarini aks ettiradi” [3: 6-b.]. Shuning uchun har bir mashhur mutafakkirning ilmiy merosida filologiya, tabiiy, ilmiy, metafizik va musiqaviy nazariy bilimlar uyg‘unlashtirilgan. Al-Kindiy O‘rta asr mutafakkirlari orasida birinchi bo‘lib musiqani falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etgan olim hisoblanadi.

Umuman olganda ilm-fan rivojida O‘rta Osiyo olimlarining o‘rni beqiyosdir. Bu hududdan yetishib chiqqan buyuk allomalar nafaqat o‘z davri, balki butun insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va boshqa sohalardagi ilmiy merosi bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ayniqsa, ular tomonidan yaratilgan asarlar Yevropada Uyg‘onish davri ilm-faniga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo olimlari ilmiy tafakkur rivojiga mustahkam poydevor yaratgan, zamonaviy ilm-fanning shakllanishiga katta hissa qo‘shgan va kelajak avlodlar uchun bebaho meros qoldirgan. Ularning ilmiy ishlarini o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.Д.Даукеева. Философия музыки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби. – Алматы: Фонд Сорос-Казахстан, 2002.

2. Л.И.Ремпел. Художественная культура Средней Азии IX-XII веков. – Т.: Гафур Гулям, 1983.

3. Е.С.Федорова. Философия музыки в мусулманской средневековой культуре. Дисс. На соиск. Канд. Культурологии. – Санкт-Петербург, 2015.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTELLEKTUAL IJODIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

Jo‘rayeva Ruxshanabonu To‘ychizoda,
Karimjanova Tanzila Faxriddinovna,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabalari.
Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

Annontatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari hamda boshlang‘ich sinf*

o‘quvchilarining intelelektual qobiliyatini rivojlantirish haqida yoritib berilgan bo‘lib, biz o‘qituvchilarga qanday yo‘l tutishimizga yordam beradi.

Kalit sozlar: *ijodiy faoliyat, shart-sharoit, faoliyat, rivojlantirish, psixologiya, pedagpgika, intelektual qobiliyat, maktab, oila, ilmiy jarayon, ijodkorlik.*

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas. «Ijod» so‘zining lug‘aviy ma’nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so‘zlariga monand keladi.

Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilishva boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyonbo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangiilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik – sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi. Obyektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo‘lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi [1]: - tafakkurning mustaqilligi; - o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi; - standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi; - o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo‘lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shartsharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi. Ular quyidagilardan iborat: 1. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari. 2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi. 3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg‘ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish. 4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi: - dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi; - mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi; - tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi; - o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi; - topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi; - o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi; - mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi; - mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi; - o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi

va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.Yuqoridagi talablar asosida muammoga doir ta’limni maqsadga muvofiq tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinadi.

Maqsadga muvofiq yondashuv deganda o‘quv- biluv jarayoni yoki ta’lim mazmuni, metod va shakllari tizimining ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir maqsadli yo‘naltirilgan maxsus tashkil etilgan tuzilmasi tushiniladi. Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o‘quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada: 1. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash. 2. O‘qituvchi va o‘quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish. 3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Hozirgi davrda o‘quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan evristik va muammoli ta’lim o‘quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda. V.Karimova o‘z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo‘lgan sifatlari: 1) o‘quvchilar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo‘ladigan sifatlari; 2) o‘quvchilar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta’minlovchi ijodiy faoliyat sifatlari; 3) o‘quvchilar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda – bilish va ijod holatida ko‘rinadigan sifatlari namoyon bo‘lishini korsatib otadi.

Quyida sanab o‘tiladigan sifatlar ijodiy izlanishli ta’lim turini rejalashtirish, tashkil etish va samaradorligini nazorat qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijodiy faoliyat sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: - ehtirosli-obrazli sifatlar: ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, jo‘shqinlik; - obrazlilik, uyushganlik, yangilik va g‘ayrioddiy-likni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy moyillik, ichki kurashlarni sinashga bo‘lgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik va boshqalar; - tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, o‘ziga xoslik, har xillik, nostandartlik; - g‘oya-larni topishga, ularning individual, o‘zga insonlar bilish obyektlari bilan munosabatlariga nisbatan qobiliyati; - maktabda, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me’yorlarini saqlab qolish ko‘nikmasi bilan uyg‘unlashadigan fikrlar, tuyg‘ular va harakatlar erkinligi; - sezgirlik, tanish narsalarni notanish narsalarda ko‘ra olish va aksincha; muammolarni hal etishda stereotiplarni yenga olish, o‘zgacha makonga chiqish qobiliyati; - o‘rganilayotgan obyekt bilan dialog olib bora olish; bilish metodlarini tanlay olish; - obyektning o‘xshash obyektlar bilan vazifa va aloqasini topish; - obyektlarning o‘zgarishi, uning o‘sish yoki rivojlanish dinamikasini aniqlash;-obyektning xossalariga ko‘ra bilishning yangi metodlarini yarata olish; - gipotezalarni ta’riflay olish taxminiy fikrlar, qonuniyatlar, formula, nazariyalarni, konstruksiyalash: intuitsiya, meditatsiyaga ega bo‘lish; - o‘z qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirish, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etish tajribasiga ega bo‘lish.

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari, o‘qitilayotgan o‘quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-4-sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini to‘g‘ridan -to‘g‘ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo‘lsa-da, mahoratli o‘qituvchi o‘z faoliyatini

o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og‘zaki so‘rash; yozma ishlar o‘tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinflarning «O‘qish» darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o‘quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o‘rganilishi va o‘qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faolllikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar avval o‘qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o‘rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchi rahbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo‘li ayniqsa quyi sinflarda o‘z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo‘l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo‘ladi, buning natijasida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishining muhim qismlari shundan iboratki ularning qo‘shimch xotira zaxiralariga ega, chunki bu yoshda barcha kognitiv jarayonlarda o‘zgarishlar boshlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual fikrlashini rivojlantirish uchun eng qulay va samarali hisoblanadi. Intellektual tafakkur o‘quvchi yoshlarning tafakkuri intellektual rivojlanishining eng yuqori bosqichidir, chunki u obrazli tafakkur negizida shakllanadi. Mantiqiy fikrlash rivojlanishning quyi bosqichiga erishish uchun quyidagilarni bilish zarur hisoblanadi: intellektual faoliyatning yuqori faolligi va umumiy va maxsus tushunilgan va amaliy bilimlarning yetarli darajasi hisoblanadi. Bu jarayon ko‘p vaqt, kuch hamda mehnatni talab qiladi, bu holat uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning intellektual fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish kerak. Shuni yodda tutish lozimki, mantiqiy fikrlashning rivojlanish jarayoni har tomonlama va tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday ishlarni nafaqat sinfda, balki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham bajarsa bo‘ladi. Faoliyatning ushbu turida o‘qituvchining asosiy vazifasi yosh bolalar uchun qulay va maqbul bo‘lgan turli shakl va usullarni malakali tanlashdir. Aynan matematika, tabiatshunoslik, tabiiy fanlar, tasviriy san’at, darslarida bola intellektual fikrlash asoslarini egallaydi. Ushbu fan yordamida o‘quvchilar: taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqalar kabi jarayonlarnio‘zlashtiradilar.Tafakkur jarayoni nazariy va amaliy faoliyatni o‘z ichiga oladi, bu unga kiritilgan tadqiqot, transformatsion va kognitiv harakatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Tafakkur bilishning sezgir darajasida bevosita idrok etib bo‘lmaydigan o‘zimizni o‘rab turgan olamning shunday obyektlari, xususiyatlari va munosabatlari to‘g‘risida bilimlarni olish imkonini beradi. Tafakkurning natijasi obraz emas, balki narsa va hodisalarning mohiyatini ochib beruvchi fikrdir. Tafakkur rivojlanishning har bir bosqichida har xil shaklda namoyon bo‘ladi. Bunga asoslanib, tafakkurning quyidagi turlari ajratiladi: - amaliy; - vizual, tasviriy; - og‘zaki mantiqiy.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirish jarayoniga kelsak, psixologlar bu erda ikkita asosiy bosqichni ajratib ko‘rsatishadi. Birinchi bosqichda (1-2-sinflar) ularning fikrlashlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning fikrlashlaridan deyarli farq qilmaydi: o‘quv materialini tahlil qilish asosan vizual-samarali va vizualmajoziy rejada amalga oshiriladi. Oquvchilar narsa va hodisalar haqida tashqi individual xususiyatlariga kora yuzaki, bir yoqlama gapiradilar. Ularning xulosalari idrok etishda berilgan vizual asoslarga asoslanadi va xulosalar mantiqiy dalillarga emas, balki hukmlarning idrok etilgan ma’lumotlar bilan bevosita bog‘liqligiga asoslanadi. Bu yoshdagi tushunchalar va umumlashmalar obyektlarning tashqi xususiyatlari bilan kuchli

bog‘liq bo‘lib, sirtda yotadigan xususiyatlarga asoslanadi [2]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning intellektual qobilyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim qismidir. O‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini to‘la namoyon etishiga, tashabbuskorligi, mustaqilligi, ijodkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biridir [3].

Xulosa o‘rnida yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuni ta’kidlash kerakki, bolalar hayotining har bir kuni qimmatlidir va ta’limning birinchi yillarida vaqtni o‘tkazib yubormaslik kerak. O‘qituvchining yordami bilan o‘quvchilar fikrlashni, asosiy narsani ajratib ko‘rsatishni, turli faktlar va nuqtai nazarlarni tahlil qilishni, ularni taqqoslashni va solishtirishni, savol berishni va mustaqil ravishda ularga javob izlashga harakat qilishnio‘rganishi kerak. O‘quvchi shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina o‘quvchi atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi,shu orqali uningbilish qobilyati rivojlanadi, xarakter sifatlari takomillashib kamol topadi. O‘quvchi yoshlarga bilim olishlarida ularga sharoitlar yaratib berishimiz lozim, shundan so‘ngina yurtimizga yangi ixtirolar, innovatsiyalar paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – T., 2021. - B. 305
2. Занков, Л.В. Избранные педагогические труды [Текст] / Л.В.Занков; вступ. ст. Ш.А.Амонашвили. – М.: Новая шк., 1996. - 432 с.
3. Бобоева, З.М. (2022). Особенности развития логического мышления младших школьников. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 22-25.

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA TPACK MODELINING DIDAKTIK AHAMIYATI

Jurayeva Zulayxo Islomovna,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti o‘qituvchisi.


Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnologiya fani servis xizmati yo‘nalishi mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning loyihalash faoliyatini tashkil etishda TPACK modelining didaktik ahamiyati yoritiladi. Texnologik, pedagogik va kontent bilimlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan mazkur model ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda o‘quvchilarning konstruktorlik tafakkuri va loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *TPACK modeli, texnologiya fani, texnologik bilim, pedagogik bilim, kontent bilim, raqamli loyihalash, didaktik yondashuv.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyat yuritishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya fani servis xizmati yo‘nalish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning loyihalash faoliyatini tashkil etish orqali ularning konstruktorlik tafakkurini rivojlantirish, buyumni o‘zi tayyorlay olish qobiliyatini rivojlantirish hamda ongli kasb tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘ngi yillarda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda texnologik, pedagogik va kontent bilimlarning integratsiyasiga asoslangan TPACK modeli keng qo‘llanilmoqda. Ushbu model amerikalik tadqiqotchilar P.Mishra va M.Koehler tomonidan ishlab

chiqilgan bo‘lib, u L.S.Shulman tomonidan ilgari surilgan pedagogik kontent bilimlari (PCK) konsepsiyasining rivojlantirilgan shakli hisoblanadi [1]. Tadqiqotchilarning fikricha, samarali ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi nafaqat fan mazmunini bilishi, balki uni qaysi pedagogik usullar va qaysi texnologiyalar yordamida o‘qitishni ham bilishi zarur. Shu sababli TPACK modeli texnologik bilim (TK), pedagogik bilim (PK) va kontent bilim (CK) hamda ularning o‘zaro integratsiyasi asosida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini asoslab beradi [2]. TPACK tizimida ushbu sohalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ta’kidlanadi. Shuningdek, ushbu tizim o‘qituvchilarning texnologiyani o‘z kasbiy faoliyatiga samarali integratsiya qilish zarurligini aniqlash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3]. Mazkur modelning tarkibiy komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi 1-rasmda aks ettirilgan. (1-rasm)



1-rasm. TPACK (texnologik, pedagogik va kontent) bilimlarining o‘zaro integratsiyasi modeli (manba: Koehler & Mishra, 2008).

Mazkur rasmda TPACK (Technological Pedagogikal Content Knowledge) modelining asosiy tarkibiy qismlari hamda ularning o‘zaro integratsiyasi aks ettirilgan. Model uchta asosiy bilim sohasi – texnologik bilimlar (TB), pedagogik bilimlar (PB) va kontent bilimlar (KB) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Ushbu bilimlarning integratsiyasi natijasida texnologik pedagogik bilimlar (TPB), texnologik kontent bilimlar (TKB) hamda pedagogik kontent bilimlar (PKB) shakllanadi [4].



2-rasm. TPACK modeli asosida ta’lim jarayonida qo‘llanilgan texnologik, pedagogik va kontent komponentlari.

Model markazida joylashgan texnologik pedagogik kontent bilimlari (TPKB) o‘qituvchining fan mazmunini pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un holda qo‘llay olish kompetensiyasini ifodalaydi [5]. Ushbu yondashuv o‘qituvchidan nafaqat o‘quv mazmunini chuqur bilishni, balki uni samarali pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarga yetkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi. Mazkur nazariy yondashuv asosida texnologik, pedagogik va kontent komponentlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslangan ta’lim tizimi ishlab chiqildi. (2-rasmga qarang).

Mazkur rasmda texnologik, pedagogik va kontent komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan. Texnologik komponent sifatida raqamli loyihalash vositalaridan (Gemini CAD dasturi) hamda mobil ilovalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lsa, pedagogik komponent loyiha metodi, atelye metodi, assotsiativ loyihalash metodi hamda muammoli topshiriqlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonini ifodalaydi. Kontent komponent esa texnologiya fanidagi kiyim konstruksiyasi, modellashtirish hamda andozalar tayyorlash kabi o‘quv mazmunini qamrab oladi. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarning loyihalash faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularning kasbiy-amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur model zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyat bilan uyg‘unlashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologiya fanini o‘qitishda texnologik, pedagogik va kontent bilimlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, TPACK modeli o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda texnologik bilim (TB), pedagogik bilim (PB) hamda kontent bilim (KB) komponentlari asosida baholash mezonlarini aniqlashga imkon beradi.

TPACK modelining didaktik ahamiyati shundan iboratki, u ta’lim jarayonida texnologik, pedagogik va kontent bilimlarning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash orqali o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv texnologiya fani darslarida pedagogik metodlar hamda raqamli texnologiyalarni uyg‘un holda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu modelning nazariy imkoniyatlari asosida texnologiya fanini o‘qitishda raqamli loyihalash vositalari (Gemini CAD dasturi)dan foydalanish, pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etildi. Natijada texnologik, pedagogik va kontent bilimlarning integratsiyasi o‘quvchilarning loyihalash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shulman, L.S**.** Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. — 1986. — Vol. 15, № 2. — P. 4–14.

2. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2008). Introducing TPACK. In AACTE Committee on Innovation & Technology (Eds.), Handbook of technological pedagogikal content knowledge for educators (pp. 3–29). New York, NY: Routledge.

3. Koehler M.J., Mishra P. What Is Technological Pedagogikal Content Knowledge (TPACK)? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. - 2009. - Vol. 9. - №1. - P. 60-70.

4. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogikal Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol.108, №6. – P.1017–1054.

5. Koehler M.J., Mishra P., Cain W. What Is Technological Pedagogikal Content Knowledge (TPACK)? // Journal of Education. - 2013. - Vol. 193. - №3. - P. 13-19.

IJODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH UCHUN MASALALAR VA VAZIFALAR TUZISH

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Ganjayeva Zilola Shokir qizi,
Mamaraimova Bahora Mahmudjon qizi,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirishda masala va vazifalarning o‘rni, ularni tuzish mezonlari hamda samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar namunasi keltiriladi.*

Kalit so‘zar: *ijodiy kompetensiya, kreativ fikrlash, muammoli vaziyat, integrativ yondashuv, mustaqil ta’lim, innovatsion metodlar.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va yangicha g‘oya yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy kompetensiya — bu o‘quvchining noodatiy vaziyatlarda mustaqil va samarali yechim topa olish qobiliyatidir.Shu bois dars jarayonida beriladigan masala va vazifalar oddiy takrorlash yoki eslab qolishga emas, balki tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va yangi g‘oya yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Asosiy qism. *1. Ijodiy kompetensiyaning mazmuni.* Ijodiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) muammoni ko‘ra bilish; 2) g‘oyani ilgari surish; 3) bir nechta yechim variantlarini taklif qilish; 4) tanqidiy tahlil qilish; 5) amaliy natija yaratish.

Bu kompetensiya o‘quvchining faolligi va mustaqil izlanishiga tayanadi.

2. Ijodiy vazifalarni tuzish mezonlari. Ijodiy kompetensiyani shakllantiruvchi masala va vazifalar quyidagi talablarga javob berishi lozim: 1. Muammoli xarakterga ega bo‘lishi – tayyor javob bo‘lmasligi kerak. 2. Ko‘p variantli yechimga ega bo‘lishi – bir nechta to‘g‘ri javob bo‘lishi mumkin. 3. Hayotiy vaziyatga yaqin bo‘lishi – real muammolar asosida tuzilishi. 4. Fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashi – integrativ yondashuv asosida. 5. O‘quvchini izlanishga undashi – mustaqil tadqiqot elementi bo‘lishi.

3. Ijodiy topshiriqlar turlari. 1) Muammoli savollar. Masalan:

• Agar siz muhandis bo‘lsangiz, ekologik toza maktab loyihasini qanday yaratgan bo‘lardingiz?

• Berilgan vaziyatda boshqa qanday yechim taklif qilasiz?

2) Loyihaviy vazifalar:

• “Kelajak maktabi” modelini chizing va izohlang.

• Mahalliy muammoni aniqlang va unga innovatsion yechim ishlab chiqing.

3) Transformatsion topshiriqlar:

• Hikoyani boshqa yakun bilan tugating.

• Formulani real hayotiy misol orqali tushuntiring.

4) Tadqiqotga yo‘naltirilgan vazifalar.

• Muayyan mavzu bo‘yicha kichik tajriba o‘tkazing va xulosa chiqaring.

• Statistik ma’lumotlarni tahlil qilib, o‘z fikringizni bildiring.

4. O‘qituvchining roli. Ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda o‘qituvchi:

• Yo‘naltiruvchi va fasilitator bo‘lishi;

• Erkin fikr bildirish muhitini yaratishi;

• Xatoni o‘sish imkoniyati sifatida qabul qilishi;

• Rag‘batlantiruvchi baholash tizimidan foydalanishi lozim.

Xulosa. Ijodiy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun dars jarayonida muammoli, ochiq va ko‘p variantli masala hamda vazifalardan foydalanish samarali natija beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini va innovatsion g‘oya yaratish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarova G.A., Pardaeva K, Gapparov B.N. Xalq pedagogikasi. // O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009.

2. Ziyomuxamedov B., Tojiyev M. Milliy pedagogik texnologiyani ta’limtarbiya jarayoniga tadbig‘i va uning yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni. Toshkent. Mumtoz-Soz. 2010.

3. Ziyomuxamedov B. Ta’lim texnologiyalari. // O‘quv qo‘llanma. – T., 2012.

O‘QUV JARAYONIDADA INDIVIDUAL YONDASHUVNI TASHKIL ETISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Jovliyeva Maftuna Dilshod qizi,
Salayeva Ruxsora Beknazar qizi,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashuvni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish, ularning qobiliyatlari va bilim darajasini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Individual yondashuvni samarali tashkil etish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlash mumkinligi asoslab berilgan.*

Tayanch so‘zlar*: individual yondashuv, ta’lim jarayoni, o‘quvchi shaxsiyati, differensial ta’lim, pedagogik texnologiya, innovatsion metodlar.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qitish jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan va ijodiy yondasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday maqsadga erishishda dars jarayonida individual yondashuvni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi, bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarning individual

xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Individual yondashuv o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogika fanida individual yondashuv masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ularning ilmiy tadqiqotlarida ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan individual ishlashning samarali usullari ishlab chiqilgan.

Individual yondashuvning pedagogik mohiyati. Individual yondashuv — bu o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati, qobiliyati va bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Individual yondashuvning asosiy maqsadi har bir o‘quvchining imkoniyatlarini ochib berish va ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashdan iboratdir. Shu bilan birga, individual yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasini chuqur o‘rganishi lozim. Bu esa o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi.

Dars jarayonida individual yondashuvni tashkil etish usullari. Ta’lim jarayonida individual yondashuvni tashkil etish uchun turli metod va usullardan foydalanish mumkin. Quyida shunday samarali usullarning ayrimlari keltirilgan.

Differensial ta’lim usuli: Differensial ta’lim usuli o‘quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda turli murakkablikdagi topshiriqlarni berishni nazarda tutadi. Bu usul orqali har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos topshiriqni bajaradi va bilimini mustahkamlaydi.

Individual topshiriqlar: Individual topshiriqlar har bir o‘quvchining bilimini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchining mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi hamda uning bilim darajasini oshiradi.

Kichik guruhlarda ishlash: O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib ishlash individual yondashuvni amalga oshirishning samarali usullaridan biridir. Guruhlarda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-biriga yordam beradi, o‘z fikrlarini erkin bayon etadi va muammolarni birgalikda hal qiladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish: Mustaqil ishlar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Mustaqil ishlar turli shakllarda tashkil etilishi mumkin: test topshiriqlari, amaliy mashqlar, ijodiy topshiriqlar va boshqalar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan interaktiv metodlar, multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dars jarayonida individual yondashuvni samarali tashkil etishga yordam beradi. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

Individual yondashuvning ta’lim samaradorligiga ta’siri: Individual yondashuv o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir o‘quvchining imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etilgan darslar ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Shuningdek, individual yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatini shakllantiradi. Natijada o‘quvchilar bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi va ta’lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida individual yondashuvni tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. O‘qituvchi har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasini hisobga olgan holda darsni tashkil

etsa, ta’lim jarayoni samarali bo‘ladi. Individual yondashuvni amalga oshirish uchun differensial ta’lim, individual topshiriqlar, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ishlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent, 2016.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2016.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2014.

O‘QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH KOMPETENSIYASI

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Niyozimbetova Mehribon,
Mustafakulova Farangiz,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasining pedagogik mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan innovatsion metod va texnologiyalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari tizimida o‘quvchilar faoliyatini boshqarish, ularni baholash jarayonini tashkil etish hamda ta’lim samaradorligini oshirish masalalari yoritib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish va baholash tizimini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, pedagogik kompetensiya, ta’lim jarayoni, o‘quv faoliyati, baholash tizimi, formatif baholash, summativ baholash, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi.*

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va zamonaviy bilimlarga ega shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish va ularning bilimlarini adolatli baholash o‘qituvchining muhim kasbiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun ham o‘qituvchining o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilarning faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasi ta’lim jarayonini samarali boshqarish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tizimli ravishda baholashni o‘z ichiga oladi. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayon o‘qituvchining pedagogik mahorati, didaktik bilimlari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish qobiliyati bilan bog‘liqdir.

O‘quv faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi quyidagi elementlardan iborat: - ta’lim jarayonini rejalashtirish; - o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; - samarali pedagogik metodlarni tanlash; - o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish; - o‘quv jarayonini nazorat qilish va tahlil qilish.

O‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda o‘qituvchi o‘quvchilarni faollikka undovchi metodlardan foydalanishi lozim. Bunda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Debat”, “Rolli o‘yinlar” kabi metodlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, dars jarayonida guruhli ishlash, jamoaviy faoliyat va mustaqil izlanishlarga asoslangan metodlar o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida baholash o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, o‘qitish jarayonining samaradorligini tahlil qilish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Zamonaviy ta’lim tizimida baholash quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: *Diagnostik baholash.* Diagnostik baholash o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchiga dars jarayonini samarali rejalashtirish imkonini beradi. *Formativ baholash.* Formativ baholash ta’lim jarayonida o‘quvchilarning rivojlanish darajasini kuzatish va ularni rag‘batlantirishga qaratilgan. Ushbu baholash turi o‘quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishini ta’minlaydi. *Summativ baholash.* Summativ baholash ma’lum bir bosqich yakunida o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Bu baholash turi nazorat ishlari, testlar yoki imtihonlar orqali amalga oshiriladi.

Baholash jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish muhimdir: - adolatlilik; - shaffoflik; - tizimlilik; - rivojlantiruvchi xarakter.

Hozirgi davrda ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega: ***Interfaol metodlar.*** Interfaol metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Ular orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. ***STEAM ta’lim texnologiyasi.*** STEAM texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. ***CLIL yondashuvi.*** CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitishni ta’minlaydi. Bu metod o‘quvchilarning nafaqat fan bilimlarini, balki til ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. ***Raqamli ta’lim texnologiyalari.*** Axborot-kommunikat-siya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari va onlayn resurslar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

O‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish va baholash tizimini takomillashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, baholash jarayonida formatif baholashdan foydalanish o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tahlil qilish va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga va bilimlarini mustahkamlashiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasi o‘qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanish hamda baholashning shaffof tizimini yaratish orqali o‘quvchilarning bilim darajasi va ta’lim sifati oshadi. Shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini oshirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2015.
3. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. – London, 1998.

TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLI LOYIHA VA GURUH ISHLARI INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Qulmatova Shaxnoza Muso qizi,
Abrayeva Laylo Axror qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Xususan, muammoli loyiha va guruh ishlari metodlarining o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularni ijodiy qarorlar qabul qilishga va muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rgatadi. Maqolada interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi rolini kuchaytirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyati ham ko‘rsatib berilgan.*

Tayanch so‘zlar*: interfaol metod, muammoli ta’lim, loyiha metodi, guruh ishlari, ta’lim samaradorligi, o‘quv faoliyati, mustaqil fikrlash, hamkorlik, pedagogik texnologiya, innovatsion ta’lim.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga faqat nazariy bilim berish yetarli emas. Bugungi kunda jamiyat nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondasha oladigan shaxslarni talab qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.Interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga va bilimlarni amalda qo‘llashga undaydi. O‘quvchilar muhokama qiladi, savol beradi, fikr bildiradi va turli muammolarni hal qilishga harakat qiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, muammoli loyiha va guruh ishlari metodlari o‘quvchilarda tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishga yordam beradi. Masalan, matematik yoki tabiiy fanlar darsida o‘quvchilar muayyan muammoni yechish uchun guruh bo‘lib ishlashadi, natijada ular analitik va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, til va ijtimoiy fanlar

darslarida guruh ishlari o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalari va jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi.Interfaol metodlar haqida umumiy tushuncha**.**

Interfaol metodlar – bu o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta’lim usullari bo‘lib, o‘quvchilarni faqat tinglovchi sifatida emas, balki dars jarayonining faol ishtirokchisi sifatida jalb qiladi. “Interfaol” so‘zi ingliz tilidagi “interactive” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zaro ta’sir yoki hamkorlik ma’nosini anglatadi.Interfaol metodlarning asosiy xususiyatlari:o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishi; fikr almashish va muhokama jarayonining mavjudligi;o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va maslahatchi rolini bajarishi;o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga undalishi.Bu metodlar orqali bilimlar tayyor holda emas, o‘quvchilar tomonidan izlanishlar va amaliy faoliyat orqali egallanadi. Natijada bilim mustahkam bo‘ladi, o‘quvchilar o‘zlashtirgan ma’lumotni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga qodir bo‘ladi.

Muammoli loyiha metodi. Muammoli loyiha metodi ta’lim jarayonida muayyan muammoni hal qilish orqali bilim olishga asoslangan usuldir. Ushbu metod o‘quvchilarni izlanishga, tadqiqot olib borishga va muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishga o‘rgatadi.

Muammoli loyiha metodining bosqichlari: 1) muammoni aniqlash va qo‘yish; 2) muammoni hal qilish bo‘yicha g‘oyalarni ilgari surish; 3) zarur ma’lumotlarni to‘plash va o‘rganish; 4) topilgan ma’lumotlarni tahlil qilish; 5) yechimni ishlab chiqish va taqdim etish.

Masalan, biologiya darsida o‘quvchilar ekologik muammoni aniqlashadi va uni hal qilish bo‘yicha loyiha tayyorlashadi. Bu jarayonda ular tadqiqotchilik qobiliyati, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Loyiha metodi o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga asoslangan metodlardan biri bo‘lib, unda o‘quvchilar ma’lum bir mavzu yoki muammoni tadqiq qilish orqali yakuniy natijaga erishadi. Loyiha ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar ma’lumot to‘playdi, tahlil qiladi va o‘z fikrlarini taqdim etadi. Bu metod o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli loyiha metodi zamonaviy ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda.

Guruh ishlari metodi. Guruh ishlari metodi o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda topshiriq bajarishga asoslangan ta’lim usulidir. Guruh ishlari jarayonida o‘quvchilar: - bir-birining fikrini tinglaydi; - muammoni birgalikda muhokama qiladi; - umumiy qaror qabul qiladi; - har bir a’zo o‘z hissasini qo‘shadi.

Bu metod o‘quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini, shuningdek hamkorlik, hurmat va mas’uliyat kabi sifatlarini shakllantiradi. Masalan, tarix darsida o‘quvchilar biror tarixiy hodisani o‘rganib, guruh bo‘lib taqdimot tayyorlashadi. Shu orqali ular jamoaviy ishlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar. Ba’zi keng tarqalgan interfaol metodlar: *Aqliy hujum* (Brainstorming) — muammo bo‘yicha turli g‘oyalarni yig‘ish; *Klaster usuli* — tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatish; *Debat metodi* — ikki guruh o‘rtasida bahs-munozara; *Rol o‘ynash* — muayyan vaziyatni sahnalashtirish orqali o‘rganish; *Insert metodi* — matn bilan ishlashda muhim fikrlarni belgilash. va boshqalar.

Bu metodlar o‘quvchilarni faol fikrlashga, bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga va ijodiy yechim topishga rag‘batlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy ta’limning muhim talabi hisoblanadi. Muammoli loyiha va guruh ishlari metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy qobiliyatini va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Bunday metodlar darsni qiziqarli va samarali tashkil etishga

yordam beradi, o‘quvchilarni faol o‘rganishga undaydi va nazariy bilimlarni hayotiy faoliyatga qo‘llash imkonini yaratadi. Shu sababli har bir o‘qituvchi interfaol metodlardan dars jarayonida samarali foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2017
3. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent. 2018
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2014

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA KOMPETENTLI O‘QITUVCHINING ROLI

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Rayimova Xushro‘y Zafar qizi.
Kozimova Nigina Zuxritdin qizi.
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish jarayonida kompetent o‘qituvchining o‘rni, kasbiy kompetensiyalarining mazmuni hamda ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik, metodik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda muhim omil ekanligi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, tahlil, qiyosiy o‘rganish va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining kompetentligi o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi hamda ijodiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: kompetensiya, kompetent o‘qituvchi, pedagogik mahorat, ta’lim sifati, innovatsion metodlar, metodik kompetensiya, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning intellektual, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mazkur bosqichda o‘quvchilar bilim olishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, muloqot qilish hamda o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradilar. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligiga bog‘liq. Zamonaviy pedagogika fanida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari muhim ilmiy kategoriyalar sifatida qaralmoqda. Kompetensiya — bu shaxsning ma’lum faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Kompetentlik esa ushbu bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini yo‘naltiruvchi, motivatsiya yaratuvchi va ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi pedagog hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liq. Bugungi ta’lim tizimida o‘qituvchidan quyidagi kompetensiyalar talab etiladi: pedagogik kompetensiya, metodik

kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetensiya, innovatsion kompetensiya, refleksiv kompetensiya.

Mazkur kompetensiyalar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda kompetent o‘qituvchining rolini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda kompetent o‘qituvchining rolini tahlil qilish hamda uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: kompetentlik tushunchasining pedagogik mohiyatini tahlil qilish; boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy kasbiy kompetensiyalarini aniqlash; o‘qituvchi kompetentligining ta’lim sifati va o‘quvchilar rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish; boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’lim sifatiga o‘qituvchi kompetentligining ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, kompetent o‘qituvchi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda bir qator muhim omillarni ta’minlaydi.

1. Pedagogik kompetensiya ta’lim samaradorligini oshiradi. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchining o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik kompetensiyaga ega o‘qituvchilar: o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlay oladi; dars jarayonida samarali muhit yaratadi; o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Natijada o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

2. Metodik kompetensiya dars sifatini oshiradi. Metodik kompetensiya — bu o‘qituvchining ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Tadqiqot davomida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanadigan o‘qituvchilar darslarida o‘quvchilar faolligi yuqori bo‘lishi kuzatildi. Masalan: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Bumerang”, “Blits so‘rov” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

3. Kommunikativ kompetensiya ijobiy pedagogik muhit yaratadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqot muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiyaga ega o‘qituvchi: o‘quvchilar bilan ochiq muloqot o‘rnatadi; ularni qo‘llab-quvvatlaydi; ijobiy psixologik muhit yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

4. Innovatsion kompetensiya ta’lim jarayonini modernizatsiya qiladi. Zamonaviy o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanishni bilishi zarur. Innovatsion kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: axborot texnologiyalaridan foydalanish; elektron ta’lim resurslarini qo‘llash; interaktiv ta’lim metodlarini joriy etish. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Xulosa qilsak, mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi: Boshlang‘ich ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy kompetentligiga bog‘liq. Kompetent o‘qituvchi pedagogik, metodik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish faolligini oshiradi. O‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi ijobiy pedagogik muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: o‘qituvchilar malakasini muntazam oshirib borish;

innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish; o‘qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash; ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni keng qo‘llash. Shu tarzda, kompetent o‘qituvchi boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy tayanchi bo‘lib, uning professional mahorati ta’lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2019.
4. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik asoslari. Toshkent. 2018.

IJODIY KOMPETENSIYA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Samardinova Sabrina Muxiddin qizi,
Pardaboyeva Rayhona Madaminjon qizi,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijodiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy tuzilmasi hamda ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim bosqichida kreativ salohiyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik mexanizmlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy kompetensiya, kreativ tafakkur, divergent fikrlash, pedagogik innovatsiya, interfaol metod, boshlang‘ich ta’lim.*

XXI asr ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talab – raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan, yangicha g‘oyalar ishlab chiqa oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish faqat tayyor bilimlarni egallash bilan emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash, yangilik yaratish va muammolarga kreativ yondashish bilan belgilanadi. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarda kreativ fikrlash muhim kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, UNESCO ta’lim konsepsiyalarida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Shuningdek, OECD tomonidan ishlab chiqilgan “Future of Education and Skills 2030” dasturida kreativ tafakkur zamonaviy shaxs modeli tarkibiy qismi sifatida belgilangan. Shu bois, ta’lim jarayonida ijodiy kompetensiyani shakllantirish nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi. Ijodiy kompetensiyaning nazariy asoslari. Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning yangilik yaratish, noodatiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, muammolarga turlicha yondashish hamda o‘z g‘oyalarini asoslay olish qobiliyatidir. U bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlarning integratsiyasidan iborat.Psixolog olim Joy Paul Guilford ijodiy fikrlashni divergent tafakkur bilan izohlaydi. Divergent fikrlash – bir muammoning bir nechta yechimini topa olish qobiliyati bo‘lib, u kreativlikning asosiy mezoni hisoblanadi. E. P. Torrance esa ijodkorlikni aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqqan. Uning fikricha, ijodiy fikrlash quyidagi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi: *Ravonlik* – g‘oyalar sonining ko‘pligi; *Moslashuvchanlik* – fikrlarning turli yo‘nalishda bo‘lishi;

Originallik – noodatiy va yangicha yondashuv; *Tafsilotlarni boyitish* – g‘oyani chuqurlashtirish qobiliyati.

Mazkur nazariyalar ta’lim jarayonida ijodiy kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Ijodiy kompetensiyani rivojlantirish maqsadli pedagogik faoliyatni talab etadi. Quyidagi shart-sharoitlar muhim hisoblanadi:

1. Erkin fikrlash muhiti. O‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon qila olishi, xato qilishdan qo‘rqmasligi kerak. O‘qituvchi tanqid emas, rag‘batlantirish uslubini qo‘llashi zarur.

2. Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli savollar va vaziyatlar o‘quvchini izlanishga undaydi. Masalan: “Biror masalani boshqa usulda yechish mumkinmi?” kabi savollar kreativ tafakkurni faollashtiradi.

3. Interfaol metodlardan foydalanish. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Debat”, “Rol o‘ynash” metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

4. Fanlararo integratsiya. STEAM va CLIL yondashuvlari turli fanlarni integratsiya qilish orqali analitik va kreativ tafakkurni uyg‘un rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda ijodiy kompetensiyani shakllantirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasavvur va fantaziyaga boy bo‘lganligi sababli, bu bosqich ijodiy kompetensiyani shakllantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Amaliyotda quyidagi usullar samarali natija beradi: 1) ertakni davom ettirish yoki yangi yakun yaratish; 2) rasm asosida hikoya tuzish; 3) o‘yin texnologiyalari orqali muammoli vaziyat yaratish; 4) loyiha va mini-tadqiqot ishlari; 5) konstruktor va modellashtirish topshiriqlari.

Masalan, matematika darsida oddiy misolni turli usullar bilan yechish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu o‘quvchilarda moslashuvchan va ko‘p variantli fikrlashni rivojlantiradi.

Ijodiy kompetensiyaning shaxs rivojlanishidagi o‘rni. Ijodiy fikrlash nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Kreativ tafakkurga ega shaxs: - muammolarga tez moslashadi; - yangilikka ochiq bo‘ladi; - tashabbuskorlik ko‘rsatadi; - ijtimoiy faollik bilan ajralib turadi. Shu sababli ijodiy kompetensiyani rivojlantirish ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Ijodiy kompetensiya zamonaviy ta’lim modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilar mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion g‘oyalar ilgari surish va real muammolarni samarali hal etish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.Ta’lim jarayonida erkin fikrlash muhiti yaratish, muammoli vaziyatlardan foydalanish hamda interfaol metodlarni qo‘llash ijodiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy pedagogik omillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York, 1967.
2. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. – 1974.
3. UNESCO. Education for the 21st Century Reports. 2020
4. OECD. Future of Education and Skills 2030. 2022.

DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Sunnatova Mahliyo Mirzatilla qizi,
Olimboyeva Dilfuza Amirbek qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ilg‘or pedagogik metodlardan unumli foydalanish, to‘g‘ri texnologiyalarni tanlay bilish va ularni qo‘llash haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya, metod, axborotli o‘qitish, pedagogik muloqot, kompetentlik, interfaol.*

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarning 200 ga yaqin turi mavjud. O‘qituvchi ana shu texnologiyalardan o‘z darsida qanday foydalanishni to‘g‘ri tanlay bilishi kerak. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti natijasida zamonaviy texnika vositalari kirib kelmoqda. An’anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o‘g‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli “axborotli o‘qitish” sifatida tafsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yishi lozim. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta’lim sifati, samaradorligini oshirishda o‘z hissasini qo‘shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim.

Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish va ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchining o‘quvchilarga o‘qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir [1; 25-b.]. Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Ilm-fan va ta’lim sohasining rivojlanishida eng muhim rol o‘ynaydigan insonlar bu pedagoglardir [1; 27-b.]. Darhaqiqat, oddiy o‘qituvchidan tortib to professor ustozgacha hammasi pedagogdir. Pedagog bu yetaklovchi, demak, biz pedagoglarning vazifamiz o‘z o‘quvchilarimizni, talabalarimizni ilmfan so‘qmoqlaridan asta-sekin, bosqichma-bosqich yetaklab, ularni ilm-fan cho‘qqilarini zabt etishlariga ko‘maklashishdir. Pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi [3; 288-b.]. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarni zamon talablari asosida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu esa o‘qituvchilar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi.

O‘qituvchi o‘z sohasining mohir bilimdoni, muammolarning oqilona yechimlarini topa oladigan, o‘z ustida doimiy ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o‘quvchilari qalbidan munosib o‘rin egallagan bo‘lishi lozim.

Yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish uchun pedagog o‘zining prosessional kompetentligiga ega bo‘lishi kerak. Bu pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan, kasbiy va shaxsiy sifatlar yig‘indisidir [4; 36-b.]. Pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o‘qituvchini professional kompetentli o‘qituvchi deyish mumkin. Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha jabhalar qatori ta’lim sohasida ham juda katta o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktablarda moddiy-texnik baza mustahkamlandi, darsliklar takomillashtirildi. Hozirda darslarni axborot kommunikatsiya texnologiyalarsiz olib borishni tasavvur qilish qiyin. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tilishi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga asos yaratmoqda.

O‘qituvchi mehnatining samarasi shogirdlarining nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarda, ko‘rik-tanlovlarda qo‘lga kiritgan yutuqlarida namoyon bo‘ladi. Vatanimizdagi ta’lim sohasi rivojlanishida biz albatta rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan keng foydalanishga e’tibor bermoqdamiz. Bunday usullardan biri interfaol usullardir. Interfaol usullar har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi hamda o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishadi. Pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar, o‘quvchi talabalarni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini asoslashga imkon yaratadi. Ilm-fan va ta’limni rivojlantiruvchi omillardan yana bir eng muhimi shuki, bu AKT dan foydalanish. Chunki hozirgi zamon o‘qitish metodlarini AKT siz tasavvur etib bo‘lmaydi. Axborotlarning animatsiyalar orqali uzatilishi o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Kompyuter dasturlari yordamida ko‘rgazmalar tayyorlash, taqdimotlar va videoroliklar yaratish yangi mavzuni tushuntirishda katta samara beradi. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida rangli qog‘ozdan turli gullar, maketlar, parranda va jonzotlar shakllarini yasash, gazlamalardan buyumlar yasash usullari o‘rgatiladi. Plastilindan buyumlar yasash, hayvonlar shaklini yasash va applikatsiya, mozaika usulida ishlash kabi jarayonlar ham amalga oshiriladi. Shuningdek, texnologiya darslarida berilgan amaliy ishlarni bosqichli bajarish bilan birga mavzuga oid savol-topshiriqlarga javob berishi, ishni sifatli bajarishi hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi zarur. Bu vazifalarni bajarishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishi ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim omil bo‘ladi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, agar o‘qituvchi texnologiya darslarida qo‘llaniladigan xavfsizlik qoidalarini taqdimot ko‘rinishida tayyorlab o‘quvchilarga har darsda namoyish etsa, yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki o‘quvchilar har darsda shu taqdimotni ko‘rganlaridan keyin albatta eslarida qoladi, shunga amal qilishadi va natijada turli ko‘ngilsiz hodisalarning oldi olinadi. Turli kasb egalari va kasb-hunarga oid ma’lumotlarni kengroq yoritishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish yuqori samara beradi.

Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyal mavjud bo‘lib, o‘qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o‘qituvchiga bog‘liqligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, o‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e’tiborga olgan xolda tanlash ta’lim sifatini

yanada oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya asosida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug‘iladi va u o‘qituvchining yaqin ko‘makdoshiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022 y.
2. B.B.Saydaxmedov. Yangi pedagogik texnologiya. Toshkent. 1992. "Экономика и социум" №5(96)-2 2022 www.iupr.ru
3. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi axborotniasi. № 4 1999 yil 288-381 betlar.
4. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent, Molya-iqtisod, 2008.

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA VA MULOQOT MADANIYATI

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Umirzoqova Musharraf Rashidovna,
Mirzaxmatova Hayotxon Begali qizi,
Norqulova Durdona Nuriddin qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyatining mazmun-mohiyati, ularning pedagogik ahamiyati hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy usullari va muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Maqolada kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyatining shaxs rivoji hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati, nutq madaniyati, pedagogik muloqot, kommunikativ ko‘nikmalar, ta’lim jarayoni, shaxs rivoji, nutq faoliyati, ijtimoiy kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.*

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti insonlarning samarali muloqot qila olish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki o‘quvchilarning bilim olish jarayonida o‘z fikrini aniq ifoda etishi, boshqalarni tushunishi, madaniyatli tarzda muloqot olib borishi ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyati masalasi zamonaviy pedagogika va metodika fanlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi. Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalanish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha nafaqat grammatik bilimlarni, balki nutq madaniyati, ijtimoiy me’yorlar va muloqot qoidalarini ham o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya bir necha tarkibiy qismlardan iborat:

Lisoniy kompetensiya – tilning grammatik qoidalari, lug‘at boyligi va talaffuz me’yorlarini bilish. Nutqiy kompetensiya – o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq va

mantiqiy ifoda eta olish. Sotsiolingvistik kompetensiya – muloqot jarayonida ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish, suhbatdoshning yoshiga, mavqeiga va vaziyatga mos tarzda gapirish. Strategik kompetensiya – muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun turli kommunikativ usullardan foydalanish. Pedagogik jarayonda kommunikativ kompetensiya o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu kompetensiyani rivojlantirish muhim hisoblanadi, chunki aynan shu davrda bolalarning nutqi, fikrlashi va ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanadi.

Muloqot madaniyati tushunchasi. Muloqot madaniyati – bu shaxsning nutq jarayonida axloqiy, estetik va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilgan holda fikr almashish qobiliyatidir. Muloqot madaniyati insonning umumiy madaniy darajasi, tarbiyasi va ma’naviy dunyosini aks ettiradi.Muloqot madaniyati quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; nutqning aniqligi va ravonligi; adabiy til me’yorlariga rioya qilish; suhbat jarayonida tinglash madaniyatiga amal qilish; bahs va munozara paytida madaniyatli tarzda fikr bildirish. Muloqot madaniyati nafaqat nutqning to‘g‘riligini, balki uning ta’sirchanligi va odob doirasida bo‘lishini ham ta’minlaydi. Madaniyatli muloqot insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni mustahkamlaydi, ijobiy psixologik muhitni yaratadi. Ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish o‘qituvchidan zamonaviy pedagogik metodlardan samarali foydalanishni talab etadi. Jumladan: *Suhbat metodi* – o‘quvchilarning fikr almashishiga imkon yaratadi. *Savol-javob metodi* – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. *Munozara metodi* – o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantiradi. *Rolli o‘yinlar* – turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish orqali nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich ta’limda ertak, hikoya, dialog, sahnalashtirish kabi usullar ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarni faol muloqotga jalb qilishi, ularning fikrini erkin ifoda etishiga sharoit yaratishi zarur. Kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyatining o‘zaro bog‘liqligi. Kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqot qila olish qobiliyatini ifodalasa, muloqot madaniyati esa ushbu jarayonning axloqiy va estetik jihatlarini belgilaydi. Agar shaxs kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lsa, u o‘z fikrini aniq va tushunarli tarzda yetkazadi. Agar u muloqot madaniyatiga ham amal qilsa, uning nutqi hurmat, odob va madaniyat doirasida kechadi. Shu sababli ta’lim jarayonida ushbu ikki tushunchani birgalikda rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyati zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ular o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantiradi, ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi va shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida turli pedagogik metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘quvchilarda madaniyatli muloqot qilish, suhbatdoshni hurmat qilish va fikrni aniq ifoda etish kabi fazilatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Natijada, kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan shaxslar jamiyatda faol, madaniyatli va ijtimoiy jihatdan yetuk insonlar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
2. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2007.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004.
4. Леонтев А.А. Психология обшения. – Москва: Смйсл, 1999.

O‘QUVCHILAR BILAN SAMARALI MULOQOT TEXNIKALARINI MASHQ QILISH

Karimjanov Alijan,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.n.
Yusupjonova Zilola Akramjon qizi,
Norbekova Xilola Farhod qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu ishda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ jarayonlarning mazmuni, samarali muloqot texnikalarini amaliyotda mashq qilish usullari hamda animatsion vositalarning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik muloqot, animatsiya, kommunikatsiya, faol tinglash, noverbal aloqa, empatiya, interfaol mashqlar, vizualizatsiya, pedagogik mahorat.*

Ta’lim sifatini ta’minlashda pedagogik muloqotning o‘rni beqiyosdir. Muloqot shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omildir. Bugungi kunda pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o‘quvchilar bilan samarali muloqot texnikalarini muntazam mashq qilishdan iborat. Dars jarayonidagi har qanday tushunmovchilik ko‘pincha noto‘g‘ri muloqot natijasida kelib chiqadi. Shu sababli muloqot texnikasini egallash o‘qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Ayniqsa, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotni tashkil etish o‘quv jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Pedagogik muloqot jarayonida animatsiya va multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda darsga nisbatan kuchli motivatsiya uyg‘otadi. Muloqot texnikalarini o‘rgatishda animatsion lavhalar orqali muloqotdagi xatolarni, masalan tajovuzkor ohang yoki noto‘g‘ri imo-ishoralarni tashqaridan kuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi. Animatsiya murakkab psixologik holatlarni vizuallashtirib berish orqali o‘quvchiga vaziyatni yaxshiroq his qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa darsning kirish qismida o‘quvchilarni muloqotga jalb qilishda yuqori samara beradi. Animatsion qahramonlarning o‘zaro muloqoti orqali o‘quvchilar muloqot madaniyatini tabiiy ravishda o‘zlashtiradilar.

Samarali muloqotning asosi hisoblangan faol tinglash texnikasi o‘quvchini oxirigacha eshitish va uning fikrini tasdiqlashni anglatadi. Mashq jarayonida o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar bilan muloqotni davom ettirishi lozim. Bu jarayonda aks-sado berish usulidan foydalanib, o‘quvchi aytgan gaplarni uning o‘ziga qayta tushuntirib berish o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. O‘quvchi o‘z fikri tinglanayotganini his

qilganda muloqotga ochiq bo‘ladi va o‘z fikrlarini erkin bayon qila boshlaydi. Faol tinglashda “Ko‘zgu” mashqini qo‘llash tavsiya etiladi, bunda o‘qituvchi o‘quvchining so‘zlarini xuddi aks-sadodek takrorlab, unga tushunilganlik hissini beradi.

Muloqot madaniyatini oshirishda “Men-xabar” texnikasining o‘rni juda muhim. O‘quvchini ayblash o‘rniga o‘qituvchi o‘z his-tuyg‘ularini bayon qilishi lozim. Masalan, sinfda shovqin bo‘lganda o‘quvchilarni jazolash o‘rniga, bunday holat dars o‘tishga xalaqit berayotganini va bu o‘qituvchiga noqulaylik tug‘dirayotganini bildirish samaraliroqdir. Bu texnika o‘quvchida qarshilik ko‘rsatish hissini uyg‘otmaydi, aksincha uni mas’uliyatni his qilishga undaydi. Amaliyotda ushbu texnikani o‘yin shaklida o‘tkazish mumkin, bunda o‘quvchilar ayblovchi jumlalarni do‘stona his-tuyg‘u xabarlariga aylantirishni mashq qiladilar.

Noverbal muloqot yoki tana tili orqali muloqot qilish ham alohida tayyorgarlikni talab etadi. Muloqotning katta qismi so‘zlarsiz, ya’ni nigoh, tabassum va harakatlar orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchining ochiq va samimiy harakatlari auditoriyada ijobiy muhit yaratadi. Animatsion slaydlar yordamida turli yuz ifodalari va tana harakatlarining ma’nosini o‘quvchilarga tushuntirish ularning muloqot ko‘nikmalarini boyitadi. Ochiq kaftlar, samimiy nigoh va o‘quvchilar darajasida bo‘lish (masalan, partaga yaqinlashish) muloqotdagi iyerarxik to‘siqlarni yengishga yordam beradi. Muloqot kompetentligini oshirishda “Vaziyatli keys” usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunda o‘qituvchi hayotiy nizoli vaziyatni o‘quvchilarga taqdim etadi va ulardan ushbu vaziyatdan samarali muloqot texnikalari yordamida chiqish yo‘llarini so‘raydi. Ushbu jarayonda animatsiya orqali "to‘g‘ri" va "noto‘g‘ri" muloqot modellarini ko‘rsatish tahlilning chuqur bo‘lishini ta’minlaydi. Har bir o‘quvchi o‘zini muloqot moderatoridek his qilishi ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini jadal rivojlantiradi.

O‘quvchilar bilan samarali muloqot texnikalarini mashq qilish uzoq davom etadigan va tizimli yondashuvni talab qiladigan pedagogik jarayondir. Faol tinglash, empatiya va animatsion vositalardan darslarda muntazam foydalanish o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. O‘qituvchi muloqot madaniyatini egallashi orqali nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilar bilan mustahkam insoniy aloqa o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, muloqot texnikasi o‘qituvchining darsi mazmuni bilan bir xil darajadagi ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. G‘oziyev E.G‘. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010.

3. Saidov M. Pedagogik kommunikatsiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.

4. Gulyamov S.S. Ta’limda raqamli texnologiyalar va animatsiya metodikasi. – Toshkent, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ULUSHLAR VA KASRLAR TUSHUNCHASI

Karimova Malika Zokirovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda ulushlar va kasrlarni tushuntirish, masalalar yechishda nimalarga e’tibor berish bo‘icha fikr yuritiladi va sonning ulushini topish, ulushga ko‘ra sonni topishga doir masalalardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ulush, yarim, chorak, nimchorak, qism, kasr, surat, maxraj, butun, masala.*

O‘quvchilarni kasrlar bilan tanishtirish dasturga binoan 3-sinfdan boshlanadi. Kasrlarning hosil bo‘lishi, ularni taqqoslash, nonning ulushini topish va berilgan ulushga ko‘ra sonning o‘zini topish bilan tanishtiriladi. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog‘langan.

Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo‘laklarga bo‘lish, kesish, sindirish, maydalash orqali kelib chiqqani deyiladi. Boshlang‘ich sinfdan oldin, ya’ni maktabacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang‘ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarvuz, bodring, non va boshqalarni bir necha bo‘laklarga bo‘lib ko‘rgan va boshlang‘ich tushunchalar berilgan.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (2-4 sinflar) konkret tafakkurdan mavhum (abstrakt) tafakkurga o‘tish bosqichida bo‘ladilar. Ulush va kasr tushunchasi o‘quvchiga butun sonlar dunyosidan bo‘laklar dunyosiga o‘tish imkonini beradi. Bu mavzuni to‘g‘ri o‘zlashtirish kelgusida 5-6 sinflarda murakkab kasrlar, foizlar va proporsiyalarni tushunishga poydevor bo‘ladi.

O‘quvchilarga "teng qismlar" tushunchasini singdirish. Agar olma 2 ga bo‘linsa-yu, qismlar teng bo‘lmasa, buni "yarim" deb bo‘lmasligini tushuntirish zarur.

Maxraj: Butun narsa nechta teng bo‘lakka bo‘linganini bildiradi.

Surat: Shu bo‘laklardan nechtasi olinganini bildiradi.

1). Kvadratning tomoni 8 sm. Uni 4 ta teng qismga bo‘ling. Hosil bo‘lgan bitta kichik kvadratning yuzini toping.

2). Doirani 8 ta teng bo‘lakka bo‘ling. Ulardan 3 tasini bo‘yang. Bo‘yalmagan qismi qancha? (Javob: 5/8).

3). Uzunligi 15 sm bo‘lgan kesma chizing. Uning 1/5 qismini ko‘k qalam bilan belgilang. Qolgan qismi necha sm?

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ulushlar mavzusi o‘quvchilarda miqdor haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Metodikada asosiy qoida quyidagicha: "Butunni teng bo‘laklarga bo‘lish va ulardan bir nechtasini olish".

Masalan, bitta qog‘oz tasmasini olib, uni teng ikkiga buklash.

Nomlash: Har bir bo‘lak "yarim" yoki "ikkinchi bir ulush" deb nomlanishi.

Yozish: 1/2 ko‘rinishida ifodalash.

O‘quvchilarga sonning ulushini topish uchun "Berilgan sonni maxrajga bo‘lish va suratga ko‘paytirish" qoidasi o‘rgatiladi.

1-masala: Do‘konga 480 kg meva keltirildi. Kun davomida barcha mevalarning 1/6qismi sotildi. Necha kg meva sotilgan?

Yechish yo‘li: Jami meva (480 kg) 6 ta teng qismga bo‘lingan va shundan 1 qismi sotilgan.

Amallar: 480÷6 = 80 (kg).

Javob: 80 kg meva sotilgan.

2-masala: Tikuvchi 20 metr matoning 1/4 qismidan ko‘ylak tikdi. Necha metr mato qoldi?

Yechish yo‘li: 1. Avval ishlatilgan matoni topamiz: 20÷4 = 5 (metr).

2. Jami matodan ishlatilganini ayiramiz: 20 - 5 = 15 (metr).

Javob: 15 metr mato qoldi.

3-masala: Avtobusda 45 nafar yo‘lovchi bor edi. Bekatda yo‘lovchilarning 1/5 qismi tushib qoldi. Avtobusda necha kishi qoldi?

Yechish yo‘li:

Tushib qolganlar: 45 ÷5 = 9 (kishi).

Qolganlar: 45 - 9 = 36 (kishi).

Javob: 36 nafar yo‘lovchi qoldi.

Ulushiga ko‘ra sonning ozini topishga doir masalalar yechib ko‘ramiz.

4-masala: Sayyoh yo‘lning 1/3 qismini yurdi, bu 12 km ni tashkil etdi. Jami yo‘lning uzunligi necha km?

Yechish yo‘li: Agar yo‘lning uchdan bir bo‘lagi 12 km bo‘lsa, jami yo‘lni topish uchun 12 ni 3 ga ko‘paytirish kerak.

Amallar: 12 × 3 = 36 (km).

Javob: Jami yo‘l 36 km.

5-masala: Idishdagi sutning 1/4 qismi 250 ml bo‘lsa, idishga jami necha litr sut sig‘adi?

Yechish yo‘li: Chorak qismi 250 ml bo‘lgan sonni topish uchun 250 × 4 amali bajariladi.

Amallar: 250 ×= 1000 (ml). 1000 ml = 1 litr.

Javob: Idishga 1 litr sut sig‘adi.

6-masala: To‘garakka kelgan bolalarning 1/5 qismi, ya’ni 8 nafari qiz bolalar. To‘garakda jami nechta bola bor?

Yechish yo‘li: 5 ta qismdan biri 8 ga teng bo‘lsa, 5 tasini topamiz.

Amallar: 8 × 5 = 40 (bola).

Javob: Jami 40 ta bola bor.

Sonning kasrini topishga doir masalalarni yechishda 3-sinfda o‘rganilgan sonning ulushini topish masalasi asos bo‘lib xizmat qiladi.

7-masala. Uzunligi 10 sm bo‘lgan kesma chizilgan, 3/5 qismi necha sm ga teng? Uzunligi 10 sm bo‘lgan kesmani chizadi va uning 1/5 ulushi necha sm ekanligini 3-sinfdan biladi.

10:5=2 sm. So‘ngra kesmaning 3/5 qismini topishda 2•3=6 sm ishni bajaradi, yoki birdaniga 10: 5•3=6 sm deb bajarish ham mumkin.

8-masala. Daftar 24 betlik, o‘quvchi daftarning 5/8 qismini to‘ldiradi. Necha bet yozilmay qoldi? Masala shartining qisqacha yozuvi quyidagicha:

Bor edi - 24 bet.

Yozildi - 5/8 qismi.

Qoldi -?

Yechish. Masalani yechishda kesma tasviridan foydalanamiz. Kesmani 24 bet deb olib, uni 8 ta teng bo‘lakka bo‘lamiz va uning 5 qismini ajratamiz.

1) 24:8=3 bet

2) 3•5=15 bet

3) 24-15=9 bet yozilmadi.

Umumiy ifoda ko‘rinishda 24-24:8•5=9 bet.

Kasrlarni o‘rganishda ko‘rsatmalilik va ko‘rsatma qurollar masalasi, ayniqsa muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ulush va kasrlarni o‘rgatishda faqat darslik bilan cheklanmasdan, kundalik hayotdagi buyumlar orqali tushuntirish dars samaradorligini 40-50% ga oshiradi. O‘quvchi "yarim", "chorak", "nimchorak" kabi xalqona terminlarni ham tushuntirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova, M.M., Kasimov, A.A. (2021). On some typical problems to be solved in primary schools. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 502517.

2. Mukhammedovna, K.M. (2021). Problems of Finding Two or More Numbers from their Sum (Or Difference) and Multiple Ratios.

3. Qosimov, F.M., Qosimova, M.M. (2022). Matematikadan ijodiy o‘quv topshiriqlarining metodik xususiyatlari. boshqaruv va etika qoidalari. Onlayn ilmiy jurnali, 2(2), 206-211.

MAKTABGACHA TA’LIMDA HARAKATLI O‘YINLAR ASOSIDA SHAXSNING AXLOQIY VA IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Kodirova Muyassar Eshmamat qizi,
Chirchiq DPU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o‘yinlar orqali axloqiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish jarayonida bolalarda mas’uliyat, sabr-toqat, qat’iyat, hamkorlik va intizom kabi sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik yondashuvlar, rivojlantiruvchi muhit va o‘yin faoliyati asosida shaxsni rivojlantirish modeli taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, harakatli o‘yinlar, axloqiy sifatlar, irodaviy sifatlar, shaxs rivojlanishi, pedagogik model, tarbiya.*

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaxsning axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirish maktabgacha yosh davrida boshlanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Chunki bu davrda bolaning psixik jarayonlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari faol rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi o‘yin faoliyati hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola atrof-muhitni o‘rganadi, ijtimoiy tajriba orttiradi va shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, harakatli o‘yinlar bolaning jismoniy rivojlanishi bilan birga uning axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar bolalarda jamoada ishlash, qoidalarga rioya qilish, o‘z harakatlarini boshqarish, g‘alaba va mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qilish kabi ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida

harakatli o‘yinlar asosida shaxsning axloqiy va irodaviy sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Harakatli o‘yinlarning pedagogik ahamiyati. Pedagogika va psixologiya sohasidagi ko‘plab tadqiqotlarda o‘yin faoliyati bolaning rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘yin jarayonida bola o‘zining ichki ehtiyojlarini qondiradi, mustaqil fikrlashni o‘rganadi va ijtimoiy munosabatlarni anglay boshlaydi. Harakatli o‘yinlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: - jismoniy faollikni ta’minlash; - emotsional holatni yaxshilash; - ijtimoiy muloqotni rivojlantirish; - irodaviy sifatlarni shakllantirish.

Harakatli o‘yinlar jarayonida bolalar ma’lum qoidalarga amal qilishlari kerak bo‘ladi. Bu esa ularda intizom, mas’uliyat va sabr-toqat kabi sifatlarni shakllantiradi. Masalan, “Kim chaqqon?”, “Quvlashmachoq”, “Bayroqni olib kel” kabi o‘yinlar bolalarning tezkor fikrlashi, jasorat va qat’iyatini rivojlantiradi. Shuningdek, harakatli o‘yinlar bolalarda jamoaviylik tuyg‘usini shakllantiradi. O‘yin jarayonida bolalar bir-biriga yordam beradi, hamkorlik qiladi va umumiy maqsad sari harakat qiladi. Bu esa axloqiy tarbiyaning muhim jihatlaridan biridir.

Axloqiy va irodaviy sifatlarning shakllanishi. Axloqiy sifatlar shaxsning jamiyatda qabul qilingan me’yor va qadriyatlarga mos xulq-atvorini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi axloqiy sifatlar shakllantiriladi: - do‘stlik; - mehr-oqibat; - adolat; - hamkorlik; - hurmat.

Irodaviy sifatlar esa shaxsning maqsad sari harakat qilish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va o‘z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi irodaviy sifatlar rivojlanadi: - qat’iyat; - sabr-toqat; - mustaqillik; - intizom; - jasorat.

Harakatli o‘yinlar aynan shu sifatlarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. O‘yin jarayonida bola o‘zini boshqarishni o‘rganadi, qoidalarga rioya qiladi va o‘z maqsadiga erishish uchun harakat qiladi.

Harakatli o‘yinlar asosida shaxsni rivojlantirish modeli. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlar asosida shaxsning axloqiy va irodaviy sifatlarini rivojlantirish modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Maqsad komponenti. Bolalarda axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirish hamda jismoniy faollikni rivojlantirish.

2. Mazmun komponenti. Harakatli o‘yinlar orqali bolalarga ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdirish.

3. Faoliyat komponenti. Quyidagi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi: - harakatli o‘yinlar; - jamoaviy o‘yinlar; - sport elementlari asosidagi mashg‘ulotlar; - musobaqalar.

4. Pedagogik shart-sharoitlar. Model samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi shartlar muhim: - rivojlantiruvchi o‘yin muhiti yaratish; - pedagogning metodik tayyorgarligi; - bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; - o‘yin jarayonida ijobiy motivatsiyani shakllantirish.

5. Natija komponenti. Natijada bolalarda quyidagi sifatlar rivojlanadi: - jamoaviylik: - mas’uliyat; - qat’iyat; - intizom; - ijtimoiy faollik.

Modelni amaliyotga joriy etish bosqichlari. Harakatli o‘yinlar asosida shaxsni rivojlantirish modelini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin: *1-bosqich – diagnostika.* Bolalarning axloqiy va irodaviy sifatlari darajasini aniqlash. *2-bosqich – rejalashtirish.* Harakatli o‘yinlar majmuasini ishlab chiqish. *3-bosqich – amalga oshirish.* O‘yin mashg‘ulotlarini tizimli ravishda tashkil

etish. *4-bosqich – tahlil.* O‘yin faoliyati natijalarini baholash va pedagogik xulosalar chiqarish.

Xulosa. Maktabgacha yosh davri shaxsning axloqiy va irodaviy sifatlari shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Harakatli o‘yinlar bu jarayonda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan birga ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qadriyatlari va irodaviy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish, shuningdek, pedagogik model asosida tashkil etish bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan model maktabgacha ta’lim amaliyotida qo‘llanilganda bolalarda mas’uliyat, hamkorlik, qat’iyat va intizom kabi muhim sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Aripova S.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Kodirova, Muyassar. (2025). Harakatli o‘yinlar orqali tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirish. 320-325.
4. Kodirova, Muyassar. (2024). Yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv. 66-70.

BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MATN USTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH USULLARI

Mambetaminov Nurlibay Mambetsapayevich,
Nukus shahri Nukus DPI o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o‘rgatish orqali ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Matn ustida ishlashga o‘rgatish muallifning o‘sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo‘lini qayta bosib o‘tish, fikr-mulohazalari, hissiyot va xulosalariga sherik bo‘lishga tayyorlash asosida ma’naviy yetuklikka erishishga qaratilishi haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *matn, tahlil, o‘qish, sharh, memuar, kirish mashg‘ulotlari.*

O‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi va bilimini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘quv materialidagi asosiy va muhim jihatlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishda ularni matn ustida ishlashga o‘rgatish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, avvalo, matn tushunchasining o‘zini izohlash zarur.

“Matn” atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “nutqning yozuvdagi ifodasi; tekst; yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi” tarzida ta’rif beriladi [3; 557-b.]. Shunga ko‘ra, matnlarni mazmunan badiiy, rasmiy, ilmiy, publisistik kabi turlarga bo‘lish mumkin. Ularning har biri o‘z tuzilish va mazmuniga qarab yondashishni taqozo etadi. Matn ustida ishlash asarni o‘rganishning o‘ziga xos ko‘rinishi, asosiy shakli bo‘lib, ijodiy tadqiqot xarakteriga ega. Matn ustida ishlash metodikasi adabiy ta’limning o‘zak masalalaridan hisoblanishi bejiz emas. U o‘quvchilarning asar mazmun-mohiyatini o‘zlashtirishlariga erishish hamda matn tahlili vositasida o‘quvchilarni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash kabi ikki maqsadni nazarda tutadi. Badiiy matnga, bir tomondan adabiyotshunoslik ilmi va pedagogik nuqtayi nazardan yondashilishi zarurati hamda uni shaklan va mazmunan quyidagi bosqichlarda o‘rganishni taqozo etadi: 1. Badiiy matn

ustida ishlashda kirish mashg‘ulotlari. 2. Badiiy asarni o‘qish. 3. Badiiy asarni tahlil qilish. 4. Badiiy matn ustida ishlashda yakunlovchi mashg‘ulotlar.

Matn ustida ishlash mohiyat e’tibori bilan asar mazmunini o‘zlashtirish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi. O‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligidagi bu faoliyat matnni ravon, to‘g‘ri, tez tushunib, ifodali, ijodiy o‘qish, qayta hikoya qilish, asar mazmuniga doir rasmlar chizish, ayrim lavhalarga sarlavhalar topish, epigraflar tanlash, reja tuzish, berilgan mavzu bo‘yicha badiiy asar, darslik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish (tezis tuzish, ko‘chirmalar olish, konspektlashtirish), yozuvchining o‘ziga xos ijodiy uslubini aniqlash, bayon, insho, taqriz, ma’ruza matni, referat yozish, ikki yoki undan ortiq asarlarni mavzusiga ko‘ra va g‘oyaviy-badiiy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma bayon etish, sahnalashtirilgan yoki ekranlashtirilgan asarlarning ijrochilari mahoratini baholash kabi g‘oyat muhim masalalar doirasida ish ko‘radi.

Badiiy matn boshqa turdagi, masalan, ilmiy matndan obrazliligi bilan farqlanadi. Ilmiy matnni tushunish uchun ma’lum darajada bilim, ko‘nikma, malaka talab qilingani kabi badiiy matnning mag‘zini chaqish ham jiddiy mehnattalab ishdir. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari, tarixiy-badiiy matnlarni o‘qituvchilarning maxsus izohisiz tushuntirish mushkul. Chunki o‘qituvchi matndagi so‘z va iboralarni o‘z tushunchasidagi mavjud so‘z va iboralar orqali qabul qiladi. O‘qimishli kishilarning lug‘at boyligi o‘rtacha o‘n-o‘n ikki ming so‘zdan iborat bo‘lishi nazarda tutilsa, o‘quvchilar nutqining chegaralanganini sezish qiyin emas. Demak, ularning badiiy asardagi nafosatini his etishlari, idrok qilishlari, matn tagzaminidagi ma’noni anglashlari o‘qituvchi yordamisiz qiyin kechadi. Bu esa o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatishda yozuvchilarning o‘ziga xos hayot va ijod yo‘li, asarlarining yaratilish tarixi, adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni, tarixiy qahramonlar taqdiri, joy nomlari haqidagi ma’lumotlardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Bunday ma’lumotlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Devoni hikmat”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” singari mumtoz adabiyot namunalari ustida ishlashda ham, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Fitratning “Abulfayzxon”, Abdullar Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” kabi XX asr o‘zbek adabiyoti asarlari bilan tanishishda ham, Sofoklning “Shoh Edip”, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” singari jahon adabiyoti durdonalarini o‘rganish chog‘ida ham yaxshi samara beradi.

O‘qituvchi bu xildagi ma’lumotlarni yozuvchilarning asarlaridan, tarjimayi hollaridan, ular to‘g‘risidagi badialardan, tarixiy, ilmiy-ommabop asarlardan, maxsus albomlardan, zamondoshlari xotiralaridan olishi mumkin. Boburning “Boburnoma”, Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Nasimxon Rahmonning “Turk hoqonligi”, Xayriddin Sultonovning “Boburning tushlari”, Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”, “Abdulla Qodiriyning so‘nggi kunlari”, shuningdek, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda va boshqa yozuvchilar zamondoshlari xotiralari ana shunday mo‘tabar manbalar sirasiga kiradi.

Matn ustida ishlash yuzasidan mashg‘ulotlarida, zarurat sezilganda, yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish doir ma’lumotlar berish samarali usullaridan hisoblanadi. Chunonchi, yozuvchi tarjimayi holi uning ijodi uchun eng yaxshi samaradir. Yozuvchi tarjimayi holini o‘rganishda o‘quvchilarni uning o‘zi yashab ijod etgan

davrdagi ijtimoiy hayot va tarixiy muhitga munosabati bilan tanishtirish ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saltanatida, A.S.Pushkin va L.N.Tolstoyning Rossiya kiborlar jamiyatida, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va Hamzalarning asrimiz boshlaridagi milliy uyg‘onish harakatiga tutgan mavqelari sharhlangandagina ularning ijodi chuqur o‘zlashtirilishi mumkin. Bunday sharhlar, ayniqsa, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad va Shukrullo kabi qatag‘onga uchragan yozuvchilarning hayoti va ijodini o‘rganishda katta naf keltiradi.

“Yozuvchini, – deb qayd etgan edi A.Qodiriy, – garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o‘qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g‘oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida o‘z tabiatini, ruhini tasvirlaydi” [1; 140-b.].

Yozuvchi shaxsiyati, dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati esa uning ijodiy o‘ziga xosligida aks etadi. Negaki, bir qalamkashga mansub asarlar o‘zaro shakl va mazmun jihatdan farqlansa-da, ularni muallifning ijodiy o‘ziga xosligi birlashtirib turadi. Ijodiy o‘ziga xoslikni bir yozuvchining turli asarlarini o‘zaro taqqoslash orqali ham, boshqa yozuvchining asarlariga qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, Usmon Nosirning ijodiy yo‘li tahlil markaziga qo‘yilganda, uning o‘ziga xosligini “Yur, tog‘larga chiqaylik!”, “Yo‘lchi”, “Yurak” she’rlarini o‘zaro chog‘ishtirish yoki Hamzaning “Yig‘la, Turkiston!” H.Olimjonning “Holbuki tun”, G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan” she’rlariga taqqoslash yordamida tushuntirsa bo‘ladi. Ko‘rinadiki, o‘quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga tayyorlashda yozuvchilarning hayoti va ijodiy yo‘liga oid shu xildagi ma’lumotlar muhim yo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Adabiyot o‘quv dasturlarida Boburning “Boburnoma” kabi memuar xarakterdagi asarlar ham borki, ularning janr xususiyatlarini tushuntirmasdan turib, matn ustida ishlash ko‘zlangan natijani bermaydi. Memuar janrida qalam tebratuvchi ijodkorlar, xususan, aktyorlar, davlat va jamoat arboblari, olimlar, tarixchilar, adabiyotchilar, harbiylar ko‘proq kundaliklar, har xil yozishmalar, gazeta-jurnal materiallari va boshqa hujjatlarga suyansalar, adiblar xotirasida qolgan voqea-hodisalarga badiiy tus beradilar. Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” kabi asarlari badiiy o‘qimishli memuarlardan hisoblanadi.

Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyotidagi memuarlarning mumtoz namunasidir. Unda Bobur siymosi o‘quvchi ko‘z o‘ngida tarixchi olim, geografiya bilimdoni, zukko adabiyotchi, mohir sarkarda, realist yozuvchi, hassos lirik shoir sifatida gavdalandi. Memuarlar xarakter xususiyatlariga ko‘ra tarixning bugungi kunimizga daxldor bo‘lgan, qayta jonlangan ibratli sahifalaridir. U tarix guvohnomasi, hujjatliligi, ayni choqda badiiyligi bilan boshqa janrdagi asarlardan ajralib turadi. Lekin tarixiy haqiqat bilan memuar hamisha bir xil emas. Buni biz Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ayrim memuarlarda yozuvchining badiiy to‘qimasi alohida o‘rin tutadi. Bunday hollarda badiiy to‘qimaga keng o‘rin berilgani o‘sha asarlarning kamchiligi bo‘lmay, balki o‘ziga xos xususiyatidir. Chunki memuarlarda qahramonlarning shunchaki ko‘rgan-kechirganlari emas, balki taniqli so‘z san’atkorlarining o‘z o‘tmishlari vositasida hayotga, mavjud jamiyatga munosabatlari ifodasi bo‘lgani uchun turli yoshdagi kitobxonlarda qiziqish uyg‘otadi.

Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni o‘rganish va idrok qilishda ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash muhim o‘rin tutgani kabi ba’zi asarlar matnini o‘rganishga oid kirish mashg‘ulotlarida ularning yaratilish tarixiga doir ma’lumotlarni keltirish ham

yaxshi samara beradi. Umumjahon adabiyotiga katta hissa qo‘shgan Alisher Navoiy, Uilyam Shekspir, Jonatan Svift, Viktor Gyugo, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Ernest Xemenguey, Chingiz Aytmatov va boshqa so‘z san’atkorlari ijodidan bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, I.S.Turgenev “Asya” qissasining yaratilish tarixi to‘g‘risida bunday hikoya qiladi:

“Reyn daryosi bo‘yidagi chog‘roqqina shaharchada to‘xtadim. Qiladigan ishimning tayini bo‘lmagani sababli kechqurun qayiqda tomoshaga chiqdim. Oqshom fayzli edi. Qayiqda hech narsa haqida o‘ylamasdan, yoqimli havodan to‘yib-to‘yib nafas olgancha chor atrofni kuzata boshladim. Tashlandiq jar yoqasidan o‘tayotib, uning yonginasidagi ikki qavatli mo‘jaz uyga ko‘zim tushdi. Uyning pastki qavat derazasidan bir kampir tashqarini kuzatar, yuqoridagi derazadan xushro‘ygina qizning boshi ko‘rinar edi. Menda to‘satdan alohida bir kayfiyat tug‘ildi. Qizning kimligi, qanaqaligi, nima uchun bu uychada turishi, kampirga nima aloqasi borligi haqida xayolga cho‘mdim. Natijada shu yerda, qayiqning o‘zidayoq qissaning fabulasi tayyor bo‘ldi”.

Bunday ma’lumotlar o‘zbek adabiyoti namoyandalari tarjimayi hollarida ham ko‘p uchraydi. Masalan, 10-sinfda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tarixiga doir quyidagi hikoya keltirilsa, o‘quvchilarning asar sujeti va kompozitsiyasini tushunishlari osonlashadi:

“Qariyb yarim umrini xon zamonlarida yashagan, talay o‘tmish voqealarining shohidi bo‘lgan otam yoshligimda qiziq-qiziq xotiralarni so‘zlab berardi. Bu xotiralar menda tarixga qiziqish uyg‘otdi. So‘ngra o‘sha davrimiz tarixiga oid ancha kitoblar bilan ham tanishib chiqdim. Qo‘lim qalamga xiyla kelib qolgach, menda ana shu o‘tmishimizdan G‘arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasi tug‘ildi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko‘p ediki, go‘yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog‘ozga tushirishni tasavvur qila olmasdim. Uzoq vaqt o‘ylab, izlab yurdim.

Kunlarning birida bog‘imizga, otamni ko‘rgani eshak minib shahardan bir chol mehmon bo‘lib chiqdi. Mehmonni men tanimasdim. U otamning eski qadrdoni ekan. Mehmon qildik. Otam shu choqlarda yuz yoshlarda bo‘lib, mehmon esa undan besh-o‘n yosh kichik ko‘rinar edi. Ular suhbat qilarkan, quloqlari og‘irlashib qolgani uchun bir-birining so‘zlarini yaxshi eshitolmas edi. Shu sababli menga ular o‘rtasida tilmoch bo‘lib choy quyib o‘tirishga to‘g‘ri keldi. Otam mehmondan so‘radi: “Andijondagi xotiningizdan nechta bolangiz bor?”. Ularning suhbatidan men angladimki, bu mehmon toshkentlik bo‘lib, uyli-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik chog‘larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u yerda uylanib, ko‘p yillar istiqomat qilgan, Andijondan ham uylanib, bola-chaqali bo‘lgan va keksaygach, o‘z shahriga qaytib kelgan ekan. Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday bo‘ldi. Shu asosda boshimda voqeani asta-sekin kengaytira, rivojlantira boshladim. Besh-olti oylab xayol surishim natijasida romanim hozirgi shaklga keldi va qo‘limga qalam oldim” [1; 146-b.].

Xulosa qilganda, matn ustida ishlashga oid kirish mashg‘ulotlari dars jarayonidagi mustaqil ishlarning ilk bosqichi hisoblanadi. U o‘z ichiga yozuvchilarning hayoti va ijodi, o‘z davriga munosabati, ijtimoiy, axloqiy-estetik qarashlari, adabiy-tarixiy muhit, o‘rganilyatgan asarning yaratilish davri, tarixi, adabiy qahramonlar taqdiri haqidagi ma’lumotlar bilan birga tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘z va iboralar, hikmatlar, tarixiy shaxslar, joy nomlari sharhi kabi masalalarni qamrab oladi. Bunday mashg‘ulotlarda beriladigan bilimlar badiiy asar matnidagi obrazlilikni his etish, anglash va chuqur tushunishga, ma’nosini o‘zlashtirishga yo‘l ochadi, fikr uyg‘otadi. Bu borada metodist

olim A.Zunnunov ta’kidlaganidek, “mahorat bilan tashkil etilgan har bir kirish mashg‘uloti navbatdagi mashg‘ulotni muvaffaqiyatli o‘tkazishga zamin yaratadi, o‘quvchilarni asarni badiiy idrok etishga tayyorlash, ularni o‘rganilayotgan masalaga nisbatan qiziqish tuyg‘usini qo‘zg‘atish uchun ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi” [2; 134-b.]. Zero, adabiy ta’lim samaradorligiga erishish ko‘p jihatdan o‘quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga bog‘liq. Chunki chuqur tushunilgan, anglangan asargina kishini befarq qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashiriyoti, 1986. – 172 b.

2. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 329 b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashiriyoti. 1998. – 672 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Mansurova Sehriyo Sharofiddin qizi.
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Talim-tarbiya nazariyasi va metodikasi 1-bosqich magistranti.
Masharipova Umida Abduvoxidovna,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU professori. Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutq faolligi va ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekani ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanadi. Shuningdek, ona tili darslarida qo‘llaniladigan ayrim interfaol metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, interfaol metodlar, boshlang‘ich ta’lim, ona tili darsi, pedagogik texnologiyalar, ijodiy tafakkur.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal eta olish kompetensiyalarini shakllantirishdir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa shaxsning intelektual rivojlanishi, nutq madaniyati hamda tafakkur jarayonlari shakllanadigan eng muhim muhim davr hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlashinirivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Ona tili darslari o‘quvchilarning fikrini ifodalash, nutqini boyitish va tafakkurini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. An’anaviy dars usullari ko‘pincha o‘quvchilarning faolligini to‘liq ta’minlay olmaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogika fanida interfaol metodlardan foydalanish muhim pedagogik yondashuv sifatida qaralmoqda. Interfaol metodlar o‘quvchilarningdars jarayonida faol ishtirok etishini hamda darslarning yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Asosiy qism. Kreativ fikrlash – bu shaxsning yangicha g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yondashish hamda mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llay

olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bunday fikrlarni shakllantirish kelajakdagi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli o‘qish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qo‘llanmada kreativ shaxsni tayyorlash quyidagicha ta’rif berib o‘tilgan.

“Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni”. [1; 12-b.]

1-sinf ona tili darsligida o‘quvchilarning kreativ va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlarni keltirib o‘tamiz. [2]

1-sinf o‘quvchilarining 1-qism ona tili darsligida jami 152 ta mashq berilgan bo‘lib,ulardan 23 tasi ijodiy va kreativ qobiliyatlarni shakllantirishga doir mashqlar hisoblanadi.

1-sinf, 1-qismning 27-mavzusi: So‘z. So‘z ma’nosi. Bu mavzuning 1-mashq shartida kreativ va ijodiy fikrlashga oid topshiriq bajariladi.

Matn sharti: matnda nimalarni ko‘ryapsiz? Ularning ma’nosini ayting. Rasmdagi narsalar belgisini ayting? Rasmdagi narsalar harakatini ta’riflang. Mushuk, baliq va akvarium rasmi berilgan.

Quyidagi so‘zlardan foydalanib matn tuzing: So‘zlar aralash holda berilgan.

Tuzgan matningizga sarlavha qo‘ying va yozing: 1) O‘quvchi rasmdagi narsalarni kuzatadi, tasavvuri ishlaydi. 2) So‘zlar berilgan, lekin matnni o‘zi tuzadi. Ijodiy fikrlash talab etiladi. 3) Sarlavha qo‘yish – ijoyiy yondashuv va mustaqil qaror orqali tarkib topadi.

O‘quvchilarga darslikda berilgan mantlarni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini 1-sinfdan o‘gatib, ko‘nikma hosil qilib boriladi. Matnga mos turli xilijodiy topshiriqlarning berilishi o‘quvchilarda mavzuni chuqurroq anglab olishlariga katta ko‘mak beradi. “Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizmi.” [1; 12-b.]

Dars jarayonida o‘quvchi uchun tushunarsiz yoki biroz qiyin bo‘lgan mavzularni ijodiy topshiriqlar asosida tushuntirish mumkin. Masalan, o‘quvchilarga yosh xususiyatiga qarab ijodiy topshiriq berish muhimdir. Bu jarayonda besh gapdan iborat mant tuzing. Matnga sarlavha tanlang. Gapdagi sifatlarni o‘zi bog‘langan ot bilan ajratib ko‘rsating. Sifat yasovchi qo‘shimchalarni belgilang. Bu topshiriq o‘quvchilarni kreativ fikrlashga va ijodiy yondashuvga undaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ona tili darslari o‘quvchilarning matn ustida ishlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali natija bermoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchining pedagogik mahorati va metodik tayyorgarligi mazkur jarayonning muvaffaqqiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

“Ona tili o‘qitishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi faaoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta’lim tizimining takomillashuvi bilan bog‘liq holda rivojlanib bormoqda”. [3; 158-b.]

Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Jumladan, “Aqliy hujum”, o‘quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar muayyan mavzu yuzasidan turli g‘oyalarni ilgari suradilar va ularni muhokama qiladilar. Bu jarayon o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirib, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim”. [4; 4-b.]

“Klaster” metodi esa mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi.O‘quvchilar tushunchalarni tarmoqlarga ajratish orqali mavzuni chuqurroq anglaydilar va tizimli fikrlashga o‘rganadilar. Bundan tashqari, bliss-so‘rov, “Rolli o‘yin”, “Insert”, “Bumerang”, kabi metodlar ham o‘quvchilarning nutq faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular o‘quvchilarni jamoa bilan ishlashga o‘rgatadi. Guruhli faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etish, boshqalarning fikrlarini tinglash hamda muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Natijada o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhiti shakllanadi. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratini ham talab etadi. O‘qituvchi dars jarayonini puxta rejalashtirishi, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashi hamda ularning fikrlarini qo‘llab quvvatlashi zarur.

Interfaol metodlar asosida tashkil qilingan darslar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etib, mustaqil ravishda fikr yuritishga harakat qiladilar. Bu esa ularni mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, interfaol metodlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu metodlarni tizimli va ilmiy asosda qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish hamda boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minlash mumkin. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ona tili darslari o‘quvchilarning mavzu va berilgan matnlarning mohiyatini yanada yaxshi anglashiga yordam beradi. Darslarning qiziqarli va sifatli o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova B.E., Kreativ pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya va Ziyo”, – 2022, 316 b.
2. Yuldasheva D.Sh. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 96 b.
3. S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi. / Darslik. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 304 b.
4. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 116 b.

TA’LIM KLASTERI – BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TA’MINLOVCHI INTEGRATSION TA’LIM MUHITI

Maripova Nodira Xamidovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgach va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim klasteri tushunchasi, uning maktabgacha ta’lim tizimida o‘rni hamda bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ta’lim klasterining integratsion mihiti sifatida imkoniyatlari, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik*

texnologiyalarni joriy etish orqali tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim klasteri, innovatsion faoliyat, maktabgacha ta’lim, integratsiya, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetentsiya, bo‘lajak tarbiyachi.*

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish hamda zamonaviy pedagoglarni tayyorlash dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuvlar, integratsion hamkorlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim klasteri modeli ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, ishlab chiqarish subyektlari hamda ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga xizmat qiladi. Ta’lim klasteri bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun qulay integratsion muhitni yaratadi. Ta’lim klasteri – bu ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar, amaliyot bazalari va boshqa hamkor tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro integratsiyalashgan hamkorlik tizimi hisoblanadi. Ta’lim klasterining asosiy maqsadi: - ta’lim sifati va samaradorligini oshirish; - pedagog kadrlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash; - nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash; - innovatsion faoliyatni rivojlantirishdan iborat.

Ta’lim klasteri modeli ta’lim jarayonida quyidagi integratsiyani ta’minlaydi: - ilm-fan va ta’lim integratsiyasi; - ta’lim va amaliyot integratsiyasi; - innovatsion faoliyat va pedagogik tajriba integratsiyasi.

Ta’lim klasteri faoliyatini samarali tashkil etish natijasida ta’lim tizimida bir qator ijobiy pedagogik va ilmiy natijalarga erishiladi. Ya’ni, ta’lim sifati va samaradorligi oshadi, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlanadi, nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanadi, innovatsion pedagogik faoliyat rivojlanadi, ta’lim tizimida hamkorlik muhiti shakllanadi. Umuman olganda, ta’lim klasteri modeli ta’lim tizimining integratsiyalashgan rivojlanishini ta’minlab, pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshiradi, innovatsion faoliyatni rivojlantiradi hamda nazariya va amliyot uyg‘unligini mustahkamlaydi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan nafaqat puxta nazariy bilimlarga ega bo‘lish, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun innovatsion yondashuv, kreativ fikrlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko;nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu bois, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Bo‘lajaka tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi: - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish; - innovatsion metod va usullarni amaliyotga qo‘llash; - kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; - pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Ta’lim klasterti esa ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta’lim klasteri bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida muhim integratsion muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur muhit ta’lim, ilm-fan va amaliyot o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni ta’minlab, pedagog kjadrlarni kompleks yondashuv asosida tayyorllashga xizmat qiladi. Ta’lim klasteri doirasida nazariy bilimlar, amaliy tajriba hamda innovatsion pedagogik faoliyat o‘zaro uyg‘unlashadi. Ushbu untegratsion muhitda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi: - nazariya va

amaliyot integratsiyasi; - innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish; - ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish; - kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish.

Ta’lim klasteri asosida innovatsion pedagoglarni tayyorlash yo‘nalishlari. Bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni ta’lim klasteri doirasida kompleks va tizimli yondashuv asosida tashkil etiladi. Ushbu jarayon pedagog kadrlarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ta’lim klasteri sharoitida nazariy bilimlar, amaliy faoliyat va innovatsion pedagogik tajribaning o‘zaro integratsiyasi ta’minlanib, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi yanada takomillashtiriladi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi: 1. Ta’lkim jarayonini raqamlashtirish. 2. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. 3. Amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish.

Talabalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amaliy faoliyatni kengaytirish.

1. Innovatsion metodlarni qo‘llash. Ta’lim jarayoinda interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va kreativ yondashuvlardan foydalanish.

2. Hamkorlik va tajriba almashish. Oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ilmiy markazlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim klasteri bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda muhim integratsion muhit hisoblanadi. U ta’lim, ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, pedagog kadrlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga xizmat qiladi. Ta’lim klasteri asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantiradi, innovatsion fikrlashni shakllantiradi va maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov O.A., Nazarov Sh.Q. Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. - 2012.
2. Hasanboeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – T.: Fan, 2019
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. “INNOVATSIYA – ZIYO” 2019.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. — T.: O‘qituvchi, 2020.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Maripova Nodira Xamidovna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Sotiyeva Sevara Sobirjon qizi,
Imomaliyeva Dilnavoz Ixtiyorjon qizi,
Kurbonova Dilnavoz Sobirjon qizi,
Chirchiq DPU “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma va statistik metodlardan foydalanildi. Natijalar*

differensial yondashuv, individual rivojlanish rejalari hamda interfaol metodlar inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Shuningdek, tarbiyachilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil ekani aniqlandi.

***Kalit so‘zlar**: inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik yondashuvlar, differensila ta’lim, individual rivojlanish rejasi, pedagogik metodlar.*

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim konsepsiyasiga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarga, ularning jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlaridan qat’iy nazar, teng ta’lim olish imkoniyatini yaratishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ta’limning insonparvarlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi hamda har bir bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribada inklyuziv ta’lim UNESKO va UNICEF kabi tashkilotlar tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. 1994 – yildagi qabul qilingan Salamanca dekloratsiyasi inklyuziv ta’limni rivojlantirishning muhim hujjatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatda barcha bolalar uchun moslashuvchan va qulay ta’lim muhitini yaratish zarurligi ta’kidlangan.

Maktabgacha yosh davri bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy moslashuv, mustaqillik va bilishga bo‘lgan qiziqish shakllanadi. Shu sababli inklyuziv ta’limni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali tashkil etish pedagogik jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Inklyuziv ta’limkonsepsiyasi bolalarning jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlaridan qat’i nazar, ularni umumiy ta’lim muhitiga jalb qilishni nazarda tutadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarda ijtimoiylashuv, nutq rivoji, ijodiy faoliyat va bilish jarayonlari faol shakllanadi. Shu sababli inklyuziv ta’limni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samarali tashkil etish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta’lim sharoitida tarbiyachi tarbiyaviy jarayonni barcha bolalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etishi zarur. Bunda differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.Differensial ta’lim bolalarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim jaraayonida individual rivojlanish rejalari (Individual Education Plan-IEP) muhim ahamiyatga ega. Ushbu reja maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi hamda bolalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’limda interfaol pedagogik metodlardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. O‘yin texnologiyalari, guruhli faoliyat, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va loyiha faoliyati bolalarning ijtimoiy faolligini oshrishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’limda interfaol pedagogik metoddlardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. O‘yin texnologiyalari, guruhli faoliyat, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va loyiha faoliyati bolalarning ijtimoiy faollgini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni samaarali tashkil etishda tarbiyachilarning professional kompetentsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi nafaqat pedagogik bilimlarga, balki maxsus pedagogika va bolalar psixologiyasi bo‘yicha ham yetarli bilimga ega bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim muhitini yaratishda maktabgacha ta’lim

tashkilotining moddiy-texnik bazasi, metodik ta’minoti hamda ota-onalar bilan hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish va ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, inklyuziv ta’liom maktabgacha ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, barcha bolalar uchun teng ta’lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi. Maktabgacha yosh davrida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish bolalarning ijtimoiylashuvi, mustaqil fikrlashi hamda bilish faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Inklyuziv ta’lim jarayonida differensial yondashuv, individual rivojlanish rejalari hamda interfaol pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tarbiyachilarning professional kompetentsiyasini rivojlantirish, ta’lim muhitini moslashtirish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi. Natijada har bir bolaning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan qulay va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Ch. 2022.
2. N.B.Goipova. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika. Namangan. - 2024.
3. Armstrong, D., Armstrong, A. C., & Spandagou, I. (2011). Inclusive education: International policy and practice. Sage Publications.
4. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). Index for inclusion: Developing learning and participation in schools (3rd ed.). Centre for Studies on Inclusive Education.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Matkarimova Dilnavoz G‘ayratovna,
Chirchiq DPU mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari, metod va vositalari hamda ularni takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va integrativ texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati hamda ijodiy faoliyati rivojlantirilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodkorlik, kreativ fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv.*

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojining muhim davri bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Ijodkorlik – bu yangicha g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yechim topish va mustaqil fikrlash qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu sifatlarni rivojlantirish uchun an’anaviy metodlardan tashqari zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zarur. Ijodkorlik ko‘nikmalarining pedagogik mohiyati sifatida quyidagi komponentlarni olishimiz mumkin: divergent fikrlash, ya’ni bir nechta yechim topish qobiliyati, tasavvur va fantaziya, muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil qaror qabul

qilish. Psixolog olim Lev Vygotsky ta’kidlaganidek, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va faoliyat jarayonida yuzaga keladi. Bundan ma’lumki, ijodkorlik ham ta’lim jarayonida shakllantiriladi. Shuningdek, Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, bolalar faol o‘rganish orqali bilimlarni o‘zlashtiradi, bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ijodkorlikni rivojlantiruvchi metodlarni ko‘rib chiqamiz:

interfaol metodlari - bular: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Sinkveyn”, Rolli o‘yinlar. Bu metodlar o‘quvchilarning erkin fikrlashini rag‘batlantiradi;

muammoli ta’lim texnologiyasida muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarda izlanish, tahlil qilish va yangi yechim topish ko‘nikmalari shakllanadi;

integrativ yondashuv: boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini fanlararo bog‘liqlikda o‘qitish orqali ijodkorlik rivojlanadi.

STEAM yondashuvi – STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishni takomillashtirish maqasadida *birinchidan,* individual yondashuvni kuchaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunku bunda har bir o‘quvchining qobiliyati inobatga olinadi. *Ikkinchidan,* raqamli texnologiyalardan foydalanish. Chunki multimedia, interaktiv platformalar orqali ijodiy topshiriqlar beriladi. *Uchinchidan,* o‘yin texnologiyalarini joriy etish zarur, sababi gamifikatsiya orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshadi. *To‘rtinchidan,* loyiha asosida o‘qitish ya’ni Project-based learning. Bu insonda mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni rivojlantiradi. Beshinchidan esa refleksiya va baholash tizimini takomillashtirish. Bunda o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishiga imkoniyat yaratiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslar natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi oshadi, ijodiy yondashuv kuchayadi, darsga qiziqish ortadi hamda bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu jarayonni takomillashtirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish zarur. Natijada, o‘quvchilarning kreativ tafakkuri rivojlanib, ular kelajakda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborova O., Usmonova Q. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Zebo prints”, 2025

2. Jabborova O., Umarova Z., Babaxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Darslik. – Toshkent: “Malik co print”, 2021

3. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: "Iste’dod", 2008

ШКОЛА, СЕМЬЯ, ОБЩЕСТВО И ИХ СОВМЕСТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Махмадалиева Озода Сайфулло кизи,
Исмоналиева Зарина Шухратовна,
Курбанова Азиза Кахрамон кизи,
Студентки 4-го курса Чирчикского ГПУ факультета «Дошкольное и начальное образование».
Очилов Фариддун Изатуллоевич,
Старший преподаватель Чирчикского ГПУ, д.ф.п.н (PhD).

***Аннотация**. В данной статье рассматривается взаимосвязь школы, семьи и общества. Подчёркивается их взаимодействие, виды сотрудничества между ними, а также необходимость совместной деятельности между школой, семьей и обществом в образовании учащихся.*

***Ключевые слова:** школа, семья, общество, образование, воспитание, общение, учитель, ребёнок, родители, сотрудничество, прогресс.*

Роль семьи в развитии человека несравнима. Семья, школа, государство играют значительную роль в воспитании каждого человека. Каждое из этих учреждений по отдельности не способно полноценно выполнять роль позитивного фактора, влияющего на формирование личности ребёнка. Полноценный и системный образовательный процесс возможен только при непрерывном взаимодействии трёх взаимосвязанных сфер воспитания. Центральную и объединяющую роль в организации этого процесса выполняет школа. [3; с. 102]. Наш выдающийся мыслитель Мирзо Улугбек отмечал важную роль воспитания и писал: «В семье родители, особенно образованные, проявляют особую заботу о своих детях. Им следует уделять особое внимание своему развитию как истинных людей» [2].

Таким образом важно, чтобы каждый родитель уделял больше внимания воспитанию своих детей, проявляя к ним особое внимание. Необходимо уделять время обучению их манерам и не допускать их сближения с плохими людьми. Только в этом случае дети вырастут достойными людьми, которые будут приносить честь своим родителям и служить на благо своей страны, а их лица будут озарены светом достоинства. Взгляды нашего великого мыслителя Алишер Навои на воспитание нашли отражение почти во всех его произведениях. Так, в произведении «Хайратул-аброр» он раскрывает основные принципы воспитания и придаёт особое значение формированию личности ребёнка. Ребёнок в этих взглядах описывается как «свет счастья». [1]

Таким образом, ребёнок является источником счастья и благополучия семьи. Эта мысль отражает идею о том, что при правильном воспитании в семье ребёнок сможет успешно найти своё место в жизни и достичь личного счастья. Антон Макаренко отмечал, что самым простым и естественным связующим звеном между школой и семьёй является сам ученик. Особенность этого способа заключается в его активности: ребёнок принимает требования учителя и переносит их в семейную среду, реализуя их в повседневной жизни.

Наш народ, обладающий богатой и многовековой историей, имеет огромное наследие в сфере образования и воспитания. Это духовное и культурное богатство

служит основой для воспитания современного поколения в духе гуманизма, любви, целеустремлённости, патриотизма и высокой нравственности.

В современном обществе на родителей возлагается большая ответственность за воспитание детей, за получение ими качественного образования в соответствии с мировыми стандартами, овладение профессией и становление гармонично развитой личности. Основы образования и воспитания закладываются именно в семье [4]. Учитель и классный руководитель посещают дом ученика, чтобы получить более полное представление о его семейной среде и условиях воспитания. Такой визит является важным событием как для самого ученика, так и для его родителей. Он создаёт возможность для непосредственного общения между школой, семьёй и ребёнком. Однако если учитель приходит домой только для того, чтобы вызвать родителей в школу или пожаловаться на ученика, это нельзя считать правильным подходом.

Одной из наиболее значимых форм сотрудничества между школой и семьёй является родительское собрание. На таких встречах обсуждаются важные вопросы обучения и воспитания, а также намечаются пути устранения существующих недостатков. Тематика родительских собраний может быть разнообразной: «Как учится ваш ребёнок?», «Поговорим о детских увлечениях», «После школы», где родители делятся информацией о том, чем занимаются их дети в свободное время, а также «На пороге самостоятельной жизни». Мнения родителей при этом можно сопоставлять с ответами самих учащихся, высказанными на классных собраниях.

Школа и семья выступают надёжными партнёрами в решении общей задачи воспитания подрастающего поколения. Их сотрудничество должно строиться на основе взаимного уважения, доверия и взаимопонимания.

В последние годы к воспитательной работе всё активнее подключаются общественные организации. Различные учреждения и объединения привлекают школьников к общественно полезной деятельности, организуют социальные проекты и оказывают поддержку детям, оказавшимся в сложных жизненных обстоятельствах. С целью профилактики правонарушений среди подростков при органах самоуправления населённых пунктов создаются специальные общественные посты. Значительную часть просветительской и профилактической работы проводят добровольческие группы, представители правоохранительных органов и другие социальные структуры.

Преимущество уникального органа самоуправления махалли заключается в том, что его жители на протяжении многих лет живут рядом, хорошо знают друг друга и осведомлены об условиях жизни семей. Это помогает лучше понимать особенности воспитания каждого ребёнка, а также учитывать положение, возможности и влияние его родителей в данном обществе.

План сотрудничества между семьёй, школой и махаллёй может включать следующие направления: - организация образовательных и трудовых программ с участием жителей района и привлечение их к воспитательной работе с детьми; - проведение индивидуальной воспитательной и просветительской работы с каждым ребёнком; - создание условий для полноценного отдыха детей, организации их досуга и развития интересов; - проведение различных мероприятий, направленных на повышение эффективности образования и воспитания в обществе.

Школа предоставляет учащимся широкий спектр возможностей для всестороннего нравственного воспитания. Роль школы в воспитании ребёнка

также очень важна. Каждый ребенок, переступая порог школы, в своем юном воображении представляет себе, какой работой он будет заниматься в будущем. Знания и образование, полученные в школе, безусловно, повлияют на осуществление этой работы. Семья, соседи, школа. Сотрудничество будет более эффективным, если будут соблюдаться следующие принципы: - единство совместных действий в образовательном процессе приносит пользу обучающемуся; - сочетание уважения и требования; - равные права и высокая ответственность субъектов процесса сотрудничества; - беспечение физического, умственного и духовного развития детей родителями в дошкольный период.

Все это является одним из важнейших факторов становления ребёнка как зрелой личности. При осуществлении воспитательной, организационно-методической работы каждый гражданин, семья, район и школа должны учитывать свои собственные условия и окружение.

Путём всестороннего анализа взаимодействия ученика, учителя и родителей, а также сотрудничества школы, семьи, района и общественности; через объединение усилий семьи, местного сообщества, дошкольных учреждений и школы; посредством организации практической воспитательной работы и проведения просветительской деятельности в соответствии с современными требованиями можно добиться значительных положительных результатов в сфере образования.

В заключение можно отметить, что подрастающее поколение должно воспитываться образованным, нравственным и преданным своей Родине. При формировании чувства верности и ответственности важно учитывать возрастные особенности и индивидуальные качества детей, поскольку без этого невозможно достичь главной цели воспитания и образования. Положительные результаты сотрудничества района, школы и семьи проявляются в том, что такое взаимодействие помогает ребёнку лучше познавать окружающий мир, расширять свой кругозор, избегать негативных влияний, рационально использовать свободное время как дома, так и в школе, и в итоге вырасти человеком, приносящим пользу своему народу и обществу.

Использованной литературы:

1. Алишер Навои. Хайратуль-аброр. Ташкент. Г.Гулам Литература и Издательство «Санат». 1989. 262 с.

2. Ахмадалиев Б.С., Фармонов О.Н. Методология педагогической работы. – Т.: 2022.

3. Ахмадалиев А.К. Семейная педагогика. – Т.: 1994.

4. Макаренко А.С. Книга родителей. [Переводчик. Зие Аминов]. Ташкент, Узўқувпеддавнашр, 1954. 176 страниц.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METOD VA VOSITALARI

Masharipova Umida Abduvoxidovna,
O‘zMPU, “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti.
Arzikulova Charos Ulug‘bek qizi,
O‘zMPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsion ta’limiy vositalar tahlil qilinadi. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliy metodlar bilan bog‘lagan holda, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini yuksaltirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *yozma nutq, kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, innovatsiya, metodik mahorat, grafik organayzer, AKT, ijodiy bayon, Milliy o‘quv dasturi.*

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida ta’lim tizimini mazmunan yangilash va uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning poydevor ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda muloqot va nutqiy kompetensiyalarni, xususan, yozma nutq madaniyatini yuksaltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6108-sonli Farmoni ta’lim tizimidagi sifat o‘zgarishlariga asosiy poydevor bo‘ldi. Mazkur hujjatda dars jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-134-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining ta’lim sifatini nazorat qilishga oid bir qator qarorlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Milliy o‘quv dasturining joriy etilishi natijasida ona tili darslarida asosiy e’tibor qoidalarni yodlatishga emas, balki tilning amaliy jihatdan qo‘llanishiga, ya’ni kompetensiyaviy yondashuvga qaratilmoqda. Yozma nutqiy kompetensiya o‘quvchining nafaqat imlo qoidalariga rioya qilishini, balki o‘z ichki olamini, dunyoqarashi va kuzatishlarini mantiqiy izchillikda, boy so‘z boyligi yordamida qog‘ozga tushirish mahoratini ham o‘z ichiga oladi.

Yozma nutqiy kompetensiya bu o‘quvchining turli vaziyatlarda tildan unumli foydalangan holda, fikrini mantiqiy izchillikda, imlo va punktuatsiya qoidalariga rioya qilgan holda bayon etish mahoratidir. Biroq, an’anaviy ta’limda ko‘p yillar davomida, yozuvga nisbatan shakliy, ya’ni chiroyli yozuv, xatosiz ko‘chirish kabi jihatlarga e’tibor qaratilib, mazmunli yozuv (ijodiy matn yaratish) chetda qolib kelgan edi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan ta’limda tizimida esa bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun innovatsion metodik yondashuvlarga ehtiyoj sezilyapti.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni shakllantirish murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, u boladan bir vaqtning o‘zida ham texnik (yozuv qurollaridan foydalanish), ham intellektual (fikrni shakllantirish) faollikni talab qiladi.

Ushbu maqolada qo‘llanilgan nazariy-metodik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, yozma nutqni rivojlantirishda an’anaviy “namuna asosida yozish”, “ko‘chirib yozish” usullari bugungi kun talablariga to‘la javob bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchining metodik mahorati yangi, interfaol vositalar bilan boyitilishi lozim.

Yozma nutqni shakllantirishning metodik asosi sifatida tizimli yondashuvni olish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchi matn yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “RAFT” texnologiyasini olaylik. Bu metod o‘quvchiga an’anaviy insho yozish qoidalari doirasidan chiqib, ijodiy yondashish imkonini beradi. Role (rol), Audience (auditoriya), Format (shakl) va Topic (mavzu) unsurlarining uyg‘unligi bolaning tasavvurini kengaytiradi. Bunda metodologik jihatdan o‘quvchi ma’lum bir obrazga kiradi, bu esa uning yozma nutqida yangi so‘z birikmalarining paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. K. Qosimovaning ta’kidlashicha, “Yozma nutq — bu tafakkurning eng yuqori shakli bo‘lib, u boladan voqelikni tahlil qilishni va unga munosabat bildirishni talab etadi” [2; 115-b.].

Metodik izchillikni ta’minlashda “Insert” (Interaktiv qaydlar tizimi) vositasi ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi matnni o‘qish jarayonida o‘zining yozma munosabatini “V” (bilaman), “+” (yangi ma’lumot), “-” (ziddiyatli fikr) kabi belgilar orqali ifodalashi uning keyingi erkin yozma ishlari uchun asos vazifasini o‘taydi. Bu jarayonda metodologiya shunchaki topshiriq berish emas, balki o‘quvchining fikrlash bosqichlarini boshqarishga qaratiladi.

Yana bir muhim metod — “Grafik organayzerlar”dir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy bog‘liqlik hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shuning uchun “Baliq skeleti” yoki “Zanjir” usullari orqali fikrlarni tartiblash o‘quvchiga yozma ish rejasini vizuallashtirishga yordam beradi. Yo‘ldoshev va Usmonov o‘z kitoblarida qayd etganidek, “Tasviriy vositalar yordamida qurilgan darslar o‘quvchi xotirasida chuqur iz qoldiradi va uning nutqiy faolligini oshiradi” [3; 52-b.].

O‘qituvchining metodik xazinasi tarkibiga “Raqamli hikoyalash” (Digital Storytelling) usulini kiritish ham bugungi davr talabidir. AKT vositalari yordamida yaratilgan qisqa videolavhalarga matn yozish yoki ularni sharhlash o‘quvchining yozma nutqini vizual obrazlar bilan boyitadi. Bu metodik yondashuv boladagi “oq qog‘ozdan qo‘rqish” to‘sig‘ini yengishga yordam beradi, chunki u tayyor obrazlar dunyosidan so‘zlar olamiga o‘tadi.

Bundan tashqari, yozma nutqni rivojlantirishda “Sinergetik yozuv” tamoyilini qo‘llash lozim. Bu usulga ko‘ra, yozma ish faqat fan doirasida qolib ketmasdan, rasm, musiqa va tevarak-atrof bilan uyg‘unlashtiriladi. Masalan, tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan darsdan so‘ng yozilgan kichik bayon o‘quvchining hissiy nutqini (emotsional leksikasini) boyitadi. G‘ulomov va Ne’matovlar fikriga ko‘ra, “Nutq o‘stirish — bu shunchaki so‘z o‘rgatish emas, balki dunyoni so‘zlar orqali qayta kashf etishdir” [4; 89-b.]. Shuni ham ta’kidlash joizki, yozma nutqni baholashda ham innovatsion yondashuv talab etiladi. O‘quvchining xatosini qizil rang bilan bo‘rttirib ko‘rsatish o‘rniga uning matnidagi eng muvaffaqiyatli jumlalarni yashil rang bilan belgilash (“Yashil ruchka” metodikasi) bolada yozishga nisbatan motivatsiyani saqlab qoladi. Bu metodik usul o‘quvchini keyingi safar yanada yaxshiroq yozishga undaydi [5; 210-b.].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘qituvchidan doimiy izlanish va o‘z metodik bazasini yangilab borishni talab etadi. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ta’limiy islohotlar dars jarayoniga RAFT, Insert, grafik organayzerlar kabi innovatsiyalarni keng tatbiq etishni taqozo etmoqda. Ushbu metodlarning mantiqiy jihatdan integratsiyasi

o‘quvchining nafaqat savodxonligini oshiradi, balki uni mustaqil fikrlovchi, o‘z nuqtayi nazarini mantiqiy va ijodiy ifodalay oladigan shaxs sifatida kamol toptiradi. Yozma nutq — bu kelajakdagi har qanday professional faoliyatning asosi bo‘lib, uni boshlang‘ich sinfdanoq to‘g‘ri yo‘naltirish jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 06.11.2020 y.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Noshir” – 2022
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “O‘qituvchi” – 2021
4. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: “Ma’rifat”, 2019
5. Safarova R. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar. – Toshkent, 2023

ESTRADA XONANDALIGI SAN’ATINING XUSUSIYATLARI

Mirtursunov Mirvohid Obid o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU professori, Ilmiy rahbar.

O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy taraqqiyotida musiqa san’ati ham muhim o‘rin tutadi. Chunki mamlakatni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatorida san’at sohasini ham butunlay *yangi asoslarda* rivojlantirish vazifasi qo‘yilgan. Bu asoslarni quyidagilar tashkil qiladi: - milliy musiqa san’atini milliy manbalar asosida rivojlantirish va erishilgan yutuqlarini targ‘ibot qilish; - yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish; - jahon xalqlari musiqa san’ati yutuqlarini xolis va betaraf o‘rganish.

Bunday asoslar vositasida O‘zbekistonning musiqa san’atini rivojlantirish kutilgan samarani berishi shubhasizdir. Chunki “jismoniy baquvvat va ma’naviy jihatdan sog‘lom avlodni kamol toptirish” bugungi musiqa san’atining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu ma’noda musiqa san’ati inson, jamiyat va davlat hayotida ma’naviy, madaniy, ma’rifiy va estetik omillardan hisoblanadi. Musiqa san’atining asosiy tarkibiy qismlaridan biri *estrada xonandaligi san’atidir*. Estrada xonandaligi san’ati estrada san’atining tarkibiy qismi bo‘lib, estrada cholg‘u va raqs ijrochiligi bilan uyg‘unlikka ega. Bu san’at professional musiqa san’ati turi sifatida Angliya, Rossiya kabi davlatlarda ***myuzik-xoll,*** Fransiyada ***kabare,*** AQShda ***shovyu, revyu*** nomlari bilan rivojlanib kelmoqda va mamlakatimizda milliy estrada xonandaligi san’ati (estrada qo‘shiqchiligi, estrada xonandaligi) nomida rivojlanib bormoqda. Bu o‘rinda tadqiqotda asosiy muammo sifatida qo‘yiladigan “Estrada xonandaligi san’atini rivojlantirishining pragmatik konsepsiyasi” muammosining asosiy tushunchalari tahliliga e’tiboringizni tortamiz. Zero, *estrada* san’ati (fransuzcha estrade – taxta supa, minbar) Respublika musiqa san’atining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, “turli shakldagi ijrochilarni (cholg‘uchi, ashulachi, raqs va boshqalarni) birlashtiruvchi” san’atdir. Biz aynan estrada san’ati negizida ashula, musiqa va raqs ***uyg‘unligi*** asosiy tayanch hisoblanadi, deb o‘ylaymiz. Estrada san’atining muhim qismi xonandaligidir. *Xonandaligi* (fransuzcha vokalise –

unli tovush) kuylash san’ati bo‘lib, u “ashula aytish mahoratini o‘zlashtirishga asoslanadi”. Shu jihatdan ***estrada xonandaligi san’ati*** ashula (qo‘shiq) kuylashning ommaviy, zamonaviy va keng imkoniyatlarga boy san’at turidir.

Qayd etish joizki, estrada xonandaligi san’atida “ashula” va “qo‘shiq” tushunchalarini barobar qo‘llash mumkin. Chunki mutaxassislar to‘g‘ri ta’kidlaganidek, ashula “kuy diapazonining kengligi, shakli rivojlanganligi, mavzu va mazmunning teranligi” bilan farqlansa,qo‘shiq esa “musiqa folklorida katta o‘rin egallaganli” va nisbatan ommabopligi bilan tavsiflanadi. O‘zbekiston estrada xonandaligi san’atida ashula va qo‘shiq ijrosi muhim xususiyatdir.

Bizning yoshdashuvimizga ko‘ra, estrada xonandaligi san’atining ikki muhim qanoti bo‘lib, ular musiqa va raqsdan iboratdir. Ayni paytda, estrada xonandaligi san’atida ashula, musiqa va raqs ijrochiligi an’anaviy va maqom ijrochilik yo‘llaridan nisbatan farq qiladi. Bu farqlar yoki ba’zi holatlardagi uyg‘unliklar tadqiqotning keyingi o‘rinlarida kezi bilan tahlil qilib o‘tiladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda estrada xonandaligi san’atini hozirgi sharoitdagi o‘rnini o‘rganish masalasi qo‘yilmoqda.

Bunda quyidagi prinsiplarni ustuvor asos sifatida qabul qilamiz: 1) shaxsiy kuzatuv va hayotiy tajriba; 2) erkinlik va mas’uliyatlik; 3) funksionallik va samaradorlik.

Shaxsiy kuzatuv va hayotiy tajriba prinsipi bu ko‘p yillik estrada xonandaligi faoliyati hosilasi bo‘lib, unda yillar sinovidan o‘tgan tajribaga asoslanadi. Misol uchun, ko‘pchilik mumtoz shoirlarimizning asarlarini og‘ir va vazmin uslubda kuylash mumkin, - degan fikrda sobit turishadi. Biz ham bunga qo‘shilamiz, ayni paytda, mumtoz she’riyatning **tarona** qismini estrada xonandaligi ijro uslubida kuylash mumkin. Shu jihatdan bir paytlar xalq quyi asosida Ahmad Yassaviyning (1103-1167) hikmati bilan ijro etilgan quyidagi estrada ashulasi matniga e’tibor bering:

O‘n sakkiz ming olamda
Hayron bo‘lg‘an oshiqlar.
Tobmay Ma’shuq charog‘in
Sarson bo‘lg‘on oshiqlar...
Kuyib-yonib kul bo‘lg‘an,
Ishqida bulbul bo‘lg‘an,
Kim ko‘rsa qul bo‘lg‘an
Mardon bo‘lg‘an oshiqlar...
Gohi yuzi sarg‘ayib,
Gohi qo‘lida g‘arib,
Tasbehlari “Yo, Habib”
Javlon bo‘lg‘an oshiqlar... [2; 80-81-b.]

Ashulaning mutaxassislar va tinglovchilar tomonidan zavq bilan qabul qilinganligining sababi quyidagilardan iborat: *birinchidan*, she’rning ohangi kuyini belgilab turibdi; *ikkinchidan,* bironta so‘z talaffuzni buzmaydi; *uchinchidan*, matn chuqur mazmun va emotsional ta’sirga ega; *to‘rtinchidan*, ijrochi zimmasida tinglovchiga kutilgan darajada yetkazish vazifasi qoladi.

Mamlakatimizda estrada xonandaligi san’atini rivojlantirishning omilida *erkinlik va mas’uliyatlik* prinsipi estrada xonandaligi ijrochisining professional faoliyatda ijod erkinligidan foydalanish va soha rivoji uchun javobgarlik his etishini; *funksionallik va samaradorlik* prinsipi esa estrada guruhlari ansambllarining o‘z ijtimoiy-kasbiy vazifasini oqillik bilan bajarishi va buning natijasida soha rivojiga munosib hissa qo‘shishini anglatadi. Bu prinsiplarni idrok qilmasdan sohani pragmatik asosda rivojlantirish muammosini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26 iyundagi “Estrada qo‘shiqchilik san’atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori.// Madaniyat sohasiga oid me’yoriy hujjatlar to‘plami. – T.,2010.
2. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T., 1992.
3. To‘rayev Yu. O‘zbek estrada xonandaligi. – T.: “Musiqa”. 2004.
4. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – T.: “O‘qituvchi”.1997.

O‘QUVCHILARNI MATNLI MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH

Musurmonova Maludaxon,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Akkulova Maftuna Xikmatulla qizi,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matnli masalalar yechish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriah, masala tuzish va yechish ko‘nikmalarini shakllantirishning turli usullaridan foydalanish orqali o‘rgatishning yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilib, tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompitensiya, matn, konstruktiv, aqliy hujum, klaster, keys-stadi, yechim.*

O‘quvchilarda mustaqil masala yechish kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuvning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi ta’lim tizimidan faqat tayyor ma’lumotlarni yetkazish emas, balki mustaqil fikr yurita oladigan, muammolarni tahlil qilish va turli sharoitlarda eng maqbul yechimni topishga qodir shaxslarni tarbiyalashni talab etmoqda.

Ilmiy manbalarda “kompetensiya” atamasi shaxsning ma’lum faoliyatni samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va individual sifatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida izohlanadi. Masala yechish kompetensiyasi esa o‘quvchining muammoni anglash, berilgan shartlarni tahlil qilish, yechim rejasini ishlab chiqish, uni amalga oshirish hamda olingan natijani baholash jarayonlarini ongli ravishda bajarish qobiliyatini anglatadi. Bu yo‘nalishda muhim nazariy asoslardan biri sifatida George Polya tomonidan taklif etilgan to‘rt bosqichli model e’tirof etiladi. Mazkur model muammoni tushunish, reja tuzish, rejani bajarish va natijani tahlil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi hamda o‘quvchilarda refleksiv fikrlash va strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, konstruktivistik yondashuv namoyandalaridan biri bo‘lgan Jean Piaget bilimlar tayyor shaklda berilmasdan, balki o‘quvchi tomonidan faol o‘zlashtirilishi zarurligini ta’kidlagan. Bu g‘oya mustaqil masala yechish jarayonining psixologik asoslarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil masala yechish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida muammoli ta’lim yondashuvi alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida o‘quvchilar oldiga intellektual qiyinchilik tug‘diruvchi vaziyatni qo‘yish, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirish, savollar orqali fikrlashga undash hamda turli taxminlarni ilgari surishga sharoit yaratish o‘quv faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday

tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki muammoni hal etishga faol kirishuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalishda bir qator to‘siqlar mavjud. Eng avvalo, ko‘plab o‘qituvchilar an’anaviy, ko‘proq namunaga asoslangan va tayyor algoritmlarni takrorlashga qaratilgan metodlardan to‘liq voz kecha olmayapti. Bundan tashqari, ayrim darslik va metodik qo‘llanmalarda bir tipdagi, qat’iy ketma-ketlik asosida bajariladigan mashqlar salmoqli o‘rin egallaydi, bu esa o‘quvchilarning ijodiy va moslashuvchan fikrlashini cheklaydi. Yana bir muhim jihat – baholash amaliyotida ko‘pincha yakuniy javob ustuvor ahamiyat kasb etib, masalani yechish jarayonining o‘zi yetarlicha tahlil qilinmaydi. Natijada o‘quvchilar tayyor qoidalarni qo‘llashga ko‘nikib qolib, noodatiy yoki yangi vaziyatlarda mustaqil strategiya ishlab chiqishda qiyinchilikka duch keladilar.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim jarayonini mazmunan boyitish va metodik jihatdan yangilash talab etiladi. Xususan, darslarda real hayotiy kontekstga ega, bir nechta yechim yo‘llarini nazarda tutuvchi ochiq turdagi masalalar ulushini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘quvchilarda muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘ra olish va alternativ qarorlar ishlab chiqish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, jarayonni baholashga yo‘naltirilgan formatif baholash usullarini qo‘llash orqali o‘quvchining fikrlash bosqichlarini kuzatish, individual tavsiyalar berish va konstruktiv mulohaza bildirish mumkin. Bundan tashqari, metakognitiv yondashuvni qo‘llash, ya’ni o‘quvchiga o‘z fikrlash jarayonini anglash, rejalashtirish va nazorat qilishni o‘rgatish, mustaqil masala yechish kompetensiyasining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, ta’lim jarayonida muammoli yondashuvni izchil joriy etish o‘quvchilarning chuqur va ongli bilim egallashiga zamin yaratadi.

Xalqaro miqyosdagi baholash dasturlari masala yechish ko‘nikmasining ta’lim sifatidagi o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, OECD tashabbusi bilan amalga oshiriladigan PISA dasturida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda bilimni qo‘llay olish, muammoni tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish qobiliyati ham baholanadi. Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida mustaqil fikrlash, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish va mantiqiy asoslash ko‘nikmalariga e’tibor qaratilgan mamlakatlar yuqori ko‘rsatkichlarga erishmoqda. Bu esa masala yechish kompetensiyasini rivojlantirishni milliy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi.

Mazkur kompetensiyani samarali shakllantirishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Keys-stadi” va “Debat” kabi metodlar o‘quvchilarni faol muloqotga, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga va o‘z fikrini asoslab berishga undaydi. Bunday metodlar orqali o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki bilimni hamkorlikda yaratuvchi subyektga aylanadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash ta’lim jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi. Virtual tajribalar, modellashtirish dasturlari va raqamli ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilar turli vaziyatlarni sinab ko‘rish, natijalarni taqqoslash va mustaqil xulosaga kelish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday sharoitda o‘qituvchining vazifasi an’anaviy ma’lumot yetkazuvchidan ko‘ra, o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida namoyon bo‘lishdan iboratdir. Mazkur yondashuv o‘quvchining shaxsiy tajribasini inobatga oladi hamda uning individual rivojlanish yo‘lini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Psixologiya fanida mustaqil masala yechish faoliyati o‘quvchining ichki rag‘bati bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi. Agar o‘quvchi topshiriqni bajarishda shaxsiy qiziqish va ichki ehtiyojni his qilsa, u murakkab vazifalarga ham faolroq

yondashadi. Shu bois ta’lim jarayonida darajalangan (differensial) topshiriqlardan foydalanish, ya’ni o‘quvchining imkoniyatiga mos, bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan vazifalarni taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o‘quvchiga muvaffaqiyatni his qilish, o‘z kuchiga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Kichik natijalarni e’tirof etish, rag‘batlantirish va ijobiy fikr-mulohaza bildirish ichki motivatsiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xatoni salbiy hodisa sifatida emas, balki o‘rganish va tajriba orttirishning tabiiy bosqichi sifatida qabul qilish muhitini yaratish zarur. Agar o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasa, u murakkab masalalarga dadil kirishadi, aks holda esa qiyin vazifalardan chetlashish tendensiyasi kuchayadi.

1–4-sinflar oralig‘ida bolalarning tafakkuri jadal sur’atda shakllanadi, mantiqiy mushohada yuritish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalar izchil rivojlanadi. Shu sababli mazkur bosqichda masala yechish jarayonini oddiy arifmetik amallarni bajarish bilan chegaralab qo‘yish yetarli emas; aksincha, uni o‘quvchining mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida tashkil etish zarur. Zamonaviy ta’lim yondashuvlarida, jumladan OECD tomonidan ilgari surilgan funksional savodxonlik konsepsiyasida ham o‘quvchilarni erta yoshdan boshlab muammoli vaziyatlarda ongli va asosli qaror qabul qilishga o‘rgatish muhimligi alohida qayd etiladi.

Psixologik tadqiqotlarda, xususan, Jean Piaget tomonidan asoslangan nazariyaga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari konkret-amaliy tafakkur bosqichida bo‘ladilar va ular bilimni real obyektlar hamda hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lagan holda samaraliroq o‘zlashtiradilar. Shu nuqtayi nazardan, masalalarni kundalik hayotga yaqin kontekstda taqdim etish, ko‘rgazmali vositalar va modellashtirish usullaridan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi.

Mazkur yo‘nalishda ijobiy tajribalar bilan bir qatorda muayyan kamchiliklar ham uchrab turadi. Ta’lim amaliyotida ko‘pincha masala yechish jarayoni tayyor ko‘rsatma yoki andoza asosida tashkil etiladi: o‘qituvchi namunaviy yechimni ko‘rsatadi, o‘quvchilar esa shunga o‘xshash mashqlarni takrorlaydilar. Bunday usul ko‘proq qayta ishlab berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchining mustaqil izlanishi va ijodiy fikrlashini yetarli darajada rag‘batlantirmaydi. Shuningdek, vaqt chegaralanganligi sababli darslarda muammoli vaziyat yaratish va uni chuqur muhokama qilishga doimo ham imkon topilmaydi. Ayrim o‘quv adabiyotlarida bir xil turdagi, algoritmik ketma-ketlikka asoslangan topshiriqlar ko‘pligi ham o‘quvchilarning moslashuvchan tafakkurini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Baholash amaliyotida esa ko‘pincha yakuniy javob ustuvor ahamiyat kasb etib, yechim jarayoni, qo‘llangan strategiya yoki mantiqiy asoslash yetarlicha e’tiborga olinmaydi. Natijada, o‘quvchi fikrlash bosqichlarini tushuntirishdan ko‘ra tez va to‘g‘ri natijaga erishishga intiladi, bu esa kompetensiyaning chuqur shakllanmasligiga olib keladi.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil masala yechish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun metodik jihatdan izchil va maqsadli ish olib borish zarur. Eng avvalo, muammoli ta’lim elementlarini muntazam ravishda qo‘llash muhimdir. Darsning kirish qismida hayotiy vaziyat yoki qiziqarli savol asosida muammo qo‘yish, o‘quvchilardan taxminlar bildirishni so‘rash va turli yechim variantlarini muhokama qilish ijobiy natija beradi. Bu jarayonda George Polya tomonidan ishlab chiqilgan masala yechish bosqichlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos ravishda soddalashtirib qo‘llash maqsadga muvofiq: masalani anglash, yechim yo‘lini rejalashtirish, bajarish va natijani tekshirish. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar orqali har bir bosqichni izchil tashkil etsa, o‘quvchi mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Metodik jihatdan yana bir muhim imkoniyat – ko‘rgazmali vositalar va modellashtirish usullaridan foydalanishdir. Turli sxema, jadval, rasm va predmetli modellar yordamida masalaning mazmunini ko‘rinadigan shaklga keltirish kichik yoshdagi bolalar uchun tushunishni osonlashtiradi. Juftlikda va kichik guruhlarda ishlash ham samarali natija beradi, chunki bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fikrini asoslash, tengdoshining qarashini tinglash va umumiy qarorga kelish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, interaktiv topshiriqlar va o‘yin elementlarini joriy etish o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yin shaklida berilgan masalalar o‘quv faoliyatini tabiiy va qiziqarli jarayonga aylantirib, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi.

Samarali masala yechish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida refleksiv yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Dars yakunida “Biz masalani qanday yechdik?”, “Qaysi qismi eng murakkab bo‘ldi?”, “Masalani boshqa usul bilan yechish mumkinmi?” kabi savollar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlash jarayonini tahlil qiladi va anglaydi. Bu turdagi metakognitiv faoliyat o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, differensial yondashuvni qo‘llash, ya’ni o‘quvchilarga turli murakkablikdagi topshiriqlar taqdim etish, har bir bolaning individual qobiliyatini hisobga olish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida, jumladan OECD tomonidan ilgari surilgan funksional savodxonlik talablari ham o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda bilimni qo‘llay olish qobiliyatiga urg‘u beradi. Bu esa boshlang‘ich bosqichdayoq mustaqil masala yechish ko‘nikmalarini shakllantirishni strategik vazifa sifatida ko‘rsatadi. Ilmiy-pedagogik qarashlarga ko‘ra, xususan Jean Piaget nazariyasida ta’kidlanganidek, bolalar konkret-amaliy tafakkur bosqichida bilimni faol harakat va tajriba asosida o‘zlashtiradilar. Demak, dars jarayonida ko‘rgazmalilik, modellashtirish, muammoli savollar va izlanishga yo‘naltiruvchi metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, George Polya tomonidan asoslab berilgan masala yechish bosqichlarini boshlang‘ich ta’limga moslashtirish o‘quvchilarda tizimli va ongli fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud kamchiliklar – reproduktiv yondashuvning ustunligi, bir tipdagi topshiriqlarning ko‘pligi, baholash jarayonida natijaga haddan tashqari e’tibor qaratilishi – mustaqil fikrlash rivojiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois metodik jihatdan darslarni muammoli tashkil etish, ochiq va ko‘p variantli masalalar ulushini oshirish, jarayonni baholash hamda refleksiya elementlarini joriy etish muhimdir. O‘quvchini xatodan qo‘rqmaydigan, o‘z fikrini asoslay oladigan, turli yechimlarni taqqoslay biladigan shaxs sifatida tarbiyalash boshlang‘ich ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida metodik yangilanishlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvning izchil joriy etilishi natijasida masala yechish jarayoni o‘quvchining mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi samarali vositaga aylanishi mumkin. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’limda ushbu kompetensiyani shakllantirishni tizimli va uzluksiz yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023.

2. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

3. George Polya. How to Solve It. – Princeton: Princeton University Press, 1945.
4. M.Musurmonova. Matematika o‘qitish metodikasi. Chirchiq: “Zebo prins”, 2023-yil, 236 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ALGEBRAIK TUSHUNCHALARNI O‘RGATISH METODIKASI

Musurmonova Maludaxon,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi,
Xaitmatova Bargida Ergash qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Maqolada sonli va harfiy ifodalar, tenglama va tengsizliklar, ularni yechish usullari haqida so‘z yuritiladi. Masalalarni shartiga ko‘ra tenglama tuzib yechish usullari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *ifoda, sonli, harfiy, tenglama, tengsizlik, yechim, ildiz, noma’lum son, algebraik tushuncha.*

Boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatish pedagogik jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu yoshdagi bolalar (6–8 yosh) faol, qiziquvchan, ijodiy va qiziqqon bo‘lishi bilan birga, ularning diqqatini uzoq vaqt davomida bir mavzuga qaratish murakkabligi pedagogik jarayonni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shu sababli, o‘qituvchilar algebraik tushunchalarni o‘rgatishda faqat an’anaviy usullarga tayanmasdan, psixologik yondashuv, pedagogik metodlar, interfaol va ko‘rgazmali o‘quv usullarini samarali qo‘llashlari talab etiladi. Bu jarayon o‘qituvchidan yuqori darajada pedagogik mahorat, sabr-toqat va kreativ yondashuvni talab qiladi.

Algebraik tushunchalar – noma’lum son, sodda tenglik va tengsizlik, shuningdek, arifmetik amallar orqali hosil qilinadigan sodda algebraik ifodalarni o‘z ichiga oladi. Bu tushunchalarni bolalarga o‘rgatishda ularning kundalik hayotiy tajribalari bilan bog‘lash, masalalarni real hayotiy vaziyatlar orqali tushuntirish, bolalarning matematik tafakkurini rivojlantirish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, algebraik tushunchalarni erta yoshda o‘rgatish bolalarning matematik fikrlashini mustahkamlash, muammolarni tahlil qilish va ularni bosqichma-bosqich yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida o‘quvchilarning murakkab matematik masalalarni o‘zlashtirishini osonlashtiradi va ularni ilmiy tafakkurga tayyorlaydi. Shu tariqa, boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatish nafaqat matematika fanining mustahkam poydevorini yaratadi, balki o‘quvchilarning intellektual va mantiqiy rivojlanishida ham asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatishda ko‘rgazmali metodlar keng qo‘llaniladi. Masalan, bolalarga oddiy tenglamalarni tushuntirishda rasm va sxemalar ishlatiladi: “Agar 5 ta olma savatda bo‘lsa va yana? ta olma qo‘shilsa, jami 11 ta bo‘ladi. Noma’lum sonni toping.” Shu vaziyatda bolalar vizual tasvir orqali qo‘shish va noma’lum son tushunchasini o‘zlashtiradilar:

Masala 1. “Agar 5 ta olma savatda bo‘lsa va yana? ta olma qo‘shilsa, jami 11 ta bo‘ladi. Noma’lum sonni toping.”

Savatda 5 ta olma bor. Yana? ta qo‘shilsa jami 11 ta bo‘ladi -?

Yechish: 5+?=11?=11-5

Javob: Yana 6 ta olma qo‘shilsa, jami 11 ta bo‘ladi.

Masala 2. Stol ustida 4 ta qalam bor edi. Unga yana? ta qo‘shildi, jami 9 ta bo‘ldi. Noma’lum sonni sonni toping.

Bor edi 4 ta qalam.

Qo‘shildi -? ta qalam.

Jami – 9 ta qalam

Yechish: 4 +? = 9? = 9 – 4

Javob: Unga yana 5 ta qalam qo‘shilsa, jami 9 ta qalam bo‘ladi.

Amaliy mashqlar va didaktik o‘yinlar algebraik tafakkurni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga quyidagi vaziyat berilishi mumkin: “Oimjonning 3 ta qalam bor edi. U yana 2 ta qalam oldi. Ularning jami nechtaga yetdi?” Bu yerda bolalar qo‘shish amali orqali yechimni topadi: 3 + 2 = 5. Shu bilan birga, ayirish amali misolida: “Kitob javonida 12 ta kitob bor edi. O‘quvchi 5 ta kitob oldi. Javonda nechta kitob qoldi?” yechim: 12 - 5 = 7.

Masala: Ali 4 ta konfet oldi. U yana 3 ta konfet qo‘shdi. Jami nechta konfet bo‘ldi?

Oldi 4 ta konfet

Qo‘shdi 3 ta konfet

Jami -? ta konfet

Yechish: 4 + 3 = 7

Javob: Jami Alida 7 ta konfet bo‘ldi

Ko‘paytirish va bo‘lish amallarini tushuntirishda ham o”quvchilarga konkret misollar muhim hisoblanadi. Masalan, ko‘paytirish: “Ominada 4 ta ruchka bor edi. Har bir ruchka 3 marta ko‘paytirildi. Natija necha ruchka bo‘ldi?” 4 x 3 = 12. Bo‘lish amali misoli: “Diyorada 8 ta apelsin bor edi. Ularni teng 4 ta bo‘lakka bo‘ldi. Har bir bo‘lakda nechta apelsin bo‘ldi?” – 8: 4 = 2. Shu tarzda o‘quvchilar algebraik amallarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab o‘rganadi.

Masala 1*:* Bolada 5 ta quti bor, har bir qutida 2 ta konfet bor. Jami nechta konfet bo‘ldi?

Bor 5 ta quti

Har bir qutida 2 tadan

Jami -?

Yechish: 5 x 2 =10

Javob: Jami 10 ta konfet bor.

Masala 2: “Diyorada 8 ta apelsin bor edi. Ularni teng 4 ta bo‘lakka bo‘ldi. Har bir bo‘lakda nechta apelsin bo‘ldi?”

Bor edi 8 ta apelsin

Bo‘lindi 4 ta bo‘lakka

Har bir bo‘lak? apelsin bo‘ldi

Yechish: 8 ÷ 4 = 2

Javob: Har bir bo‘lakda 2 tadan apelsin bo‘ladi.

Noma’lum son tushunchasi algebraik tafakkurning boshlang‘ich elementi sifatida muhim ahamiyatga ega. Masalan, oddiy tengsizlikni tushuntirish: “? + 3 ≤ 7” – yechim:

? ≤ 4. Shu orqali bolalar algebraik mantiqni, sabab-natija bog‘lanishini va matematik fikrlashni rivojlantiradilar. Shu bilan birga, murakkabroq misollar ham qo‘llanishi mumkin: “Agar 2 ta qalam qutisida 5 ta qalam bo‘lsa, jami 6 quti bo‘lsa, qancha qalam bor?” – yechim: 2 × 5 × 6 = 60 qalam.

MIsol: ? + 3 ≤ 7

$? \leq 7 - 3$

$? \leq 4$

Masala: Stol ustida? ta qalam bor edi. 4 ta qo‘shildi, jami 10 tadan oshmasin. Noma’lum sonni toping.

Yechish: $? + 4 \leq 10$

$? \leq 10 - 4$

$? \leq 6$

Javob: Stol ustida 6ta qalam bor edi

Boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatishda interfaol metodlar, masalan, “Aqliy hujum”, jamoaviy mashqlar, rol o‘yinlari va muammoli vaziyatlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bu metodlar bolalarning diqqatini saqlash, mantiqiy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda qisqa dam olish daqiqalarini kiritish bolalarning salomatligi va faoliyatini samarali davom ettirishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar turib, qo‘l va oyoqlarini qimirlatib, qisqa harakatli mashqlar yoki she’r o‘qish orqali diqqatni tiklaydilar.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash (elektron doskalar, kompyuterlar, interfaol resurslar) algebraik tushunchalarni o‘rgatishda samara beradi. Shu tarzda darslar qiziqarli, vizual va o‘quvchilarning faolligi yuqori bo‘ladi. Natijada, boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatish metodikasi o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantiradi, mantiqiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, keyingi bosqichlarda murakkab matematik tushunchalarni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Shu sababli, ushbu metodika o‘qituvchilar uchun zarur va samarali hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatish metodikasi – o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, matematika faniga qiziqishini oshirish va amaliy hayotiy masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallari orqali bolalar nafaqat arifmetik hisoblashni o‘rganadi, balki noma’lum son, tenglik va tengsizlik tushunchalari bilan tanishadi. O‘quvchilarga masalalarni shart,yechim, javob tartibida yechishni o‘rgatish ularning mantiqiy fikrlashini mustahkamlaydi, masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi va mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, ko‘rgazmali materiallar va real hayotiy misollar yordamida darslarni qiziqarli va samarali o‘tkazish mumkin. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari algebraik tushunchalarni o‘zlashtirib, matematik tafakkurini rivojlantiradi, amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtiradi hamda keyingi bosqichdagi murakkab algebraik va arifmetik masalalarni yechishga tayyor bo‘ladi. Shu sababli, algebraik tushunchalarni o‘rgatish metodikasi pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida o‘quvchilarning matematik bilimlarini poydevor sifatida mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, O. Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini samarali o‘tkazish metodikasi. Toshkent: O‘zPU nashriyoti. 2018.

2. Islomov, R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida algebraik tafakkurini rivojlantirish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2020.

3. Normatov, S. Matematika darslarida ko‘rgazmali va interfaol usullar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2019.

4. Peterson, G. Teaching Early Algebra: Connecting Arithmetic and Algebra in the Primary Grades. New York: Routledge. 2016.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Mutalova Dilnoza Abdurashidovna,
Chirchiq DPU dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD).

Zamonaviy doimiy o‘zgaruvchan dunyo ko‘pincha odamdan tezkor qarorlarni talab qiladi. Xozirda juda ko‘p turli xil ma’lumotlar mavjud va ularning hammasi ham ishonchli emas. Ba’zida tekshirilmasdan haqiqat sifatida qabul qilingan ma’lumotlar odamga zarar yetkazmaydi. Masalan, tarixga oid munozarali mavzular, turli voqea va hodisalarning talqini va boshqalar. Kimdir taqdirga ishonadi, kimdir ishonmaydi. Har bir fikrning o‘z dalillari bor, lekin hech kimda rad etib bo‘lmaydigan dalillar yo‘q.Ammo ba’zida tahlilning yetishmasligi hayotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ko‘p hodisalar jiddiy tahlil qilinishini, voqealarni rivojlanishining turli xil variantlarini ko‘rib chiqishni talab qiladi: ish tanlash,umr yo‘ldosh, do‘stlar, moliyaviy masalalar va boshqalar.

Bugungi kunda ko‘plab bolalarda tanqidiy fikrlash qobiliyati yo‘q. Chunki, bugungi kunda ko‘p kattalar tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega emaslar.Biz shunchalik mamnuniyat bilan yashaymizki, savollar berish, o‘z suhbatdoshimizni topish va fikrlash haqida o‘ylash juda ko‘p bolalar va kattalar uchun oddiy ish bo‘lib qoldi.Tanqidiy fikrlash – bu kuch talab qiladigan va rivojlantirib borishimiz k kerak bo‘lgan zarur ko‘nikmadir. Biz uchun juda ko‘p narsa avtomatik ravishda amalga oshiriladigan dunyoda biz bolalarimizni tasavvur qilishga ilhomlantirishimiz kerak.

Siz “tanqidchi” so‘zini “hamma tanqidchi” yoki “juda tanqidiysiz” kabi salbiy narsa deb o‘ylashingiz mumkin. Ammo tanqidiy fikrlash ijobiy bo‘lishi mumkin.

Tanqidiy fikrlash ko‘p yillar davomida butun dunyo o‘qituvchilari va psixologlari tomonidan o‘rganilgan. Amerikalik psixolog Diana Xelpern bu mahoratni fikrlash deb hisoblaydi, u muayyan xulosalar chiqarish va muayyan vaziyatda qanday harakat qilishni hal qilish uchun ishlatiladi.Tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim texnologiyalari bo‘yicha tahlilchi Emilia Lai tanqidiy fikrlashni axborot manbalarini so‘roq qilish va sinab ko‘rish, argumentlar darajasini baholash, xulosalar chiqarish va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati sifatida tavsiflaydi.Ko‘pgina tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqladilar: moyillik qobiliyati (komponentga qiziquvchanlik, moslashuvchanlik, xolislik, adolat tuyg‘usi, hurmat va boshqalar kabi shaxsiy fazilatlar majmui kiradi) kongitiv qobiliyat (komponentga tushuntirish, xulosa chiqarish, izohlash, tahlil qilish va hokazolar kiradi).

P.A.Fasiun o‘ylashicha tanqidiy fikrlash insonga haqiqatni yolg‘ondan ajratishga, obyektni turli tomonlardan ko‘rib chiqishga, eng maqbul variantni tanlash uchun o‘z harakatlarining mumkin bo‘lgan foydalari, xavflari va oqibatlarini baholashga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashning yetishmasligi natijasida kasb, ma’lum bir ish joyini tanlashda xato qilish, firibgarlar yoki boshqa tajovuzkorlarning “o‘ljasiga tushib qolish” hamda ma’naviy va jismoniy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan odamlarning ta’siriga berilish ehtimoli ortadi.

Erta bolalik davridagi tanqidiy fikrlash qobiliyatlari. So‘nggi ta’lim tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, hatto 3 yoshli bolalar ham o‘zlarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirishlari mumkin, chunki bu yoshda ular allaqachon muloqot va imo-ishoralar orqali bilimga ega bo‘lishni boshlaydilar. Kelajakda tanqidiy fikrlash uchun asos yaratish uchun maktabgacha yoshdagi o‘quvchilar vizual va eshitish tajribasini o‘rganishga qaratilgan o‘yinga asoslangan ta’lim muassasasiga kiritilishi kerak.

Tanqidiy fikrlash asoslari maktabgacha yoshda qo‘yila boshlaydi. Bola nima uchun suhbatdoshining fikriga qo‘shilishini yoki rozi emasligini tushuntirishni o‘rganadi. Ota-onalar farzandini bolalar uchun rivojlanish kurslariga yuborish orqali bolaning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi mumkin, bu esa bolani kelajakda muvaffaqiyatli, o‘z fikrini ifoda etishdan qo‘rqmaydigan va berilgan savollarga mustaqil ravishda javob izlaydigan jasur shaxs bo‘lishiga yordam beradi.

Aniqki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko‘rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o‘z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko‘p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to‘xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste’molchisiga aylanishadi,lekin ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak. Hech kim tanqidiy fikrlovchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Darhaqiqat, tanqidiy fikrlash kattalar uchun qiyin mahorat bo‘lishi mumkin, shuning uchun yosh bolalar erta bolalik davridagi ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash uchun asos yaratishni boshlashlari muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun saralash, turkumlashtirish, so‘roq qilish, tekshirish va bashorat qilishni o‘z ichiga olgan o‘yinlar ularni tanqidiy fikrlash san’ati bilan tanishtiradi.

Tarbiyachilar va ota-onalar maktabgacha yoshdagi o‘quvchilarni tanqidiy fikrlaydigan bo‘lishga yordam berishning bir necha usullari.

Agar bola savollar bermasa, tanqidiy fikrlash haqida unutsa bo‘ladi.

Masalan, film yoki multfilmni birgalikda tomosha qilgandan so‘ng, undan syujet haqida 10-20 ta savol o‘ylab topishini va ularni sizga berishini so‘rang. Bu jarayonda bola tafsilotlarni sezishni va mavzuni turli tomonlardan ko‘rib chiqishni o‘rganadi.

Agar siz hayvonot bog‘iga borib, boladan: “Senga nima yoqdi, nimani ko‘rding?” deb so‘rasangiz va u sizga batafsil javob bera olmasa, demak, uning miyasi siz istagan yangi holatlarni eslab qolmagan. Xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanmagan kattalar ham bor. Jamoa, rahbar, turmush o‘rtoq, pul bilan bo‘lgan munosabatlarda biz bir xil narsani boshdan kechiramiz. Bir xil vaziyatlar takrorlanaveradi va biz nimani o‘zgartirish kerakligini tushunolmaymiz.

Kun davomida bolalarga savollar bering: Nimani ko‘ryapsan? Bu haqda nima deb o‘ylaysan? Bu seni nima haqida o‘ylashga majbur qilyapti? Nega aynan shu javobni tanlading?

Ko‘rayotgan tafsilotlarni muhokama qilishni davom eting. Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantira turib, “Yana nima?” deb so‘rang.

“Bu haqida nima deb o‘ylaysan?”, “Qanday xulosa chiqarish mumkin?”. Miya xulosalarni ishlab chiqarishi kerak. “Demak, … qilish kerakmas”, “Demak, shunday… yo‘l tutish kerak”.Bolada qanday savollar tug‘iladi? “Nega???”, “Bularning barchasi qancha davom etadi?”, “Agar qoidalar buzilsa, nima bo‘ladi?”, “Buni qanday qilib yaxshiroq qilish mumkin?”. Bu orqali bola vaziyatga yangicha yondashadi boshqa yo‘llarini o‘ylab topadi yaxshiroq javob izlaydi.

Bolalar kam savol berishsa, bu ongning qiziquvchanligi u qadar rivojlanmaganligini anglatadi, buning ustida ko‘proq ishlash kerak. Bolalar bilan bu kabi suhbatlar tez-tez bo‘lib tursa, shuncha yaxshi bo‘ladi.

Sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni taxmin qilishni va tahlil qilishni o‘rgating. Bolaning biror narsa aytish yoki qilishdan oldin, o‘tirib, bu unga qanday ta’sir qilishi yoki maqsadga eng tez va xavfsiz tarzda qanday erishish mumkinligi haqida o‘ylashi juda yaxshi holat biz uni shunday faoliyatga undashimiz lozim.

Vaziyatlar bilan qiziqarli. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi, oiladagi qiyin vaziyatlarda u nima yo‘l tutishini va bu vaziyatdan qanday chiqib ketishini so‘rang. Misol uchun, agar u onasi uyda bo‘lmaganida tasodifan onasining sevimli vazalaridan birini sindirib qo‘ysa, u nima qiladi? Uyga vazifa qilib berilgan she’rni yodlab kelmasa, u nima qiladi? Yoki u bog‘chadagi eng yaxshi do‘stini qo‘rqitishayotganini ko‘rsa, u nima qiladi? Yoki u savdo markazida bo‘lsa va qandaydir tarzda onasi va dadasidan ajralib qolsa, u nima qiladi?

Bolalar odatda haddan tashqari faol tasavvurga ega. Oladigan ba’zi javoblardan hayratlanishga tayyor bo‘ling!

Ixtiro konvensiyasini o‘tkazing. Bolalar narsalarni yasashni va bir biriga o‘xshamagan ixtirolarni o‘ylab topishni yaxshi ko‘radilar.Ixtirolar konventsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tanqidiy fikrlash tadbirlaridan biri bo‘lib,bu xona kulgiga to‘la bo‘ladi, shuningdek, bolalar idealistik o‘zgarishlar qilishdan quvonch topadi. Sizga qurilish qog‘ozi, karton, stakan, qog‘oz plitalar, yelim, lenta, markerlar va boshqa narsalar kabi tasodifiy materiallar kerak bo‘ladi.Keyin bolalarga atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ixtiro qilishlari kerakligini ayting.Ular prototip yaratish va ixtirosi haqida ishonchli reklama taqdim etish uchun javobgardir.Bu har qanday tomoshabin uchun juda qiziqarli bo‘ladi va ba’zi bolalar o‘ylab topadigan g‘oyalar kelajakda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi mumkin.

Tugatilmagan hikoya taklif qiling. Oxirini o‘ylab top o‘yini. Maktabgacha yoshdagi bolalarga bir ertak kitobini ovoz chiqarib o‘qing, lekin oxiriga kelganda to‘xtang. Keyin yangi paydo bo‘lgan muallifingizdan hikoyaning oxirini yaratishni so‘rang. Agar ularga yordam kerak bo‘lsa, kulgili, imkonsiz, qo‘rqinchli yoki kutilmagan finalni taklif qiling.

Yoqtirish yoki yoqtirmaslik. Xuddi shu “tugashni bashorat qilish” qatorida bolalar bilan ertak o‘qing va uni birgalikda o‘qiyotganingizda unga savollar bering. “Aladdinning olma o‘g‘irlashi sizga yoqdimi?”, “Nega yoki nima uchun?”

Siz hatto tanqidiy fikrlash va mantiq yo‘liga bir oz chuqurroq kirib borishingiz mumkin: “Aladdin juda och edi va puli yo‘q edi, shuning uchun siz olmani olish to‘g‘rimi deb o‘ylaysiz, chunki unda ovqat yo‘q edi?”

O‘zingni boshqani o‘rniga qo‘y. Turli xil qahramonlar ishtirokidagi hikoyalarni o‘qiyotganda, bolalardan har bir qahramonning o‘rniga o‘zlarini qo‘yishlarini va bu qahramon nimani o‘ylayotgani yoki his qilayotganini tasvirlab berishini so‘rang.

Ko‘pgina ota-onalar farzandlarining o‘smirlik davrini “qiyin” deb atashadi, chunki bolaning ijtimoiy doirasi kengaymoqda va atrofidagi hamma yangi odamlar va do‘stlaridan ota-onalar xavfsiraydi.Bularning sabalaridan biri bolaning salbiy dunyoqarashlar ta’siri ostida qolishidan qo‘rqish – masalan, u yomon odatlarni ortiradi yoki o‘ylamasdan shoshilinch qarorlar qabul qiladi deb hisoblash va bu asosli holat.Bunday paytda bolaning rivojlangan tanqidiy fikrlashi unga vaziyatlarni, takliflarni oqilona baholashga va mustaqil ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, zamonaviy bolalar erta yoshdan boshlab gadjetlardan foydalanadilar va Internetga kirishlari mumkin. Global tarmoq juda ko‘p miqdordagi tasdiqlangan va tasdiqlanmagan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bunday sharoitda Internetda buzg‘unchi ta’sirlarga duchor bo‘lish xavfi mavjud.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bolaga faktlar va vaziyatlarni tahlil qilishga va mustaqil ravishda asosli, asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyati o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bolani tez-tez dahshatli oqibatlarga olib keladigan shoshilinch harakatlardan himoya qiladi. Esingizdami, ota-onangiz sizni ko‘chada o‘ynashga yuborishdan oldin sizni bezovta qiladigan “nega” degan savollaringizga “chunki men shunday dedim deb javob berganini eslaysizmi? Bu javobdan voz kechish kerak. Hozirgi texnika dunyosida bola bilan muloqot unga e’tiborli bo‘lish juda muhim chunki muloqotning yo‘qolishi bolaga juda salbiy ta’sir qiladi. Ular savol berganlarida savollariga to‘g‘ri va aniq javob berish bolaning qiyin vaziyatlarida uning to‘g‘ri qarorga kelishiga yo‘l ko‘rsatish ular biror bir hodisa ustida diqqatini jamlaganliklarida ularga halaqit qilmaslik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранном языке: Учебное пособие. -М.: Высшайа школа, 1980. 120 с

2. Kitobim-oftobim. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006.

4. https://www.researchgate.net/publication/228802472_Preschool_Education_Studies_ A_Bibliography_Organized_by_Research_Strengths 5

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XOTIRANI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mutalova Dilnoza Abdurashidovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD).
Xolmatova Zulayxo Imamovna,
Toshkent viloyati Parkent tumani 5-DMTT direktori.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotirani rivojlantirish usullari bir nechta bo‘lib ular bolaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xotira o‘zi nima? Xotira deb inson kundalik voqea xodisalarni esda saqlash,esga tushurish va unutish bilan bog‘liq bo‘lgan psixik jarayonga xotira deyiladi. Xotira bolalarda kundalik hayotida ya’ni maktabgacha ta’lim paytida o‘rgangan narsalarini, ko‘rgan rasmlari, yod olgan she’rlar, o‘qigan ertaklari va sahnada qilgan xatti-harakatlarini esda saqlab qolishi nazarda tutuladi.

Xotira nerv fiziologik asosi bosh miya yarimsharlari, neyro‘nlar,aksonlar, dendritlar va plazmalarning ishtirokining ta’siri ostida ma’lumotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni xotiradagi har bir xujayra inson hayotida juda katta ahamiyatga ega, chunki biz kundalik turmushda ishlatadigan so‘zlarimiz, ko‘rgan narsalarimiz, eshitgan so‘zlarimiz, bajarayotgan ishlarimiz xotirmizdagi hujayralar orqali xotirada saqlanib qoladi, keyinchalik esa biz eslaganimizda esimizga tushadi.

Tabiatda va jamiyatda namoyon bo‘ladigan har qanday toifadagi psixik hodisa o‘zining tarkibiga kiruvchi har bir qismini muayyan tartibda o‘zaro bog‘langan tarzda saqlab qolinishini talab etadi. Turli ko‘rinishga ega bo‘lgan "bog‘lanish " ga imkoniyat yoki shart- sharoit vujudga kelmasa u holda rivojlanish to‘grisida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas, chunki I.M.Sechenov iborasi bilan aytganda, “kishi chaqaloqlik holatida mangu qolib ketgan bo‘lar edi” degan. Ya’ni inson yon atrofdagi odamlari bilan yokida ko‘rgan, o‘qigan narsalarini, qilgan harakatlardan tortib bajargan ishlarigacha esga

tushurmaganda odamlar shu chaqaloq holda qolib ketishardi ya’ni dunyo bilan chambarchas bog‘lanmasdi degan. Tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha ko‘p vaqt bir xil signalni takrorlab turish bu bolalarda nafaqat bolalarda balki katta yoshdagi odamlarda ham xotirani yaxshi rivojlanishiga olib keladi. Agar takrorlanmasa tezda esdan chiqadi.

Bola xotirasini rivojlantirishda umumiy psixologiyada xotira 5 ta muhum mezonga,turga ya’ni ko‘rinishlarga ajratiladi: *1. Ruhiy holatning faolligiga ko‘ra xotira turlari:* a) harakat xotirasi; b) obrazli xotira; d) his-tuyg‘u xotirasi; c) so‘z mantiq xotira. *2. Ruhiy holatning maqsadiga binoan:* a) ixtiyoriy xotira; b) ixtiyorsiz xotira; d) mexanik xotira. *3. Ruhiy faoliyatning davomoiyligiga ko‘ra:* a) qisqa muddatli xotira; b) uzoq muddatli xotira; d) operativ (tezkor) xotira. *4. Ruhiy faoliyat qo‘zg‘atuvchisining sifatiga ko‘ra:* a) musiqiy xotira; b) eshitish xotirasi. *5. Ruhiy faoliyatning inson kasbiy yo‘nalishiga qarab:* a) fenomenal xotira; b) kasbiy xotira.

Bu xotirlarning hammasi bolalar nafaqat bolalar balki kattalar hayotida ham katta ahamiyatga ega. Masalan harakat xotirasi haqida quyidagicha ma’lumotlar keltirilgan.

Harakat xotirasi orqali bolalarga ertak aytishda, she’r yod olishda qanday harakatlar qilib aytish, yuz mimikasidan qanday foydalanish kerakligi haqida harakat xotirasi juda katta ahamiyatga ega.

Obrazli xotira esa bolaning tasavvuri, tevarak-atrof shuning bilan tovushlar, ta’mlar, ko‘rinishlar va bajargan ishlari orqoli xotirada qolishi mumkin.

His-tuyg‘u xotira – bu insonda kechadigan hissiyotlar, turli xil kechinmalar va atrof muhitga bizni qarashlarimiz.

Ixtiyoriy xotir – bu insonni esda saqlab qoladigan ma’lumotlari. Ixtiyoriy xotira biz uchun kerak bo‘ladigan narsalar, ma’lumotlarning xotiramizda saqlanishi. Bu faoliyatni odatda ong bevosita boshqaradi.

Ixtiyorsiz xotira insonni xohishiga bog‘liq emas, chunki maqsadsiz ega bo‘lgan ma’lumotlar, xabar, axborot, tasavvurning ko‘pchilik holati aks etadi. Ixtiyorsiz xotira bu inson ongida beixtiyor qoladi.

Uzoq mudattli xotira – bu bolalarda qayta-qayta takrorlash, turli xil yo‘llar bilan yod olish orqali hosil bo‘ladi va kelajakda biz o‘sha ma’lumotlarni eslaganimizda darrov esimizga tushadi va ma’lumotlarni oson tushunishga yordam beradi.

Qisqa muddatli xotira – bu inson hayotida juda qisqa muddat xotira bo‘lib bizga kerak bo‘lgan ma’lumotlarni qayta eslolmaslik,keyinchalik o‘sha ma’lumotlarni yana izlab yana xotiraga joylashimiz mumkin,lekin bu ma’lumotlarni takrorlab turmasak bu ma’lumotlar xotiradan o‘chib ketadi.

Operativ xotira – inson bevosita tez bajarayotgan harakatlari uchun xizmat qiladi ya’ni juda tez yod olish kabi xolatlar bo‘lishi mumkin, keyinchalik esa bu esimizda bo‘lmaydi. Psixologiyada “xulq-atvor va aqliy jarayonlarni ilmiy o‘rganish” – deb ta’riflanadi. Inson ongi va xulq atvori falsafiy qiziqishlar dastavval Misr, Fors, Xitoy, Gretsiya va Hindistonning qadimgi svilizatsiyalar davrida boshlangan. O‘sha payti ya’ni psixologiyaga qiziqishlar boshlangan paytda avvalo bolalarning psixologiyasi o‘rganilgan. Chunki yosh avlodlarning yetuk inson bo‘lib, yetishishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushurishi xotira deyiladi ya’ni bunda xotirada biz ko‘rgan narsamiz, bilgan ishlarimiz, qilayotgan harakatlarimiz va o‘qiyotgan kitoblarimiz xotiraga joylashadi va xotirada uzoq muddatli izlar qoldiradi va o‘sha izlar bizga keyinchalik ma’lumotlarni esga tushirishimizga yordam beradi.

Psixologiya-eksprimental tadqiqotlar sohasi sifatida 1854-yilda Germaniyaning Leyptsig shahrida Gustav Fexker hissiy tajribalar haqida hukum chiqarish va ularning

ustida qanday tajribalar o‘tkazish haqida 1-nazaryani yaratgan va shundan keyin bolalar psixologiyasi asta asta rivojlana boshlagan. Bolalar psixologiyasi haqida aniqrog‘i psixologiya haqida buyuk allomalar ham o‘z fikirlarini bildirgan va ko‘plab izlanishlar olib borgan. Abu Nasir Farobiy fikricha “Bolalar psixologiyasida o‘qituvchi bolalarga haddan tashqari qattiq qo‘llik bolalarda o‘qituvchiga nisbatan haddan tashqari nafrat tuyg‘usini kuchaytiradi”. “Bolalarga qanday muomila qilsangiz o‘zingizga ham shunaqa muomila qaytadi” deganlar. Bolalar o‘z fikirlarini aniq va ravon bildirishlari uchun tarbiyachi pedagoglar bolalar bilan yaxshi muomilada bo‘lib ularni psixikasini yaxshilab o‘rganishi kerak. Chunki bolalarning ichki kechinmasini, qabul qilish darajasini bilmay turub bola bilan ishlash juda qiyin bo‘ladi.

Abu Ali ibn Sino birinchi bor psixologiya fanidan tajriba olib borgan alloma hisoblanadi. U odamlarda emotsianal xolatlar bo‘yicha dastlabki tajribalarni amalga oshirgan. Uning “Tadbiri manozil“ asarida ta’lim tarbiya va bolalarda kechadigan psixologik holatlarga alohida e’tibor bergan. Bu asrda boblar bo‘lib bolalarni tarbiyalash uchun ruhiy holatini aniqlash qiziqishlari va odamlar bilam muloqati, o‘z tengqurlari bilan bo‘ladigan mulaqotlarni aniqlash va nimalarga qiziqishi haqida ko‘plab ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Abu Ali ibn Sino bolalar xotirasin rivojlantirish maqsadida turli xil o‘yinlar, turli xil mashqlar bajarish kerakligi haqida ko‘plab maslahatlar bergan. Ko‘plab matematik amllarni bajarish, ko‘p masalalar ishlash ya’ni bu masalani yechishda bolalar masaladagi sonlarni yodlashi va shunga ko‘ra masalalarni yechishi mumkin.

Farzand tarbiyasida aynan maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasini rivojlantirishda ota-onasi bilan bo‘ladigan muloqat o‘qituvchilar, tarbiyalanuvchi bolalar ya’ni bolaning o‘z tengqurlar bilan bo‘ladigan holatlarni va ular bilan o‘zaro muloqat va o‘sha paytda bolada kechadigan hissiyotlar haqida aytib o‘tgan. O‘qituvchi pedagoglar bolalar bilan individual ya’ni shaxsiy ishlashi kerak chunki bolani psixologik holatini bilmasdan u nimani xohlashini, nimalarga qiziqishini, va nimani yoqtiradi-yu nimani yoqtirmaydi, oilada bo‘ladigan muloqatlar ya’ni oila a’zolari bola bilan qanday muomilada bo‘ladi, ota-ona bola bilan vaqtini qanday o‘tkazishi haqida ma’lumot yig‘ish kerak. Bundan tashqari psixologiya, bo‘yicha bolalarni tarbiyalash, bolalarning psixik holatidan kelib chiqib unga muomala qilish, kerakligi haqida aytgan. Bolalarni tarbiyalash bo‘yicha xohishlar va ular bilan yakka holda ishlash ya’ni bu degani o‘z kasbini sevmagan inson o‘z ishiga e’tiborsiz bo‘ladi ya’ni bolalarning nima bilan shug‘ullanishi, nimani yaxshi ko‘rishi, nimaga qobiliyati bor-u nimaga qobiliyati yo‘q va bola bo‘ladigan barcha narsalarni e’tibordan chetta qoldiradi. Bunday tarbiyalavchilar hech qachon bolalar bilan yaxshi ishlay olmaydi shuning uchun inson egallagan kasbini sevishi va o‘sha kasbga mehr qo‘yishi kerak, shundagina ishlashi oson bo‘ladi.

Allomalar psixologik maslahat ishlarini olib borishda bir biriga yaqin bo‘lgan 4 tushunchani ajratadilar. Psexologiya, psixokomeksiya, shifokorsiz psixoterapiya, psixologik maslahat berish haqida o‘zlarini bilgan bilimlarini tarbiyachi, o‘qituvchilarga o‘rgatgan ya’ni bolalar bilan qanday ishlash ular bilan qanday suhbatlashish va ularda kechayotgan holatlar, tushunmovchiliklar yokida tengdoshlari bilan bo‘ladigan muloqatlar hamda o‘qish joyi, ovqatlanish joyi, televizor ko‘rish joyi va o‘yinchoqlarni o‘ynash joylarini tushuntirib borishlari kerak. Ota- ona bolasining xotirasi yaxshi rivojlanishu uchun bola bilan ko‘p birga bo‘lish turli xil ertaklar o‘qib berish, hayvonot bog‘lariga olib borish, bolani tinglash, va ko‘proq bolalar bilan o‘ynashiga qo‘yib berish va bolaligidanoq aqlni charxlovchi o‘yinlardan foydalanish kerak. Bolada bo‘ladigan

jarayonlar ularning qiziqishlari, iqtidorini aniqlab bolani to‘gri yo‘naltirish kerak. Bu bolalik davri eng beg‘ubor davr hisoblanadi.

XVII asr oxirida olimlar fanni davolashning psixik usullaridan foydalanishni ilmiy ravishda tushuntirib,asosalab berishga harakat qilgan. Bolalarda bir-biri bilan uyg‘unlashish va bir-biri bilan o‘ynash, bir-birining fikrlarini tinglashi va o‘zaro so‘zlarini erkin bayon qilishi kerak degan fikirni bildirgan. Hozirda bolalar psixologiyasi masalasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda bolalar dunyo qarashi, atrof muhiti, ular bilan bo‘ladigan dunyo qarash, bolalarga ota-onasidan beriladigan e’tibor, bolalarda asosiy o‘rin tutadi. Masalan bolalar psixologiyasida aytiladiki, ota-onaga nima yomon bo‘lsa bolaga ham o‘sha narsa yomon, ota-onaga nima yaxshi bo‘lsa bolaga ham o‘sha narsa yaxshi bo‘ladi. Bu holatlar bolalarda 10-12 yoshga qadar davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bolalar bu yoshdan keyin o‘zlari xulosa chiqara oladigan, oqni qoradan ajrata oladigan bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini rivojlantirishda ular bilan ko‘plab turli xil mashg‘ulotlar o‘tkazish bolalar bilan matematik amallarni, tenglamalarni, masalalarni ko‘plab bajarish kerak. Shundagina bolalarda aqliy jixatdan rivojlanish, va bolalarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Ota-onaning har bir qilgan ishlari va aytoyotgan so‘zlarni bola anglab oladi va buni bizga ko‘rsatib beradi, biz bunda bolalar uchun ko‘zgu hisoblanamiz bolalar esa bizni aksimiz bo‘ladi.

Bolalar psixologiyasi, psixik jarayonlar ma’rifiy, nuqtaiy, hissiy, irodaviy kuchlar paydo bo‘lishi va rivojlanishi bolalarda psixik holatini yaxshilash uchun bolalar bilan o‘ynash turli xil ertaklarni tinglash va o‘zlari shu ertak qahramonlari bo‘lishi, she’rlar yod olish turli xil tez aytishlar va turli xil maqollar va masallar tinglash, bolani psikikasiga ta’sir qiladi va bola xotirsaida yaxshi qoladi chunki bolaga boshqa birov ko‘rsatgandan ko‘ra bolani o‘zi qilgani foydaliroq bo‘ladi, sababi bola o‘sha bajarayotgan mashiq bo‘lsin, aytayotgan she’r bo‘lsin yokida ertak qahramoni bo‘lsin bolani yodida ya’ni xotirasida o‘chmas iz bo‘lib qoladi. Bola bu payti o‘zini o‘sha qahramonlar o‘rniga qo‘yib ko‘radi ya’ni o‘sha qahramonlar yonida bo‘lganday yokida o‘sha qahramonlarni jasotratini ham o‘zida mujassam qilishi mumkin va eng tortinchoq bola ham o‘z qobilyatini ko‘rsata bila oladi. Bolada shunday qobilyatlarni shakllantirish va rivojlantirish, uchun avvalo ota-onaning o‘rni birinchi o‘rinda turadi, undan keyin esa tarbiyachilar, o‘qituvchilar, pedagoglar va psixologlar rol o‘ynaydi. Psixologiya eng avvalo psixikani insonga xos shakli bo‘lmish ong va tafakkur, o‘z-o‘zini iroda etishi, anglashni bildiradi. Bu bog‘liqlik asosan bolalarda ayni rivojlanishda juda zarur, chunki bolalarning ruhiy holatini aniqlash, bolalar bilan yaxshi chiqishish uchun bolani psixikasini bilish kerak, keyin bola nimalarga qobiliyatli-yu, nimalarda oqsaydi, shularni bilish o‘qituvchilar uchun asosiy kerakli bo‘ladigan ma’lumotlar hisoblanadi. Bola ota-onasidan olgan bilimlari, ota-onasini bergan tarbiyasi bilan shakllanadi ba’zida bolalarda shunday holat bo‘lib qolishi mumkin meni ota-onam menga bunaqa degan lekin anavi o‘rtog‘im bunaqa dedi deb o‘ylashi mumkin. Lekin bola yo‘q unaqamas yo‘q menga oyim yokida dadam bunaqa deb o‘rgatganlar deb boshqani gapiga kirmasligi mumkin. Bolaga boshida nima to‘g‘ri nima noto‘griligi haqida uqtirsangiz o‘shani kelajakdada hayotidada qo‘llaydi. Bolalar xotirasini rivojlantirishda bolani qabul qilish qobiliyatini bilib olishimiz kerak bo‘ladi ba’zi bir bolalar bir marta takrorlagandan tushunib bilib oladi, ba’zi bir bolalar esa bir necha marta takrorlash orqali bilib olishi mumkin, bunday paytda bolaga ko‘proq mashqlar o‘tkazish, turli xil xotirani kuchaytiruvchi metodlardan foydalanish kerak bo‘ladi. Bolalarga o‘yin tanlashda ularning yoshiga qarash kerak ya’na ularni soniga qarab ham turli xil o‘yin tanlash kerak bo‘ladi chunki siz tanlagan o‘yinda

bolalarni hammasi ham ishtirok etolmay qolishi mumkin va o‘sha payti bolalarda xafagarchilik xolati ba’zilarda esa guruhga qo‘shila olmaslik xolati bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bolalarga to‘g‘ri o‘yin tanlash, bolalarni hammasini guruh qilish, shakllantirish kerak. Bolalar uchun o‘yin tanlashda ham bolalarni xotirasini charxlovchi va bolaning qobiliyatlarini ko‘rsata biluvchi o‘yin tanlash kerak bo‘ladi. Chunki bolalarning diqqatini torta bilish o‘ta murakkab narsa, bolani diqqatini juda oz fursat jamlay oladi, bolalarning diqqati juda tarqoq bo‘ladi va boshqa ishlar bilan chalg‘ib ketishlari, yokida bola uchun bu bo‘layotgan dars yoki o‘yinlarga qiziqmasdan qolishi mumkin, shuning uchun bolalar uchun juda qiziqarli metodlardan foydalanish kerak. Bolalar xotirsini rivojlantirishda asosan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish kerak turli xil metodlardan foydalanib qiziqarli o‘yinlarni bolalar bilan birgalikda o‘ynash kerak.

Asosan, bola xotirsini rivojlantirishda matematik amallardan ko‘p foydalanish kerak turli xil masalalar va turli xil sonlar o‘yini, sonlarni to‘g‘ri sanash, teskariga sanashlarni mashq qilish kerak. Bola bilan turli amallarni bajarish, turli xil shakllar yordamida ularga shakllarni tanishtirish yokida o‘sha shakllarning ranglarini aniqlash ranglarni bir-biridan ajrata olishni ya’ni farqlashni o‘rgatish kerak. Bola yorqin ko‘zga tashlanadigan ranglarga qaraydi bu ranglar bolalarni o‘zlariga jalb qiladi. Faqatgina bolani xotirasini rivojlantirishda ota-ona, tarbiyachi pedagoglar va yon atrofdagilarni o‘rni ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T., Alimova. G.K., Bolalar psixologiyasi va psixadiagnostikasi. – T.: TDPU. 2017.
2. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksprimental tahlil. – T.: Noshir. 2010.
3. Do‘stmuhammedova. Sh.A, Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar. 2013.
4. Шаполавенко И.В. Возратная психология. Москва. 2007.

ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ РУССКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Мухамедова Р.С.
Заведующая кафедрой «Кинооператорское мастерство»,
Доктор философии Ph.D., и.о.доцент.
Филиал Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Всероссийский ГУ кинематографии имени С.А.Герасимова» (ВГИК) в городе Ташкенте

Аннотация. *В статье рассматривается проблема формирования гражданской позиции студентов в процессе изучения русской классической литературы в условиях современного гуманитарного образования. Особое внимание уделяется педагогическим условиям, способствующим развитию критического мышления, нравственного сознания и социальной ответственности обучающихся. Делается вывод о значимости русской классической литературы как эффективного средства формирования гражданской идентичности и духовно-нравственных ориентиров личности.*

***Ключевые слова**: гражданская позиция, русская классическая литература, гуманитарное образование, студенты, нравственные ценности, критическое мышление, личностное развитие.*

Современное общество предъявляет к системе высшего образования новые требования, среди которых особое место занимает формирование гражданской позиции молодежи. В условиях глобализации и культурного многообразия важным становится воспитание личности, способной к осознанному участию в общественной жизни, обладающей чувством ответственности, патриотизма и уважения к культурному наследию.

В этом контексте особую роль играет изучение русской классической литературы, которая традиционно рассматривается как мощный инструмент духовно-нравственного воспитания. В процессе обучения формируются не только профессиональные компетенции студентов, но и их мировоззренческие установки, определяющие отношение к обществу и государству.

Гражданская позиция понимается как интегративное качество личности, включающее систему ценностей, убеждений и установок, определяющих отношение человека к обществу, государству и самому себе. Она формируется под воздействием различных факторов: социальной среды, образовательного процесса, культурных традиций и личного опыта.

В педагогической науке подчеркивается, что формирование гражданской позиции невозможно без развития критического мышления, способности к моральной рефлексии и осознания собственной ответственности за происходящее в обществе. В этом отношении художественная литература выступает как уникальное средство моделирования жизненных ситуаций, позволяющее студентам переживать и осмыслять сложные моральные и социальные конфликты.

Русская классическая литература XIX века обладает значительным воспитательным потенциалом. Произведения таких авторов, как А.С.Пушкин, Л.Н.Толстой, Ф.М.Достоевский, И.С.Тургенев и А.П.Чехов, поднимают фундаментальные вопросы человеческого существования: свободы и ответственности, долга и совести, справедливости и нравственного выбора.

Через анализ литературных текстов студенты получают возможность: - осмыслить исторические и социальные процессы; - сформировать нравственные ориентиры; - развить эмпатию и способность к сопереживанию; - научиться аргументированно выражать собственную позицию.

Например, изучение романа «Преступление и наказание» позволяет рассмотреть проблему личной ответственности за совершенные поступки, а «Война и мир» — осмыслить роль личности в истории и значение патриотизма.

Эффективность формирования гражданской позиции студентов во многом зависит от организации образовательного процесса. Важными условиями являются:

1. *Интеграция гуманитарных дисциплин* — объединение литературы, истории и философии способствует более глубокому пониманию общественных процессов.

2. *Диалог культур* — сопоставление различных культурных традиций формирует толерантность и уважение к другим народам.

3. *Практико-ориентированный подход* — применение знаний в творческой и аналитической деятельности усиливает личностную вовлеченность студентов.

Систематическое обращение к русской классической литературе способствует: - формированию устойчивых нравственных установок; - развитию социальной ответственности; - укреплению гражданской идентичности; - повышению уровня культурной и эстетической компетентности студентов.

Кроме того, студенты начинают осознавать значимость своей будущей профессиональной деятельности как средства воздействия на общественное сознание.

Таким образом, изучение русской классической литературы является важным фактором формирования гражданской позиции студентов. Литературные произведения не только обогащают культурный кругозор обучающихся, но и способствуют развитию их нравственного сознания, критического мышления и социальной активности.

В условиях современных вызовов гуманитарное образование должно сохранять и развивать воспитательный потенциал литературы, обеспечивая формирование гармоничной и ответственной личности, способной к осмысленному участию в жизни общества.

Использованной литературы:

1. Выготский Л. С. Психология искусства. — М.: Педагогика, 1987.
2. Лихачёв Д. С. Письма о добром и прекрасном. — СПб.: Азбука, 2014.
3. Толстой Л. Н. Война и мир. — М.: Эксмо, 2018.
4. Достоевский Ф. М. Преступление и наказание. — М.: АСТ, 2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Abduraximova Sarvinoz Ibroxim qizi,
Muhammadova Oqilaxon Jahongir qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning nazariy-pedagogik asoslari, uning bolalar tafakkuri, nutqi va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri yoritilgan. Badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida bolalarda estetik did, tasavvur, ijodkorlik hamda kommunikativ kompetensiyalar shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, pedagog tomonidan badiiy adabiyotdan samarali foydalanish usullari va metodik tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy adabiyot, maktabgacha ta’lim, estetik tarbiya, nutq rivoji, ijodiy tafakkur, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ertak, hikoya, pedagogik metodlar.*

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi. Chunki badiiy asarlar orqali bola nafaqat yangi bilimlarga ega bo‘ladi, balki atrof-muhitni, insoniy munosabatlarni, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini anglay boshlaydi. Ayniqsa, ertak, hikoya, she’r va rivoyatlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda ularning ruhiy olamini boyitadi. Badiiy adabiyot bolalarda estetik didni

shakllantirishning samarali vositasidir. Bola go‘zal so‘z, obrazli ifoda va mazmunli syujet orqali go‘zallikni his qilishni o‘rganadi. Bu esa uning san’atga, adabiyotga va umuman madaniy qadriyatlarga qiziqishini oshiradi. Badiiy matndagi obrazlar, qahramonlarning xatti-harakati bolada baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi. U yaxshi va yomon xulq-atvorni solishtirib, to‘g‘ri xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Maktabgacha yosh – bu tasavvur va fantaziya kuchli rivojlanadigan davrdir. Badiiy asarlar aynan shu xususiyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Ertaklardagi sehrli voqealar, hayvonlar tilga kiradigan syujetlar yoki sarguzashtli hikoyalar bolalarda keng tasavvur uyg‘otadi. Bola o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yadi, voqealarni ichdan his qiladi va o‘z dunyoqarashini boyitadi. Bu esa ijodiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim jihati – nutq rivojiga ko‘rsatadigan ta’siridir. She’r va hikoyalarni tinglash, ularni qayta hikoya qilish, qahramonlar nutqini ifodalash jarayonida bolalarning lug‘at boyligi ortadi. Ular yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradilar, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni o‘rganadilar. Ifodali o‘qish va eshitganini tushunish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa bolaning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Badiiy adabiyot orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya ham samarali amalga oshiriladi. Ertak va hikoyalarda ko‘pincha ezgulik, do‘stlik, mehnatsevarlik, halollik kabi ijobiy fazilatlar targ‘ib qilinadi. Salbiy qahramonlar esa o‘z xatti-harakatlari oqibatida jazolanadi yoki xatolarini tushunib yetadi. Bola bunday voqealar orqali hayotiy saboq oladi. Bu jarayon bevosita didaktik targ‘ibotdan ko‘ra samaraliroq bo‘lib, bolaning ongiga tabiiy ravishda singadi.

Pedagogning vazifasi – badiiy asarlarni to‘g‘ri tanlash va ularni bolalarga yoshiga mos tarzda yetkazishdir. Asarlar mazmuni sodda, tushunarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. O‘qish jarayonida pedagog intonatsiya, pauza va mimikadan foydalanib, asarni jonlantirishi lozim. Bu bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol tinglovchiga aylantiradi.

Badiiy adabiyot bilan ishlashda turli metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, suhbat metodi orqali asar mazmuni muhokama qilinadi, savol-javob yordamida bolalarning fikrlashi faollashtiriladi. Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish orqali qahramon obrazlari jonlantiriladi. Rasmlar chizish yoki kollaj tayyorlash orqali bolalar o‘z tasavvurlarini ifodalaydilar. Bu usullar integrativ yondashuvni ta’minlaydi va o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Audio kitoblar, multimediali taqdimotlar, animatsion ertaklar bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Biroq pedagog bu vositalardan me’yorida va maqsadga muvofiq foydalanishi zarur. Chunki jonli o‘qish va bevosita muloqotning o‘rni beqiyosdir.

Ota-onalar bilan hamkorlik badiiy adabiyot orqali tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim omildir. Uy sharoitida kitob o‘qish an’anasini shakllantirish, bolaga ertak aytib berish, kitob do‘konlariga birga borish kabi faoliyatlar bolaning kitobga mehrini oshiradi. Agar bola kitobni qiziqish bilan o‘qisa yoki tinglasa, unda mustaqil mutolaa ko‘nikmasi shakllanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kitob burchagini tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. Rang-barang, chiroyli bezatilgan kitoblar bolalarning e’tiborini tortadi. Kitoblarni erkin ko‘rish, varaqlash va muhokama qilish imkoniyati yaratilishi zarur. Bu esa bolalarda mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Badiiy adabiyot bolalarda milliy qadriyatlar va an’analarni singdirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar orqali milliy

ruh, urf-odatlar va ma’naviy meros yosh avlodga yetkaziladi. Bu esa bolalarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantiradi.

Shu bilan birga, xorijiy bolalar adabiyotidan namunalar bilan tanishtirish ham dunyoqarashni kengaytiradi. Turli madaniyatlar, boshqa xalqlarning ertaklari orqali bola global tafakkurga ega bo‘ladi. Biroq bu jarayonda milliy mentalitet va qadriyatlarga moslik e’tiborga olinishi zarur. Badiiy adabiyot bilan ishlashning samaradorligi muntazamlikka bog‘liq. Haftalik reja asosida ertak o‘qish, she’r yodlash va hikoya muhokama qilish jarayoni tizimli olib borilishi lozim. Takrorlash va mustahkamlash orqali o‘zlashtirish darajasi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularning nutqiy, intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Badiiy asarlar orqali bola hayotni anglaydi, estetik zavq oladi va ijtimoiy tajriba orttiradi. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayon esa bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi hamda ularni kelgusida mustaqil fikrlovchi, ma’naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: 2022.
2. Mirziyoyeva Sh.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiya va badiiy adabiyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 184 b.
3. Yuldasheva D.A. Bolalarni badiiy adabiyot orqali tarbiyalash metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 156 b.
4. Isenberg J.P., Jalongo M.R. Creative Thinking and Arts-Based Learning in Early Childhood Education. – 6th ed. – New York: Pearson, 2016. – 432 p.

BIBLIOTERAPIYA – SHAXSNI IJTIMOIYLASHUVGA TAYYORLASH VOSITASI SIFATIDA

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Avezova Marhabo Mahmud qizi,
Boltaboyeva Maftuna Bahodir qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada biblioterapiyaning shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlashdagi psixologik-pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Biblioterapiya shaxsning ijtimoiy tajribani anglash, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, emotsional va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida asoslab beriladi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida biblioterapiya orqali ijtimoiylashuvga tayyorgarlikni shakllantirish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *biblioterapiya, ijtimoiylashuv, shaxs rivoji, ijtimoiy kompetensiya, emotsional intellekt, maktabgacha ta’lim.*

Zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan uning ijtimoiylashuv darajasiga bog‘liqdir. Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat qadriyatlari, me’yorlari va ijtimoiy rollarini o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, u bolalik davridan boshlab uzluksiz ravishda kechadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri shaxs

ijtimoiylashuvining poydevori sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunda bolalarda ijtimoiy moslashuvning qiyinlashuvi, kommunikativ muammolar, emotsional beqarorlik holatlari ko‘plab pedagog va psixologlarni bilvosita, insonparvarlikka asoslangan texnologiyalarni izlashga undamoqda. Ana shunday samarali yondashuvlardan biri biblioterapiya hisoblanadi.

Biblioterapiya shaxsga bevosita ta’sir o‘tkazmasdan, badiiy matnlar orqali ijtimoiy tajribani anglash va ichkilashtirish imkonini beradi. Shu bois, biblioterapiyani shaxsni ijtimoiylashuvga tayyorlashning muhim vositasi sifatida ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat hayotiga moslashuvi, ijtimoiy tajribani egallashi va uni individual xulq-atvorda namoyon etishi jarayoni sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon shaxsning kognitiv, emotsional va xulqiy sohalarini qamrab oladi. Psixologik nuqtai nazardan, ijtimoiylashuv muloqot, identifikatsiya, empatiya, refleksiya kabi mexanizmlar orqali amalga oshadi. Pedagogik yondashuvda esa ijtimoiylashuv tarbiya, ta’lim va ijtimoiy tajribani uzatish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Maktabgacha yosh davrida bola ijtimoiy muhitni asosan obrazlar, o‘yinlar va hikoyalar orqali idrok etadi. Shu sababli, ijtimoiylashuv jarayonida badiiy matnlarning roli beqiyosdir.

Biblioterapiya psixologiya va pedagogika fanlari chorrahasida shakllangan bo‘lib, terapevtik va rivojlantiruvchi maqsadlarda adabiyotlardan foydalanishni nazarda tutadi. Biblioterapiyaning nazariy asoslari psixoanalitik, gumanistik va narrativ yondashuvlarga tayanadi. Psixoanalitik yondashuvda badiiy matnlar shaxsning ichki kechinmalarini ramziy tarzda ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. K.Jung ta’limotida ertak va afsonalardagi arxetipik obrazlar shaxsning ijtimoiy tajribani anglashiga yordam beradi. Narrativ psixologiya esa shaxsning hayotiy tajribasini hikoya orqali qayta qurish imkoniyatini ta’kidlaydi. Biblioterapiyada aynan shu jihat shaxsning ijtimoiy rollarni tushunishi va qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biblioterapiya shaxs ijtimoiylashuviga quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi:

1. Ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish: Badiiy asarlarda tasvirlangan qahramonlar orqali shaxs turli ijtimoiy rollar (do‘st, oila a’zosi, jamiyat a’zosi) bilan tanishadi va ularni ichkilashtiradi. Bu jarayon identifikatsiya mexanizmi orqali amalga oshadi.

2. Emotsional-intellektual rivojlanish: Biblioterapiya shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalarning kechinmalarini tushunish va empatiya ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi.

3. Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish: Matn asosida olib boriladigan suhbat va muhokamalar shaxsning muloqot madaniyatini rivojlantiradi, fikrini ifodalash va boshqalarni tinglash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni anglash: Badiiy matnlarda ifodalangan axloqiy muammolar shaxsda ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshda biblioterapiya bolalarning ijtimoiy tajribani bilvosita o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ertak va hikoyalar orqali bola jamiyatdagi munosabatlar tizimini tushuna boshlaydi, ijobiy xulq-atvor namunalarini o‘zlashtiradi. Biblioterapiya mashg‘ulotlari davomida bolalarda hamkorlik, o‘zaro yordam, muammoli vaziyatlardan chiqish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Ayniqsa, tortinchoq va ijtimoiy moslashuvi qiyin bolalar bilan ishlashda biblioterapiya samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, biblioterapiya shaxsni ijtimoiylashuvga tayyorlashda muhim psixologik-pedagogik vosita hisoblanadi. U shaxsning ijtimoiy tajribani anglash, emotsional va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy

qadriyatlarni ichkilashtirish jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida biblioterapiyani tizimli joriy etish bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Смысл, 2005. – 512 с.
2. Зинкевич-Евстигнеева Т.Д. Путь к волшебству: теория и практика сказкотерапии. – СПб.: Речь, 2010. – 320 с.
3. Гнездилов А.В. Психотерапевтические сказки. – СПб.: Речь, 2012. – 256 с.
4. Bettelheim B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. – New York: Vintage Books, 1976. – 352 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Ismoilova Malika Safarniyoz qizi,
Tilovova Nodira Ilhom qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari va amaliy usullari yoritilgan. Nutq rivoji bolaning fikrlash, ijtimoiy-emotsional va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirishning integrativ metodlari, badiiy adabiyotdan, dramatik o‘yinlardan va interaktiv faoliyatlardan foydalanish usullari hamda ota-ona va pedagog hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *nutq rivoji, maktabgacha ta’lim, kommunikativ kompetensiya, badiiy adabiyot, dramatik o‘yin, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, ijodiy tafakkur, pedagogik metodlar, ota-ona hamkorligi, interaktiv mashg‘ulot.*

Maktabgacha yosh bolalarning nutqini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Nutq bolaning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u maktabga tayyorgarlik va kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Nutq nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki fikrlash, muloqot qilish va ijtimoiy tajriba orttirish qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida nutq rivojiga tizimli va kompleks yondashuv talab qilinadi. Nutqni rivojlantirish jarayonida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Ertak, hikoya, she’r va rivoyatlar bolalarda estetik didni shakllantiradi, tasavvur va fantaziyani rivojlantiradi. Badiiy matnlar orqali bola yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, nutqini boyitadi va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap qurishni o‘rganadi. Pedagog tomonidan ifodali o‘qish, savol-javoblar, muhokamalar va sahnalashtirish usullaridan foydalanish nutqni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, badiiy adabiyot bolalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, do‘stlik, halollik, ezgulik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Nutq rivoji bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi. U bolaga o‘z fikrini aniq ifodalash, savol berish va muloqotda ishtirok etish imkonini yaratadi.

Jamoaviy mashg‘ulotlar, dramatik o‘yinlar, rolli o‘yinlar va pantomima orqali bolalar boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganadilar, o‘zaro hurmat va empatiya tuyg‘ularini rivojlantiradilar. Nutqning rivojlanishi bolalarda ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi va ularni jamiyatga tayyorlaydi.

Pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish integrativ yondashuvni talab qiladi. Masalan, dramatik o‘yinlar orqali bola hikoya matnini jonlantiradi, qahramon obrazini ijro etadi va nutqini boyitadi. Pantomima va improvizatsiya orqali u nutqni harakat va mimika bilan uyg‘unlashtiradi. Musiqali mashg‘ulotlar, qo‘shiq va ritmik o‘yinlar nutqning melodik va intonatsion xususiyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, tasviriy san’at va rasm chizish orqali bola voqealarni izohlaydi va fikrini vizual tarzda ifodalaydi. Bularning barchasi nutqni rivojlantirish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Nutq rivojida ota-ona hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Uy sharoitida kitob o‘qish, ertak aytib berish, savol-javoblar orqali bola nutq faoliyati muntazam qo‘llab-quvvatlanadi. Bolaga interaktiv o‘yinlar, dialoglar va hikoya tahlillari orqali fikrini erkin ifodalash imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa nutq rivoji faqat maktabgacha ta’lim tashkilotida emas, balki uy sharoitida ham mustahkamlanadi. Nutqni rivojlantirish jarayonida bolalarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ham e’tiborga olish zarur. Masalan, talaffuzdagi xatolar, so‘z boyligining yetishmasligi, muloqotga tortinchoqlik yoki nutqni tushunishdagi qiyinchiliklar bolalar orasida uchraydi. Bu holatlarda individual yondashuv, maxsus mashqlar, qo‘shimcha o‘qish va dramatik faoliyatlar orqali muammolarni bartaraf etish mumkin. Nutq rivojida muvaffaqiyatga erishish uchun muntazam monitoring va natijalarni tahlil qilish ham muhimdir.

Zamonaviy pedagogik tajribalarda nutqni rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ham tavsiya etiladi. Audio-kitoblar, multimediali ertaklar, animatsiyalar va interaktiv dasturlar bolalarda nutq qiziqishini oshiradi. Biroq bu vositalardan me’yorida va pedagog nazorati ostida foydalanish muhim, chunki jonli o‘qish va bevosita muloqotning pedagogik qiymati yuqori.

Nutqni rivojlantirish bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular muloqot, o‘qish va ijodiy faoliyatda faol ishtirok etadilar. Bolalarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ifodalash va boshqalarning fikrini tushunish qobiliyatlari shakllanadi. Nutq rivoji maktabga tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida bolani kelajakdagi ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi.Nutq rivojini ta’minlash jarayonida pedagogik yondashuv sifatida integratsiyalashgan metodlar muhimdir. Badiiy adabiyot, dramatik o‘yinlar, pantomima, musiqali va vizual faoliyatlar birgalikda qo‘llanilganda bola nutqi rivojlanadi, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar mustahkamlanadi. Shu tariqa maktabgacha ta’lim jarayoni bolaning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish – bu ularning kommunikativ, intellektual, ijtimoiy-emotsional va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi kompleks pedagogik jarayon. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik faoliyat orqali bolalar nutqini boyitadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, estetik va ma’naviy didni oshiradi hamda jamiyatga moslashuvchan, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalanadi. Shu sababli nutqni rivojlantirish maktabgacha ta’limning ajralmas va eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: 2022.

2. Mirziyoyeva Sh.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivoji va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 168 b.

3. Yuldasheva D.A. Nutqni rivojlantirish metodikasi: badiiy adabiyot va dramatik o‘yinlar orqali. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 142 b.

4. Isenberg J.P., Jalongo M.R. Creative Thinking and Language Development in Early Childhood Education. – New York: Pearson, 2016. – 432 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TEATR FAOLIYATI ORQALI IJODIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Murodullayeva Orzigul Xaqnazar qizi,
Ismoilova Sevinch Qudrat qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda teatr faoliyati vositasida ijodiy tafakkur, nutq madaniyati hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritiladi. Teatr elementlari asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Dramatik o‘yinlar, improvizatsiya, pantomima va qo‘g‘irchoq teatri kabi shakllarning bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *teatr faoliyati, dramatik o‘yin, improvizatsiya, qo‘g‘irchoq teatri, ijodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, estetik tarbiya, maktabgacha ta’lim.*

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy jihatdan barkamol shakllanishi uchun ta’lim jarayoni qiziqarli, faol va ijodiy tashkil etilishi zarur. Shu jihatdan teatr faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyoji bo‘lgan o‘yin bilan uyg‘unlashgan holda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Teatr elementlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, nutqini rivojlantiradi va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Teatr faoliyati – bu badiiy obraz yaratish, sahna harakati, nutq va mimika orqali mazmunni ifodalash jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dramatik faoliyat o‘yin shaklida tashkil etilgani sababli u tabiiy va qiziqarli kechadi. Bola rol ijro etish jarayonida nafaqat matnni yodlaydi, balki obrazga kiradi, uning xarakterini his qiladi va o‘z harakatlari orqali mazmunni ifodalaydi. Bu esa uning tafakkuri va hissiy dunyosini boyitadi. Teatr faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri – nutq rivojiga ko‘rsatadigan ta’siridir. Sahna chiqishlari jarayonida bolalar ifodali o‘qish, to‘g‘ri talaffuz, intonatsiyani saqlash va dialog qurish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu jarayon lug‘at boyligini kengaytiradi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish malakasini shakllantiradi. Nutqiy faollikning ortishi esa bolalarning umumiy kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Teatr faoliyati ijtimoiy-emotsional rivojlanishda ham muhim o‘rin tutadi. Bola turli obrazlarni ijro etish orqali har xil his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi va ularni anglaydi. Qahramonning jasorati, qo‘rquvi, mehribonligi yoki xatolari orqali bola empatiya tuyg‘usini shakllantiradi. Jamoaviy sahnalashtirish jarayonida esa hamkorlik qilish, rollarni kelishib olish, boshqalarning fikrini hurmat qilish kabi ijtimoiy

ko‘nikmalar rivojlanadi. Bu esa bolani jamiyatga moslashuvchan va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Maktabgacha ta’lim amaliyotida teatr faoliyatining bir necha samarali shakllari qo‘llaniladi:

Dramatik o‘yinlar. Ertak yoki hikoya asosida sahna ko‘rinishlari tashkil etiladi.

Qo‘g‘irchoq teatri. Qo‘g‘irchoqlar yordamida obraz yaratish bolalarda erkinlik va ishonchni kuchaytiradi.

Pantomima. So‘zsiz harakat orqali mazmunni ifodalash bolalarda tana harakati madaniyatini rivojlantiradi.

Improvizatsion teatr. Oldindan tayyorlanmagan sahna chiqishlari bolalarda tezkor fikrlashni shakllantiradi.

Musiqali sahnalashtirish. Qo‘shiq va raqs elementlari bilan boyitilgan chiqishlar estetik didni rivojlantiradi.

Teatr faoliyati bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Improvizatsiya elementlari, yangi syujet o‘ylab topish yoki obrazni mustaqil talqin qilish jarayonida bola kreativ fikrlashni o‘rganadi. U mavjud vaziyatga mos ravishda harakat qilishni, o‘z g‘oyasini ifodalashni va noodatiy yechimlar topishni mashq qiladi. Bu esa kelgusida muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatining shakllanishiga zamin yaratadi. Amaliyotda teatr faoliyati turli shakllarda tashkil etiladi. Dramatik o‘yinlar ertak yoki hikoya asosida sahnalashtiriladi. Qo‘g‘irchoq teatri esa ayniqsa tortinchoq bolalar uchun qulay vosita bo‘lib, ular qo‘g‘irchoq ortida o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadilar. Pantomima orqali bolalar so‘zsiz harakat bilan mazmunni ifodalashni o‘rganadilar, bu esa tana harakati va mimika madaniyatini rivojlantiradi. Musiqali sahnalashtirish esa estetik did va ritm tuyg‘usini shakllantiradi.

Teatr faoliyatini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur: - bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; - ixtiyoriylik va qiziqish asosida faoliyatni tashkil etish; - ijobiy rag‘batlantirish; - har bir bolaga rol berish orqali teng ishtirokni ta’minlash; - vizual va sahna atributlaridan foydalanish. Shuningdek, teatr faoliyatini nutq o‘stirish, musiqa, tasviriy san’at va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan integratsiya qilish yuqori samaradorlik beradi.

Teatr faoliyatini samarali tashkil etish pedagogdan maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi. Avvalo, bolalarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Har bir bolaga faol ishtirok etish imkoniyati yaratilishi, ixtiyoriylik va qiziqish tamoyili saqlanishi zarur. Rag‘batlantirish va ijobiy baholash bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, sahna atributlari, kostyumlar va vizual vositalardan foydalanish bolalarning motivatsiyasini oshiradi. Teatr faoliyatini boshqa ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqa va tasviriy san’at bilan uyg‘unlik bolalarning estetik va kommunikativ kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Shu tariqa teatr faoliyati kompleks rivojlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada, teatr faoliyati bolalarda kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular erkin muloqot qilish, jamoada ishlash, o‘z fikrini ifodalash va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa maktabga tayyorgarlik darajasini oshiradi hamda bolaning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda teatr faoliyati ularning nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik vositadir. To‘g‘ri tashkil etilgan teatr mashg‘ulotlari bolalarda o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi,

ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va ijtimoiy moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Shu bois teatr faoliyatini maktabgacha ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida tizimli ravishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: 2022.

2. Abdullayeva Q., Xasanova M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 248 b.

3. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – London: Routledge, 2016. – 320 p.

4. Ismoilova N.B. Teatr faoliyati orqali bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish // Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2023. – №4. – B. 45–49.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY ADABIYOT ORQALI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY TADQIQOT

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Tangriberganova Mohinur Muratboy qizi,
Sohibova Sevinch Umidjon qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyot bilan tanishtirishning nazariy-pedagogik asoslari, uning nutq, tasavvur, ijodiy tafakkur va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta’siri yoritilgan. Ertak, hikoya, she’r va rivoyatlar orqali bolalarning estetik didi, ijodiy fikrlash qobiliyati, kommunikativ va ma’naviy-axloqiy kompetensiyalari shakllanishi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog tomonidan badiiy adabiyotdan samarali foydalanish metodlari, dramatik o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, badiiy asar, maktabgacha ta’lim, nutq rivoji, ijodiy tafakkur, estetik tarbiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, dramatik o‘yin, ertak, pedagogik metodlar, ota-ona hamkorligi.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Bolalar tabiatidan kelib chiqadigan o‘yin, fantaziya va tasavvur bilan bog‘liq faoliyatlarni rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan badiiy adabiyot maktabgacha ta’limning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Badiiy asarlar orqali bola atrofdagi voqealarni tushunadi, insoniy munosabatlarni anglaydi, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi va nutqini rivojlantiradi.

Badiiy adabiyot bolalarda estetik didni shakllantiradi. Ertak va hikoyalar go‘zal so‘z va obrazli ifodalarni o‘z ichiga oladi, bu esa bolaning tasavvurini kengaytiradi. Masalan, hayvonlar, sehrli voqealar, qahramonlarning sarguzashtlari bolalarda fantaziyani rivojlantiradi. Bola o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yib, voqealarni ichdan his qiladi va syujetni talqin qiladi. Shu bilan birga, badiiy asarlarni tahlil qilish orqali bolalar tafakkurini mustahkamlaydi, sabab-oqibat aloqalarini tushunishni o‘rganadi. Nutq rivoji badiiy adabiyot orqali samarali shakllanadi. She’r, hikoya yoki ertaklarni tinglash va qayta aytish jarayonida bolalar yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, grammatik jihatdan to‘g‘ri

gap tuzishni o‘rganadi va ifodali nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagoglar o‘qish jarayonida intonatsiya, pauza, mimika va harakatdan foydalangan holda asarni jonlantiradi. Shu tarzda nutq faoliyati bolalarda qiziqarli va interaktiv tarzda shakllanadi.

Badiiy adabiyot bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ham xizmat qiladi. Ertak va hikoyalar orqali bola turli his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi, qahramonlar orqali empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi. Masalan, jasoratli, mehribon yoki xatoga yo‘l qo‘ygan qahramonlar bolaning axloqiy qadriyatlarni anglashini va ijtimoiy munosabatlarni tushunishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, dramatik o‘yinlar va sahnalashtirish orqali bola jamoadagi vaziyatlarda boshqalar bilan muloqot qilishni, rollarni kelishib bajarishni va o‘z hissalarini ifodalashni o‘rganadi.

Pedagogik jarayonda badiiy adabiyotdan foydalanish turli metodlar orqali amalga oshiriladi. Suhbat, savol-javob, muhokama va tahlil metodlari bolalarda fikrlash va nutq faoliyatini rag‘batlantiradi. Dramatik o‘yinlar, pantomima va sahnalashtirish orqali bolalar matnni jonlantiradi va obrazni ijro etadi. Musiqali va ritmik faoliyatlar nutqning intonatsion va ritmik xususiyatlarini rivojlantiradi. Tasviriy san’at va rasm chizish orqali bolalar o‘z tasavvurlarini vizual ifodalaydi. Bu integrativ yondashuv nutq va tafakkur rivojini bir vaqtning o‘zida ta’minlaydi. Nutqni rivojlantirishda ota-ona hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Uy sharoitida kitob o‘qish, ertak aytib berish va hikoya tahlili bolaning nutqini mustahkamlaydi. Bolaga interaktiv o‘yinlar, dialog va hikoya tahlillari orqali fikrini erkin ifodalash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ota-onaning motivatsiyasi va rag‘batlantirishi bolani kitobga bo‘lgan mehrini oshiradi.

Badiiy adabiyot orqali bolalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya ham amalga oshiriladi. Xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Masalan, halollik, mehnatsevarlik, do‘stlik va ezgulik kabi qadriyatlar qahramonlar xatti-harakati orqali tushuntiriladi. Salbiy qahramonlar esa o‘z xatolarini tushunib yetadi va bola ularni kuzatish orqali xulosa chiqaradi. Bu pedagogik yondashuv bolalarda tabiiy tarbiya hissini rivojlantiradi.

Badiiy adabiyot bolalarda milliy qadriyatlarni singdirishda ham samarali vositadir. Xalq ertaklari va rivoyatlar orqali bolalar milliy urf-odatlar, an’ana va ma’naviy meros bilan tanishadi. Shu tariqa ularning milliy o‘zligini anglash tuyg‘usi shakllanadi. Shu bilan birga, xorijiy adabiyot namunalarini tanishtirish global dunyoqarashni rivojlantiradi va turli madaniyatlarni tushunishga yordam beradi. Pedagogik jarayonda badiiy adabiyotdan foydalanish tizimli bo‘lishi zarur. Haftalik reja asosida ertak, hikoya va she’rlarni tinglash, ularni tahlil qilish va sahnalashtirish bolalarda mustahkam nutq va tafakkur rivojini ta’minlaydi. Takrorlash, mustahkamlash va ijodiy faoliyatlar orqali bolalar o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Nutq rivoji bilan birga ijodiy tafakkur va fantaziya rivoji ham qo‘llab-quvvatlanadi. Ertak va hikoyalar bolalarda noodatiy yechimlar topish, obrazlarni yaratish va voqealarni talqin qilish qobiliyatini shakllantiradi. Dramatik o‘yinlar, pantomima va improvizatsiya esa bolalarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot bolalarda o‘quv motivatsiyasini oshiradi. Rang-barang kitoblar, chiroyli rasm va sahnalashtirish jarayonlari bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Shu bilan birga, audio va video kitoblar, multimediali dasturlar pedagog nazorati ostida qo‘llanilganda nutq va tasavvur rivojini yanada samarali qiladi. Zamonaviy pedagogik tajribalar nutq va tafakkur rivoji uchun integratsiyalashgan metodlarni qo‘llashni tavsiya etadi. Badiiy adabiyot, dramatik o‘yinlar, musiqali va vizual faoliyatlar birlashtirilsa, bolalar nafaqat nutqini rivojlantiradi, balki ijtimoiy-emotsional va ma’naviy ko‘nikmalarini ham

mustahkamlaydi. Shu tarzda maktabgacha ta’lim jarayoni bolaning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyot bilan ishlash ularning nutqiy, intellektual, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishida muhim vositadir. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayon bolalarda estetik didni rivojlantiradi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdiradi, kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlaydi va kelajakda mustaqil fikrlovchi, ijodiy va ijtimoiy faol shaxs sifatida voyaga yetishiga imkon yaratadi. Shu sababli badiiy adabiyot maktabgacha ta’limning eng muhim pedagogik vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldasheva D.A. Nutq va fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda badiiy adabiyotning roli. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 174 b.
2. Karimova N.B. Badiiy matnlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish. // Pedagogik mahorat. – T., 2023. - №4. - B. 52-60.
3. Tursunov A.T. Bolalarda ijodiy tafakkur va nutq rivojida badiiy adabiyotning pedagogik ahamiyati.– Toshkent: Fan va ta’lim, 2018. – 148 b.
4. Yo‘ldosheva N.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda badiiy matnlarni integratsiyalashgan metodlar.–Toshkent: O‘qituvchi,2022.– 180 b.

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH FAOLIYATIGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Xudoyberganova Munisa Mardiyor qizi,
To‘raboyeva Odila Eldor qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga o‘rgatishning pedagogik ahamiyati, metodik asoslari hamda rivojlantiruvchi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sahnalashtirish jarayonining bolalarning nutqiy, ijtimoiy-emotsional, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, dramatizatsiya, rolli o‘yin, ertak asosida sahnalashtirish, improvizatsiya va qo‘g‘irchoq teatri kabi shakllarning ta’lim-tarbiyaviy jarayondagi samaradorligi yoritiladi. Maqolada sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishning bosqichlari va metodik tavsiyalari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sahnalashtirish, dramatizatsiya, ijodiy faoliyat, nutq rivoji, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, qo‘g‘irchoq teatri, pedagogik innovatsiya, estetik tarbiya.*

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning ijodiy salohiyatini ochib berish va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolalarning tasavvur, nutq, his-tuyg‘u va ijtimoiy ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Shu jihatdan sahnalashtirish faoliyati bolalarning kompleks rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Sahnalashtirish faoliyati — bu badiiy asar, ertak yoki hayotiy vaziyat asosida rollarni taqsimlash, obraz yaratish va

dramatik harakatlar orqali mazmunni ifodalash jarayonidir. Ushbu faoliyat turi bolani nafaqat ijodiy fikrlashga, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarni tushunish va jamoada ishlashga o‘rgatadi. Bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga o‘rgatish ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, dramatik faoliyat nutq rivojiga sezilarli ta’sir qiladi. Bola rolni ijro etish jarayonida so‘z boyligini kengaytiradi, ifodali nutq ko‘nikmalarini egallaydi, intonatsiya va talaffuz ustida ishlaydi. Bu esa maktabga tayyorgarlik jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, sahnalashtirish ijtimoiy-emotsional rivojlanishga xizmat qiladi. Bola obrazga kirish orqali turli his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi va ularni anglaydi. Masalan, ertak qahramonining quvonchi, qo‘rquvi yoki jasorati bolada empatiya tuyg‘usini shakllantiradi. Bu jarayon ijtimoiy moslashuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, sahnalashtirish ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Bolalar improvizatsiya qilish, yangi syujet o‘ylab topish, obrazni mustaqil talqin qilish orqali kreativ fikrlashni o‘rganadilar. Bu esa ularning kognitiv faolligini oshiradi.

Amaliyotda sahnalashtirishning bir necha samarali shakllari qo‘llaniladi:

1. *Ertak asosida dramatizatsiya***.** Bolalar xalq va mualliflik ertaklari asosida rollarni ijro etadilar. Bu shakl axloqiy tarbiya va estetik didni rivojlantiradi.

2. *Rolli o‘yinlar.* Kundalik hayotiy vaziyatlar (do‘kon, shifoxona, maktab) sahnalashtiriladi. Bu bolalarning ijtimoiy rollarni anglashiga yordam beradi.

3. *Qo‘g‘irchoq teatri.* Qo‘g‘irchoqlar orqali obraz yaratish bolalarda ishonch va erkinlikni kuchaytiradi, ayniqsa tortinchoq bolalar uchun samarali vositadir.

4. *Improvizatsion sahnalashtirish.* Oldindan tayyorlangan matnsiz, erkin ijodiy chiqishlar bolalarda tezkor fikrlash va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Sahnalashtirish faoliyatini samarali tashkil etish ma’lum metodik bosqichlarga asoslanadi:

1. *Tayyorlov bosqichi.* Asar tanlanadi, mazmuni tahlil qilinadi, rollar taqsimlanadi. Bolalar bilan suhbat orqali qahramonlarning xarakteri ochib beriladi.

2. *Mashq bosqichi.* Nutq, harakat va mimika ustida ishlanadi. O‘qituvchi bolalarga obrazni chuqurroq his etishga yordam beradi.

3. *Ijro bosqichi.* Sahna ko‘rinishi namoyish etiladi. Bu jarayon bolalarda o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi.

4. *Refleksiya bosqichi.* Sahnalashtirishdan so‘ng bolalar bilan muhokama o‘tkaziladi. Qaysi jihatlar muvaffaqiyatli bo‘lgani, nimalarni yaxshilash mumkinligi tahlil qilinadi.

Bolalarni sahnalashtirishga o‘rgatishda quyidagi metodik tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq: - bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; - majburlashdan qochish, ixtiyoriylikni ta’minlash; - har bir bolaga faol ishtirok etish imkonini yaratish; - ijobiy rag‘batlantirishdan foydalanish; - sahna jihozlari va vizual vositalardan unumli foydalanish. Shuningdek, sahnalashtirish jarayonini boshqa ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiya qilish samarali natija beradi. Masalan, nutq o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqa, tasviriy san’at bilan uyg‘unlik bolalarning estetik didini va badiiy tasavvurini kengaytiradi.

Sahnalashtirish faoliyati bolalarda bir qator asosiy kompetensiyalarni shakllantiradi:

- ***Kommunikativ kompetensiya*** – erkin muloqot qilish, fikrini ifodalash.
- ***Ijtimoiy kompetensiya*** – jamoada ishlash, hamkorlik qilish.

- ***Shaxsiy kompetensiya*** – o‘zini namoyon qilish, o‘ziga ishonch.
- ***Madaniy-estetik kompetensiya*** – san’at va badiiy asarlarga qiziqish.

Bu kompetensiyalar keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga o‘rgatish ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu faoliyat nutqiy, ijtimoiy, emotsional va ijodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Sahnalashtirish jarayonida bolalar o‘z qobiliyatlarini namoyon etish, muloqot qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan dramatik faoliyat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – London: Routledge, 2016. – 120 p.
4. Berk L.E. Development Through the Lifespan. – 7th ed. – Boston: Pearson Education, 2018. – 800 p.

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti. P.f.f.d. (PhD).

Annotasiya. *Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining nazariy-amaliy asoslari, ta’lim jarayonida kasbiy kompetensiyalar shakllantirishning usul va sharoitlari, zamonaviy yondashuvlar va innovasion texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, innovasion ta’lim, amaliyot, pedagogik texnologiyalar.*

Global raqobat muhitida muvaffaqiyat qozona oladigan mutaxassislarni tayyorlash har bir oliy ta’lim muassasasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda mehnat bozoriga yuqori malakali, mustaqil qaror qabul qila oladigan va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlar talab qilinmoqda. Bu esa talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasini ta’lim tizimining markaziga olib chiqmoqda.

Kasbiy tayyorgarlik – bu faqat nazariy bilimlar majmui emas, balki amaliy ko‘nikmalar, kasbiy kompetensiyalar, munosabatlar va shaxsiy xususiyatlarni qamrab oluvchi murakkab pedagogik jarayondir. [1; 76-b.]. U quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: - *Kasbiy bilimlar* – sohaviy nazariy asoslar, fanlararo integrasiya. - *Kasbiy amaliy ko‘nikmalar* – ishlab chiqarish, tadqiqot va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini amalga oshirish qobiliyati. - *Shaxsiy va kommunikativ kompetensiyalar* – muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, jamoada ishlash, liderlik.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarni inobatga olish lozim: - modulli-reyting tizimi asosida ta’limni tashkil etish; - talabalarni amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalarga jalb qilish; - ochiq va ishlab chiqarish bilan integrasiyalangan ta’lim muhiti yaratish; - ish beruvchilar bilan hamkorlikda o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqish. [2; 42-b.].

Shuni hisobga olish kerakki, кasbiy-pedagogiк faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayonidagi кreativliк pedagoglarning innovatsion faoliyatining asosi hamda ularning кasbiy va shaxsiy fazilatlarining integratsiyasi sifatida tuchuniladi.

Bir qator pedagog olimlar ilmiy izlanishlarida “кreativliк” tuchunshasiga turlisha yondashganlar. Kreativlik – bu shunchaki yangilik yaratish emas, balki talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashtirishning fundamental asosi hamda o‘qituvchi shaxsiy va kasbiy fazilatlarining o‘zaro integratsiyalashuv nuqtasidir.

M.N.Gnatko kreativlik tabiatini tadqiq etar ekan, uning mexanizmlarini ikki hayotiy bosqichga ajratadi:

Potensial kreativlik: Bu insonning ichki intellektual zaxirasi bo‘lib, har qanday vaziyatda yangi g‘oyalarni amalga oshirishga doimiy shaylik holatidir. [4; 32-b.].

Faoliyatdagi yonda namoyon bo‘lishi. Bu bosqichda o‘qituvchi nafaqat nazariyotchi, balki "evristik yechimlar ustasi" sifatida gavdalanadi.

Kreativ kompetentlik: To‘siqlarni imkoniyatga aylantirish.

Talabalarni kasbiy muhitga moslashtirish – pedagogdan yuksak kreativ kompetentlikni talab etadi. Bu kompetensiya quyidagi jarayonlarda pishib yetiladi:

Innovatsiyalarni shunchaki o‘zlashtirish emas, ularni o‘z ish uslubiga mahorat bilan “singdirish”;

Pedagogik qiyinchiliklarni to‘siq emas, balki ijodiy vazifa deb bilish;

Mualliflik g‘oyalariga ega bo‘lish va kutilmagan vaziyatlarda intuitiv yechimlar topish. Zamonaviy ta’limda quyidagi texnologiyalar talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rin tutadi:

- Keys-metod – real hayotdan olingan muammolarni tahlil qilish;
- Blis-treninglar va simulyasiya mashg‘ulotlari – kasbiy faoliyatni modellash;
- Loyiha asosida ta’lim – mustaqil ishlash va ijodkorlikni rivojlantirish;
- Sifrovizasiya – Moodle, Google Classroom, Teams platformalarida masofaviy va aralash ta’limni yo‘lga qo‘yish. [3; 88-b.].

Kasbiy amaliyotlar talabalarning nazariy bilimlarni hayotda qo‘llash qobiliyatini oshiradi. Oliy ta’lim muassasalarida amaliyotni to‘g‘ri tashkil qilish, unda ish beruvchilar fikrini hisobga olish, talabalarga real ish muhitini ko‘rsatish zarur. Pedagogik kreativlik — bu shunchaki dars o‘tish mahorati emas, balki talabani kasbiy muhitning bir qismiga aylantira oladigan innovatsion energiya transformatsiyasidir.

Bugungi kunda dunyoning ko‘pgina rivojlangan davlatlarida kasbiy ta’limni modernizasiya qilish jarayonlari ketmoqda. Evropaning ECTS tizimi, Germaniyadagi dual ta’lim modeli, AQShdagi outcome-based va Finlyandiyadagi muloqot va amaliy ko‘nikmaga asoslangan pedagogika — bularning barchasi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali modellaridir.

Germaniya tajribasi. Dual ta’lim tizimida talabalar ta’limning bir qismini ish joyida, ish beruvchi korxonalarda amalga oshiradi. Bu usulda talabalar real ish sharoitida o‘quv rejasini o‘zlashtiradi va diplom olgach, ish tajribasiga ega bo‘ladi [5; 47-b].

Finlyandiya tajribasi. Ta’lim jarayoni shaxsiylashtirilgan yondashuv, muloqot, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. [6; 66-b.].

O‘zbekiston amaliyoti. Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda ta’limning amaliyotga yaqinlashtirilishi, dual ta’lim pilot loyihalari, "ustoz-shogird" tizimi va ishlab chiqarish amaliyoti faol ravishda joriy qilinmoqda. Bunday islohotlar ta’limning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Samarali kasbiy tayyorgarlik talabalarda ichki motivasiya, faol fuqarolik pozisiyasi va mas’uliyat hissini shakllantirishni ham talab qiladi. Bunda quyidagi usullar samarali hisoblanadi: 1) maqsadga yo‘naltirilgan individual ish rejalari; 2) kasbiy o‘zi-baho va refleksiya jarayonlari; 3) talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish; 4) yoshlar ittifoqi va kasbiy klublardagi ishtirok.

Masalan, Fransiyada talabalarning kasbiy tayyorgarligiga baho berishda faqat akademik ko‘rsatkichlar emas, balki ijtimoiy faollik va jamoat ishlaridagi ishtiroki ham hisobga olinadi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi eng muhim omillar: 1) ta’lim mazmunining ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirilishi; 2) innovasion texnologiya va zamonaviy metodlardan foydalanish; 3) amaliyotga yaqinlashgan, real ish muhitini aks ettiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etish;

Xalqaro tajribadan maqsadli foydalanish va milliy sharoitga moslashtirish. Talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash — bu tizimli yondashuv, o‘zaro hamkorlik, innovasion pedagogik yondashuvlarni talab etuvchi jarayondir. Ushbu maqsadda ta’lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, amaliyotni mustahkamlash, raqamli platformalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu yo‘sinda tayyorlangan mutaxassislar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy salohiyat va kasbiy mobillikka ham ega bo‘ladi.

Amaliy tadqiqot natijalari va takliflar. O‘zbekiston oliygohlarida o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning 65 foizi amaliy mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirishni, 40 foizi esa ish beruvchilar ishtirokini kuchaytirishni talab qilmoqda. Bu ma’lumotlarga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

O‘quv dasturlarini sanoat klasterlari bilan moslashtirish. 1) virtual simulyatorlar va VR-texnologiyalarni joriy etish orqali xavfli kasblarda amaliyotni modellashtirish; 2) talabalarga stipendiya va ish joyi kafolati bilan dual tizimni kengaytirish; 3) har yili o‘tkaziladigan “Kasbiy kompetensiya forumlari” orqali o‘qituvchilar va ish beruvchilarni birlashtirish.

Ushbu yondashuvlar nafaqat kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi, balki talabalarda milliy iqtidorlar va global raqobatbardoshlikni shakllantiradi. Natijada, ta’lim tizimi mehnat bozori talablariga to‘liq javob beradigan mutaxassislar yetishtirishga qodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И.А., Ключевие компетенсии — новая парадигма результата образования. — М., 2005.

2. Mirzaev T. Amaliyot jarayonlarini tashkil etishda yangi yondashuvlar. // Pedagogika ilmiy jurnali, №2, 2020.

3. UNESCO. Future of Education: Learning to Become. — Paris, 2021.

4. Qodirov A. Ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. — T.: Innovasiya, 2022.

5. OECD. (2020). Vocational Education and Training in Germany. Paris: OECD Publishing.

6. Bologna Process Implementation Report (2019). European Commission.

OLIY TA’LIM TASHKILOTI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH SHAROITLARI

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Abdullayeva Malika Bazarboyevna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur ishda zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash masalalari yoritilgan. Psixologik-pedagogik ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik sharoitlar majmuasi bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Ta’lim muhitining raqamlashtirilishi, modul-reyting tizimi, uzluksiz amaliyot hamda talabalarning subyektlik pozitsiyasini rivojlantirish zarurati tahlil qilingan. Ishda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining diagnostik, rivojlantiruvchi va korreksiyalovchi komponentlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetensiya, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, bo‘lajak pedagog, individual ta’lim yo‘nalishi, shaxsiy-kommunikativ texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, pedagogik hamkorlik.*

Kompetensiyaviy yondashuvga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim o‘z oldiga pedagogik sohada zamon talablariga javob bera oladigan, ya’ni axborot jamiyatida faoliyat yuritishga qodir, o‘quvchilarni hozirgi davr talablariga tayyorlay oladigan mutaxassisni tayyorlashni maqsad qilib qo‘yadi. Psixologik-pedagogik ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish — bu bo‘lajak pedagoglarning bilim, ko‘nikma va tajribalarni egallashiga, shuningdek, ularni amaliyotda kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlaydigan shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatidir.

Mutaxassislarni sifatli tayyorlashga, ularning ijtimoiy voqelikka kasbiy mosligi bo‘yicha qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarishi pedagogik ta’lim tizimining o‘zida ham tub o‘zgarishlar zarurligini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar, avvalo, bo‘lajak mutaxassisning individualligini, uning ijodiy salohiyatini va kelajak pedagogi uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Bu o‘rinda “pedagogik sharoitlar” tushunchasiga aniqlik kiritish zarur. Ishchi talqinda biz pedagogik sharoitlar deganda pedagogik tizimning asosiy komponentlarini tushunamiz, ular orqali ta’lim-makon muhitining shaxsiy va jarayonli omillar nuqtayi nazaridan imkoniyatlari, shuningdek, uning optimal faoliyat yuritishi va samarali rivojlanishi namoyon bo‘ladi.

Ta’lim muhitining raqamlashtirilishi ta’lim beruvchilarning faoliyati va ularning ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar tuzilmasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu o‘zgarishlarga modul-reytingli ta’lim tizimi va o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan uzluksiz amaliyot ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, natijada o‘qituvchi faoliyatining o‘zi ham yangicha tus olmoqda.

Mazkur o‘zgarishlar fonida tadqiqotchilar ta’lim oluvchining subyektlik pozitsiyasi, uning o‘quv mustaqilligi va o‘zini o‘zi tashkil etish qobiliyati, individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish, o‘quv faoliyatida kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyillari kabi masalalarni hal etishga e’tibor qaratmoqdalar.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muvaffaqiyati pedagogik sharoitlarning butun bir majmuasi bilan belgilanadi. Avvalo, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash amaliyotini o‘rganuvchi tadqiqotchilar talabalarning psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlanishining muhimligini ta’kidlaydilar. Ushbu qo‘llab-quvvatlash tayyorlov sifatini oshiradi, integrativ rolni bajaradi hamda bo‘lajak pedagogning kasbiy jihatdan samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadida tadqiqotchilar o‘quv-kasbiy faoliyatni optimallashtiruvchi tadqiqot-rivojlantiruvchi texnologiyalar tizimini taklif etadilar. Ushbu tizimning asosiy vazifasi talabalar ijodiy salohiyatini maksimal darajada samarali ro‘yobga chiqarishdan iborat deb qaraladi. Texnologiyalarni ishlab chiqishdan ko‘zlangan maqsad — ta’lim samaradorligini imkon qadar yuqori darajaga yetkazishdir. Bundan tashqari, mazkur texnologiyalar tizimi pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari uchun qulay psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning umumiy konsepsiyasi diagnostik, shakllantiruvchi-rivojlantiruvchi va korreksiyalovchi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar alohida texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish strategiya, taktika va texnika ishlab chiqish orqali, ya’ni tashkiliy, diagnostik, psixologik va pedagogik chora-tadbirlar majmuasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu chora-tadbirlar bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan pedagogik jarayonning samarali faoliyat yuritishi, nazorati va natijadorligiga qaratilgan.

Masalan, “Boshlang‘ich ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: – Federal davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq, kasbiy tayyorgarlik maqsadi sifatida mutaxassis professiogrammasi ustida ishlash; – bo‘lajak o‘qituvchilarning individualligini aniqlash maqsadida psixologik-pedagogik diagnostika o‘tkazish; – o‘quv faoliyati jarayonida talabalarning kasbiy va shaxsiy o‘sishini psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash; – shaxsiy va kasbiy qiyinchiliklarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari; – talabalarning kasbiy amaliyoti va ishga joylashuvi tizimi; – bitiruvchilarning kasbiy faoliyatini monitoring qilish.

Pedagoglarni tayyorlash jarayonidagi sharoitlarni ishlab chiqishda tadqiqotchi T.S. Buryakova ularni kompleks holda qo‘llashni taklif etadi. Ustuvor sharoitlardan biri sifatida muallif talabaning o‘quv-kasbiy faoliyatida individual uslubni qo‘llashni ko‘rsatadi [5; 29-b.] Muallifning fikricha, bu sharoit ta’lim texnologiyalarini talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishini hisobga olgan holda tanlashga yo‘naltiradi hamda ta’lim oluvchilarda o‘z faoliyatidan emotsional qoniqish hissini shakllantiradi. Shuningdek, treninglar, individual va guruhli maslahatlar, individual ta’lim yo‘nalishlarini joriy etish orqali individual yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish taklif qilinadi. T.S.Buryakova tomonidan ajratib ko‘rsatilgan sharoitlar orasida o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati muhim o‘rin tutadi. Talabalar guruhida ijobiy, qulay munosabatlar muhitini yaratish ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, talabalar faolligini rag‘batlantirish uchun guruhda ham talabalar, ham pedagoglar o‘rtasida konstruktiv va emotsional jihatdan ijobiy muloqotni shakllantirish zarur.

T.S.Buryakova ko‘rsatgan sharoitlarning uchinchi guruhi shaxsiy-kommunikativ texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq. Tadqiqotchining fikricha, ushbu texnologiyalar yordamida pedagog har bir talabaning o‘quv-kasbiy faoliyatini “uning ehtiyojlari,

qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, imkoniyatlari hamda kommunikativ tajribasini hisobga olgan holda” tashkil etishi mumkin [1; 67-b.].

M.V.Nikolaeva tadqiqotida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalar majmuasi ajratib ko‘rsatiladi [2; 38-b.]. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: - ta’lim mazmuni va jarayonida emotsional rag‘batlar (emotsional-obrazli, o‘yin, musobaqaviy, ijodiy va boshqalar); - o‘quv jarayonida o‘z-o‘zini kuzatish va psixik holatlarni boshqarishga oid vaziyatlarni yaratish (pedagogik vazifalar, psixogimnastik mashqlar, o‘yinlar va h.k.); - emotsional-qadriyatli kechinmalarni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar (o‘zini anglash, o‘zini baholash, shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar).

Talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ularning turli ilmiy konferensiyalarda faol ishtiroki katta ahamiyatga ega. T.V.Rudinaning fikricha, talabalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini ta’minlash ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishini hamda psixologik-pedagogik ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni eng samarali tarzda ta’minlaydi. [3; 77-b.]

T.V.Zolotova va I.E.Yakunina o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘radilar: - “Pedagog” kasbiy standartiga (maktabgacha, boshlang‘ich, asosiy va o‘rta umumiy ta’lim sohasida pedagogik faoliyat) erishish; - ta’limni modernizatsiya qilishning turli jihatlarini o‘zlashtirish; - pedagogik soha xodimlari uchun samarali shartnoma tizimini tashkil etish; - pedagog kasbining ijtimoiy maqomini optimallashtirish. [4; 81-b.]

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirish pedagogik sharoitlarni kompleks yondashuv asosida tashkil etishni, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini ta’lim jarayoniga izchil joriy etishni hamda ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion va integrativ modellaridan foydalanishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh va zamon talablariga mos pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buryakova T.S. Oliy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari. – Moskva: Akademiya, 2019.

2. Nikolaeva M.V. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda emotsional omillar // Pedagogik tadqiqotlar. – 2020. – №4.

3. Rudina T.V. Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik shartlari // Oliy ta’lim muammolari. – 2019.

4. Zolotova T.V., Yakunina I.E. Pedagog kasbiy rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlari // Ta’limni modernizatsiya qilish muammolari. – 2021.

5. Mason S.A. Professional learning communities and teacher development // International Journal of Education. – 2018.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN ORQALI TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH

Narimbayeva Lola Kuzibayevna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Babayeva Ug‘iloy Voxid qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur turlari va uning funksiyalari tahlil qilinib,tasavvur bilan fantaziya o‘rtasidagi farq ochib berilgan. Shuningdek, uni rivojlantirishga yordam beruvchi turli usullar va o‘yinlar hamda, bolaning ichki dunyosini boyitish yo‘llari yoritilgan. Bu esa bolaning ichki dunyosini boyitish va atrof-muhitni idrok etish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvur, fantaziya, rivojlantirish, ijodkorlik, emotsional intellekt, ijtimoiy ko‘nikmalar, ijodiy qobiliyatlar, atrof-muhit, idrok.*

Maktabgacha yoshda tasavvur va fantaziyani rivojlantirish bolalarning umumiy rivojlanishida muhim shart hisoblanadi. U har bir bolaning intellektual, ijtimoiy va emotsional farovonligiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Qadim zamonlardan buyon san’at, adabiyot va fan fantaziya qilish va turli voqeliklarni tasavvur etish qobiliyati ijodiy jarayonning asosida yotishini namoyon etib keladi.

Tasavvur – inson ongining atrofdagi real voqelikda bevosita mavjud bo‘lmagan narsalar, g‘oyalar va obrazlarni yaratish qobiliyatidir. U orttirilgan tajribani birlashtirish va o‘zgartirish, yangi konsepsiyalar yoki stsenariylarni shakllantirish imkonini beradi. Tasavvur ijodkorlik, kelajakni rejalashtirish va muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvurni bir nechta turlarga ajratish mumkin bo‘lib, har biri bilish jarayonlarida o‘ziga xos o‘rin tutadi:

Reproduktiv tasavvur – inson tomonidan avval idrok etilgan obraz va hodisalarni ongda qayta tiklaydi.

Produktiv tasavvur – mavjud bilim va tajriba asosida ilgari kuzatilmagan yangi obraz va holatlarni yaratadi.

Ijodiy tasavvur – san’at, fan va boshqa sohalarda yangicha, original ijodiy natijalarga olib keluvchi innovatsion g‘oya va konsepsiyalarni shakllantiradi.

Bolalar tasavvuri rivojlanish jarayonida qator muhim funktsiyalarni bajaradi, intellektual va ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantiradi:

Bilish funktsiyasi – turli vaziyatlarni ongda modellashtirish va ular ustida tajriba o‘tkazish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ko‘ngilochar funktsiya — bolalarga o‘yin va hordiq chiqarish imkonini yaratib, o‘z dunyosi va stsenariylarini yaratishga sharoit tug‘diradi.

Regulyativ funksiya — shaxsni shakllantirish, o‘zini anglash va irodaviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli ijtimoiy rollar va xulq-atvor modellarini sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Tasavvur va fantaziya o‘rtasidagi farq. Tasavvur va fantaziya ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi, biroq ularning funksiyalari, jarayonlari va qo‘llanilish kontekstiga ko‘ra muhim farqlari mavjud. [1; 66-b.]

Tasavvur – bu insonning dunyo haqidagi axborotni ongida tasvirlash, qayta tiklash yoki o‘zgartirish imkonini beruvchi kengroq kognitiv qobiliyatdir. U mavhum fikrlash,

vaziyatlarni modellashtirish, aqliy tajribalar o‘tkazish va kelajakdagi voqealarni bashorat qilishni o‘z ichiga oladi. Tasavvur real ma’lumotlar va tajribaga asoslanishi mumkin. Ko‘pincha aniq vazifalarni hal etish, rejalashtirish yoki real chegaralar doirasidagi ijodiy faoliyatda qo‘llaniladi.

Fantaziya esa tafakkurning yanada erkin va cheklanmagan shakli bo‘lib, u har doim ham real tajriba yoki mantiqqa tayanmaydi. [2; 32-b.] U ko‘pincha xayoliy olamlar, noodatiy mavjudotlar yoki kundalik voqelikdan tashqariga chiqadigan hodisalarni yaratish bilan bog‘liq. Fantaziya o‘yinlar, san’at va adabiyotda muhim o‘rin tutib, insonga reallikdan “qochish”, yangi his-tuyg‘ular va kechinmalarni boshdan kechirish imkonini beradi.

Asosiy farq shundaki, tasavvur ko‘proq real hayot va amaliy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, fantaziya ijod va orzularga real cheklovlarsiz keng erkinlik beradi. Bolalarda tasavvur va fantaziyani rivojlantirish uchun ijodiy tafakkurni rag‘batlantiruvchi o‘yinlardan foydalanish mumkin [3; 78-b.].

Bolalarning tasavvuri – bu shunchaki o‘yin emas, balki kelajakda muammolarni kreativ hal qilish va innovatsion fikrlashning poydevoridir.

Quyida turli yoshdagi bolalar uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim o‘yinlar misol tariqasida keltiriladi: 1. Rolli o‘yinlar. 2. Qurilish va konstruktor o‘yinlari. 3. Hikoya to‘qish o‘yinlari. 4. Vizual va badiiy o‘yinlar. 5. Assotsiatsiyaga asoslangan o‘yinlar. 6. Teatrlashtirilgan va improvizatsion o‘yinlar.

Bolalarda yanada ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun samarali va qiziqarli o‘yin turlarini tahlil qilsak:

1. "Agar... bo‘lsachi?" (Farazlar o‘yini). Bu o‘yin bolani standart qoliplardan chiqishga majbur qiladi. Unga kutilmagan savollar bering:

“Agar odamlar ucha olganda, dunyo qanday o‘zgargan bo‘lardi?”

“Agar hayvonlar gapirishni boshlasa, birinchi bo‘lib nima degan bo‘lardi?”

“Agar hamma narsa shokoladdan bo‘lsa-chi?”

2. "Sehrli buyum" (Funsional qayta talqin qilish). Oddiy buyumni olib (masalan, qoshiq yoki g‘isht), uning odatdagi vazifasidan tashqari 10 ta yangi ishlatish usulini o‘ylab topish kerak.

Masalan: Qoshiq — bu qayiqning eshkagi, mitti ko‘zgu, bog‘bon uchun belkurak yoki qo‘g‘irchoq uchun krovat bo‘lishi mumkin.

3. “Hikoyani davom ettir” (Kollektiv ijod). Siz bitta jumla bilan hikoya boshlaysiz, bola esa uni davom ettiradi. Bu jarayon zanjir kabi davom etadi.

Siz: “Bir kuni o‘rmonda ko‘k rangli quyon paydo bo‘libdi...”

Bola: “Uning quloqlari shunchalik uzun ekanki, ulardan samolyot sifatida foydalana olarkan...”

4. "Doodle" yoki "Siyoh dog‘i" (Vizual tasavvur). Qog‘ozga tushunarsiz bir shakl chizing yoki siyoh tomizib, uni yoying. Bola bu shakl nimaga o‘xshashini aytishi va uni to‘ldirib, biror narsaga aylantirishi kerak.

Bolalarda o‘yin orqali tasavvur va fantaziyani rivojlantirish bilan birga, emotsional intellekt, ijtimoiy ko‘nikmalar va ijodiy qobiliyatlarni boyitib, bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboeva O., Jo‘raeva D.Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

2. Qodirova F.R. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

3. G‘ofurov Z., Karimova N.Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2021.

BOSHLANG‘ICH MATEMATIKA KURSIDA MANTIQ VA ALGORITMLAR ELEMENTLARINI O‘QITISH

Narimbetova Zaxiya Axmedovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Nurxonova Madina Jo‘raqobil qizi,
Chirchiq DPU, 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika kursida mantiqiy fikrlash va algoritmik tafakkurni rivojlantirish masalalari yoritilgan. O‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda masalalarni bosqichma-bosqich hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda mantiq va algoritmlar elementlarining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida mantiqiy masalalar, didaktik o‘yinlar, algoritmik mashqlar hamda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, matematika, mantiqiy tafakkur, algoritm, algoritmik fikrlash, didaktik o‘yinlar, matematik masalalar.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu davrda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi kuchli bo‘lib, ular yangi bilimlarni tez o‘zlashtiradi. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish faqat hisoblash amallarini o‘rgatish bilan cheklanmaydi. Matematika o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu sababli boshlang‘ich matematika kursida *mantiq va algoritmlar elementlarini o‘qitish* alohida ahamiyatga ega. Algoritmik fikrlash zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Algoritmlar orqali o‘quvchilar muammoni tizimli ravishda hal qilishni o‘rganadi. Bu esa nafaqat matematika fanini o‘rganishda, balki boshqa fanlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun muhim asos yaratadi.

Mantiqiy tafakkurning boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati. Mantiqiy tafakkur – bu insonning fikrlash jarayonida muayyan qonuniyatlar asosida xulosa chiqarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurni shakllantirish ularning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash quyidagi jarayonlar orqali namoyon bo‘ladi: tahlil qilish; taqqoslash; umumlashtirish; sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash; xulosa chiqarish.

Matematika darslarida mantiqiy masalalar, qiziqarli topshiriqlar va muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, turli shakllar orasidagi farqlarni aniqlash, ketma-ketlikdagi qonuniyatni topish yoki berilgan shart asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq ko‘rgazmali va amaliy faoliyat orqali bilim oladi. Shu sababli matematika darslarida ko‘rgazmali vositalardan, diagrammalardan, jadvallardan hamda turli o‘yin elementlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Algoritmik tafakkur tushunchasi. Algoritmik tafakkur – bu muammoni aniq ketma-ket bosqichlar asosida hal qilish qobiliyatidir. Algoritm esa ma’lum bir vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan aniq va ketma-ket amallar majmuasidir.

Boshlang‘ich sinf matematika kursida algoritmlar quyidagi shakllarda uchraydi: - arifmetik amallarni bajarish tartibi; - matematik masalalarni bosqichma-bosqich yechish; - ko‘paytirish jadvalidan foydalanish; - geometrik shakllarni qurish jarayoni.

Masalan, ikki xonali sonlarni qo‘shish jarayonida o‘quvchi quyidagi algoritmga amal qiladi: 1. Birlar xonasidagi sonlarni qo‘shish. 2. Hosil bo‘lgan natijani yozish. 3. O‘nliklar xonasidagi sonlarni qo‘shish. 4. Yakuniy natijani hosil qilish.

Bunday jarayon o‘quvchilarda tartibli fikrlashni shakllantiradi.

Boshlang‘ich matematika kursida algoritmlar elementlarini o‘rgatish metodikasi.

Algoritmlar elementlarini o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi zarur [2]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari abstrakt tushunchalarni qabul qilishda biroz qiynalishi mumkin, shuning uchun algoritmlar sodda va tushunarli tarzda tushuntirilishi kerak.

Algoritmik faoliyatni tashkil etishda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi: *1. Muammoni tushuntirish.* O‘qituvchi o‘quvchilarga masalaning shartini tushuntiradi. *2. Amallar ketma-ketligini aniqlash.* Masalani yechish uchun zarur bo‘lgan bosqichlar belgilanadi. *3. Algoritmni bajarish.* O‘quvchilar berilgan tartib asosida amallarni bajaradi. *4. Natijani tekshirish.* Olingan natijaning to‘g‘riligini aniqlash.

Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi [4].

Mantiqiy masalalar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi. Bunday masalalar o‘quvchini oddiy hisoblashdan tashqari chuqurroq o‘ylashga undaydi.

Misol uchun: *Masala:* Bir daraxtda 5 ta qush bor edi. Ovchi birini otib tushirdi. Daraxtda nechta qush qoldi?

Ko‘pchilik o‘quvchilar 4 deb javob beradi. Ammo mantiqiy fikrlash natijasida qolgan qushlar uchib ketganini tushunib, to‘g‘ri javob **0** ekanligini aniqlash mumkin.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning e’tiborini kuchaytiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati muhim hisoblanadi [5]. Shu sababli matematika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish samarali natija beradi.

Quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

- **“**Ortiqchasini top” – berilgan shakllar orasidan ortiqchasini aniqlash.
- “Qonuniyatni top” – sonlar ketma-ketligidagi qoidani aniqlash.
- “Zanjirli hisoblash” – algoritm asosida ketma-ket amallarni bajarish.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning bilimlarini mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar muhim o‘rin tutadi [3]. Ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi va dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Boshlang‘ich matematika darslarida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Muammoli ta’lim” kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu metodlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi hamda mantiqiy xulosalar chiqarishni o‘rganadi.

Xulosa. Boshlang‘ich matematika kursida mantiq va algoritmlar elementlarini o‘qitish o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy masalalar, algoritmik mashqlar, didaktik o‘yinlar va interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish hamda muammoni bosqichma-bosqich hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida matematika

darslarini tashkil etishda mantiq va algoritmlar elementlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu esa o‘quvchilarning kelajakdagi ta’lim faoliyati uchun mustahkam bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2017. – 32 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.. 2008. – 176 b.
3. Bikboyeva N. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti, 2010. – 208 b.
4. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Fan nashriyoti, 2005. – 192 b.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. Fan nashriyoti, 2005. – 160 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KODLASH VA DEKODLASH ELEMENTLARINI O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Narimbetova Zaxiya Axmedovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Turdialieva Aydin Maqulbek qizi
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu ishda boshlang‘ich ta’lim jarayonida mantiq va algoritmlar elementlarini o‘qitishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirish, hamda kodlash va dekodlashning elementar modellari orqali axborotni ifodalash va tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bu jarayonning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *algoritm, axborot, pedagogik texnologiyalar, mantiqiy tafakkur, tahlil qilish, kodlash,dekodlash.*

Algoritmik fikrlash zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Algoritmlar orqali o‘quvchilar muammoni tizimli ravishda hal qilishni o‘rganadi. Bu esa nafaqat matematika fanini o‘rganishda, balki boshqa fanlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun muhim asos yaratadi.

Mantiqiy tafakkur – bu insonning fikrlash jarayonida muayyan qonuniyatlar asosida xulosa chiqarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tafakkurni shakllantirish ularning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang‘ich matematika kursida mantiq va algoritmlar elementlarini o‘qitish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va bosqichma-bosqich yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi zamon ta’lim talablari asosida bu jarayon o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar, qiziqarli topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, turli shakllar orasidagi farqlarni aniqlash, ketma-ketlikdagi

qonuniyatni topish yoki berilgan shart asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq ko‘rgazmali va amaliy faoliyat orqali bilim oladilar. Shu sababli matematika darslarida ko‘rgazmali vositalar, diagrammalar, jadvallar hamda turli o‘yin elementlaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq ko‘rgazmali va amaliy faoliyat orqali bilim oladilar. Shuning uchun kodlash va dekodlashning elementar modellari matematika darslarida turli o‘yinlar, rasmlar, jadvallar va belgilar orqali tushuntirilsa, o‘quvchilar mavzuni osonroq o‘zlashtiradilar. Mazkur mavzuni o‘qitish orqali o‘quvchilarning nafaqat matematik bilimlari, balki ularning tafakkuri va ijodiy fikrlash qobiliyati ham rivojlanadi.

Kodlash va dekodlash nima?

- Kodlash (encoding) — ma’lumotni ma’lum bir qoidaga ko‘ra o‘zgartirish jarayoni.
- Dekodlash (decoding) — kodlangan ma’lumotni asl shakliga qaytarish jarayoni.

Elementar modellarda kodlash oddiy qoidalarga asoslanadi: har bir ma’lumot elementiga maxsus belgi yoki raqam beriladi.

Masalan, 1.SA.3 kodi birinchi sinfning “Sonlar va amallar” bo‘limi bo‘yicha 3-standartni bildiradi. Kodlash qoidasi quyidagicha: 1. Sinf raqami → 1 (sinf identifikatori). 2. Bo‘lim nomining bosh harflari → SA (bo‘lim identifikatori). 3. Standart tartib raqami → 3 (standartni aniqlash uchun kod).

Shunday qilib, dekodlash jarayonida: - 1 → 1-sinf; - SA → “Sonlar va amallar” bo‘limi; - 3 → 3-standart.

Kodlash va dekodlashning elementar modellari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’lumotlarni belgilar, harflar yoki raqamlar yordamida ifodalash va ularni qayta ochish jarayonini tushuntirish imkonini beradi. Bunda oddiy jadval, belgilar tizimi, o‘yin va mantiqiy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullar o‘quvchilarda axborotni tartibga solish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. Boshlang‘ich matematika kursida mantiq va algoritmlar elementlarini samarali o‘qitish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish muhimdir. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy tafakkuri va algoritmik fikrlash qobiliyati bosqichma-bosqich shakllanib, bilimlarni mustaqil va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.

2. A.Abduqodirov. Informatika va axborot texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2019.

3. Z.A.Narimbetova. Axborot-kommunikasion texnologiyalari vositasida geometriya fanini o‘qitish metodikasi (10-11 sinflar misolida). Monografiya. 2023.103b.

DOIRA CHOLG‘U IJROCHILIGIGA OID MA’LUMOTLAR

Nurseitov Nursulton Nurlan o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor. Ilmiy rahbar.

Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, jo‘rnavoz zarbli soz sifatida ommalashgan doira o‘zining rivojlanib kelayotgan, milliy ohanglarga boy zarb va usullari bilan xalq orasida shuhrat qozonib kelgan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillikka oid Saymalitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan doirasimon sozlarda ijro etilayotgan tasvirlar juda qadim paytlardayoq vujudga kelgan cholg‘u ekanligidan guvohlik beradi. Turli tasvirlarda aks ettirilgan bu cholg‘u zamonaviy o‘zbek va tojik doiralariga aynan o‘xshab ketadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining, jumladan, o‘zbek xalqining qadimiy kuy va qo‘shiqlari to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni Sharq musiqa madaniyati haqida fikr yuritgan O‘rta asr olimlarining risolalaridan bilish mumkin. Musiqa ilmi va amaliyotiga oid turli muammolar ustida birinchilar qatorida fikr yuritgan mutafakkirlardan biri mashhur faylasuf, qomusiy alloma Abu Nasr Farobiydir (IX-X asr). Uning musiqaga oid «Kitob al-musiqiy al-kabir» nomli ulkan kitobi («Musiqa haqidagi katta kitob») keyingi avlodlar ijodi uchun dasturilamal sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, bu asar Abu Ali ibn Sino (X-XI asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Najmiddin Kavkabiy (XVI asr), Darvish Ali Changiy (XVI-XVII asr) tadqiqotlariga ham asos bo‘ldi. Ularning asarlarida qayd etilishicha, Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, o‘zbek xalqining musiqa madaniyati, jumladan, cholg‘u sozlari qadim zamonlardanoq xilma-xil va boy bo‘lganligidan dalolat beradi. Asrlar davomida Markaziy Osiyoda tanbur, ud, nay, chang, rubob, qo‘biz, g‘ijjak, surnay, bulaman, nog‘ora va doira kabi musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdayoq Markaziy Osiyo xalqlari hayotida musiqa va raqs san’ati alohida ahamiyat kasb etgan. Markaziy Osiyo va ayrim Sharq xalqlari ko‘hna musiqa madaniyatining o‘ziga xos belgilaridan biri - ommaviy xalq qo‘shiqlari va cholg‘u kuylari bilan bir qatorda, an’anaviy hisoblangan og‘zaki uslubdagi musiqa san’ati vujudga keldi va rivojlandi.

Ayrim qadimiy tasvirlardagiga nisbatan doiraning hozirgi tuzilishida ba’zi o‘zgarishlar mavjud. Masalan, doira gardishida teshiklar o‘yilmaydi, hozir esa ularning o‘rnini gardishning ichki tomonidan osiladigan ma’dan xalqachalar egallagan. Gardish ustiga tortiladigan teri sathi (membrana) ham bir muncha kengaygan. Bular asosan XV-XVI asrlarga oid kitob bezaklarida, Sharq miniatyuralarida tasvirlangan. Ammo Markaziy Osiyoning undan oldingi Antik yodgorliklaridan hisoblangan Niso qal’asining peshtoqlarida tasvirlangan doiralar bu cholg‘uning ilk tuzilishi hozirgi o‘zbek doiralariga yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

Bu cholg‘u o‘zbek va tojiklarda «doira», «chirmanda», «childirma», armanlarda «dap», eron va misrliklarda «daff», ozarbayjonlarda «def», «doyre», «gaval», ayrim Sharq mamlakatlarida «dabu» va boshqa nomlar bilan keng tarqalgan. Umuman, doira turlari bir-biridan katta-kichikligi, tarkibiy qismlarining tuzilishi, ijrochilik uslublari bilan farqlanadi.

Markaziy Osiyo yerlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olingan ma’lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doira ijrosiga, asosan, ayollar jo‘r bo‘lgan. Ularning doira usullariga mos qo‘shiq aytishi va raqsga tushishi o‘sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda ham Samarqand, Farg‘ona, Buxoro, Namangan va boshqa bir qator viloyatlarda doira ayollar ijrochiligidagi asosiy cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Farg‘ona vohasining shahar, qishloqlarida faqat doira jo‘rligida qo‘shiq aytadigan, raqsga tushadigan xalq dastalari tuzilgan. Ular turli an’anaviy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarda ishtirok etishadi. Yor-yorlar, o‘lanlar, laparlar, yallalar, zamonaviy qo‘shiq va raqslarni ijro etadilar. Bunday turdagi xalq dastalarining ijrochilik san’ati kun sayin ko‘plab muxlislarning e’tiborini qozonib kelmoqda. Hujjatlarning dalolatiga ko‘ra, doira - zarbli sozlar qayroq, zang va boshqalar bilan bir qatorda oymoma marosimlarida kohinlar tomonidan keng qo‘llanilgan.

Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doira diniy marosim raqslariga jo‘r bo‘luvchi cholg‘u sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning o‘zlari doirachilar tomonidan ijro etilgan. Turli toifadagi cholg‘u va ashula dastalari tarkibida ham doira oldindan salmoqli o‘rin tutib kelgan. Xalqimizning ma’naviy boyligi, xalq ijodida asrlar osha shakllanib, rivojlanib kelgan maqomlarda esa, asosiy negiz lad va usuldir. Shuning uchun milliy musiqamizning shoh asarlari bo‘lmish maqomlar ijrochiligini doirasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Maqomlarning nasr va mushkulot ijro yo‘llarini yuqori malakali ijrochi sozandalaru-hofizlar doira bilan hamkorlikda ijro etganlar.

Markaziy Osiyo miqyosida doira va barcha zarbli cholg‘ular ijrochiligi vujudga kelishi va ravnaqi jarayonida har bir vohada o‘ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllangan. Bu uslublarda har bir vohaning o‘ziga xos xususiyatlar o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Masalan: Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona-Toshkent doira ijrochiligini misol qilib keltirish mumkin. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Xorazm doirachilik maktabi o‘z ijrochilik uslubi va usullarining tarkib topishi jihatidan O‘zbekistonning boshqa vohalaridagi doira ijrochiligi uslublaridan farq qiladi. Shu bilan birga, Xorazmda ikki xil - katta va kichik doira cholg‘usi mavjud bo‘lib, asosan jo‘r bo‘luvchi soz sifatida qo‘llaniladi. Bu vohada doira ijrochiligining yakkanavozlik uslubi uncha rivoj topmagan. Bevosita cholg‘uning ijro holatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Xorazmda doira mo‘tadil qizdiriladi va shu tufayli o‘zgacha tembrga ega tovush hosil qiladi. Mavjud musiqiy manbalardan kuzatishimizcha, qadimdan barcha vohalar musiqa dastalarining ijrochilik faoliyatida doira doim ishtirok etgan. Odatda, bir doirada ijro etish keng ommalashgan, lekin ba’zi hollarda ikki, uch doira ham ishlatilganligi ma’lum. Biroq hamma ma’lumotlarda doira yakkanavozligi haqida birdek so‘z yuritilmagan. Bu hol XX asrning dastlabki davriga ham taalluqlidir.

Ammo doira cholg‘usining butun ijroviy xususiyatlari yakkanavozlikda, raqsga jo‘r bo‘lish jarayonida namoyon bo‘ladi. Doira yakkanavozligining tarkib topishida raqs san’atining ta’siri katta. Chunki bu jarayon raqslarda bo‘lgan harakat, joziba, lutf, imo-ishora kabi xalqimizga xos go‘zal an’analarni doira usullarida to‘la ifodalash bilan bog‘liqdir. Bu holat doira ijrochisi uchun xilma-xil, rang-barang usullar majmuasini tuzish va ularni mohirona ijro etish bilan chegaralanmay, an’anaviy raqs san’ati sirlarini ham tushunishni, his qilishni talab etadi.

Ohang va vazn jihatlaridan tarkib topgan xilma-xil murakkab raqslar majmuasidan shakllangan asarlarda bir usuldan ikkinchi usulga o‘tishning tabiiy va mantiqan asoslangan yo‘lini topish doira ijrochisining mahoratiga bog‘liq. Bundan tashqari, yangi raqslarni (doira jo‘rligida) yaratish, ularni o‘zlashtirish va sahnalashtirish kabi bir qator

tadbirlarda doirachi ham katta o‘rin tutgan. Chunki, raqsni erkin rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biri usullar majmuasidir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekistonda doira ijrochiligining yangi uslubi, ya’ni uning yakka soz sifatida qo‘llanishi rivojlana boshladi. Bu ishga 1947 yilda, Toshkentdagi sobiq pioner va o‘quvchilar saroyi (hozirgi Respublika o‘quvchilari va o‘smir yoshlari ijodiyot markazi) qoshida doirachi bolalar to‘garagi tashkil etish bilan ilk bor qadam qo‘yildi. Ularning faoliyati boy o‘zbek usullarini o‘rganish bilan bir qatorda, estrada sahnalarida bitta yoki bir nechta (to‘rttagacha) doirada yakkanavoz bo‘lib ijro etish uslublarini ham o‘rganishga asoslangan edi.

Doirachi bolalar to‘garagida saboq olganlar keyinchalik egallagan ijrochilik mahoratlari tufayli o‘zbek musiqa san’ati, doira ijrochiligini dunyoning turli mamlakatlarida namoyish etib, olqishlarga sazovor bo‘ldilar. Qator doirachilarning ijrochilik san’ati yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan. Ular orasida O‘zbekiston xalq artistlari va Davlat mukofoti sovrindorlari, Xalqaro va Respublika tanlovlari, jahon festivallarining g‘oliblari bor. Jumladan: Usta Olim Komilovdan boshlab, uning davomchilari Qahramon Dadaev, Tal’at Sayfutdinov, Odil Kamolxo‘jaev, aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar, Abbos Qosimov, Husan Nosirov, Raxmatulla Samadov, Ilxom Ikromov, Rustam Ubaydullaev, Alisher Yuldashev kabi san’at namoyandalari el-yurt e’tiborini qozonganlar.

Bu misollar doira ijrochilik an’analarining hayotiyligi va zamonaviy ruhda rivojlanib, o‘zbek an’anaviy musiqa san’atida doiraning tutgan salmoqli o‘rnini, yangidan yangi janr va shakllarni vujudga keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Doiradan taralgan turli rang-barang usul sadolari tinglovchilarni o‘ziga rom etib, ularda badiiy va estetik qiziqish uyg‘otishi shubhasizdir.

Bunday muvaffaqiyatga ulkan hissa qo‘shgan, muhim tarixiy manba tariqasida I.Akbarovning Usta Olim Komilovdan yozib olgan «Doiraning zarblari» to‘plamini eslatib o‘tish lozim. Bundan salkam 70 yil muqaddam chop etilganiga qaramay, ushbu to‘plam hozirgi kungacha an’anaviy usullarning eng to‘liq majmuasi, deb tan olinadi. Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, doira ijrochiligi o‘zbek musiqa san’atining ajralmas bir qismini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. - 1977.

2. Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent. «Istiqlol». - 1994.

3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. Toshkent. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1-3 tom, - 1950-1961 yillar.

TURLI YOSH GURUHLARIDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Olimova Zamira Mingyasharova,
Alibekova Mahliyo Sunnatilo qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Shanasirova Zaxro Yuldashovna,
Chirchiq DPU dotsenti. Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turli yosh guruhlarida ekologik ta’lim va tarbiya berishning pedagogik asoslari yoritilgan. Ekologik ta’limning uzluksizlik, tizimlilik,*

integratsiya va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida tashkil etilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan ekologik ta’lim samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, uzluksizlik, integratsiya, innovatsion metodlar.*

Kirish. Ekologik muammolar bugungi kunda insoniyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan global masalalardan biridir. Iqlim o‘zgarishi, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi jarayonlar ekologik ong va madaniyatni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois ekologik ta’lim va tarbiya uzluksiz ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ekologik ta’lim shaxsda tabiatga ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. U faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki ekologik qadriyatlar, ko‘nikmalar va amaliy faoliyatni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik adabiyotlarda ekologik ta’lim tizimlilik va izchillik asosida tashkil etilishi zarurligi ta’kidlanadi. Ekologik ta’limning samaradorligi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilganda yuqori natija beradi. Har bir yosh bosqichi o‘ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo‘lib, ta’lim mazmuni va metodlari shunga mos ravishda tanlanishi lozim.

Maktabgacha yosh ekologik tarbiyaning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolalar tabiatni hissiy jihatdan qabul qiladilar. Ularda tabiatga nisbatan mehr va g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Tabiatni kuzatish, sayrlar tashkil etish, ekologik ertak va o‘yinlardan foydalanish samarali metodlar sirasiga kiradi. Zverev ekologik tarbiyada hissiy idrokning muhim rol o‘ynashini alohida qayd etadi.

Boshlang‘ich sinf bosqichida ekologik bilimlar tizimli va ko‘rgazmali shaklda berilishi lozim. O‘quvchilarning tabiat hodisalariga qiziqishi yuqori bo‘lganligi sababli ekskursiyalar, oddiy tajribalar va loyihaviy mashg‘ulotlar samarali natija beradi. UNESCO hujjatlarida ekologik ta’limni amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarurligi alohida ta’kidlangan.

O‘rta sinflarda o‘quvchilarning analitik fikrlashi rivojlanadi. Shu bois muammoli ta’lim, tadqiqot metodlari va ekologik loyihalar samarali hisoblanadi. O‘quvchilar ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga o‘rganadilar. Bu bosqichda ekologik ong shakllanishi barqaror rivojlanish g‘oyalarini anglash bilan uyg‘unlashadi.

Yuqori sinf va oliy ta’lim bosqichida ekologik bilimlar ilmiy asosda chuqurlashtiriladi. Talabalar ekologik monitoring, ilmiy tadqiqot va volontyorlik faoliyatida ishtirok etish orqali ekologik mas’uliyatni namoyon etadilar. Ekologik ta’limning uzluksizligi shaxsda barqaror ekologik pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi: – uzluksizlik; – tizimlilik; – integratsiya; – amaliy yo‘naltirilganlik.

Uzluksizlik tamoyili ekologik ta’limning barcha bosqichlarda davom etishini nazarda tutadi. Integratsiya tamoyili ekologik mazmunni boshqa fanlar bilan

uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Amaliy yo‘naltirilganlik esa o‘quvchilarning real ekologik faoliyatda ishtirok etishini ta’minlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekologik ta’lim samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar, AKT vositalari, multimedia texnologiyalari hamda STEAM yondashuvi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlardan foydalanish ekologik bilimlarning o‘zlashtirilish darajasini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, jumladan, ekologik madaniyatni shakllantirish vazifasi ko‘rsatib o‘tilgan [1; 5-b.]. Ekologik ta’lim konsepsiyasida esa ekologik bilim va ko‘nikmalarni uzluksiz shakllantirish mexanizmlari belgilangan.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik ta’lim yosh bosqichlariga mos ravishda tashkil etilganda o‘quvchilarning ekologik bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, loyihaviy va muammoli ta’lim metodlari ekologik tafakkurni rivojlantirishda samarali natija beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim yosh bosqichlariga mos metodlar asosida tashkil etilganda samaradorlik ortadi. Loyihaviy ta’lim, interfaol metodlar va AKT vositalari ekologik tafakkurni rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ekologik madaniyatni shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan [1; 5-b.]. Bu esa ekologik ta’limni takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Xulosa. Turli yosh guruhlarida ekologik ta’lim va tarbiya berish tizimli, uzluksiz va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilganda ekologik madaniyat shakllanishiga xizmat qiladi. Ekologik ta’limni takomillashtirish uchun metodik ta’minotni boyitish, pedagoglarning malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologik ta’lim konsepsiyasi. 2021.
3. Zverev I.D. Ekologik ta’lim asoslari. Moskva, 2014.

INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI
(Navoiy viloyati Nurota tumani misolida)

Omandillayev Uktam Orzu o‘g‘li,
Toshkent DIU Samarqand filiali Iqtgisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) talim yo‘nalishi talabasi.

Anotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada inklyuziv turizm tushunchasi, uning turizm sohasidagi ahamiyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Navoiy viloyati Nurota tumanining turistik salohiyati, hududda inklyuziv turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va mavjud muammolari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida hududdagi turistik obyektlar infratuzilmasi, transport tizimi hamda xizmat ko‘rsatish sohasining nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashuv darajasi tahlil qilindi. Maqolada inklyuziv turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida turizm infratuzilmasini moslashtirish, transport xizmatlarini takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda turizm sohasida malakali kadrlar*

tayyorlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida Nurota tumanida inklyuziv turizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv turizm, turizm infratuzilmasi, barqaror turizm, nogironligi bo‘lgan shaxslar, turistik salohiyat, ekologik turizm, turizm xizmatlari.*

Hozirgi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasi iqtisodiy daromad manbai bo‘lishi bilan birga, madaniy almashinuvni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hududlarni kompleks rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda turizm sohasida yangi yo‘nalishlardan biri sifatida inklyuziv turizm konsepsiyasi shakllanib bormoqda.

Inklyuziv turizm – bu barcha insonlar uchun turizm xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan turizm turi bo‘lib, u nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, bolali oilalar hamda harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay sharoit yaratishni nazarda tutadi. Jahon amaliyotida inklyuziv turizm turizm industriyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv turizm tushunchasi va uning ahamiyatiInklyuziv turizm tushunchasi XX asr oxirida shakllana boshlagan bo‘lib, uning asosiy maqsadi turizm xizmatlaridan barcha insonlarning teng foydalanish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Inklyuziv turizm quyidagi tamoyillarga asoslanadi: - teng imkoniyatlar yaratish; - universal dizayn tamoyillaridan foydalanish; - turizm infratuzilmasining qulayligi; - ijtimoiy integratsiya.

Inklyuziv turizmning rivojlanishi bir qator ijtimoiy va iqtisodiy afzalliklarni ta’minlaydi. Jumladan: - turizm xizmatlaridan foydalanadigan aholi qatlamining kengayishi; - turizm daromadlarining oshishi; - ijtimoiy tenglikni ta’minlash; - nogiron-ligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi. Shu sababli ko‘plab rivojlangan davlatlarda inklyuziv turizm davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Nurota tumanining turistik salohiyati. Nurota tumani Navoiy viloyatining eng qadimiy hududlaridan biri bo‘lib, boy tarixiy va tabiiy resurslarga ega. Hududning geografik joylashuvi ham turizmni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi. Hududda quyidagi turizm yo‘nalishlari rivojlanish imkoniyatiga ega: - ekologik turizm; - ziyorat turizmi; - qishloq turizmi; - etnoturizm; - sog‘lomlashtirish turizmi.

Nurota tog‘lari hududning eng muhim tabiiy resurslaridan biri hisoblanadi. Bu tog‘lar o‘zining noyob landshaftlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Shuningdek, hududda joylashgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Nurota tumanida tarixiy va diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Hududda qadimiy tarixiy obidalar, masjidlar va ziyoratgohlar joylashgan bo‘lib, ular turistlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

Turizm infratuzilmasining barcha qatlamlar uchun qulay bo‘lishi turizm xizmatlari sifatini oshirish va turistlar sonini ko‘paytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish hamda turizm xizmatlari sifatini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Navoiy viloyati, xususan Nurota tumani tabiiy landshaftlari, tarixiy obidalari va ekologik resurslari bilan turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shu sababli ushbu hududda inklyuziv turizmni rivojlantirish masalasini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasini rivojlantirish, xususan inklyuziv turizm masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xalqaro turizm tashkiloti tadqiqotlarida inklyuziv turizm

barcha insonlar uchun teng turistik imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy yo‘naltirilgan turizm turi sifatida ta’riflanadi. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida esa turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm xizmatlari sifatini oshirish hamda hududiy turizmni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda inklyuziv turizm barqaror turizm konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Inklyuziv turizm orqali turizm xizmatlaridan foydalanadigan aholi qatlamini kengaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash mumkin.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: - tahlil va sintez usuli; - statistik tahlil usuli; - taqqoslash usuli; - tizimli yondashuv.

Mazkur usullar yordamida Nurota tumanining turistik salohiyati hamda inklyuziv turizmni rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganildi.

Nurota tumanining turistik salohiyati. Nurota tumani O‘zbekistonning qadimiy hududlaridan biri bo‘lib, boy tarixiy va tabiiy resurslarga ega. Hududda ekologik turizm, ziyorat turizmi, qishloq turizmi va etnoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Nurota tog‘lari, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi hamda hududdagi qadimiy tarixiy obidalar turistlar uchun jozibador hisoblanadi. Bundan tashqari, hududning tabiiy landshaftlari ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Nurota tumanida inklyuziv turizmni rivojlantirish muammolari. Hududda turizm rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, inklyuziv turizmni rivojlantirishda ayrim muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat: - turistik obyektlarda panduslar va maxsus yo‘laklarning yetishmasligi; - nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mos transport xizmatlarining kamligi; - turizm xodimlarining inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi; - turistik obyektlarda maxsus axborot tizimining yo‘qligi.

Mazkur muammolar inklyuziv turizmni rivojlantirish jarayonini sekinlashtirmoqda.

Inklyuziv turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari. Nurota tumanida inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

1. Infratuzilmani "To‘siqsiz muhit" tamoyili asosida moslashtirish. Inklyuziv turizmning poydevori bu — harakatlanish uchun qulaylikdir. "Chashma" majmuasi: Nurotaning asosiy tashrif nuqtasi bo‘lgan ushbu majmuada nogironlik arabachasidan foydalanuvchilar uchun maxsus panduslar, tutqichlar va kengaytirilgan yo‘laklar qurish.

Sanitariya-gigiyena sharoitlari: Ziyoratgohlar, muzeylar va umumiy ovqatlanish joylarida xalqaro standartlarga mos keladigan maxsus hojatxonalar barpo etish.

Transport: Navoiy shahridan Nurotaga qatnovchi avtobuslarni liftli yoki past polli (low-floor) modellar bilan yangilash.

2. Ekoturizm va Agro-turizmni moslashtirish. Nurota tog‘ tizmalari va Sentyab, Uxum kabi qishloqlardagi mehmon uylari (guest houses) inklyuzivlikni joriy etishi mumkin: *Mehmon uylari:* Qishloq uylarining kamida bitta xonasini keng eshikli va qulay kirish yo‘lakchali qilish. *Tabiat so‘qmoqlari:* Tog‘ yonbag‘irlarida harakatlanish qiyin bo‘lgan shaxslar uchun xavfsiz va tekis "sog‘lomlashtirish yo‘laklari"ni yaratish.

3. Axborot va kommunikatsiya qulayligi. Turizm faqat jismoniy harakat emas, balki ma’lumot olish hamdir:

Brayl yozuvi: Tarixiy obidalar (masalan, Nurota qal’asi qoldiqlari) haqidagi ma’lumotlarni ko‘zi ojizlar uchun Brayl alifbosida tayyorlash.

Audio-gidlar va Surdo-tarjima: Eshitishida nuqsoni borlar uchun QR-kodlar orqali imo-ishora tili bilan tushuntirilgan video-ma’lumotlarni joriy etish.

Taktil modellar: Tarixiy obidalarning kichiklashtirilgan maketlarini yaratish orqali ko‘zi ojizlarga obidani "qo‘l bilan his qilish" imkonini berish.

4. Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni tayyorlash. Nurotadagi gidlar, mehmonxona xodimlari va transport haydovchilari uchun maxsus treninglar o‘tkazish: 1) imkoniyati cheklangan shaxslar bilan muloqot qilish etikasi; 2) birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari; 3) maxsus ehtiyojli sayyohlarning psixologiyasini tushunish**;** 4) turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari orqali tayyorlash zarur.

5. Davlat va Xususiy sheriklik (DXSH). Nurotada inklyuziv loyihalarni amalga oshirayotgan tadbirkorlar uchun: 1) soliq imtiyozlari berish. 2) imtiyozli kreditlar ajratish. 3) subsidiyalar ajratish. 4) grant loyihalari orqali xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi) mablag‘larini jalb qilish.

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Nurota tumanida inklyuziv turizmni rivojlantirish orqali hududning turistik jozibadorligini oshirish mumkin. Turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hududga tashrif buyuruvchi turistlar sonining ko‘payishiga xizmat qiladi. Shuningdek, inklyuziv turizmni rivojlantirish hudud aholisining bandligini oshirish va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Nurota tumani inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Hududning tabiiy resurslari, tarixiy obidalari va ekologik salohiyati turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport xizmatlarini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash zarur. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali Nurota tumanida turizmni yanada rivojlantirish hamda hudud iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov T.Sh. O‘zbekiston turizmi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 130 b.

2. Rustamov Sh.A. Inklyuziv turizm: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Turizm-Press, 2020. – 112 b.

3. Karimov S. Ekoturizm va mahalliy resurslardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2019. – 102 b.

4. UzDaily. Navoiy viloyatida turizm salohiyatini rivojlantirish. – URL: https://www.uzdaily.uz/uz/navoiy-viloyatida-turizm-salohiyatini-rivojlantirish (дата обращения: 12.03.2026).

CHOLG‘U IJROCHILIGIDA REPERTUAR SHAKLLANTIRISH MASALASI

Orzuqulova Hilola Axrorjon qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi mudiri, professor. Ilmiy rahbar.

Yakka mashg‘ulotlarda ijrochilik san’atiga masuliyat bilan qarash, o‘zi tanlagan ixtisoslikni ehzozlash, sevib o‘rganish, ustoz sozandalar ijro yo‘llari va uslublarini

o‘rganish. Bittadan ikki oktavalik major va minor gamma, 3-4 ta har xil xarakter uslubidagi asarlar ijro etish. Asarlarni tanlash va o‘quv tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va ijro ko‘nikmalarini shakllantirishda har bir talabaning shaxsiy imkoniyati, musiqiy qobiliyati, musiqiy bilim doirasi, ijrochilik imkoniyatlar darajasini e’tiborga olish. Aksariyat hollarda Yevro‘pa kompozitorlarining murakkab asarlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish hollari uchraydi. Bunday yondoshuv noto‘g‘ri bo‘lganligi bois ko‘p hollarda kutilgan natida bo‘lmaydi va asar maromiga tekazib ijro etilmaydi. Bunday hollarda har bitta milliy cholg‘uning imkonyatlarini inobatga olgan holda yondoshuv bo‘lishi, ya’ni asarning ayrim joylariga ma’lum o‘zgarishlar kiritish (asar mohiyatini buzmagan holda) orqali yaxshi natijaga erishish mumkin. O‘zbek va qardosh kompozitorlarining asarlarini ijro etishda ham shunday qilish kerak. Qardosh kompozitorining asari qaysi milliy cholg‘uga mo‘ljallab yozgan bo‘lsa, bunday asarlar shunga turdosh, o‘hshash cholg‘uga moslashtirilishi taqozo etiladi.

Asarning umumiy xarakteri, tonailigi, badiiy obraz yo‘nalishi va umumiy tuzilishini aniqlab olish kelajakda to‘laqonli ijro uchun yordam beradi. Bu ma’lumotlar, albatta, o‘qituvchi rahbarligida aniqlanadi. Asarni nazariy jihatdan o‘zlashtirilgandan so‘ng uning amaliy ijrosiga o‘tiladi. Musiqa asarlari boshidan oxirigacha bir xil qiyinchilikda bo‘lmasdan, balki uning ba’zi qismlari boshqalariga nisbatan ijro jihatdan murakkabroq bo‘lishi mumkin. Bunday paytda shu qiyin joylar alohida ajratilib, ularning ijrosi ustida mashqlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Lekin bunday ishlash jarayoni uzoq davom etmasligi kerak. Agar shu qiyin qism mustaqil ravishda ijrochi tomonidan bekamu ko‘st ijroga erishilsa ham, ko‘p hollarda asarni boshidan oxirigacha ijro etishda xuddi ana shu qismi asarning umumiy yo‘nalishi bilan qo‘shilmasdan, alohida ajralib qolishi mumkin. Shu sababli qiyin qismlarni takrorlashda shu qismdan bir necha takt oldingi va keyingilarini qo‘shib ijro etish tavsiya etiladi. Asar o‘zlashtirilayotgan dastlabki paytda ijrochining imkoniyatlariga mos bo‘lgan tezlikni tanlash va shu tezlikning bir maromda bo‘lishiga erishish kerak bo‘ladi. Musiqa asarining ustida to‘g‘ri ishlay bilish ijro mahoratini oshirish omillaridan biridir.

Cholg‘u ijrochiligi sinflarining tajribasida ba’zi musiqa asarlarini o‘zlashtirish ishi imtihon yoki sinovgacha yetib bormasligi mumkin. Bu asarlar sinf ishi sifatidagina o‘zlashtiriladi. Sinf ishidan asosiy maqsad, musiqa asarining umumiy mazmuni bilan tanishish, undagi ishlatiladigan ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shular asosida asarda bayon qilinmoqchi bo‘lgan musiqiy kechmmalarni cholg‘u yordamida talqin eta bilishdir. Musiqa pedagogikasida bunday sinf ishlariga alohida e’tibor beriladi va u o‘quv jarayonining maxsus shaklini tashkil etadi. Sinf ishi sifatida o‘tiladigan musiqa asarlarini o‘zlashtirish uchun ajratiladigan vaqtning chegaralanganligi shu asar ustida ishlash jarayonining tezlashtirilishini anglatadi. Bunda o‘quv-pedagogik jarayonning o‘zi tezlashadi: o‘quvchi oldida muayyan materialni qisqa, chegaralangan vaqt ichida o‘zlashtirish vazifasi turadi. Buning hammasi o‘quvchiga yangidan-yangi materiallar bilan tanishish, bir joyda turib qolmaslik, oldingi o‘tilgan materiallarni bir xil ravishda takrorlayvermaslik imkoniyatini beradi. Sinf ishi uchun ajratilgan musiqa asarlari ustida ishlash bilan notaga qarab chalish kabi mashg‘ulotning o‘hshash joylari ko‘p.

Bu ikki holda ham o‘quvchi xilma-xil musiqa asari bilan qisqa vaqt ichida tanishish imkoniyatiga ega. Ayni paytda, sinf ishi bilan notaga qarab chalish mashg‘uloti ma’lum darajada bir-biridan farq qiladi. Notaga qarab chalishda o‘quvchi material bilan bir marta epizodik tanishish imkoniyatiga ega bo‘lsa, sinf ishi jarayonida esa u asar bilan to‘laroq va asosli tanishib o‘zlashtirishi mumkin. Sinf ishi bilan shug‘ullanayotgan o‘quvchi musiqa asarini bir necha bor takrorlashi natijasida o‘zi uchun shu asarning mohiyati,

mazmuni, tuzilishi va boshqa sifatlarini to‘laroq ochishi mumkin. Shu asosda asarning ijodiy g‘oyasi va undagi bayon etilayotgan badiiy fikrlar o‘quvchiga tobora tushunarli bo‘lib boradi.

Sinf ishi uchun tanlanadigan repertuar o‘zining xarakteri, tuzilishi, mazmuni va boshqa ko‘rsatkichlari jihatidan rang-barang bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, shu repertuardan o‘rin olgan asarlar o‘zining shakli, undagi bayon etiladigan his-tuyg‘ularning boyligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muhimi shuki, sinf ishi uchun tanlangan asarlar o‘quvchilarga yoqishi, ularda katta qiziqish uyg‘otishi kerak. Agar asosiy repertuar o‘quvchi uchun majburiy asarlar bo‘lsa, sinf ishidagi asarlarni o‘quvchining xohishi bo‘yicha tanlash mumkin. Shu boisdan ham bu yerda o‘qituvchi o‘quvchining istagiga qarshi emas, balki unga nisbatan xayrixoh bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Sinf ishida foydalanadigan musiqa asarlarining murakkabligi esa ma’lum darajada o‘quvchining haqiqiy imkoniyatlariga nisbatan qiyinroq bo‘lishi mumkin. Bu asarlar konsertda yoki imtihonda ijro etilmasligini hisobga olsak, o‘qituvchi yuqorida aytilgan tamoyilni qo‘llashi to‘g‘ri bo‘ladi. Sinf ishiga olingan asarlarni o‘zlashtirish asosiy repertuardagi asarlar ustida ishlashdan farq qiladi. Asosiy repertuardagi asarlarni o‘zlashtirish uchun o‘quvchi muntazam ravishda ishlab, qiyin joylarini bir necha bor takrorlasa va nihoyat uni yod olsa, sinf ishidagi asarlar ijrosida esa u o‘z e’tiborini musiqa asaridagi badiiy obrazlarni yaxlitligicha talqin qilishga, asar shaklini o‘z ijrosi bilan umumlashtirishga qaratishi kerak.

Dutor ijrochiligi mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilar O‘zbek xalq maqomlari namunalari bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlari va kuylarini ham o‘rganadilar, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va farqlarni anglashga harakat qiladilar. Natijada ta’lim oluvchilar e’tiboriga havola qilinayotgan O‘zbek xalq maqomlari va xalq qo‘shiqlarining o‘zigagina xos bo‘lgan tomonlarini ajrata oladilar, ularning o‘zaro o‘hshash va farqlari, umumiy tomonlarini guruhlash, taqqoslash kabilardan foydalanib xulosalar chiqaradilar.

Ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha dutor ijrochiligi mashg‘ulotlarining tashkil etilishiga e’tibor qaratilishi zarur. Bu o‘rinda quyidagi holatlarni inobatga olish talab qilinadi:

1. Ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashda ijro etish yo‘llari, ijro usuli imkoniyatlarini aniqlash.

2. Har bir asarning ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashdagi mohiyatini tushunish, ularni puxta o‘zlashtirishga imkon beruvchi o‘quv materiallarni oldindan belgilab olish.

3. Dutor cholg‘usi uchun yozilgan asarlar namunalarining ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashdagi ahamiyati, maqsadini aniq belgilash.

4. Dutor mashg‘ulotlarida ijrochilik uslublarini o‘rgatish jarayonida ta’lim oluvchilarga shu kabi ijro etish uslubi, ovoz tembri jarangdorligini ta’minlashga xizmat qiladigan qat’iy tartibga amal qilishlarini ta’minlash.

Dutor ijrochiligi mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilarga milliy istiqlol mafkurasini singdirish, hozirgi farovon turmush qadriga yetish hislarini singdirish estetik tarbiyaning eng muhim, dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Cholg‘uda ijro etish uslublari. Dutor cholg‘usi usullari (shtrixlari)

Odatda, dutor ijrochiligida o‘ng qo‘l harakatlari uchun qabul qilingan ifodaviy ko‘rsatkichlar mavjud. Dutor cholg‘usi uchun yozilgan barcha asarlar hamda gammalarni chalishda belgilangan usullarga va qonun-qoidalarga amal qilgan holda (shtrixlarda) ijro etish talab etiladi.

Dutor cholg‘usida usullarning (shtrixlarning) zarb yo‘nalishlari belgilari: *P* -

yuqoridan pastga zarb urish; *V* - pastdan yuqoriga zarb urish.

Dutor cholg‘usida usullarning (shtrixlarning) harfiy belgilari: *K* - ko‘rsatgich barmoq bilan zarb urish; *BZ* - bilak zarb - bilak bilan zarb urish; *B* - bosh barmoq bilan zarb urish; *Pizz* - pitssikato (barmoq chertmak); *Tr* - tremolo (rez) ko‘rsatkich barmoq bilan uzluksiz chertish; *J*- jimjilok bilan zarb urish.

Dutor chalish usullarini belgilash masalasi bir qancha mutaxassislarda qiziqish uyg‘otgan. Biz ularning chop etgan darslik, qo‘llanma va uslubiy ishlanmalari bilan tanishganimizda bu masalaning yoritilishida har hillik mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, A.I.Petrosyansning «Sozshunoslik» (Instrumentovedeniye) darsligidagi dutor qismida dutor zarblari yunalishi xarfiy belgilar bilan ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev R.S. O‘zbek mumtoz musiqasi. Toshkent. Yangi nashr. 2008.
2. Abdurahimova F. Orkestr sinfi. / (O‘quv qo‘llanma). Toshkent. – 2012.
3. Abduazimov R. Cholg‘u ijrochiligi / (O‘quv qo‘llanma). Toshkent. – 2016.
4. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. – T.: “Musiqa” nashriyoti. 2018.

TALABALARNING KO‘NGILLI IJTIMOIY-METODIK FAOLIYATI ASOSIDA TABIIY-ILMIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH HAMDA INKLYUZIV VA UYDAGI TA’LIMDA INDIVIDUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d. (PhD).,
Qori Niyoziy nomidagi TPMIda bajarilayotgan amaliy loyihaning jamoatchilik asosidagi a’zosi.

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan amalga oshirilayotgan ko‘ngilli ijtimoiy-metodik faoliyatni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Inklyuziv hamda uydagi ta’lim sharoitida individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, mazkur texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning metodik ko‘magi asosida tabiiy fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy-ilmiy tafakkur, individual ta’lim texnologiyalari, ijtimoiy-metodik faoliyat, ko‘ngillilar harakati, inklyuziv ta’lim, uydagi ta’lim, ta’lim samaradorligi.*

Zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiya-si”da ham ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllanti-rishda individual yondashuvga ustuvor ahamiyat berilishi belgilab qo‘yilgan [1].

Mazkur jarayonda oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan 4+2 amaliyoti va pedagogik amaliyot davrida amalga oshirilayotgan ko‘ngilli ijtimoiy-metodik faoliyat umumiy o‘rta ta’lim tizimi uchun muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, inklyuziv va uydagi ta’lim shakllarida tahsil olayotgan o‘quvchilar bilan

ishlashda talabalar ishtirokidagi individual ta’lim texnologiyalari tabiiy-ilmiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanmoqda.

Tabiiy-ilmiy tafakkurning mazmuni va ta’limdagi ahamiyati. Tabiiy-ilmiy tafakkur shaxsning tabiat hodisalari va jarayonlarini ilmiy asosda idrok etishi, ularni tahlil qilishi hamda mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tafakkur turi tabiiy fanlar – biologiya, fizika, kimyo, geografiya, astronomiya fanlarini o‘rganish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan tabiiy-ilmiy tafakkurning rivojlanishi quyidagilar bilan belgilanadi:

- bilimlarning tizimli va izchil o‘zlashtirilishi;
- kuzatish, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarning tashkil etilishi;
- nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi.

Shu boisdan tabiiy fanlarni o‘qitishda individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb pedagogik ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi.

Individual ta’lim texnologiyalarining pedagogik asoslari. Individual ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashiga, ularni ongli ravishda o‘zlashtirishiga va amaliyotda qo‘llay olishiga xizmat qiladi [2].

Individual ta’lim texnologiyalari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- o‘qituvchi yoki metodik yordamchi bilan individual muloqot asosida ishlash;
- maxsus ishlab chiqilgan individual o‘quv dasturlari asosida mashg‘ulotlar olib borish.

Mazkur yondashuv inklyuziv hamda uydagi ta’lim sharoitida, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning ko‘ngilli ijtimoiy-metodik faoliyati va uning ta’lim jarayoniga ta’siri. Oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan 4+2 amaliyoti va pedagogik amaliyot davrida olib borilayotgan ko‘ngilli ijtimoiy-metodik faoliyat umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan samarali hamkorlikni ta’minlaydi.

Ushbu faoliyat doirasida talabalar:

- fanlar bo‘yicha individual mashg‘ulotlar tashkil etadi;
- inklyuziv ta’lim oluvchilarga moslashtirilgan metodik yordam ko‘rsatadi;
- uydagi ta’lim shaklida tahsil olayotgan o‘quvchilarga masofaviy maslahatlar beradi;
- o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiluvchi treninglar o‘tkazadi.

Natijada, o‘quvchilarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi, ilmiy fikrlash darajasi oshadi, talabalar esa kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga zarur bo‘lgan pedagogik kompetensiyalarni egallaydilar.

Inklyuziv va uydagi ta’limda individual yondashuvning imkoniyatlari. Inklyuziv ta’lim sharoitida har bir o‘quvchining jismoniy, psixologik va intellektual imkoniyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Uydagi ta’limda esa o‘quvchining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish va masofaviy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish:

- o‘quvchilar uchun qulay va moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi;

- bilimlarni vizual, interaktiv va multimedia vositalari orqali o‘zlashtirish imkonini beradi;

- tabiiy fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni soddalashtirilgan shaklda tashkil etishga yordam beradi.

Bunda talabalarning ko‘ngilli metodik ishtiroki ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.

Individual ta’lim texnologiyalarining samaradorligini baholash. Individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish natijalarini aniqlash maqsadida baholash jarayoni tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur.

Baholash quyidagi ko‘rsatkichlar asosida olib boriladi:

- o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasi;
- egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari;
- tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqish va layoqatning rivojlanish darajasi.

Baholash natijalari individual ta’lim dasturlarini takomillashtirishga, o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning 4+2 amaliyoti va pedagogik amaliyot davrida amalga oshirayotgan ko‘ngilli ijtimoiy-metodik faoliyatini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish inklyuziv va uydagi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi. Individual ta’lim texnologiyalariga asoslangan ushbu yondashuv o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ularning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda ta’lim sifatini ta’minlashda yuqori natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Djurayev R., Turg‘unov S. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: Fan, 2005.
3. Chirchiq DPU rasmiy sayti. – (http://www.Chirchiq DPU.uz)

PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TASHKILIY-BOSHQARUV KOMPETENSIYANING O‘RNI

Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi, P.f.f.d., (PhD).
Ismatova Billura Umidillo qizi,
Rustamova Gulnoza Rustam qizi,
Chirchiq DPU ”Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida muhim hisoblangan tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasining mohiyati, uning pedagogik faoliyatdagi o‘rni hamda uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari yoritib beriladi. Ta’lim jarayonida samarali boshqaruvni tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda pedagogik jarayonni rejalashtirish orqali kompetensiyani mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi.*

Tayanch so‘zlar: *kompetensiya, boshqaruv kompetensiyasi, ta’lim jarayoni, tashkiliy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, rejalashtirish, nazorat, samaradorlik.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qituvchilardan va ta’lim jarayoni ishtirokchilaridan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab qilmoqda. Ayniqsa, tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi pedagogik faoliyatning muhim

tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi.

Kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini anglatadi. Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi esa ushbu bilim va ko‘nikmalarni ta’lim jarayonini boshqarishda qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi. Bu kompetensiya pedagogning o‘quv jarayonini samarali rejalashtirish, resurslardan to‘g‘ri foydalanish va o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tashkilotchi va rahbar sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli pedagoglarda boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning faolligini ta’minlaydi.

Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasini mustahkamlash uchun vazifalar

1. *Ta’lim jarayonini samarali rejalashtirish.* Rejalashtirish pedagogik faoliyatning eng muhim bosqichlaridan biridir. Dars jarayonini oldindan rejalashtirish orqali o‘qituvchi o‘quv maqsadlarini aniq belgilaydi, kerakli metod va vositalarni tanlaydi hamda kutilayotgan natijalarni aniqlaydi.

2. *Ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish.* Tashkiliy faoliyat o‘quvchilarni guruhlar bilan ishlashga jalb qilish, jamoaviy faoliyatni rivojlantirish hamda o‘quv jarayonida samarali muhit yaratishni nazarda tutadi.

3. *Muvofiqlashtirish va hamkorlikni rivojlantirish.* Pedagog o‘quvchilar, hamkasblar va ta’lim muassasasi rahbariyati bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi zarur. Bu jarayon o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

4. *Nazorat va tahlil qilish.* Boshqaruv faoliyatida nazorat muhim o‘rin tutadi. Nazorat orqali ta’lim jarayonining natijalari baholanadi va mavjud muammolar aniqlanadi.

5. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.* Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish va muammoli ta’lim kabi metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning tashkiliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi ta’lim jarayonida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilar bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi hamda mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasining mohiyati. Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi – bu shaxsning faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishga oid bilim, ko‘nikma va malakalari yig‘indisidir. Bu kompetensiya o‘qituvchining kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: - strategik va operativ rejalashtirish; - samarali qaror qabul qilish; - vaqtni boshqarish; - jamoa bilan ishlash; - nazorat va tahlil qilish; - muammoli vaziyatlarni hal etish.

Pedagogik yondashuvlar va metodlar. Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- *Loyihaviy metod* – o‘quvchilarni mustaqil rejalashtirish va boshqarishga o‘rgatadi;
- *Keys-stadi (case study)* – real muammolar asosida qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- *Rolli o‘yinlar* – boshqaruv vaziyatlarini modellashtirish imkonini beradi;
- *Interaktiv metodlar* – o‘quvchilar faolligini oshiradi;
- *Refleksiya* – o‘z faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi.

Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish natijasida: - ta’lim jarayoni samaradorligi oshadi; - o‘quv-chilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi; - liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalari shakllanadi; - pedagogik faoliyatning sifati yaxshilanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uni rivojlantirish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik faoliyatni to‘g‘ri rejalashtirish hamda o‘quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida boshqaruv kompetensiyasini shakllantirish orqali nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy mahorati oshadi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, jamoa bilan ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga va kelajakda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T., 2015.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.
3. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2006.

DIDAKTIK O‘YINLARNING BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDAGI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Ochilov Fariddun Izatulloyevich
Chirchiq DPU «Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi» kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).
Sodiqova Mohruxsor Muhammadsohibzoda,
Yunusova Muxlisa Kamoliddin qizi,
Chirchiq DPU «Boshlang‘ich ta’lim» yo‘nalishi 4-kurs talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada didaktik o‘yinlardan dars jarayonida foydalanish usullari, ularning boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, ta’lim jarayonidagi pedagogik xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, didaktik o‘yin, aqliy rivojlanish, amaliy faoliyat, qobiliyat, rag‘bat.*

Yurtimizda ta’lim sifatini yanada oshirish, uni keng targ‘ib qilish maqsadida bugungi kunda ta’lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlardan foydalanib kelinmoqda. Bu dars jarayoniga yangicha innovatsiyalar bilan yondashmoq deganidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad dars jarayonini har tomonlama mazmunli qilish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirishdan iborat.

Dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanishning asosiy maqsadi o‘quvchilar diqqat-e’tiborini darsga jalb etishdir. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo‘lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta’sir qudratiga ega. Didaktik o‘yinlar davomida bolalar jamoa bo‘lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o‘z navbatida, erkin fikr yurita olish ko‘nikmalari kuzatiladi. Ma’lumki, 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam

qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim olishlarida dars jarayonini didaktik o‘yinlar asosida tashkil etish va shu o‘yinlarni ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish o‘quvchilarni hozirjavoblikka, zehnli bo‘lishga, har bir ishda tashabbus ko‘rsatishga va fanga chuqur qiziqish bilan nazar solishga undaydi. Shuningdek, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tadbiq qilishga va yanada ko‘proq o‘qishga undaydi. Natijada, o‘quvchilarning kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishishida g‘oyat katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. [2]

Didaktik o‘yinlar hamma vaqt o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rsatkichi hisoblanadi. Chex pedagogi Y.A.Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan, o‘yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi [1]. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, bolaning tengdoshlari bilan birgalikda o‘ynashi uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. O‘yin harakati jarayononida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilish, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tahkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqi, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. O‘yin – bola hayotining uzviy qismi. O‘yin orqali bola atrof-muhit, tabiat hodisalari, manzaralar, buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Darslarda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilar zehnini o‘stirish, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga qat’iy rioya qilishga o‘rganadilar, inoqlik his-tuyg‘ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning xususiyatiga ko‘ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi. Didaktik o‘yinlarni xilma-xil tarzda tashkil qilish mumkin. Masalan, qo‘g‘ir-choq, o‘yinchoq, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlar maqsadiga ko‘ra, 4 omilni o‘z ichiga oladi: 1. O‘yinning vazifasi. 2. O‘yinning harakati. 3. O‘yinning qoidasi. 4. O‘yinning yakuni. [3]

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O‘quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilar o‘rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o‘z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yindan muntazam ravishda foydalanish ta’limda tabiiy sharoitni yaratadi. Bu esa o‘quvchilarni dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkon yaratadi. O‘yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o‘quvchiga dars davomida berilayotgan manbalarni mustaqil o‘zlashtirishini, ijodiy tafakkurini o‘stiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning yashirin imkoniyatlari va fanga bo‘lgan qiziqishini ochib beradi. Didaktik o‘yinlarga «Do‘koncha”, «O‘z o‘rningni top”, «Kim tez bajaradi», «So‘zdan so‘z toping”, «Doiraviy misollar» singari o‘yinlar kiradi.

«Kim tez bajaradi» o‘yini. O‘yin maqsadi: hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish. O‘yin jihozi: 2 ta savatcha, ifodalar yozilgan (12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hokazo) olma shaklli karton qog‘ozlar. Stol ustiga «olmalar» yoyib qo‘yiladi. Doskaga 2 o‘quvchi chiqadi. Ular «olmalar”dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to‘g‘ri topmagan o‘quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o‘quvchi savatga ko‘p «olma» tergan bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. [4]

“Zukkolar” o‘yini. O‘yinning maqsadi: ko‘paytirish va bo‘lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash. O‘yin jihozi: uchta bayroqcha. O‘yinning borishi: qatorlararo o‘tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o‘quvchilar soni teng bo‘linadi. O‘qituvchi har bir qatorning oxirida o‘tirgan o‘quvchiga bayroqchani beradi. O‘qituvchi son aytadi. Masalan: 1-qatorga 6 soni, 2-qatorga 4 soni, 3-qatorga 5 soni. Bayroqchalarni olgan o‘quvchi 6 • 2= 12 deb bayroqchani oldingi partadagi o‘quvchiga uzatadi. 12 • 2 = 24; 24: 3 = 8; 8 • 5= 40; 40: 4 = 10. O‘quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo‘ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o‘quvchi 6 soni hosil bo‘ladigan ifoda bilan o‘yinni yakunlashi kerak bo‘ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kelsa, o‘sha qator g‘olib bo‘ladi. Go‘lib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar biriktirib qo‘yiladi. [4]

“Bu qaysi shakl?” o‘yini. O‘yinning maqsadi: geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta’rif berish malakasini oshirish. Og‘zaki nutqni rivojlantirish. O‘yin jihozi: konvertlarga solingan geomatrik shakllar. O‘yinning borishi: doskaga bir o‘quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko‘rib olib, o‘quvchilarga murojaat qiladi. “Qo‘limdagi geometrik shaklning uch tomonida uch burchagi bor, uning tomonlari har xil uzunlikda bo‘lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?”. Shaklga to‘g‘ri ta’rif bergan va shaklning nomini to‘g‘ri topgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, didaktik o‘yinlardan foydalanilganda o‘quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, diqqatni jamlashi rivojlanadi, dars materiallarini o‘zlashtirishi yengillashadi, shu bilan birga, ularning fikri, atrof muhitga munosabati, sinchkovlik qobiliyati oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T., 2004
2. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. – T., 2001
3. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Tafakkur», 2011. – 160 b.
4. Toxirov J., Muhammedova G. Matematika darsida innovatsiya. – T., 2012

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA PEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA IJTIMOIY FAOL SHAXSNI TARBIYALASH

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna,
Alfraganus universiteti “Pedagogika” kafedrasi professori, P.f.d. (DSc).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik qadriyatlarga asoslangan zamonaviy ta’lim tizimining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda globallashuv sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, shaxsiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik, maqsad qo‘yish va o‘zini-o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Pedagogik qadriyatlarga*

yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni o‘quvchilarda halollik, hurmat, hamdardlik, fuqarolik mas’uliyati, tanqidiy fikrlash va bardoshlilik kabi sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy maktab muhitida o‘qituvchi va ota-onaning tarbiyaviy hamkorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi hamda o‘quvchilarning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan metodik yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari qadriyatlarga asoslangan ta’lim modeli shaxsning ma’naviy yetukligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik qadriyatlar, qadriyatlarga asoslangan ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, globallashuv, ijtimoiy faollik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, motivatsiya, shaxs kamoloti, zamonaviy maktab, ma’naviy immunitet.*

Zamonaviylashtirilgan ta’lim-tarbiya konsepsiya o‘quvchilarning kundalik hayotida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, malaka va xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi dinamik o‘zgarishlar davrida «pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim» tizimini joriy qilish hamda murakkablashib borayotgan globallashuv jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni singdirish zarurati tobora ortib bormoqda. Pedagogik qadriyatga asoslangan ta’lim to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, mohiyatan, bu amaliy o‘rganishni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning insoniy fazilatlarini oshirishga qaratilgan metodologiyadir. Ushbu ta’lim mazmuni ijtimoiy munosabatlarda halollik, hurmat, hamdardlik va mas’uliyat kabi muhim axloqiy normalarni shakllantirishga asoslanadi. Pedagogik qadriyatga asoslangan ta’limni ta’minlashda asosiy rol o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. Ular nafaqat milliy tarbiyachilar, balki o‘quvchilarning shaxsiy xarakterini insoniy fazilatlar asosida shakllantirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi axloqiy maslahatchilardir.

Pedagogik qadriyatga asoslangan ta’lim uzluksiz ta’lim tizimida rivojlanadi. Ta’limiy jarayonlarda o‘zini o‘zi rivojlantirish uzluksiz ta’limning muhim elementidir. Bu o‘quvchilarning o‘zlarini hurmat qilishlari, vaqtini boshqara olishi, bilim olishga intilishi, o‘rganish jarayonida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, ijtimoiy faol va namunali shaxs bo‘lishga intilishlari g‘oyasi atrofida birlashadi. Ushbu yondashuvni amalga oshiradigan zamonaviy maktablarda o‘quvchilarni ichki potensiali va qobiliyatini aniqlashga, o‘quvchining o‘z qobiliyati va iqtidoriga ishonishiga va o‘zini imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishga undaydigan faoliyatni amalga oshirishi kerak.

Zamonaviy maktab jamoasi o‘quvchilarni milliy o‘zligini anglashiga, qadriyatlarga hurmat ruhida ta’lim berishi, insoniy fazilatlarni shakllantirishi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishi, ijtimoiy jarayonlarda faol munosabatlarga kirishishga yo‘naltirishi zarurdir. O‘quvchilar o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq bilan yangi bilimlar olishga, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinovdan o‘tkazishga hamda hayotda pozitiv ruhda va ijtimoiy faol fuqaro sifatida yashash ko‘nikmalari pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayonida bosqichma bosqich shakllanib boradi.

Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda ijtimoiy hamkorlik, katta va kichik jamoada munosabatga kirishishga o‘rgatadi. Bu o‘quvchilarga empatiya, samarali va mazmunli muloqotning ahamiyatini oshiradi. Guruh ishlari bu o‘quvchilarga mustahkam, sog‘lom munosabatlar o‘rnatishga, jamoaga aloqadorlik, burch va daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi, hamda insoniylik va hissiy farovonlikni oshiradi. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchisi o‘zi tanlagan maqsadi va bosib o‘tgan yo‘li bilan tengdosh va izdosh o‘quvchilarga namuna bo‘lishi kerak. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari o‘z oldiga shaxsiy maqsadlarni qo‘ya olishi,

maqsadni amalga oshiruvchi bosqichlari va shaxsiy kun tartibini shakllantirishi, amalga oshirishi zarur bo‘lgan rejalarni, ya’ni maqsad komponentlarini bajarishda mas’uliyat, burch va daxldorlik hissini tuyishi, o‘ziga nisbatan talabchan va intizomli bo‘lishi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlab, boshqara olishi kerak. Har qanday vaziyat va sharoitda o‘quvchilarda pozitiv maqsad qo‘yish ko‘nikmasini shakllantirish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik qadriyatlarga asoslangan zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchini maqsadli, o‘ziga o‘zi motivatsiya bera oladigan hamda dalillarga asoslangan ambitsiyalarga moslashadigan ta’lim muhiti va metodik tizimini yaratadi. O‘quvchilarning qiziqishlari, bilimi, tajribalari va potentsial darajalarini aniqlashda o‘qituvchilar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar maqsad va unga erishuvchi yo‘nalish bilan yashash orqali muvaffaqiyatli umr kechirishga o‘rgatiladi. O‘quvchilarda tanlangan maqsad sari harakat qilishda, shaxsiy rivojlanishda hamda o‘zini o‘zi tahlil qilishda ulardan qatiyatli, bardoshli bo‘lish kabi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish talab etiladi.

Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda o‘qish va o‘rganish jarayonida bardoshlilik, mashaqqatni yengish, muammolarni hal qilish va stressni boshqarishni o‘rgatadi. Bu o‘quvchilarni muvaffaqiyatsizliklarni qarshi olish hamda muvaffaqiyat sari qadam qo‘yishga undaydi. O‘quvchilarga ta’lim jarayonida chidamlilikni singdirish orqali ularni muvaffaqiyatli o‘rganishga boshlash va irodali shaxslarni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarga muammolarga e’tibor qaratish, konstruktiv tanqidni aniqlash va xatolardan o‘rganish milliy va umummadaniy ko‘nikmalarni oshirish jarayoniga e’tibor berishni birinchi o‘ringa qo‘yishlari ta’limiy muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ular shaxsiy va akademik o‘sish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlashga ochiqlikni rivojlantiradilar.

Zamonaviy dars jarayoni empatiya, faol tinglash, muammolarni hal qilish va sog‘lom munosabatlarni saqlovchi vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy maktablarda pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim tizimi natijasida o‘quvchilar fuqarolik mas’uliyatini bilishi va faol fuqarolik ko‘nikmalarini shakllanishi mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beradi. O‘quvchilarga rahm-shafqat, mehr-oqibat va olgan bilimi natijasida o‘z jamoalariga hissa qo‘shish muhimligi o‘rgatilishi qadriyatga asoslangan ta’lim ekotizmini yaratadi. Tashabbus, maqsad uchun harakat qilish kabi amaliy tajribalar o‘quvchilarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalga oshirish uchun qo‘llash hamda mas’uliyatli va vijdonli shaxs sifatida kamol topishi pedagogik qadriyatning asosiy maqsadidir. XXI asrda ta’lim maqsadlariga erishishda pedagogik qadriyatga asoslangan ta’limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Qadriyatlarning keng tarqalgan inqirozi hayotning barcha jabhalarida salbiy o‘zgarishlarga olib keldi. Bu inqiroz faqat milliy miqyosda emas, balki butun dunyoda seziladi. Qadriyatlar ta’lim maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning falsafasining ajralmas qismidir. Ta’lim jarayonida pedagogik qadriyatlar o‘quvchida insoniylikni, ijtimoiy munosabatlarda muloqotchanlikni, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli, qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’lim jamiyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Millatlar va elatlarning betakror tarixiy merosi, san’ati, adabiyoti ularning madaniy qadriyatlari va axloqiy fazilatlarining ajralmas qismidir. Ular xalqning o‘ziga xosligini saqlash, yosh avlodni tarbiyalash, shaxsning ijtimoiylashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Bu qadriyatlar orqali turli hodisa va vaziyatlar, yangi paydo bo‘lgan faoliyat turlari va an’analar baholanadi. Yosh avlodning hayotiy maqsadlari, “zamon qahramoni” haqidagi tasavvurlari ham axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Milliy qadriyatlar va ma’naviyat olamini obyektiv nuqtai nazardan anglash va amaliy o‘rganish hamda ularning ilmiy umumlashtirishga, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotga katta ta’sir o‘tkazadi. Tabiat, jamiyat, ma’naviy dunyo hodisalari har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyatidan kelib chiqib belgilanadi, ilmiy, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.
2. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2018.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
4. Quronov M. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

AHOLI DAROMADLARI VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Rahmonqulov Dostonjon Hamdamovich,
Toshkent DIU Samarqand filiali Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishidir. Matnda klassik, keynscha va zamonaviy nazariyalar asosida kambag‘allik daromadlar taqsimoti hamda inson kapitali masalalari tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba MDH mamlakatlari yondashuvi va O‘zbekiston olimlari qarashlari solishtirilib ijtimoiy xarajatlar bandlik transfertlar hamda institutsional mexanizmlarning farovonlikka ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv o‘sish va samarali ijtimoiy siyosatning ahamiyatini ko‘rsatadi hamda barqaror rivojlanish uchun muhim ilmiy xulosalar beradi.*

Tayanch so‘zlar: *aholi farovonligi, ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik, ijtimoiy siyosat, inson kapitali, daromadlar taqsimoti, Keyns nazariyasi, multiplikator effekti, inklyuziv o‘sish, bandlik, ijtimoiy transfertlar, davlat xarajatlari, makroiqtisodiy barqarorlik, Gini koeffitsiyenti, MDH mamlakatlari tajribasi, iqtisodiy o‘sish.*

Aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni yumshatish masalalari global iqtisodiy tafakkurning evolyutsion bosqichlarida doimo fundamental tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Xalqaro miqyosda ushbu muammolarni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlar oddiy moddiy ta’minotdan inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy inklyuzivlikni ta’minlashga qadar kengayib bordi. Xorijiy olimlarning qarashlari aholi turmush darajasini o‘lchashning metodologik asoslarini yaratish bilan birga, iqtisodiy resurslarning taqsimlanish samaradorligini baholash imkonini beradi. Masalan, klassik iqtisodiyot maktabi vakillari hisoblangan A.Smit [5], D.Rikardo [6] va T.Maltus [7] asarlarida kambag‘allikning kelib chiqishi va milliy boylikning yaratilish qonuniyatlari tahlil qilingan bo‘lib, ular ko‘proq ishlab chiqarish va resurslar taqsimoti o‘rtasidagi muvozanatga e’tibor qaratishgan. Biroq, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi roli XX asrning birinchi yarmida J.M.Keyns g‘oyalari ta’sirida tubdan o‘zgardi. Keyns nazariyasiga ko‘ra [4], bozor mexanizmlari aholi farovonligini o‘z-o‘zidan ta’minlashga qodir emas, shu sababli davlat faol fiskal siyosat yuritishi, yalpi talabni rag‘batlantirishi va multiplikator effekti orqali milliy daromad o‘sishini ta’minlashi zarur [2]. Ushbu

yondashuvda davlat xarajatlari oshishi tadbirkorlik muhitini faollashtirib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali aholi bandligini oshirishning strategik vositasi sifatida ko‘riladi.

Zamonaviy iqtisodiy tahlillarda kambag‘allik tushunchasi o‘zining an’anaviy "daromad tanqisligi" mazmunidan chiqib, ko‘p o‘lchovli xususiyat kasb etmoqda. A.Sen [8], P.Tawnsend va S.B.Rowntri [9] kabi nufuzli tadqiqotchilar farovonlikni insonning jamiyatda o‘z salohiyatini namoyon etish imkoniyatlari bilan bog‘laydilar. Ular uchun kambag‘allik — bu shunchaki mablag‘ning yo‘qligi emas, balki insonning ta’lim, sog‘liqni saqlash va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok eta olmasligi, ya’ni fundamental tanlov imkoniyatlaridan mahrumligidir. Insonning hayoti davomida duch keladigan institutsional va ijtimoiy to‘siqlar uning iqtisodiy faolligini cheklab, ijtimoiy marginalizatsiyaga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy ijtimoiy siyosat nafaqat daromadlarni qayta taqsimlash, balki inson kapitalini boyitish va teng imkoniyatlar maydonini yaratishga yo‘naltirilishi lozim.

Xalqaro amaliyotda aholi farovonligini oshirishning turli modellarini ko‘rish mumkin. Xususan, Kanada va Portugaliya tajribasi davlat tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli dasturlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Portugaliyada joriy etilgan ijtimoiy integratsiya daromadi (RSI) va Kanadadagi "Hamma uchun imkoniyat" (Opportunity for All) strategiyasi ijtimoiy himoyaning manzilliligini oshirishga xizmat qiladi [1]. Ushbu tizimlar orqali jamiyatning eng zaif qatlamlari kafolatlangan daromad bilan ta’minlanadi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy inqirozlarning oldini olish va jamiyat barqarorligini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish va savdo liberallashuvi jarayonlari barcha ijtimoiy qatlamlar uchun birdek foydali bo‘lishi uchun davlat tomonidan gender tengligi masalalariga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini rag‘batlantirish va ularning iqtisodiy huquqlarini kengaytirish milliy farovonlikning drayveri sifatida e’tirof etilmoqda. [3]

Ijtimoiy siyosatning samaradorligi, shuningdek, davlatning institutsional salohiyati va resurslarni boshqarish qobiliyatiga ham bog‘liq. Iqtisodiy rivojlanishning dinamik xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, davlatning ijtimoiy xarajatlari shunchaki iste’mol xarajatlari emas, balki kelajakdagi iqtisodiy o‘sish uchun kiritilgan uzoq muddatli investitsiyadir. Chunki sog‘lom, bilimli va ijtimoiy himoyalangan aholi yuqori mehnat unumdorligini ta’minlashga qodir. Xalqaro tajribada qo‘llaniladigan modellar shuni isbotlamoqdaki, kambag‘allikni qisqartirishning yagona va eng samarali yo‘li — bu iqtisodiy o‘sish natijalarini ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlashdir. Bunda ijtimoiy transfertlar va kafolatlangan xizmatlar majmui aholining past daromadli qatlamlarini inqirozli vaziyatlardan olib chiqishda xavfsizlik yostig‘i vazifasini o‘taydi.

Nazariy asoslar va xulosalar.

1. Keyns multiplikator nazariyasiga ko‘ra, davlatning ijtimoiy xarajatlari iqtisodiyotda zanjirli ta’sir hosil qiladi. Dastlabki xarajatlar ishlab chiqarish va iste’molni bir necha barobar oshiradi — bu farovonlik indeksining tez o‘sishida namoyon bo‘ladi.


2. Grafik $y = 10\sqrt{x} + 0.5x$ funksiyasi ko‘rinishida chizilgan bo‘lib, dastlabki xarajatlar bosqichida (0–30 birlik) farovonlik juda tez o‘sadi. Keyingi bosqichda o‘sish sekinlashadi — bu iqtisodiy to‘yinish effektini aks ettiradi.

3. Amaliy siyosat nuqtai nazaridan optimal xarajat darajasi — chegara foyda eng yuqori bo‘lgan nuqtadir. Maqsadli ijtimoiy dasturlar resurslardan samarali foydalanish orqali farovonlikni tezkor oshirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba va xorijiy olimlarning ilmiy xulosalari shuni ko‘rsatadiki, aholi farovonligini oshirish faqatgina moddiy yordam ko‘rsatish bilan cheklanib qolmasligi

kerak. Bu jarayon tizimli xarakterga ega bo‘lib, u ta’lim sifatini yaxshilash, mehnat bozoridagi to‘siqlarni bartaraf etish, gender tengligini ta’minlash va zamonaviy ijtimoiy himoya vositalarini qo‘llashni talab etadi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar tomonidan qo‘llanilayotgan "inklyuziv o‘sish" tamoyili har bir fuqaroning iqtisodiy ne’matlardan bahramand bo‘lishini kafolatlaydi, bu esa uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy rivojlanishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro ijtimoiy siyosatning asosiy ko‘rsatkichlarini quyidagi dasturlash kodi yordamida vizualizatsiya qilish mumkin:



Ijtimoiy xarajatlarning YaIMdagi ulushi (Xalqaro qiyoslov)

1-jadval. Davlatlarning ijtimoiy xarajatlaring (%YaIM) dagi kamayish tartibi.

№	Davlat	Ijtimoiy xarajatlar (% YaIM)
1	Fransiya	31.0%
2	Germaniya	25.0%
3	Portugaliya	23.9%
4	Kanada	18.3%
5	O‘zbekiston	12.5%

Tahlil va xulosalar.

1. 2020 yilda Gini koeffitsiyenti 0,39 ga yetdi — bu pandemiya davrida daromad tengsizligining kuchayganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy inqirozlar odatda quyi qatlamlarga ko‘proq salbiy ta’sir qiladi.

2. 2021–2023 yillarda indeks 0,38 dan 0,35 gacha izchil kamaydi. Bu davlat tomonidan olib borilgan ijtimoiy himoya va daromadlarni tenglashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning samarasi bo‘lishi mumkin.

3. 0,35 ko‘rsatkich xalqaro standartlar bo‘yicha hali ham o‘rtacha tengsizlik darajasida hisoblanadi. Skandinaviya davlatlarida bu ko‘rsatkich 0,25–0,28 atrofida bo‘lib, maqsadli yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

2-jadval. Daromad taqsimotining miqdoriy tahlili.

Aholi guruhi	Daromad ulushi	Tenglik chegarasidan farq
Quyi 25%	10%	−15%
Quyi 50%	18%	−32%
Quyi 75%	37%	−38%
Yuqori 25%	63%	+38%

Nazariy izoh.

1. Lorens egri chizig‘i mutlaq tenglik diagonalidan qanchalik uzoq joylashsa, daromadlar taqsimoti shunchalik notekis hisoblanadi. MDH misolida Gini maydoni sezilarli — bu o‘rtacha darajadagi tengsizlikni bildiradi.

2. Quyi 50% aholi umumiy daromadning atigi 18% ini olmoqda, tenglik sharoitida esa bu 50% bo‘lishi kerak edi. Bu 32 foiz punktlik farq ijtimoiy siyosat aralashuvini zarur qiluvchi tuzilmaviy muammodir.

3. Gini koeffitsiyenti Lorens egri chizig‘i va tenglik diagonali orasidagi maydonning ikki barobar nisbati sifatida hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik nolga yaqin bo‘lsa, jamiyatdagi tenglik shunchalik yuqori darajada bo‘ladi.

Xulosalar va tahlil.

1. Mehnat daromadlari 65% ulush bilan asosiy manba hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich iqtisodiyotning bandlik darajasiga sezgirligini oshiradi: ishsizlik yoki ish haqi pasayishi aholi farovonligiga bevosita ta’sir qiladi.

2. Transfertlarning 25% ulushi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun xarakterli. Buning muhim qismi xorijiy mehnat migrantlaridan keladigan pul o‘tkazmalari bo‘lib, ba’zi viloyatlarda bu ko‘rsatkich yanada yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

3. Mulk va tomorqa daromadlarining jami ulushi 10% ni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda mulkdan olingan daromad ulushi odatda 15–25% gacha yetadi, bu O‘zbekistonda investitsiya va kapital bozorini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Aholi farovonligini oshirishda davlatning ijtimoiy siyosati xalqaro standartlar, MDH tajribasi va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Xorijiy olimlar ta’kidlaganidek, inson kapitaliga investitsiya kiritish va ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish uzoq muddatli farovonlik garovidir. MDH olimlari e’tibor qaratganidek, makroiqtisodiy barqarorlik va daromadlar tabaqalanishini tartibga solish ijtimoiy adolatni ta’minlaydi. Mahalliy olimlar asoslaganidek, bandlikni ta’minlash va institutsional mexanizmlarni (mahalla tizimi) takomillashtirish O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali yo‘lidir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolad aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish masalalari tahlil qilinadi. Klassik, keynscha hamda zamonaviy iqtisodiy qarashlar asosida kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari yoritilgan. Inson kapitalini rivojlantirish, bandlikni oshirish va samarali ijtimoiy siyosat barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madeira D.M.L. Fighting poverty: the cases of Portugal and Canada: Master's final work dissertation. – Lisbon: Lisbon School of Economics and Management, 2023.

2. Tillayeva B.R. Dinamik makroiqtisodiyot. / Darslik. – T.: "Ma'rifat", 2023.

3. Who is benefiting from trade liberalization in Bhutan? A gender perspective: Case study / UNCTAD. – New York; Geneva: United Nations, 2011. – 60 p.

4. John Maynard Keynes. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 472 p.

5. Adam Smit. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. – 950 p.

6. David Ricardo. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 333 p.

7. Thomas Robert Malthus. An Essay on the Principle of Population. – London: J. Johnson, 1798. – 396 p.

8. Amartya Sen. Development as Freedom. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.

9. Seebohm Rowntree. Poverty: A Study of Town Life. – L.: Macmillan, 1901.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI METODOLOGIYASI VA ME’YORIY ASOSLARI

Raximova Nuquljon Yusupovna,
Chirchiq DPU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi.
Xudayberganova Munisa G‘ayrat qizi,
Shonazarova Ruhshona Xurshid qizi,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) metodologiyasi va normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Namuna olish, test dizayni, IRT asosida shkalalash, validlik va standart belgilash masalalari ko‘rib chiqiladi. Adabiyotlar sharhida OECD, IEA, UNESCO va Jahon Banki manbalariga tayanib bu yondashuvlar taqqoslandi. Misol tariqasida O‘zbekiston va Qozog‘istonda testlarni joriy etish tajribalari o‘rganilib, O‘zbekistonda xalqaro baholashlarni tatbiq etish bo‘yicha metodologik tavsiyalar va normativ o‘zgarishlar taklif etildi. Xulosa qismida siyosatga oid xulosalar, cheklovlar va kelajakda olib boriladigan tadqiqot yo‘nalishlari keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, metodologiya, normativ-huquqiy baza.*

Kirish. So‘nggi yillarda yurtimizda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o‘zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko‘zdan kechirishni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab har bir sohada globallashuv va integratsiya jarayonlari o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Shu qatorda ta’lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi va ushbu sohada ta’limni yangicha innovatsion g‘oyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Jamiyat va hayotda sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta’lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari

qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi 997-sonli qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi: - xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish; - PISA, PIRLS, baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish.

O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

PIRLS – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4-8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

PISA – o‘quvchilarni ta’lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o‘quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo‘llay olish mahoratini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, asosiy maqsadi - 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkazib kelinadi. PISA dasturi ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatib, har bir davlat o‘tkazgan tadqiqot natijalari asosida o‘zining ta’lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqyeini taqqoslaydi. Ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda o‘z strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS - (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

TIMSS – (Trends in International Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o‘ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi imkoniyati, o‘qituvchilarning bilim darajasi, tahsil oluvchilarning oilaviy muhiti bilan bog‘liq omillarni o‘rganadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar matematika fanlarini o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro metodologiyalarning solishtirilishi. *O‘zbekiston misolida.* O‘zbekiston 2022-yildan boshlab PISAda ishtirok etdi. Sinovda 7293 nafar 15 yoshli o‘quvchi qatnashib, 88% qamrov ta’minlandi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 83% 9-sinfda o‘qiyotgani va 67% maktabgacha ta’limni tamomlaganligi qayd etildi. O‘zbek o‘qituvchilarining 78% i fanlarga qiziqish yuqori ekanini bildirdi. Xitoy va Rossiya misolidagi tadqiqotlar singari, O‘zbekiston ham ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni qayd etdi: farovon oilalardagi bolalar past darajali oilalarnikiga nisbatan bir oz yuqori ball oldi. Shu bilan birga, Milliy tadqiqotlarda olingan natijalar baholash me’yorlari ta’lim standartlari bilan mosligi tekshirildi. Hujjatlar bo‘yicha, O‘zbekiston xalqaro baholashga tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish uchun Milliy markaz tashkil etdi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamladi.

Qozog‘iston misolida. Qozog‘iston PISAda 2009-yildan beri ishtirok etadi. 2018-yil PISA natijalariga ko‘ra, Qozog‘istonda matematikadan o‘rtacha ballarda yaxshilanish kuzatildi, o‘qish va fan ko‘rsatkichlari esa 2009-dagiga yaqin holatda qoldi. 2015-yilda texnik sabablarga ko‘ra to‘liq natija olingan emas, lekin 2018da barcha talablar bajarildi. Qozog‘iston davlat siyosatida baholash natijalari ta’lim tizimini takomillashtirishda qo‘llaniladi: misol uchun, matematikada yuqori ball olgan o‘quvchilar soni oshirilgani qayd etildi. Shuningdek, OECD tahlillarida Qozog‘istondagi xalqaro va milliy baholash tizimlari taqqoslangan (masalan, TB bilan tashkil etilgan ta’lim monitoringi). Bu misol O‘zbekiston uchun ham ibrat bo‘lib, xalqaro test natijalarini milliy ta’lim siyosati bilan bog‘lash muhimligini ko‘rsatadi.

Metodologik tavsiyalar. O‘zbekistonda xalqaro baholashlarga tayyorgarlik uchun birinchi navbatda *maqsadli namunalar tuzish* zarur. Namuna olish usulini aniq belgilash, maktablardagi sinflarni adolatli tanlash lozim (PISA uchun 15 yosh, TIMSS/PIRLS uchun 4-8-sinf). Instrumentni mahalliy kontekstga moslashtirish uchun test savollarini o‘zbek tiliga yuqori sifatda tarjima qilish va shu tarjimalarni ikki tomonlama tekshirish zarur (oskana va validator ekspertlari bilan). PISA-D kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun maxsus dasturlar orqali pasaytirilgan standartlarda baholashni ham ko‘rib chiqish mumkin (PFDA kabi, agar frilans testlar qanchalik mos kelishini aniqlash uchun). O‘qituvchilarni tayyorlash, xalqaro testlar metodikasi bo‘yicha o‘quv-seminarlar o‘tkazish, xalqaro ekspertlarni jalb etish kerak. Misol uchun, O‘zbekistonda tashkil etilgan Milliy markaz shakli xalqaro tatbiqga ixtisoslashtirilgan mutaxassislarni birlashtirishi lozim. Shuningdek, test natijalaridan milliy ta’limga xulosa chiqarish uchun standartlashtirilgan tahliliy vositalar joriy etish tavsiya etiladi.

Normativ-huquqiy tavsiyalar. Ta’lim va baholash qonunchiligida xalqaro baholashlarni rasman tan olish haqidagi bandlarni kuchaytirish kerak. Masalan, “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” ga xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish majburiyati qo‘shilishi, Davlat ta’lim standartlariga xalqaro me’yorlarni hisobga olish mexanizmi kiritilishi mumkin. Pedagoglar attestatsiyasi va maktablar baholash mezonlariga xalqaro standartlar (masalan, TIMSS/PIRLSdan olingan benchmarklar) asosida kriteriyalar qo‘shish tavsiya etiladi. Bu siyosiy jihatdan prezident qarori va hukumat dasturlarida ta’minlansa, ta’lim sifatini oshirishga yangi me’yoriy ruxsatlar ochiladi. Davlat byudjetida xalqaro testlarda ishtirok uchun maxsus rag‘bat jamg‘armasi tashkil etilishi (xorijiy til, IT infratuzilmasini tayyorlash uchun) ham foydali. Qonun loyihalari va qarorlarda xalqaro testlar natijalarini ta’lim islohotlari samaradorligini baholash mezoni sifatida belgilash ham taklif qilinadi (masalan, PISA natijalarini yillik maqsad sifatida qo‘yish).

Siyosiy tavsiyalar. Xalqaro baholashga doimiy tayyorgarlik va ishtirok ta’limning ta’sirchanligini oshiradi, mazmun sifatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga turtki bo‘ladi. Topilgan nuqsonlarni bartaraf etish uchun darsliklar va o‘quv dasturlarini xalqaro talablarga moslashtirish, yangi pedagogik uslublarni joriy etish zarurligi aniq bo‘ladi. Masalan, PISA natijalaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda axborotni yodlashdan ko‘ra tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini kuchaytirish lozim. Moliyaviy investitsiya va o‘qituvchi malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Siyosiy jihatdan esa Xalq ta’limi vazirligi xalqaro baholashlarni o‘z vazifalaridan biri sifatida doimiy olib borishi uchun maqbul me’yoriy baza bo‘lishi muhim. Bu esa sohadagi innovatsiyalar va xatoliklarni global kontekstda aniqlashga imkon beradi.

Xulosa. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O‘quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o‘quvchilarda tafakkur uyg‘oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o‘rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning ”Milliy dasturi”ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi (2018). Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish bo‘yicha Yo‘l xaritasi. Prezident qarori F-994.

2. O‘zbekiston Respublikasi (2019). Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (2030). Prezident PF-5712 qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi (2022). 2022–2026-yillardagi maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur. Prezident PF-134 qarori.

4. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2012

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IMLOVIY MASHQLAR TIZIMINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Rohataliyeva Shahrizoda Lutfullo qizi,
Chirchiq DPU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.
Gulyamova Xalida,
Chirchiq DPU dotsenti. Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu mavzuda o‘quvchilarda savodxonlikni shakllantirish jarayonini zamonaviy kompetensiyalar asosida qayta ko‘rib chiqish nazarda tutilgan. Tadqiqotda imlo ko‘nikmalarining tarkibiy tuzilmasi, orfografik tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi, kompetensiyaviy yondashuvning didaktik va metodik tamoyillari chuqur tahlil qilinadi. Shu borada, imloviy mashqlarni modullashtirish, murakkablik darajasi bo‘yicha tabaqalashtirish, matn asosidagi*

transformatsion mashqlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning lingvistik, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslanadi. Tadqiqot natijalari imloviy savodxonlikni o‘stirishga xizmat qiluvchi metodik model, baholash mezonlari va kompetensiya-indikatorlar tizimi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *imloviy kompetensiya, o‘quv faoliyati, lingvopedagogik jarayon, orfografik mashqlar, kompetensiya-indikatorlar, metodik model, ta’lim standartlari, diagnostika, yozma nutq, o‘quv materiali.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda imloviy savodxonlikni kompetensiyaviy paradigma asosida rivojlantirish masalasi bugungi kunda milliy ta’lim siyosatining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya sharoitida o‘quvchi nutqining aniqligi, yozma ifodaning normativ me’yorlarga mosligi hamda fonetik-grafik kompetensiyalarning puxta shakllanishi nafaqat lingvodidaktik ehtiyoj, balki davlat ta’lim standartlarida belgilangan strategik maqsadlardan biridir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, boshlang‘ich ta’lim sifatini xalqaro mezonlarga integratsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni barcha fanlar kesimida joriy etishga doir qaror va farmonlari (jumladan, “Ta’lim-tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsi-yasi”, “Yangi O‘zbekiston maktabi”ni shakllantirishga qaratilgan qarorlar) imloviy mashqlar tizimini tubdan yangilash zarurligini belgilaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, an’anaviy imlo mashqlari modeli ko‘proq reproduktiv yodlashga asoslangan bo‘lib, o‘quvchining analitik fikrlashi, metalingvistik kuzatuvi va ijodiy yozuv kompetensiyalarini yetarlicha rivojlantirmayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi ta’lim talab qilayotgan kompetensiyaviy yondashuv esa faqat qoidani o‘zlashtirishni emas, balki o‘quvchining real nutq vaziyatida imloviy me’yorni ongli qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sabab, imloviy mashqlarni kognitiv, funksional-semantik va kommunikativ komponentlar bilan boyitish, lingvometodik modellarni qayta loyihalash hamda empirik sinovlar orqali samaradorligini aniqlash oldimizdagi muhim vazifa bo‘lib kelmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich sinflarda imloviy mashqlar tizimini kompetensiyaviy yondashuv talablariga muvofiq ravishda konseptual jihatdan rivojlantirish, zamonaviy didaktik model yaratish va uni empirik eksperiment asosida asoslashdir.

Tadqiqot vazifalari: – imlo kompetensiyasining strukturaviy-modellashgan tavsifini ishlab chiqish; – amaldagi dastur va darsliklar imloviy topshiriqlarini kompetensiyaviy mezonlar asosida tahlil qilish; – innovatsion imloviy mashq turlarini (diagnostik, refleksiv, kognitiv-integrativ, muammoli-ijodiy mashqlar) taqdim etish; – tajriba-sinov ishlari orqali yangi modelning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti: boshlang‘ich ta’lim jarayonida imloviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish amaliyoti;

Tadqiqot predmeti: imloviy mashqlar tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishning lingvodidaktik mexanizmlari.

Tadqiqot metodlari: taqqoslama-tahliliy yondashuv, diagnostik baholash, pedagogik eksperiment, statistik ishlov berish, aksiologik yondashuv hamda kontent tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: imlografik ko‘nikmalarni faqat normativ (belgilangan) qoidalar majmuasi sifatida emas, balki o‘quvchining kommunikativ faoliyatida operatsionlashadigan funksional kompetensiya sifatida talqin qilinadi.

Amaliy ahamiyati esa o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar, yangi mashq modellarini ishlab chiqish va o‘quv-metodik majmualarni takomillashtirish imkonini beradi.

Muallif sifatidagi shaxsiy nuqtai nazarimiz shundan iboratki, imloviy savodxonlikni rivojlantirishda asosiy masala — o‘quvchining fikrini yozma shaklda ravon, mantiqli va normativ-me’yoriy asosda ifodalay olish qobiliyatidan iborat. Bu esa imloni o‘rgatish jarayonida kognitiv-analitik fikrlashni faollashtiruvchi kreatsion yondashuvni talab qilmoqda. Shunday ekan, men taklif qilayotgan yondashuvning markazida imlo qoidalarini yodlash emas, balki imloviy fikrlashni shakllantirish turadi.

Mazkur tadqiqot “Boshlang‘ich ta’limda imloviy mashqlar tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografik savodxonligini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan imloviy mashqlar tizimining samaradorligini ilmiy-nazariy va empirik jihatdan asoslab berishdan iborat.

Ilmiy izlanishning asosiy mazmuni. Ilmiy izlanish jarayonida boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan an’anaviy imloviy mashqlar tahlil qilindi, ularning asosan reproduktiv xarakterga egaligi, o‘quvchilarda orfografik kompetensiyani to‘liq shakllantirishga xizmat qilmasligi aniqlandi va shu asosda kompetensiyaviy yondashuv talablariga muvofiq ravishda imloviy mashqlarning mazmun, shakl va usullarini qayta loyihalash zarurati ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot doirasida orfografik kompetensiya tarkibiy qismlari — bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil fikrlash, refleksiya va kommunikativ faoliyat elementlari bilan hamohang. holda imloviy mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizimda funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash va metakognitiv faoliyatni rivojlantirish muhim konseptual yo‘nalish sifatida belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Boshlang‘ich ta’limda imloviy mashqlar tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalasi zamonaviy lingvodidaktikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Kompetensiyaviy ta’lim nazariyasining metodologik asoslari Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan “lingvistik kompetensiya” konsepsiyasi [Noam Chomsky. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge: MIT Press, 1965.] hamda Dell Hymesning kommunikativ kompetensiya modeli [Dell Hymes. *On Communicative Competence*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972] bilan bog‘liq holda shakllandi. Keyinchalik Lev Vygotskyning sotsiokonstruktivistik yondashuvi [Lev Vygotsky. *Thought and Language*. – Moscow: Pedagogika, 1934] ta’lim jarayonida refleksiv va faoliyatli mexanizmlarni ustuvor omil sifatida asoslab berildi.

O‘zbek pedagog olimlaridan U.Shermatova, X.G‘ulomovalar “Boshlang‘inch ta’limda ona tili” darsliklarida va N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.G‘ulomovlar imlo o‘qitish metodikasini funksional-semantik tamoyillar asosida tahlil qilib, orfografik ko‘nikmalarni nutqiy faoliyat bilan integratsiyalash zaruratini ta’kidlaydi. Rus metodistlari L.Shcherba va M.Lvov [Львов М.Р. *Методика обучения русскому языку в начальных классах*. – Москва: Просвещщение, 2000] orfografik malakani psixolingvistik jarayon sifatida izohlab, mashqlarni differensial va bosqichma-bosqich modellashtirishni taklif etgan. Ingliz tadqiqotchilari P.Nation va J.Richards [Richards J.C.,Nation I.S.P. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001] esa savodxonlikni kompetensiyaviy indikatorlar asosida baholash modelini ishlab chiqqan.

Metodologik jihatdan tadqiqot tizimli, faoliyatli va aksiologik yondashuvlar integratsiyasiga tayanadi. Kontent-tahlil, pedagogik eksperiment, diagnostik monitoring hamda statistik verifikatsiya usullari imloviy kompetensiyani normativ bilim emas, balki operatsion-kommunikativ faoliyat modeli sifatida talqin qilish imkonini berdi. Zamonaviy kontekstda bu yondashuv PIRLS va PISA mezonlari bilan uyg‘unlashib, empirik tadqiqotlarda metakognitiv indikatorlar va refleksiv baholash mexanizmlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda imloviy mashqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida modellashtirish orfografik kompetensiyaning operatsion-kommunikativ komponentlarini sezilarli darajada faollashtirishini ko‘rsatdi. Diagnostik monitoring va statistik verifikatsiya natijalari tajriba guruhida refleksiv-nazorat mexanizmlarining shakllanganligini tasdiqladi. Ushbu holat Organisation for Economic Co-operation and Development tomonidan ishlab chiqilgan PISA baholash konsepsiyasi hamda International Association for the Evaluation of Educational Achievementning PIRLS mezonlari bilan metodologik uyg‘unlikni aks ettiradi.

Olingan ma’lumotlar sotsiokonstruktivistik va faoliyatli yondashuvlar bilan korelyativ bog‘liqlikda bo‘lib, imloviy savodxonlikni normativ-reproduktiv darajadan metakognitiv-refleksiv bosqichga olib chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat ta’lim standartlari talablariga to‘g‘ri keladi. Shu tariqa, tadqiqotning nazariy ahamiyati – orfografik kompetensiyani funksional-semantik model sifatida talqin etishda, amaliy ahamiyati esa – diagnostik-indikatorli baholash tizimini joriy etishda yaqqol ko‘rinadi. Bu esa kelgusida raqamli ta’lim muhitida empirik tadqiqotlarni kengaytirish uchun ilmiy-metodik platforma yaratilishiga asos bo‘ladi

Xulosa. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda imloviy mashqlarni kompetensiyaviy-modulli model asosida qayta konstruksiyalash orfografik kompetensiyaning kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlarini integrativ tarzda rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Diagnostik-indikatorli baholash tizimi imloviy savodxonlikni reproduktiv darajadan metakognitiv bosqichga olib chiqishini tasdiqladi. Taklif etilgan metodik model lingvodidaktik jarayonni funksional-semantik va faoliyatli paradigmada modernizatsiyalashga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Safarov Sh., G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat ta’lim standartlari (boshlang‘ich ta’lim). – Toshkent, 2021.

3. U.Shermatova, X.G‘ulomova. Boshlang‘ich ta’limda ona tili. – Toshkent.. “Book trade 2022”. 2023

MATN TAHLILI ORQALI O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Rustamova Dildora Kurbon qizi,
Chirchiq DPU, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti.
Gulyamova Xalida,
Chirchiq DPU dotsenti, Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matn tahlili orqali o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, ularning fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq hamda mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada matn bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladigan usullar, matn tahlilining turlari hamda ularning o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, matn tahlili asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va nutq madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari matn tahlilidan samarali foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *matn tahlili, kommunikativ ko‘nikma, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faoliyat, muloqot, o‘quv jarayoni, ta’lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash, nutq madaniyati, til o‘qitish metodikasi.*

YUNESKO, OECD, CEFR kabi xalqaro ta’lim platformalari ta’limning maqsadlaridan biri sifatida funksional savodxonlik va kommunikativ kompetentsiyani belgilar ekan, buni shaxsni har qanday ijtimoiy vaziyatda muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini ifoda etadigan va boshqalarni tinglaydigan va yechim taklif etadigan darajaga olib chiqish sifatida izohlaydi.

G.Spenser, A.Blum, R.Mohan kabi xorijiy davlatlar olimlari o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalarini, M.Buber, I.Borcheva, R.Boyatzis pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, muayyan soha bo‘yicha shaxsning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilganlar.

N.B.Adizova “Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi” (ona tili o‘qitish misolida) nomli doktorlik dissertatsiyasining avtoreferatida “Kognitiv-pragmatik kompetentlik — bu til birliklarini bilim (kognitsiya) va muloqot maqsadlariga (pragmatika) muvofiq, kontekstni tushungan holda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatidir” [2; 12-b.] deb ta’riflaydi. U nutqning konseptual asoslarini anglash, metaforalarni talqin qilish va muammoli ta’lim texnologiyalari orqali nutqiy vaziyatga mos ravishda muloqotni samarali tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining Milliy o‘quv dasturi Ona tili fani vazifasi sifatida “Ona tili fani nafaqat grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi fan sifatida, balki o‘quvchining ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni rivojlantirishiga xizmat qiladigan fan” [1; 9-b.] ekani qayd etiladi.

O.B.Qurbonova “10-11-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” [3] mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning shakli, metod va vositalarini yoritilgan.

O‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyasini rivojlantirishga pedagogik texnologiyalar ta’lim natijalarining samaradorligini ta’minlaydi. Jumladan, T - grafik organayzeri, Venn diagrammasi, Bliss texnologiyasi, “Baliq skleti”, “Xarita” kabi ta’limiy organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga va mustqail fikr yuritishga undaydi.

Ona tilini egallashning samaradorligi matn asosida quyidagi tahlil tizimini taqozo etadi: matn – matnning mavzusi –mazmuni – sarlavhasi - tizilishi – mantiqiy rivojlanishi - g‘oyasi – leksikasi – grammatikasi – og‘zaki nutqning reallashuvi – nutqiy kamchiliklarning bartaraf etilish. Matn tahlilida mazkur yo‘nalishlarda o‘quvchilarni faoliyatga yo‘llash muhim ta’limiy ahamiyat kasb etadi.

.... – Bu yerda xalqimizning jigargo‘shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik – tiriklikdagi o‘liklik. Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e’zozlamoq har bir kishining sharafli burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo‘ygan boladek to Hirotning qorasi ko‘ringuncha tillarini tishlab, aqlini peshlab boribdilar. (Qudrat Hikmat)

1. Matnning mavzusi, mazmuni, tuzilishi, sarlavhasi, g‘oyasi ustida ishlash. Masalan: *1) Matnda haqida hikoya qilingan? U bilan bog‘liq qanday voqea bayon qilingan? 2) Matn necha qismdan iborat? Matn nima uchun qismalarga bo‘lingan? Siz matnni necha qismga bo‘lgan bo‘lardingiz? 3) Matnga nima uchun “Sharafli burch” deb sarlavha qo‘yilgan? Siz matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz? Nima uchun? 4) Yozuvchi bu voqealarni hikoya qilish orqali nima demoqchi? Matn voqealaridan qanday xulosaga keldingiz?*

2. Matnning leksik-semantik, grammatik va uslubiy tahlili: 1) ma’nosi izohlanadigan so‘z va iboralarni belgilash: *movlono, mulozim,* sha’n, *padari buzrukvor, tillarini tishlab, aqlini peshlab, jigargo‘shalari, tabarruk, padari buzrukvorlari* kabi. 2) matn voqealari bilan bog‘liq detallarni ifodalovchi kalit so‘z va so‘z birikmalarni aniqlash: *tog‘ sayri, qabriston, boshini quyi solib, mangu uyquga ketmoq, tiriklikdagi o‘liklik.* 3) o‘rganilayotgan lingvistik mavzu bilan bog‘liq birliklar ustida ishlash: yuqorida ma’nosi izohlangan va matndagi boshqa so‘zlarning leksik ma’nosi, so‘rog‘iga asoslangan holda so‘z turkumlari ajratish va nima uchun shunday tasnif qilinganini asoslash: 4) matnda qo‘llangan quyidagi leksik birliklarning ma’nosi va uslubiy qo‘llanishi, tarixiy yoki zamonaviy qatlamga xosligi: *mavlono, aqlini peshlab, xok, jigargo‘shalari, tabarruk, padari buzrukvorlari, mangu uyquga ketganlar, sukut saqlab, norozi ohangda, insonlik sha’niga, isnod, tiriklikdagi o‘liklik.* Ushbu leksik birliklardan *Tiriklikdagi, o‘liklik, buzrukvorlari, ketganlar, peshlab, qabriston* kabi so‘zlarining morfemik tarkibini belgilash va qo‘shimchalar ifodalagan ma’nolarni izohlash. 5) tahlil qilingan so‘zlardan foydalanib insho yozish. Bunday turdagi ta’lim muammolarini hal qilish orqali o‘quvchi lingvistik birlikning nutqiy mexanizmini o‘zlashtiradi.

Xulosa qilib aytish joizki, ona tili o‘quv materiallari tahlili o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini o‘stiradi, bog‘lanishli nutqining rivojlanishini ta’minlaydi, mantiriy fikrlash qobilyatlarini o‘stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Milliy o‘quv dasturi. Ona tili.. –T.: 2020.

2. Adizova N.B. Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi. Avtoreferat. Buxoro. 2025. 12-bet.

3. Qurbonova O.B. 10-11-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompeten-siyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. (PhD) Avtoreferat. – T.: 2021.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Safoyeva Kamola Qudrat qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Xudayberganova Munisa G‘ayrat qizi,
Shonazarova Ruhshona Xurshid qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri va qo‘llanilishining samaradorligi tahlil qilinadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv ta’lim vositalari, onlayn platformalar, o‘yinlashtirilgan ta’lim va virtual/kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni faollashtirish, bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun qo‘llanilmoqda. Biroq, bunday texnologiyalarni amalga oshirishda o‘qituvchilarning malakasizligi, texnik imkoniyatlarning cheklanganligi va yangi pedagogik metodologiyalarning talab qilinishi kabi qiyinchiliklar mavjud. Maqolada, innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kiritilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va yangi metodlarni ishlab chiqish masalalari hamda bu yondoshuvlarning o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*: interaktiv ta’lim, onlayn platformalar, o‘yinlashtirilgan ta’lim, virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat, o‘qituvchilarning malakasi, ta’lim jarayoni, pedagogik metodologiya, texnik imkoniyatlar, ta’lim samaradorligi.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy o‘zgarishlarga va yangi talablar yuzaga kelishiga javoban rivojlanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim sifatini oshirishda va o‘quvchilarning aqliy, ijodiy, hamda ijtimoiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni faol va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, shuningdek, pedagoglar uchun samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqish zamon talabidir. Bunday jarayonlarda yangi texnologiyalarni joriy etish o‘quv jarayonini yanada jonlantirib, interaktiv va kreativ usullarni amalga oshirish imkonini beradi. Texnologiyalar, xususan, interaktiv ta’lim vositalari, onlayn platformalar, o‘yinlashtirilgan ta’lim (gamifikatsiya), virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari boshlang‘ich ta’limda nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki o‘qituvchilarga ham yangi pedagogik yondoshuvlar yaratishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etish, ijodkorlik va mantiqiy tafakkur kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvlarni qo‘llash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metadalogiyasi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini takomillashtirish va yangilashga qaratilgan, zamonaviy texnologiyalar va metodlarni o‘z ichiga olgan pedagogik uslublardir. Ular o‘qitish va o‘quvchilarni o‘qishga jalb qilishda yangi yondoshuvlarni, interaktiv o‘qitish metodlarini, shuningdek, ma’lumotlarni tez va samarali etkazish usullarini qo‘llashni nazarda tutadi. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning asosiy maqsadi o‘quvchilarga faqatgina bilim berish emas, balki ularning shaxsiy rivojlanishini, ijtimoiy ko‘nikmalarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishdir. Bu

texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, o‘quvchilarni hayotga tayyorlashga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagoglar o‘z faoliyatini optimallashtirish, darslarni yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Lekin, bunday texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishda bir qator muammolar va qiyinchiliklar ham mavjud. O‘qituvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning malakasini oshirish, shuningdek, maktablarda zarur texnik infratuzilmaning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun pedagogik metodologiyalarning yangilanishi va o‘quvchilarga individual yondoshuvlarni qo‘llash zarur. Bu maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularni samarali qo‘llashning imkoniyatlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yangilash va zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Maqola, shu jihatlar orqali boshlang‘ich ta’limda texnologiyalarni integratsiyalash, pedagogik jarayonni takomillashtirish va o‘quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar haqida batafsil ma’lumot beradi.

Interaktiv ta’lim vositalari ta’lim jarayonini jonlantirish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun mo‘ljallangan texnologiyalar va metodlarni o‘z ichiga oladi. Bu vositalar o‘quvchilarni passiv ravishda bilimlarni qabul qilishdan ko‘ra, ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lishga undaydi. Natijada, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi oshadi va ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Interaktiv vositalar yordamida o‘quvchilar nafaqat o‘qituvchining tushuntirganlarini tinglashadi, balki turli xil faoliyatlarda ishtirok etadilar, o‘quv materiallarini o‘rganishda faollik ko‘rsatadilar. Bu jarayon, o‘quvchilarga ta’limni o‘zlariga qulay tarzda va shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, interaktiv doskalar o‘quvchilarga darsni ko‘rish va unda ishtirok etish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida o‘qish va tushunish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bunday vositalar yordamida materiallarni vizual tarzda ko‘rish va turli xil amaliy topshiriqlarni bajarish o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, kompyuterlar va planshetlar kabi qurilmalar ta’lim jarayonini yengillashtiradi va tezlashtiradi. Ular orqali o‘quvchilar ta’lim materiallariga osongina kirishib, o‘z bilimlarini mustahkamlash va yangi mavzularni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Onlayn platformalar, masalan, Google Classroom yoki Moodle kabi tizimlar esa o‘quvchilarga dars materiallarini tezkor ravishda olish, muammolarni hal qilish va o‘qituvchilar bilan muloqotda bo‘lish imkonini yaratadi. Bu esa masofaviy ta’limni amalga oshirishda juda qulaydir.

O‘yinlashtirilgan ta’lim (gamifikatsiya) metodlari ham o‘quvchilarga o‘qishni yanada qiziqarli va motivatsion qilishda samarali vositadir. O‘quvchilar o‘yinlar orqali ma’lum bir vazifalarni bajaradilar va muvaffaqiyatga erishgan sari mukofotlar olishadi, bu esa ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, video materiallar, animatsiyalar va boshqa multimedia vositalari o‘quvchilarga murakkab mavzularni yanada oson va samarali tushunishga yordam beradi. Interaktiv ta’lim vositalarini qo‘llash, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning rivojlanishini nazorat qilish, ularga tezkor feedback berish va ta’lim jarayonini yanada individual tarzda boshqarish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu

vositalar o‘quvchilarga ilmiy tajribalar o‘tkazish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu tariqa, interaktiv ta’lim vositalari o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularga yangi bilimlarni o‘rganishda yordam beradi va ta’lim jarayonini samarali qilishda muhim o‘rin tutadi. Bunday texnologiyalarni ta’limda qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, balki ularni kelajakda muvaffaqiyatli insonlar sifatida tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini samarali va interaktiv qilishga katta hissa qo‘shadi. O‘quvchilarni faollashtiruvchi, ularning bilim olishdagi qiziqishini oshiruvchi va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi texnologiyalar, o‘qituvchilarga esa o‘quv jarayonini individual tarzda boshqarish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarga tezkor feedback berish imkonini yaratadi. Biroq, bunday texnologiyalarni amalga oshirishda bir qator muammolar, jumladan, o‘qituvchilarning malakasi va texnik infratuzilmaning cheklanganligi kabi qiyinchiliklar ham mavjud. Shunga qaramay, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim tizimini yanada samarali va zamonaviy qilish, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishini ta’minlash uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, M. (2020). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi. // O‘zbekiston ta’lim tizimi ilmiy jurnali, 3(1), 45-59.
2. Khamraeva, G. (2019). Innovatsion texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. / O‘zbekiston pedagogika ilmiy to‘plami, 2(4), 73-78.
3. Toshbekova, D. (2021). Boshlang‘ich ta’limda o‘yinlashtirilgan ta’lim texnologiyalarining o‘rni. // Pedagogik ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 15(2), 88-92.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MEHNAT TARBIYASIDA MEHNAT AN’ANALARINING O‘RNI

Safoyeva Kamola Qudrat qizi,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Shamsiyeva Sug‘diyona Ruyiddin qizi,
Boboyorova Marjona Mamayusubovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mehnat tarbiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab jamiyatlarda an’anaviy mehnat shakllari, oilaviy urf-odatlar hamda jamoa qadriyatlari bolalarda mehnatga bo‘lgan munosabatning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat tarbiyasida mehnat an’analarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi hamda ushbu an’analar bolalarda mas’uliyat, mehnatsevarlik, hamkorlik va mehnatga hurmat kabi sifatlarni shakllantirishga qanday xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda milliy mehnat an’analarining pedagogik ahamiyati hamda ularni zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, an’anaviy mehnat qadriyatlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali yosh o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar va ijobiy mehnat madaniyatini shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *mehnat tarbiyasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, mehnat an’analari, tarbiya, mehnat madaniyati, pedagogika, ta’lim.*

Kirish. Mehnat tarbiyasi bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Yosh avlodda erta yoshdan boshlab mehnatga hurmat, sa’y-harakatning qadrini anglash hamda oddiy amaliy ko‘nikmalarni egallash jarayoni shakllantirilishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mehnat tarbiyasi o‘quvchilarda mas’uliyatli, mustaqil fikrlovchi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan shaxs sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’anaviy mehnat faoliyatlari muhim madaniy va tarbiyaviy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘plab oilalar va mahalliy jamoalarda bolalar turli xil mehnat jarayonlarini kuzatish va ularda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jumladan, uy xo‘jaligi ishlari, hunarmandchilik faoliyati, qishloq xo‘jaligi ishlari hamda jamoaviy xizmat ko‘rsatish faoliyatlari orqali bolalarda mas’uliyat, hamkorlik va matonat kabi muhim fazilatlar shakllanadi. Mazkur an’analar bolalarning mehnat mazmunini anglashiga xizmat qiluvchi tabiiy tarbiyaviy muhitni yuzaga keltiradi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayonni anglatadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarda mehnatning qadr-qimmatini anglash, uning shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi muhim ahamiyatini tushunish kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mehnat tarbiyasi ko‘pincha oddiy amaliy faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Jumladan, sinf jihozlarini tartibga keltirish, maktab bog‘ida ishlash, turli xil qo‘l mehnati va hunarmandchilik mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish, jamoaviy topshiriqlarda faol ishtirok etish kabi faoliyatlar bunga misol bo‘la oladi. Mazkur faoliyatlar o‘quvchilarda intizomlilik, ijodkorlik, jamoada ishlash ko‘nikmasi hamda mas’uliyat hissining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilar o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va mehnat faoliyati bilan bog‘liq mazmunli tajribalarni tashkil etishda muhim o‘rin egallaydi.

Mehnat an’analari kundalik hayotda mehnatning muhimligini ta’kidlovchi madaniy amaliyotlar va qadriyatlar majmuasini ifodalaydi. Ko‘plab madaniyatlarda ota-onalarga yordam berish, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarida qatnashish hamda turli hunarmandchilik sirlarini o‘rganish kabi an’analar bolalarning axloqiy va amaliy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Bunday an’analar bolalarga mehnatsevarlik va qat’iyatlilikning real hayotdagi namunalarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular katta avlod vakillariga hurmat ruhini shakllantirishga xizmat qiladi hamda o‘quvchilarni jamoaviy mehnatning ahamiyatini anglashga undaydi. An’anaviy mehnat faoliyatlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali pedagoglar madaniy meros va zamonaviy ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yanada mustahkamlashlari mumkin.

O‘qituvchilar turli amaliy faoliyatlar orqali mehnat an’analarini ta’lim jarayoniga samarali tarzda tatbiq etishlari mumkin. Masalan, sinf loyihalari, maktab bog‘lari faoliyati, hunarmandchilik mashg‘ulotlari hamda jamoatchilikka xizmat ko‘rsatish kabi tadbirlar o‘quvchilarga mehnatning haqiqiy qiymatini bevosita his etish imkonini beradi.

Mazkur metodlar nafaqat o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Ota-onalar

hamda mahalla a’zolari o‘zlarining an’anaviy hunarmandchilik tajribalari va mehnat faoliyati haqidagi bilimlarini o‘quvchilar bilan bo‘lishish orqali bolalarning milliy madaniy meros haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishlari mumkin.

Xulosa. Mehnat an’analari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarda mas’uliyat, intizom va mehnatga hurmat kabi muhim fazilatlarni shakllantirish bilan birga milliy madaniy qadriyatlarning saqlanishiga ham xizmat qiladi. An’anaviy mehnat faoliyatlarini zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarni kelajakdagi turli hayotiy sinovlarga tayyorlaydigan muvozanatli ta’lim muhiti yaratish mumkin. Shu sababli pedagoglar samarali mehnat tarbiyasi dasturlarini ishlab chiqishda madaniy an’analarni muhim pedagogik resurs sifatida faol qo‘llashlari zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat tarbiyasida mehnat an’analarining o‘rni juda muhim hisoblanadi. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim davrida bolalarda mehnatga bo‘lgan munosabat, mas’uliyat, tartiblilik va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Mehnat an’analari esa yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni mehnatsevarlik, sabr-toqat va halollikka o‘rgatishda muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda mehnatga oid turli amaliy faoliyatlar – sinfni tartibga keltirish, gul ekish, oddiy qo‘l mehnati ishlarini bajarish, jamoaviy tadbirlarda qatnashish kabi faoliyatlar o‘quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Bunday faoliyatlar orqali o‘quvchilar mehnatning qadri va uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini anglay boshlaydilar. Shuningdek, xalqimizga xos bo‘lgan mehnat an’analari – jamoaviylik, kattalarga yordam berish, tejamkorlik va halol mehnat qilish kabi qadriyatlar o‘quvchilar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu an’analarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda nafaqat mehnat ko‘nikmalari, balki milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat va tashabbuskorlik sifatlari ham rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda mehnat an’analaridan foydalanish pedagogik jarayonning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga, ularning kelajakda jamiyatda faol va mas’uliyatli inson bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim jarayonida milliy mehnat an’analarini keng qo‘llash va ularni pedagogik faoliyat bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Axmadova D. Mehnat tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

TALABALARNI ESTETIK TARBIYALASHDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarni musiqa fani orqali estetik ruhda tarbiyalash jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Sun’iy intellekt yordamida musiqa darslarini tashkil etish, o‘quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, estetik tafakkurini rivojlantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan musiqiy dasturlar, raqamli platformalar va interaktiv ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarda musiqa san’atiga qiziqish uyg‘otish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning musiqa darslaridagi faolligini oshiradi, ularning estetik qarashlarini boyitadi hamda musiqiy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, musiqa ta’limi, estetik tarbiya, raqamli texnologiyalar, o‘quv jarayoni, musiqiy did, ijodkorlik, interaktiv ta’lim.*

Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarinig ahamiyati beqiyosdir. Bo‘lajak Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg‘ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go‘zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo‘lgan ishtiyoq uyg‘otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

Psixologiyaning ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron – bir qobiliyatning ro‘yobga chiqish va rivojlanish manbayi layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat o‘z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Bola musiqaga layoqat bilan tug‘ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo‘lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida etakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda, kishiga ta’sir etadigan tashqi voqealar yig‘indisi tushuniladi. Muhit o‘z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo‘linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko‘rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti – harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe’l – atvor – shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi.

Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri – ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki, musiqiy qobiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emotsional ta’sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi» – deb ta’kidlagan.

Respublikamizdagi har bir maktabgacha tarbiya tashkilotlarida va maktabda hozirgi kunda musiqiy estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda.

Hozirgi raqamli davrda ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (AI) ta’lim jarayoniga kirib kelib, o‘qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Musiqa fani bolalarda estetik didni shakllantirish, ularning hissiy olamini boyitish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli musiqa ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bolalarning estetik tarbiyasini samarali tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan san’at turi hisoblanadi. Pedagog va psixologlarning fikriga ko‘ra, musiqa orqali bolalarda go‘zallikni his qilish, san’atni tushunish hamda madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi shakllanadi.Masalan, amerikalik pedagog Howard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan “ko‘p qirrali intellekt nazariyasi”ga ko‘ra, inson intellektining muhim turlaridan biri musiqiy intellekt hisoblanadi. Bu nazariya bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish ularning umumiy intellektual rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, muntazam musiqa mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanuvchi bolalarda: 1) diqqat va xotira 20-30% ga yaxshilanadi; 2) ijodiy fikrlash darajasi yuqori bo‘ladi; 3) estetik did va hissiy sezgirlik rivojlanadi.

Shu sababli maktablarda musiqa fanini samarali o‘qitish estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlari. Sun’iy intellekt ta’lim tizimida individual yondashuvni kuchaytirish, o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. AI texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos materiallar tanlanadi.

Bugungi kunda musiqa ta’limida quyidagi sun’iy intellekt tizimlari qo‘llanilmoqda:

AIVA – sun’iy intellekt yordamida musiqa yaratish platformasi bo‘lib, o‘quvchilarga kompozitsiya yaratish jarayonini o‘rganishga yordam beradi.

Yousician – gitara, pianino va boshqa cholg‘ularni o‘rganishda AI yordamida mashqlarni tahlil qiladi va xatolarni ko‘rsatadi.

MuseNet – turli janrlarda musiqa yaratish imkonini beruvchi sun’iy intellekt tizimi.Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga musiqa nazariyasini nafaqat o‘rganish, balki amaliy ijodiy faoliyat orqali his qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellektdan foydalanish musiqa darslarini yanada interaktiv va qiziqarli tashkil etishga imkon yaratadi. Masalan, turli mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali o‘quvchilar musiqa nazariyasi, ritm va ohang elementlarini oson o‘rganishlari mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos ta’lim metodlarini tanlash imkonini ham beradi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi musiqiy dasturlar o‘quvchilarga o‘z ijodiy g‘oyalarini amalga oshirishda yordam beradi. Masalan, ular turli ohanglar va ritmlarni birlashtirib yangi musiqa yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirishga ham yordam beradi. Sun’iy intellektdan foydalanish orqali o‘quvchilarda nafaqat musiqiy bilimlar, balki estetik dunyoqarash ham shakllanadi. Musiqa asarlarini chuqur tahlil qilish, ularning mazmunini anglash va estetik jihatdan baholash

o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada o‘quvchilar musiqa san’atini yanada chuqurroq tushunib, undan estetik zavq olishni o‘rganadilar.

Xulosa. Musiqa fani bolalarni estetik ruhda tarbiyalashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi. AI asosidagi dasturlar individual ta’limni ta’minlaydi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda musiqa san’atini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Kelajakda ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish musiqa ta’limining yangi innovatsion modelini shakllantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Musiqa ta’limi metodikasi bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent, 2022.

2. Saidqulova G.O. Bolalarni musiqiy ta’limi metodikasi. Chirchiq. 2025.

3. Hallam S. The Power of Music: Its Impact on the Intellektual, Social and Personal Development of Children. London, 2010.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MATEMATIKA TA’LIMIDA QO‘LLANILISHI

Tadjibayev Ikram Uralbayevich,
Chirchiq DPU professori, F.-m.f.d. (DSc).
Sherimmatova Nilufar Hamza qizi
Chirchiq DPU, 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tezisda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari hamda ularni matematika fanini o‘qitishda qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, matematika ta’limi, innovatsion ta’lim, o‘quv jarayoni.*

Hozirgi tezkor ilm-fan taraqqiyotida ta’lim sifatini oshirish va intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda darsni to‘g‘ri tashkil etish, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markazida o‘quvchi shaxsini mustaqil fikrlay olishga o‘rgatish masalasi turadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, desak xato bo‘lmaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ularning matematika ta’limida qo‘llanilishi o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya ta’lim jarayonini tizimli ravishda loyihalash, aniq maqsadlar asosida tashkil etish va kutilgan natijaga erishishni ta’minlaydigan metodlar, usullar va vositalar majmuasini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini

faollashtirishga, mustaqil izlanishlar olib borishga va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Matematika ta’limida eng ko‘p qo‘llaniladigan texnologiyalardan biri interfaol ta’lim texnologiyalaridir. Ushbu metodlar o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Masalan, “aqliy hujum”, “klaster”, “Venn diagrammasi” va “baliq skeleti” kabi usullar o‘quvchilarning muammolarni tahlil qilish, turli yechim variantlarini muhokama qilish va eng maqbul yechimni tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari matematika ta’limida yangi imkoniyatlar yaratadi. Kompyuter, multimedia vositalari va interaktiv dasturlar yordamida murakkab matematik tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish mumkin. Grafiklar, diagrammalar va animatsiyalar mavzularni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlash jarayonini samarali qiladi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarga muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularni mustaqil yechim topishga undaydi. Bu jarayon mantiqiy tafakkur, tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shu bilan birga, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga, masalalarni birgalikda yechishga va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rgatadi, bu esa jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Natijada, zamonaviy pedagogik texnologiyalar matematika ta’limining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, dars jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Shu sababli ular matematika fanini o‘qitishda keng qo‘llanilishi lozim bo‘lgan muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni matematika ta’lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga, darslarning qiziqarli va interaktiv tarzda o‘tishiga yordam beradi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli o‘qitish va hamkorlikda o‘qitish kabi yondashuvlar matematika fanini o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi hamda o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ham ega bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni matematika ta’limida keng qo‘llash ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh bilimli yoshlarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
4. Abduqodirov A., Hayitov A. Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayoni. – Toshkent: Fan, 2012.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUHANDISLIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

Tashpulatova Dilorom Mukimovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Boboyarova Marjona Mamayusubovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari, metodik jihatlari hamda ta’lim jarayonida samarali tashkil etish tizimi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida STEAM yondashuvi, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari hamda loyihaviy faoliyat orqali o‘quvchilarning texnik tafakkuri, ijodiy fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *muhandislik ko‘nikmalari, texnik tafakkur, STEAM ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaviy ta’lim.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning texnologik rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning kengayib borishi hamda innovatsion faoliyatning ortib borishi natijasida ta’lim tizimiga yangi talablar qo‘yilmoqda. Bu talablar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni ham shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab o‘quvchilarda muhandislik tafakkuri va muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Muhandislik ko‘nikmalari o‘quvchilarning muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, turli yechimlar ishlab chiqish hamda amaliy natija yaratish jarayonlarida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bunday ko‘nikmalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan birga ularning ilmiy-texnik sohalarga qiziqishini ham oshiradi.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda amaliy faoliyatga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirishda integratsiyalashgan ta’lim muhim o‘rin tutadi. Xususan, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya va informatika fanlari o‘rtasidagi integratsiya o‘quvchilarning tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan STEAM ta’lim yondashuvi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. STEAM ta’lim modeli fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics) fanlarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi: – muammoni aniqlash va uni tushunish;

– muammoni hal etish bo‘yicha g‘oyalar ishlab chiqish; – model yoki loyiha yaratish; – tajriba o‘tkazish va natijalarni tekshirish; – olingan natijalarni tahlil qilish va baholash.

Mazkur bosqichlar o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni izlash hamda amaliy natijaga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bu jarayon o‘quvchilarning jamoada ishlash, muloqot qilish va o‘z fikrini asoslab berish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida konstruktorlar bilan ishlash, oddiy texnik modellar yaratish, turli tajribalar o‘tkazish va kichik loyihalar ustida ishlash o‘quvchilarning muhandislik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. “Aqliy hujum”, “Muammoli vaziyat”, “Loyihaviy ta’lim” kabi metodlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni faol o‘quv jarayoniga jalb etadi.

Muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini samarali tashkil etishda o‘qituvchining roli ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni turli amaliy faoliyat turlariga jalb etishi, muammoli vaziyatlar yaratishi hamda o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undashi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuv, STEAM texnologiyalari hamda loyihaviy ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning muhandislik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natija beradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim tizimida muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘ziboyeva M.M. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash. // Toshkent, O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2020. 45-52.
2. Tashpulatova D. Boshlang‘ich ta’limda klaster yondashuv asosida o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish. – Toshkent, 2023
3. Tashpulatova D. Fanlararo integratsiyaning boshlang‘ich ta’limdagi samaradorligini baholash: klaster yondashuv asosida tahlil. Муғаллим ҳәм үзлик сиз билимлендириў. *Илимий-методикалық журнал.* Нөкис *2025* 5/3-сан. 225-229

IJODIY FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Tashpulatova Dilorom Mukimovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Narbayeva Dilshoda Mamut qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijodiy fikrlash tushunchasi va uning pedagogik mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy fikrlash, kreativlik, pedagogik jarayon, innovatsion ta’lim, muammoli ta’lim, o‘quvchi faolligi, pedagogik texnologiyalar.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim eng ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan bo‘lib, yosh avlodning kreativ, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, raqobatbardosh kadrlar sifatida voyaga etkazilishi davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Shu sababli pedagogika fanida ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasi muhim ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli emas. Ular muammolarni mustaqil tahlil qilish, yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Bilim berish jarayonida o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli emas. Ular o‘z bilimlarini yangi vaziyatlarda ishlata bilishi, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topa olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Ijodiy fikrlash inson tafakkurining zarur shakllaridan biri bo‘lib, u yangi g‘oyalarni yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish hamda mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish jarayonini anglatadi.

Pedagogika fanida ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat egallaydi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, ijodiy fikrlash bir necha bosqichlarda shakllanadi.

1. *Muammoni anglash bosqichi*. Bu bosqichda shaxs muammoni tushunadi va uni hal qilish zarurligini anglaydi. O‘quvchi muammoni tahlil qilish jarayonida mavjud bilimlarini esga oladi.

2. *G‘oyalar yaratish bosqichi*. Bu bosqichda turli fikr va g‘oyalar ilgari suriladi. O‘quvchilar muammoni hal qilish uchun bir nechta variantlarni taklif qilishlari mumkin.

3. *G‘oyalarni tanlash bosqichi*. Bu bosqichda taklif qilingan g‘oyalar tahlil qilinadi va eng samarali yechim tanlanadi.

4. *Natijani baholash bosqichi.* Ijodiy jarayon yakunida olingan natija tahlil qilinadi va uning samaradorligi baholanadi.

Shuningdek, dars jarayonida o‘quvchilarga erkin fikrlash imkoniyati yaratilsa, ularning ijodiy fikrlash salohiyati yanada rivojlanadi. O‘qitish jarayonida o‘qituvchi ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarni yangi g‘oyalar yaratishga undashi, ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashi hamda dars jarayonini interaktiv metodlar bilan tashkil qilishi zarur.

O‘qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak: 1) o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish; 2) muammoli vaziyatlar yaratish; 3) ijodiy topshiriqlar berish; 4) o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishiga imkon yaratish.

O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning har bir g‘oyasini, erkin fikrini qadrlashi muhim hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni oshiradi va ularni yanada faol bo‘lishga undaydi.

Ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Chunki bugungi kunda innovatsion iqtisodiyot sharoitida kreativ va tashabbuskor mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ijodiy fikrlashga ega shaxslar

murakkab muammolarni tez va samarali hal qilish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda jamiyat rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishda o‘quv dasturlarining mazmuni ham muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim materiallari nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchini fikrlashga undashga xizmat qilishi kerak. Savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, mustaqil loyiha ishlari va amaliy topshiriqlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish o‘quechilarda bilishga bo‘lgan gizigishni oshiradi, o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantiradi hamda ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, ijodiy fikrlashni shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va texnologiyalarni keng qo‘llash bugungi kun pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

3. T.L.Xurvaliyeva, Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. / Darslik. - Toshkent: Yangi chirchiq book, 2023. - 120 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKA FANI TARIXIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANASI

Tashpulatova Dilorom Mukimovna,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
O‘rinova Tamanno Sobirovna,
Orazova Perizat Adilbekovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi tarixida ustoz–shogird an’anasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda bugungi ta’lim tizimidagi o‘rni keng yoritilgan. Ustoz-shogird tizimi Sharq pedagogik tafakkurining eng qadimiy va samarali shakllaridan biri bo‘lib, u nafaqat bilim berish, balki shaxs tarbiyasi, ma’naviy yetuklik va kasbiy madaniyatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ushbu an’ananing buyuk allomalar, jumladan, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy pedagogik qarashlaridagi o‘rni ham tahlil qilinadi. Shuningdek, ishda ustoz-shogird tizimining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati, xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash, ularning metodik mahoratini oshirish, dars jarayonini samarali tashkil etishdagi roli ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ustoz-shogird an’anasi, pedagogika tarixi, o‘qituvchi mahorati, shogird tarbiyasi, pedagogik tajriba, ta’lim sifati, kasbiy rivojlanish, ma’naviy tarbiya.*

Yangi O‘zbekistonni bilimli, tarbiyali, ustoz ko‘rgan yoshlar barpo etadi.
Ustoz-shogird an’anasi ta’limning eng ishonchli yo‘lidir.
Sh.M.Mirziyoyev.

Har bir buyuk shaxsning ortida unga yo‘l ko‘rsatgan, bilim va hayot sabog‘ini bergan bir ustoz turadi. Insoniyat taraqqiyoti, ilm-fan rivoji va jamiyat ma’naviy yuksalishi avvalo ustozlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi inson hayotidagi eng muhim davr bo‘lib, aynan shu davrda bola dunyoqarashi, fikrlash tarzi, o‘ziga ishonchi va kelajakdagi shaxsiyati shakllanadi. Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham o‘qituvchini tayyorlash, uning pedagogik mahoratini oshirish, tarbiyaviy ta’sirini kuchaytirish masalalari doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Sharq pedagogik tafakkuri tarixida ustoz–shogird an’anasi ta’lim va tarbiyaning eng samarali shakllaridan biri sifatida shakllangan. Bu an’ana nafaqat bilim berish, balki insonni komil shaxs sifatida tarbiyalash, kasbiy va ma’naviy yetuklikka yetkazishning eng ishonchli yo‘li bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham ustoz-shogird an’anasi O‘zbekiston ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, hamda davlat ta’lim siyosatida tajribali ustozlar roliga alohida e’tibor qaratilgan. Bu hujjatlarda yosh o‘qituvchilarni malakali pedagoglar rahbarligida tarbiyalash, ularning kasbiy va ma’naviy rivojini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, ustoz–shogird an’anasini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish uchun ham muhimdir. Chunki zamonaviy ta’lim texnologiyalari qanchalik rivojlanmasin, insonni inson qilib tarbiyalaydigan asosiy kuch – bu ustozning shaxsiy ta’siri, mehr-muhabbati va hayotiy tajribasidir.

Ustoz-shogird an’anasi insoniyat tarixida eng qadimiy pedagogik tizimlardan biridir. Sharq xalqlarining ta’lim-tarbiyaviy madaniyatida bu an’ana o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Qadimiy O‘zbekiston hududida ham bilim va hunar avloddan-avlodga aynan ustozlar orqali uzatilgan. Buyuk allomalar – Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va boshqa mutafakkirlar ta’lim jarayonida shogirdlarga bilim berish bilan birga, ularning shaxsiy va ma’naviy rivojini ta’minlashga alohida e’tibor bergan. Shu sababli, tarixiy manbalarda ko‘p hollarda shogird ustozining darslarida faqat ma’lumot olish bilan cheklanmagan, balki hayotiy qadriyatlar va shaxsiy fazilatlarni ham egallaganligi qayd etilgan.

Pedagogik nuqtai nazardan, ustoz-shogird an’anasi individual yondashuv, tajribaga asoslangan ta’lim va tarbiyaviy yetakchilikni o‘zida mujassam etadi. Boshlang‘ich sinfda bu tizimning ahamiyati yanada oshadi, chunki: Bola dunyoqarashi shakllanmoqda, fikrlash va xulq-atvori ustoz ta’sirida rivojlanadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shogirdning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini kuzatuvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalar bilan birinchi aloqani o‘rnatadi va ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mehnatsevarligi aynan shu davrda shakllanadi. Shu bois: Tajriba va bilim uzatish – ustoz shogirdga nafaqat bilimlarni, balki dars o‘tish, bolalar bilan muloqot qilish va tarbiyaviy vaziyatlarni boshqarish tajribasini beradi. Ustoz-shogird munosabatlari nafaqat pedagogik tizimning, balki butun jamiyatning ma’naviy poydevorini shakllantiradi. Tajribali pedagoglar orqali tarbiyalanayotgan yosh o‘qituvchilar: jamiyatning kelajagini shakllantiradi; ijtimoiy mas’uliyatni o‘rganadi; madaniyat va axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatadi. Shu tariqa, ustoz-shogird tizimi nafaqat boshlang‘ich ta’lim sifatini oshiradi, balki mamlakatning intellektual va ma’naviy rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ustoz-shogird an’anasi boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy poydevorini tashkil etadi. Bu an’ana insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida bilim, tajriba va ma’naviy qadriyatlarni

uzluksiz ravishda avloddan avlodga yetkazib berib kelgan. Aynan ustoz va shogird o‘rtasidagi ishonch, hurmat va ma’naviy bog‘liqlik ta’limning haqiqiy mazmunini belgilaydi. Chunki bilim faqat darslik orqali emas, balki ustozning shaxsiy namunasi, so‘zi, xulqi va munosabati orqali qalblarga singadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi inson hayotidagi eng muhim davr bo‘lib, bu davrda bolaning fikrlashi, dunyoqarashi, axloqi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadi. Aynan shu bosqichda ustozning ta’siri eng kuchli bo‘ladi. Agar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiga mehr bilan yondashsa, har bir o‘quvchini tushunsa va unga ishonch bersa, u bola kelajakda nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
3. Tashpulatova Dilorom Mukimovna. Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish metodining innovatsion usullari. Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnal 2025/№ 3 164-170

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Tilavova Sayora Bekmuratovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgach va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Madaminova Kamola Dilmurod qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Unda ekologik tarbiyaning mazmuni, maqsadi va ahamiyati haqida fikr yuritilib, bolalarda atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishni eng samarali usullari va vositalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maktabda ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etishda o‘qituvchining roli dars jarayonida qo‘llaniladigan interaraktiv metodlar hamda darslardan tashqari faoliyatlarning o‘rni tahlil etiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ekologik madaniaytni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinf, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, pedagogik asoslar, ta’lim-tarbiya jarayoni, o‘quvchilar, atrof-muhit, ekologik ta’lim,iqlim, interaktiv metodlar.*

Kirish. Hozirgi global taraqqiyot sharoitida ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ekologiya — tirik organizmlar (inson, hayvonlar, o‘simliklar va mikroorganizmlar) hamda ular yashaydigan muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi ilmiy fan hisoblanadi. “Ekologiya” atamasi ilmiy muomalaga 1866-yilda nemis olimi Ernst Gekkel (Ernst Haeckel) tomonidan kiritilgan.

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, atmosfera, suv va tuproqning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, o‘rmon maydonlarining qisqarishi, suv resurslari tanqisligi kabi global ekologik muammolar jahon miqyosida jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bu muammolar nafaqat tabiat, balki inson salomatligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga

ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy ta’lim tizimi oldida yosh avlodda ekologik ong, ekologik madaniyat va tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik muammolarning ortib borishi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, barqaror rivojlanish tamoyillarini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur yosh davri bolalar shaxsining shakllanishi, axloqiy me’yorlar va hayotiy qadriyatlar tizimining qaror topishi bilan xarakterlanadi. Shu bois o‘quvchilar ongida tabiatni asrash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va ekologik muammolarga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Ushbu jarayon amaliy faoliyat, tabiatni kuzatish, o‘yin elementlari, interaktiv metodlar hamda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali tashkil etilganda samarali natijalarga erishish mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, ekologik mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, metodik mahorati hamda bolalar psixologiyasini chuqur anglashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinib, ekologik tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari, metod va vositalari hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan samarali pedagogik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimida ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati, pedagogik asoslari va amaliy yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik madaniyatni shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u izchil, tizimli va bosqichma-bosqich pedagogik yondashuvni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlarida ta’lim va ekologik sohalarni rivojlantirish, ayniqsa yosh avlodga ekologik tarbiya berish, ularda ekologik dunyoqarash va tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, O‘zbekiston Ekologik partiyasining tashabbuslari hamda “Ekologik madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” kabi tashabbuslar jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga va ta’lim tizimida ekologik yo‘nalishdagi faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Ekologik bilimlar va tabiatga ehtiyotkor munosabat g‘oyalari qadimdan Sharq mutafakkirlari asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalar - Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino tabiatshunoslik fanlari rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning asarlarida tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, tabiiy muvozanat, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, tabiatni qadrlash kabi g‘oyalar ilmiy va falsafiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, mahalliy pedagogik olimlar A.Azizxo‘jayev, N.Qurbonboyeva, H.To‘xtayev kabilar o‘z ilmiy ishlarida ekologik tarbiyaning mazmuni, metodik yondashuvlari hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ekologik bilimlarni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish masalalarini asoslab berganlar. Ular tomonidan ekologik tarbiyani ta’lim tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan.

O‘zbekistonda ekologik fanning shakllanishi va rivojlanishida bir qator olimlar muhim hissa qo‘shgan. Xususan, D.N.Qashqarov va Ye.P.Korovin mamlakatimizda ekologik tadqiqotlarning ilmiy asoslarini shakllantirgan olimlardan hisoblanadi. Ular tomonidan yaratilgan “Muhit va jamoa”, “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston cho‘llarining turlari va ulardan xo‘jalikda foydalanish istiqbollari” hamda “Cho‘llardagi hayot” kabi ilmiy asarlarda ekologiya fanining asosiy vazifalari, tadqiqot usullari va tabiat tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan. Shu bilan birga, hozirgi davrda ekologik muammolarning kuchayib borishi ko‘p jihatdan inson faoliyati bilan bog‘liq ekani kuzatilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrash va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari qadimdan xalq an’analari va tarbiyaviy qarashlarida ham muhim o‘rin egallab kelgan. Masalan, suvni iflos qilmaslik, chiqindilarni atrof-muhitga tashlamaslik, tabiatni asrash, daraxtlarni parvarish qilish kabi qoidalar avloddan-avlodga tarbiyaviy pand-nasihatlar orqali yetkazib kelingan.

Biroq bugungi kunda maishiy chiqindilarning ko‘payishi, atrof-muhitga nisbatan befarq munosabatning kuzatilishi ekologik muammolarning yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Agar insonlar tabiatda yuz berayotgan ekologik o‘zgarishlarga befarq qarasa, bu holat kelgusida ekologik vaziyatning yanada murakkablashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ta’lim-tarbiya ishlarini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar asosida boshlang‘ich sinflarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun: 1) maktab dasturlarida ekologik mavzularni yanada kengroq qo‘llash,tizimli va integratsiyalashgan holda kiritish; 2) darslarda amaliy va interaktiv usullardan ko‘piroq foydalanish; 3) maktab atrof-muhitini ekologik jihatdan bezatish va uni o‘quvchilar uchun o‘quv xonasiga aylantirish; 4) o‘qituvchilarning pedagogik va ekologik kompetensiyalarini oshirish;

Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun metodik tayyorgarlikni oshirish,maktablarida ekologik ta’limni tizimli tashkil etish,hamda ota-ona va jamoa bo‘lib ishlashni faollashtirish zarurdir. Ekologiya yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi va ularni kelajakda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishishiga fundament yaratib beradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda o‘quvchilarni tabiiy fanga va atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishini yana oshirish kerakli va fanlararo integratsiya,amaliy faoliyatlar orqali o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan hurmat va mas’uliyat tuyg‘usi mustahkamlanadi.Shu usul bilan o‘quvchilarda ekologik madaniyat rivojlanada, bu kelajakda atrof-muhitni saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Tilavova S.B. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2022.
4. Gafoor A. STEAM Education: Concepts and Applications in Modern Education. – New Delhi: Academic Press, 2019.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LOYIHA FAOLIYATI ORQALI ASOSIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Tojiboyeva Gulmira Rifovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Aslapovskaya Jamilaxon Sabirdjanovna,
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Asosiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik metodikalardan foydalanildi hamda tadqiqotning konstatatsiya bosqichida o‘quvchilarda ushbu kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi aniqlab berildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy kompetensiyalari tarkibiga tashkiliy (o‘z faoliyatini tashkil eta olish qobiliyati), intellektual (samarali fikrlash va axborot bilan ishlash qobiliyati), baholash (fikrlar, his-tuyg‘ular va qadriyatlar olamida mustaqil tanlov qila olish va buning uchun javob bera olish qobiliyati), kommunikativ (insonlar bilan muloqot qilish va hamkorlikda ishlash qobiliyati) ko‘nikmalari kiradi.*

Kalit so‘zlar: *asosiy kompetensiyalar, loyiha faoliyati, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, konstatatsiya bosqichi.*

Kirish. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi rivojlanish bosqichida boshlang‘ich maktab bitiruvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar predmet bilim va ko‘nikmalardan ko‘ra uning ijtimoiy kompetentligiga, ya’ni asosiy kompetensiyalar majmuasiga yo‘naltirilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda loyiha faoliyati katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar, avvalo, o‘quv faoliyatining ahamiyatliligi, turli xil o‘quv-bilish faoliyatlarining mavjudligi, o‘quv materialining yo‘naltirilganligi hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda keng qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi [1].

Asosiy kompetensiyalarning keng doirasi (kommunikativ, axborot, huquqiy, sog‘lom turmush tarziga oid va boshqalar) barcha fanlar orqali shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Biroq har bir fan bu borada o‘ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega.

Mazkur ishning nazariy asosini ushbu yo‘nalishda olib borilgan pedagogik tadqiqotlar hamda muallifning pedagogik tajribasi tashkil etadi. Shuningdek, E.S.Polat, N.Yu.Paxomova, A.M.Gavrilin, E.N.Zemlyanskaya, J.Dyui kabi olimlarning loyiha faoliyatiga oid ishlari asos qilib olingan. Asosiy kompetensiyalar tarkibini aniqlashda A.V.Xutorskiy tomonidan taklif etilgan tasnifga tayanildi. U quyidagi kompetensiyalarni ajratadi: umumiy madaniy, ijtimoiy-mehnat, o‘quv-bilish, axborot, qadriyat-ma’no, kommunikativ va shaxsiy o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari [2].

Tadqiqot obyekti: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida loyiha faoliyati orqali asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: boshlang‘ich ta’limda loyiha faoliyati asosiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida.

Tadqiqot maqsadi: loyiha faoliyati orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.

Tadqiqot gipotezasi: agar quyidagi pedagogik shartlar ta’minlansa, loyiha faoliyati orqali kompetensiyalarni shakllantirish samarali bo‘ladi: 1) o‘quvchilarning yosh, psixofiziologik va individual xususiyatlari hisobga olinadi; 2) uzluksizlik, tizimlilik, nazorat, qulaylik va samaradorlik tamoyillari qo‘llaniladi; 3) loyiha ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirishning yagona tizimi ishlab chiqiladi.

Tadqiqot vazifalari: 1) loyiha faoliyati orqali kompetensiyalarni shakllantirish xususiyatlarini aniqlash; 2) o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish tizimini ishlab chiqish; 3) boshlang‘ich sinfda ijodiy loyihalarni amalga oshirish tizimini yaratish; 4) tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.

Metodlar: **-** psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish; - konstatatsiya eksperimenti; - pedagogik tajriba o‘tkazish.

Asosiy qism. Kompetensiya – bu subyektning ichki va tashqi resurslarni samarali safarbar etib, maqsad qo‘yish va unga erishish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy kompetensiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: - tashkiliy; - intellektual; - baholash; - kommunikativ ko‘nikmalar.

Boshlang‘ich ta’lim yakunida o‘quvchilar turli kompetensiyalarni egallagan bo‘lishi zarur. Ta’lim sifatini oshirish uchun o‘qitish shunday tashkil etilishi kerakki, u o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, mas’uliyati va bilimlarni mustaqil egallashiga xizmat qilsin [4].

Tajriba-sinov ishlari. Tadqiqot Chirchiq shahridagi 17-sonli umumta’lim maktabida o‘tkazildi. Unda 30 nafar 3-sinf o‘quvchilari (13 qiz, 17 o‘g‘il) ishtirok etdi.

Diagnostika uchun quyidagi metodikalardan foydalanildi: *1. G.R.Tojiboyeva* – o‘quv-bilish qiziqishini aniqlash; *2. D.T.Pulatova* – qadriyat-ma’no kompetensiyasi; *3. V.F.Ryaxovskiy* – kommunikativ kompetensiya.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki: 1) o‘quv-bilish kompetensiyasi bo‘yicha o‘rtacha va past darajadagi o‘quvchilar salmoqli qismini tashkil etdi; 2) kommunikativ kompetensiya bo‘yicha ko‘pchilik o‘quvchilar o‘rtacha darajada; 3) qadriyat-ma’no kompetensiyalarida ham turli darajalar kuzatildi [3].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosiy kompetensiyalar yetarli darajada shakllanmagan. Shu bois loyiha faoliyatini samarali tashkil etish orqali ularni rivojlantirish zarur.

Loyiha faoliyati o‘quvchilarning: mustaqil fikrlashini, amaliy ko‘nikmalarini, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Борисова Т.В. Условия формирования коммуникативной культуры младших школьников в информационном пространстве // Вестник ТГПУ. – 2011. – №2. – С. 68-71.

2. Иванов Д.А. Коммуникативная компетентность. Оценка ключевых компетенций в учебном процессе // Школьное планирование. – 2008. – №5. – С. 75-76.

3. Tojiboyeva G.R., Raqamli muhitda boshlang‘ich ta’lim yoshdagi bolani tarbiyalash muammolari. / “Raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tadbiq etish, muammolar, yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. – T., Qori Niyoziy nomidagi TPMI. – B. 97-99. 2025-yil 11-iyun.

4. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе. От действия к мысли: пособие для учителя / А.Г.Асмолов, Г.В.Бурменская, И.А.Володарская, О.А.Карабанова, Н.Г.Салмина, С.В.Молчанов; под ред. А.Г.Асмолова. – М.: Просвещение, 2011. – С. 152.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INTELLEKTUAL FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI

Tojiboyeva Gulmira Rifovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Dehqonova Dilorom Komiljon qizi,
Chirchiq DPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual faolligini individual yondashuv asosida oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda har bir o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishi hamda o‘zlashtirish darajasini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, differensial topshiriqlar, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlar, rag‘batlantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarning ahamiyati asoslab beriladi. Individual yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, mantiqiy tafakkur va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *individual yondashuv, intellektual faollik, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, differensial ta’lim, mustaqil fikrlash, motivatsiya, ijodkorlik.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning intellektual salohiyati shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi [1; 12-28-b.]. Aynan shu jarayonda bolaning tafakkuri, dunyoqarashi, mustaqil fikrlash qobiliyati va bilishga bo‘lgan qiziqishi rivojlanadi [2; 134-142-b.]. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual faolligini oshirishda individual yondashuv muhim pedagogik tamoyil sifatida qaraladi. Individual yondashuv har bir o‘quvchining yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari hamda qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishni anglatadi.

Individual yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari. Har bir bola o‘ziga xos xarakter, idrok etish tezligi, xotira hajmi va tafakkur darajasiga ega. Ba’zi o‘quvchilar mavzuni tez o‘zlashtirsa, boshqalari ko‘proq tushuntirish va amaliy mashqlar orqali bilimni egallaydi. Shuning uchun o‘qituvchi dars jarayonida differensial yondashuvni qo‘llashi lozim. Bu usul o‘quvchilarga murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar berish, qo‘shimcha izohlar yoki mustaqil ijodiy vazifalar orqali ularning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi [3; 15-22-b.].

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rag‘bat va qo‘llab-quvvatlash muhitida ta’lim olgan o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan ehtiyoj kuchliroq shakllanadi. Shu sababli individual yondashuv faqat akademik natijani emas, balki o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishini ham ko‘zda tutadi [4; 98-105-b.].

Intellektual faollik tushunchasi va uning mazmuni. Intellektual faollik – bu o‘quvchining bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qila olishi va ijodiy yondashuv ko‘rsata bilishidir. Boshlang‘ich sinfda intellektual faollikni rivojlantirish uchun savol-javoblar, mantiqiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, kuzatish va tahlil qilish mashg‘ulotlari keng qo‘llanilishi zarur. Masalan, oddiy matnni o‘qib berish o‘rniga, o‘quvchilarga “Nima uchun?”, “Qanday

qilib?”, “Agar shunday bo‘lsa nima yuz beradi?” kabi savollar berish orqali ularning tafakkur jarayoni faollashtiriladi. Bu usul bolalarda sabab-oqibat bog‘liqligini tushunish, xulosa chiqarish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5; 56-63-b.].

Interfaol metodlarning ahamiyati. Individual yondashuv asosida intellektual faollikni oshirishda interfaol metodlar muhim o‘rin tutadi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Rol o‘ynash”, “Baliq skeleti” kabi metodlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga undaydi. Guruhli ishlarda har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual faolligini oshiradi [6; 44-52-b.]. Didaktik o‘yinlar orqali murakkab tushunchalar sodda va qiziqarli shaklda o‘zlashtiriladi. O‘yin jarayonida o‘quvchi o‘zini erkin tutadi, xato qilishdan qo‘rqmaydi va faol ishtirok etadi.

Differensial topshiriqlar va mustaqil ishlar. Individual yondashuvni amalga oshirishda differensial topshiriqlar muhim vosita hisoblanadi. Masalan, bir mavzu doirasida uch xil murakkablik darajasidagi mashqlar tayyorlanadi: reproduktiv (oddiy qayta aytish), qisman izlanishli va ijodiy topshiriqlar. Har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasiga mos vazifani bajaradi [7; 72-81-b.].

Mustaqil ishlar ham intellektual faollikni oshirishning samarali vositasidir. Mustaqil ravishda bajarilgan topshiriq o‘quvchida mas’uliyat hissini oshiradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli. Zamonaviy ta’lim jarayonida AKT vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Multimediali taqdimotlar, interaktiv testlar va elektron darsliklar orqali o‘quvchi mavzuni ko‘rgazmali tarzda o‘zlashtiradi. Vizual materiallar idrokni kuchaytirib, xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi.

Rag‘batlantirish va motivatsiya. O‘quvchining intellektual faolligi ko‘p jihatdan uning ichki motivatsiyasiga bog‘liq. Shuning uchun o‘qituvchi har bir kichik yutuqni e’tirof etishi, ijobiy baholash usullaridan foydalanishi zarur [8; 37-45-b.]. Maqtov, rag‘batlantiruvchi belgilar, ijodiy ishlarni namoyish qilish kabi usullar bolalarda o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi.

Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv orqali har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tafakkur rivojlanadi. Natijada ta’lim samaradorligi ortadi va o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan barqaror qiziqish shakllanadi [9; 64-70-b.].

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual faolligini individual yondashuv asosida rivojlantirish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchining shaxsiy kamolotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir bolaning o‘ziga xosligini tan olish, uning kuchli tomonlarini qo‘llab-quvvatlash va qiyinchiliklarini bartaraf etishga ko‘maklashish orqali ta’lim jarayoni yanada samarali va mazmunli bo‘ladi.

Individual yondashuv o‘quvchida o‘ziga ishonch, mustaqillik, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Natijada u bilimni shunchaki yodlab oluvchi emas, balki uni anglab, tahlil qilib, amaliyotda qo‘llay oladigan faol shaxsga aylanadi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, kuzatuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi. Ta’lim jarayonining mazmunini zamonaviy metodlar bilan boyitish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va doimiy refleksiya olib borish orqali barqaror natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, individual yondashuv – boshlang‘ich ta’limda intellektual faollikni oshirishning eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 134-142-b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992
4. To‘xtaxodjayeva M.X. (tahriri ostida). Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2010
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006
6. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014
7. Egamberdiyeva N. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018
8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. 37-45-b.
9. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009

O‘QUVCHILARNING BILIMI VA FAOLIYATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Tojiboyeva Gulmira Rifovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Norova Zaynura Nasrullo qizi,
Chirchiq DPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Bu mavzu o‘quvchilarning bilimi va faoliyatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va samaradorligini yoritishga qaratilgan. Unda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, dars jarayonida hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, loyihaviy metod kabi usullarning afzalliklari ochib beriladi. Natijada, ta’lim samaradorligi oshib, o‘quvchilarning bilim darajasi va faolligi sezilarli ravishda yuksaladi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil fikrlash, loyihaviy ta’lim.*

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilimi va faolligini oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. An’anaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi markaziy rol o‘ynasa, zamonaviy yondashuvda o‘quvchi faol subyektga aylanadi [1; 112-128-b.]. Bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayoni interfaol va qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi.

Interfaol metodlar. Interfaol metodlar dars jarayonini yanada samarali qiladi. “Aqliy hujum” o‘quvchilarning ijodiy fikrini rivojlantirsa, “Debat” ularni fikrini himoya qilish va tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatadi. “Rol o‘ynash” usuli mavzuni amaliy hayot bilan bog‘lashga yordam beradi, “Klaster” esa murakkab mavzularni vizual tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Shu metodlar o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini kuchaytiradi, guruhda ishlash va muammoni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi [2; 45-67-b.].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). AKT zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. Multimediali taqdimotlar, interaktiv testlar, elektron darsliklar va onlayn platformalar orqali o‘quvchilar mavzuni yanada samarali o‘zlashtiradi. Masalan, biologiya darsida hujayra bo‘linishini 3D animatsiya orqali ko‘rsatish yoki geografiya mavzusida interaktiv xarita ishlatish o‘quvchilarning tushunchasini mustahkamlaydi. AKT nafaqat bilimni qabul qilishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borish qobiliyatini ham rivojlantiradi [3; 78-102-b.].

Loyihaviy ta’lim. Loyihaviy ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarda mustaqil ishlash, mas’uliyat va ijodkorlikni shakllantiradi. O‘quvchilar real muammo ustida izlanish olib boradi, natijalarni jamoa bilan tahlil qiladi va taqdim etadi. Masalan, fizika darsida “O‘quvchilar energiya tejash tizimini loyihalash” loyihasi orqali amaliy ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Loyihaviy ishlar o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish, muammoga yechim topish va natijani taqdim etish qobiliyatini oshiradi [4; 55-83-b.].

Muammoli ta’lim. Muammoli ta’lim o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘qituvchi tomonidan berilgan muammoli vaziyat o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi [8; 77-99-b.]. Masalan, matematikada murakkab masalani yechishda turli yechim yo‘llarini qidirish orqali o‘quvchilar fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi. Shu tarzda bilim nafaqat eslab qolish darajasida, balki amaliyotda qo‘llash darajasida mustahkamlanadi.

Innovatsion yondashuvlar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda innovatsion yondashuvlar ham katta ahamiyatga ega. “Flipped classroom” (teskari sinf xonasi) modeli o‘quvchilarga uyda o‘qish, darsda esa amaliy mashqlar va muhokamalarda ishtirok etish imkonini beradi [5; 23-49-b.]. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil o‘qish va mas’uliyat hissini oshiradi. Shuningdek, gamifikatsiya elementlari (ta’limda o‘yin elementlarini qo‘llash) o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi.

Ta’lim samaradorligini oshirish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat bilimni oshirish, balki o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini kuchaytiradi [6; 10-65-b.]. Interfaol metodlar, AKT, loyihaviy va muammoli ta’lim usullari darsni amaliy va qiziqarli qiladi, o‘quvchilarga bilimni mustahkamlash va amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, individual yondashuv har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi [7; 34-56-b.]. Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiradi va ularni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilimini oshirish, ularning faolligini rag‘batlantirish va ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega. An’anaviy ta’lim tizimi ko‘proq ma’lumot berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuv o‘quvchini faol subyekt sifatida jalb qiladi va ularning mustaqil fikrlash, ijodiy va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa

o‘quvchilarning bilimlarni faqat yodlash darajasida emas, balki amaliyotga tadbiq etish darajasida o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Interfaol metodlar, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qiladi. Interfaol metodlar o‘quvchilarga fikr bildirish, guruhda ishlash va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish imkonini beradi. Loyihaviy ta’lim ularni real muammolarni hal qilishga, ijodiy yondashuv va mas’uliyatni rivojlantirishga undaydi. Muammoli ta’lim esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirib, muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darslarni vizual, interaktiv va qiziqarli qilish bilan birga, o‘quvchilarning bilimni tez va samarali o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Multimediali vositalar, elektron darsliklar, testlar va onlayn platformalar o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni yangi bilimlarni qidirishga rag‘batlantiradi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar individual yondashuvni ta’minlaydi, ya’ni har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi va ularni o‘qishga yanada qiziqtiradi. “Flipped classroom” modeli yoki gamifikatsiya elementlari kabi innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini yanada samarali va zamonaviy qiladi.

Natijada, zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat bilimni oshirish vositasi, balki o‘quvchilarni mustaqil, ijodkor, tanqidiy fikrlaydigan va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda samarali vosita bo‘ladi. Ular ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va natijaga yo‘naltirilgan holga keltiradi, shu bilan birga o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini doimiy ravishda yuqori darajada ushlab turadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni amaliyotga tayyorlashda eng samarali vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini, tanqidiy tafakkurini va shaxsiy mas’uliyatini shakllantiradi, natijada ta’lim jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi roli. Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti, 2020

2. Karimova, N. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning faoliyatini oshirish. Toshkent. Fan va ta’lim, 2019

3. Islomov, S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish. Toshkent, Pedagogika ilmiy-nashriy markazi, 2021

4. Tursunov, A. Loyihaviy va muammoli ta’lim metodlari: nazariya va amaliyot. Ilm va ma’rifat, Samarqand, 2018

5. Rasulova, M. Innovatsion yondashuvlar va gamifikatsiya ta’limdagi qo‘llanilishi. Toshkent. Innovatsiya va ta’lim, 2022

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. O‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent. Xalq ta’limi nashriyoti,. 2020

7. Jalilov, F. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent. Pedagogika. 2017

8. Mirzayev, D. Muammoli va loyihaviy ta’lim metodlarini amaliy qo‘llash. Toshkent. Oliy ta’lim nashriyoti. 2016

BO‘SHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

Tojiboyeva Gulmira Rifovna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Raxmatullayeva Dilnoza Sherali qizi,
Chirchiq DPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslari, ularning pedagogik jarayondagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda raqamli vositalarning boshlang‘ich sinf o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi masalalari ko‘rib chiqiladi. Natijada, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va samarali o‘qitish muhitini yaratishga xizmat qilishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim samaradorligi.*

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining ilg‘or g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir [1]. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish sharoitida o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, izlanadigan va faol shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda [2]. Shu bois innovatsion texnologiyalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik nazariya hamda faoliyatga asoslangan ta’lim tamoyillariga tayanadi. Mazkur nazariyalarga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan faol o‘zlashtiriladi, tajriba asosida shakllanadi va amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlanadi [3; 12-34-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari innovatsion texnologiyalarni tanlashda muhim omil hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalar ko‘proq ko‘rgazmali, o‘yin va amaliy faoliyat orqali bilimni tezroq o‘zlashtiradi. Shu sababli o‘yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar yaratish, rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar hamda loyihaviy topshiriqlar ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar erkin fikr bildiradi, tashabbus ko‘rsatadi va ijodiy yondashadi. Bu esa ularning nutq madaniyati, tafakkuri va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi [4; 45-67-b].

Innovatsion texnologiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biri interfaol metodlardan foydalanishdir. Interfaol metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “B-B-B”, “Fishbone”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar orqali o‘quvchilar tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydi [5; 22-40-b]. Bunday metodlar dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mustaqil ishlash malakasini shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash innovatsion ta’limning ajralmas qismidir. Multimedia vositalari, animatsiyalar, interaktiv doskalar, elektron darsliklar va onlayn platformalar darsni ko‘rgazmali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, vizual va audio materiallar orqali murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish mumkin. Raqamli vositalar yordamida testlar, virtual mashqlar va interaktiv topshiriqlarni bajarish o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchining axborot bilan ishlash kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar differensial va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish muhimdir. Kuchli o‘quvchilar uchun ijodiy va kengaytirilgan topshiriqlar, qiynalayotgan o‘quvchilar uchun esa qo‘shimcha tushuntirish va soddalashtirilgan mashqlar berish ta’lim sifatini oshiradi [6; 51-73-b]. Individual yondashuv o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratadi [7; 28-46-b].

Baholash tizimida ham innovatsion yondashuv muhim ahamiyatga ega. An’anaviy nazoratdan farqli ravishda formativ baholash, o‘zaro baholash va o‘z-o‘zini baholash usullari o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchi o‘z bilimini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Bu esa mas’uliyat hissini kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini shaffof va samarali qiladi.

Fanlararo integratsiya ham innovatsion texnologiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarash shakllanadi. Masalan, matematika va texnologiya, ona tili va atrof-muhitni o‘rganish fanlarini integratsiyalash o‘quvchilarning bilimlarini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu esa amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi va bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi. Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asosda qo‘llash ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni mustaqil, ijodkor, tanqidiy fikrlovchi va zamonaviy bilimlarga ega shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Ularning nazariy asoslari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy model, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayanadi. Mazkur texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati, muloqot madaniyati va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Natijada boshlang‘ich ta’lim jarayoni yanada mazmunli, interfaol va natijador tus oladi. Demak, innovatsion texnologiyalarni izchil va maqsadga muvofiq qo‘llash bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022

3. Muslimov, N.A., Usmonboyeva, M.H., Sayfurov, D.M., To‘rayev, A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015

4. Tolipov, O‘., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2010

5. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., Pardaev, A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Iste’dod”, 2008

6. Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.

7. Azizxo‘jayeva, N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2006

TA’LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARI FAOLIYATIDA TAYM-MENEJMENT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

Tojiboyeva Gulmira Rifovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Tulegenova Tursin,
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tashkilotlari rahbarlari faoliyatida taym-menejment texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi va zaruriyati yoritilgan. Tashqi muhitdagi tezkor o‘zgarishlar, boshqaruv yuklamasining ortishi hamda vaqt resurslarining cheklanganligi sharoitida rahbarlarning vaqtni samarali boshqarish ko‘nikmalarini egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada rejalashtirish, vakolatlarni delegatsiya qilish, vaqtni tahlil qilish va axborot oqimlarini optimallashtirish kabi taym-menejment texnologiyalarining amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *taym-menejment, ta’lim tashkiloti, boshqaruv, rejalashtirish, delegatsiya, samaradorlik, vaqt resurslari, rahbar faoliyati, strategik rejalashtirish, operativ boshqaruv.*

So‘nggi vaqtlarda tashkilotlar faoliyatida taym-menejment texnologiyalaridan markazlashgan holda foydalanish tendensiyasi sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu ehtiyoj tashqi muhitdagi o‘zgarishlar sur’atining oshib borayotgani bilan bog‘liq bo‘lib, u ta’lim tashkiloti xodimlariga vakolatlarni topshirish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish va rejalashtirishni talab etadi.

Mazkur holat ayniqsa pedagogik faoliyatda dolzarb hisoblanadi, chunki ko‘plab tashqi so‘rovlar (boshqaruv organlari, ota-onalar, o‘quvchilar va boshqalar tomonidan) bevosita ta’lim tashkiloti ma’muriyatiga yo‘naltiriladi. Bu esa rahbariyatdan yuqori tashkilotlarga murojaat qilmasdan, cheklangan vaqt sharoitida mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Ta’lim tashkilotlari uchun faoliyatni muntazam ravishda o‘zgartirish — yangi o‘quv kurslari, dasturlar, ta’lim standartlari, talablar va texnologiyalarni joriy etish odatiy holga aylanib bormoqda. Shu sababli, rahbariyat hal qilinadigan vazifalar hajmini doimiy ravishda oshirib borishga majbur bo‘ladi va vaqt resurslarini tejashning yangi imkoniyatlarini izlaydi.

Taym-menejment – bu vaqtni samarali boshqarish usullari va tamoyillarini o‘rganuvchi boshqaruv fanining jadal rivojlanayotgan yo‘nalishidir. Vaqtni boshqarish –

bu aniq faoliyat turlariga sarflanayotgan vaqt ustidan ongli nazoratni shakllantirish jarayonidir, bu esa samaradorlik va unumdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim tashkiloti rahbari faoliyatida vaqtni boshqarish masalasi nihoyatda dolzarbdir.

Rahbar doimo ishga tayyor va hushyor bo‘lishi lozim. Uning faoliyatida rejalashtirilmagan vaziyatlar tez-tez yuzaga keladi va tezkor aralashuvni talab qiladi. Shu sababli, barcha vazifalarni o‘z vaqtida bajarish uchun aniq rejalashtirish muhimdir. Ko‘pincha direktorlar vaqt yetishmasligi va ortiqcha yuklama muammosiga duch keladi. Bunday vaziyatda barcha vazifalar birdek muhimdek tuyuladi. Ushbu muammoni hal etish uchun vaqtni to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Taym-menejment texnologiyalari rahbarlarga ish vaqtining 50 foizigacha tejash imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar ko‘pincha ish vaqtini uzaytirishga majbur bo‘lib, bu esa shaxsiy hayot, dam olish va o‘zini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, rahbar muhim va ikkinchi darajali vazifalarni ajrata olmay qoladi.

Boshqaruv rejalashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Rejalashtirish — bu tashkilot faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi asosiy funksiyadir. U noaniqlikni kamaytiradi, asosiy vazifalarga e’tiborni jamlaydi va boshqaruvni yengillashtiradi. Ta’lim tashkilotida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirish muvaffaqiyatning muhim omilidir.

Rejalashtirish jarayonida rahbar tashqi va ichki axborotni hisobga oladi. Tashqi axborot davlat organlari ko‘rsatmalari va ta’limga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga olsa, ichki axborot tashkilotning avvalgi faoliyati natijalarini aks ettiradi.

Vaqt doirasiga ko‘ra rejalashtirish strategik, taktik va operativ turlarga bo‘linadi. Shu bilan birga, rahbarning shaxsiy vaqtini rejalashtirishi ham muhimdir. Shaxsiy reja real va aniq bo‘lishi, ustuvor vazifalarga asoslanishi zarur.

Taym-menejment doirasida quyidagi texnologiyalar muhim hisoblanadi: - xronometraj (vaqt sarfini tahlil qilish); - vakolatlarni delegatsiya qilish; - prognozlash; - vaqtni konsolidatsiya qilish; - axborot oqimlarini optimallashtirish.

Rahbarning ish joyini to‘g‘ri tashkil etish ham vaqtni tejashga yordam beradi. Ish stolida faqat zarur vositalar bo‘lishi lozim.

Zamonaviy sharoitda samarali boshqaruv uchun nafaqat rahbar, balki barcha xodimlar taym-menejment ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. To‘g‘ri maqsad qo‘yish, ustuvorliklarni aniqlash va vazifalarni delegatsiya qilish boshqaruv samaradorligini oshiradi. Shuningdek, rahbar shaxsiy vaqtiga ham e’tibor qaratishi lozim. Dam olish va sog‘lom turmush tarzi samarali faoliyatning muhim omilidir.

Xulosa qilib aytganda, taym-menejment texnologiyalaridan foydalanish ta’lim tashkiloti boshqaruvining samaradorligini oshiradi. Bu nafaqat vaqtni tejash vositasi, balki tashkilotni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Radjabova, G.U. (2023). Ta’lim tizimi boshqaruvida “time menejmenti” texnologiyalarini qo‘llash. Green economy and development, 1(10), 311-315.

2. Tojiboyeva G.R., Vaqtni boshqarish texnologiyasi asosida talabalarning o‘zini o‘zi tashkil etishini rivojlantirish. // Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў. Илмий-методик журнал. № 2 2026 й. Б - 281-286

3. Alimova Q.O. Raqamli menejment texnologiyalari asosida ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №13.I.

4. Yuldasheva X.Q. “Taym menejment” ko‘nikmalari asosida o‘quvchilar vaqtini samarali boshqarish imkoniyatlarini shakllantirish. (2025). Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.14685501

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tursunboyeva Muxtabar Dehqonovna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha va boshlangich talim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi katta oqituvchisi.
Eshova Nargiza Xusanboyevna,
Davletova Shoxida Azimbayevna,
Chirchiq DPU, Maktabgacha talim yonalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Interaktiv metodlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, nutqiy hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llashning samarali usullari hamda tarbiyachining pedagogik faoliyatidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *interaktiv metodlar, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiyalar, kognitiv rivojlanish, ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni.*

Hozirgi davrda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari pedagogik faoliyatni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning intellektual, ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanishining dastlabki bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.Maktabgacha yosh davri bolalarda bilim olishga qiziqish, tafakkur jarayonlari, nutqiy faoliyat hamda ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ta’lim jarayonini samarali tashkil etish pedagoglardan zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. [1]

Interaktiv metodlarning nazariy asoslari. Interaktiv metodlar pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy nazariyalariga asoslanadi. Xususan, konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, bilimlar tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchilar tomonidan faol faoliyat jarayonida shakllantiriladi. Maktabgacha ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish bolalarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashi, muloqot qilish ko‘nikmalari hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar ta’lim jarayonida tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan bo‘lib, bolalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. [2]

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’lim jarayoni qiziqarli, faol va o‘yin elementlariga boy bo‘lishi zarur. Shu sababli interaktiv metodlar ayniqsa maktabgacha ta’lim tizimida samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali bolalar yangi bilim va tasavvurlarni o‘z faoliyati jarayonida egallaydilar.

Faol ta’lim tamoyili. Faol ta’lim tamoyiliga ko‘ra, bola ta’lim jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar turli o‘yinlar, muhokamalar va ijodiy faoliyatlar orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Interaktiv metodlar bolalarni faol harakatga undaydi, ularning qiziqishini oshiradi hamda mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

*Konstruktivistik yondashuv*ga ko‘ra, bolalar bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydilar, balki o‘z faoliyati davomida yangi bilimlarni shakllantiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-muhitni kuzatish, tajriba qilish, o‘yin o‘ynash va muloqot qilish orqali yangi bilimlarni egallaydilar. Interaktiv metodlar aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

Sotsiokultural yondashuv bolalarning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqot muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bolalar tengdoshlari bilan o‘ynash, suhbatlashish va birgalikda faoliyat olib borish jarayonida yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. Interaktiv metodlar bolalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Hamkorlik asosidagi faoliyat. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning kichik guruhlarda faoliyat olib borishi ularning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Guruhli o‘yinlar, jamoaviy topshiriqlar va birgalikdagi ijodiy faoliyat bolalarda o‘zaro yordam, hurmat va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish quyidagi nazariy tamoyillarga asoslanadi: - faol ta’lim tamoyili; - hamkorlikda o‘qitish tamoyili; - individuallashtirilgan yondashuv; - refleksiv faoliyat tamoyili.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning bilimlarni mustaqil egallashiga yordam beradi. [3]

Maktabgacha ta’lim jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyati. Interaktiv metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ularning kognitiv faoliyatini faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Interaktiv metodlar orqali bolalarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlanadi: - mustaqil fikrlash qobiliyati; - muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari; - muloqot madaniyati; - jamoada ishlash qobiliyati.

Shuningdek, interaktiv metodlar bolalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘rganilayotgan materialni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

MTTda qo‘llaniladigan interaktiv metodlar

“Aqliy hujum” metodi: Ushbu metod bolalarning erkin fikrlashini rivojlantiradi. Tarbiyachi muayyan savolni qo‘yadi va bolalar o‘z fikrlarini erkin ravishda bildiradilar.

“Klaster” metodi: Klaster metodi tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi. Bu metod bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Rol o‘ynash metodi: Rol o‘ynash metodida bolalar turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtiradilar. Bu jarayon bolalarning nutqiy rivojlanishiga va ijtimoiy ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Muammoli vaziyat yaratish metodi: Muammoli vaziyat orqali bolalar muayyan masalani mustaqil hal qilishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tafakkur jarayonlarini faollashtiradi.

Tarbiyachining pedagogik faoliyatidagi o‘rni. Interaktiv metodlarni samarali qo‘llash ko‘p jihatdan tarbiyachining kasbiy kompetentligiga bog‘liq. Tarbiyachi ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Tarbiyachi quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) ta’lim jarayonini tashkil etadi; 2) bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydi; 3) ijodiy muhit yaratadi; 4) bolalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bunday pedagogik yondashuv bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi. Interaktiv metodlar ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faol ta’lim metodlari orqali o‘rganilgan bilimlar uzoq muddat xotirada saqlanadi.

Interaktiv metodlardan foydalanish natijasida: - bolalarda ijodiy fikrlash rivojlanadi; - nutqiy faollik ortadi; - ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi; - ta’lim jarayoni samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu metodlar bolalarning kognitiv, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilk qadam maktabgacha ta’lim davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
2. Hasanboyeva O. Maktabgacha pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
3. Nishonova Z., Alimuhamedov A. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2017.

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI ART TERAPIYA VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Umaraliyeva Zilolaxon Abbosjon qizi,
Satimova Vasila Karimbayevna,
Bahodirova Charos Jasurbek qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalari.
Achilova Mavluda Sa’dullayevna,
Chirchiq DPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqola nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim muhitida rivojlantirishda art terapiya vositalarining ahamiyatini yoritadi. Maqolada nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarning hissiy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishida san’at faoliyatining samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, rassomlik, musiqa, dramatizatsiya va guruh bo‘yicha ijodiy mashg‘ulotlar orqali bolalarning nutq ko‘nikmalarini mustahkamlash usullari tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari art terapiya metodlarining inkluziv ta’lim muhitida bolalarning nutq va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *nutq nuqsoni, maktabgacha ta’lim, art terapiya, ijtimoiy rivojlanish, hissiy rivojlanish, rassomlik va musiqa mashg‘ulotlari, inkluziv ta’lim.*

Inkluziv ta’lim muhitida nutq nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash bugungi pedagogik amaliyotning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Nutq nuqsonlari bolalarning o‘z fikrini ifoda etish, atrofdagilar bilan muloqot qilish va emotsional tajribalarni anglash qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu cheklovlar bolalar ijtimoiy faolligini pasaytirib, ularning umumiy rivojlanish jarayoniga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun san’at (art) terapiya vositalaridan foydalangan holda nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumiy va nutq rivojlanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifadir. Art terapiya – bu ijodiy faoliyat orqali bolalarning hissiy holati, kommunikatsiya imkoniyatlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan psixopedagogik usullar majmuasidir. San’at jarayonida bolalar ranglar, chizmachilik, musiqa, dramatizatsiya va ritm orqali o‘z ichki holatini ifodalash imkoniyatiga ega

bo‘ladilar. Bu jarayon ularni nutqni bilvosita, qulay va motivatsiyalangan shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Art terapiya va nutq nuqsoni bog‘liqligi. Nutq nuqsoniga ega bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat muloqotdan chekinishga olib kelib, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini sekinlashtiradi. Shuning uchun nutqni mustahkamlashda oddiy metodik vositalardan tashqari, ijodiy va hissiyotga asoslangan yondashuvlar ham qo‘llanilishi zarur.

Art terapiya nutq nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun quyidagi jihatlarda foydali: 1) *Emotsional ifoda:* Bolalar ranglar, shakllar, musiqa orqali o‘z hislarini ifodalashga o‘rganadilar. Bu holat nutq orqali tushuntirish qiyin bo‘lgan ichki holatlarni tashqi kontseptga aylantiradi. 2) *Motivatsiya:* Ijodiy jarayon bolalarda qiziqish uyg‘otadi, natijada ular muloqotga ko‘proq jalb qilinadi. 3) *Kommunikatsiya ko‘nikmalari:* San’at guruhlarda qo‘llanilganda bolalar bir-birlari bilan muloqot qilishni o‘rganadilar va nutq rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Art terapiya usullari. Quyida nutq nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda samaradorligi tasdiqlangan asosiy art terapiya usullari keltirilgan:

a) Rassomlik terapiyasi. Ranglar va rasm chizish faoliyati bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini vizual shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, bolalar ertaklar asosida sahna rasmlarini yaratadilar va so‘ngra ular haqida hikoya tarzida gapirib beradilar. Bu jarayon: 1) fonematik eshituvni mustahkamlash; 2) nutqning strukturaviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash; 3) emotsional mazmunni tushuntirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ranglar va rasm chizish faoliyati bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini vizual shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, bolalar ertaklar asosida sahna chizmalari yaratadilar va so‘ngra ular haqida hikoya tarzida gapirib beradilar. Bu chora: - fonematik eslatmalarni mustahkamlash; - nutqni strukturaviy rivojlantirish; - emotsional kontentni tushuntirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

b) Musiqa terapiyasi. Musiqa unsurlari (ritm, qo‘shiqlar, qo‘shiqlar matnlari) nutq ritmi va artikulyatsiyani mustahkamlash uchun samarali vositadir. Nutq bilan birga ritmik mashqlar: - tilda talaffuzni yaxshilash; - eshitish va nutq o‘rtasidagi aloqa jarayonini mustahkamlash; - fonologik xotirani oshirishda qo‘llaniladi.

c) Dramatizatsiya va ro‘l o‘yinlari. Bolalarni rollarga bo‘lish, kichik sahna ko‘rinishlarini ijro etish orqali ularni nutq holatlariga qo‘yish: - so‘z boyligini kengaytiradi; - muloqot vaziyatlarida nutqni qo‘llashni rag‘batlantiradi; - empatiya va ijtimoiy sharoyatni anglashni oshiradi.

d) Kollektiv art loyihalari. Guruh bo‘yicha ijodiy loyiha bajarish bolalarda hamkorlik, tinglash va aytgan fikrini ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, devor rasmini birgalikda chizish yoki temp-sahna yaratish orqali bolalar bir-birlari bilan nutq orqali muloqot qilishni o‘rganadilar.

3. Art terapiya samarasini baholash. Art terapiya jarayonidagi natijalarni baholashda quyidagi mezonlar qo‘llanadi: *1) Nutq faoliyati o‘sish dinamika:* so‘z boyligi kengayishi, to‘g‘ri artikulyatsiya, so‘z birikmalarini yodlash qobiliyati. *2) Muloqot holatlariga moslashuv:* ijtimoiy vaziyatlarda nutq qo‘llash samaradorligi. *3) Hissiy baholash:* bolalarning ishtiyoqi, stress bilan kurashish ko‘nikmalari va ijobiy ritorika.

Baholash uchun pedagogik kuzatuv, nutq testlari va guruh muhokamalari natijalari asos bo‘lishi mumkin.

4. Tadbirlar va mashg‘ulot texnologiyalari. Quyidagi texnologik yondashuvlar art terapiyani yanada samarali qiladi: Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning nutqini

rivojlantirish va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda turli ijodiy mashg‘ulotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, *rasm vositachiligida hikoya tuzish* mashg‘ulotlari bolalarda tasavvur va tafakkurni rivojlantirish bilan birga, ularning fikrlarini mantiqiy va tizimli ravishda ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bolalar chizgan rasmlari asosida voqealar ketma-ketligini tasvirlab berishga harakat qiladilar, bu esa nutqning izchilligi va mazmundorligini oshiradi. Shuningdek, guruh qo‘shiqlari bilan ritmik mashqlar bolalarda nutq apparatini faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Qo‘shiq aytish jarayonida ritm va ohang bilan birgalikda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, nafasni boshqarish hamda artikulyatsiya organlarining faol ishlashi ta’minlanadi. Bu esa nutqning ravonligi va talaffuzning aniq bo‘lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, *sahna rollari orqali dialoglar tashkil etish* bolalar uchun real nutq vaziyatlarini modellashtirish imkonini yaratadi. Rol o‘ynash jarayonida bolalar o‘zaro muloqotga kirishib, savol-javob qilish, fikr bildirish va suhbatni davom ettirish kabi kommunikativ ko‘nikmalarni egallaydilar.

Yana bir samarali faoliyat turi – *kollektiv mural (umumiy devor rasmi) yaratishdir.* Bunday mashg‘ulotlarda bolalar birgalikda ijodiy faoliyat olib borib, o‘zaro fikr almashadilar, hamkorlikda qaror qabul qiladilar va muloqot qilish orqali ijtimoiy hamda nutqiy faollikni rivojlantiradilar. Natijada, bolalarda jamoada ishlash, fikrlarni erkin ifodalash va nutq orqali hamkorlik qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarni art terapiya vositalari orqali rivojlantirish – bu zamonaviy pedagogik yondashuv bo‘lib, u bolalarning nafaqat nutq rivojlanishiga, balki hissiy va ijtimoiy faolligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. San’at jarayoni orqali bolalar muloqotga jalb bo‘lib, o‘z fikrini tushunarli ifodalashga o‘rganadi, motivatsiyasi oshadi va guruh muhitida o‘zini his qilish qobiliyati mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. Toshkent, 2018.
2. UNICEF. Early Childhood Development and Inclusive Education. New York, 2017.
3. Rauf Mavlonov. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). Geneva, 2001.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SHAKLLARI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti. P.f.f.d. (PhD).
Toshpo‘latova Zulfiya Murtoza qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda boshlang‘ich ta’lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy shakllari yoritilgan. Geymifikatsiyaning ta’limiy jarayonga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish hamda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida o‘yin elementlari, raqamli platformalar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali*

samarali o‘qitish muhitini yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari geymifikatsiya texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim sifati va natijadorligini oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, geymifikatsiya, o‘yin texnologiyalari, ta’lim jarayoni, o‘quv motivatsiyasi, interaktiv metodlar, raqamli ta’lim.*

Zamonaviy ta’lim tizimida, xususan, boshlang‘ich maktab bosqichida o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasining pasayishi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. An’anaviy o‘qitish usullari raqamli muhitda ulg‘ayayotgan, interaktiv va dinamik axborot oqimiga moslashgan bolalarning e’tiborini doimo jalb eta olmaydi. Shu sababli ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurati yuzaga kelmoqda. Shunday yondashuvlardan biri o‘yin mexanikasini o‘quv jarayoniga tatbiq etishga asoslangan gamifikatsiya hisoblanadi. Gamifikatsiya ta’lim jarayonini har bir o‘quvchi faol ishtirok etadigan va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘lgan qiziqarli jarayonga aylantiradi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari hamda ularning o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. [1; 60-b.]

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan munosabat, motivatsiya va asosiy o‘quv ko‘nikmalar shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda ta’lim jarayonini qiziqarli, faol va samarali tashkil etish o‘qituvchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Shunday yondashuvlardan biri sifatida geymifikatsiya texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Geymifikatsiya – bu o‘yin elementlari va mexanizmlarini o‘yin bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarga, jumladan, ta’lim jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarning faolligi va qiziqishini oshirishga qaratilgan texnologiyadir. Boshlang‘ich ta’limda geymifikatsiyadan foydalanish o‘quvchilar psixologik xususiyatlariga mos kelib, ularning o‘yin orqali bilim olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy shakllariga ball va reyting tizimi, darajalar bo‘yicha rivojlanish, mukofotlar va rag‘batlantirish mexanizmlari, o‘yinlashtirilgan topshiriqlar hamda musobaqaviy faoliyatlarni kiritish mumkin. Ball va darajalar tizimi o‘quvchilarda taraqqiyot hissini uyg‘otib, ularni yangi yutuqlarga erishishga undaydi. Mukofotlar va nishonlar esa o‘quvchilarning mehnatini e’tirof etish vositasi bo‘lib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi [2; 243-b.]. Shuningdek, geymifikatsiyalashgan topshiriqlar va interaktiv mashqlar o‘quv materialini oson va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. O‘yin elementlari bilan boyitilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini jamlashga, mustaqil fikrlashga hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, jamoaviy o‘yinlar orqali hamkorlik, muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Gamifikatsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy mazmuni ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini joriy etish orqali o‘rganishni yanada qiziqarli va jozibador holga keltirishdan iborat. Ayniqsa, o‘yin asosidagi faoliyat turlarini tez va samarali qabul qiladigan boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun gamifikatsiya o‘quv jarayoniga

bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish va ta’lim natijalarini yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi.

Gamifikatsiyaning nazariy asoslari ball to‘plash, bosqichlar (darajalar)dan o‘tish, mukofotlar va reyting tizimlari kabi mexanizmlarga tayangan holda shakllanadi. Ushbu elementlar o‘quvchilarda rivojlanish va muvaffaqiyat hissini uyg‘otib, ularni ta’lim jarayonida faolroq ishtirok etishga rag‘batlantiradi. Masalan, topshiriqlarni bajarish yoki o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish natijasida ball to‘plash va yangi bosqichga ko‘tarilish imkoniyati o‘quvchilarga o‘z yutuqlarini anglash va keyingi muvaffaqiyatlarga intilishiga yordam beradi. Mukofotlar hamda belgilar esa o‘quvchining sa’y-harakatlari va erishilgan natijalarini e’tirof etuvchi qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. [3; 590-b.]

Boshlang‘ich maktab ta’limida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bir qator muhim afzalliklarga ega. *Avvalo,* o‘yinlar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu jihat, ayniqsa, o‘qishga bo‘lgan munosabati endigina shakllanayotgan kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun nihoyatda muhimdir. O‘yin elementlari dars jarayonini jonlantirib, uni yanada qiziqarli va emotsional qiladi, natijada o‘quvchilarning e’tibori va diqqatini uzoqroq saqlashga yordam beradi. *Ikkinchidan,* gamifikatsiya o‘quvchilarda mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va belgilangan natijalarga erishish jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish hamda mas’uliyat hissini shakllantiradilar. *Uchinchidan,* ilmiy tadqiqotlar o‘yin mexanikasidan foydalanish ta’lim natijalarining yaxshilanishiga olib kelishini ko‘rsatadi. O‘quv materiali interaktiv va o‘yin shaklida taqdim etilganda, bolalar uni tezroq va mustahkamroq o‘zlashtiradilar. Bundan tashqari, gamifikatsiya ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘plab o‘yin mexanizmlari hamkorlik va o‘zaro muloqotni talab etib, o‘quvchilarning jamoada ishlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. [4; 20-b.]

Boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiyani qo‘llashning amaliy shakllari ham rang-barangdir. Jumladan, Kahoot va Classcraft kabi ta’limiy platformalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu vositalar yordamida o‘qituvchilar interaktiv topshiriqlar, viktorinalar hamda kvestlar yaratib, ularni bajarish jarayonida o‘quvchilarga ball va mukofotlar berish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, Classcraft platformasida o‘quvchilar o‘z qahramonlarini yaratib, o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali bosqichma-bosqich rivojlanadilar. Bu jarayon ta’limni yanada qiziqarli qilish bilan birga, bolalarda strategik fikrlash va rejalashtirish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shuningdek, sinfda mukofotlash tizimini joriy etish – akademik yutuqlar uchun nishonlar yoki sertifikatlar berish – o‘quvchilar motivatsiyasini yanada oshiruvchi samarali usul hisoblanadi.

Gamifikatsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va faolligini oshirishda istiqbolli pedagogik yondashuvdir. U ta’lim jarayonini yanada jozibador qilib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi va o‘quv faoliyati samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, gamifikatsiyani samarali joriy etish uchun uning mumkin bo‘lgan cheklov va xavflarini hisobga olish, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos holda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. [5; 216-b.]

Gamifikatsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. U ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va jozibador shaklda tashkil etib, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi hamda o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘yin elementlarini qo‘llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan cheklov va

xavflarni inobatga olish, shuningdek, gamifikatsiyani o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda gamifikatsiya ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi mumkin bo‘lib, bu o‘qituvchilarga yanada samarali va qiziqarli darslarni tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karl Kapp. Ta’lim va o‘qitishda gamifikatsiya: o‘yin asosidagi metodlar va strategiyalar. – San-Fransisko: Pfeiffer nashriyoti, 2012. – 336 b.

2. Sebastian Deterding, Dixon D., Khaled R., Nacke L. Gamifikatsiya tushunchasiga yondashuv // Inson–kompyuter o‘zaro ta’siri bo‘yicha konferensiya materiallari. – 2011.

3. Fayzullayevna XN. Zamonaviy o‘quv jarayonida o‘yinlashtirishning o‘rni //Akademiya fanlari ombori. – 2023. – V. 4. – B. 589-591.

4. Gee JP. Bizga o‘rganish va savodxonlik haqida qanday video o‘yinlar o‘rgatishi kerak // Ko‘ngilochar kompyuterlar (CIE). – 2003. – V. 1. – B. 20.

5. Fayzullayevna N. Gamifikatsiya tarixi va uning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni| Xaitova| Ko‘p madaniyatli va ko‘p dinli tushunish xalqaro jurnali // Ko‘p madaniyatli va ko‘p dinli tushunish xalqaro jurnali. – 2021. – V. 8. – B. 212-216.

BLUM TAKSONOMIYASI VA GAMIFIKATSIYA INTEGRATSIYASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Urmonova Toshxon Ibragimovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda Blum taksonomiyasi va gamifikatsiya texnologiyasini integratsiyalashuvining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Maqolada bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlari o‘yin faoliyatining mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilib, ijodiy qobiliyat, mantiqiy tafakkurni bosqichma-bosqich o‘sub boruvchi rivojlantirish modeli yoritilgan. Shuningdek, integrativ yondashuvning pedagogik samaradorligi va amaliy afzalliklari ilmiy jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy qobiliyat, integratsiya, Blum taksonomiyasi, gamifikatsiya, maktabgacha ta’lim, ijodiy tafakkur, innovatsion pedagogika, kognitiv rivojlanish.*

Respublikamizda keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan alohida e’tibor va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan bir qator hujjatlar ta’lim sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi: ”Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-19-son farmonida “Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ma’naviy - ahloqiy, ijodiy, jismoniy va har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or tajribalarga muvofiq innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish” masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya hamda o‘yin elementlariga asoslangan gammifikatsiya texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Blum taksonomiyasi bolalarning tafakkur jarayonini oddiy reproduktiv fikrlashdan yuqori darajadagi kreativ fikrlashga olib chiqadi. “Taksonomiya” - bu biror narsani iyerarxik tartib(pastdan yuqoriga qarab) da joylashtirish tamoyili degan ma’noni anglatadi. Ushbu nazariya 1956 yilda Benjamin Blum va uning hamkorlari tomonidan taklif etilgan bo‘lib, u ta’lim maqsadlarini tizimlashtirish imkonini beradi.Ta’limda Blum taksonomiyasi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash kabi aqliy faoliyat bosqichlarini ifoda etadi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) – bu o‘yin dizaynlari elementlari, tamoyillari va maexanikasini o‘yin bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda(ta’lim, ish joyi, marketing) qo‘llashdir. Yoki, bolalarni noananaviy tarzda o‘yin yordamida ta’lim jarayoniga jalb qilish. To‘g‘ri tuzilgan gamifikatsiya foydalanuvchilarning motivatsiyasini hamda ta’lim jarayoniga faollashish ishtiyoqini oshiradi. Amerikalik dasturchi va ixtirochi Nik Pelling uni birinch bor 2002-yilda iste’molga kiritgan. Uning ta’rifi bo‘yicha “Gamifikatsiya bu auditoriya diqqatini jalb qilish va muammolarni hal qilish uchun o‘yin tarzda savollarni taqdim etish va shu asosida fikrlash hamda o‘yin dinamikasidan foydalanish jarayonidir”. Esseks universiteti professori Richard Bartl esa gamifikatsiyaga quyidagicha ta’rif beradi “Gamifikatsiya o‘yin bo‘lmagan narsani o‘yinga aylantirishdir”.

Gamifikatsiyani maktabgacha yosh davridagi bolalar bilan qo‘llash juda katta pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi. Chunki, gamifikatsiya maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Chunki bu davrda yetakchi faoliyat turi - o‘yin hisoblanadi. O‘yin bolaning qiziqishi va ehtiyojlariga mos kelgan holda tashkil etilganda, unda mustaqil fikrlash, tasavvur qilish, muammoli vaziyatlarga moslashish kabi sifatlar rivojlanadi. O‘yin jarayonida bola tengdoshlari bilan muloqot qiladi, rollarni bajaradi, qoidalar asosida harakat qilishni o‘rganadi va ijtimoiy tajriba to‘playdi.

Ta’lim jarayonida Blum taksonomiyasi va gamifikatsiyani qo‘llashning asosiy mexanizmlari: ball va reyting tizimi(har bir topshiriqni bajarganda natijani bilib borish); darajalar (level, bosqichdan-bosqichga o‘sib o‘tish); qahramonli syujet(ertak qahramoni sifatida rol o‘ynash); rag‘bat va mukofotlar (har bir bosqichda mukofotlanib, e’tirof etilib borish); topshiriqlar zanjirining mavjudligi (har bir topshiriq o‘zidan oldingi topshiriqni mantiqiy davomi sifatida ketadi) jarayonni samarali va qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi.

Blum taksonomiyasi va gamifikatsiyani integratsiyalashtirib qo‘llashn afzalliklari: - *Bolada motivatsion ustunlik* – o‘yin muhitining mavjudligi ichki qiziqishni oshiradi; - *Kognitiv tizimlilik* – fikrlash darajalari aniq ketma-ketlikda o‘sib boradi; - *Shaxsiy ijodiy erkinlik* – bolaning fantaziyasi, ijodiy va tasavvur hayol jarayoni qo‘llab quvvatlanadi, cheklanmaydi; - *Qaytar aloqa, refleksiv rivojlanish* – o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmasi shakllanadi; - *Shaxsiy individual yondashuv* – har bir bola o‘z o‘ziga xos psixologik sifatlari(temperament, xarakter,qiziqish, ehtiyoj) rivojlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Blum taksonomiyasi va gamifikatsiya texnologiyasini integratsiyalash maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu model bolalarda nafaqat kreativ tafakkurni, balki mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal qilish va refleksiya ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-19-son farmoni. 5.02.2026

2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T., 2013. - 811 b.

3. Xakimova M.M. Ta’limda simulyatsion geymifikatsiya va uning ahamiyati. Inter education & Global study (Ilmiy-nazariy va metodik jurnal). (online) 2024/4-son. 231 b.

4. Urmonova T.I. Maktabgacha ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari.O‘quv qo‘llanma.// “ZEBO1 PRINT”, 2025. 198 -211 b.

MAKTABGACHA TA’LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT – “UCHINCHI PEDAGOG” SIFATIDA

Urmonova Toshxon Ibragimovna,
Chirchiq DPU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
Ikromova Sarvinoz Rustoy qizi,
Xushvaqtova Gulbadanbegim Sanjar qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati hamda uning bolalar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. “Muhit – uchinchi pedagog” konsepsiyasining nazariy asoslari yoritilib, rivojlantiruvchi muhitning bolalarning ijodiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *rivojlantiruvchi muhit, uchinchi pedagog, maktabgacha ta’lim, ijodiy rivojlanish, pedagogik muhit, Reggio Emiliya yondoshuvi.*

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bolaning rivojlanishida nafaqat pedagog va ota-ona, balki ta’lim muhiti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta’limiy muhitini “uchinchi pedagog” sifatida talqin qilish keng tarqalgan. Mazkur konsepsiya bolalarning mustaqil o‘rganishi, ijodiy fikrlashi hamda faol tajriba orttirishi uchun muhitni pedagogik vosita sifatida ko‘rishga asoslanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni to‘g‘ri tashkil etish bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Jahon pedagogikasida Reggio Emiliya yondashuvining asosiy g‘oyalaridanbiri bolalarni faol ishtirokchi va bilim yaratuvchi sifatida ko‘rishdir. Malagussining fikricha, har bir bola tug‘ilganidanoq o‘zida ulkan bilim olish salohiyatiga ega va ta’lim jarayonida kattalarning vazifasi bolaga ushbu salohiyatini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Bu tizimda bola o‘rganish jarayonining markazida turib, katta insonlar (o‘qituvchi va ota-onalar) yordamchi hamda yo‘naltiruvchi sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda bolalarga “uchinchi muallim” bo‘lib xizmat qiladigan muhit yaratish muhim ahamiyatga ega, ya’ni ta’lim muhiti bolalarni qo‘llab quvvatlaydigan va ularning o‘rganishiga yordam beruvchi interaktiv elementlardan iborat bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlantiruvchi pedagogik muhit esa, maxsus jihozlangan xona, shakllangan bolalar guruhi, rivojlantiruvchi jihozlar va malakali tarbiyachidan iborat bo‘ladi. Bunda asosiy faoliyat rivojlanish markazlarida tashkil etiladi. Tashkilot guruhlarida har bir rivojlanish markazini jihozlashda uning har

bir mayda detallariga ahamiyat berilishi va u bolaning har taraflama taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatishi lozim. Shu bilan birga, rivojlantiruvchi predmetli-fazoviy muhitning mazmuni ham bolaning rivojlanishini ta’minlaydigan ta’lim sohalari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bolalarning individual va jamoaviy faoliyati maktabgacha tizim sharoitida barcha ta’lim yo‘nalishlari bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishga imkon berishi kerak, xususan bolaning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzi,ijtimoiy hissiy rivojlanishi, kommunikativ faolligi, bilish va ijodiy rivojlanganlik darajasini faollashtirishi lozim. Shu bilan birga, rivojlantiruvchi muhitda bolaga yondoshuv, uning mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodkorlik ehtiyojlarini to‘liq qondirishi kerak. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida rag‘batlantiruvchi ta’lim muhiti deganda bolalar rivojlanishi uchun shart-sharoitlar tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- mazmunan boy - davlat o‘quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- o‘zgartuvchan – ta’lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o‘zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o‘zgarishlar bo‘lish imkoniyatini nazarda tutadi;
- polifunksional – rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- muqobil – guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta’minlaydigan turli xil materiallar, o‘yinlar, o‘yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi; o‘yin materialining muntazam ravishda o‘zgartirilishi, bolalarning o‘yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo‘lishi;
- xavfsiz – barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;
- mahalliy sharoitga moslashtirilgan – madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an’analar, tabiatga, iqlimga bog‘liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga mos bo‘lishi;
- shaxga yo‘naltirilgan – pedagog har bir bolaning o‘z qiziqishiga ko‘ra shug‘ullanishini ta’minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o‘yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar) bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida ta’limiy muhitni “uchinchi pedagog“ sifatida tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlantiruvchi muhit bolalarning mustaqil faoliyat yuritishi, ijodiy fikrlashi hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashiga xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar muhitni ilmiy asosda tashkil etishga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan 2-nashri). - T:, 2022
2. A.V.Shin, Sh.Sh.Mirziyoeva, va [boshq.]. Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik. Toshkent. - 2020. 121-b.
3. Tadjiyeva M.X.,Urmonova T.I. Maktabgacha ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2023. 198-b.

4. Parmanova N.B. Redjio Emiliya yondashuvi asosida bolalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish asoslari. / International scientific-pracctical conference “preschool education: quality and efficiency, development perspectives”, december 4-5, 2024. 923-b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY HISSIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART PEDAGOGIKADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Urmonova Toshxon Ibragimovna,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
Shodiyeva Dilorom Sodiqjonovna,
Rizayeva Gulsanam Bahodir qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida artpedagogikaning ahamiyati hamda uning bolalar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, art terapiya, uning turlari qo‘llanilishi, maktabgacha yoshdagi bolalarnini ijtimoiy hissiy rivojlanishiga ta’siri yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *artpedagogika, innovatsion ta’lim, san’at, terapiya, davolash, jarayon, tarbiya, ruhiy, emotsional, testoplastika, origami, kviling, ebru, texnika, mohiyat, amaliy ko‘nikma, ijodkorlik, ta’lim psixoterapiyasi, psixologik korreksiya.*

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar faoliyatini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy layoqatini o‘stirish, ichki imkoniyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalaniladi. Bunday texnlogiyalar juda hilma - hildir. Ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan texnologiyalaridan biri – pedagogikaning bir sohasi bo‘lgan artpedagogika hisoblanadi. Art-pedagogika bu san’at vositalari yordamida ta’lim tarbiyani tashkil qilishga asoslangan innovatsion metod hisoblanadi. Bu san’at va ta’limning sintezi bo‘lib, uning asosiy mohiyati shaxsni san’at vositalari orqali tarbiyalash, rivojlantirish va unga psixologik yordam berishdan iboratdir. Bu jarayon bolalarning ruhiy, emotsional va ijodiy rivojlanishiga ko‘maklashadi. Artpedagogika san’at (tasviriy san’at, musiqa, teatr, raqs) va pedagogikani birlashtirgan, ijodiy faoliyat orqali shaxsni har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash va ta’lim berish metodikasidir. U tanqidiy fikrlashni, madaniy ongni shakllantirish va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni san’at vositasida moslashtirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida noan’anaviy texnikalar asosida tasviriy faoliyat, loy va plastilin ishi, testoplastika, origami, kviling, ebru kabi texnikalarda ishlashni nazarda tutadi. Bu ta’lim va tarbiya jarayonida insonda (shu jumladan, aloxida ta’lim olish ehtiyojlar mavjud bo‘lgan holda) badiiy madaniyatni rivojlantirish va unga turli xil badiiy faoliyat turlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yondashuvni topishda yordam berishdir.

Artpedagogikaning mohiyati ta’lim va tarbiya jarayonida bolada badiiy madaniyatni rivojlantirish hamda unga turli ijodiy faoliyat turlari sohalarda amaliy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam berishdir. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, “san’at” elementidan foydalanishda zamonaviy pedagogika tarbiyachilar tomonidan o‘ziga xos obrazlilik sifatida qabul qilinadi, chunki san’at pedagogikasida

san’at faoliyatning yagona maqsadi emas, balki faqat kasbiy muammolarni hal qilish vositasiga aylanadi. Favqulodda kuchga ega bo‘lgan san’at insonning ichki resurslarini ro‘yobga chiqarishga turtki beradi, uning shaxsiyati va ruhiyatining uyg‘un rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Art pedagogikaning xarakterli jihati shundaki, u rivojlantiruvchi va tarbiyaviy salohiyatga ega badiiy va ijodiy faoliyat vositalariga asoslanadi. Unda badiiy rivojlanish va estetik tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. To‘g‘ri birlashtirilganda, ular ta’lim jarayoniga yangi o‘ziga xos yo‘nalish beradi va bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, artpedagogika artterapiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq holatda keladi. Art-terapiya (inglizcha: art – “san’at” terapiya - davolash) - san’at va ijodkorlikdan foydalanishga asoslangan psixoterapiya va psixologik korreksiyaning yo‘nalishlaridan biridir. Art terapiya dastlab og‘ir hissiyotli bemorlarni davolash usuli sifatida yuzaga kelgan. Hozirda esa, art terapiya deyarli har bir zamonaviy pedagog, psixologalr insonga ta’sir etishning ba’zi bir bosqichlarida unga murojaat qiladilar. Ushbu usullarning turlari davolanish rejimini sezilarli darajada ijobiy tomonga o‘zgarishiga yordam beradi. Ayniqsa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy san’at mashg‘ulotlari bolalarga ta’sir etayotgan salbiy his-tuyg‘ular, jumladan, agressiya, tushkunlik, odamovilikni bartaraf etish va uning ruhiyatini yengillashtirish imkonini beradi.

Art terapiya haqida fikr yuritganda musiqa terapiyasi, rang terapiyasi hamda raqs va harakat terapiyasi alohida o‘rin tutishini e’tirof etish joiz. quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Musiqa terapiyasi bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, stressni kamaytirish ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Hozirda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa terapiyasidan keng foydalaniladi. Musiqaning inson ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta’sirini tasdiqlagan birinchi odamlardan biri yunon olimi va faylasufi Pifagor edi. Yamblichning “Pifagor hayoti to‘g‘risida” asarida, agar kimdir “chiroyli ritmlar va qo‘shiqlarni tinglasa, unda bunday odam musiqiy ta’limni ohang va ritmlardan foydalangan holda, inson axloqi va ehtiroslari davolanadi va aqliy kuchlarning dastlabki uyg‘unligi o‘rnatiladi” deb ta’kidlagan.

Rang terapiyasi (xromoterapiya) - bu inson ruhiyati va jismoniy holatiga turli rangdagi nurlar orqali ta’sir ko‘rsatuvchi muqobil tibbiyot usuli sifatida foydalaniladi. Bu usul ranglarning kayfiyatni ko‘tarish, tetiklik bag‘ishlash va muayyan hissiyotlarni uyg‘otish xususiyatiga asoslanadi. Ranglar yordamida odamlardagi turli holatlarni davolash mumkin allaqachon isbotlangan. Rang terapiyasi bolalarning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turli ranglar bolaning kayfiyatini o‘zgartirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va diqqatni jamlashga yordam beradi. Masalan yorqin va iliq ranglar (qizil, sariq) energiyani oshiradi. Sovuq ranglar (ko‘k, yashil) esa tinchlantiruvchi ta’sirga ega. Neytral ranglar (oq, sutrang) diqqatni jamlashga yordam beradi. Qizil rang: Kuch, tetiklik va energiya bag‘ishlaydi, kayfiyatni ko‘taradi.

Raqs va harakat terapiyasi bolaning jismoniy va emotsional rivojlanishiga yordam beradi. Harakat terapiyasi orqali bolalar o‘z his tuyg‘ularini ifoda etish, jismoniy faolligini oshirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday holda, raqs o‘zini va uning o‘ziga xos individual fazilatlarini tan olish usuliga aylanadi. Bu tananing yashirin imkoniyatlarini tushunishga, o‘z-o‘zini anglashni kengaytirishga va o‘zini ifoda etish va boshqa odamlar bilan muloqot qilishning yangi usullarini topishga yordam beradi. Misol uchun: Erkin harakat va raqs, musiqaga mos improvizatsion harakatlar, jismoniy harakat bilan bog‘liq teatr elementlari.

Xulosa qilib aytganda art pedagogika maktabgacgha yoshdagi bolalarni shunchaki o‘qitish emas balki san’at orqali ularning ichki dunyosini ochish, ichki qo‘rquvlarini yengish va shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan asosiy zamonaviy yondashuvdir. Bu jarayon bolalarning ham aqliy, ham hissiy muvozanatini taminlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurvaliyeva T.L., Gaynazarova G.A., Urmonova T.I. Artpedagogika asoslari. Chischiq. - 2025.

2. Jabborova O., Toshpo‘latova D. Art texnologiya va kreativlik. Chischiq. – 2023.

3. Djamilova N.N. Maktabgacha ta’limda metodika fanlarni o‘qitish texnologiyasi (O‘quv qo‘llanma) Toshkent. – 2018.

4. Urmonova T.I., Tadjiyeva M.X. Maktabgacha ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari. – T. - 2025.

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR VA O‘YINLAR

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU, ”Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Bobojonova Gulchehra Xushnudbek qizi,
Ergashova Shoxina Alisher qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqola kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va o‘yinlarni tahlil qiladi. Unda kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlari – lingvistik, sotsiokultural, strategik, diskurs va pragmatik kompetensiyalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada so‘z boyligini oshirish, nutqiy malakalarni rivojlantirish, tinglash va tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha mashqlar va interaktiv o‘yinlar misollari keltirilgan. Ushbu vositalar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, tezkor javob berish, muloqot madaniyati va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Maqola ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali oshirish uchun amaliy tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, mashqlar, o‘yinlar, nutqiy malakalar, lingvistik kompetensiya, sotsiokultural kompetensiya, diskurs kompetensiya, pragmatik kompetensiya, til o‘qitish, interaktiv metodlar.*

Kirish. Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning til va nutq orqali samarali muloqot qila olish qobiliyati. Bu nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlash, balki ma’no, muloqot madaniyati, tinglash, tushunish va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi davrda kommunikativ kompetensiya nafaqat ta’limda, balki ish va ijtimoiy sohalarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiyani rivojlantirish uchun turli mashqlar va o‘yinlar samarali vosita hisoblanadi, chunki ular o‘quvchilarda interaktiv, ijodiy va motivatsion muhit yaratadi.

1. Kommunikativ kompetensiya komponentlari. Kommunikativ kompetensiya quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1) Lingvistik kompetensiya – tilni bilish va to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati (so‘z boyligi, grammatikani to‘g‘ri ishlatish).

2) Sotsiokultural kompetensiya – muloqot madaniyatini bilish, kontekstni tushunish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

3) Strategik kompetensiya – muloqotda qiyinchiliklarni yengish uchun strategiyalar ishlab chiqish (so‘z topolmaslikda sinonim ishlatish, muammoni hazil bilan yengish).

4) Diskurs kompetensiyasi – uzunroq matn va nutqni mantiqan bog‘lash, hikoya yoki izohlarni to‘g‘ri tuzish.

5) Pragmatik kompetensiya – so‘zlarni vaziyatga mos, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda ishlatish.

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning muloqot jarayonida fikrini aniq, ravon va samarali ifoda eta olish, boshqalarni tinglash va tushunish, ijtimoiy vaziyatga mos ravishda munosabat bildira olish qobiliyatidir. Quyida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali mashqlar va o‘yinlar keltirilgan.

1. “Rolga kirish” (Role-play) o‘yini.

Maqsad: Turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rganish.

Ishtirokchilar ma’lum rollarni (masalan, o‘qituvchi–o‘quvchi, mijoz–sotuvchi, rahbar–xodim) bajaradilar. Har bir vaziyatda muammoni muloqot orqali hal qilish talab etiladi.

Natija: - Nutq ravonligi oshadi; - Ijtimoiy moslashuv kuchayadi; - Empatiya rivojlanadi.

2. “Faol tinglovchi” mashqi.

Maqsad: Tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Bir ishtirokchi 2–3 daqiqa davomida biror mavzuda gapiradi. Ikkinchi ishtirokchi esa uning fikrini bo‘lmasdan tinglaydi va so‘ng mazmunini qayta aytib beradi.

Natija: - Diqqatni jamlash rivojlanadi; - To‘g‘ri tushunish ko‘nikmasi shakllanadi;

3. “Savol-javob zanjiri” o‘yini.

Maqsad: Tezkor fikrlash va savol berish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Ishtirokchilar navbatma-navbat savol berib, javob qaytaradilar. Har bir javob yangi savol bilan yakunlanadi.

Natija: - Mantiqiy fikrlash rivojlanadi; - Muloqot faolligi oshadi.

4. “Munozara” (Debate).

Maqsad: O‘z fikrini himoya qilish va dalillash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Ishtirokchilar ikki guruhga bo‘linadi va berilgan mavzu yuzasidan qarama-qarshi fikrlarni himoya qiladi. Masalan, United Nations modeli asosida tashkil etilgan bahs-munozara usuli (Model UN) o‘quvchilarda rasmiy nutq va diplomatik muloqotni rivojlantiradi.

Natija: - Nutq madaniyati oshadi; - Tanqidiy fikrlash shakllanadi.

5. “Hikoyani davom ettir” o‘yini.

Maqsad: Ijodiy fikrlash va og‘zaki nutqni rivojlantirish.

Bir ishtirokchi hikoyani boshlab beradi, qolganlar navbat bilan davom ettiradilar.

Natija: - Lug‘at boyligi kengayadi; - Tasavvur kuchayadi.

6. “Noverbal muloqot” mashqi.

Maqsad: Tana tili va mimika orqali muloqot qilishni o‘rganish.

Ishtirokchilar so‘z ishlatmasdan his-tuyg‘ularni ifoda etadilar, boshqalar esa topishga harakat qiladi.

Natija: - Emotsional intellekt rivojlanadi; - Noverbal signallarni tushunish kuchayadi.

7. “Aqliy hujum” (Brainstorming)

Maqsad: Guruhda erkin fikr almashishni rivojlantirish.

Ma’lum muammo beriladi va ishtirokchilar tezkor ravishda g‘oyalar bildiradilar. Tanqid qilish taqiqlanadi.

Natija: - Erkin fikrlash; - Jamoaviy muloqot ko‘nikmasi.

Bu jarayonda interaktiv usullardan foydalanish va guruhli ishlash samarali natija beradi.

1. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi. Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning muloqot jarayonida o‘z fikrini aniq, ravon va tushunarli ifoda eta olish, suhbatdoshni tinglash, vaziyatga mos munosabat bildirish hamda ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatidir.

U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) Og‘zaki va yozma nutq madaniyati; 2) Tinglash ko‘nikmasi; 3) Noverbal muloqot (imo-ishora, mimika); 4) Empatiya va ijtimoiy moslashuv.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning nafaqat ta’lim jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim rol o‘ynaydi.

2. Interaktiv usullar va ularning ahamiyati. Interaktiv usullar – bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta’lim metodlaridir. Ular an’anaviy bir tomonlama dars o‘tish usulidan farqli ravishda, o‘quvchini jarayon markaziga qo‘yadi.

a). “Aqliy hujum” metodi. Bu usulda muayyan muammo bo‘yicha o‘quvchilar erkin ravishda g‘oyalar bildiradilar. Tanqid qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Natijada ijodiy va erkin fikrlash rivojlanadi.

b). Klaster usuli. Mavzu markaziy tushunchadan boshlab, unga bog‘liq fikrlarni tizimli ravishda yozish orqali o‘rganiladi. Bu metod mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Guruhli ishlashning pedagogik ahamiyati. Guruhli ishlash – bu o‘quvchilarning kichik jamoalarda hamkorlikda vazifani bajarish jarayonidir. Odatda 3–5 kishilik guruhlar samarali hisoblanadi.

Guruhli ishlashning afzalliklari: 1) Har bir o‘quvchi faol ishtirok etadi; 2) O‘zaro hurmat va tinglash madaniyati shakllanadi; 3) Mas’uliyat hissi oshadi; 4) Hamkorlik va liderlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

a) “Jigsaw” (Pazl) metodi. Bu metodda mavzu qismlarga bo‘linadi. Har bir guruh bir qismini o‘rganib, keyinchalik umumiy natijani shakllantiradi. Bu usul o‘zaro o‘qitish va bilim almashishni kuchaytiradi.

b) Davra suhbati: Ishtirokchilar aylana shaklida joylashib, erkin fikr almashadilar. Bu ochiq va teng huquqli muloqot muhitini yaratadi.

4. Interaktiv usullarni qo‘llash shartlari. Interaktiv metodlardan samarali foydalanish uchun quyidagilarga e’tibor berish zarur: - Ijobiy psixologik muhit yaratish; - Har bir o‘quvchining fikrini hurmat qilish; - Aniq vazifa va vaqt chegarasini belgilash; - Baholash mezonlarini oldindan tushuntirish.

Xulosa. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun: Interaktiv usullardan foydalanish, guruhli ishlarga e’tibor berish, erkin va ijobiy muloqot muhitini yaratish muhim. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki o‘z fikrini erkin bayon eta olishlari, boshqalarni tinglashlari va samarali muloqot qila olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Interaktiv usullardan foydalanish va guruhli ishlash kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasidir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nutq madaniyatini, mustaqil fikrlashini, jamoada ishlash ko‘nikmasini va ijtimoiy faolligini oshiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki muloqotni tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shundagina ta’lim samaradorligi oshadi va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki o‘z fikrini erkin va ravon ifoda eta olish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda interaktiv mashqlar va didaktik o‘yinlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Turli rolli o‘yinlar, savol-javob mashqlari, rasm asosida hikoya tuzish, so‘z zanjiri kabi faol metodlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va nutqiy faolligini kuchaytiradi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi, jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi hamda muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiokultural va pragmatik jihatlarning uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Mashqlar va o‘yinlar aynan shu komponentlarni kompleks tarzda shakllantirish imkonini beradi. Demak, ta’lim jarayonida kommunikativ yo‘naltirilgan mashqlar va o‘yinlardan tizimli ravishda foydalanish o‘quvchilarning nutqiy salohiyatini oshiradi, ularni ijtimoiy hayotga faol va muvaffaqiyatli tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent. 2008.
3. Lev Vygotsky. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
4. John Dewey. Democracy and Education. – 1916.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA KOMPETENT O‘QUVCHILARNING ROLI

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Ergasheva Ruxsora Alisher qizi,
Toshpulatova Shodiyona Jahongir qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotasiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda kompetent o‘quvchilarning roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati, uning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda kompetent o‘quvchini shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi.*

Kalit so‘z: *Ta’lim, sifat, kompetent, malaka, ko‘nikma, interaktiv, metod.*

Kirish. Globallashuv jarayonida ta’lim tizimining oldiga qo‘yilayotgan asosiy talab – raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdir. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan “hayot davomida ta’lim olish” konsepsiyasi zamonaviy ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich maktablar sifatini oshiradigan maktab direktorlarini aniqlashdir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Mazkur bosqichda shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar keyingi ta’lim bosqichlarining muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda kompetent o‘quvchilarni shakllantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kompetensiya tushunchasi pedagogika fanida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo‘llanila boshladi. Tadqiqotchilarning fikricha, kompetensiya — bu shaxsning muayyan vaziyatda bilim, ko‘nikma va tajribani samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetentlik esa o‘quvchining real faoliyat jarayonida o‘z bilimini amaliyotga tatbiq eta olish darajasini ifodalaydi.

Kompetent o‘quvchilar quyidagi jihatlar orqali ta’lim sifatini oshiradi: 1. Dars jarayonida interaktiv muhitni shakllantiradi. 2. Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. 3. Muammoli vaziyatlarda ijodiy yondashuvni namoyon etadi. 4. O‘quv natijalarining barqarorligini ta’minlaydi.

Ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan STEAM yondashuvi, loyiha metodi va muammoli ta’lim kompetentlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Kompetent o‘quvchi o‘z faoliyatini rejalashtira oladi, maqsad qo‘ya oladi va natijani baholashga qodir bo‘ladi. Bunday o‘quvchilarda refleksiya ko‘nikmasi shakllanadi. Refleksiya — bu o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusida takomillashtirishga intilish jarayonidir. Ta’lim sifatining oshishi aynan shu jarayon bilan chambarchas bog‘liq, chunki o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Boshlang‘ich ta’limda kompetentlikni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta’lim o‘quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglashga yordam beradi. Masalan, matematik masalalarni turli usulda yechish, ona tilida matn ustida ijodiy ishlash yoki atrof-muhit hodisalarini kuzatish asosida xulosa chiqarish o‘quvchining amaliy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya boshlang‘ich ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. O‘quvchi o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq ifoda eta olsa, jamoada ishlay olsa va muloqot madaniyatiga ega bo‘lsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Guruhli ishlash, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar kabi metodlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Boshlang‘ich ta’limda kompetent o‘quvchini shakllantirish o‘qituvchining kasbiy mahoratiga ham bog‘liqdir. O‘qituvchi innovatsion metodlardan foydalana olsa, darsni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lay olsa va individual yondashuvni ta’minlay olsa, o‘quvchilarda kompetentlik tezroq shakllanadi. Shu bois ta’lim sifatini oshirish masalasi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining uyg‘unligiga tayanadi.

Umuman olganda, kompetent o‘quvchi — bu bilimni amaliyotga qo‘llay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxsdir. Aynan shunday o‘quvchilar mavjud bo‘lgan ta’lim muhitida sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. Demak, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish strategiyasida kompetentlikni shakllantirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda kompetent o‘quvchilarning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol va mustaqil fikrlovchi subyektga aylantiradi. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’lim tizimida kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan metodik ta’minotni takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va baholash tizimini modernizatsiya qilish ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. (2015). Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO Publishing.

2. Shadrikov, V.D. (2003). Pedagogikal Competence of the Teacher. Moscow: Pedagogika.

3. Kozlov, A.N., & Ivanova, E.P. (2017). Competency-Based Approach in Primary Education. Journal of Educational Theory, 12(3), 45–59.

4. Кузнецова, И.В. (2019). STEAM Approach in Primary Education: Methodology and Practice. Moscow: Akademiya.

O‘QUVCHILARNING YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLISH KOMPETENSIYASI

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi,
Jo‘raqulova Farzona Islom qizi,
Soliyeva Dilshunoz Shavkatjon qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kompetensiyasining nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, differensial yondashuv va pedagogik diagnostika masalalari tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy o‘zbek pedagogik adabiyotlari asosida ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik kompetensiya, yosh xususiyatlari, individual yondashuv, differensial ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik diagnostika.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos psixologik, fiziologik va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni e’tiborga olmaslik ta’lim samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu bois, o‘qituvchining o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kompetensiyasi ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiya tushunchasi va uning mazmuni. Pedagogik kompetensiya – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir (Sobirova, 2023). Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida natijaga yo‘naltirilganlikni ta’minlaydi.

O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kompetensiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: - yosh davrlariga xos psixologik qonuniyatlarni bilish; - individual farqlarni aniqlash va tahlil qilish; - ta’lim mazmunini moslashtirish; - differensial va individual yondashuvni qo‘llash; - pedagogik refleksiyani amalga oshirish.

Bu kompetensiya o‘qituvchining metodik mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ularning pedagogik ahamiyati. Yosh psixologiyasi ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi (Juraev, 2021).

Boshlang‘ich sinf yoshi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq obrazli fikrlaydi, o‘yin orqali o‘rganishga moyil bo‘ladi. Ularning diqqat barqarorligi nisbatan past bo‘lib,

tez-tez faoliyat turini o‘zgartirish zarur. Shu sababli ko‘rgazmali vositalar, interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘rta sinf yoshi. Bu davrda mantiqiy fikrlash rivojlanadi, mustaqillikka intilish kuchayadi. O‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishga qiziqadi. Shuning uchun muammoli ta’lim, munozara va loyiha metodlari samarali hisoblanadi.

Yuqori sinf yoshi. Yuqori sinflarda kasbiy yo‘nalish shakllanadi, tanqidiy fikrlash rivojlanadi. O‘quvchilarga mustaqil tadqiqot ishlari, loyiha va tahliliy topshiriqlar berish samarali natija beradi (Abdullayev, 2020).

Individual xususiyatlarni hisobga olishning nazariy asoslari. Har bir o‘quvchi: - o‘ziga xos idrok etish uslubiga; - o‘zlashtirish tezligiga; - qiziqish va motivatsiya darajasiga; - temperament va xarakter xususiyatlariga ega.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi (Karimov, 2019). Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlab, ta’lim jarayonini moslashtiradi.

Differensial ta’lim texnologiyalari turli darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqish, guruhlarga ajratib ishlash va individual maslahat berish orqali individual farqlarni hisobga olish imkonini beradi (Islomova, 2022).

Kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari. Mazkur kompetensiyani shakllantirish quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

Nazariy tayyorgarlikni mustahkamlash – yosh psixologiyasi va pedagogika fanlarini chuqur o‘rganish.

Pedagogik diagnostika – kuzatuv, suhbat, test va monitoring usullaridan foydalanish.

Differensial yondashuvni qo‘llash – turli murakkablikdagi topshiriqlar berish.

Refleksiya – o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish.

O‘qituvchining mazkur kompetensiyasi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish va ta’lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar. 1) darsni rejalashtirishda yosh xususiyatlarini inobatga olish; 2) har bir o‘quvchining rivojlanish xaritasini yuritish; 3) rag‘batlantirish va motivatsiyani kuchaytirish; 4) iqtidorli va sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan alohida ishlash.

Bu tavsiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kompetensiyasi o‘qituvchining muhim kasbiy sifatlaridan biridir. Ta’lim jarayonini yosh davrlari va individual farqlarga moslashtirish orqali o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash mumkin. Shaxsga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, R.S. (2020). Pedagogik psixologiya nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sharq.

2. Jurayev, B.A. (2021). Ta’lim psixologiyasi va yosh xususiyatlari. Toshkent: Akademnashr.

3. Islomova, M.N. (2022). Differensial ta’lim texnologiyalari. Samarqand: Fan va ta’lim.

4. Karimov, F.T. (2019). Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari. Toshkent: Bilim.

O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O‘SISH REJASINI TUZISH

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Isamitdinova Gulsevar Ulug‘bek qizi,
Ko‘charova Aziza Baxtiyor qizi,
Chirchiq DPU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotasiya. *Ushbu ishda o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish rejasini tuzishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Shaxsning o‘z ustida ishlashi, maqsadlarni to‘g‘ri belgilashi va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishi kasbiy muvaffaqiyatning muhim omili ekani asoslab beriladi. Shuningdek, uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni aniqlash, shaxsiy kompetensiyalarni baholash, vaqtni samarali boshqarish va natijalarni tahlil qilish usullari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar. *o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy o‘sish, shaxsiy reja, maqsad qo‘yish, kompetensiya, motivatsiya, vaqtni boshqarish, malaka oshirish.*

Kirish. O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish inson hayotidagi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bugungi tezkor va raqobatbardosh jamiyatda shaxsiy va professional kompetensiyalarni muntazam takomillashtirib borish muvaffaqiyatning kalitidir. O‘z-o‘zini rivojlantirish shaxsning bilim, ko‘nikma, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini yaxshilashni nazarda tutadi. Kasbiy o‘sish esa ish faoliyati doirasida malaka, tajriba va professional mahoratni oshirish orqali shaxsning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish rejasini tuzish orqali inson: - o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi; - maqsadlarni aniq belgilaydi; - o‘z vaqtini samarali boshqaradi; - natijalarni baholash va kelajak uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish jarayoni shaxsning intizomi, motivatsiyasi va ijobiy odatlariga bog‘liq bo‘lib, muntazam va tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu bois, ushbu mavzu zamonaviy ta’lim va ish bozorida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – bu shaxsning o‘z qobiliyatlarini, bilimlarini, ko‘nikmalarini va fazilatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish jarayoni. Bu jarayon shaxsning ichki motivatsiyasi, qiziqishlari va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: 1. Shaxsiy bilim va ko‘nikmalarni oshirish – kitoblar o‘qish, kurslar, treninglar. 2. Shaxsiy fazilatlarni shakllantirish – sabr, intizom, mas’uliyat. 3. Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish – muloqot, jamoa bilan ishlash, muammolarni hal qilish.

Shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish insonning hayot sifati va ruhiy barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, stressni kamaytiradi va qaror qabul qilishni yaxshilaydi.

Kasbiy o‘sish. Kasbiy o‘sish – bu ish faoliyati davomida malaka va tajribani oshirish, professional kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni. U quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: 1. Malaka oshirish va sertifikatlar olish – soha bo‘yicha qo‘shimcha bilimlar va rasmiy hujjatlar. 2. Tajriba va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash – loyihalarda ishtirok etish, yangi vazifalarni bajarish. 3. Kasbiy tarmoqlarda aloqalar o‘rnatish – mentorlar, hamkasblar bilan muloqot.

Kasbiy o‘sish shaxsni ish bozorida raqobatbardosh qiladi, ish unumdorligini oshiradi va yangi imkoniyatlar ochadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish rejasining ahamiyati.

Shaxsiy va professional maqsadlarni rejalashtirish quyidagilarga yordam beradi: 1. Maqsadlarga erishish uchun aniq yo‘l xaritasini ishlab chiqish. 2. O‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularni rivojlantirish yoki yaxshilash. 3. Vaqt va resurslarni samarali boshqarish. 4. Natijalarni baholab, yangi strategiyalarni ishlab chiqish.

Tizimli reja insonni muntazam o‘sishga, yangi imkoniyatlardan foydalanishga va shaxsiy muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Xulosa. O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat mavjud bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Shaxsiy rivojlanish insonning ichki salohiyatini ochib berishga xizmat qilsa, kasbiy o‘sish uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Maqsadlarni aniq belgilash, reja asosida harakat qilish, vaqtni samarali boshqarish va natijalarni tahlil qilib borish doimiy o‘sishning asosiy omillaridir. O‘z ustida ishlaydigan, intizomli va motivatsiyaga ega shaxs har qanday sohada yuqori natijalarga erisha oladi. Shunday qilib, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish rejasini tuzish va unga amal qilish shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati, barqarorligi va professional kamoloti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish har bir insonning muvaffaqiyatga erishishida muhim omildir. Doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarni oshirib borish shaxsiy va professional kamolotni ta’minlaydi. Aniq maqsad qo‘yish, reja asosida harakat qilish va o‘z ustida muntazam ishlash insonni raqobatbardosh va yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Abdullayev A. Shaxs kamoloti va o‘z-o‘zini rivojlantirish asoslari. – T.: Fan, 2015.
4. Yo‘ldoshev J. Kasbiy pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

O‘QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH KOMPETENSIYASINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Malikova Santalatxon Qodir qizi,
Umurzakova Hayitxon Xasanboy qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchining o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida faoliyatni samarali tashkil etish va adolatli baholash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kompetensiyani rivojlantirishning amaliy yo‘llari va pedagogik tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, baholash, o‘quv faoliyati, pedagogik texnologiyalar, formatif baholash, summativ baholash, refleksiya.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. O‘qituvchidan nafaqat bilim berish, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, muammoni hal qilishga va o‘z faoliyatini baholay olishga o‘rgatish talab etilmoqda. Shu bois o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasi o‘qituvchining muhim kasbiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiya ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

1. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish kompetensiyasining mohiyati. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi – bu o‘qituvchining dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan kasbiy qobiliyatidir.

Mazkur kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: - didaktik komponent (maqsadni aniqlash, darsni rejalashtirish); - kommunikativ komponent (muloqot va hamkorlikni tashkil etish); - tashkiliy komponent (guruhli, juftlikda ishlash); - refleksiv komponent (o‘z faoliyatini tahlil qilish).

O‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil etishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va loyiha ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Baholash kompetensiyasining mazmuni. Baholash kompetensiyasi – bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini obyektiv, shaffof va tizimli baholash qobiliyatidir. Baholash faqat yakuniy natijani aniqlash emas, balki ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Baholashning asosiy vazifalari: o‘quvchi bilim darajasini aniqlash, kamchiliklarni belgilash, rivojlanish dinamikasini kuzatish, motivatsiyani kuchaytirish.

Baholash turlari quyidagilardan iborat: - diagnostik baholash; - formatif (joriy) baholash; - summativ (yakuniy) baholash; - o‘z-o‘zini baholash; - o‘zaro baholash.

3. Faoliyatni tashkil etish va baholashning o‘zaro bog‘liqligi. Faoliyatni tashkil etish va baholash jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Agar o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etsa, baholash natijalari ham aniq va ishonchli bo‘ladi. Baholash esa o‘qituvchiga keyingi faoliyatni rejalashtirishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda: kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiya metodlari katta ahamiyatga ega.

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda: - loyiha metodi; - muammoli ta’lim; - klaster va insert texnologiyasi; - aqliy hujum; - debat va rolli o‘yinlar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida: elektron testlar, interaktiv taqdimotlar, onlayn baholash tizimlari joriy etilmoqda. Bu esa baholashning aniqligi va shaffofligini ta’minlaydi.

5. Kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi shartlar muhim: - o‘qituvchining metodik tayyorgarligi; - baholash mezonlarining aniqligi; - rag‘batlantiruvchi muhit yaratish; - doimiy refleksiya va tahlil.

O‘qituvchi baholash jarayonida tanqidiy yondashuvdan ko‘ra, qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi yondashuvni ustuvor qilishi lozim.

1. Kompetensiya tushunchasining ilmiy mazmuni. Kompetensiya – bu shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarining majmui bo‘lib, muayyan faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Pedagogik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: - kognitiv komponent (bilimlar majmui); - amaliy-operatsion komponent (ko‘nikma va malakalar); - motivatsion komponent (qiziqish va ehtiyojlar); - refleksiv komponent (o‘z faoliyatini tahlil qilish).

2. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish kompetensiyasining tuzilmasi. O‘qituvchining o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi: a). Didaktik kompetensiya: darsni rejalashtirish; o‘quv maqsadlarini aniqlash; ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash; o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish. b). Kommunikativ kompetensiya: o‘quvchi bilan muloqot qilish; hamkorlik muhiti yaratish; bahs-munozaralarni tashkil etish; ijobiy psixologik muhitni ta’minlash. c). Diagnostik kompetensiya: o‘quvchilar bilim darajasini aniqlash; individual yondashuvni belgilash; qiyinchiliklarni tahlil qilish. d). Innovatsion kompetensiya: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash; raqamli vositalardan foydalanish; kreativ dars modellarini yaratish.

3. Baholash kompetensiyasining ilmiy asoslari. Baholash kompetensiyasi – bu faqat baho qo‘yish emas, balki: o‘quv jarayonini monitoring qilish; rivojlanish dinamikasini aniqlash; tahlil va teskari aloqani ta’minlashdir.

Baholashning asosiy tamoyillari: - obyektivlik; - shaffoflik; - uzluksizlik; - adolat; - rivojlantiruvchanlik.

4. Faoliyatni tashkil etishning metodik mexanizmlari. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: muammoli ta’lim; loyiha metodi; case-study; klaster; aqliy hujum; debat; rol o‘ynash; blits-so‘rov.

Bu metodlar orqali o‘quvchi: mustaqil fikrlaydi; muammo yechadi; jamoada ishlaydi; mas’uliyatni his qiladi.

5. Axborot texnologiyalarining o‘rni. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishda katta imkoniyat yaratadi: - elektron testlar; - interaktiv taqdimotlar;

- virtual laboratoriyalar; - onlayn baholash platformalari (Google Forms, Kahoot, Quizizz).

Bu vositalar: vaqtni tejaydi; natijani aniq ko‘rsatadi; o‘quvchini faollashtiradi.

6. Kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli. Model 4 bosqichdan iborat: a) Rejalashtirish bosqichi: (maqsad, vazifa, mezonlar). b) Tashkil etish bosqichi: (metodlar, vositalar, texnologiyalar). c) Baholash bosqichi: (test, kuzatuv, tahlil). d) Refleksiya bosqichi: (xatolarni aniqlash, takomillashtirish)

Pedagog uchun tavsiyalar: O‘qituvchi: darsni puxta rejalashtirsin; baholash mezonlarini oldindan e’lon qilsin; o‘quvchini rag‘batlantirsin; tanqid emas, motivatsiya bersin; refleksiya o‘tkazsin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu kompetensiya o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligi va sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish orqali ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda bilim olishga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi.

Baholash kompetensiyasi esa nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish, kamchiliklarini bartaraf etish va o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Formatifik va summativ baholash turlarining uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilar bilimining obyektiv va adolatli baholanishini ta’minlaydi hamda ularda o‘z-o‘zini baholash va o‘z

faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash jarayonini yanada samarali va shaffof qilish imkonini beradi. Loyiha metodi, muammoli ta’lim, debat, klaster, aqliy hujum kabi metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, muloqot madaniyatini va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Natijada, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasiga ega bo‘lgan pedagog o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil bilim olishga yo‘naltiradi hamda shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Ushbu kompetensiyani doimiy ravishda rivojlantirib borish orqali ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash mumkin. Shu bois, har bir pedagog o‘z kasbiy faoliyatida o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash kompetensiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlardan samarali foydalanishi zarur. Bu esa ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. R.Jo‘rayev. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
4. X. To‘xtayeva. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2021.

KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNING O‘RNI

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Murodjonova Nigora Sobirjonovna,
Rajabova Muhayyo O‘ktamovna,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari hamda talabalarda kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Amaliy faoliyatning bilim, ko‘nikma va malakani mustahkamlashdagi o‘rni ilmiy-asosli misollar orqali yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya; kompetensiyaviy yondashuv; amaliy mashg‘ulot; kasbiy malaka; ta’lim samaradorligi; metodika; mustaqil fikrlash; innovatsiya.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv yetakchi o‘rin egallamoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchi va talabalarda amaliy faoliyatga tayyorgarlik, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, amaliy mashg‘ulotlar kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

1. Kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari. “Kompetensiya” atamasi shaxsning ma’lum bir faoliyat sohasida samarali ish olib borish qobiliyatini anglatadi. U faqat bilim yig‘indisi emas, balki bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg‘unlashgan tizimidir. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi — o‘quvchini

real hayotiy vaziyatlarda mustaqil va samarali faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Pedagogik nuqtai nazardan kompetensiyalar umumiy (ijtimoiy, kommunikativ, axborot bilan ishlash) va kasbiy (muayyan soha bo‘yicha maxsus bilim va malaka) turlarga ajratiladi. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida nazariy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2. Amaliy mashg‘ulotlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Amaliy mashg‘ulotlar — o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini beruvchi ta’lim shaklidir. Laboratoriya ishlari, seminar mashg‘ulotlari, loyiha ishlari, treninglar va ishlab chiqarish amaliyoti shular jumlasidandir.

Amaliy mashg‘ulotlar quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir: 1. Nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va tizimlashtiradi. 2. Mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. 3. Jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi. 4. Mas’uliyat va tashabbuskorlikni oshiradi. 5. Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Amaliy jarayonda talaba bevosita faol ishtirok etadi. Bu esa passiv o‘zlashtirishdan faol o‘rganishga o‘tishni ta’minlaydi. Natijada, o‘zlashtirilgan bilim uzoq muddat saqlanadi va real vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati ortadi.

3. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda amaliy faoliyatning ahamiyati. Kasbiy ta’lim tizimida amaliy mashg‘ulotlar alohida o‘rin tutadi. Chunki mutaxassisning haqiqiy tayyorgarligi uning amaliy ko‘nikmalari bilan belgilanadi. Masalan, pedagogika yo‘nalishida pedagog olayotgan talaba nazariy metodik bilimlarni o‘rganish bilan birga, dars ishlanmasini tuzish, ochiq dars o‘tish, tarbiyaviy tadbir tashkil etish kabi amaliy vazifalarni bajarishi lozim.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida talaba quyidagilarni o‘zlashtiradi: 1) o‘z bilimini amaliy vaziyatda qo‘llash; 2) muammoli holatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish; 3) kasbiy etikaga rioya qilish; 4) o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash. Shuningdek, amaliy faoliyat refleksiya jarayonini kuchaytiradi. Talaba o‘z xatolarini anglaydi, ularni tuzatish yo‘llarini izlaydi va bu orqali shaxsiy rivojlanishga erishadi.

4. Innovatsion metodlar va amaliy mashg‘ulotlar integratsiyasi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliy mashg‘ulotlarni yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Keys-stadi, loyiha metodi, muammoli ta’lim, interaktiv o‘yinlar kabi usullar kompetensiyani shakllantirishda yuqori natija beradi. Bu metodlar orqali talaba real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlarni bajaradi. Raqamli texnologiyalar ham amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirmoqda. Virtual laboratoriyalar, onlayn simulyatsiyalar va pedagogik platformalar orqali talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanadi.

Xulosa. Kompetensiyani shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ular nazariy bilimlarni mustahkamlash, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va shaxsning mustaqil faoliyatga tayyorligini ta’minlaydi. Zamonaviy ta’lim jarayonida amaliy faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyaviy yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim tizimida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish va ularni innovatsion metodlar asosida tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T.: 2020.
2. Azizxo‘jayeva, N.N. Pedagogik mahorat. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. 2006.

3. Qosimova, K., & Yo‘ldoshev, J. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: Fan nashriyoti. 2013.

DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Muslimbekova Nigora Bahtiyor qizi,
Tursunboyeva Mahfuza Muzaffar qizi,
Chirchiq DPU, Bo‘shlang‘ich ta’lim yo‘nalish talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqola darsda interfaol metodlardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalarini o‘rganadi. Guruh ishlari, rol o‘yinlari va interfaol texnologiyalar kabi metodlar o‘quvchilarning fikrlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar va ularning afzalliklari keltirilgan*

Kalit so‘zlar: *interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, guruh ishlari, rol o‘yinlari, dars jarayoni*

Kirish. Darsda interfaol metodlardan foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish bugungi ta’lim tizimida dolzarb masalalardan biridir. An’anaviy dars metodlari ko‘pincha o‘quvchilarning passiv qabul qiluvchi bo‘lishiga olib keladi, bu esa bilimning uzoq muddat saqlanishiga va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanmasligiga sabab bo‘ladi. Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan interfaol metodlar, o‘quv jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirishga qaratilgan. Interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, ularni fikrlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, guruh ishlari orqali o‘quvchilar muammolarni turlicha yondashuv bilan hal qilishni o‘rganadi, rol o‘yinlari esa tarixiy va ijtimoiy voqealarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida darslar interfaol va qiziqarli bo‘ladi, o‘quvchilar bilimni mustahkamlash va baholash jarayonida faol ishtirok etadi**.**

Asosiy qisim. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu orqali o‘quvchilar bilimni nafaqat eslab qoladi, balki uni amaliyotda qo‘llashga ham o‘rgatiladi. Interfaol metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qiladi, o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni dars jarayonida passiv qabul qiluvchidan faol qatnashuvchiga aylantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

Interfaol metodlarning mohiyati. Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi, muammolarni hal qilish, fikrlash va muloqot orqali bilim olishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir (Bonwell & Eison, 1991). Ushbu metodlar nafaqat bilimni tezroq va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar: - bilimni amaliyotga tadbiq etadi; - jamoaviy muhokama va hamkorlikni rivojlantiradi; - tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi; - o‘z fikrini aniq ifodalashga o‘rganadi.

Darsda qo‘llaniladigan asosiy interfaol metodlar. *a) Guruh ishlari.* Guruh ishlari o‘quvchilarda muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, matematik

masalalarni guruhda muhokama qilish o‘quvchilarga masalani turlicha yondashuv bilan hal qilish imkonini beradi (Slavin, 2015). Shu bilan birga, guruh ishlari o‘quvchilar orasida mas’uliyatni bo‘lish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

b) Rolli o‘yinlar. Rol o‘yinlari ijtimoiy va emosional ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, tarix darsida tarixiy shaxslarni sahnalashtirish orqali o‘quvchilar voqealarni yaxshiroq tushunadi va o‘z qarashlarini muhokama qiladi (Liu, 2019). Bu metod o‘quvchilarda empatiya va kommunikatsiya ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

c) Brainstorming va muhokama. Brainstorming metodida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha turli fikrlarni ilgari suradi va muhokama qiladi. Bu ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Osborne, 2010). Shu metod yordamida o‘quvchilar bir-birining g‘oyalarini tahlil qiladi va eng samarali yechimni tanlashni o‘rganadi.

d) Interfaol texnologiyalar. Zamonaviy darslarda digital vositalar – Kahoot, Mentimeter, Quizlet kabi platformalar – interfaol o‘quv jarayonini ta’minlaydi (Hwang et al., 2017). Ushbu vositalar o‘quvchilarni tezkor javob berishga, bilimni mustahkamlashga va baholash jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyalar darslarni qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qiladi.

Interfaol metodlarning afzalliklari. 1. O‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi (Freeman et al., 2014). 2. Mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 3. Bilimlarni uzoq muddat saqlash imkonini beradi. 4. O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. 1. Dars rejasi interfaol metodlarni hisobga olgan holda tuzilishi kerak. 2. Har bir metod mavzu va maqsad bilan uyg‘un bo‘lishi zarur. 3. O‘quvchilarning individual xususiyatlari va qobiliyatlari hisobga olinishi lozim. 4. Texnologiyalardan foydalanishda vaqtni nazorat qilish va darsni maqsadga muvofiq tashkil qilish muhim.

Xulosa. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda bilimni uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Guruh ishlari, rol o‘yinlari, brainstorming va zamonaviy interfaol texnologiyalar darslarni yanada interaktiv qiladi va o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishiga imkon yaratadi. Shu bois, pedagoglar darslarni rejalashtirayotganda interfaol metodlarni qo‘llashni afzal ko‘rishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2012.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2010.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste’dod jamg‘armasi nashriyoti. 2008.

4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2014.

O‘QUVCHILARNI RAG‘BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA QILISH USULLARINI AMALIY QO‘LLASH

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi.
Mustafayeva Gavhar Fazliddin qizi,
O‘ktamova Sevara Fahriddin qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarni rag‘batlantirish va motivatsiya qilishning pedagogik asoslari, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri hamda boshlang‘ich sinflarda amaliy qo‘llash usullari yoritilgan. Shuningdek, ichki va tashqi motivatsiya omillari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rag‘batlantirish metodlari misollar bilan ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya, rag‘batlantirish, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, pedagogik texnologiya, boshlang‘ich ta’lim, samaradorlik.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘quvchilarning motivatsiyasiga bog‘liq. Motivatsiya – bu shaxsni faoliyatga undovchi ichki kuch bo‘lib, o‘qishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojni shakllantiradi.

Asosiy qism. Psixolog olimlardan biri – Abraham Maslow ta’kidlaganidek, inson ehtiyojlari qondirilgandagina u yuqori natijalarga erishishga intiladi. Shu bois o‘qituvchi o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda rag‘batlantirish usullarini qo‘llashi lozim.

Motivatsiya tushunchasi va uning turlari. Pedagogik adabiyotlarda motivatsiya ikki turga bo‘linadi: *1. Ichki motivatsiya.* Bu o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki qiziqishi va ehtiyojidir. Masalan: - Qiziqarli topshiriqlar. - Muammoli savollar. - Ijodiy vazifalar. - Mustaqil izlanishlar. *2. Tashqi motivatsiya.* Bu tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi: - Baholar. - Maqtov. - Sovrinlar. - Sertifikatlar.

B.F.Skinner xulq-atvorni rag‘batlantirish nazariyasida ijobiy mustahkamlashning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ijobiy rag‘bat xatti-harakatni takrorlash ehtimolini oshiradi.

O‘quvchilarni rag‘batlantirishning amaliy usullari. Boshlang‘ich sinflarda quyidagi usullar samarali hisoblanadi: *1. Maqtov va ijobiy baholash.* “A’lo bajarding!”, “Sening fikring juda qiziqarli!”, “Bugun juda faol bo‘lding!”, Muhimi, maqtov aniq va asosli bo‘lishi kerak. *2. Reyting va yulduzchalar tizimi.* O‘quvchilar uchun “Eng faol o‘quvchi”, “Haftaning bilimdoni” kabi nominatsiyalar tashkil etish mumkin. *3. O‘yin texnologiyalari.* Didaktik o‘yinlar orqali bilim berish o‘quvchida tabiiy qiziqish uyg‘otadi. Masalan: “Kim tez topadi?”, “Zakovat savollari”, “Topqirlar bellashuvi”. *4. Rag‘bat kartochkalari.* Maxsus “Barakalla”, “A’lo ishtirok” kabi kartochkalar berish bolalarda quvonch uyg‘otadi. *5. Individual yondashuv.* Har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatini aniqlab, mos topshiriqlar berish. *6. Ota-ona bilan hamkorlik*. O‘quvchining yutug‘ini ota-onasiga yetkazish – kuchli motivatsion omil hisoblanadi.

Motivatsiyani oshirishda zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarida: - STEAM yondashuvi. - Loyiha asosida o‘qitish. - Interfaol metodlar. - CLIL texnologiyasi kabi usullar o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlab, ichki

motivatsiyani shakllantiradi. Masalan, kichik loyiha ishlari orqali o‘quvchi o‘z natijasini ko‘radi va bundan qoniqish hosil qiladi.

Xulosa. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va motivatsiya qilish – ta’lim samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Rag‘batlantirish jarayoni faqat baho bilan cheklanib qolmasligi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi zarur. Ichki motivatsiyani shakllantirish esa uzoq muddatli va barqaror natija beradi. O‘qituvchi pedagogik mahorat bilan rag‘batlantirishning turli usullarini uyg‘unlashtira olgan taqdirdagina yuqori natijaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. B.F.Skinner. Science and Human Behavior. New York, 1953.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
4. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent, 2018.

O‘QUVCHILARNING YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA DARSNI LOYIHALASH

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi,
Rahmatova Sevara Akram qizi,
Abdufattoyeva Rayhona Zafarjon qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarning yosh psixologik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda dars loyihalashning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida yoshga mos metod va texnologiyalarni tanlash o‘quvchilarning bilish faolligi hamda o‘zlashtirish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqotda yosh davrlari nazariyasi, xususan Jean Piaget va Lev Vygotskiy qarashlari tahlil qilinib, ular asosida darsni loyihalash modeli taklif etiladi. Natijada, yosh xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvni qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi xulosasi chiqariladi.*

Kalit so‘zlar: *yosh xususiyatlari, yosh psixologiyasi, dars loyihalash, pedagogik dizayn, differensial yondashuv, individuallashtirish, ta’lim samaradorligi, kognitiv rivojlanish, pedagogik texnologiyalar.*

Ta’lim jarayoni murakkab tizim bo‘lib, unda o‘quvchilarning individual va yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish samarali ta’limni tashkil etishning asosiy omillaridan biridir. Har bir yosh davrida o‘quvchining idrok, xotira, tafakkur va motivatsiya strukturasi boshqacha rivojlanadi, shuning uchun pedagogik faoliyat ham shunga mos ravishda rejalashtirilishi lozim. Yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni loyihalash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini mustahkamlaydi va pedagogik jarayonda kreativ yondashuvni ta’minlaydi. Bu yondashuv o‘qituvchilarga dars strukturasini, metodlar to‘plamini va baholash vositalarini moslashtirish imkonini beradi, hamda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga javob beruvchi pedagogik sharoit yaratadi.

Yosh va pedagogik psixologiya fani o‘quvchilarning psixikasi va uning ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlarini chuqur o‘rganadi. Pedagogik psixologi yondashuvlarda yosh davrlari bo‘yicha idrok, e’tibor, xotira va tafakkurning o‘zgarish jarayonlari tahlil

qilinadi. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilarda birinchi signal tizimi ustun bo‘lib, ko‘rgazmali-harakatli xotira va motivatsiya yuqori darajada bo‘ladi, bu esa o‘qituvchilarga darsni konkret, ko‘rgazmali usullar bilan tashkil etish zaruratini beradi. O‘quvchilarning individual va yosh psixologik xususiyatlarini o‘rganish pedagogik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ta’lim jarayonini o‘quvchining bilish jarayonlariga moslashtirish imkonini beradi.

Pedagogik metodologiyalarda yosh xususiyatlari darsning har bir bosqichida hisobga olinishi kerak. Yoshning barcha xususiyatlari dars mazmuni, metodlar, baholash vositalari va musobaqalarga ta’sir qiladi. Bu esa o‘qituvchidan chuqur pedagogik tahlil va individual yondashuvni talab qiladi. Yosh xususiyatlari va ularning ta’lim jarayonidagi roli. Pedagogik psixologiyaning nazariyasiga ko‘ra, har bir yosh davri o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Masalan, pedagogik psixologiyada yoshlar rivojlanishi bosqichlari aniq belgilangan bo‘lib, har bir bosqichda idrok, tafakkur va diqqat kabi psixik jarayonlar o‘zgaradi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda xotira ko‘proq ko‘rgazmali bo‘ladi, chunki bu yoshda abstrakt fikrlash hali to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun pedagogik materiallarni didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali vositalar va amaliy vazifalar orqali berish dars samaradorligini oshiradi. Yosh xususiyatlarini hisobga olgan dars loyihasi o‘quvchilarning bilimni qabul qilish mexanizmlarini optimallashtiradi, diqqatni jalb etadi, motivatsiyani oshiradi va ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, motivatsiyaning individual xususiyatlarini inobatga olish o‘quvchilarning o‘rgatish jarayonidagi faoliyatini jonli va kreativ qilib ko‘rsatadi.

Darsni loyihalash prinsiplari. Ta’lim jarayonini yosh xususiyatlariga moslashtirish uchun quyidagi pedagogik prinsiplarga amal qilish zarur: Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining idrok va xotira imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars strukturasini tuzish. Bu pedagogik diagnostika va tahlil bosqichini talab qiladi. Faollik prinsip: O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan metodlar (muammoli topshiriqlar, guruh ishlari, loyiha asosidagi o‘rganish). Ko‘rgazmali o‘rganish: Vizual materiallar, interfaol vositalar va amaliy mashqlar orqali dars mazmunini boyitish. Modellashtirish va umumlashtirish: Yosh davriga mos murakkablik darajasi bo‘yicha ma’lumotlarni bosqichma-bosqich berish. Bu prinsiplar darsning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yoshga moslashtiradi. Ular yoshlar rivojlanish xususiyatlariga muvofiq dars rejasidan boshlab baholash usullarigacha bo‘lgan barcha komponentlarda qo‘llaniladi.

Ta’lim jarayoni murakkab tizim bo‘lib, unda o‘quvchilarning individual va yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish samarali ta’limni tashkil etishning asosiy omillaridan biridir. Har bir yosh davrida o‘quvchining idrok, xotira, tafakkur va motivatsiya strukturasi boshqacha rivojlanadi, shuning uchun pedagogik faoliyat ham shunga mos ravishda rejalashtirilishi lozim. Yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni loyihalash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini mustahkamlaydi va pedagogik jarayonda kreativ yondashuvni ta’minlaydi. Bu yondashuv o‘qituvchilarga dars strukturasini, metodlar to‘plamini va baholash vositalarini moslashtirish imkonini beradi, hamda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga javob beruvchi pedagogik sharoit yaratadi.

Yosh va pedagogik psixologiya fani o‘quvchilarning psixikasi va uning ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlarini chuqur o‘rganadi. Pedagogik psixologi yondashuvlarda yosh davrlari bo‘yicha idrok, e’tibor, xotira va tafakkurning o‘zgarish jarayonlari tahlil qilinadi. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilarda birinchi signal tizimi ustun bo‘lib,

ko‘rgazmali-harakatli xotira va motivatsiya yuqori darajada bo‘ladi, bu esa o‘qituvchilarga darsni konkret, ko‘rgazmali usullar bilan tashkil etish zaruratini beradi. O‘quvchilarning individual va yosh psixologik xususiyatlarini o‘rganish pedagogik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ta’lim jarayonini o‘quvchining bilish jarayonlariga moslashtirish imkonini beradi. Pedagogik metodologiyalarda yosh xususiyatlari darsning har bir bosqichida hisobga olinishi kerak. Yoshning barcha xususiyatlari dars mazmuni, metodlar, baholash vositalari va musobaqalarga ta’sir qiladi. Bu esa o‘qituvchidan chuqur pedagogik tahlil va individual yondashuvni talab qiladi.

Yosh xususiyatlari va ularning ta’lim jarayonidagi roli. Pedagogik psixologiyaning nazariyasiga ko‘ra, har bir yosh davri o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Masalan, pedagogik psixologiyada yoshlar rivojlanishi bosqichlari aniq belgilangan bo‘lib, har bir bosqichda idrok, tafakkur va diqqat kabi psixik jarayonlar o‘zgaradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda xotira ko‘proq ko‘rgazmali bo‘ladi, chunki bu yoshda abstrakt fikrlash hali to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun pedagogik materiallarni didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali vositalar va amaliy vazifalar orqali berish dars samaradorligini oshiradi. Yosh xususiyatlarini hisobga olgan dars loyihasi o‘quvchilarning bilimni qabul qilish mexanizmlarini optimallashtiradi, diqqatni jalb etadi, motivatsiyani oshiradi va ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, motivatsiyaning individual xususiyatlarini inobatga olish o‘quvchilarning o‘rgatish jarayonidagi faoliyatini jonli va kreativ qilib ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Har bir yosh bosqichida bilish jarayonlari – idrok, xotira, tafakkur va nutq – o‘ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega bo‘ladi [1]. Shuning uchun darsni loyihalash jarayonida yosh davrlariga xos psixologik qonuniyatlarni inobatga olish pedagogik samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi. Psixologiya fanida yosh davrlari rivojlanishi bosqichma-bosqich o‘rganilgan bo‘lib, xususan, Jean Piaget tafakkur rivojlanishining kognitiv bosqichlarini asoslab bergan [2]. Shuningdek, Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ta’lim jarayonini yosh imkoniyatlariga mos tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Yosh xususiyatlarining pedagogik ahamiyati. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘rgazmali-harakatli tafakkur ustun bo‘lib, abstrakt tushunchalar asta-sekin shakllanadi. Shu sababli mazkur yosh davrida dars jarayonida ko‘rgazmalilik, o‘yin metodlari va amaliy mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi. O‘smirlik davrida esa mantiqiy va nazariy tafakkur rivojlanadi, mustaqil fikrlash kuchayadi. Bu davrda muammoli vaziyatlar yaratish, bahs-munozara metodlaridan foydalanish ijobiy natija beradi [4]. Yuqori sinflarda abstrakt tafakkur shakllanib, nazariy umumlashtirish imkoniyati ortadi. Shuning uchun loyiha asosida o‘qitish va tadqiqot elementlarini kiritish tavsiya etiladi [5].

Darsni yosh xususiyatlariga mos loyihalash modeli. Yosh xususiyatlariga mos dars loyihasi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq. Psixologik diagnostika bosqichi maqsad va natijalarni aniqlashyoshga mos metodlarni tanlash differensial topshiriqlar ishlab chiqish mos baholash mezonlarini belgilash. Bu model o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda dars loyihalash ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi. Pedagog dars mazmuni, metodlari va baholash vositalarini yosh davrining psixologik imkoniyatlariga mos ravishda tanlashi zarur. Bu esa o‘quvchilarning bilish faolligi va motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G‘. Yosh va pedagogik psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2010.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
3. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2005.
4. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2012.

TEXNOLOGIK KOMPETENSIYA VA AKTDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Usmonova Qumriniso Saydaliyevna,
Chirchiq DPU katta o‘qituvchisi,
Saparboyeva Hilola Baxtiyor qizi,
Norimmatova Farangiz Baxtiyor qizi,
Chirchiq DPU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida texnologik kompetensiyaning nazariy asoslari, uning tarkibiy tuzilmasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish yo‘llari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida AKTdan foydalanishning amaliy jihatlari, afzalliklari va mavjud muammolari yoritiladi. Maqolada xalqaro tajriba va milliy strategik hujjatlar asosida ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: texnologik kompetensiya, AKT, raqamli pedagogika, TPACK modeli, raqamli savodxonlik, innovatsion ta’lim.*

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi tubdan o‘zgarish bosqichiga kirdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagog faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki raqamli muhitda ta’lim jarayonini boshqaruvchi, innovatsion metodlarni qo‘llovchi mutaxassis bo‘lishi lozim.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” hujjatida o‘qituvchilarning AKTdan foydalanish bo‘yicha uch bosqichli modeli (Knowledge Acquisition, Knowledge Deepening, Knowledge Creation) tavsiya etilgan. Bu model pedagogning texnologik kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Raqamlashtirish jarayoni O‘zbekistonda ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, AKT infratuzilmasini rivojlantirish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish vazifalari belgilangan.

Texnologik kompetensiyaning nazariy asoslari. Texnologik kompetensiya tushunchasi pedagogikaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. U o‘qituvchining texnologiyani bilishi emas, balki uni didaktik maqsadlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Bu borada Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogikal Content Knowledge) modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur model uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: 1. Fan mazmuni bo‘yicha bilim (Content Knowledge). 2. Pedagogik bilim (Pedagogikal Knowledge). 3. Texnologik bilim (Technological Knowledge). 4. Ularning integratsiyasi samarali ta’limni ta’minlaydi. Shuningdek, OECD hisobotlarida raqamli kompetensiya XXI asr ko‘nikmalarining ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi.

Texnologik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi. Texnologik kompetensiya quyidagi tarkibiy elementlardan iborat: *1. Raqamli savodxonlik.* Kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanish, dasturiy ta’minotni bilish, internetdan samarali foydalanish ko‘nikmalari. *2. Axborotni boshqarish ko‘nikmasi.* Axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan to‘g‘ri foydalanish. *3. Media va axborot xavfsizligi.* Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish. *4. Interaktiv pedagogik yondashuv.* Texnologiyani ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish.

AKTdan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. AKT vositalari ta’lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va shaffof qilish imkonini beradi.

Masalan: - Google xizmatlari (Google Classroom, Google Forms) orqali masofaviy ta’limni tashkil etish; - Quizizz va Kahoot! yordamida bilimni baholash; - Multimediali taqdimotlar orqali vizual tushuntirish; - Video va animatsiyalar orqali murakkab mavzularni soddalashtirish.

Boshlang‘ich ta’limda AKTdan foydalanish ayniqsa samaralidir. Masalan, matematika darsida interaktiv testlar orqali 10 amalli misollarni bajarish yoki ingliz tili darsida lug‘atni onlayn o‘yinlar yordamida mustahkamlash o‘quvchilar faolligini oshiradi.

AKTdan foydalanishning afzalliklari: 1. Ta’lim samaradorligini oshiradi. 2. Individual yondashuvni ta’minlaydi. 3. Tezkor nazorat va tahlil imkonini beradi. 4. O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. 5. Motivatsiyani kuchaytiradi. 6. Raqamli texnologiyalar yordamida differensial ta’limni tashkil etish osonlashadi. Bu esa har bir o‘quvchining qobiliyatini hisobga olish imkonini beradi.

Muammolar va ularning yechimlari. Texnologik kompetensiyani shakllantirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatiladi: - texnik vositalar yetishmasligi; - internet sifati pastligi; - o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha tayyorgarligi yetarli emasligi.

Mazkur muammolarni hal etishda malaka oshirish kurslari, onlayn seminarlar va davlat dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda raqamli transformatsiyani rivojlantirish yo‘nalishida O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Amaliy tavsiyalar. 1. Har bir dars uchun kamida bitta interaktiv element qo‘llash. 2. O‘quvchilarni mustaqil onlayn topshiriqlar bilan ishlashga o‘rgatish. 3. Raqamli xavfsizlik bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish. 4. O‘qituvchilar uchun muntazam AKT treninglarini tashkil etish.

Xulosa. Texnologik kompetensiya zamonaviy pedagogning ajralmas kasbiy sifatidir. AKT vositalaridan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda innovatsion muhit yaratishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida texnologiyani ongli va maqsadli qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Kelajak ta’limi – bu raqamli, interaktiv va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta’limdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mishra P., Koehler M.J. (2006). Technological Pedagogikal Content Knowledge (TPACK).

2. European Commission. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). Luxembourg: Publications Office of the European Union.

3. International Society for Technology in Education. (2016). ISTE Standards for Educators. Arlington, VA: ISTE.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TENGLIK, TENGSIZLIK VA TENGLAMA TUSHUNCHASI

Xaitmatova Bargida Ergash qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni shakllantirish metodikasi, o‘qitish bosqichlari, samarali pedagogik yondashuvlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Algebra elementlarini erta bosqichda o‘rgatish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *algebraik tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, metodika, tenglama, o‘zgaruvchi, matematik model, mantiqiy fikrlash.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, algebraik tushunchalarni erta bosqichda o‘zlashtirish keyingi matematik bilimlarni puxta egallash uchun zamin yaratadi. Algebra elementlari boshlang‘ich sinflarda arifmetik materiallar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatiladi va asta-sekin umumlashtirish bosqichiga olib chiqiladi.

Bugungi kunda rivojlangan ta’lim tizimlarida, jumladan Organisation for Economic Co-operation and Development tomonidan o‘tkaziladigan PISA tadqiqotlari natijalari ham o‘quvchilarda mantiqiy va funksional savodxonlikni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu bois algebraik tafakkurni boshlang‘ich bosqichdan shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida algebraik tushunchalarni shakllantirish matematika fanining muhim yo‘nalishlaridan biridir. 6-8 yoshli o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati aynan shu davrda faol rivojlanadi. Shu sababli algebra elementlarini sodda va tushunarli shaklda o‘rgatish keyingi matematik bilimlarning mustahkam poydevorini yaratadi.Algebraik tushunchalar boshlang‘ich sinflarda noma’lum son, harfiy ifoda, tenglik va tengsizlik, sodda tenglamalar ko‘rinishida beriladi. Ularni o‘rgatishda bosqichma-bosqichlik, ko‘rgazmalilik, hayotiylik va interfaollik tamoyillariga amal qilish muhimdir.

Tayyorlov bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilar arifmetik amallarni puxta egallagan bo‘lishlari kerak. Qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallarini tushunish algebraik fikrlash uchun asos yaratadi.

Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish (rasmlar, predmetlar),sonlar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushuntirish, “Noma’lum son” tushunchasini savol orqali kiritish o‘quvchilarning yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

Misol 1: 3 + ? = 7. O‘qituvchi savol beradi: “3 ga nechani qo‘shsak 7 hosil bo‘ladi?” O‘quvchi amaliy hisoblash orqali javobni topadi. Javob: 4. Bu yerda “?” belgisi noma’lum sonni anglatadi.

Misol 2: 5 + ? = 12. O‘qituvchi savol beradi: “5 ga nechani qo‘shsak 12 hosil bo‘ladi?”. O‘quvchi amaliy hisoblash orqali javobni topadi. Javob: 7. Bu yerda “?” belgisi noma’lum sonni anglatadi.

Misol 3*:* ? – 6 = 9. O‘qituvchi savol beradi: “Qaysi sonni 6 dan ayirsak 9 hosil bo‘ladi?” O‘quvchi amaliy hisoblash orqali javobni topadi: 15. Bu yerda “?” belgisi noma’lum sonni anglatadi.

Noma’lum son va harfiy ifodalar. Bu bosqichda “?” belgisi o‘rniga harflar (a, b, x) kiritiladi. O‘quvchilarga harf noma’lum sonni ifodalashi tushuntiriladi. Bunda harfni “yashirin son” sifatida izohlash,o‘yin metodidan foydalanish,rangli kartochkalar orqali mashq bajarish o‘quvchilarning qiziqishini yanada ortadi va yanada yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Misol: x + 6 = 10; x = 10 – 6; x = 4

Masala 1: Bir qutida x ta qalam bor edi. Unga yana 3 ta qalam qo‘shildi va jami 12 ta bo‘ldi. Qutida avval nechta qalam bor edi?

Yechish: x + 3 = 12; x = 12 – 3; x = 9

Javob: Qutida avval 9ta qalam bor edi.

Masala 2: Bir idishda x ta shokolad bor edi. Yana 7 ta shokolad qo‘shildi va jami 20 ta bo‘ldi. Idishda avval nechta shokolad bor edi?

Yechish: x + 7 = 20; x = 20 – 7; x = 13

Javob: idishda avval 13 ta shokolad bor edi.

Tenglik va tengsizlik tushunchasi

O‘quvchilarga ikki ifodaning teng yoki teng emasligini solishtirish o‘rgatiladi.

Metodik yondashuvda tarozidan foydalanish bu o‘quvchilarga tenglikni tushuntirish,taqqoslash mashqlari,juftlikda ishlash usuli ham o‘quvchilarga yanada tunarliroq qilib beradi.

Misol: 8 + 2 = 5 + 5; 10 = 10 (tenglik to‘g‘ri)

7 + 1 > 6; 8 > 6 (tengsizlik to‘g‘ri)

Masala: Qaysi ifoda katta?

9 – 3 □ 4 + 1; 6 □ 5; 6 > 5

Sodda tenglamalarni yechish. Bu bosqichda o‘quvchilar sodda tenglamalarni mustaqil yecha boshlaydilar. “Qanday amal bajarilgan?” savoli orqali teskari amalni qo‘llash. Bosqichma-bosqich izohlash. Mustaqil mashqlar berish.

Misol: x – 5 = 7; x = 7 + 5; x = 12

Masala 1: Bir sonni 4 ga kamaytirsak 6 hosil bo‘ladi. O‘sha sonni toping.

Yechish: x – 4 = 6; x = 10

Javob: 10 soni.

Masala 2: Bir songa 7 qo‘shsak 15 hosil bo‘ladi. Shu sonni toping.

Yechish: x + 7 = 15; x = 15 – 7; x = 8

Javob: 8 soni.

Masala 3: Bir sondan 9 ayirsak 5 hosil bo‘ladi. Shu sonni toping.

Yechish: x – 9 = 5; x = 5 + 9; x = 14

Javob: 14 soni.

Masala 1: Doskada 5 ta olma bor edi. Yana bir nechta olma qo‘shildi va jami 9 ta bo‘ldi. Nechta olma qo‘shilgan?

Yechish: 5 + x = 9; x = 4

Javob: 4 ta olma qo‘shilgan.

Masala 2: Bir bog‘da 8 ta qush bor edi. Yana bir nechta qushlar keldi va jami 13 ta bo‘ldi. Nechta qush keldi?

Yechish: 8 + x = 13; x = 13 – 8; x = 5

Javob: 5 ta qush keldi.

Masala 3: Do‘konda 10 ta kitob bor edi. Yana bir nechta kitob qo‘shildi va jami 18 ta bo‘ldi. Nechta kitob qo‘shilgan?

Yechish: 10 + x = 18; x = 18 – 10; x = 8

Javob: 8 ta kitob qo‘shilgan.

Interfaol metodlardan foydalanish. Boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: “Aqliy hujum” metodi, “Insert” metodi, guruhlarda ishlash, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar tenglamani tez va qiziqarli usulda yechadilar. Masalan: “Yashirin sonni top” o‘yini.

Boshlang‘ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatishda qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlardan biridir. Ushbu o‘yin orqali o‘quvchilar noma’lum son tushunchasini oson va qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar. O‘yin tenglama va arifmetik amallar o‘rtasidagi bog‘lanishni anglashga yordam beradi.

O‘qituvchi biror tenglama yoki arifmetik ifoda beradi, unda bitta son yashirilgan bo‘ladi. O‘quvchilar esa mantiqiy fikrlash va teskari amal yordamida yashirin sonni topadilar. Masalan: □ + 4 = 9

O‘quvchilar 9 dan 4 ni ayirib, yashirin sonni topadilar: 5.

Boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Algebra elementlarini erta yoshdan boshlab tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘rgatish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida murakkab matematik tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirishlari uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

Algebraik tushunchalarni o‘qitish jarayonida bosqichma-bosqichlik, uzviylik va izchillik tamoyillariga amal qilish, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Xususan, noma’lum son, tenglik va tengsizlik, sodda tenglamalarni o‘rgatishda ko‘rgazmali vositalar, interfaol metodlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalardan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Bu jarayonda arifmetik amallar bilan algebraik fikrlash o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni ochib berish o‘quvchilarning tushunchalarni ongli idrok etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, algebraik tushunchalarni o‘rgatish faqat matematik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarda umumiy intellektual kompetensiyalarni, jumladan, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi tafakkur amallarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar masalalarni yechishda mustaqil fikrlashga, turli yechim variantlarini izlashga va mantiqiy asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda algebraik tushunchalarni o‘rgatish metodikasini ilmiy asoslangan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish matematika ta’limining samaradorligini oshiradi. Bu esa nafaqat matematika fanining puxta poydevorini yaratadi, balki o‘quvchilarning kelgusidagi o‘quv faoliyati va intellektual rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan universal bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, O. (2018). Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini samarali o‘tkazish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Islomov, R. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida algebraik tafakkurini rivojlantirish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Musurmonova M. Matematika o‘qitish metodikasi/ O‘quv-qo‘llanma. – Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 236 bet.

4. 1-4 sinf Matematika darsliklari (mualliflar guruhi). – Toshkent:. Respublika ta’lim markazi. 2023.

MUMTOZ MUSIQANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xamrayev Oybek Nurillo o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU professori. Ilmiy rahbar.

O‘zbek mumtoz musiqasi asrlar osha og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikr-o‘yi, dardi, orzusi, donishmandligini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zining an’anaviyligi, buyukligi, ta’sirchanligi, professionalligi, mukammalligi, ko‘plab badiiy vositalarga boyligi bilan o‘ziga xos musiqa san’ati turiga aylanadi. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘zbek mumtoz musiqasi milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek mumtoz musiqasida xalqning ma’naviy madaniyatiga doir durdonalar to‘plangan bo‘lib, hozirgi mustaqillik davrida milliy o‘zlikni anglash va milliy ongni taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz musiqa rivojlanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin.

Birinchisi – XX asrgacha bosib o‘tilgan yo‘l, og‘zaki an’anada saqlanib rivojlanishi, har biri o‘z nomiga va uslubiga ega bo‘lishi. IX asrdan boshlab «musiqiy risolalarda» Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilib kelingan. Ularning asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta’lim masalalari hamda ular negizida kuy, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilgan. Shu yo‘lda maqomasoslariga am nisbatan yagona ilmiy an’ana sifatidagi qarashlar gavdalanadi.

Ikkinchisi – XX asrdan boshlab mumtoz musiqa namunalari nota yozuvlariga bitilgan, sadolari ohangrabo tasmalariga tushirilgan, yangi ta’lim tizimida o‘zlashtirilgan, havaskor va professional ansambllar va ijrochilar tomonidan ijro etilib, jonli an’ana tarzida yashab kelmoqda. Ashula va yallalar, dostonlar va katta ashulalar, cholg‘u kuylari va turkumlar, maqomlar zamonaviy nota yozuvlarida muhrlanib, abadiy yashashga hozirlandi.

Ma’lumki, o‘zbek mumtoz musiqa ijodiyoti tarixan asosan og‘zaki an’ana sharoitlarida rivojlanib kelgan. Ammo Sharq musiqa nazariyasi masalalariga bag‘ishlangan IX — XIII asr risolalarida musiqaning bir qator unsurlarini maxsus yozuvda belgilashga harakatlar amalga oshirilgan. Abu Nasr Forobiyning «Kitobul musiqiy al-kabir» asarida bunday izlanishlar o‘zining ilk bor yechimini topgan edi va Sharq nota yozuvining yaratilishida zamin bo‘lgan (yozuvlar doira va maxsus jadval shakllariga tushirilgan bo‘lib, asosiy tovush pog‘onalari ud cholg‘usi pardalarini aks ettiruvchi harflar yordamtda belgilangan).

XIII asrda Safiuddin Urmaviy «tabulatura»(jadval) shaklidagi nota yozuvini kashf qilishga muvaffaq bo‘ldi. Mazkur yozuv tizimi ham ud cholg‘usiga mo‘ljallangan bo‘lib,

uning qator ijro xususiyatlarini aks ettira olgan. Bunday yozuv orqali o‘z zamonida mashhur bo‘lgan bir necha mumtoz maqom kuylari hujjatlashtirilgan (bu yozuvlar fransuz sharqshunos olimi De Erlanje, keyinchalik taniqli o‘zbek maqomshunos olimi Ishoq Rajabov tomonlaridan hozirgi zamon nota yozuviga ko‘chirilib, batafsil ilmiy sharhlangan)

XX asrda o‘zbek mumtoz musiqasi namunalarini to‘plash va yozib olish (zamonaviy Yevropa nota yozuvida) ishlari rivoj oladi. Buxoro «Shashmaqomi» ilk bor rus kompozitori Viktor Uspenskiy tomonidan notaga olinib (1923), to‘plam sifatida chop etildi; keyinchalik Boboqul Fayzullayev, Shonazar Sohibov va Fazliddin Shahobovlar (Tojikiston, 1950-1961), Yunus Rajabiy (O‘zbekiston, 1959) kabi ijrochi va bastakorlar tomonidan yozib olinib, nashr etildi.

«Xorazm maqomlari» turkumi Komil Devoniy (XIX asrning oxirida) ixtiro etgan «tanbur chizig‘i» yozuvida (tabulatura nota yozuvi XII-XIII asrlarda mavjud bo‘lgan) kuy, usul va ijro asoslari qonunlashtirilib, qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda mukammal Rajabov Ishoq. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963, 64-93-betlar. ijro etilishi Xorazmda yo‘lga qo‘yilgan (mazkur yozuvlar V.Belyayev, I.Akbarov tomonlaridan zamonaviy nota yozuviga ko‘chirilgan; keyinchalik Ozod Bobonazarov, Botir Rahimov, Rustam Boltayevlar ilmiy-ijodiy izlanishlari natijasida «tanbur chizig‘i» yozuvlari yangicha tasavvurga ega bo‘ldi).

XX asrning 30-yillarida Xorazm maqomlari Elena Romanovskaya (1939), 50-yillardan boshlab Matniyoz Yusupov (1958) tomonidan yozib olinib, chop etiladi. Farg‘ona-Toshkent maqomlari Viktor Uspenskiy, Viktor Belyayev, Yunus Rajabiylar tomonidan yozib olindi. Katta ashula, suvoralar, dostonlar ham ijrochilar, musiqashunoslar va o‘zbek bastakorlari tomonidan yozib olindi. Yozib olingan va nashr etilgan to‘plamlar orqali ilmiy-tadqiqot ishlari ham jadallashdi, shu bois XX asrning birinchi yarmida Rahmon Bekjon va Devonzoda, A.Fitrat, N.Mironov, V.Uspenskiy, V.Belyayev, E.Romanovskaya, I.Akbarovlarning mumtoz musiqa masalalariga bag‘ishlangan maqolalar va kitoblari yuzaga keldi; XX asrning ikkinchi yarmidan bu ishlar yanada rivojlanib, I.Rajabov, Yu.Rajabiy, F.Karomatov, T.Vizgo, T.G‘ofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, A.Jumayev, A.Nazarov, R.Yunusov, O.Ibrohimov, S.Begmatov kabi musiqashunos olimlar ilmiy ishlarida o‘z aksini topdi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq ma’naviy hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq ma’naviy dunyosining ajralmas qismi bo‘lib, uning ma’naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo‘lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o‘zining ma’naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev R.S. O‘zbek mumtoz musiqasi. Toshkent. Yangi nashr. 2008.
2. Abdujalilova Sh. Abdurauf Fitratning “Tarbiya” fani talqini. Toshkent. – 2020.
3. Begmatov S. Xofizlik san’ati. (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) – T., “Musiqa”, 2022

KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNING O‘RNI

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekan o‘rinbosari.
Bozorboyeva Sarvinoz Hamrobekovna,
Abdusharibova Shohina Umidbek qizi,
Chirchiq DPU ”Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompetensiyani shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati yoritilgan. Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ta’lim jarayonida amaliy faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan.*

Tayanch so‘zlar: *kompetensiya, kommunikativ, o‘quvchi, ta’lim, amaliy mashg‘ulot, ta’lim jarayoni, bilim, ko‘nikma va malaka, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, pedagogik metodlar.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish yetarli emas. Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda hayotiy vaziyatlarda bilimlarini qo‘llay oladigan kompetensiyalarni rivojlantirishdir. Kompetensiya – bu shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalarni muayyan faoliyat jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyani shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini mustahkamlaydi va ularni real vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadi. Bunday mashg‘ulotlar laboratoriya ishlari, tajribalar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhli faoliyat va amaliy topshiriqlar shaklida tashkil etilishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlarning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdir. O‘quvchilar amaliy faoliyat davomida muammolarni tahlil qilish, yechim topish, qaror qabul qilish va o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu jarayon ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Guruh bo‘lib ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish, ma’uliyatni bo‘lishish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg‘ulotlar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘quvchilar faqat tinglovchi bo‘lib qolmay, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Natijada bilimlarni o‘zlashtirish darajasi oshadi va o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi.

Amaliy mashg‘ulotlarning mazmuni va ahamiyati. Amaliy mashg‘ulotlar – bu o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni real vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan ta’lim shaklidir. Ular quyidagi vazifalarni bajaradi: - nazariy bilimlarni chuqurlashtirish; - mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish; - ijodiy fikrlashni shakl-lantirish; - muammoli vaziyatlarda yechim topish; - jamoada ishlash malakasini oshirish.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchi faol subyektga aylanadi, ya’ni bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni o‘zi kashf etadi.

Amaliy mashg‘ulotlar orqali kompetensiyalarni shakllantirish. Amaliy mashg‘ulotlar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi: 1. *Axborot kompetensiyasi* – ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish va undan foydalanish. 2. *Kommunikativ kompetensiya* – o‘z fikrini erkin ifodalash, muloqot qilish. 3. *Ijtimoiy kompetensiya* – jamoada ishlash, hamkorlik qilish. 4. *Muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyasi* – mustaqil qaror qabul qilish. 5. *Shaxsiy rivojlanish kompetensiyasi* – o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirish.

Masalan, loyiha ishlari, laboratoriya mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar va muammoli topshiriqlar orqali o‘quvchilarda yuqoridagi kompetensiyalar samarali shakllanadi.

Pedagogik texnologiyalar va usullar. Kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi interfaol metodlar samarali hisoblanadi: - “Aqliy hujum”; - “Klaster”; - “Keys-stadi”; - “Rol o‘ynash”; - Loyiha asosida o‘qitish.

Mazkur metodlar o‘quvchini faol fikrlashga, mustaqil izlanishga va natijaga erishishga undaydi.

Xulosa. Kompetensiyani shakllantirish jarayonida amaliy mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘laydi, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “Sano-standart”, 2015.

3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLI METODLARNING AHAMIYATI

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi,
Safarboyeva Sevinch Farhod qizi,
Madaminova Kamola Dilmurod qizi,
Chirchiq DPU ”Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalari.

Annotatsiya. *Hozirgi globallashuv va axborot almashinuvi sharoitida jamiyatga mustaqil fikrlaydigan, mavzuga yangicha yondasha oladigan, tanqidiy muammolarga ijodiy yechim topadigan shaxslar zarur. Shu sababli ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olishi balki ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish davlat darajasidagi masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolaning tafakkuri va qiziqishlari faol rivojlanadigan eng muhim bosqichidir.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ijodiy fikrlash, innovatsion texnologiyalar, interfaol yondashuv, interaktiv metodlar, ijodiy fikrlash kompetensiyalari.*

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-

mamot masalasiga aylanib bormoqda", - deya ta’kidlaganlar. Shuni aytish joizki, bugungi yosh avlodni rivojlanishida iqtidori, qobiliyatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etish, bunda mamlakatimizda qad ko‘tarayotgan zamonaviy innovatsion maktablar faoliyatini kengaytirish, umumta’lim maktab bitiruvchilarini savodxonlik darajasini yanada oshirish masalalari davlatimiz siyosati oldidagi muhim vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Iqtidorli bolalar – yurt kelajagi! Shunday ekan bolalardagi iqtidor, qobiliyat, salohiyatini rivojlantirishda bevosita ta’lim muassasasi, pedagog va oila hamkorligining ahamiyati katta. boshlang‘ich sinf davri bolaning tafakkuri va qiziqishlari faol rivojlanadigan eng muhim bosqichidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga oid metodlar darslarda amalga oshirilsa o‘quvchilarning darslarga qiziqishi ortadi, muloqot madaniyati va o‘quv samaradorligi oshadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol yondashuvlarni qo‘llash hozirgi kunning dolzarb va zarur muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar ta’lim siyosatida ijodkor, tashabbuskor, muammolarga yechim topa oladigan shaxsni shakllantirishni asosiy maqsad qilib olgan. Xususan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ijodiy fikrlash masalalari ta’lim standartlariga integratsiya qilingan. Bu jarayonda STEAM yondashuvi,loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim kabilar shular jumlasidandir. MDH davlatlari qatoridan Rossiya Federatsiyasi ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini shakllantirish asosiy vazifalardan biriga aylanganligi belgilangan. BU davlat dars jarayonida muammoli ta’lim, loyiha va tadqiqot faoliyatida keng o‘rin ajratgan. Qozog‘iston Respublikasida ta’limni yangilash doirasida”yangilangan o‘quv dasturlari”ni joriy etilib, unda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Pedagogik va psixologik manbalarda qayd etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, qobiliyat insonning psixologik xususiyati bo‘lib, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash bevosita mana shu xususiyatlarga bog‘liq.

Amerikalik tadqiqotchi J.Gildford iste’dod nazariyasiga hissa qo‘shgan olimlardandir. Olim divergent fikrlashning tarkibiy qismlarini (tezlik, o‘ziga xoslik, moslashuvchanlik, aniqlik) ishlab chiqqan va ularning barchasi iqtidorli maktab o‘quvchilarini rivojlantirish, o‘qish va o‘qitish sohasida amaliy faoliyatga yangi o‘zgartirishlar kiritishga imkon berganini ta’kidlab o‘tish joiz. Taniqli amerikalik olim P.Torrents o‘z shogirdlarini kuzatib, o‘zi ishlab chiqqan iqtidor, kontseptsiyasida uchlik mavjudligini ta’kidlaydi. Ular: ijodkorlik, ijodiy mahorat, ijodiy motivatsiya. Uning anglashicha ijodkorlik - bu shaxsning to‘liq bo‘lmagan yoki noaniq bo‘lgan vaziyatda yuzaga keladigan keskinlikni yengillashtirish uchun kuchli ehtiyojidan kelib chiqadigan tabiiy jarayondir. Iqtidorli bolalarni aniqlashda u tomonidan yaratilgan o‘ziga xos iqtidor kontseptsiyasi asosida yaratilgan iqtidor va ijod uslublari butun dunyoda keng qo‘llanilaladi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirish usullari: 1. Matematika darsida: masalaning bir necha yechimini topish topshirig‘i orqali ijodiy yondashuvni rivojlantirish mumkin. 2. Ona tili darsida: so‘zlardan yangi gaplar tuzish, hikoyaning muqobil yakunini o‘ylab topish. 3. Tasviriy san’atda: mavzuni erkin talqin etish, rasmni o‘z fikriga ko‘ra chizishadi.

Natija. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirishda fanlararo yondashuv muhim ahamiyatga ega. Matematika darslarida masalalarning bir nechta yechimini topish, ona tili darslarida so‘zlardan yangi

gaplar tuzish va hikoyaning mazmuniga mos yakunini o‘ylab topish, tasviriy san’at darslarida esa mavzuni erkin bayon qilib rasm chizish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va ijodkorligini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatlarga turlicha yondashishni o‘rganadi, ularning faolligi va darsga qiziqishi ortadi. Natijada ta’lim jarayonining samaradorligi oshib, o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkuri shakllanadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ijodiy fikrlashni shakllantirish kichik qadamlar bilan boshlanadi. Ko‘pchilik ijodkorlikni tug‘ma sifat deb hisoblaydi, biroq hozirgi tadqiqotlar bu o‘rganiladigan ko‘nikma ekanini ko‘rsatmoqda. Bolalarni o‘z ijodiy qiziqishlarini o‘rganishga undash ularni muammo yechuvchi va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.Ijodiy fikrlash — yangi yondashuv va g‘oyalarni topish qobiliyati bo‘lib, u bolalarga bog‘liqliklarni ko‘rish, katta manzarani tushunish imkonini beradi. Shu sababli bu hayotiy muhim ko‘nikmani bolalarda erta yoshdan rivojlantirish albatta zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvaliyev M. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Yusupova S. Interfaol metodlardan foydalanish asoslari. – Buxoro, 2020.
3. Rasulov B. Ta’limda psixologik muhit va ijodkorlik. – T.: Yangi asr, 2021.

KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY VAZIFALAR VA LOYIHALAR ISHLAB CHIQISH

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Muhammadiyeva Aziza Ulug‘bek qizi,
Chirchiq DPU ”Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy vazifalar va loyihalar ishlab chiqishning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning va pedagoglarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda amaliy loyihalar muhim vosita sifatida qaraladi. Maqolada kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida amaliy vazifalar va loyihalarning pedagogik samaradorligini oshirish, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati, tajriba orqali o‘rganish va muammoli vazifalarni hal etish orqali kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy jihatdan asoslari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, amaliy vazifa, loyiha, pedagogik texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, o‘quvchi faoliyati, ijodiy yondashuv, ta’lim sifatini oshirish, innovatsion metodlar, mustaqil ish.*

Kirish. Kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon orqali o‘quvchilar va pedagoglar o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash, muammolarni yechish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Amaliy vazifalar va loyihalar o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va natijaviy qiladi, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

1. Kompetensiya va uning shakllanishi. Kompetensiya – bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka

va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyalar faqat nazariy bilimga asoslanmay, balki amaliy faoliyat orqali shakllantiriladi. Shu sababli amaliy vazifalar va loyihalar pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Birinchidan, amaliy bilim va ko‘nikmalar kompetensiyaning asosi hisoblanadi. Bu o‘quvchilarning bilimini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, ijodiy va muammoli yondashuvlar kompetensiyalarni chuqurlashtiradi va ularni mustahkamlaydi. Shuningdek, loyiha asosida ishlash o‘quvchilarning jamoaviy hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy vazifalar va loyihalarning o‘rni. Amaliy vazifalar va loyihalar kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasidir. Ular orqali o‘quvchilar: - o‘z bilimlarini amalda qo‘llash; - muammoli vazifalarni hal etish; - innovatsion metodlar va texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganish; - mustaqil va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Amaliy loyihalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin: ilmiy-tadqiqot loyihalari, ijtimoiy loyihalar, tajriba asosida ishlash, interaktiv vazifalar va treninglar. Pedagog bu jarayonda o‘quvchilarga rahbarlik qiladi, ularning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi va kompetensiyalarini shakllantirishni yo‘naltiradi. Loyihaviy o‘qitish metodining mohiyati

Loyihaviy o‘qitish – o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga asoslangan metod.

Loyihaviy faoliyat bosqichlari: 1. Muammoni aniqlash. 2. Rejalashtirish. 3. Tadqiqot. 4. Amalga oshirish. 5. Natijani taqdim etish.

Loyihaviy metodning afzalliklari: - ijodkorlikni rivojlantiradi; - jamoaviy ishlashni o‘rgatadi; - mas’uliyatni oshiradi.

Loyihani ishlab chiqish bosqichlari: - maqsad qo‘yish; - vazifalarni aniqlash; - resurslarni tanlash; - natijani baholash.

Baholash mezonlari: - ijodkorlik; - mustaqillik; - natija sifati; - taqdimot darajasi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish: - onlayn platformalar; - multimedia vositalar; - interaktiv metodlar.

Xulosa. Kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy vazifalar va loyihalar muhim ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash imkonini beradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va ta’lim sifatini oshiradi. Loyiha asosidagi yondashuv o‘quv jarayonini interaktiv va natijaviy qiladi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.

O‘QITUVCHINING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ TA’LIMNING AHAMIYATI

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Norboyeva Dilnoza Turdaliyevna,
Chirchiq DPU ”Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uzluksiz ta’limning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda yangilab borishi muhim*

omil sifatida qaraladi. Maqolada uzluksiz ta’lim jarayoni orqali o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyati hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish darajasini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda malaka oshirish kurslari, mustaqil ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchining malakasi, pedagogik kompetensiya, kasbiy rivojlanish, pedagogik mahorat, innovatsion ta’lim texnologiyalari, malaka oshirish tizimi, ta’lim sifati, kasbiy kompetentlik, zamonaviy pedagogik yondashuvlar.*

Kirish. Uzluksiz ta’lim tizimi o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan muhim omillardan biridir. Bu jarayon pedagoglarning bilimlarini yangilab borish, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Uzluksiz ta’lim orqali o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatini takomillashtirib, zamonaviy ta’lim talablariga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

1. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi – bu pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning majmuasidir. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashuvchi shaxs sifatida qaraladi. Shuning uchun ham o‘qituvchining kompetensiyasi ko‘p qirrali bo‘lib, bir necha muhim tarkibiy qismlardan iborat.

Birinchi navbatda, kasbiy bilim kompetensiyasi muhim hisoblanadi. Bu o‘qituvchining o‘z fanini chuqur bilishi, ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi hamda ularni o‘quv jarayoniga tatbiq eta olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, pedagogik kompetensiya o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish qobiliyatini bildiradi.

2. O‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishda uzluksiz ta’limning o‘rni. Uzluksiz ta’lim tizimi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan muhim mexanizmlardan biridir. Zamonaviy jamiyatda bilimlar tez yangilanib borayotganligi sababli pedagoglar ham o‘z bilim va malakalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishlari zarur. Shu bois uzluksiz ta’lim o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Uzluksiz ta’lim jarayoni turli shakllarda amalga oshiriladi. Jumladan, malaka oshirish kurslari, seminar va treninglar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, mustaqil ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonlar orqali o‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar hamda zamonaviy ta’lim yondashuvlari bilan tanishadilar.

Pedagogik faoliyatda kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim tizimida natijaga yo‘naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv: - bilimni amaliyotga tatbiq etishga; - mustaqil fikrlashni rivojlantirishga; - muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar. Zamonaviy o‘qituvchi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: - kreativ fikrlash; - tanqidiy tahlil qilish; - AKTdan samarali foydalanish; - pedagogik texnologiyalarni qo‘llash; - o‘quvchilar bilan samarali muloqot.

Malaka oshirish tizimi va uning ahamiyati. Malaka oshirish tizimi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning asosiy vazifalari: - yangi bilimlarni berish; - pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish; - tajriba almashish imkonini yaratish.

Innovatsion texnologiyalar orqali kompetensiyani rivojlantirish. Zamonaviy ta’limda quyidagi texnologiyalar muhim: - STEAM ta’lim; - masofaviy ta’lim platformalari; - raqamli vositalar. Bu texnologiyalar: - o‘qituvchining ijodkorligini oshiradi; - ta’lim jarayonini samarali qiladi.

Mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi quyidagilar orqali amalga oshadi: - ilmiy maqolalar o‘qish; - onlayn kurslarda qatnashish; - tajriba almashish.

Xulosa. Uzluksiz ta’lim tizimi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi. U pedagogning bilimini yangilaydi, innovatsion fikrlashini rivojlantiradi va ta’lim sifatini oshiradi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh o‘qituvchi bo‘lish uchun uzluksiz ta’lim jarayonida faol ishtirok etish zarur. Malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar va ilmiy-tadqiqot faoliyati orqali pedagoglar o‘z bilimlarini yangilab boradilar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, uzluksiz ta’lim o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ularning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

MENEJERLIK KOMPETENSIYASI: BOSHQARUV VA TASHKILOTCHILIK MEZONLARI

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Qulmamatova Nasiba O‘ral qizi,
Chirchiq DPU ”Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabalsi.

Annotatsiya*. Ushbu maqolada menejerlik kompetensiyasi, uning mazmuni hamda boshqaruv va tashkilotchilik mezonlari tahlil qilinadi. Zamonaviy tashkilotlar faoliyatida samarali boshqaruvni ta’minlash uchun menejerlardan yuqori darajadagi kasbiy bilim, boshqaruv ko‘nikmalari va tashkilotchilik qobiliyatlari talab etiladi. Maqolada menejerlik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari, boshqaruv faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi mezonlar hamda tashkilotchilik qobiliyatining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, menejerlarning kasbiy faoliyatida strategik fikrlash, qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash va resurslardan samarali foydalanish kabi jihatlar muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *menejerlik kompetensiyasi, boshqaruv, tashkilotchilik, liderlik, strategik rejalashtirish, qaror qabul qilish, kommunikativ ko‘nikma, boshqaruv samaradorligi, jamoani boshqarish.*

Hozirgi globallashuv davrida tashkilotlar va muassasalarning samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan menejerlarning kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq. Menejer – bu tashkilot faoliyatini rejalashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi shaxs bo‘lib, uning boshqaruv qobiliyati tashkilot rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy menejer nafaqat rahbarlik qilish, balki jamoani birlashtirish, samarali qarorlar qabul qilish, tashkilot resurslaridan to‘g‘ri foydalanish va strategik maqsadlarni amalga oshirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shu sababli menejerlik kompetensiyasi boshqaruv faoliyatining muhim elementi hisoblanadi.

Menejerlik kompetensiyasining mohiyati: Menejerlik kompetensiyasi – bu rahbarning boshqaruv faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Ushbu kompetensiya menejerning professional faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Menejerlik kompetensiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: - boshqaruv bilimlari; - strategik fikrlash; - tashkilotchilik qobiliyati; - kommunikativ ko‘nikmalar; - muammolarni hal qilish qobiliyati; - qaror qabul qilish malakasi.

Menejer ushbu kompetensiyalarga ega bo‘lsa, tashkilot faoliyatini samarali boshqarishi va belgilangan maqsadlarga erishishi mumkin.

Boshqaruv faoliyatining asosiy mezonlari. Boshqaruv jarayonining samaradorligi bir qator mezonlar orqali baholanadi. Ushbu mezonlar menejer faoliyatining sifatini aniqlashga yordam beradi. *1. Strategik rejalashtirish.* Strategik rejalashtirish tashkilot faoliyatining uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Menejer tashkilotning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishni ta’minlashi zarur. *2. Qaror qabul qilish.* Menejer faoliyatining muhim jihatlaridan biri to‘g‘ri va asosli qarorlar qabul qilishdir. Qaror qabul qilish jarayoni mavjud muammolarni tahlil qilish, muqobil variantlarni baholash va eng maqbul yechimni tanlashni o‘z ichiga oladi. *3. Nazorat va monitoring.* Boshqaruv jarayonida amalga oshirilayotgan faoliyatni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Nazorat jarayoni orqali menejer tashkilot faoliyatining samaradorligini baholaydi va zarur hollarda tuzatishlar kiritadi. *4. Resurslarni samarali boshqarish.* Tashkilot resurslari – moddiy, moliyaviy va inson resurslarini to‘g‘ri taqsimlash va ulardan samarali foydalanish menejer faoliyatining muhim mezonlaridan biridir.

Tashkilotchilik qobiliyati menejerlik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tashkilotchilik qobiliyati rahbarning jamoani birlashtirish, ish jarayonini samarali tashkil etish va maqsadga erishish uchun zarur sharoitlarni yaratish qobiliyatini anglatadi. Tashkilotchilik qobiliyatining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: - jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish; - vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash; - ish jarayonini rejalashtirish; - xodimlarni rag‘batlantirish; - jamoada ijobiy muhit yaratish.

Tashkilotchilik qobiliyati yuqori bo‘lgan menejer jamoa a’zolarini umumiy maqsad sari yo‘naltira oladi va tashkilot faoliyatining samaradorligini oshiradi. Menejerlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: - malaka oshirish kurslarida qatnashish; - zamonaviy boshqaruv usullarini o‘rganish; - trening va seminarlar orqali tajriba orttirish; - jamoa bilan samarali muloqot qilish; - o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish. Bu jarayon menejerning professional rivojlanishiga va boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, menejerlik kompetensiyasi tashkilot faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy menejer strategik fikrlash, to‘g‘ri qaror qabul qilish, jamoani boshqarish va resurslardan samarali

foydalanish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Boshqaruv va tashkilotchilik mezonlariga asoslangan menejerlik faoliyati tashkilotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shu sababli menejerlar o‘z kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlari zarur. Zamonaviy rahbarlar o‘z menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishlari mumkin. Bu esa nafaqat tashkilot rivojlanishiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Menejment asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari. – T., 2016.
3. Robbins S. Management. – Pearson Education, 2018.

O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL EHTIYOJLARINI ANIQLASH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Raxmatova Sevinch Baxtiyor qizi,
Ma’rufova Rayhona Jasur qizi,
Chirchiq DPU, ”Boshlang‘ich ta'lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularni o‘rganish hamda samarali qo‘llab-quvvatlash strategiyalari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida differensial ta’lim, inkluziv ta’lim, formatif baholash va individual rivojlanish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va o‘rganish uslubiga mos metodlardan foydalanish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *individual yondashuv, differensial ta’lim, inkluziv ta’lim, pedagogik diagnostika, formatif baholash, o‘quvchi ehtiyojlari.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Har bir o‘quvchi bilimni turlicha tezlikda o‘zlashtiradi, qiziqishlari va qobiliyatlari ham bir-biridan farq qiladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida individual yondashuv muhim pedagogik tamoyil sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida o‘quvchilar individual ehtiyoj-larini aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab metodlar ishlab chiqilgan. Bu metodlar o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining yoshga bog‘liq va individual xususiyatlariga kognitiv, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanish kiradi. Muhim yoshga bog‘liq xususiyatlarga zaif ixtiyoriy e'tibor, yuqori hissiylik va yaxshi yodlangan xotira kiradi. Shu bilan birga, individual farqlar shaxsiyat, motivatsiya va oilaviy sharoitlarda namoyon bo‘lishi mumkin, bu esa o‘qituvchilarni o‘z ishlarida ushbu omillarni hisobga olishga majbur qiladi. *Kognitiv diqqat:* Yaxshi rivojlangan ixtiyoriy e'tibordan farqli o‘laroq, zaif ixtiyoriy e'tibor, u yangi, yorqin va qiziqarli bo‘lgan hamma narsaga jalb qilinadi. Bolalar diqqatini bitta obyektda 10-15 daqiqa davomida ushlab turishlari mumkin. *Xotira:* Yaxshi yodlangan xotira, shuning uchun bolalar o‘rganish uchun zarur bo‘lgan narsani emas, balki ularni nima hayratga solganini eslab qolishadi. *Idrok:* Ixtiyoriy idrokdan maqsadli kuzatishga o‘tish; idrok hali farqlanmagan; bolalar

ko‘pincha o‘xshash harflar va raqamlarni chalkashtirib yuborishadi. *Fikrlash:* Vizual-majoziy fikrlashdan og‘zaki mantiqiy fikrlashga o‘tishni rivojlantirish, ichki harakatlar rejasini ishlab chiqish.

Hissiy va ijtimoiy soha. *His-tuyg‘ular:* Yuqori hissiylik, hissiy beqarorlik va impulsivlik; histuyg‘ularni boshqarishda qiyinchilik. *Muloqot:* Bolalar guruhining shakllanishi, yoqtirish va yoqtirmasliklarning paydo bo‘lishi. Sinfdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar asta-sekin "men va o‘qituvchi"dan "biz va o‘qituvchimiz"ga o‘tadi. Ijtimoiy qiziqishlar: Kattalar manfaatlaridan tengdoshlarning manfaatlariga asta-sekin o‘tish, sirlar va kodlar paydo bo‘ladi. *Motivatsiya:* Yutuqqa erishish motivatsiyasi yetakchi omilga aylanadi.

O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash jarayoni. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash pedagogik diagnostika orqali amalga oshiriladi. Pedagogik diagnostika o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi va o‘rganish uslublarini aniqlashga yordam beradi. Individual ehtiyojlarni aniqlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi: - kuzatuv; - suhbat; - diagnostik testlar; - portfoliolarni tahlil qilish; - formatif baholash.

Bu usullar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda ta’lim jarayonini moslashtiradi. Individual ehtiyojlarni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari

Differensial ta’lim. Differensial ta’lim o‘quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatiga mos topshiriqlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar uchun turli darajadagi topshiriqlarni tayyorlaydi.

Inkluziv ta’lim yondashuvi. Inkluziv ta’lim barcha o‘quvchilarga teng imkoniyat yaratishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuv ayniqsa alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashda muhim hisoblanadi.

Individual ta’lim yo‘llari. Individual ta’lim yo‘li o‘quvchining rivojlanish darajasiga qarab tuziladi. Bu yondashuv o‘quvchining qiziqishlari va o‘quv maqsadlariga mos holda ta’limni rejalashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Raqamli texnologiyalar ham individual ehtiyojlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan: - interaktiv platformalar; - onlayn ta’lim resurslari; - adaptiv o‘quv dasturlari.

Bu vositalar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘qituvchining roli. O‘qituvchi individual yondashuvni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U o‘quvchilarni motivatsiya qilish, qo‘llab-quvvatlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy o‘qituvchi pedagogik mahorat bilan birga psixologik yondashuvni ham qo‘llashi zarur.

Xulosa. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Differensial va inkluziv ta’lim yondashuvlari o‘quvchilarning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Shu sababli ta’lim jarayonida individual yondashuvni keng qo‘llash zamonaviy pedagogikaning muhim talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Raxmonov A. Zamonaviy pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
4. Sodiqov Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING ETIKA VA KASBIY MADANIYATI

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li
Chirchiq DPU o‘qituvchisi,
Rustamova Soadatjon Xayriddin qizi,
Kubeyeva Madina Doniyorovna,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘qituvchining etika va kasbiy madaniyat kompetensiyasining pedagogik faoliyatdagi o‘rni hamda uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. O‘qituvchining axloqiy fazilatlari, muomala madaniyati, kasbiy mahorati va shaxsiy namunasi o‘quvchilar tarbiyasi va bilim olish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik etika tamoyillari, kasbiy madaniyatning tarkibiy qismlari hamda o‘qituvchining zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda o‘z ustida ishlashi zarurligi haqida fikr yuritiladi. Maqolada pedagogning bilim berish bilan bir qatorda yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdagi mas’uliyati ham alohida ta’kidlangan. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining professional kompetensiyasi uning pedagogik mahorati, kommunikativ qobiliyati va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik etika, kasbiy madaniyat, pedagog kompetensiyasi, o‘qituvchi shaxsi, muomala madaniyati, pedagogik mahorat, professional rivojlanish, pedagogik faoliyat, axloqiy qadriyatlar, pedagogik mas’uliyat.*

Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sifati esa, avvalo, o‘qituvchining kasbiy mahorati, madaniyati va axloqiy fazilatlariga bog‘liq. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantiruvchi, ularni hayotga tayyorlovchi hamda jamiyat uchun foydali shaxs sifatida tarbiyalovchi yetuk pedagog hisoblanadi.

O‘qituvchi shaxsining nufuzi va obro‘si, avvalo, uning kasbiy madaniyati va etikasi bilan belgilanadi. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy, madaniy, ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi namuna sifatida faoliyat yuritadi.

Pedagogik etika – bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatida amal qiladigan axloqiy qoidalar va me’yorlar tizimidir. Kasbiy madaniyat esa – o‘qituvchining kasbiy bilim, mahorat, muloqot, tashabbus va estetik didining uyg‘unligidir. O‘qituvchilik etikasi o‘qituvchi va o‘quvchi, ota-ona hamda hamkasblar o‘rtasidagi munosabatlarda axloqiy mezonlarni belgilab beradi. Quyidagi tamoyillar o‘qituvchi etikasi uchun asosiy hisoblanadi: *Insonparvarlik tamoyili* – har bir o‘quvchiga inson sifatida hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning qadr-qimmatini asrash. *Adolat tamoyili* – baholash, rag‘batlantirish va munosabatda xolislikni saqlash. *Mas’uliyat tamoyili* – o‘quvchi taqdiriga befarq bo‘lmaslik, o‘z kasbiy vazifalarini vijdonan bajarish. *Muloqot madaniyati tamoyili* – muloqotda samimiylik, sabr-toqat, tinglash va tushunish ko‘nikmalariga ega bo‘lish. *Kasbiy sadoqat tamoyili* – o‘z kasbini sevish, uni faxr bilan bajarish, doimiy o‘sishga intilish. O‘qituvchining etikasi uning nutqida, kiyinishida, odobida, hatto yuz ifodasida ham namoyon bo‘ladi. U bolalar uchun doimiy ibrat manbaidir.

Kasbiy madaniyat – bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini yuksak saviyada tashkil etish, pedagogik jarayonni boshqarishdagi umumiy madaniy, axloqiy va estetik

tayyorgarligi. Kasbiy madaniyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: *Kasbiy bilimlar madaniyati* – pedagogika, psixologiya, didaktika, metodika sohasida yetarli bilimga ega bo‘lish. *Pedagogik muloqot madaniyati* – o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan ijobiy munosabat o‘rnatish. *Nutq madaniyati* – o‘qituvchining to‘g‘ri, ta’sirchan, ifodali nutq bilan ishlay bilishi. *Tashkiliy madaniyat* – darsni, sinfni va jamoani samarali boshqarish ko‘nikmasi. *Estetik madaniyat* – o‘zini tutish, kiyinish, muhit yaratishdagi nafislik va uyg‘unlik. Kasbiy madaniyatning asosiy ahamiyati shundaki, u o‘qituvchini jamiyatda obro‘li shaxs, ishonchli yetakchiga aylantiradi.

Etika va madaniyat o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi: O‘qituvchining madaniyatli muomalasi o‘quvchilarda ham axloqiy xulqni shakllantiradi. Etik me’yorlarga amal qilish o‘quv muhitini ijobiy, sog‘lom psixologik holatda saqlaydi. Kasbiy madaniyat o‘qituvchiga o‘z obro‘sini oshirish, jamoada yetakchi bo‘lish imkonini beradi. Etika va madaniyat uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirish, insonparvar muhit yaratish uchun zamin yaratadi. Shunday qilib, pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibi – bu o‘qituvchining etik va madaniy yetukligi, ya’ni o‘zini, boshqalarni va kasbini hurmat qila olish qobiliyatidir. O‘qituvchi shaxsining etikasi va kasbiy madaniyati – bu uning professional imidji, ta’sirchanligi va ijtimoiy nufuzining asosi. Har bir pedagog shuni anglash kerakki, bilimli o‘qituvchi o‘quvchini o‘qitadi, ammo madaniyatli o‘qituvchi – tarbiyalaydi.

Shu sababli o‘qituvchining etika va kasbiy madaniyat kompetensiyasi ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Pedagogning o‘quvchilar bilan muloqot qilish madaniyati, ularning fikrini hurmat qilishi, sabr-toqatli bo‘lishi hamda adolatli baholash qobiliyati o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday fazilatlar o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularda ustozga nisbatan hurmat hissini shakllantiradi. Kasbiy kompetensiya pedagogning o‘z kasbiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Bu tushuncha o‘qituvchining pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishi, dars jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishi hamda o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnata olishida namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetensiya o‘qituvchining bilim darajasi, pedagogik tajribasi, ijodiy yondashuvi va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi.

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi doimiy ravishda rivojlanib borishi zarur. Chunki ta’lim tizimi hamisha yangilanib boradi va yangi pedagogik yondashuvlar paydo bo‘ladi. O‘qituvchi esa ushbu yangiliklarni o‘rganib, o‘z faoliyatiga tatbiq etishi orqali o‘z kasbiy mahoratini oshirib boradi.O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotda hurmat va e’tibor asosida ish olib borishi kerak. Har bir o‘quvchining fikrini tinglash, uning qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish pedagogik etikaning muhim ko‘rinishlaridan biridir. Shuningdek, o‘qituvchi o‘z nutqi, xatti-harakati va muomala madaniyati orqali o‘quvchilarga ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchining kasbiy madaniyati va uning ta’lim sifatiga ta’siri. Kasbiy madaniyat pedagogning umumiy bilim darajasi, pedagogik mahorati va madaniy saviyasini ifodalaydi. Kasbiy madaniyatga ega o‘qituvchi dars jarayonini puxta rejalashtiradi, o‘quvchilarni faollikka undaydi hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bunday o‘qituvchi dars jarayonida turli metod va usullardan foydalanib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy madaniyati uning kommunikativ qobiliyati, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasi hamda ijodkorligi bilan ham bog‘liq. O‘qituvchi yangi pedagogik metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning

bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni mustaqil o‘rganishga undaydi. Shuningdek, kasbiy madaniyat o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi, nutq madaniyati va muomala uslubida ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zining madaniyati va odobi bilan o‘quvchilar uchun o‘rnak bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining etika va kasbiy madaniyat kompetensiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qituvchi o‘z faoliyatida nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga mas’ul shaxs sifatida ham faoliyat yuritadi. Shuning uchun pedagogning axloqiy fazilatlari, muomala madaniyati va kasbiy mahorati ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O‘SISH REJASINI TUZISH

Xayridinov Behzod Kamoldin o‘g‘li,
Chirchiq DPU o‘qituvchisi.
Xurramova Mehrigul Xusanovna,
Chirchiq DPU “Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi” talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish rejasini tuzishning mazmuni, ahamiyati hamda uni amalga oshirishning asosiy bosqichlari yoritilgan. Zamonaviy jamiyatda mutaxassisdan doimiy ravishda o‘z bilim va malakasini oshirib borish talab etiladi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda ishlovchi mutaxassislar uchun o‘z ustida ishlash, yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish muhim hisoblanadi. Maqolada o‘z-o‘zini rivojlantirish tushunchasi, kasbiy o‘sish rejasini tuzishning maqsadi, asosiy bosqichlari va uni amalga oshirish usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, mutaxassisning shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish orqali uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy o‘sish, shaxsiy rivojlanish rejasi, kompetensiya, motivatsiya, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, pedagogik mahorat.*

Bugungi kunda ilm-fan, texnologiya va jamiyat taraqqiyoti jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bu jarayon har bir mutaxassisdan zamonaviy bilim, yuqori malaka va kasbiy kompetensiyalarni talab etadi. Shu sababli o‘z ustida ishlash, bilim va ko‘nikmalarni muntazam ravishda oshirib borish zamonaviy mutaxassis uchun zaruriy shart hisoblanadi.O‘z-o‘zini rivojlantirish insonning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Kasbiy o‘sish esa mutaxassisning o‘z faoliyati davomida yangi bilim va tajribalarni egallashi, o‘z kasbiy mahoratini oshirib borishi bilan bog‘liq. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun aniq reja asosida faoliyat yuritish muhim ahamiyatga ega.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning mohiyati: O‘z-o‘zini rivojlantirish – bu shaxsning o‘z bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga qaratilgan

jarayondir. Bu jarayon insonning ichki ehtiyoji, motivatsiyasi va kelajakdagi maqsadlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: - yangi bilimlarni o‘rganish; - kasbiy malakani oshirish; - o‘z faoliyatini tahlil qilish; - shaxsiy kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish; - yangi ko‘nikmalarni egallash.

Ayniqsa, ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun o‘z ustida ishlash muhim hisoblanadi. Chunki pedagog zamonaviy metodlarni bilishi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi va o‘quvchilar bilan samarali ishlashi kerak.

Kasbiy o‘sish rejasini tuzish mutaxassisning o‘z faoliyatini maqsadli ravishda rivojlantirishiga yordam beradi. Bu reja mutaxassisga o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. Kasbiy rivojlanish rejasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: - shaxsiy va kasbiy maqsadlarni aniqlash; - zarur bilim va ko‘nikmalarni belgilash; - rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash; - faoliyat natijalarini tahlil qilish.

To‘g‘ri tuzilgan kasbiy rivojlanish rejasi mutaxassisning o‘z sohasida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Kasbiy o‘sish rejasini tuzish bosqichlari. Kasbiy rivojlanish rejasini tuzish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. O‘zini tahlil qilish. Birinchi bosqichda mutaxassis o‘zining mavjud bilim darajasi, tajribasi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Bu jarayon o‘z-o‘zini baholash orqali amalga oshiriladi.

2. Maqsadlarni belgilash. Keyingi bosqichda mutaxassis qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarni belgilaydi. Masalan: - yangi bilimlarni o‘rganish; - malaka oshirish kurslarida qatnashish; - ilmiy maqolalar yozish; - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish.

3. Faoliyat rejasini ishlab chiqish. Maqsadlarga erishish uchun aniq harakatlar rejasi ishlab chiqiladi. Bu rejada bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar va ularning muddatlari belgilanadi.

4. Rejani amalga oshirish. Rejaga muvofiq ravishda turli tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, seminarlar, treninglar, malaka oshirish kurslarida qatnashish va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish.

5. Natijalarni baholash. Oxirgi bosqichda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi va rejaning samaradorligi baholanadi. Zarur bo‘lsa, yangi rivojlanish rejasi ishlab chiqiladi.

Kasbiy rivojlanish usullari. Kasbiy rivojlanishni ta’minlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: - malaka oshirish kurslarida qatnashish; - ilmiy va metodik adabiyotlarni o‘rganish; - seminar va konferensiyalarda ishtirok etish; - tajriba almashish; - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish; - mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanish. Bu usullar mutaxassisning bilim va tajribasini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish rejasini tuzish har bir mutaxassis uchun muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayon mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagoglar uchun o‘z ustida ishlash, yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri tuzilgan kasbiy rivojlanish rejasi ta’lim sifatini oshirishga va mutaxassisning kasbiy mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli har bir mutaxassis o‘z faoliyatini rejalashtirishi, o‘z ustida muntazam ishlashi va zamonaviy bilimlarni egallab borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

2. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish. – T.: Fan, 2015.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ

Хидоятова Нигора Авазовна,
Преподаватель кафедры «Теория и практика дошкольного и начального образования» Чирчикского ГПУ.

Аннотация. *Коммуникативные навыки – основа успешной социализации ребенка, его взаимодействия с окружающим миром. Развитие речи, способность выражать эмоции, вести диалог, понимать собеседника – все это формируется с раннего возраста и играет ключевую роль в дальнейшей жизни. В статье рассматриваются этапы развития коммуникации у детей, возможные трудности и эффективные методы их преодоления.*

Ключевые слова: *коммуникативные навыки, развитие речи, дошкольное воспитание, социализация, детская психология.*

Введение. Общение – один из главных инструментов взаимодействия человека с окружающим миром. Уже с первых дней жизни младенец учится выражать свои потребности с помощью мимики, жестов, звуков. По мере взросления его коммуникативные способности расширяются, и к 3-4 годам он начинает активно использовать речь для взаимодействия с окружающими.

Развитие общения у детей проходит поэтапно и зависит от множества факторов: 1. Семейного окружения (родительского общения, количества разговоров в семье). 2. Стиля воспитания (поощрение или подавление инициативы ребенка). 3. Индивидуальных особенностей психики (темперамент, врожденные склонности). 4. Социальной среды (наличие сверстников, участие в коллективных играх, посещение детского сада).

Этапы развития коммуникативных навыков у детей. Развитие коммуникативных навыков у ребенка проходит постепенно, начиная с первых дней жизни и до школьного возраста. Коммуникация включает в себя не только речь, но и невербальные способы выражения мыслей: мимику, жесты, интонацию. Формирование этих навыков происходит под влиянием среды, в которой растет ребенок, а также его индивидуальных особенностей.Развитие общения у детей можно разделить на несколько ключевых этапов, каждый из которых характеризуется определенными навыками и потребностями.

Дошкольный возраст (от рождения до 6 лет).

Младенческий период (0–1 год). На этом этапе ребенок активно взаимодействует с окружающим миром, используя звуки, мимику, жесты. Он улыбается в ответ на внимание взрослых, начинает различать интонации, реагирует на голос матери.

Основные этапы формирования коммуникации: 1. 0–3 месяца – плач как основной способ выражения потребностей. 2. 3–6 месяцев – появление первых звуков («агу», гуление), реакция на голос взрослого. 3. 6–9 месяцев – активное использование мимики, жестов (тянет руки к родителям, улыбается, хмурится).

4. 9–12 месяцев – появление первых осмысленных слов («мама», «папа»), имитация звуков.

Как развивать: 1. Разговаривать с младенцем, использовать ласковые интонации. 2. Поддерживать зрительный контакт, улыбаться, повторять его звуки. 3. Отвечать на лепет, показывая, что общение двустороннее.

Ранний возраст (1–3 года). *Основные особенности:* 1. 12–18 месяцев – появление первых коротких слов («дай», «кот», «баба»). 2. 2 года – активное освоение новых слов, формирование первых предложений. 3. 3 года – ребенок уже может строить связные фразы, участвовать в диалоге, понимать простые инструкции. 4. Поощрять самостоятельную речь, не перебивать ребенка.

Основные изменения в коммуникативном развитии. *Расширение словарного запаса и усложнение речи:* 1. Дети начинают использовать более сложные грамматические конструкции. 2. Формируются навыки построения логически выверенных предложений. 3. Возникает потребность в точных формулировках, способности объяснять понятия, рассказывать истории.

Физиологические и психологические факторы. Некоторые дети испытывают трудности в коммуникации из-за особенностей своего организма или нервной системы. Эти проблемы могут быть врожденными или приобретенными в процессе развития.

Нарушения слуха и речи. Одной из частых физиологических причин проблем с общением являются нарушения слуха. Если ребенок плохо слышит, ему сложно воспринимать речь окружающих и учиться говорить.

Признаки: 1. Ребенок не откликается на обращение. 2. Часто переспрашивает или не понимает с первого раза. 3. Искажает звуки и слова, путает схожие по звучанию слова.

Как помочь? 1. При подозрении на проблемы со слухом обратиться к сурдологу. 2. Развивать артикуляцию с помощью логопедических упражнений.

Заключение. Развитие коммуникативных навыков у детей – это сложный и многоэтапный процесс, который играет ключевую роль в их социализации, когнитивном и эмоциональном развитии. Коммуникативные навыки обеспечивают ребенку успешную адаптацию в обществе, формирование межличностных связей, развитие когнитивных функций и эмоционального интеллекта. В статье были рассмотрены этапы развития коммуникации у детей, возможные трудности и их причины, а также эффективные методики, позволяющие развивать эти навыки. Важно понимать, что задержка в развитии речи, замкнутость, трудности в адаптации к коллективу – это не просто временные особенности, а сигналы, требующие внимания родителей и педагогов.

- ***Игровые методы,*** способствующие естественному развитию речи и навыков диалога.
- ***Сказкотерапию,*** развивающую способность к сочувствию и анализу социальных ситуаций.

Использованной литературы:

1. Выготский Л. С. *Мышление и речь*. – М.: Педагогика, 1982.
2. Гоулман Д. *Эмоциональный интеллект*. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2018.
3. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Развитие речи у детей. – М.: Просвещение, 2005.

O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATIDA MAQOMLAR TARIXI

Xolboyeva Nasiba Murodillo qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.
Lutfullayev Anvar Qudratovich,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU professori. Ilmiy rahbar.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi hamda ushbu hujjatlar mohiyatiga ko‘ra, uzluksiz ta’lim tizimining shakllanganligi ta’lim tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ta’lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Milliy musiqa ijodiyoti har bir xalqning ulkan ma’anaviy boyligi hisoblanadi.

Mumtoz musiqa san’atimiz durdonasi bo‘lmish Shashmaqom YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy me’rosi sifatida e’tirof etilib, uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilganining o‘zi buning yaqqol tasdig‘idir. O‘zbekiston va Tojikiston xalqlarining og‘zaki an’anadagi klassik musiqasi hisoblangan Shashmaqomni to‘plash va uni notaga olish ishlari XIX asr oxirlaridan to XX asrning oxirlariga qadar davom ettirilib, uni qayta qayta nashr etilishi mazkur mumtoz musiqa san’atining nechog‘lik katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. XIX asrning oxirlaridan Shashmaqom asarlarini muvofiq ravishda uning kuy qo‘shoqlarinimagnit tasmalarga yozib olinishi ulkan ilmiy – madaniy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi.

Tarixdan ma’lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o‘z madaniyati va san’ati shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bo‘lib, bu o‘sha xalqning, millatning ma’naviy boyligi hisoblangan. Ayniqsa sharq xalqlarining musiqiy madaniyati har bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va amaliy ijrochilik maktabiga ega bo‘lgan. Mustaqilligimizning sharofati ila milliy musiqa va qadriyatlarimiz, urf - odatlarimiz qayta jonlandi, milliy madaniyatimizga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Milliy kuy qo‘shiqlarimizga milliy san’atimizga e’tibor qaratildi. Shu jumladan, musiqamiz gultoji hisoblanmish Farg‘ona- Toshkent maqomlarimiz ham kata e’tibor qaratildi. Buning provardida ixtisoslashgan san’at maktablarida maqom bo‘limlari ochildi, O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi tasarrufidan an’anaviy ijrochilik bo‘limi alohida ajratib olingan holda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida "Maqom xonandaligi" fakultetiga asos solindi.

Maqom atamasi arabcha “Maqam” so‘zidan olingan bo‘lib, “iste’qomat o‘rni”, “turar joy” ma’nosini bildiradi. Musiqa lug‘atida esa maqom atamasi musiqa cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o‘rni, ya’ni parda ma’nosini anglatadi. Albatta ijroda tovushsiz yoki aniq pardasiz ijro shakllanmaydi va aniq musiqiy ohangni kashf eta olmaydi [2; 15-b.]. “Maqom” so‘zi cholg‘u so‘zidagi pardalar ya’ni notalarning joylashgan qismi degan ma’noni anglatadi Chunki maqom aniq pardadan boshlanadigan va tugallanadigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi.

IV asrning mashxur musiqa nazariyachisi Zaynulobiddin Husayniy “Qonun” asarida maqomga quyidagicha ta’rif beradi: “Sozning dastasiga bog‘lanadigan halqasimon to‘siqlar ya’ni halqalar “Maqom” deyiladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, maqom musiqa cholg‘ularining dastasiga bog‘lanadigan pardalardir. Shuning uchun

Sa’diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiyning musiqiy risolalarida maqom so‘zining ekvivalenti sifatida “parda” atamasi qo‘llanilgan.

XIII-XV asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda maqom atmasi “parda” so‘ziga teng ma’nodoshi deb ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, maqom deyilganda musiqa cholg‘ularining ijro etiladigan kuyga mos qilib cholg‘ularni sozlanishi ham nazarda tutilgan. Maqom – ma’lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir [3]. “G‘iyosil – lug‘at” asarining muallifi maqomni shunday ta’riflaydi: - “Ijro etiladigan kuy va ashulalarning pardasini maqom deydilar”.

Maqom atamasi sharq xalqlari musiqasida taxminan IX asrlardan qo‘llanila boshlangan. “Maqom” atamasi VIII-X asrlardan Uqlidis, Arastu singari yunon olimlarining musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi natijasida qo‘llanila boshlagan. Lekin IX-asrda yashab ijod etgan Yaxyo bin Abu Mansurning musiqa nazariyasiga doir asarida musulmon sharqi xalqlarida yunon musiqa nazariyasidan oldin ham o‘z yerlik xalqlarning o‘ziga xos musiqa nazariyasi mavjud bo‘lganligini aytib o‘tadi.

Maqomlarning nazariy va amaliy tomonlarini IX-XV asrlarda yashab ijod qilgan al-Kindiy, al-Farobiy, al-Xorazmiy, ibn Sino, al-Urmaviy, ash-Sheroziy, al-Xusayniy al-Marvaziy singari ulig‘ olimlarning ko‘plab asarlarida chuqur ilmiy sharxlar bilan asoslab berilgan. O‘rta osiyo xalqlarining XVI–XIX asrlarga doir madaniyat tarixi bilamizki, manbalarda yaxshi yoritilmagan. XVI asrdan boshlab o‘rta asr sharq fani va madaniyatida Islom dinining ta’siri kuchaya boradi. Shu davrlarda yaratilingan fan va san’atga oid risolalarda ta’siri kuchlidir. Maqomlar ko‘pchilik Sharq xalqlarida juda Qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan, professional sozanda va xonandalar tomonidan yaratigan musiqa janridir. Ular har bir xalqning o‘ziga xos musiqa boyliklari asosida yaratilgan va uzoq madaniy- tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil janr sifatida yuzaga kelgan.

Maqomlar Sharq xalqlarining musiqa merosida juda katta o‘rin tutadi. Shuning uchun ham maqom masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini ko‘pdan beri o‘ziga jalb etib keldi va bu masala musiqa madaniyatimizda juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy jihatdan ta’sir ko‘rsatdi. Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar va tarixiy- adabiy xarakterdagi manbalarning ko‘plarida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Ko‘pgina musiqashunos olimlar maqomlarga munosabatlarini hamda ular haqida o‘zlarining ma’lum fikrlarini bildirib kelganlar. Maqomlar xalq musiqasiga asoslanadi; ular negizida ko‘pgina musiqa asarlari yaratilgan. Maqomlarning ham nazariy va amaliy tomonlari bor.

Ularning nazariy jihatlari Sharq musiqasiga bag‘ishlangan risolalarda o‘z aksini topgan. Shuni aytish kerakki, Sharq olamida maqom tizimlarining paydo bo‘lishi uchun zarur omillar IX-X asrlarda yuzaga kelgan edi. Zero bu asrlarga kelib o‘zida ilmiy-ijodiy kuchlarni bir makonda mujassam etgan Bag‘dod, Damashq, Samarqand, Buxoro, Urganch, Farg‘ona, Toshkent kabi yangi tipdagi shaharlar uzil-kesil shakllandi. Shuni ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo shaharlari umum savodxonlik markazlari ham edi

Aynan shu davrlarga kelib nafislar davrasida samo‘ (qalban zavqli tinglash) amaliyoti keng yoyildi, musiqaga tasavvuf namoyandalari tomonidan nozik ta’riflar berildi. Jumladan, taniqli muhaddis, shayx Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiyning (vaf. 994 y.) “nag‘ma – jon quvvati va ruh ozig‘iturur” iborasi mazmunan teranligi bilan musiqa haqida shakllanayotgan ko‘pgina qarashlarga muhim asos bo‘ldi. Bu ibora hozirga qadar ham musiqaga berilgan chuqur ma’noli go‘zal ta’riflar qatorida ma’lum va mashhurdir.

Ayni paytda kasbiy musiqa qatlami yangi bosqichga yuksaldi, musiqa ilmi alohida fan sifatida uzil-kesil shakllandi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda maqom xususidagi ta’riflarga quyidagilarni qo‘shimcha etish mumkin:

1) Maqom – bu sadolarda in’ikos etgan hikmatlardir. Insonning ruhiy-ma’naviy kamoloti sari yuksalishi va shu tariqa chin Haqiqatga erishuvi bu hikmatlar o‘zagini tashkil etadi.

2) Maqom bu tariqat bosqichlarining o‘ziga xos musiqiy ifodasi bo‘lgan mukammal pardalar uyushmasi va shu asosda berilgan kuy mavzusini ma’lum yo‘sinda (quyidan yuqoriga qarab izchil) rivojlantirish uslubidir.

Maqomlar tarixini o‘zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davrni maqomlarning qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy-ohang qatlamlari tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda tom ma’nodagi maqomlar bo‘lmagan. Zotan, bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga dahldor bo‘lib, bu ikkinchi davrni tashkil etadi.

Maqom kuy-ohanglarining qadimiy qatlamlarini o‘rganishga ko‘mak bo‘luvchi maxsus musiqiy risolalar yo‘q. Ammo “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari” – bu borada tasavvur beradigan muhim manbalar sanaladi. Zero, maqom kuylarining xususiy “tip” tuzilishi ular tarkibida uyg‘unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olishga imkon beradi. Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko‘ra, maqomlarning eng qadimiy namunalari payg‘ambarlardan meros qolgan.

Bu haqda XVI asr ikkinchi yarmi XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfat us-surur” nomli risolasida ma’lumotlar bor. Maqomlarda mavjud muhim musiqiy qatlamni xalq og‘zaki musiqa ijodiyotining ko‘hna namunalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid “izlari” ham saqlangan [1]. Xususan, bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro‘zi ajam, Navro‘zi xoro, Navro‘zi sabo nomli maqom asarlarida ko‘ramiz.

Demak, maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma’nodagi maqomlar tarixi bo‘lmay, balki ko‘proq ularning kelib chiqish manbalari bo‘lgan ko‘hna davr kuy qatlamlariga dahldordir. Xuddi ana shu turli qatlam musiqa namunalari asosida usluban badiiy yaxlit maqom tizimlarining shakllanish davrlarida bevosita mumtoz maqomlar tarixi ham boshlanadi. Zero, maqom kuylarining xususiy “tip” tuzilishi ular tarkibida uyg‘unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olishga imkon beradi. Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko‘ra, maqomlarning eng qadimiy namunalari payg‘ambarlardan meros qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. Farg‘ona - Toshkent maqomi. – T., 2006

2. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent. 2016.

3. Ramazonova O‘.X. Maqom yakka xonandaligi. / O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” durdona nashriyoti, - 2022. – 212 b.

4. Yunusov R. Sharq xalqlari maqomlari. / O‘quv qo‘llanma. Toshkent. – 2022.

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY VA METODIK ASOSLARI

Xolmatova Salima Kuziboyevna,
Chirchiq DPU, “Boshlang‘ich ta’limda amaliy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, mustaqil ta’lim jarayonining mohiyati, uning didaktik tamoyillari, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosidagi o‘rni hamda ahamiyati yoritiladi. Tezisda mustaqil ta’limni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlari – o‘quv jarayonini rejalashtirish, mustaqil ish turlarini belgilash, ularni nazorat qilish va baholash tizimlari hamda zamonaviy raqamli ta’lim muhitidan samarali foydalanish masalalari keng ko‘lamda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha va tadqiqot faoliyatining o‘rni asoslab beriladi. Talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, kompetensiya, metodik yondashuv, tashkiliy mexanizm, pedagogik texnologiya, innovatsion ta’lim.*

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida raqobatning kuchayishi oliy ta’lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy sharoitda nafaqat bilimga ega bo‘lgan, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan va bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta’lim oliy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u talabalarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga, ularni tizimlashtirishiga hamda mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil ta’lim talabalarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Bugungi kunda an’anaviy o‘qitish modelidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim tizimiga o‘tish jarayonida mustaqil ta’limning roli yanada ortib bormoqda. Chunki aynan mustaqil ta’lim orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash, kasbiy faoliyatga tayyorlanish va uzluksiz ta’lim olish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini chuqur o‘rganish, uni samarali yo‘lga qo‘yish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Mustaqil ta’limning nazariy asoslari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida ishlab chiqilgan ilg‘or yondashuvlarga tayanadi. Jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda talaba o‘quv jarayonining markazida bo‘lib, uning mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Faoliyatga asoslangan yondashuv esa bilimlarni tayyor

holatda berish emas, balki ularni faoliyat jarayonida egallashni ko‘zda tutadi. Bunda talaba turli topshiriqlarni bajarish orqali bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish va o‘z faoliyatini boshqarish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil o‘rganishga undaydi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mustaqil ta’limning mazmuni murakkab tuzilishga ega bo‘lib, bir nechta asosiy komponentlardan iborat. Kognitiv komponent talabaning bilimlar tizimini egallashi bilan bog‘liq bo‘lib, unda tushunchalar, qonuniyatlar va nazariy bilimlar shakllanadi. Operatsion komponent esa ushbu bilimlarni amalda qo‘llash, turli vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Motivatsion komponent talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishi, o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishi va mas’uliyat hissini shakllantiradi. Refleksiv komponent esa talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, natijalarni baholashi, xatolarni aniqlashi va kelgusida ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishini ta’minlaydi. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi mustaqil ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun puxta ishlab chiqilgan tashkiliy asoslar zarur. Eng avvalo, o‘quv rejalari va fan dasturlari asosida mustaqil ishlarning hajmi va mazmuni aniq belgilanishi kerak. Talabalarga beriladigan topshiriqlar ularning bilim darajasi, qiziqishi va tayyorgarligiga mos bo‘lishi muhimdir. Mustaqil ta’lim turlarini diversifikatsiya qilish, ya’ni esse, referat, loyiha, keys, prezentatsiya, amaliy topshiriqlar kabi turli shakllardan foydalanish talabalarning faolligini oshiradi va o‘qish jarayonini qiziqarli qiladi. O‘quv yuklamasini optimal taqsimlash esa ortiqcha yuklamaning oldini olib, talabaning samarali ishlashiga yordam beradi. Reyting asosida baholash tizimini joriy etish orqali talabaning har bir faoliyati baholanadi va bu uning mas’uliyatini oshiradi. Zamonaviy raqamli ta’lim platformalari (LMS tizimlari) orqali topshiriqlarni berish, nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish jarayoni ancha yengillashadi. Shuningdek, monitoring va diagnostika tizimi orqali talabalarning bilim darajasi muntazam ravishda tahlil qilinib boriladi va zarur hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi talabalarni muammoli vaziyatlarga duch keltirib, ularni mustaqil yechim izlashga undaydi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Loyiha metodi esa talabalarga ma’lum bir muammoni chuqur o‘rganish, uni amaliy jihatdan hal qilish va natijani taqdim etish imkonini beradi. Tadqiqot metodi orqali talabalar ilmiy izlanish olib borish, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydi. Interfaol metodlar, jumladan, munozara, “aqliy hujum”, guruhli ishlar talabalarning muloqot qilish, fikr almashish va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar esa mustaqil ta’lim imkoniyatlarini kengaytirib, elektron resurslar, onlayn kurslar va virtual platformalar orqali bilim olishni yanada qulay va samarali qiladi.

Mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish bir qator muhim omillarga bog‘liq. Avvalo, talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirish zarur bo‘lib, bu ularning mustaqil ishlashga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Buning uchun o‘qituvchi darslarni qiziqarli tashkil etishi, real hayot bilan bog‘liq topshiriqlar berishi va talabaning muvaffaqiyatini rag‘batlantirishi lozim. Individual va differensial yondashuvni qo‘llash orqali har bir

talabaning imkoniyatlari, qobiliyatlari va o‘zlashtirish darajasi inobatga olinadi. Mustaqil ishlarni metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish, ya’ni aniq ko‘rsatmalar berish, namunalar ko‘rsatish va maslahatlar berish ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali aloqa (feedback)ni tashkil etish orqali talaba o‘z xatolarini tushunadi va ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa mustaqil ta’lim jarayonini yanada interaktiv, tezkor va samarali qiladi. Umuman olganda, mustaqil ta’limni ilmiy asosda tashkil etish, uning tashkiliy va metodik jihatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish talabalarning bilim darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etishning tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish zamonaviy oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim va ajralmas yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bilimlar hajmining keskin ortib borishi, axborot oqimining kengayishi hamda mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning ortishi talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni egallashni, balki mustaqil ravishda bilim olish, ularni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ham talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta’limni ilmiy asosda tashkil etish, uning tashkiliy mexanizmlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va samarali metodik yondashuvlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Mustaqil ta’lim jarayonining puxta rejalashtirilishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi, shuningdek, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi ularning bilim olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ядгарова Александра Борисовна,
Сотрудник международного Альянса по инклюзивному образованию в Центральной Азии.

Аннотация. *В статье раскрывается необходимость совершенствования методик применения изобразительного искусства в профессиональной подготовке педагогов дошкольного образования и предложены направления их модернизации.*

Ключевые слова. *методики, изобразительное искусство, специалисты, дошкольное образование, ребенок, документы, квалифицированные педагоги, роль, воспитание, повышение квалификации.*

Один из важных законов Президента РУз Ш.М. Мирзиёева о дошкольном образовании – Указ Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2024 года

№ УП-152 «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества и эффективности дошкольного образования». [1]. Документ предусматривает разработку учебно-методических материалов, направленных на формирование познавательных, коммуникативных и творческих компетенций у детей старших групп и групп предшкольной подготовки, в котором включены методики использования изобразительного искусства.

Этот указ был своевременно издан в связи с растущей ролью художественно-эстетического развития в формировании личности ребёнка, необходимостью адаптации образовательных подходов к современным требованиям и вызовам, а также с потребностью в квалифицированных педагогах, способных эффективно реализовывать эти методики. Помимо этого указа в Республике Узбекистан Президент и институциональные учреждения разработали и разрабатывают законы и постановления, которые начинают функционировать в республике по совершенствованию качества образования специалистов первого звена образования в республике – дошкольному. Так в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 8 мая 2019 года № ПП-4312 «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» акцентируется внимание на улучшение качества образования, о внедрении новых образовательных стандартов и формировании гражданской идентичности у детей. [2].

Это создаёт предпосылки для разработки и внедрения инновационных методик, включая использование изобразительного искусства. Один из таких важных документов это Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан, которые утверждены приказом Министра дошкольного образования от 18 июня 2018 года. [3]. В данном документе выделены пять основных областей развития ребёнка, включая творческое развитие. В рамках этой области предусмотрено требование, чтобы ребёнок демонстрировал своё видение и понимание мира через различные средства искусства.

Существуют также и государственные стандарты высшего образования, основанные на разработках отечественных и зарубежных специалистов. [4]. В Узбекистане действуют стандарты, которые включают требования к формированию общекультурных компетенций, в том числе эстетического восприятия и творческого мышления. Эти стандарты разрабатываются с учётом международных практик и направлены на подготовку специалистов, способных к критическому мышлению и креативности в изобразительном искусстве.

Какие возможны направления для совершенствования методик по изобразительному искусству в подготовке специалистов дошкольного образования в высших учебных заведения Республики:

- Интеграция эстетического воспитания в образовательные программы в соответствии с требованиями закона и государственных стандартов.

- Включение дисциплин по искусству и культуре в учебные планы. Это могут быть курсы по истории искусства, музыке, изобразительному искусству, которые развивают эстетический вкус и понимание культурных ценностей.

- Междисциплинарный подход. Интеграция эстетических аспектов в профессиональные дисциплины (например, использование визуальных методов в науке, анализ эстетики технических решений в инженерии).

- Практические занятия и творческие проекты. Рисование, музыка, театральные постановки, участие в художественных выставках и фестивалях способствуют развитию творческих способностей и эмоционального интеллекта студентов ВУЗов.

- Использование современных технологий. Виртуальная реальность, цифровые медиаплатформы и интерактивные проекты расширяют возможности эстетическо-художественного образования, делая его более доступным и разнообразным.

- Сотрудничество с культурными учреждениями. Партнёрство с музеями, театрами, художественными галереями позволяет организовать экскурсии, мастер-классы и другие мероприятия, углубляющие эстетическо-художественное восприятие.

Сегодня существуют значительные проблемы современной подготовки будущих специалистов, и анализ практики их работы показывает, что профессиональная подготовка будущих педагогов часто не соответствует современным требованиям к эстетическо-художественному воспитанию дошкольников. Основные проблемы заключаются в следующем:

- *Отсутствие системной подготовки* к управлению процессом эстетического воспитания на курсах повышения квалификации дошкольных работников (данная методика не читается на курсах).
- *Недостаток знаний* о современных методиках и технологиях преподавания изобразительного искусства (преподаватели методики изобразительной деятельности в ВУЗах сами не владеют изобразительными способностями и технологией преподавания).
- *Ограниченность традиционных подходов,* которые не всегда учитывают индивидуальные особенности детей и не стимулируют творческое мышление, как здоровых детей, так и детей с особыми нуждами, которым необходимы специальные методы и приемы работы.

Изучая данную проблему в своем исследовании, нами были определены возможные направления для совершенствования методик изобразительного искусства в подготовке будущих специалистов дошкольного образования:

- *разработка учебно-методических материалов,* включающих современные подходы к использованию изобразительного искусства для развития творческих компетенций у детей.
- *внедрение инновационных технологий* (например, мультимедийных средств, интерактивных панелей) для повышения наглядности и интереса к предмету.
- *организация проектной деятельности* и групповых работ, связанных с методикой изобразительного искусства, что способствует развитию критического мышления и исследовательских навыков.
- *повышение квалификации педагогов* через обучение современным методикам и технологиям, включая арт-терапию, нетрадиционные техники и другие формы работы с детьми.

Необходимо отметить, изданные отечественные учебники и учебно-методические пособия по методике изобразительной деятельности, в которых разработаны интерактивные материалы в помощь для студентов ВУЗов для бакалавров и магистров – авторов кандидата педагогических наук, доцента Т.Л.Чабровой и магистра филиала Российского педагогического университета им. А.И.Герцена в Ташкенте А.Б.Ядгаровой «Методика обучения изобразительной

деятельности», а также учебник Чабровой Т.Л. «Теория и методика изобразительной деятельности». В этих учебниках раскрываются классические и интерактивные методы обучения по методике изобразительной деятельности в детском саду.

Совершенствование методик использования изобразительного искусства в подготовке специалистов дошкольного образования требует комплексного подхода. Необходимо сочетать традиционные методы с инновационными технологиями, уделять внимание индивидуализации обучения и развитию критического мышления у детей. Ключевую роль играет качественная подготовка педагогов, способных реализовать эти подходы на практике по методике изобразительной деятельности. Это позволит не только повысить уровень эстетического воспитания дошкольников, но и сформировать поколение творчески активных, гармонично развитых личностей в дошкольном образовании.

Использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2024 года № УП-152 «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению качества и эффективности дошкольного образования»/
2. Постановлении Президента Республики Узбекистан от 8 мая 2019 года № ПП-4312 «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года».
3. Приказ Министра дошкольного образования от 18 июня 2018 года.
4. Чаброва Т.Л., Ядгарова А.Б. Методика обучения изобразительной деятельности. учебник.-Т.: «ZEBO PRINTS»,2025.-422с.

АЛГОРИТМ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ТРЕКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА

Ядгарова Александра Борисовна,
Сотрудник международного Альянса по инклюзивному образованию в Центральной Азии.

Аннотация. *В статье раскрывается пошаговый алгоритм проектирования трека, показывается содержание каждого этапа и инструменты его реализации. Представляется структура алгоритма, описывается содержание и задачи каждого этапа, даются практические рекомендации по реализации алгоритма, а также понятие и принципы алгоритма.*

Ключевые слова. *алгоритм, трек, профессиональная деятельность, принцип, результаты, цель, ИКТ, этапы, инструменты выбора, результаты.*

Трек профессиональной деятельности — индивидуальная программа развития педагога, направленная на системное повышение компетентности и качества работы. Его проектирование требует чёткой последовательности действий — алгоритма, который обеспечивает осознанность, управляемость и измеримость процесса.

Алгоритм проектирования трека – упорядоченная последовательность действий педагога и сопровождающих специалистов (методиста, наставника), направленная на: выявление профессиональных дефицитов; постановку целей и

задач; выбор средств и форм развития; реализацию плана; оценку и коррекцию результатов.

Принципы алгоритма заключаются в следующем: индивидуализация – учёт личного опыта, уровня и запросов педагога; системность – взаимосвязь всех этапов и компонентов трека; реалистичность – соответствие целей ресурсам и срокам; рефлексивность – постоянный самоанализ и корректировка; документированность – фиксация этапов и результатов в портфолио.

Всего существует 6 этапов алгоритма.

Этап 1. Диагностика и самоанализ. *Цель:* выявить сильные стороны и профессиональные дефициты, определить зоны роста. *Инструменты:* анкетирование и интервью; анализ педагогической деятельности (занятия, документация, взаимодействие с семьями); самооценка по профессиональному стандарту; диагностика методических компетенций (тесты, кейсы); анализ результатов мониторинга качества образования в группе. *Результаты первого этапа заключаются в следующем:* перечень выявленных дефицитов; список ресурсных областей (что уже получается хорошо); обоснование необходимости трека.Документы: диагностическая карта, лист самооценки, аналитическая записка.

Этап 2. Целеполагание и планирование. *Цель:* сформулировать цели, задачи и план действий на определённый период (1–3 года). *Действия:* Определить индивидуальную тему самообразования (например, «Развитие речевой активности дошкольников через игровые технологии»). Сформулировать цель трека (общая направленность развития). Выделить задачи (конкретные шаги к цели). Выбрать формы самообразования (индивидуальные/групповые). Наметить мероприятия (курсы, семинары, мастер-классы, конкурсы). Определить продукты деятельности (конспекты, пособия, публикации). Установить сроки и критерии выполнения. *Результаты второго этапа алгоритма:* чёткая формулировка цели и задач; календарный план мероприятий; перечень ожидаемых продуктов.Документы: индивидуальный план повышения квалификации, дорожная карта трека.

Этап 3. Проектирование содержания. *Цель:* наполнить трек конкретными направлениями и видами деятельности. *Направления работы:* профессиональное (изучение ГОС ДО, методик, технологий); психолого-педагогическое (возрастная психология, диагностика, взаимодействие с семьями); методическое (освоение новых форм, разработка материалов); ИКТ (цифровые инструменты, мультимедийные ресурсы); здоровье сбережение (технологии ЗОЖ, двигательные паузы). *Инструменты выбора содержания следующие:* рекомендации методических центров; программы повышения квалификации; опыт коллег и профессиональных сообществ; актуальные исследования и публикации. *Результаты:* структурированный план по направлениям; перечень ресурсов и источников; график мероприятий.Документы: содержательный раздел трека, ресурсная карта.

Этап 4. Реализация трека. *Цель:* последовательно выполнить запланированные мероприятия и зафиксировать результаты. *Действия:* посещение курсов, семинаров, вебинаров; разработка и апробация новых материалов (конспекты, игры, пособия); участие в конкурсах и конференциях; ведение рефлексивного дневника; консультирование с методистом/наставником; сбор доказательств роста (отзывы, грамоты, фото, видео). *Результаты:* выполненные мероприятия согласно плану; накопленные продукты деятельности; первичная

рефлексия по ходу реализации.Документы: отчёт о мероприятиях, портфолио, рефлексивный дневник.

Этап 5. Мониторинг и промежуточная оценка. *Цель:* отследить динамику, выявить затруднения, при необходимости скорректировать план. *Инструменты:* самоанализ по критериям трека; обратная связь от методиста, коллег, родителей; анализ продуктов деятельности; промежуточные диагностики (тесты, наблюдения); обсуждение на методических мероприятиях. *Результаты:* оценка степени выполнения задач; выявление причин отклонений от плана; предложения по корректировке. *Документы:* промежуточный отчёт, протокол обсуждения, скорректированный план.

Этап 6. Рефлексия и итоговая оценка. *Цель:* проанализировать результаты, сформулировать выводы и наметить новые цели. *Действия:* сопоставление достигнутых результатов с целями трека; анализ личностного и профессионального роста; оценка эффективности выбранных форм и методов; подготовка отчёта и презентации опыта; постановка новых задач на следующий период. *Результаты:* итоговый отчёт о реализации трека; портфолио с доказательствами роста; новая индивидуальная тема самообразования. *Документы:* итоговый отчёт, презентация опыта, рекомендации для следующего трека.

В чем заключается сопровождение трека. На всех этапах педагогу обеспечивается поддержка: методист ДОО — консультирует, помогает в планировании и оценке; наставник — сопровождает практическую реализацию; методические объединения — предоставляют площадку для обмена опытом; ИПК/центры повышения квалификации — организуют курсы и семинары.

Основные документы трека: Индивидуальный план повышения квалификации (цель, задачи, сроки, мероприятия). Дорожная карта трека (календарный график).Рефлексивный дневник (записи по ходу реализации). Портфолио (продукты, грамоты, отзывы). Промежуточный и итоговый отчёты (анализ результатов). Презентация опыта (для педсовета, конференции).

Типичные ошибки при проектировании-формальный подход к диагностике (без глубокого анализа дефицитов); нечёткость целей (слишком общие или нереалистичные формулировки); перегрузка планом (несоответствие ресурсов и сроков); отсутствие рефлексии (нет анализа промежуточных результатов); слабая документальная фиксация (неполные портфолио, отчёты); игнорирование сопровождения (работа без обратной связи от методиста).

Практические рекомендации заключаются в следующем. Начинать необходимо с глубокой диагностики — использовать несколько методов. Формулировать конкретные, измеримые цели (например, не «повысить компетентность», а «освоить 3 новые игровые технологии к маю»). Планировать реальные сроки с запасом на непредвиденные обстоятельства. Вести рефлексивный дневник — записывайте мысли, затруднения, находки. Собирать доказательства роста (фото занятий, сканы пособий, отзывы). Регулярно консультироваться с методистом — корректируйте трек по ходу дела. Использовать цифровые инструменты (электронные портфолио, онлайн-курсы, чаты профессиональных сообществ). В конце трека провести итоговую рефлексию — что получилось, что нет, почему, что дальше.

Алгоритм проектирования трека – это инструмент осознанного профессионального роста, который: превращает повышение квалификации из

формальности в личную задачу; делает развитие педагога управляемым и измеримым;способствует системному совершенствованию педагогической практики. Успешность педагогического трека зависит от чёткости алгоритма, глубины рефлексии и готовности педагога к постоянной работе над собой.

Литература

1. А.Н.Сакаевой, Г.И.Чемодановой и С.Б.Мукушевой «Мониторинг компетенций непрерывного профессионального развития будущих педагогов: мотивационно-целевой компонент» // «Вестник Северо-Казахстанского университета имени Манаша Козыбаева» в 2025 году, номер 2 (66), страницы 83-93.

2. Федосеева З.А. Траектории развития квалификации педагогических работников: социально-нормативные основания // Психолого-педагогическая наука и образование, 2018.

3. Darling-Hammond L. идр. Effective Teacher Professional Development: Research overview and practice – Learning Policy Institute, 2017.

MAHALLA, MAKTAB VA OTA-ONALAR HAMKORLIGIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Yusupbayeva Amangul Saparbayevna,
Chirchiq DPU. “Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
Abduraimov Said Mamarasulovich,
Chirchiq DPU, “Jismoniy madaniyat” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mahalla, maktab va ota-onalar hamkorligi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari va zamonaviy metodlari yoritilgan. Maqolada bolalarda jismoniy faollikni oshirish, sog‘lom turmush odatlarini shakllantirish va ruhiy barqarorlikni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, hamkorlik tizimini tashkil etishning samarali yo‘llari, pedagogik shart-sharoitlar va amaliyotga tatbiq etish mexanizmi batafsil tushuntirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *jismoniy madaniyat, boshlang‘ich ta’lim, sog‘lom turmush, hamkorlik, pedagogik model, innovatsion metodlar, sog‘lom odatlar, ota-ona, mahalla.*

Bolalar salomatligi va jismoniy rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Boshlang‘ich sinf davri bolalarda sog‘lom odatlarni shakllantirish va jismoniy madaniyatni rivojlantirish uchun eng samarali bosqichdir. Shu sababli, mahalla, maktab va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik bolalarni sog‘lom turmushga va jismoniy faollikka yo‘naltirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat bolalarda tana rivojlanishi, harakat koordinatsiyasi, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Agar bu odatlar boshlang‘ich sinfda mustahkam o‘rnatilsa, u keyingi maktab va hayot davrida barqaror bo‘ladi.

Jismoniy madaniyat – bu bolaning jismoniy rivojlanishi, sportga qiziqishi, sog‘lom turmush odatlari va gigiyena ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi tizimdir.

Jismoniy salomatlik. - Ertalabki badantarbiya va sport mashg‘ulotlari. - Harakatli o‘yinlar va estafetalar. - Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar.

Sog‘lom turmush odatlari. - To‘g‘ri ovqatlanish. - Gigiyenik ko‘nikmalar. - Kun tartibiga rioya qilish.

Ruhiy barqarorlik. - Ijobiy psixologik muhit. - Stressni boshqarish ko‘nikmalari. - Hamkorlik va jamoaviy o‘yinlar.

Mahalla-maktab-ota-ona hamkorligi. Hamkorlik bolalarda sog‘lom turmush odatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mahalla. - Sport tadbirlarini tashkil etadi. - Sog‘lom turmushni targ‘ib qiladi. - Maktab va bolalar bog‘chasi bilan integratsiya qiladi.

Maktab. - Jismoniy madaniyat darslari o‘tkazadi. - Interfaol va loyihaviy metodlarni qo‘llaydi. - Bolalarni harakatli o‘yinlar orqali rivojlantiradi.

Ota-onalar. - Uyda sog‘lom odatlarni mustahkamlaydi. - Bolalarni sport va harakatli o‘yinlarda rag‘batlantiradi. - Bolalarning kun tartibi va ovqatlanishini nazorat qiladi. - Hamkorlik bolalarda jismoniy faollik va sog‘lom turmushga qiziqishni oshiradi.

Zamonaviy pedagogik model. Pedagogik model quyidagi komponentlardan iborat: *Maqsad:* Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy madaniyat va sog‘lom turmush ko‘nikmalarini shakllantirish. *Mazmun:* Jismoniy mashqlar, sog‘lom ovqatlanish, gigiyena, ruhiy barqarorlik. *Jarayon:* Interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, loyihaviy mashg‘ulotlar, AKT vositalari. *Shart-sharoit:* Sog‘lom ta’lim muhiti, motivatsiya tizimi, hamkorlik (mahalla va ota-ona), sport infratuzilmasi. *Natija:* Sog‘lom odatlar, jismoniy faollik, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuv.

Innovatsion metodlar: 1. Interfaol metodlar: aqliy hujum, muammoli vaziyat, rolli o‘yinlar. 2. O‘yin texnologiyalari: sog‘lom estafeta, sport musobaqalari, jamoaviy o‘yinlar. 3. Loyihaviy faoliyat: “Sog‘lom hafta” loyihasi, kun tartibi va ovqatlanish jadvalini tuzish. 4. AKT vositalari: interaktiv prezentatsiyalar va elektron testlar.

Bu metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, jismoniy faollik va sog‘lom turmushga motivatsiya yaratadi.

Tavsiyalar: 1) sinfda “Sog‘lom burchak” tashkil etish; 2) mahalla va ota-onalar bilan seminar va sport tadbirlarini o‘tkazish; 3) kunlik badantarbiya va jismoniy mashqlarni majburiylashtirish; 4) rag‘batlantiruvchi tizim orqali bolalarni faol ishtirokga jalb qilish.

Mahalla, maktab va ota-onalar hamkorligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Taklif etilgan pedagogik model bolalarda jismoniy faollik, sog‘lom turmush odatlari, gigiyenik ko‘nikmalar va ruhiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hamkorlik tizimi sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Natijada, modelni tatbiq etish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshiradi, bolalarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va sog‘lom avlodni tarbiyalashga ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi. – T.: Fan, 2012. – 210 b.
2. Sodiqov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2015. – 320 b.
3. Yo‘ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 256 b.
4. World Health Organization. Constitution of the World Health Organization. – Geneva, 1948.

O‘QUVCHILARDA TENGLAMA VA TENGSIZLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRUVCHI MASHQLAR TIZIMI

Shamsiyeva Sug‘diyona Ruyiddin qizi,
Chirchiq DPU, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika darslarida sodda tenglama va tengsizliklarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar tizimini taklif etiladi va ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Zamonaviy matematika taklif etilgan model murakkablikning bosqichma-bosqich oshib borishini, ko‘rgazmali tayanch vositalardan foydalanish, differensial (tabaqalashtirilgan) yondashuv hamda muammoli ta’lim elementlarini o‘z ichiga olishi misollar yordamida tushuntiriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, tenglamalar, tengsizliklar, elementar algebra, mashqlar tizimi, matematik kompetensiya, tabaqalashtirilgan ta’lim.*


Boshlang‘ich sinf matematika darslaridagi tenglama va tengsizliklar o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi va muammoni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshlang‘ich maktabda sodda tenglama va tengsizliklarni o‘rganish arifmetik hisob-kitobdan algebraik fikrlashga o‘tishdagi muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ko‘plab o‘quvchilar noma’lum belgilar va yetarli darajada shakllanmagan tushunchaviy asos sababli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shu sababli ko‘nikmalarni samarali shakllantirish uchun ilmiy asoslangan va tizimli mashqlar jamlanmasini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning nazariy poydevori konstruktivistik ta’lim nazariyasi hamda kompetensiyaga asoslangan ta’lim tamoyillariga tayangan holda, matematika sohasidagi tadqiqotlar, ko‘rgazmali modellar, manipulyativ vositalar (amaliy predmetlar) va bosqichma-bosqich abstraksiyalash jarayonining muhimligini ta’kidlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ramziy ifodalarga o‘tishdan oldin aniq va ko‘rgazmali tasavvurlarga ehtiyoji yuqori bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tenglama va tengsizliklarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish sonlar muvozanati tushunchasi, taqqoslash strategiyalari hamda munosabatli fikrlash asosida boshlanishi kerak.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, sinfda tajriba-sinov ishlari hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Taklif etilgan mashqlar majmuasi 3-4-sinf o‘quvchilarida 12 hafta davomida amaliyotga joriy etildi. Jarayon davomida amaliy aniqlik, mantiqiy fikrlash va qo‘llay olish ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni baholash uchun dastlabki diagnostik testlar hamda yakuniy nazorat testlari qo‘llanildi. Mashqlar majmuasi to‘rtta asosiy tamoyil asosida ishlab chiqildi: murakkablikning bosqichma-bosqich oshib borishi, ya’ni soddadan murakkabga qadar, ko‘rgazmalilik, tabaqalashtirish va faol ishtirokni ta’minlashdan iborat.

Mashqlarni bajarish ketma-ketligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga moslashtirilgan o‘zaro bog‘liq to‘rtta bosqichdan iborat:

1-bosqich – Aniq va ko‘rgazmali mashqlar. O‘quvchilar tenglik va taqqoslash tushunchalarini anglash uchun tarozi modeli, chizmalar va amaliy predmetlardan foydalanadilar. Masalan, noma’lum qo‘shiluvchini rasmlar yordamida aniqlashga doir topshiriqlar beriladi.


5. Jadval bo'yicha tenglama tuzing.

Bitta avtomobildagi eshiklar soni	Avtomobillar soni	Barcha eshiklar
4	5	x
x	5	20
4	x	20

1. 4 * 5 = x
2. x * 5 = 20
3. 4 * x = 20

Bu ko‘rinishdagi jadval asosida tenglama tuzishda o‘quvchilarda birinchi o‘rinda tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, jadvalga qarab o‘zi mustaqil tenglama tuza olish ko‘nikmasi rivojlanadi, ko‘paytirishning hamda undan tashqari barcha amallarning komponentlarini o‘rganadi.

2-bosqich – Yo‘naltirilgan ramziy mashqlar. O‘quvchilar o‘qituvchi ko‘magida x + 5 = 12 yoki x − 3 = 7 kabi sodda tenglamalarni yechadilar. Bunda teskari amallarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki ko‘p hollarda teskari amal bilan natijaga erishiladi deyilgan noto‘g‘ri mulohaza yuriltiladi. Ya’ni yuqorida keltirilgan tenglamani misol qilib olsak,


A) x+5=12
x=12-5
x=7
Javob: x=7.

B) 12-x=5
x=12-5
x=7
Javob: x=7.

Namunadagi 2 tenglama ham tahlil qilinganida, har doim ham teskari amal orqali tenglamaning yechimiga ega bo‘lmasligi yoritilgan.

3-bosqich – Tengsizliklarni mantiqiy tahlil qilishga doir mashqlar. O‘quvchilar ifodalarni taqqoslaydilar hamda yechimlar to‘plamini sonlar o‘qi yordamida tasvirlaydilar.

1) Misol uchun: b<6, ushbu tengsizlik uchun koordinata nurini yasab, unda bu tengsizlikning yechimlarini belgilang (3-sinf matematika darsligidan olingan).



Javob: b<6 bo‘lsa, 0 dan boshlab, 6 gacha bo‘lgan sonlarni yechim qilib olamiz.

2) Tengsizlik ko‘rinishida yozing. Bu tengsizliklarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘ring (3-sinf matematika darsligidan olingan).

a) 1230 va 1500 sonlari yig‘indisi 2000 dan katta.

Ushbu tengsizlikning javobi to‘g‘riligini tekshirish uchun avvalo ifodani tuzib olishimiz lozim. Tengsizlik tuzilgach, uni ishlab, so‘ng natijasi tekshiriladi.

1230 + 1500 > 2000
2730 > 2000
Javob: 2730 > 2000.

4-bosqich – Muammoli va ijodiy topshiriqlar. Matnli masalalar va ochiq turdagi topshiriqlar o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, mustaqil ravishda tenglama yoki tengsizlik tuzishga undaydi.

Tajriba natijalari o‘quvchilar ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish borligini ko‘rsatdi. Yakuniy test natijalari tenglama va tengsizliklarni yechish aniqligi bo‘yicha tajriba guruhi o‘quvchilari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishganini aniqladi. O‘quvchilar o‘z fikrini izohlash va algebraik tafakkurni matnli masalalarda qo‘llash qobiliyatini yaxshiroq namoyon etdilar. Aniq tasavvurlardan mavhum (abstrakt) ifodalarga bosqichma-bosqich o‘tish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayniqsa samarali ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot matematika darslarida tizimli o‘quv jarayonini loyihalash muhimligini ta’kidlaydi. O‘qituvchilar turli o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ko‘rgazmali vositalar, hamkorlikda muammo yechish usullari hamda tabaqalashtirilgan topshiriqlarni dars jarayoniga integratsiya qilishlari zarur. Ko‘nikmalar rivojlanishini kuzatib borish va o‘z vaqtida samarali fikr-mulohaza (feedback) berish uchun muntazam shakllantiruvchi baholashni qo‘llash tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tenglama va tengsizliklarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish faqat takroriy arifmetik mashqlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aniq modellardan mustaqil muammo yechishga bosqichma-bosqich o‘tishga asoslangan puxta tuzilgan mashqlar tizimi tushunchaviy anglashni ham, amaliy hisoblash malakasini ham rivojlantiradi. Taklif etilgan model matematika ta’limini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda boshlang‘ich sinf matematika o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N., Yangibayeva E. Boshlang‘ich sinf matematika darslari (1–4-sinflar uchun metodik qo‘llanma). – Toshkent: Sharq, 2020.

2. Musurmonova M. Matematika o‘qitish metodikasi. / O‘quv qo‘llanma. – Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 236 bet.

3. Shodiyev Sh. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.

4. 1-4 sinf Matematika darsligi (mualliflar guruhi). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.

ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СИСТЕМ, ОСНОВАННЫХ НА КОНСТРУКТИВИЗМЕ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Шарипова Шаҳноза Шавкат кизи,
Международный университет Осиё магистр.

Аннотация. *В статье будет освещено содержание и специфика педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах.ннотация. В статье будет освещено содержание и специфика педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах. Анализируется значение конструктивного подхода в превращении учащегося в аннотация. В статье будет освещено содержание и специфика педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах. Также обоснована эффективность этих педагогических систем в развитии качества образования и критического мышления учащихся.*

Ключевые слова: *конструктивизм, педагогическая система, общеобразовательная школа, качество образования, активный ученик, совместное обучение, рефлексия, критическое мышление.*

В системе образования процесс обучения и учения зачастую организуется в одностороннем формате, то есть как традиционная деятельность, ориентированная на учителя. При таком подходе знания преподносятся в готовом виде, а учащиеся в основном направляются на запоминание и воспроизведение информации. В результате ограничиваются возможности развития у обучающихся самостоятельного мышления, навыков решения проблем и творческой активности. В условиях современной глобализации, цифровизации и ускоренного обмена

информацией возникает необходимость нового взгляда на образовательный процесс, предполагающего формирование обучающегося как активного субъекта познания. С этой точки зрения внедрение педагогических систем, основанных на конструктивизме, в общеобразовательных школах становится актуальной задачей.

Конструктивизм [Хуторской 2012. -15-23] – это современная образовательная теория, рассматривающая обучение как активный познавательный процесс личности и выдвигающая в качестве основного принципа самостоятельное конструирование знаний обучающимся. Согласно данному подходу, знания формируются не как готовая информация, а на основе предшествующего опыта, имеющихся знаний учащегося и его взаимодействия с социальной средой. Поэтому в педагогических системах, основанных на конструктивизме, учитываются индивидуальный опыт, мировоззрение и стиль мышления каждого обучающегося. Это, в свою очередь, обеспечивает личностно-ориентированный характер обучения в общеобразовательных школах. Конструктивистский подход сформировался как реакция на бихевиористские и традиционные репродуктивные модели обучения. В рамках традиционного подхода ученик рассматривается как «чистый лист», а знания передаются через внешний источник. Конструктивизм же подчеркивает решающую роль имеющихся в сознании обучающегося предыдущих знаний, культурного опыта и социальных факторов в процессе создания новых знаний. В связи с этим педагогические системы, основанные на конструктивизме, принимают различия между учащимися как естественное явление и предполагают необходимость индивидуального подхода. Одной из важных особенностей данных педагогических систем является формирование знаний в процессе социального взаимодействия и сотрудничества. Работая в малых группах, совместно решая проблемные ситуации, обмениваясь мнениями и участвуя в дискуссиях, учащиеся обогащают свои знания. В процессе социального взаимодействия обучающиеся выдвигают собственные гипотезы, проверяют их, осознают ошибки и корректируют имеющиеся знания. Данный процесс способствует глубокому и устойчивому усвоению знаний, а также развитию у учащихся навыков критического мышления.

В педагогических системах, основанных на конструктивизме, коренным образом изменяется роль учителя. Учитель выступает не как односторонний транслятор знаний, а как организатор, направляющий и поддерживающий деятельность учащихся по конструированию знаний. Он выявляет предшествующие знания обучающихся, создает проблемные ситуации и побуждает их к самостоятельному поиску. В этом процессе учитель выполняет функции фасилитатора, консультанта и партнера [Кларин, 2013.]. В результате учащиеся осознают ответственность за собственные знания и активно участвуют в образовательном процессе. Кроме того, конструктивистские педагогические системы предполагают спиральную организацию содержания обучения. Это означает, что учащиеся неоднократно обращаются к ранее усвоенным знаниям, углубляя и расширяя их. Такой подход обеспечивает непрерывность и логическую взаимосвязь знаний. Согласно конструктивистской теории обучения, выдвинутой Дж.Брунером, развитие внутренней мотивации к обучению, представление учебного материала в доступной для учащегося структуре, последовательная подача содержания и рациональное использование механизмов поощрения являются важнейшими условиями конструктивистского обучения [Сериков, 2011].

Конструктивизм также способствует развитию у обучающихся навыков решения проблем, связанных с реальной жизнью. В образовательном процессе широко используются задания, основанные на реальных ситуациях, проектная деятельность, эксперименты и исследовательская работа [Загвязинский, 2014]. Это позволяет учащимся связывать теоретические знания с практикой, а также развивать социальные и коммуникативные компетенции. В результате выпускники общеобразовательных школ формируются как самостоятельные, мыслящие личности, готовые к активному участию в жизни общества.

Подводя итог, следует отметить, что педагогические системы, основанные на конструктивизме, в общеобразовательных школах способствуют коренному обновлению образовательного процесса. Данный подход трансформирует обучающегося из пассивного получателя знаний в активного их создателя, интегрирует содержание образования с личным опытом и социальной средой и создает основу для повышения качества образования. Конструктивистские педагогические системы имеют важное значение для формирования личности, соответствующей требованиям современного образования, обладающей конкурентоспособностью и социальной ответственностью.

Использованной литературы:

1. Хуторской А.В. Конструктивизм в образовании: теория и практика // Педагогика. – 2012. – № 4. – С. 15–23.

2. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в современной школе. – Москва: Просвещение, 2013.

3. Сериков В.В. Личностно-ориентированное образование: поиск новой парадигмы. – Москва: Логос, 2011.

4. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Современная дидактика: теория и практика обучения. – Москва: Академия, 2014.

EKOLOGIK TAQVIMNI TASHKIL ETISH, OBODONLASHTIRISH VA EKOLOGIK DIZAYN YARATISHGA O‘RGATISH

Shomurodova Klara Shavkat qizi,
Qurolboyeva Zarifa Anvar qizi,
Chirchiq DPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari.
Shanasirova Zaxro Yuldashovna
Chirchiq DPU dotsenti. Ilmiy rahbar.

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ekologik taqvimni tashkil etish, obodonlashtirish ishlarini rejalashtirish va ekologik dizayn yaratishga o‘rgatishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ekologik madaniyati, estetik didi va tabiatga ongli munosabatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ekologik taqvimni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning metodik yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik taqvim, ekologik dizayn, obodonlashtirish, ekologik ta’lim, ekologik madaniyat, pedagogik metodika.*

Kirish. Hozirgi davrda ekologik muammolarning kuchayishi yosh avlodni tabiatni asrash ruhida tarbiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ekologik ta’lim tizimida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Shu

jarayonda ekologik taqvimdan foydalanish, obodonlashtirish ishlarini tashkil etish va ekologik dizayn elementlarini o‘rgatish samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Ekologik taqvim yil davomida o‘tkaziladigan ekologik tadbirlar, tabiat hodisalari va ekologik sanalarni tizimli rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa ekologik tarbiyani uzluksiz va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Nazariy asoslar. Ekologik ta’limning samarali tashkil etilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: *Uzluksizlik* – ekologik ta’lim barcha yosh bosqichlarida davom etishi; *Tizimlilik* – bilimlar mantiqiy va tizimli shaklda berilishi; *Integratsiya* – ekologik mazmunni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish; *Amaliy yo‘naltirilganlik* – o‘quvchilarning real ekologik faoliyatga jalb etilishi [1; 5-b.].

Obodonlashtirish va ekologik dizayn faoliyati o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini, estetik didini va ekologik mas’uliyatini shakllantiradi. UNESCO va boshqa tadqiqotlar ekologik ta’limning amaliy va interfaol shaklda tashkil etilishi zarurligini ko‘rsatadi [4; 8-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: - pedagogik kuzatuv; - tajriba-sinov ishlari; - ilmiy adabiyotlar tahlili; - taqqoslash va statistik tahlil.

Tajriba 40 nafar maktabgacha yoshdagi o‘quvchilarda o‘tkazildi. O‘quvchilar ekologik taqvim, obodonlashtirish va ekologik dizayn faoliyatlarida guruh va individual mashg‘ulotlarda jalb qilindi.

Baholash mezonlari: 1. Ekologik bilim darajasi. 2. Amaliy ko‘nikmalar. 3. Estetik did va ijodiy tafakkur.

Ekologik taqvimni tashkil etish va pedagogik ahamiyati. Ekologik taqvim yil davomida ekologik sanalar va tadbirlarni tizimli rejalashtirish imkonini beradi. U quyidagi vazifalarni bajaradi: - ekologik ta’limni tizimli tashkil etish; - o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish; - tabiat hodisalarini muntazam kuzatish; - ekologik tadbirlarni rejalashtirish.

Misol tariqasida aks ettiriladigan sanalar: Butunjahon suv kuni; Yer kuni; Atrof-muhitni muhofaza qilish kuni; Daraxt ekish tadbirlari.

Tayyorlov bosqichi: ekologik sanalarni aniqlash, tadbirlar rejasini tuzish, o‘quvchilarni guruhlarga ajratish.

Amalga oshirish bosqichi: ekologik tadbirlarni tashkil etish, tabiatni kuzatish, ijodiy loyihalar yaratish.

Tahlil bosqichi: natijalarni baholash, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish, ekologik bilimlarni umumlashtirish.

Obodonlashtirish va ekologik dizayn faoliyati

Obodonlashtirish ishlari o‘quvchilarning ekologik va estetik tarbiyasini rivojlantiradi: - mehnat ko‘nikmalarini shakllantiradi; - tabiatga mehr uyg‘otadi; - jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Faoliyat tarkibi: daraxt va gul ekish, hududlarni tozalash, yashil hududlarni parvarish qilish.

Ekologik dizayn tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali muhitni estetik va ekologik jihatdan tashkil etishdir.

Elementlar: yashil hududlarni loyihalash, qayta ishlangan materiallardan foydalanish, tabiiy materiallar bilan bezash.

O‘quvchilar uchun foydasi: ijodiy tafakkur, estetik did va ekologik mas’uliyatni rivojlantirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Ekologik taqvim va dizayn faoliyatida samarali hisoblanadi: - loyiha asosida ta’lim; - interfaol metodlar; - STEAM texnologiyasi; - AKT vositalari.

Natijalar va muhokama. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki: - ekologik taqvim o‘quvchilarning ekologik bilimlarini oshirdi; - obodonlashtirish va ekologik dizayn faoliyatlari amaliy va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirdi; - integratsiyalashgan pedagogik model samaradorlikni sezilarli darajada oshirdi.

Ilmiy yangilik. Ekologik taqvim, obodonlashtirish va ekologik dizayn faoliyatini birlashtirgan *integratsiyalashgan pedagogik model* ishlab chiqildi. Bu model o‘quvchilarning ekologik madaniyati, estetik didi va amaliy ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi.

Amaliy ahamiyati. Natijalar ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda metodik qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Pedagoglar ekologik tadbirlarni tizimli rejalashtirish, obodonlashtirish va dizayn elementlarini o‘rgatish bo‘yicha yo‘riqnoma oladi.

Xulosa. Ekologik taqvimni tashkil etish, obodonlashtirish va ekologik dizayn yaratishga o‘rgatish ekologik ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu faoliyat o‘quvchilarda ekologik madaniyat, estetik did va tabiatga ongli munosabatni shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va STEAM yondashuvi jarayonni yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologik ta’lim konsepsiyasi, 2021.
3. Sterling S. Sustainable Education. London, 2016.
4. Подласий И.П. Педагогика. Москва, 2017.
5. Сластенин В.А. Педагогика. Москва, 2018.

ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ТРЕК ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Чаброва Татьяна Левановна,
